Positive Politeness: English positive politeness strategies focus on friendliness, empathy, and solidarity, using inclusive pronouns ("we," "us") and expressions of appreciation ("I appreciate it"). In Uzbek, positive politeness includes expressions of honor ("bahonalar," "tinchlik") and acknowledgment of social hierarchies.

Negative Politeness: Both cultures employ negative politeness to mitigate imposition and maintain rapport. English negative politeness involves hedging ("I'm sorry, but...") and indirect requests ("Could you possibly..."), while Uzbek negative politeness emphasizes deference ("Uzr, lekin...") and politeness markers ("iltimos"). [3:22]

IV. Cultural Contexts and Communication Styles

Cultural Contexts: English speech etiquette is influenced by Western individualism, egalitarianism, and diversity, leading to varied communication styles based on context (formal vs. informal, professional vs. personal). In contrast, Uzbek speech etiquette reflects collectivism, familial values, and respect for authority, shaping communication within hierarchical structures and communal settings.

Communication Styles: English communication tends to be more pragmatic, focusing on efficiency, clarity, and adaptability to diverse contexts. [4:78]

Uzbek communication values sincerity, emotional expressiveness, and relational harmony, emphasizing warmth and personal connections in interactions.

V. Challenges and Cross-Cultural Communication

Challenges: Cross-cultural communication between English and Uzbek speakers may encounter challenges related to differing speech norms, politeness conventions, and cultural expectations. Directness vs. indirectness, formality vs. informality, and hierarchical vs. egalitarian communication styles can lead to misunderstandings and misinterpretations.

Strategies for Effective Communication: To navigate cross-cultural communication effectively, awareness of cultural differences, sensitivity to speech etiquette norms, and willingness to adapt are crucial. Strategies such as active listening, clarifying intentions, and using culturally appropriate language can facilitate mutual understanding and respectful interactions. [5-56]

In conclusion, the national-cultural specifics of speech etiquette in English and Uzbek languages reflect rich tapestries of cultural values, linguistic nuances, and social norms. While both cultures emphasize politeness, respect, and face-saving strategies, the expressions and conventions vary significantly. Understanding these differences is key to fostering effective cross-cultural communication, bridging cultural divides, and promoting meaningful interactions in diverse global contexts.

REFERENCES

1. Anna Trosborg "Cross-Cultural Pragmatics", De Gruyter Mouton, 2010
2. Christina Bratt Paulston, Scott F. Kiesling, and Elizabeth S. Rangel "The Handbook of Intercultural Discourse and Communication", Blackwell Publishing Ltd, 2012
3. Claire J. Kramsch "Language and Culture", Oxford University Press, 1998
4. Farzad Sharifian "Culture and Language Use", Routledge, 2009
5. Geoffrey Leech "The Pragmatics of Politeness, Understanding Politeness", Oxford University Press, 1983

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ISTIQLOLGACHA BO'LGAN DAVRDA OT SO'Z TURKUMINING O'RGANILISHI

Alimova Sarvinoz

Annotatsiya. So'zlarni turkumlarga ajratish masalasi dunyo tilshunosligining yillar davomida dolzarbligini yo'qotmagan, barcha tillar grammatikasi uchun ustuvor bo'lgan holatda o'zining implisit va eksplisit yondashuvlar nuqtayi nazaridan amaliy va nazariy isbotini topgan. Ammo shu yondashuvlar orasida haligacha bir umumiylikning yo'qligi, mavjud qoida va tamoyillarning bir-biridan farqliligi hali-hanuz kuzatiladi. Jumladan, ot so'z turkumining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi o'z tarixiy taraqqiyotiga ega bo'lib, ko'plab tadqiqotlar hamda ilmiy izlanishlarni o'z ichiga oladi. Ot so'z turkumiga oid qaydlar ilk o'rta asrlar tilshunoslari tomonidan tadqiq qilina boshlanib, e'tiborli jihati ularning akasariyati o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Keyingi asrlarda tilshunoslik maydoniga yirik asarlar keladiki, ular butun O'rta Osiyo ahli uchun ustuvor manbalarga aylanadi. Rus tilshunoslari tomonidan mavzuyimiz doirasida yaratilgan qator darsliklar, ulardagi rus tilshunosligiga xos, ammo o'zbek tilshunosligiga qisman mos kelmaydigan qoida va tamoyillar bu sohada yirik tadqiqotlarning dunyoga kelishiga zamin yaratdi.

Kalit so'zlar: grammatika, lug'at, kelishiklar, son kategoriyasi, kompozitsiya, otlarning yasalishi, grammatik kategoriyalar, sintagmatika, paradigmatika.

Annotation. The question of categorization of words has not lost the relevance of World linguistics for years, having found its practical and theoretical proof in terms of the point of implicit and explicit approaches in the case of priority for the grammar of all languages. But among these approaches, it is still observed that there is still no commonality, the existing rules and principles differ from each other. In particular, the study of the noun phrase category in Uzbek linguistics has its own historical progress, which includes a lot of research and scientific research. Notes on the noun phrase series began to be researched by early medieval linguists, and the notable aspect was that their acacarity did not lose its importance. In the following centuries, large works come to the field of linguistics, which become priority resources for the people of all of Central Asia. A number of textbooks created by Russian linguists within the framework of our topic, the rules and principles inherent in Russian linguistics in them, but partially incompatible with Uzbek linguistics, laid the groundwork for the birth of major research in this area.

Keywords: grammar, dictionary, agreements, number Category, composition, making of nouns, grammatical categories, syntagmatics, paradigmatics.

O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimlaridan Abu Nasr Forobiy mantiq ilmiga oid sir-asrorlarni yoritir ekan, arab grammatikasi uchun ma'lum bo'lgan ism, fe'l va yuklama atamalarini shu fan nuqtayi nazaridan tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikriga ko'ra ismlar va fe'llar alohida mavjud bo'lmay, ular birgalikda qo'llanganidagina bir butun ma'no kelib chiqadi deb ta'kidlaydi. Ya'ni ism o'zi alohida olinganda fikr bildiruvchi o'zida hech qanday zamonga moslikni anglatmaydi. Masalan, hayvon, inson, Zayd kabi. Lekin Zayd yurmoqda yoki Zayd yuradi tarzida fe'llar bilan qo'llanganida gaplar shakllanadi va bir butun sifatida zamonda moslashgan hodisa sifatida namoyon bo'ladi (Аль-Фараби, 1975, С: 109-116).

Forobiy, shuningdek, "Fozil odamlar shahri" asarida jismlarning suvrati ya'ni ko'rinish xususiyatiga ega bo'lishlik nuqtayi nazaridan substantivatsiya, subyekt va modda nomlari haqida fikr bildiradiki, bunda biz aniq va mavhum otlar tushunchalariga oid qarashlarni ko'ramiz (Абу Наср Форобий, 1993. 223 б.)

Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yozilgan "Devonu lug'otit turk" (Махмуд Кошғарий, 1960, 85-б.) nafaqat lug'at, balki turkiy tillardagi ismlarning batafsil tavsifini o'z ichiga olgan qimmatli grammatik manba sifatida ot so'z turkumi haqidagi ma'lumolarni ham o'z ichiga olgan. "Devon"da tasvirlangan otlar bilan bog'liq asosiy grammatik jihatlar – son, jins, kelishiklar kategoriyalari hamda ushbu turkumdagi so'zlarning yasalishiga oid qaydlarni qoldiradi.

Garchi zamonaviy turkiy tillarda jins toifasi grammatik jihatdan zohirlanmagan bo'lsa-da, "Devon"da Mahmud Qoshg'ariy jinsni bildiruvchi ba'zi so'zlarni tasvirlaydi. Masalan, hayvonlar va odamlarda erkak va ayol jinsini ko'rsatuvchi uchun so'zlar turlicha, ya'ni *er* so'zi erkak ma'nosida, *og'ul* so'zi o'g'il farzand ma'nosida qo'llangan:

"Alg'il o'g'ut mendin, og'ul yordam tila,

Bojda ulug' bilga bo'lub, bilgin tila.

(O'g'il mendan nasihat ol, fazilat tila,

El-yurt orasida ulug' olim bo'l, ilmingni tarqat)

Shuningdek, *ulich* – sevimli farzand ma'nosida bolalarni sevish, erkalatish uchun ishlatiluvchi so'z, *ulichim* – esa o'g'ilcham ma'nosida qo'llangani aytiladi. Yosh qizlarga nisbatan qiz so'zidan tashqari *o'kach*, *anach* so'zlari ham qo'llanilib, o'z singlisidek tuyuluvchi yosh qiz ma'nosini anglatgan. *Uma* – so'zi esa tubut qabilasi tilida ona ma'nosida keladi. Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki turkiy tilning ilk shakllanish davrlarida ham kishilarning jinsiga qarab murojaat qilinishda ishlatiladigan otlar talaygina bo'lgan.

"Devon"da otlardagi son kategoriyasining ifodalanishi qisman yoritilgan. Jumladan, *er* – erkak so'zi ko'plikda *eran* shaklida ishlatilishi hamda bu holning kamdan-kam uchrashi va qoidaga xilofligini aytib o'tadi. Chunki ko'plik qo'shimchasi *-lar/-lār* tarzidadir, degan fikri bilan kifoyalanadi. Bunga sabab olim bu haqidagi

qarashlarini o'zining yana bir asarida keltirilganini o'zi ta'kidlab o'tadi: "Birlik, ko'plik, oshirish, chag'ishtirish, kichraytirish, kelishiklar masalasi va boshqalar ham zikr qilinmadi. Chunki biz bularni "Javohirun nahvi fi lug'atit turk" ("Turkiy tillarning lug'atiga oid gavharlar") ismli ayrim asarimizda berdik. Nahvga oid qoidalar u asardan qaralishi kerak". Bu asar esa bizgacha yetib kelmagan ma'lum.

Otlarning yasalishi xususida ularning tub va yasama bo'lishi, yasama otlar asosan fe'l oxiriga o'n ikki harfdan birini qo'shish bilan yasalishini keltirib o'tiladi. Masalan, olim, dono, aqlli ma'nolarida keluvchi *bilga* so'zi *bildi* fe'lga alif qo'shib, taom ma'nosidagi *uva* so'zi burdalatdi, uvadi ma'noli *uvadi* fe'lidan, kokil ma'nosidagi *kesma* so'zi esa kesdi fe'lidan yasalgani kabi misollar keltirib, har bir harf orqali yasalgan otlar sanab o'tiladi. Yana bu borada narsa-buyum otlari, qurol otlari, zamon va makon otlarining yasalishi misollar bilan yoritiladi. Muallifning otlarni guruhlashtirishga oid qarashlaridan uning turdoah va atoqli otlar haqidagi ma'lum qaydlarini ham anglash mumkin.

O'zbek adabiy tilining shakllanishida ulkan hissa qo'shgan mutafakkir Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" (Навоий, 1967, 3-ber) asarida uning morfologiyaga oid qarashlari ifodalangan. Asarda u o'sha davrda keng iste'molda bo'lgan, ijod ahli uchun ustuvor til sifatida ahamiyat kasb etgan forsiy tilni turkiy til bilan solishtirar ekan, bu tilning boy imkoniyatlarini, leksik-morfologik xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Ma'lumki, Navoiy yashab, ijod qilgan davr uchun muhimlik kasb etgan arab grammatikasi asosida so'z turkumlarini uchga – ismlar, fe'llar va harakat (yordamchi)larga ajratadi. Shu bilan birga u turkiy tilda mavjud 100 ta fe'lni hamda 100 ta ism (ot)larni tahlil qilgan holda o'z asarini yaratadi. Xususan, ot so'z turkumining leksik-semantik xususiyatlari hamda yasalishi borasida qaydlar qoldiriladi. Turkiy tildagi otlarning shakldoshlik xusiyatiga to'xtalib, tajnis va iyhom san'atlarini ifodalab go'zal baytlar yaratish mumkinligi ta'kidlanadi. Masalan, ot so'zining ism, hayvon, buyruq ma'nosidagi fe'l ma'nolarida kelishini bir tuyuq orqali ko'rsatib beradi:

"Chun pariyo hurdur oting, begim,
Sur'at ichra dev erur oting, begim,
Har xadangikim, ulus andin qochar,
Notavon jonim sari oting, begim."

Xuddi shun tarzda muallif it, sog'in, tuz, ko'k, ter va to'r so'zlarini ham ma'nolarini izohlab o'tadi. Asarda o'sha davrda qo'llangan qarindoshlik otlariga ham izoh berib o'tilgan. Agar forsiy tilida katta va kichik yoshdagi qarinoshlarning ikkalasiga nisbatan "*birodar*" deyishsa, turkiylar katta yoshdagilari uchun "*og'a*" va kichiklari uchun "*ini*" so'zlarini; katta va kichik yoshdagi qiz qarindoshlariga "*xoxar*" so'zi forsiylarda, turkiylarda yoshi kattalariga "*egachi*", kichiklariga "*singil*" so'zlarini ishlatilishini alohida solishtirib o'tadi.

Asarda yana kishi nomlaridan tashqari narsa-buyum nomlari, joy nomlari, inson va hayvonlarning tana a'zolariga alohida to'xtalib o'tiladi.

Otlarning yasalishi xususida -chi yasovchisining forsiy tilda yo'qligi, faqat turkiy tilga xosligi keltiriladi: "Yana bir adolari borki, ba'zi alfozning so'ngg'ida "-chi" ki, «chi» lafzidir, ortturlar, yo mansabning yo hunarning yo peshaning izhori uchun; forsiyda yo'qtur, balki alar ham turkcha ayturlar.

Mansabda andoqki, *qo'rchi*, va *suvchi* va *xizonachi* va *kerak-yarog'chi* va *chavgonchi* va *nayzachi* va *shukurchi* va *yurtchi* va *shilonchi* va *axtachi* yo'sunlug' ko'ptur".

Hozirgi o'zbek tilida -vul qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlar bilinar0-bilinmas holatga kelganligi ma'lum. Lekin bu qo'shimcha o'zbek tilidagi eng qadimiy ot yasovchi qo'shimchalar sirasidandir. Navoiy bu qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar xususida shunday fikr bildirib o'tadi: "Yana bir "vov" va "lom" ba'zi lafzga ilhoq qilib bir maxsus sifatqa tayin qilurki, salotinning xoh razm asbobi uchun va xoh bazm jihoti uchun mu'tabardur. Andoqki, *hirovul*, *qarovul* va *chingdovul* va *yankovul* va *so'zivil* va *patovul* va *kitpovul* va *yasovul* va *bakovul* va *shig'ovul* va *daqavul* kim, alar mundin ulviydurlar".

Bundan tashqari shaklan -vul affiksi bilan bog'liq -l affiksi bilan yasalgan otlar haqida gapirib, quyidagi misollarni keltirib o'tadi: *qaxol*, *yasol*, *qabol*, *tunqol*, *birqol*, *to'sqol* va *sevarg'ol* kabilar. Navoiy haqida A.Nurmonov ta'kidlab o'tganidek: "U garchi so'z yasaliş strukturasi bo'yicha fikr bildirmasa ham, lekin so'z yasashga asos, yasovchi vosita, va yasalma tushunchalari haqida ma'luotga ega bo'lgan".

O'zbek tilshunosligi taraqqiyotining keyingi davrlarida o'rta asrlarda hamda xonliklar hukronligida ham morfologiyaga oid qarashlar mavjud bo'lib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa bu soha rus tilshunoslari tomonidan o'rganilib, o'zbek tilini tez va oson o'rganish uchun qator qo'llanmalar yaratildi. M. A. Терентьев "Грамматика турецкая, персидская, киргизская (казахская) и узбекская" (1875); "Хрестоматия турецкая, персидская, киргизская и узбекская" (1876); И.А.Беляев "Руководства к изучению сартовского языка" (1906); В.А.Алексеев "Самоучитель сартовского языка" (1884); С.Лапин "Карманный русско-узбекский словарь с приложением краткой грамматики узбекского языка" (1895) (II нашри 1914); Л.Афанасьев "Словарь сартовских слов с главнейшими грамматическими правилами" (1908); И.Ягелло "Сартовский переводчик" (1908); И.Ягелло "Этимология сартовского языка для курсов при Ташкентском отделении общества востоковедов" (1910); Н.Будзинский "Грамматика сартовского языка и русско-сартовские разговоры" (1910) (Нурмонов А., 2002, 115-б.) kabilar shular jumlasidandir.

O'zbek ma'rifatparvarlarining yorqin namoyondalaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitrat tilimiz rivoji uchun salmog'li asarlar yozilishida yangi davrni boshlab berdi. Jumladan, morfologik birliklarga to'xtalib, ot so'z turkumi to'g'risida o'zi eslatgan narsaning nomini bildiruvchi so'zlar ot sifatida ta'riflanadi. Aniq va mavhum otlar borasida ma'nosi "ko'zga ko'rinarlik" hamda "ko'zga ko'rinmas" sifatidagi tasniflashlarni berib o'tadi.

Davr nuqtayi nazaridan otlarning aksariyati tubligini ozchiligi esa yasamaligini qayd etgan holda yasama otlarni uch guruhga ajratadi: o'rin , qurol va ish otlari kabi. Jumladan, o'rin otlari -loq handa -oq qo'shimchalari orqali yasalib, "bir narsaning o'rnini bildiruvchi so'z" sifatida keltiriladi.

Hozirgi kunga kelib tub otlar sifatida tushuniladigan ko'pgina otlar muallif tomonidan yasama otlar sifatida ko'rsatiladi. Qurol otlari sifatida ta'riflangan so'zlar sirasiga kiruvchi *pichoq, tayoq* so'zlari fikrimiz dalilidir. Bundan tashqari ushbu guruhga mansub otlarni -g'ich,-qich, -gich, -kich;-qi,-gi; -oq,-ak;-choq,-chak hamda -liq,-lik qo'shimchalari bilan yasalishini ta'kidlaydi.

Abdurauf Fitrat tomonidan tavsiflangan otlarning yasalish jihatidan uchinchi guruhi, ya'ni ish otlari hozirgi o'zbek adabiy tilida harakat nomi sifatida tavsiflanuvchi fe'lining vazifaviy shakliga to'g'ri keladi. "Yozdim" fe'lida bo'lgan ishning oti yozmoq, keldim fe'lidagi ishning oti kelmakdir"(Абдурауф Ф.,2006,145-146-бетлар). Ushbu guruhga mansub otlarning yana bir turi buyruq fe'llariga -(i)sh qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi: *bilish, yozish* kabi.

Ish otlari sifatida keltirilgan otlarni yasah uchun -im, -u(v),-nch,-qin/-g'in qo'shimchalari ham keltirilgan: *unim, ongllov, yozg'u, kelu(v), qo'rqunch, toshqin* kabi.

Subyektiv baho shakllarini olgan otlar Fitrat tomonidan "kichiklangan otlar" sifatida ta'riflangan va ularni hosil qilish uchun -cho/-cha,-gina/-g'ina,-gina/-kina qo'shimchalari ishlatilishi keltirilgan:*og'acho, kelicha,qizgina* kabi. -chiq, -choq, -chak, -loq kabi qo'shimchalar bilan yasalgan otlarning kam sonda mavjudligi ko'rsatib o'tilgan:*chaqaloq, qizaloq, qopchiq* kabi.

Kompozitsiya usulida yasalgan otlarning "Sarf" asarida ikki xil usul bilan yuzaga kelishi , jumladan "...ikki ot yoki bir sifat bilan bir ot qo'shilib bir narsaning oti bo'lganda qo'shma ot",deyilishi *oybolta, oqsoqol* kabi so'zlar bunga misol qilib ko'rsatilgan.

Ajratib yoziladigan qo'shma otlar tarkibidagi har bir so'z alohida ma'no anglatishi ta'kidlangan holda ularni ajratib yozish zarurligi qayd qilingan: *Maorif idorasi*.

Abdurauf Fitratning ot so'z turkumi bo'yicha fikrlari atroflicha bo'lib, uning yasalishidan tortib, ko'plik kategoriyasining ifodalanishigacha izohlangan, misollar bilan yoritilgan.

1925-yilda nashr qilingan "O'zbekcha til saboqlig'i" kitobida ham ot so'z turkumi haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Bu kitobning mualliflari 20-yillarning yetakchi tilshunoslari Munavvar Qori, Qayum Ramazon va Shorasul Zunnunlardir. Ular ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlarni dastlab ikki guruhga bo'ladilar: 1) atoqli otlar, 2) turdosh otlar(asarda ism atamasi bilan berilgan).

1934-yilda maktablar uchun chop etilgan "Grammatika" kitobida so'z turkumlariga semantik va morfologik tamoyillar asosida yondashuv ko'zga tashlanadi. kitobning mualliflari X.Qayumiy va S.Dolimov 7 ta so'z turkumini ajratib ko'rsatadilar: 1) ot, 2) sifat, 3) son. 4)olmosh, 5) fe'l, 6) yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, ravish), 7) undov va tovushga taqlidiy so'zlar.

Q.Ramazon va X. Qayumiyning 1937-yilda bosmadan chiqqan "Grammatika. Sarf" nomli darsligida esa "so'zlarning ma'nolari va gapdagi rollariga qarab asosiy guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deb ataladi (Eltazarov, 2021, 86-bet)", deb ta'kidlanadi va ular haqida ma'lumotlar beriladi.

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari, ularga xos paradigma va kategoriyalarni ilmiy asosda o'rganish XX asrning 40-yillariga kelib rivojlanib bordi. Bu borada qator ilmiy kuzatishlar e'lon qilindi. Xususan, otlardagi qator yasovchi qo'shimchalar hamda ko'plik kategoriyasini tahlil qilgan taniqli tilshunos Ayub G'ulomovning ishlarini ko'rib chiqsak. U o'zining "O суффиксе -даш в узбекском языке" nomli maqolasida -dosh affiksini kelib chiqishidan tortib, o'zbek tilida so'z turkumlarini differentsiatsiyasi, jumladan ot va fe'l so'z turkmlaridagi va ularni yasovchi affikslardagi shakldoshlikka oid qarashlarini ifodalaydi.

"К некоторым вопросам аффиксации в узбекском языке" maqolasida esa olim o'zining o'zbek tili affiksatsiyasiga oid qaydlarini keltirib o'tadi. Bu asarda o'sha davr uchun bu borada muhim manba sifatida Zokir Ma'rufovning "Словообразующие суффиксы имен существительных в узбекском литературном языке"(Toshkent, 1941) ishini ham ko'rsatib o'tadi. Ot yasovchi qo'shimchalardan -a, -oq, -qin, -choq, -chiq, -chi kabilarning kelib chiqishi misollar bilan dalillanadi. Ko'plik qo'shimchasi ba'zi manbalarda so'z yasovchi qo'shimcha sifatida ko'rsatilgan bir davrda olim bu bahs borasida o'z qarashlarini ham bildirib o'tadi: "Otlarning ko'plik qo'shimchasi yangi so'z, asos hosil qilmaydi, uni shartli ravishda so'z o'zgartiruvchi affiks deb hisoblash mumkin". Demak, zamon nuqtayi nazaridan ko'plik kategoriyasi haqida yetarlicha asoslar mavjud bo'lmagan holda A.G'ulomovning keying yirik tadqiqotlari uchun zamin yaratilgan, deyish mumkin.

"Словообразование путем внутренних изменений слова в узбекском языке" maqolasida juft va takroriy otlarning yasalishi misollar bilan tushuntirib berilganligi ahamiyatli bo'lib, juda ko'p so'zlarning tarixiy kelib chiqishi ham tahlil ostiga olingan. "Об аффиксе -лик в узбекском языке" maqolasi ot yasovchi unumdor -lik affiksi haqida batafsil ma'lumotlar bilan boyutilgan.

Otlarga xos muhim grammatik kategoriya kelishiklar xususida "O'zbek tilida kelishiklar" (1941) monografiyasi hali hanuz o'z muhimligini yo'qotgan emas. Ishda "Kelishiklar formalarni o'zgartirishgina emas, u hammadan burun ma'no hodisasidir. Otlarning nutq ichida turli tus olishi ma'noga qarab, shuning talabi bilan bo'ladi. Kelishiklar otning gapdagi rolini ko'rsatadi.

Kelishik qo'shimchalari asosan otlarga qo'shilib keladi, biroq ot vazifasida kelgan so'zlar ham kelishik bilan turlana oladilar, bunday chog'da ular ot hukmida bo'ladilar", deya aytib o'tiladi.

Ushbu monografiyada o'zbek tilidagi kelishiklar soni 7 ta deb ko'rsatiladi:

1.Bosh keishik

2. Undash kelishigi
3. Qaratqich kelishigi
4. Tushum kelishigi
5. Jo‘nalish kelishigi
6. O‘rin-payt kelishigi
7. Chiqish kelishigi

“Hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanmaydigan undash kelishigi (vocativus) gap bo‘laklaridan ayrim bo‘lgan so‘zlarni ifoda etadi. Uning bu ayrimligi, mustaqilligi ma‘no jihatidan, bir qadar sezilgani kabi, tovush va boshqa xususiyatlari jihatidan ham bilinadi: shu bo‘lak 1) ayrim pauza bilan ajralib turadi; 2) o‘zida intonatsion tugallikning elementlarini saqlaydi. Masalan: Salima-yu! Opam chaqirayaptilar. Bunday “Salima-yu” intonatsiyasi bilan xarakterlanganidek, shu kelishikka xos bo‘lgan belgilarga ham egadir”. Demak, olimning fikriga ko‘ra gapda undalma vazifasida kelgan so‘zlar undash kelishigida turgan hisoblanadi. Bu kelishik bosh kelishigidan o‘zi aytilayotgan intonatsiya, gapdagi o‘rni bilan ajralib turar ekan.

Tadqiqot ishida, shuningdek, barcha kelishiklar tarixiy kelib chiqishidan tortib, grammatik ifodalanishlariga oid muhim qaydlar, kuzatishlar berilgan.

A.G‘ulomovning yana bir monografiyasi yuqorida ta’kidlanganidek, “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi” (1944) bo‘lib, ko‘p yillik kuzatishlar zahirida yaralgan bo‘lib, bugunga qadar o‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasining ifodalanishiga oid muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotda o‘zbek tilida ko‘plik shaklining ifodalanishi quyidagi ko‘rinishlarga egaligi ko‘rsatiladi:

1. Morfologik ifodalanish.
2. Leksik ifodalanish.
3. Sintaktik ifodalanish.

Birinchi tur ot va fe‘l guruhidagi so‘zlarda ishlatiladigan ayrim qo‘shimchalardan iborat (*bolalar, aytingiz, aytdik, aytdilar...*). Ikkinchi tur jamlilik bildiruvchi so‘zlardan iborat (el, qo‘shin, poda...). Bularning jamlovchi sanalishi mazmunanginadir, ular ko‘plikning grammatik ko‘rsatkichga ega emasdir. Uchinchi tur miqdor bildiruvchi so‘zlarning ot bilan aniqlovchilik aloqasiga kirishuvi yo boshqa turli so‘zlarning takrorlanib, o‘shanday aloqaga kirishuvidan tug‘ilgan birikmalardir (dasta-dasta gul, baland-baland tog‘lar). Sifatning takrori ham aniqlanmish ot orqali ifodalangan predmetning soni bilan bog‘langan.

-lar qo‘shimchasi otlarda ko‘plik kategoriyasining yagona belgisi sifatida ta’riflangan holda uning qo‘lanishidagi barcha leksik-semantik, grammatik hamda stilistik jihatlari “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi”ning 9 qismida batafsil izohlanadi. Xususan, otlarning ko‘plik shakli olishi bilan bog‘liq ma’nolari o‘z ichida bo‘linishlarga ega 13 xil ma’noviy bandlar bilan tahlil qilib beriladi. Bu monografiya haqida “Ishda ko‘plik tushunchasining mohiyati, ko‘plikning ifodalanish usullari, ko‘plik qo‘shimchasi vositasida yuzaga chiquvchi ma’nolar, arab va fors tilidan o‘zlashgan ko‘plik ko‘rsatkichlarining o‘zbek tilidagi o‘rni, sondagi moslashuv va shu kabi ko‘plab masalalar ilmiy yoritilgan” deya ta’kidlashadi R.Sayfullayeva va M.Jo‘raboyevlar “Maktab yaratgan tilshunos” maqolasida.

XX asrning 50-yillariga qadar yaratilgan ko‘plab ilmiy nashrlarda grammatika atamasi ostida uning morfologiya va sintaksis bo‘limlari “Sarf” va “Nahv” sirasida o‘rganilishi yoki o‘z nomlari bilan atalgan holda faqat darslik yoxud qo‘llanma shaklida bo‘lganligi ma’lum. 1957-yilda o‘zbek tili grammatikasi borasidagi barcha xulosalar, ilmiy qaydlar avvaliga broshyura sifatida o‘sha davrda A.S.Pushkin nomida bo‘lgan Til va adabiyot instituti tomonidan e‘lon qilinib, tanqidiy fikrlash asosida tilshunos mutaxassislar, oliy o‘quv yurti o‘qituvchilari tomonidan ko‘rib chiqilib, qisqartirilgan yoki kengaytirilgan holatda Faxri Kamol tahriri ostida “Hozirgi zamon o‘zbek tili” nomi bilan nashr etildi. Bu qo‘llanmada otlarning ma’nosi, grammatik xususiyatlari to‘g‘risida, otlarning yasalishi va ot yasovchi affiksalar, otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari, qisqartma ot(abbreviatura)larga bag‘ishlangan bo‘limlar mavjud bo‘lib, har biri qo‘llanilishiga doir misollar bilan boyitilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan mavjud kamchiliklari ham shu bo‘lganki, berilgan misollarning aksariyati Sovet ittifoqi hukmronligi doirasida qo‘llanilgan so‘zlar (колхоз, клуб, Октябрь kabi)dan tashkil topgan. Ba’zi bir o‘rinlarda rus tilidagi so‘zlar namuna sifatida ko‘rsatilgan (библиотеканинг китоби, электрсушилка kabi). -ist, -tor, -ant, -ent, -ik, -ioner kabi affikslarning shaxs oti yasovchilar sifatida ko‘rsatilar ekan, bugunga kelib bu so‘zlarning muqobilini ko‘rsatish mumkin. Bular singari juz’iy kamchiliklar, albatta, o‘sha davr siyosiy boshqaruvi natijasida yuzaga kelganligi ma’lum. Bu asar o‘zbek morfologiyasidagi tamoyillarni izohlashda tub burilish yasagan asarlardan bo‘lgan, deyishimiz mumkin. Chunki “qayd etish lozimki, bunga qadar tilshunosligimizda tamoyillarning mohiyati yoritib berilmagan edi”.

Rus turkolog olimi A.N.Kononov 1960-yilda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasi” ilmiy asarini yaratilishi sohamiz doirasida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, otlardagi son, egalik kategoriyalari; kelishik va ko‘makchilarning qo‘llanilishi; shaxs yoki narsani ifodalashi; aniq yoki noaniqlikni bildirishi; atoqli va turdosh turalarga bo‘linishi qatorida o‘zining so‘z yasash tizimiga ega ekanligi alohida ta’kidlangan. Ahamiyatlisi, o‘zbek tilida rod tushunchasining qo‘llanishi qanday namoyon bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan. “Ko‘pgina hind-yevropa tillariga xos bo‘lgan grammatik jins toifasi turkiy tillar oilasidagi tillarda mavjud emas, shuning uchun gap bu yerda odamlar va hayvonlarning ba’zi nomlarini ko‘rsatishdagina uchraydigan biologik jinsni ifodalash yo‘llari haqida borishi mumkin”, deydi tadqiqotchi va leksik, sintaktik, morfologik hamda fonetik usullar bilan rod kategoriyasining yuzaga chiqishini izohlaydi. Aynan grammatik jins kategoriyasining mavjud emasligidan otlarning jonli yoki jonsizligi na ularning rodlarda qo‘llanilishidan, na shaxs-sonda qo‘llanilishidan anglab olinishi mumkin. Faqat shaxs

otlariga kim hamda narsa-buyum otlariga nima so'roq olmoshlarini ishlatish orqali ularni farqlash mumkin (Кононов,1960, с.74).

"Hozirgi zamon o'zbsk tili. Fonetika, Grafika,Orfografiya, Orfoepiya, Leksikologiya, Morfologiya" kitobi yaratilgandan so'ng o'zbek tili morfologiyasiga doir yangi tadqiqotlarni e'tiborga olgan holda ikki jildli "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (T., "Fan", 1966), "O'zbek tili grammatikasi", I tom, Morfologiya (T., "Fan" 1975), II tom, Sintaksis (T., 1976) asarlarining maydonga kelishi esa, o'zbek tili grammatikasining takomillashuvida katta rol o'ynadi. Jumladan, "O'zbek tili grammatikasi"da so'z yasalishining alohida bo'lim sifatida berilishi hamda konversiya hodisasining alohida bo'limda tushuntirib berilishi tilshunoslikda katta ahamiyatli bu mavzularning borasida ochiq turgan ko'p savollarga javob berilishiga zamin yaratgan. Asarda grammatik ma'no hamda shakl mutanosibliyi izohlanar ekan, ular bir butunlikda grammatik kategoriyani hosil qilishi bayon qilingan. Bunda otlardagi ko'plik ularning birlik shakliga zid holatda bo'lib, bu qarama-qarshilik son kategoriyasini tashkil qilishi, kelishik kategoriyasi esa kelishik shakllarining yig'indisidan iborat bo'lishi nazarda tutilgan. Bu asar haqida tilshunos A.Nurmonov "Xususan, otlarda son, egalik kategoriyasining ifodalanishi shu darajada mukammal, shu darajada o'zbek tili materiallariga asoslanib, o'ziga xos tomonlarini chuqur yoritib berildiki, u turkologiya fanida ot turkumiga bag'ishlangan eng sara asar bo'lib qoldi", deb e'tirof etganidek, haqiqatda tilimizning rus tilshunosligi doirasida o'rganilishidan tub uzoqlashish bo'lganligi seziladi.

1975-yilda yana bir tilshunos olim R.Qo'ng'urov tomonidan o'zbek tili uslubshunosligiga oid "O'zbek tili stilistikasidan ocherklar" monografiyasi e'lon qilindi. Bu monografiya doirasida "Ot formalarining stilistik xususiyatlari" qismida otlardagi ko'plik va egalik shakllarining uslubiy jihatlari tadqiqot ostiga olindi. Olimning fikricha "Otlarning ko'plik qo'shimchasi **-larni** ola olish ola olmasligi, bu affiksni olgan so'zlarning ma'no nozikligi, egalik, tegishlilik tushunchasining qabatlanishi, kelishik qo'shimchalarining otlarda saqlanishi yoki tushib qolishi, bu kategoriyalarning uyushiq bo'lakli gaplarda uning bo'laklariga munosabati bilan ma'no nozikliklarini aniqlash grammatika bilan birga stilistikaning ham vazifasidir". O'sha davrning dolzarb muammolaridan biri sifatida yuzaga chiqqan grammatik kategoriyalarning uslubiy taraflarini ochib berish muammosi aynan R.Qo'ng'urov tomonidan amalga oshirildi. Shuningdek, "Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari" (1980) monografiyasida ot so'z turkumidagi so'zlarga qo'shiluvchi kichraytirish hamda erkalash shakllari haqida ham batafsil to'xtalib o'tilgan.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning 1975-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili", mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan va 1980-yilda chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kabi oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida chop qilingan nashrlarda ham so'z turkumlari, ularning mohiyati, turlari xususida qimmatli ma'lumotlar bayon qilingan. Keyingi keltirilgan asarda Otlar quyidagi semantik xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi:

1. Bir turdagi predmetlardan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra.
2. Kim yoki nima so'zlariga bo'lgan munosabatiga ko'ra.
3. Sanalish yoki sanalmasligiga ko'ra.

So'z yasalishi sohasida yirik tadqiqotlardan biri hisoblangan "Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi" qo'llanmasi 1979-yilda A.Hojiyev tomonidan yozilgan bo'lib, unda tilimizdagi so'z turkumlarning yasalishi, xususan, ot so'z turkumidagi so'zlarning sintetik, kategorial va nokategorial shakllari tahlil qilingan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ko'p sohalar singari o'zbek tilshunosligi ham qator yutuqlarni ko'rsata boshladi. Sohamiz taraqqiyoti yanada rivojlanib, bu borada ko'plab asarlar yaratildi.

ADABIYOTLAR:

1. Аль-Фараби(1975). Логические трактаты, философия. Наука.Алма-Ата.
2. Абу Наср Форобий (1993).Фозил одамлар шахри.Танланган асарлар.Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент.
3. Абдурауф Фитрат. (2006) Танланган асарлар. Ж.IV.Маънавият. Тошкент.
4. Нурмонов А. (2002).Ўзбек тилшунослиги тарихи. Ўзбекистон. Тошкент.
5. Eltazarov J.(2021). O'zbek va jahon tilshunosligida so'z turkumlarining o'rganilish tarixidan(monografiya). Ipak yo'li xalqaro turizm universiteti.Samarqand.
6. Кононов А. (1960).Грамматика современного узбекского литературного языка. Наука Москва.

LEARNING ENGLISH IN THE SECONDARY SCHOOL

¹Aminjonova Zarina Alisherovna, ²Sayfullayev Xurshid Jamolxonovich

¹3rd year student of Urgut branch of Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

² Senior teacher of Urgut branch of Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

e-mail:sayfullayevxurshid88@gmail.com

Abstract: English has emerged as a global language that plays a significant role in communication, business, and education worldwide. This article explores the importance of learning English in secondary schools, analyzing its benefits for students' future academic and career prospects. Additionally, it addresses the challenges students may encounter and how schools can better prepare students for mastering the language. The article

concludes by discussing potential improvements in teaching strategies that can enhance students' English proficiency.

Keywords: *English as a Second Language (ESL), secondary education, English learning, language acquisition, teaching methods*

Introduction: The Importance of Learning English in Secondary School

In today's globalized world, learning English has become more crucial than ever. Secondary school is a critical stage in a student's academic journey, and introducing English at this level can provide students with essential skills that will benefit them in the future. English is not only an international language but also the primary means of communication in many areas such as business, science, and technology.

One of the key benefits of learning English in secondary school is the ability to connect with people from different cultures and countries. As students develop their language skills, they are exposed to diverse cultures, which broadens their perspectives and understanding of the world. English proficiency allows students to access a vast amount of information, including online resources, books, and academic papers, helping them expand their knowledge beyond what is available in their native language.

In addition, learning English at an early stage helps students improve their cognitive abilities. English serves as the primary medium for communication across different cultures and countries. As a result, learning English in secondary schools has become essential for students who aim to succeed academically and professionally. English is not only a subject but a tool that connects individuals, provides access to knowledge, and facilitates international collaborations. For many students in non-English-speaking countries, secondary school is the stage where they begin to seriously engage with English, setting the foundation for future academic achievements.

Why is English Important in Secondary Education?

Secondary school plays a pivotal role in shaping students' language abilities. English, often considered the lingua franca, opens doors to diverse opportunities. Research from the *University of Cambridge* (2020) shows that students proficient in English tend to perform better in higher education and have better job prospects, as many leading universities and companies require a strong command of the language.

Benefits of Learning English in Secondary Schools:

- ❖ **Access to Information:** English gives students access to a wealth of knowledge, from academic papers to international news. Most educational resources, including research and digital content, are available in English.
- ❖ **Global Opportunities:** English proficiency can help students participate in exchange programs, international competitions, and conferences that can shape their future careers.
- ❖ **Enhances Cognitive Skills:** Learning a second language, such as English, can improve cognitive abilities like problem-solving, critical thinking, and multitasking. According to a study by the *University of Edinburgh* (2018), bilingual students often demonstrate better memory retention and mental flexibility.
- ❖ **Career Advantages:** Many multinational corporations require English proficiency. Students who learn English in secondary school gain a competitive edge in the job market, whether they pursue careers in business, science, or technology.
- ❖ **Cultural Understanding:** Learning English also means learning about diverse cultures, literature, and histories. This fosters a sense of global citizenship and encourages empathy and open-mindedness.

Challenges Faced by Students in Learning English:

Despite its benefits, learning English in secondary schools presents challenges for both students and educators. These challenges must be acknowledged to improve language education and ensure students develop strong English skills.

1. **Limited Exposure:** In many non-English-speaking countries, students may not have enough exposure to the language outside the classroom. As a result, they struggle to practice and reinforce what they learn.
2. **Lack of Motivation:** For some students, English may feel irrelevant if they don't see its immediate application in their daily lives. This lack of motivation can hinder their progress.
3. **Teaching Methods:** Traditional teaching methods that focus on rote learning and grammar drills might not fully engage students or develop their communication skills. Modern language learning approaches emphasize speaking, listening, and interaction, which may be missing in many curriculums.
4. **Resources and Technology:** Not all schools have access to modern teaching aids, such as language labs, computers, and English learning apps. These resources can significantly enhance language learning, but they are often lacking in underfunded schools.

Some additional methods used in secondary schools to make English learning engaging and effective:

1. **Total Physical Response (TPR):** This method combines language learning with physical movement. Teachers give instructions like "stand up," "jump," or "turn around," and students respond with actions. It's a great way to learn vocabulary, especially for beginners, because it connects words to physical actions.
2. **The Audio-Lingual Method (ALM):** This focuses on repetition and drilling. Teachers use dialogues and patterns that students repeat and memorize. While it sounds old-fashioned, it's useful for mastering pronunciation and grammar through habit.
3. **Project-Based Learning (PBL):** Students work on projects over an extended period. For example, they might create a short video, write a blog, or put on a mini-drama. They use English in a meaningful, real-world context, which makes it more fun and memorable.

4. Peer Teaching: Sometimes students can learn best from each other. In this method, students work in pairs or small groups, where one student explains something to the other. It helps reinforce their own understanding and boosts confidence.

5. Storytelling and Role-Playing: These activities allow students to create their own stories or take on roles in different scenarios (like being a tourist asking for directions). This encourages them to use English creatively and helps improve speaking and listening skills in a relaxed environment.

Conclusion: Learning English in secondary school is crucial for students' future academic, professional, and personal development. While challenges exist, such as limited exposure and traditional teaching methods, modern approaches to language teaching can significantly enhance students' abilities. Schools must focus on creating a curriculum that balances grammar, vocabulary, and real-life communication skills. By investing in resources and providing motivating learning environments, schools can ensure that students leave secondary school with a solid command of the English language.

REFERENCES

1. Cambridge University (2020). The Role of English in Global Education. Cambridge University Press.
2. University of Edinburgh (2018). Bilingualism and Cognitive Development: How Learning a Second Language Impacts Mental Abilities. *Journal of Educational Psychology*, 65(4), 231-245.
3. Krashen, S. D. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. Longman Publishing Group.
4. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). *How Languages Are Learned*. Oxford University Press.
5. British Council (2019). *English as a Global Language: Trends in Language Learning*. London: British Council.



THE DISTINCTIVE CHARACTERISTICS OF HYPERBOLE, MEIOSIS AND LITOTES AS A LINGUOSTYLISTIC ASPECT

Azimova Muhayyo Pulatjonovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: muhayyoazimova22@gmail.com

Tel: 970076037

Annotatsiya: *Ushbu maqolada giperbola, meyozis va litotalarning o'ziga xos jihatlari lingvostilistik aspekt sifatida tildagi ahamiyatiga tavsiflar beriladi. Ingliz va o'zbek tillarida ushbu stilistik vositalarning izomorfik va allomorfik jihatlari keltirib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *giperbola, meyozis, litota, lingvostilistika, bo'rttirish, nutq figurasi, izomorfik, allomorfik.*

Hyperbole, meiosis, and litotes are all figures of speech commonly used in literature and rhetoric to create an impact or emphasize a point. While they serve similar purposes, each technique has its own distinct characteristics that set them apart.

Hyperbole is a figure of speech that involves the use of exaggeration to make a point. It is a deliberate overstatement or exaggeration used for emphasis or effect. For example, saying "I've told you a million times" when you've only mentioned something a few times is a hyperbolic statement. Hyperbole is meant to be extravagant and not taken literally. In everyday life, hyperbole is often used informally in spoken and written language. It allows speakers and writers to emphasize their opinions, emotions, or experiences by enlarging the meaning of their words beyond their literal definition.[1]

However, it's worth noting that hyperbole should be used with care, as excessive use may lead to a lack of credibility or misinterpretation.

Here are a few examples of hyperbole:

- "I've told you a million times not to exaggerate." ko'z yoshlari dengizi
- "I'm so hungry, I could eat a horse." "chaqmoq kabi tez"
- "This bag weighs a ton.", "Biz bir-birimizni yuz yildan beri ko'rmadik!"

For example, if a person says, "I'm so hungry I could eat a horse," someone unfamiliar with the idiom might think that the individual is genuinely capable of consuming an entire horse. This could lead to confusion and misinterpretation of the intended message.

Meiosis, on the other hand, is a figure of speech that involves understatement or belittling something in order to emphasize its importance. It is the opposite of hyperbole. Meiosis involves downplaying the significance of something to create a contrast or draw attention to its true importance. For instance, describing a catastrophic event as "just a minor setback" is an example of meiosis. The purpose of meiosis is to highlight the true impact or magnitude of a situation by minimizing it initially.[2]

In the field of stylistics, meiosis is a rhetorical device used to diminish the importance of something by referring to it in a way that makes it seem less significant than it actually is. Meiosis involves understatement or downplaying the significance of a subject or idea for rhetorical effect. It can be used to create irony, humor, or emphasis through the strategic use of language. Key Characteristics of Meiosis in Stylistics:

1. **Understatement:** Meiosis involves deliberate understatement to make an idea or object seem less important, impactful, or significant than it actually is.

2. **Emphasis through Subtlety:** By subtly diminishing the importance of something, meiosis can draw attention to it in a way that creates emphasis or contrast.
3. **Irony and Humor:** Meiosis can be employed to create irony or humor by presenting a situation or idea in a way that contradicts its true value or significance.
4. **Rhetorical Effect:** This stylistic device is intended to engage readers or listeners by prompting them to consider the implicit meanings and associations embedded in the language used.
5. **Contextual Usage:** Meiosis is often context-dependent and relies on the audience's understanding of the subject matter to appreciate the intended effect of the understatement.

Litotes is a figure of speech that involves the use of double negatives or understatement to express an affirmative idea. It is a form of meiosis that uses negative wording to ironically convey a positive sentiment. For example, saying "It's not too bad" to mean "It's good" is an example of litotes. Litotes often create a nuanced, subtle effect that leaves room for interpretation and adds depth to the statement.[3]

The characteristics or aspects related to litotes that can be considered isomorphic:

1. **Understatement:** Litotes involves using negative language to downplay the intensity or significance of a statement, often to emphasize the point subtly. The primary isomorphic feature of litotes is understatement itself. By using double negatives or negations to express a positive sentiment indirectly, litotes adds layers of meaning and subtlety to the statement.
2. **Emphasis through Negation:** Litotes often serves to emphasize a point by negating its opposite. This can create a sense of sophistication or nuance in communication, where the speaker downplays a statement to highlight its significance.
3. **Nuanced Communication:** The use of litotes can lead to nuanced communication, where the true meaning is subtly implied rather than stated explicitly. This can engage the audience or reader by requiring them to infer the intended message.

Litotes functions as a rhetorical device that adds complexity and depth to language. It can be used for various effects, such as humor, irony, or to soften a potentially harsh statement. By employing litotes, speakers or writers can showcase their creativity and mastery of language. It allows for a more sophisticated and elegant way of conveying ideas or emotions. Litotes can be an effective tool for adding nuance, subtlety, and complexity to language, engaging the audience through its indirect, thought-provoking nature. Litotes is frequently used in everyday language, literature, poetry, speeches, and advertising to achieve a particular effect or tone.[4]

- "Not bad" to mean good

- "She's not the friendliest person" to signify she's unfriendly

Examples of Litotes in Literature:

- Charles Dickens' famous line, "It's not the worst weather," to describe a dreadful storm in David Copperfield.

- Shakespeare's "Nor are we the weakest player" in Twelfth Night to imply strength.

Table 1.

Hyperbole	Meiosis	Litotes
"I had to get up to go to the bathroom so bad it was like physically painful." From The Catcher in the Rye:	She wore a pink hat, the size of a button. (J. Reed)	He was so tall that I was not sure he had a face. (O. Henry)
"The waves rolled by like mountains." From Moby Dick:	There is so much going on that they do not have time to grow old. (Sh. Anderson)	I shan't be sorry when it's over

In summary, hyperbole, meiosis, and litotes are all rhetorical devices used to add depth and emphasis to language. While hyperbole uses exaggeration, meiosis involves understatement, and litotes play with double negatives to convey meaning. Each technique has its own unique way of influencing the reader or listener, making them powerful tools in the hands of skilled communicators.

REFERENCES

1. Arnold I.V. Stylistics. Modern English. Textbook for universities / 10th edition M.: Flint: Nauka, 2010, - 384 p.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.- М.: СЭ, 1969. 608с
3. Усаров И.К. Проблемы общей стилистики сложных предложений, АКД. Ташкент, 2004.
4. Galperin I.R. Essays on the stylistics of the English language. M., 1958. - 459 p.

DIFFERENT ASPECTS OF THE "STEPMOTHER" CONCEPT IN ENGLISH AND UZBEK FOLK-TALES

Bakhromova Marjona Sanjarovna

Student of Urgut branch Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

Abstract: *In this article, we have discussed the different aspects of the concept of "stepmother" in English and Uzbek folk tales today, as well as modern methods of developing such qualities. The cross-analysis of English and Uzbek fairy tales allows to determine how language units related to the perception and verbalization of fairy tales of different ethnic groups are formed in the human mind in the linguistic landscape of the world. Due to the fact that the content of the concept of "stepmother" is a human phenomenon with its own characteristics, the conceptual analysis of its content in the framework of linguistic and cultural studies using fairy tales is effective in identifying not only similarities, but also differences between cultures.*

Key words. *English and Uzbek fairy tales, cross-sectional analysis, linguistic and cultural studies, education, upbringing, human phenomenon.*

Cross-analysis of English and Uzbek fairy tales allows to determine how language units related to the perception and verbalization of fairy tales of different ethnic groups are formed in the human mind in the linguistic landscape of the world. Due to the fact that the content of the concept of "stepmother" is a human phenomenon with its own characteristics, the conceptual analysis of its content in the framework of linguistic and cultural studies using fairy tales is effective in identifying not only the similarities, but also the differences between cultures.

The analysis of the data obtained in the process of working with the texts of Uzbek folk tales showed that there are differences in the descriptions of positive and negative characters, for example, the differences between positive and negative characters are manifested in the clear predominance of external or internal characters. Personal qualities are important for such characters as diligence, honesty, patriotism, courage, and this situation is considered a characteristic of the fairy tales of both nations. An analysis of the texts of English folktales showed that, in general, the characters of the king, the old man, the old woman, and the stepdaughter are positive; negative images include the giant, the stepmother, the stepmother's own daughter. The difference in characteristics is reflected in the depiction of characters such as princesses and witches. In the description of her appearance, characters such as the beauty of the princess, the diligence of the stepdaughter, and the evil of the dragon dominate. According to experimental studies, Uzbek speakers more accurately classify characters as positive and negative, distinguish characters into positive and negative, or "good" and "bad".

Differences in Uzbek and English fairy tales are mainly observed in personal qualities rather than external signs. If it was observed that in English there is an equal number of similarities between external and internal features (for example, when comparing the characters of old man and stepdaughter, the number of external and internal features is the same; between the characters of witch and widow, no similar features were found), In the minds of Uzbek speakers, the positive images of Uzbek folk tales are first of all equated with youth, beauty and intelligence, and the negative ones with old age and external unattractiveness. However, this word is only partially true when applied to the characters of English folktales: negative characters are associated with an abominable appearance; in terms of personal qualities, the characters whose appearance is described as attractive are vaguely characterized, which, accordingly, does not allow to distinguish the core internal characteristics, this situation proves this idea: a positive character with physical attractiveness (queen), a negative sign (stepmother) - with a disgusting appearance; however, the negative character (stepmother) can also be described as outwardly beautiful. At this point, it is possible to cite as an example that the stepmother in the English folk tale "Snow-white" - "Oppog'oy" is described as the most beautiful in the world. In describing the character, common to the two linguistic cultures, the stepmother is a characteristic that defines the appearance of the character; In Uzbek and English, this feature belongs to the core of the concept.

When describing the character, the stepmother corresponds to the symbol of evil, which describes the universal character characteristic of the hero in both languages - wicked and evil, the representatives of both languages perceive the character of the stepmother in the fairy tale as negative, but this is the opposite of evil has different appearance. In English and Uzbek folk tales about the stepmother, there are different ways to get rid of the stepdaughter. If Zumrad's stepmother orders the old man to abandon her daughter in the forest, Cinderella's stepmother, the queen, will try to kill her by magic. In Uzbek folk tales, stepmothers are depicted as old women, extremely scary in appearance, "snow fell from her forehead", quarrelsome, greedy, merciless, while the stepmother in English folk tales she also insists on being "unique in beauty": "very proud and self-confident, unable to imagine that someone could be more beautiful than her", "jealousy and pride it started to grow in his heart like a weed so fast and high that he could not find pleasure either night or day"¹. In tales of wicked stepmothers, the conflict between stepmother and stepdaughter runs so deep that almost all of the tales involve the stepdaughter's death. "Stepmother" fairy tales in English are different from Uzbek fairy tales in that almost all of them end with a wedding ceremony: Their wedding was planned with great splendor and majesty (Snow white); Then, dressed in splendor, she was taken to the prince. He thought she was more beautiful than ever and married her a few days later (Cinderella), besides which we can see an open statement of love: The prince said joyfully, "You are with me." "I love you more than anything else in the world. Come with me to my father's castle. You shall become my wife." (Snow white). Such

characteristics were not found in Uzbek fairy tales of the "Stepmother" series. The sign of evil refers to the basic meaning of this concept in English and Uzbek; the character of the stepmother is described as negative in both bilingual cultures. Based on the cross-observation of Uzbek and English folk tales, it can be concluded that in Uzbek linguistic culture, the image is less negative, and in English fairy tales, the character of the stepmother is more visible, but she is always in relation to her stepdaughter cruel.

Nevertheless, the symptom of evil can be distinguished as a universal personality trait of the stepmother's character. In addition, another distinguishing feature of the two linguistics is the age of the character: in Uzbek folktales, it is an old feature to show that the stepmother is old, but in English tales she can be young; but in both cases it belongs to the core of the concept. The transition of the plot of fairy tales about the stepmother from the primitive text form to the feminine texts of the noble nobility led to the appearance of black forces such as sorcery and witchcraft in these fairy tales, so witchcraft is considered a universal feature of the stepmother character.

Beneath the spell is always the motive of envying the stepdaughter's youth and beauty. Nevertheless, there are many differences between the negative characters of English and Uzbek folk tales - stepmothers. Cross-sectional analysis of the character of the stepmother in the texts of fairy tales helps to determine the differences in the characteristics traditionally formed between different ethnic groups. So, we found that the different aspects of the use of the "Stepmother" concept in English and Uzbek fairy tales are manifested in the following:

1. In English fairy tales, cunning and pride are observed in the stepmother's character, while in Uzbek language, quarrelsomeness and lying dominate: - but she was proud and arrogant, and she could not stand it if anyone might surpass her in beauty; - One day, the old woman badmouthed Zumrad and scolded the old man: - Your daughter is rude, she doesn't like it, send her away! Otherwise, I will not stay with you even for a breath!

2. In English fairy tales, the appearance of the stepmother is described as "She was a beautiful woman", and in Uzbek fairy tales, "she was scary, snow was falling from her forehead". Unlike the English fairy tale, where evil and beauty are depicted side by side, the evil, ignorant, cruel stepmother in Uzbek folk tales is never depicted in a beautiful way. In the description of the character, the stepmother is embodied only in English as a beautiful woman, which indicates the physical attractiveness of the character. At the same time, in the texts of English and Uzbek folk tales, the description of the character's external attractiveness does not include additional details, but is rather abstract and generalized. However, despite the fact that this definition is typical for the two language cultures, it cannot be considered universal in English and Uzbek folk tales;

3. There are also differences in the methods of stepmothers in English and Uzbek folk tales to get rid of their stepdaughter: "Kill her, and as proof that she is dead bring her lungs and her liver back to me"; "Take your daughter to the forest and get lost!". In English fairy tales, the character of cruelty is dominant.

The negative character of not only English and Uzbek, but also other people's fairy tales - the concept of the stepmother has cultural significance, carries a certain pragmatic load and is regularly repeated in the texts of fairy tales of every nation. Therefore, the study of this concept allows to get a complete understanding of the linguistic landscape of the folk folklore of the world and the mentality of the ethnic group reflected in it. Using the methods of ethnocultural analysis, cultural interpretation of linguistic signs based on the idea of folk mentality, national characteristics, "it is possible to determine the pragmatic, connotative and cultural potential of the linguistic units in question"

In conclusion, the comparative study of concepts, like linguistics itself, is a fixation on the relationship between consciousness, thinking and language, and at the same time represents a special approach to language, the comparative study of the concept of "Stepmother" is a linguistic and cultural analysis was carried out by in-depth study of its components and description of the formation mechanism of the linguistic landscape of the world. Cross-interpretation of the concept of "stepmother" in English and Uzbek folk tales - the meeting of such similarities between nations by revealing the similarity in the folk tales of two peoples who are culturally, regionally and territorially far from each other observed. In English and Uzbek folk tales, magical objects are widely referred to, a common similar image is a magic mirror, images of a giant, and it has been proven that there are many similar themes with the same plot in these two folk tales. By cross-analyzing the concept of "stepmother" in English and Uzbek folk tales, comparing the internal and external characteristics of its characters, differences in a number of characteristics that have traditionally been formed between different ethnic groups have been revealed.

REFERENCES

1. Andrew Lang. The blue fairy book. 5th ed. - London: Longmans, 1991. - P.25-35.
2. Узбек халк эртаклари. - Тошкент, 2007. - Б. 38.
3. Jacobs J. English Fairy Tales, Germany, 1994

OTLARDAGI SON KATEGORIYASI FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TADQIQI

Furkatova Maxliyo To'liqin qizi,

Doktorant, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston

furkatovamaxliyo@gmail.com

Birlik va ko'plik jihatdan bir-biriga zidlanadigan otlar grammatik son kategoriyasini hosil qiladi. O'zbek tilida ko'plik, ingliz tilida "plurality" deb nomlangan so'z (o'zagi – "plural") ingliz tiliga eski fransuz tilidan, shu so'zning o'zi esa so'nggi lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, "ko'plikka taalluqli" ma'nosini beradi. Ko'plik deyilganda miqdoriy tushunchadan nisbiy tushuncha ko'proq anglashiladi. Bu nisbiy tushuncha birlikka nisbatan olinadi va unga nisbatan ko'proqligi ta'kidlanadi. Birlik – Singular so'zi esa lotin tilidagi "singularis" so'zidan olingan bo'lib, birlik ma'nosini beradi. Grammatik son kategoriyasining har ikki tilda o'ziga xos hosil qilish usullari mavjud. Shuni hisobga olgan holda ular o'rtasidagi dastlab o'xshash, so'ngra farqli jihatlarini yoritdik:

Ingliz va o'zbek tillari uchun umumiy jihatlar:

1. Grammatik son va mantiqiy son har doim ham mos tushavermaydi. Misol uchun, "*Abdusamadovs have come. - Abdusamadovlar keldi.*" gapida *Abdusamadovlar* 1dan ortiqlikni emas, *Abdusamadovlarga* aloqador bo'lgan oila a'zolari haqida gap ketayapti. "*Olmadan yeydi*" gapida esa *olma* so'zi ma'no jihatdan ham birlikda ham ko'plikda kelishi mumkin.
2. Ingliz tilidagi –s, o'zbek tilidagi –lar ko'plik formasi hamma otlarga ham qo'shib ko'plikni hosil qila olmaydi.
3. Har ikkala tilda ham ko'plik affiksi atoqli otlarga qo'shilganda, o'sha shaxsга tegishli bo'lgan shaxs va narsalarni ifodalaydi: *Furkatovas are coming.* – Furkatovalar kelishyapti.
4. Ikki tilda ham belgisi (-s), belgisiz (-), yoki nol-ko'rsatichli va –lar affiksi bilan yasaluvchi formasiga ko'ra bir biriga zidlanadi va grammatik son kategoriyasini keltirib chiqaradi.
5. Ot so'z turkumidan boshqa so'z turkumlari doirasida qo'llanishi mumkin. Ingliz tilida son so'z turkumidagi sonlarga apostrof yordamida –s ko'plik affiksi qo'shiladi: *three 5's – uchta besh.* O'zbek tilida esa asosan kishilik olmoshlari va boshqa otlashgan so'zlar bilan birga keladi: *Kimlar bilan borayapsan? Izlanganlar (sifatdosh otlashgan) doimo harakatda.*
6. Donalab sanalmaydigan otlar ko'plik affiksi bilan kelganda, o'sha otga tegishli tur, navni bildirib keladi. *Cottons* (paxtalar) – paxtaning har xil turlari, *fishes* (baliqlar) – baliqning turlari. Bu so'zlar o'zbek tilida sanalsa ham ingliz tilida sanalmaydigan otlar guruhiga kiritilgan. O'zbek tilida esa *suvlar, yog'lar, shakarlar, tuzlar* bunga misol bo'lishi mumkin. Bu so'zlar ingliz tilida ham sanalmaydi.
7. Ko'plik qo'shimchasini olmasada, ma'nosi ko'plikda turuvchi otlar har ikki tilda mavjuddir. Faqat ingliz tilida bu hodisa son kategoriya kesim bilan moslashgani uchun muhim ahamiyat ega. Ma'nosi doim ko'plikda turuvchi otlarga quyidagilar kiradi: *public – omma, family – oila, people – xalq, police – politsiya, team – jamoa, army – armiya.*

Ingliz va o'zbek tillaridagi farqli tomonlar:

1. Ingliz tilida ko'plik quyidagi usullar yordamida yasaladi: 1) morfologik usul; 2) fono-morfologik; 3) leksik-sintaktik usul.

A) Morfologik usulda – s ko'plik affiksi va uning allomorflari qatnashadi. –s qo'shimchasi qo'shilishi natijasida ayrim fonetik va grafik o'zgarishlar ro'y beradi. Ular quyidagilar: A) so'z –f yoki – fe harflari bilan tugasa "f", "v" harfiga o'zgaradi va ko'plik qo'shimchasi –ves shakliga keladi: *knife – knives, wife – wives.* Ammo bu oxiri "f" harfi bilan tugaydigan so'zlarning barchasiga ham taalluqli emas. B) So'z oxiri o, x, sh, ch, s, ss harflari bilan tugaydigan so'zlar uchun –es affiksi qo'shiladi: *tomato – tomatoes, box – boxes.* C) –ies affiksi esa so'z oxiri "y" bilan yakunlangan va "y" harfidan oldin ham undosh harf kelgan vaziyatda "y" "i" harfiga o'tishi orqali hosil bo'ladi: *city – cities.* Bundan tashqari –en affiksi bilan ham yasalgan ko'plikdagi otlarimiz mavjud: *child – children, ox – oxen.* Ammo bu qo'shimcha faqat *children, oxen* va qadimgi ingliz tilida mavjud bo'lib hozir nutqda ishlatilmaydigan *brethren* so'zlarida mavjud. Mana shu so'zlardan *children* so'zi etimologik jihatdan ikkita ko'plik qo'shimchasini o'z ichiga olgan deyiladi. Bunda eski ingliz tilida –r qo'shimchasi ko'plik ma'nosini bergan bo'lib, keyinchalik o'z vazifasini yo'qotgan va *cildru* so'ziga ikkinchi –n ko'plik qo'shimchasi qo'shib, hozirgi *children* so'zi kelib chiqqan. –r qo'shimchasining ko'plik ma'nosida kelishi hozirgi ba'zi zamonaviy tillar, xususan, nemis tilida ham uchraydi: *Kind – Kinder*

B) Fono – morfologik usulda so'zlarning ko'pligini yasash uchun ot o'zagidagi unli harflar o'zgartiriladi: *man – men, foot – feet, tooth – teeth, goose – geese.* Bu otlar noto'g'ri otlar deb ham nomlanadi. Bunda asosan oo > ee harflariga o'zgaradi. Ularning soni chegaralangan va ularni biz faqat *foot – feet, tooth – teeth, goose – geese* kabi otlarda ko'rishimiz mumkin. Ana shunday fono – morfologik jihatdan o'zgaradigan noto'g'ri otlardan biri *mouse – mice* bo'lib, bunda *ouse > ice* harflariga o'zgaryapti. Buni ham faqat *mouse* va *louse* so'zlari misolida ko'rishimiz mumkin.

C) Leksik – sintaktik usul uchun ko'plik affiksidan tashqari miqdor ma'nosini bildiruvchi so'zlar ham qo'shib keladi: *five places, many students, three pair of shoes, several books, much water* (sanalmaydigan otlar uchun).

O'zbek tilida esa quyidagilar orqali hosil qilinadi: 1) morfologik; 2) semantik 3) leksik - sintaktik

A)-lar affiksi bilan ko'plik hosil qilinishi morfologik usulga kiradi. U boshqa allomorflardan tashkil topmagan.

B)Birlik formada bo'lib, lekin ma'nosi ko'plikda bo'lgan otlar semantik usulda hosil bo'lgan ko'plikdagi otlar hisoblanadi. Bunga misol qilib *xalq, armiya, olomon* kabilarni keltirishimiz mumkin.

C)O'zbek tilida ham miqdor ko'pligi yuqoridagidan boshqa usullar bilan ham ifodalanadi: A) sonlar yordamida: *o'nta daftar, beshta kitob*. B) takroriy so'zlar orqali: *dasta – dasta gul. Dasta – dasta gullar* desak ham bo'ladi.

2. Ingliz tilida otlarning birlik yoki ko'plikda kelishiga qarab gapda kesim bilan moslashadi, o'zbek tilida otning son formasi gapda hech qanday sintaktik aloqaga kirishmaydi. Misol uchun: *Children go to school. – A child goes to school. Bolalar maktabga boradi. – Bitta bola maktabga boradi.*

3. Ingliz tilida otlarning birlik yoki ko'plikda bo'lishi kesim bilan moslashishida muhim ahamiyat kasb etgani bois, jamlovchi otlar yuzasidan bir qancha muammolarga duch kelinadi.

Ulardan biri *government (hukumat)* va *team (jamo)* so'zlaridir. Britaniya ingliz tilida bu so'zlar keng-global tashkilot yoki tor-shaxslar to'plami ma'nolarida kelishiga ko'ra kesim bilan birlik yoki ko'plik holatida moslashadi. Amerika ingliz tilida bu qoida ancha yengil qaraladi va birlikda kelgan jamlovchi ot faqat birlikda kesim bilan moslashib ketaveradi. Ularni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin:

The government are responsible for implementing policies that impact all over the world. [Brit.Eng]

The government is responsible for implementing policies that impact all over the world. [Am.Eng]

Milliy jamoalar odatda, britaniya ingliz tilida ko'plikda bo'lsa, amerika ingliz tilida birlikda keladi.

England have won to reach the World Cup final. [Brit.Eng] *England* – bu yerda jamoa nomi bo'lib kelayapdi va *have* ko'plikdagi kesim bilan moslashyapdi.

Bundan tashqari, quyidagi to'rtta jamlovchi otlar etimologik jihatdan ko'plikdagi otlar bo'lmasligiga va morfologik jihatdan ko'plik formasini olmasligiga qaramasdan, doimo ko'plikdagi kesim bilan moslashadi: *people (odamlar), police (militiya), cattle (chorva mollari), vermin (zararkunandalar)*. Mazkur otlarning boshqa jamlovchi otlardan yana bir farqi ular hech qachon ko'plik qo'shimchasi – s affiksi bilan birga kelmaydi. Xolbuki, *government* va *family* kabi boshqa jamlovchi otlarning ko'plik formasi ham mavjud (*governments, families*). *Cattles* va *vermins* kabi otlar tilda mavjud emas, *peoples* ko'plikda bo'lsa ham boshqa ma'noda keladi. *Policies* so'zi esa birlikdagi kesim holatida mavjuddir. Bu otlar o'zbek tilida oddiy jamlovchi otlar sarasiga kiradi. Ko'pligini yasashda –lar affiksidan foydalaniladi va hech qanday kesim bilan aloqaga kirishmaydi.

Jamlovchi otlar yuzasidan yana boshqa bir muammoldan biri – birlikdagi otlarning ko'plikdagi kesim bilan, ko'plikdagi otlarning birlikdagi kesim bilan moslashishidir.

Ten dollars is not enough for me (ko'plikdagi ega (ot) – *ten dollars* birlikdagi kesim bilan kelayapdi – *is*)

Yana shunday otlar borki ular tarixan ko'plikdagi otlar bo'lishiga qaramay, birlikdagi kesim bilan keladi.

Darts is my favourite game. (Darts – ko'plikdagi ega (ot) is – birlikdagi kesim)

4. Son bilan miqdorni (ko'plikni) ifodalaganda o'zbek tilida otlar ko'plik qo'shimchasi – lar bilan birga kelmaydi: oltita maktab. Ammo ingliz tilida xuddi shu holatda – s affiksi ishlatilmasa gap xato hisoblanadi: *six schools*.

Har + miqdor son + ot qurilmasi (*every + number + noun*) da ham o'zbek tilida otlar birlikda kelsa, ingliz tilida ko'plikda kelishi kerak: *har beshta odam – every five people, har uchta mashq – every three exercises*.

5. Ingliz tilida otlar sanaladigan va sanalmaydigan otlarga bo'linadi va shunga qarab birlikda yoki ko'plikda keladi. Ya'ni sanalmaydigan otlar doim birlikda, sanaladigan otlar esa bitta yoki ko'p miqdorda bo'lishiga qarab ko'plik affiksi bilan birga keladi.

Ingliz tilida sanalmaydigan otlarning ko'pligini yasash biroz murakkabdir. Ular oddiygina –s affiksini olib ko'plik ma'nosini hosil qila olmaydi. Ularda ko'plik ma'nosini yasashda maxsus o'lchov so'zlari yordamga keladi: *A glass of juice – bir stakan sharbat, Two glasses of juice – ikki stakan sharbat*. Demak, o'lchov so'zlariga ko'plik qo'shimchasi qo'shiladi, ammo sanalmaydigan ot hali ham birlik shaklida qoladi. Mana shunday chalg'ituvchi otlardan biri “data” va “research” so'zlardir. Aslida “data” so'zi o'zi ko'plikdagi ot hisoblanib, ko'plikdagi kesim bilan moslashadi. birlik shakli esa “datum” ko'rinishida keladi: *Necessary data were collected. – Kerakli ma'lumotlar yig'ildi*. Ammo har doim ham bu qoidaga amal qilinavermaydi. “Data” so'zi sanalmaydigan ot sifatida ko'rilib, birlik holatida ham qabul qilinadi, uning ko'plik shakli sifatida qabul qilingan “datum” so'zi nutqdan chiqib ketadi: *Data shows this evidence*. “Data” so'zi ko'plab ma'lumotlar to'plami ma'nosida birlik holatida, asosan, computer sohasida ishlatiladi. “Research” so'zi esa doim birlikda keladi. Ammo ba'zi manbalarda unga ham ko'plik qo'shimchasi qo'shilgan hollarni ko'rishimiz mumkin. Biroq bu holat ko'p emasligini aytib o'tishimiz lozim.

6. O'zbek tilida –lar ko'plik formasi ko'plik ma'nosidan tashqari boshqa ma'nolarda ham ishlatilishi mumkin: a) kattaroq joyni o'z ichiga olganda – *Samarqandlarga borib keldim*; b) ma'no kuchaytirilganda – *aqlarim oshib ketdi*; c) ma'lum bir predmetga tegishli turlarni ifodalaganda – *suvlardan olib kel!*

7. Ingliz tilida sanaladigan otlar uchun birligini ifodalashda otning ko'rsatkichi – a/an (bir) artiklidan foydalaniladi: *I bought a present yesterday. Men kecha bitta sovg'a sotib oldim*.

Shu o'rinda, ingliz tilida otlardagi birlik va ko'plik kategoriyasi uchun artikllarning o'rni muhimligini ta'kidlash zarur. Sababi ko'p hollarda artikllarning ot oldida mavjud bo'lmasligi, o'sha otning sonini aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi. Misol uchun, “German group was added” gapida o'quvchi muallifning bitta German guruhi qo'shilganini (“A German group was added”) yoki bir nechta German guruhlari qo'shilganini (“German groups were

added”) aniq ajratib aytib berolmaydi. Shuning uchun otlar artikllar bilan, yoki ko’plik formasi – s bilan yoritilishi kerak deyiladi. Xuddi quyidagi holatdek:

A family was gathered (bitta oilani tasvirlab berayapdi)

Families were gathered (birdan ortiq oilalarni tasvirlayapdi)

The families were gathered (aynan ma’lum bir turdagi oilalar tasvirlangan)

Ammo: “Family was gathered” deyilganda ham bitta oilani ham ko’pchilik shaxslarni tushunish mumkin.

8. Ingliz tilida ko’plik affiksi –s ning bir necha xil allomorflari mavjud (-es, ies, -ves). O’zbek tilida ko’plik faqat – lar affiksi bilan ifodalanadi.

9. Ingliz tiliga boshqa tillardan kirgan otlarning ko’plik va birlik formalari bor.

Ular quyidagicha: a) birlikda-um, ko’plikda-a: dictum – dacta, erratum – errata; b) birlikda-a, ko’plikda-ae: antenna – antennae; c) birlikda-us, ko’plikda-i: cactus – cacti; d) birlikda-is, ko’plikda-es: basis – bases; e) birlikda-on, ko’plikda-a: criterion – criteria, phenomenon – phenomena. Yuqoridagilarni noto’g’ri otlar deb ham nomlashimiz mumkin. Ammo ularning ba’zilari to’g’ri otlar sifatida ham ishlatiladi. Misol uchun, cacti ko’plikdagi so’zni cactuses kabi, yoki formulae so’zini formulas deb ko’plik ma’noda nutqda foydalanish mumkin. Bu holat o’zbek tilida uchramaydi. Chetdan kirgan so’zlar ko’plik holatidan tilimizga kirib kelishiga qaramay, ular birlik sifatida qaraladi va ko’plik uchun – lar qo’shimchasi qo’shilaveradi: *sportsmen* (o’zi asli ko’plikda) – *sportsmenlar*.

10. Grammatik son kategoriya haqida gapirilganda odatiy ikki xil ko’rinishdagi formada (birlik/ko’plik) kela olmaydigan ot turlarini ham eslatib o’tishimiz joiz. Bu holat har ikki tilda bo’lishiga qaramay, ularning sodir bo’lish yo’llari turlichadir

O’zbek tilida sintaktik-semantik holatga ko’ra otlar doimo ko’plik, yoki doimo birlik formada bo’lishi talab etiladi. Qaratuvchi + qaralmish konstruksiyasida qaralmish miqdor son, barcha, hamma kabi olmoshlardan tarkib topsa qaratuvchi ko’plikda bo’lishi kerak: *o’qituvchilardan bittasi, gullardan hammasi*. Izohlovchi + izohlanmish konstruksiyasida esa izohlovchi vazifasida kelayotgan ot doimo birlikda ifodalanadi: *qiz bola, o’quvchi qiz*. Son + ot, har + so’roq olmosh yoki miqdor son + ot ko’rinishidagi konstruksiyalarida ham otlar birlikda keladi: har narsaning javobi, har birining ishi.

Ingliz tilida esa otlar o’zi Singularia Tantum (faqat birlik) va Pluralia Tantum (faqat ko’plik) kabi turlarga bo’lingan. Shunga ko’ra, ikkita o’xshash yarmida iborat bo’lgan narsalar (*scissors, trousers, spectacles*), umumiy ma’noga ega bo’lgan mavhum va aniq otlar (*stairs, goods, eaves, holidays, tidings*) faqat ko’plikda keluvchi otlar sarasiga kiradi. Faqat birlikda keluvchi otlarga esa asosan sanalmaydigan otlar, jumladan mavhum otlar kiradi: *water, milk, friendship, joy, patriotism*.

Bundan tashqari, o’zbek tilida Pluralia Tantumga teng keluvchi otlar ro’yhati mavjud emas. O’zbek tilida ular birlikdagi otlar sifatida qabul qilinadi. Masalan, *glasses* (ko’plikda) – ko’zoynak (birlik), *scissors* (ko’plikda) – qaychi (birlikda).

Oldin Pluralia Tantum otlari sarasida bo’lib, ammo keyinchalik Singularia Tantum otlar ro’yhatiga kirgan otlar ham o’zbek tilida birlikdagi otlar sifatida tarjima qilinadi. Ularga ba’zi fan nomlari (mathematics – matematika, linguistics – lingvistika, phonetics – fonetika), kasallik nomlari (measles – qizamiq, diabetes – diabet, mumps – tepki), ba’zi sport o’yinlari (.....) kiradi.

11. Ingliz tilida birligi ham ko’pligi ham bir xil shaklda bo’luvchi otlar mavjud.

Ularning ko’plik shakli o’zbek tilida – lar affiksi bilan tarjima qilinadi. Ularga quyidagi so’zlar kiradi: *sheep* (qo’y) – *sheep* (qo’ylar), *deer* (bug’u) – *deer* (bug’ular), *fish* (baliq) – *fish* (baliqlar). Ammo ularning turlari haqida gapirilsa – s affiksi orqali ifodalanadi: *fishes* (baliqning har xil turlari). Qadimdan tilshunoslar o’zgarmas otlar ro’yhatini tuzishganda, asosan, baliq turlari (ikkita laqqa, uchtab trout) va boshqa keng tarqalgan so’zlar *aircraft, sheep, deer, swine* va boshqa so’zlarni misol qilib keltirishgan. O’zi o’zgarmas otlar qadimgi ingliz tilining xususiyatlaridan hisoblanib, o’rta asrlarga kelib fransuz tilining ta’sirida ko’plab otlar noto’g’ri otlardan to’g’ri – ko’pligi –s affiksi bilan yasaladigan otlar sarasiga kirib borgan. Shu sababdan, hozirgi zamonaviy ingliz tilida o’zgarmas otlar ro’yhati keskin kamayib, ko’pligi morfologik usulda yasaladigan otlar soni oshib ketgan.

12. Eski ingliz tilida birlik va ko’plik shakllardan tashqari ikkilik kategoriyasi ham mavjud bo’lgan. Hozirgi zamonaviy ingliz tilida ham uning ba’zi namunalarini ko’rishimiz mumkin.

Ulardan biri “both – ikkalasi” so’zi hisoblanib, faqat ikki kishi, voqea-hodisa va narsalar o’rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Buni “all – barcha” so’ziga zidlashimiz mumkin. “Either – ikkalasidan bittasi, neither – ikkalasiyammas, between – ikki narsa orasida, latter – ikkita narsaning keyingisi” kabi so’zlar ham mana shu ikkilik kategoriyaning namunalari hisoblanadi. Shulardan “between” predlogi qat’iy ikkilik kategoriyasiga kiritilmaydi, chunki bu predlog faqat ikki soni uchun chegaralab qo’yilmagan (Between them five it is over 2.000 sums. – Ularning beshtasining o’rtasida 2ming so’mdan tushdi), ammo “among – ko’pchilik o’rtasida” predlogi bilan zidlanishi mumkin. “Between” predlogini “paucal – ikkitadan biroz ko’proq” atamasi bilan atash mumkin. Taxminan, 20-30 yillar oldin, talabalarga “each other – bir-birini” so’z birikmasi faqat ikki kishiga nisbatan bo’ladigan ish – harakatlarni ifodalashi o’qitilib kelingan edi va buni zidlangan shakli sifatida “one another – ikkitadan ortiq odamlarga nisbatan bir birlarini” keltirilgan edi. Ammo bugungi kunda ular o’rtasidagi farq yo’qolib ketgan va ikkalasi ham bir xil ma’noda ishlatiladi. Otning yana bir miqdor ko’rsatgichi bo’lmish “a couple of” tarjimasi bir juft bo’lishiga qaramay, hozirgi kunda “a few-bir qancha” so’ziga teng keltiriladi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash kerakki, ingliz tilida alohida guruh va qoida sifatida ko’rsatilgan birlik va ko’plikdagi otlar o’zbek tilida oddiy so’z birikmalari sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, ingliz tilida otlarning

birlikda yoki ko'plikda bo'lishi o'zbek tilidagidan ko'proq muhim ahamiyat kasb etarkan. Sababi, aynan shu holatga qarab kesim birlikda yoki ko'plikda tuslanib keladi.

ADABIYOTLAR

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi O'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T., “Fan va texnologiya”, 2009. – 416 b.
2. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi O'zbek adabiy tili I qism. – T., “O'qituvchi”, 1980. – 443 b.
3. N.Turniyozov, A. Rahimov, O'zbek tili. O'quv – uslubiy qo'llanma. - Samarqand. 2006. – 147 b
4. J. Buranov, U. Hashimov, H.Ismatullayev, Ingliz tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – T., “O'qituvchi nashriyoti”, 1974. – 351 b
5. J. Bo'ronov. Ingliz va O'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. O'quv qo'llanma. – T., “O'qituvchi nashriyoti”, 1973. – 279 b
6. История языкознания XIX – XX веков в очерках и извлечениях. – М.: ч. I. – М., 1964 – с. 119-120.
7. Курманбоев Н.М. О происхождении грамматических категорий. – Алмата: Мектеп, 1981. – с 18-20.
8. Баскаков А.Н. Историко – типологическая морфология тюркских языков. – М.: Наука, 1979. – с. 238
9. Иванов С.Н. Родословное древо тюрков Абул-Газихана. Грамматических очерк. – Ташкент: Фан, 1969. – 17-18 – бетлар.
10. Hans Arndt. Carl Bache: The Study of Aspect, Tense and Action. Towards a Theory of the Semantics of Grammatical Categories. Frankfurt am Main: Peter Lang, 1995. – 1- 3 p.
11. Wilfrid Rotge. Plurality in English and other languages: does it add up? Anglophonia French Journal of English Studies, 2009. – 101-120 p.
12. Muqadar Khan. An Analysis of the Problems in the Use of English Participles by Undergraduate Students at Hazara University Mansehra, 2023. – 318-329 p.
13. Suzana Ejupi, Lindita Skenderi. Grammatical Categories of Verb in English and Albanian. Knowledge International Journal, 2018. – 2245-2249 p.



SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA BOLA OBRAZI TALQINI

Hamroyev I.A.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida assistenti, Samarqand, O'zbekiston
e-mail: ilgarhamrayev@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek adabiyotida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan yozuvchi Shukur Xolmirzayev ijodi, ayniqsa, uning o'zida qiyin bir davrni aks ettira olgan hikoyalari haqida o'zbek adabiyotshunosligida qilingan ilmiy tadqiqotlar ushbu ishning asosiy tadqiqot obyekti qilib olindi. Yozuvchi ijodi mustaqillikgacha deyarli o'rganilmanligi sababli imkon qadar hikoyalar tahliliga etibor berdik. Yozuvchi asarlari mustaqillikgacha davrda ba'zi sabablarga ko'ra adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilmay qolgan edi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng barcha sohalarida bo'lgan yangilanishlar kabi o'zbek adabiyotida ham birmuncha o'zgarishlar bo'ldi. O'rganilmay qolgan asarlar o'rganila boshladi. Jumladan, yozuvchi Shukur Xolmirzayev asarlariga ham adabiyotshunoslar e'tibor qarata boshladilar. Jumladan, S. Mirzayevning “XX asr o'zbek adabiyoti”, Sobir Mirvaliyevning “O'zbek adiblari” asarlarida yozuvchi ijodiga etibor qaratilgan S. Xolmirzayevaning tashabbusi bilan yozuvchi hikoyalari u tomonidan nashr etildi. Sh. Doniyorova esa adib hikoyalari asosida ilmiy tadqiqot ishini yaratdi. Biroq bu ishlar Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi bola ruhiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Ma'lumki, Shukur Xolmirzayev ijodi mustaqillikning ilk kunlaridan o'rganila boshladi. Yozuvchining asarlarida, ayniqsa, hikoyalarida o'sha davr muhiti o'z aksini topganligi bois bu asarlar o'z vaqtida o'rganilmay qolgan. Ammo mustaqillik davriga kelib yozuvchining asarlari haqiqiy bahosini oldi. Uning ochilmagan turli qirralari tanqidchilik tomonidan ochib berildi. Biz uchbu ishimizda ana shularni tahlil qilishga harakat qilamiz. Ishning ilmiy yangiligi adib hikoyalaridagi bola obrazi ruhiyati birinchi marotaba malakaviy bitiruv ishi doirasida o'rganilmoqda.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bola obrazi.

Abstract: The work of the writer Shukur Kholmirezayev, who has a significant place in Uzbek literature, especially his stories that reflect a difficult period in Uzbek literary studies, became the main research object of this work. We paid attention to the analysis of stories as much as possible, since the author's work was studied almost before independence. For some reasons, the writer's works were not studied by literary scholars in the pre-independence period. After the independence, there were some changes in Uzbek literature, like the updates in all fields. Unstudied works began to be studied. In particular, literary critics began to pay attention to the works of the writer Shukur Kholmirezayev. In particular, S. Mirzayev's "20th century Uzbek literature" and Sabir Mirvaliyev's "Uzbek writers" were published by S. Kholmirezayeva's initiative. Sh. And Doniyorova created a scientific research work based on literary stories. However, these works could not fully reveal the psyche of the child in Shukur Kholmirezayev's stories. It is known that Shukur Kholmirezayev's work has been studied since the first days of independence. The author's works, especially his stories, reflected the atmosphere of that time, so these works were

not studied in time. But by the time of independence, the writer's works received their true value. Various aspects of it that have not been revealed have been revealed by criticism. We will try to analyze these in our work. The scientific novelty of the work is that the psyche of the child character in the literary stories is studied for the first time within the framework of the qualification graduation work.

Keywords: *the image of a child in the stories of Shukur Kholmirezayev.*

Kirish

XX asr o'zbek adabiyoti tarixi o'zidan oldingi davrlar adabiyotidan keskin farq qiladi. Qadimda, asosan, sharq adabiyoti bilan aloqada bo'lgan o'zbek adabiyoti bu davrga kelib jahonning qarib barcha xalqlari adabiyoti bilan muhim aloqalar o'rnatdi. Bugungi globallashuv davrida adabiyotimiz aloqalari yanada kuchaydi. Hozirgi zamon o'zbek adabiyotining o'sib bugungi darajaga kelishi oson kechgan jarayon emas. Adabiyotimiz yangilanish jarayonida ko'pgina talofatlarga, qurbonlarga duch keldi. Asr boshlarida dastlab jadidlar jamiyati qayta qurish uchun kurash olib bordilar. Bu kurashda adabiyot ularga asosiy qurollardan biri bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun asosan ishq muhabbatni kuylovchi mumtoz adabiyot o'rniga ijtimoiy masalarni birinchi o'ringa qo'yuvchi yangi adabiyot paydo bo'ldi. Bu dastlab ma'rifatparvarlik adabiyoti tarzida namoyon bo'lib, asta-sekin o'sib realistik adabiyot darajasiga ko'tarildi. O'zbek adabiyoti XX asrda janrlar rang-barangligi bilan ajralib turadi. Jumladan, romanchilik, dramaturgiya, hikoya va qissa kabi janrlarda ko'plab asarlar yaratildi. "Umuman olganda insoniyat tarixi ma'naviyat-insonning, xalqning jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt-saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi. O'ylaymanki, yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o'zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o'yalmasdan yashashini tasavvur qilish qiyin."

Ma'lumki, Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotining hikoyachilik janrida salmoqli ijod qilgan yozuvchilardandir. U adabiyotimizga hikoyalari bilan kirib kelgan, keyinchalik esa ramonchilikka ham qo'l urgan. Zamonaviy o'zbek nasrining zabardast vakillaridan biri Shukur Fayzullo o'g'li Xolmirzayev 1940-yil 24-martda Surxandaryo viloyati Boysun tumanida dunyoga keladi. Otasi asli Bulung'urlik bo'lib, 1937-1938-yillarda Boysunga ketishga majbur bo'lgan. Shukur Boysundagi o'rta maktabni tugatib, 1957-1962-yillarda ToshDUning filologiya fakultetida o'qiydi. Shundan so'ng u Toshkentdagi bir qator nashriyot, gazeta va jurnallarda mehnat qiladi. Shukur Xolmirzayev buyuk aktyor Shukur Burxonov rahbarligida tashkil etilgan to'garakda Gamlet rolini o'ynagan, Ofeliya rolini o'ynagan Saida ismli qizga uylangan. Adib Shukur Burxonov haqida hujjatli esse, Matyoqub Qo'shjonov haqida "U ustoz — men shogird" nomli hujjatli qissa yozgan. Adibning birinchi qissasi "Oq o'tli" (1962) deb, birinchi hikoyasi "Xatarli so'qmoqda" deb nomlangan. Shukur Xolmirzayev yozuvchilar uyushmasining "Oybek" mukofoti, O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori, "O'zbekiston xalq yozuvchisi"dir (1991). Asarlari: "Tog'lar orasida" (uning kitob holiday nomi "Oq o'tli" 1962, birinchi qissasi), "To'lqinlar" (uning kitob holiday nomi "Bukri to'l" 1963). Bu qissani Shukur Xolmirzayev talabalik yillari yozgan va u Abdulla Qahhorning tabrigiga sazovor bo'lgan. Unda muallif muhit va sharoit tasviriga yetarlicha e'tibor bermagan, "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" (1964, "yoshlar haqida qissa" deb ta'riflangan), "Bulut to'sgan oy" (1997) kabi qissalari, "So'nggi bekat" (1976, adibning roman janridagi dastlabki asari), "Qil ko'prik", "Yo'lovchi" (1987), "Olabo'ji" (1991), "Dinozavr" (1996, asar qahramonlari: Mahkam, Jamoliddin, Shaxlo, Abzal, Toirov va boshq.) kabi romanlari, "Yovvoyi gul", "Bahor o'tdi", "Bitiktosh", "Yashil "Niva"", "Ozodlik", "Hayot abadiy", "Og'ir tosh ko'chsa", "Ustoz", "Ko'k dengiz", "Tabassum" (1984), "Bodom qishda gulladi" (1985), "Shudring tushgan bedazor", "Qadimda bo'lgan ekan", "Quyoshku falakda kezib yuribdi" (bu hikoya ma'lum ma'noda "Dinozavr" asari eskizidir), "Navroz, navro'z" (asar qahramonlari: Sulton, Obid Odiljonovich, Joniql Jondorov), "Xumor" (hikoyada bir millat, bir mamlakatning ma'lum bir bosqichdagi fojiasi kichik bir qahramon timsolida o'z xarakterini o'zi ochish yo'sinida yoritilgan), "Zov ostida adashuv" ("Hayvonlarni, jonivorlarni o'z nomlari bilan atashmaydi, masalan, polvon — ayiq, arg'amchi — ilon, jondor — bo'ri" deyilgan) kabi hikoyalari, "Taqdir bashorati" (1968), "Yo'llar, yo'ldoshlar" (1973), "Yur, tog'larga ketamiz" (1976), "Cho'loq turna" (1978), "Tuproq ko'chalar" (1978), "Qush tili" (1982), "Qahramonning so'nggi kunlari" (1984), "Tog'larga qor tushdi" (1986), "Abdulla Nabi o'g'lining so'nggi kunlari" (1983), "Esiz, Eshniyoz" (1988) kabi hikoya va qissalari, "Qora kema", "O'zbeklar", "Qariya" (bu hikoyada bozor kunlarida jarchilik qilib mol egasidan cho'tal oladigan, sholi yetishtiruvchi koreyslarga qish kunlarida laqqa cho'g' yetkazib beradigan, pishiqchilik mahalida bozordagi qovun-tarvuz po'choqlarini chelakka yig'ib yuradigan Qo'ziboy chol obrazi berilgan) va boshqalar.

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachilik san'atining ustoz Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bola ruhiyati Inson ruhiyatining tahlili, uni chuqur tushunish va tasvirlash mahorati — adabiyotning tub mohiyatini belgilovchi sifat darajasiga ko'tarilishi birdaniga yuz bermagan. Adabiyotning turli rivojlanish etablarida bu muammo turlicha tushinilgan. Jumladan, Aristotelning "Poetika" asarida qayd qilinishicha, badiiy asarning asosiy belgisi — tashqi hodisalarning tasviridir, xarakter esa tashqi hodisalar tasviridan keyingi vositadir.

Xullas Shukur Xolmirzayev o'ndan ortiq hikoyalarida bola obrazini yaratgan. Bolalarga xos bo'lgan ruhiy kechinmlalar, hissiyotlar, ularni larzaga solgan hodisa va voqealar bola tilidan ifoda etilgan.

Xulosa

XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslubga ega bo'lgan ijodkorlardan biri Shukur Xolmirzayev sanaladi. Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotiga 60-yillarda kirib keldi. Ilk hikoyalari bilanoq o'quvchilar qalbini zabt etdi. U yaratgan hikoyalar Abdulla Qahhor e'tiboriga tushdi. Keyinchalik romanchilikka ham qo'l urdi. Shukur Xolmirzayev hikoyalardagi obrazlarga alohida ahamiyat qaratdi. Ularni samimiy va tabiiy qiyofada aks ettirishga intildi. U yaratgan hikoyalarda ayniqsa bola obrazi alohida ahamiyat kasb etdi. Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachilik san'atining ustozlari Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag'ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shukur Xolmirzayev o'ndan ortiq hikoyalarda bola ruhiyatini yoritishga harakat qildi. Bu obraz o'ndan ortiq hikoyalarda aks etgan bo'lsa-da, bir-birini takrorlamaydigan xarakterlar galariyasi bo'lib gavdalandi. Shukur Xolmirzayev o'ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilikdan, biryoqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi, so'zga xasis bo'lsada, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin yetkazishga erishadi.

ADABIYOTLAR

1. Адабий турлар ва жанрлар. I жилд. –Тошкент: Фан, 1991 йил.
2. Адабиёт назарияси. 2 томлик. –Тошкент: Фан, 1978 йил.
3. Бобоев .Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002 йил.
4. Каримов Н ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998 йил.
5. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009 йил.
6. Мирзаев С, Шермухаммедов С. Ҳозирги замон ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993 йил.
7. Мирвалиев С, Шокирова Р, Ўзбек адиблари. –Тошкент: Фан, 2007-йил.
8. Норматов У. Ижод сеҳри. –Тошкент: Шарқ, 2007 йил.
9. Норматов У. XX аср адабиёти. –Тошкент: Шарқ, 2007 йил.
10. Норматов У. Қалб инқилоби. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986 йил.
11. Умунов Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: 1983 йил.

FE'L SO'Z TURKUMINI MODELASHTIRISH

Hamroyev I.A.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida assistenti, Samarqand, O'zbekiston
e-mail: ilgarhamrayevi@gmail.com

Annotatsiya: Umuman tilshunoslik fanining, Jahon integratsiya va globallashtirish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda o'zbek tilining xalqaro miqyosidagi mavqei oshirish hayotiy zarurat sanaladi. "Kompyuter lingvistikasi" fanini, formallashtirish jarayoni orqali tilimizning modelini yaratish va ushbu jarayonni amalga oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, modellashtirilgan algoritmlar asosida kompyuter vositasida doimiy eksperimentlar o'tkazish, tahlil va talqinlar qilish modellaridir.

Kalit so'zlar: Fe'l So'z Turkumi, Modellashtirish, Kompyuter lingvistikasi fanini, formallashtirish.

Abstract: In the current period of the process of world integration and globalization, increasing the position of the Uzbek language on the international scale is considered a vital necessity. The science of "Computer Linguistics" is the creation of a model of our language through the process of formalization and the development of special programs for the implementation of this process, continuous experiments on the basis of modeled algorithms, analysis and interpretation models.

Keywords: Verb Class, Modeling, Computational Linguistics, formalization.

Kirish

Jahonda integratsiya va globallashtirish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda o'zbek tilining xalqaro miqyosidagi mavqei oshirish hayotiy zarurat sanaladi. Bu mas'uliyatli va o'ta muhim masalani amalga oshirishda kompyuter texnologiyalariga, xususan, kompyuter lingvistikasiga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini yechishning kompyuter dasturlarini yaratish va uni amalda qo'llash kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadidir. Bugungi kunga kelib, kompyuter yordamida matnga ishlov berish va u bilan bog'liq juda ko'plab vazifalarni amalga oshirish mumkin. Kompyuter lingvistikasi bo'yicha turli xil dasturlarni yaratish sohasida izchil ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xuddi shunday dasturlardan biri matnni tarjima qilishga mo'ljallangan tarjimon dasturidir. Kompyuter dasturi orqali matnlarni inglizcha-o'zbekcha yoki o'zbek tilini boshqa tillarga tarjima qilishda ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelamiz. Buning sababi o'zbek tili boshqa tillar grammatikasi bilan to'g'ri kelmasligi natijasida matn so'zma-so'z tarjima qilinadi va maqsadga muvofiq bo'lmaydi. O'zbek tilining kompyuter-axborot uslubi shakllantirilsa, bu kabi muammolar o'z-o'zidan yechim topadi. Bu oson ish emas, albatta. Buning uchun tilshunoslar, matematiklar va informatiklar o'zbek tilining formal modelini ishlab chiqish zarur.

Amaliy lingvistikaning asosiy tadqiqoti hujjatlardagi matnlarning fonetik, grammatik, sintaktik strukturasi tasvirlash va modellashtirish bilan bog'liqdir. Formallashtirish, sun'iy programmashtirish tillarini

yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi. Kompyuter lingvistikasining o'ziga xos simvolik "tili" sifatida amalga oshiriladi.

O'zbek tilidagi so'zlarni formallashtirish orqali matnli ma'lumotning formal modeli shakllantirilib, amaliyotga tatbiq qilinsa, kompyuter tilida amallar oson bajariladi. Buning uchun o'zbek tilini modellashtirish bo'yicha maxsus metogrammatika ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Metogrammatika – programmalash, tillarni tavsiflash uchun tabiiy til grammatikasi modeli asosida ishlab chiqilgan metaqoidalar to'plami. Metogrammatika haqidagi dastlabki g'oyalar Dekart, Leybnis kabi matematiklar tomonidan ilgari surilgan ratsional grammatika yaratish, "Pol-Royal grammatikasi" bilan bog'liqdir. Xuddi shuningdek tilni modellashtirish uchun ishlangan metoqoidalar. Keyinroq 1981-yil olimlar Gazdar, Pulman, Saglar ham metoqoidalar ishlab chiqdi. Uning nomi "Generalized Phrase Structure Grammar"

O'zbek tilida metaqoidaga misol sifatida formal-funksional tilshunoslik vakillarining **WP_m** modelini ko'rsatish mumkin. Bunda W-inglizcha **word** so'sidan olingan bo'lib, har qanday nominativ birlikni anglatadi. **P-predicate** so'zidan, **m-marker** so'zidan olingan. U predikativlik (kesimlik) ko'rsatkichini bildiradi. Bu o'zbek tilidagi gapning minimal qolipidir. Bundan ko'rinadiki, o'zbek tili formal modelini yaratishda ingliz formal-modelidan foydalanish mumkin. Ingliz formal modelidan foydalangan holda jarayonini fe'l so'z turkumi orqali modellashtirishga harakat qilamiz:

Fe'llarda mayl kategoriyasi

Mayl shakllarini formallashtirish jarayonini quyidagicha amalga oshirishimiz mumkin:

Xabar maylini lotin alifbosidagi katta M₁, shart maylini M₂, buyruq-istak maylini M₃, maqsad maylini M₄ bilan belgilaymiz. Bu belgilar orqali mayl shaklini formal modelini tuzishga harakat qilamiz:

$$V + M_2 = FM_2 \quad \text{Bor} + \text{sa} = \text{borsa}$$

Zamon kategoriyasi

Zamon kategoriyasini ham quyidagicha formal modelini hosil qilish mumkin:

O'tgan zamon Z₁, hozirgi zamon Z₂, kelasi zamon Z₃ qilib belgilaymiz.

$$V + Z_2 = VZ_2 \quad \text{Bor} + \text{yapti}$$

Affiksatsiya usuli bilan yasalgan fe'lni quyidagicha formal modelini hosil qilish mumkin:

$$\text{asos} + \text{qo'shimcha} = \text{yasalma} \quad \text{S.Y} \longrightarrow$$

Asos	Qo'shimcha	Yasalma	Formula
Oq	-la	oqla	S.Y
Gul	-la	gulla	S.Y

Fe'l so'z turkumini affiksatsiya usulida hosil qilish fe'l bo'lmagan so'z turkumlaridan yasaladi. Bu jarayonni ham formal modeli quyidagicha:

So'z turkumi	Asos	Qo'shimcha	Yasalma	Modeli
ot	gap	ir	gapir	S+Y
sifat	past	ay	pasay	S+Y
olmosh	sen	sira	sensira	S+Y

Fe'l yasalişining 2-usuli kompozitsiya usulidir. Bu usulni asos +asos ko'rinishida yozishimiz mumkin.

Masalan:

Ot+fe'l	Javob bermoq	S+Y
Fe'l+ fe'l	Olib kelmoq	S+Y
Sifat +fe'l	Obod qilmoq	S+Y

Masalan, **gapirmoq** so'zini formal modelini hosil qilish jarayonini quyidagicha amalga oshirish mumkin:

gap+ir

Bunda asosni katta O harfi bilan qo'shimchani kata Q harfi bilan belgilaymiz (qo'shimchalar so'z yasovchi va shakl yasovchiga bo'linadi. Shuning uchun so'z yasovchilarni Q₁ belgisi bilan, shakl yasovchi qo'shimchalarni esa Q₂ belgisi bilan belgilaymiz. Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki, shakl yasovchilar ham o'z navbatida 2 ga bo'linadi: a) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar buni Q₂ bilan belgilaymiz, b) sintaktik shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar buni Q_{2.2} bilan belgilaymiz) bundan keltirib chiqaramiz:

1. Affiksatsiya usuli bilan yasalganda

$$O + Q_1 = S.Y \quad \text{Bu yerda S.Y sodda yasama so'z. (Gap+ir = S.Y)}$$

2. Kompozitsiya usul bilan yasalganda

$$O + V = S.Y \quad \text{shaklida yozamiz.}$$

$$(\text{Javob+berdi} = S.Y)$$

Nisbat kategoriyasi:

Fe'lning asos qismini katta V harfi bilan belgilaymiz, aniq nisbatni N₁ belgisi bilan, o'zlik nisbatni N₂ belgisi bilan, orttirma nisbatni N₃ belgisi bilan, majhul nisbatni N₄ va birgalik nisbatni N₅ belgisi bilan belgilab olinadi. Har bir belgilab olgan belgi (simvol) N larga tegishli qo'shimchalarni biriktirib chiqamiz.

$V + N_2 = VN_2$ misol uchun **yuvdi + in = yuvindi**

Xuddi shuningdek, nisbat kategoriyasini formal modelini shakllantirishda ham maxsus dastur tuzib shu dasturga qoidalarni kiritishimiz va bu nisbat qo'shimchalari bilan omonimlik hosil qiluvchi shakllarni hisobga olishimiz zarur.

Bo'lishlilik shakli fe'l ifodalagan harakatning bajarilganligi yoki bajarilayotganligi va kelajakda bajarilishini bildiradi. Bu shaklni hosil qiluvchi maxsus shakl yo'q. Shuning uchun uni **B** belgisi bilan belgilaymiz.

Bu qoidalardan kelib chiqib formal modelini tuzishga harakat qilib ko'ramiz: Bo'lishsizlikni hosil qiluvchi so'zlar B1 bilan belgilanadi

$V+B=FB$ masalan, **bor+di = bordi**

Bo'lishsizlik *-ma, -may, maslik* va *yo'q, emas, na na*, ohang orqali hosil bo'ladi. Bo'lishsizlik shaklidagi fe'l harakatning bajarilmasligini, inkor ma'nosini bildiradi.

Bo'lishsizlik affixlari zamon shakllaridan oldin qo'shiladi. Bu yerda B simboliga bo'lishsizlik shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar birlashtirilgan bo'ladi. Bo'lishsizlikni hosil qiluvchi so'zlar B1 bilan belgilanadi:

$V + B_1 = VB_1$ **bor+madi**

Yuqoridagilardan foydalangan holda jarayonni quyidagi jadval asosida ko'rib chiqamiz:

Fe'l	Misol	Asos	Belgi	Qo'shimcha	Belgi	Formallashtirish	Model
Mayl							
Xabar	keldi	Kel	V	-	M ₁	V+M ₁	VM ₁
Shart	kelsa	Kel	V	-sa, -sa edi, -ganda edi, gan ekan	M ₂	V +M ₂	VM ₂
Buyruq	kelaylik	Kel	V	-ay, -gin, -sin, -aylik, -ing	M ₃	V +M ₃	VM ₃
Maqsad	kelmoqchi edim	Kel	V	-moqchi, -moqchi edim	M ₄	V +M ₄	VM ₄
Zamon			V				
O'tgan	keldi	Kel	V	-di, -gan, edi	Z ₁	V +Z ₁	VZ ₁
Hozirgi	kelyapti	Kel	V	-yapti, yotir	Z ₂	V +Z ₁	VZ ₁
Kelasi	kelmoqchi	Kel	V	-moqchi,	Z ₃	V +Z ₁	VZ ₁
Nisbat							
Aniq	yozdi	Yoz	V	-	N ₁	V +N ₁	VN ₁
O'zlik	kiydi	Kiy	V	-il, -in	N ₂	V +N ₂	VN ₂
Orttirma	yozdi	Yoz	V	-tir, -dir	N ₃	V +N ₃	VN ₃
Majhul	yozdi	Yoz	V	-il, -in	N ₄	V +N ₄	VN ₄
Birgalik	yozdi	Yoz	V	-sh, -ish	N ₅	V +N ₅	VN ₅
Yasalish							
Affiksatsiya	Gapir	Gap	V	-ir	SY	VQ ₁ +SY	VQ ₁ =SY
Kompozitsiya	Javob ber	Ot+fe'l	V	Ot+fe'l	SY	OV+SY	OV=SY

Fe'l so'z turkumi modeli hosil bo'lgandan so'ng, bu jarayonlarni matematik algoritmlashtirish zarur va buni kompyuterda amaliy qo'llash uchun maxsus dastur orqali amalga oshiriladi.

Murakkab sistema hisoblangan tilning barcha qirralarini formallashtirishning imkoni yo'q, bunda muayyan cheklovlar mavjud (ayniqsa tilning semantik aspektida). Bu xususida nemis olimi K.Gredal shunday yozadi: *“Yetarli darajada mazmunga boy nazariya formallashtirilsa, bu nazariyani formal tizimda to'la aks ettirish mumkin emas. Bunda aniqlanmagan, formallashtirilmagan nazariya qoladi”*. Demak, har qanday formallashtirilgan model til grammatikasining butun qirralarini qamrab olmaydi. Kompyuter-axborot uslubi barcha uchun tushunarli sodda tilda bo'lishi lozim. Buning uchun biz o'zbek tili birlashtirilgan maxsus modelini yaratishimiz va uni sinovdan o'tkazishimiz kerak.

Xulosa

“Kompyuter lingvistikasi” fanini, formallashtirish jarayoni orqali tilimizning modelini yaratish va ushbu jarayonni amalga oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, modellashtirilgan algoritmlar asosida kompyuter vositasida doimiy eksperimentlar o'tkazish, tahlil va talqinlar qilish “Kompyuter lingvistikasi” fanini rivojlanishida yaxshi samara berishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. А.Раҳимов. Компьютер лингвистикаси асослари. Тошкент. Академнашр, 2011 йил.
2. Grishman R. Computational linguistics//Cambridge University Press. 1994 йил.
3. Анисимов А.В. Компьютерная лингвистика для всех: Мифы. Алгоритмы. Язык.– Киев: Наук. думка, 1991 йил.
4. Б.Йулдошев. Компьютер лингвистикаси. Самарқанд. СамДУ. 2006 йил.
5. Ҳ.Арзикулов. Ўзбек лингвистик автомати –“UZLINGTON”. Самарқанд. СамДЧТИ, 2005 йил.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MODAL SO'ZLARGA OID ENG MUHIM TATQIQOT TAHLILI

Hatamov Ziyodin Mamadullayevich

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 1-kurs doktoranti, Samarqand, O'zbekiston

e-mail: xatamovzivodin@gmail.com

Telefon raqami: +99894,470 79 09.

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilshunosligida modal so'zlar ilk marta alohida tatqiq qilingan R. Komiljonovanning "O'zbek tilida modal so'zlar" nomzodlik dissertatsiyasi tahliliga bag'ishlanadi. Ushbu tatqiqot 1975-yili e'lon qilingan bo'lsa ham, uning tilshunosligimizda muhim o'rni bor. Aynan unda ona tilimizdagi modal so'zlarni leksik-grammatik kategoriya sifatida aniqlab umumlashtirish, tadqiq qilish va sematik jihatdan tasniflash borasida muhim ishlar amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Modal so'zlar; modallik kategoriyasi, mantiqiy modallik, kirish so'zlar; so'zlovchi munosabati, o'zbek tilshunosligida modal so'zlar; obyektiv va subyektiv modallik modal so'zlar o'rganilishi, modal so'zlar chegarasi va tasnifi.

O'zbek tilshunosligida tilimizdagi modal so'zlarning o'zi alohida tatqiqot obyekti sifatida olinib chuqur ilmiy tahlil etilgan yagona ilmiy tatqiqot, shubhasiz, R. Komiljonovanning "O'zbek tilida modal so'zlar" nomzodlik dissertatsiyasidir. Ushbu ish o'zbek tilidagi modal so'zlarning o'rganilish tarixi, maxsus leksik-grammatik kategoriya sifatida aniqlab umumlashtirish, tadqiq qilish va sematik jihatdan tasniflash va sintaktik vazifasini tavsiflash borasida qilingan eng muhim, yirik va yagona ish hisoblanadi. Bundan tashqari, Olima ishida, tilshunoslikdagi modallik kategoriyasi, modal so'zlarning rus tilshunosligida o'rganilish tarixi va turkologiyada modal so'zlarning o'rganilishi va ularning o'zbek tilidagi o'rni, semantikasi va tasnifi kabi masalalarni chuqur tahlil qiladi va juda muhim ilmiy xulosalarni beradi.

Dissertatsiya o'zbek tilshunosligini o'sha davrda bir qator ilmiy yangiliklar bilan boyitgani bilan ham ahamiyatlidir. Xususan, keyinchalik va hozir ham keng qo'llanayotgan "obyektiv va subyektiv modallik" atamalarini o'zbek tilshunosligida ilk marta aynan shu ishda uchratish mumkin: "Tilshunoslikda modallik ikki xil bo'ladi: a) obyektiv modallik, bunda har qanday jumlada voqelikka munosabat ifodalanadi; b) so'zlovchining gapirayotgan fikriga munosabatini bildiruvchi subyektiv modallik. Bu aytilayotgan fikrga subyektiv munosabat har bir jumlada bo'lishi shart emas"[1, 7]. Mullif bu fikrlarni o'sha davr uchun mos ravishda rus tilshunosligi yutuqlaridan ilhomlangan holda ilgari surgan desak xato bo'lmaydi. Boshqa o'rinda olim bu haqda aniq ta'kidlab o'tadi: "Zamonaviy rus tili grammatikasi" (1970) da predikativlik va modallikni tushunish va ta'riflash "gapning voqelikka munosabati" va "so'zlovchining muloqotga bo'lgan munosabati"ni ajratishga asoslangan"[1, 8]. Anglashiladiki, bu jumladagi "gapning voqelikka munosabati obyektiv modallik, "so'zlovchining muloqotga bo'lgan munosabati" deyilganda esa subyektiv modallik nazarda tutilmoqda. Shungdek, u ushbu atamalarning bir-biridan farqi, ma'no-mohiyatiga dissertatsiyada kengroq to'xtalib o'tiladi. Nuq jarayonida subyektiv modallikning ifodalanishida eng asosiy o'rinni egallovchi modal so'zlarning mavqeyini oshirishga harakat qiladi.

Shu bilan birga ishda boshqa anchayin ahamiyatli o'rinlar bor. Masalan, dissertatsiyada o'sha davrdagi o'zbek tilshunosligida modal so'zlarni aniqlash mezonlari, o'zi umuman qaysi qanday so'zlar bunday so'zlarga kiritilish-kiritilmasligi va ularning semantik tasnifi to'g'risida umumiy, yakdil ilmiy qarashlar mavjud emasligini ta'kidlanib, ushbu muammoga yechim topishga harakat qilinadi. Olima ushbu ishida o'zbek tilidagi modal so'zlarga yondashuv rus tilshunosligidagi modal so'zlar borasidagi ikki xil pozitsiya asosida shakllanganini, shu sababli ham ularning o'zbek tilidagi soni va tasnifi borasida bir xil qarash mavjud emasligi sababini tushuntirib beradi: "Rus tilshunosligida modal haqida ikki xil nuqtai nazar, ikki konsepsiya mavjud. Shunday qilib, bir guruh olimlar - rus olimlari, akademikdan keyin. V.V.Vinogradovga ergashib, modal so'zlarning so'zlovchining aytilayotgan fikrga munosabati, subyektiv ma'nosini bildirishidan kelib chiqib, modal so'zlar doirasini kengaytiradi. "Zamonaviy rus adabiy tili grammatikasi"da (1970) bu nuqtayi nazar ilgari suriladi. Olimlarning aksariyati bu guruhga qo'shilishadi"[1, 9]. R. Komiljonova ham xuddi shu konsepsiya ortidan boradi va o'zbek tilidagi modal so'zlar chegarasini kengaytiradi. U o'zbek tilidagi kirish so'z vazifasida keluvchi deyarli barcha birliklarni modal so'zlar deb hisoblaydi. U modal so'zlarni aniqlashda tilning tabiiy ravishda tilning sintaktik sathi faktlariga tayanadi.

Shuningdek, bu ishda modal so'zlarni modal ma'noli yuklamalardan faqlash maqsadida diqqatga molik fikr-mulohazalar bildirilgan. Muallif modal so'zlar va yuklamalarni bir-biridan farqlash yuzasidan muhim qadamlar tashladi, ularning muloqot jarayonida ifodalaydigan ma'nosiga ko'ra bir-biridan jiddiy farqlanishini alohida ta'kidlaydi: "Yuklamalar modal so'zlarga qaraganda mustaqillik darajasi pastroq bo'lib odatda ba'zi so'zlar ma'nosiga qo'shimcha ma'no ottenkalarini kiritish vositasi vazifasini bajaradi, modal so'zlar esa modal ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi"[1, 10]. Demak, modal so'zlar va yuklamalar semantikasi ularni ajratishda muhim jihat hisoblanadi. Ammo muallif modal so'zlar va yuklamalar orasidagi eng asosiy farqlovchi belgilardan ularning bajaradigan funksiyasi ekanligiga urg'u berib shunday yozadi: "Asosiy mezon, albatta, so'zning gapdagi vazifasi bo'lishi lozim. Agar kirish so'z yoki ibora so'zlovchining gapda ifodalangan fikriga subyektiv munosabatni ifodalash funksiyasini bajarsa, biz bunday so'z yoki iborani modal deb belgilashimiz kerak"[1, 12]. Ma'lumki, o'sha

davrda modal soʻzlarni yuklamalar va baʼzan ravishlardan aniq farqlay olmaslik, ularni oʻzaro aralashtirib yuborish holatlari mavjudedi. Yuklamalar talaffuz jihatidan yuqorida aytilgandek balandroq intonatsiya bilan talaffuz qilinishi mumkin, lekin koʻpincha talaffuzda modal soʻzlardan soʻng kichik pauza yuzaga keladi va shundan soʻng jumlaning asosiy qismi talaffuz qilinadi. Yuklamalarda esa bunday holat kuzatilmaydi, ular modallardan farqli ravishda mustaqilligi cheklangan, doim nutqda maʼlum soʻz yoki birikmaga “tirkalgan” holda ishlatiladi va talaffuzda pauza orqali boʻlinmaydi. Shuning uchun ham ular yozuv jarayonida vergul bilan ajratib koʻrsatilmaydi. Umuman olganda, ushbu ilmiy ish muallifi ularni oʻzining asosli ilmiy qarshlari asosida yuklama va modal soʻzlarni bir-biridan farqlaydi hamda bu borada boshqa savollarga oʻrin qoldirmaslikka harakat qiladi.

Yuqoridagilarga qoʻshimcha oʻlaroq aytish lozimki, yuklamalar yuqoridagi iqtibosda aytilganidek gapda maʼlum bir soʻz, birikma maʼnosini kuchaytirish, takidlash, ajratish, yoki butun gapga turli maʼnolarni qoʻshish, tabir joiz boʻlsa, “yuklash” vazifasini bajaruvchi soʻzlardir. Ular qoʻshimcha shaklida ham aynan shu vazifalarni bajaradi va boshqa soʻzlar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Shuningdek, eng muhim fakt shuki, yuklamalar ham modal maʼno bildirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ularni dastlab soʻz turkumlarini ilmiy jihatdan oʻrganish boshlangan paytlarda modal soʻzlardan farqlashda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Rus tilshunosligida ham bu holat boʻlganini ushbu ish muallifi aytib oʻtadi [1, 12]. Umuman, yuklamalarning modal maʼno ifodalashi, gap yoki uning boʻlagiga modal maʼno yuklashga xizmat qilishi haqida ushbu ish muallifi ham ayni shu ishida aytib oʻtgan. Ammo ona tilimizdagi barcha yuklamalar ham aynan shu modallik turini anglatish uchun xizmat qilavermaydi. Shu bilan birga, oʻsha davrda, yani 1976-yili nashr qilingan “Oʻzbek tilining grammatikasi”ning ikkinchi qismida ham bu haqda maʼlumotlar berib oʻtilgan edi [3, 537]. Aynan shu faktning keyingi davrda bajarilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar yana ham kengroq koʻrsatib berdi. Xususan, tilning modal strukturasi haqida maxsus tadqiqot olib borgan tilshunos Yigitaliyeva Zilola oʻzining ilmiy ishida ushbu turkumdagi soʻzlarning katta qismi modal maʼno ifodalashini, gapdagi modusni ifodalashdagi roʻlini yoritib beradi. U ishining bir oʻrnida fikrlarini shunday xulosalaydi: “Shu bilan birga, ayrim yuklamalarda soʻzlovchining xabar yoki obyektiv olamga boʻlgan shaxsiy munosabati ham ifodalanishi mumkin. Yuklamalarning ushbu jihati modal soʻzlarga yaqin boʻlib, gapda modallik kategoriyasining ifodalanishiga xizmat qiladi”[4, 69].

R. Kamiljonova modal soʻzlarga alohida taʼrif berar ekan, bunda ularning barcha jihatlarini qamrab olishga intiladi: “Oʻzining nisbiy leksik mustaqilligini saqlagan, soʻzlovchining oʻz fikriga munosabatini bildiradigan, Ular ogʻzaki nutqda intonatsion urgʻu va yozma nutqda tinish belgilari bilan ajraladigan va gap boʻlagi boʻla olmaydigan soʻzlar modal soʻzlar hisoblanadi”[1, 14].

Olima modal soʻzlarni umumlashtirish va tasnif qilishda mashhur rus tilshunosi V.V.Vinogradov va uning izdoshlari ilmiy qarashlariga tayanadi. U aynan ularga ishora qilib shunday yozadi. “Kirish soʻz sifatida modal soʻzlarning doirasini aniqlashda biz asosan osha olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda modal soʻzlarni keng maʼnoda koʻrib chiqamiz. Ammo modal soʻzlar soʻzlovchining aytilayotgan fikriga munosabatini munosabatini bildiradi taʼrifidan kelib chiqib, modal soʻzlar qatoriga bunday munosabatni bildiruvchi barcha soʻzlarni kiritamiz.” [1, 14]. Ushbu holat yuqorida ham aytganimizdek tabiiy jarayon edi, chunki tilshunos olim A. Nurmonov keyinchalik alohida aytib oʻtganidek: “Umuman olganda, V. V. Vinogradovning sintaktik taʼlimoti turkiy tillarga oid sintaktik adabiyotlarning nazariy asosini tashkil etadi” [1.16]. Modal soʻzlarni belgilash esa ular qatnashgan jummalarni oʻrganish, yaʼni sintaktik birliklarni tatqiq etish orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda, morfologiya va sintaksis bir narsaning – grammatikaning ikki qismi, ular orasiga devor qoʻyib boʻlmaydi. Shu asosda R. Kamiljonova oldin ham taʼkidlab oʻtganimizdek modal soʻz va kirish soʻz tushunchalarini tenglashtirishga urinadi. Ularni faqat biri morfologik, ikkinchisi sintaktik tushunchaligiga koʻra faqrlanadi deb hisoblaydi: “Agar biz ushbu mezonga amal qilsak, modal soʻz va kirish soʻz tushunchalari orasida hech qanday farq qolmaydi. Ular faqat modal soʻz morfologik tushuncha, kirish soʻz esa sintaktik tushuncha boʻlgani uchuniga farq qilishi mumkin”[1, 16]. Bu subyektiv fikr ham eʼtirozlarga sabab boʻladi. Negaki morfologiya va sintaksis juda yaqin boʻlsa-da, bu atamalarning farqli tushunchalar ekaniga asoslar mavjud. Kirish soʻzlar anchayin keng tushuncha. Maʼlumki, faqat modallargin emas, boshqa soʻz soʻz turkumlariga kiruvchi bir qancha soʻzlar ham gapga bemalol kirish soʻz vazifasini olishi mumkin. (Bunday soʻzlarga hali bafurja toʻxtalib oʻtamiz) Demakki, modal va kirish soʻzlar bir qator tilshunoslar, xususan, Sh. Rahmatullayev taʼkidlaganidek “butun bilan qism” munosabatida boʻladi [2, 588]. Bunda kirish soʻzlar umumiy bir butun hisoblansa, modal soʻzlar ularning bir qismini tashkil etadi. Bundan tashqari, modallar matnda soʻz-gap vazifasida ham kelishlari mumkin. Ayon boʻladiki, ular koʻpincha bir-biriga parallel kelsa-da, bir xil tushunchalar emasligini koʻrsatadi.

Kuzatishlarimizdan ayon boʻladiki, modal soʻzlar nutqda soʻzlovchining fikriga yo mantiqiy, yoki hissiy baho berish uchun ishlatiladi. Tatqiqot muallifi oʻzigacha bir qator ilmiy adabiyotlarda, xususan, “Oʻzbek tili grammatikasi” (1975) da modal soʻzlar qatoriga kiritilmagan hissiy modal munosabat ifodalovchi: *koshki, zora, yaxshiki, xayriyat, haytovur, attang, afsuski, ajabo, boʻlmasamchi* singari soʻzlarni modal soʻzlar safiga kiritadi. U bu holatga oʻzining ushbu fikrlari bilan oydinlik kiritadi: “Biz nafaqat aytilayotgan fikrga oqilona, mantiqiy baho beradigan, xabar qilinayotgan hodisaga tasdiq, ishonch yoki gumon, taxmin maʼnolarini ifodalovchi soʻzlarni qamrab olamiz, balki ularga hissiy baho beruvchilarni ham bu qatorga kiritamiz, chunki hissiy baho xabar qilingan faktlarga subyektiv munosabatlarni ifodalaydi”[1, 17]. Darhaqiqat, subyektiv modallik soʻzlovchining mantiqiy bahosini, balki uning emotsional bahosini ham qamrab oladi. Ushbu holatni biz keyinchalik maydonga kelgan “Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi” (1992) da ham koʻrishimiz muki. Bu nuqtayi nazardan yuqoridagi soʻzlarning modal soʻzlar deya eʼtirof etilishi qandaydir eʼtirozlarni paydo qilmaydiganidek koʻrinadi. Lekin shuni aytish lozimki, emotsional undov soʻzlar bilan ham ifodalanayotgan fikrga emotsional baho kiritilishi mumkin

hamda ular ham gapda “o‘ziga xos” kirish so‘z vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Attang, kecha stadionga bora olmadim – Ex, kecha stadionga bora olmadim* gaplaridagi biri modal, ikkinchisi undov bo‘lgan ikki so‘z bemalol o‘zaro o‘rin almashishlari mumkin. Bunda ularning ma‘nosiga deyarli putur yetmaydi. Aynan yuqorida keltirganimiz hissiy munosabat ifodalaydigan modallar ayrim his-hayajon undovari bilan hutq jarayonida o‘xshash ma‘no ifodalaydi, o‘zaro sinonim bo‘ladi hamda gapda bajargan vazifalari ham teng kelib qolishi mumkin. Demak, muallifning yuqoridagi hukmidan kelib chiqilsa, ayrim udovlarni ham modallar safiga kiritish mumkin bo‘lib qoladi. Ma‘lumki, undov va modal so‘zlar o‘zaro teng emas. Emotsional undovlar ko‘pincha kishining oniy bir lahzalik emotsiyani ifodalaydi. Ularning vujudga kelishi va shu asosida fonetik tuzilishlari ham modallarnikidan tubdan faqat qiladi. Yuqorida keltirilgan tipdagi modallar esa inson tafakkuri bilan bog‘liq, davomiylik xususiyatiga ega his-tuyg‘uni aks ettiradi. Emotsiya va hissiyot bir-biriga yaqin bo‘lgan, lekin faqri tushunchlar sanaladi. Oraliq so‘z turkumlari oid tatqiqot muallifi tilshunos Kaxarova Iroda ta‘kidlaganidek: “Tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo‘ladigan his-tuyg‘ularni ifodalovchi ichki kechinmalar “emotsiya” deyilsa, miyada, inson ehtiyojini qondiruvchi yoki unga zid obyektarga nisbatan munosabatlarni aks ettirish esa “hissiyot” hisoblanadi” [6, 39-b]. Shuningdek, ularning shakllanishi, fonetik tuzilishi ham o‘zgaradi.

Shu bilan birga, yuqoridagi o‘zi belgilagan mezonlardan kelib chiqib muallif aniq bir hissiy yoki boshqa munosabat ma‘nosi sezilib turmaydigan *birinchidan, ikkinchidan, atishlaricha, demak, aytganday, shunday qilib* yoki ularga yaqin ma‘no bildiruvchi yoki sinonim bo‘ladigan va shu tipdagi kirish so‘z vazifasida keluvchi so‘zlarni modal so‘zlar ekanini ta‘kidlaydi va bu hukmini tatqiqotida shunday dalillaydi: “Bu so‘zlarni modal so‘zlar orasida saqlab qoluvchi yagona fakt shuki, gapning manbasi ham, fikrlar ta‘rtibi ham subyektiv ravishda so‘zlovchi tomonidan belgilanadi, ya‘ni subyektivlik momentidir. Demak, bu tushuncha (modal so‘z tushunchasi) faqat bayon qiluvchi subyektning ifodalangan fikrga munosabatini emas, balki fikr manbasini, uning tartibini bildiruvchilarni ham o‘z ichiga qamrab olishi kerak” [1, 18]. Bunday tipdagi so‘zlar semantikasida boshqa modal so‘zlar kabi subyektiv munosabat ma‘nosi anglashilib turmaydi, ammo ulardagi subyektivlik faktini inkor qilib ham bo‘lmaydi. Ular fikrni xulosalash: *xullas, umuman, qisqas; dalillash, masalan, jumladan, chunonchi*, fikr manbasiga ishora qilish: *menimcha, uningcha, aytishlaricha*; fikrni tartiblash: *avvalo, avvalambor*, qo‘shimcha yangi axborot, eslatish: *aygancha, aytganday, aytmoqchi* kabi ma‘nolarni ifodalalaydi, jumlada kirish so‘z vazifasini bajaradi. Umuman, bu tipdagi so‘zlar qatorini davom ettirish mumkin: *aksincha, qaytaga, binobarin, ayniqsa, nahotki, qarabsizki, ishqilib* va boshqalar. Ular umumlashtiruvchi so‘zlarda aytilayotgandek nutqiy jarayonda so‘zlovchi tomonidan fikrlarining o‘zaro munosabatlaridagi turli ma‘nolarni ifodalash va fikrlar oqimini tartibga solish uchun ishlatiladi. Ularda subyektiv baho bo‘rtib turmasa-da, modal so‘zlar qatorida ushlab turuvchi boshqa faktorlar majud. Ya‘ni, birinchidan, ular gapda ko‘pincha kirish so‘z vazifasida keladi, ikkinchidan ular etimologik jihatdan ham boshqa modal so‘zlardan farq qilmaydi. Ayrimlari esa boshqa tillardan kirib kelgan. Ushbu so‘zlarning morfem tarkibi soddalashgan, ya‘ni ularning tarkibidagi affiksalar hozir o‘z vazifasida qo‘llanilmaydi. Bir vaqtlar so‘zshakl bo‘lgan so‘zlar sintaktik vazifa talabi bilan soddalashib boshqa so‘z turkumiga aylangan. Ayni shuni, ularning tarkibidagi qo‘shimchalar o‘z manosidan uzoqlashgan, ularni konkret ma‘noli qisimlarga ajratib bo‘lmasligini o‘zbek tilida so‘z tarkibidagi soddalashish hodisasini tatqiq etgan Usmonova Malika ham o‘z tatqiqotida aytib o‘tgan edi [7, 136].

Yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqib muallif modal so‘zlar chegarasini nihoyatda kengaytiradi va bu holat ularni tasniflashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunda hali aytganimizdek ularning sintaktik xususiyatlari, gapda bajaradigan sintaktik vazifasi asos qilib olinadi. Dastlab modal so‘zlar ikki guruhga bo‘ladi: **1. Kirish modal so‘zlar. 2. Komponent bo‘ladigan modal so‘zlar** [1, 19]. Ma‘lumki aksaryat modal so‘zlar bir vazifada kirish so‘z vazifasini bajaradi. Birinchi guruhda ayni shunday modal so‘zlar jamlanadi. Muallifning o‘zi buni quyidagicha izohlaydi: “Amalga oshiradigan funksiyasiga ko‘ra alohida leksik-grammatik guruhni tashkil etadi va mustaqil qo‘llanadi. Ular jumlada so‘zlovchi bildirilayotgan fikriga munosabatni leksik jihatdan ko‘rsatish uchun maxsus qo‘llaniladi” [1, 19].

Ikkinchi guruh modal so‘zlar semantik xususiyatiga ko‘ra modal ma‘no anglatadigan, gap tarkibida ko‘pincha kesim tarkibida keladigan va ba‘zida mustaqil kesim vazifasida ham kelishi mumkin bo‘lgan *kerak, lozim, darkor, shart mumkin* kabi so‘zlar ekani ta‘kidlanadi. Bu bilan tatqiqot muallifi sintaktik xususiyati birinchi guruhnikidan keskin farqlanadigan, lekin modal ma‘no tashiydigan, boshqa biror so‘z turkumi kiritish qiyin bo‘lgan (shart so‘zidan tashqari) ushbu birliklarni ham modal so‘zlar doirasiga jalb qilgan. U bu haqda shunday yozadi: “Ikkinchi guruhga mustaqil qo‘llanmaydigan, faqat kesimning bir qismi sifatida, ya‘ni qo‘shma predikatning komponenti sifatida qo‘llanadigan modal so‘zlarni kiritish kerak” [1, 20]. Nazarda tutilayotgan ushbu nomustaqil modal so‘zlar ham so‘zlovchining fikriga munosabatini ifodalaydi. Ular mustaqil so‘zlar kabi tashqi olamdagi narsa-hodisa, yoki belgini ifodalay olmaydi. Ularning tildagi asosiy vazifasi kesim tarkibidami yoki aksincha, A. Nurmonov tabiri bilan aytganda “zarurlik, majburlik, mumkinlik modallik ma‘nolar” [5,89]ini ifodalashdir. Lekin bitta farq mavjud. Kirish so‘z vazifasida keluvchi modallardan faqri ular subyektiv modallikni emas, obyektiv modallikni ifodalaydi. Muallif esa ularni subyektiv munosabat ifodalovchi sifatida ta‘riflaydi: “Nomustaqil modal so‘zlar tarkibli kesimning nominativ qismi bilan qo‘shilib so‘zlovchining aytilayotgan fikriga munosabatini bildiradi” [1, 21]. Albatta, obyektiv modallikda ham so‘zlovchi nuqtayi nazari mavjud. Umuman, ushbu so‘zlarni modal so‘zlar qatoriga kiritish mutlaqo to‘g‘ri bo‘lgan deyish mumkin. Chunki *kerak, lozim, darkor, mumkin* so‘zlarini boshqa biror so‘z turkumiga qo‘shib bo‘lmaydi.

Xullas, ushbu ishda, tilshunoslikdagi modallik kategoriyasi va ularning o‘zbek tilidagi o‘rni, semantikasi va tasnifi kabi masalalar chuqur tahlil qilinadi va juda muhim ilmiy xulosalar beradi. Dissertatsiya o‘zbek tilshunosligini o‘sha davrda bir qator ilmiy yangiliklar bilan boyitgani bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek,

Muallif nutq jarayonida subyektiv modallikning ifodalanishida eng asosiy o‘rinni egallovchi modal so‘zlarning mavqeyini oshirishga harakat qiladi. Bunda u rus tilshunosligidagi ilmiy konsepsiyalar asosida o‘zbek tilidagi modal so‘zlar chegarasini kengaytiradi. U o‘zbek tilidagi kirish so‘z vazifasida keluvchi deyarli barcha birliklarni modal so‘zlar deb hisoblaydi va ularni aniqlashda tilning tabiiy ravishda tilning sintaktik sathi faktlariga tayandi. Bundan tashqari, muallif modal so‘zlar chegarasini nihoyatda kengaytiradi va bu holat ularni tasniflashda yaqqol namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Камильджанова Р. Модальные слова в современном узбекском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Тошкент, 1975. – 28 с.
2. Ўзбек тили грамматикаси, I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – 610 б.
3. Ўзбек тили грамматикаси, II том, Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – 628.
4. Йигиталиева З. М. Тилнинг модаль структураси ва модуснинг ифодаланиши, Фил. фан. фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Фарғона. 2020. – 169 б.
5. А.Нурмонов, Н. Махмудов, А. Ахмедов, С. Солихўжаева, Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент: Фан, 1992. – 292 б.
6. Кахарова I. S. Ingliz va o‘zbek tillarida emotiv, taqlid va modal so‘zlarning lingvopragmatik tadqiqi. Fil. fan. dok. (DSc) dissertatsiyasi – Toshkent, 2024. – 412 b.
7. Усмонова М.К. Сўз таркибида содаллашиш, Монография. – Тошкент: Фан, - 136 б.
8. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш., Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1965. – 390 б.



O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA ZULLISONAYNLIK ANANASI

¹Kamolova O., ²Asrorov A.

¹SamDU Urgut filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti talabasi, Urgut sh., O‘zbekiston

²SamDU Urgut filiali tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, Urgut sh., O‘zbekiston

Annotasiya: Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida zullisonaynlik an‘anasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari va bu jarayonda ishtirok yetgan shoirlar va boshqa shaxslar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, zullisonaynlik an‘anasining turkiy til (o‘zbek tili) dagi rivojlanish bosqichlari haqida mushohadani o‘rtaga tashlashni lozim ko‘rdik.

Kalit so‘zlar: Zullisonaynlik, bilingvizm, polingvizm, tillarning genitik tuzilishi, adabiy an‘analar, zullisonaynlikning davrlanishi.

Zullisonaynlik ikki yoki undan ortiq tilda ijod qilish hodisasi. Zullisonaynlik an‘anasining paydo bo‘lishiga turki dastlab ijtimoiy-siyosiy holatlar sabab bo‘lgan. Ma‘lum bir hududda turli xalqlarning istiqomat qilishi, migrasiya va boshqa turli sabablar zullisonaynlik paydo bo‘lishining dastlabki omilidir. Tarixda zullisonaynlikning fors-turk, fors-arab, o‘zbek-fors tojik kabi turlari keng tarqalgan.

Yevropa mahalliy tillardagi adabiyot 11-12 asrlarda rivojlana boshlaganligi taridan yaxshi ma‘lum. Rim imperiyasining yemirilishi, uning o‘rniga yangi davlatlarning paydo bo‘lishi fransuz, italyan, ispan kabi yangi milliy tillarning shakllanishi ko‘p tili yevropa adabiyotining paydo bo‘lishi va shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu davrlarda asar tilini tanlash muallimning millatiga qarab yemas balki asar satriga bog‘liq bo‘lib qolganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu holat 16 asrgacha davom yetgan. G‘arbiy Yevropada esa ushbu holatning 18 asrdan 20 asr boshlarigacha mavjud bo‘lganligini ilmiy adabiyotlar tasdiqlaydi. Bir necha tilda ijod qilish mualliflardan nafaqat ijod qilinayotgan tilni, balki o‘sha til adabiyotida mavjud bo‘lgan adabiy an‘analarni chuqur bilishni talab yetadi.

Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida genitik jihatdan yaqin bo‘lgan ikki yoki uch tilda ijod qilish bilan birga bir-biridan batamom uzoq bo‘lgan tillarda, xususan, turkiy va forsiyda ijod qilish udum bo‘lgan. Bu tillar genitik jihatdan turli til oilalariga mansub bo‘lishlariga qaramasdan forsiy va turkiy xalqlar asrlar davomida bir hududda yashaganliklari sababli ular orasida ham madaniy aloqalar uzoq davrlardan buyon davom yetib kelmoqda. Bu yesa bu xalqlar madaniyati va turmush tarzida mushtarakliklar paydo bo‘lishi, birinchi prezidentimiz I.A. Karimov ta‘biri bilan aytganda: "ikki tilda gaplashadigan bitta xalq"ning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Darhaqiqat, bu ikki xalq o‘zbek va tojik xalqlarining urf-odatlari, ma‘naviyati va madaniyati o‘rtasida o‘rtasida mushtarak jihatlari juda ham ko‘p. O‘zbek tili lug‘at fondiga tojikcha so‘zlarning o‘rni salmoqli yekanligini bu aloqalarning natijasi sifatida ye‘tirof yetish mushkul. Buning natijasida ikki xalq bir-birini oson tushunishiga imkoniyat paydo bo‘ldi, bir-birining ma‘naviyat chashmasidan bahramand bo‘lish imkoniyati vujudga keldi: ikki tilda birdek ijod qila oladigan shoirlar maydonga chiqdi.

Temuriylar davrida Alisher Navoiy ikki tilda barobar ijod bilib ham forsiy, ham turkiy she‘riyat mumtozlik maqomiga yerishdi. Natijada ikki tilda ijod qilish, zullisonaynlik hodisasi o‘zbek adabiyotida yanada barqaror shakllandi. Shuni ye‘tirof yetish kerakki, Alisher Navoiygacha ham ikki tilda ijod qilinishga urinishlar bo‘lgan. Jumladan, Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asaridagi 11 nomadan 8 tasi turkiy tilda yozilgan bo‘lsa, 3 tasi fors –tojik tilida yaratilgan. Bu tipdagi yondoshish holatlarini Mavlono Lutfiy, Atoiy, Sakkokiylar ijodida ham ko‘rish mumkin, ammo ko‘p tilda ijod yetish badiiy adabiyot olamida kam uchraydigan holatlardan biri yedi. O‘sha

davrda o'zbek kitobxonlarining bir qismi fors-tojik tilidagi adabiyotdan bahramand bo'lsa ham ko'pchilik undan foydalana olmas yedi. Shu sababli Navoiy "Bu alfoz va iboratda bu nav daqoyiq ko'pdirkim, bu kunga deguncha hyech kim haqiqatiga hyech kishi haqiqatiga mulohaza qilmagan jihatidan bu yashirin qilibdur... Va filqaqiqat, asar kishi yaxshi mulohaza va taomul qilsa, chu bu lafzda nis'at (kenglik) va maydonida muncha musxat (ochiqlik) topilur..." deb yozadi va o'zbek shoirlarini o'z ona tilini mukammal bilishiga chaqiradi. Navoiyning fikricha ona tilini faqatgina xalq ommasi yemas, balki shoirlar ham qo'llashi, shu tilda iloji boricha o'z iqtidor va mahoratini ko'rsatishi kerak. Navoiy "...turk tilining jamiyati muncha deloil bila sobit bo'ldi, kerak yerdikim, bu xalq orasidan paydo bo'lgan tab ahli salohiyat va tablarni o'z tillari turg'och, o'zga til bilan zohir qilmasa yedi, va agar ikkalasi til (o'zbek va fors tili) bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari birla ko'proq aysalar yedi va yana bir til bilan ozroq aysalar yedi va agar mubolag'a qilsalar, ikkisi til bilan ming aysalar yedi..." deb yozadi.

Hazrat Navoiyning bevosita ta'sirida natijasida fors-tojik shoirlaridan birinchi bo'lib Kamoliddin Binoiy, Baxriddin Haloliy, Davlashoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiylar turkiy tilda ham ijod qila boshladilar.

O'z o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Alisher Navoiy ham ikki tilda benazir asarlar yaratgan. "Devoni Foni" asarida ulug' zullisonayn shoir o'zining ikki tilda yaratgan asarlari haqida faxrlanib bunday yozgan yedi Manim shirin-u, ranginam ba turki bexad asr.

Forsiy ham lal-u durxou simin chun bengari.

Go'yo dar rast bozori sugan bikushodam.

Yak taraf dukoni qannodi-yu yak su zargari.

Ma'nosi : "Turkiy tilda rang-barang shirin ma'noli she'rlarim behad ko'pdir, Forsiy she'rlarim behad ko'pdir, Forsiy she'rlarim ham bebaho lal-u gavharlarga o'xshaydi. Go'yo so'z bozorida do'kon ochganman: bir tomonda qandolat do'koni-yu, bir tarafda zargarlik.

Alisher Navoiy o'sha davrda urf bo'lgan turkiy til imkoniyati va qudratiga ye'tiborsizlik bilan qarovchilarga qarshi chiqib, ona tili uchun kurash har bir xalqning muqaddas vazifasi yekanligi "Xayrat-ul abror" dostonida quyidagi misralarda ifodalaydi:

Senga ancha haq lutfu vaqidurur

Ki ta turk alfozi shaydurur

Bu til birla ta nazi yerur xalq ishi

Yaqin qilmamish xalq seningdek kishi.

Turkiy tag'i topsa barumanglig'.

Hazrat Alisher Navoiy Bobur tili bilan aytgandan "ko'p va xo'p " asarlar yozdi. Fors -tojik tilda ham benazir asarlar yaratdikim,natijada bu asarlari orqali ikki buyuk xalqlar ijodi birlashtirildi.

XY asrdan XIX asrning birinchi yarmiga qadar ijod qilgan o'zbek va tojik mumtoz adabiyoti namoyondalari bu ikki xalq mumtoz adabiyotining Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk namoyandalar ijodiy merosidan ilhom va ta'lim oldilar degan ijobiy fikrlar ham bor. Biz bu fikrga qo'shimcha ravishda mazkur davrdagi yana bir tub burilish maqomida qaraladigan hodisani inobatga olish joiz deb biliamiz. Bu hodisa zullisonaynlik an'anasining ayollar she'riyatida o'z ifodasini topishi masalasi bilan bog'liq bo'lib, bu borada ham o'zbek mumtoz adabiyotida e'tiborga molik badiiy ijod namunalari yuzaga kelganligini alohida qayd etish lozim. Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barnolar ikki tilda baravar ijod qilib zullisonaynlik adabiy jarayonini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shdi. Bu an'ana shu tariqa davom yetib hozirgi kunda keng ommalashganini ko'rishim mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, o'zbek mumtoz adabiyotida zullisonaynlik an'anasining turkiy tilda rivojlanishi XII asrdan boshlanga bo'lsa,u XIX asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda yashagan qariyib barcha adiblar ushbu an'anani davom yettirib zullisonaynlik taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha ldilar. Bu an'ana Navoiy, Jomiy Bobur, Atoiy va bir qator shoir-u fuzulolarning ijodida yaqqol ko'zga tashlanishini ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik davriga kelib zullisonaynlik masalasi yana yangicha shakl va ko'rinishlar orqali adabiyotga kirib kela boo'ladi.Jumladan,Aziz Sayyid,Jamol Kamol va O'lmas amol kabi o'zbek va tojik shoirlari ikki tilda barobar ijod qilib kelmoqdalar.Xullas,ikki va ko'p tillilik adabiyotimizning asosiy uzani sifatida bir-biriga yaqin xalqlar taqdiri uchun xizmat qilib kelaveradi.

ADABIYOTLAR

1. B. Muhiddinova. O'zbek mumtoz adabiyotida zullisonaynlik masalasi. Dok. dissertatsiya avtoreferati. Sam. 2023.
2. A. Hayitmetov. Alisher Navoiy va O'zbek tarjima adabiyoti. Toshkent. 2029.
3. H. Boltaboyev. Adabiyot nazariyasi. Mumtoz so'z. T. 2014
4. B. Muhiddinova. Saidahmad Vasliy. Sam. 2019.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASINING UMUMIY ASOSLARI.

Mamatqulova Mushtariybonu Shavkat qizi

Samarqand davlat universitetining Urgut filiali 2-kurs talabasi, Urgut sh., O'zbekiston

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada imloviy savodxonlikni oshirib borish, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari, ahamiyati va maqsadi haqida mavzu yoritilgan.

Kalit so'zlar: *ona tili o'qitish metodikasi, ona tili darslarida savodxonlik, pedagogika tarixi, fonetika, nutq organlari, nutqning ifodaliligi, og'zaki va yozma nutq.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается тема повышения орфографической грамотности, актуальные вопросы, значение и цель методики обучения родному языку в начальных классах.

Ключевые слова: *методика обучения родному языку, история педагогики, фонетика, органы речи, выразительность речи, устная и письменная речь*

ABSTRACT

This article highlights the topic of improving spelling literacy, topical issues, the meaning and purpose of the methodology of teaching the native language in primary schools.

Keywords: *methods of teaching the native language, History of pedagogy, phonetics, organs of speech, expressiveness of speech, oral and written speech*

KIRISH

Ona tili o'qitish metodikasi – pedagogik va amaliy fan. Chunki u nazariyaga asoslanib o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi. Ona tili o'qitish metodikasi fani ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, fonetika, gramatika bilib olish jarayoni hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ona tili o'qitish metodikasi amaliy fan sifatida uch vazifani bajaradi

1. Nimani o'qitish kerak? Yani, boshlang'ich sinf uchun darsliklar ishlab chiqib, o'quv qo'llanmalarini yaratib beradi.

2. Qanday o'qitish kerak? Ta'lim berishning metodlari, metodik usullar, yozma ish, dars, uning turlarini ishlab javob beradi.

3. Nega xuddi manashunday o'qitish kerak? Yani bunda, ilmiy nuqta nazarda ko'zda tutilgan eng foydali metodlarni o'rganish asoslash va ularni eksperimental tekshirish vazifalarini bajaradi.

Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, shuningdek o'qitishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi uni bartaraf etish usullarini topadi.

Nutqiy va orfografik tipik xatolarni tekshiradi, uni oldini olish chora tadbirlarini belgilaydi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida, asosan bolalarning nutqini o'stirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar nutqini o'stirishdan tashqari, ona tilidan elementer nazariy tushunchalarni amaliy o'zlashtirishlari ham nazarda tutiladi. Metodika bolalarning nutqini boyitishni, sintaktik va bog'lanishli nutqini o'stirishni ham ta'minlashi kerak.

Shuni aytib o'tish kerakki bog'lanishli nutq maktablarda alohida bo'lim sifatida o'rganilmaydi u til fanining boshqa bo'limlari bilan bog'langan holda o'rganiladi. Jahonda globallashtirish jarayoni tezlashayotgan bir paytda tillarni asrash, ularni takomillashtirish va o'qitish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Har qanday tilning asosini uning tovushlar tizimi, ya'ni fonetikasi tashkil qiladi. Dunyo tajribasida talaffuz mashqlari bir bo'lim yoki bir mavzu bilan tugab qolmaydi. Respublikamizda ham ona tili o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi. Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi fonetikaga doir o'quv materiallari mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarda adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, uning natijasida imloviy savodxonlikni oshirish bugungi kunda davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Fonetika o'qitish orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Maktabda o'quv predmeti sifatida tilni o'rganish tizimi tilning barcha tomonlarini, ya'ni fonetikasi, leksikasi, so'z yasalishi va gramatikasi (morfologiya va sintaksis) uning o'zaro ichki bog'lanishlariga asoslanadi.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his, kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning manashu asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv fanlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi fan hisoblaydi. " Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi, bola ikki uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, yigirma yil qunt bilan metodik jixatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilini ulug' pedagogligi ham ana shundadir, - deydi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi.

Ona tili-nutq, o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda, o'z ona tilini o'rganishi

zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning va aql - kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o`qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o`rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilib va mehnatga havasini uyg`otishga ham alohida ro`l o`ynaydi.

Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish metodikasini to`g`ri shakllantirishda davlat ta`lim standartlariga tayanib ish ko`rish qonunda belgilab o`tilgan. Unga ko`ra boshlang`ich sinflarda o`quvchilar ona tili va o`qish bo`yicha quyidagi bilan, ko`nikma va malakalarni egallashlari shart:

a) O`qish texnikasi bo`yicha:

Miqdoriy ko`rsatkich: bir daqiqada 80-90 so`zni o`qiy olish.

Talablar:

- harflarni to`g`ri talaffuz etish;
- so`zlarni to`g`ri o`qish;
- gap oxangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o`qish
- gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish;
- sanash va ajratish oxanglaridan to`g`ri foydalanish;
- so`z urg`ulariga rioya qilish;
- oxangga rioya qilish
- ilmiy atama va ramzlarni to`g`ri talaffuz etish;

b) Matn mazmunini va o`zgaralar fikrini anglash malakasi bo`yicha:

Miqdoriy ko`rsatkich: 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni o`qib, qayta so`zlab bera olish.

Talablar:

- og`zaki nutqning to`g`ri, ravon, aniq, tushunarli va ta`sirchan bo`lishi;
- monologik nutqning ravon bo`lishi;
- dialogik nutqda ta`sirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq bo`lishi.

v) Diktant yozish malakasi:

Miqdoriy ko`rsatkich: 75 — 80 so`zdan iborat diktant yoza olish.

Talablar:

- imlo xatolarga yo`l qo`ymaslik;
- ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;
- berilgan izohlarning aniqligi;
- lug`atlarning to`g`ri va aniq berilishi.

g) Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo`yicha:

Miqdoriy ko`rsatkich: 5-6 gapdan iborat bo`lgan matnni (fikr ehtiyoji bilan bog`liq mavzu asosida) yaratish.

Talablar:

- matndagi gaplarning mazmunan o`zaro bog`liqligi va aloqadorligi ko`rsatilgan mavzu doirasida birlashishi;
- harf va tinish belgilarini to`g`ri yozish;
- husnixatda qatorlarni to`g`ri joylashtirish;
- so`zlar orasidagi oraliqni to`g`ri belgilash;
- tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish;
- matnda so`zlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qo`llay olish;
- matnda xat boshlarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta`minlash;
- uyadosh so`zlardan foydalana olish.

Boshlang`ich ta`lim yakunida o`quvchilar kamida yigirmata kichik hajmdagi she`rni yoddan aytib bera olishlari shart.

Bugungi kunda ta`lim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Biroq ona tili ta`limida shunday mavzular bo`ladiki, ularni o`qitishda didaktik o`yinlardan ko`ra amaliy ishlash orqali kerakli natijalarga erishish mumkin. Shu o`rinda takidlab o`tishimiz kerakki talaffuzning imloga va aksincha, yozuvning og`zaki nutqqa ta`siri bo`lishi tabiiy. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, baribir, yozma nutq muhim bo`lib qolaveradi. Bugungi kunda o`quvchilar nutqida imloviy xatolar juda ko`p uchrayotganining sababi ham fonetika o`qitish, talaffuz masalasi bilan bevosita bog`liqdir.

Barcha o`quv predmetlariga o`xshab ona tilidan ma`lumot berish ham uch yo`nalishda tashkil etiladi: hozirgi o`zbek tilshunosligining umumiy asoslaridan ma`lumot berish vas hu orqali bolalarni fikrlashga, nutqni tuzish va ijro eta olishga o`rgatish; o`quvchilarning aqli, zehni, tafakkurini rivojlantirish; bolalarda o`z nutqi, o`zgaralar nutqi, tilga munosabatni tarbiyalash.

Ona tili predmeti o`quvchilarning bilish imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi, yoshiga moljallab tuzilgan. Demak, ona tili predmetida ta`limning lingvodidaktik, psixologik, fiziologik tomonlari hisobga olinadi.

Ona tili predmeti to`g`risida gapirib, A. V. Tekuchev bunday deb yozgan ekan: " Grammatika fonetika bilan, orfografiya , punktuatsiya, orfoepiya, leksiya (garchand bularning har biri o`ziga xos ichki tuzilishi, mazmuni, maqsadi, vazifasi, metodlari bo`lsada) yaxlit bitta o`quv predmetini tashkil etadi".

O`quv predmeti sifatida ona tilining oldiga quyidagi vazifalar qo`yiladi:

1). Bolalarda nutq tovushi, bo`g`in, urg`u, so`z, so`z birikmasi, so`zning tarkibi, so`z turkumi, gap haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish, ularni ijro etish, o`qish, yozish, eshitishga oid malakalarni shakllantirish;

2). O`quvchilar nutqini turli so`z ibora va qurilmalar bilan boyitish yo`llari bilan ularni nutq tuzishga o`rgatish;

3). O`quvchilarda aqliy, estetik, va etik tasavvurlarni, nutqqa munosabatni tarkib toptirish, ularda ilmiy dunyoqarashni tarbiyalash;

4). Bitiruv o`quvchilarni o`qish-o`rganishni bundan so`ng davom ettira olishga tayyorlash.

Ona tilidan bajariladigan ishlarning barchasi bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalashga bo`ysundiriladi.

Gap mavzusi yuzasidan o`tkaziladigan mashg`ulotlarda o`quvchilar gapning so`zlardan tuzilishini, uning kim yoki nima haqida ekanini, gapni tashkil etgan so`zlarning o`zaro bog`langanligi va bu bog`lanishni so`roqlar yordamida aniqlash mumkinligini o`zlashtiradilar. O`quvchi o`z fikrini gap vositasida ro`yobga chiqarish yo`li bilan tilning grammatik qurilishini amaliy o`rganadi.

O`qitish metodlari o`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari usuli bo`lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malakalar va ko`nikmalariga erishiladi, o`quvchilarning dunyoqarashi shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi.

Ko`rsatmali metodlar: o`qitishning metodlari – o`quvchilarga kuzatishlar asosida bilimlar olish imkonini beradi. O`qitish metodlari – bu darsda o`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo`lib, uning evaziga bilim beriladi, malaka va ko`nikmalar hosil qilinadi, o`quvchilarda dunyoqarash va mustaqil ishlash elementlari shakllanadi, ular hayotga va mehnatga tayyorlanadi.

Milliy dasturda ta`lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo`yicha ta`kidlangan ko`rsatmalar, uzluksiz ta`limni ta`minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Sariyev Sh. Savod o`rgatish darslarida nutq o`stirish. "Boshlang`ich ta`lim" jurnali № 4. - Toshkent, 1997.
2. N.N.Azizxo`jayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat, Toshkent-2006
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent. 1997
4. Ochilov M., G`afforova T. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari. Qarshi, 1990
5. Ochilov M., Ochilova N. O`qituvchi odobi. – T. O`qituvchi, 1997.
6. Pedagoglik kasbining fidoyilari. Samarqand, 2003.
7. O`zbekiston Respublikasi "Ta`lim to`g`risidagi" Qonuni 2020 yil 19 may

IZHORLI QURILMANING IKKINCHI DARAJALI BO`LAKLAR VAZIFASIDA KELISHI

Mardiyev Begali Xudoyqul o`g`li

SamDU Urgut filiali tillarni o`qitish metodikasi kafedrasini mudiri, dotsent v.b. Urgut sh., O`zbekiston

Annotatsiya: Bu maqolada izhorlash mazmunining ochilishi, xabar aktining aniqlanishi, aqliy yoki hissiy idrok haqida fikr yuritilgan. Izhorli qurilmaning (Izhorli qurilma) tobe izhorlovchi qismida bo`laklarga ajratilmagan tuzilmalar struktur jihatdan doimo muhim a`zolar – sub`ekt (ega) yoki ob`ekt (to`ldiruvchi) pozitsiyasidan birini egallaydi. Turkiy tillar, masalan, ozarbayjon, gagauz kabi tillar qatori o`zbek tilida shunday qo`shma gaplar mavjud va amal qiladiki, ularda izhorlovchi predikat boshlang`ich pozitsiyada joylashishi haqida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: izhorli qurilma, aqliy, hissiy idrok, prepozision tip, sintagma, obyektli pozitsiya, eksplisit, implisit.

Аннотация: В этой статье рассматривается раскрытие содержания изъяснения, определение акта сообщения, умственного или чувствительного восприятия. В зависимой изъяснительной части изъяснительного устройства (изъяснительное устройства) структуры, не расчлененные на части, по структуре всегда занимают одну из важнейших позиций члена-субъекта (подлежащего) или объекта (дополнения). Наряду с тюркскими языками, такими как азербайджанский, гагаузский, узбекский язык содержит и практикует такие составные предложения, в которых дается информация о расположении изъяснительного сказуемого в начальной позиции.

Ключевые слова: изъяснительное устройство, умственный разум, препозицион тип, синтагма, объектная позиция, эксплицит, имплицит.

Abstract: This article discusses the disclosure of the content of the statement, the definition of the act of communication, mental or emotional perception. Structures that are not divided into parts in the subordinate expressive part of the expressive device (Expressive device) always occupy one of the positions of the subject (owner) or the object (complement) as structurally important members. Along with Turkic languages, for example, Azerbaijani, Gagauz, Uzbek has such conjunctions that indicate the location of the declarative predicate in the initial position.

Key words: expressive device, mental, emotional perception, prepositional type, syntagma, object position, explicit, implicit.

Izhorli qurilmaning yuqorida ko‘rib o‘tilgan tiplari ularda tayanch komponentlar gapning bosh bo‘laklari sifatida amal qilishi bilan xarakterlanadi. Bunday hollarning barchasida izhorlash, mazmunning ochilishi, xabar aktining aniqlashishi, aqliy yoki hissiy idrok, baho va shu kabilar gapning kommunikativ maqsadi hisoblanadi hamda uning asosiy semantik-grammatik mazmunini shakllantiradi. Shuning uchun bunday gaplarni to‘liq huquq bilan izhorli qurilma deb atash mumkin.

Ammo izhorlash xarakteridagi qurilmalar gapning ikkinchi darajali bo‘lagi pozitsiyasini egallagan tayanch so‘z oldida mavjud bo‘lishi mumkin. Bunday gaplar endi izhorlashga taalluqli bo‘lmaydi, ularda izhorlash munosabati chekkada joylashadi va yetakchi sintaktik-grammatik mazmunning shakllanishida ishtirok etmaydi. Misollar:

Shayboniyxon Xo‘jand suvini kechib o‘tib, Shohruhiyani egallabdur, uning Piskentga yurishi rostmi, yolg‘onligini bilmoq uchun Toshkentga odam yuborsak... (X.Sultonov. «Boburiynoma»).

Selim Zelixonga e‘tiroz bildirsan bu holi voy bo‘lishini yaxshi bilganligidan yerga qarab indamay o‘tiraverdi (T.Malik. «Shaytanat»).

... mening bolam degandan keyin, mening bolam (G‘.G‘ulom).

Izhorli qurilma ko‘rib o‘tilgan holatlarda bir yaxlitlik sifatida ikkinchi darajali bo‘lak pozitsiyasini egallaydi. Bunda u gapga o‘zining cho‘qqisi – izhorlovchi predikati bilan qo‘shiladi, qolgan barcha so‘zlar, jumladan, tobe qism uning predikatiga qo‘shiladi. Gap tarkibiga qo‘shilishning bunday sharoitida ikkinchi darajali bo‘lak holatida IQning (Izhorli qurilma) prepozision tipi javob beradi. Odatda, tobe sintagma obyektli pozitsiyani egallaganda nutqning o‘timli fe‘llari predikati sifatida idrok, bilim va tafakkur ishtirok etadi, tobe qismning o‘z predikati bilan formal aloqasi usullari haqida gapirganda IQ sub‘ektlarida, nutq fe‘llarida tobe predikatning shaxsliligi saqlanishi mumkin va bunda aloqa analitik hisoblanadi, fe‘lning qolgan semantik tiplarida aloqaning morfologik-sintetik turi kuzatiladi.

Shunday qilib, mazkur bo‘limda qarab chiqilgan IQ strukturalarining umumiy struktur-semantik tasnifida aloqaning sintetik yoki analitik tipli pripredikativ-ob‘ektli IQ prepozision tipining o‘ziga xos ko‘rinishlari (kommunikativ) o‘rin egallaydi.

Ushbu bobning ko‘rib o‘tilgan bo‘limlarini tashkil qiluvchi materiallar tahlilidan ma‘lum bo‘ladiki, IQning tobe izhorlovchi qismida bo‘laklarga ajratilmagan tuzilmalar struktur jihatdan doimo muhim a‘zolar – sub‘ekt (ega) yoki ob‘ekt (to‘ldiruvchi) pozitsiyasidan birini egallaydi. Bu ikkala qism ham turkiy tillardagi gapda so‘z tartibi qonun-qoidasiga ko‘ra kesimdan (predikatdan) oldin keladi. Xullas, shu nuqtai nazardan prepozision Iqlar sintaktik tuzilmalarning klassik tipi hisoblanadi.

Ammo boshqa turkiy tillar, masalan, ozarbayjon, gagauz kabi tillar qatori o‘zbek tilida shunday qo‘shma gaplar mavjud va amal qiladiki, ularda izhorlovchi predikat boshlang‘ich pozitsiyada (boshlang‘ich pozitsiyalardan birida) bo‘ladi, tobe qism esa predikatdan keyin keladi, unga nisbatan postpozitsiyada joylashadi. Bunday postpozision Iqlarning muhim xususiyati shundaki, asosiy (izhorlovchi) predikat doimo finit shaklda keladi. Bu pozitsiyani finit shaklda bo‘lgan (ba‘zi hollardan tashqari hamma vaqt; istisnolar haqida quyida ma‘lumot beriladi) tobe qismning predikati egallaydi. Misollar:

Bilmadim. taqdir uning va mening peshonamga nimalar yozganikin?

(G‘. G‘ulom).

Esimda bor, sigir sog‘ayotgan yoki o‘choqboshida ovqat pishirayotgan paytlarimda ko‘cha tomondan ishdan qaytayotgan Kenjaning ovozi kelardi (Sh.Rashidov).

Yodingizdamu, Shayboniydek purtajriba lashkarboshi Saripul urushinda ne-ne ulug‘ beklaridan, ne-ne sodiq navqironlaridan judo bo‘lgan edi? (X.Sultonov. «Boburiynoma»).

Eslaringdami, vinzavodni kasod qilinglar va sotuvga qo‘yilgandanoq harakatlaringni qilinglar, degandi (T.Malik. «Shaytanat»).

Izhorlovchi predikatning ko‘rib chiqilgan tuzilmalarda finit shaklda bo‘lishi, bizningcha, ularning reversiv (harakat shaklini o‘zgartirishga imkon beradigan), oddiy prepozision tip tuzilmasidan kelib chiqqan, ya‘ni qayta qurilgan.

Faqat shu tarzda turkiy tillar sintaksisi uchun xos bo‘lmagan asosiy struktur komponentlarning o‘zaro joylashishini izohlash mumkin. Turkiy tillar uchun qayd qilingan komponentlar tartibi, odatdagini buzish bilan o‘zgartirish, odatda, kommunikativ tartib omillariga sabab bo‘ladi. Shubhasiz, gap oxirida keltirilgan tobe izhorlovchi qism bu pozitsiyada rema yoki bunday ifoda nima maqsadda qilinganligi uchun yangi ifoda maqomini oladi. Ammo, bundan tashqari, tema rolini o‘ynovchi, izohlovchi predikatga nisbatan funksional xarakterdagi ayrim o‘rinlarni ham ko‘rsatish mumkin.

Bosh bo‘lak predikati, umuman butun bo‘lak birgalikda tinglovchining vaziyatga kirishishiga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda bu oldingi planga taalluqli (bu yerda «eslamoq» predikatining ko‘p qo‘llanishi). Ammo bu hozirgi reja holatiga ham tegishli, bunday hollarda odatdagi «bilmoq» predikatlari xos:

No‘yon Ko‘kaltoshning favtining xabarini, bilasanmi, podshohga kim yetkazdi? (X.Sultonov. «Boburiynoma»).

Bilasanmi, hayotning bu formulasi juda qadimiy... Odamizod yaralgandan beri uning bir harfi ham o‘zgarmadi (T.Malik. «Shaytanat»).

Begim, ma‘lumingizki, bu tog‘liq yerlarda qish faslida tun uzoq, kunduzi qisqaroq... (X.Sultonov. «Boburiynoma»).

1) pozisiyaning o'rnini remaning shakllanishida asosiy omil ekanligi Ye.A.Poseluevskiy va G.S.Pyurbeev R.G.Sibagatovning kitobiga yozgan taqrizida ta'kidlangan.

Aytinglar, otam sizlarga nima yomonlik qilganlar? (K.Yashin).

- Begim tayinlik navkarlardan eshitdim, qo'shinning boshida o'zingiz tursangiz askarlar jahdlaridan aslo qaytmaydurlar (X.Sultonov. «Boburiynoma»).

Anvar o'ylaganidek, onasi darvozaxonada, nimqorong'ida unga intizor bo'lib turgan ekan, bag'riga bosh qo'ydi (T.Malik. «Shaytanat»).

Misollarning har ikki guruhida ham izhorlovchi asosiy qismning shunday struktur-grammatik xususiyati, unda birlikda yoki ko'plik sondagi II shaxsga bevosita murojaat (misol, 3 dan boshlab) ko'zga tashlanadi. Agar 1- va 2-misollarga shu nuqtai nazardan qaralsa, bilmadim, esimda bor predikatlari ham tinglovchiga mo'ljallangan va unga to'g'ri, eksplisit emas, balki yashirin, implisit murojaatni qamrab olgan.

Aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkin: ifodada tema (eskilarni) pozisiyasini egallash bilan izhorlovchi predikat va asosiy qism sharhlashning umumiy semantikasi tinglovchiga (tinglovchilarga) eksplisit yoki implisit murojaatga qo'shiluvchi vaziyatga kirish tufayli ma'lum matn hosil qiluvchi rol' o'ynaydi.

IQning postpozision tipi komponentlari orasidagi aloqaning morfologik usullariga kelsak, bunda tuzilmaning bu tipiga xos xarakterli tomonlar borligi ma'lum bo'ladi. Misollarning katta qismi bunday hollarda osindetik aloqa afzalligini ko'rsatadi. Ammo aloqa bor joyda u asosiy qismda ifodalanadi – bu -ki bog'lovchisi va «morfologik mo'ljallanganlik» vositasi bo'lgan -mi, -dek yuklamalaridir. Shuning uchun xulosa qilish mumkinki, prepozision joylashgan komponentlarda, bu komponent hokim yoki tobe ekanligidan qat'i nazar, formal aloqaning ifodalanishi turkiy tillar sintaksisi qonuni hisoblanadi. Boshqa tomondan, shubhasiz, aloqaning morfologik xususiyati bu hollarda umumiy struktur tafovut bilan qiyoslaganda unchalik katta bo'lmagan ahamiyatga ega bo'ladi, shunga ko'ra biz tuzilmaning barcha o'xshash shakliiy ko'rinishlarni IQning postpozisiyali tobe qisimli yagona tipi sifatida qaraymiz.

Yuqorida qarab chiqilgan IQning ajratilgan tipi izhorlanmish qism strukturasi to'liqsizligi asosida tuzilgan. Bu yetishmovchilikni yetishmayotgan aktant pozisiyasini egallab, tobe bo'lak to'ldiradi. Ammo o'zbek tilida ba'zi hollarda bo'lsa-da, izhorli gapda izhorlovchi sintagmaga belgilangan pozisiyani (o'rinni) olmosh egallaydi. Umuman olganda, bosh bo'lak qurilish jihatidan to'ldirilgan; ammo olmosh leksik jihatdan bo'sh bo'lganligi uchun gap mazmunan to'ldirilishga muhtoj. Shuning uchun izohlanayotgan qism gapga bog'lanadi; u shakliiy jihatdan olmosh bilan mos va faqat asosiy qismni yoyadi; aslida olmosh mazmunini to'ldirib, u bilan birgalikda bir joyni egallaydi. Olmosh bunday hollarda kommunikativ jihatdan kuchaytirish vositasi rolini, tobe qismning mazmunini ta'kidlash vazifasini bajaradi.

IQning umumiy struktur tasnifida olmoshli o'zaro bog'lanishli tip bo'laklarga ajralish-ajralmaslik belgilariga ko'ra oraliq o'rinni egallaydi: yuqorida aytilganidek, shakliiy jihatdan – bu bo'laklarga ajralish strukturasi, mazmuniy jihatdan - bo'laklarga ajralmagan IQning o'xshash podtiplari mos kelishidir. U struktur jihatdan o'zaro bog'lanishda va IQning bo'laklarga ajralmagan qismidan tubdan farq qiladi (qarang, quyida). Biz shuning uchun struktur tasnifda ko'rib chiqilayotgan tipni bo'laklarga ajralmagan IQ tarkibiga kiritamiz.

O'zaro olmosh bilan bog'langan Iqlar orasida tobe qism postpozision joylashgan podtipga nisbatan keng tarqalgan, bunda olmosh antisip vazifasini bajaradi, ya'ni olmoshning asosiy vazifasi o'zidan keyingi so'zning ma'nosiga urg'u berishdir:

Shuni aytib qo'yay, kimsan Sodiqjon boyvachchadan sovchi keldi (K.Yashin).

Shuni yaxshi bilingki, Shohimardon biz uchun eng muqaddas joy (K.Yashin).

Shunisi diqqatga sazovordirki, «Dukchi Eshon» to'g'risida o'sha zamonning progressiv demokrat shoirlarning ko'plari ham salbiy fikrdadirlar (G'.G'ulom).

O'zbek tilida IQning tobe qismi prepozisiyali tipi va postpozisiyada joylashgan asosiy qismda o'zaro bog'lanishli – ajratuvchi olmoshli qism kam uchraydi. Olmosh bu yerda anafirik rol' o'ynaydi (oldingi so'zga ko'rsatma):

Nima deya yotgan bo'lsam shuni eshityapsiz (K.Yashin).

No'yon suvga cho'kdimi yoki tubsiz jarga quladimi, buni bilib bo'lmas edi, begim (X.Sultonov. Boburiynoma). Boray desa uni bilmaydi, qolay desa uni bilmaydi.

Misollardan ma'lum bo'ladiki, shu olmoshi mazkur vazifada kelsa, anafirik vazifada boshqa olmosh kelishi mumkin.

Tobe qismning asosiy qism bilan shakliiy aloqasi usullariga kelsak, asosiy vositadan - o'zaro bog'lanishli bo'lgan olmoshdan tashqari, bu yerda, asindetik joylashish bilan bog'lovchi aloqa usullari -ki bilan va tobe predikatning morfologik mo'ljallangan shakllari usullari qo'llaniladi.

Hozirgi o'zbek tilidagi Iqlar sintaktik sinonimiyasini qo'llanilgan prinsiplar asosida ko'rsatilgan pozisiyada o'rganish (to'ldirishga muhtoj) tugallangan deb hisoblab bo'lmaydi. Belgilangan ko'plab masalalar kelgusida o'zining jiddiy tadqiqini kutmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Грамматика азербайджанского языка (Фонетика, морфология и синтаксис). – Баку: ЭЛМ, 1971. – 415 с.
2. Покровская Л.А. Синтаксис гагаузского языка. – М.: Наука, 1978. – 203 с.
3. Поцелуевский Е.А., Пюрбеев Г.Ц., Рец. на кн.: Р.Г.Сибгатов. Теория предикативности. (На материале татарского языка). – Саратов, 1964 «Совесткая тюркология», – 1964, № 6.

4. Ўзбек тили синтактик курилишининг характерли хусусиятларидан бўлган тўлиқсизлик хусусида қаранг: Курбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси (ўқув кўлланими). – Т.: ЎзМУ, 2004.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. 102-103 – Б.
6. Mardiyev B.X. O'zbek tilida izhor gapli qurilmalarning funksional- semantik tahlili. Dissertasiya – Samarqand, 2021. – B. 165.

TAQLID SO‘ZLARINING SO‘Z TURKUMLARI PARADIGMASIDA TUTGAN O‘RNI VA NOMLANISHI HAQIDA MULOHAZALAR

Nuraliyev G‘olibjon Qurbonboyevich

SamDU Urgut filiali tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida assistenti

golibjon.nuraliyev77@gmail.com

Annotatsiya: o‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlar o‘tgan asrning 70-yillaridan monografik ko‘lamda o‘rganila boshlangan bo‘lib, so‘z turkumlari paradigmasida tutgan o‘rni ham turlicha talqin etiladi. Nomlanishi jihatidan ham har xillik mavjud. Mazkur maqolada taqlid so‘zlarining so‘z turkumlari paradigmasida tutgan o‘rni va nomlanishi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy so‘zlar, taqlid so‘zlar, ayrim-ayrim gruppalar so‘zlar, alohida gruppalar so‘zlar, mustaqil so‘zlar, semantik, morfologik, sintaktik mezonlar, funksional-semantik va funksional-sintaktik mezonlar.

Abstract: in Uzbek linguistics, imitation words have been studied on a monographic scale since the 70s of the last century, and their place in the paradigm of word groups is also interpreted differently. There is also a difference in terms of naming. This article focuses on the role and naming of imitation words in the paradigm of word groups.

Key words: descriptive words, imitative words, certain groups of words, separate groups of words, independent words, semantic, morphological, syntactic criteria, functional-semantic and functional-syntactic criteria.

Аннотация: в узбекском языкознании слова-имитаторы изучаются в монографическом масштабе с 70-х годов прошлого века, а также по-разному трактуется их место в парадигме словосочетаний. Есть разница и в названии. В данной статье основное внимание уделяется роли и наименованию слов-имитаторов в парадигме словосочетаний.

Ключевые слова: описательные слова, подражательные слова, отдельные группы слов, отдельные группы слов, самостоятельные слова, семантические, морфологические, синтаксические критерии, функционально-семантические и функционально-синтаксические критерии.

O‘zbek tilshunosligida tasviriy (taqlid) so‘zlarining monografik planda o‘rganilishi XX asrning 60-70-yillaridan boshlangan. Tasviriy (taqlid) so‘zlarni o‘rganilishida R.Qo‘ng‘urovning xizmatlari katta. Olim tasviriy so‘zlar borasidagi ilmiy kuzatishlari natijasida “O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar” nomli monografiyasi [2.143] va “O‘zbek tilida o‘zgaraydigan so‘zlar” II qism [1.60] kitobi hamda bir qator ilmiy maqolalarida o‘zbek tilidagi tasviriy so‘zlarining fonetik, leksik, semantik xususiyatlarini tadqiq etadi. Turli yillarda chop etilgan tilshunoslikka oid ilmiy asarlarda taqlid so‘zlarining so‘z turkumlari paradigmasida tutgan o‘rni ham turlicha talqin etiladi. Modal va undov so‘zlar qatorida “ayrim-ayrim gruppalar”, “alohida gruppalar”, yoki “alohida”ligi aytib o‘tilgan. Aksariyat tilshunoslikka oid ilmiy kitoblarda so‘zlarni turkumlarga ajratishda ananaviy semantik, morfologik, sintaktik mezonlar asos qilib olinsa-da ko‘pincha so‘zlarining semantikasi (ba‘zi holatlarda so‘zlarining faqat sintaktik xususiyatlari inobatga olinishi ustunlik qiladi) so‘zlarni turkumlarga ajratishda asosiy o‘rinni egallashi kuzatiladi. So‘z turkumlari funksional-semantik va funksional-sintaktik mezonlar asosida tasnif etilishi J.Eltazarov tomonidan taklif etiladi [5.8-12]. Olim tasviriy so‘zlar haqida: “...tilshunosligimizda va umumturkologiyada bu so‘z turkumining tildagi maqomi past baholanib, u adolatsiz ravishda “alohida guruhga xos” so‘z turkumlari qatoriga qo‘shib qo‘yilganini ham aytib o‘tish kerak. Aslida turkiy tillardagi so‘z turkumlari paradigmasi ichida tasviriy so‘zlar (taqlid) so‘zlarining alohida o‘rni bor. Chunki turkiy tillardagi tasviriy so‘zlar o‘zlarining miqdori, leksik, grammatik xususiyatlari va semantikasi jihatidan boshqa tillardagi shunday so‘zlar turkumidan keng, boy va rang-barangdir” deb ta‘kidlanadi [5.56].

Taqlid so‘zlarining mustaqil so‘z turkumi sifatida qaralishini 2010- yilda chop etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida ko‘ramiz. Kitobda taqlid so‘zlarining o‘zbek tilida bir guruhni tashkil etishi aytilib, mustaqil so‘zlar sirasidan o‘rin olganligi ta‘kidlanadi va bir qancha ilmiy asoslar keltiriladi:

- turkiy tillarda taqlid miqdoran ko‘p va ma‘no jihatdan rang-barang;
- ulardagi tovushlar tizmasi ma‘lum obyektiv voqelikdan xabar berib turadi;
- taqlid gap tarkibida ma‘lum bir sintaktik pozitsiya egallaydi [3.214].

Tasviriy so‘zlar bu mezonlar bilan qaralganda, semantik tomondan leksik ma‘no anglatmaydi, faqat tovush va harakat-holatning nomi bo‘lish vazifasini bajaradi. Sintaktik tomondan gapda barcha bo‘laklar vazifasida

kela oladi. Shu o'rinda shuni ham aytish kerakki, olmosh va ravish so'z turkumlarini mustaqil so'z turkumi sifatida e'tirof etilishida sintaktik mezonning ustunligi seziladi. Tasviriy so'zlar tilshunoslik tarixida har xil muzokaralarga sabab bo'lgan so'z tirkumi bo'lib, uning o'rganilishi ham o'ziga xos. So'z turkumlari paradigmasida tutgan o'rni borasida ham qarashlar har xilligicha qolmoqda. Tasviriy so'zlar teng huquqli mustaqil so'z turkumlari sirasidan o'rin olishga haqlidir. Tasviriy so'zlar modal va undov so'zlarga qaraganda mustaqil so'zlarga yaqinriq bo'lib, mustaqil so'zlarga xos xususiyatlarga ega. Tasviriy so'zlar o'rganilgan ilk davrlardan boshlab modal va undov so'zlar qatorida "Alohida guruh"ga kiritilib o'rganilsa-da bir qancha xususiyatlari bilan modal va undov so'zlardan farqlanadi. Xususan, tasviriy so'zlar tilimizda qotib qolgan emas, balki ko'payish, rivojlanish xarakteriga ega bo'lib, bunday so'zlar jamiyat rivoji bilan bir qatorda tilda ko'payib borishi kuzatiladi. Ijtimoiy hayotda o'z aksini topgan biror yangilik yoki kashfiyot, uning chiqargan tovushi yoki harakat-holatiga taqliddan tilda o'z aksini topgan til birligining hosil bo'lishiga zamin yaratadi. Masalan: mashinalar bilan bog'liq qanchalab tasviriy so'zlar mavjudki, ular tilimiz fondidan joy olgan. Ba'zida eskirib, ishtimoiy hayota oldin faol ishlatilgan, hozirda ishlatilmayotgan narsa-buyumlar bilan bog'liq tasviriy so'zlar ham til fondidan chiqib ketishi yoki o'sha narsa-buyumlarga o'xshash jihatlari mavjud bo'lgan predmetlarga ko'chishi mumkin. Masalan: *Tosh tegirmon g'ir-g'ir aylanar edi. Mashina g'ir-g'ir etdi-yu o'chib qoldi* (so'zlashuv nutqidan) kabi. Birinchi gapdagi tosh tegirmon oldingi paytlarda ijtimoiy hayotda faol ishlatilgan, ammo hozirda biroz tilimizda kam ishlatilayotganligi, uning aylanishdagi chiqargan tovushiga taqlid sifatida tilimizda ishlatilgan *g'ir-g'ir* so'zining keyingi paytlarda mashinalarning o't olishi bilan bog'liq jarayonda chiqargan tovushlariga taqlid *g'ir-g'ir* so'ziga aylanish jarayoni fikrimizni isbotlashga harakat qiladi. Ushbu jihatlari bilan ham taqlid so'zlar undovlardan farqlanadi. Undovlar taqlid so'zlar kabi rivojlanish, ko'payish xususiyatiga ega emas. Undovlarni ham umuman ko'payish jarayonidan chetda deb bo'lmaydi, albatta, ular taqlid so'zlar kabi bu jarayonda faol emasligini aytish mumkun. Umumiy olganda tasviriy so'zlarning *qanday?*, *qanaqa?* kabi so'roqlarga javob bo'lishi, grammatik jihatdan o'zgaruvchanligi, lug'aviy ma'noga ega bo'lmasa-da, tovush va harakat-holatning nomlab kelishi va gapda ma'lum sintaktik vazifa bajarishi nuqtayi nazaridan mustaqil so'z turkumi ekanligi anglashiladi.

Shu o'rinda "tasviriy so'z" va "taqlid so'z" atamalari xususida to'xtalib o'tsak: bunday so'zlarning undovlardan ajratib o'rganilgan ilk davrlarda, tilshunos olim R.Qo'ng'urovning ilmiy izlanishlarida "tasviriy so'zlar" deb atalgan va alohida so'zlar turkumi sifatida e'tirof etilgan. U o'z ichida tovushga taqlid so'zlar va obrazli so'zlar deb ikki guruhga bo'linib o'rgangan. 70-yillardan keyin yaratilgan lingvistik adabiyotlarda "taqlid so'z" atamasi ushbu so'z turkumining umumiy nomiga aylanadi va ikki guruhga bo'linadi. Bular: tovushga taqlid so'zlar va harakat-holatga taqlid so'zlardir. "Taqlid so'z" atamasi bizningcha "tasviriy so'z" atamasidan ma'no jihatdan ancha tordek ta'surot uyg'otadi. "Taqlid so'z" atamasi tabiatdagi tovushlarga taqlid so'zlarga yaqin bo'lsa ham, obrazli so'zlarni to'liq qamrab ololmaydigan ko'rinadi. "Tasviriy so'z" atamasi esa obrazli so'zlarga mazmun jihatdan yaqinroqdir. Inson eshitganini tasvirlashga bo'lgan ehtiyoji uni ko'rganini tasvirlash ehtiyoji bilan barobarligi ma'lum. Inson ko'rgan voqia-hodisalariga faqat hatti-harakat bilan so'zsiz taqlid qila olishi mumkun. Bu jarayonda so'z ishtirok ettimi, bu tasvirlash bo'ladi. Insonning tabiatdagi fizik va biyalogik tovushlarga ongsiz ravishda taqlid qilmasligi, nutq jarayonida haqqoniylikka yaqin borish uchun bunday so'zlardan foydalanishi uning faqat taqlid emas, tasvirlash ehtiyoji ham mavjud ekanligini ko'rsatadi. "Taqlid so'z" atamasidan "tasviriy so'z" atamasi obyektini qamrab olish jihatdan afzalroq bizningcha. Mustaqillik yillarida bu turkumning "tasviriy so'zlar" deb o'rganilishi tilshunos olim J.Eltazarovning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topganini ko'rish mumkun. Shu bilan bir qatorda Shavkat Rahmatullayevning 2006-yilda chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida "taqlid so'zlar" va "tasviriy so'zlar" atamalari haqida quyidagi fikr keltiriladi: "Adabiyotlarda bunday birliklar ko'pincha *taqlid(iy) so'zlar* deb nomlanadi. Aslida taqlid – boshqa, tasvir – boshqa hodisa. Kishi biror hayvonning, masalan, mushukning tovushini taqlid qilib qaytarishi mumkin, lekin mushuk chiqaradigan tovushning o'zida taqlid qilish yo'q; kishi o'z tilidagi tovushlar vositasida mushuk chiqaradigan tovushning ramziy ifodasini hosil qiladi. Harakat-holat ko'rinishining ramziy tovush ifodasiga nisbatan esa taqlid izohi umuman to'g'ri kelmaydi. Demak, bunday birliklarni bir butun holda tasvir birliklari deb nomlash to'g'riroq" deb ta'kidlaydi [4.201]. Bu fikr "tasvir" va "taqlid" tushunchalarini o'zaro farqli jihatlarni juda to'g'ri asoslab beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, taqlid so'zlar tasviriy so'zlar atamasidan obyektini qamrab olish jihatidan ancha tor tushunchaligi anglashiladi. Bu turkumni "taqlid so'z" emas, "tasviriy so'zlar" deb nomlash va shu nom ostida tadqiq etish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Nazarimizda, tasviriy so'zlar deb nomlanishi, bunday so'zlarning tilimizda ko'p sonli ekanligi, ifoda tomoni aytishda o'ng'ayligi bilan ham ma'qulroq ko'rinadi.

ADABIYOTLAR:

1. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар, II қисм.-Самарқанд: 1980.
2. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. -Т.: Фан, 1966.
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyev G.H., Qurbonov M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Fan, 2010.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.: Universitet, 2006.
5. Элгазаров Ж. Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзaro алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

SAID AHMADNING “QORAKO‘Z MAJNUN” HIKOYASIDA ONA OBRAZI TAHLILI

¹Sanaqulov Ulug‘bek, ²O‘rolova Gullola Ahliddin qizi

¹SamDU Urgut filiali, Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida assistenti, PhD, Urgut sh., O‘zbekiston

²SamDU UF Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola iste‘dodli adib Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi to‘g‘risida bo‘lib, unda hikoya qahramoni Saodat aya obrazi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *yozuvchi va hayot, iste‘dod, ona va farzand, mehr-muhabbat, burch va sadoqat, iymon-e‘tiqod.*

“O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston xalq yozuvchisi”, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi Said Ahmad Husanxo‘jayev 1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahri “Samarqand darvoza” mahallasida tug‘ilgan. U 1941-yilda Nizomiy nomidagi pedagogika institutini tamomlaydi va “Mushtum” jurnalida ishlay boshlaydi. Keyinchalik “Qizil O‘zbekiston”, “Sharq yulduzi” kabi gazeta-jurnallarda turli lavozimlarda mehnat qiladi. Yosh ijodkor o‘zini turli sohalarda: rassomlik, artistlik, fotograflik, qurilish va hatto doktorlikda ham sinab ko‘radi. Shunga qaramasdan Said Ahmad adabiyotni tanladi. Said Ahmad badiiy ijod olamida dastlab hikoyanavis sifatida tanilgan. U o‘z hikoyalarda Oybekning psixologik tasvir mahorati, G‘afur G‘ulomning yumori, Abdulla Qahhor bayonidagi lakonizmni o‘rganishga intilgan, bu esa Said Ahmadning yozuvchi bo‘lib yetishishida darslik vazifasini o‘tagan. Yozuvchi birinchi hikoyalar to‘plamini “Tortiq” nomi bilan nashr ettiradi. Uning “Cho‘l burguti”, “Lochin”, “Bo‘ston”, “To‘yboshi”, “Odam bo‘ri” kabi hikoyalari o‘zbek adabiyotiga yangilik ruhini olib kirgan. Adib hajvchi yozuvchi sifatida o‘zining “Xandon pista”, “Bir o‘pichning bahosi”, “Xanka va tanka” hikoyalari bilan o‘zbek radio va televideniyasida miniatyura teatriga asos soldi.

O‘zbek adabiyotida ko‘plab ijodkorlar o‘zbek ayoli - ona siymosiga murojaat qilishgan. Atoqli yozuvchi Said Ahmad ham ana shunday ijodkorlardan hisoblanadi. Adibning katta va kichik hajmdagi asarlarida mehribon ota va onalar siymosi Ikromjon, Jannat xola, Saodat aya kabi obrazlarida mahorat bilan tasvirlangan. Jumladan, adibning “Qorako‘z majnun” hikoyasi o‘zining serqirraligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki bu hikoyada ona siymosi o‘ziga xos fazilati, xarakteri bilan namoyon bo‘ladi. Asar voqealarida Saodat aya va uning farzandlari - Bo‘rixon, Qumri, Abdumalik, Dilbar, nevarasi Anvarjon va kichkina bir it tasvirlanadi. Hikoya markazida mehribon, oriyatli, iymon-e‘tiqodli ona obrazi turadi. Asar voqeasi juda murakkab bo‘lmasa-da, unda ko‘tarilgan masala jiddiy. Keksayib qolgan Saodat aya, dunyodagi eng aziz inson - ona siymosi timsolida o‘z aksini topgan. Hikoya voqealarida Saodat aya bir necha o‘n yillardan beri harbiyga ketib, o‘sha tomonlarda uylanib, bola-chaqali bo‘lgan o‘g‘li Bo‘rixonni zoriqib, intiqib kutadi. Xudoning bergan kuni sahar namozida uni eslaydi, olamdan o‘tgan eri usta Turobga atab Qur‘on tilovat qiladi. Baxti ochilmay guldek umri xazon bo‘layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaginamni yo‘lini och, deb Allohga iltijo qiladi. Hikoyadan ko‘rishimiz mumkinki, Saodat aya tabiatida o‘zbekning chin Muslima buvilariga xos bu dunyosini ham, u dunyosini ham o‘ylashdek mulohazakorlik mujassam. O‘g‘lining xabarini nevarasi Anvardan eshitgan kampir mulzam bo‘ladi. Adib kampiridagi bu o‘zgarishni: “Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona xatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi” - deya bayon qiladi. Saodat aya nafaqat oilasi, farzandlari, balki o‘zi parvarish qiladigan itni ham o‘z uyining bir a‘zosidek e‘zozlardir. O‘g‘li yoki qizirikiga mehmonga borsa ham iti bilan suhbatlashib borar va suhbatlashib iziga qaytardi. Saodat aya qizi Qumri bilan birga yashardi. “Qumrixonni baxti chopmadi. Ikki bor turmush qildi, farzand ko‘rmadi, qaytib keldi. Biror joyda ishlay desa, aka-ukalari singillari: “Opa, qo‘y ishlama tirikchiliging bizning bo‘ynimizda onamga qara”, - deb qo‘yishmadi. Kampir qo‘ni qo‘shnilaririkiga ham chiqmaydi. Uyda o‘tiraverib qon bo‘lib ketadi. Ba‘zan kiyimlarini apil-tapil tugib - o‘g‘illari yo qizlaridan birinirikiga otlanib qoladi. Borgan joyida ham halovat topmaydi. Qizi Qumrixonni o‘ylab qaytib keladi. Saodat ayaning o‘g‘illari, - biznikida turing, deb xudoning zorini qilishsa ham, otang chiqqan uyni tashlab ketolmayman, men ham shu uydan chiqazilaman, - deb ko‘nmaydi.

Adib kampirning dono xotin ekanligini shunday ta‘riflaydi: “Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to‘ladi, albatta ular quruq kelishmaydi, shu bahona Qumrining ham kuni o‘tadi, deya qadrdon uyidan jilmasdi.” Onalar shunaqa baxti chopmagan bolasi bilan birga bo‘ladi...”

Yozuvchi onalarga xos bo‘lgan mehr-muhabbat, farzand sog‘inchi, fidoyilik kechinmalarini Saodat ayaning ruhiy holati misolida yoritishga harakat qiladi. Jumladan, “Saodat aya Dilbarxon qizirikiga mehmonga bordi va qizi bilan kechgacha ezilib gaplashdi. O‘g‘lini eslab ko‘z yosh ham qilib oldi. Qumrining betole‘ligidan, men bir balo bo‘lib ketsam, u sho‘rlik nima bo‘ladi, deb afsus nadomatlar qildi. Saodat aya uyiga yo‘l oldi. Uni uyida bir yangilik kutardi. Uyiga yaqinlashib yuragi hapqirib ketdi...”

Hikoyada boshqa ijodkorlar yaratgan ona obrazlarida uchramaydigan ona xarakteridagi keskin burilish ta‘sirchan tarzda ko‘rsatib berilgan. Ona uchun g‘oyat og‘ir fursat, shubhasiz, uning o‘z farzandini unitishi, undan voz kechish hisoblanadi. Yozuvchi Saodat aya obrazida ana shunday bir og‘ir holatni tasvirlaydi. “kampirning g‘oyiblarini hozir bo‘libdi, o‘g‘li Bo‘rixon kelibdi. Bu yangilik Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini tarqatishi, “ko‘ksida tog‘dek bosib yotgan armonlarini” ushatishi lozim edi. Biroq voqeilik o‘zgacha tus oldi. Ona va bola uchrashuvi... Bo‘rixon begonaga o‘xshaydi. Chunki undan aroq va sham yoqilgan uyni hidi kelardi. Xursandchilikdagi ona avval bunga e‘tibor ham bermaydi. Sekin-asta o‘g‘li Bo‘rixonni ota-bobolari e‘tiqod qilgan islom dinidan qaytib, boshqa dinni qabul qilgani ma‘lum bo‘ladi. Ona uchun din, milliy diniy qadriyatlar, hamma narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo‘rixondan ko‘ngli sovib, uni yo‘q deb hisoblaydi, ketar chog‘i

undan yuz o'giradi. Endi Saodat aya sahar namozida o'g'lini eslamay ham qo'yadi. Adib Saodat ayaning bu holatini: "Kampirning qalbida bir muz paydo bo'ldi" deya ta'riflaydi. Saodat aya vafoti oldidan farzandlari va nabiralari oldiga chaqirib, musulmonona vasiyat ham qiladi va shu ichidagi muz erimay osongina jon beradi.

Xulosa qilib aytganda, qalami o'tkir ijodkor O'tkir Hoshimov aytganidek: "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sohib turadigan sehirli kuch bor. Bu – Ona mehri! Alloh onani shunday yaratgan!" Said Ahmadning bu hikoyasi esa chuqur ma'no-mazmunga ega bo'lib, hikoyada yozuvchi Saodat aya misolida o'zbek onalarining qanchalik sabr-toqatli, mehr-muruvvatli, imon-e'tiqodli inson ekanligini yaqqol tasvirlab beradi. Shuningdek, bu obrazga qadriyatlarimizga sodiqlik, milliylik ruhini singdiradi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmad Said. Qorako'z majnun: Hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2001. -240 b.
2. Boboyev T. "Adabiyotshunoslik asoslari" - Toshkent 2002.
3. Qur'onov D. "Adabiyotshunoslikka kirish" Toshkent 2007.
4. Umurov H. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 2004.
5. Адабиёт – халқнинг юраги. [Матн]: Очерк ва мақолалар. – Тошкент: "ADABIYOT" нашриёти, 2021. – 416 бет.



PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ROMANIDA IFODALANGAN TARIXIY SO'ZLARNING LINGVISTIK TAHLILI

¹*Oqmirzayeva Umida Normurodovna*, ²*Sanaqulov Ulug'bek*

¹Samarqand davlat universiteti Urgut filiali 3-bosqich talabasi. Urgut sh., O'zbekiston

²SamDU Urgut filiali Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi, PhD, Urgut sh., O'zbekiston

e-mail: ulugbeksanakulov84@gmail.com

e-mail: oqmirzayevaumida@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy va arxaik so'zlarning til taraqqiyotidagi tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi. Taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asaridagi tarixiy va arxaik so'zlarning ma'nolari, o'sha asardagi va asardan tashqari ma'nolari, til taraqqiyoti va rivojlanishi haqida yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: arxaizm, leksik arxaizm, istorizm, semantik arxaizm, til rivojlanishi,

Rivojlanish – obyektiv, dialektik jarayon bo'lib, bir sifatdan boshqa sifatga o'tish natijasida yuz beradigan o'zgarishlar tufayli ro'y beradi. Dunyodagi har bir predmet hodisa doimiy harakatdadir. Xuddi shuningdek, til ham hamisha o'zgarishda. V.A. Zveginsev aytganidek: "Jamiyatsiz rivojlanish xususiyatini yo'qotadi va u sun'iy lashadi". Mana shunday o'zbek tilining taraqqiyoti davrida ham uning barcha sohalarida ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. Bunday o'zgarishlar uning leksikasi uchun juda xarakterli hodisa edi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik tizimi, asosiy lug'at tarkibi va dramatik qurilishi qadim turkiy tillar manbaida yuzaga kelgan bo'lib, davrlar o'tishi bilan uning tovushlar tizimida sifat va miqdor o'zgarishlari yuz bergan. Lug'at tarkibi asosiy lug'at fondi negizida yasalgan yangi so'zlar hisobiga kengayib boyib borgan. Barchamizga ma'lumki til uning lug'ati doim o'sish o'zgarishda. Bunday o'sish o'zgarish tez va uzil-kesil sodir bo'lmaydi. Ilgari juda tez-tez ishlatib kelinadigan ba'zi so'zlar endi deyarli qo'llanilmaydi boshqasi esa aksincha ko'proq va tez-tez ishlatiladi. Tildagi bunday jarayonlar u xizmat qilayotgan jamiyat hayotining o'zgarishi bilan bog'liq. Yuqorida aytib o'tilganidek, tilning leksik tarkibidagi o'zgarishlar doimiy ravishda sodir bo'ladi, ba'zi so'zlar eskiradi va tilni tark etadi, boshqalari paydo bo'ladi. Mavjud modellarga ko'ra o'zlashtiriladi yoki shakllanadi.

Badiiy-tarixiy asarlar, garchi ularga qo'yilgan qat'iy talablar o'ta mustahkam bo'lsa-da, yozuvchining mahoratiga, ijodiy yondashuviga, uslubiy o'ziga xosligiga qarab o'qishli va kitobxonning didiga mos bo'lishi mumkin. Ozod Sharafiddinov bu kabi asarlar haqida: «Hujjatlilik uslubiy belgi asoratida kundun-kunga o'z harakat maydonini kengaytirmoqda», – deb aytadi. Pirimqul Qodirov tarixiy asarlar yozish uchun talab qilingan tayyorgarlik jarayonini erinmay amalga oshirgani «Yulduzli tunlar» romanining yutug'iga asos bo'lgan. Eng avvalo, ijodkor Z. M. Bobur yashagan davrni o'rgangan va o'sha davr turmush tarzida Boburni dadil harakatlantira olgan. Asar milodiy 1494-yilning yozi, jala quyushi bilan, "soy bo'yidagi majnuntollar panasida bir yigit bilan qiz shivirlashib" gaplashishi bilan boshlanadi. Yozuvchi asarni shunday manzara tasviri bilan boshlaydiki, mazkur tasvir bevosita o'zida Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni yaqqol ifodalab bergan: "Milodiy 1494-yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuyq bulutlar kuni bo'yi havoni dim qilib turdiyu, kechki payt birdan jala quyib berdi. Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o'tib kelayotgan sersuv Quvasoy qon qo'shib oqizilgandek qip-qizil bo'lib ketdi". (3-bet)

Quyida Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidagi istorizm va arxaizmlarning ma'noviy guruhiga ko'ra tahlil qilinadi.

Eskirgan (arxaik) — so'zlar deb hozirgi kunda mavjud narsa hodisalarning eskirib qolgan, tilda sinonimlari faol qo'llanadigan lug'aviy birliklarga aytiladi. Masalan, oraz (yuz), dudog' (lab), xamdas (geometriya), muarrix (tarixchi), Jayxun (Amudaryo), Sayxun (Sirdaryo), Davom (Farg'ona), Nasaf (Qarshi), sarxad (chegara).

So'zlar butun holda arxaiklashishi yoki uning biror ma'nosi arxaiklashishi mumkin. Shunga ko'ra ular:

a) Leksik arxaizm so'z eskiradi: gulgun, siymo (obraz).

b) Semantik arxaizmda ma'no eskiradi: chechak - «gul» ma'nosida eskirgan, bekat - karvonlar to'xtaydigan joy ma'nosida eskirgan, bag'ir - «jigar» ma'nosida eskirgan, davlat - «boylik» ma'nosida eskirgan.

Arxaiklashish iboralarda ham, grammatik hodisalar doirasida ham yuz beradi. Iboralarning arxaiklashishi holati ko'p, lekin grammatik hodisalarning arxaiklashishi ham uchraydi: "dasti aliflom qilib", "gardonini ham qilib", "yoqasini chop etmoq" (iboralar); sifatdoshning -din, -mish shakllari, ravishdoshning -bon, -ibon shakllari, -dur kesimlikni ko'rsatuvchi bog'lama eskirgan grammatik shakllardir. Fonetik arxaizmlar ham mavjud bo'lib, unda tovush eskiradi: sobun, qaboq kabi (sovun, qovoq). Arxaizmlar hozirda mavjud bo'lgan obyektlar va hodisalarni anglatadi, ammo boshqa so'zlar orqali ifodalanadi.

Arxaizmlar bir qancha ma'noviy guruhlariga bo'linadi.

a) Shaxsning fe'l-atvori - xasis, ezma, xushomadgo'y.

Buzdil-quyonyurak, qo'rqqoq. -E, men buzdillardan emasm-deb Ahmad Tanbal qahr bilan o'rnidan turdi. (Quva.2. Qil ustida turgan taqdirlar, 12-bet).

Navbakor-yovuz, axloqsiz. -To'xta, navbakor!-deb mulla Fazliddin bittasining qarshisida chiqqan edi, yuziga qora niqob tutgan ayiqday zo'r yigit uni yelkasi bilan urib chetlatadi-da, ko'chaga otiladi. (Quva.2. Qil ustida turgan taqdirlar, 9-bet).

b) Kasb- o'qituvchi, shifokor.

Dorug'a-shahar hokimi. Mulla Fazliddin ertalab podshoh in'om qilgan to'bichoq otni mindi-da, shahar dorug'asi qabul qiladigan mahkamaga yo'l oldi. (Quva.2. Qil ustida turgan taqdirlar, 12-bet).

Kadxudo-qishloq oqsoqoli. -Bilmasam, kadxudo guzarda ishontirib aytdi. (Quva.2. Qil ustida turgan taqdirlar, 17-bet).

Savdar-xos xizmatkor. Mulla Fazliddin Xonzoda begimning suratini chizish uchun u bilan tillakori ko'shkda pinhon uchrashganda buni zimdan ko'rib qolgan kanizlar yoki savdarlar bo'lsa, Ahmad Tanbal shuning bir chetini eshitib, haligi hamyonni ko'tarib kelganmikin? (Quva.2. Qil ustida turgan taqdirlar, 15-bet).

b) Ijtimoiy munosabatlar - dushman, jang, urush.

Sulh-kelishuv. Xo'ja Abdulla boshliq elchilar Boburning nomidan Samarqand podshosining Marg'ilondan beridagi qarorgohiga borib, sulh tuzishni taklif qildilar. (Andijon.3. Gul va quyun, 47-bet).

Guftig'o-gaplashish. Ozar ila necha guftig'o qilg'aysiz, Ozurda bulutni justijo qilg'aysiz. (Kobul.1. Toshgan daryo o'zan izlaydi, 351-bet).

c) Tegishli munosabatlar - singil, aka-uka.

Padari buzrukvor-ota. -Padari buzrukvorga munosib o'g'il! (Kobul.1. Toshgan daryo o'zan izlaydi, 348-bet).

Ug'rug'-oila a'zolari, ko'chlari. Boysun orqali Hisobning Qora toifa chekinib kelgan Bobur yetti ming askar va ug'rug'i bilan sayhon bir o'tloqda tunamoqda edi. (Qunduz.Samarqand.7. Ikki qilich orasida, 343-bet).

d) Atrofdagi voqealik obyektlari -chodir, saroy.

Eshik-bu yerda: uy, hovli. Lekin dadamlarni ko'ndirish oson emas... Mahmud onang eshikdagi? (Quva.1. Qil ustida turgan taqdirlar, 6-bet).

Qaznoq-ombor vazifasini o'tovchi kichikroq xona, hujra. Bugun bu yerga aravani minib kelgan xizmatkor yigitning og'ziga latta tiqib, qo'l-oyog'ini bog'laydilar-u qaznoqqa tashlaydilar. (Quva.2. Qil ustida turgan taqdirlar, 9-bet).

Xobgoh-uxlash xonasi. Bu mudhish xabar Samarqandga yetib kelganda, Bobur qattiq betob bo'lib, Bo'stonsaroyning ikkinchi qavatidagi xobgohda isitmalab yotgan edi. (Samarqand.4. Zafar va kulfat, 110-bet).

e) Tabiat hodisalari – o'q (chaqmoq).

Bodi samum-eng issiq garmisel shamol. Kechagi bodi samumda mening navkarlarimdan uchtasi tab-tap yiqilib jon berdi. (Agra.2. Yo hayot, yo mamot, 409-bet).

f) Narsalar-qayishqoq (qobig'i, qobiq), tarh.

Qadag'a-chaqiriq xat. Bobur Hirotga, Tabrizga, Balxga, Andijon-u Toshkentga odamlar yuborgan, "kimda-kim bizga xayrixoh bo'lsa, Hindistonga kelsin, ulufalar berurmiz, ne istaklari bo'lsa ado eturmiz" degan qadag'alar yo'llagan edi. (Agra.2. Yo hayot, yo mamot, 416-bet).

Tarh-chizma, loyiha. Quvasoy botqog'ining ustidan o'tgan mana shu uzun yog'och ko'prik ham mulla Fazliddin chizib bergan tarh bo'yicha qurilgan. (Quva.1. Qil ustida turgan taqdirlar, 5-bet).

Mavhum tushunchalar-do'stlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik.

Ozurda-ranjigan. -Albatta, bu gap shu yerda qolur! Lekin siz ham mendan ozurda bo'lmang. (Quva.2. Qil ustida turgan taqdirlar, 11-bet).

Taftish-izlash, nazorat qilish. Sababini aytdim, janob dorug'a! Taftish o'tkazishingizni so'rayman! (Quva.2. Qil ustida turgan taqdirlar, 13-bet).

Istorizmlar (yunoncha "historia" – o'tmish voqealari haqidagi hikoya) jamiyat taraqqiyoti natijasida o'z faoliyatini to'xtatgan shunday predmet va hodisalarning nomlarini bildiruvchi so'zlardir. O'tmishdagi hayot ob'ektlari, eski madaniyat, o'tmish iqtisodiyoti, eski ijtimoiy-siyosiy munosabatlar bilan bog'liq narsa va hodisalarni anglatuvchi ko'plab so'zlar istorizmga aylandi. Demak, harbiy mavzuga oid so'zlar orasida ko'plab istorizmlar mavjud: zanjirli pochta, pischal, visor, redubt.

1) Istorizmlar qadimgi Rossiyaning unvonlari, mulklari, lavozimlari,

kasb-hunarlarini bildiruvchi ko'plab so'zlarni ham o'z ichiga oladi: podshoh, boyar, otliq, piyoda, styuard, zemstvo, serf, er egasi, konstabl, ofenya, otliq, tamirchi, arrachi, chiroqchi, barja tashuvchi;

2) Patriarxal hayot hodisalari: korvee, badallar, qisqartirishlar, xaridlar;

3) Ishlab chiqarish faoliyati turlari: manufaktura, ot poygasi;

4) Yo'qolgan texnologiyalar turlari: qalaylash.

Bunda so'z yangi davrda yangi ma'noda qo'llanaveradi. Buni semantik istorizm deb yuritiladi. Masalan, boy- "feudal sinf vakili" (eski ma'no, istorizm), boy- "badavlat", "layoqatli", "serob", "mo'l" (yangi ma'no). Arxaizmlar ham nutqda ma'lum maqsadga ko'ra qo'llanadi. Ayniqsa, badiiy nutqda arxaizmlarning qo'llanilishi muayyan uslubiy ahamiyatga ko'ra amalga oshiriladi. Masalan, zamon shiddatini qilolmay hisob, Yer chizib turibdi yosh bir munajjim (A.Oripov).

Misradagi munajjim (astronom) arxaizmi badiiylikni oshirish maqsadiga ko'ra qo'llangan.

O'zbek tili leksikasida istorizmlarning juda ko'p guruhlari mavjud. Masalan:

1. Kasb-hunar, mansab, amal, unvon nomlari: sulton, xon, darvesh, amin, zakakotchi.

Bakovul-podshoh oshxonasining javobgar xodimi. *Arkdan tashqaridagi masjidning imomi kishilik minoraga chiqib, bakovulning ishorasini sabrsizlik bilan kutyapti.* (Axxi.1. Ajalga davo yo'q, 21-bet).

Bariyat-bek va a'yonlar. *Yog'iy hujumi paytida bariyat bilan raiyatning orasiga nifoq solmoqchi!* (Andijon.3. Qul va quyun, 45-bet).

Bek atka-hali balog'atga yetmagan mirzolarga homiylik qilish uchun podshoh tomonidan tayin etiladigan mas'ul bek. *Qora otlig Mazidbek nishonga birinchi bo'lib yaqinlashdi. U Boburning bek atkasi edi.* (Andijon.1. Gul va quyun, 27-bet).

Eshik og'a-O'rta Osiyo xonliklarida xon saroyidagi bosh xizmatkor, oliy hukmdorning turli qabul marosimlarini o'tkazish ishlariga mutasaddi bo'lgan shaxs. *Zarbof to'n kiygan, beliga tilla kamar bog'lagan sersaqol eshik og'a birinchi vazir darajasidagi eng katta bek edi.* (Axxi. Ajalga davo yo'q, 23-bet).

Juvozkash-Juvoz haydovchi, juvozxonada (objuvoz yoki moyjuvozda) ishlovchi ishchi. *Pakana yigitning kiyimlaridan zig'ir yog'ining hidi keladi-uning kasbi juvazkash, Tohir yuziga yomg'ir tomchilarini sezib, osmonga qaradi.* (Quva.1.Jasoratning jazosi, 50-bet).

Qo'rchi-O'rta asrlarda Turkiston va ayrim Sharq davlatlarida: turkiy qabilalarning e'tiborli va ishonchli kishilaridan saroyda tuzilgan maxsus harbiy qism jangchisi (hukmdorni va nufuzli a'yonlarni qo'riqlagan).. *Haramga kirish huquqidan mahrum qo'rchilar tuni bilan tashqarida qo'riqchilik qilgan edilar.* (Axxi.2.Ajalga davo yo'q, 23-bet).

Yog'iy-yov, dushman. *Yog'iyning ming-ming askari bor.* (Quva.1. Qil ustida turgan taqdirilar, 3-bet).

Choshnagir-podshohning dasturxoniga qaraydigan xodima. *Tashqari eshikdan ta'zim qilib kirgan choshnagir ayol ovozi qo'rquv bilan pasaytirib xabar berdi.* (Axxi.1. Amalga davo yo'q, 19-bet).

2. Maktab, maorifga oid tushunchalarning hamda ba'zi hujjatlarining nomlari: mulla, xalfa, vasiqa, mahzar, vaqf, haftiyak.

Ko'shk-dalahovli, shahar tashqarisidagi qasr. *Andijon chorbog'ida podshoh oilasi uchun tillakori ko'shk qurgan paytlarida o'n sakkiz yoshli Xonzoda begim uning musavviriligini ham bilib qolib, o'zining suratini chizdirgan.* (Quva.2.Qil ustida turgan taqdirilar, 10-bet).

Turkiy yozuv- bu yozuv aslida O'rxun-Yenosey runik yozuvining Bobur davrida Siniqlari yetib kelgan bir turi. *Bobur esa buni jaholat hisoblar, qadim zamonda ixtiro qilingan turkiy yozuvning dinga aloqasi yo'qligini aytar; Xatti Boburiyni shuning uchun xalq orasida tarqatmoqchi bo'lar edi.* (Qunduz.Samarqand.6. Ikki qilich orasida, 340- bet).

She'riy ta'rix-maxsus bir janr bo'lib, harflaridan abjad hisobi bilan ma'lum yil va oy kelib chiqadi. *Boburning Hisordagi g'alabasi sharafiga yozilgan she'riy ta'rixlar, uning Samarqandga kelishini qutlaydigan satrlar xattotlar tomonidan yirik-yirik harflar bilan oq ipak matolarga yozilib, yo'l bo'ylariga do'kon tepalariga, qo'rg'on ichining ko'zga ko'rinarli joylariga osib qo'yilgan edi.* (Qunduz.Samarqand.5. Ikki qilich orasida, 329-bet).

3. Harbiy tushunchalar nomlari: shamshir, sovut, sadoq (o'qdon), darvoza, navkar.

Dubulg'a-Boshni tig' yoki o'qdan (shuningdek, boshqa xil zarbalardan) saqlash uchun temir yoki po'latdan ishlangan bosh kiyim. *Faqat arkka yaqinlashganda, chap tomonda ko'ringan ulkan obidaning Amir Temur maqbarasi ekanini jangchining dubulg'asiga o'xshash gumbazning afsonaviy go'zal taram-taramlaridan tanidi.* (Samarqand.1. Zafar va kulfat, 96-bet).

Nayza-Qo'l bilan otib yoki urib sanchish uchun mo'ljallangan, uchi o'tkir qurol. *Avval ham: Menga nayza sanchib onamning o'limiga sabab bo'lgan yog'iy'larga xizmat qilgani kelganmi men?!" deb achchiqlandi-yu, lekin uvada kiyingan, bayonlari qiltiriqday bo'lib qolgan och o'smirlarga, chollarga, ayollarga ko'zi tushganidan keyin hovuri bosildi.* (Samarqand.3. Zafar va kulfat, 104-bet).

4. Oziq-ovqat nomlari: ko'mach, zog'ora, tutmoch (xamirli osh turi), yorma.

Ochar-zira va sirka qo'shib tayyorlangan go'shtli taom. *Hirotning eng zor pazandalari tayyorlagan g'izol kaboblari, ishtaha ochuvchi nordon ocharlar, mohicha nomi bilan mashhur bo'lgan o'ta nozik xushta'm suyuq oshlar Muzaffar mirzo o'z mehmoni bilan o'tirgan tillakori ko'shkning yuqorigi qavatiga ketma-ket olib chiqilmoqda edi.* (Hirot.3. Dovuldan oldingi osudalik, 261-bet).

Subhoni o'rik-donagi o'rniga mag'iz solingan o'rik. *-Amirzodamning nomlaridan oltin bilaguzuklar, asl matolar, subhoni o'riklar, lavzinalar olib bordik.* (Samarqand.1. Zafar va kulfat, 97-bet).

5. O'lchov va pul birliklari, nomlari: botmon, tanib, misqol.

Bir paxra-to'rt soat. *Kun qizigandan bir paxra yotib, dam olgaymen.* (Agra.2. Yo hayot, yo mamot, 411-bet).

Qurur-yuz lak, ya'ni o'n million. *Yuz qurur-bir arb.* (Agra.2. Yo hayot, yo mamot, 414-bet).

6. Etnonimlar: Barlos, qipchoq, nayman, qarluq, jaloyir, o'g'uz, yag'ma.

O'zbekxon-Oltin O'rda xoni, 1312-1342-yillarda hukmronlik qilgan, uning poytaxti Saroy Berke Volga bo'yida, hozirgi Volgograd yaqinida bo'lgan. *Sizlar bek urug'larining tarixini O'zbekxondan boshlaysizlar.* (Samarqand.2. Hal qiluvchi olishuv, 171-bet).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilning lug'at tarkibi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda doim rivojlanishdadir. Bu har bir tilning ichki zaxiralari hamda boshqa tillardan so'z o'zlashtirish hisobiga bo'ladi. Tillarning lug'at boyliklariga eskirgan so'zlar ham kiradi. Buni yuqorida Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asari misolida ko'rib chiqdik. Tarixni bilmay turib kelajakni qurib bo'lmaydi. Buni tillar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni tarixiy so'zlarni bilmay turib boshqa tillardan so'z olib, yo bo'lmasa ichki boyish orqali shevalardan so'z olib o'zbek tilini rivojlantirib bo'lmaydi, tarixiy so'zlarni ham o'rganish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Xolmonova Z. "Tilshunoslikka kirish"-Toshkent-2007.
2. To'xliyev N. "O'zbek tilining izohli lug'ati"- Davlat ilmiy nashriyoti-2006.
3. M.Hamroyev, Sh. Yo'ldoshev."Ona tili darsligi"
4. Sh.Yo'ldosheva, X. G'ulomova, D.Shodmonqulova, M.Hamroyev. "Ona tili darsligi".
5. Pirimqul Qodirov."Yulduzli tunlar" romani-Toshkent:Yoshlar matbuoti-2023.

O'ZBEK TILIDA QO'L KOMPONENTLI IBORALAR SEMANTIKASI

Qosimjonova Farangiz Farid qizi

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti, Termiz sh. O'zbekiston

Tel: +998978289909

e-mail: farangizkasimzanova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilida iboralarning umumiy mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari hamda somatik iboralar tushunchasi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, qo'l komponentli iboralar grammatik va semantik jihatlari izohlangan.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, frazeologiya, somatik iboralar, somatizmlar, grammatika, semantika, stilistika.

Аннотация: В статье рассмотрена общая сущность, специфика выражений на узбекском языке, а также понятие соматических выражений. Кроме того, фразы с ручным компонентом объясняют грамматические и семантические аспекты.

Ключевые слова: фразеологизмы, фразеология, соматические выражения, соматизмы, грамматика, семантика, стилистика.

Annotation: the article reflects on the general essence, specifics of phrases in Uzbek, as well as the concept of somatic phrases. Also, grammatical and semantic aspects of hand-component phrases are annotated.

Keywords: phraseologisms, phraseology, somatic phrases, somatisms, grammar, semantics, stylistics.

Ma'lumki, jahon tilshunosligida frazeologizmlar dunyo xalqlarining tili, tarixi, turmush tarzi, o'y-xayollari, milliy-madaniy hayoti hamda urf-odat va an'analari kabi o'ziga xosligini ifodalovchi vositalar sifatida alohida o'rganib kelinadi. Har bir til o'zining frazeologik birliklariga ega. Iboralar esa o'zi mansub bo'lgan tilning lug'at sostavini tashkil etib, frazeologik boyligini ifodalovchi vositalardan biri sifatida nutq ta'sirchanligini oshirishga, nutqning ifodali bo'lishiga va emotsionallikni ta'minlashga xizmat qiladi va ayni shu jihati bilan boshqa til birliklaridan alohidalikni kasb etadi. Yillar davomida iboralarning shoir-u yozuvchilar, mashhur so'z ustalari tomonidan bebaho boyluk sifatida foydalanib, o'rinli qo'llashga alohida e'tibor berib kelinayotganligi bejizga emas.

Nutqimiz ko'rki, millatning ma'naviy boyligi bo'lmish frazemalarning o'zbek tilshunosligida asoschisi tilshunos olim Sh.Rahmatullayev hisoblanadi. Olim o'zbek tilshunosligida o'z frazeologik maktabiga asos solgan bo'lib, o'zining "Nutqimiz ko'rki", "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati", "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" kabi ilmiy asarlari bilan soha rivojiga ulkan hissa qo'shdi. O'zbek tilshunosligida iboralarning lingvistik tadqiqiga bag'ishlangan qator ishlar amalga oshirilgan, xususan, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari", "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi", I.Qo'chqortoyevning "Abdulla Qahorning frazeologik novatorligi", B.Yo'ldoshevning "Frazeologik uslubiyat asoslari", A.Mamatovning "O'zbek tili frazeologizmalarining shakllanish masalalari" singari ishlarida iboralarning semantik, stilistik, struktural-grammatik, qiyosiy-tipologik hamda etimologik tadqiqi aks ettirilgan. Ayniqsa, Sh. Rahmatullayev muallifligidagi "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"ning yaratilishi o'zbek tili frazeologizmlarini tahlil qilish, o'rganish va yig'ishda olib borilgan leksikografik tadqiqotlar uchun debocha bo'ldi.

Ma'lumki, frazeologiyada inson tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan frazemalar ya'ni somatik iboralar mavjud. Somatik iboralarda har bir xalqning ko'p asrlik tajribasi, turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi aks etib, bunday xarakterdagi iboralarning ilk tadqiqotchilaridan biri F.Vakk hisoblanadi. Tilshunos olim X.Hamidov somatik iboralar haqida fikr bildirib shunday deydi: "Inson hayoti bilan bog'liq frazeologizmlarni shakllantirgan asoslardan birinchisi insonning tana a'zolari nomlari(somatizmlar)dir. Bunday iboralar somatizmlar vositasida yuzaga kelgan bo'lib, turg'unlashgan holda insonning idroki, tafakkuri, e'tiqodi, his-tuyg'ulari, jamiyat bilan muomala munosabati, xulq-atvori, tashqi ko'rinishini ifodalaydi. Ular ma'no jihatdan emas, balki, tuzilishi, obrazlilik bilan ham bir-biriga mos va yagona ichki shakl asosida yuzaga kelgan"[1].

O‘zbek tilining “Izohli lug‘ati” da “Qo‘l” so‘zining o‘ndan ortiq ma‘nolari izohlangan bo‘lib, ularning birinchisi quyidagicha:

Odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo‘lgan qismi, a‘zosi. Yo‘lchi ikkinchi qo‘li bilan Ahmadning bir qo‘lini orqaga qayirdi. Oybek.Tanlangan asarlar.[2] Shuningdek, qo‘l komponentli iboralar ham bir qancha ko‘rinishga ega. O‘zbek tilida mavjud frazeologizmlarni o‘rganishimizda asosiy manba bo‘lib xizmat qiluvchi Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da qo‘l komponentli iboralar yetmishdan ortiqni tashkil etadi: Qo‘l baland kelganda, qo‘l bermoq, qo‘lga kirgizmoq,qo‘lga kirgizilmoq, qo‘lga kiritmoq, qo‘lga kiritilmoq, qo‘lga kirmoq, qo‘lga olinmoq, qo‘lga olmoq, qo‘lga tushirilmoq, qo‘lga tushirmoq, qo‘lga tushmoq, qo‘ldan bermoq, qo‘ldan kelgan(i)cha, qo‘ldan ketmoq, qo‘ldan chiqarilmoq, qo‘ldan chiqarmoq, qo‘ldan chiqmoq, qo‘li baland, qo‘li baland bo‘ldi, qo‘li baland keldi, qo‘li bormadi, qo‘lga kirgizmoq,qo‘lga olmoq, qo‘l(i)ga tushmoq, qo‘l(i)dan kelgan(i)cha , qo‘l(i)dan kelmoq, qo‘l(i)dan ketmoq, qo‘l(i)dan chiqarmoq, qo‘l(i) kalta, qo‘l(i) kalta bo‘ldi, qo‘l(i)ni bigiz qilmoq, qo‘l(i)ni burniga tiqib, qo‘lini ko‘tarmoq, qo‘l siltamoq, qo‘l(i)ni sovuq suvga urmaslik, qo‘l(i)ni sovuq suvga urdirmaslik, qo‘l(i)ni urmoq, qo‘l(i)ni yuvib,qo‘ltiqqa urmoq, qo‘l(i)ni qo‘ltig‘(i)ga urmoq, qo‘l(i) ochiq, qo‘l(i) tegadimi, qo‘l(i) tegmadi, qo‘l(i) uzun, qo‘li egri, qo‘l(i) yuqori keldi, qo‘l(i) qisqa, qo‘l(i) kalta bo‘ldi, qo‘l kelmoq, qo‘l siltamoq, qo‘l tegmadi, qo‘l urmoq singari iboralar shular jumlasidandir.

O‘zbek tilida mavjud qo‘l komponentli iboralar ikki yoki undan ortiq leksemalardan tashkil topadi. Bunday iboralarning ba‘zilari , xususan, qo‘l baland keldi, qo‘li bormadi, qo‘lga kiritdi, qo‘li kaltalik qildi, qo‘lini bigiz qilmoq, qo‘li kalta bo‘ldi singari iboralar nutqda - qo‘lim baland keldi, qo‘lim bormadi, qo‘lga kiritding, qo‘llari kaltalik qildi, qo‘lingni bigiz qilma tarzida grammatik o‘zgarishlarga uchraydi. “Qo‘l” komponentli iboralarda hozirgi o‘zbek tilidagi sintaktik bog‘lanishlardan asosan boshqaruv hamda bitishuv munosabatlari ko‘proq uchraydi. Masalan, qo‘l bermoq, qo‘l tashlamoq, qo‘li bormadi, qo‘li baland keldi, qo‘li egri; qo‘lga kiritdi, qo‘l siltamoq, qo‘lini urmoq...

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atida qo‘l komponentli iboralar salmoqli bo‘lib, ular o‘z somatik xususiyatlariga ega. Qo‘l komponentli iboralar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalariga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Hamidov X. Turk frazeologiyasi masalalari. –Toshkent: Bayoz,2019
2. O‘zbek tili izohli lug‘ati,-Toshkent:O‘zbekiston nashriyoti,2021.
3. Rahmatullayev.Sh.”Nutqimiz ko‘rki” .- Toshkent. Fan-1970.
4. Yo‘ldoshev.B “Frazeologik uslubiyat asoslari”. – Samarqand: SamDU nashri, 1999.

TURKIY VA FORSIY ADABIYOTDA “LAYLI VA MAJNUN” TALQINI AN‘ANASI

PhD, Ulug‘bek Sanaqulov

SamDU UF Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi

ulugbeksanakulov84@gmail.com

Annotatsiya: Sharq adabiyoti uzoq o‘tmishi, tarixiy ildizlari bilan insoniyatni hamon hayratga solib keladi. Mintaqa xalqlari ijodida dunyoni o‘ziga qaratgan asarlarning biri “Layli va Majnun” qissasi hisoblanadi. Mazkur syujet dastlab arab diyorida yuzaga kelgan bo‘lsa, uning qahramonlari Layli va Majnun asrlar osha ko‘plab xalqlar adabiy tafakkurining so‘nmas va boqiy timsollariga aylanadi. Maqolada mumtoz adabiyotda “Layli va Majnun” syujetining yuzaga kelishi, afsona syujeti asosida fors-tojik va turkiy adabiyotda turli talqindagi asarlar rang-barangligi tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: Qays ibn Mulavvah, Layli, sayyor syujet, afsona, doston, “Layli va Majnun”, “Majnun va Layli”, “Mantiq ut-tayr”, “Gulshani ushshoq”, “G‘aribnoma”.

Ma‘lumki, Layli va Majnun syujeti borasida ilk bor izlanish olib borgan akademik Yu.I.Krachkovskiy qissaning vujudga kelish kurtaklarini VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqalishini qayd etadi. Olimning fikricha, qissa qahramonlari tarixiy shaxslar bo‘lib, ushbu syujet hayotiy sevgi fojeasi negizida yuzaga kelgan. Ular arab xalqlarining ommaviy qahramoni bo‘lib qariyb o‘n uch asrdan ortiq vaqt mobaynida ushbu qahramonlar taqdirini yorituvchi ko‘plab she‘r va dostonlar bitilgan. Majnun Bani Omir qabilasidan chiqqan, uning asl nomi Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Muod, al-Aqra, ba‘zan al-Buhturiy ibn al-Ja‘d bo‘lgan. Qays o‘z qabiladoshi Layli degan qizni sevgan, o‘z sevgisi va hijron alamlari haqida mungli she‘rlar bitgan. Bu qarashlarni Sharqshunos Y.E.Bertels ham o‘z izlanishlarida tasdiqlaydi. Bertelsning ma‘lumotiga ko‘ra, “Layli va Majnun” qissasiga o‘zaro qarindoshlar o‘rtasida yuz bergan voqea asos bo‘lgan. Majnun, ya‘ni Qays o‘z amakisining qizi - Laylini sevib qoladi va buni sezdirmaslik uchun Majnun taxallusli she‘rlar yozadi. Olimning fors-tojik shoiri Nosir Xusravning “Safarnoma” (XI asr) asarida berilgan ma‘lumotlarni keltirishi ham e‘tiborga molik. Jumladan, Arabistonning Toif shahri yaqinida odamlar sayohatchi(Nosir Xusrav)ga Layli yashagan qo‘rg‘on xarobalarini ko‘rsatishadi. Layli o‘sha Toif yaqini – Araviya qo‘rg‘onida yashaganida, Omir qabilasidan al-Mulavvahning o‘g‘li Qays sevib qolgani va undan ayrilgach, sahroda halok bo‘lganini aytishadi.

Adabiyotshunos N.Mallayev keltirilgan ma‘lumotlarga tayangan holda boshqa bir qator manbalarning bu ma‘lumotlarni rad etganini ta‘kidlaydi. Xususan, arab olimi Avon ibn-Hakim al-Qalbiy, arab tarixchisi Hishom al-

Qalbiylar Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziydir, she'rlar esa o'z yaqin qarindoshlaridan birining qiziga oshiq bo'lgan ummaviylar xonadoniga mansub bir yigitning she'rlari bo'lib, u o'z nomini oshkor etmaslik maqsadida Majnun taxallusini qo'llagan. Xullas, o'tmishda arab qabilalari hayotida sodir bo'lgan oshiq yigit Qaysning qayg'uli sevgi voqeasi Majnun bo'lib she'rlarga ko'chadi, xalq orasida bu to'g'rida har xil afsona va rivoyatlarning yaratilishiga asos bo'lgan. Xalifalik yuzaga kelgach, bunday afsona va rivoyatlar boshqa xalqlarga ham keng tarqalgan. Kichik syujet bo'lishiga qaramay, bu mavzuda adabiyot tarixida turli tillarda turkum asarlar yaratilgan. Sharq mumtoz adabiyotida ulkan xamsachilikning yuzaga kelishi, shuningdek, o'sha davrda keng tarqalgan tasavvuf ta'limoti badiiy adabiyotda "Layli va Majnun" mavzusidagi asarlar g'oyaviy konsepsiyasiga mos tushadi va ularning ommalashishga olib keladi. Shu bilan birga, mavzuning bu qadar keng ko'lamda ommalashishi Sharq mumtoz adabiyoti taraqqiyotining an'ana va qadriyatlari bilan bog'liq. Darvoqe, mumtoz adabiyotda bu qissa fors-tojik va turkiy tilli ijodkorlarning sevimli mavzusiga aylanadi. Mazkur qissaning doston shaklidagi variantini ilk bor Nizomiy Ganjaviy (1188) yaratadi.

Nizomiy xalq orasida tarqalgan rivoyatlardan ijodiy foydalanib, "Layli va Majnun" dostonini g'oyaviy va badiiy jihatdan mukammal asar darajasiga ko'taradi. Muallif Bani Omir qabilasi boshlig'ining o'g'li Qaysning o'z maktabdoshi Layliga bo'lgan muhabbatini tasvirlash orqali har ikkala qahramonning ruhiy olami, ma'naviy qiyofasini ochib berishga alohida e'tibor qaratadi. Xalq rivoyatlarida faqat tashqi go'zalligi bilangina mashhur bo'lgan Layli timsoli ijtimoiy omillar va adabiy-estetik tamoyillar orqali mukammallashtiriladi. Nizomiy Ganjaviy dostoni Sharq xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozondi va oradan bir asrdan ziyodroq vaqt o'tgach, Amir Xusrav Dehlaviy unga javob yozdi. Dehlaviyning dostoni 1299-yilda yaratilgan bo'lib, "Majnun va Layli" deb nomlanadi. Muallif doston qahramonlari nomini almashtirish bilan o'z salafidan yangilikka, o'z gachalikka intilganligini ta'kidlaydi hamda ushbu qissaning arab xalqlari orasida dastavval "Majnun va Layli" shaklida ommalashganligiga e'tiborni qaratadi. U Nizomiy dostonining kompozitsion qurilishini asosan saqlab qolgan holda uning syujetiga ba'zi o'zgartirishlar kiritadi (munajjimning Majnun taqdiri haqidagi bashorati, Navfalning o'z qizini Majnunga nikohlab berishi, Majnun Layli qabilasidan bo'lgan itni quchib, u bilan hasratlashishi va b.). Xusrav Dehlaviy ushbu dostoni bilan Sharq xalqlari adabiyotida "Layli va Majnun" mavzusidagi dostonga javob yozish an'anasini boshlab berdi. Dehlaviydan keyin forsiy adabiyotda, xususan, Hirot adabiy muhitida Ashraf Marog'aviy, Abdurahmon Jomiy, Kotibi Turshiziy, Shayxim Suhayliy, Abdulloh Hotifiy, Badriddin Hiloliy, Xoja Imod Loriy va boshqalar ham ushbu mavzuda asar yozgan edi.

Turkiy adabiyotda ham Layli va Majnun orasidagi muhabbat afsonasi ijodkorlarning sevimli mavzusiga aylanadi. Turk olimi A.S. Levendning yozishicha, turkiy adabiyotning o'zida "Layli Majnun" syujetli asarlarning soni 30 ga yaqinlashadi. Jumladan, usmonli turk shoiri Gulshahriy o'zining "Mantiq ut-tayr" (1313) dostonida Hudhud tilidan "Majnun afsonasi"ni keltiradi. Bu afsona 79 baytdan iborat bo'lib, unda Laylining Majnuni izlab chiqib, uni qum va toshlar orasida hushsiz holda topganligi bilan bog'liq epizod tasvirlanadi. Ushbu epizodga ko'ra, Majnun hushiga kelgach, Laylini tanimaydi. Layli o'zini Majnunga tanita boshlaydi, lekin Majnun unga ishonmaydi va "Nega Majnun bittayu, Layli ikkita? Bunday bo'lishi mumkin emas! Majnun yuzta bo'lishi mumkin, lekin Laylining ikkita bo'lishi xatodir" - deydi. Mazkur epizod Gulshahriy afsonasida Majnun muhabbati tasavvufiy mohiyat kasb etib, ishq majoziydan ishq ilohiyga o'tgan bosqichni ifodalaydi, zero, bu holat "Mantiq ut-tayr"ning umumiy mohiyatiga mos edi. Yana bir turk shoiri Oshiq Poshshoning "G'aribnoma" dostoni tarkibida ham "Layli va Majnun" afsonasi keltirilgan bo'lib, bu afsona hajman juda kichik - jami 30 baytdan iborat. Unda Layli va Majnun ilk marta maktabda uchrashgani, Majnun Layliga oshiq bo'lgani, buni bilgan Laylining yaqinlari uni maktabga yubormay qo'yishi, Majnun bu holdan iztirobga tushganligi, qabila atrofida telbadek kezganligi va odamlar uni "Majnun" deb ataganlari bilan bog'liq voqealar keltirilgan. Turk tilida yaratilgan yana bir asar Shohidiyning "Gulshani ushshoq" asari bo'lib, 1476-1479 yillar oralig'ida yozilgan. Doston Jom shahzodasi Xon Muhammadga bag'ishlangan bo'lib, 6446 baytdan iborat. Muallif o'z dostonining nomlanishi haqida: "Ishq bilan bezangani uchun ushbu dostonimga "Gulshani ushshoq" deb nom berdim. Lekin agar bu nomlanish sizni qoniqtirmasa, "Layli va Majnun" tarzida mashhur bo'la qolsin", - deydi. Doston kompozitsion qurilishi va syujetning umumiy xususiyatlari jihatidan Nizomiy va Dehlaviy dostonlariga yaqin turadi. Lekin dostonidagi ikkinchi darajali qahramonlar: Zayd va Zaynabning bu dunyodayoq ishqqa yetishuvlari bilan bog'liq epizodning kiritilganligi turk muallifning o'ziga xos pozitsiyasini ko'rsatadi. Bu bilan u Zayd va Zaynabning muhabbati bosh qahramonlar ishqidan farqli ravishda haqiqiy ishqqa o'sib boruvchi emas, balki u avom ishqining namunasidir, demoqchi bo'ladi. Alisher Navoiy Shohidiyning bu dostoni bilan tanish bo'lmagan. Buni shoirning doston muqaddimasida salafilar bilan bog'liq o'rinda aytgan fikrlari, ya'ni turkiy tilda bu afsonani ilk marta qalamga olganligi haqidagi baytlari ham tasdiqlaydi. "...Shohidiyning asari o'z davrida keng shuhrat qozonolmagan. Shuning uchun ham u, o'z davrining korifeylari bo'lgan Jomiy va Navoiylarga ma'lum bo'lmagan bo'lsa kerak".

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni turkiy tilda ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo'lib, uni yaratishdan avval muallif arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog'iy, Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o'rganadi. Navoiy xamsanavislikda o'zigacha mavjud an'analardan ijodiy foydalangan holda o'z dostoniga yangicha ruh bag'ishlaydi, o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, "afsonaga yangi libos kiygizadi". Turkiy tilda bu yo'nalishda biroz keyin Muhammad Fuzuliy ham "Layli va Majnun" dostonini yaratdi. Bu doston Alisher Navoiy dostoniga yaqin bo'lsa-da, biroq shakli kompozitsion xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Shuni aytish kerakki, Alisher Navoiy ijodi davomida "Layli va

Majnun” mavzusidan uzoqlashmagan. Chunki, uning “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida ayni mavzuga doir bir necha hikoyatlar berilgan. Alisher Navoiy ijodiy metodiga xos muhim xususiyat turli tip asarlarida hikoyatlarni qo‘llashidir. Aslida rivoyat yoki hikoyatlar qo‘llash Yaqin va O‘rta Sharq ijodkorlariga xos bo‘lgan an‘ana sanalsa-da, bu metodni ko‘pgina ijodkorlar qatori Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida yuksak did va mahorat bilan qo‘llaydi. Agar e‘tibor beriladigan bo‘lsa, Navoiy ijodida bir mavzu ayni bir dostonida yoki mo‘jaz lirika mazmunida yoritilib bormasdan, balki butun asarlari tarkibi doirasida rivojlanib, boyitilib borilgan. Alisher Navoiy har bir asarida muayyan syujet atrofida, yoki uning tarkibiy qismidan bir epizod ayni mavzu atrofida o‘zining g‘oyat muhim bo‘lgan maqsad-muddaosini ilgari surib borgan. Bunda u ijodkor xalq yaratgan afsona va rivoyatlarni ham qayta ijodiy ishlab, o‘z maqsadlari tomon yo‘naltirgan hamda o‘zining g‘oyat murakkab his-tuyg‘ularini, g‘oyaviy qarashlarini nazariy-badiiy jihatdan yoritishda ijodiy foydalangan. Jumladan, biz e‘tiborga olgan “Layli va Majnun” mavzusi xususida ham shu fikrni aytish mumkin. Aytish lozimki, “Navoiyga qadar “Layli va Majnun”, bir tomondan, xalq rivoyat va qissalarida, ikkinchi tomondan, yozma adabiyotda qayta-qayta ishlanib, katta yo‘l kechgan va ma‘lum an‘analarni vujudga keltirgan...”.

ADABIYOTLAR:

1. Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе Избранные соч., М., 1946.(31.)
2. Бертелс Е.Э. Навоий. Монография. (Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси). – Тошкент: Тафаккур каноти, 2015.
3. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ оғзаки ижодиёти. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. -157 б.
4. Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достони. – Т.: Фан, 1970. 28-б.; Юсупова Д. Лайли ва Мажнун / Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-жилд / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиiddинов. – Тошкент: Шарқ, 2016. - 247 б.
5. Тоҳиров С. Темурийлар даврида хамсанавислик (Монография). - Самарқанд: СамДУ нашри, 2020. - 6 б.
6. Agah Sirri Levend. Arap, fars ve turk edebiyatlarinda Leyla ve Mecnun hikayesi. - Ankara, 1959. S-3.
7. Agah Sirri Levend. Arab, fars ve türk edebiyatlarinda Leyla ve Mecnun hikayesi. Ankara, 1959. – S.B 103-106.



INGLIZ TILIDA SOMATIK FRAZELOGIK BIRLIKLARNING KONSEPTUAL TAHLILI

Sayfullayev Xurshid Jamolxonovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti, Urgut sh., O‘zbekiston
e-mail: sayfullayevxurshid88@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilidagi somatik frazeologik birliklar kontseptual tahlili o‘tkaziladi va ularning semantik, lingvokognitiv va madaniy xususiyatlari yoritiladi. Asosiy e‘tibor “head” (bosh), “hand” (qo‘l), “heart” (yurak), “eye” (ko‘z) va “foot” (oyoq) kabi so‘zlar bilan bog‘liq frazeologik birliklarga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: SFB, konseptual tahlil, head, hand, heart, eye, foot,

KirishTil o‘z ichida madaniy, kognitiv va psixologik munosabatlarni o‘zida aks ettirgan sistemadir. Har bir til o‘zining frazeologik boyliklari orqali xalqning dunyoqarashini, madaniy o‘zligini va kognitiv tafakkurini ko‘rsatadi. Shuning uchun frazeologik birliklarning, ayniqsa somatik frazeologik birliklarning (SFB) tahlili juda muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilidagi SFBlar inson tanasi a‘zolariga bog‘liq bo‘lgan frazalardir va ular ko‘pincha o‘xshash yoki metaforsal yordamida ko‘chma ma‘noda ishlatiladi.

Somatik frazeologik birliklarning umumiy tavsifi

Frazeologik birliklar ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan tugunli so‘z birliklari bo‘lib, ularning ma‘nosi ularni tashkil etuvchi so‘zlarning ma‘nolaridan farq qiladi. Somatik frazeologik birliklar esa inson tanasi a‘zolarining nomlari bilan birga ishlatiladigan va ko‘pincha metaforik ma‘noga ega bo‘lgan frazalardir. Masalan, “keep your head above water” frazasi yuzadalik yoki tiriklik bilan bog‘liq ma‘noni anglatmay, qiyinchiliklarga qaramay omon qolishni anglatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, somatik frazeologik birliklar har bir xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzi va madaniy qiymatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, ularni tahlil qilish insonning tanasi bilan bog‘liq tushunchalarni madaniy va kognitiv nuqtai nazardan o‘rganishni taqozo qiladi.

"Head" (bosh) bilan bog‘liq frazeologik birliklarning tahlili

"Head" bilan bog‘liq frazeologik birliklar ingliz tilida juda ko‘p tarqalgan. Ingliz madaniyatida bosh insonning fikrlash markazi, rahbarlik qiladigan qismi sifatida tasavvur qilinadi. Shuning uchun "head" so‘zi bilan bog‘liq frazeologik birliklar ko‘pincha aql, fikrlash, nazorat va rahbarlik tushunchalarini ifodalaydi. Quyida "head" bilan bog‘liq ayrim frazeologik birliklar keltirilgan:

"Use your head" — Aql bilan ishlamoq: Insondan aqliy qobiliyatlarini to‘g‘ri ishlatishni talab qiladigan fraza.

"Lose your head" — Boshni yo‘qotish: Emotsiyalarini nazorat qila olmaydigan holatlarni ifodalaydi.

"Keep a cool head" — Sovuqqonlikni saqlash: Og'ir vaziyatda ham xotirjamlik bilan ish tutish ma'nosini anglatadi.

"Head over heels" — Oyoq-qo'lni yo'qotish darajasida muhabbatga tushish.

Bu frazalarda "head" aqliy faoliyat, nazorat va qaror qabul qilishni ifodalaydi. Kontseptual tahlil shuni ko'rsatadiki, bu frazalarda insonning fikrlash jarayoni va unga bog'liq ehtimoliy holatlar madaniy tasavvurlar orqali tasvirlanadi.

"Hand" (qo'l) bilan bog'liq frazeologik birliklar: yordam va amaliylik

"Hand" so'zi frazeologik birliklarda jismoniy yordam berish, harakat qilish, nazorat va boshqarish bilan bog'liq ma'nolarni ifodalaydi. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarda qo'l insonning jismoniy imkoniyati va amaliylikning simvoli sifatida ko'riladi. Quyida ayrim misollar keltirilgan:

"Lend a hand" — Yordam bermoq: Bu fraza biror kishiga yordam berishni anglatadi.

"Hands are tied" — Qo'llari bog'langan: Biron bir ishni bajara olmaslik, imkoniyatining cheklanganligini ifodalaydi.

"In safe hands" — Ishonchli qo'llarda: Biron ishning ishonchli kishiga topshirilganini bildiradi.

"Take matters into your own hands" — Vazirlikni o'z qo'lga olmoq: Ishni o'z nazoratiga olish, yoki mas'uliyatni o'z zimmasiga olish ma'nosini bildiradi.

Kontseptual tahlilga ko'ra, "hand" bilan bog'liq frazeologik birliklar insonning jismoniy yordam berish qobiliyati, harakatlarini boshqarish va nazorat qilishni ifodalaydi. Bu frazalardagi ma'nolarning aksariyati jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ularning yordamida insonning ijtimoiy munosabatlari va amaliy faoliyati ko'rsatilgan.

"Heart" (yurak) bilan bog'liq frazeologik birliklar: hissiyot va muhabbat

"Heart" insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va muhabbatning markazi sifatida ingliz tili frazeologiyasida keng qo'llaniladi. Bu frazalar orqali insonning tuyg'ulari, yurakdan kelib chiqqan ehtirolari va qalbining holati tasvirlanadi:

"Heart of gold" — Oltindek yurakka ega: Mehribon, yuvash va yaxshi insonni ifodalaydi.

"Broken heart" — Yuragini sindirmoq: Juda qayg'uli va yuraksiz holatni ifodalaydi.

"Wear your heart on your sleeve" — Hissiyotlarini oshkora namoyish qilmoq.

"At heart" — Yurakdan: Insonning ichki hissiyotlari yoki aslini ifodalaydi.

Yurak bilan bog'liq frazeologik birliklar ko'pincha insonning his-tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Kontseptual tahlilga ko'ra, bu frazalar madaniy jihatdan muhabbat va qalbning ahamiyatini ko'rsatadi.

"Eye" (ko'z) va "Foot" (oyoq) bilan bog'liq frazeologik birliklar: kuzatuv va harakat

"Eye" va "Foot" bilan bog'liq frazeologik birliklar ham ingliz tilida keng tarqalgan. "Eye" ko'pincha kuzatuv va diqqatni, "Foot" esa harakat va qaror qilish qobiliyatini ifodalaydi.

"Catch someone's eye" — Diqqatni jalb qilmoq: Ko'rish yoki diqqatni jalb qilishni anglatadi.

"Keep an eye on" — Kuzatib turmoq: Biror narsani yoki insonni kuzatishni bildiradi.

"Put your foot down" — Qat'iy qaror qabul qilmoq: Biron masalada qat'iyatli bo'lishni ifodalaydi.

"Get cold feet" — Vahimaga tushmoq: Oxirgi paytda qo'rqish yoki biror ishni bajarishdan qaytish.

Bu frazalarda "ko'z" diqqatni tortuvchi yoki kuzatuvchi simvol sifatida qo'llanilgan bo'lsa, "oyoq" harakatni boshlash yoki qaror qabul qilishni ifodalaydi. Bu kontseptual jarayonlar insonning hayotidagi muhim jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Somatik frazeologik birliklarning madaniy ahamiyati

Somatik frazeologik birliklar ingliz madaniyatidagi inson tanasiga bo'lgan munosabatni va uning turli jarayonlar bilan bog'liqligini ifodalaydi. Ingliz tilidagi bu frazalar ko'pincha insonning ichki dunyosi, hissiyotlari va tashqi faoliyatini aks ettiradi. Masalan, "head" frazalari rahbarlik va aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, "heart" frazalari hissiyot va muhabbatni anglatadi.

Tadqiqotchilar tomonidan SFBning ma'nolarini o'rganish kognitiv tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmoqda. Somatik frazeologik birliklar insonning kognitiv jarayonlari va madaniy tasavvurlarini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa

Ingliz tilidagi somatik frazeologik birliklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular inson tanasi bilan bog'liq turli kontseptsiyalar orqali madaniy, kognitiv va ma'naviy tushunchalarni aks ettiradi. "Head", "hand", "heart", "eye" va "foot" bilan bog'liq frazeologik birliklar insonning aqliy faoliyati, hissiyotlari, harakatlari va jamiyatdagi faoliyatini ifodalaydi. SFBlar ingliz madaniyatida muhim lingvokognitiv ahamiyatga ega bo'lib, ularni o'rganish madaniy va tilshunoslik sohalari uchun muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. М.: Международные отношения, 1972.
2. Маматов А.Э. Эмоционально-оценочных фразеологизмов узбекского языка. Автореф.. канд филологич. наук. Т., 1988.
3. Маматов А.Э. Фразеологик стилистика масалалари. Тошкент, 1989 йил.
4. Xurshid SAYFULLAYEV. (2024). NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS OF UZBEK LANGUAGE. *News of the NUUZ*, 1(1.2.1), 331-334. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.2.1.1257>

QO'NG'IROT TUMANI ANTROPOTOPONIMLARI VA AGIOTOPONIMLARI

Shamshaddinova Saodat Saparbayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh. Qoraqalpog'iston
tel.: +998937790955,

e-mail: sshamshaddinova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Qo'ng'iro't tumani antropotoponimlari va agiotoponimlari talqin qilinadi. Hududdagi antropotoponimlar - taniqli urug' oqsoqollari, ulamolar, botirlar, biylar, shoirlarning yashash joylariga yoki ularning hurmatiga berilgan antropotoponimlar va quduqni qazdirgan yoki quduqni qazgan kishilarning ismlariga bog'liq antropotoponimlar deb bo'linadi. Shuningdek, tumandagi muqaddas joylar nomi bilan bog'liq agiotoponimlar to'g'risida mulohaza qilinadi.

Kalit so'zlar: geografik nomlar, quduq, urug', Ustyurt, qabrison.

Аннотация. В статье дана интерпретация антропотопонимов и агитопонимов Кунградского района. Региональные антропотопонимы делятся на антропотопонимы, присвоенные местам проживания или в честь известных старейшин рода, ученых, батыров, поэтов, и антропотопонимы, связанные с именами людей, вырывших колодец. Также обсуждаются агитопонимы, связанные с названиями святых мест района.

Ключевые слова: географические названия, колодец, род, Устюрт, кладбище.

Abstract. The article provides an interpretation of anthropotoponyms and hagiotoponyms of the Kungrad district. Regional anthropotoponyms are divided into anthropotoponyms assigned to places of residence or in honor of famous elders of the clan, scientists, batyrs, poets, and anthropotoponyms associated with the names of people who dug a well. Hagiotoponyms associated with the names of sacred places in the district are also discussed.

Key words: geographical names, well, clan, Ustyurt, cemetery.

Antroponimika (yunoncha “anthropos” – “inson” va “onyma” – “ism, nom”) – onomastikaning antroponimlarni, ya'ni inson ismlari, familiyalari, laqablarini o'rganadigan bo'limi. Antroponimlardan tashkil topgan geografik nomlar antropotoponimlar deb ataladi. A.V. Superenskayaning fikricha, “Inson va uning faoliyatidan kelib chiqqan toponimik nomlar toponimik qatarga o'tib, alohida shaxslarning ismi, laqablarini o'z ichiga olgan holda, antropotoponimlardan tashkil topgan toponimlarni hosil qiladi” [6, 89]. Hududiy antropotoponimlar inson ismlari asosida shakllangan. Qo'ng'iro't tumanidagi antropotoponimlar ma'lum bir ob'ekt bilan bog'liq holda yoki o'tgan voqealar va hodisalarni aks ettiradi. V.A. Nikonovning fikricha, antropotoponimlar asosan insonlarning yerga egalik munosabatlari shakllangandan boshlab paydo bo'lgan [4, 30].

Qo'ng'iro't tumani toponimiyasidagi antroponimlar kelib chiqishi bo'yicha qoraqalpoq, o'zbek, qozoq, turkman va arab-fors nomlari bo'lib, ular asosan oykonimlar, oronimlar va agiotoponimlar (ulama, avliyo-anbiya shaxslarning dafn qilingan joylari) tarkibida, shuningdek, gidronimlarda, ayniqsa quduq nomlarida ko'p uchraydi.

Qo'ng'iro't tumanining suv bilan ta'minlanadigan hududlarida xalqning asosiy iqtisodiy faoliyati dehqonchilik va ekin ekish bilan bog'liq. Dehqonchilik uchun suv muhim ahamiyatga ega. Ustyurtning cho'l hududlarida tirikchilik manbai faqat suv hisoblanadi. Ustyurtdagi quduq qazdiruvchilar va quduq qazuvchilar ismi ko'pincha o'sha hududdagi obyektlarga berilgan bo'lib, bu quduqlar ma'lum insonlarning hayoti, tarixiy voqealar va afsonalar bilan bog'liq.

Qo'ng'iro't tumani antropotoponimlarini nomlash nuqtayi nazaridan o'ziga xos jihatlarni hisobga olib quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Hududda taniqli urug' oqsoqollari, ulamolar, botirlar, biylar, shoirlarning yashash joylariga yoki ularning hurmatiga berilgan antropotoponimlar.

2. Quduqni qazdirgan yoki quduqni qazgan kishilarning ismlari bilan bog'liq antropotoponimlar.

1) Taniqli urug' oqsoqollari, botirlar, biylar va shoirlarning hurmatiga berilgan antropotoponimlar:

Bu toponimlar ko'pincha ulamo, botir yoki jamiyat arboblarning jamiyatdagi obro'si va o'rnining yuqoriligi bilan izohlanadi. O'rta Osiyo turkiy xalqlarida o'z elini va yurtini dushmandan himoya qilgan botirlarga, yetakchilarga va shoirlarga hurmat ko'rsatish qadimiy an'ana hisoblanadi.

Ular haqida ko'plab afsonalar to'qilib, ularning ismlari keyinchalik er va suv nomlariga aylangan. Olimishlar va diniy arboblarning ismlari ko'pincha qabrisonlarga, masjid va madrasalarga qo'yiladi.

Misol: **Berdaq** – temir yo'l stantsiyasi, **Kunxo'ja** – qishloq, **Ajiniyoz** – qishloq, **Qartpoyqum** – cho'llik, **Atamurat qozi**, **Eshmuratbek**, **Mashtaq ota**, **Er Shabay** – qabrison, **Jiyes** – er nomi va hokazo.

Berdaq, Ajiniyoz, Kunxo'ja kabi shoirlar sharafiga er va suv nomlari o'tgan asrda o'lkada sanoat va transportning rivojlanishi bilan ulug' shoirlarning nomlarini keng tanitish maqsadida qo'yilgan ma'lum. Bu ulug' shoirlarning bu ob'ektlarga bevosita aloqasi yo'q, ya'ni ular bu erlarda yashamagan yoki vafot etmagan. Ammo, qabrisonlarga, masjid va madrasalarga qo'yilgan nomlar bevosita shu ob'ektlarga aloqasi bor insonlar nomlaridan olingan. Masalan, **Elmurat oxun masjidi** nomi taniqli qoraqalpoq klassik shoiri Ajiniyoz Qosibay o'g'lining amakisi, Qo'ng'iro't urug'idan chiqqan Elmurat oxunning sharafiga qo'yilgan. Elmurat oxun vafot etgan joy bugungi kunda Elmurat oxun masjidi nomi bilan toponim sifatida shakllangan.

Qabristonlarga faqat diniy ulamolarning emas, balki elni himoya qilgan batirlarning ham nomlari qo'yiladi. Masalan, **Eshmuratbek qabristoni** "Davlatyoribek" qaraqalpoq xalq dostonining bosh qahramoni Davlatyoribekning otasi Eshmuratbek nayibning sharafiga qo'yilgan.

Dovud ota – Qo'ng'iro't tumanida, Ustyurt balandligida joylashgan tarixiy va ziyoratgoh sifatida tanilgan qishloq. Bu joy Qozoqning mashhur botirlaridan biri – Dovud Asav o'g'li sharafiga nomlangan. Dovud ota 1787 yilda Ustyurt hududida tug'ilgan va uning otasi Asav hamda bobosi Baraq ham mashhur botirlar bo'lgan. Dovud ota 1874 yilda 87 yoshida vafot etgan va hozirgi "Xorazm darvozasi" deb ataladigan joyda dafn etilgan [3, 7-16].

Mashtoq ota – Ajiniyoz shoir bilan birga Elmurat oxun masjidida o'qigan. 1858-1859 yillarda u Qo'ng'iro't shahri va uning atrofidagi aholini Xiva xonligi zulmiga va Turkman feodallari tajovuziga qarshi kurash boshqaruvchilaridan biri bo'lgan. Mashtoq botirning qabri ham shu masjidning yaqinida joylashgan va shu sababli Mashtoq ota qishlog'i ham uning nomi bilan atalgan.

Shabay batir Qo'nis o'g'li (1768-1846, Mang'ishloq, Sam hududi, Ustyurt, Yitiboy qudug'i) mashhur botir hisoblanadi. U qozoqning eng yirik Alshin urug'ining Aday qabilasidan chiqqan. Otasi Qo'nis va bobolari Mingbay va Labaq ham mashhur botirlar bo'lgan.

Shabay batir Qo'nis o'g'li Orol qozoqlari, Edil qalmoqlari, Xiva qo'shinlari va turkmanlar bilan bo'lgan janglarda katta mardlik ko'rsatgan. Bir kuni dushmanlar uning yo'qligida uning qishlog'iga hujum qilishadi. 78 yoshdagi Shabay botir yomon xabarni eshitgan zahoti yigitlari bilan Iyitiboy qudug'i degan erda dushmani quvib etib, ularning mol-mulklarini to'liq qaytarib oladi, ammo o'zi jangda halok bo'ladi va shu erga, ya'ni Ustyurtda, Barsakelmas sho'r ko'lining g'arbiy tomonida dafn etiladi.

Jiyes – Barsakelmas pasttekisligining g'arbida joylashgan tarixiy qishloq nomi. Bu nom Jiyes biy nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, chunki Qipchoqlarning rahbari Jiyes biy No'g'aylar davrida Edil-Jaiyiq boyidan Ustyurtga qadar hududda hukmronlik qilgan [1].

Quvsiriq nomi esa shu erda dafn etilgan Quvsiriq ota nomi bilan bog'liq. Shuningdek, qishloqlarda qabr yonida quv siriq qadash marosimi turkiy xalqlarda ko'pdan beri bor. Bu nom shunga bog'liq bo'lishi ham mumkin.

Qo'ng'iro't tumani muqaddas joylar bilan boy. Bunday joylar ilmda agiotoponimlar deb ataladi. Ular xalq milliy birligi ramzi sifatida qaraladi. Chunki muqaddas joylarni hurmat qilish qadimdan xalqimizning qoniga singgan an'ana hisoblanadi. Qoraqalpoq tilidagi agiotoponimlar, odatda, qabristonlar, ya'ni avliyolar va anbiyolar dafn etilgan joylar, masjid va madrasalardan iborat. Bunday joylar ilgari ziyorat va ibodat joylari bo'lgan va bu an'ana hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Agiotoponimlar faqat avliyolar yoki masjid-madrasalar bilan bog'liq bo'lmay, shifobaxsh xususiyatlarga ega tabiiy ob'ektlar ham agiotoponimlarga kiradi. Masalan, Qarovimbet tuz shifobaxsh xususiyatga ega joy sifatida xalqimiz tomonidan hurmat qilinadi.

Odatda, agiotoponimlar iyshan, axun, ota, bobo, molla, avliyo, maqsum, masjid, oba kabi so'zlardan hosil bo'ladi. Masalan: Aytimbet Iyshan, Avez Iyshan, Bala Avliyo, Berdan ota, Berniyaz iyshan, Bo'ra xan ota, Dog'ir ota, Dastan Axun, Dovud ota, Ernazar ota, Ibrohim shah masjidi, Qora molla, Qoraboy maqsum, Qos maqsum hoji, Qurtti bobo, Quvsiriq ota, Mashtaq ota, Mullo Abdullo, Muso maqsum, Noylaj bobo, Nurimbet Iyshan, Payg'ambar qizi, Taybek ota, Uzunoba, Shayx Suloymon bobo, Sherman bobo va boshqalar.

Tarixchi olimlar G'.Xojaniyazov va O.Yusupovlarning «Qoraqalpog'istondagi muqaddas joylar» kitobida yozilishicha, XX asr boshlarida Qo'ng'iro't tumanida o'ndan ortiq masjidlar mavjud bo'lgan. Ular orasida Xan masjidi (XVIII asr oxiri – XIX asr boshi), Elmurat axun masjidi (XVIII-XIX asrlar), Jentemir ishon masjidi (XVIII-XIX asrlar), Sari ishon masjidi, Smetulla ishon masjidi, Qirq molla masjidlari alohida qayd etiladi [6, 18].

Bala avliyo (qabriston) nomi atalish sababi shundaki, dushmanlar masjidda o'qiyotgan bolalarni qirib tashlagan. Ularning barchasini bir joyga ko'mib, beshik to'shab qo'yganliklari uchun bu joy "Bala avliyo" deb atalgan.

Etnograf X.Esbergenovning fikricha, Qurtti bobo obasi (obalar, ya'ni inson vafot etgan joyga qo'yilgan tosh uyumlari) ushbu joyda dafn etilgan shaxs ismi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, Qurt so'zi og'uz tilida "qashqir" ma'nosini anglatadi, va bu hududdagi g'orlar qashqirlarning maskani bo'lgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas [2, 91].

Tarixiy shaxs bo'lgan Dovut ota, odamlar orasida temirchilik piri sifatida tanilgan va uni ba'zida Samarqanddagi Dovut ota ismi bilan adashtirish holatlari uchraydi. Shunga qaramasdan, uning nomi haqiqiy tarixiy shaxs sifatida keltirilgan. Shuningdek, Nailaj boboning Turkmanistonda asosiy maqbarasi borligiga qaramasdan, uning hasasi Ustyurtda bo'lgani haqida rivoyatlar tarqalgan. Rivoyatlarga ko'ra, Nailaj bobo dehqonchilik piri bo'lgan Dehqon bobodan er so'ragan va Dehqon bobo hasasini otib, tushgan joyni unga bergan. Hasa Ustyurtga tushgan va Nailaj bobo shu joyda ikki chiqir qurib, dehqonchilik qilgan [2, 92].

Shuningdek, quduqlarni qazgan yoki qazdirgan shaxslar nomi bilan bog'liq antropotoponimlar ham mavjud. Bunday quduqlar ko'chmanchi xalqlar turmushida mulkiy belgisiga ega bo'lgan va shunga ko'ra, quduqni qazdirgan yoki qazgan shaxslar nomi bilan atalgan. Masalan: Alpisqazg'an, Amanqazg'an, Bayquduq, Jasauilbosining qudug'i va boshqalar.

Geografik atamalarning antropotoponimlar yaratilishidagi asosiy maqsadi odam ismlaridan kelib chiqqan bo'lib, ular ayrim shaxslar, mulk egalari, birinchi bo'lib kelib qo'nishgan yoki vafot etgan shaxslar nomi bilan bog'langan.

ADABIYOTLAR

1. Ámiran S. Ardaqli aqsaqal, isker insan. URL: <https://t.me/kketnografiya/1306>
2. Esbergenov X. Qo'niyat: tarixiy ham madeniy estelikler. – Nókis: Bilim, 1993.
3. Jetpisbay N. Qazaqtin qaharmani Dauit batir // Jymabek joli. № 4-5(2017).
4. Nikonov V.A. Vvedenie v toponimiku. – Moskva, 1965.
5. Superenskaya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo. – Moskva, 1973.
6. Xojaniyaz uli G., Jumabay uli O. Qaraqalpaqstandagi muqaddes orinlar. – Nókis: Poligrafist, 1994.



INTEGRATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI TIL O'RGANISHGA BO'LGAN QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI, PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sharipova Laylo Mehrojiddinovna,

Sharof Rshidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali, Urgut sh., O'zbekiston

Annatsiya: Maqolada talabalarni til o'rganish jarayonlarini qiziqarli tashkil etishda innovatsion va integrativ usullar yaxshi samara berishi, o'yinlar orqali talabalarda bilim olishga qiziqishni rivojlantirish yo'llari, chet tilini o'rganishning o'yin usullari va ularning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni, muloqot ko'nikmalari, jamoada ishlash ko'nikmalari va boshqalar haqida so'z boradi.

Аннотация: В статье эффективны инновационные и интегративные методы, позволяющие интересно организовать процессы изучения языка студентами, способы развития интереса учащихся к обучению посредством игр, игровые методы изучения иностранного языка и их роль в формировании социального и личностного компетенции, коммуникативные навыки, навыки работы в команде и многое другое.

Ключовые слова: инновационные и интегративные методы, игровые методы изучения иностранного языка, социальные и личностные компетенции

Annotation: The article focuses on the effectiveness of innovative and integrative methods in the interesting organization of language learning processes, ways of developing students' learning methods by games, foreign language learning methods, and their role in observing social and personal competencies.

Key words: innovative and integrative methods, game methods of learning a foreign language, social and personal competencies.

Jamiyat rivoji uchun foyda keltiradigan tajribali, o'zini har sohada nazorat qila oladigan yosh kadrlar bugungi kunda juda ham zarur. OTMlar jamiyatning hozirgi hayotini o'zgartirishga hissa qo'shadigan yaratuvchan ijodkor, yoshlar, novatorlarni yetishtirib berishi lozim. Bunga erishish uchun esa OTMlar mutaxassis shaxsini hurmat qilgan holda, hamisha ularga ko'maklashishlari talab etiladi.

Chet tili ta'limi tizimi o'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik innovatsiyalarni amalda joriy etish bugungi kunning dolzarb talabi hisoblanadi. OTMda ta'lim va tarbiyani integrativlash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarb bo'lib, buning uchun so'nggi paytda bir qancha yondoshishlar bo'lgani belgilab olingan: darsni ikki fan mutaxassisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir mutaxassis tomonidan o'tilishidan to integrativlangan kurslar tashkil etish, chet tili ta'limi mazmunini tubdan o'zgartirishgacha olib boradi. Bunga OTM ham, didaktika va metodika ham hali bunga tayyor emasligi ma'lum bo'lib qoldi. Hozirgi kunda ushbu masalalar asosini chet tili bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integrativlangan ma'lumotlar yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonda integrativlashgan darslardan samarali foydalanish masalasiga kelganda tajribali mutaxassislar tomonidan o'tkazaladigan integratsiyalashgan darslar, ularning turli uslublari va tavsivalari beligalanib olinishi lozim. Integrativlashgan darslar mazmun mohiyatini muhimligini aniqlab, talabalarining shaxs sifatida shakllanishiga va ularning intellektual qobiliyatini o'stirishiga imkoniyatlar yaratilishi mumkin ekanligini aniqlash maqsad qilib olinishi kerak.

Ta'lim sifatiga zamonaviy yondoshuvning tahlillari asosida, ya'ni dunyo olimlarining mazkur masalaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari, buyuk pedagog olimlarimizning ko'rsatib bergan beqiyos yo'l-yo'riqlarini muntazam o'rganish jarayonida OTMlarda, ayniqsa chet tili tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalar, innovatsiya va integrativlashgan darslardan foydalanish samarasini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida hamkorlikka asoslangan darslar talabalarining faolligini oshirishga mo'ljallangan bo'lib, talabalarni boshqarish, fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgarlar manfaati bilan hisoblashish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning "men"ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olishga o'rgatishdan iboratdir.

Ma'lumki, bugungi kun yoshlari bir xorijiy tilni emas, bir necha xorijiy tillarni mukammal o'rganishga intilishmoqda. O'qituvchilardan ham o'z navbatida talabalarining talablariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etishlari lozimligi kuzatilmoqda. Texnik vositalarning xilma-xilligi, ularni chet til o'rganish jarayoniga integratsiya qilish bir tomondan o'qitish jarayonida katta imkoniyatlar yaratasa, boshqa tomondan o'qituvchidan mustahkam tayyorgarlikni ham talab etadi. Buning sababi bugungi kun yoshlarining ko'p texnikalardan samarali foydalanish ko'nikmasiga ega ekanligi hisoblanadi. Ular tomondan kompyuter texnologiyalarning til o'rganish jarayoniga kiritilishi odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Shu sababli o'qituvchi ham talabalarining undan kutayotganlariga mos

tushishi maqsadga muvofiqdir. Multimedia vositalaridan a'lo darajada foydalana olish belgilangan o'quv maqsadiga oz muddatda, samarali erishish uchun sharoit yaratadi. Bundan tashqari, elektron resurslardan o'z o'rnida foydalanish fan bo'yicha bilimlar gorizontalini kengaytirishga xizmat qiladi. Aynan shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, zamonaviy multimedia vositalarining chet til darslariga integratsiya qilinishi, ta'lim dinamikasining o'sishiga, talabalarining til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortib borishiga turtki berar ekan.

Bizning fikrimizcha, dinamizm, integratsiya va multimedia vositalarini til o'rganuvchining shaxsiy o'rganish xususiyatlarini hisobga olgan holda uyg'unlikda qo'llash zamonaviy chet tili darslarining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Ona tili bilan birga boshqa bir chet tilida gapira olish, faqatgina o'z fikrlarini ikkita tilda bayon etishnigina anglatmaydi. Ikki tilda gapira olish insonlarning o'ylash, his qilish va o'zini tutishida ham farqli bo'lishiga sababchi bo'ladi va insonning umumiy shaxsiyati rivojlanishiga olib keladi. Boshqa tildagi tajribalar dunyoni yanada teranroq anglashga yordam beradi. Ushbu fikrning o'zi ham chet tillarni o'rganishning ahamiyati naqadar muhim ekanligini ko'rsatib turibdi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining xorijiy filologiya, xorijiy til va adabiyot yo'nalishi talabalari esa ayni paytda nafaqat ona tili va chet tili, balki ikkinchi chet tilini ham o'rganish imkoniyatiga egalar. Bu o'z navbatida yanada keng fikrlaydigan, dunyoqarashi rivojlangan kadrlarni tayyorlashning uzviy bo'g'ini hisoblanadi.

Chet til o'rganish jarayonida qiziqishning tavsifi va ahamiyati haqidagi mavzusni yoritishda avval, til o'rganishga ta'sir etuvchi omillarga to'xtalib o'tsak. Til o'rganishga ta'sir etuvchi omillarni asosan ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Ijobiy ta'sirga ega bo'lgan omillar o'rganish jarayonining asosiy kalit elementlari hisoblanadi va o'rganish jarayonidagi o'sishning maksimalashishiga sabab bo'ladi.

Til o'rganishga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillarga ham ajratiladi. H.Huneke va V.Shtayniglarning qayd etishicha, ichki omillarga quyidagilar kiradi:

1. Til o'rganuvchining yoshi;
2. Til o'rganilayotgan mamlakatdagi shu tilga bo'lgan munosabat, ona tilining ta'siri;
3. Motivatsiya va til o'rganishga bo'lgan qiziqish va qobiliyat;
4. O'rganish uslublari, o'rganuvchilar tiplari hamda o'rganish strategiyalari.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, nemis tiliga bo'lgan qiziqishni orttirishda innovatsion va integrativ ta'lim usullaridan foydalanish aynan o'rganishga ta'sir etuvchi muhim omillarning o'zaro integratsiyasi ekan.

Qiziqishning o'rganish jarayonidagi ahamiyati, uning pedagogik-psixologik xususiyatlariga alohida to'xtalishdan oldin, yuqorida keltirilgan omillarga ham qisqacha to'xtalib o'tishni ma'qul ko'rdik.

Dastlabki omil til o'rganuvchining yoshi bo'lib, bu omil til o'rganish jarayoniga kuchli ta'sir etadi. H.Huneke va V.Shtayniglarning qayd etishicha, 15 yoshgacha bo'lgan bolalar boshqa mamlakatga ko'chib kelganlarida shu mamlakat tilini aksentsiz o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi. 15 yoshdan yuqori til o'rganuvchilar esa o'rganish jarayonida ko'proq qiyinchiliklarga uchrashadi. Til o'rganish muddatlari ham yosh ulg'aygani sari cho'zilib boraveradi.

Ikkinchi omil til o'rganilayotgan mamlakatda shu chet tiliga berilayotgan e'tibor, uning jamiyat hayotidagi o'rni hamda ona tilining ta'siri hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri Respublikamiz Tashqi ishlar vazirligi, Migratsiya va Bandlikka ko'maklashish tashkilotlarining Germaniya bilan o'rnatayotgan mehnat borasidagi mustahkam aloqalari hisoblanadi. Mamlakatimizning ko'plab yoshlari Germaniyada ishlash va o'qishni davom ettirish uchun nemis tilini o'rganmoqdalar. Ayniqsa tibbiyot xodimlarining nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari kuchayib bormoqda. Tibbiyot texnikumlarida esa nemis tili kurslari ham yo'lga qo'yilganligi barchamizga ma'lum.

Talabalarni til o'rganish jarayonlarini qiziqarli tashkil etishda innovatsion va integrativ usullar yaxshi samara berib kelmoqda. Ko'p hollarda dastlab talabalar dars jarayoniga qiziqmasdan, befarqlik bilan yondashadilar. Buning asosiy sabablaridan biri hali ham ba'zi chet til o'qituvchilarining eski, an'anaviy ta'lim usullaridan foydalanib kelayotganliklari deb aytish o'rinli bo'ladi. Jahon chet til o'qitish metodikasida kundan-kunga kengayib borayotgan turli innovatsion va integrativ yondashuvlarga qaramasdan, bizning ta'lim muassasalarimizda ayrim joylarda o'zgarishlar ko'zga tashlanmayotganligi sir emas.

Quyida qiziqishning pedagogik-psixologik tomonlariga to'xtalib o'tishga harakat qilamiz. Qiziqish insonlarning eng muhim psixologik ko'rinishlaridan biri bo'lib, unda shaxsning individual xususiyatlari bevosita o'z aksini topadi. Qiziqish– har qanday insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ideallari (ya'ni insonning oliy maqsadlari), yaxshi niyatlari va orzu umidlari bilan bevosita bog'langan holda, uning hayotida katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga ularning muvaffiqiyatli amalga oshirishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Qiziqish inson bilimlarni ongli anglagan holda, puxta hamda barqaror o'zlashtirishda, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, shaxsiy qobiliyatlari, uquvchanlik va zehni rivojlantirishga, borliqni mukammalroq tushuna olishga, bilim saviyasining kengayib borishiga katta yordam beradi. Qiziqish motiv kabi dunyoning mo'jizakor tomonlarini bilib olishga, fanning asoslarini o'rganishga, inson faoliyatining turli-tuman shakllariga nisbatan kreativ, ijodiy yondashishni vujudga keltiradi. Bundan tashqari, mehnatga, ta'limga bo'lgan mas'uliyat hissini shakllantiradi, har qaysi yakka shaxsda individual ishchanlik, egilmas iroda va g'ayrat-shijoatni tarkib toptirish uchun kerakli bo'lgan psixologik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, qiziqish har bir insonda intilish, ichki turtki, faollik hamda ehtiyojni ro'yobga chiqarishning asosiy manbai rolini bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. Huneke H., Steinig W. *Deutsch als Fremdsprache. Eine Einführung*. 6., neu bearbeitete und erweiterte Auflage. Berlin: Erich Schmidt Verlag. 2013. S.14
2. Happ R. et al. The importance of controlling for language skills when assessing the correlation between young adults' knowledge and understanding of personal finance and migration background // *Empirische Pädagogik*. – 2018. – T. 32. – №. 3/4. – С. 329-348.
3. Huneke H., Steinig W. *Deutsch als Fremdsprache. Eine Einführung*. 6., neu bearbeitete und erweiterte Auflage. Berlin: Erich Schmidt Verlag. 2013. S.12



NEMIS TILI DARSLARIDA O'YINLAR ORQALI TALABALARNI QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK AHAMIYATI

Sharipova Laylo Mehrojiddinovna,

Sharof Rshidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali, Urgut sh., O'zbekiston

Annotsiya: *Maqolada nemis tili darslarida o'yinlar orqali o'quvchilarda bilim olishga qiziqishni rivojlantirish yo'llari, chet tilini o'rganishning o'yin usullari va ularning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni, muloqot ko'nikmalari, jamoada ishlash ko'nikmalari va boshqalar haqida so'z boradi. O'yin davomida talabalar o'zlarining ilgari o'qituvchiga noma'lum bo'lgan imkoniyatlarini ochib berishadi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются способы развития интереса учащихся к обучению посредством игр на уроках немецкого языка, игровые методы изучения иностранного языка и их роль в формировании социальных и личностных компетенций, коммуникативных навыков, навыков работы в команде и т.д. В процессе игры учащиеся раскрывают свой потенциал, ранее неизвестный учителю.*

Ключевые слова: *развитие интересов, изучение иностранного языка, коммуникативных навыков, с помощью игр.*

Annotation: *The article observes the development of students' interests through games in German language classes, game-based learning methods and their role in developing social competences, communication skills, team work skills and personal competences, behavior, etc. With the help of games, the language learner's potential that the teacher does not know is revealed.*

Key words: *development of interests, learning a foreign language, communication skills, through games.*


Ma'lumki, chet tili darslarida o'quvchilarni faqat mashqlar bajarish bilan mashg'ul qilish ularda zerikishga olib keladi. Bu fikr til o'rganuvchilar orasida juda keng tarqalganligini bilamiz. Barchamizga ma'lumki, mashqlardan o'rganilganlarni takrorlash, mustahkamlash va amalda qo'llash uchun foydalaniladi. Buni chet til didaktikasi bilan shug'ullanuvchi olimlar doimo o'z tadqiqotlarida ta'kidlab kelmoqdalar. Mashqlarni bu tartibda bajarish til o'rganuvchilar tomonidan motivatsiyani tushiruvchi sifatida qabul qilinadi. Bundan tashqari, o'rganish samaradorligiga ham salbiy ta'sir etadi. Bu o'rganish bosqichini almashinuvchan va samarador qilish uchun didaktik o'yinlar juda mos kelishi tajribalardan ma'lum. Didaktik o'yinlar deganda, ma'lum mavzuga oid tajribalarga bog'liq bo'lgan, aniq bir maqsadga yo'naltirilgan o'yinlar tushuniladi. Bunday o'yinlar fanga oid bo'lmagan kompetensiyalarni ham shakllantirishda o'z hissasini qo'shadi. Chunki o'yinlarda nafaqat chet tili o'rganiladi, balki ijtimoiy kompetensiyalar (muloqot qobiliyati, jamoada ishlash qobiliyati) va shaxsiy kompetensiyalar (o'zini tutish) kabilar ham rivojlanadi. O'yinlar yordamida til o'rganuvchining o'qituvchi bilmaydigan potentsiali yuzaga chiqishi mumkin. Ba'zi hollarda bu potentsialdan til o'rganuvchining o'zi ham bexabar bo'lishi mumkin. O'yinni o'ynash jarayonida til o'rganuvchilar o'quv predmeti bilan faol shug'ullanishadi. O'rganilgan bilimlar faqatgina takrorlanib qolmasdan, balki tartiblanadi, oldin olgan bilimlarga bog'langan holda chuqurlashtiriladi. O'yinlarda ijtimoiy shakllar (guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash, yakka holda ishlash va plenumda ishlash) maqsadli tarzda integratsiya qilinadi.

O'qituvchi tomonidan o'z vaqtida qo'llanilgan o'yinlar, nafaqat darsning qiziqarli kechishiga, balki barchani dars jarayoniga birdek jalb qilishga ham imkon tug'diradi. Albatta hamma til o'rganuvchilar ham o'yinlarni jiddiy qabul qilmasligi va o'yinlarni bolalar uchun deb o'ylashi mumkin. O'qituvchining dars jarayonidagi uddaburonligi orqali bunday muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Nemis tilini asosiy mutaxassisligi ingliz tili bo'lgan talabalarga ikkinchi chet tili sifatida o'rgatish jarayoni hozirgi kunda (bir yil oldin to'rtinchi kurs) oxirigacha davom etadi. Asosiy chet tilini talabalar turli fanlarga bo'lib o'rganadilar, xususan, yozma nutq amaliyoti, og'zaki nutq amaliyoti kabi. Grammatik va fonetik mavzularni o'rganish uchun ham alohida fanlar mavjud. Lekin ikkinchi chet tili o'zida ushbu fanlarni integratsiya qilishi lozim. Talabalar nemis tilida gapirish, yozish, o'qib tushunish va eshitish ko'nikmalarini, shu bilan birga mamlakatshunoslikka oid bilimlarni ham aynan bir darsda o'zlashtirib boradilar. Bu esa o'qituvchidan o'z darsini integrativ yondashuv asosida tashkil qilish masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. O'qituvchi ingliz tilida olib boriladigan fanlar integratsiyasidan ham foydalanishi mumkin. Integrativ yondashuv asosida talabalarni nemis tiliga qiziqtirish uchun dars jarayoniga turli o'yinlarni integratsiya qilish mumkin. Buning uchun esa mamlakatshunoslikka oid ma'lumotlarni o'yin tarzida talabalar bilan qayta ishlash maqsadga muvofiqdir. Buning yordamida talabalarning nafaqat nemis tilidagi kommunikativ kompetensiyasi o'sishiga, balki Germaniya bilan

bog'liq bilimlari ham kengayishiga erishiladi. Quyida shunday didaktik o'yinlardan ba'zilariga to'xtalib o'tmoqchimiz:

Ma'lumki, Germaniyaning 16 ta federal o'lkasi bor, ularning har biri o'z poytaxtiga ega. Ushbu ma'lumotlarni yodda saqlash hamda qiziqarli tarzda o'rganish uchun "Finden Sie die Hauptstädte!!!" o'yinidan foydalanish mumkin. Buning uchun quyidagicha kartochnalarni tayyorlash kerak.



Rasm №1. Finden Sie die Hauptstädte!!! o'yini uchun kartochna namunalari

Ushbu tarzda barcha o'lkalar va ularning poytaxtlari yozib chiqiladi va bir tomonda o'lka nomlari, ikkinchi tomonda ularning poytaxtlari aralastirib yuboriladi. Ularni kim yoki qaysi guruh eng birinchi to'g'ri tartibga keltirsa, o'sha guruh yoki talaba g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni talabalarni kichik guruhlariga ajratgan holda musobaqa tarzida o'tkazilsa, o'yinning qiziqarliligi yanada oshadi. Bunday o'yinlarni Kahoot! dasturi yordamida o'tkazish esa o'yin samaradorligi va qiziqarliligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Nemis olimi H. Krumm ham "Mamlakatshunoslik fanini integrativ yondashuv asosida tashkil qilishning didaktik maqsadi har bir o'rganish bosqichida o'rganish jarayonini optimallashtirish, til o'rganuvchilarni motivatsiyalarini oshirish, bu orqali til o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, bundan tashqari chet madaniyatga bo'lgan qiziquvchanlikni uyg'otishga erishishdir." deb ta'kidlaydi. Demak, nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rgatishda mamlakatshunoslik bilan bog'liq ma'lumotlarni integratsiya qilish har tomonlama muhim ahamiyatga ega ekan.

Mamlakatshunoslik fanini ikkinchi tilga integratsiya qilish doimo yaxshi samara berishi va bu orqali til o'rganuvchilarning tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi bilimlari mustahkamlanib borishini biz yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Quyidagi kommunikativ o'yin orqali talabalarning ham grammatik bilimlari ham mamlakatshunoslikka oid bilimlari integratsiya bo'lib, mustahkamlanadi.

"Sifat o'yini"ni deb nomlanuvchi o'yinni o'tkazishdan oldin o'qituvchi talabalarga o'z ismini bosh harfi bilan boshlanadigan sifat va shahar nomini o'ylashni buyuradi. (Tili o'rganilayotgan mamlakatning shaharlari bo'lsa yoki dunyo mamlakatlarining nomlari bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi). O'yinni o'tkazish uchun talabalar doira shaklida turadilar. O'qituvchi o'yinni o'zi boshlab, o'z ismining bosh harfi bilan boshlanadigan sifat va shahar nomini aytib qo'lidagi koptokni istalgan o'quvchiga ulotiradi.

Masalan: Mutige Matluba aus Magedurg. (Magdeburglik jasur Matluba). Koptokni olgan talaba ham o'z ismiga sifat va shahar nomini aytib boshqa talabaga otadi. Masalan: Fleißiger Farid aus Frankfurt. (Frankfurtlik tirishqoq Farid). O'yin shu tariqa davom etadi. O'yinda hamma talabalar bir martadan qatnashishlari lozim.

Ko'rinadiki, bu o'yinda o'tilgan sifatlar ismlar bilan takrorlanib, ko'makchi aus (dan) tili o'rganilayotgan shahar nomlari oldidan qo'llanilib, o'zbek tilida lik qo'shimchasini anglatishini talabalar integratsiya jarayonida mustahkamlab oladilar.

ADABIYOTLAR

1. Abdunazarova Z. Ta'lim jarayonini didaktik loyihalash // Ta'lim texnologiyalari. – T., 2006. - № 2. – B. 18-19. 132.
2. Ergasheva G. N. CHET ELLIKLARGA OZBEK TILINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH // Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 988-994.
3. Mirzajonova D. O'qitish metodlarining didaktik modeli // Maktab va hayot. – T., 2008. - №7. – B. 4-5.
4. Лепинг Е.И. и др. Большой немецко-русский словарь. В двух томах. – Москва: Русский язык, 1980. - 1078 с.

SAMARQAND JADIDCHILIK ADABIYOTINING VAKILI BEHBUDIY ADABIY MEROSIDA UYG'ONISH SADOLARI

¹Shaxriyorova Sh., ²Asrorov A.

¹SamDU Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti talabasi, Urgut sh., O'zbekiston

²SamDU Urgut filiali tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini dotsenti, Urgut sh., O'zbekiston

Annotatsiya: Maqola Behbudiy adabiy merosining chizgilari haqida yoritilgan bo'lib, Behbudiyning ma'rifatparvarlikka qo'shgan hissalarini hamda qoldirgan merosini o'rganish, ularni yosh avlod tarbiyalashdagi o'rni aks ettirilgan. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz

kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi.

Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 20-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qirimtatarlar o'rtasida yuzaga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari dastlab o'zlarini "taraqqiyparvarlar", so'ngra "jadid"lar deb atashgan. Jadid so'zi- (arabcha-"yangi") degan ma'noni bildiradi. Jadidlar Turkiston xalqlarining manfaatlarini ifodalagan, ma'rifat uchun kurashgan, o'qish-o'qitish ishlarini isloh qilgan, diniy maktablarning dasturlariga dunyoviy fanlarni kiritishga intilganlar. Turkistondagi jadidlar sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho'lpon, Ashurali Zohiriy, Is'hoqxon Ibrat, Fayzullo Xo'jayev, Abdulvohid Burxonov va boshqalarini ta'kidlashimiz mumkin.

Samarqandda ham jadidlik harakati keng yoyilib, ularning bir qator yetuk namoyandalari yetishib chiqdi. Samarqand jadidlarining eng ko'zga ko'ringan vakili, shubhasiz, Mahmudxo'ja Behbudiydir. "Turkistondagi jadidlik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) mashhur dramaturg va publitsist, jamoat arbobi bo'lishidan tashqari, o'z davrining yirik olimi, noshir va matbuotchisi sifatida chuqur iz qoldirdi". Keling endi Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyatlarini o'rganib chiqamiz.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li Turkistonlik, Ahmad Yassaviy avlodlaridan, Ona tomondan bobosi Niyozxo'ja Urganchlik bo'lib, amir Shohimardon zamonida Samarqandga kelib qolgan. 1868-yilda rus qo'shinlari Samarqandga bostirib kiradi, Behbudxo'ja oilasi bilan Samarqandning Baxshitepa qishlog'iga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi hamda shu yerda taxminan yetti yil davomida imom va xatiblik lavozimida ishlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy ham shu yerda dunyoga keladi. Bu vaqtda ruslar Samarqand va atrof qishloqlarida o'qin-o'qin ko'tarilib turgan qo'zg'olonlarni bostirib, shaharda tinch hayotni o'rnatishga muvaffaq bo'lgan edilar. Shuning uchun Behbudxo'ja 1875-yili yana shaharga ko'chib borib, oilasi bilan Foni mahallasida yashaydi. Otasining asl ismi Sultonxo'ja bo'lib, Behbudxo'ja laqabi bo'lgan. Otasi qorilik va imom-xatiblik orqasidan kattagina davlat ortirgan Behbudiy 6-7 yoshlik chog'ida katta tog'asi Muhammad Siddiq qo'lida xat va savod chiqardi. Shundan so'ng, otasi o'g'lini qorilikka tayyorlash maqsadida Qur'onni yod oldiradi. Behbudiy otasi 1894-yilda vafot etadi. Mahmudxo'ja otasi vafotidan so'ng o'qishni tashlab mustaqil turmush tebratadi va tog'asi Muhammad Siddiq huzurida mirzolik vazifasida ishlaydi.

Behbudiy o'tgan XIX asr oxiri-XX boshlarida "usuli savtiya" (tovush metodiga asoslangan) maktablarini ochishga bel bog'laydi. Samarqandda ochilgan dastlabki, "usuli savtiya" maktablaridan biri 1903-yili Jomboy tumaninig Rajabamin qishlog'ida, atoqli ma'rifatparvar Abduqodir Shakuriyning hovlisida ochilgan. Bu maktabni ochilishiga Behbudiy ham o'z hissasini qo'shadi. Ammo, maktab o'quvchilariorasida shahardan qatnovchilar oz bo'lmaganligi va ularning Rajabamin qishlog'iga qatnashlari qiyin bo'lganligi bois Behbudiy uni o'z hovlisiga ko'chiradi. Shu yillarda u mazkur maktab o'quvchilari uchun "Muntaxabi jug'rofiya umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Madhali jug'rofiya umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), "Muxtasar jug'rofiya Russiy" ("Rusiyaning qisqacha geografiyasi"), "Kitobat ul-atvol" ("Bolalar kitobi"), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha kitobi") singari darslik va o'quv qurollarini yaratdi.

Behbudiy Samarqandda mutolaaxona ochish maqsadida maslakdoshlari bilan birgalikda o'quvchilar uchun 27 "bob" dan iborat dastur va nizom(ustav) tuzib, Samarqand shahrining harbiy gubernatoriga taqdim etadi. Mazkur dastur va nizom tasdiqlangach, mutolaaxonaning moddiy jihatlarini "mustahkamlash ishlari" yurishib ketadi. Avvalo, mutolaani tashkil etish uchun maxsus jamiyat tuziladi. Behbudiy jamiyat raisi, Hojiqul Muhamedov rais o'rinbosari, tarjimon Qo'qonboy Abduxoliq o'g'li sarkotib, muallim Xidirbek Abusaid o'g'li raisning maishiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, savdogar mulla Abdusalom Abdulmo'min o'g'li xazinachi, muallim Abduqodir Abdulshakur (Abdulqodir Shakuriy) va Hoji Said Axmad Xo'ja Xabar o'g'li idoraning doimiy a'zolari etib saylanadi. 1908-yil 11-sentyabrda mutolaaxona rasman ochiladi. Keyinchalik, "Behbudiya" kutubxonasi nomi bilan mashhur bo'lgan mutolaaxona ikki smenida (ertalab soat 9 dan 5 gacha va soat 6 dan 12 gacha) ishlab, 60 dan 110 nafargacha kishilarga madaniy xizmat ko'rsatila boshlaydi.

XX asr boshlarida jadidchilik harakati va adabiyotini boshlab bergan kishining teatr bilan shug'ullanmasligi mumkin emasdi. Behbudiy 1911-yilda birinchi o'zbek dramasi- "Padarkush" ni yozib, Turkistonda yangi san'at turiga tamal toshini qo'yadi. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, 1911-yili, Behbudiy asaridan biroz avval, qo'qonlik muallim Abdurauf Samadovning "Mahramlar" peyisasi risola shaklida nashr etilgan. Lekin "Maxramlar"ning dastlab "O'liklar" nomi bilan tatar tilida yozilgani va muallifning o'zi ham tatar millatiga mansubligini nazarga tutsak, Behbudiy o'zbek teatriga, dramaturgiyasiga poydevor qo'ygan desak adashmaymiz. Turkistoninig o'sha yillardagi madaniy hayotida "Padarkush" ning namoyishidek tarixiy voqea bo'lmagan.

Hali milliy adabiyotda dramaturgiya namunalari bo'lmagan bir paytda "Padarkush"ning yaratilishi bu oddiy hodisa emas edi. Shuning uchun ham o'zbek teatrining rus millatiga mansub "Дундук" ("Недоросль") pyesasi ta'sirida yaratilgan, degan gaplarni aytib keldilar. Ammo, 1877- yildan 1917 yilgacha bo'lgan davrda Turkistonga gastrolga kelgan rus teatrlaru Toshkent, Samarqand yoki boshqa shaharlarda "Дундук"ni namoyish etmagandi.

Behbudiy o'z asarida ma'rifatsizlikning millat va millatning har bir a'zosi hayotiga ko'rsatadigan fojeali zararini tasvirlab bergan. Asar "Padarkush yoxud O'qimagan bolaning holi" deb atalishi ham buni ko'rsatib turibdi. Behbudiy "Padarkush"da o'z farzandi tarbiyasiga e'tibor bermagan otalar, balki ishyoqmas, maishatparast farzandlarni hayoti ham fojea bilan tugashi mumkinligini ko'rsatib, XX asr boshlaridagi o'zbek jamiyatini ogohlantiradi.

Asar Domullaning Boy mehmonxonasiga kirib kelishi bilan boshlanadi. Shu vaqt Toshmurod mehmonxonaga kirib, do'stlari bilan tomosha ko'rgani ketayotganini aytadi va otasidan pul so'raydi. Toshpo'lat ketgandan so'ng Domulla bilan Boy o'rtasida quyidagicha suhbat bo'lib o'tadi:

- **Boy.** So'zlashib o'lturing, taqdir.
- **Domulla.** Xo'b,xo'b, boyvachcha katta bo'lubdur. Xudo umr bersin, usuli jadid maktabigami o'qiydur yoinki eski maktabga?
- **Boy.** Ikkisiga ham bormaydur.
- Domulla. O'z hovlingizda o'qitaturg'onsiz?
- **Boy.** Yo'q, yo'q. Men o'g'lumni oqitmoqni o'ylaganim yo'q.
- **Domulla.** Ajoyib, sabab nedurki, o'qutmaysiz? Vaholanki, o'qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur.
- **Boy.** Maning xayoling'a dunyoning sababi, izzati-boylik. Oxiratg'a bo'lsa, xudoning qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mullodan ziyod izzat qiladurlar. Xususan, mana banklar ko'paydi. Katta boylar chilen bo'lub, har kim chilennlarni izzat qilur, hatto ishi tushaturg'onlar chilen molini qimmat olur, azbaski, chilen iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so'ngra muomiladorlar sinib, mayda-mayda bo'lur, bildingizmi?
- **Domullo.** Bu so'zlaringiz hozirgi zamonaga ma'qul, lekin chilen va boylarni izzatlari vaqtincha va xalqni ko'zi ochilgandir. Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur, mulloni bo'lsa, barcha xalq izzat qilur, ya'ni mulloni ilmi izzat qilinadur.
- **Boy.** Bizni ham boyligimiz izzat qilinadur, hatto musulmonlar nari tursin, o'rus va armanlar-da izzat qilur.
- **Domulla.** Izzatni nari qo'yduq, agar o'g'lingizni o'qitsangiz, daftaringizni yozar, namozingizni va musulmonchiligini yaxshi bilur va ham sizg'a sovg'a bo'lur.
- **Boy.** Mirzalik oson, mana, Xayrulloga oyinda yetti so'm beraman, kunduzlari mirzalik va oqshomlari mehmonxona ishini qilar va hatto, uyqum kelguncha xodimi qilar, kitob ham o'qub berar...
- **...Domulla.** Siz ilgari zamonda bir navi illa boy bo'lubsiz, ammo endi boy bo'lmoq nari tursun, faqat ro'zg'or o'tkazmoq uchun(ham) kera, ko'ramizki, yigirma-o'ttiz yildan beri barcha savdo ishlari Armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo'liga o'tdi, muni sababi bizlarning o'qimag'onimizdur. O'qumag'on boyvachchalarni ko'ramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor va zor bo'lur, binobarin, o'g'lingizni o'qitmoqni sizga taklif qilaman.
- **Boy.** Ay, domullo! Siz munga tahqiqchimi? O'g'ul maniki, davlat maniki, sizga nima? O'quganni biri siz: yemoqg'a noningiz yo'q, bu holingiz bilan munga nasihat qilursiz. Xayrullo! Mehmonxonani qulfla, uyqum keldi .

Drama voqealarida bo'lib o'tgan voqea Boy bilan Domullaning suhbatini ikkala obrazni xarakter-mohiyatini ochib, ularning o'tgan asr boshlaridagi xalq ommasining qaysi qatlamiga mansubligini ko'rsatibgina qolmay, voqealarning keying rivoji va hatto xotimasini ham o'zida siqib ushlab turadi. Bu sahnadagi Domulla obrazida Behbudiy o'zining ijtimoiy, iqtisodiy va ma'rifiy qarashlarini ifodalashga urinadi. U o'zini jadidchilik- ma'rifatparvarlik g'oyalarni shu obraz orqali tomoshabinga yetkazib bermoqchi bo'ladi. Domulla tilidan faqatgina boyni o'zigagina emas, balki butun bir jamiyatga ilimsizlik oqibatlarini yaxshi emasligini uqtirmoqchi bo'ladi. Tomoshabinlarning Boyga ruhan yaqin qismiga Domulla Behbudiyning bunday nasihatlarini kor qilmasligi mumkin. Shuning uchun Boy mehmonxonasidan haydalayotgan Domulla endi elga qarab, shunday deydi:

- **Domulla (odamlarga qarab).** O'qumoq va mulla bo'lmoq uchun pul kerak, badavlatlarimizni holi bul, bas, bu ketish ila, nauzambilloh dunyo va oxiratg'a rasvo bo'lurmiz, o'qumoq barcha musulmonga, erkak yo xotun bo'lsun, farz edi. U qayda qoldi? Oh, voy bizni holimizg'a!...

Bundan qariyb 100 yil avval yozilgan bu asardagi Domullaning xalqni ma'rifatga da'vat etishi, uning taqdiridan qayg'urishi bilan bog'liq motiv hali ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ushbu misralar orqali Behbudiy Domulla tilida butun bir jamiyat a'zolariga nasihat o'qitirishini kuzatishimiz mumkin. Behbudiyning "Padarkush" drammasi ta'sirida ko'plab drammlar vujudga keldi. Xususan, A.Qodiriyning Turkistonning maishiy hayotidan olib yozilgan "Baxtsiz kuyov" drammasini olishimiz mumkin. Behbudiy Samarqandda jadidchilik harakati yuzaga kelishiga turtki bo'lgan. Shuning uchun ham biz uni jadidchilarning otasi degan atamalarni ham ishlatib o'tamiz.



BOBORAHIM MASHRAB- TA'LIM VA IMLO TARG'IBOTCHISI

¹Suyarova Dildora, ²Asrorov A.

¹SamDU Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti talabasi, Urgut sh., O'zbekiston

²SamDU Urgut filiali tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, Urgut sh., O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada ko'rib chiqilayotgan masalalar asosan ta'lim va imloga yo'g'irilgan. Boborahim Mashrabning ishlari, harakatlari ta'lim va imlo bo'yicha qilgan izlanishlari. Asarlarida ta'lim va imli to'g'risida fikrlari, uning ta'lim va imloga befarq emasligi, ta'lim va imloni yuksaltirishga qilgub buyuk ishlari haqida ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: ta'lim va imloning o'rni, uning yuksalishi, Boborahim Mashrab ning ta'lim a imloga qo'shgan hissasi.

Abstract: *The issues considered in the article are mainly focused on education and spelling. Grandfather Mashrab' works, actions, researches on education and spelling. His thoughts on education and spelling in his works, his education It was reported that he is not indifferent to education and spelling, and about his great work in improving education and spelling.*

Key words: *the role of education and spelling, its rise, the contribution of Boborahim Mashrab to education and spelling.*

Bugungi o'quvchi mulla Bozor oxundni Boborahim Mashrabning tariqatdagi birinchi ustoz deb biladi. Lekin ko'pchilik kitobxonlar bu shaxsning tarjimai holidan deyarli xabardor bo'lmasa kerak. Ilmiy adabiyotlarga ko'z yugurtirilsa, xuddi shogirdi singari uning hayoti ham o'zaro mos tushmagan turli axborotlar qorishig'idan iborat ekani ayon bo'ladi. Ba'zi tadqiqotlarda unga oid qisqacha ma'lumotlar uchraydi, ayrimlarida esa nomigina qayd etiladi. Bozor oxund kim va qachon yashagan? Qaysi tariqat vakili? Bu savollar hozirgacha qariyb javobsizdir. Tarixiy manbalarda bu to'g'rida qanday gap-so'zlar bor?

Bozor oxund haqidagi ilk ilmiy xabarlar N.S. Likoshinning "Devonai Mashrab" tarjimasida tadqiqot qismida beriladi. U Mashrabga oid ma'lumot izlab, murojaat qilgandan so'ng Chust shahri qozisi domulla Mas'ud maxdum, qozikalon Muhammad Murod va shayx ul-islom Nodim unga axborot to'plab beradi. Ular orasida Bozor oxund shajarasi ham bor edi. Shajarada Bozor oxund nasabi imom Hanafiya orqali hazrati Aliga yetishi ta'kidlanadi. Bozor oxundning otasi Sulton Muhammadxon edi. U dastavval hazrati Sulton Ahmad Yassaviy yurtida yassaviya tariqati vakillaridan ta'lim oladi va keyinchalik Qo'qonga ko'chib keladi. U yerda bir necha muddat yashab, Namanganga o'tadi va o'sha joyda muqim bo'lib qoladi. Uning Ubaydulloh xoja, Olim xoja ismli o'g'illari bor edi. Ubaydulloh xoja o'z davrida Podsho Bozor oxund nomi bilan shuhrat qozonadi. Uning qol va hol ilmidagi birinchi ustoz, shubhasiz, otasi edi. U yassaviya tariqati maktabida saboq olib voyaga yetadi. „Devonai Mashrab“, „Devonai Mashrab“, „Eshoni Mashrab“, „Hazrati shoh Mashrab“ nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida tarqalgan qissalardagina (ularning kim tomonidan va qachon tuzilganligi noma'lum) shoirning hayot yo'li va ijodiy faoliyati ma'lum tartib va izchillikda bayon etiladi, shu jarayonda asarlaridan namunalar ham keltiriladi. Qissalar keyinchalik o'zgartirish va tuzatishlarga duch kelgan, turli to'qimalar, yangi-yangi rivoyat, nakdlar, sarguzasht va latifasimon lavhalar bilan to'ldirila borilgan. Natijada qissalarda tarixiy Mashrab va uning ijtimoiy va ijodiy faoliyati xalq tasavvuridagi to'qima Mashrab hamda u haqidagi sarguzasht-rivoyatlar bilan qorishib ketgan. Shunday bo'lsada, Mashrab haqidagi qissalar shoir hayot yo'lini nisbatan to'la va bosqichma-bosqich bayon etuvchi, shuningdek, yaratgan asarlarining ko'pgina qismini o'zida jamlovchi adabiy-tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Quyidagi asarlarda ham Mashrab haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi:

„Tazkirat ul-avliyo“ (Majzub Namangoniy),

„Tazkirai qalandaron“ (Is'hoq Bog'istoniy),

„Muzakkiri as'hob“ (Maleho Samarqandiy),

„Muntaxab ut-tavorix“ (Hakimxon To'ra),

„Ansob us-salotin“ (Mirzo Olim).

Mashrab haqida mukammalroq tasavvur hosil qiluvchi manba – „Qissai Mashrab“dir (boshqa nomlari „Shoh Mashrab“, „Devonai Mashrab“). Uning ko'pgina qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjud.

Mashrab fors tilida ham bir necha she'riy turlarda yetuk namunalar yaratgan. Mashrab ijodi keyingi asrlar adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Nodira, Huvaydo, Qoriy, Furqat, Hamza kabi shoirlar uning g'azallariga taxmis va naziralar bog'lashgan. Mashrab qoldirgan adabiy meros to'la aniqlanib, o'rganilgan emas. Ba'zi tadqiqotchilar juda ko'p she'riy hikoyat va g'azallarni o'zida jamlovchi "Mab dai nur" nomli yirik asarni shoirga nisbat beradilar. Mashrab hayoti va ijodi haqida bir necha badiiy asarlar (roman, qissa, dostonlar va sahna asarlari) yaratilgan, shoirning asarlaridan namunalar qator xorijiy tillarga tarjima qilingan. Mamlakatimizning turli shahar va viloyatlarida Mashrab nomida istirohat bog'lari va kinoteatrlar, maktab va kutubxonalar, ko'chalar va jamoa xo'jaliklari bor.

Boborahim Mashrab o'zbek mumtoz she'riyatiga yangi ruh va o'ziga xos ijodiy nafas olib kirgan ulkan san'atkor hisoblanadi. Mashrab faqat otashzabon ijodkor sifatidagina emas, balki, ayni zamonda, adolatsizlik, zo'ravonlik, qabohat va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan. Xalq tasavvurida u johil amaldorlar ustidan kuluvchi, axloqan tuban kishilarni, munofiq din arboblarni ayovsiz fosh qilib, keng omma manfaatini himoya etuvchi botirso'z, tadbirkor kurashchi tarzida shakllangan: oddiy xalq Mashrab timsolida o'z ishonchli vakilini, orzu-intilishlarini baralla ayta oluvchi otashin siymoni ko'rgan. Mashrab she'riyati o'zining samimiyligi, samoviyiligi va hayotiyiligi bilan ajralib turadi. Abdurauf Fitratning aytishicha, XVIII–XIX asrlarda xalq orasida "mashrabxonlik" kechalari uyushtirilgan. Xalq Mashrab g'azallarini suygan, qo'shiqqa solgan va maroq bilan tinglagan. Bunday yig'ilishlar erkaklar orasida bo'lgani kabi ayollar orasida ham o'tkazilgan. Qish kechalarining uzun tularini Mashrab g'azallari orqali boyitishgan.

Mashrab asarlarining aksariyati chuqur ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lib, qo'ldan qo'lga, og'izdan og'izga o'tib, tez tarqalgan. Xuddi shuning uchun ham Mashrabning biror qishloq yoki shaharga kelishi izsiz qolmagan, odil kambag'al xalq uni quvonch-xursandchilik va qiziqish bilan qarshi olgan. Mashrabning mohiyatan inson qadri-sharafi va ma'naviy kamolotini ulug'lashga, ezgulik va go'zallikni madh etishga bag'ishlangan she'riy merosida g'azal, mustazod, murabba, muxammas, musaddas, musabba, masnaviy, ruboiy, ta'rix kabi janr turlarida bitilgan yetuk namunalar uchramiz. Ammo Mashrab avvalo mohir g'azalnavis hamda ko'plab sho'x va jarangdor mustazodlar, o'ynoqi va jozibador murabba hamda xalq g'am-u hasratiga hamdardlik hissi bilan yo'g'rilgan muxammaslar ijodkori sifatida keng dovruq chiqargan. Mashrabning juda ko'p g'azallari xalq qo'shiqlaridek sodda

va jarangdor, jo'shqin va ta'sirchandır. Misol keltirishimiz mumkinki, shoirning "O'rtar" radifli g'azali kuy orqali butun xalq orasiga tarqalgan. Shuningdek, "Men nola qilay shomu sahar...", "Devona bo'ldum" g'azallari mashhur qo'shiqlarga aylangan. Mashrabning ijodiy kamolotida, ayniqsa, Navoiy merosi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shoirning asarlarida Navoiy ijodiga xos falsafiylik va dunyosevarlikni ko'rish mumkin. Mazmunning hayotiyliigi, xalqchilligi, vazn ravonligi va o'ynoqiliginı qayd etish kerakki, mavzu tanlash va badiiy talqında yaqinlik va o'xshashlikni uchratish mumkin. Mashrab muxammaslaridan birida ma'shuqaning uchrashuv haqida oshiqqa va'da bergani, oshiqning tunlarni bedor o'tkazib, intizorlik bilan visol daqiqalarini kutishi to'g'risida so'z boradi. Ammo ma'shuqa va'dani buzadi, vafosizlik ko'rsatib uchrashuvga kelmaydi. Muxammas oshiqning ana shu holatdagi hayajonini, his-tuyg'ulari, hijronda yorni kutishdagi nozik kechinmalarini yuksak badiiylik bilan nihoyatda jonli ifodalaydi:

Va'da qildi bir kelay deb, ko'zga uyqu kelmadi,
Termulub yo'lida qoldim, sho'xi badxo' kelmadi,
Necha keldi shum raqiblar, ul pariroy kelmadi,
Dardidin o'ldim, tabib, dardimg'a doru kelmadi,
Men shahidi ishq bo'ldim, qatrai suv kelmadi.

Mashrab o'zigacha yashab ijod etgan fors-tojik va turkiy xalqlar shoirlari asarlarini qunt bilan o'qigan; ularning ma'naviy va poetik fazilatlarini o'zlashtirgan; avval buyuk so'z daholariga ergashib, ularning asarlariga tazmin va naziralaridir.

Ma'lumki, Mashrab kabi o'zbek adabiyoti yirik vakili ijodini tiklash bir-ikki kishining ishi emas, balki ilm ahlining birgalikdagi mehnati natijasigina bo'lishi mumkin. Asl Mashrabni boshqa Mashrablardan ajratish, shoir asarlarini yig'ish va ommaviylashtirishda akademik shoirimiz G'afur G'ulom, muhtaram olimlarimiz: filologiya fanlari doktorlari Abduqodir Hayitmetov, Vohid Abdullayev, Abdurashid Abdug'afurov, Ergashali Shodiyev, filologiya fanlari kandidati Muhsin Zokirov, Jaloliddin Yusupovlar ozmuncha ter to'kmadi. 1990-yil xatirchilik o'rta maktab o'qituvchisi, mashrabshunos olim Jaloliddin Yusupov sa'y-harakati va so'ng so'zi, N. Komilov, G'aybull Salom kirish so'zi bilan Mashrabning "Mehribonim qaydasan" 22 bosma taboqda 80 ming nusxada g'azal va besh janrdagi she'riy asarlari salmoqli hajmda nashr etilib, deyarli qisqa (6 oy) fursatda ommaga tarqalib ketdi.

Inson haqiqatni anglamoqi uchun butun borlig'i bilan yangilanish sari intilishi lozim, shunda u o'zligini, o'z o'tmishi va kelajagini yaxlit bir xolda ko'ra oladi va unga intiladi. Zamonamiz olimlari o'z sohalarini muhim bilimdoilari bo'lsalarda, ular inqilobiy mafkura adabiyotinig mezon va istiqboli haqida yaxlit bir fikrni oldinga surishga shoshilmayaptilar. Ular o'z sohalariga tegishli fan va adabiyot ishining bugungi haqiqiy ahvolidagi o'zlari ham borliklarini anglab yetsalarda, negadir uning bugungi siyrat va suratida uzlarini ko'rishni istamayaptilar. Samarqand sayqali asrlar buyuk allomalari bilan iftixorda bo'lib kelgan, ular yaratgan ulkan ilmiy meros, ilmiy ko'zatislar davr, mafkurasini ko'rsatib turuvchi bir ilmiy-tarixiy manba bo'lib bugungacha butun dunyoni o'ziga mahliyo etib kelmoqda. Bas, bunday ekan, birinchidan Mashrab ijodini talqin etishda haqiqatni e'tirof etmoq, yolg'iz yaratganni math etish ishkida yongan shoir ijodini baholashda yaratilganing emas, yaratganning kitobini avval anglash, urganish bugungi davr taqozasi darajasiga ko'tarildi deb o'ylayman. Ikkinchi, zamon turli masalalarni yechish muammolarini dolzarb qilob kelayotgan ekan, biz xam ushbu mu'jaz makolamizda Mashrab ijodining xalq ta'lim va alifbo bilan bog'liqligi masalasi haqida fikr yuritishini lozim topdik. Zeroki, moziy saboklari bugungi avlod tarbiyasi uchun bir andoza bo'lib xizmat qilsa ajab emas. Sharq adabiyotida arabiy harflarning har biri mustaqil xusniy shakl ifoda etish qudratiga ega bo'lgan. Ular badiiy obrazlar yaratdi, harfi san'atlarni ifodalashda nihoyatda keng imkoniyatlarga ega bo'lish bilan birga, ma'lum tarixiy voqea va sanalarni kursatishda xam bebaho mohiyatga ega edi. Ma'lumki, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Ogahiy kabi bobokalon shoirlarimiz arab xarflarining grafik shakllaridai badiiy- tasvir vositasi sifatida keng foydalanish bilan birga, uning barkamollii uchun kurashib ham kelganlar. Shuni e'tirof etish kerakki, Mashrab o'z asarlarida arabiy harflarning shakllaridan ustalik bilan foydalanib, bu san'at orqali qo'yilayotgan masalaning botiniy va zohiriy tomonlarini ifodalashda shunday bir urinlarni topadiki, natijada kitobxon, muammo yoki so'z zamirida yetgan harfi jilolarning go'zalligiga mahliyo bo'lib, o'z imlosiga bo'lgan munosabatini jiddiy o'zgartirishga majbur bo'ladi. Jumladan, shoirning «Qildim va kun» radifli g'azali aslan alifbo targ'ibotiga qaratilgan. Undagi har bir misra boshida bitta harf nomi zikr etiladi va shundan so'ng shu harf bilan boshlanuvchi so'z berilib an'anaviy mavzu: dard va hijron zikr etiladi:

Ey-alif» dek komatingni ibtido qildim bu kun,
«Bu- baloi dogi dording dilga jo qildim bu kun
«Te»- tilovat qilgay erdim oyati ruxsordin,
«Se»-savobi xatmi kur'on intiho qildim bu kun.
Jim»- jamolingni ko'ray deb keldim, ey shohi jahon,
«xe»- xayotim boricha jonon duo qildim bu kun..
«gayn»- gariblariga tarahhum qilgil, ey sultoni husn.
«fe» farog'at birla arzimni ado qildim bu kun.
"Kof»-g'urbat vaslidan bo'ldi madaokorim xudo,
«Gof» gulzoridan ayn muddao qildim bu kun.

Endi gazalni ta'limiy nuqtai nazaridan baholaydigan bo'lsak shoir alifboni o'rgatishda ishni avval harflarni tanishtirishdan boshlaganligi ma'lum bo'ladi. Harflar tanishtirilgandan so'ng, so'z berilib, undan keyin o'quvchi ustalik bilan murakkab tushunchalar sari yetaklanadi. Agar Mashrabdagi bu targ'ibotchilik hozirgi xalq ta'limidagi

didaktik uslubiyot bilan uyg'unlashtirilsa masala ravshanlashadi. Ya'ni, Mashrab ham alifboni targ'ib etishda aynan didaktik yo'l bilan an'anaviy uslni ma'qul ko'rgan. Ikkinchidan, ming yillik ta'lim tarbiya bilimni mukammallashtirishda takror qilishi alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Mashrab ham ta'limda takrorning o'rni beqiyosligini e'tirof etadi;

Mexnatu roxatga xu kilgan kishilardan so'rang

Xech ilme sinaga jo bo'lmadi takrorsiz.

Fikriy teranlikni qisqa ifodalashda imlodagi tinish belgilari muhim ahamiyat kasb etadi. Mashrab qisqali bir tuhtamga kelishdagi fikri jamligida imlomizdagi har bir unurning o'rni katta ekanligiga ishora qilar ekan. Uni tug'ri qo'llash cheksiz imkonlarni mujassamlashtirishni ta'kidlaydi:

To olamni zohirga qilib man guzor etdim,

Tark ayladimu jumlani qat'i nazor etdim.

Ko'maknazar bo'lmasa deb hasta Mashrab,

Ming ma'nini bir «nuqta» bir muxtasar etdim.

Mashrab o'z zamonidan shikoyat qilib o'tdi, bu norozilik favqulodda isyonkorlik bilan uning she'rlarida aksini topdi. Ba'zan malomat, bazan dard va nihoyat «Junun bozorida mardlik» «Maqomi hayrat ichra goxi goxi xud goxi bexudlik» shoir qaddini bukdi. Shoir bu alamini ifodalash uchun birgina «Alif» va «nun» xarfining shakliyi kurinishiga murojaat qilib, ijtimoiy xayotning bu ko'rgiliklaridan topgan «mukofot» ini qisqa muxtasar qildi, xolos: «Alif» dek jon orasiida nihot komatin asrab.

Namidin oqibat qaddimni «nun» yang'lig' duto etdi.

Zamonning ilgor kishilari hamma vaqt o'z asarlarida halk savodxonligi masalasini ko'tarib kelganlar. Mashrabning bugungi yosh avlod savodxonligi darajasini ko'tarishda «Imlo» ya'ni alifbo targ'ibotiga bag'ishlangan she'rlari bilan bir qatorda: ilm, axloq va ma'rifatni ulug'lovchi asarlaridagi ta'limiy qarashlar ta'lim tizimini qayta yaratish borasida mehnat qilayotgan kishilarimizga ko'zgu bo'lib xizmat qilsa ajab emas.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek shoirlar bayozi .Toshkent-1993.
2. A.Hayitmetov ."Adabiy merosimiz ufqlari" Toshkent -1998.
3. I.Haqqul."Tasavvur va she'riyat" .Toshkent- 1991.
4. T.Jalilov ."o'zbek shoirlri".Toshkent -1970.



INTERNET (CHAT, BLOG, SKYPE, GOOGLE TALK, IJTIMOYIY TARMOQ, ONLAYN O'YINLAR) ORQALI MULOQOT QILISH VA UNING XUSUSIYATLARI

Urokov X.U.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti, Urgut sh., O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet tarmog'idagi muloqot usullari, ularning bir-biridan farqli taraflari, internetda muloqot qilishning afzalliklari hamda kamchiliklari, ijtimoiy tarmoqdagi muloqot jarayonlarida elektron pochta, chat, ijtimoiy tarmoq, onlayn o'yinlarning ahamiyati, xususiyatlari haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: internet tarmog'i, muloqot, chat, skype, google talk, blog, onlayn o'yinlar, ijtimoiy tarmoq, muloqot usullari, qisqartirilgan rasmiy ism – nick, axborot almashinuvi, telekommunikatsiya tarmoqlari.

Internet tarmog'i bugungi kunda jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu tarmoqda muloqot qilish bizning vaqtimizni tejashi bilan birgalikda, makon va zamon ustidan nazorat o'rnatishimizga ham imkon bermoqda. Muloqot jarayoni turli xil yo'llar bilan amalga oshishi mumkin. Quyida biz internetda muloqot qilishning bir qancha turlari bilan tanishib chiqamiz.

Internetdagi asosiy muloqot turlaridan biri bu – **Chat** hisoblanadi. Chat (chat - chatter) - bu bir vaqtning o'zida bir nechta odamlar ishtirok etadigan qisqa xabarlarni tezkor almashish uchun joy. Bu yerda odamlar ma'lum bir vositalar asosida muloqot qiladilar hamda ushbu muloqot natijasida biror bir masalani muhokama qiladilar. Chat ham onlayn tarzda olib boriladi, bunda ham foydalanuvchi o'zi uchun maxsus nom tanlaydi, qisqartmalardan, dialektlardan, jargolardan foydalanib, mavzu bo'yicha matn yozadi va uni suhbatdoshiga yuboradi.

Aytishimiz mumkinki, chat - bu biron bir ilmiy yoki ijtimoiy mavzular yo'qligi bilan ajralib turadigan forumlarning bir turi. Ular asosan yoshlarning jonli guruh aloqalarini taqlid qilish uchun yaratilgan. Muloqot odamlar bilan uchrashish maqsadi bilan ko'pincha notanishlarning suhbat shaklida amalga oshiriladi.

Bloglar (inglizcha web log - web-log, web-protokoldan). Ushbu xizmatlarda har bir ishtirokchi o'z jurnalini yuritadi, ya'ni yozuvlarni xronologik tartibda qoldiradi. Post mavzulari har qanday bo'lishi mumkin, eng keng tarqalgan yondashuv - bu o'z kundaligingiz kabi blog yuritishdir. Boshqa mehmonlar muallifning xabarlariga sharh qoldirishlari mumkin. Bunday holda, foydalanuvchi o'z jurnalini yuritishi bilan bir qatorda, tomosha lentasini - «do'stlar» jurnallaridan yozuvlar ro'yxatini tashkil qilish, yozuvlarga kirishni tartibga solish va suhbatdoshlarni qiziqishlari bo'yicha qidirish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bunday tizimlar asosida jamoalar - jamoaviy ravishda olib boriladigan jurnallar yaratiladi. Bunday jamoaning istalgan a'zosi jamiyat yo'nalishi bo'yicha xabar yuborishi mumkin.

Google Talk. Bu muloqot turi matnli va ovoqli xabarlar orqali muloqot qilishga yordam beradi. Google Talkdan foydalanish uchun sizda **Google** hisobi bo'lishi kerak. Barcha suhbat tarixi foydalanuvchining pochta qutisida saqlanadi, bu yerda siz har doim kerakli ma'lumotlarni qulay qidiruv yordamida topishingiz mumkin.

Skype. Dastur sizga shaxsiy yozishmalarni o'tkazish, boshqa foydalanuvchilar bilan xabar almashish (suhbat), fayllarni uzatish (Word, Excel, Power Point va boshqalar), ko'p foydalanuvchi ovoqli aloqasini tashkil qilish, video qo'ng'iroq va videokonferensiya rejimida (veb-sayt) ishlashga imkon beradi (kamera, mikrofon va naushnik).

Onlayn suhbat jarayonida so'zlovchi suhbatdoshiga o'zi haqida ma'lum qilishi uchun rasmlardan ham unumli foydalanadi, chunki ma'lum bir profil yaratayotganingizda inson o'zining rasmini joylashtiradi. Ushbu qo'yilgan rasm siz haqingizda suhbatdoshingizga qo'shimcha ma'lumotlarni beradi. Zero rasmdagi sizning formangiz, tashqi ko'rinishingiz, yuz ifodangiz siz haqingizda suhbatdoshingizda ma'lum bir ma'lumotlar bazasining shakllanishiga olib keladi. Yoki ushbu profilda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi o'zining rasmi o'rniga boshqa qiziqish doirasidan kelib chiqib rasm ham qo'yishi mumkin. Bunday holda ham qo'yilgan rasmdan ma'lum bir tushunchalarni anglab olish mumkin.

Kibernetika asoschisi **Norbert Viner:** «Axborot almashinuvi – bu jamiyatni birlashtiruvchi sement» deb ataganda juda ham haq edi. Chunki elektron pochta xizmatida ham asosiy urg'u aloqa almashinishga qaratilgan bo'ladi. bu pochtaning manbaya biror bir mavzuda aloqa almashish hisoblanadi.

Onlayn suhbat jarayonida so'zlovchi suhbatdoshiga o'zi haqida ma'lum qilishi uchun rasmlardan ham unumli foydalanadi, chunki ma'lum bir profil yaratayotganingizda inson o'zining rasmini joylashtiradi. Ushbu qo'yilgan rasm siz haqingizda suhbatdoshingizga qo'shimcha ma'lumotlarni beradi. Zero rasmdagi sizning formangiz, tashqi ko'rinishingiz, yuz ifodangiz suhbatdoshingiz tasavvurida siz haqingizda ma'lum bir ma'lumotlar bazasining shakllanishiga olib keladi.

Ijtimoiy tarmoq. Ijtimoiy tarmoq orqali muloqot qilish bugungi kun internet tarmog'ining eng jadallashgan muloqot usuli sanaladi. Bu tarmoq orqali xohlagan insonimiz bilan zamon va makon oralig'ini bosib o'tib muloqot qilamiz. Bu tarmoqda asosan ma'lum bir ijtimoiy guruhlar shakllanadi, bu guruhlarining esa ma'lum bir maqsadi mavjud bo'lib, guruh a'zolari ushbu maqsad atrofida harakatlanadi-muloqot qiladi, ma'lumotlar almashadi.

Internet tarmog'idagi kommunikatsiya - muloqot jarayonida aloqa usullari almashinib turadi: og'zaki, yozma shakllar doimo o'z o'rnini ikkinchisiga bo'shatib turishi mumkin. Kanadalik sotsiolog Marshal Maklyuen fikricha, kommunikatsiya usulining almashishi tarixning rivojlanish bosqichlarini o'zida ifoda etadi. Shunga ko'ra u insoniyat rivojlanishning quyidagi davrlarini ajratib bergan:

— og'zaki kommunikatsiya (bu davrda jamoa doirasida kommunikativ muhit kommunikantlarni bevosita har tomonlama qamrab olgan);

— yozma kommunikatsiya (yozilgan xabarlar vaqt va makon to'siqlarini kesib o'tgan);

— nashr-kommunikatsiya (kommunikantlarni yalpi qamrab olishning oshishi, «Gettenberg galaktikasi»ning yaratilishi, ya'ni bosma kitoblar chop etish texnologiyasining ixtiro qilinishi);

— multimedia kommunikatsiyasi (bevosita muloqotga global miqyosda kirishish).

Olim multimedia kommunikatsiyasi deb atagan davr bugungi kun internet tarmog'idagi muloqotlarni bevosita nazarda tutgan. Chunki bugungi kunda internet tarmog'i orqali muloqot jarayoniga global miqyosda kirishilmoqda.

O'yin. O'yin inson hayotidagi o'rni tufayli norasmiy toifadan ajralib turadi. O'yinlarni biz internet tarmog'i ishtirokiga ko'ra 2ga ajratishimiz mumkin. a) online o'yinlar; b) to'g'ridan to'g'ri yoki offline o'yinlar. Onlayn o'yinlar zamonaviy madaniyatning ulkan qatlamidir. Masalan, rol o'ynash o'yinlarida («yurishchilar» deb ataladigan) aloqa teatr va maskalar prinsipiga asoslanadi. Har bir ishtirokchining o'ziga xos roli bor, u oxirigacha o'ynaydi.

«Shooterlar» va poyga kabi boshqa o'yinlardagi aloqa o'zining tajovuzkorligi bilan ajralib turadi. Odatda bu yerda do'stlikka o'rin yo'q. Bunday o'yinlar asosida bolalarda tajavuzkorlik, birovga bo'yin egmaslik, qanday qilib bo'lmasin o'z maqsadiga erishish kabi muloqot motivlari paydo bo'ladi.

Online o'yinlarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin bo'ladi:

1. Tarmoq o'yinlari (strategik va intellektual).
2. Virtual dunyo (interfaol virtual hayotni quradigan odamlar hamjamiyati sifatida).
3. Klublar (konferensiya va chat aralashmasi kabi) va boshqalar.

Internetdagi matnli aloqada odamlar ko'pincha o'zlari uchun «virtual shaxslar» ni yaratadilar, o'zlarini ma'lum bir tarzda tasvirlaydilar. Virtual odamga ism, ko'pincha taxallus berilgan bo'ladi. Internetda odamlar o'zlari uchun ba'zi «virtual shaxslar»ni yaratadi, bu shaxsiyatni o'rganish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni keltirib chiqaradi.

Virtual dunyo ta'sirida insonlar bugungi kunda juda ko'plab noma'qul ishlarni amalga oshirmoqda, ularning onlayn internet o'yinlariga tobeligi oshib bormoqda. Bo'sh vaqtlarini qo'ya turing, hatto biror ish bilan mashg'ul bo'lganlarida ham virtual olam ta'siridan chiqib keta olmayaptilar. Natijada internetning ham salbiy tomonlari namoyon bo'la boshlaydi. Bularga tobe bo'lgan qatlamning asablari taranglashadi, tajang bo'lib qoladi, sal narsaga jahli chiqib ketadi. Onlayn o'yinlarga mutelik insonni inson qiyofasidan chiqarib, uni hayvonga yaqinlashtirib qo'yadi.

Demak, bugungi kunda internetda muloqot qilishning bir necha turlari mavjud bo'lib, ulardagi muloqot jarayonida verbal va noverbal vositlardan foydalanilmoqda. Muloqot usullarining ham bir-biridan farqli tomonlari mavjud bo'lib, undagi insonlar guruhi ma'lum bir maqsadda birikkanligini unutmasligimiz lozim.

ADABIYOTLAR

1. Винер Норберт. Кибернетика и общество; Тайдекс Ко — , 2011.
2. Беликов В. И., Крисин Л. П. Социоллингвистика. –М.: 2001.
3. Bondarenko S.V. Ijtimoiy tuzilma virtual tarmoq hamjamiyatlari. Rostov: Rostov universiteti nashriyoti, 2008
4. T.Sharifov. “Iqtisodiyotda axborotkomplekslari va texnologiyalari” fanidan mustaqil ta’limlar to’plami. TMI.2009.5-14-betlar.
5. Hamidulla Dadaboyev, Shoira Usmanova. Xorijiy sotsiolingvistika. -Toshkent:2014.
6. Kutyugin D.I. Internet kommunikativ makon sifatida axborot jamiyati: Abstrakt diskurs. M.: MGU, 2009.
7. Shaxnoza Rahimova. “Muloqot” va “kommunikatsiya” tushunchalariga ilmiy yondashuv.10.12.2019. www.uz.infocom.uz sayti
8. Internetda muloqotni tashkil qilish usullari. Internet orqali aloqa qilish xususiyatlari hecc.ru.11.10.2020
9. Internet orqali muloqotning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Lelmebel.ru
10. Muloqot va kommunikatsiya jarayoni. Maqola. Ziyo.uz sayti.



INTERNET-IJTIMOY TARMOQLARIDAGI MULOQOT JARAYONLARIDA ADABIY TIL MUAMMOLARI, SODDA SO‘ZLASHUV VA ADABIY TIL MASALASI

Urokov X.U

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti, Urgut sh., O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoq matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlari, ijtimoiy tarmoq matnlaridagi muloqot jarayonida adabiy til muammosi o‘rganib chiqildi. Ijtimoiy tarmoq matnlarida internet tarmog‘idan foydalanuvchilar asosan shevalar asosida muloqot qilishi, adabiy tilga e’tibor juda kamligi haqida to‘xtalib o‘tildi. Ijtimoiy tarmoq matnlarini tahlil qilganimizda foydalanuvchilar adabiy til qoidalarini qo‘pol ravishda buzishayotganligining guvohi bo‘ldik. Buning asosiy sababi foydalanuvchilar orasida adabiy tilga oid bilimlarning mavjud emasligidir.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistika, ijtimoiy tarmoq matnlarining sotsiolingvistik tahlili, ijtimoiy tarmoq, ijtimoiy tarmoq matnlari, adabiy til, sheva, jargon, sleng, sotsiolekt.

Sotsiolingvistika o‘z ichiga insonni jamiyat bilan bog‘lab turuvchi har qanday tushunchani: adabiy til, so‘zlashuv tili, dialekt, sotsiolekt, jargon, argo, sleng, terminlar, varvarizm, vulgarizm, kesatiqlar, madaniylik kabilarni qamrab oladi.

Internet tarmoqlaridagi matnlarda adabiy til muammosi birinchi o‘ringa chiqmoqda. Qaysi xabarga, ayniqsa, suhbatdoshlar o‘rtasidagi yozishmalarga asoslangan **chat, forum, o‘yin**lardagi matnlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, bu matnlarda adabiy til normalaridan chekinish holatlarini juda ko‘p kuzatamiz. Hattoki **Telegram, Imo, Facebook, Whatsapp** kabi ijtimoiy tarmoq matnlarida foydalanuvchilar umuman adabiy til normalariga e’tibor qaratmayotganligiga guvoh bo‘lamiz.

Milliy tilning ishlov berilgan, boy leksik zaxirasi va grammatik tuzilishi me‘yorlashtirilgan hamda uslublar tizimi rivojlangan oliy shakli adabiy til hisoblanadi.

Tilimizda adabiy til qoidalari yaratilganki, bundan maqsad o‘zbek adabiy tilining mavqeyini saqlab qolish va uni keyingi avlodlarga yetkazishdir. Shuning uchun ham yurtboshimiz tomonidan o‘zbek adabiy tilini saqlab qolishning bir necha usullari taklif qilindi. Tilshunos olimlarga adabiy til normalarini qaytadan ko‘rib chiqish va o‘zbek tilini butun jahon miqyosiga olib chiqish vazifalari topshirildi.

Ijtimoiy tarmoq sahifalariga e’tibor bersangiz, adabiy til normalariga amal qilinmaydigan holatlar juda ko‘p. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, **“ch”** harfining o‘rnida **“4”ni, “sh”** harfining o‘rnida **“w”ni, “o”**ning o‘rnida **“6”ni** ishlatish holatlarini uchratishimiz mumkin. Bu orqali internet foydalanuvchisi ona tilimizga oid bo‘lgan savodxonlik bilimlardan bexabar ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Adabiy til jamiyatning ilm-fan, ta’lim, adabiyot, diplomatiya, huquqshunoslik, ish yuritish, turli tashkilotlar va ziyolilarning kundalik hayotida ishlatiladigan milliy til ko‘rinishidir. Adabiy tilga muomala jarayonida qo‘llanadigan shevaga, so‘zlashuvga xos bo‘lgan so‘zlarning ishlatilmasligi xosdir.

Facebook tarmog‘idagi quyidagi xabarga e’tiboringizni qaratmoqchiman: **Jizzax shahar 15-maktab targ‘ibotchisi Dilshod Majidov tomonidan 24-aprel kuni Zukko kitobxon tanlovi va maktab o‘quvchilari ishtirokida zakovat o‘yini o‘tqazilib, tadbirda maktab faollari, o‘qituvchilar ishtirok etishdi, tadbir yakunida faxriy yorliqlar berildi. (Dilshod Fayz, 26-aprel)**

Ushbu xabarga e’tibor beradigan bo‘lsak, tilimizdagi qonun-qoidalarni bilmasdan turib, katta xatolikka yo‘l qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin. **“O‘tqazmoq”** fe‘lining ma‘nosi “daraxt ekmoq” birikmasidagi “ekmoq” so‘ziga sinonim sanaladi. Yuqoridagi matnda esa ushbu so‘z “o‘tkazmoq” so‘zi o‘rnida noo‘rin qo‘llangan. Bu yerda matn muallifining paronim so‘zlarni yaxshi bilmasligi ko‘rinib turibdi.

Adabiy til o‘rnida olimlar “standartlashgan adabiy til” birikmasini ham qo‘llaydilar. Bunga sabab adabiy til me‘yorlarining ishlab chiqilganligi va bunga hammaning amal qilishi bo‘lsa kerak. Bundan tashqari, adabiy til milliy tilning boshqa shakllari – sheva, dialekt, jargo va boshqalardan bir necha xususiyatlari bilan farqlanadi.

Adabiy til milliy tilning boshqa shakllaridan quyidagi tarmoqlarga bo‘linishi bilan farqlanadi:

1) kodlashgan tarmoq: u barcha adabiy tilda so‘zlashuvchilar uchun yagona va umummajburiy bo‘lib, unga turg‘un me‘yor xosdir va bu me‘yor ma‘lum maqsadda madaniylashadi;

2) yarim funksional tarmoq: undan inson faoliyatining turli sohalarida foydalaniladi.

Adabiy til har xil sohalarida turli vazifalarda ishlatilishiga ko‘ra:

a) badiiy-adabiy (proza, poeziya, dramaturgiya) til;

b) adabiy tilning og‘zaki shakli;

c) funksional uslublar (ilmiy, rasmiy, publitsistik, diniy) ga ajraladi.

3) adabiy til hududiy dialektlar, sodda so‘zlashuv, ijtimoiy va kasbiy jargonlarga nisbatan ijtimoiy jihatdan nufuzli hisoblanadi.

Madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lgan adabiy tilda milliy til kommunikativ tarmoqlarining barcha vakillari so‘zlashadi.

Internet tarmog‘idagi matnlarda yuqoridagi xususiyatlarining barchasini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Internet tarmog‘ida badiiy til unsurlaridan, adabiy tilning so‘zlashuv shaklidan, adabiy tilning funksional uslublaridan ham foydalaniladi.

Internet tarmoqlarida olib borilayotgan suhbatlar jarayonida adabiy til normalarining qo‘pol buzilishiga guvoh bo‘lamiz. Bunday hollarda tarmoq foydalanuvchisi yozishmalarining keyingi salbiy oqibatlarini o‘ylamasdan harakat qilganini, til o‘rganishga jiddiy e‘tibor qaratmaganini bilib olamiz.

Barchamizga ma‘lumki, sotsiolingvistika ikkita katta guruhga bo‘linadi: **makrosotsiolingvistika va mikrosotsiolingvistika**. Makrosotsiolingvistika katta ahamiyatga ega bo‘lgan birliklarni – til, adabiy til, dialekt, ikki tillilik kabilarni o‘rgansa, mikrosotsiolingvistika – kichik guruhlar tilini (oila, ma‘lum bir jamiyatda, turli o‘yinlar va ishlab chiqarish guruhlarida) o‘rganadi.

Ijtimoiy tarmoq matnlarida o‘zbek tilidagi suhbatlarda adabiy tilga amal qilmaslik, ularda dialektlarning qo‘llanilishi, aralash tillardan foydalanish va shu orqali jamiyat hayotiga salbiy ta‘sir qiluvchi omillar makrosotsiolingvistikaning o‘rganish obyekti sanalsa, kichik guruhlar a‘zolarining o‘zaro muloqatida qo‘llaydigan so‘zlari mikrosotsiolingvistikaning obyekti sanaladi. Bu guruhlarda qo‘llanadigan so‘zlar jamiyat yoki jamiyatning barcha guruhlaridagi insonlar uchun aloqador bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, bolalar, kelinlar tilidagi so‘zlar bunga misol bo‘la oladi. Bolalar nutqidagi **nana, asha, oh, paq-paq, daga-daga, bibip, di-dit** kabi so‘zlar, kelinlar tilidagi **yalmog‘iz, suvilon, anakonda, kobra, muloyim supurgi** kabi so‘zlar mikrosotsiolingvistikaga oid so‘zlar sanaladi. Chunki ular faqat ma‘lum bir nutq vaziyati va ma‘lum bir davr uchun xos bo‘lib, keyinchalik muomaladan chiqib ketadi.

Masalan, quyidagi she‘rda “oh” so‘zi bolalar nutqiga oid bo‘lib, bu so‘z ma‘lum bir guruh uchun doimiy muloqot vositasi sanalmaydi.

Dada, xoymang,

Ishga boymang.

Meni ko‘taying

Oh obiyang.

(Facebook tarmog‘idan olingan she‘r)

Adabiy til maktab, bog‘cha orqali bolalar ongiga singdirilishi kerak. Shundagina insonlarda adabiy tilimizga hurmat ortadi. Oldinlari televideniya, radioga nisbatan adabiy til normalarini xalqqa namoyon qiluvchi vositalar sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda xususiy televideniya, radiolarning paydo bo‘lishi natijasida ularga nisbatan bunday fikrlarni bildirishimiz ikki tomonlama ahamiyatga ega bo‘lib qoladi. Chunki ba‘zi bir davlat telekanallari (“Yoshlar”, “O‘zbekiston”, “Ma‘naviyat va ma‘rifat” kabilar) adabiy til normalariga amal qilayotgan bo‘lsa, ba‘zi bir telekanallarda esa bunday holatga duch kelmaymiz (“Zo‘r TV”, “MY5”, “Sevimli” kabilar). Ularda asosan vodiy hamda voha shevalariga xos bo‘lgan so‘zlardan foydalanilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Степанов Г. В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. –М., 1976
2. Ona tili. 10-sinf darslik. –Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2017.
3. Sotsiolingvistika va tarjima. Dissertatsiya. www.Fardu.uz sayti
4. Sotsiolingvistika. O‘quv uslubiy qo‘llanma. GulDu,2018.

PISA TADQIQOTLARI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN AYRIM MULOHAZALAR.

Xatamova Munisa Mamadulla qizi

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institute 1-kurs doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada PISA xalqaro baholash dasturi, O‘zbekiston o‘quvchi-yoshlarining PISA dasturi doirasidagi o‘qish savodxonligi yo‘nalishida ko‘rsatgan yutuq va kamchiliklari, o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini yanada rivojlantirishga doir ayrim metodik tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qish savodxonligi, xalqaro baholash dasturlari, PISA, matn, tushunish, baholash, xulosalash, tekshirish

Аннотация: В данной статье представлены международные оценочные программы PISA, достижения и недостатки учащихся Узбекистана в области читательской грамотности в рамках программы PISA, а также некоторые методические рекомендации по дальнейшему развитию читательской грамотности среди учащихся.


Ключевые слова: грамотность чтения, международные программы оценки, PISA, текст, понимание, оценка, вывод, обзор

Abstract: This article presents the international assessment programs PISA, the achievements and shortcomings of students in Uzbekistan in the field of reading literacy within the PISA program, as well as some methodological recommendations for the further development of reading literacy among students.

Keywords: reading literacy, international assessment programs, PISA, text, comprehension, assessment, conclusion, review.


Tobora rivojlanib borayotgan texnologiya insonlarni ma'lumotlarni o'qish va almashish tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. G'ayriixtiyoriy tarzda bajarib boriladigan kundalik yumushlar, turli ma'lumotlar bazasidan kerakli ma'lumotlarni topish, turli ko'rinishdagi matnlarni tahlil qila bilish, o'rgana oladigan va shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonga moslashib keta oladigan insonlar uchun jiddiy talablarni qo'yimoqda. Bu talablarga javob berish uchun esa bugungi kun insonlari eng avvalo "o'qish savodxonligi"ni mukammal egallashlari zarurdir.

Da'lab, "o'qish savodxonligi" tushunchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu tushuncha avvallari maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchilarning endigina harflarni tanib, ularni bir-biriga bog'lab, matnni to'g'ri, ravon va tez o'iqish ko'nikmasini o'zida aks ettirgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu tushuncha mazmuni vaqt, texnologiya taraqqiyoti, globallashtuv, insonlar va mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar, internet olamining vujudga kelishi kabi bir qancha omillar ta'sirida anchagina kengaydi. Umuman olganda, hozirgi kunda o'qish savodxonligi bu – insonning matnni tushunish va undan foydalana olish qobiliyati, bilim va imkoniyatlarini kengaytirishi, o'z maqsadiga erishishi uchun ijtimoiy hayotda munosib ishtirok eta olishidir. O'qish savodxonligida o'quvchilar matndan axborotni topish va ajratib olish, sharhlash, matndan tashqari bilimlarga tayanish, tushunish hamda baholash, matn mazmunini anglash kabi bir qancha ko'nikmalarni hosil qiladi. Umuman olganda, o'qish savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, puxta tekshirishlar asosida maqsadga yo'naltirishni anglatadi. Bu tushunchaga jaxon tadqiqotchi olimlaridan biri bo'lmish Devid Pirson quydagicha tarif beradi: "O'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va yoki shaxs tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalana olish qobiliyatidir". Yana bir tadqiqotchilardan biri Luiza Rozenblat esa bu tushunchaga "O'qish savodxonligi o'quvchi va matn o'rtasidagi bitimni o'z ichiga oladi, bu yerda ma'no shaxsiy tajriba va matn elementlarining dinamik o'zaro ta'siri orqali shakllanadi" deya ta'rif beradi. Luiza Rozenblatning g'oyalari asosida o'qish savodxonligi chuqur interaktiv jarayon bo'lib, matndan ma'no yaratishda o'quvchining shaxsiy tajribasi hal qiluvchi rol o'ynashini tushunish mumkin. O'ylaymanki, bu dinamik o'zaro ta'sir nafaqat o'qish tajribasini boyitibgina qolmay, balki matnni chuqurroq tushunish va qadrlashga yordam beradi, bu esa talabalarni o'qish amaliyotiga o'z nuqtai nazarini kiritishga undashda ham muhim ahamiyatga ega. Yana bir tadqiqotchi olimlardan biri Timoti Shanaxan nuqtai nazaridan o'qish savodxonligi dekodlash, lug'at bilimi va tushunish strategiyalarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali mahorat ekanligini anglash mumkin. U o'qish savodxonligi tushunchasini quydagicha ta'riflaydi. "O'qish savodxonligi matnlarni o'qish va tushunish qobiliyatini anglatadi, bu dekodlash, lug'at bilimlari va ma'noni yaratish uchun tushunish strategiyalarini qo'llashni o'z ichiga oladi". Yuqoridagi olimlar fikrlariga tayangan holda biz bugungi kunda o'qish savodxonligi tushunchasining bir oz murakkabliklar kasb etganligini anglashimiz mumkin. Shu sababli ham butun dunyo 15-yoshli o'quvchi-yoshlar orasida muntazam o'tkazilib kelinayotgan Xalqaro baholash dasturlaridan biri bo'lmish PISA da ham o'qish savodxonligi ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi. Shu jumladan O'zbekiston 2022-yilda birinchi marotaba PISA Xalqaro baholash dasturida ishtirok etdi. Ammo, dastur natijalari yurtimiz ta'limida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarning hali ko'pligini aniq ko'rsatdi. O'zbekiston tadqiqotning har uch yo'nalishida shu jumladan o'qish savodxonligida ham oxirgi o'ntalikdan joy olganligini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi natijalarga e'tibor beramiz (1-rasm).



Taqqoslash mamlakatlari har bir mavzu bo'yicha eng yuqori natijalarga erishgan oltita davlatni va eng ko'p aholisi bo'lgan beshta davlatni o'z ichiga oladi. Bu dastur o'quvchi-yoshlarni 6 ballik tizimda baholaydi.

O‘zbekiston o‘quvchilari o‘qish savodxonligi bo‘yicha OECD o‘rtacha ballidan ya‘ni 3 balldan kamroq ball oldi. Bu natijalarni yanada yaxshiroq tahlil qilish uchun ikkinchi statistikaga e‘tibor qaratamiz (2-rasm).



Bu ma‘lumotlardan anglashimiz mumkinki, O‘zbekiston o‘quvchi- yoshlarining 86% o‘qish savodxonligi bo‘yicha 2 balldan past ko‘rsatkichni qayt etgan bo‘lsa, 7% qatnashchilar 5 ball va undan yuqori natijalarga erishgan, bu esa anchagina kam.

2022-yilda o‘tkazilgan PISA natijalari yurtimiz ta‘lim tizimiga shu jumladan o‘qish savodxonligi yo‘nalishiga ham yanada e‘tiborni kuchaytirishimiz kerakligini anglatdi. Shu sababli ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Masalan, 2030- yilga borib o‘quvchilar bilimni baholash bo‘yicha PISA xalqaro baholash reytingida O‘zbekistonning jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo‘yilgan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa biz avvalo o‘z ustimizda tinimsiz ishlashimiz va o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratishimiz lozimdir. O‘qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish uchun esa o‘quvchilarning matni tushunish va baholash bilan bog‘liq harakatlari zarurdir. O‘qigan ma‘lumotlarini tushunib, baholay oladigan o‘quvchi matn mazmunini o‘z e‘tiqodi, hayotiy tajribasi bilan bog‘laydi. Matnni o‘qiyotganda, o‘quvchi matnni o‘qishdan oldin unga ma‘lum bo‘lgan bilim, g‘oya va his-tuyg‘ularni tushunish va baholash uchun foydalanadi. Matn mazmunini to‘g‘ri tushunish va baholash uchun o‘quvchi matndan olingan ma‘lumotni matndan tashqari boshqa manbalar bilan bog‘laydi. U matnda berilgan gaplarga qo‘shilishi va yoki rozi bo‘lmasligi mumkin.

Matnni birlashtirish va talqin qilish bilan bog‘liq o‘qish harakatlari ish uchun juda muhimdir. Matnni to‘g‘ri tushunish uchun alohida xabarlarini bir-biri bilan bog‘lash va ularni sharhlash kerak. Sharh va izohlash matndan aniq berilmagan ma‘lumotlarni olishdan iborat. O‘quvchi yashirin aloqalarni o‘rnatishi, muallif tomonidan aytilgan xabarni tanib olishi va subtekstni tushunishi kerak. Matnni sharhlashda o‘quvchi butun matnda ham, uning alohida qismlarida ham yashirin taxminlar yoki bayonotlar qiladi. Matnni talqin qilish bir qator aqliy harakatlarni talab qiladi. Javobni shakllantirish uchun o‘quvchi matn xabaridan xulosa chiqarishi, muhim va ikkinchi darajali tafsilotlarni farqlashi, matnning asosiy fikrlari va qoidalarini qisqacha shakllantirishi va oldingi voqea haqida xulosa chiqarishi kerak. Shaxs matnning xabarlarini yaxlit bir butunlikka birlashtira olsa yoki bog‘lay olsa, bu o‘quvchi matn elementlarini alohida jumlar yoki paragraflardan qo‘shma matn qismlariga bog‘lashini tushunganligini ko‘rsatadi. Axborot birliklarini bog‘lash ularning matndagi umumiy rolini aniqlash, o‘xshashlik yoki farqlarni ko‘rsatish, sabab-oxibat munosabatlarini ochib berishdir. Matn haqida umumiy, yaxlit tushunchani shakllantirish uchun matnning alohida xabarlarini bog‘lash va ularni sharhlash qobiliyati zarur. Agar o‘quvchi matnning asosiy mavzusini yoki uning asosiy maqsadini aytasa, u matnning yaxlitligi haqida dastlabki tushunchani namoyish etadi. Asosiy fikrni aniqlab, u asosiy ikkinchi darajalidan ajratib olishini va matnning ma‘lum bir bayonotida yoki sarlavhasida asosiy fikrni tushunishini ko‘rsatadi.

Matnni bog‘lash va izohlash qobiliyatini mashq qilish uchun talabalar matnga sarlavha o‘ylab topishlari yoki tegishli kirish so‘zlarini tuzishlari, grafikdagi o‘qlar yoki jadval ustunlarining nomlarini tiklashlari, matndagi harakatlar tartibini tiklashlari kerak. Ko‘rsatmalar, tasvirning maqsadini tushuntirish yoki hikoyani tavsiflang. Ba‘zi savollar o‘quvchini matnning ma‘lum bir qismiga e‘tibor berishga majbur qiladi, boshqalari esa butun matnga murojaat qiladi. O‘quvchi matndagi ma‘lumotlar birliklarini doimiy ravishda almashtirib tursa, o‘qiganini to‘liq va chuqur anglashi mumkin bo‘ladi. Umuman olganda, matn bilan ishlash chuqur tushunishni talab qiladi, chunki siz muallifning niyatini aniqlay olishingiz, umumiy matnga maxsus soylar beradigan so‘z yoki epizodning ma‘nosini tushunishingiz kerak.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi — “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
2. Ziyadova T. O‘quvchilarda mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent, 2011.
3. Ismailov A va boshq. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash.-Toshkent: Sharq, 2019.
4. Safarova R., Musayev U. va boshq. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘lim strategiyasi muammolari va ta‘lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo‘llari. – Toshkent: Fan, 2005.

5. Safarova R. Ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – Toshkent: Fan, 1995.
6. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018.

GLOBALIZATSIYA JARAYONLARIDA INTERYER-DIZAYN TERMINLARINING AKSIOLOGIK EVOLYUTSIYASI

Xolmurotova Gulnora Sattorovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadqiqotchisi, Denov sh., O'zbekiston
e-mail: gulnoraxolmurodova5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada globalizatsiya jarayonlari doirasida interyer-dizayn terminlarining aksiologik evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Interyer-dizayn sohasida terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning madaniy va estetik qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Globalizatsiya jarayonlari milliy va xalqaro miqyosda bu qadriyatlarning almashinuvi va uyg'unlashuviga olib keladi. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi interyer-dizayn terminlarining o'zgarishlari va ularning mazmuniy hamda aksiologik jihatdan qanday rivojlanganligi o'rganiladi. Shu bilan birga, madaniyatlararo muloqot va zamonaviy texnologiyalarning ushbu evolyutsiyaga ta'siri ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: globalizatsiya, interyer-dizayn, terminologiya, aksiologiya, evolyutsiya, madaniyatlararo muloqot, dizayn.

Аннотация: В данной статье анализируется аксиологическая эволюция терминов интерьерного дизайна в контексте процессов глобализации. Формирование и развитие терминологии в области интерьерного дизайна тесно связано с культурными и эстетическими ценностями общества. Процессы глобализации приводят к обмену и гармонизации этих ценностей как на национальном, так и на международном уровнях. В статье исследуются изменения терминов интерьерного дизайна на английском и узбекском языках, а также их развитие с точки зрения содержания и аксиологии. Кроме того, рассматривается влияние межкультурного общения и современных технологий на данную эволюцию.

Ключевые слова: глобализация, интерьерный дизайн, терминология, аксиология, эволюция, межкультурное общение, дизайн.

Annotation: This article analyzes the axiological evolution of interior design terminology within the framework of globalization processes. The formation and development of terminology in the field of interior design are closely linked to the cultural and aesthetic values of society. Globalization processes lead to the exchange and harmonization of these values on both national and international levels. The article explores changes in interior design terminology in English and Uzbek, examining their development in terms of content and axiological aspects. Additionally, the impact of intercultural communication and modern technologies on this evolution is analyzed.

Keywords: globalization, interior design, terminology, axiology, evolution, intercultural communication, design.

Globalizatsiya jarayonlari madaniyatlar va tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytirib, yangi tendensiyalar va qadriyatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu jarayon ayniqsa ilm-fan, texnika va san'at kabi sohalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu jumladan, interyer-dizayn sohasidagi terminlar ham globalizatsiyaning bevosita ta'sirida rivojlanib, turli madaniyatlararo qadriyatlarga mos ravishda o'zgarib bormoqda. Ushbu maqola interyer-dizayn terminlarining aksiologik (qadriyatga oid) evolyutsiyasini globalizatsiya kontekstida tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Interyer-dizayn sohasidagi terminlar, asosan, interyerlarni loyihalash va bezash jarayonida qo'llaniladigan atamalar bo'lib, ular professional mutaxassislar o'rtasida aniq tushuncha va muloqot uchun zarurdir. "Interyer" so'zi fransuzcha *intérieur* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "ichki", "ichkaridagi" degan ma'noni bildiradi. Bu o'z navbatida lotin tilidagi *inter* (o'rtasida, ichida) so'zidan hosil bo'lgan [5]; [6]. Bugungi kunda "interyer" so'zidan bino yoki xonaning ichki ko'rinishi, ichki tuzilishi va bezaklari tushuniladi. Dastlab bu so'z faqatgina ichki makonning fizik ko'rinishi va joylashishiga ishora qilgan bo'lsa-da, keyinchalik uning estetik va funksional jihatlarini ham o'z ichiga olgan. "Dizayn" so'zi ingliz tilidagi *design* so'zidan olingan bo'lib, u ham fransuzcha *designer* ("belgilash", "tasvirlash", "loyiha tuzish") so'zidan olingan. Bu esa o'z navbatida lotin tilidagi *designare* ("reja tuzmoq", "ishlab chiqmoq") fe'lidan kelib chiqqan. "Dizayn" so'zi dastlab ob'ekt yoki makonning rejasini tuzish va uni amalga oshirish jarayonini ifodalagan [3]. Biroq zamonaviy dizayn tushunchasi o'z ichiga estetik va badiiy ko'rinishni ham qamrab olgan. "Interyer-dizayn" birikmasi sifatida XX asrda keng qo'llanila boshlagan, binolar va yashash makonlarining ichki ko'rinishini, uslublarini va amaliyotlarini tashkil etishni anglatgan. Demak, "interyer-dizayn" so'zi ikki so'zning birlashuvidan hosil bo'lib, u makonning ichki tuzilishi va estetik yechimlarini loyihalash hamda amaliy jihatdan shakllantirish jarayonini ifodalaydi. So'zning etimologik ildizlari lotin, fransuz va ingliz tillariga borib taqaladi, bu uning global foydalaniladigan sohalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Globalizatsiya natijasida dunyo bo'ylab tillar va madaniyatlar bir-biriga yaqinlashmoqda. Bu yaqinlashuv nafaqat madaniy almashinuvga, balki terminologiyaning universallashtirilishiga ham olib kelmoqda [2]. Interyer-dizayn sohasida bu jarayon, avvalo, yangi tushunchalar va tendensiyalarni ifodalash uchun xorij tillaridan o'zlashgan terminlarning keng tarqalishi bilan bog'liq [1]. Bunga misol qilib "minimalizm", "loft", "vintage" kabi atamalarni keltirish mumkin:

1) *Minimalizm* — bu interyer-dizayn sohasida keng tarqalgan termin bo‘lib, u dastlab XX asrning o‘rtalarida G‘arb san‘ati va arxitekturasi bilan bog‘liq ravishda shakllangan [4]. Minimalizm falsafasi ortiqcha dekor va detallardan qochib, soddalik va funktsionallikka urg‘u berishdir. Hozirda *minimalizm* nafaqat Yaponiyada, balki butun dunyoda mashhur. Bu, aslida, “*minimalist*” terminidan global miqyosda foydalanishni oshirib, xalqaro madaniyatda keng tarqalishiga olib kelmoqda.

2) *Loft* termini dastlab sanoat binolarining yashash joylariga aylantirilishini anglatgan. XX asr o‘rtalarida Nyu-Yorkdagi sanoat zonalarining rivojlanishi bilan yuzaga kelgan bu uslub, ko‘p hollarda yuqori shiftlar, katta derazalar va ochiq rejali makonlar bilan bog‘liq. Bu termin “*loft*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u “*yukxona*” yoki “*katta xonali joy*” ma‘nolarini anglatgan. Ushbu strukturalar bo‘sh va keng joylar bo‘lgani sababli, zamonaviy eklektik dizayn kiritilgan. *Loft* so‘zi global miqyosda qo‘llanilishida, har bir mamlakatda uning qamrovi va qamrab olish jarayoni yanada rivojlanmoqda. Xususan, *loft* uslubi ko‘plab yangi dizayn tillariga kiritilishida (*modern loft*; *luxury loft*) va reshaping qilinishida ajralib turadi.

3) *Vintage* termini fransuzcha “*vendange*” (vino yig‘imi) so‘zidan olingan, dastlab “*ichimliklar*” (ayniqsa, *vino*) ma‘nosida qo‘llanilgan, ularning o‘shishi davomida yig‘ilgan xilma-xillikni anglatadi. Hozirgi kunda *vintage* termini nafaqat sharobga, balki avtomobillar, kiyim-kechak, interyer buyumlari va boshqa retro elementlar uchun ham keng qo‘llaniladi. U eski buyumlar va uslublarni zamonaviy interyerga qo‘shish orqali nostalgiya va tarixiy qadriyatlarni aks ettiradi.

Globalizatsiya natijasida interyer-dizayn terminlarining struktura va semantikasi ham o‘zgarishga uchraydi. Bu o‘zgarishlar, birinchidan, milliy tillarda xorijiy terminlarni moslashtirish orqali sodir bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida “*open space*”, “*victorian*”, “*ecodesign*”, “*laminat*”, “*retro*”, “*decor*” kabi terminlar asosan ingliz tilidan bevosita o‘zlashtirilib, milliy tilning grammatik qonuniyatlariga moslashtiriladi. Bunday terminlar ko‘pincha o‘z semantikasini saqlagan holda yangi madaniyatga moslashadi. Shu bilan birga, ayrim terminlar yangi ma‘nolar bilan boyib boradi, bu esa ularning aksiologik o‘zgarishiga olib keladi.

Interyer-dizayn sohasidagi terminlarning aksiologik xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar til va madaniyatning o‘zaro ta‘sirida paydo bo‘ladi. Bu birliklar insonlar tomonidan ma‘lum bir qadriyat, tamoyil yoki estetikaga asoslangan tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Frazeologik birliklar orqali terminlarning semantikasi chuqurlashib, ular o‘zlarining aksiologik ma‘nosini kengaytiradi. Quyida interyer-dizayn terminlarining aksiologik xususiyatlarini aks ettiruvchi frazeologik birliklarga misollar:

“*Hamma narsa o‘z o‘rnida*” – bu frazeologik birlik interyer-dizaynning funktsionalligi va soddaligini ifodalaydi. “*Hamma narsa o‘z o‘rnida*” frazeologik birligi qadriyat nuqtai nazaridan tartib-intizomni, soddalik va funktsionallikni ulug‘laydi. Bu dizayn falsafasi buyumlarning ortiqcha ko‘rinmasligini va o‘z vazifasini bajarishini ta‘kidlaydi.

“*Yorug‘lik va havo — burchakda turmasin*” – bu frazeologik birlik yorug‘lik va ochiq makonning muhimligini ta‘kidlaydi. Bu birlik insonlar orasida keng tarqalgan “*yorug‘lik va havo*”ni qadrlash hissiyatini aks ettiradi. U interyerda ochiq makon, yorqinlik va kenglikning qadrlanishini ifodalaydi. Bu frazeologik birlik o‘zbek tilida zamonaviy yashash makonining yorug‘lik va kenglikni ta‘minlash kabi qadriyatlarini aks ettiradi.

“*Ochiq makon — ochiq fikr*” – bu frazeologik birlik interyer-dizaynda ochiq makonlarning psixologik va estetik ahamiyatini ifodalaydi. Ochiq rejali dizaynlar zamonaviy interyerda keng qo‘llanilmoqda, bu esa insonning fikrlash tarzi va ijodiy jarayonlariga ta‘sir qiluvchi omil sifatida qaraladi. “*Ochiq makon — ochiq fikr*” qadriyatlar nuqtai nazaridan ochiq makonning inson psixologiyasi va ijodkorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ulug‘laydi. Bu yerda makon va aql o‘rtasidagi uyg‘unlik qadrlanadi.

Terminlarning aksiologik evolyutsiyasida til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri muhim rol o‘ynaydi. Globalizatsiya jarayonida interyer-dizayn sohasida ingliz tilining dominantligi sezilarli darajada oshdi. Bu esa ko‘plab yangi atamalar boshqa tillarga ingliz tilidan bevosita o‘zlashishiga olib keldi. Bu jarayon milliy tillarning boyishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ba‘zi milliy madaniy elementlarning yo‘qolishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbek interyer-dizayni kontekstida bu jarayon yaqqol ko‘zga tashlanadi, chunki ingliz tilidan kirib kelgan atamalar milliy qadriyatlarga ta‘sir o‘tkazmoqda.

Globalizatsiya jarayonida interyer-dizayn terminlarining aksiologik evolyutsiyasi ikki asosiy yo‘nalishda sodir bo‘lmoqda: xorijiy atamalar va tendensiyalar milliy madaniyatlarga kirib kelib, ularga moslashmoqda yoki milliy qadriyatlar zamonaviy global dizayn qadriyatlariga o‘zgarimoqda. Bunda madaniyatlararo almashinuv va universal qadriyatlarining shakllanishi katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, milliy tillarda o‘zlashgan atamalar struktura va semantika jihatidan o‘zgarib, yangi qadriyatlar tizimini yaratmoqda. Bu jarayon til va madaniyatning o‘zaro ta‘sirida davom etib, interyer-dizayn sohasidagi qadriyatlarining rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Chang, H. (2004). Language and Perception: Exploring Semantic Dimensions in Interior Design Terminology/ Journal of Interior Design, 29(3), 31-45.
2. L’Homme, M.-C. (2004). Terminological Variation in Specialized Texts: A Case Study in Interior Design. Paper presented at the International Symposium on Terminology, Paris, France.
3. Tognini-Bonelli, E. (2001). Corpus Linguistics and Terminology: A Contrastive Study of Design Terminology in English and Italian /Languages in Contrast, 3(2), 147-177.
4. Umberto Eco. The Aesthetics of Chaosmos: The Middle Ages of James Joyce. Translated by Ellen Esrock. – Cambridge, Mass: Harvard University Press, 1989. – 112 p.

5. <https://www.etymonline.com/word/interior>.
6. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/interior>.



FAQIRIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA YORQIN IJODKOR SHAYX, OLIM VA ALLOMA SIFATIDA

Yakubova S.H.

Sharof Rashidov nomidagi SamDUUrgut filiali assistenti. Urgut sh., O‘zbekiston
e-mail: safiyayakubova1231@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Faqiriy ijodi adabiyotda yangilik kasb etishi U zotning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o‘zbek adabiyotidagi mudhish bo‘shliqni to‘ldirib turganligi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham Shahrisabzda tug‘ilib, shu yerda umrguzaronlik qilgan bir necha shoirlar, adibu fozillar bo‘lgan. Ular sirasiga Mirzo Umrboqiy Shahrisabziy-Samarqandiy (1878-1957), Fayzullohxo‘ja Ravnaqiy (1892-1978), Ismoilxon Faqiriy-Shahrisabziy singari fozilu ijodkorlar bo‘lgan. Bu adiblar ichida Ismoilxon Faqiriy adabiy merosi muhim ahamiyatga egaligi va uning ijod namunalari adabiyot ahliga yetib borishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: yombi ijodkor, o‘roh, orifona mazmuni, oshiqona ruh, ma‘rifiy she‘riyat, devon adabiyoti, sohibi devon, bayoz tushunchasi.

Аннотация: В данной статье творчество Фахири является новинкой в литературе, а его наследие своим орифонным содержанием и романтическим духом заполняет страшную брешь в узбекской литературе колониального периода. В конце 19-го и начале 20-го веков в Шахрисабзе родились и жили здесь несколько поэтов и писателей. Среди них добродетельными художниками были Мирза Умрбаки Шахрисабзи-Самарканди (1878-1957), Файзуллахходжа Равнаки (1892-1978), Исмаилхан Факири-Шахрисабзи и др. Среди этих писателей говорят, что литературное наследие Исмаила Хана Факири важно и что примеры его произведений дойдут до литературных людей.

Ключевые слова: создатель, значение орифоны, романтический дух, просветительская поэзия, деванская литература, владелец девана, концепция баяза.

Abstract: In this article, Fakhiri's work is a novelty in literature, and his legacy, with its oriphonic content and romantic spirit, fills a terrible gap in Uzbek literature of the colonial period. At the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, several poets and writers were born and lived here in Shakhrisabz. Among them, virtuous artists were Mirza Umrbaqi Shakhrisabzi-Samarkandi (1878-1957), Faizullahkhoja Ravnaki (1892-1978), Ismailkhan Fakiri-Shakhrisabzi and others. Among these writers they say that the literary heritage of Ismail Khan Faqiri is important and that examples of his works will reach literary people.

Key words: creator, meaning of oriphon, romantic spirit, educational poetry, Devan literature, owner of the devan, concept of bayaz.

So‘nggi yillarda barcha fanlar qatori adabiyot sohasiga ham alohida e‘tibor berilib kelinmoqda. XX asr o‘zbek ma‘rifiy she‘riyatining yombi ijodkori, devon adabiyotining kamtar vakili, alloma va shayx, Naqshbandiya tariqati murshidi komili, Payg‘ambar avlodi, zokir, ijodkor, shokir va sobir so‘z san‘atkori, Faqiriy-Shahrisabziy hazratlari o‘zlarining bayozu g‘azaliyotlari bilan adabiyotimizga yangitdan kirib kelmoqdalar.

Faqiriy ijodi adabiyotda chinakam kashfiyotdir. U zotning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o‘zbek adabiyotidagi mudhish bo‘shliqni to‘ldirib turadi.

Faqiriy hazratlari o‘tgan asrda yashab ijod etgan bo‘lsalarda, u zotning nomi va ijodi, Alloh taoloning inoyati ila, istiqloq davrida yuzaga chiqdi. Sho‘ro siyosatdonlari mumtoz shoirmi xalqdan yashira olmadilar.

Shoir nomi davlat miqyosida ilk marta Shahrisabzning 2700-yilligiga bag‘ishlangan anjumanda O‘zbekiston birinchi Prezidenti tomonidan tilga olindi. Darahihat, doktor, professor Shodmon Vohidov hamda yosh olim, adibning nabirasi Mas‘udxon Ismoilning say‘u g‘ayratlari bilan Faqiriy nomi jahon qomuslariga kirgan edi. Bu ma‘noda Faqiriy ularning kashfiyoti deb aytsak xato bo‘lmas.

Dunyoning hamma joyida davlat rahbari biror ijodkor allomaga e‘tibor ko‘rsatsa, bu uning xalq orasida izzat-e‘tibor topishiga sabab bo‘ladi. Birinchi prezident iltifotidan keyin Faqiriy vorislarining ko‘ngli ko‘tarildi va adibning boy ijodi faolroq o‘rganila boshlandi. Xususan professor Shodmon Vohidov hamda yosh olim, adibning nabirasi Mas‘udxon Ismoilning ushbu adib haqida ko‘plab ma‘lumotlar ijodiga doir bir qancha ilmiy maqolalar bitishgan.

Faqiriy hazratlari biz o‘rgangan Oybek, G‘afur G‘ulom, Shayxzoda, Habibiy kabi adiblarga zamondosh esalar-da, shayxligi, islomiy hayoti, ijodining ilohiy ma‘rifatga asoslangani bois nomlari ham, ijodlari ham aslo yuzaga chiqmagan, adib ham bunga zinhor parvo qilmasdan: «Bizning hazfporaga ham bir xaridor topilarda», deb sabri jamil ko‘rsatgan edilar.[1] Mana, Allohning lutfu -karami bilan adib ijodiga xaridor topildi. Istiqloq zamoni u zotning merosiga talabgor chiqdi. Ko‘zlar ko‘nikkan tog‘lar orasida yam-yashil, pokiza bir cho‘qqi paydo bo‘ldi. Adib ijodiga qiziqishlar adabiyotshunoslar orasida ham ko‘payib bormoqda.

Albatta har qanday adabiyot sohasida qalam tebratgan ijodkorning ismu-nasablari va taxalluslari o‘quvchini befarq qoldirmaydi deb hisoblasak bo‘ladi.[6] To‘liq ismlari - Ismoilxon ibn Ibrohim Xoja ibn Hidoyatulloh ibn Mirzo

Kalon Abdulaziz Xojai Shahrisabziy.[11] Ushbu ma'lumotlar ularning nabiralari Mas'udxon Ismoiliiy qo'llaridagi ma'lumotlar asosida yaratilgan devon va bayozlardan olingani asosli albatta.

Taxalluslari Faqiriy-Shahrisabziy; she'rlarida Faqiriy, Faqir shakllarida ham keladi. Xalili Ixvon taxalluslari ham bo'lib, bu nomni tog'alari shoir Hone Shukrulloh Xoja qo'rganlar va undan shoirning tavallud tarixlarini chiqarganlar. Abjad hisobida bu taxallus raqamlaridan hijriy 1328-yil chiqadi.[1],

Toshkentda shoir Habibi bilan ko'rishganlarida " Faqiriy " taxallusi zamon mafkurasiga to'g'ri kelmasligini o'ylab, u zotga Xaliliy degan taxallus tanlab beradilar.[3] Faqiriy esa hurmat yuzasidan, bu taxallusda bir she'r yozib, uni Habibiya bag'ishlaydilar. Shundan so'ng yana " Faqiriy " taxalluslariga sodiq qoladilar.[8]

Ismoilxon Faqiriy milodiy 1910-yil, hijriy 1328-yilda Shahrisabzda tavallud topdilar. Uch yoshda otalaridan, to'rt yoshda ustoz bobolaridan judo bo'lib, avval onalari, keyin tog'alari tarbiyatlarida kamol topib, ilm-ma'rifat sohibi bo'ladilar. Adib 1980-yilda hozirgi Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, Sariosiyo qishlog'ida vafot etdilar.[11] Avlodlari hozirgi vaqtda mazkur manzilda yashaydilar.

Faqiriy hazratlarining tug'ilib o'sgan vatanlari Markaziy Osiyoning qadimiy ilm-fan o'choqlaridan bo'lmish Shahrisabz shahridir.

Nomlaridagi "Shahrisabziy" degai ilova maxsus shoirona taxallus emas, balki mazkur Vatanga mansublik guvohnomasidir, Faqiriy hazratlarining tug'ilib o'sgan vatanlari Markaziy Osiyoning qadimiy ilm-fan o'choqlaridan bo'lmish Shahrisabz shahridir. Shahrisabz Rusiya bosqinidan keyin ham to 1917-yillargacha o'z ma'rifiy mavqeini saqlab kelgan.[2] Undan so'ng maktab-madrasalar rasman yo'qotilgan bo'lsa-da, sayyidlar va tariqat mansublari yurti sifatida shu kungacha o'z e'tiborini yo'qotmagan. Mustamlaka davrida Faqiriy, Ravnaqiy, Maxdum Hamidiy, shoir Qone' singari shayx va alloma-ijodkorlarning yashagani bunga dalildir.[12]

Shahrisabzda necha-necha ulug' zotlar o'tgan, ammo u tarixda Sohibqiron Amir Temur tug'ilib o'sgan yurt sifatida ham mashhurdir. Unda temuriylar dahmasi, aziz avliyolar marhadi, Amir Temurning jasadsiz maqbarasi mavjud. Shu bois shoir Shahrisabz xususidagi turkiy va forsiy she'rlarida o'z yurtlarini Sohibqiron nomi bilan ulug'laydilar. Bizni(ng) Vatan - joyi surur, aysh ila xalsi barcha hur, Ilmu ma'orif konidur, yo's dilda armon o'zgacha, deya shoir orzu-armonlari vatanda ilmu maorif ekanini izhor etadilar. Nomlaridagi "Shahrisabziy" degai ilova maxsus shoirona taxallus emas, balki mazkur Vatanga mansublik guvohnomasidir,[6] Ismoilxon Faqiriy ilm-ma'rifatli, ziyoli, e'tiborli muftiy va qozilar avlodidandirlar. Shoirning bobolari Inoyatulloh Xoja O'roq ibn Mirzo Kaloni Shahrisabz muftiysi edilar. Otalari Ibrohim Xoja O'roq esa Shahrisabzda XV asrda Mirzo Ulug'bek qurdirgan Jome' masjidida imom-xatib, amir hukumatining shahar vakili (o'roh), madrasa rahbari bo'lganlar. 1914-yilda otalari vafot etgach, uch yashar Ismoilxon bobolari Inoyatulloh Xoja tarbiyatlarida qoladilar. Ul zot ham olamdan o'tgach, mehribon onalari to'rt-besh yashar o'g'lon tarbiyatlarida ulug' say'u g'ayrat ko'rsatib, uni maktabga berib, savodxon qiladilar. [3]Sho'rolar hukumati tuzilib, islomiy maktablar yopilgach, yana o'zlari ta'limni davom ettiradilar. Onalari ilm-ma'rifatli otinoyi bo'lib, Mahzuna taxallusi bilan she'rlar yozganlar. Faqiriy "Bayoz"lari debochasida onalarini ko'p ulug' ehtirom bilan zikr hiladilar. Ukalari Najmiddin Xoja Sho'rolar hukumati davrida qamalganida, zor qaqqshagan onalarining iltimoslari bilan, volidalari nomidan bir musaddas bitganlar. Unda o'zlarining ham, onalarining ham sog'inchlari, dardu alamlari ifodalanadi. So'nggi bandga diqqat qilaylik:

Ey Fatsiriy, Hassa yolbor, Has O'zidur mesrubon,
Bera olmas hech kim bu dardu saygudin omon.
Bir taraerrum birla ozod etsa Xallotsi jahon,
Qolmas erdi xasta ko'ngillarda hargiz ormon;
G'am bila chun surati devordurman soginib,
Ko'rmasa zor-u, vale nochordurman sog'inib...

Ismoilxon to'qqiz yoshlarida Navoiyni o'qiydigan bo'ladilar. Bu hazil gap emas. Navoiyni tushunish uchun esa turkiy-o'zbek tilini puxta bilish bilan birga, arab va fors lug'atlaridan ham xabardor bo'lmoq zarur. Shunga qaraganda, yosh Ismoilxon Fahiriy garchand o'zlari: "nimi-nimkora", "Savodxon" deb kamtarlik qilsalar-da, naqadar iste'dod va kamol sohibi ekanliklari anglashiladi.

XX asr Shahrisabz adabiy muhitini kuzatsangiz, mustamlaka siyosati balchig'idan o'zini muhofaza etgan, maddohlik va ta'magirlikdan yiroq, pokiza bir adabiyot borlig'ini ko'rib, ko'nglingiz o'sadi. Faqiriy ham dovruq'u dabdabaga, unvonu mansabga aslo qiziqmasdan, iymon-e'tiqodda sobitqadam, mumtoz she'riyatga sodiq yashaganlar, Zero, shoir yaxshi bilganlarki, hayot bugundan iborat emas. Zamonlar aylanadi. Vaqt o'tishi bilan adib bilimlari va ijodga ishtiyoqlari ortib boradi. Faqiriy yosh bo'la turib, Hoji Mirzo Hamiduddin Maxdum Hamidiy, tog'alari Shukrulloh Xoja Hone', bobolari Inoyatulloh Xoja O'roh Jurmiy, Mullo Mirzo Fayzulloh Xoja Ravnahiy, Mirzo Umrbohiy-Shahrisabziy kabi ulug' insonlar qatori turadi desak mubolog'a bo'lmas.

So'z ibtidosida "ma'rifiy she'riyat", "devon adabiyoti" iboralarini qo'ladik. Savol tug'ilishi mumkinki, XX asrda mustamlaka iskanjasida O'zbekistonda irfoniy she'riyat bo'lganmi? Devon adabiyoti qanday adabiyot?

Irfoniy ruh, ilohiy mazmun devon adabiyotining xos xususiyatlari bo'lganidan, «devon adabiyoti» ta'rifi qirishsak.

Devon adabiyoti saroy adabiyoti yoki saroy shoirlari degan ma'noda emas. Balki, tamoman aksinchadir. Devon adabiyoti XI asrda Movarounnahrda (bugungi O'zbekiston zaminida) Qoraxoniylar davrida boshlangan, islomiy madaniyatdan bahra olgan, shu sababdan arab va fors adabiyotlaridan ta'sir topgan islomiy adabiyotdir. Qur'oni karim va hadisi sharif ma'nolarini o'ziga singdirgan bu mumtoz adabiyot «majoz haqiqatning ko'prigidir» degan hadisi sharifga asoslanadi, ya'ni majoz yo'li bilan haqiqatni kuylaydi, majoziy muhabbatni bahona qilib, ilohiy ishqni tarannum etadi.

Faqiriy ana shunday adabiyotning so'nggi zabardast vakillaridan biridir. "So'nggi"deyishimizga sabab: sho'rolar tuzumida islomiy ilm-ma'rifat taqiqlanib, irfoniy she'riyatga ham futur yetdi, hatto 30-40-50-yillarda aruz vaznida yozish man etildi, bora-bora devon adabiyoti deyarli barham topdi. Keyingi adabiyotdan irfoniy ma'no qochdi, ilohiy ruh chekindi, oxirat g'oyasi uzildi, jahon va asosan rus adabiyoti muhitida xalqchil-ommabop she'riyat vujudga keldi. 60-yillar dagina:

"Ey munassid, sen g'azalni ko'hna deb kamsitmagil, Sevgi ham Odam atodin solgan insop sonida!" degan nidolar yangray boshladi va yangi alifbo asosida Erkin Vohidovning "Yoshlik devoni" paydo bo'ldi.

"Devon" istilohining ma'nosi ko'p. "Devon" avvalo aruz vaznida bitilgan va arab alifbosi asosida tartib berilgan g'azallar to'plamining nomidir: "Devoni Navoiy", "Devoni Xoja Hofiz", "Devoni Fuzuliy" kabi. Devon tuzishga muvaffaq bo'lgan shoirlarni "Sohibi devon" deb ulug'laydilar.

Davlat idorasi, mahkama, hukumat uyi ham devon deyiladiki, aytganimizdek, devon adabiyotining bunga aloqasi yo'q.

Mumtoz adabiyotning hammasi devon adabiyoti bo'lmasligi mumkin, lekin devon adabiyotining hammasi mumtoz, ya'ni o'lmas adabiyotdir.

Unutmaslik lozimki, Faqiriy hazratlari avvalo murshid edilar va xalqning irshodi ul zotning zimmalarida edi. Bu maqom sabablidirki, shoir kamtarlik bilan o'z kitoblarini bayoz deb ataganlar. Adib arab alifbosining barcha harflariga g'azal tartib berilmaganini ko'zda tutgan bo'lishlari ham mumkin. Ammo biz kitobni o'rganib chiqib, ul zotni "Sohibi devon" deb atashga jur'at etdik

Devoni Faqiriy haqida so'z borar ekan, bevosita uning bayozlarini eslamaslikni iloji yo'qdur. Faqiriy bayozlari 1950-1965-yillarda tuzilgan bo'lib, o'zlari tanlab, saralab kiritgan she'rlardan iborat. Devon mumtoz nazm san'atining deyarli barcha turlaridan: g'azal, muxammas, musaddas, musabba', musamman, mustahzod, masnaviy, ruboiyyot va qit'alardan tarkib topgan. Kitobda tatabbu' va tazminlar birmuncha bo'lib, muvashshax va mutoyibotdan hazil she'rlardan ham holi emas. She'rlarning ko'pi asl san'at namunalaridir.

Devon an'anasiga muvofiq, xuddi Navoiy, Fuzuliy va Nodiralalar kabi, Faqiriy ham o'z devonlariga debocha bitganlar. Debochada matla mavjud bo'lib, mehribon va rahmli Alloh ismi bilan boshlanib, Haq taolaga hamdu sano aytish va hazrati Rasulullohga salovot keltirish bilan davom etadi. Unda shoirning qisqa hasbi hollari va dunyoda bir yodgor qoldi- rish ishtiyohlari yuksak odob va valiylarga xos xoksorlik bilan bayon etilgan. Ammo shoirning kamtarliklarida ham kuchli jasorat, yorqin iste'dod va yuksak ma'rifat nuri balqib turadi. Chunonchi, adib yozadilar:

«Toki o'n besh va o'n olti yoshlarimdan boshlab, shoirlar zumrasiga qo'shulishga jiddiy harakat ko'rguzgan bo'lsam-da, bu ishga, birinchidan, bilimsizlik, va ikkinchidan, zamonamizni(ng) kundalik o'zgarishlari natijasida she'r yozolmasdan va yozganlarim ham har joylarda beparvolik bilan solib va ba'zilari esa birodaroni kiromiylar talablariga muvofiq ularga yuborilib, qo'limda bori ham juzdonga darida va jarida bo'lub yotar edi...»

Bu qisqa so'zda ko'p ma'no va qisimat manzaralari bor. Chunonchi, «*zamonaning kundalik o'zgarishlari*», muallifning o'z ta'birlari bilan aytganda, «*sho'rolar hukumati tashkil topib, butun O'zbekiston va Tojikiston va Buxoro tufroqlarida ham hukmronlik shevasini yurgizgani*»dir. Ya'ni, qadimiy madrasalar berkitilgan, xalqning tarixini yo'qotishga urinilgan, dahriylik saltanati o'rnatilgan, mumtoz adabiyot tahqirlangan, ma'rifatli iste'dod sohiblari muvozanatini yo'qotib, she'r yozolmay qolgan.

Yillar o'tib, shoir aytadilar: «Ammo ko'nglimdan goxho shundog kechar erdiki, «Ey tan, san dunyoga kelib nima Ahli dunyo - siymu zar, ahli hunar - fazlu kamol.

Va bu ashyolarni(ng) o'ziga yarasha xaridori ham topiladi. Chunonchi, Navoiy aytur:

Sarvu gulu lola xaridori bor,

Lek tikonning dagi bozori bor. Ya'nikim har bir gulning o'z xaridori bo'lgani singari tikonning ham o'z o'rni borligi haqida alohida fikr yuritadilar. Shu o'rinda bevosita Faqiriy hazratlarining ijodiga ham qiziqishlar ortgan.

Devon Alloh taoloning qudrati, san'atini olqishlab, hamdu sanolar aytguvchi, Haq taoloning dargohiga yalborib munojot qilguvchi hamda sayyidi mursaliyn-hazrati Rasululloh alayhissalomga nat-hamd keltirguvchi g'azallar bilan boshlanadi. Zotan, bu mumtoz devon adabiyotining odobu an'anasidir.

Turkiyda aytilgan "Paydo", "Yo Rab", "Bo'ldim" radifli hamda "Zulfing girihi" kabi g'azallar, "Sun'ung Sani..." mustahzodi, "Izlagil", "Hasrat" kabi muxammaslar, forsiydagi "Chi shudi?" musaddasi va "Kunand" radifli tazmini musabba'lari Faqiriy hazratlarining shoh asarlaridir.

Lutfiy, Fuzuliy, Hiloliy, Amiriy (Amir Umarxon), Furqat, Sayyid Ahmad Vasiliy, Gulshaniy, Mullo Orif Gulxaniy, Muxlis Namangoniy, Maxdum Hamidiy, Ulfat (Nusrat), Boqiy, Tufayliy Yusufxon To'ra Dehlaviy kabi zotlarning mumtoz g'azallariga bog'langan turkiy va forsiy muxammaslar, Xoja Hofiz Sheroziy, Boborahim Mashrab baytlari asosida bitilgan tazminlar, tatabbu' va payravlar favqulodda san'at durdonalaridir. Bular Faqiriy iste'dodi, ilmu ma'rifati, ishqu muhabbati izhoriga maydon va imkon ochgan.

Devon mundarijasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

1. Alloh zikri va oxirat qayg'usi.
2. Munojot ohanglari.
3. Mustabid tuzum manzaralari.
4. Vatanparvarlik tuyg'ulari.
5. Ilm-fan va ma'rifat tashviqi.

Faqiriy o'zbek va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoirdir. U zotning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o'zbek adabiyotidagi mudhish bo'shliqni to'ldirib turadi. Adibning merosi adabiyot sohasida o'rganilishi lozim bo'lgan yangidan - yangi mazmunli g'azaliyotlari va purmano ijodi va devonlari kelajak

avlod uchun ushbu sohada muhim manba bo'lib xizmat qilsa ajabmas.

ADABIYOTLAR

1. Kattaev K. Maxdumi A'zam va Dahbed. Samarqand Sutdiyov, 1994.- B.73.
2. Faqiriy I., Homidov N. va boshqalar. Avlodlar bayozi.-Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996.
3. Vohidov Sh.Fakiriy // Sobiq Rossiya imperiyasi hududida islom. Ensiklopedik lug'at. 3-son. - Moskva: Sharq adabiyoti, 2001. - S. 107-108.
4. Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Tazkira - Toshkent: G'afur g'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. - B. 49.
5. Vohidov. Sh, Erkinov.A, Shahrisabzlik xattot va shoirlar //Ming yillar merosi Shahrisabz. 2700.-Toshkent "Sharq" nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2002 B.126
6. Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o'rni xususida // Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o'rni. Xalqaro ilmiy konferensiya maruzalari tezislari. - Toshkent: Fan, 2002. – B. 143.
7. Vohidov Sh. Les specificites paleographiques et codicologiques des fonds particuliers de Rawnaqi et Faqiri (Sahrisabz, O'zbekiston) // Manuscripta Orientalia. 9-jild №3 2003 yil sentyabr - s. 52-56.
8. Mirzo Kenjabekov Ilm o'rganu xat o'rganu odob o'rgan .Sohibi devoni Faqiriy hazratlari // "Ma'rifat" gazetasi ,2004yil ,28-yanvar
9. Ismoilxon Faqiriy. Intizoramkim ulam gardi firoqing sumlarin //Ma'rifat 2004 yil , 17-mart
10. Ismoilxon Faqiriy.Ahli duoni izlagil //Hidoyat. 2004. N4-b. 24-25
11. Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy olim, shoir va shayx // Moziydan sado. 2004 yil.- 4-son.
12. Vohidov.Sh ,Ismoilov .M //O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2005.-B.213
13. Mirzo Kenjabek. Mumtoz shoir va komil shayx Fakiriy-Shaxrisabziy // Sino. - 2004 yil (tanasi). - № 15. - B. 44-51
14. Hasanov A. XVI-XIX asrlarda shaharsozlik va me'morchilik (Qashqadaryo vohasi misolida): Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2008. 200-b.
15. Ko'charov J. Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi tarixidan. – Samarqand: 2008. 71-b.
16. Ravshanov P. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. – Qarshi: Nasaf, 2005. 120-b



ISMOILXON FAQIRIY O'ZBEK ADABIYOTIDA YANGI VA YORQIN IJODKOR

Yakubova S.H.

Sharof Rashidov nomidagi SamDUUrgut filiali assistenti. Urgut sh., O'zbekiston
e-mail: safiyayakubova1231@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Faqiriy ijodi adabiyotda yangilik kasb etishi. U zotning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o'zbek adabiyotidagi mudhishbo'shliqni to'ldirib turganligi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham Shahrisabzda tug'ilib, shu yerda umrguzaronlik qilgan bir necha shoirlar, adibu fozillar bo'lgan. Ular sirasiga Mirzo Umrboqiy Shahrisabziy-Samarqandiy (1878-1957), Fayzullohxo'ja Ravnaqiy (1892-1978), Ismoilxon Faqiriy-Shahrisabziy singari fozilu ijodkorlar bo'lgan. Bu adiblar ichida Ismoilxon Faqiriy adabiy merosi muhim ahamiyatga egaligi va uning ijod namunalari adabiyot ahliga yetib borishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: yombi ijodkor, o'roh, orifona mazmuni, oshiqona ruh, ma'rifiy she'riyat, devon adabiyoti, sohibi devon, bayoz tushunchasi.

Аннотация: В данной статье творчество Фахири является новинкой в литературе, а его наследие своим орифонным содержанием и романтическим духом заполняет страшную брешь в узбекской литературе колониального периода. В конце 19-го и начале 20-го веков в Шахрисабзе родились и жили здесь несколько поэтов и писателей. Среди них добродетельными художниками были Мирза Умрбаки Шахрисабзи-Самарканди (1878-1957), Файзуллахходжа Равнаки (1892-1978), Исмаилхан Факири-Шахрисабзи и др. Среди этих писателей говорят, что литературное наследие Исмаила Хана Факири важно и что примеры его произведений дойдут до литературных людей.

Ключевые слова: создатель, значение орифоны, романтический дух, просветительская поэзия, деванская литература, владелец девана, концепция баяза.

Abstract: In this article, Fakhiri's work is a novelty in literature, and his legacy, with its oriphonic content and romantic spirit, fills a terrible gap in Uzbek literature of the colonial period. At the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, several poets and writers were born and lived here in Shakhrisabz. Among them, virtuous artists were Mirza Umrbaki Shakhrisabzi-Samarkandi (1878-1957), Faizullahkhoja Ravnaki (1892-1978), Ismailkhan Fakiri-Shakhrisabzi and others. Among these writers they say that the literary heritage of Ismail Khan Faqiri is important and that examples of his works will reach literary people.

Key words: *creator, meaning of oriphon, romantic spirit, educational poetry, Devanliterature, owner of the devan, concept of bayaz.*

Faqiriy ijodi adabiyotda chinakam kashfiyotdir. U zotning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o'zbek adabiyotidagi mudhish bo'shliqni to'ldirib turadi. Faqiriy hazratlari o'tgan asrda yashab ijod etgan bo'lsalarda, u zotning nomi va ijodi, Alloh taoloning inoyati ila istiqloq davrida yuzaga chiqdi. Sho'ro siyosatdonlari mumtoz shoirni xalqdan yashira olmadilar.

Shoir nomi davlat miqyosida ilk marta Shahrisabzning 2700- yilligiga bag'ishlangan anjumanida O'zbekiston birinchi Prezidenti tomonidan tilga olindi. Darhaqiqat, doktor, professor Shodmon Vohidov hamda yosh olim, adibning nabirasi Mas'udxon Ismoilning say'u g'ayratlari bilan Faqiriy nomi jahon qomuslariga kirgan edi. Bu ma'noda Faqiriy ularning kashfiyoti deb aytish xato bo'lmas. So'nggi yillarda barcha fanlar qatori adabiyot sohasiga ham alohida e'tibor berilib kelinmoqda. XX asr o'zbek ma'rifiy she'riyatining yombi ijodkori, devon adabiyotining kamtar vakili, alloma va shayx, Naqshbandiya tariqati murshidi komili, Payg'ambar avlodi, zokir, ijodkor, shokir va sobir so'z san'atkori, Faqiriy-Shahrisabziy hazratlari o'zlarining bayozu g'azaliyotlari bilan adabiyotimizga yangitdan kirib kelmoqdalar.

Dunyoning hamma joyida davlat rahbari biror ijodkor allomaga e'tibor ko'rsatsa, bu uning xalq orasida izzat-e'tibor topishiga sabab bo'ladi. Birinchi prezident iltifotidan keyin Faqiriy vorislarining ko'ngli ko'tarildi va adibning boy ijodi faolroq o'rganila boshlandi. Xususan professor Shodmon Vohidov hamda yosh olim, adibning nabirasi Mas'udxon Ismoilning ushbu adib haqida ko'plab ma'lumotlar ijodiga doir bir qancha ilmiy maqolalar bitishgan.

Faqiriy hazratlari biz o'rgangan Oybek, G'afur G'ulom, Shayxzoda, Habibiy kabi adiblarga zamondosh esalar-da, shayxligi, islomiy hayoti, ijodining ilohiy ma'rifatga asoslangani bois nomlari ham, ijodlari ham aslo yuzaga chiqmagan, adib ham bunga zinhor parvo qilmasdan: «Bizning hazfporaga ham bir xaridor topilarda», deb sabri jamil ko'rsatgan edilar.[1] Mana, Allohning lutfu -karami bilan adib ijodiga xaridor topildi. Istiqloq zamoni u zotning merosiga talabgor chiqdi. Ko'zlar ko'nikkan tog'lar orasida yam-yashil, pokiza bir cho'qqi paydo bo'ldi. Adib ijodiga qiziqishlar adabiyotshunoslar orasida ham ko'payib bormoqda.

Albatta har qanday adabiyot sohasida qalam tebratgan ijodkorning ismu-nasablari va taxalluslari o'quvchini befarq qoldirmaydi deb hisoblasak bo'ladi.[6] To'liq ismlari - Ismoilxon ibn Ibrohim Xoja ibn Hidoyatulloh ibn Mirzo Kalon Abdulaziz Xojai Shahrisabziy.[11] Ushbu ma'lumotlar ularning nabiralari Mas'udxon Ismoil qo'llaridagi ma'lumotlar asosida yaratilgan devon va bayozlardan olingani asosli albatta.

Taxalluslari Faqiriy-Shahrisabziy; she'rlarida Faqiriy, Faqir shakllarida ham keladi. Xalili Ixvon taxalluslari ham bo'lib, bu nomni tog'alari shoir Hone Shukrulloh Xoja qo'yganlar va undan shoirming tavallud tarixlarini chiqarganlar. Abjad hisobida bu taxallus raqamlaridan hijriy 1328-yil chiqadi.[1],

Toshkentda shoir Habibiy bilan ko'rishganlarida "Faqiriy" taxallusi zamon mafkurasiga to'g'ri kelmasligini o'ylab, u zotga Xaliliy degan taxallus tanlab beradilar.[3] Faqiriy esa hurmat yuzasidan, bu taxallusda bir she'r yozib, uni Habibiygabag'ishlaydilar. Shundan so'ng yana "Faqiriy" taxalluslariga sodiq qoladilar.[8]

Ismoilxon Faqiriy milodiy 1910-yil, hijriy 1328-yilda Shahrisabzda tavallud topdilar. Uch yoshda otalaridan, to'rt yoshda ustoz bobolaridan judo bo'lib, avval onalari, keyin tog'alari tarbiyatlarida kamol topib, ilm-ma'rifat sohibi bo'ladilar. Adib 1980-yilda hozirgi Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, Sariosiyo qishlog'ida vafot etdilar.[11] Avlodlari hozirgi vaqtda mazkur manzilda yashaydilar.

Faqiriy hazratlarining tug'ilib o'sgan vatanlari Markaziy Osiyoning qadimiy ilm- fan o'choqlaridan bo'lmish Shahrisabz shahridir.

Nomlaridagi "Shahrisabziy" degai ilova maxsus shoirona taxallus emas, balki mazkur Vatanga mansublik guvohnomasidir, Faqiriy hazratlarining tug'ilib o'sgan vatanlari Markaziy Osiyoning qadimiy ilm-fan o'choqlaridan bo'lmish Shahrisabz shahridir. Shahrisabz Rusiya bosqinidan keyin ham to 1917-yillargacha o'z ma'rifiy mavqeini saqlab kelgan.[2] Undan so'ng maktab-madrasalar rasman yo'qotilgan bo'lsa-da, sayyidlar va tariqat mansublari yurti sifatida shu kungacha o'z e'tiborini yo'qotmagan. Mustamlaka davrida Faqiriy, Ravnaqiy, Maxdum Hamidiy, shoir Qone'singari shayx va alloma-ijodkorlarning yashagani bunga dalildir.[12]

Shahrisabzda necha-necha ulug' zotlar o'tgan, ammo u tarixda Sohibqiron Amir Temur tug'ilib o'sgan yurt sifatida ham mashhurdir. Unda temuriylar dahmasi, aziz avliyolar marhadi, Amir Temurning jasadsiz maqbarasi mavjud. Shu bois shoir Shahrisabz xususidagi turkiy va forsiy she'rlarida o'z yurtlarini Sohibqiron nomi bilan ulug'laydilar. Bizni (ng) Vatan - joyi surur, aysh ila xalsi barcha hur, Ilmu ma'orif konidur, yo's dilda armon o'zgacha, deya shoir orzu-armonlari vatanda ilmu maorif ekanini izhor etadilar. Nomlaridagi "Shahrisabziy" degai ilova maxsus shoirona taxallus emas, balki mazkur Vatanga mansublik guvohnomasidir,[6] Ismoilxon Faqiriy ilm-ma'rifatli, ziyoli, e'tiborli muftiy va qozilar avlodidandirlar. Shoirming bobolari Inoyatulloh Xoja O'roq ibn Mirzo Kaloni Shahrisabz muftiyi edilar. Otalari Ibrohim Xoja O'roq esa Shahrisabzda XV asrda Mirzo Ulug'bek qurdirgan Jome' masjidida imom-xatib, amir hukumatining shahar vakili (o'roh), madrasa rahbari bo'lganlar. 1914-yilda otalari vafot etgach, uch yashar Ismoilxon bobolari Inoyatulloh Xoja tarbiyatlarida qoladilar. Ul zot ham olamdan o'tgach, mehribon onalari to'rt-besh yashar o'g'lon tarbiyatlarida ulug' say'u g'ayrat ko'rsatib, uni maktabga berib, savodxon qiladilar. [3] Sho'rolar hukumati tuzilib, islomiy maktablar yopilgach, yana o'zlari ta'limni davom ettiradilar. Onalari ilm-ma'rifatli otinoyi bo'lib, Mahzunataxallusi bilan she'rlar yozganlar. Faqiriy "Bayoz"lari debochasida onalarini ko'p ulug' ehtirom bilan zikr hiladilar. Ukalari Najmiddin Xoja Sho'rolar hukumati davrida qamalganida, zor qaqshagan onalarining iltimoslari bilan, volidalari nomidan bir musaddas

bitganlar. Unda o'zlarining ham, onalarining ham sog'inchlari, dardu alamlari ifodalanadi. So'nggi bandga diqqat qilaylik:

Ey Fatsiriy, Hassa yolbor, Has O'zidur mesrubon, Bera olmas hech kim bu dardu saygudin omon. Bir taraerum birla ozod etsa Xallotsi jahon, Qolmas erdi xasta ko'ngillarda hargiz ormon;
G'am bila chun surati devordurman soginib, ko'rmasa zor-u, vale nochordurman sog'inib...

Ismoilxon to'qqiz yoshlarida Navoiyni o'qiydigan bo'ladilar. Bu hazil gap emas. Navoiyni tushunish uchun esa turkiy-o'zbek tilini puxta bilish bilan birga, arab va forslug'atlaridan ham xabardor bo'lmoq zarur. Shunga qaraganda, yosh Ismoilxon Fahiriygarchand o'zlari: "nimi-nimkora", "Savodxon" deb kamtarlik qilsalar-da, naqadar iste'dod va kamol sohibi ekanliklari anglashiladi.

XX asr Shahrisabz adabiy muhitini kuzatsangiz, mustamlaka siyosati balchig'idan o'zini muhofaza etgan, maddohlik va ta'magirlikdan yiroq, pokiza bir adabiyot borlig'ini ko'rib, ko'nglingiz o'sadi. Faqiriy ham dovrug'u dabdabaga, unvonu mansabga aslo qiziqmasdan, iymon-e'tiqodda sobitqadam, mumtoz she'riyatga sodiq yashaganlar, Zero, shoir yaxshi bilganlarki, hayot bugundan iborat emas. Zamonlar aylanadi. Vaqt o'tishi bilan adib bilimlari va ijodga ishtiyoblari ortib boradi. Faqiriy yosh bo'la turib, Hoji Mirzo Hamiduddin Maxdum Hamidiy, tog'alari Shukrulloh Xoja Hone', bobolari Inoyatulloh Xoja O'roh Jurmiy, Mullo Mirzo Fayzulloh Xoja Ravnahiy, Mirzo Umrbohiy-Shahrisabziy kabi ulug' insonlar qatori turadi desak mubolog'a bo'lmas.

So'z ibtidosida "ma'rifiy she'riyat", "devon adabiyoti" iboralarini qo'lladik. Savol tug'ilishi mumkinki, XX asrda mustamlaka iskanjasida O'zbekistonda irfoniy she'riyat bo'lganmi? Devon adabiyoti qanday adabiyot?

Irfoniy ruh, ilohiy mazmun devon adabiyotining xos xususiyatlari bo'lganidan, «devon adabiyoti» ta'rifi kirishsak.

Devon adabiyoti saroy adabiyoti yoki saroy shoirlari degan ma'noda emas. Balki, tamoman aksinchadir. Devon adabiyoti XI asrda Movarounnahrda (bugungi O'zbekiston zaminida) Qoraxoniylar davrida boshlangan, islomiy madaniyatdan bahra olgan, shu sababdan arab va fors adabiyotlaridan ta'sir topgan islomiy adabiyotdir. Qur'oni karim va hadisi sharif ma'nolarini o'ziga singdirgan bu mumtoz adabiyot

«majoz haqiqatning ko'prigidir» degan hadisi sharifga asoslanadi, ya'ni majoz yo'li bilan haqiqatni kuylaydi, majoziy muhabbatni bahona qilib, ilohiy ishqni tarannum etadi.

Faqiriy ana shunday adabiyotning so'nggi zabardast vakillaridan biridirlar. "So'nggi" deyishimizga sabab: sho'rolar tuzumida islomiy ilm-ma'rifat taqiqlanib, irfoniy she'riyatga ham futur yetdi, hatto 30-40-50-yillarda aruz vaznida yozish man etildi, bora-bora devon adabiyoti deyarli barham topdi. Keyingi adabiyotdan irfoniy ma'no qochdi, ilohiy ruh chekindi, oxirat g'oyasi uzildi, jahon va asosan rus adabiyoti muhitida xalqchil-ommabop she'riyat vujudga keldi. 60-yillar dagina:

"Ey munassid, sen g'azalni ko'hna deb kamsitmagil, Sevgi ham Odam atodin solgan insop sonida!" degan nidolar yangray boshladi va yangi alifbo asosida Erkin Vohidovning "Yoshlik devoni" paydo bo'ldi.

"Devon" istilohining ma'nosi ko'p. "Devon" avvalo aruz vaznida bitilgan va arab alifbosi asosida tartib berilgan g'azallar to'plamining nomidir: "Devoni Navoiy", "Devoni Xoja Hofiz", "Devoni Fuzuliy" kabi. Devon tuzishga muvaffaq bo'lgan shoirlarni "Sohibi devon" deb ulug'laydilar.

Davlat idorasi, mahkama, hukumat uyi ham devon deyiladiki, aytganimizdek, devon adabiyotining bunga aloqasi yo'q.

Mumtoz adabiyotning hammasi devon adabiyoti bo'lmasligi mumkin, lekin devon adabiyotining hammasi mumtoz, ya'ni o'lmas adabiyotdir.

Unutmaslik lozimki, Faqiriy hazratlari avvalo murshid edilar va xalqning irshodi ulzotning zimmalarida edi. Bu maqom sabablidirki, shoir kamtarlik bilan o'z kitoblarini bayoz deb ataganlar. Adib arab alifbosining barcha harflariga g'azal tartib berilmaganini ko'zda tutgan bo'lishlari ham mumkin. Ammo biz kitobni o'rganib chiqib, ul zotni "Sohibi devon" deb atashga jur'at etdik

Devoni Faqiriy haqida so'z borar ekan, bevosita uning bayozlarini eslamaslikni iloji yo'qdur. Faqiriy bayozlari 1950-1965-yillarda tuzilgan bo'lib, o'zlari tanlab, saralab kiritgan she'rlardan iborat. Devon mumtoz nazm san'atining deyarli barcha turlaridan: g'azal, muxammas, musaddas, musabba', musamman, mustahzod, masnaviy, ruboiyyot va qit'alardan tarkib topgan. Kitobda tatabbu' va tazminlar birmuncha bo'lib, muvashshax va mutoyibotdan hazil she'rlardan ham holi emas. She'rlarning ko'pi asl san'at namunalari.

Devon an'anasiga muvofiq, xuddi Navoiy, Fuzuliy va Nodiralalar kabi, Faqiriy ham o'z devonlariga debocha bitganlar. Debochada matla mavjud bo'lib, mehribon va rahmli Alloh ismi bilan boshlanib, Haq taolaga hamdu sano aytish va hazrati Rasulullohga salovot keltirish bilan davom etadi. Unda shoirning qisqa hasbi hollari vadunyoda bir yodgor qoldi- rish ishtiyohlari yuksak odob va valiylarga xos xoksorlik bilan bayon etilgan. Ammo shoirning kamtarliklarida ham kuchli jasorat, yorqin iste'dod va yuksak ma'rifat nuri balqib turadi. Chunonchi, adib yozadilar:

«Toki o'n besh va o'n olti yoshlarimdan boshlab, shoirlar zumrasiga qo'shulishga jiddiy harakat ko'rguzgan bo'lsam-da, bu ishga, birinchidan, bilimsizlik, va ikkinchidan, zamonamizni(ng) kundalik o'zgarishlari natijasida she'r yozolmasdan va yozganlarim ham har joylarda beparvolik bilan solib va ba'zilar esa birodaroni kiromiylar talablariga muvofiq ularga yuborilib, qo'limda bori ham juzdonga darida vajarida bo'lub yotar edi...»

Bu qisqa so'zda ko'p ma'no va qismat manzaralari bor. Chunonchi, «*zamonaning kundalik o'zgarishlari*», muallifning o'z ta'birlari bilan aytganda, «*sho'rolar hukumati tashkil topib, butun O'zbekiston va Tojikiston va Buxoro tufroqlarida ham hukmronlik shevasini yurgizgani*»dir. Ya'ni, qadimiy madrasalar berkitilgan, xalqning tarixini yo'qotishga urinilgan, dahriylik saltanati o'rnatilgan, mumtoz adabiyot tahqirlangan, ma'rifatli iste'dod sohiblari muvozanatini yo'qotib, she'r yozolmay qolgan.

Yillar o'tib, shoir aytdilar: «Ammo ko'nglimdan goxho shundog kechar erdiki,
«Ey tan, san dunyoga kelib nima Ahli dunyo - siymu zar, ahli hunar - fazlu kamol.

Va bu ashyolarni(ng) o'ziga yarasha xaridori ham topiladi. Chunonchi, Navoiy aytur:
Sarvu gulu lola xaridori bor,

Lek tikonning dagi bozori bor. Ya 'nikim har bir gulning o'z xaridori bo'lgani singaritikonning ham o'z o'rmi borligi haqida alohida fikr yuritadilar. Shu o'rinda bevosita Faqiriy hazratlarining ijodiga ham qiziqishlar ortgan.

Devon Alloh taoloning qudrati, san'atini olqishlab, hamdu sanolar aytguvchi, Haq taoloning dargohiga yolborib munojot qilguvchi hamda sayyidi mursaliyn-hazrati Rasululloh alayhissalomga nat-hamd keltirguvchi g'azallar bilan boshlanadi. Zotan, bumumtoz devon adabiyotining odobu an'anasidir.

Turkiyda aytilgan "Paydo", "Yo Rab", "Bo'ldim" radifli hamda "Zulfig girih" kabi g'azallar, "Sun'ung Sani..." mustahzodi, "Izlagil", "Hasrat" kabi muxammaslar, forsiydagi "Chi shudi?" musaddasi va "Kunand" radifli tazmini musabba'lari Faqiriy hazratlarining shoh asarlaridir.

Lutfiy, Fuzuliy, Hiloliy, Amiriy (Amir Umarxon), Furqat, Sayyid Ahmad Vasiliy, Gulshaniy, Mullo Orif Gulxaniy, Muxlis Namangoni, Maxdum Hamidiy, Ulfat (Nusrat), Boqiy, Tufayliy Yusufxon To'ra Dehlaviy kabi zotlarning mumtoz g'azallariga bog'langan turkiy va forsiy muxammaslar, Xoja Hofiz Sheroziy, Boborahim Mashrab baytlari asosida bitilgan tazminlar, tatabbu' va payravlar favqulodda san'at durdonalaridir. Bular Faqiriy iste'dodi, ilmu ma'rifati, ishq muhabbati izhoriga maydon va imkon ochgan.

Devon mundarijasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

1. Alloh zikri va oxirat qayg'usi.
2. Munojot ohanglari.
3. Mustabid tuzum manzaralari.
4. Vatanparvarlik tuyg'ulari.
5. Ilm-fan va ma'rifat tashviqi.

Faqiriy o'zbek va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoirdir. U zotning merosi orifona mazmuni, oshiqona ruhi bilan mustamlaka davri o'zbek adabiyotidagi mudhishbo'shliqni to'ldirib turadi. Adibning merosi adabiyot sohasida o'rganilishi lozim bo'lgan yangidan - yangi mazmunli g'azaliyotlari va purmano ijodi va devonlari kelajak avlod uchun ushbu sohada muhim manba bo'lib xizmat qilsa ajabmas.

ADABIYOTLAR

1. Kattaev K. Maxdumi A'zam va Dahbed. Samarqand Sutdiyov, 1994.- B.73.
2. Faqiriy I., Homidov N. va boshqalar. Avlodlar bayozi. - Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996.
3. Vohidov Sh.Fakiriy // Sobiq Rossiya imperiyasi hududida islom. Ensiklopediklug'at. 3-son. - Moskva: Sharq adabiyoti, 2001. - S. 107-108.
4. Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Tazkira - Toshkent: G'afur g'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. - B. 49.
5. Vohidov. Sh, Erkinov.A, Shahrisabzlik xattot va shoirlar //Ming yillar merosi Shahrisabz. 2700.-Toshkent "Sharq" nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati 2002 B.126
6. Ismoilov M. Faqiriy va Najotiy ijodiy faoliyatlarining Shahrisabz ilmiy-adabiy muhitida tutgan o'rni xususida // Shahrisabz shahrining jahon tarixida tutgan o'rni. Xalqaro ilmiy konferensiya maruzalari tezislari. - Toshkent: Fan, 2002. – B. 143.
7. Vohidov Sh. Les specificites paleographiques et codicologiques des fonds particuliers de Rawnaqi et Faqiri (Sahrisabz, O'zbekiston) // Manuscripta Orientalia.9-jild №3 2003 yil sentyabr - s. 52-56.
8. Mirzo Kenjabekov Ilm o'rganu xat o'rganu odob o'rgan .Sohibi devoni Faqiriy hazratlari // "Ma'rifat" gazetasi ,2004yil ,28-yanvar
9. Ismoilxon Faqiriy. Intizoramkim ulam gardi firoqing sumlarin //Ma'rifat 2004 yil,17-mart
10. Ismoilxon Faqiriy.Ahli duoni izlagil //Hidoyat. 2004. N4-b. 24-25
11. Vohidov Sh., Ismoilov M. Faqiriy olim, shoir va shayx // Moziydan sado. 2004 yil.- 4-son.
12. Vohidov.Sh, Ismoilov .M //O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2005.-B.213
13. Mirzo Kenjabek. Mumtoz shoir va komil shayx Fakiriy-Shaxrisabziy // Sino. -2004 yil (tanasi). - № 15. - B. 44-51
14. Hasanov A. XVI-XIX asrlarda shaharsozlik va me'morchilik (Qashqadaryo vohasi misolida): Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2008. 200-b.
15. Ko'charov J. Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagitarixidan. – Samarqand: 2008. 71-b.
16. Ravshanov P. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. – Qarshi: Nasaf, 2005. 120-b
17. Yakubava S.H. American Journal of Scienseand Humanitly Reearch. Comparative analysis of the interpresentation as a genre in travel novels in uzbek and world literature. <http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/1015> 2023.7.164
18. Yoqubova S. H. Idea scientific journal. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7789626> Pretsedent birlik va Pretsident nom, ularni ng o'zbek lingvomadaniy jamiyatda qo'llanilishi. 2023, 23-39 bertar.

XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING SAMARALI METOD VA USULLARI.

¹Yo'ldosheva Farangiz, ²Nurnazarova Yulduz

¹O'zJTU, 2-ingliz tili fakulteti 1- kurs talabasi, Toshkent sh., O'zbekiston

²O'zJTU, 2-ingliz tili fakulteti assistenti, Toshkent sh., O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida chet tili o'qitish usullari, chet tili o'qitish metodikasi, ushbu metodikada qo'llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish xususida so'z boradi. Shuningdek, xorijiy til o'qitish metodikasining ruxshunoslik asoslari hamda ingliz tilini o'rganishda va oliy ta'lim muassasalarida dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullar ham aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: metodika, aspekt, yozma nutq, real life english, movies in english, note-taking, input-based, interfaol usullar.

Abstract: This article talks about foreign language teaching methods in educational institutions, foreign language teaching methodology, types of modern methods used in this methodology and their use. It also mentions the psychological basis of foreign language teaching methodology and interactive ways used in learning ENGLISH and in higher education institutions.

Key words: methodology, aspect, written speech, real life english, movies in english, note-taking, input-based, interactive ways.

Til o'rganish inson hayotida o'ta muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni oilada, jamoatchilik orasida yoki darsda amaliy egallash mumkin. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda xorijiy tillarni puxta o'rganish, poliglossiya muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarga, odatda, uchta til o'rgatiladi. Shu o'rinda taniqli adib G'afur G'ulom shunday degan edi: "Idrokli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasidir". Bunday tillar ta'lim nazariyasida o'zining maxsus nomiga ega: ona tili, ikkinchi til, chet tili. Ona tili tafakkur, fikrlash shakllanishida asosiy vazifani bajaradigan birinchi tildir. Ona tili so'zlari zaminida o'zlashtirilgan tushunchalar ikkinchi yoki chet tili o'rganish paytida o'zga til so'zlarining tovush va yozuvdagi aksi sifatida gavdalanadi (1). Bunday so'zlar miqdor jihatdan uchta, ammo bir xil ma'noni ifodalaydi, masalan: kitob-book-книга. Ikkinchi til boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar tili hisoblanadi. Chet tili-xorijiy til. Uchala tilni o'qitish jarayoni bir-biridan farq qiladi: birinchidan ona tilida tafakkur shakllanadi, ikkinchidan ona tili va ikkinchi til tabiiy muhitda, xorijiy til sun'iy vaziyatda o'rgatiladi, ya'ni chet tilida muloqot, asosan, darsda o'qituvchi bilan birga kechadi. Bu esa tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo qiladi. Chet tillarini samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tilini o'qitish metodi-xorijiy til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ko'nikmalariga erishishni kafolatlaydigan o'qituvchi, talaba yoki o'quvchi faoliyati majmuasi hisoblanadi.

Metodlar metodist I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tarjima metodi ikkiga bo'linadi, ya'ni grammatika-tarjima hamda matn-tarjima metodlari. Grammatika-tarjima metodida grammatik mashqlar o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o'stirish uchun bajariladi. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Til o'rganish yozma nutqqa asoslangan.
2. Oldin grammatik qoidalar yod olingan, keyin qoidalar asosida gaplar tuzilgan.
3. Grammatik mashqlarni bajarish asosiy ish usuli bo'lgan.
4. Grammatik shakl va so'zlarning ma'nosi so'zma-so'z tarjima vositasida ochib berilgan.
5. So'zma-so'z tarjima va yodlash orqali til o'zlashtirilgan (2).

Tarjimasiz metod. Mazkur metod ham ikki yirik guruhga ajraladi: tabiiy va to'g'ri metodlar. Tabiiy metodda chet tilida gapirishni o'rganish orqali o'qish va yozishni o'rganishga imkon yaratiladi. Chet tilini o'qitishning dastlabki bosqichida, avvalambor, tovush, so'z va gaplarning eshitish va nutq harakat timsollari vujudga keltiriladi (2).

Input-based metodi, ya'ni ma'lumot asosidagi metod. Bu birinchi navbatda eshitish va o'qish orqali, keyin gapirish hamda yozish orqali til o'rganish usulidir. Bu metodda tilni samarali o'rganish uni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda tinglash va ko'rish orqali amalga oshiriladi. "Input-based method" yoki "input-based language acquisition" usuli S.Krashen tomonidan ishlab chiqilgan. U 1980-yillarda o'zining "Second Language Acquisition" nazariyasi doirasida ushbu yondashuvni rivojlantirgan. Krashenning fikricha, til o'rganish jarayonida kiritilgan ma'lumot (input) o'zlashtirishning asosiy omillaridan biridir. Ushbu metod quyidagicha ifodalanadi:

1) Tushunish. O'rganuvchi o'rganayotgan tilidagi deyarli tushunadigan narsalarini eshitish yoki o'qish orqali o'rganadi. Til o'rganish jarayonida ayrim qismlar yangi bo'lishi mumkin, lekin shu orqali o'quvchi rivojlanadi.

2) Tabiiy o'rganish. Bu kichik bolalarning atrofda eshitish orqali til o'rganishiga o'xshaydi. O'quvchi ham ko'p eshitish orqali til o'rganadi.

3) Mazmuniga e'tibor berish. Grammatika va xatolar haqida o'ylash o'rniga gapirilayotgan narsaning ma'nosini tushunishga urg'u beriladi.

4) Turli xil usulda tinglash va o'qish. Qancha ko'p turli kontekstlarda eshitingiz va o'qisingiz, shuncha ko'p tabiiy ravishda o'rganasiz.

5) Keyin gapirish, ya'ni o'rganuvchiga darhol gapirish yoki yozish shart emas. U yetarlicha tilni o'zlashtirgandan so'ng mustaqil gapirishga tayyor bo'ladi. Shuningdek, xorijiy til o'rganishda diqqat, idrok, xotira, tafakkur kabilar hisobga olinadi. Til vositalarini egallash mushohada va idrokdan boshlanib, tafakkur tomon, so'ngra amaliyotga yo'naltirilgan bilish jarayoni ekanligi ruhshunoslikda aniqlangan (3).

Hozirgi kunda til o'rganishda interfaol usullar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa o'quvchi yoshlarning til bilish darajalarini oshirishda, jahon miqyosida ilm-fan borasida bellasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashda ular juda muhim. Bunday metodlardan biri ta'lim jarayonida texnika va texnologiyalardan samarali foydalanishdir. Masalan, xorijiy tillarni o'rganuvchilar uchun har bir aspektni, ya'ni listening, speaking, writing va readingni rivojlantiruvchi bir qator platformalar, onlayn kurslar mavjud. Shunday dasturlardan biri (faqat ingliz tilini o'rganadiganlar uchun) "Real life English" ilovasidir. Bu orqali o'quvchilar istalgan joydan turib "native speaker"-haqiqiy inglizlar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish imkoniyatiga egadirlar. Shuningdek, ular bu ilovada maxsus o'qituvchi tanlashadi va u muloqot davomida haqiqiy inglizlar tomonidan ishlatilgan murakkab so'zlarni izohlaydi hamda grammatik strukturalarni tushuntiradi. Bunday aktive praktika orqali o'rganuvchida nafaqat gapirish qobiliyati, balki eshitib tushunish qobiliyati ham rivojlanadi. Tinglab tushunishni yanada oshirish uchun "Movies in English" sayti ham foydali. Bu orqali til o'rganuvchida connected speech, linking words-gapda bir-biriga bog'langan, qo'shib talaffuz qilinadigan so'zlarni tushunish qobiliyati yanada ortadi. Shuningdek, "Note-taking" usuli ham samarali. Bu interfaol usul IELTS imtihonidagi multiple choice, ya'ni bir nechta javobli savolar qismida yuqori ball olishga yordam beradi. Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) berilgan savollarni o'qib chiqish va tushunish;
- 2) audiosini tinglash va asosiy joylarni yozib borish;
- 3) yozilgan gaplar, so'zlar orqali javobni taxmin qilish;
- 4) taxminiy javob bilan savoldagi javobni moslashtirish;

Zamonaviy interfaol usullardan yana biri- Input- based usuli. Input-o'quvchilarning tilni ishlatishdagi tajribasini ifodalaydi. Bu turli manbalardan, jumladan, o'qituvchilardan, boshqa o'rganuvchilardan va atrof-muhitdan bo'lishi mumkin. Input-based usuli 2 qismga bo'linadi: o'qish va tushunish mashqlari; eshitish va bajarish vazifalari. Bunday mashqlar tilni ishlab chiqarishni talab qilmaydi, balki ular o'rganuvchida tushunish qobiliyatini oshirish uchun yo'naltirilgan, masalan: hikoyalarni o'qish va tinglash orqali yangi so'zlarni o'rganish. Ushbu usul ingliz tilini o'rganayotgan talabalarga, o'quvchilarga IELTS o'quv darslarida reading-matn bilan ishlash qismidagi muammolarni bartaraf qilishga yordam beradi. Ushbu metod orqali o'quvchida matnlarni oson tushunish, o'z fikrlarini ifodalash, lug'at bilan ishlash ko'nikmalari yanada mustahkamlanadi.

Bu usul quyidagicha:

- Ma'lumotni tahlil qilish -o'qilayotgan matndan anglashilgan asosiy g'oyani ajratib olish.
- O'qish va yozish integratsiyasi-o'qish jarayonida "notanish" so'zlarni tarjima va izohi bilan yozib borish va bu lug'atlar orqali turli gaplar tuzish.
- Turli resurslardan foydalanish -artikllar, maqolalar, kitoblar, darsliklar orqali matn tushunish qobiliyatini oshirish.
- Muhokama qilish. Berilgan matn yuzasidan o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishadi, har bir savolni tushuntirib, asoslab berishadi. Bu ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Bundan tashqari oliy ta'lim muassasalarida ko'pincha talabadan mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Interactive (inter-o'zaro, "akt"-muloqot, yaqinlik-interfaol) usullar esa talabaning barcha psixik jarayonlarini ishga tushirib, berilgan vazifani bajarish uchun ularni izlashga, qidirishga yo'naltiradi. Bunday usullar orqali dars jarayoni samarali, qiziqarli o'tadi va talabalar o'z g'oyalari, fikrlarini bir-birlari bilan bo'lishishlari mumkin. Buning natijasida ularning bilimi, salohiyati ortadi. Bu turdagi interfaol mashg'ulotlarga "miya hujumi", "dumaloq stol", galereyani aylanish, akademik munozara kabilar misol bo'la oladi.

1) Miya hujumi:

Bu mashg'ulotda talabalarga ma'lum fan yuzasidan savol beriladi (asosan oldin ko'rilmagan mavzudan). Ularga ortiqcha vaqt berilmaydi. Ular miyaga nima kelsa, shuni aytishadi. Javob berilayotganda javoblar izohlanmaydi yoki o'rinsiz deb rad etilmaydi. Javoblar tugagach talabalar o'qituvchi bilan birgalikda javoblarni muhokama qilishadi. Yoki savol berishdan oldin talabalarni guruhlariga ajratish mumkin. Ular guruhlari bilan birgalikda o'z fikrlarini bayon qilishadi. Bu orqali ular bir-birlaridan yangi narsalarni o'rganishlari mumkin.

2) Dumaloq stol:

Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'ylab o'tkaziladi. Har bir talaba o'zining javob variantini yozib qo'yadi va varaqni boshqa talabaga uzatadi. Javoblar tugagach muhokama bo'ladi. Noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblar soniga qarab talabalar baholanadi. Masalan, pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ko'rsatib; pedagogik mahoratlarini aytib bering va hokazo (4).

3) Galereyani aylanish:

Bunda talabalar bir nechta kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruhga bitta muammo beriladi. Ular 10 minut davomida muammoni hal qilishga doir takliflarini, fikrlarini yozib, qolgan guruhlar bilan yozilgan varaqlarni almashtirishadi. Keyingi guruh oldingi guruhning javoblarini baholashi va javob to'liq bo'lmasa, o'z g'oyalari bilan uni to'ldirishi kerak. Masalan, til o'rgatishda va o'rganishda yuzaga keladigan muammolar va til o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy usullar. Har bir guruhning javoblari doskaga osib qo'yiladi va muhokama qilinadi (4).

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, xorijiy tillarni o'rganish murakkab jarayon. O'rganuvchi bu jarayonda turli hodisalarni boshdan kechiradi, masalan, o'rganilayotgan chet tilini ona tili bilan taqqoslash. Chet tilini o'rgatish uning metodikasini o'rganish va uni amalda qo'llash ekanligini ifodalaydi. Albatta, bunday metodlar, interfaol usullar til o'rganayotgan talaba yoki o'quvchida har bir aspektni: grammatika, o'qish, tinglab tushunish, yozish, lug'at, gapirish ko'nikmalarini oshirishda, mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. J.Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi Toshkent-2012.
2. Z. Sanaqulov, B.Jo'raboyev. Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar. Academic research in educational sciences (issue 4).
3. A.Shamsheva, R.Melibayeva, X. Usmonova, I. Xaydarov (2018). Umumiy psixologiya.Toshkent.
4. <https://arxiv.uz/uz./docmantry/slaydlar/pedagogik-psixologiya/interfaol-metodlar-va-ularning-tasnifi>.

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ПЕРЕХОДНЫХ И НЕПЕРЕХОДНЫХ ГЛАГОЛОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Абдумуродов Темур

Студент, Ургутского филиала Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова, г.Ургут, Узбекистан.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi o'timli va o'timsiz fe'llar rus tilidagi o'timli va o'timsiz fe'llar bilan taqqoslanadi. Shuningdek, o'timli va o'timsiz fe'llarning grammatik va sintaktik xususiyatlari, ularning gapdagi o'rni, shuningdek, o'zbek va rus tillaridagi o'timli va o'timsiz fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *fe'l, o'timli fe'l, o'timsiz fe'l.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются и сопоставляются переходные и непереходные глаголы в узбекском языке с таковыми в русском языке. Также исследуются грамматические и синтаксические особенности переходных и непереходных глаголов, их положение в предложении, а также специфические черты переходных и непереходных глаголов в узбекском и русском языках.*

Ключевые слова: *глагол, переходный глагол, непереходный глагол.*

Abstract: *This article explores and compares transitive and intransitive verbs in the Uzbek language with those in the Russian language. It also examines the grammatical and syntactic characteristics of transitive and intransitive verbs, as well as their position within sentences, and discusses the specific features of transitive and intransitive verbs in both Uzbek and Russian.*

Keywords: *verb, transitive verb, intransitive verb.*

Сравнение — *основа любого анализа, мышления.*

Мы воспринимаем все в этом мире в сравнении.

(Qiyoslash — *har qanday tahlil, tafakkur asosidir.*

Bu olamda neki bo'lsa, barchasini biz qiyoslash orqali idrok etamiz.)

K.D. Ushinskiy

Глагол – одна из самых важных частей речи. Без него нельзя строить предложения, полно выражать мысли, чувства, процессы, действия. Глаголы – это слова, которые раскрывают суть предложения и являются одними из главных в нем. Глаголы – самостоятельные единицы, они обозначают действие или состояние предметов, явлений. В предложении их легко найти с помощью вопросов «что делать?», «что сделать?». Слова-глаголы помогают передать эмоции, выразить мысли и чувства, описать события, которые происходят вокруг.

Fe'l - mustaqil so'z turkumi bo'lib gapda harakatni bildirib keladi. Shu yerda harakat so'zi keng tushuncha hisoblanadi u nafaqat harakatni, shuningdek holatni ham bildiradi va nima qilmoq? nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lib keladi.

Основная часть: Это значение выражается в категориях вида, залога, времени, лица и наклонения. В предложении глаголы выступают в основном в роли сказуемого.

O'zbek tilida Fe'lning quyidagi grammatik kategoriyalari bor: nisbat kategoriyasi, bo'lishlibo'lishsizlik kategoriyasi, mayl kategoriyasi, zamon kategoriyasi, shaxsson kategoriyasi.

Глагол в русском языке и узбекском языке способен обозначать целый ряд явлений:

- действия(harakat): бежать(yugurmoq)
- состояния(holat): грустить(hafa bo'lmoq)
- процесс мысли и речи(fikrlash va nutq jarayoni): петь(kuylash)
- проявление и изменение признака(belgining namoyon bo'lishi va o'zgarishi): светать(tong)
- отношения между людьми(odamlar o'rtasidagi munosabat): любить(sevmoq)
- движение(harakat): ходить(yurmoq)
- звуковые явления(tovush hodisalari): мяукать(miyovlamoq)

Глагол обладает как постоянными, так и непостоянными морфологическими признаками(Fe'l doimiy va beqaror morfologik xususiyatlarga ega.):

Постоянные морфологические признаки глагола(Fe'lning doimiy morfologik xususiyatlari):

1. Вид(ko'inish): совершенный и несовершенный
2. Переходность(O'timliliigi): переходный и непереходный
3. Возвратность: возвратные и невозвратные
4. Спрятать(tuslanish): 1 и 2

Непостоянные морфологические признаки глагола(fe'lning doimiy bo'lmagan xususiyatlari)::

1. Наклонения(mayl): изъявительное, повелительное и условное
2. Время(zamon): прошедшее, настоящее и будущее
3. Число: единственное и множественное
4. Лицо(shaxs-son): 1, 2, и 3
5. Род: мужской, женский и средний.

Переходность глагола – грамматическая категория глагола, отражающая способность глагола присоединять прямое дополнение. То есть, переходность указывает, может ли глагол управлять беспредложными существительными, обозначающими объект действия.

Переходные глаголы – это глаголы, обозначающие отношение либо действие, направленное на определенный объект (предмет, лицо) и переходящее на этот объект. Переходные глаголы управляют беспредложной формой существительного в винительном падеже.

Narakat holat biror bir obyektga o'tish o'tmasligiga ko'ra yoki bajaruvchining o'z ustida bajarilish bajarilmasligiga ko'ra 2 xil bo'ladi: 1. O'timli fe'llarda harakat boshqa obyektga o'tadi: Xonani yaxshilab tozalang. 2. O'timsiz fe'llarda harakat bajaruvchining o'z ustida ro'y beradi: Alisher o'ylanib qoldi.

O'zbek tilida o'timli fe'llar tushum kelishigi bilan bog'lana oladigan fe'llardir.

Если глагол находится в отрицательной форме, то управление осуществляется существительным в родительном падеже. Также управление родительным падежом возможно тогда, когда речь идет о части объекта. Например: Водит машину, вижу горы, держу мяч, писать письмо увидеть друга и т. д.

Непереходные глаголы – глаголы, обозначающие действие, которое не переходит на прямой объект и не нуждаются в таком объекте. Как правило, с существительными в винительном падеже такие глаголы не сочетаются. Например: Помогать маму, гулять, улететь, разбираться в музыке, отказаться от помощи и т. д.

O'zbek tilida o'timsiz fe'llar tushum kelishigi bilan bog'lana olmaydigan fe'llar ya'ni -ni qo'shimchasini olmaydigan fe'llardir.

Заключение: В заключение глагол обозначает действие и состояние, а что делать? Это самостоятельный набор слов, который является ответом на вопросы. Это определение не изменилось ни на русском, ни на узбекском языке. Я думаю, что русский язык и узбекский язык имеют много общего, но в то же время есть и различия. Например, в русском языке 3 наклонения глагола, а в узбекском - 4. Переходные и непереходные глаголы в русском и узбекском языках имеют сходства и различия. В русском языке переходные глаголы направлены на конкретный предмет или лицо и указывают на отношение или действие, переходящее к этому объекту. Переходные глаголы управляют пассивной формой существительного в винительном падеже. С лексической точки зрения переходные глаголы могут означать следующее: процесс создания, изменения или разрушения предмета (написать книгу), эмоциональное восприятие (слышание шепота), воздействие на предмет, не меняющее его (уважение к друзьям), отношение к предмету (отвращение к грубости). Следует также сказать, что в русских переходных глаголах мы можем видеть суффиксы -к, -от, -ни, а в узбекском языке переходными являются только глаголы с суффиксом -ни. В русском языке непереходными глаголами называют глаголы, выражающие действие, не идущее непосредственно на предмет и не нуждающееся в дополнении. Такие глаголы лексически не сочетаются с существительными винительного падежа. Непереходные глаголы могут относиться к: психическим, физическим и пространственным состояниям (расстраиваться), движению и присутствию, ходить, быть), занятиям (сантехник), формирующим и определяющим качества (расти). Но в узбекском языке непереходными считаются глаголы, не имеющие суффикса -ни. В узбекском языке, если глагол стоит в форме причастия, он бывает как переходным, так и непереходным. Например: беги.

ЛИТЕРАТУРА

1. Азизов А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Ташкент: Учпедгиз, 1960. Расулов Р.
2. Глагол состояния в узбекском языке и их валентность. — ПДД. — Ташкент, 1989.
3. Болешапкова В. А. Современный русский язык. (Любое издание).
4. Грамматика русского языка. М., 1970.
5. Грамматика русского языка в 2т. М., 1980.
6. Современный русский язык. Морфология / под общ. ред. И.А. Киселева. — Минск: Вышэйшая школа, 1992. — 335 с.
7. Розенталь, Д.Э. Современный русский язык. Учебное пособие для студентов-филологов заочного обучения / Д.Э. Розенталь, И.Б. Голуб, М.А. Теленкова. — М.: Высшая школа, 1991. — 559 с.
8. Грамматика русского языка: в 2 т. — Т. 1. Фонетика. Фонология. Ударение. Интонация. Словообразование. Морфология. — М.: Наука, 1982.

—•••••—

**XVIII ОХРИ ВА XIX АСР БОШЛАРИ ҚЎҚОН АДАБИЙ МУҲИТИДА ЯШАГАН
АВИЗМУҲАММАД НОЗИЛ ХЎЖАНДИЙ АДАБИЙ
МЕРОСИ ҲАҚИДА МУШОҲАДАЛАР.**

(Нозил Хўжандийнинг янги топилган “Ҳашвиётнома” номли девони ҳақидаги дастлабки мушоҳадалар).

Асроров Акбархон

Шароф Рашидов номидаги СамДУ Ургут филиали доценти, Ургут ш. Ўзбекистон

Аннотация: Нозил Хўжандийнинг ҳаётлик пайтида “Ҳашвиётнома” номли девони мухлислари томонидан девон ҳолига келтирилган. Аммо, қўлёзмада китобат тарихи, котиб ва тузувчи ҳақида, шоирнинг ўзи ҳақида ҳам маълумот йўқ. Қўлёзма 44 варақдан иборат. Адибнинг ушбу девони ўзбек ва тожик адабиётшунослари томонидан кўрсатиб ўтилган бўлсада, аммо девондаги бирорта манзумалар кўздан кечирилмаган. Биз ушбу мақолада тўпلام ҳақида батафсил маълумот бермоқчимиз, чунки Нозил Хўжандий адабий мероси, хусусан ҳашвиёти жанр нуқтаи-назаридан ҳам, мазмун-мундарижасига кўра ҳам XVIII охри ва XIX аср бошлари Қўқон адабий муҳитида муҳим аҳамият касб этганлиги эътиборга лойиқ.

Калим сўз: Қўқон адабий муҳити, котиб, ҳажвиёт, адабий мерос, қўлёзма нусха, зарбўлмасал

Аннотация: Статья посвящена жизни и творчеству Нозила Хужанди. Рассматривается рукопись его девана "Хашвиотнома", ранее не исследованная узбекскими и таджикскими литературоведами. Доказывается значение этого произведения в литературном наследии Хужанди, его жанровое и содержательное своеобразие в ряду литературных памятников.

Ключевые слова: Кокандская литературная среда, секретарь, хажвият, литературное наследие, копия рукописи, зарбулмасал.

Annotation: Nozil Khojandi's book "Hashviyotnoma" during his lifetime was made into a book by his fans. However, the manuscript does not contain information about the history of the library, about the writer and compiler, and about the poet himself. The manuscript consists of 44 pages. Although this book of the writer has been pointed out by Uzbek and Tajik literary scholars, none of the poems in the book have been reviewed. In this article, we would like to give detailed information about the collection, because it is noteworthy that Nozil Khojandi's literary heritage, in particular, Hashviyoti, gained importance in the Kokan literary environment of the end of the 18th and the beginning of the 19th centuries, both from the point of view of genre and content.

Key words: Kokanskaya literaturnaya sreda, secretary, khajviyat, literaturnoe nasledie, copy manuscript, zabolmasal.

Авазмуҳаммад ибни Ҳожимуҳаммад (1790-1876) – Нозил Хўжандий таҳаллуси билан ХҮII аср охри ва ХҮIII асрларда ижод қилган ўзбек ва тожик адабиётининг зуллисонияйн шоирларидан биридир. Нозил Хўжандий ҳаёти ва ижоди фақатгина 1980 йиллардагина келиб ўрганила бошланди. Нозил Хўжандий ҳаёти ва адабий мероси ҳақида ХҮII асрлар охри ва ХҮIII асрларлар Қўқон адабий муҳити доирасидан ёки бевосита Хўжанд адабий муҳитида етишган адабий жамоатчилик томонидан ҳам, ҳамда мавжуд тазкираларда бирор бир маълумот учрамайди. Аммо Тожикистон Фанлар Академияси қўлёзмалар институти фондида шоирнинг 12080 рақами билан сақланаётган девонининг ягона қўлёзма нусхаси бор. Иккинчи Тожикистон Давлат Университети профессори, филологи фанлари доктори Усмон Каримов билан илмий алоқаларимиз натижасида у киши менга Ўзбекистон фанлар Академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланаётган 12080-рақамли Нозил Хўжандий девонининг факсимал насхасини берган эдилар. Бунинг учун ҳурматли устозимизга ўз миннатдорчилигимни билдирсам ҳали ҳам кеч эмас. Мана профессор Усмон Каримов томонидан тақдим қилинган ва шарқшунослик институтининг 12080 билан фондида сақланаётган Нозил Хўжандийнинг янги “Ҳашвиётнома”номли девонининг нусхаси.

Нозил Хўжандийнинг асосий умри Қўқонда ўтган. Унинг ҳаёти ва ижоди Тожикистон университети атокли олими филология фанлари доктори, профессор Усмон Каримов томонидан тадқиқ этилган ва у киши ижодига доир “Нозил Хўжандий ” номли монографиясини эълон қилган. Шунингдек, зуллисонияйн олим, филология фанлари доктори, профессор Эргашали Шодиев ҳам Нўзил Хўжандий ҳақида илмий тадқиқот ишларини олиб борган. Тадқиқотчилар асосан шоирнинг ўзи томонидан тартиб берилган лирик девони ҳақида фикр билдирадилар. Лирик шеърини девондан ўрин олган шоирнинг 504 та ғазалидан, 319 таси, 15 та мухаммасдан 6 таси, 272 та рубоидан 92 таси, 4та қасидадан 2 таси, 3 та маснавийдан 1 таси, 4 та мухаммасдан 1 таси ўзбек тилида ёзилгандир. Музкур шеърини девон ичида Нозилнинг қатор ҳажвий асарларидан ҳам намуналар учрайди. Айниқса, шоир рубоийётидаги ҳазл –мутойибалар киши диққатини тортади. Нозил Хўжандий девонини ўрганган профессор У.Каримов бу рубоийларни “Зарбўлмасал рубоийлар” деб атайти ва бу рубоийларда Муҳаммадшариф Гулханий услубига хос бир услуб қўлланилганлигини кўрсатади. Шоирнинг бундай рубоийларига Тирозий деган шахс номи тилга олинганлигини ва мақоллар шу шахс тилидан келтирилганлигини кўрсатиб ўтади.

Эй хожа,ғами ҳисоби худ хўрдаи бех,
Симу зару ин жаҳон бо худ бурдан бех.

Хуш гуфт Тирози ин суханро бишинав:

“Аз зиндагии хомтамаъ мурдан беҳ”. 80.115-с.

Воқеан, Ирсоли масал санъати воситасида, яъни мақол-матал келтириш йўли билан яратилган маскур рубоий адабиётда янги жанрнинг бошланишидан дарак, нишона берувчи танқидий руҳдаги мутойиба эди.

Профессор Усмон Каримов фикрларига кўра Нозил Хўжандийнинг кўпгина асарлари ҳажвий усулда яратилган. Уларда ўша даврнинг турли ярамас ижтимоий иллатларини танқид остига олганлиги кўрсатилади. Айтиш мумкинки, Нозил Хўжандий ўзининг ҳажий рубоийлари билан ўзбек ва тожик адабиётига Зарбўлмасал-рубоий ижодкори сифатида кириб келган. Бироқ, Нозил Хўжандий ҳажвиёти фақат рубоийлардан иборат эмас. Унинг ҳажвий асарлари ичида ғазал, маснавий, ҳикоят, мухаммаслар шаклида ёзилган асарлари анчагина. Нозил адабий меросининг кўпгина қисмини ҳажвий шеърлар ташкил этади. Шоир ҳажвий асарларини тўплаб алоҳида девон тузган, аммо бир қассоб таниши бу китобни сўраб оладию, қайтариб бермайди. Шоирнинг ушбу ҳажвий мисралари фикримизни тўлиқ тасдиқлайди:

Падарланат, нақўлик бирла бергил ҳажвиётимни,
На билгайсен бу аҳмоқлик билан қилган уётингни,
Такаллуф айласанг сўзим, агар билмай саботимни,
Сенинг ҳажвингда масрур эткуман эмди ҳаётимни,
Билолмам ҳолатинг, қассобсан ё аблаҳи занхар. 80.19-с.

Маскур шеърини бандни проф. Усмон Каримов Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институти 12080 рақамли қўлёзма тўпламидан олганлигини кўрсатади. Девон проф. Усмон Каримов кўрсатганидай “Ҳажвиётнома” эмас, балким “Ҳашвиётнома” (ҳашв- арзимас, беҳуда гаплар маъносида-А.А.) деб номланган.

Қўлёзма куйидаги сўзлар билан бошланган: “Етуқларнинг пешво-пешқадами, шоирларнинг бошидаги тожи, уламолар кўнглининг чироғи, мусулмонлар жони равнақи, яъни домулло Авишмуҳаммад Хўжандий, таҳаллуси Нозилининг барча гуноҳларини ва айбларини тангри - таоло махфират қилсин ва жамии офатлардан Оллоҳ сақласин, бу **ҳашвиёт** таснифотидир. Ва ёшлик пайтимдан кексайган вақтига қадар ҳар тоифа ва жинсдаги паст одамларни ва хасис ва мумсик ва такаббур кимсаларни ва бевафо ёшларни, жафо қилувчи кексаларни- ҳаммасини бир-бир ўрганиб, ҳар бирининг аҳволи ва шаънига муносиб равишда таҳрир ва баён қилинди, мухаммас ва маснавий ва девон тариқасида адо қилинди”. 80.1-с. Юқоридаги маълумотдан кўринади шоир ҳажвиётлари унинг тириклик давридаёқ мухлислари томонидан йиғилган. Девон ҳолига келтирилган. Аммо, қўлёзмада китобат тарихи, котиб ва тузувчи ҳақида, шоирнинг ўзи ҳақида ҳам юқоридагидан бошқа маълумот йўқ. Қўлёзма 44 варақдан иборат. Нозил Хўжандийнинг бу девони ўзбек ва тожик олимлари томонидан кўрсатиб ўтилган бўлсада, аммо девондаги бирорта манзумалар кўздан кечирилмаган. Биз ушбу мақолада тўплам ҳақида батафсил маълумот бермоқчимиз, чунки Нозил Хўжандий адабий мероси, хусусан ҳажвиёт жанри нуктаи-назаридан ҳам, мазмун-мундарижасига кўра ҳам эътиборга лойиқдир. Тўпламда 86 та ҳажвий шеър мавжуд. Буларнинг 24 таси ғазал, 46 таси мухаммас, 14 таси маснавий, битта рубоий ва бир мунозара ҳам бор. Қизиқ томони шундаки, нега тўплам “Ҳашвиёт” деб номланган. Ҳашвиёт арзимас, майда – чуйда гаплар дегани – ку? Тўпламни варақлар экансиз, унинг бундай номланишига рози бўласиз. Биринчидан, шунинг учунки, ундаги асарлар аксар беҳаё, ғайри - ахлоқий тил билан ёзилган, иккинчидан улар Нозилнинг лирик “Девони”даги шеърлар даражасида эмас, учинчидан, девоннинг шундай номланишининг ўзи билан шоир ҳам девондаги барча шеърлар ҳажвий-танқидий руҳда ёзилганлигини, бошқача қилиб айтганда адиб, девонга киритилган шеърлар ҳам, танқид қилинган муҳит кишилари ҳам арзимас, майда-чуйда кишилар эканлигини таъкидламоқчи бўлади. Дарҳақиқат, “Ҳашвиёт”дан ўрин олган барча шеърларда ўша даврнинг ўрта ва куйи табақа вакилларининг иллатлари танқид остига олинади.

Нозил ҳажвиёти Гулханий, Махмур, Мунший ҳажвиётида кўрингани каби амиру-амалдорлар, козию-муфтийларга қаратилмайди. Балким, улардан фарқли равишда, оддий аҳоли ичидаги қаллоб, риёкорлик билан кун кечирувчи кишиларни аччиқ киноя остига олибгина қолмай, уларнинг қилмишларини масҳара остига олади, бу ҳам етмагандай ўз объектини беҳаё сўзлар билан очиқчасига сўқади, ҳақорат қилади ва бу ҳолни ўша кишиларнинг феъл-атворига муносиб деб ҳисоблайди. Шунинг учун ҳам бу давр адабиётида Нозил Хўжандий ижоди билан ғайриахлоқий ҳажв жанри кириб келган десак, хато қилмаган бўламиз. “Ҳашвиёт” тўпламидаги шеърларнинг бир қисми муайян гуруҳлар, тоифаларга бир қисми эса худди Махмур ҳажвиётида кўринганидай аниқ шахсларга қаратилгандир. Чунончи, Шариф аскиё, Махмурдун пес, Боқи чўтир, Дадабой шоир, Абдулқаюм қассоб, Али ва бошқаларнинг номлари шоир мухаммас ва ғазалларида аниқ келтирилади. Баъзи шахсларга шоир иккитадан ва ҳатто учтагача ҳажвий шеър бағишлаган. Масалан, “Дар васфи ду нобакори баттол, ки яке кўр аст, дигариш кал аст” ёки “Дар васфи калли баттоли бадфеъли, ки худро зубдаи замон фаҳмида ” каби. Девоннинг мавзу доираси кенг, турли характердаги, турфа қиёфали кишилар шоирнинг нишонига айланади. Анънавий тарзда шеър сарлавҳалари тажик тилида берилган. Нозил шеърятининг тили аччиқ, очиқ ва пардасиз. Шу билан биргалликда кулги кўзгатувчи характерга эга.

Бир нархари кал беҳаё, тишлаб олур деб кўрқаман,
Бехонумон нар кадхудо, тишлаб олур деб кўрқаман.
Дунёни хирси дема оз, дин йўлидан қилгон ароз,
Мардон сифат, комат дароз, тишлаб олур деб кўрқаман. 20.36 а варақ

Шоир ушбу ғазал орқали бемаза кал кишини ит билан тенглаштиратириб, унда итга хос қилиқлар мавжудлигини таъкидлайди. Қинғир-кийшиқ ишлар устаси бўлиб кетган, бировнинг ҳақидан кўркмайдиган кал киши образи қуйидагича талқин қилинади.

Надин амонат олди хум, сотиб еди ё қилди гум,

Кал итга етмайду кучум, тишлаб олур деб кўрқаман.

Нозил Хўжандий лирик ва ҳажвий асарлари билан ўзбек ва форс -тожик, балки бутун ўрта Осиё халқлари тарихи ва маданиятининг ривожланишига ҳисса қўша олган сўз санъаткори ҳисобланади. Тарихи ва тақдири бир бўлган ўзбек ва тожик халқларининг бадий ижоддаги ҳамкор ва ҳамфикрлигида Нозил Хўжандийнинг алоҳида ўрни бор ва у бениҳоя катта.

Ўз навбатида бадий адабиётда ғоявий-тематик яқинлик, сўз санъати маҳоратидаги уйғунлик, анъана ва тенденциялар икки халқ адабиёти вакиллари учун ҳамма вақт ўзига хос фазилатлар сифатида кўзга ташланиб келинди.

Навой асарларидан илҳомланиш, унинг ғазалларига назиралар боғлаш, мухаммаслар ёзиш XV-XVI асрларда (Давлатшоҳ Самарқандий ва Биноийлардан ташқари) кенг бир анъанага айланмаган эди. Аммо кейинги давр шоирлари ижодида икки тилда баробар ижод этиш кенг тус олди. Хусусан, XVIII аср охири ва XIX асрда ижод этган Тошхожа Асирий, Маъдан, Дилшод Барно, Муҳаммад Сиддиқ Ҳайрат, Фаҳри Румоний каби шоирлар икки тиллилик анъанасини ўзбек ва тожик адабиётига баробар олиб борган бўлсалар, ана шундай шоирлар қаторига уларнинг асрдоши Авизмуҳаммад Нозил Хўжандийни ҳам бемалол киритиш мумкин. Бу давр адабиётини Алишер Навоий асарларидан илҳомланиш, уларга назиралар боғлаш анъанаси юзага келган эди. Нозил Хўжандий ижодиётини кўздан кечиран эканмиз, у кишининг ҳам бу илҳомдан бебаҳра эмаслигига гувоҳ бўламиз.

Алишер Навоий ўзининг “Маҳбул кулуб” асарининг дастлабки бобида шундай ёзган эди “... алфакирул ҳақир Алишерал мулаққаб бин – Навоий... мудноқ арз қилур ва адаосини фарз билурким, бу хокисори паришон рўзгор шабоб овонининг бидоятининг кухулат замонинг ниҳоятигагач даврои воқоитидин ва сипехри гардон ҳодисотиди ва даҳри фитнга ангиз букфламунигининг ва замонаи рангомиз гуногунлуғидин муддати мадид ва аҳли банд ҳар навъ шиқ ва суратда иқдом урдум ва ҳар тавр сулук кисватида югурдум. Гоҳ мазаллат ва ано вайронида шеван кўргуздим ва иззат ва ғино бўстонида анжуман туздим”. Маснавий:

Гаҳи топдим фалақдин нотавонлиғ,

Гаҳи кўрдум замондин комронлиғ.

Басе иссиғ, совуғ кўрум замонда,

Басе аччиғ, чучук топдим жаҳонда.

“XIX асрнинг биринчи ярмига келиб, ўзбек ва тожик адабий алоқалари шу даражада ривож топдики, нагжада шоирлар ижодини бир адабиёт доирасида ўрганиш етарли бўлмай қолди-” дея ўз сўзини давом эттиради атоқли зуллисонийн олим, проф. Эргашали Шодиев ўзининг “Ўзбек –тожик адабий алоқалари тарихидан” номли рисоласида, чунки дейди у “XIX аср охири ва XX аср бошлари яшаб ижод этган кўпгина шоирлар ижодида икки халқ маданияти, адабий анъаналари баравар даражада ўз ифодасини топди.”

XVIII асрнинг охири ва XIX асрда яшаб ижод этган ҳамда (Адабиётимизда ҳали ижодий фаолияти унчалик маълум бўлмаган) ўзбек ва тожик тилларида баробар ижод этиб девонлар тузган Авазмуҳаммад Нозил Хўжандий ҳаёти ва ижодий меросига, хусусан унинг “Ҳашвиётнома” номли девонининг қўл ёзма нусхасини кўздан кечиран эканмиз, девондан ўрин олган шоирнинг кўпгина шеърларида Алишер Навоийга катта ҳурмат ва эҳтиром билан қараганлигининг гувоҳи бўламиз. Нозил Хўжандий Алишер Навоий ва Абдурахмон Жомийларни ўзига бирдек устод деб билади:

Кўнгли авроқиға кўрган файзлар этгум рақам,

Мавлави Жомий, Навоийдин наво таҳир этиб.

Алишер Навоий ижодидан илҳом ва сабоқ олган Нозил Хўжандий улуғ адиб ғазалларига татаббуъ тарзида шеърлар ёзади, устод асарларида қўлланилган ташбеҳлардан, образлардан ҳам унимли ва ижодий фойдаланади.

Нозил Хўжандий девонида кузатилган ўнлаб ғазалларда шоирнинг Алишер Навоий дostonларидаги бош қаҳрамонлар Фарҳод, Ширин, Лайли ва Мажнун образларига мурожаат қилганлигини, уларнинг севги ва садоқатидан илҳомланиб, ўз Фарҳод, Ширин, Лайли ва Мажнунларини яратганлигини кўрамиз. Нозил Хўжандий шеърини истезодди жуда юқори бўлиб, у ўз шеърларининг лирик қаҳрамонини Алишер Навоий дostonларидаги қаҳрамонлар даражасига олиб чиқишга ҳаракат қилиб, улуғ шоир қаҳрамонлари образини ўз ижодида қайта яратиш ва кашф этишга ҳаракат қилади.

Яхши биламизки, Алишер Навоий ижодида табиатга муносабат жуда гўзаллик билан талқин этилган бўлиб, бу улуғ шоир шеъринининг ҳаётининг, умрбоқийлигини таъминлаган муҳим омиллардагн бири ҳисобланади. Шунингдек, турли ранглар тасвири орқали ҳам руҳий кечинмалар усталик билан тасвир этилганлигини гувоҳи бўламиз.

Сорғарибдур лола рўйим ранжу по бўлмиш қатиг,

Лола бу йил гулиани умримда очилмиш сариг.

Алишер Навоий ушбу ғазалида инсон ва унинг ички кечинмалари, ҳис-туйғулари, дарду алами, кўзланган мақсадга етолмаган ошиқнинг аҳволи (сарғайиб кетиши) тасвирлаганлигини кўрсак, Нозил

Хўжандий худди шу ранг тасвири орқали устоиди Алишер Навоидан ижодий фойдаланган ҳолда, замон жаҳолатидан бағри қон, ранги заъфарон бўлган халқ тақдирини тасвир этади:

*Аҳли дунёни кўзига кўринур зебо сариғ,
Ўлдурурга жалб этар гор бўлгуси пайдо сариғ.
Гулишан ичра бетароват бўлса маҳзи ранги зари,
Қон ичига тўлмагунча бўлмагай раъно сариғ.
Зевари дунё қизармиш бўлса уқбодин хабар,
Гарчи эл ранги қизаргандир бугун, фардо сариғ...*

Нозил Хўжандийнинг ўз замонасининг илғор шоирлари Муқимий, Завқий, Фурқат ва Фахрий Руморнийлар билан маслақдош ва қолаверса ҳамнишин шоирлардан бири бўлган дейишга ҳақлимиз. Чунки айнан шу даврдаги ўзбек ва тожик адабиётида ижтимоий ҳаётга бўлган муносабатда ҳажвий муносабат кучайди. Замон давр иллатларини ҳаққоний тасвир этиш билан биргаликда, ижтимоий воқеликдаги айрим иллатлар фош этилиши билан биргаликда енгил ҳажв остига ҳам олинди. XIX аср охри ва XX аср бошлари ҳажвий асарларини кўздан кечирар эканмиз, қатор адиблар ижодида ўз-ўзидан ҳажв юқори нуқтага кўтарилди бошлаганлигини гувоҳи бўламиз. Поэтик асарларнинг барча жанрларида мамлакатдаги ижтимоий қалоклик, жамятнинг айрим етакчи вакиллари, жумладан, саррофлар, сўфилар ва бошқа ижтимоий саҳа вакиллари, хусусан руҳонийларнинг ҳаётида учраб турадиган иллат ва найранглар бадий ижод мавзусига айланиб, фош этувчи характерга эга бўлганлигини кузатамиз. Бу жиҳатдан ҳам Нозил Хўжандий Аҳмад Яссавий, Убайд Законий ҳамда Алишер Навоий ижодларида ҳажвий йўналишга алоҳида эътибор билан қаратганликларини, яхши билган ҳолда у ҳам уларга ворислик қилади.

*Кибрдин кўлдан бериб, жаннатни хуррам сўфилар,
Ўзларидек бормукин дунёда одим сўфилар.
Бир-бирига мунгашиб, тўқвосидан айлаб баён,
Сўз ила элни қилиб, боби жаҳаннам сўфилар.
Ўзларини кўрсатиб эл кўзига зор наҳф сўфилар,
Лек пинҳоний тутиб ҳар ишни маҳкам сўфилар.
Қилмаюб андешае бу шубҳа ё моле ҳаром,
Аҳли оламга тутиб, ўзни муссалам сўфилар.
Доимо қилмишлари ўғлигу, ажаб ҳаво,
Ҳақ таўлодин уялмасдин муттаҳам сўфилар.
Ошно айлаб ўзига неча дунёдорни,
Чирмашиб олгай ани бўйнига маҳкам сўфилар.
Нозили зинҳор бу маккорлардин тутгин канор,
Билмасин, ҳоли дилингни беш ё кам сўфилар. 20.8-б варақ.*

Хуллас, XVIII асрнинг охри ва XIX асрда яшаб ўтган кўпгина ўзбек ва тожик шоирлари қатори Нозил Хўжандий ҳам Алишер Навоийнинг бой ижодий меросидан кенг фойдаланиб, ундан кўпгина нарсаларни ўрганди ва улуғ адиб ижодий анъаналарини икки тилда ҳам маҳорат билан давом эттирди.

Алишер Навоий ва Нозил Хўжандий ижодларини шу аспектда ўрганиш XVIII аср охири ва XIX аср ўзбек ва тожик адабий алоқалари тарихини тадқиқ этишда муҳим аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Еттинчи том. - Тошкент: "Фан", -1991 йил. 344-бет.
2. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. - Тошкент: УзССР ФА нашриёти, 1961. 41-бет.
3. Усмон Каримов. Нозили Хўжанди. "Дониш" Душанбе-1978.
4. Эргашали Шодиев. Ўзбек-тожик адабий алоқалари тарихидан. Ф. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент-1973.
5. Шодиев Э. Традиции двуязычия в творчестве Ходжентских поэтов XIX века. (Из истории узбекско-таджикских литературных связей) Автореферат докт. диссер, Тошкент, 1973 стр. 52-58.
6. Нозил Хўжандий. "Ҳашвиётнома". ЎзФАШИФ. 17080 - рақамли фонди кўлзма фотонусхаси. Шартли равишда кўлзма варақларининг ўнг ва чап томонлари "а" ва "б" саҳифалар деб белгиланди. (А.А.).

К ВОПРОСУ О ПРОДУКТИВНЫХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ АФФИКСАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Бабакулов Исмаил Туркманович

Доктор филологических наук, профессор, Ургутского филиала Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова, г. Ургут, Узбекистан.

e-mail: ismailbabakulov@gmail.com

Аннотация: В этой статье рассматриваются некоторые аспекты продуктивных словообразовательных аффиксов русского языка. А также изучается структура всех морфологических способов словообразования.

Ключевые слова: словообразование, аффикс, суффикс, префикс, способы, продуктивные, малопродуктивные, семантика.

Аннотация: Ушбу мақолада рус тилидаги унумли сўз ясовчи аффиксларнинг баъзи жиҳатлари кўриб чиқилади. Шунингдек, сўз ясалишининг барча морфологик усулларининг тузилиши ўрганилади.

Калит сўзлар: сўз ясалиши, аффикс, суффикс, префикс, усуллар, унумли, унумсиз, маъно.

Abstract: This article discusses some features of derivational affixes of the Russian language. And also all morphological ways of word are studied.

Key words: word formation, affix, suffix, prefix, methods, productive, unproductive, semantics.

Выделяются в русском языке следующие группы продуктивных приставок и суффиксов, при помощи которых образуются прилагательные:

- 1) Приставка **без – (бес)** и суффикс **-н-:** *безразмерный, бесплатный, безрезультатный* и т.п.;
- 2) Приставка **вне-** и суффиксы **-н; -ов-, -ск-:** *внештатный, внеплановый, внеевропейский* и т.п.;
- 3) Приставки **до-, за-, и за-** и суффиксы **-н-, -ск-, -ов-** и др.: *добольничный, доисторический, заоблачный, заполтский, законный, заокский* и т.п.;
- 4) Приставка **меж-** и суффиксы **-н-, -альн; -ическ-:** *межрегиональный, межконтинентальный, межгалактический* и т.п.;
- 5) Приставки **на-, над-** и суффикс **-н-:** *набережный, подарочный, надсводный* и т.п.;
- 6) Приставка **по-** и суффиксы **-н-, -онн-, -енн-:** *послойный, пореформенный, пожизненный* и т.п.;
- 7) Приставка **при-** и суффиксы **-н-, -ск-:** *пришкольный, приусадебный, приинститутский, приволжский, приобский* и т.п.;
- 8) Приставка **пред-** и суффиксы **-ов-, -н-, -ск-** и др.: *предпусковой, прединфарктный, предвечерний, предмайский* и т.п.;
- 9) Приставка **после-** и суффиксы **-н-, -онн-:** *послеуборочный, послебольничный, послеоперационный* и т.п.

К малопродуктивным относится, например, способ образования прилагательных при помощи приставки **от-** и суффикса **-н-:** *отглагольный, отыменный*.

При образовании глаголов в различной степени продуктивны три морфологических способа словообразования: префиксальный, суффиксальный и суффиксально-префиксальный.

Префиксальный способ образования глаголов является наиболее продуктивным. От любого бесприставочного глагола путем присоединения к нему приставки возможно образовать новый глагол с иным оттенком в лексическом значении (ср. бежать – вбежать, выбежать, прибежать, отбежать и др.). Лексическое значение приставки наиболее отчетливо у глаголов движения.

Характерной особенностью глагольных приставок является наличие в их кругу приставок-антонимов, что облегчает уяснение значения приставки (ср.: *заклеить – отклеить*, а также приставок-синонимов, уточняющих лексическое значение глаголов (ср.: *выгнать – изгнать*). Некоторые приставки вносят в значение глагола экспрессивные оттенки (ср.: *возрадоваться-обрадоваться*).

Суффиксальный способ образования глаголов используется при образовании глаголов от существительных и прилагательных а также от местоимений, числительных и междометий. Суффикс **-нича- (-нича; -а-)** употребляется при образовании глаголов от названий лиц со значением «заниматься чем-либо, действовать как кто-либо»: *ло-дыр-нича-ть, мошеннича-ть, сапож-нича-ть*. Суффикс **-ова- (-ева-)** и его производные – **ствова-, -ирова-, -изирова** – образуют глаголы от существительных со значением «осуществлять что-либо»: *совет-ова-ть, господ-ствова-ть, дебатирова-ть, коллектив-изирова-ть*. От существительных и прилагательных образуются глаголы посредством суффикса **-н-со** значением «создавать известное качество или состояние»: *сор-н-ть, бел-н-ть*. От прилагательных возможно образование глаголов посредством суффикса **-е-**, имеющим значение «делаться, становиться таким-то»: *стар-е-ть, слаб-е-ть*; реже используется суффикс **-ну-:** *слеп-ну-ть, креп-ну-ть*. От междометий образуются глаголы суффиксом **-я- (оха-ть, аха-ть)** и его вариантом **-ка-** – от междометий и звукоподражательных слов (*мяу-ка-ть, ау-ка-ть*), а также суффиксом **-ну-(ахну-ть, цок-ну-ть)**.

Суффиксально-префиксальный способ образования глаголов менее продуктивен. Разновидностью этого способа является использование суффикса **-ыва- (-ива-)** и аффикса **-ся** в сочетании с приставками: *по-хаж-ива-ть, спать – вы-спать-ся* (в последнем случае можно говорить о префиксально-постсуффиксальном способе).

Среди словообразовательных суффиксов различаются непродуктивные, с помощью которых в настоящее время новые слова не образуются (например, непродуктивен суффикс **-нь:** *боле-нь, жи-нь*; суффикс **-ух:** *петух, паст-ух*), и суффиксы продуктивные, активно участвующие в современном словообразовании.

Все продуктивные словообразовательные суффиксы делятся на несколько групп:

- 1) суффиксы, служащие для образования названий предметов;
- 2) суффиксы, употребляемые для образования названий лиц (мужчин и женщин);

- 3) суффиксы, служащие для образования слов с отвлеченным значением (абстрактных);
- 4) суффиксы, служащие для образования существительных, передающих субъективную оценку.

1. Суффиксы и приставки, служащие для образования названий предметов. Среди суффиксов этой группы выделяется ряд продуктивных суффиксов, например:

1) **-льник, -лк-а**, при помощи которых образуются существительные (чаще всего от глагольных основ) со значением орудия действия, наименования прибора (*будильник, холодильник, веялка, грелка, молотилка*);

2) **-щик (-чик)**, при помощи которого образуются существительные (как от глагольных, так и от именных основ) с тем же значением (*счетчик, тральщик*; слова с этими суффиксами употребляются в разных стилях речи, но наиболее характерны для речи научно-технической);

3) **-льн-я**, при помощи которого образуются существительные женского рода со значением места действия (*читальня, красильня, купальня* и др.);

4) **-ие (-ье)**, используемый для образования (чаще всего от именных основ с приставками пространственного значения) существительных со значением места (*заречье, предгорье, всполье, подножье* и др.);

Xorijiy investorlar uchun eng katta xavotir – bu investitsiyalarni yo'qotish xavfi. Shu sababli, investitsiyalar uchun garov kafolatlari mexanizmi katta ahamiyatga ega. Bu mexanizm orqali xorijiy sarmoyadorlar o'z investitsiyalarini tavakkalchilikdan himoya qila oladilar. Bunday kafolatlar davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilishi mumkin. Ushbu kafolatlar investorlar uchun quyidagi jihatlar bo'yicha qo'shimcha ishonchni ta'minlaydi:

1. Xavfsizlikni oshirish: Garov kafolatlari investorlarning xavfsizlik darajasini oshiradi, bu esa ularning bog'dorchilik kabi yuqori tavakkalchilikka ega tarmoqqa kirishiga rag'bat beradi. Kafolatlar odatda sarmoyaning bir qismi davlat yoki xalqaro sug'urta fondi tomonidan qoplanishini nazarda tutadi.

2. Sug'urta tizimlari: Sug'urta mexanizmi orqali xorijiy investorlar o'z sarmoyalarni siyosiy tavakkalchiliklar, infratuzilma xavflari yoki texnologik nosozliklar kabi omillardan himoya qilishi mumkin. Bu sug'urta polislarining mavjudligi xorijiy kompaniyalar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ular tavakkal darajasini sezilarli darajada kamaytiradi.

3. Barqaror moliyaviy infratuzilma: Investitsiya kafolatlari orqali milliy iqtisodiyotda barqaror moliyaviy infratuzilma yaratiladi. Investorlar uchun bu xavflarni kamaytiradi va ular o'zlarini moliyaviy jihatdan himoyalangan his qiladilar.

Moliyaviy xavfsizlik va qo'llab-quvvatlash xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omillardan biridir. Davlat va xususiy sheriklik loyihalari xavflarni taqsimlash va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ishtiroki esa moliyaviy qo'llab-quvvatlashning keng doirasi orqali bog'dorchilik loyihalarini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Investitsiyalar uchun garov kafolatlari esa tavakkalchiliklarni kamaytirib, xorijiy investorlar uchun qulay moliyaviy muhit yaratadi. Ushbu mexanizmlar bog'dorchilik sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

3. Texnologiyalar va Innovatsiyalarni Jalb Qilish

Bog'dorchilikda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Sun'iy sug'orish tizimlari yoki seleksiya texnologiyalari kabi innovatsion yechimlar meva va sabzavotlarning sifati va hajmini oshiradi, bu esa xorijiy sarmoyadorlar uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi mumkin. Innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun grantlar va subsidiyalar xorijiy kompaniyalarning ilg'or texnologiyalarini bog'dorchilikda qo'llashga rag'batlantiradi.

4. Logistika va Eksport Infratuzilmasini Rivojlantirish

Xorijiy sarmoyadorlar uchun eng jozibali imkoniyatlardan biri - eksport bozorlariga kirishdir. Logistika infratuzilmasining rivojlantirilishi bog'dorchilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga eksport qilishni osonlashtiradi. Tashqi bozorlarga oson va tezkor kirish xorijiy sarmoyadorlar uchun foydali bo'lishi bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish dasturlari xorijiy bozorlar uchun mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

5. Malakali Kadrlar Tayyorlash

Xorijiy sarmoyadorlar nafaqat infratuzilma va texnologiyalarga, balki malakali ishchi kuchiga ham katta ahamiyat beradilar. Ta'lim va trening dasturlari orqali bog'dorchilik sohasida yangi bilimlarga ega mutaxassislar tayyorlanishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun mutaxassislarning mavjudligi investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Bog'dorchilik sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan sarmoyalarni rag'batlantirish, moliyaviy va qonunchilik bazasini mustahkamlash, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratadi. Ushbu mexanizmlar bog'dorchilik sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlab, global raqobatbardoshlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Abdullayeva, D.** (2021). *O'zbekiston bog'dorchilik sohasida investitsiya strategiyalari*. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyoti.
2. **Jabborov, E.** (2020). *Xorijiy investitsiyalar va ularning O'zbekistondagi ahamiyati*. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
3. **Mamatqulov, A.** (2022). *Bog'dorchilik va agroinvestitsiyalar: muammolar va echimlar*. Tashkent: O'zbekiston qishloq xo'jaligi instituti.
4. **Tashkent, R.** (2023). *Investitsion muhit va bog'dorchilik sohasida xorijiy investorlar uchun imkoniyatlar*. Tashkent: O'zbekiston ilmiy-tadqiqot instituti.

O'ZBEKISTONDA LOGISTIKANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Meliboyev J. Maxmadaminov .M Mansurov A..H

- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali biznesni boshqarish va aniq fanlar kafedrasida assistenti Tell: +998 93 703 33 03

-Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali biznesni boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) talabasi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti talabasi

Annotatsiya ushbu maqolada logistika asoslari va tushunchasi hamda logistikaning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni, O'zbekistonda logistika faoliyati haqida va uning kamchiliklari, yechimlari borasida fikr yuritiladi. Shuningdek Trans-Afg'on temir yoli loyihasi, Toshkent-Andijon va Toshkent-Samarqand pulli avtomobil yo'llari haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar-Logistika, iqtisodiyot, eksport, import, tarif, avtomobil tranziti, mintaqaviy hamkorlik, Trans-afg'on temir yoli, boj.

Kirish: Logistika— tovar va ma'lumotlar oqimini ishlab chiqaruvchidan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarida boshqarishni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Logistikaning maqsadi xarajatlarni kamaytirish va korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdir. Har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo'lgan logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag'batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

Adabiyotlar sharhi

Logistikada jarayonlarni optimallashtirishning muhim usullaridan biri bu inventarizatsiya va ombor logistika jarayonlarini avtomatlashtirish va takomillashtirish uchun texnologiya va dasturiy ta'minotdan foydalanishdir. Shunday qilib, logistika atama paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lgan va uning biznes uchun ish uchun inventarizatsiyani boshqarish tizimlari, avtomatlashtirilgan saqlash va qidirish tizimlari va uchuvchisiz havo vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. Har qanday logistika operatsiyasining yakuniy maqsadi— mijozga ularning umidlarini qondiradigan yuqori sifatli xizmatni taqdim etishdir. Transport va saqlash logistikaning asosiy vazifalaridir. Transport tovarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydi, omborxonada esa butun ta'minot zanjiri bo'ylab tovarlarni vaqtincha saqlashni ta'minlaydi. Zamonaviy biznesda raqobat kuchayib borayotganligi sababli, kompaniyalar logistikaning samarali ishlashiga bog'liq. Natijada logistika xizmatlarining ahamiyati va bu xizmatlarni taklif etuvchi kompaniyalar soni ortib bormoqda. Ta'minot zanjirining yakuniy bosqichi— tovarlarni taqsimlash va yetkazib berish— mijozlarning qoniqish darajasiga ta'sir qiluvchi muhim elementlardan biridir. Logistlar mijozning joylashuvi, etkazib berish jadvali va mijozning talablari kabi omillarni hisobga olgan holda etkazib berishning aniq amalga oshirilishini ta'minlashi kerak.

Bojxona rasmiylashtiruv va eksport-import— logistikaning muhim vazifalari. Ular mamlakat hududiga kirish va undan chiqish uchun tovarlarni rasmiylashtirish, shuningdek, xalqaro yuk tashishni boshqarish uchun zarur bo'lgan bir qator tartiblarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda oxirgi yillarda logistikani, klasterlarni, innovatsion faoliyatni, raqamlashtirishni shiddat bilan rivojlantirish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Jahon Banki tomonidan 2018 yilda chop etilgan logistika samaradorligi hisobotida O'zbekiston 160 davlat orasida 99-o'rinni egalladi. Hisobotni ishlab chiqishda bojxona samaradorligi, transport infratuzilmasi sifati, xalqaro tashimallarni tashkil qilish osonligi, soha mutaxassislarining bilim va salohiyati, yuklarni kuzatish imkoniyati va yuklarni o'z vaqtida yetkazish darajasi kabi me'zonlar hisobga olingan. Afsuski mintaqamiz LPI darajasi maqtanarli darajada emas. Bu borada respublikamiz mintaqada Qozog'istondan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi.

Logistika samaradorligini oshirish transport-jo'g'rofiy noqulay joylashgan va eng arzon transport turi bo'lgan dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri, hatto chegaradosh davlatlar orqali ham chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan bizning mamlakatda ayniqsa dolzarbdir. Respublikamiz eksportining katta qismini qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xom-ashyo tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish mahsulotlari (manufactured goods) qaraganda transport birligiga nisbatan (masalan bir tonna paxta va bir tonna tayyor yuqori sifatli to'qimachilik mahsuloti) juda arzondir. Bundan kelib chiqadiki, eksport mahsulotlarimizning so'nggi narxlarida transport xarajatlarining foiz ulushi yuqori va bu logistika samaradorligi iqtisodiyotimizda rivojlangan davlatlarga taqqoslaganda muhimroq ekanligini takidlab o'tamiz.

Orient Logistics – O'zbekiston transport logistika sektorini rivojlantirish bo'yicha hukumat dasturini amalga oshiradigan loiyha. Orient kompaniya guruhining birinchi logistika loyihasi Universal Logistics Services bo'ldi.

Uning faoliyati 2014 yilda boshlangan va ushbu davr mobaynida mahalliy va tashqi bozorlarda katta obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi. Bu konteyner, vagon, katta hajmdagi va donali yuklarni qabul qilish va ular bilan ishlash bo'yicha zamonaviy terminal bo'lib, "Chuqursoy" saralash stansiyaning yuk hududida joylashgan. Uning hududida "Chuqursoy" bojxona posti joylashgan. Terminalning umumiy maydoni 10,9 gektar, yiliga 120 000 ta konteynerni qabul qila oladi. Terminalda kirib kelayotgan vagonlar bilan ishlash uchun 6 ta temir yo'l kirish yo'llari mavjud. Ob'ekt hududida 6 000 m² dan ziyod maydonda bojxona omborxonalari hamda g'ildirakli texnikani qabul qilish uchun temir yo'l rampasi joylashgan. Terminalning asosiy xususiyati – Qozog'iston chegarasiga yaqinligi, bu esa tezkor vagon aylanmasi uchun birinchi o'rindagi ahamiyatga ega. Bu Toshkent va Vladivostok o'rtasida qatnaydigan poyezdlarni qabul qilish bo'yicha yagona terminal.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqo davomida mamlakatimiz tranzit davlat sifatida o'rni, Trans-Afg'on loyihasini mohiyati hamda yurtimizdagi pulli yo'llar loyihasini logistika faoliyatidagi ahamiyati ko'rsatib o'tildi.

Respublikamiz mintaqamizdagi eng yaxshi transport infratuzilmasiga ega. Davlatimiz hududidan 42530 km avtoyo'l, 4500 km temir yo'li (har 10000 km ga 150 km) o'tadi va mamlakatimizni mintaqaning muhim transport koridorlariga ulaydi. O'zbekistonning tranzit davlati sifatida ayniqsa Afg'oniston Islom Respublikasiga (Trans-Afg'on xalqaro transport karidori) kirish va Afg'oniston orqali Bandar Abbas va Chobahor portlariga chiqish imkoniyati Tojikiston Respublikasiga kirishi muhim hisoblanadi. Shuningdek 2024-yilning 6-may kuni Toshkentda o'tgan xalqaro investitsiya forumida transport vaziri o'rinbosari Jasurbek Choriyev tomonidan transafg'on temir yo'li haqida ham ma'lumot berildi. "Loyiha uchta davlatni bir-biriga bog'lashga yordam beradi — O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston. Temiryo'l Yevroosiyo transport yo'lagini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Natijada Markaziy Osiyo mamlakatlari Hind okeani portiga chiqish imkoniga ega bo'ladi. Trans-Afg'on temir yo'li loyihasi jadal rivojlanmoqda, chunki O'zbekiston Pokistonning Karachi, Gvadar va Qosim dengiz portlariga kirishni o'zini ustuvor maqsadi deb hisoblaydi, bu Toshkentning transport koridorlarni diversifikatsiya qilish va Yevro-Osiyo savdo hajmini oshirishga qaratilgan tashabbusi doirasida amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston tomonidan 2018-yil dekabrda ilk bor taklif qilingan Trans-Afg'on temir yo'li loyihasi Afg'oniston temir yo'li tarmog'ini Mozori Sharifdan Qobulga, so'ngra Nangarhor viloyatiga cho'zishga qaratilgan bo'lib, temir yo'li Torxam chegarasini kesib o'tib, Peshovar orqali Pokistonga o'tadi. Pokistonga kelgandan so'ng, yuklar Pokiston temir yo'l tizimiga ulanish uchun tushiriladi va u yerdan Pokistonning Karachi, Gvadar va Qosim dengiz portlariga olib boriladi. Temir yo'li yiliga 20 million tonnagacha yuk tashish quvvatiga ega bo'lardi va ishga tushgach, O'zbekistondan Pokistonga tranzit o'tadigan yuklarning yo'li vaqtini 35 kundan 3-5 kungacha qisqartiradi. Tovarlarini yetkazib berish narxi esa kamida 40 foizga pasayadi. Loyiha 2027-yil oxirigacha yakunlanishi kutilmoqda", — dedi u. Temir yo'li liniyasi 573 km bo'lishi rejalashtirilgan va 1520 mml yo'li kengligida quriladi, taxminiy qiymati 4,8 milliard dollar.

2021-yil fevral oyida O'zbekiston, Pokiston va Afg'oniston o'rtasida temir yo'l qurish rejasi ishlab chiqilgan edi. O'zbekiston Investitsiyalar va tashqi ishlar vazirligining ma'lum qilishicha, ushbu yo'nalish yo'lga qo'yilsa, 2027-yilga borib Hindiston va Pokistonning Afg'oniston va MDH mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi mos ravishda 20 milliard va 6 milliard dollarga yetishi mumkin. 19-iyul kuni Afg'onistonda temir yo'l liniyasi bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslash ishlari boshlangani e'lon qilindi. Shu bilan birga, Qozog'iston prezidenti Qosim-Jomart Tokayev Qozog'iston temir yo'l loyihasi qurilishiga harakatlanuvchi tarkib va relslarni yetkazib berish bilan yordam berishga tayyorligini ma'lum qildi. Mohiyati yildan yilga ortib borayotgan Andijon- O'sh — Saritosh — Irkeshtom — Qashqar koridori dunyo tarixidagi eng buyuk loyihalardan bo'lgan va Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan taklif qilingan «Bir makon — bir yo'l» (Belt and Road Initiative — BRI) da munosib qatnashish uchun va Xitoyni mamlakatimiz hududidan o'tuvchi yo'llar orqali boshqa mintaqalar bilan bog'lash xizmat qiladi. [Xitoyning TIR konvensiyasiga qo'shilishi](#), [Qirg'iziston orqali Xitoydan O'zbekistonga avtotransport](#) orqali amalga oshirilgan ilk transport tranzit davlati sifatidagi potensialimiz yuqoriligidan dalolatdir. Bu potensialdan foydalangan holda Turkmaniston orqali Eron va Turkiyaga, Kavkaz davlatlariga, Bojxona Ittifoqi davlatlari orqali Yevropaga chiqishimiz mumkin. Bu imkoniyatlar ayniqsa iqtisodimiz uchun bevosita va bilvosita ishlab chiqarish, transport, infratuzilma, turizm sohalarida minglab ish o'rinlari yaratishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda logistikaning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga, eksport salohiyatini kuchaytirishga va ichki bozorni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu soha ish o'rinlari yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1. **Texnologik innovatsiyalar:** Logistika jarayonlariga zamonaviy IT yechimlarini joriy etish.
2. **Ta'lim va malaka oshirish:** Logistika mutaxassislari uchun ta'lim dasturlarini takomillashtirish.
3. **Infratuzilmani rivojlantirish:** Transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish va samarali yo'l harakatini ta'minlash.
4. **Xalqaro hamkorlik:** Mintaqaviy va xalqaro darajada logistika bo'yicha hamkorlikni kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Abdullayev, B.** (2020). *O'zbekiston transport-logistika tizimining rivojlanish tendensiyalari*. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
2. **Qodirov, R.** (2021). *Logistika: nazariyasi va amaliyoti*. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyoti.
3. **Khodjaev, U.** (2022). *Transport va logistika sohasidagi innovatsiyalar*. Tashkent: O'zbekiston ilmiy-tadqiqot instituti.

TURISTIK DESTINATSIYA: KOMPLEKS TUSHUNCHA VA ASOSIY ELEMENTLARI

Meliboyev I. M.

Samarqand Davlat Universiteti Urgut Filiali assistenti. Tell: +998 93 703 33 03

Annotatsiya: Ushbu maqolada turistik *destinatsiyaning* kompleks tushunchasi va uning turistik tizimdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Turistik *destinatsiya*, nafaqat geografik joy, balki tarixiy, madaniy va tabiiy omillarni o'z ichiga oluvchi bir yig'indidir. Maqola turistik *destinatsiyaning* asosiy elementlarini, shu jumladan infratuzilma, mahalliy aholi ishtiroki va barqaror rivojlanishning ahamiyatini ko'rsatadi. Natijada, turistik *destinatsion* sayohat tajribasini boyitish va iqtisodiy rivojlanishga yordam beruvchi muhim komponent sifatida taqdim etiladi.

Kalit so'z: *Turistik manzil, Turizm, Madaniyat, Tarixiy obidalar, Infratuzilma, Sayohat tajribasi, Turistik xizmatlar, Iqtisodiy rivojlanish, Ekoturizm, Mahalliy biznes.*

Kirish: Turistik tizimning asosiy elementi turistni o'ziga tortadigan hudud hisoblanadi, u o'z sayohatini amalga oshiradigan va u bir oz vaqt o'tkazadigan joy – maqsaddir ya'ni destinatsiya. "Destinatsiya" tushunchasi lotincha "joylashuv" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, taxminan 30 yil davomida xorijiy tadqiqotchilar va turizm amaliyotchilarining kontseptual apparatining asosiy atamalaridan biri bo'lib kelgan. Keng qo'llanilishiga qaramay, "destinatsiya" tushunchasining o'zi turistik adabiyotlarda amalda alohida tahlil qilinadigan ob'ektga aylanmagan. Biroq, fan nuqtai nazaridan ham, samarali boshqaruv nuqtai nazaridan ham, "destinatsiya" tushunchasining mohiyati, tuzilishi va mazmunini tahlil qilish printsipial jihatdan muhimdir.[1]

Turistik destinatsiya — bu sayyohlar uchun mo'ljallangan va ularga turli xizmatlar, faoliyatlar, madaniy va tabiiy atraksionlar taklif etuvchi joy yoki hududdir. Bunday joylar sayyohlarning qiziqishini jalb qilish uchun turli imkoniyatlar.

Turistik destinatsiyalar sayyohlar uchun nafaqat dam olish, balki yangi tajribalar olish va madaniyatni o'rganish imkoniyatlarini ham yaratadi. Ular, shuningdek, mahalliy iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatadi, ish o'rinlari yaratadi va mahalliy madaniyatni saqlab qolishga yordam beradi. Leyperning fikriga ko'ra, turistik destinatsiya - bu turist tashrif buyurishni tanlagan va u yerda ma'lum vaqt o'tkazadigan o'ziga xos hudud, turistik infratuzilma o'rtasidagi o'zaro ta'sirning asosiy jarayonlari sodir bo'ladigan hududdir. [2]

Turizm bo'yicha eng mashhur lug'atlardan birining muallifi Medlik S. destinatsiyalar turistlar tashrif buyuradigan mamlakatlar, viloyatlar, shaharlar yoki boshqa hududlar ekanligini ko'rsatadi. Yil davomida ularning infratuzilmasi rezidentlar tomonidan doimiy ravishda foydalaniladi va yilning bir qismida yoki butun yil davomida u vaqtinchalik foydalanuvchilarni - turistlarni ham oladi. Medlik ma'lumotlariga ko'ra, ma'lum bir geografik hududning sayyohlik yo'nalishi sifatida ahamiyati uchta omil - qulaylik, diqqatga sazovor joylar va infratuzilma bilan belgilanadi. [3]

Turistik destinatsiya kompleks tushuncha bo'lib, bir nechta elementlardan iborat. Bu elementlar bir-biri bilan bog'langan holda sayyohlarning tajribasini shakllantiradi. Ularning orasida quyidagilarni kiritish mumkin:

1. **Geografik Joylashuv:** Turistik destinatsiyaning geografik joylashuvi uning qiziqarli va jalb qiluvchi bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Tog'lar, daryolar, dengizlar va iqlim sharoitlari sayyohlar uchun jozibador bo'lishi mumkin.
2. **Madaniy Meros:** Har bir joyning o'ziga xos madaniyati, an'analari va tarixi sayyohlarni jalb etish uchun muhimdir. Madaniy merosni saqlab qolish va targ'ib qilish sayyohlar uchun qiziqarli tajribalar taqdim etadi.
3. **Faoliyat Imkoniyatlari:** Sayyohlar uchun taklif etiladigan turli faoliyatlar, masalan, ekskursiyalar, sport turlari, san'at ko'rgazmalari va mahalliy festivallar, destinatsiyaning jozibadorligini oshiradi.
4. **Infra tuzilish:** Sayyohlar uchun qulaylik yaratish maqsadida transport, turar joy va boshqa xizmatlar juda muhimdir. Yaxshi rivojlangan infratuzilma sayyohlarning tajribasini yaxshilaydi.
5. **Mehmondo'stlik:** Mahalliy aholi va xizmat ko'rsatish sohasidagi insonlar sayyohlarni kutib olishda muhim ahamiyatga ega. Mehmondo'stlik sayyohlarning tajribasini yanada yoqimli qiladi.

Asosiy Elementlar

Turistik destinatsiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. **Tabiat resurslari:** Tabiiy go'zalliklar, milliy bog'lar va ekologik joylar sayyohlar uchun muhim bo'ladi. Ular tabiiy muhitda dam olish va faoliyat ko'rsatish imkoniyatini taqdim etadi.
2. **Tarixiy va madaniy obidalar:** Qadimiy qasrlar, ibodatxonalar, muzeylar va boshqa tarixiy joylar sayyohlar uchun qiziqarli bo'lishi mumkin.
3. **Turizm infratuzilmasi:** Mehmonxonalar, restoranlar, transport tizimi va boshqa xizmatlar sayyohlarning qulayligini ta'minlaydi.
4. **Faoliyat va ko'ngilochar tadbirlar:** Sayyohlar uchun mo'ljallangan turli tadbirlar, sport musobaqalari va festivallar joyning jozibasini oshiradi.
5. **Marketing va brending:** Turistik destinatsiyalarni reklama qilish va brendini shakllantirish sayyohlarni jalb etishda muhim rol o'ynaydi.

Marketing. Destinatsiyaning eng muhim jihati aynan uning turistlar uchun jozibadorligi. Destinatsiya - bu faqat ma'lum turistik resurslar to'plamiga ega bo'lgan geografik hudud emas, balki turistlar uchun jozibador bo'lgan hududdir. Shu bilan birga, turistlarni o'ziga jalb qiladigan jismoniy joy sifatida hududning o'zi emas. Turistni ushbu hududda nima borligi, bu hudud sayyohga nima bera olishi qiziqtiradi. Destinatsiyalar - bu sayyohlarning ehtiyojlari va umidlarini qondirish uchun tanlangan va bog'langan infratuzilma va xizmatlar to'plami. Bu esa marketing bilan uzviy bog'liq.

Marketing aspektining bir qismi sifatida turistning o'zi destinatsiyaning asosiy elementiga aylanadi. "Destinatsiya" tushunchasining eng muhim jihati bo'lgan manzilni talab va taklif munosabatlari tizimi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishdir. Aslida destinatsiya - bu dinamik mahsulot bo'lib, turistlarning ma'lum his-tuyg'ularga bo'lgan talabi va destinatsiya ishtirokchilarining ushbu ehtiyojlarni qondirish yoki turizm bozorida yangi segmentni topish qobiliyati natijasidir

Destinatsiya turistning ehtiyojlari, kutishlari va idrokklariga asoslangan yaxlit kompleks mahsulot bo'lib, turistik infratuzilma faqat ushbu ehtiyojlarni qondirishni ta'minlaydi. Destinatsiya turistga taqdim etayotgan taassurotlar mustaqil bozor ishtirokchilarining butun guruhi tomonidan shakllantiriladi, ularning har biri turistning sayohatning umumiy sifati va idrokiga butun mahsulot sifatida bevosita ta'sir qiladi - turizm bozori vakillari (aviakompaniyalar, turoperatorlar, mehmonxonalar, restoranlar, turistik diqqatga sazovor joylar va boshqalar), tegishli bozorlar (ko'ngilochar, dam olish va boshqalar), destinatsiyalarni boshqarish (hokimiyat organlari, davlat-xususiy sheriklik, turistik axborot idoralari va boshqalar), davlat sektori (yo'llar, sog'liqni saqlash, xavfsizlik tizimlari va boshqalar), mahalliy aholi va boshqalar.

Shubhasiz, turist tomonidan talab qilinadigan to'liq mahsulotni shakllantirish uchun, destinatsiyani rivojlantirish yagona strategiya doirasida amalga oshirilishi kerak, destinatsiyaning raqobatbardoshligini oshirish uchun turizm bozorida ishtirokchilarning turli manfaatlarini imkon qadar muvozanatli bo'lishi kerak. [4]

Destinatsiyani boshqarish turistni izchil, raqobatbardosh mahsulot bilan ta'minlash uchun ko'pincha bir-biridan farq qiluvchi elementlarni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Bu sayyohlarni targ'ib qilish, axborotlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va hokazolar bo'yicha sa'y-harakatlarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaydi. Boshqaruv sub'ekti bo'lgan manzilni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashgan davlat, jamoat, xususiy-davlat muassasalari hisoblanadi [5]

Xulosa. Turistik destinatsiya kompleks tushuncha bo'lib, uning asosiy elementlari bir-biri bilan bog'langan holda sayyohlarning tajribasini shakllantiradi. Geografik joylashuv, madaniy meros, faoliyat imkoniyatlari, infratuzilma va mehmondo'stlik sayyohlarni jalb etish va ularning qoniqishini oshirishda muhim omillardir. Shu sababli, har bir destinatsiya o'z elementlarini rivojlantirishga va saqlab qolishga intilishi zarur.

Bu esa, o'z navbatida, turizm sohasining barqarorligini ta'minlaydi. Turistik destinatsiya iqtisodiy jihatdan sayyohlar uchun qiziqarli joy bo'lib, u nafaqat xizmatlar va mahsulotlar taklif etadi, balki mahalliy iqtisodiyotga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Turizm sohasida rivojlanish uchun barqaror sarmoya, xizmatlar va ish o'rinlari muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, sayyohlik tajribasini yaxshilaydi va mahalliy jamoalarga foyda keltiradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkin, destinatsiya - bu sayyoh tashrif buyurishni tanlagan va u hududning diqqatga sazovor joylari bilan o'zaro ta'sir qilishdan taassurot, tuyg'u olish uchun vaqt o'tkazadigan jismoniy makondir. Bu sayyohlik mahsuloti bo'lib, turistlar uchun diqqatga sazovor joylar, tegishli infratuzilma va tegishli xizmatlarni o'z ichiga oladi. Destinatsiyaning marketing raqobatbardoshligi turistning idrogi bilan belgilanadi, uning qiziqishlari va ehtiyojlari turistik hududning jozibadorlik darajasini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin G'ulomxasanov, Bobur Ruziyev, Sardor Akramov TURIZMDA DESTINATSIYA, SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1601
2. Улугмурадова, Н. Б. (2012). Исследование производительности труда в зависимости от социально-трудовых отношений на предприятиях малого бизнеса Самаркандской области. Экономика. Управление. Право, (8-2), 39-41.
3. Абдурахманова, Г. К., Кадиров, Ш. М., & Улугмурадова, Н. Б. (2021). ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОФЕССИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ, НАИБОЛЕЕ ВОСТРЕБОВАННЫХ НА РЫНКЕ ТРУДА УЗБЕКИСТАНА. Вестник науки и образования, (8-1 (111)), 40-47.
4. Nazrullaevna, M. G. (2021). Management Mechanisms for Innovative Activities in Economic Systems. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 31-35
5. www.ziyonet.uz



KREDIT BERISHDA YANGICHA IMTIYOZLARDAN FOYDALANISH

Muxammadali .X

- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Urgut filiali talabasi muhammadalihusenov1423@gmail.com
Tel: +998915243207

Annotatsiya: Ushbu maqolada imtiyozli davrni, imtiyozli davrni bank -kredit sohasida qo'llanilishini, bank tomonidan iqtisodiy subyektlarga beriladigan imtiyozli davrni yanada takomillashtirish, imtiyozli davr paketlari va ularni hosil qilish, ulardan foydalanish, imtiyozli davr paketi va kredit portfelini to'g'ri shakllantirishni ko'rib o'tamiz

Kalit so'zlar: Imtiyozli davr, Imtiyozli davr paketi, Kredit portfeli, foiz imtiyozlari, asosiy qarz imtiyozi, to'liq imtiyozlar

Kirish: Kredit mablag'laridan foydalaniladigan korxonalar va tashkilotlarda kredit to'lov grafigiga qanchalar jiddiy e'tibor berilsa ham malum bir hisobga olinmagan sabablarga ko'ra mablag'ni o'z vatida to'lmaslik kuzatiladi. Xususan, korxonalar pullarining yo'llarda turib qolishi, ya'ni pullarning kelishidagi uzulishlar, yoki mavsumiy sabablar tufayli korxonalar daromadining pastlab ketish holatlari va h. Bunday holatlarda bank O'z imijini saqlab qolish, mijozga yengilliklar, imtiyozlar kiritish orqali o'rtadagi muammoni hal qilishadi. Quyida biz bu imtiyozlar qandayligini va ularni yanada takomillashtirishni ko'rib o'tamiz.

Kreditning imtiyozli davr - bu to'lovni jarimalarsiz amalga oshirish mumkin bo'lgan muddat tugaganidan keyin belgilangan vaqt. Imtiyozli davr, odatda 15 kun, odatda ipoteka krediti va sug'urta shartnomalariga kiritiladi

Imtiyozli davr – bu siz kredit bo'yicha faqat foiz to'lovlari amalga oshirishingiz mumkin bo'lgan vaqt. Bu vaqtda sizga kreditning asosiy summasini so'ndirish majburiyati yuklatilmaydi.

Imtiyozli davr qarz oluvchi yoki sug'urta mijoziga to'lovni muddatidan keyin qisqa muddatga kechiktirish imkonini beradi. Ushbu davr mobaynida kechikish uchun to'lovlar undirilmaydi va kechikish kredit yoki shartnomaning to'lanmasligi yoki bekor qilinishiga olib kelishi mumkin emas.

Imtiyozli kreditlar. Davlat dasturi asosida ajratiladigan imtiyozli kreditlar. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun davlatning maxsus fondlari yoki xalqaro moliya tashkilotlari hisobidan turli xil imtiyozlar bilan ajratiladigan kreditlar. Ushbu kredit shartlari bevosita resursni taqdim etayotgan tashkilot tomonidan o'rnatiladi.

Davlat dasturlari asosida shartlari qat'iy belgilangan imtiyozli kreditlardan tashqari har qanday bank xizmatlari bo'yicha foiz va komission to'lovlarni belgilashda banklar mustaqildirlar.

“Kredit portfeli” tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlarini ko'rsatadigan omillardandir. Kredit portfelining to'g'ri tashkil etilishi tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun asos hisoblanadi. Xususan, kredit berish va uni belgilangan muddatda qaytarib olish, u bilan bog'liq xatarlar, ssudalar, muddati o'tgan yoki uzaytirilgan kreditlar bo'yicha hisob-kitob operatsiyalari, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, zahira miqdori, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar buyicha operatsiyalar shular sirasiga kiradi.

Demak, kredit portfeli – bu turli xil risklarga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisidir.

O'zbekistonda hozirgi kunda asosiy imtiyozga ega bo'lgan kreditlar:

Ta'lim kreditlari, avto kreditlar, Ipoteka kreditlar, qishloq xo'jaligi, milliy hunarmandchilikka ajratilmoqda.

Kreditlarga berilayotgan barcha turdagi imtiyozlar asosan 3 oydan 5 yilgacha kreditlarning faqat foiz qismini to'lash imkonini beradi. Bu holatda kreditning asosiy qismini to'lash talab qilinmaydi, balki undan hisoblangan foizni hisobini to'laydi

Xulosa va takliflar. Kreditlarga qo'llanilayotgan asosiy imtiyozlar asosan bir tomonlama shaklga kelgan. Ya'ni berilayotgan imtiyozlar kreditning dastlabki yillarida faqat to'lovlarni qisqartirishga qaratilgan. Boshqa tomonlama imtiyozlar berilishi ko'rinmay qolgan.

Imtiyozli davr paketi - kreditlarga beriladigan maxsus turdagi imtiyoz bo'lib, unda ma'lum bir muddatga (1,2,3 oy) kreditni qaytarilishi bilan bog'liq to'lovlarni ma'lum bir qismini (asosiy qism, foiz qismi, to'liq qismi) to'xtatib turish imkoniyatini beradi.

Imtiyozli davr paketi bu bank tomonidan o'zining sodiq kreditorlariga beriladigan maxsus imtiyoz bo'lib, unda bank o'z kredit portfelidan kelib chiqqan holda kreditorlar to'lashi kerak bo'lgan pul mablag'larini aniq bir qismini o'zlarini xohishlaricha paketda belgilangan muddatga to'lmaslik imkoniyatini beradi. Imtiyozli davr paketi kreditga emas, kredit oluvchi tashkilotga beriladi, va ular bu paketdan faqat shu bankdan kredit olishganda foydalana olishadi.

Imtiyozli davr paketlari quydagilar bo'lishini tavsiya qilishimiz mumkin:

1. Asosiy qarz to'lanmaydi foizlari to'lanadi(Pakket belgilangan muddatda).
2. Asosiy qarz va hisoblangan foizlar ham to'lamaydi ya'ni penya va jarimalar hisoblanmaydi. (Pakket belgilangan muddatda).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://www.investopedia.com/>
2. <https://finlit.uz/>

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TARMOQLAR VA SOHALAR KESIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MUAMMOLARI.

Nematov.J

- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs magistranti. Tel:+998944741888

Annotatsiya: Ushbu maqolada Raqamli iqtisodiyot sharoitida tarmoqlar va sohalar kesimida iqtisodiy samaradorlikni oshirish muammolari borasidaso‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, texnologik yangilanish, avtomatlashtirish, blokcheyn texnologiyasi.

Аннотация: В этой статье рассматриваются проблемы повышения экономической эффективности отраслей и отраслей в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: Цифровая экономика, технологические инновации, автоматизация, технология блокчейна

Annotation: This article discusses the problems of increasing economic efficiency in sectors and industries in the context of the digital economy.

Keywords: Digital economy, technological innovation, automation, blockchain technology.

Raqamli iqtisodiyot — bu axborot texnologiyalari, raqamli platformalar va internet orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir. U global miqyosda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tarmoqlar va sohalar kesimida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va innovatsion yechimlarni joriy etish dolzarb masalalardir. Biroq, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda, bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tarmoqlar va sohalar kesimida iqtisodiy samaradorlikni oshirish muammolari tahlil qilinadi.

Raqamli Iqtisodiyotning Asosiy Xususiyatlari

Raqamli iqtisodiyot quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish: Ma'lumotlar to'plami orqali statistik analizlar o'tkazish va strategik qarorlar qabul qilish.

2. Avtomatlashtirish: Ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish.

3. Innovatsion yechimlar: Yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot va xizmat sifatini yaxshilash.

Iqtisodiy Samaradorlikni Oshirish Yo'llari

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun bir qancha yo'llar mavjud:

1. Texnologik yangilanish: Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ish jarayonlarini optimallashtirish.

2. Kadrlarni tayyorlash: Xodimlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish orqali ularning ish faoliyatini yaxshilash.

3. Integratsiya: Turli sohalar orasida integratsiyani kuchaytirish, bu esa resurslardan yanada samarali foydalanishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tarmoqlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun bir qator usullar mavjud:

- Ma'lumotlardan foydalanish: Katta ma'lumot (Big Data) tahlili orqali iste'molchilar xulq-atvori, bozor tendensiyalari haqida chuqur tushuncha olish mumkin.

- IoT (Internet of Things) texnologiyalaridan foydalanish: IoT qurilmalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish, energiya sarfini kamaytirish imkoniyatlari yaratiladi.

- Blokcheyn texnologiyasi: Blokcheyn tizimlari orqali shaffoflikni ta'minlash, xarajatlarni kamaytirish va xavfsizlik darajasini oshirish mumkin.

- Texnologik yangilanish: Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ish jarayonlarini optimallashtirish.

- Kadrlarni tayyorlash: Xodimlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish orqali ularning ish faoliyatini yaxshilash.

- Integratsiya: Turli sohalar orasida integratsiyani kuchaytirish, bu esa resurslardan yanada samarali foydalanishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyotda mavjud bo'lgan muammolar quyidagilar:

- Katta ma'lumotlar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar: Ma'lumotlarning ko'pligi ularni tahlil qilishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

- Raqobat kurashi: Yangi raqobatchilar paydo bo'lishi va bozorda o'z o'rnini saqlab qolish qiyinlashishi.

- Kadrlar tayyorlash: Raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarning yetishmasligi.

- Texnologik infratuzilma yetarlicha rivojlanmaganligi: Ko'p mamlakatlarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda to'siqlar mavjud.

- Ma'lumotlarning xavfsizligi: Raqamlashtirilgan ma'lumotlarning himoyasi muhim masala hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Raqamli iqtisodiyot sharoitida tarmoqlar va sohalar kesimida iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun innovatsion yechimlarni qabul qilish zarur. Bu jarayonda kadrlar tayyorlash, texnologik infratuzilmani rivojlantirish hamda ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash asosiy omillar hisoblanadi. Raqamlashtirish nafaqat samaradorlikni oshirishi, balki yangi imkoniyatlar ochishi ham mumkin. Bu yo'nalishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya, O'quv qo'llanma – Abdullaev O.M. 2020.
2. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) – G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. 2020.
3. Introduction to Digital Economics - Jan Arild Audestad. 2021.
4. The Economics of Digital Transformation - Katarzyna Śledziowska and Renata Włoch. 2021.
5. Principles of Digital Economics – Zhiyi Lui.

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY O‘SISHGA ERISHISH

Oblomuradov. T.X

- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetningi Urgut filiali “Biznesni boshqarish va aniq fanlar kafedrası” o‘qituvchisi, E-mail: tuychioblomuradov@gmail.com Tel: +99895 014 13 05

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq ma’mu-riyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish, soliq tizimini takomillashtirish orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va iqtisodiy o‘shishga erishish masalalari yuzasidan iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalari, soliqlarni hisoblashda ularning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqib turli xil stavkalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari, soliq yuki va stavkalarining pasaytirilishi natijasida iqtisodiy o‘shishga erishish, bilvosita va bevosita soliqlarning davlat budjetidagi salmog‘i kabi masalalar yoritilgan.

Аннотация: В данной статье изложены мнения и мнения экономистов по вопросам совершенствования налоговой политики в нашей стране, повышения эффективности налогового администрирования, последовательного снижения налогового бремени, упрощения налоговой системы и радикального сокращения налоговой отчетности, дальнейшего развития предпринимательства и достижения экономического роста в нашей стране за счет совершенствования налоговой системы, и их экономические выгоды при расчете налогов, такие вопросы, как особенности применения различных ставок исходя из их характера, достижение экономического роста в результате снижения налогового бремени и ставок, вес косвенных и прямых налогов в государственный бюджет.

Abstract: In this article, the opinions and opinions of economists on the issues of improving the tax policy in our country, increasing the efficiency of tax administration, consistently reducing the tax burden, simplifying the tax system and radically reducing tax reports, further developing entrepreneurship and achieving economic growth in our country by improving the tax system, and their economic benefits in calculating taxes issues such as specific features of applying different rates based on their nature, achieving economic growth as a result of reducing tax burden and rates, weight of indirect and direct taxes in the state budget.

Kalit so‘zlar: soliq, tadbirkorlik, daromad, foyda, soliq yuki, soliq stavkasi, davlat budjeti, davlat budjeti daromadlari, davlat budjeti xarajatlari, davlatning maqsadli jamg‘armalari, xufiyona iqtisodiyot investitsiya, iqtisodiy o‘shish, soliq ma‘murchiligi.

Mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq ma‘muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, budjet soliq siyosatini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini soliqlar orqali rag‘batlantirish hamda ularga barcha qulay shart-sharoitlarni yaratish ustuvor maqsad va vazifa bo‘lib kelmoqda. Chunki iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish orqali iqtisodiyotdagi ishsizlik darajasini nisbatan qisqartirish, moliyaviy resurslarni cheklangan sharoitda ham ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, jamoatchilik asosida innovatsion g‘oyalarni va texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarining mavjudligi bilan ifodalanadi.

Bizga ma‘lumki, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqimiz hayot sifatini oshirish bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan biri soliq tizimidir. Ayni kunga kelib, soliq tizimida ma‘lum o‘zgarishlar ro‘y berib, u jahonning ilg‘or davlatlari tajribasidan foydalanilgan holda rivojlanmoqda va takomillashtirilmoqda. Jumladan, barcha turdagi tadbirkorlik subektlari uchun soliq yuki darajasini qonuniy ravishda kamaytirish, iqtisodiyotni ustuvor tarmoqlariga soliq bo‘yicha imtiyoz va preferensiyalar berish, ularning soliq munosabatlarini optimallashtirish hamda undan tadbirkorlik subyektlari manfaatdor bo‘lishlari uchun xizmat qilishi lozim. Chunki, tadbirkorlik subyektlari uchun optimal soliq yuki ularning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantirsa, davlat budjetiga soliqlar tarzidagi doimiy daromad tushumini ta‘minlaydi.

Hozirgi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, tadbirkorlik subyektlari uchun joriy etilgan, soliqlar va maxsus rejimlar qo‘llanilishini takomillashtirish mamlakatimiz soliq siyosatining dolzarb vazifasi hisoblanadi. Hozirgi kunda tadbirkorlik subyektlari bevosita davlatimiz rahbari tomonidan qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda, ularga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha turli yengilliklar berilmoqda, natijada ushbu imkoniyatlardan foydalangan tadbirkorlar davlat budjetiga soliq qodeksida belgilangan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab, davlat va fuqarolarimiz manfaatlari uchun xizmat qilmoqda. Lekin ba‘zi bir qushtirnoq ichidagi tadbirkorlik subyektlari yaratilgan imkoniyatlarga qaramasdan noqonuniy yo‘llar orqali tadbirkorlik faoliyati bilan

shugʻillanishmoqda. Bu boʻyicha Shavkat Mirziyoyev 18 avgust kuni boʻlib oʻtgan ochiq muloqotda «Qars ikki qoʻldan chiqadi, degan gap bor.

Hozirgi kunda mamlakatimizda «xufiyona iqtisodiyot»ning ulushi juda yuqori — 40 foizdan yuqori... Biz toʻgʻri ishlayotgan, ish oʻrinlari yaratayotgan, ilgʻor texnologiyalarni joriy etayotgan, yangi mahsulotlar ishlab chiqarayotgan biznes vakillari uchun barcha sharoitlarni yaratishga tayyormiz. Lekin takror aytaman, sizlar ham koʻrib turibsizlar xufiyona, ochiqqa chiqmagan, soliq toʻlamagan odamlar yonlarida yuribdi. U bizga doʻst emas, u iqtisodiyotimizga ham, bizga ham dushman»[1], deb, qonuniy faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarga «Sizlar ham agar bunga befarq boʻlmasdan, ularniyam toʻgʻri yoʻlga solishga davlatga, prezidentga koʻmakdosh boʻlishinglar kerak. Ularga ham sizlar aytishilar kerak „Meni koʻrib turibsanku, ochiq ishlayapman, lekin sen raqobatga tayyor boʻlmay, soliq toʻlamay, yopiq ishlab, konvert bilan ishlayapsan“ deb. Shunday tadbirkorni koʻrib turibsizlar sizlar ham, lekin aytmayapsizlar»[2], «Bu faqat siyosatga emas, xalqimizga xiyonat, desak toʻgʻri boʻladi. Lekin soliqlardan qochib, oʻzining majburiyatlarini bajarmasdan kelayotgan qoʻshirnoq ichidagi tadbirkorlarga biz albatta murosasiz boʻlamiz. Sizlar ham shuni qoʻllab-quvvatlasangiz — jamiyat oʻzgaradi»»[3] — deb taʼkidlagan edilar.

Demak, hozirgi kunda soliq siyosatidagi asosiy maqsadimiz soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish va tegishli ragʻbatlantiruvchi choralarni kengaytirishdan iborat boʻlib, ushbu maqsadga erishish “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da ham yanada qatʼiy va keng qamrovli tarzda belgilab qoʻyilgan, yaʼni «...soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish va tegishli ragʻbatlantiruvchi choralarni kengaytirish[4]» muhim yoʻnalish sifatida belgilab berilgan. Shuning uchun mazkur maqolaning mavzusi muhim va dolzarb masalaga — yaʼni Mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq maʼmuriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish, soliq tizimini takomillashtirish orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va iqtisodiy oʻsishga erishish masalalarini oʻrganishga bagʻishlangan.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish, soliq maʼmuriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish, soliq tizimini takomillashtirish orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va iqtisodiy oʻsishga erishish orqali tadbirkorlikni rivojlantirish hamda iqtisodiy oʻsishga erishish boʻyicha koʻplab iqtisodchi olimlar oʻzlarining ilmiy ishlarida turli xil yondashuvdagi fikrlarini bayon etgan. Xorijiy iqtisodchilarning (J.M.Keyns, D.Lokk, V.Petti va boshqalar) ilmiy ishlarida keltirilishicha kichik biznes va tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, yaʼni uy xoʻjaligi tadbirkorligi hamda progressiv soliq solish eng baland darajada ijtimoiy adolatga erishish va daromadlar oʻrtasida farqning kamayishi haqida xulosalar keltirilgan. Ammo shu bilan birga, boshqa olimlar, jumladan R.Masgreyv, P.Masgreyv, I.V.Gorskiy, V.G.Panskov va boshqalar taʼrif berishicha faqat progressiv shkalani joriy etish muammoning yechimini topishda yagona mazmunga ega boʻlgan harakat boʻla olmaydi.

Tadbirkorlarning daromadiga soliq solishning qayta taqsimlash salohiyatidan faol foydalanuvchi davlatlarning tajribasi shuni koʻrsatadiki, adolat prinsiplarini qaror toptirish uchun soliqning progressiv stavkasini soliq chegirmalaridan keng tarzda foydalangan holda ishlatish eng afzal yoʻldir (D.G.Chernik, 2016). Oʻzbekiston iqtisodchi olimlari A.V.Vaxobov va T.S.Malikovlarning fikriga koʻra, jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj boʻlgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qoʻllanadi, yaʼni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarni bir qismi qayta taqsimlanishi eʼtirof etilgan (Vaxobov va Malikov, 2012). Iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, xorijlik olimlar tomonidan mavzu doirasida koʻplab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq, oʻzbek iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlarida soliq siyosatini takomillashtirish, soliq maʼmuriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini takomillashtirish orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va iqtisodiy oʻsishga erishish muammolari va ularning yechimlari kam oʻrganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Oʻzbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining soliq siyosatini takomillashtirish, soliq maʼmuriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq yukini izchil kamaytirish, soliq tizimini takomillashtirish orqali mamlakatimizda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va iqtisodiy oʻsishga erishish masalalariga bagʻishlangan ilmiy asarlari oʻrganilgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda har qanday mamlakatning soliq tizimi nafaqat davlat moliyaviy tizimining tarkibiy qismi sifatida, balki shu bilan birga iqtisodiy tartibga solish umumiy tizimining ham eng muhim boʻgʻinidir. Bundan tashqari, iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy rivojlanishga koʻmaklashishda soliq siyosatining samaradorligi nafaqat soliq tuzilmasi, balki soliq maʼmuriyatining samaradorligi, davlat organlarining shaffofligi va hisobdorligiga ham bogʻliq. Shunday qilib, adolatli va mutanosib soliq siyosati bilan bir qatorda soliqlarni undirish, ijro etish va boshqarishning samarali mexanizmlariga ega boʻlish juda muhimdir. Oʻzbekiston soliq siyosatida bevosita va bilvosita soliqlarning nisbiyligi nazariyasi soliqqa tortishda adolatni taʼminlashga qaratilganligini eʼtirof etish mumkin. Biroq, uning iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy rivojlanishning kengroq maqsadlariga erishishdagi muvaffaqiyati bir qancha omillarga, jumladan samarali soliq maʼmuriyatchiligi va yaxshi boshqaruvga bogʻliq.

Xulosa qilib aytganda, soliq tizimida ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish, sogʻlom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, soliq islohotlarini samarali amalga oshirishga toʻsqinlik qilayotgan quyidagi kamchilik va muammolar mavjud:

birinchidan, soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish prinsiplari eskirgan bo'lib, soliq to'lovchilarga kompleks xizmatlar ko'rsatishni, shuningdek ular tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini ta'minlamayapti; ikkinchidan, soliq sohasida imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlar mavjud emas; uchinchidan, xufiyona iqtisodiyot darajasini qisqartirishga qaratilgan, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish jarayonlarini rag'batlantiruvchi jamoatchilik nazorati mexanizmlari mukammal emas; to'rtinchidan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohasida hamda soliq organlari xodimlari faoliyatini baholashda tizimli kamchiliklar mavjud.

Ushbu kamchilik va muammolar soliq tizimini jadal rivojlantirish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish hamda soliqlar va majburiy to'lovlarning talab darajasida yig'ilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga aynan davlat soliq tizimini takomillashtirish orqali erishish masalasi muhim hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda quyidagi chora-tadbirlar ijobiy natija beradi:

1. Soliq yuki darajasini asosli ravishda kamaytirib borish. Ammo YAIMni soliqlar vositasida qayta taqsimlash va budjetga jamg'arish darajasining kamaytirilishi iqtisodiyotda ishsizlik darajasini kamayishga olib keladi. Ammo mutanosib ravishda davlat xarajatlarining qisqartirilishi yangi ish o'rinlarini yaratib, ishlab chiqarishni kengaytirishga va oxir-oqibat iqtisodiy o'sishni ta'minlashga olib keladi;

2. Soliq organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish va soliq ma'muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ko'rsatilayotgan soliq xizmatlari sifatini yaxshilash;

Комиссия аъзоси Саида Шавкатовна Мирзиёева ташаббуси билан «Хавфсиз уюрма» лойиҳаси доирасида юртимиздаги ижтимоий ҳимояга муҳтож бир минг нафар аёлларга 1 млн. сўм миқдорда хайрия маблағлари берилди. Замин фонди томонидан Карантин сабабли қийин аҳволга тушиб қолган юртдошларимизга ёрдам бериш мақсадида 5 миллиард сўм миқдоридаги хайрия маблағи республиканинг барча ҳудудларидаги ёрдамга муҳтож 5 минг нафар оилаларга йўналтирилди.

Карантин даврида ижтимоий нафақа оладиган кўп болали оилаларга ҳеч қандай ҳужжат расмийлаштирмасдан нафақа олиш муддатини 6 ойдан 1 йилгача узайтириш амалиёти жорий этилди. Хотин-қизларни тадбиркорликка кенг жалб этиш йўналишида ҳам Комиссия томонидан кенг қўламли ишлар олиб борилмоқда.

Жумладан, хотин-қизларни қўллаб-қувватлашда тадбиркорликни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилиб, 90 нафар аёл оилавий тадбиркорликка, 110 нафари ҳомийлар ҳисобидан шахсий ва ёрдамчи хўжаликларида чорвачилик, асаларичилик, қуёнчилик, иссиқхона ва бошқаларни ташкил қилиш ҳисобига, 144 нафари субсидия маблағлари ажратиш орқали ва 246 нафари бошқа йўналишларга жалб этилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги ПҚ 4235-сон Қарорига асосан ташкил этилган “Хотин-қизлар тадбиркорлик марказлари” томонидан 2020 йил олти ойи давомида 7 мингдан зиёд хотин-қизлар 11 йўналишдаги касблар бўйича ўқитилди ва сертификатлар берилди. Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ҳузуридаги Касбга ўқитиш марказларида 2020 йил январь-май ойлари давомида ишсиз деб эътироф этилган 8 415 нафар хотин-қиз касбга тайёрланди, қайта тайёрланди ва уларнинг малакаси оширилди. Ўтган давр мобайнида 172 мингдан ортиқ хотин-қизларга тижорат банклари ҳамда Аёллар ва оилани қўллаб қувватлаш жамоат фонди томонидан умумий ҳисобда 4,9 трлн. сўмлик кредитлар ажратилди.

Шунингдек, бешта муҳим ташаббус доирасида 21 500 нафар хотин-қиз қисқа муддатли профессионал курсларда ўқитилди. Натижада ўз ишینی йўлга қўйган аёллар сони бир йилда деярли 45 мингга ортиди, улар томонидан минглаб янги иш ўринлари ташкил этилди. Хусусан, 2020 йилнинг биринчи яримида пандемия билан боғлиқ вазиятга қарамай, тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйган хотин-қизлар сони 2 минг 744 нафардан иборат бўлиб, улар томонидан 4 минг 167 та иш ўринлари яратилган.

2020 йилда тижорат банклари томонидан жами 426 нафар хотин-қизларга 58 млрд. 125 млн сўмлик кредитлар ажратилди. Комиссия қошида “Тадбиркор аёллар маслаҳат кенгаши” ташкил этилиб, Европа тикланиш ва тараққиёт банки билан ҳамкорлик меморандумини имзолаш арафасида. Ушбу ҳамкорликдан кўзланган мақсад қишлоқ жойлардаги аёлларни тадбиркорликка ўқитиш ҳамда тадбиркор аёлларнинг ишлаб чиқарган товарларини жаҳон базорида рақобатбардошлик салоҳиятини оширишдан иборат.

Мамлакатимизда зўравонликдан жабр кўрган хотин-қизларга ҳуқуқий-ижтимоий ёрдам кўрсатиш йўналишида ҳам қатор ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Комиссия қошида хотин-қизлар ва оилалар билан шуғулланувчи нодавлат-нотижорат ташкилот-лардан иборат “ННТлар бирлашмаси” ташкил этилди.

Ушбу бирлашманинг вазифаси тазйиқ ва зўравонликка учраган хотин-қизларга амалий кўмак беришдан иборат. Унга ҳозирги кунда 50 дан зиёд ННТ аъзо бўлиб, уларнинг фаолияти Комиссия томонидан мувофиқлаштириб борилмоқда.

Коронавирус пандемияси даврида хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларга нисбатан тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олиш мақсадида Комиссия томонидан “ННТлар бирлашмаси” ва халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликда жорий йилнинг 10 апрелдан бошлаб “Ишонч телефони” хизмати йўлга қўйилди. Шунингдек, бу йўналишда бошқа ишлар ҳам амалга оширилмоқда[10].

2-жадвал

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг улуши (умумий ҳажмга нисбатан % да) [11]

Йил	Йил ЯИМ	Саноат	Қурилиш	Бандлик	Экспорт	Импорт
2017	63,4**	41,2	78,0	64,8	22,0	53,6
2018	60,4**	37,4	73,2	76,3	27,2	56,2
2019	54,2**	25,8	75,8	76,2	27,0	61,6
2020 (январ-декабр)***	53,9	27,5	72,4	73,8	20,5	51,8

3-жадвал

Ўзбекистон Республикаси ҳудудлари бўйича хотин-қизлар меҳнат ресурслари ва аҳоли бандлиги (минг киши)[11]

	Сони		
	Меҳнат ресурслари	Иқтисодий фаол аҳоли	Иқтисодиётда банд аҳоли

2020 йил ҳолати бўйича			
Ўзбекистон Республикаси	7656,9	5919,16	5295,84
Қорақалпоғистон Республикаси	427,6	312,68	279,72
Вилоятлар			
Андижон	701,6	554,92	494,68
Бухоро	428,2	350,68	313,44
Жиззах	309,8	239,56	213,24
Қашқадарё	724,1	533,6	474,7
Навоий	222,5	178,48	161,72
Наманган	631,8	482,12	431,2
Самарқанд	852,16	634,16	564,36
Сурхондарё	583,04	441,64	392,82
Сирдарё	194,28	150,04	133,48
Тошкент	659,6	534,6	478,2
Фарғона	827,41	645,56	575,32
Хоразм	416,96	320,32	285,48
Тошкент шаҳри	688,9	540,72	497,48

Ўзбекистонда пандемия туфайли иқтисодийнинг қўллаб соҳаларида иш билан банд бўлганлар сони камайди. 2020 йил январь-июль ойларида ишсизлик 13,2 фоизгача ўсди, 2019 йилнинг шу даврида бу кўрсаткич 9,1 фоизни ташкил этган эди. Ёшлар орасида ишсизлик даражаси 20,1%, аёллар орасида 17,4% бўлди. Шундай бўлишига қарамай, жамият ҳаётида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик билан шуғулланиши аёлларнинг бандликдаги салоҳияти янада ошмоқди. Айниқса 18–40 ёшгача бўлган аёлларнинг кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик секторидаги фаоллиги сезиларлидир. Масалан, мамлакатимизда жами фаолият юритаётган тадбиркорларнинг 40%ни аёллар ташкил этади.

Маълумки, Ўзбекистонда хотин-қизлари ўртасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликдаги улуши, иқтисодий фаоллигини ошириш, умуман, ҳаётнинг барча жабҳасини модернизация қилишдаги иштирокини кенгайтириш мақсадида қуйидаги жадваллар асосида жадвалларни кўрсатиб ўтишни лозим топдик.

Яна шуни таъкидлаш керакки, қишлоқ жойларида яшайдиган аёллар кўпроқ қишлоқ хўжалиги соҳасида фаолият юритаётган бўлсалар, шаҳар жойларида яшаётган аёлларимиз чеварлик, тикувчилик, қандолатчилик, косметология, таълим бериш (репетиторлик), соғлиқни сақлаш ва маиший хизмат кўрсатишнинг турли соҳаларини кенгрок қамраб олганлар. Ҳозирги кунда бу каби соҳалар қишлоқ жойларида ҳам маълум даражада ривожланмоқда [12].

Аёлларда инсон капитали юқори даражада мужассамлиги боис улар ҳозирда нафақат кичик ва ўрта бизнесда, балки инновациялар, юқори технологиялар соҳаларида ҳам муваффақиятли фаолият юритиб келмоқдалар.

ЎзЛДП фракциясининг маълумотларига кўра, 2020 йил охирига келиб мамлакатимизда охириги 10 йил давомида кичик бизнес субъектларини бошқараётган аёллар 1,6 марта кўпайди. Ҳозирги вақтда мамлакатимиз хусусий секторида мавжуд корхоналарнинг 120 мингдан зиёдини, фермер хўжалиқларининг 4 минг 550 дан ортигини хотин-қизлар самарали бошқариб келмоқда. Stat.uz маълумотларига кўра 2021 йил 1 январ ҳолатига кўра аҳоли сони 34 млн 649 минг 058 нафардан ортиқ.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2021 йил 7 март куни мамлакатимиз хотин-қизларига йўллаган табригида қуйидаги статистик маълумотлар эслатиб ўтилди. “Ҳар бир оила – тадбиркор” дастури доирасида 126 мингга яқин аёлларга имтиёзли кредитлар берилди. Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш учун қарийб 215 минг оилага 6 триллион сўмдан зиёд кредит маблағлари ажратилди. Қарийб 55 минг нафар хотин-қизлар тадбиркорлик ва касб-хунар марказлари томонидан ўқитилди, хунармандчилик ва касаначиликка жалб этилди. “Беш муҳим ташаббус” доирасида чекка ҳудудларда тикувчилик цехлари ташкил этилиб, 10 минг нафар аёллар бандлиги таъминланди. Уй-жой сотиб олиш учун 1 минг 250 нафар опа-сингилларимизга қарийб 22 миллиард сўмлик бошланғич бадаллар тўлаб берилди” [13].

“Хотин-қизларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ҳукумат қарори кўра, “Аёллар дафтари”га киритилган ва тадбиркорлик билан шуғулланиш истагида бўлган хотин-қизларга БҲМнинг 150 бараваригача (33 млн 450 минг сўм) миқдорда кредитлар ажратилади.

Ўзбекистон қасаба уюшмалари Федерацияси, Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги раҳбарияти бошчилигида республика ишчи гуруҳи тузилиб, барча ҳудудларда аёлларни қийнаётган муаммолар аниқланди. Ушбу муаммолар бўйича манзилли иш олиб бориш учун мутлақо янги тизим – “Аёллар дафтари”ни жорий этилди. Кейинги 3 ойда республика комиссияси томонидан ушбу “дафтар” га киритилган 80 минг нафар хотин-қизнинг муаммолари ҳал этилди. Ижтимоий ҳимояга муҳтож, турмуш шароити оғир аёлларнинг 32 минг нафари иш билан таъминланди. Инқирозга қарши курашиш жамғармаси маблағлари ҳисобидан салкам 17 минг нафар хотин-қизга амалий ёрдамлар кўрсатилди.

Шунингдек, Халқ депутатлари туман (шаҳар) кенгаши томонидан тасдиқланган рўйхатлар асосида “Аёллар дафтари”га киритилган хотин-қизларга БҲМнинг икки бараваридан тўрт бараваригача (446 минг сўмдан 892 минг сўмгача) миқдорда бир марталик моддий ёрдам берилиши мумкин.

Бир марталик ёрдам олган хотин-қизлар “Аёллар дафтари”дан чиқарилмаган ёки бир йил ичида қайта киритилган ҳолларда бир марталик моддий ёрдам бир календарь йили давомида бир мартага берилади.

Бундан ташқари, секторлар раҳбарлари ҳамда туман (шаҳар) маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғининг хулосаси асосида “Аёллар дафтари”га киритилган хотин-қизларга турар жой ижара компенсацияси тўлаб берилади.

Турар жой ижараси тўғрисидаги шартнома 2021 йил 31 декабрга қадар бўлган муддатга тузилиб, тўловлар ижарага берувчига тўғридан-тўғри тўланади[14].

Умуман олганда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги ПҚ 4235-сон Қарорига асосан ташкил этилган “Хотин-қизлар тадбиркорлик марказлари” томонидан, Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази, “Тадбиркор аёл” Ўзбекистон ишбилармон аёллар ассоциацияси, Савдо-саноат палатаси ҳамда Иқтисодиёт ва саноат вазирлигининг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар хотин-қизлар кўмиталари кўмагида нодавлат ноғижорат ташкилот мақомига эга бўлган “Хотин-қизлар тадбиркорлик марказлари”ни (кейинги ўринларда марказлар деб юритилади) ташкил этди.

Қуйидагиларни марказларнинг асосий вазифалари этиб белгиланган:

- Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги билан ҳамкорликда узоқ муддат бола парваришлаш таътилида бўлган, мушкул иқтисодий аҳволга тушган аёлларни меҳнат бозорида талаб этилаётган касблар бўйича қайта тайёрлаш ва уларнинг ишга жойлашишига кўмаклашиш;
- тадбиркорлик билан шуғулланиш истагини билдирган аёлларни марказларга жалб этиш ва тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишга кўмаклашиш;
- аёлларнинг ўз бизнесини ташкил этиш ва юритиш кўникмаларини шакллантириш, бизнес ғояларини тайёрлашда консултив ёрдам бериш, шу жумладан, лойиҳа бизнес-режасини тайёрлаш, солиққа тортишнинг турли режимларини танлаш ва қўллаш, бухгалтерия ҳисобини юритиш, замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш ва бошқа йўналишлар бўйича ўқитишни ташкил этиш;
- зарур ҳолларда, фаолиятини бошлаётган тадбиркор хотин-қизларга маҳаллалардаги бўш турган бинолардан жой ажратилишига кўмаклашиш;
- тадбиркор аёлларга ва тадбиркорлик билан шуғулланиш истагини билдирган хотин-қизларга ўз бизнесини ташкил этишда зарур маслаҳатлар бериш ва амалий ёрдам кўрсатиш, шу жумладан, ишончли ҳамкорларни топиш, минитехнологиялар ва ускуналар сотиб олишда кўмаклашиш, ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг реализация қилинишига кўмаклашиш;
- норасмий фаолият юритаётган ҳунарманд аёлларга рўйхатдан ўтиш, “Хунарманд” уюшмасига аъзо бўлиш орқали солиқлар ва бошқа турдаги имтиёزلардан фойдаланишда ҳамда имтиёзли кредит олишда амалий ёрдам кўрсатиш[15].

ХУЛОСА. Аёлларни уларга муносиб меҳнат билан бандлигини таъминлаш масаласи бўлиб, аёллар учун доимий иш жойлари яратиш мақсадида оилавий бизнес, касаначилик, хунармандчилик, томорқа хўжалигини кенг ривожлантириш ишларини жадаллаштиришни такомиллаштириш мақсадида қуйидаги таклифларни айтиб ўтиш ўринли бўлади.

- аёлларнинг ижтимоий ҳимоясини замонавий андозаларда жорий этиш;
- тадбиркорлик соҳасида аёллар саводхонлигини ошириш, малака даражасини яхшилаш мақсадидатурли курсларни (имтиёзли)ташкил этиш ва ўқув марказлари фаолиятини кенгайтириш;
- меҳнатда банд бўлган аёлларни қўллаб-қувватлашда имтиёзли ёндашувларни қўллаш;
- меҳнат биржаларида меҳнат билан банд бўлмаган аёлларни иш билан таъминлаш тизимида алоҳида тадқиқотлар олиб бориш ва муаммоларини ўрганиш ҳамда шу асосда бандлик хизматини яхшилаш;
- қишлоқ жойларида яқка тартибдаги тадбиркорлик фаолиятини юритиш учун мулкка эгалик ҳиссини кучайтириш;
- касаначиликни ривожлантириш асосида янги иш жойларини барпо этиш ва бунда замонавий соҳаларни ўзлаштириш.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимизнинг оқила, ораста, ишбилармон ва тадбиркор аёллари ҳар бир соҳа ривожига муносиб ҳиссаларини қўшиб борсалар, мамлакатимиз иқтисодиёти янада ривожланиб, юқори самараларга эришиб бориши муқаррар. Зеро, ўзбек аёлининг иқтисодиётдан қўшаётган ҳиссаларини ва маънавиятини юксалишига бераётган хизмати беқиёс хизмати, балки ўтмиши ва бугуни келажакимизнинг ҳам асосий ўлчовидир.

Фойдаланилган адабиётлар (References)

1. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. –Т.: Ўзбекистон, 2008.
2. Манба: Демоскоп weekly. Электронная версия бюллетеня Население и общество. Центр демографии и экологии человека Института народнохозяйственного прогнозирования РАН. –Москва. №377-378. <http://esa.un.org/unprp>.
3. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик. // Статистик тўплам. – Т.; 2016. – 160 б.
4. Арипов О. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда аёлларнинг ўрни//“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил
5. Арипов О.А. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш. – Т.: Фан, 2012. – 272 б.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 18.04.2017 йил ПФ-5016-сонли «Ўзбекистон Республикаси хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш ва рақобатни ривожлантириш давлат кўмитасини ташкил этиш тўғрисида»ги фармони; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралда ПФ-5325 «Хотин-қизларни кўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Президент Фармони;
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йилдаги ПҚ-2746-сонли “Кичик ва хусусий тадбиркорликни микрокредитлаш тизимини янада кенгайтириш ва содалаштириш чора-тадбирлари”ги Қарорлари
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартда ПҚ-4335-сон “Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорлик фаолиятини кўллаб-қувватлашга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 март куни ПҚ-5020- сон “Хотин-қизларни кўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори
10. <https://www.xabar.uz/jamiyat/tadbirkor-ayol-associaciyasi-hukumatga-xotin-qizlar12/07/2018>.
11. 08/02/2021 <https://www.stat.uz/>дан олинди.
12. <https://www.genkom.uz/uz/menu/istorija> дан олинди.
13. “Халқ сўзи” газетаси 2021 йил 7 март №48(7848) сони
14. Эргашева Д. “Аёллар дафтари”га киритилган хотин-қизларга тадбиркорлик билан шуғулланиши учун кредитлар ажратилади. <http://hudud24.uz/> дан олинди.
15. Абдуллаев С. Аёлларга тадбиркорлик масаласида ёрдам кўрсатувчи янги марказлар ҳақида//07/03/2019 <https://qalampir.uz/>

УЙ-ЖОЙ ҚУРИЛИШИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ВА ИНДИВИДУАЛ ФИРМАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Диярова М.И-

СамДАҚУ, таянч докторант

Тел: +998939630002 e-mail: maxlishka0022@umail.uz

Аннотация: Ушбу мақолада кичик қурилиш бизнесининг ҳолати бўйича танланма маълумотлар таҳлили ва йирик қурилиш фирмалари фаолияти билан таққослаш асосида кичик қурилиш фирмаларининг афзалликлари исботланади. Қурилиш соҳасидаги кичик қурилиш бизнесининг камчиликлари аниқланади. Бу камчиликлар, аввало, меҳнатга ҳақ тўлаш тизими билан боғлиқ экани таъкидланади. Уй-жой қурилиш бўйича кичик ва индивидуал фирмаларни кўллаб-қувватлаш зарурати бўйича таклифлар асосланади.

Калит сўзлар: фирма, қурилиш фирмаси, кичик фирма, индивидуал қурилиш фирмаси, молиявий натижалар, рентабеллик, фаоллик.

Аннотация: В статье на основе анализа выборочных данных о состоянии в малом строительном бизнесе и сравнения с деятельностью крупных стройфирм доказываются преимущества малых стройфирм. Выявлены недостатки малого строительного бизнеса в строительной отрасли. Отмечается, что это прежде всего связано с организацией оплаты труда. Обосновывается предложения о необходимости поддержки малых и индивидуальных фирм по строительству жилья.

Ключевые слова: фирма, строительная фирма, малая фирма, индивидуальная стройфирма, финансовые результаты, рентабельность, активность.

Annotation: The article, based on the analysis of sample data on the state of small construction businesses and comparison with the activities of large construction firms, demonstrates the advantages of small construction firms. The shortcomings of small construction businesses in the construction industry are identified. It is noted that these shortcomings are primarily related to the organization of labor remuneration. Proposals for the necessity of supporting small and individual housing construction firms are substantiated.

Keywords: firm, construction firm, small firm, individual construction firm, financial results, profitability, activity.

Ривожланган бозор иқтисодиётига эга мамлакатлар тажрибаси кичик хўжалик юритиш шакллариининг бир қатор афзалликларини кўрсатиб берди. Ҳозирги вақтда кичик тадбиркорлик субъектлари ялпи ички маҳсулотнинг (ЯИМ) 50% дан ортигини шакллантирмоқда ва аҳоли умумий сонининг 51,1 фоизидан 69,5 фоизгача иш ўринлари билан таъминламоқда. Кичик бизнес иқтисодиётдаги энг кичик ўзгаришларга, истеъмолчиларнинг афзалликларига тезкор жавоб бера олади, бу эса бир томондан аҳолининг ўсиб бораётган эҳтиёжларини тўлароқ ва ўз вақтида қондиришга, иккинчи томондан эса бутун иқтисодий тизимнинг мослашувчанлигига замин яратади.

Меҳнатни ташкил этиш жиҳатидан ҳам кичик бизнеснинг бир қатор афзалликлари мавжуд. Одатда, кичик меҳнат жамоаларида ижобий микромуҳит шаклланади, бу эса фаолият самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади. Шу тариқа, улар иш билан таъминлашнинг мослашувчан шакллари (тўлиқ бўлмаган

бандлик, мослашувчан иш жадвали ва ҳ.к.) қўллашга кўпроқ мойил бўладилар, бу билан муҳим ижтимоий вазифани ҳам бажарадилар.

Шунинг учун миллий иқтисодиётда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда кичик бизнесга катта роль берилади. Бироқ ҳозирча бизнинг иқтисодиётимизда кичик бизнес умумий ҳолда яхши ривожланмаган. Ўзбекистонда бу секторда асосий иш билан банд бўлган ходимлар умумий ишчилар сонининг ¼ қисмидан кўпини ташкил этмайди. Кичик корхоналар айланмасидаги улуш эса жами ҳажмининг тахминан 26 фоизини ташкил этади.

Иқтисодиётнинг асосий тармоқларидан бири — бу қурилиш соҳаси. Унинг 2023 йилда мамлакат ЯИМини шакллантиришдаги ҳиссаси 7,5% ни ташкил этди. Мамлакат иқтисодий тизимининг барқарорлиги учун қурилиш соҳасининг, хусусан, уй-жой қурилиши аҳамиятини инобатга олган ҳолда, бу турдаги фаолиятнинг турли ривожланиш жиҳатлари, шу жумладан, кичик хўжалик юритиш шакллари алоҳида эътиборга лойиқдир.

Статистик маълумотларга кўра, Ўзбекистонда қурилиш соҳасида кичик хўжалик юритиш шакллари анча кенг тарқалган. 2023 йилда иқтисодий фаолият тури бўйича қурилиш соҳасида амалга оширилган ишлар ҳажмининг 67% дан ортиғи кичик бизнес сектори ҳиссасига тўғри келди. 2023 йилда кичик қурилиш фирмалари қурилиш соҳасида банд бўлганларнинг 53,5% ни ташкил этди. Бандлик тузилмасида кичик фирмалар катта роль ўйнайди — фақатгина кўчмас мулк операциялари соҳасида 58% бандлик айнан кичик фирмалар ҳиссасига тўғри келади.

2023 йилда кичик қурилиш фирмаларида 1 226,6 минг киши меҳнат қилди. Кичик қурилиш фирмаларининг айланмаси 1 630,8 миллиард сўмни ташкил қилди (2023). Кичик қурилиш фирмалари сони ва уларда ишлайдиган ходимлар сони бироз қисқарганига қарамай, уларнинг айланмаси ўсиб бормоқда.

Эътиборга молик жиҳат шундаки, ушбу секторда асосан ўртача 2 нафар ходимга эга бўлган микроқурилиш фирмалари (эҳтимол, директор ва бухгалтер) фаолият кўрсатади. Абсолют кўрсаткичларда микроқурилиш фирмалари айланмаси кичик қурилиш фирмаларига нисбатан анча паст бўлса-да, бир ходимга тўғри келадиган айланма кўрсаткичи улар ўртасида катта фарқ қилмайди.

Индивидуал тадбиркорлар орасида мазкур иқтисодий фаолият тури унчалик оммалашмаган. Амалда фаолият юритаётган индивидуал тадбиркорларнинг 4,4% қурилиш ишлари билан шуғулланади, шунингдек, индивидуал тадбиркорлик соҳасида банд бўлган ёлланган ходимларнинг 3,2% қурилиш фаолиятига жалб қилинган. Бу, эҳтимол, қурилиш-монтаж ишларини амалга ошириш учун катта моддий-техник базага эга бўлиш зарурати, соҳадаги ўз-ўзини тартибга солувчи субъектлар билан ҳамкорлик қилиш, шунингдек, кадрлар таркибига қўйилган талабларни қондириш кераклиги билан боғлиқ.

Қурилиш соҳасида фаолият юритаётган индивидуал тадбиркорларнинг даромади йил сайин ошиб бора-да, уларнинг қурилиш-монтаж ишлари бозоридаги ресурс имкониятлари ҳануз етарли даражада эмас. Бу улар фаолиятининг самарадорлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Шу билан бирга, қурилиш фирмалари учун кадрлар таъминоти муаммоси жуда долзарбдир. Инновацион иқтисодиёт шароитида, айниқса, қурилиш-монтаж ишлари соҳасида, юқори технологияли фаолият муҳим аҳамият касб этади, бу эса ходимлардан алоҳида ихтисослашган тайёргарликни талаб қилади. Ачинарлиси, кичик қурилиш объектларида иш ҳақи паст даражада. Бу барча омиллар қурилиш ривожланишига салбий таъсир кўрсатади, хусусан, бизнеснинг ривожланишини жиддий тўсиб турган муаммолардан бири катта солиқ юки, буюртмалар етишмаслиги, буюртмачиларнинг тўловга қобилиятсизлиги, материаллар, конструкциялар ва маҳсулотларнинг юқори нархи, шунингдек, қурилиш бозоридаги кучли рақобатдир.

Умуман олганда, уй-жой қурилиши кичик қурилиш бизнесининг асосий фаолият турларидан биридир. Ўзбекистонда 800 дан ортиқ кичик қурилиш фирмалари фаолият юритмоқда (бу уларнинг умумий сонининг тахминан 17% ни ташкил қилади), уларда 8 мингдан ортиқ ходим меҳнат қилади (кичик корхоналарда банд бўлганларнинг 15% атрофида). Кичик қурилиш фирмаларининг айланмаси 816 миллиард сўмдан ортиқ бўлиб, бу кичик бизнеснинг умумий айланмасининг 13% дан кўпроғини ташкил қилади.

2022 йилда уй-жой қурилиши билан шуғулланувчи кичик субъектларнинг умумий корхоналар доирасидан ташқари активлар улуши 38%, муомаладаги активлар улуши 44%, капитал ва резервлар улуши 50%, ва қисқа муддатли мажбуриятлар улуши 44% ни ташкил этди. Бу рақамлар қурилиш соҳасининг ривожланмаганлигини яна бир бор тасдиқлайди. Молиявий ҳолат уларнинг кўпчилигини ўртача 3 нафар ходимга эга бўлган микросубъектлар ташкил этишини кўрсатади. 2023 йилда микросубъектларнинг корхоналар тўлиқ доирасидан ташқари активлар улуши 24%, муомаладаги активлар улуши 24%, капитал ва резервлар улуши 26%, қисқа муддатли мажбуриятлар улуши эса 23% ни ташкил этган. Бу ҳолат кичик қурилиш бизнесининг молиявий жиҳатдан заифлигини ва уларнинг салоҳияти етарли даражада ривожланмаганлигини кўрсатади.

Уй-жой қурилиши билан шуғулланувчи кичик қурилиш фирмалари учун ҳозирча юқори даромаддорлик (фойда) хос эмас. Қурилиш соҳасидаги йирик фирмаларнинг молиявий натижалари кичик хўжалик юритиш шакллариининг афзалликларини аниқ тасдиқлай олмаяпти. Масалан, 2018-2019 ва 2020-2021 йилларда бутун қурилиш соҳасидаги сальдо молиявий натижаси манфий бўлган. Уй-жой қурилиши билан шуғулланувчи фирмалар гуруҳи бўйича эса 2022-2023 йилларда сальдо ижобий бўлса-да, муттасил пасайиб борган: 2022 йилда 66% га, 2023 йилда эса яна 30% га тушган (икки йил давомида пасайиш 4,3

баробарни ташкил этган). Солиштириш учун: микросубъектларнинг 2023 йилдаги сальдинирланган молиявий натижаси 31 баробар юқори бўлган (1-жадвал).

Бу рақамлар кичик қурилиш фирмалари учун даромаддорлик ва самарадорлик муаммолари мавжудлигини ва йирик фирмалар билан рақобатлашишда уларнинг заиф позицияда эканини кўрсатади. Ушбу кўрсаткич кичик қурилиш фирмалари гуруҳи бўйича 2022-2023 йилларда ижобий қийматларга эга бўлди. Шунингдек, сўнгги икки йил давомида кичик қурилиш фирмалари секторида бу кўрсаткич 55% дан ошди, микроқурилиш фирмаларида эса ўсаятган кўрсаткич икки баробардан ҳам кўпроқ бўлди.

Таъкидлаш жоизки, 2023 йилда микроқурилиш фирмалари рентабеллик бўйича кичик қурилиш фирмаларидан юқори натижаларга эга бўлган. Зарар кўраётган фирмаларнинг умумий кичик қурилиш фирмалари сонига нисбатан улуши 19,6% ни ташкил этади, микроқурилиш фирмаларида бу кўрсаткич 10,0%, уй-жой қурилиши фирмаларида эса 12,5% ни ташкил қилади. Умумий қурилиш соҳаси бўйича бу кўрсаткич 15,8% га тенг, республика иқтисодий бўйича эса 23,4% ни ташкил этади (2023 йил).

Кичик хўжалик юритиш шакллари асосий камчиликлари меҳнат ҳақи билан боғлиқ. Кичик қурилиш фирмаларида иш ҳақи соҳа бўйича ўртача кўрсаткичдан анча паст — 7 607 минг сўм, бу соҳа ўртачаси бўйича 9 149 минг сўмга нисбатан 1,5 барабар кам. Микроқурилиш фирмаларида эса бу кўрсаткич янада паст — 6 218 минг сўм.

Меҳнат ҳақидаги катта тафовут, шунингдек, қурилиш соҳасида бир фирмага тўғри келадиган ўртача ходимлар сони (ташки ўриндошлар ва фуқаролик-ҳуқуқий шартномалар бўйича ишлаган ходимларни қўшган ҳолда) ўртача 5 нафар, микроқурилиш фирмаларида эса атиги 3 нафарни ташкил қилиши (улардан бири раҳбар ва иккинчиси, эҳтимол, бухгалтер) катта миқёсда яширин бандлик мавжудлигини кўрсатади. Қурилиш соҳасидаги ишлар кўп меҳнат талаб қиладиганлиги билан тавсифланади, шу боис мазкур ходимлар сони расмий меҳнат бозорида акс этмаслиги мумкин.

1-жадвал

Самарқанд вилояти бўйича кичик қурилиш фирмалари фаолиятининг танлаб олинган молиявий кўрсаткичлари*

Кўрсаткичлар	Кичик қурилиш субъектлари				Уй-жой қурилиши бўйича фирмалар	
	Жами		Жумладан микроқурилиш фирмалари			
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Қурилиш фирмалари фаолиятдан олинган сальдоланган молиявий натижа (фойда минус зарар), млн. сўм.	10075	32558	4482	7503	758	568
Ўтган йилга нисбатан %	128,8	132,3	110,2	167,4	103,2	74,9
Кичик субъектлар (фирмалар) (микросубъектларни ҳам ўз ичига олган ҳолда)нинг молиявий натижалар бўйича тақсимооти (молиявий ҳисобот маълумотларига кўра):						
- фойда келтираётган субъектлар (фирмалар) сони	18	19	9	9	7	7
- Фойда суммаси, млн. сўм.	36,675	91,217	66,141	80,539	6,928	6,261
- Зарар кўраётган субъектлар (фирмалар) сони	2	1	1	1	1	1
- Зарар суммаси, млн. сўм.	6600	8659	1659	3036	1170	5193
Фойда келтираётган қурилиш компания-ларининг умумий қурилиш компания-лари сонидagi улуши (бухгалтерия ҳисоботи маълумотларига кўра), %	80,4	80,4	90,0	90,0	87,5	87,5
Зарар кўраётган қурилиш компанияларининг умумий қурилиш компаниялари сонидagi улуши (бухгалтерия ҳисоботи маълумотларига кўра), %	19,6	19,6	10,0	10,0	12,5	12,5
Сотилган маҳсулотлар (ишлар, хизматлар) рентабеллиги (бухгалтерия ҳисоботи маълумотларига кўра), %	5,2	6,3	5,4	6,6	4,8	5,4
* Муаллиф томонидан кичик қурилиш субъектлари ва уй-жой қурилиши бўйича фирмалар тадбиркорлари ўртасида ўтказилган сўров натижасида тузилган.						

Бу тахминни меҳнат самарадорлиги кўрсаткичига нисбатан айланма ҳажми — ҳар бир ходимга тўғри келадиган кичик қурилиш корхоналарининг айланма ҳажми ҳам тасдиқлайди. Кичик қурилиш фирмалари ходимларининг меҳнат самарадорлиги йирик фирмаларникидан юқори бўлишига ишониш қийин. Меҳнат самарадорлигининг асосий омили моддий ишлаб чиқариш соҳасида — моддий-техника базаси эканлиги маълум, ва кичик қурилиш фирмалари секторида бу база анча заифдир. 2023 йилда кичик қурилиш фирмалари умумий айланмасида уларнинг тузилмадан ташқари активлари улуши 38% ни ташкил этган, бу эса йирик фирмаларга нисбатан кам ресурс базасига эга эканлигини кўрсатади. Шундай қилиб, қурилиш соҳасида кичик бизнеснинг устунлиги бу соҳада кичик хўжалик юритиш шакллари сезиларли афзалликларини кўрсатади. Мавжуд ресурслардан самаралироқ фойдаланишни кўрсатувчи кўрсаткичлардан бири — кичик қурилиш фирмаларининг умумий қурилиш-монтаж ишларидаги, активлар, капитал ва

мажбуриятлардаги улуши ўртасидаги нисбатдир. Бунинг тасдиғи сифатида уларнинг молиявий кўрсаткичлари йирик қурилиш фирмалари кўрсаткичларига нисбатан яхшироқ эканлиги ҳам айтилади.

Кичик қурилиш фирмаларидаги асосий камчиликлар ходимларни бошқариш ва уларнинг меҳнат ҳақини ташкил этиш билан боғлиқ. Моддий-техника базасининг анча заифлиги ва иш ҳақининг паст даражасига қарамасдан, меҳнат самарадорлигининг юқори бўлиши бу фирмаларда яширин бандлик ва «конвертдаги» иш ҳақи кенг тарқалганлигини тахмин қилишга асос бўлади. Бу, ўз навбатида, мамлакат иқтисодиётининг ушбу муҳим соҳасини барқарор ривожлантиришга жиддий тўсиқ бўлиши мумкин, чунки бундай вазиятда ишчилар ижтимоий қафолатлардан маҳрум бўлиб, бу уларнинг ишга бўлган қизиқиши ва ташкилотга садоқатини камайтиради. Бундай шароитда ишчилар тўлиқ қонуний ишга таклиф этилишга тайёр бўлишади, бу эса кичик қурилиш фирмалари учун жиддий муаммоларга олиб келиши мумкин, чунки уларда ишчи кучлари сони оз бўлади.

Шубҳасиз, мамлакат иқтисодиётининг барқарор ривожланиши учун қурилиш субъектларининг аҳамиятини инобатга олган ҳолда, айниқса уй-жой қурилишини қўллаб-қувватлаш чораларини кучайтириш зарур. Буни амалга ошириш учун молиявий имтиёзлар, солиқ юқини енгиллатиш, лойиҳаларга сармояларни рағбатлантириш, ресурсларга осонроқ кириш имконияти яратиш ва техник базани такомиллаштириш каби чоралар қўрилиши лозим. Бундай ёрдам қурилиш соҳасининг барқарор ўсиши ва кичик қурилиш фирмаларининг ривожланишига туртки бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Чжан Нанъань. Определение эффективности инвестиций в комплексную жилую застройку с участием иностранного капитала // Автореферат на соиск. учен. степ. канд. экон. наук. - Санкт-Петербург, 2013.- 21 с.
2. Девлетов И.Х., Маманазаров О.Ш. Современные проблемы развития жилищного строительства в Узбекистане // Бюллетень Наука и практика. 2020. Т. 6. № 3.- С. 295-298. <https://doi.org/10/33619/2414-2948/52/35>.
3. Нурибетов Р.И., Давлетов И.Х. Совершенствование структуры жилищного строительства в Узбекистане // Жилищные стратегии. 2017. Т. 4. № 1.- С. 23-36.
4. Девлетов И.Х. Вопросы оптимизации структуры жилищного строительства в современных условиях // Экономика и финансы (Узбекистан). 2017. № 8.- С. 44-50.
5. Ипотечное кредитование жилищного строительства: Учеб. пос. /С.А.Баронин, В.В.Бочкарев и др.; под общ. ред. С.А.Барониной и др.- М.: НИЦ ИНФРА-М., 2014.- 189 с.
6. Теняков И.М. Современный экономический рост: источник, факторы, качество: Монография. - М.: Экономический факультет МГУ имени М.В.Ломоносова, 2015.- 176 с.

КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИ КРЕДИТЛАШНИ АМАЛДАГИ ҲОЛАТИ ВА ТАҲЛИЛИ

Махмудов Ж. Э¹ Бахриддинов С. У.

Самарқанд Давлат Университети Ургут Филиали доценти

Телл: +998 94 889 97 77

Самарқанд Давлат Университети Ургут Филиали талабаси

Аннотация: Ушбу тадқиқотнинг мақсади кичик бизнес субъектларини рақамли технологиялардан фойдаланиш орқали кичик бизнесни ривожлантириш усуллари ўрганишдан иборат. Бунда кичик бизнес субъектларини кредитлашни ривожлантириш муҳим аҳамият касб этиши ёритилган, шунингдек, кичик бизнес субъектларини кредитлашда рақамли технологиялардан фойдаланиш ҳамда уларнинг таҳлили юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: кичик бизнес, инновация, анъанавий иқтисодиёт, рақамли технологиялар, янги иқтисодиёт, рақамлаштириш, экотизим.

Аннотация: Целью данного исследования является изучение методов развития малого бизнеса за счет использования цифровых технологий субъектами малого предпринимательства. При этом было отмечено, что большое значение имеет развитие кредитования субъектов малого предпринимательства, а также разработаны предложения и рекомендации по использованию цифровых технологий в кредитовании субъектов малого предпринимательства и их анализу.

Ключевые слова: малый бизнес, инновации, традиционная экономика, цифровые технологии, новая экономика, цифровизация, экосистема.

Abstract: The purpose of this study is to explore the methods of small business development through the use of digital technologies by small business entities. In this, it was highlighted that the development of lending to small business entities is of great importance, as well as suggestions and recommendations were developed regarding the use of digital technologies in lending to small business entities and their analysis.

Keywords: small business, innovation, traditional economy, digital technologies, new economy, digitization, ecosystem.

Кириш. Дунёнинг кўпгина мамлакатлари ва минтақаларига тарқалган COVID-19 пандемияси глобал иқтисодиётга жиддий таъсир кўрсатди: айрим йирик саноат корхоналари ва кичик бизнес ташкилотлари фаолиятларини вақтинча тўхтатишга мажбур бўлишди. Рақамли иқтисодиётга бўлган қизиқиш жамият ва иқтисодиётда рўй берган жиддий ўзгаришлар туфайли сезиларли даражада ўсди. Замонавий технологиялар ва платформалар мижозлар, ҳамкорлар ва давлат ташкилотлари билан шахсий мулоқотни минималлаштириш ҳисобига корхоналар ва жисмоний шахсларга харажатларни қисқартиришга ёрдам берди, шунингдек, ўзаро мулоқотни янада тез ва осон йўлга қўйишга имконият яратди. Натижада тармок ресурсларига асосланган, рақамли ёки электрон иқтисодиёт пайдо бўлди. «Рақамлаштириш» сўзи аслида янги атамга бўлиб, инновацион бошқарув ва иш юритиш жараёнига ИТ ечимларнинг жалб этилишини, бунинг самараси ўлароқ эса интернет буюмлардан тортиб, электрон ҳукуматгача бўлган барча тизимларда ахборот технологияларини қўллашни кўзда тутди.

Иқтисодиётнинг рақамли сегментига тегишли бош манба – тракзакцион секторнинг ўсишидир. Ривожланган мамлакатларда бу кўрсаткич ЯИМнинг 70 фоиздан ортиқ миқдорни ташкил этиб, давлат бошқаруви, консалтинг ва информацион хизмат кўрсатиш, молия, улгуржи ва чакана савдо, шунингдек, хизматлар соҳасини (коммунал, шахсий ва ижтимоий) бирлаштиради. Шу билан бирга, рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматнинг ривожланиш ҳолатини самарали рейтинг баҳолаш тизими ҳамда уни амалга оширишнинг идоралараро механизмнинг йўқлиги иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларни рақамли трансформацияси ҳозирги ҳолатини чуқур таҳлил қилишга тўсқинлик қилмоқда.

Ваҳоланки, рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматнинг ривожланиш ҳолатини самарали рейтинг баҳолаш тизими ҳамда уни амалга оширишнинг идоралараро механизмнинг йўқлиги иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларни рақамли трансформацияси ҳозирги ҳолатини чуқур таҳлил қилиш долзарб масала эканлигидан далолат беради.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Илмий адабиётларда рақамли иқтисодиёт ҳамда кичик бизнес тушунчасига турлича таъриф ва талқинлар келтирилган ҳамда барқарор иқтисодиётни ривожлантиришда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг ўрни ва аҳамияти илмий асосланган. Жумладан, Академик С.С.Ғуломов (2021) рақамли иқтисодиётга – ахборот, жумладан, шахсий ахборотдан фойдаланиш ҳисобига барча қатнашчиларнинг эҳтиёжларини максимал даражада қондириш унинг ўзига хос хусусияти бўлган иқтисодиётдир, дея таъриф келтирган. А.В.Кешелава, В.Г. Буданов, В.Ю. Румянцев (2018) ва бошқалар рақамли иқтисодиётнинг моҳиятини тушунтириш мақсадида “гибрид олам” тушунчасини киритишган. Уларнинг фикрига кўра, “рақамли иқтисодиёт” – бу гибрид олам шароитида мавжуд бўладиган иқтисодиётдир. Ушбу таърифда “рақамли иқтисодиёт” атамасини ёзишда атайлаб қўштирноқ белгисидан фойдаланишган. Чунки улар умумий иқтисодиёт таркибида алоҳида ажралиб турадиган “рақамли иқтисодиёт” деган воқелик йўқ деб ҳисоблашади. Г.Н. Андреева (2018) ва бошқалар муаллифлигида нашр этилган монографияда қуйидагича таъриф келтирилади: “Рақамли иқтисодиёт – бу технорақамли шаклдаги товар ва хизматларни ишлаб чиқариш, тақсимлаш, айирбошлаш ва истеъмол қилиш билан боғлиқ иқтисодий муносабатларнинг тизимли йиғиндисидир.

В.И. Ткач (2018) эса “рақамли иқтисодиёт” атамасининг моҳиятини қуйидагича таърифлайди: “Рақамли иқтисодиёт – бу рақамли платформалар, алгоритмлар, булутли инфратузилмаларнинг кенг қўлланилиши ва жамиятдаги ижтимоийахлоқий жиҳатлардаги ўзгаришлар ва хавфсизлик ва синергияни бошқариш шароитида интеллектуал капиталдан фойдаланишга эътибор қаратиб, глобал, макро, мезо ва микро даражаларда мулк ва ялпи ички маҳсулотнинг барқарор иқтисодий ривожланишига йўналтирилган кишилар, бизнес ва буюмларнинг кенг қўламли тузилмасидир”. М.Никрем ва бошқалар (2016) келтирган таърифга кўра, рақамли иқтисодиёт – бу “рақамли” ресурслар ҳисобига амалга оширилган ишлаб чиқаришнинг умумий иқтисодий ишлаб чиқариш ҳажмидаги улуши. Ушбу рақамли ресурслар рақамли малакаларни, рақамли ускуналарни (аксессуар ва бутловчи қисмлар, дастурий таъминот ва алоқа ускуналари), ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланиладиган оралик рақамли маҳсулот ва хизматларни ўз ичига олади.

Маҳаллий олимлардан Муминов Н.Г. ва Захирова Г.М (2020) лар иқтисодиётни рақамлаштиришда ва электрон савдони ривожлантиришда давлат харидлари тизимининг аҳамияти катта эканлигини таъкидлаганлар.

Ҳозирги замон иқтисодий адабиётларида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолияти тўғрисида ягона илмий таърифга келингани йўқ. Масалан, А.Бусигин (1992) хусусий секторга фойда (даромад) олиш мақсадидаги иқтисодий фаолликнинг махсус тури сифатида таъриф беради. Бу фаолиятининг мақсади деб, шундай товарни ишлаб чиқариш ва сотишни тушунадики, у бозорда талабга эга бўлиб, тадбиркорга фойда келтириши лозим бўлсин. У кичик бизнесни иқтисодий фаол соҳа деб ҳисоблаб, бунинг асосини фойда олишга йўналтирилган мақсадли фаолият, тадбиркорлик фаоллигини эса, фойда олиш мақсадида маҳсулот ишлаб чиқариш ва сотиш бўйича фаолиятнинг ўзини тушуниш тарзида ифодалайди. Натижада, кичик бизнес тушунчасининг мазмуни бозорда талабга эга бўлган маҳсулотни ишлаб чиқариш ва сотиш бўйича мақсадли фаолиятни англатади.

Хорижий иқтисодчи олим М.Юнус (2010) томонидан кичик бизнес субъектларини молиявий қўллаб-қувватлаш борасида фикр билдирилган ҳолда янги фаолият бошлаган кичик бизнес субъектларини

кредитлашда асосий эътибор кредитлашнинг ижтимоий самарасига қаратилиши кераклигини таъкидлаган. Кичик бизнес субъектларининг молиявий имкониятлари кенгайдандан сўнгра бозор ставкаларида бериладиган кредитларга бўлган талабнинг ошиши мазкур олим томонидан қайд этилган.

Шунингдек, ахборотлаштириш ва рақамлаштириш жараёнини иқтисодиёт соҳасида такомиллаштириш бўйича маҳаллий олимларимиздан Ж.Х.Камбаров, Н.Ж.Махмудова (2016) лар ўзининг илмий ишларида саноат иқтисодиёти телекоммуникация қоидаларини белгилашда, техник стандартларни белгилашда тадқиқот ва инновацияларни қўллаб - қувватлашда муҳим роль ўйнади, бу эса ўз навбатида инновацион иқтисодиётнинг янги сектори-рақамли бозорни пайдо бўлишига ёрдам берди деган фикрларни билдирган. Шунинг учун, замонавий рақамли инқилоб асосан бозор ва технологик янгиликлар билан боғлиқ. Ишлаб чиқариш фаолияти ва хизматларининг аксарияти ахборот технологиялари орқали олинган. Бу аср ахборотни ахборотлаштириш ва рақамлаштириш асрига айланди.

Шунингдек, И.Ю.Умаров (2020) томонидан ёзилган илмий мақолада рақамли иқтисодиёт шароитида инновацион бошқаришда бизнес самарадорлигини ошириш йўллари бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган. Л.В. Лapidус (2018) ўз тадқиқотларида рақамли технологиялар эволюцияси таъсири остида бизнес моделларини ўзгартириш нуктаи назаридан электрон бизнес ва электрон тижоратни бошқариш бўйича назарий қоидалар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш стратегиясини амалга ошириш Давлат дастурида: “Рақамли иқтисодиёт ишлаб чиқаришнинг асосий омили рақамли маълумотлар, катта ҳажмларни қайта ишлаш ва таҳлил натижаларини қўллаган ҳолда, анъанавий бошқарув шакллари билан таққослаганда, турли хил ишлаб чиқариш, технологиялар, ускуналар, сақлаш, сотиш, товар ва хизматларни етказиб бериш самарадорлигини сезиларли даражада ошириши мумкин” деган фикр билдирилган.

Юқоридаги бир қатор иқтисодчи олимларнинг фикрларини инobatга олган ҳолда бугунги кунда тижорат банкларининг инвестиция фаолияти кенгайтирилишини янада рағбатлантириш, иқтисодиёт тармоқларини модернизация қилиш, техник ва технологик қайта жиҳозлашга йўналтирилган узоқ муддатли инвестиция лойиҳаларини молиялаш ҳажмларини ошириш учун уларнинг ресурс базасини мустаҳкамлаш лозим.

Тадқиқот методологияси. Ушбу мақолани тайёрлашда меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, фойдаланилган адабиётлар ва интернет маълумотлари расмийлиги, ундаги иқтисодчи олимларнинг мавзуга оид илмий-назарий қарашларининг қиёсий ва танқидий таҳлили, илғор хориж тажрибасини ўрганиш ва умумлаштириш натижаларига ҳамда таклиф ва тавсияларнинг амалиётга жорий қилинганлиги билан белгиланди. Мавзунинг ўрганиш давомида умумиқтисодий усуллар билан бир қаторда тизимли таҳлил, умумлаштириш, абстракт-мантиқий фикрлашдан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар.

Рақамлаштириш жараёнини анча аввал бошланган мамлакатларда пандемия рақамли иқтисодиётни, рақамли технологияларни, электрон тижоратни ривожлантиришни, шунингдек, етказиб бериш хизматлари ва логистикани модернизация қилишни жадаллаштирди. Мазкур соҳа нисбатан яхши ривожланмаган мамлакатларда ҳам пандемия рақамлаштиришга бўлган эҳтиёжни ва талабни ошириб, ушбу жараёнларни тезлаштирди ҳамда янги шароитларга мослашишни тақазо қилди.

Бугун рақамли технологиялар барча соҳаларга ва одамлар ҳаётига жадал кириб борапти. Мамлакатимизда ҳам рақамли иқтисодиётни ривожлантириш энг муҳим вазифага айланган. Президентимизнинг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида 2023 йилга бориб рақамли иқтисодиётнинг мамлакат ялпи ички маҳсулотига улушини 2, ушбу соҳадаги хизматлар ҳажмини 3 баравар ошириш, улар экспортини 100 миллион АҚШ долларига етказиш вазифаси қўйилган.

Кичик бизнес субъектларининг фаолияти кўлами туфайли чекланган молиявий ва кадрларга оид ресурслар, шунингдек, бизнесни диверсификация қилишнинг мавжуд эмаслиги, кичик ташкилотларда молиявий бошқарув усуллари тизими энг муҳим функциялар ва бошқарув объектларига қаратилиши керак.


Шу билан бирга, молиявий бошқарув усуллари кенг қамровли ва юқори маълумотга эга бўлиши керак. Кичик ташкилотлар молиявий бошқарувига стратегик ёндашувни амалга ошириш доирасида таъсирчанлиги тўғридан-тўғри бошқарув субъектига боғлиқ бўлган молиявий бошқарувнинг асосий услубларига алоҳида эътибор қаратишлари керак.

Демак, функционал нуктаи назардан кичик бизнес субъектларида молиявий бошқарув тизимининг асосий элементлари режалаштириш, таҳлил қилиш ва назорат қилиш кабилардан иборатдир. Аналитик тартиб-таомиллар нуктаи назаридан чекланган миқдордаги молиявий таҳлил усуллари доирасида кичик ташкилотнинг ҳолати тўғрисида энг тўлиқ маълумотни олиш муҳим ҳисобланади.

Аввало, бундай усуллар молиявий ҳолатни ҳар томонлама баҳолашга имкон берадиган ва шу билан бирга таҳлил қилинаётган кўрсаткичларнинг ўзгариш тенденцияларини ҳисобга олишга имкон берадиган омилли таҳлилни ўз ичига олади.

Кичик ташкилотларда молиявий таҳлилга ўхшаш ёндашув қўллаб олимлар томонидан тадқиқ этилган.

Қуйидаги 1-расмда кичик тадбиркорлик субъектларида молиявий бошқарувнинг асосий услублари тизими, шунингдек, таъкидлаб ўтилган усулларнинг бир-бири билан ўзаро боғлиқлиги кўрсатилган.



1-расм. Кичик бизнес субъектларида молиявий бошқаришнинг асосий усуллари тизими

Мамлакатимизда кичик бизнес субъектларини молиявий қўллаб-қувватлаш борасида меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган, жумладан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги ПҚ-3777-сонли “Ҳар бир оила - тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги Қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги ПФ-5242-сонли “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги ПФ-5466-сонли “Ёшлар-кеलाжгимиз” Давлат дастури тўғрисидаги Фармонлари. Мазкур Қарор ва Фармонларда белгиланган вазифаларни самарали ижросини таъминлаш мақсадида оилавий тадбиркорликни ривожлантириш, хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ҳамда ёшларни тадбиркорлик фаолиятини рағбатлантиришга тижорат банклари томонидан кредит маблағларини йўналтириш борасидаги чора-тадбирлар фаол тарзда амалга оширилмоқда, мазкур кредитлар ҳисобидан ҳудудларда жами 20 мингдан ортиқ янги иш ўринлари яратилишига эришилган. Хусусан, 2021 йилда аҳолига тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун 6,8 трлн. сўм миқдоридан кредитлар ажратилганлиги мазкур соҳани ривожлантириш ва аҳолини иш билан таъминлаш орқали даромадларини оширишга қаратилган чора-тадбирларнинг фаол тарзда амалга оширилаётганлиги билан изоҳланади.

Мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига инвестиция мақсадлари ва бошланғич капитални шакллантириш учун кредитлар ажратишни кенгайтириш ҳамда микрокредитлаш ҳажмини ошириш орқали аҳолини, айниқса, кам таъминланган оилаларни тадбиркорлик фаолиятига кенг жалб қилиш ва уларнинг турмуш фаровонлигини оширишга қаратилган сиёсатнинг юритилиши ижобий натижаларга эришиш имконини бермоқда.

Рақамли иқтисодиётнинг кенг жорий этилиши ишлаб чиқариш самарадорлигининг ортишида, янги тармоқ ва соҳаларнинг ривожланишида, хизматлар сифати ва уларни кўрсатишнинг оптималлашишида, иқтисодиётнинг инсон манфаатларига хизмат қилиши ва бу орқали ҳаёт сифатининг яхшиланишида муҳим ҳисобланади.

1-жадвал

Кичик тадбиркорликни молиявий қўллаб-қувватлаш учун ажратилган кредитлар (асосий йўналишлар бўйича) (млрд.сўм)

Асосий йўналишлар	Йиллар				
	2017	2018	2019	2020	2021
Барча молиялаштириш манбалари ҳисобидан ажратилган кредитлар, жами	19564,7	30648,9	55430,0	48389,7	59552,1
<i>шундан:</i>					
Ажратилган микрокредитлар	4015,0	6205,9	10777,5	10194,3	15092,4
Оилавий тадбиркорлик ва хунармандчиликни Ривожлантиришга		668,5	1136,1	6078,5	8566,3
Хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантиришга	3582,2	6547,8	8772,2	5959,8	18176,6
Аёллар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлашга	2782,3	3361,5	4499,8	4895,9	7756,8
Аҳолига тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун		1748,7	4906,3	3602,1	6830,0
Хорижий кредит линиялари ҳисобидан (млн. АҚШ доллари)	521,8	1039,3	1633,7	2139,0	1756,2

Рақамли технологиялар даражасининг динамик тарзда ортиб бориши ривожланган мамлакатларга янада қудратли бўлиш, рақамли технологиялар эвазига тезроқ риожланиш имкониятини тақдим этса, ривожланаётган мамлакатлар аксинча, рақамли технологияларни яратиш ёки сотиб олиш катта маблағни талаб этиши эвазига ривожланиш даражасида кескин сакрашлар кузатилмади. Кичик бизнес субъектлари фаолиятини ривожлантиришда рақамли иқтисодиёт технологиялардан самарали фойдаланиш молиявий

активлар, тўловлар тизими, меҳнат, товар ва хизматлар бозорини янгича ташкил этиш, уларни инновацион асосларда ривожлантириш борасида катта имкониятлар тақдим этади.

Рақамли иқтисодиёт ривожланган давлатларда ЯИМ ҳажми ҳам, ЯИМнинг аҳоли сон бошига улуши ҳам юқоридир. Шу жиҳатдан, давлатимиз раҳбарининг бу масалага давлат миқёсида эътибор қаратиши бир мақсадни кўзлайди, у ҳам бўлса, биринчидан, аҳолининг яшаш даражасини юксалтириш, иккинчидан, аҳолининг реал даромадларини оширишдир.

Хулоса ва таклифлар. Мамлакатимизда кичик бизнес субъектлари фаолиятини ривожлантиришда рақамли иқтисодиёт технологиялардан самарали фойдаланишни таъминлаш борасида амалга оширилган илмий изланишлар жараёнида қуйидаги хулосалар шакллантирилди:

1. Рақамли иқтисодий муносабатлар тизимидир. Рақамли иқтисодиёт жуда кўп афзалликларга эга. Бу тўловларнинг нархини пасайтиради ва янги даромад манбаларини очади. Онлайн хизмат кўрсатиш харажатлари аноанавий иқтисодиётга қараганда паст (биринчи навбатда таннархни камайтириш ҳисобига) ва хизматларнинг ўзлари ҳам ижтимоий, ҳам тижорат жиъатидан анча арзонроқдир. Бундан ташқари, рақамли дунёда товарлар ва хизматлар жаъон бозорига тезда кириб, дунёнинг исталган нуқтасига кириш имкониятига эга бўлади. Таклиф этилаётган маҳсулот истеъмолчининг янги истақлари ёки эҳтиёжларини қондириш учун дарҳол ўзгартирилиши мумкин. Рақамли иқтисодиёт, ҳар хил ахборот, таълим, илмий ва кўнгилочар контентларни тез, яхши ва қулайроқдир тақдим этади.

2. Кичик бизнес субъектлари фаолиятини ривожлантиришда рақамли иқтисодиёт технологиялардан самарали фойдаланишни ривожлантириш бошқа мамлакатлар каби, Ўзбекистон учун ҳам унинг дунё миқёсидаги рақобатбардошлигини белгилаб берадиган стратегик аҳамиятга молик масалалардан бири ҳисобланади. Шунинг билан олиш керакки, Ўзбекистонга бугунги кунда мақбул келадиган тадбир қисқа даврда – биринчи навбатда, технологик ортда қолишдан қутулишдир. Ҳозирда эса мамлакатимизда зарур миқдордаги тўлақонли иқтисодиёт субъектлари йўқлиги туфайли етук ва тўлақонли рақамли иқтисодиётни ўз-ўзидан шакллантириш учун шарт-шароитлар йўқ. Бу эса давлатимизга рақамли иқтисодиётнинг ривожланишини учун шарт-шароитлар яратиш, уни энг керакли соҳаларга йўналтириш ва бу жараёни имконият даражасида рағбатлантириш зарурлиги кўрсатади.

3. Рақамли иқтисодиёт ахборот-коммуникацион ва иқтисодий ҳамда молиявий инновацион технологияларнинг ривожланганлиги, шунингдек, биргаликда гибрид дунёда барча иқтисодий фаолият субъектлари, яъни товарлар ва хизматлар яратиш, тақсимлаш, айрибошлаш ва истеъмол қилиш жараёни объектлари ва субъектларининг тўлақонли ўзаро алоқа қилиш имкониятини таъминлайдиган инфратузилма очиклиги туфайли алоҳида ўринга эга бўлиши мумкин. Шунингдек, кичик бизнес субъектлари фаолиятини ривожлантиришда рақамли иқтисодиёт технологиялардан самарали фойдаланишни учун барча иқтисодиёт объектлари ва субъектлари сезиларли рақамли таркибий қисмларга эга бўлиши лозим.

4. Рақамли иқтисодиётнинг энг фаол драйвери – бу давлатдир. У рақамли иқтисодиётнинг асосий буюртмачиси ва истеъмолчисидир. Масалан, Хитой бу мақсадлар учун 9 млрд доллар атрофида маблағ сарфлаган. Бозор капитализацияси 210 млрд. доллардан зиёд бўлган Alibaba интернет ресурси ушбу сармояларнинг тўғри сарфлаганлигини исботлади. Рақамлаштиришдан максимал фойда олишни истаган давлат, зарурий юқори технологик маҳсулотларнинг бозорини яратиши ва уни қўллаб-қувватлаши лозимдир. Шу билан бирга, параллел тарзда давлат бошқаруви, муҳим соҳалар ва корхоналар учун хусусий иловаларни ривожлантирган ҳолда, электрон иқтисодиётнинг асосий платформаларини назорат қилувчи инструментларни ўз измида сақлаб қолиш ҳам муҳим ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Gulyamov S.S. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar: O'quv qo'llanma / 2021, 126-6
2. Акбердина, В.В. (2018). Трансформация промышленного комплекса России в условиях цифровизации экономики. Известия Уральского государственного экономического университета, 19(3), 82-99. <https://doi.org/10.29141/2073-1019-2018-19-3-8>.
Yuqoridagi bayt shuni anglatadiki, sham tong otgunigacha har qanday sharoitda yonishda davom etadi, shuningdek insonlar ham duch kelgan barcha azob, fojia, og'riqlarni yengishga majbur. Faqat o'limdan keyin inson mavjudlik muammolaridan qutulishi mumkin. Ushbu juftlik G'olibning o'limiga qadar azob-uqubatlarga to'la bo'lgan hayotini aks ettiradi. [5]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasan, Muhammad Aziz. *Tasavvurat - e - Ghalib / Muhammad Aziz Hasan*. – New Delhi: Ghalib Academy, 1987. 212 p.
2. William Shakspeare. *The Tragedy of Macbeth*. – Cambridge: University Press, 1965. 208 p.
3. Altaf Hussain Hali. *Yadgar e Ghalib*. – Ghalib Institute, New Delhi. Paperback, 1996. 438 p
4. Edgar Allan Poe. *The Letters of Edgar Allan Poe (Tom 1)*. – New York: Gordian Press, 1966 730 p.

Chishti, Yusuf Saleem. *Sharah diwan-e-ghalib*. – New Delhi, 1992.



MIRZO G'OLIB HAYOT YO'LI VA DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI

Abdusalimov Abror Vali o'g'li

SamDU Urgut filiali Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi +998886143113,
abrorabdusalimov94@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Mirza G'olib hayoti, oilasi, ilk sabog'i, ustozlari, dastlabki ijodi, uning dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan shaxslar, boshidan o'tkazgan qiyinchiliklar haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: *Mirzo Asadullaxon G'olib, Bedil, Mir Taqi Mir, "Maykhana-i Arzu", Raja Ram Mohan Roy, "Dastanbo.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлены сведения о жизни Мирзы Галиба, его семье, первых уроках, учителях, начальных произведениях, лицах, оказавших влияние на формирование его мировоззрения, а также о трудностях, с которыми он сталкивался.

Ключевые слова: *Мирза Асадуллахан Галиб, Бедил, Мир Таки Мир, "Майхана-и Арзу", Раджа Рам Мохан Рой, "Дастанбо.*

ABSTRACT

The article provides information about the life of Mirza Ghalib, his family, early teachings, mentors, initial works, individuals who influenced the formation of his worldview, and the difficulties he faced.

Keywords: *Mirza Asadullaxon Ghalib, Bedil, Mir Taqi Mir, "Maykhana-i Arzu", Raja Ram Mohan Roy, "Dastanbo.*

KIRISH

Mirza G'olib Urdu tilida ijod qilgan eng taniqli va ko'p qirrali shoiri sifatida qaraladi. U shuningdek, adabiy sohadagi fors tilidan ham yaxshigina xabardor edi. U kuchli va qizg'in ravishda hayot kechirdi. Shafqatsiz haqiqatgo'y, oshkora samimiy, umuminsoniy xayrixohlik xislatlari va liberal dundoqarashga ega Mirzo G'olib o'z o'zini hurmat qilishning himoyachisi edi. Bundan tashqari, u fikr va harakatda mustaqil, yangilikka ishtiyoqmand va boshqalar yurib o'tgan yo'ldan yurishni xohlamas, o'z yo'liga ega bo'lishni xohlar edi.

Nihoyatda ta'sirchan bo'lish bilan birga G'olib, yetuk va yuksak salohiyatga ega edi. U o'zi tasavvur qilgan va boshidan kechirgan boy tajriba va mukammal dunyoqarashga ega inson edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mirzo Asadullaxon G'olib 1797 yil 27 dekabrda Agra shahrida tug'ilgan. Uning ajdodlari turkiylardan bo'lgan, shuning uchun u o'zini turk deb atagan va kelib chiqishi bilan faxrlangan. Otasi Abdullabek Agralik aslzoda oiladan chiqqan harbiy qo'shin zobiti Hoja Mirza G'ulom Husaynning qizi Izzat-al-Nisaga uylangan. "G'olib ning otasi Laknau shahridagi Noib Asafuddaula xizmatida bo'lgan va keyinchalik harbiy xizmat yuzasidan dastlab, Haydarobodda, so'ngra Alvarda bo'ladi va u yerda 1802 yilda qo'zg'olonni bostirish chog'ida otishmada vafot etgan. O'sha paytda G'olib besh yoshda edi. Ziyoli bo'lgan onasi o'zi bilimli bo'lib, uni tarbiyalagan va unga to'g'ri g'amxo'rlik qilgan. Loharu Noibi Ahmad Baxshning singlisi bilan turmush qurgan va farzandsiz bo'lgan amakisi Nasarullabek uni (G'olibni) opasi Choti Xonim va ukasi Yusufbeklar bilan birga qo'llab-quvvatlashni o'z zimmasiga oladi. Nasrullohbekning o'limidan so'ng, Noib Ahmad Baxshning tavsiyasiga binoan Lord Leyk tomonidan G'olib oilasi uchun ulush tayinlanadi. Otasi xizmat vazifasini bajarayotgan paytida vafot etgani evaziga Alvardan ham pul ajratiladi. Ularning ona tomonidan bobosi va buvisi ham badavlat odamlar edi va umuman olganda, ular o'sha paytda hashamatli hayot kechirishgan. Boquvchisidan ajralgan va haddan tashqari hashamatda ulg'aygan G'olib butun umri davomida pushaymon bo'lgan past va chirkin odamlar guruhi ichiga kirib qoladi." [1]

Otasining o'limiga qaramay, G'olib onasining bu borada judayam ehtiyokkorligi sababli ta'limdan chetda qolmagan. O'z ona tilisi bo'lgan urdu tilidan tashqari, o'zining she'riy hamda nasriy ijodining katta qismini egallagan fors tilida ham yaxshi natijalarga erishadi. U shuningdek, Arab tilidan ham ozroq xabardor edi. Uning birinchi ustozlari uning iste'dodini ko'rib hayratga tushgan Mulla Muhammad Muazzam edi. "Bundan tashqari, Eronlik o'qimishli sayyoh Mulla Abdul Samad ham shoirga fors tilini o'rganishda katta yordam ko'rsatdi, bu haqda o'zining sevimli kitobida katta hurmat va ehtirom bilan eslatib o'tadi. U 1810 yilda G'olib 14 yoshda ekanligida Hindistonga sayyoh sifatida kelgan. Mirza G'olib u bilan birga turib, ikki yil davomida undan ta'lim oldi. G'olib Dehliga ko'chganida uni o'zi bilan Dehliga olib ketadi va Mulla Hindistonni tark etganida ham unga maktub yozib turadi." [2]

Shuningdek, uning haqiqiy ustozlari uning o'zi va unga katta ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy muhit edi. G'olib bolaligida Agrada yashagan, bu shahar, ayniqsa, uning davrida fors tilini o'rganish markazlaridan biri bo'lgan. Gulabxonona fors adabiyoti va she'riyatiga qiziqadiganlar uchun markaz bo'lib, bu hudud G'olibning intellektual shakllanishida muhim o'rin tutgan. Keyinchalik shoir ko'chib o'tgan Dehlidagi muhit ham uning uchun ta'lim va ilhom manbalaridan biri bo'ldi. U yerda G'olibning yaqin do'sti va raqbatchisi bo'lgan shoir Zavqi (Ibrahim Zavqi), boshqa yirik shaxslardan Alloma Fazlul Haq Xairabodiy, mashhur islom ulamosi, Shoh Ismoil Dehlaviy va Sayid Ahmad Barelvi, Shoh Abdul Aziz kabi diniy arboblari, shuningdek, tanqidchi va adib Noib Mustafo Xon Shayifta kabi ustozlari yashar edi.

G'olib o'n yoki o'n bir yoshidan she'r yozishni boshlagan. Dastlab, u urdu tilida yozishga odatlangan bo'lib, yigirma besh yoshigacha ikki mingga yaqin she'rlar yozgan. Unga faoliyatining boshida Asir va Shavkat, ayniqsa Bedil singari shoirlar kuchli ta'sir ko'rsatishgan. Mir Taqi Mir uning bir nechta she'rlarini ko'rgach: "agar bu bola uni to'g'ri yo'lga boshlaydigan munosib ustoz topsa, noyob shoirga aylanadi, aksincha bo'lsa ma'nosiz

narsalar yozadi" deydi.[2] Ammo, G'olib ma'nisiz narsalar yozmadi va ma'lum darajada Mirning o'zining ta'siri ostida buyuk shoirga aylandi.

O'n uch yoshida G'olib Noib Faxrul-Daulaning ukasi Noib Ilahi Baxshning qizi Umrao Begunga uylandi. G'olib turmush qurganidan bir necha yil o'tgach Dehliga ko'chib o'tdi va o'limiga qadar Dehlida yashadi.[3] Xotinining qarindoshlari orqali u tezda keng doiradagi Dehli aslzodalari bilan aloqa o'rnatdi, ularning ichida eng nufuzlisi Alloma Fazlul Haq Xairobadiy edi. Dehlida Alloma Fazlul Haq Xairobadiy uni ma'lum darajada yaxshi tomonga o'zgartiradi, u nafaqat o'zining ba'zi yomon odatlaridan voz kechdi, balki unda dinga nisbatan ham kuchli qiziqish uyg'onadi. U, shuningdek, o'sha davrdagi diniy bahslarda ham qatnashadi, ularning ichida eng keskini Sayyad Ahmad Barelvi tomonidan asos solingan Vahhobiylar harakati edi. Shoir bu harakatga xayrixoh bo'lsa-da, bu harakatga qarshi bo'lgan Alloma Fazlul Haq Xairobadiyning tazyiqi sababli u harakat tarafdori ekanligini namoyish qila olmaydi.

Farzandsiz amakisi Nasrullabek vafotidan keyin, Lord Leyk tomonidan Noib Ahmad Baxshxon tomonidan marhumning qarindoshlariga yillik 10 ming rupiy ulush to'lanishi belgilanadi. Ammo G'olib ning oilasi uzoq vaqt davomida yiliga atiga 750 rupiy oladi. G'olib o'zi shusiz ham haqiqiy ulushdan mahrum bo'lganidan jahli chiqqan edi, ammo endi u juda ham qayg'uga botadi. "Hashamatli hayot tarziga o'rganib qolgan Mirza G'olib, allaqachon ulushni oshirish orqali ulardan qutilish umidida katta qarzga botgan edi, ammo bu umidlar xom xayol bo'lib chiqdi, tez orada qarz beruvchilar qarzni to'lashni talab qila boshladilar. Bundan tashqari, u juda yaxshi ko'rgan va ehtimol unga yordam berishi mumkin bo'lgan akasi aqlan ozib qoladi. Uning atrofni azob-uqubatlar qurshab olgan edi. Mutlaqo noilojlikdan u Kalkuttaga murojaat qilishni o'ylardi. Britaniya ma'muriyati markaziga borib, yanada ko'proq qarzga duchor bo'ladi. U 1827 yilda Dehlini tark etib, ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Uydan tashqariga chiqmagan va qulaylikni yaxshi ko'ruvchi yosh yigit uchun o'sha kunlarda sayohat qilish juda qiyin bo'ldi." [1]

Sayohat uni yozuvchilar bilan shaxsan munosabtg kirishishiga sabab bo'ldi va u keyingi yillarda xatlar orqali aloqani davom ettirdi, "U o'zining birinchi ta'til sayohatini u yerda bir necha oy qolgan Lucknoudan boshlaydi. Oktyabr oyida u o'z yo'lida davom etib, Banda, Allahobod, Banaras orqali o'tadi va nihoyat 1828 yil 20 fevralda, Dehlidan chiqib ketganidan deyarli bir yil o'tgach, Kalkuttaga etib keladi. Hammasidan ham uni Banaras hayratga soladi va unga bag'ishlab "*Chirag-i-dairi*" ("Ibodatxona chiroqi") nomli bir forscha poema yozadi. [5]

Uning Kalkuttadagi faoliyati dastlab maroqli kechadi. Bu joy va uning iqlimi unga yoqadi va tez orada adabiy doiralarda do'stlar orttiradi, xususan, juda nufuzli shaxslardan biri bo'lgan Allomo Sirajuddin edi. Allomo Sirajuddin G'olibni urdu va fors tillaridagi she'rlarini to'plam holiga keltirishga undaydi va natijada G'olib tomonidan "*Gul-i-Ra'na*" (fors va urdu she'rlari to'plami) nomli to'plam yoziladi. Kalkuttada uni ingliz zobitlari iliq kutib olishadi va yo'lda bo'lganida, u ulush ishi bo'yicha qaror uning foydasiga qabul qilinishiga amin edi. Shu maqsadda u Kalkuttada taxminan ikki yil qoladi.

Bir mushayirada ko'plab shoirlar, shu jumladan G'olib ham o'z she'rlarini o'qish uchun yig'ilishadi. "G'olib o'zining fors tilidagi she'rini o'qiganida, o'sha paytdagi hind olimlari tomonidan tan olingan 18-asr hind shoiri va lug'atshunosi Qatilning fikrlariga asoslanib uning ba'zi satrlarining tiliga e'tirozlar bildiriladi. G'olib bir qator e'tirozlarga javob bersh, ulush masalasi haqidagi qayg'ulari va uni tinch qo'yishlarini iltimos qilib, uzr so'rash shaklidagi "*Bad-i-Muxolif*" nomli masnaviy yozishga majbur bo'ladi." [5]

U 1829 yil 19-noyabrda Dehliga qaytib keldi. "Uning Kalkuttaga sayohatidan hech qanday muhim narsa chiqmagan bo'lsa-da, u yerda bir yarim yil qolish uning aqliy rivojlanishi uchun juda foydali bo'ldi. U yerda uning dunyoqarashi kengaydi va Yevropa tafakkuri va sivilizatsiyasi bilan tanishdi. U yerda unda gazeta o'qishga qiziqish paydo bo'ldi va bu qiziqish umr bo'yi u bilan qoldi. U yerda u, shuningdek, G'arb ratsionalizmi va ilm-fanidan ta'sirlanib, aqlning ustunligini e'lon qiladi va "*Abr-i-Goharbar*" masnaviysida unga atab madhiya yozadi. Bularning barchasi unga hayot va adabiyotga nisbatan zamonaviy nuqtai nazarni berdi. Endi uni erkin fikr yurituvchi deb atash mumkin edi. Shuningdek, u o'zning dunyoqarashi kengayishiga sabab bo'lgan Raja Ram Mohan Royning faoliyati bilan tanishadi.[1]

Shuningdek, u urdu nasrida soddalik va bevositalik tomon yo'naltirilgan uslubiy islohotlarda ishtirok etadi va bu uning yozish uslubiga, ayniqsa maktublariga katta ta'sir ko'rsatdi: Lucknou va Kalkuttadagi ziyoli do'stlar doirasida bo'lish uning she'riy qobiliyatining yetuklikka erishishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu uning fors she'riyati uchun ayniqsa samarali davr edi. Aynan shu davrda G'olib 1837 yilda o'zining forscha she'rlari va prozalari jamlab, "*Maykhana-i Arzu*" nomi ostida to'plam tuzadi.

Noib Ahmad Baxsh va unga Kalkuttada yordam bergan Andryu Sterling vafot etadi va yangi gubernator uning foydasiga qaror chiqarmadi. "U dastlab Ost-India Kompaniyasiga ishni qayta ko'rib chiqish yuzasidan ariza beradi, lekin u 1841 yilda rad etiladi, shundan so'ng u 1844 yilda Angliya qirolichasiga yana bir ariza beradi, ammo u ham rad etiladi. Uning umidlari endi butunlay so'nadi. Ishni ko'rib chiqish 16 yil chuziladi (1828-44). Uning qarzlari bu paytga kelib taxminan 40 ming rupiyga yetadi, oylik daromadi esa 62 rupiya va 8 anndan iborat bo'lib, u umrining qolgan qismini bu qarzlarni to'lashga sarflaydi. Qarz beruvchilar to'lovni talab qilib, unga qarshi qarorlar chiqarilishiga ham erishadilar. Uning muammolariga qo'shimcha ravishda, o'sha paytdagi Dehlidagi Ingliz hukumati vakili Uilyam Freyzer otib o'ldirildi va Noib Shamsuddin aybdor deb topilib, Dehli ko'chalaridan birida osib qo'yildi. Jinoyatchilarni fosh qilishda muhim rol o'ynaganlikda gumon qilingan G'olib umumiy xusumat va masxara qurboni bo'ldi." [1]

Mirzo G'olibning 1840-yilda Dehli Kollejidan fors tilidan professorlik lavozimini rad etishi uning hayotidagi muhim voqea bo'lgan. Moliyaviy inqirozda bo'lishiga qaramay, G'olib bu taklifni qabul qilmagan,

chunki u kolleжда avvalgi "*jagirdar*" (yer egasi) sifatida hurmat qilingan aristokratik davralarda bo'lgani kabi qabul qilinmaganini his qilgan. Bu voqea G'olibning o'z qadr-qimmatini va aslzodalarga xos mag'rurligini saqlab qolganligini ko'rsatadi.

1847-yilda uning uyiga tezkor chora-tadbir uyushtiriladi. U qimor o'ynash aybi bilan hibsga olinadi, sud qilindi va 200 rupiya jarima va olti oy muddatga og'ir mehnat sharoitiga ega joyga ozodlikdan mahrum etiladi. Jazo muddati ba'zi ta'sirli shaxslarning tavsiyasi bilan uch oygacha qisqartirildi va u yerda qattiq mehnat qilmasligi kerak edi, shunday bo'lsada bu holatning salbiy ta'siri uning ongida butun hayoti davomida saqlanib qoldi. Qamoqdagi hayotning og'irliklaridan ham ko'ra unga do'stlari va qarindoshlarining hukmlari og'irliqli ta'sir ko'rsatdi. Bittasidan tashqari barchasi undan voz kechishdi, uni tark etishdi. O'sha paytda u o'zini qanchalik baxtsiz his qilganini tasavvur qilish qiyin. "U o'z maktublaridan birida endi bu dunyoda, Hindistonda umuman yashash xohishi qolmaganligini, balki Rim, Misr, Eron yoki hatto kimsasiz yerlarga ko'chib ketishni xohlashini yozgan." [3] Uning yaqin do'sti Noib Mustufaxon Shaifita nafaqat qamoqdan ozod etilishida muhim rol o'ynagan, balki uning ishini tekshirish jarayonida ham unga moliyaviy yordam ko'rsatgan. Qamoqxonada G'olib o'zining sakson to'rtta eng yaxshi forscha she'rilaridan biri bo'lgan "*Asiriya*"ni yozgan.

Qamoqqa olinishi hodisasi tufayli, uning biror bir shtat yoki Britaniya hukumatida hurmatli ish topish orzusi barbod bo'ladi. Xalq orasida Kale Sohib nomi bilan tanilgan Mavlano Nosiruddin sharofati bilan, u 1850 yilda Dehlining o'sha paytdagi imperatori Bahodirshoh Zafarning imperatorlik yig'iliga vaqti-vaqti bilan tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'ladi.

"Ayni paytda, shoh shifokori Hakim Ahsanullo Xon (G'alibning yozuvlarining ishqibozlaridan biri) unga forscha prozada Boburiylar sulolasi tarixini yozish topshirig'ini beradi. Bu xizmati uchun u yiliga 600 rupiya ulush oladi. Shu tariqa, 52 yoshida u birinchi marta hayotida nafaqadan tashqari doimiy daromad olishni boshladi. Shu bilan birga, shoh unga tantanali libos va Najm-ul-Daula, Dabir-ul-Mulk, Nizom-i-Jang unvonlarini beradi. 1854-yilda u yagona merosxo'r Mirza Faxruddinning ustodi (o'qituvchisi) sifatida tanlanadi va buning uchun yiliga 400 rupiya maosh oladi. O'sha yili Oudh shohi Vajid Alishoh unga yiliga 500 rupiya maosh to'lanishi haqida buyruq beradi. 1854-yilda Zavqiy vafot etdi va G'alib, ehtimol, uning (Zavqiyning) darajasiga mos keluvchi yagona shaxs bo'lganligi sababli, shoh ustozini lavozimiga tayinlandi. Shunday qilib, 1854-yil oxirida uning moliyaviy ahvoli ko'p yillar davomida bo'lganidan ancha yaxshi edi." [5]

1855 yilda Oudh Noibi hibsga olinadi va keyingi yili isyon sodir bo'lganida imperator Rangunga surgun qilinadi. G'olib ning qarzlari tez o'sadi, chunki u isrofgar ehtiyojlarini nazorat qila olmaydi. Qo'zg'olon paytida, jiddiy moliyaviy inqiroz va qashshoqlik holatida G'olib Dehlida, o'z uyida qamalib o'tiradi. Uning suyuqli ukasi Yusuf vafot etadi. G'olib chuqur qayg'uga botganiga qaramasdan, hatto uning dafn marosimini ham tashkil qila olmaydi. U hatto dafn marosimini o'tkazish uchun yetarli mablag'ga ham ega emas edi. Oxir-oqibat u uni masjid yaqinidagi bir joyga dafn etadi.

"Bu davrda, dunyodan ajralgan holda, u 1857-yil 11-maydan 1858-yil 21-iyulgacha bo'lgan kunlik voqealarni yozib, "*Dastanbo*" deb nomlangan kundalik yozish bilan vaqtini o'tkazdi." [3] Dastanboda u o'zining hindu do'stlari Munshi Hargopal Tafta, Mahesh Das, Munshi Hira Singh Dard, Pt. Shiv Ram va uning o'g'li Balmukendning qo'llab-quvvatlashini minnatdorlik bilan qayd etadi, ular qo'llaridan kelgancha yordam berganlarini tan oladi.

Qo'zg'olondan so'ng, G'alibning azoblari o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetdi. Uning daromad manbalari tugaydi. Uning nafaqasi noma'lum sabab bilan to'xtatiladi. U qo'zg'olonga bevosita qo'shilmagan bo'lsada, ularning tarafdori ekanlikda ayblanadi.

"1860-yil yanvar oyida, Dehlidan umidsizlikka tushib, u Rampurga yo'l oldi, u yerda katta hurmat bilan kutib olinadi va agar u yerda qolsa, unga har oy 200 rupiya miqdorida maosh taklif qilindi, lekin G'alib buni qabul qila olmaydi. Shuning uchun u hayoti davomida har oy 100 rupiya oladigan bo'ladi, bundan tashqari zarur bo'lganda qo'shimcha yordam ham beriladi. Uning xijolatli xatlari va qat'iy talablariga qaramay, Noib ularni qondirishda davom etadi." [1] 1860-yil may oyida uning nafaqasi tiklanadi va u ikki ming rupiyadan ortiq qarzlarni to'lash uchun ko'p qismini ishlatib yuboradi. 1862-yilda uning o'zi taklif uchun ariza yozgan, lekin rad etilgan uning *darbar* (imperatorlik yig'ilishida istirok etish) va *khilat* (faxriy kiyim kiyib yurish) huquqlari ham qayta tiklanadi.

Biz G'alibning she'riyatdagi dahosi munosib tarzda e'tirof etilmaganligini unutmashimiz kerak. Uning uslubidagi murakkablikka bo'lgan ishtiyoqi tufayli, odatda odamlar uning ijodini tushunolmas edilar va shuning uchun u butun hayoti davomida ma'nosiz narsalar yozuvchi sifatida masxara qilinardi. Garchi u birovning fikrlariga unchalik ahamiyat bermasa-da va maqto'v yoki mukofotga erishish uchun harakatni da'vo qilmasdan bo'lsa-da, pastroq iqtidor egalari mo'l-ko'l maosh va ko'makdan bahramand bo'lishini ko'rganida uning qalbi qanchalik og'irganini tasavvur qilishimiz mumkin. Hayotining keyingi davrida u mashhur bo'ldi va mamlakatning barcha burchaklaridan uning oldiga shogirdlar yig'ila boshladilar. Uning Urdu Divoni hayoti davomida besh marta nashr etilgan edi. Shunga qaramay, G'alib o'zini qoniqmagan his qilardi. Achchiq umidsizlikda odam uyida panoh va taskin izlaydi, lekin G'alib hatto uyida ham tasalli topa olmaydi.

"1865-yilda Rampur Noibi vafot etdi va uning o'g'li Kalb Alixon taxtga chiqadi. G'alib Noibga hamdardlik bildirishm, shu bilan birga tabriklash uchun Noibning huzuriga boradi, u yerda u iliq kutib olinadi. Qaytib kelayotganida uning ulovi Gangani kesib o'tishi kerak edi. Ulov daryodan o'tib bo'lgach, kemalarning ko'prigi yuvilib ketdi va xizmatkorlar hamda yuklar orqada qolib ketadi. U sovuq dekabr kechasini Moradoboddagi bir mehmonxonada yaxshi ovqatsiz va choyshabsiz o'tkazishga majbur bo'ladi. Alloma Muhammadxon bu haqda

bilib qolganida, u unga g'amxo'rlik qiladi va sog'lig'ini tiklashiga yordam beradi. Ammo bu hodisaning yomon ta'siri uning o'limigacha davom etadi." [1]. U Zakoga shunday yozdi:

"Menga nima bo'lganini bilasanmi? Men ilgari ham zaif edim, endi esa yarimjonman. Kar edim, endi ko'r bo'lyapman. Bu Rampur safarining oqibati — falajlik va ko'rishning zaiflashishi. To'rt satr yozsam, barmoqlarim egilib, so'zlar noaniq bo'lib qolyapti." [7]

G'alib keksaygani sayin ko'p kasalliklarga chalinib, og'ir azob va og'riqda to'shakka mixlanib qoladi. U Munshi Dodxon Sayyahga shunday deb yozgan edi: "Jismoniy zaiflik o'z cho'qqisiga yetdi. Keksalik meni har qanday ishga yaroqsiz qilib qo'ydi. Quvvatsizlik, sustlik, dangasalik, charchoq, tushkunlik! Oyoqlarim uzangida, qo'llarim esa jilov tutgan. Men uzoq, uzoq mamlakatga uzoq safarga o'tlanmoqdaman va safar uchun zaruriy narsalarim ham yo'q. Agar so'roq qilinmasdan kechiriladigan bo'lsam, yaxshi, lekin agar mening qilmishlarimdan hisob so'raladigan bo'lsa, jahannam va la'nat mening taqdirim bo'ladi. Men do'zaxda abadiy chirib qolaman va hech kim menga yordam bera olmaydi. Bir kishi shunday chiroyli so'zlarni aytgan ekan:"

Ab to Ghabra ke yeh kahte hain, ki mar jaaenge.

Mar ke bhi chain na paaya, to kidhar jaaenge.

"Endi vahimada shunday deymiz: "Biz o'lib ketamiz."

O'lim ham osoyishtalik bermasa, unda nima qilamiz?" [8]

O'sha paytdagi epidemiya holati haqida gapirib shunday deb yozadi: "agar uni kamaygan yoki oshganligini yozishim kerak bo'lgan epidemiya qayerda edi? 66 yoshdagi bir erkak va 64 yoshdagi bir ayol o'lsa, biz bilardikki, epidemiya avjida. Lanat bunday epidemiyaga!" [3]

O'zining o'lim sanasiga oid hisob-kitoblari tez-tez noto'g'ri chiqqanida, u shunday dedi: "Agar bu sana ham noto'g'ri chiqsa, boshimga urib o'laman." [3]

G'alib 1869-yil 15-fevralda vafot etdi. Uning dafn marosimida Shia va Sunniy mas'hablari o'rtasida kichik nizolar bo'ladi. Nihoyat, u, Delhi shahridagi Hazrat Nizamuddin Auliya maqbarasining yaqinida, qaynotasi Noib Ilahi Baksh qabri yoniga dafn etiladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Mirzo Asadullahxon G'olibning oilaviy tarixi va ilk hayoti uning shaxsiyatini va ijodini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Otasining erta o'limiga qaramasdan, onasining tarbiyasi va amakisining moddiy yordamiga tayanib, G'olib boy ilmiy meros yaratgan. Uning fors va urdu adabiyotidagi roli, ayniqsa, ilk ta'limi va ko'p qirrali hayoti orqali yanada boyigan.

Mazkur maqola G'olibning hayotiga oid turli manbalar va tarixiy faktlar asosida tayyorlandi. G'olibning ilk hayotidagi omillar uning buyuk shoir bo'lib yetishishiga sabab bo'lgan bo'lsa, uning boy madaniy va ilmiy merosi zamonaviy nazariy tadqiqotlar uchun ham bebaho manbaa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ish Kumar. The Melody of an Angel: Mirza Ghalib, His Mind and Art. – Panhjab: Publication Bureau Panjab University, 1982.
2. Ram Malik. Zikr-e Ghalib. – New Delhi: Maktabah Jamia, 1950. 232 p.
3. Altaf Hussain Hali. Yadgar e Ghalib. – Ghalib Institute, New Delhi. Paperback, 1996. 438 p
4. Ali Sardar Jafri, Qurratulain Hyder. Ghalib: His Life and Poetry. – Sterling Paperbacks, USA, 2002. 112 p.
5. Ralph Russell. Ghalib: Life and Letters. – Oxford University Press, USA, 1995. 404 p.
6. Beg, Abdulla Anwar. The Life and Odes of Ghalib. – Delhi: Urdu Academy, 1941. 181 p.
7. Mirza Asadullah Khan Ghalib. Ghalib: selected poems and letters. – Columbia University Press, New York, 2017. 131 p.
8. K.C. Kanda. Mirza Ghalib: Selected Lyrics and Letters. – New Delhi: Sterling Publishers, 2004. 516 p.

UNVEILING NEW FRONTIERS IN MORAL EDUCATION: VIRTUAL REALITY AND ROLE-PLAYING GAMES IN SECONDARY SCHOOLS

Dr. Ahmet ALKAN 

IIUM, Kuala Lumpur, Malaysia

+905010037505, bilgi.ahmetalkan@gmail.com

Abstract

This article explores the current capabilities of virtual reality (VR) and role-playing games in moral education, highlighting the shortcomings of traditional approaches. Conventional methods typically rely on passive learning and are often inadequate for equipping students to navigate complex moral dilemmas. In contrast, VR and role-playing games foster active learning by enabling students to engage with ethical conflicts, cultivate empathy, and adopt various perspectives. The synergy between these technologies enhances the effectiveness of moral education, allowing secondary school students to immerse themselves in ethical decision-making processes and significantly contributing to their overall development.

Keywords: Moral Education, Virtual Reality (VR), Role-Playing Games, Ethics, Secondary Education

Аннотация

Данная статья исследует текущие возможности виртуальной реальности (VR) и ролевых игр в моральном образовании, подчеркивая недостатки традиционных подходов. Обычные методы, как правило, опираются на пассивное обучение и часто оказываются недостаточными для подготовки студентов к решению сложных моральных дилемм. Напротив, VR и ролевые игры способствуют активному обучению, позволяя студентам взаимодействовать с этическими конфликтами, развивать эмпатию и принимать различные точки зрения. Синергия между этими технологиями повышает эффективность морального образования, позволяя учащимся средних школ погружаться в процессы этического принятия решений, что значительно способствует их общему развитию.

Ключевые слова: Моральное образование, Виртуальная реальность (VR), Ролевые игры, Этика, Среднее образование

Annotatsiya

Ushbu maqola axloqiy ta'limda virtual haqiqat (VR) va rol o'yinlarining joriy imkoniyatlarini o'rganadi, an'anaviy yondashuvlarning kamchiliklarini ta'kidlaydi. Odatda qo'llaniladigan usullar passiv o'rganishga tayanadi va talabalarni murakkab axloqiy dilemmalar bilan shug'ullanish uchun yetarlicha tayyorlamaydi. Aksincha, VR va rol o'yinlari talabalar uchun axloqiy nizolar bilan shug'ullanish, empatiya rivojlantirish va turli nuqtai nazarlarni qabul qilish imkonini berib, faol o'rganishni rag'batlantiradi. Ushbu texnologiyalar o'rtasidagi sinergiya axloqiy ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarga axloqiy qaror qabul qilish jarayonlariga chuqur kirish imkonini beradi va ularning umumiy rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Axloqiy ta'lim, Virtual haqiqat (VR), Rol o'ynash o'yinlari, Etika, O'rta ta'lim

Introduction

Moral education is essential for instilling ethical values, social responsibilities, and societal norms in individuals. However, traditional methods of moral education typically rely on passive learning techniques, such as textbooks, discussions, and religious teachings. These methods often fall short of equipping students with the necessary skills to navigate complex moral dilemmas in real-life situations [22].

In recent years, the rise of digital technologies in education has introduced innovative tools like virtual reality (VR) and role-playing games, which offer significant opportunities for enhancing moral education. Virtual reality fosters empathy and decision-making skills by immersing students in moral scenarios and encouraging them to view situations from various perspectives. Meanwhile, role-playing games enable active learning by allowing students to simulate ethical conflicts and witness the outcomes of their moral choices [5, 13].

This article will assess the integration of virtual reality and role-playing games in moral education, examining the innovations these technologies bring to the learning process and their potential contributions to student development in secondary education.

Traditional Methods in Moral Education

The Arabic term "hulk," which translates to "nature" or "temperament," is often associated with the concept of "ahlaq/morality." Morality is generally defined as the spiritual traits, habits, and conscious behaviors of an individual influenced by these characteristics, as well as the scientific discipline that studies these aspects. This concept encompasses the qualities that determine whether a person is perceived as good or bad [14]. Throughout history, moral education has primarily been delivered through traditional means, including religious teachings, sermons, textbooks, and moral narratives. While these methods assist students in adopting moral values, they predominantly rely on passive learning techniques and often lack practical experience [22].

Traditional approaches convey moral values to students through direct explanations but provide limited guidance on how to implement these values in real-life situations. As students typically do not encounter moral dilemmas directly, these methods fall short in fostering genuine moral development [7].

Criticism of these traditional methods particularly centers around their effectiveness in cultivating ethical and moral decision-making skills. Students are generally conditioned to be passive recipients of information, lacking the practical experience necessary for making moral choices [10]. According to Dufeu et al. (2020), lecture-based and book-centered learning restrict students' ability to navigate complex moral scenarios and develop diverse perspectives [8]. These methods result in a passive absorption of information without engagement with moral dilemmas. Additionally, the absence of sufficient personal experience in these methods makes it challenging for students to cultivate empathy [15].

To enhance ethical decision-making abilities, it is essential for students to confront moral dilemmas that they may encounter in the real world. Since traditional methods are inadequate for addressing such complexities, secondary school students require education that combines abstract concepts with concrete examples in moral education. Numerous studies emphasize the importance of experiential learning approaches to better equip students for dealing with moral dilemmas in a more realistic manner [4].

Moral Education with Virtual Reality

To enhance the effectiveness of moral education for secondary school students, there is a pressing need for new and innovative approaches. In this context, technologies like virtual reality (VR) and augmented reality (AR) have a

significant impact [1]. Virtual reality is a computer-based simulation technology that enables users to immerse themselves in a three-dimensional (3D) virtual environment and interact with it. This technology replicates real-world experiences through visually and audibly generated elements [19]. VR is typically supported by devices such as head-mounted displays and motion tracking systems, designed to provide users with a fully immersive simulation experience [18].

Given its capacity for real-time interactivity, VR can be applied across various fields, including education, healthcare, industry, and entertainment [12]. Such technologies can facilitate secondary school students in navigating complex moral situations within a safe environment, thereby allowing them to engage more deeply with moral values. Specifically, VR technology creates scenarios that challenge students to make ethical decisions, immersing them directly in moral conflicts and enabling experiential learning of ethical values throughout the process [2].

For instance, in a study by Francis et al. (2018), VR was utilized to analyze decision-making among participants acting as either a driver or a victim in the Trolley Dilemma, a renowned ethical thought experiment designed to explore moral decision-making processes. In this scenario, a tram is barreling down the tracks toward a group of individuals; however, the direction can be altered to save the group at the cost of an individual's life. Such ethical dilemmas reveal conflicting values and consequences inherent in moral decision-making. In this study, participants engaged in VR simulations where they experienced the roles of tram driver or victim, allowing for an examination of ethical decision-making processes from diverse perspectives. For example, as a driver, participants faced the harrowing choice of sacrificing either a group or an individual [11]. These simulations create opportunities to engage with ethical conflicts that are challenging to encounter in real life, all within a controlled and secure environment. The findings of this research indicate that VR is a potent tool for enhancing the understanding of moral decisions.

It holds great potential for developing empathy and fostering the ability to adopt various perspectives by enabling users to step into another person's role. This technology has been referred to as an "empathy machine," as it allows users to experience life from the viewpoints of others [21]. For instance, through VR, students can cultivate empathy by assuming the roles of victims or aggressors and witnessing the ethical ramifications of these experiences firsthand [7, 11]. Similarly, VR has proven effective in training healthcare professionals, particularly those working with the elderly or disabled. Students have shown increased empathy towards these individuals by viewing situations from their perspectives. Such applications transcend the limitations of traditional educational methods, providing students with a more authentic and engaging learning experience [15]. While VR's capacity to foster empathy is crucial for improving social relationships and moral values, some critics caution that it may be manipulative rather than genuinely enhancing empathetic understanding [16].

Moral Education with Role Plays

Role-playing is an instructional method in which participants engage by adopting different roles within specific scenarios, allowing students to confront moral conflicts, cultivate empathy, and consider various perspectives in an educational context. As these activities provide a practical means to learn about ethical and moral decision-making, they are regarded as an effective resource in moral education [24].

Moral education should focus on enabling students to encounter ethical dilemmas and devise solutions rather than merely imparting abstract moral theories. In this regard, role plays empower students to engage with challenges by simulating moral situations they may face in real life [20]. Through this process, students not only understand what is deemed right but also gain a deeper insight by experiencing the application of moral values in real-world contexts [25].

Moreover, role-playing games facilitate a more profound comprehension of ethical values. These activities enhance students' empathy and awareness of social responsibility by allowing them to view moral issues from multiple perspectives [3]. When confronted with ethical dilemmas, students can make more informed decisions based on the insights they gain through role-playing.

Integrating Virtual Reality and Role-Playing Games: Shaping the Future of Moral Education

The integration of virtual reality (VR) and role plays creates a dynamic learning environment that provides secondary school students with the opportunity to engage with complex moral scenarios. This combination not only enables students to acquire theoretical knowledge but also facilitates a deeper understanding of this knowledge through practical experience. The visual and emotional richness offered by VR, paired with the interactive nature of role plays, enhances students' decision-making processes when faced with moral conflicts [6]. In this context, students take on various roles, fostering their ability to think from diverse perspectives and cultivate empathy.

Educational initiatives that leverage the combined use of VR and role plays promote greater student engagement and enhance motivation to learn. In a study conducted by Alrehaili and Osman (2019), STEM students (Science, Technology, Engineering, and Mathematics) were presented with intricate technical and ethical challenges. These students tackled problems relevant to their areas of expertise within the virtual environment of OpenSimulator and deliberated on the ethical implications of their solutions, thus experiencing a multifaceted learning experience. Such projects serve as effective educational tools, enabling students to attain not only academic knowledge but also moral maturity [23].

The use of virtual reality and role-playing games fosters students' interest in the learning process while simultaneously elevating their levels of participation. Platforms like OpenSimulator empower students to engage actively in their learning experiences. Role-playing games position students at the center of the educational process rather than as mere observers. These interactive settings enhance students' problem-solving skills, strengthen their empathetic abilities, and encourage them to take greater responsibility for their learning journeys [17].

Conclusion

Moral education plays a crucial role in shaping individuals' abilities to make ethical decisions and fostering a sense of social responsibility. The limitations of traditional methods often confine secondary school students to abstract theories, denying them the opportunity to engage with complex moral dilemmas. In this regard, technologies like virtual reality (VR) and role-playing games emerge as innovative tools that facilitate practical learning of ethical values. Both VR and role-playing games enable students to confront ethical conflicts from various perspectives while promoting active learning and the development of empathy. The combination of these technologies aids students in not only acquiring theoretical knowledge but also applying it in real-world contexts. Consequently, they offer a more effective and engaging approach to moral education, enhancing the ethical and emotional competencies of secondary school students. Looking ahead, the broader implementation of such progressive methods is expected to elevate the quality of moral education and significantly aid students in achieving social responsibility and ethical maturity.

Bibliography

1. Alkan, A., & Nazarova, S. (2024). Innovations in digital pedagogy: Bridging the gap between developed and developing countries. *Science and innovation*, 3(Special Issue 41), 37-41.
2. Allcoat, D., & von Mühlengen, A. (2018). Learning in virtual reality: Effects on performance, emotion and engagement. *Research in Learning Technology*, 26.
3. Alvarez, C., Zurita, G., Hasbún, B., Peñafiel, S., & Pezoa, Á. (2021). A social platform for fostering ethical education through role-playing. *Factoring Ethics in Technology, Policy Making, Regulation and AI*, 107.
4. Azevich, A. I. (2019). Virtual reality: educational and methodological aspects. *RUDN Journal of Informatization in Education*, 16(4), 338-350.
5. Cao, Z., Zheng, J., Li, F., & Jiashun, X. I. E. (2021, December). Application of Virtual Technology in Cultivating College Students' Moral Personality. In *2021 3rd International Conference on Machine Learning, Big Data and Business Intelligence (MLBDBI)* (pp. 557-560). IEEE.
6. Dai, Z., Ke, F., Dai, C. P., Pachman, M., & Yuan, X. (2021). Role-play in virtual reality: a teaching training design case using opensimulator. In *Designing, deploying, and evaluating virtual and augmented reality in education* (pp. 143-163). IGI Global.
7. Dawut, A., Nakayama, H., Iwasaki, R., & Matsuda, T. (2015). Realization and Evaluation of an Information Morals Education System by Experience of an assailant and a victim by Virtual reality. In *Global Learn* (pp. 507-515). Association for the Advancement of Computing in Education (AACE).
8. Dufeu, D., El-Araby, N., & Kocemba, J. (2020). Limitations of Visualization Technology and Virtual Instruction in Medical Education.
9. Dyer, E., Swartzlander, B. J., & Gugliucci, M. R. (2018). Using virtual reality in medical education to teach empathy. *Journal of the Medical Library Association: JMLA*, 106(4), 498.
10. Francis, K. B., Gummerum, M., Ganis, G., Howard, I. S., & Terbeck, S. (2018). Virtual morality in the helping professions: Simulated action and resilience. *British Journal of Psychology*, 109(3), 442-465.
11. Francis, K. B., Howard, C., Howard, I. S., Gummerum, M., Ganis, G., Anderson, G., & Terbeck, S. (2016). Virtual morality: Transitioning from moral judgment to moral action?. *PloS one*, 11(10), e0164374.
12. Jian, W. (2002). Virtual Reality and Its Application in Industry. *Journal of Hangzhou Institute of Electronic Engineering*.
13. Kang, S., Chanenson, J., Ghate, P., Cowal, P., Weaver, M., & Krum, D. M. (2019, March). Advancing ethical decision making in virtual reality. In *2019 IEEE Conference on Virtual Reality and 3D User Interfaces (VR)* (pp. 1008-1009). IEEE.
14. Koyuncu, F. (2016). Ahlaki Eğitimi Rehberi Olarak Azmi Pir Mehmed'in Enis-ül Arifin'i. *CİLT II*, 909.
15. Kyaw, B. M., Saxena, N., Posadzki, P., Vseteckova, J., Nikolaou, C. K., George, P. P., ... & Tudor Car, L. (2019). Virtual reality for health professions education: systematic review and meta-analysis by the digital health education collaboration. *Journal of medical Internet research*, 21(1), e12959.
16. Lara Sánchez, F. D., & Rueda Etxebarria, J. (2021). Virtual Reality Not for "Being Someone" but for "Being in Someone Else's Shoes": Avoiding Misconceptions in Empathy Enhancement.
17. Makransky, G., & Lilleholt, L. (2018). A structural equation modeling investigation of the emotional value of immersive virtual reality in education. *Educational Technology Research and Development*, 66(5), 1141-1164.
18. Markowitz, D., & Bailenson, J. (2019). Virtual reality and communication. *Human Communication Research*, 34, 287-318.
19. Melinda, V., & Widjaja, A. E. (2022). Virtual reality applications in education. *International Transactions on Education Technology*, 1(1), 68-72.

20. Nandedkar, A., & DiRusso, D. (2019). Ethical Decision Making: A Role-Play Exercise. *International Journal of Business and Management*, 14(7).
21. Rueda, J., & Lara, F. (2020). Virtual reality and empathy enhancement: Ethical aspects. *Frontiers in Robotics and AI*, 7, 506984.
22. Serin, H. (2020). Virtual reality in education from the perspective of teachers. *Amazonia Investiga*, 9(26), 291-303.
23. Shi, P. (2019). Research on effective teaching in the vision of virtual reality. In *Proceedings of the 3rd International Conference on Digital Technology in Education* (pp. 44-47).
24. Shilton, K., Heidenblad, D., Porter, A., Winter, S., & Kendig, M. (2020). Role-playing computer ethics: Designing and evaluating the privacy by design (PbD) simulation. *Science and Engineering Ethics*, 26, 2911-2926.
25. Taplin, R., Singh, A., Kerr, R., & Lee, A. (2018). The use of short role-plays for an ethics intervention in university auditing courses. *Accounting Education*, 27(4), 383-402.



TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASHINI TASHKIL ETISHDA INTEGRATSION YONDOSHUV SAMARADORLIGI

Aminov Istam Barnoyevich, Yunusova Xursheda

¹*Samarqand davlat universiteti, professor, tel: 91 540 61 78, istam.aminov@mail.ru*

²*Samarqand shahar 21-maktab, tel: +998 97 578 53 36, xurshedayunusova7700@gmail.com*

Annotatsiya. *Fanlarini o'qitish jarayonida talabalarni mustaqil ishlashini tashkil etishda integratsion texnologiyalardan foydalanib ijodiy-uslubiy malakalarini shakllantirish zamonaviy muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etishda integratsion texnologiyalar-axborot, internet va innovatsion texnologiyalar hamda axborot ta'lim muxitidan foydalanishning uslubiy asoslari yoritilgan.*

Аннотация. *Одной из современных проблем является формирование творчески-методических умений с использованием интегрированных технологий организации самостоятельной работы студентов в процессе преподавания предметов. В данной статье описаны методические основы использования интегрированных технологий - информации, Интернета и инновационных технологий и информационной образовательной среды в организации самостоятельной работе студентов.*

Abstract. *One of the modern problems is the formation of creative and methodological skills using integrated technologies for organizing students' independent work in the process of teaching subjects. This article describes the methodological basis for the use of integrated technologies - information, the Internet and innovative technologies and information educational environment in organizing students' independent work.*

Tayanch iboralar: *integratsion ta'lim texnologiyalari, axborot, internet va innovatsion texnologiyalar axborot ta'lim muhiti, samaradorlik.*

Ключевые слова: *интегрированные образовательные технологии, информация, Интернет и инновационные технологии, информационная образовательная среда, эффективность.*

Bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz bilimga chanqoqligi, o'qish, izlanish va jamoat ishlarida faolligi, ilmiy va ijodiy salohiyati bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiya-larining so'nggi yutuqlarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishi bilan ham ajralib turadi. SHuning uchun ham barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini, shu jumladan talabalarning mustaqil ishlarini integratsion, ya'ni axborot va innovatsion texnologiyalari asosida tashkillashtirish hamda ulardan samarali foydalanish eng muhim mavzulardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim sohasida fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini integratsion texnologiyalar asosida tashkil etishdan asosiy maqsad ularning fundamental bilimlarini, ko'nikma va malakalarni, ijodiy qiziqish va tajribalarni etarli ravishda shakllantirishdan iborat.

Talabalarning mustaqil ishlash jarayonini integratsion texnologiyalar asosida boshqarishning asosiy mohiyati- bu shu jarayonni shunday tashkil etishdan iboratki, bunda talabalar berilgan topshiriqlarni bajarsinlar va mustaqil izlash yo'li bilan ilmiy tasavvurlash metodini o'zlashtirsin, o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirsin, o'zining o'quv faoliyatida ijodiy yondoshuvga bo'lgan qiziqishi rivojlansin hamda shu bilan birga ijodiy vazifasini muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan xususiyatlari, qobiliyatlari, xarakterini mukammallashtirsin [4].

Bundan shu narsa kelib chiqadiki to'g'ri tashkillashtirilgan mustaqil ishlar nafaqat ta'limiy balki shaxsiy-ijodiy ahamiyatga ham ega bo'ladi. Talabalarda nazariy va amaliy masalalarni mustaqil hal qilish ko'nikmalari ma'lum bir miqdorda o'quv jarayoni davomida shakllanadi.

Ta'lim sohasida fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun quyidagi shart sharoitlarga ega bo'lish kerak:

- ✓ talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligi;
- ✓ egallagan bilimlar motivatsiyasi va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini egallashi;
- ✓ barcha kerakli o'quv-metodik qo'llanmalar va ma'lumotlarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatini mavjudligi;
- ✓ mustaqil ishlarni bajarilganligini muntazam nazorat qilib boruvchi tizimning mavjudligi va faoliyat ko'rsatishi.

Ta'lim sohasidafanlarini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlari har qanday ta'lim turining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarining eng asosiy funksiyalari sifatida nazariy materiallarni sifatli o'rganish, mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, bilimlarni ehtiyojga asosan doimiy to'ldirish va yangilash, mustaqil ishlashning ratsional qoidalari va metodlarini o'zlashtirish tushuniladi.

Bugungi kunda o'qitish jarayonida talabalarni mustaqil ishlashi uchun integratsion, ya'ni zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalari vositalari keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Integratsion texnologiyalari vositalari ta'lim sohasidagi o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlashida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi[5]:

- olingan ma'lumotlarni xotirada kerakli vaqtga saqlab turish, ularni tahrirlash, chop etish, nusxalash va hokoza;
- kerakli materiallarni ma'lum bir maqsadlar uchun yaratilgan mul'ti-mediyali ma'lumotlar orqali interfaol usulida o'rganish;
- turli axborot manbalariga, shu jumladan uzoqlashgan va taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga, Internet tizim orqali butun dunyo bo'yicha konfe-rensiyalarga kirish;
- hamkorlik telekommunikatsion loyihalarni, shu jumladan xalqaro, elektron konferensiyalarni tashkillashtirish.

Integratsion texnologiyalar talabalariga o'zlari uchun yangilik hisoblangan ma'lumotlar bilan mustaqil ishlash, muhim va shaxsiy-ijodiy ahamiyatli faktlarni ajratish ko'nikmalarini egallash imkonini beradi.

Ta'lim sohasida fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirish o'quv materialaridan foydalanishni o'rganish, mukammallashtirish va ijodiy yondoshish, yangi ijodiy bilimlarni egallash, interfaollikni rivojlantirish, ilmiy adabiyotlar va axborot resurslar bilan ishlash amaliy ko'nikma va malakalarini shakllanishi bilan asoslanadi.

Ta'lim sohasida fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ularni mustaqil o'rganish, fikrlash, kerakli muammolarni anglab etishga va uning echimlarini mustaqil izlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Buning uchun mashg'ulotlarning barchasida talabalarni quyidagilarni amalga oshirishga to'g'ri yo'naltirish kerak bo'ladi:

- ✓ uyga berilgan topshiriqlarni bajarish va qo'shimcha axborotlarni izlab topish va uni o'rganish zarurligi;
- ✓ berilgan topshiriqlarni bajarilish muddatiga rioya etish va uni talab daraja-sida bajarilish ma'suliyatini sezish.

O'quv jarayonida bilim olish va o'rganish jarayonini integratsion, ya'ni an'anaviy, innovatsion va mustaqil shakllaridan birgalikda foydalanish talabalarni talab darajasida kerakli bilimga ega bo'lish, mustaqil tasavvurlash va fikrlash, ta'lim jarayoni o'zining shaxsiy rejalashtirilgan maqsadlariga erishishning asosiy yutug'i sifatida qabul qilish qobiliyatlarini mukammallashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Ta'lim sohasida fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ilg'or innovatsion texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish orqali talabalarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish asosiy vazifa hisoblanib, bu jarayonda o'qituvchi boshqaruvchi, talabalar esa, ishtirokchiga aylanishi lozim.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- talabalarning mashg'ulot davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikni ta'minlanishi;
- o'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Ta'lim sohasida fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda turli xil innovatsion, shu jumladan interfaol "Zinama- zina", "Baliq skeleti", "Venn diagrammasi", "Munozara", "Aqliy hujum", va boshqa texnologiyalardan foydalanish o'z samarasini beradi[6].

Masalan, "Zinama- zina" texnologiyasi. Ushbu texnologiya talabalarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushurib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Talabalar bu texnologiya orqali guruhlarda ishlashga o'rganadilar, o'tilgan mavzuni sub'ekt o'qitish orqali mustah-kamlaydilar.

"Venn diagrammasi" texnologiyasi ta'lim darslarida o'tilayotgan mavzu haqida o'z fikriga ega bo'lish, o'rganilgan materialni yodida saqlash, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

"Baliq skeleti" texnologiyasi orqali talabalar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rganadilar. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda talabalar o'rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga echilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi

Keys uslubi va texnologiyasi ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning ilg'or vositasidir. Keys ta'lim maqsadini amalga oshirish, amaliy muammoli vaziyatlarni taxlil etish va o'quv natijalariga kafolatli etishning optimal usul va vositalari majmuasidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

Keys texnologiyasida o'quvchilarga o'quv va o'quv-amaliy materiallar «Keys» yoki portfel ko'rinishida beriladi. Bu materiallar kompakt-disk yoki boshqa axborot tashish vositalarida joylashgan bo'ladi.

O'quvchilarda unda berilgan nazariy ma'lumotlarni mustaqil o'rganish bilan birga, amaliy masalalar echimiga nisbatan o'zlarining fikr mulohazalarini bildiradilar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida fanlararo bog'lanish bo'yicha didaktik materiallarning multimediali (zarur joylarda virtual) tasvirlaridan foydalanish o'quv maqsadlariga yuqori darajada erishish imkoniyatini beradi. Materiallar tayyorlashda asosiy e'tiborni mutaxassislik xarakteri, bajaruvchining amaliy faoliyatida foydalanish imkoniyatlariga qaratish kerak. Bu ma'noda fanlararo bog'lanish tizimi: umumta'lim–umumkasbiy (umumtexnik)–maxsus (kasbiy) ketma-ketligida bo'lsa, tizimli didaktik materiallar yuzaga keladi. Lekin bunday bog'lanishni yaratish, yaratilgan materialdan samarali foydalanish ancha murakkab. SHuning uchun asosiy e'tiborni umumkasbiy-umumta'lim va kasbiy umumkasbiy fanlararo bog'lanishga qaratib, keyin ular asosida fanlararo bog'lanish kompleksini yaratish mumkin.

Bugungi kunda axborot ta'lim muhitini tashkil etilishi talabalar mustaqil ishini tashkil qilish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Tajribadan ma'lumki axborot ta'lim muhitida mustaqil ishini tashkil qilishning shakllariga quyidagilarni misol qilish mumkin [3]:

✓ axborotni qidirish va qayta ishlash: referat-umumlashma yozish; saytga mavzu bo'yicha taqriz joylashtirish; internet tarmog'ida muayyan mavzu bo'yicha referatlarni tahlil qilish va baholash; ma'ruza yoki uning bir parchasi rejasining o'z variantini yozish; bibliografik ro'yxatni tuzish; amaliy mashg'ulot parchasini tayyorlash; mavzu bo'yicha bildirishnoma tayyorlash; mavzu bo'yicha bahs-munozara tayyorlash; o'qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki internet tarmog'ida topilgan web-saytlar bo'yicha ishlash.

✓ internet tarmog'ida muloqot qilish: bo'lib o'tgan yoki bo'lishi rejalashtirilayotgan mavzuni muhokama qilish; qoldirilgan telekonferensiya orqali o'qituvchi va boshqa ta'lim oluvchilar bilan muhokama qilish.

✓ web-sahifa yaratish: tayyorlagan referatlar va retsenziyalarni saytga joylashtirish; yakka tartibda va kichik guruhlarda mavzuviy web-sahifalar yaratish; mavzu bo'yicha ish uchun web-kevtlar yaratish va ularni saytga joylashtirish.

Axborot va innovatsion yondoshuv orqali talabalarni mustaqil bilim olishi ma'lum bir miqdorda o'zining natijasini yoki samarasini berish kerak bo'ladi. Buning uchun o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh va ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlarini uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu – o'qitish jarayonining asosi va samaradorligi bo'lib hisoblanadi.

SHunday qilib, bizning nazarimizda ta'lim jarayonida web-kevtlarni qo'llash talabada qiziqishni rivojlantirish, ta'lim jarayonini interfaolligini ta'minlash, qulay tempda ishlashga imkon beradi hamda talabalarda axborotni izlash va unga tanqidiy yondashish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot ta'lim muhitini uslubiy ta'minlash kompleksini ishlab chiqish mustaqil ishini tashkil qilish samaradorligining shartlaridan biri hisoblanadi .

Ta'lim sohasida fanlarni o'qitish jarayonida integratsion texnologiyalar asosida mustaqil ishlarini tashkil etish talabalarni mustaqil bilim olishi, ularning faol ijodiy faoliyatni olib borish, ularda ijodiy ishlashga bo'lgan qiziqish va intilishni shakllantirish, hosil bo'lgan muammolarning ijobiy yechimlarini mustaqil izlab topish va o'z fikr mulohazalarini bayon etish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aminov I., Kadirov T. Use of information education in improving competence of information teachers information technologies. Academia Open, By Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Vol 1 No 2 (2019): December, Education.
2. I.B.Aminov, J.Mannopov. The effectiveness of the distance learning system using cognitive technologies. Proceedings of International Scientific-Practical Conference on "Cognitive research in education". Organized by Samarkand regional center for retraining and advanced training of public education staff, Uzbekistan. 15th April 2021. In Association with Novateur Publication India's. Journal impact factor: 7.223. Page No.: 29-316
3. Sadikova F.M. Organization of independent learning of students in the theory and practice of education // European Journal of Research and Reflection in Educational Science.– Great Britain, 2020. – №4.– P. 147-150. (13.00.00, № 34).
4. Беляева А. Управление самостоятельной работой студентов / Высшее образование в России, № 6, 2003
5. Демеусов А. Особенности планирования, организации и контроля внеаудиторной самостоятельной работы студентов.//Высшая школа Казахстана,2004. - С.52-54.
6. Корсак М.М., Сурдо А.П. Инновационная система информационного обеспечения образовательной деятельности ВУЗа. // Педагогические науки. - 2014. - №2. - С.43-463.

МАКТАBGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN JISMONIY TARBIYADA NOANANAVIY YONDOSHVULAR

Ashurov Abdimanon Dilloyevich, Habibova Ozoda Yashin qizi, Sohibnazarov Rajabboy

¹SamDU Urgut filiali Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası v.v.b dotsenti.ashurovabdimanon@gmail.com.

²Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

³Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta instituti Samarqand filiali katta o'qituvchisi.1956@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha tayyorlash va malakasini oshirish yoshdagi bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida noan'anaviy yondoshuvlar ko'rsatib o'tilgan va 3-6 yoshdagi bolalarga o'tkaziladigan mashg'ulotlarda turli harakatli o'yinlardan hamda xilma-xil mashqlar e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar harakatlari, yurish, yugurish, sakrash, mashqlar, rolik.

Аннотация: В данной статье показаны нетрадиционные подходы к физическому воспитанию детей дошкольного возраста, а также рассмотрены различные двигательные игры и упражнения в обучении детей 3-6 лет.

Ключевые слова: действия дошкольников, ходьба, бег, прыжки, упражнения, ролик.

Abstract: In this article, non-traditional approaches to physical education training for preschool children are shown, and various movement games and various exercises are considered in training for children aged 3-6 years.

Keywords: preschool children's actions, exercises, roller, skating, walk.

Kirish

Ma'lumki maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqimizning eng buyuk an'analari ruhida tarbiyalash nihoyatda muhimdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 30- sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori ayni muddao bo'ldi [1]. O'zbek xalqi ham o'zining qadimiy an'anaviy o'yinlariga ega. Ular asrlar davomida shakllangan, takomillashgan va bugungi kungacha yetib kelgan. Maqolaga zamonaviy harakatli o'yinlar bilan bir qatorda o'zbek milliy o'yinlari ham kiritilganligi hammamizga ma'lum. Shu bilan birga, harakat sifatlarini rivojlantiradigan, tanani to'g'ri shakllantiradigan va oyoqlarni oldinga to'g'ri qo'yish kabi maxsus mashqlari tavsiya qilinadi. Jismoniy tarbiya ishlarini to'g'ri rejalashtirish va o'tkazish juda muhimdir.

Kun davomida turli xil jismoniy mashqlar va faol o'yinlar bolalarni to'g'ri harakatlanishini ta'minlashga yordam beradi. Mashg'ulot uchun tavsiya etilgan dastur materiali mustaqil mashqlar va o'yinlar uchun asosdir. Ta'lim vazifasi- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'quv, sog'lomlashtirish, jismoniy fazilatlarini rivojlantirish, bolalar organizmining mehnat qobiliyatini yaxshilash va ularning ish qobiliyatini oshirish orqali amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jismoniy mashqlar samaradorligi, agar mashg'ulotlar to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, qiziqarli va ibratli jihatlari ko'paytirilsa, shu bilan birga bolalarga o'z vaqtida dam olishga e'tibor berilsa, ortadi. Mashg'ulotlarda eng muhim narsa mashqlar va o'yinlarni to'g'ri taqsimlashdir. Bunday holda, mashg'ulotning asosiy vazifasini ajratib ko'rsatish kerak, uning mazmunini va maqsadini hisobga olgan holda, bola tanasining ayrim qismlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatish lozim. Bundan tashqari, mashg'ulot samaradorligini oshirish uchun turli mashqlardan foydalanish muhimdir. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda harakatlarning tartibi, takrorlanishi, vazifalarning to'g'ri taqsimlanishi aniq va oqilona usullari ko'rib chiqiladi. Bunga, birinchi navbatda, yetarli harakat faolligi va mashg'ulotlarning intensivligini ta'minlash orqali erishish mumkin. Mashg'ulotni rejalashtirishda guruhning shartlari va o'rgatish uchun zarur jihozlarning mavjudligi hisobga olinadi. Ochiq havoda o'tkaziladigan mashqlarning mazmuni fasllar va ob-havoga qarab tanlanadi. Mashg'ulotni rejalashtirish va o'tkazish usullari asosiy harakat va o'yin mashqlaridan, bir o'lchamli mashg'ulotlardan tortib, turli mashqlarga qadar farq qiladi, ya'ni harakatli o'yinlari, xalq o'yinlari, estafeta, ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Ertalabki jismoniy mashqlar, yurish va yugurish paytida o'yinlarni o'quv materiallari bilan muvofiqlashtirish muhimdir. Kunning turli vaqtlarida bolalarning harakat faolligi hisobga olinadi, shunga ko'ra, harakat qobiliyatlari va malakalarini oshirish uchun harakat sifatini oshiradigan turli xil mashqlar usullari tavsiya etiladi.

Bolalarning mustaqil faoliyati maktabgacha ta'lim tashkilotlarda jismoniy tarbiya yetakchisining bevosita rahbarligi ostida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya yetakchisi harakat faoliyati uchun mos jihozlarni tanlab, bolalarga tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya yetakchisi jarayonining ketma-ketligi va uzluksizligiga alohida e'tibor beradi (bu maktabgacha ta'lim muassasasida va oilada amalga oshiriladi). Ushbu ishni rejalashtirishda bolaning xususiyatlari, rivojlanishi, sog'lig'i, jismoniy o'sishi, qiziqishlari va qobiliyatlari hisobga olinadi. Har bir guruhdagi kundalik mashg'ulotlar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida belgilansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Harakatning shakllanishiga yordam berish, bolaning atrofga ko'nikishini ta'minlash, ularning tanalarini tik holatini saqlashga o'rgatish muhim hisoblanadi. Bolalarga mustaqil o'yinlarda harakat faoliyatini boshqarishda yordam berish va unga sharoit yaratish zarur deb hisoblaymiz. Bolalarga harakatni tushunishga, birgalikda harakat qilishga, yetakchining ko'rsatmalariga taqlid qilib, ularning harakatini boshqalarning harakati bilan solishtirishga o'rgatish samara beradi. Bolalarni sakrashga, joydan uzunlikka sakrashga, yumshoq yerga ikki oyoq bilan qo'nishga o'rgatish muhimdir. Ushbu mashqlarni bajarayotganda, bolalar tanasini to'g'ri ushlab turishiga va tovonini mustahkamlashiga e'tibor berish kerak. Bolalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga, shuningdek, ertalabki gigiyenik gimnastikaga ijobiy hissiy munosabatni uyg'otish zarur hisoblanadi [2]. Tayyorlangan anjomlar va o'yinchoqlardan mustaqil ravishda tashkil etilgan o'yinlarda harakat faolligini oshirishga o'rgatiladi. Asosiy harakat mashqlari yurish mashqlari hisoblanadi. Yetakchi tomonidan belgilangan yo'nalishda

guruhda yurish, yo'nalishni o'zgartirish, jism atrofida yurish, aylana bo'ylab juft bo'lib yurish va qo'l ushlarini bajarishlari mumkin. Yurishdan yugurishga, yugurishdan yurishga o'ting, oldinga va yon tomonga qadam tashlash, yetakchining orqasidan yugurish, undan qochish va bir-birini itarmasdan har tomonga yugurish, yumaloq jismni ta'qib qilish, ikki chiziq orasiga yugurish, 30-40 soniya to'xtamasdan yugurish kabi mashqlarni bajarish mumkin.

Sakrash uchun mashqlar. Ikki oyoqqa sakrash, asta-sekin oldinga siljish, balandga osilgan narsaga qo'lini tegishga harakat qilish, polga parallel ravishda ikki qatorga joylashtirilgan chiziq yoki arqondan (kengligi 20-25 sm) o'tish, ikkala oyoq bilan, iloji boricha uzoqroq sakrash (30-40 sm), yumalab turgan narsaning orqasidan itarib, to'pni bir qo'li va ikkala qo'li bilan yetakchi tomon, yon tomonga va bir-biriga aylantirish, to'pni ikki qo'l bilan pastdan oldinga, ko'krak oldida, boshning ustiga tashlash, to'pni yetakchiga ikki qo'l bilan tashlash kabi mashqlar tavsiya etilishi mumkin.

MUNOZARA VA NATIJALAR

Stulga (balandligi 25 sm.) sakrab o'rindiqqa chiqish va qo'llarini cho'zgan holda turish, oyoq barmoqlariga ko'tarilish va boshlang'ich holatga qaytish mashqlari berilishi mumkin.

Umumiy rivojlantirish mashqlari. Qo'l va yelkaning umurtqa pog'onasi mushaklari uchun mashqlar, qo'llarni ko'tarish, bukish va ularni yuqoriga va yon tomonga cho'zish, ko'krak oldida kesib o'tish va yon tomonga o'tkazish, qo'llarni orqa tomonga yashirish, qarsak chalish, qo'llarni oldinga va orqaga silkitish (qo'llar pastga), yuqoriga va pastga (qo'llar yon tomonda), qo'llar tepada va oldinga, turli xil vaziyatlarda turli xil narsalar (toshlar, kublar, lentalar, ro'molchalar) bilan mashqlarni bajarish tavsiya etiladi [3].

Oyoqlar uchun mashqlar. Oyoq uchida ko'tarilish, tovonda turish, oyoq barmoqlarini harakatlantirish, bodibilding mashqlari, o'ngga va chapga burilib to'pni sherigiga uzatish, oyoqlarni bukish va yerga o'tirganda yozish, orqa bilan yotgan holda oyoqlarni ko'tarish va tushirish, qo'llarni va oyoqlarni bir vaqtning o'zida harakatlantirish kabi mashqlar tavsiya etiladi. Yetakchining yordami bilan guruh bir-birining ortidan turib, juft bo'lib saf tortish mashqlari, harakatli o'yinlari va o'yin mashqlari, yurish va yugurish o'yinlari, masalan: "qo'g'irchoqning tashrifi", "yo'lak", "tayoqdan sakrash", "chumchuqlar va mashina", "poezd", "samolyotlar", "quyosh va yong'ir", "narsani olib keling", "qushlar uchmoqda" dan foydalanish mumkin.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida noan'anaviy yondoshuvlardan samarali foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa, bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda turli harakatli o'yinlardan hamda xilma-xil mashqlar berib borilsa, o'tkaziladiga mashg'ulotlar 3-6 yoshdagi bolalarga ijobiy ta'sir qiladi, bolalarning bu mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori Toshkent 2018- yil 30- sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi 3-bob. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. Toshkent 2022-yil.
3. Norboyev S.B., Axmadjonova B.M. (2023). Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali tashkil etishning boshqaruv tamoyillari. Ta'lim faoliyatida innovatsion rivojlanish, 2 (4), 18-23.

YOSHLARIMIZDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHDA AXBOROT MADANIYATINING ZARURIYATI

O.Azimov . I.Abduraxmonov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali

Annotasiya: Mazkur maqolada global o'zgarishlar sharoitida yoshlarni ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlardan himoya etishda axborot madaniyatining ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada axborot madaniyatining xususiyati haqida mulohazalar ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Axborotlashgan jamiyat, yoshlar, ma'naviy tahdid, axborot xurujlari, axborot madaniyati

Аннотация: В данной статье подчеркивается значение информационной культуры в защите молодежи от моральных угроз и информационных атак в условиях глобальных изменений. В статье также рассматривается природа информационной культуры.

Ключевые слова: Информационное общество, молодежь, моральная угроза, информационные атаки, информационная культура.

Abstract: This article emphasizes the importance of information culture in protecting young people from moral threats and information attacks in the context of global changes. The article also examines the nature of information culture.

Keywords: Information society, youth, moral threat, information attacks, information culture.

Informasion globallasuv kishilik jamiyatiga xos tabiiy tarixiy taraqqiyot jarayonining navbatdagi bosqichidir. Informasion sivilizasiyaning hosilasi bo'lmish kibermakonda internet tarmoqlari ijtimoiy turmush tarzining barcha sohalariga kirib bormoqda va foydalanuvchilarga katta imkoniyat yaratmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanishda va masofali ta'lim tizimida, ilmiy tadqiqot bosqichlarida,

videokonferensiyalarni tashkil etishda, ayniqsa, jahonning istalgan nufuzli kutubxonalaridagi adabiyotlar bilan tanishishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi munosabati bilan uzluksiz ta'lim tizimining masofali tashkil etilishi kibermakonning keng imkoniyatlaridan biri edi.

Axborot asri kishilik jamiyati taraqqiyotiga xos bo'lgan tabiiy-tarixiy jarayon bo'lib, uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlari ham mavjuddir. Bu salbiy xususiyatlar ko'proq axborot xurujlari va ma'naviy tahdidlarda namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimizning ma'naviyatiga salbiy ta'sir etayotgan ma'naviy taxdidlar va axborot xurujlari asosan "Ommaviy madaniyat" zahiridagi axloqsizlik hamda diniy ekstremistik va terroristik g'oyalar shaklda namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda kibermakondan diniy jarayonlarda foydalanish, xususan, diniy mazmundagi ma'lumotlarni, missionerlik va soxta tariqatchilik g'oyalarini, ayniqsa, diniy mutaassibona terroristik g'oyalarni tarqatishda internetdan foydalanish keng avj olmoqda.

Avvalo ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi[1].

Kibermakonda internet tarmog'idan foydalanishda juda katta imkoniyatlar mavjud. Avvallari noyob bo'lgan, hamma ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan muqaddas matnlar va ularga yozilgan turli sharhlarni endilikda istalgan kishi internet saytlardan yuklab ta'lim olish mumkin. Shu maqsadda diniy ma'lumotlarga kuchli ehtiyoj sezgan kishilar uchun maxsus veb saytlar muqaddas matnlar, diniy manbalar, turli tuman sekta va yangi diniy harakatlarining g'oyalarini targ'ib etuvchi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. Eng tahlilalisi diniy ekstremistik va terroristik g'oyalarini targ'ib etuvchi internet saytlari kundan kunga ko'paymoqda. Bu kiberterrorizmning jiddiy ijtimoiy xavf sifatida namoyon bo'lishidir. Ayniqsa bugungi kunda "o'rgamchak to'rida" diniy ekstristik g'oyalar targ'iboti hamda diniy mutaassiblik va terrorismga chaqiriqlar domiga tushib qolayotgna kishilar ko'paymoqda. Butun insoniyatga tahdid solgan ISHID terroristik to'dalari ham o'z g'oyalarini internet to'rlari orqali tarqatdi[2.89]. ISHID tomonidan amalga oshirilgan xunrezliklar kibermakonda kiberterrorizmning yaqqol namoyon bo'lishidir.

Terroristlar bu ishga katta malaka, tajribaga ega bo'lgan yevropalik mutaxassislarni jalb etganlar. Ular yoshlarni o'zlarining aldovlari domiga tortish uchun videolavhalar va chaqiriqlarini yuqori sifat va professional mahorat bilan ishlaganlar. Shuning uchun ham qo'plab fuqarolar, asosan yoshlar ularning manfur tuzog'iga ilindi. Yoshlarning bunday buzg'unchi g'oyalarga aldanmasliklari hamda zalolat botqog'iga botmasliklari uchun biz mutaxassislar zaruriy metodologik tavsilarimizni o'z vaqtida ishlab chiqishimiz kerak. Yoshlarimizga internetda in qurib, o'zlarining vayronkor g'oyalarini xatarli virus kabi butun dunyoga tarqatayotgan jinoyatchi terrorchi g'alamislarning asl basharasini ochib berishimiz kerak.

Internet tarmog'ida diniy ekstremistik, terrorchilik va buzg'unchiliklarni targ'ib qiluvchi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar soni kun sayin ko'paymoqda. Bu holat dunyoqarashi shakllanmagan va g'o'r yoshlarimizning sog'lom e'tiqodini ongi va dunyoqarashini zaharlamogda. G'alamislarning internet orqali hujumlari asosan yoshlarga qaratilgan bo'lib, ular o'smirlar uchun qiziqarli bo'lgan vositalardan ustalik bilan foydalanishmoqda. Jumladan, yoshlarning qiziqishiga qarab, ularni turli videolavhalar va fotosuratlarini tomosha qilishga jalb yetish orqali yoki tashqi ko'rinishidan guoyoki uyin, texnika, sportga doir bo'lsada, lekin ichki sahifalarda faqat buzg'unchilikni targ'ib yetuvchi veb jurnallarni taqdim etmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Diiny ekstremizm,terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migrasiya, "ommaviy madainyat" kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og'ir kulfatlar olib kelmoqda, g'arazli kuchlar hali ongu tafakkuri to'la shakllanib ulgurmagana bolalarni o'z ota-onasi, Vataniga qarshi ko'yib, ularni hayotiga zomin bo'lmoqda"[3.496]. Globallashuv jadal sur'atlar bilan sodir bo'layotgan hozirgi davrda talaba yoshlarimizni axborot ma'lumotlarini olishlarini taqiqlash bilan muammoni ijobiy hal etib bo'lmaydi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek «Jahon axborot maydoni toboro kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hiech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddalarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasing o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganimiz va bu yo'ldan hiech qachon qaytmaymiz»[4.114].

Fuqarolarning diniy qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni ehtiyojini qondirish maqsadida ayni damda internet tarmog'ida O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi bir necha o'nlab veb-saytlar faoliyat yuritmoqda. Mazkur saytlarda ajdoodlarmiz e'tiqod qilib kelgan sunniylik yo'nalishining hanafiya mazhabiga oid ixtiyoriy savollarga diniy ulamolarimizning mukammal javoblarini topio' mumkin. Bugungi kunda o'n minglab fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimiz "UZ" domenidagi diniy veb saytlarga murojaat qilishmoqda. Mazkur saytlar ishonchli diniy ma'lumotlarni taqdim etadi.

Shu bilan birga yoshlarimizni kibermakonda diniy ekstremistik va terroristik tahdidlardan saqlashimiz uchun avvalo ularda axborot madaniyatini shakllantirishimiz zarur.

Axborot madaniyati bu har qanday olingan yoki berilgan, eshitilgan, ko'rilgan xabar, ma'lumot yoki axborotni rasional tarzda, mantiqiy tafakkur asosida obyektiv, tanqidiy tahlil etish qobiliyati tushiniladi. Ma'lumotni tahlil etish hamda baholashda milliy ma'naviy qadriyatlar asosida va milliy mentalitet nuqtai nazaridan ham yondashishi axborot madaniyatining tarkibiy qismidir.

Axborot madaniyatining tarkibiy elementlari quyidagilardan iboratdir: rasional tafakkur; yetuk nazariy bilim, xususan ijtimoiy gumanitar fanlar sohasida; hodisa, jarayon yoki voqyelikka tanqidiy yondashish va mantiqiy

tahlil etish qobiliyati. Yoshlarda tarixiy xotira va milliy g'urur, milliy ma'naviy qadriyatlarimizdan iftixor tuyg'usi axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi[5].

Har qanday axborotlarni milliy mentalitetimizga xos tarixiy ong negizida tanqidiy tahlil eta olish qobiliyatini ham axborot madaniyatining zaruriy jihati.

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning obyektiv va subyektiv asos hamda omillari, usullari, vositalari mavjuddir.

Axborot madaniyati diniy mazmundagi axborot xurujlari va kiber tahdidlardan himoyalash, o'z navbatida, ularga qarshi kurashish uchun eng zaruriy vositadir. Chunki axborot madaniyati orqali yoshlar internetda berilayotgan ma'lumotlarni "filtrlash" olish qobiliyati shakllanadi. Axborot madaniyati shakllangan yoshlarimiz internetdagi diniy ekstremistik ma'lumotlarni ajrata bilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Axborot madaniyatini shakllanishida muhim vositalar va usullar ham mavjud bo'lib, bularga oila, mahalla ta'lim tarbiya maskanlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratish har bir murabbiy va ustozdan mas'uliyat talab etadi. Zero, axborot madaniyati hozirgi murakkab globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetning muhim tarkibiy qismi hamda kibermakonda diniy ekstremistik va terroristik tahdidlarni oldini olishning hamda zaruriy axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kibermakon tushunchasi va uning mazmun-mohiyati// <https://hozir.org/din-va-diniy-qadriyatlarining-jamiyatdagi-rol-i-javob.html?page=5>
2. Muhammad Amin Yahyo ISHID fitnasi T., 2015y.-89 bet
3. Sh.Mirziyov. O'zbekiston yoshlari bayram tabrigi/ Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan oliy bahodir.2. T.: "O'zbekiston" -496 bet.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.T. "Ma'naviyat", 2008y., 114 bet
5. A.Azizqulov, I.Abduraxmonov Talaba yoshlarda axborot va internet bilan ishlash madaniyatini shakllantirish omillari// "Talaba yoshlarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalashning dolzarb malalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari Samarqand 2017y. 47-48 betlar.



THE BENEFITS AND SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF COLLABORATIVE LEARNING IN TEACHING

Dadamirzayeva Barno Otamirza kizi,

Teacher of NamSU, Faculty of English philology

Annotation: The article has a primary aim at attempting to analyze one of dilemmas in the sphere of ELT methodology; the effectiveness of using cooperative learning of teaching English. The problem of using cooperative learning methods in teaching English is of great importance. The culture of cooperative learning are characterized as one of the most effective methods of teaching and learning a foreign language through research and communication, different types of this method allow us to use it in all the spheres of the educational process. They involve activities which focus on a theme of interest rather than of specific language tasks and helps the students to develop their imagination and creativity. The main idea of intensive methods of teaching English are considered to be based on teaching students through research activities and stimulating their personal interest.

Keywords: Cooperative learning, work in isolation, English language teaching, language needs, active listening, cooperative learning activities, authenticity of task-based materials, language skills.

In writing the article we were guided by three beliefs about the importance of cooperative learning: 1) it benefits all students, 2) it is an integral part of current school reform efforts, and 3) it promotes collaboration between educators who have traditionally worked in isolation from others.

1. Cooperative learning is good for all students.
Cooperative learning is of value for all students including those who have been identified as "at risk (new learner)," "bilingual," "gifted," and "normal." *All* students need to learn and work in environments where their individual abilities are recognized and individual needs are addressed. *All* students need to learn within a supportive community in order to feel safe enough to take risks.
Some teachers have challenged the use of cooperative learning in classrooms with students who are identified as "gifted," claiming that gifted students become permanent tutors and are resentful of having to work with students of differing abilities. Beyond academic subjects, don't we want all students to be comfortable with and accepting of individual differences (their own and others) Don't we want all students to have sophisticated social skills that will enable them to work with people they perceive as "different" or even "difficult"?
2. Teachers must be encouraged to be thoughtful about all aspects of cooperative learning and to garner enough support for themselves so that they are not isolated and overwhelmed by the truly complex task of meeting the needs of many different children within the same environment.

Teachers are confronted on a regular basis with educational innovations that must be incorporated into their teaching: whole language, critical thinking, authentic assessment, and so forth. Some teachers hope they can ignore these "fads" in education, and, by waiting for them to pass and be replaced by "the next thing," save themselves the time and energy needed to learn about and implement new practices. Yet, not only is cooperative learning supported by a compelling research base, it is also fully compatible with other "best practices" currently being promoted.

3. Cooperative learning means teachers cooperating.

In order for cooperative learning to be successful in inclusive classrooms; educators who have traditionally worked in isolation will need to find new ways of collaborating and sharing their expertise. This kind of collaboration can be challenging because it involves sharing responsibilities and communicating with others, but it can also be exciting and rewarding. One teacher commented that planning cooperative learning lessons was stimulating: "For us, it really gets the creative juices flowing." Another teacher said, "It's fun, there are no two ways about it, it's fun. How can it not be fun? Plus [the students] get to know each other's abilities and they can get excited about each other's growth, even though it's not the same as theirs".

Once teachers have decided that they will begin to implement formal cooperative group lessons in their classrooms, there are many decisions that must be made. Teachers must decide how they will incorporate cooperative learning lessons within their classroom structure, how they will decide the content to be taught using cooperative learning, how they will form groups, how they will ensure active participation for all students, and how they will evaluate students' learning. On the following pages we explore some principles of inclusive cooperative learning that must be taken into consideration for successful implementation.

A feeling of cooperation, community, and connection should be part of everything that happens in the classroom. For example, hanging up for display only those papers graded with "As communicates to students that not everyone's work is valued. Teachers might instead want to hang up a "proud paper" from every student or let students decide what they would like to display. Having students line up for music and gym in a girls' line and a boys' line communicates that gender divisions are important ones (and pity the boy who accidentally gets in the girls' line). There are an infinite number of other ways to line students up that encourage them to interact with a variety of their classmates across boundaries of race, gender, and ability. Classroom holiday celebrations, posters on the wall, and the racial and ethnic representation of the books in the classroom library all affect the school community and the extent to which students feel that they are (or are not) a valued part of the classroom. Teachers must be encouraged to think about all aspects of their classroom practice in reference to questions such as the following:

Will this practice contribute to or detract from a sense of classroom community? Will what I say or do in this situation encourage students to see each

Helping establishing norms about when, how, and why we help others is critical to the full implementation of cooperative learning. Because many teachers and students have received cultural messages that say that "needing help is bad or shameful" and "offering help to others will embarrass them," it is important to establish new classroom norms. Two of the most critical values are: 1) Everyone is good at something and can help others, and 2) Everyone is entitled to and can benefit from help and support from others.

In most classrooms, teachers leave cooperative learning groups together for 1 month or 6 weeks so that students have an opportunity to get to know and work together with group members, but then also have an opportunity to learn to work with other classmates throughout the year. The goal is for students to have worked in cooperative groups with all their classmates by the end of the year.

There are several strategies that can be used to provide a more comprehensive examination of progress within cooperative learning activities. The following methods are more qualitative in nature and provide rich information about students that could not be ascertained as readily through traditional testing. For example, some teachers use a cumulative record file review system that outlines teachers' comments in subject areas, patterns of strengths as well as areas that need improvement, and affective observations. Through interviews the teacher can glean much information about students' interests, motivation, knowledge, and perspectives on their contribution to the group. All of these approaches are compatible with cooperative learning and the use of authentic assessment, which is gaining attention as an important approach to determining whether students have acquired skills to select and use important concepts in authentic open-ended situations.

Cooperative learning activities provide a unique opportunity to evaluate important collaborative outcomes, such as interactive communication, active listening, taking the perspective of others, acceptance and accommodation of individual differences, and the evaluation of a final product developed through group effort.

References:

- 1 De Vita, G. (2000). Inclusive approaches to effective communication and active participation in the multicultural classroom: An international business management context. *Active Learning in Higher Education*, 1(2), 168-180.
- 2 De Vita, G. (2001). The use of group work in large and diverse business management classes: Some critical issues. *The International Journal of Management Education*, 1 (3), 27-35.
- 3 Johnson, D.W., & Johnson, F. (2000). *Joining together: Group theory and group skills* (4th ed.). Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. 34-37.
- 4 Oakley, B., Felder, R. M., Brent, R., & Elhajj, I. (2004). Turning student groups into effective teams. *Journal of Student Centred Learning*, 2 (1), 9-34.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'QUVCHILAR O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTINING AHAMIYATI

Doniyarov Mavlonbek Arabovich,

JDPU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi, +99893 309 27 82.

doniyarovmavlonbek84@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirish, matni o'qish va uni tushunish ko'nikmasini baholash, o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda PIRLS xalqaro tadqiqot materiallarining ahamiyati, yurtimizdagi ijobiy islohotlar doirasida Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi bilan olib borilgan chora-tadbirlar natijasida ushbu xalqaro tadqiqotda O'zbekistonning ishtiroki va natijalar haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы участия Узбекистана в данном международном исследовании и результаты оценки будущих учителей начальных классов навыков чтения, чтения и понимания текста учащимися, значение материалов международного исследования PIRLS в развитии читательской грамотности учащихся, меры, принятые международной ассоциацией оценки образовательных достижений в рамках позитивных реформ в нашей стране.

Annotation: This article reflects on the participation and results of Uzbekistan in this international study as a result of measures taken with the International Association for assessment of educational achievements in the framework of positive reforms of the country, the importance of PIRLS international research materials in the development of reading literacy of students, the development of reading literacy of students, the development of Reading Literacy.

Tayanch so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, o'qish savodxonligi, PIRLS, matn, tahlil, izohlash.

Ключевые слова: будущие учителя начальных классов, грамотность чтения, PIRLS, текст, анализ, интерпретация.

Keywords: future elementary school teachers, reading literacy, PIRLS, text, analysis, interpretation.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan [1].

Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlab topish, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olib, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va uni baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS dunyoning turli mamlakatlarining milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va uning natijalarini qiyoslashga yo'naltirilgan [7].

Yurtimizdagi ijobiy islohotlar doirasida Hukumat qaroriga asosan Vazirlar mahkamasi huzurida ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlari milliy markazi tashkil etildi. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi bilan olib borilgan to'rt yillik chora-tadbirlar natijasida ushbu xalqaro tadqiqotda O'zbekistonning ishtirokini ta'minlashga erishildi.

2021-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra unda ilk bor qatnashgan mamlakatimiz o'quvchilari ushbu dastur uchun qabul qilingan o'rtacha balldan past (o'rtacha ball 500) sezilarli ya'ni 437 ball to'plab, dasturga qatnashgan 57 mamlakat orasidan 49-o'rinni qayd etishgan. (1-jadvalga qarang).


1-jadval. Tadqiqotda qatnashgan ayrim davlatlarning o'rinlari va o'rtacha ballari:

O'рни	Davlatlar	O'rtacha ball
1	Singapur	587
2	Irlandiya	577
3	Gongkong	573
4	Rossiya	567
5	Shimoliy Irlandiya	566
9	Finlandiya	549
38	Qozog'iston	504
49	O'zbekiston	437
55	Misr	378
56	Marokash	372

57	Janubiy Afrika	288
----	----------------	-----

2021-yildagi natijalar e'lon qilingandan keyin shu ayon bo'ldiki: o'qish savodxonligi darajalari 4 ta bo'limga ajratilgan ya'ni 400 ball past daraja, 475 ball o'rtacha o'rtacha, 550 ball yuqori va 625 ball rivojlangan darajaga bo'lishganda, Mamlakatimizdan qatnashgan 4-sinf o'quvchilarining 70%ida quyi, 34%ida o'rtacha ko'rsatkichlarga erishgan, 7% o'quvchilarning natijalari yuqori darajaga yetganini ko'rishimiz mumkin. Afsuski o'quvchilarimiz rivojlangan darajani qayd etishmagan.

Tadqiqotda ishtirok etgan ayrim davlatlarning yuqori natijaga erishganligini ko'rishimiz mumkin: (1-rasmga qarang).




1-rasm. O'qish savodxonligining yuqori darajasini qayd etgan o'quvchilar foizi.

Tadqiqotda ishtirok etganlar o'quvchilar orasida o'g'il bolalarga qaraganda qiz bolalar nisbatan yuqoriroq natijalarni qayd etishgan. Qizlar va o'g'il bolalar natijalari orasidagi o'rtacha farq 16 ballni tashkil qiladi. Mamlakatimizda esa bu farq 24 ballni tashkil qilgan. Qizlarimizning o'rtacha bali 449, o'g'il bolalarniki 425 balni tashkil etgan.

Badiiy tajriba orttirishga qaratilgan matnlar va axborot olish uchun mo'ljallangan matnlarni tushunish darajalari solishtirilganda O'zbekistonlik o'quvchilar axborot beruvchi matnlarga qaraganda badiiy matnlarni bir muncha yaxshi tushunishgan. (ballar bo'yicha solishtiradigan bo'lsak, axborot beruvchi matnlarni tushunish bo'yicha 434 ga teng bo'lgan, badiiy matnlarni tushunish bo'yicha o'rtacha ball 438 ni tashkil qilgan.

O'quvchilarimiz matnda berilgan nisbatan yuqoriroq darajadagi ko'nikma hisoblanuvchi ma'lumotlarni integratsiya qilish, birlashtirish, talqin qila olish va baho berish ko'nikmalariga qaraganda, ochiq shaklda berilgan ma'lumotlarni izlab topish va ularni talqin qila olish ko'nikmalari yuqori ekanligini ko'rsatgan. (ballar bo'yicha solishtiradigan bo'lsak 430 ga 441).

O'quvchilarning qanday oilalarga mansub ekanligi ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi ham ularning o'qish natijalariga ta'sir ko'rsatgan. Bunda oilalar ijtimoiy va iqtisodiy tomondan yuqori, o'rtacha va quyi bo'g'inlarga bo'linganda natijalarning sezilarli darajadagi farqini ko'rishimiz mumkin. (2-rasmga qarang).



2-rasm. Oilalar ijtimoiy va iqtisodiy tomondan quyi, o'rtacha va yuqori bo'g'inlarga bo'linganda natijalar.

Oilaladagi muhit ya'ni, ota-onalarning kitobxonlik darajasi ham o'quvchilarning ko'rsatgan natijalariga ta'sir qilishgan. Ota-onalarni uch guruhga ya'ni, "kitob mutolaa qilishni juda yoqtiradiganlar", "kitob mutolaa qilib turadiganlar", "kitob mutolaa qilishni yoqtirmaydiganlar" ga ajratishimiz mumkin. (ballar bo'yicha solishtiradigan bo'lsak 449, 431 va 401).

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga (bolalar bog'chasi) borgan o'quvchilar, maktabgacha bo'lgan davrda dastlabki o'qish va yozish ko'nikmalariga ega bo'lmagan o'quvchilarga qaraganda natijalari bir muncha yuqoriroq bo'lishgan. Maktabgacha davrda boshlang'ich o'qish va yozish ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar va maktabga borganicha o'qish va yozishni bilmagan o'quvchilarning natijalari orasida 36 ball farq qayd etilgan.

Maktabdagi resurslar, tartib-intizom va xavfsizlik ham o'quvchilarning natijalariga ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan. Tadqiqotda ishtirok etgan Mamlakatimiz o'quvchilarining 49%i u yoki bu darajada resurslarning yetishmasligi mavjud bo'lgan maktablarda, 35%i esa tartib-intizom bilan o'rtacha yoki jiddiy muammolar bor maktablarda o'qishi qayd etilgan.

COVID-19 pandemiyasi ham tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatgan, biroq oldingi tadqiqotlarda (2016-yilgi va undan oldingi yillarda) ham qatnashgan davlatlarning 2021-yilgi va oldingi natijalarini solishtirganda aynan pandemiya bu natijalarga qanchalik ta'sir ko'rsatganligini aytish qiyin, chunki har bir davlatning pandemiyaga qarshi turish bo'yicha ko'rgan choralari ham har xil bo'lgan. Tadqiqotda ishtirok etgan aksar mamlakatlarda 2021-yildagi natijalari 2016-yildagi natijalariga qaraganda pastroq bo'lgan, biroq Kipr, Misr, Fransiya, Gonkong, Ummon, Singapur va Turkiya 2021-yilda 2016-yilga nisbatan yuqoriroq natija qayd etishganini ham ko'rish mumkin, Shimoliy Makedoniyada esa natijalar o'zgarishsiz qolgan. O'zbekiston esa bu tadqiqotda 2021-yildan oldin qatnashmagan.

Ma'lumot o'rniida shuni ham aytish mukinki: O'zbekistondan tadqiqotda 2016-yilda 1-sinfga borgan o'quvchilar qatnashgan.

O'quvchilarning o'qishdan olgan ma'lumotlaridan to'g'ri foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor berilib, tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda [4].

PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning o'qishdagi asosiy ikkita maqsadiga yo'naltirilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda axborotlarni olish va ulardan to'g'ri va samarali foydalanish uchun o'qishdir [5].

Maktab o'quvchilarining egallagan bilimlari va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish bugungi kunning eng ustuvor masalalaridan biridir. Shu maqsadda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taqaqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi [2].

Inson rivojlanib borishi uchun o'ziga g'amxo'rlik qilishi lozim. O'zi yashaydigan va faoliyat yuritadigan jamiyatda qolaversa o'zi oldidagi burchi ham hisoblanadi. Rivojlanishning asosiy yo'llaridan biri bu – o'qish hisoblanadi [8].

Yangi tahrirdagi Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Milliy o'quv dasturi o'quvchining har tomonlama rivojlangan, mustaqil bilim olish va o'zini o'zi rivojlantirishga tayyor bo'lgan shaxsni shakllantirishni belgilab beradi [3].

Yuqorida aytilgan shaxsni shakllantirishda kitob o'qish, unda berilgan matnlarni tahlil qilish bilan bevosita bog'liq jarayondir.

Boshlang'ich sinfda olib boriladigan darslarni o'qish savodxonligiga erishmasdan tasavvur qilish qiyin. O'quvchilar nimani o'qiyotganlarini bilishlari, o'qiganlarini to'g'ri tushunishlari, ma'nosini anglay olishlari, o'qish davomida olgan axborot va ma'lumotlarni shaxsiy hayotlarida yoki keyingi bosqichdagi bilimlarni egallashida foydalana olishni bilishlari kerak [6].

Maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchi savod chiqarish mashg'ulotlarini harflarni o'qish ya'ni, ularni bo'g'inga, ularni so'zlarga qo'shishdan boshlaydilar. Maktabda bu jarayon uzlukiz va to'xtovsiz davom etmaydi shu bilan birga maqsadga erishish yo'lida yetarlicha natijani ham berolmaydi. Bilim zinapoyasidan asta sekinlik bilan yuqorilab borish, insonlarning global bilim tizimiga kirib borishi uchun o'qish savodxonligi asos bo'lib xizmat qiladi [10].

Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin: o'qish savodxonligi darslari to'g'ri tashkil qilinib, o'quvchilar o'qish savodxonligiga yuqori darajada erishsa har qanday matnni o'qiganda undan zavqlanib, o'zining bo'sh vaqtini faqat o'qish mashg'ulotlari bilan band qilishga harakat qiladi; umumiy madaniyati oshib boradi, u qiziqarli suhbatdoshga aylanadi, tengqurlari va kattalar orasida ahamiyati oshadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quvchilarga o'qishni o'rgatish, ularning o'qish savodxonligini rivojlantirish, matnlarni o'qib ularni tushunish, matn mazmunidan shakllarni ajrata olishi juda katta aqliy mehnat talab etadi. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin: matnda berilgan ma'lumotlar umumiy ko'rinishda qabul qilinadi; xulosalar matnning umumiy ma'nosidan kelib chiqib chiqariladi; matndagi axborotlarning o'ziga xos bo'limlari, elementlari, jumalari va so'zlari ajratiladi; matnning to'liq mazmuni, alohida ajratilgan elementlariga baho beriladi, bayon qilingan uslubi va shakli, eng asosiysi tilning go'zalligiga alohida e'tibor qaratiladi; matnni qay darajada tushunganligi yuzasidan savollar beriladi va matn bo'yicha berilgan savollarga javob beriladi.

O'quvchi bu bilim va ko'nikmalarni maktabda o'qish jarayonida bosqichma-bosqich egallab boradi. O'qish savodxonligining asosiy poydevorini o'quvchi o'qishning ilk davrida qo'ygan bo'ladi. O'quvchi ularni egallamy turib ta'limning keyingi bosqichiga o'tishi qiyin kechadi.

O'qish savodxonligining yuqori darajasiya erishgan o'quvchi o'qituvchining ko'magisiz matndagi ma'lumotlarni mustaqil tarzda qabul qila oladi va o'zlashtiradi. Bu darajaga erishgan o'quvchilar badiiy matnlarga baho bera oladi. O'qiganlari asosida o'zlashtirgan ma'lumotlaridan shaxsiy hayotidagi turli vaziyatlarda to'g'ri foydalana olishni o'rganadi.

O'quvchilarni o'qishga qiziqtirish va ularning o'qish savodxonligini rivojlantirish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining eng asosiy va muhim vazifasi hisoblanadi. O'qish uchun adabiyotlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, turlicha shakl, mavzular va har-xil yo'nalishdagi matnlarni o'qishini tavsiya berish ham muhim vazifalardan biri sanaladi. O'quvchilarga qanday kitoblar yaqin ekanligini o'qituvchi aniqlab berishi, ularga bu bo'yicha yordamlashishi lozim. Ular yoqtiradigan boshqa adabiyotlarni ham tavsiya qilish kerak. Kitob o'quvchilarining qiziqishi va didida yillar davomida o'zgarishlar kuzatilib turadi. Ilk o'qish davridayoq to'g'ri berilgan ta'lim-tarbiya va o'qishga bo'lgan qiziqishi yuqori bo'lgan o'quvchilarda bu jarayon o'zgarmaydi [9].

Har qanday matnni o'rganishda, o'quvchilar tushunib olishlari uchun mukammal tahlildan o'tkazilishi lozim. O'qib tushunish jarayoni qog'ozdagi harflardan tashkil topgan so'zlardan ma'no chiqarish, ma'no yasash va xulosalar paydo qilish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. Xalq so'zi. – Toshkent, 2019-yil 30-aprel. №88 (7318).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmoni. Xalq so'zi. – Toshkent, 2022-yil 13-may. №98 (8160).

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. O'RQ-637-son.

4. Doniyarov M.A., Matkarimova S.A. O'quvchilarning bilimni baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi? Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari: Ta'lim va tarbiya integratsiyasi, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Jizzax, 2021. – 337-339 b.

5. Doniyarov M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholashda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Belarus – O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti. Buxoro, 2021. – 225-233 b.

6. Doniyarov M.A. Development of reading literacy in primary school students. Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) VOLUME 03 ISSUE 09. SJIF IMPACT FACTOR. 2022: 6.013. 36-41 b.

7. Ismoilov A. [va boshq.]. – Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (**Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma**). "Ta'lim sifatini baholash tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", Toshkent. – 2019. – 96 b.

8. Ismoilov A. [va boshq.]. – O'qish savodxonligi qamrov doirasi. "Ta'lim sifatini baholash tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi". Toshkent. – 2021. – 92 b.

9. Muminova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodikasi. ped.fan.b.fals.dok. ...diss. – Namangan, 2020. – 130 b.

10. Normurodova N. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining savod o'rgatish kasbiy-metodik kompetentligini shakllantirish. Ped.fan.b.fals.dok. ...diss. – Toshkent, 2021. – 113 b



O'QITUVCHILARNING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK NAZARIY ASOSLARI

Eshquvvatov Josur Buriyevich

Tel. +9989792811017

e-mail: jasureshkuvatov290@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirish va ularda ijodkorlik qobiliyatlarini o'ziga xos jihatlari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar atroflicha yoritilgan. Jahon pedagogikasidan boshlab respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan ishlar xronologik jihatdan asoslangan. Natijada, o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning dolzarbligi dalillangan.

Kalit so'zlar: *kreavtivlik, kreativ fikrlash, ijodkorlik, qobiliyat, fikrlashning originalligi, intiluvchanlik, umumiy qarashlar, nostandart g'oyalar.*

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Bugungi kunda kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Qo'yilgan vazifaga faqatgina kreativ o'qitish metodikasini maqsadli olib borish bilan erishish mumkin, bunda ta'lim oluvchiga yangi bilimlarni tushunishiga, ulardan yangilik yaratishi va amaliyotga samarali tadbiiq etishiga imkon berilishi lozim. Aynan shuning uchun ham so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga kreativ o'qitish metodikasini tadbiiq qilish, jumladan, o'qituvchilarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari o'quv jarayonida qo'llash zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri sanalmoqda.

Jahon pedagogikasida ham o'qituvchilarning kreativligini rivojlanish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, B.Jefrey va A.Kraft, J. Rinkevich, V. Glaveanu, Z.Siyerra va L.Tanggaard kabi olimlar esa (V.Glăveanu, Z.Sierra, L.Tanggaard) kreativlik nafaqat intellektual potentsialni, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi, ekziztentsial, kommunikativ parametrlar va kompetentlik bilan ham bog'liq bo'lgan tizimli psixik qobiliyatligini aniqlagan.

Kreativlik darajasini aniqlash uchun "olis tasavvurlar" testi ishlab chiqildi. Uning yordamida ba'zi ramziy darajalardagi katta miqdordagi ma'lumotlar chegarasida diqqatni jamlash tezligi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Amerikalik psixolog Djoy Pol Gilford va uning hamkasblari, kreativlikni izohlovchi 16 o'ziga xos intellektual gipotetik imkoniyatlarni ta'kidlagan. Mana ulardan ba'zi birlari:

- ravonlik – bir vaqtda paydo bo'luvchi g'oyalar soni;
- qayishqoqlik – insonning bir g'oyadan boshqa g'oyaga, fikrlash yoki boshqa qarashga tez o'tishi;
- fikrlashning originalligi – umumiy qarashlardan tubdan farq qiluvchi g'oyalarni namoyon etish qobiliyati;
- intiluvchanlik – boshqa insonlar qiziqishiga sabab bo'lmaydigan masalalarga nisbatan yuqori idroklilik;
- ahamiyatsizlik – bu dadil g'oyalar.

Xususan, V.S.Agapov bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirish bo'yicha izlanishlar olib brogan bo'lsa, T.A.Barishova esa kreativlik diagnostika va rivojlanish ekanligini ta'kidlaydi. Pedagogika oliy o'quv yurtida filologiya yo'nalishi talabalarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning uslubiy tizimi I.E.Bryakova, Y.R.Varlakovalar tomonidan asoslab berilgan.

N.F.Vishnyakova, Y.A.Yelkina, L.I.Yereminalar tomonidan kreativlik umumta'lim maktab o'qituvchilarining kasbiy va shaxsiy rivojlanish omili sifatida psixologik-pedagogik jihatidan tadqiq qilingan. Pedagog kadrlar kreativligini rivojlantirish zaruriyati Y.E.Antonova, Y.A.Svetkova, M.Selkrig va K.Kiami tomonidan yoritilgan. A.V.Kostruykov va D.V.Miroshnikova pedagogik faoliyatda kreativlikni paydo bo'lish ko'lamini yetarlicha keng va buni pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatida, pedagogik xulq-atvorda, fanni o'qitish metodikasida, talabalarga beriladigan materialni tanlashda, sinfdan tashqari o'qish va tarbiyaviy ishlarda ko'rish mumkinligi to'g'risida fikr yuritganlar. Tinglovchining kreativlik darajasi kasbiy savodxonlilik va to'plangan pedagogik tajriba asosida vujudga keladi va Mashg'ulot mashg'ulotlarini olib borishda, talabalarni o'zlashtirishi, amaliy ko'nikmasi, shuningdek bilimga chanqoqligi va talabalar kreativligini rivojlanishi hisobga olinadi.

Respublikamiz va xorijiy mamlakat olimlari tomonidan kreativ o'qitishning falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan ko'p qirrali xususiyatlari tavsifi bo'yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

O'quvchilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish K.N.Yusupova, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi Sh.X.Pozilova, kreativ yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning pedagogik shart-sharoitlari B.A.Xodjayorova va malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijodiy faoliyatini takomillashitirish B.A.Supiyevlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirish borasida alohida tadqiqotlar olib borilmaganligi ishimizning dolzarbligini ko'rsatadi.

Sh.X.Pozilova "Oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi" nomdagi tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining malakasini oshirish jarayonida kreativligini rivojlantirish. Malaka oshirish jarayonida dizayn fikrlash texnologiyasini qo'shish orqali tashkiliy-pedagogik shartlarni takomillashtirish. Oliy ta'lim muassasasi pedagoglarini kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqqan.

Sh.Pozilova malaka oshirish informatika, fizika va matematika tinglovchilarining kreativligini oshirish asosiy quyidagi ikki omilga bog'liq deb ko'rsatilgan. Bular:

- maxsus tashkiliy-pedagogik shartlar asosida kreativ o'qishni tashkil qilish.
- informatika, fizika va matematika tinglovchilarining mutaxassislik modullari bo'yicha kreativlikni oshirish metodikasini ishlab chiqish.

"Oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi" tadqiqot ishida tinglovchilardagi kreativlikni rivojlantiruvchi "10 kashfiyot", "birgalikdagi yechim", "aqliy xarita", "6-savat", "O'zganing fikri" kabi metodlar va ulardan foydalanish metodikasi keltirilgan.

Demak, o'qituvchi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishi, o'quvchilar ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin.

Mavjud tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirishning zaruriy sharti, avvalambor, pedagogning kreativlik potentsialga egaligiga bog'liq ekan. Ayniqsa, o'quvchi ijodiy faoliyatining dastlabki sharti va natijasi ham o'qituvchining kreativ kompetentligi ekanligi o'ta muhim sanaladi.

Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ixtisoslashgan adabiyotlar, metodologik va pedagogik amaliyot natijalarini tahlil qilish asosida ma'lum bo'ladiki o'qituvchi ham o'quvchi ham o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Ularning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi o'quvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirishga intilgan pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun ularning malakasini uzluksiz oshirib borish talabi qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jeffrey B., Craft A. Teaching creatively and teaching for creativity: distinctions and relationships // Educational Studies. - 2016. - Vol. 30, Issue 1. - P. 77-87. DOI: <https://doi.org/10.1080/0305569032000159750>.
2. Rinkevich J. Creative Teaching: Why it Matters and Where to Begin, Journal The Clearing House // A Journal of Educational Strategies, Issues and Ideas. - 2011. - Vol. 84, Issue 5. - P. 219-223. DOI: <https://doi.org/10.1080/00098655.2011.575416>.
3. Glăveanu V., Sierra Z., Tanggaard L. Widening our understanding of creative pedagogy: a North–South dialogue // Journal Education 3-13, International Journal of Primary, Elementary and Early Years Education. - 2015 - Vol. 43, Issue 4. - P. 360-370. DOI: <https://doi.org/10.1080/03004279.2015.1020634>.
4. Агапов, В.С. Креативное развитие профессионального Я будущего специалиста // Аксиология университетского образования: мат. Междунар. науч. конф., посвящ. 55-летию Оренбург. гос. ун-та, 7-8 окт. 2010 г. / [под общ. ред. А. В. Кирьяковой]; М-во образования и науки Рос. Федерации, Федер. агентство по образованию, Гос. образоват. учреждение высш. проф. образования «Оренбург. гос. ун-т». - Оренбург: ИПК ГОУ ОГУ, 2011. - Ч. 1. - 2011. - 387 с.
5. Барышева, Т.А. Креативность. Диагностика и развитие: монография / Т.А. Барышева, Ю.А. Жигалов. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2002. - 205 с.
6. Брякова, И.Е. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: автореф. дис. ... д-ра пед. наук / И.Е. Брякова. - Санкт-Петербург, 2010. - 51 с..
7. Варлакова, Ю.Р. Развитие креативности бакалавра педагогического образования в вузе: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Ю.Р. Варлакова. - Красноярск, 2013. - 23 с
8. Вишнякова, Н.Ф. Психологические основы развития креативности в профессиональной акмеологии: автореф. дис. ... д-ра псих. наук / Н.Ф. Вишнякова. - М., 1996. - 40 с.
9. Елкина, Я.А. Креативность как фактор профессионально-личностного развития учителя средней школы: автореф. дис. ... канд. псих. наук / Я.А. Елкина. - Тверь, 2017. - 26 с.
10. Еремина, Л.И. Формирование креативности студентов в процессе социального воспитания в учебной группе: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Л.И. Еремина. - Ульяновск, 2011. - 24 с.
11. Antonova E. Pedagogical creativity as a major component of pedagogical endowment structure // Pedagogical education and science. - 2008. - № 12. - P.92-98. DOI: <https://library.ru/item.asp?id=17062443>.
12. Tsvetkova Ya. The Features of relationship between creativity and the professional success of teachers // Bulletin of Tver State University. Series « Pedagogy and Psychology». - 2016. - Issue 3. - P.249-254. URL: <https://library.ru/item.asp?id=27126607>.
13. Selkrig M., Keamy K. Creative pedagogy: a case for teachers' creative learning being at the center // Journal Teaching Education. - 2017. - Vol. 28, Issue 3. P. 317-332. DOI: <https://doi.org/10.1080/10476210.2017.1296829>.
14. Kostyukov A., Miroshnikova D. Approaches to consideration of creativity in pedagogical practice of future teachers // Bulletin of the Orenburg State University. - 2015. - No. 2 (177). - P.83-86. DOI: <https://library.ru/item.asp?id=23752478>.
15. Pozilova Sh.X. Oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash bva malakasini oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi: Diss. PhD. - Toshkent: 2019. - 171 b.



O'QITUVCNINING LOYHAVIY FAOLIYATINI XUSUSIATLARI

¹Eshpulatov Sh.N., ²Shodiyorova M.

¹SamDU UF Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi, sha385797@gmail.com

²SamDU UF Matematika va informatika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annosiya: Ushbu maqola ta'lim jarayonida o'qituvchining loyhaviy faoliyatini tashkil etishga xususiatlariga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra ta'lim jarayonida loyiha texnologiyasini qo'llash o'quvchilar faoliyatini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: rejalashtirish, tuza olish, modellashtirish, izlanish, hamkorlik, bilim, mahorat.

Аннотация: Данная статья посвящена особенностям проектной деятельности учителя в образовательном процессе, согласно которым использование проектной технологии в образовательном процессе служит обеспечению эффективности деятельности учащихся.

Ключевые слова: планирование, построение, моделирование, исследование, сотрудничество, знание, умение.

Annotation: Dannaya stya posvyashchena osobennostyam proektnoy deyatel'nosti uchitelya v obrazovatel'nom procese, soglasno kotorym ispol'zovanie proektnoy tekhnologii v obrazovatel'nom procese slujit obespecheniyu effektivnosti deyatel'nosti uchitelya.

Key words: planirovanie, postroenie, modelirovanie, issledovanie, sotrudnichestvo, znanie, umenie.

O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning muvaffaqiyatliliigi pedagog tomonidan loyihaviy faoliyatni qanchalik o'zlashtirib olganligiga bog'liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir, yangi ta'lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyihaviy faoliyat, V.S.Bezrukovaning fikricha, «bu ta'lim oluvchilar va pedagoglarning bo'lajak faoliyatlarining asosiy qismlarini birinchi galda ishlab chiqishdan iborat» [1]. Har qanday loyihalash obektining, bu pedagogik tizimi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi - uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, o'qituvchi va ta'lim oluvchining faoliyati loyihalashtiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning (tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, maktabda o'quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yaratadi. V.S.Bezrukov yana pedagogning loyihaviy faoliyati bilan pedagogik texnologiya o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni alohida ta'kidlaydi: «loyihalash jarayonida va u orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi» [1]. Biz texnologiya loyihalash mahsulidir, degan fikrga qo'shilamiz.

Loyihaviy faoliyat quyidagilarni o'z ichiga oladi: muammo tahlili; maqsadning qo'yilishi; unga erishish uchun vosita tanlash; axborotni izlash va qayta ishlash, uni tahlil qilish va umumlashtirish; olingan natijalarni baholash va xulosalar.

Predmetli faoliyat uch qismdan tashkil topadi: predmetli, faoliyatli va muloqatli. Loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta'lim uslublaridan biri bo'lib, mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmasini hosil qilishga yo'naltirilib (muammoning qo'yish, axborotlarni to'plash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish), ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta'lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Loyihaviy faoliyatdan kuzatilayotgan maqsad ta'lim oluvchilar tomonidan turli o'quv fanlarini o'rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni tushunish va qo'llay olishdan iborat.

Pedagogning loyihalash faoliyatidan kuzatilgan maqsad:

- rejalashtirishga o'rgatish (pedagog maqsadni aniqlay olishi, ish davomida qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy bosqichlarini ifoda eta olishi);

- axborot materiallarni yig'ish va uni qayta ishlash ko'nikmasini shakllantirish (pedagog kerakli axborotni tanlay olishi va undan to'g'ri foydalana olishi lozim);

- tahlil qila olish ko'nikmasi (ijodiy va tanqidiy tafakkur);

- yozma hisobot tuza olish ko'nikmasi (ish rejasini tuza olishi, axborotlarni aniq taqdimot etish, izohlarni rasmiylashtirish, zaruriy adabiyotlar (bibliografiya) haqida tushunchaga ega bo'lish);

- ishga ijobiy munosabatda bo'lishni shakllantirish (pedagog tashabbus ko'rsatishi, ishni belgilangan ish rejasi va tartibi bo'yicha o'z vaqtida bajarishga harakat qilishi kerak).

G.E.Muravyeva fikricha, pedagog tomonidan loyihalash faoliyatni yuqori darajada o'zlashtirganligini oldindan ayta olish, rejalashtirish, tuza olish va modellashtirish ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi belgilaydi[2].

Pedagogik jarayonni loyihalash - bu pedagogning tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarni nazarda tutilgan holda ma'lum bir vaqt birligi ichida talabalarni maqsadga muvofiq holda rivojlantirishning kelajakdagi jarayoni va natijasi o'rin oladigan kasbiy faoliyatining bir ko'rinishidir. Bo'lajak ta'lim jarayonining loyihasi loyihalashning mahsulidan iborat³.

Loyihalash modellashtirishdan tuzish maqsadi bo'yicha farq qiladi. Loyiha loyihalalanayotgan ob'ektni borliqqa mujassamlashtirishdan iborat; model - obyektini tadqiq qilish uchun, dastlab model, so'ngra uning asosida loyiha ishlab chiqilsa, modellashtirish loyihalashning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin.

Loyihalash bashorat qilish tushunchasi bilan uzviy bog'langan. Ularning umumiyliigi shundaki, loyiha va bashorat kelajakdagi didaktik hodisalar haqida tushuncha beradi. Lekin, loyihadan farqli ravishda bashoratlar ehtimoliy mazmunga ega va u yoki bu didaktik jarayonning rivojlanish natijalarini oldindan ko'ra oladi. Loyiha esa bu jarayonlarni qaytadan tuzadi. Loyihalash o'z tarkibiga bashorat qilish qismini kiritishi mumkin. Agar o'quvchining o'quv - bilish faoliyat rejasi haqida gap borsa, va shu jarayon davom ettirilsa, rejalashtirish loyihani amalga oshirishi tarkibiga kiradi.

Tuzish-qurish ham ta'lim jarayonini loyihalash tarkibiga kiradi. Fikrimizcha, u texnologik jarayonni amalga oshirish uchun moddiy vositalarni tuzishdan iborat.

Loyihalash u yoki bu darajada kelajakdagi ta'lim jarayonini modellashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, tuzish-qurish qismlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonini loyihalash - murakkab faoliyat bo'lib, pedagogdan amaliy, didaktik, uslubiy - metodologik, buyumli va boshqa bilimlarning tizimini talab qiladi, chunki, u xayoliy darajada haqiqiy ta'lim jarayonini yoritib beradi[3].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchining loyihaviy faoliyatini samarali tashkil etish o'quvchilarda o'quv materiallari bilan faol ishlash, o'z loyihalarini yaratish va yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini beradi. Loyihaviy faoliyatni maqsadiga mos kelmaydigan vazifani, vaqtni samarasiz boshqarishni va ish natijalarini baholash usullarini noto'g'ri tanlashni o'z ichiga olgan qiyinchiliklar va xavflarni hisobga holda ta'lim jarayonini sifatli natija bilan amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Безрукова В.С. Педагогика. Проективная педагогика. Учебное пособие. – Екат-бург: Деловая книга, 2006. 152 с.

2. Муравьева Г. Е. Проектирование технологий обучения. Учебное пособие. -Иваново, 2001. 44 с.
3. Муслимов Н. А., Уразова М. Б., Эшпулатов Ш. Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси //Тошкент: Fan va texnologiya. – 2013. – Т.: 160 б.

LOYIHA TOPSHIRIG'INING PEDAGOGIK RESURSLARI

¹Eshpulatov Sh. N., ²Xalilov D.

¹SamDU UF Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi, sha385797@gmail.com

²SamDU UF Matematika va informatika yo'nalishi 2 bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanish xususiyatlari yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga loyiha vazifalarni kiritish bilan bog'liq bo'lgan ijobiy tomonlarni va muammolarni o'rganadi. Loyiha texnologiyasidan foydalanishda pedagogik resurslarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik resurslar, innovasiya, loyiha, komponent, samaradorlik, didaktik maqsad, ta'minot.

Аннотация

В данной статье описаны особенности использования проектной технологии в начальном образовании. Рассматриваются положительные стороны и проблемы, связанные с включением проектных задач в процесс формирования знаний, умений и компетенций учащихся младших классов. Выявлена важность педагогических ресурсов в использовании проектной технологии.

Ключевые слова: педагогические ресурсы, инновация, проект, компонент, эффективность, дидактическая цель, снабжение.

Abstract

This article describes the features of using project technology in primary education. The positive aspects and problems associated with the inclusion of project tasks in the process of forming knowledge, skills and competencies of primary school students are considered. The importance of pedagogical resources in the use of project technology is revealed.

Keywords: pedagogical resources, innovation, project, component, efficiency, didactic goal, supply.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida innovation pedagogik texnologiyalarni tarkib toptirish muammosining ijobiy hal etilishi – ushbu muassasalarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning innovation pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati borasida ma'lumotlarga qanchalik egaligi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatining shakllanganligi, shuningdek, mazkur o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirilishiga nisbatan e'tiborning qaratilayotganligiga bog'liqdir. Innovation pedagogik texnologiyalardan biri bo'lgan loyiha texnologiyasini ta'lim ta'lim jarayonida qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba ega bo'lishi o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi[1].

O'qituvchi loyiha topshirig'ini yaratishni va undan kichik yoshdagi bolalarni o'qitishda o'z ishida foydalanishni boshlashdan oldin boshlang'ich sinf o'quvchilarda loyiha vazifasining afzalliklari haqida fikrni shakllantirish juda muhimdir.

Demak, boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonidagi loyiha vazifasining pedagogik resurslari quyidagilar bilan belgilanadi[2].

Ijodiy komponent. Loyiha yechimida ishtirok etish vazifalarini, o'quvchi o'zining individualligini va tasavvurini namoyon etishi mumkin. Muntazam darslarda soyada bo'lgan o'quvchilar faollashtirish aynan ijodkorlik muhitida namoyon bo'ladi. Loyiha bunday faollashtiruvchi vaziyatlarni yaratishning samarali vositasidir. «Loyiha» natijasining o'zgaruvchanligi g'ayrioddiy fikrlashni, tashabbusni rivojlantirishga va odatiy va kundalik m'yorlardan «chetga» chiqishni ta'minlashga imkon beradi[3].

Hissiy komponent. Loyiha vazifalarining mazmuni o'quvchida ijobiy hissiy tuyg'uni uyg'otishi kerak. O'quvchi boshdan kechiradigan ijobiy his-tuyg'ular ish paytida va «loyiha» mahsulotini namoyish qilish vaqtida muvaffaqiyatini mustahkamlaydi, ichki motivatsiyani shakllantiradi va guruhdagi hamkorlikni rag'batlantiradi.

Hayotga yaqinlik. Loyiha vazifasi muammoli vaziyatni tasvirlanishi bo'lishi kerak (fantastik syujetlarsiz va qahramonlar), lekin bu vaziyatda vazifani to'g'ridan-to'g'ri qo'ymaslik kerak – buning uchun nima qilish kerak? Loyiha vazifasining maqsadiga erishish muammoli vaziyatni o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qilish natijasida olinadi va natijaning o'zi ko'p qirrali taqdimotni (matn, diagramma yoki qurilmaning tartibi, vaziyatni tahlil qilish, jadvallar, diagrammalar, grafiklar, chizmalar va boshqalar) kerak. Muammoli vaziyat syujetiga hayotdan real voqealar, tafsilotlar va boshqalarni kiritish bolaga jamiyatda mavjud bo'lish uchun zarur ko'nikma va ko'nikmalarni egallashga, tajribasini boyitishga, ongida xatti-harakatlar va o'zaro munosabatlarning to'g'ri modellarini mustahkamlashga imkon beradi.

Shunday qilib, loyiha vazifasini dars jarayoniga kiritish zamonaviy ta'limning asosiy pedagogik tamoyillarini amalga oshiradi, ya'ni: 1) sub'ektiv tajribani kengaytirishda o'quvchining faol roli (o'quvchi-kashfiyotchi); 2) tegishlilik o'quvchining tajribasidan o'rganish; 3) jamoaviy ishlarni tashkil etish o'quvchilari; 4) o'quv mazmunining fanlararo integratsiyasi.

Loyiha vazifasi ustida ishlash jarayonida bir qator didaktik maqsadlarga erishiladi, ularni quyidagicha shakllantirish mumkin[4]:

- O'quvchilar tushunchaga ega bo'lishi kerak ...
- O'quvchilar sabab-natija munosabatlarida harakat qilishlari kerak ...
- O'quvchilar naqshlarni aniqlay olishlari kerak ...
- O'quvchilar topshiriqni mustaqil bajarishlari kerak...
- O'quvchilar vazifani qanday bajarish kerakligini aniqlay olishlari kerak ...
- O'quvchilar tashqi yordam bilan tanib olishlari kerak ...
- O'quvchilar vaziyat o'zgargan vaqtda bilimlarni uzatish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak...
- O'quvchilar malakali bo'lishi kerak ...
- Mohiyat va egalikni ochib berish...
- Asosiy xususiyatlar va asosiy natijalarni ochib berish...
- Umumiy kontseptsiyasida loyiha vazifasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:
 - ma'lum bir turga tegishli (mavzu, fanlararo);
 - ma'lum bir joyni egallash (boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish uchun ishlab chiqilgan loyiha topshirig'ini fan dasturlarining qaysi bo'limlar ichida qo'llash mumkin);
 - muammo bilan qo'yilgan va vaziyatni hal qilishni talab qiladigan barcha vazifalar uchun umumiy syujetni o'z ichiga oladi; topshiriqlarni bajarish o'quvchilarga o'zlariga ma'lum yoki noma'lum bo'lgan harakat usullarining zarur to'plamidan foydalanishga imkon beradi (loyihalash topshirig'ining muammoli bloki);
 - syujet bilan bog'liq vazifalarda qo'yilgan o'quv maqsadini hal qilish uchun manbani o'z ichiga oladi: matnlar, diagrammalar to'plami, kichik maktab o'quvchilari uchun moslashtirilgan jadvallar, ma'lumotnomalar va boshqalar (loyiha vazifasining axborot bloki);
 - ma'lum «shovqinlarni» o'z ichiga oladi (chalg'ituvchi) vazifada, vazifani hal qilishda turli to'siqlar yaratish;
 - loyiha vazifasining yakuniy vazifasini o'z ichiga oladi; guruh qilgan hamma narsani birlashtirishga imkon beradi alohida vazifalarda (o'qituvchi uchun bu «asosiy» vazifa, loyiha muammosini hal qilishning umumiy bahosi);
 - topshiriqdan topshiriqa ketma-ket va tanlab o'tish mumkin (o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab), ushbu harakatda ko'rsatma kichik maktab o'quvchilariga marshrut xaritasi / guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar va boshqa ishlash shakllari taqdim etiladi;
 - loyiha muammosini hal qilish uchun bajarilgan ishlarni tahlil qilish uchun savollar, shkalalar, piktogrammalar va boshqalarni o'z ichiga oladi (mezon - loyiha topshirig'ini baholash bloki).
- Shuni ta'kidlash kerakki, loyiha vazifasining muhim pedagogik samaradorligi kiritilgan vazifalar sifatga bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun vazifalarni tanlashda quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- 1) ular o'z ichiga qiymat-mazmunli komponent va o'quvchilarning qiymatli mulohazalarini ifoda etishga yo'naltirilgan (o'z pozitsiyasi) va argumentatsiyani oladi;
- 2) ular kognitiv faoliyati uchun harakatlar (masalan, axborotni qayta ishlash (guruhlash, sxematiklashtirish, vizualizatsiya va boshqalar), mantiqiy operatsiyalar (taqqoslash, tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish, tasniflash, aloqalarni o'rnatish, fikrlash, ma'lum tushunchalarga nisbat berish), maqsadli kuzatish, sharhlash va baholash (natijalar va mulohazalar);
- 3) O'quvchilarni turli matnlar bilan ishlay olishlari uchun va ish turli semantik o'qish ko'nikmalarini qo'llashni talab qiladi;
- 4) ular birgalikda harakat qilishni talab qilishlari uchun - qarorlar qabul qilishda, ishning yakuniy natijasi uchun mas'uliyatni taqsimlashda;
- 5) boshlang'ich sinf o'quvchilariga oddiy tadqiqot o'tkazish imkoniyatini yaratish;
- 6) xulosalar, xabarlar, xulosalarni turli shakllarda taqdim eta olish - nafaqat matn shaklida, balki jadval, diagramma, rasm va h.k. shaklida ham.

Boshlang'ich sinfdagi loyiha topshirig'i uchun vazifalarni tanlashda kichik yoshdagi o'quvchining psixologiyasini, bolalarning idrok etishi uchun ma'lumotlarning mavjudligi nuqtai nazaridan e'tiborga olish, vazifani tom ma'noda tushunish, mavjud dalillarga tayanish, ularni qo'llash bo'yicha bilim va tajriba ega bo'lish muhim ahamiyatga ega[5]. Loyiha vazifasini bajarayotganda, qanday universal ta'lim harakatlar «haqiqiy rivojlanish maydonida» (bu erda maydon bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligini namoyish qilish uchun) va qaysilari endigina shakllantirilmoqda va o'qituvchining yordamiga tayanadi.

Loyiha vazifasining tarkibiy tavsifi quyidagicha ko'rsatilishi mumkin:

1. Loyiha vazifasi pasporti (loyiha vazifasining nomi, loyiha topshirig'ining turi, loyiha topshirig'ining o'quv jarayonidagi o'rni, didaktik maqsadlar, mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar va vazifaga asos bo'lgan meta-mavzu harakatlari; pedagogik natija).
2. Loyiha topshirig'i tushunchasi.
3. Loyiha vazifasining mazmuni (aniq amaliy , muammoli vaziyatni tavsiflash, muammoni shakllantirish , muammoni hal qilish bo'yicha vazifalar tizimi). Har bir topshiriqda o'quvchilar uchun uni amalga oshirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar mavjudligi , bolalar uchun tushunarli natija bilan ishlash. Matnlar, rasmlar, jadvallar, diagrammalar. Loyiha topshirig'idagi oxirgi vazifa yakuniy vazifadir.

4. Ish natijalarini taqdim etish (turli xil matn, belgi, grafik vositalardan foydalanish). Loyiha topshirig'ining bajarilishini baholash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini loyha vazifasini bajarishga tayyorlash jarayonida nazariy materialni o'rganish bilan birga, uni haqiqiy ta'lim muhitida qo'llash yo'llarini o'rganish ham muhim ahamiyatga egadir. Loyiha texnologiyasi o'quvchilarda tadqiqot o'tkazish, o'quv materiallarini tahlil qilish va qo'llash, topshiriqlar yaratish va natijalarni baholash imkoniyatini beradi.

Loyiha topshirig'ining pedagogik resurslari zamonaviy ta'limda nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga, balkim o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilishga ijodiy yondashishni shakllantirishga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дитрих Я. Проектирование и конструирование: Системный подход / Пер. с польск. - М.: Мир, 2001. 92 с.
2. Заир-Бек Е.С. Теоретические основы обучения педагогическому проектированию. Дис. ... доктора пед. наук. - СПб, 1995. 40 с.
3. Муравьева Г.Е. Проектирование технологий обучения. Учебное пособие. -Иваново, 2001. 44 с.
4. Муслимов Н. А., Уразова М. Б., Эшпулатов Ш. Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси //Тошкент: Fan va texnologiya. – 2013. – Т. 160.
5. Эшпулатов Ш. Н., Пардаева Г. С. Глава 7. Подготовка будущих учителей начальных классов к инновационной деятельности в системе высшего образовательного учреждения //Innovations in education. – 2015. – С. 69-86.

O'ZBEKISTONDA SOVET XOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA UNING ESKI MAKTAB VA MADRASALARGA BO'LGAN MUNOSABATI

¹G'offorov SHokir Safarovich, ²Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li

¹SamDU Tarix fakulteti professori,

²SamDU UF Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti o'qituvchisi

Rezyume. *Jadid ma'rifatparvarlari 1917 yil fevralidan so'ng boshlangan bevosita demokratik jarayonlarda maxalliy xalqlar siyosiy manfaatlarini himoya qila boshladilar. Ular o'lkadagi milliy birlik va jipslikni mustaxkamlashga va har qanday davlatning birinchi galdagi vazifasi bo'lgan milliy madaniyatni xamda maorif ishini rivojlantirishga, taraqqiy ettirishga astoydil bel bog'ladilar. Jadidlar tashabbusi bilan "Shuroi Islomiya", "Shuroi Ulamo", "Ittixodi tarakkiy", "Turon", "Milliy ittixod", "Milliy istiklol" kabi tashkilotlar tuzildi.*

Tayanch tushunchalar: *Muvaqqat hukumat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Maxmudxuja Bexbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xujaev, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Tavallo, Chulpon, Eski maktab, Madrasa.*

Резюме. *В прямых демократических процессах, начавшихся после февраля 1917 г., джадидские просветители стали защищать политические интересы местных народов. Они полны решимости укреплять национальное единство и сплоченность страны, развивать и продвигать национальную культуру и просветительскую работу, что является первоочередной задачей любого государства. По инициативе джадидов были созданы такие организации, как «Шурой Исламия», «Шурой Уламо», «Иттиходи Таракки», «Турон», «Миллий Иттихад», «Миллий Истиклол».*

Основные понятия: *Временное правительство, Мунаввар Кори Абдурашидханов, Махмудхужа Бехбуди, Абдурауф Фитрат, Абдулла Кадыри, Убайдулла Худжаев, Полвоннийоз Хаджи Юсупов, Тавалло, Чулпон, Старая школа, Медресе.*

Resume. *In the direct democratic processes that began after February 1917, Jadid enlighteners began to protect the political interests of local peoples. They are determined to strengthen the national unity and cohesion of the country and to develop and advance the national culture and educational work, which is the first task of any state. On the initiative of Jadids, such organizations as "Shuroi Islamiya", "Shuroi Ulamo", "Ittikhodi Tarakki", "Turon", "Milliy Ittihad", "Milliy Istiklol" were formed.*

Basic concepts: *Provisional government, Munavvar Qori Abdurashidkhanov, Makhmudhuja Bekhbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulla Kadiri, Ubaidulla Khujaev, Polvonniyoz Haji Yusupov, Tavallo, Chulpon, Old School, Madrasa*

1917 yil 27 fevralda Rossiya imperiyasining poytaxti Petrogradga burjua-demokratik inkilob sodir bo'ldi. Buning natijasida Rossiya imperatori Nikolay II taxtdan ag'darilib, uzoq yillar hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining hukmronligiga barham berildi. Mamlakatda ikki hokimiyatchilik shakllandi, ya'ni burjuaziya vakillaridan iborat Muvaqqat hukumat hamda ishchi, dehqon deputatlari sovetlari ish boshladi. Bulib o'tgan inqilob birinchi galda monarxiya siyosiy tuzumiga barham berdi hamda mamlakatning bir qancha sohalariga imkoniyat eshiklarini ochib berdi. Jumladan, Muvaqqat hukumat tomonidan e'lon qilingan "Bayonnoma"ga, shuningdek, Rossiya fuqarolariga "Murojaatnoma" sidda ham bir qator siyosiy erkinliklarga yo'l ochib berilganligi ta'kidlanadi. Mamlakatda so'z, matbuot erkinligi o'rnatildi. Turkistonda Rossiya imperiyasi davrida mavjud bo'lgan turli xil

diniy va milliy tazyiqlarga ham chek quyildi.

Petrograd voqealaridan so'ng, mamlakatda yangi kokimiyat tuzilib, demokratiya va ijtimoiy adolat sari tomon qadam tashlandi. Mamlakat aholisining ko'pchiligi, uning juda ko'p xalqlari, turli sinflari, ijtimoiy guruhlari, siyosiy partiyalari va ijtimoiy harakatlari inqilobni baland ruh bilan qabul qildilar va uni qo'llab-quvvatladilar.

Inqilobdan so'ng ozodlik, tenglik, mustaqillik, adolat shiorlari hayotga joriy qilina boshlandi. Bu jarayonlar asta-sekin Turkistonga ham kirib kelib, bu hol mahalliy aholi tomonidan ko'tarinki ruhda qarshilandi. Mazkur voqealar o'lkadagi milliy uyg'onish jarayoni va xalqning o'z-o'zini anglashiga ko'mak berdi.

Fevral inqilobi musulmon ruxoniylari xayotiga ham ijobiy ta'sir qildi. Ularning ilgari mavjud bo'lgan yuqori mavqelari qayta tiklana boshlandi. Shu bilan birgalikda, Turkistondagi maktab va madrasalar ham o'z mavqeyini tiklab ola boshladilar. Imperiya davrida ko'plab siquvlarga hamda cheklashlarga qaramay, ular axoli orasida o'z obro'sini saqlab qolgan edi. Maktab va madrasalar o'quv dasturlariga dunyoviy fanlarning kiritilishiga maxalliy jadidlar yuqori tashabbus ko'rsatdilar. Ayniqsa, yirik jadidchi va moxir pedagog Munavvar qori Abdurashidxonovning bu ishda xizmatlari katta bo'ldi. XX asr boshlarida Turkistonda keng shakllangan jadidchilik xarakati maxalliy axolini ma'rifatli qilishga katta xissa qo'shdi. Jadidlar musulmon ruxoniylari, diniy maktablar muallimlari va talabalarini, o'z saflarida birlashtirdilar. Munavvar qori Abdurashidxonov, Maxmudxuja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xujaev, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Tavallo, Chulpon jadidlarning eng yorqin namoyandalaridan edi.

Jadid ma'rifatparvarlari 1917 yil fevralidan so'ng boshlangan bevosita demokratik jarayonlarda maxalliy xalqlar siyosiy manfaatlarini himoya qila boshladilar. Ular o'lkadagi milliy birlik va jipslikni mustaxkamlashga va har qanday davlatning birinchi galdagi vazifasi bo'lgan milliy madaniyatni xamda maorif ishini rivojlantirishga, taraqqiy ettirishga astoydil bel bog'ladilar. Jadidlar tashabbusi bilan "Shuroi Islomiya", "Shuroi Ulamo", "Ittixodi tarakkiy", "Turon", "Milliy ittixod", "Milliy istiklol" kabi tashkilotlar tuzildi.

Bu tashkilotlarning aksariyat asosiy maksadi va bosh g'oyasi o'lkada milliy, madaniy erkinlik, demokratik tamoyillarni o'rnatishdan iborat bo'lgan.

Jadid namoyandalari mahalliy aholining siyosiy ongini o'stirish maqsadida Turkistonning ko'plab shaharlarida gazeta va jurnallar nashr qila boshladilar. Jumladan, Toshkentda "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Turk eli", "Najot", "Kengash", "Shuroi islom" kabi matbuot nashrlari chiqarildi.

1917 yil fevralidagi demokratik jarayonlar Turkistonni ham qamrab oldi. Bu jarayonlar ayniqsa milliy maorif sohasiga xam daxldor bo'ldi, chunki mazkur davrlarda xam o'lka madaniy xayotida chukur ildiz otgan maktab, qorixonona, madrasalar mavjud edi. Bu maktablar bilan birgalikda rus-tuzem maktablari, yangi usul maktablari o'lkada faoliyat olib borgan.

Turkiston o'lkasida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda 1917 yil 14 iyulda Skobelev (Yangi Marg'ilon) da bulib o'tgan qurultoy muxim o'rin tutadi. Unda muxtoriyat loyixasi muxokama qilindi. "Muxtoriyat loyixasi"ni ishlab chiqishda jadidlardan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Maxmudxuja Bexbudiyar ishtirok etgan. Ushbu xujjatda diniy masalalar qatori maktab va madrasalar masalasiga xam aloxida e'tibor qarotildi. O'lkada din ishlarini nazorat qilish maqsadida poytaxtda maxsus "Mahkamai Shar'iya" (Qonunlar palatasi), viloyatlarda uning bo'limlari, har bir shahar va qishloqda esa qozixonalar ta'sis etishni taklif qildilar. Bundan tashqari, dunyoviy ta'lim bilan bir qatorda diniy ta'lim muassasalarining faoliyatiga keng yo'l ochildi.

1917 yil Turkistonda milliy ta'lim tizimini tashkil etish masalasi xal qilinishi shart bo'lgan muammolardan biri bo'lib turdi. 14 mayda Toshkentda o'qituvchilarning I o'lka qurultoyi bo'ldi. U ta'lim tizimining ahvoli bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalarni muhokama qildi xamda "Turkiston o'qituvchilar ittifoqini" tashkil etdi.

Qurultoyda ma'ruza qilgan Muvaqqat xukumat Turkiston qo'mitasining a'zosi S.Maqsudov, yirik sharqshunos L.Zimin, Farg'ona viloyatining maorif bo'yicha inspektori F.Yegorov maxalliy axoliga ta'lim berish ishida rus-tuzem maktablarining yaroqsiz ekanligini isbotlab berdilar.

Shuningdek, qurultoyda eski maktab, madrasalar faoliyatiga xam aloxida o'rin ajratildi. Qurultoyda chiqarilgan qarorga asosan o'lkadagi barcha madrasalar uch bosqichga: kuyi (adno), urta (avsat), yukori (a'lo) bosqichga bo'linishi lozimligi belgilandi. Avvalgi davrlardagidan farqli o'laroq madrasalardagi o'quv-tarbiya ishlarini bevosita mudarrislar kengashi ixtiyoriga o'tdi. Madrasalar ishini nazorat qilish esa, s'ezd qarori buyicha, diniy boshqarmaga tegishli deb topildi.

1917 yil 10 sentabrda Toshkent shaxar dumasi rus-tuzem maktablarini milliy maktablarga aylantirish to'g'risidagi loyihani tasdiqlagan. Shu bilan birga дума davlat mablag'i hisobidan 12 ta usuli qadim maktabi ochish haqida qaror chiqargan, lekin Turkiston an'anaviy maktablarining 1917 yil fevralidan keyin erishgan rivojlanish imkoniyatlari bolsheviklar tomonidan oktabrda amalga oshirilgan davlat tuntarishi natijasida ro'yobga chiqmadi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng Turkistonda yangi sovet maktablarini tashkil etish vazifasi ilgari surildi. Bu vazifani amalga oshirishda 1917 yilda tashkil etilgan Maorif xalq komissarligining o'rni kattadir. Uning birinchi xalq komissari K.Ya.Uspenskiy bulgan. Mazkur komissarlik zimmasiga barcha maktablar bilan birgalikda diniy maktablarni xam nazorat qilish huquqi berildi.

1917 yil oktabrida Rossiyada davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Shu yilning 25-26 oktyabrida bolsheviklar tomonidan Petrogradga Butunrossiya Sovetlarining II s'ezdi bo'lib o'tdi. Unda V.I.Lenin boshlik Sovet xukumati Xalq Komissarlar Soveti tuzildi. Butun hokimiyat kuchli qurol kuchiga ega bulgan bolsheviklar qo'liga utdi. Bu voqea Turkistondagi ijtimoiy xayotga xam ta'sir qildi.

Sovet xokimiyatining dastlabki kunlaridanok bolsheviklar o'lka maxalliy axolisining milliy qadriyatlarini toptash va yo'qotishga xarakat qildilar. Ushbu maqsadni amalga oshirish yuzasidan bir qancha qonunlar ishlab

chiqildi. Sovetlarning Butunrossiya II s'ezdida qabul qilingan "Yer tug'risida"gi dekretida 1917 yil 26 oktyabrdayoq barcha yerlar, shu jumladan, monastir, cherkov, vaqf yerlari umumxalq mulki deb e'lon qilindi.

Oktyabr voqealari Turkiston axolisining ko'pchiligida norozilik kayfiyatini uyg'otdi. Bu voqealarni o'lkadagi muxtoriyat xarakatining vakillaridan bo'lgan Mustafo Chuqay ug'li quyidagicha tasvirlagan edi: "Xalqni siyosiy huquqlardan maxrum qilish bilan birga borgan bolsheviklarning noqonuniy ravishda hokimiyatni qo'lga olishlari bizni shoshilinch choralar ko'rishga, xalq irodasini uzurpatorlar qaroriga qarshi qo'yishga majbur qildi".

Bolsheviklar so'zda demokratiya, ijtimoiy teng huquqlilik, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi tarafdori edilar. Aslida esa milliy manfaatlar, diniy xis-tuyg'ular, musulmonlarning an'analari va marosimlari umuman xisobga olinmagan.

1917 yil 27-oktyabrda Toshkentda boshlangan ko'zg'alon natijasida 1-noyabrga kelib, Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti ag'darildi. Shu yil 2-noyabrdagi RSFSR Xalq Komissarlar Soveti o'zi qabul qilgan "Rossiya

xalqlari huquqlari Deklaratsiyasida Rossiya xalqlarining, shu jumladan, Turkiston o'lkasi maxalliy axolisining ozodligi, erk va xuquqlari rasman e'tirof etilgan edi. Amalda esa bolsheviklar xukumatining ulug' davlatchilik siyosati olib borildi.

1917 yilning 15-22 noyabr kunlari bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III s'ezdi bolshevistik hukumat (Kolesov boshchiligida) - Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlar Sovetini sayladi. Uning tarkibiga 7 bolshevik va 8 ta so'l eser vakillar kiritildi. Bu tarkibga butun o'lka axolisining 95 foizini tashkil etuvchi yerli millat aholisidan birorta ham vakil kiritilmadi.

Xalq Komissarlar Soveti 1917 yil 22-noyabrda "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" deb nomlangan murojaat qabul qildi. Bu murojaat 24-noyabrda barcha musulmon xalqlari tillarida nashr qilindi. Murojaatnomada shunday satrlar bor edi: "Sizning din va urf-odatlariniz, sizning milliy va madaniy muassasalaringiz bundan buyon erkin va daxlsiz deb e'lon qilinadi. O'z milliy turmushingizni erkinlik bilan va baxuzur tuza beringiz. Shunday qilishga haqlisiz. Bilingizki, sizning huquqingiz xam Rossiyadagi barcha halqlarning huquqi kabi ximoya qilinadi".

1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi bo'lib o'tdi. Bu qurultoyda 200 nafardan ziyod turkistonlik xalq vakillari ishtirok etdi. Kun tartibiga esa o'lkani boshqarish shakli, Turkiston Markaziy musulmonlar sovetini qayta saylash, Turkiston Ta'sis majlisi masalalari qo'yildi. Mazkur qurultoyda Turkiston muxtoriyati tashkil etildi. Bu xususda qabul qilingan qarorda shunday deyilgan edi:

"Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub axoli Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jixatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga, muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga xavola etadi".

Shunday qilib, Turkistonliklar azaliy orzusiga erishdi, 28-noyabrda tashkil etilgan ushbu davlat nomi "Turkiston Muxtoriyati" deb ataladigan bo'ldi. Qurultoyda Muvaqqat Kengash tuzilib, a'zolar ichidan 12 kishilik iborat hukumat tuziladigan bo'ldi. Uning 7 foizi yevropalik axoli vakillaridan iborat bo'ldi.

Turkiston Muxtoriyati 1918 yil fevralida sovetlar tomonidan qonga botirildi. Muxtoriyatning ag'darilishi turkistonliklar uchun katta yo'qotish bo'ldi. Xalq Komissarlar Soveti tomonidan 1918 yil fevral oyida tasdiqlangan "Turkiston Muxtoriyatini tugatish haqida"gi qaroriga asosan, Turkiston Muxtoriyati xukumatining zo'rlik yo'li bilan tugatilishi bolsheviklar xukumatining mahalliy aholi manfaatlarini mensimaganligidan dalolat berardi. Mana shu tariqa mahalliy axoli sovet hokimiyatini tan olishga majbur buldi.

1918 yilning 20-aprel 1-mayida Toshkentda V o'lka s'ezdi bo'lib o'tdi. 22-aprelda s'ezd tomonidan olingan telegrammaga asosan bolsheviklar xukumatining raxbarlari Turkistonga "Sovetcha asosdagi muxtoriyat" in'om qilishlari bayon qilingan. Ushbu telegramma quyidagi satrlar bilan boshlanadi: "Xalq Komissarlari Soveti o'lkangizning sovet tartiblari asosida muxtoriyat bo'lishini qo'llab-quvvatlaydi, bunga ko'nglingiz to'q bo'lsin; ..sizlar butun o'lkada sovetlarning keng tarmog'ini vujudga keltirasiz, mavjud sovetlar bilan to'la hamkorlikda ish olib borasiz" degan satrlar bor edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob...
2. Rajabov S. O'zbekistonda sovet maktabi tarixiga doir.-T.: O'quvpeddavnashr, 1957.
3. O'zbekistan tarixi / R.X.Murtazaeva umumiy taxriri ostida.-T.: Yangi asr avlodi, 2003.
4. A'zamxo'jaev S.Turkiston muxtoriyati: Milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi.-T.: Ma'naviyat, 2000.
5. Yuldosh J., Xasanov S.Turkistonda o'qish-o'qitish ishlari tarixidan // Xalq ta'limi.-Toshkent, 1993.
6. O'zbekiston davlatchiligi tarixi:(Ocherklar) / Mas'ul muxarrirlar D. A. Alimova, E.V.Rtveladze.-T.: Sharq,
7. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. Uzbekiston sovet mustamlakachiligi davrida / M.Juraev, R.Nurullin, S.Kamolov va b.;-T.: Sharq, 2000-2001.

QISHLOQ HUDUDLARIDAGI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA GIMNASTIKA FANINI O'QITISH VA OMMALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI

Hakimov Salomxon Karimovich, Norboyev Komiljon Jurakulovich, Turdiyeva Fotima Ulug'bek qizi

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali katta o'qituvchi,

SamDU Urgut filiali Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasida dotsenti
SamDU Urgut filiali maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabsi

Annotatsiya: Respublikamizning qishloq hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida gimnastika darslarini yanada samarali tashkil qilishda nimalarga e'tibor qaratilishi lozim. Sohani rivojlantirish borasida qanday qarorlar qabul qilingan. Gimnastika darslarini rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor berish lozim. Maqolada ushbu savollarni ochishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: qishloq hududi, irodaviy fazilatlar, vosita, gimnastika atamasi, malaka, ko'nikma, infratuzilma, boshlang'ich tayyorgarlik, irodaviy sifatlar.

Аннотация: на что следует обратить внимание при более эффективной организации занятий гимнастикой в общеобразовательных школах сельских районов нашей республики. Какие решения были приняты в отношении развития отрасли. На что следует обратить внимание для развития занятий гимнастикой. Эти вопросы мы постарались раскрыть в статье.

Ключевые слова: сельская местность, волевые качества, моторика, гимнастический термин, квалификация, навыки, инфраструктура, базовая подготовка, волевые качества.

Abstract: What should be paid attention to in the more effective organization of gymnastics classes in general secondary schools in the rural areas of our republic. What decisions have been made regarding the development of the industry. What should be paid attention to for the development of gymnastics classes. We tried to open these questions in the article.

Key words: rural area, volitional qualities, tool, gymnastics term, skill, skill, infrastructure, initial training, volitional qualities

Respublikamizda keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, mutaxassislarni tayyorlovchi o'quv dargohlarini ko'paytirish, soha uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni talab darajasida tayyorlash, ularni yetarli darajada ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash borasida yetarli darajada ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu vazifalarni samarali amalga oshirishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari va ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Buning natijasida respublikamizda gimnastika turlariga bo'lgan qiziqish yil sayin oshib bormoqda.

2015-yilda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi, Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda 449-sonli "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 163-sonli "Gimnastika bo'yicha Oksana Chusovitina sport mahorati maktabini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari sohaga oid qator qarorlarning chiqarilishi, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilayotir.

Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabrda qabil qilgan "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan, gimnastika sport turlari bo'yicha sport maktabining boshlang'ich tayyorgarlik guruhi uchun ishlab chiqilgan dastur asosida "Bolalar uchun gimnastika" dasturini joriy qilish, bu dastur asosida gimnastika bilan shug'ullanish istagi yuqori bo'lgan o'quvchilarga ega hamda sport zallari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablari belgilab olinishi, tanlab olingan umumiy o'rta ta'lim maktablarida gimnastika sport turlari bo'yicha darsdan tashqari alohida sport seksiyalarida mashg'ulotlar maktab joylashgan hududdagi sport maktabidan jalb etilgan murabbiylar tomonidan olib borilishi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida gimnastika zallarini tashkil etish, mavjud gimnastika infratuzilmasini kengaytirish va jihozlash uchun investitsiya va grantlar jalb qilinishi, yoshlar o'rtasida gimnastika sport turlarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, ularda ushbu sport turiga qiziqishni oshirish, gimnastika bo'icha musobaqalarni o'tkazishga ko'maklashish bo'icha chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar uchun jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlarida gimnastika sportining sog'lomlashtiruvchi elementlaridan foydalangan holda bolalarda tana rivojlanishi, mushaklar egiluvchanligi, chaqqonlik, chidamlilik hamda muvozanat hissi va harakatlarni muvofiqlashtirish ko'nikmasi kabi jismoniy sifatlar shakllantiriladi [1]. Bunday vazifalarning ijobiy hal etilishi natijasida nafaqat shaharlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida, balki qishloq hududlarida joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham gimnastikaning turlarini yanada rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Gimnastikaning uslubiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Inson organizmiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishi.
2. Xilma-xil jismoniy mashqlardan foydalanish.
3. Organizmning kerakli a'zolarini takomillashtirish.
4. O'quv jarayonining qat'iy me'yorda bo'lishi va jismoniy yuklamalarni aniq tartibga solish.

5. O'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishda mashqlarni uzluksiz murakkablashtirish va ularni uyg'unlashtirish jarayoni [4].

Ushbu uslubiy xususiyatlarning har bir gimnastika mashg'ulotlarida samarali amalga oshirilishi sababli gimnastika turlariga bo'lgan qiziqish yil sayin oshib bormoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislari oldida, ayniqsa bu sohada o'qituvchi va murabbiylar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari oldida ulkan vazifalar turibdi. Birinchi navbatda, bo'lg'usi mutaxassislarni talab darajasidagi o'quv adabiyotlari, darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan yetarli darajada ta'minlash vazifasi ustuvor qilib belgilangan. Bu vazifalarni talab darajasida bajarish uchun ko'plab olimlar, soha mutaxassislari, murabbiylar samarali ishlarni bajarishayotganligi tahsinga loyiq.

Jismoniy tarbiyaning bo'limlari ko'p. Umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya darslari o'quv dasturiga gimnastika fani ham kiritilgan. Bu fan inson jismoniy rivoji va tayyorgarligida ko'p muammolarni hal qiluvchi, ko'p qirrali vosita hisoblanadi. Uning mashqlari orqali jismoniy fazilatlarini rivojlantirish, qomatni to'g'ri shakllantirish, sog'liqni mustahkamlash, irodaviy fazilatlarini tarbiyalash, harakatlarni mohirona, yengil ijro etishga o'rgatish kabi vazifalar muvaffaqiyatli hal etiladi [4]. Ayniqsa, respublikamizning qishloq hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida gimnastika mashg'ulotlarini tashkil qilish masalalari o'quv adabiyotlarida kam yoritilgan. Ushbu ilmiy maqolada ana shu jihatlarin yoritishga harakat qildik.

Gimnastika har qanday sport turining tashkiliy qismiga kiruvchi mashqlarning bajarilishidir. Gimnastika mashqlari shunchalik xilma-xilki, sport turlarining birortasi ham bu sport turisiz mukammal rivojlana olmaydi. Masalan, shug'ullanuvchilar organizmini asosiy ishga tayyorlovchi umumrivojlantiruvchi mashqlar, egiluvchanlik, tezkorlik va harakatlarni boshqarishga qaratilgan mashqlar, muvozanat saqlash mashqlari, tirmashib chiqish va oshib o'tish, akrobatika, gavda mushaklarini rivojlantirishga, to'g'ri qomatni shakllantirishga, organizmni sog'lomlashtirib, asosiy jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik, abjirlik)ni rivojlantirishga yordam beradi.

Gimnastika mashqlari bilan maktabgacha yoshdagi ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlarida, ishlab chiqarish korxonalarida va turli tashkilotlarda keng shug'ullaniladi. Ushbu sport turining keng yoyilganligiga sabab vositalarning barchaga tushunarli va xilma-xil ekanligida, jismoniy tarbiyaning turli vazifalarni hal qilish uchun mashqlar tanlash imkoniyatining katta ekanligidadir [4].

Gimnastika mashqlarining sog'lomlashtirish ahamiyati katta bo'lib, shug'ullanuvchilarni estetik tarbiyalashning samarali vositasi hisoblanadi. Mashqlarni bajarish texnikasining gimnastikaga xos uslub talab qiladigan darajada mukammal bo'lishi uchun harakatlar ravon va ifodali bo'lishi, ijrochining harakatlari o'ziga yarashadigan, nafis bo'lishi kerak. Gimnastika mashqlari bilan shug'ullanish natijasida kelishgan qomatga ega bo'linadi, gavda tuzilishidagi nuqsonlar tuzaladi, gavdaning ayrim bo'g'inlari rivojlanishida yaxshi mutanosiblikka erishiladi [4].

Respublikamizdagi umumta'lim maktablarida gimnastika ta'limini yanada rivojlantirish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilayapti. Ushbu ilmiy maqolani yozishda Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan qonun, farmon va qarorlardan, respublikamizga taniqli ko'plab professor o'qituvchilarning darslik, o'quv qo'llanmalari va uslubiy tavsiyalaridan foydalandik. O'zimizning ko'p yillik tajribalarimizni qo'shdik.

Xulosa. Bizlar Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filialida malaka oshirayotgan Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Navoiy viloyatlaridan kelib o'z malakalarini oshirayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan "Jismoniy tarbiya o'qituvchisi" tinglovchilar o'rtasida anketa so'rovnomasini o'tkazdik. Unda 80 nafar tinglovchi ishtirok etishdi. Ulardan olingan ma'lumotlarga qaraganda respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 25 % ga yaqinida sport zallar yo'q. Sport zallari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablari gimnastikadan dars mashg'ulotlarini va gimnastikadan to'garak mashg'ulotlarini samarali o'tkazish uchun gimnastika jihozlari bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi ma'lum bo'ldi. Prezidentimizning qarorlarida bu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filialida "Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi"

yo'nalishida malaka oshirayotgan tinglovchilarga gimnastikani o'qitish uslubiyati fanidan 2 soatlik nazariy darsda gimnastika darslarida foydalanadigan atamalar, gimnastika darslarida ulardan foydalanish qoidalari, atamalarga qo'yiladigan talablar, gimnastika mashg'ulot o'tish joylari va ularning zamonaviy jihozlanishi, gimnastika musobaqalarini tashkil qilishga qo'yiladigan zamonaviy talablar va xavfsizlik qoigalari bo'yich nazariy ma'lumotlar berilayapti. 8 soatlik amaliy darslarda esa gimnastika darslarini tashkil etish, darslarda gimnastika jihozlaridan to'g'ri foydalanish, bu gimnastika jihozlarida mashqlarni o'rgatish tartibi kabi tushunchalar berib borilayapti. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars o'tkazadigan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun gimnastika darslarini samarali o'tkazishlarida muhim ahamiyatga egadir. Qishloq hududlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida gimnastika darslari va gimnastikadan to'garak mashg'ulotlarini yanada samarali tashkil qilishda yuqorida aytib o'tilgan fikrlarga amal qilsak, gimnastika sport turini respublikamizning ko'plab hududlarida yanada rivojlantirish imkoniyati kengaygan bo'lardi. Ayniqsa, Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabrda qabul qilgan "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori umumiy o'rta ta'lim maktablarida gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirishda mumim hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-449 sonli qarori. 23-dekabr 2022 yil.
2. “Gimnastika bo‘yicha Oksana Chusovitina sport mahorati maktabini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-163 sonli qarori.14-mart 2022 yil.
3. Salomov R.S., Aripov O.U.Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi uslubiyoti asoslari. 2013 yil.
4. Morgunova I.I. Gimnastika. 2010 yil.



O‘QUVCHILARDA TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

¹Madaliyev Yarmuhammad Xudaybergenovich, ²Jumaniyazova Intizor Atabekovna

¹Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘ston davlat universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, madaliyev_61@mail.ru

²Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat, o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Masofaviy ta’lim fakulteti erkin tadqiqotchisi, Intizor.jumaniyozova1974@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijod maktablarining tashkil etilishi va ularga qo‘yilgan talablar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qish va yozish texnologiyasi va uning afzalliklari, 7-sinf yangi adabiyot darsligida berilgan qit‘alar tahlilida yangicha yondashuvlar haqida mulohazalar berilgan. Faol interaktiv darslarni tashkil etish va uning samarali natijalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:

Ijodiy tafakkur, intellektual, aqliy, axloqiy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qish va yozish, tafakkurga yo‘naltirish, ramziy ma‘nolar.

Annotation.

This article provides comments on the organization of creative schools and their requirements, the technology of reading and writing in the development of critical thinking and its advantages, and new approaches to the analysis of continents given in the 7th grade new literature textbook. Organization of active interactive lessons and its effective results are analyzed.

Key words:

Reading and writing, orientation to thinking, symbolic meanings in the development of creative thinking, intellectual, mental, moral, critical thinking.

Hozirgi paytda ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Barkamol insonni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Har tomonlama yetuk, mukammal va komil insonni tarbiyalash, qalbida yuksak insoniy fazilatlarini kamol toptirish uchun, avvalo, uzluksiz ta’lim tizimida tub islohatlarni amalga oshirish zarur edi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda boshqa metodik vositalarni yana-da takomillashtirishni taqozo etib, ta’limni sifat jihatdan yangilashni talab qilmoqda. Ta’lim haqidagi, yoshlar siyosati borasidagi qonunlar maktab va maktabgacha muassasalar bo‘yicha hukumat ko‘rsatmalari, qarorlar va ularni amalga oshirish borasida muayyan muvaffaqiyatlarni ham qo‘lga kiritib kelmoqda. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilgan islohotlar natijasida 2018–2019-yillarda ijtimoiy-gumanitar fan sohasini o‘zida qamrab olgan Abdulla Qodiriy, Halima Xudoyberdiyeva, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ogahiy, Muhammad Yusuf nomli ijod maktablari tashkil etildi. Ijod maktablarining asosiy maqsadi iqtidorli yoshlarni kashf etish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini o‘stirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirishdan iborat.

Ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilarda hayotiy, ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni shaxs sifatida tarbiyalash muhim masalalardan biridir. Eng so‘nggi zamonaviy ta’lim texnologiyalardan biri tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qish va yozish (TFRO‘U), ikkinchisi esa faol (interaktiv) o‘rganishdir. TFRO‘U texnologiyasining o‘zi ham faol (interaktiv) ta’limning bir tarmog‘idir. Bunda guruh, yakka va juftlik ishlari shakliga asoslangan birgalikdagi ta’lim faoliyati, bilimdon shaxsni izlash va tadqiq etish, o‘quvchining mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish kiradi.

Texnologiyaning maqsadi talabalarning fikrlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish edi. Dars jarayonini tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko‘zda tutiladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qish va yozish. Mantiqiy fikrlash fakti va barcha belgilar, sifat va xususiyatlarga ko‘ra hodisalar xarakterlash imkonini beradi. Ijodiy fikrlash asosiy bilim va ko‘nikmalarga asoslangan yangi g‘oyalarni yaratadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan texnologiya ko‘proq ikkinchisiga e‘tibor qaratadi va uni rivojlantiradi. Shu sababli ham o‘qish, ham yozish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ishtirok etadi. Darsda materialni o‘qish, fakt va hodisalarni yozma ravishda baholash bu darslarning asosini tashkil etadi.

TFRO‘U texnologiyasi bilan olib boriladigan uchta asosiy dars mavjud va quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

- a) tafakkurga yo‘naltirish
- b) tushunish
- c) fikrlash

Tafakkurga yo'naltirish jarayoni darsning birinchi bosqichi hisoblanadi va o'quvchilarning (o'quvchilarning) mavzu bo'yicha dastlabki g'oyalarini ochishga imkon beradi. Yangi 7-sinf adabiyot darsligida berilgan qit'alar tahlili bilan tanishganda bu usul samarali natija beradi. Bu bosqichning asosiy vazifasi o'quvchilar nimani bilishini aniqlashdan iborat. Darslikda to'qqizta qit'a berilgan va ularni quyidagi jadval asosida tahlil qilish topshiriqlari ko'rsatib o'tilgan. Juft-juft bo'lib ishlang. Navoiy qit'alaridan namunalari o'qing va tahlil qiling. Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

Qit'a	Asar g'oyasi	Kalit so'zlar
1	Xushomadgo'ylik	Nokas, nojins, xo'duk, kuchuk
2	Komillikka intilish	Olam uyi, kamol etmoq
3	Tilni asrash va uning salbiy oqibatlarini	O'q, tojvarlar, xurus
4	Nafsni yengish	Naqdi fano, o'zluk imorati
5	Xasislikning qoralanishi	Qo'l sunmoq, mayl, qora rang
6	Kelajakka mas'ullik, farzand tarbiyasi	Nokasu, nojins avlodini, tarbiyat
7	Ilmga amal qilish	Ilm, sud, amal qilmoq

Tafakkurga yo'naltirish jarayonining afzal tomonlari:

1. O'quvchilar mavzuni jumboqli mavzu atrofida tushunib olishadi;
2. Tafakkurga yo'naltirish o'quvchilarga zamon talabi bo'lgan, tanqidiy fikrlash, jumboq mohiyatini anglash hamda o'z nuqtai-nazarini bera olishni shakllantiradi;
3. Adabiyot fani kitobiy ma'lumotlar emas, haqiqiy hayotiy fan ekanligi isbotlanadi.

Qit'alar to'qqizta o'quvchiga bo'lib beriladi. Mumtoz janrlarni tahlil qilish uchun o'quvchilarga kerak bo'lgan muhim iste'dod yozma va og'zaki muloqotda mohir bo'lishdir. Shuning uchun ham har bir o'quvchiga A4 formatdagi qog'ozlar tarqatiladi. O'quvchi o'ziga berilgan qit'aning mavzu va g'oyasini o'zlari bilganlaricha tahlil qiladilar, berilgan qog'ozga rasmlar, diagramma va turli chizgilar yordamida yoritib beradilar. Bu usul orqali o'quvchilarning ham og'zaki va yozma fikrlash qobiliyatini oshirish mumkin.

Tushunish bosqichi qit'alarni tahlil qilish va izohlash, tushunarsiz so'zlar lug'ati ustida ishlash orqali amalga oshiriladi.

Buyuk Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqulov "Kamol et kasbkim" nomli kitobida Alisher Navoiy qalamiga mansub qit'alarni teran, hayotiy misollar va dalillar keltirib izohlab bergan. Biz ijod maktabining 7-sinfida Navoiy qit'alarni o'rgatish jarayonida olimning ana shu kitobdan foydalandik. Chiqarilgan ilmiy xulosalarimiz shuni ko'rsatadiki, qit'a janrini 7-sinf adabiyot darsliklarida o'rganishni quyidagicha yo'lga qo'yish kerak:

1. Qit'a o'quvchilar tomonidan ifodali o'qiladi. She'rdagi ayrim so'zlarga mantiqiy urg'u beriladi. Matnning grammatik qurilishi ustida ishlanadi. Misralardagi ma'nolar izohlanadi.

"Shoir she'rida tasvirlangan goya, tuyg'u, obraz, ruhiy manzaralarni o'z nomi bilan aytishga erishish, deb yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul, – ular bag'ridagi yashirin ma'no va badiiy sirlarni tahlil tilida ifodalash haqiqatning bosh mezonini mana shudir". Tahlilni quyidagi qit'a misolida ko'ramiz.

Kimki maxluq xizmatig'a kamar

Chust etar — yaxshiroq ushalsa beli.

Qo'l qovushturg'ucha bu avlodur,

Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.

Chun xushomad demakni boshlasa kosh,

Kim tutulsa dami, kesilsa tili.

Birinchi o'quvchi qit'ani ifodali o'qigach, notanish so'zlar lug'ati tuziladi.

Maxluq-yaratilgan, Dam –nafas,

Chust etmoq- bog'lamoq, Avlo-afzal, yaxshiroq.

O'qituvchi birinchi misrani sintaktik tahlil qilib, gap bo'laklarini odatdagi tartibga keltirish va bu misrada qanday fikr ifodalanganini aniqlash vazifasini o'quvchilarga yuklaydi. Lekin ayni o'rinda "maxluq" so'zidan ko'zda tutilgan ma'no boshqa, ya'ni kimki yaramas va tuban kimsalarga yugurdaklik qilsa, beli ushlangani ma'qulroqdir, deyilyapti. O'quvchilar quyidagicha izohlaydilar: qaysi kishiki o'zi singari maxluq xizmatiga bel bog'lasa, bundan ko'ra uning beli bo'laklangani yaxshiroqdir. Qo'shma gap qismlarini odatdagi tartibda shakllantirdik. Ifoda sodda ko'rinishga kelib, o'quvchilarga tushunarli bo'ladi.

Uchinchi va to'rtinchi misralarga e'tibor qaratsak, yaramas va tuban kimsalarga qo'l qovushtirib, ya'ni egilib turgandan ko'ra, egni chiqib, qo'li singani ma'qulroqdir. Beshinchi va oltinchi misralarda esa: kimki xushomadgo'y bo'lsa, uning tili kesilib, dami tutilgani yaxshiroqdir, deyilgan.

"Qo'ling sinsin!", "Tiling kesilsin!", "Nafasing o'chsin!" – bular xalqning qarg'ish iboralari. Mir Alisher Navoiyning xushomad va til-yog'lamalikka munosabati naqadar salbiy bo'lganligini shundan ham anglash mumkinki, u kishi xushomadgo'yni la'natgagina loyiq deb hisoblab qolmay, balki uning uchun qarg'ish ravoligini ham ta'kidlaganlar. Xushomadgo'y til – aldoqchi. U avrab-aldaydi, aldab dog'da qoldirishni xohlaydi. Hazrat Navoiy bunday makrboz tillarning kesilishini tilaganida naqadar haq bo'lganlar.

Bundan tashqari qit'a tahlilida yana shunday mavzuda yozilgan asarlarga murojaat qilinadi. O'quvchilardan xushomadgo'ylikni qoralovchi qanday asarlarni bilasiz? – deb savol beriladi. O'quvchilar darslikda o'tilgan Said

Ahmadning “Sobiq”, Chexovning “Buqalamun” asarlari bilan qit’ani integrativ yondashuv asosida tahlil qila oladilar. Tahlildan keyin o’qituvchi xushomadgo’ylikning yomon illat ekanligini, inson doimo samimiy va oqko’ngil bo’lishga intilishi zarurligi haqida hayotiy misollar keltirib, xulosa qiladi.

2. Keyingi bosqichda qit’adagi she’riy san’atlarni aniqlaymiz. Chunki o’quvchilarning tahlil qilishdagi ilmiy salohiyatini oshirish uchun she’riy san’atlarni aniqlay olish ko’nikmasini shakllantirish kerak. Yuqoridagi qit’ada ta’did (ohangdosh so’zlarning kelishi) va tanosib (beli, egni, ili (qo’li), tili va dami(nafasi))singari she’riy san’atlardan o’rinli foydalanilgan.

O’quvchilar bu san’atni tushinishda qiyinchilikka duch kelishmaydi, chunki 5-sinfda ona tili fanida o’tilgan uyadosh so’zlar mavzusi bilan tanishganlar. Shu bois qit’alar tahliliga integrativ yondashib, adabiyot fanini ona tili fani bilan bog’lab tushuntiramiz. Tilimizdagi barcha so’zlar ongimizda ma’lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlangani sababli so’zlar xotirada mustahkam saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi. O’quvchilarga qit’ani qayta o’qib undagi uyadosh so’zlarni topishga harakat qiladilar.

Qit’a vazni aniqlanadi. Navoiyning “Kimki maxluq xizmatig’a kamar” deb boshlanuvchi mazkur qit’asi aruz vaznining xafif bahrida yozilgan. (-V--/V-V-/vv-) O’quvchilar ta’did badiiy san’ati haqida bilim va ko’nikmaga ega bo’ladilar. Tanosib san’atidan tashqari mazkur qit’ada ta’did badiiy san’ati ham qo’llangan. Bu badiiy san’at haqida o’quvchilarga to’liq ma’lumot beramiz.

Ikkinchi qit’a ham o’quvchilar tomonidan tahlil qilinadi:

Nokasu nojins avlodin kishi bo’lsun debon,
Chekma mehnat, latif o’lmas kasofat olami,
Kim kuchuk birla xo’dukka necha qilsang tarbiyat
It bo’lur, dog’i eshak, bo’lmaslar aslo odami.

Bu bilan o’qituvchilar va talabalar muammoga duch kelish vaziyatiga tayyorlanmoqda. Ularning fikrlari va tafakkurida uyg’onish yaratadi. Talabalar muammo haqida fikr yuritadilar va bilganlarini namoyish etadilar, shu bilan birga uning yangi tomonlarini ko’ra boshlaydilar. Ular mavzu bo’yicha bilganlari bilan qanoatlanmasliklari mumkin degan xulosaga kelishadi. Shunday qilib, ular ushbu mavzu bo’yicha nimani o’rganishni xohlashlari haqida savollar tuzadilar. Quyidagi savollar doskaga yozilgan.

Qit’ada qanday g’oya ifodalanyapti?

Bu qit’ani irsiyat bilan bog’lab o’rgansak bo’ladimi?

“Bukrini go’r tuzatadi” maqoli bu qit’aga qanchalik to’g’ri kelishi mumkin?

Chunki darsning keyingi bosqichi (tushunish) shu savollarni tekshirishga bag’ishlanadi. O’quvchilar savollarga mantiqiy fikrlagan holda javob beradilar. Shunday qilib, birinchi bosqichda biz o’quvchilarni o’ylantirib, tuproqqa chigit ekishga yo’naltiramiz.

Tushunish bosqichida o’quvchilar materialni o’qib chiqishadi va mohiyatini tushunishga, ma’nosini guruhlashga harakat qiladilar (Bu bosqich boshqqa qiyoslanadi. Demak, biz birinchi bosqichda ekan donimiz ikkinchi bosqichda boshqoq shaklida namoyon bo’ladi). Qit’ani fanlar integratsiyasini hosil qilgan holda tushuntirishga harakat qilinadi. Inson hayotida irsiyatning ta’siri katta bo’lib, xalqimizda qondan o’tadi, degan ibora bor. Irsiyat — organizmning o’z belgilari va xususiyatlarini kelgusi avlodlarga o’tkazish, ya’ni organizmlarning o’ziga o’xshash nasllarni bunyod etish xossasi. Insonlardagi ayrim xarakter va xususiyatlarning avlodlar osha saqlanib qolishini ham ta’minlaydi. Ayrim paytlarda tarbiya sabab yaxshi insonlardan nokas farzandlar, va ,aksincha, yomon insonlardan esa yaxshi fazilatlar sohiblari chiqishi ham mumkin. Bu rasm orqali tushuntiriladi. Insondagi “nokasu nojins” likni hech qachon tarbiyalab bo’lmaydi. Bunday insonlarning avlodlaridan ham yaxshi inson chiqmaslikni Navoiy qayta-qayta ta’kidlaydi. “Olmaning tagiga olma tushadi”, “Qush uyasida ko’rganini qiladi” kabi maqollar fikrimizning dalilidir.

“Mumtoz badiiy tafakkur tarzi – mumtoz adabiyotimizda yaratilgan asarlarga xos vazn va qofiya qoliplariga rioya qilish, qat’iy yo’sinda shakllangan obrazlar tizimi, ular o’rtasidagi munosabatlar, bu obrazlar atrofida guruhlangan poetik vositalar hamda til xususiyatlarini anglash, ramzlar va majozlar bilan fikrlash demakdir”

Navbatdagi uchinchi qit’a ham o’quvchilar tomonidan tahlil qilinadi.

“Kamol et kasbkim...”

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Sanga farz o’lmag’ay gamnok chiqmak.

Jahondin notamom o’tmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmak.

Mazkur qit’a tahlili quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Misralardagi notanish so’zlar lug’ati tuziladi. Qit’a mazmun-mohiyatini yoritishga harakat qilinadi. O’quvchilar qit’a haqida o’z fikrlarini bildiradilar va tahlil qilishga harakat qiladilar. Bu qit’ani tushunishda biroz murakkablik kuzatilgani uchun ramziy ma’nolari va mohiyati o’qituvchi tomonidan ochib beriladi.

Kamol kasb etmoq degani – behad keng va teran tushuncha. Bu qit’ani o’qiganda, avvalo, mana shu to’g’rida fikr yuritish kerak. Mir Alisher Navoiy “Lisonut tayr”da: “To’rt unsur, yetti ko’k va oltita tomon – bular koinotning nodir va eng oliy asosini tashkil etadi. Koinotdagi barcha narsalar ichida hammadan eng ulug’i inson bo’lib, uning kamoloti oldida aql hayron holadi”, – deyilar. Insonning kamolot yo’li mana shu haqiqat haqida chuqur o’ylashdan boshlanadi. Va u asta-sekin o’ziligini izlaydi. O’zini tanigan olamni taniydi. Shu tariqa u “olam uyida” g’am va g’afltda tutqun yashashdan ruhini qutqaradi. Hazrat Navoiy “Kamol et kasbkim” deya da’vat

qilganlarida komillik uchun zarur juda ko'p xususiyatlarni nazarda tutganlar. Kishi o'zini hirs, tama, nafs, g'aflet, nodonlik singari mayllaridan poklamasa, u hech payt komil bo'lolmaydi. Komillik uchun ulkan insoniy qalb, uni nurlantiruvchisi so'nmas ishq va keng qamrogli tafakkur zarur.

2. She'riy san'atlar aniqlanadi, radif va qofiyalar aniqlanadi. O'quvchilarga bu topshiriq sifatida beriladi.

3. Qit'a vazni o'quvchilar tomonidan aniqlanadi va o'quvchilar bu borada o'z-fikr mulohazalarini bildiradilar. Umrning o'tkinchi ekanligi uni behuda o'tkazish juda salbiy oqibatlarga olib kelishi, inson mukammal bilim va halol kasb egallashi, olgan bilim va tajribalarini amalda qo'llay olishi kerakligi uqtiriladi.

Fikrlash bosqichida bilimlarni tahlil qilish va tushunish qo'llaniladi, o'quvchilar tomonidan qayta ko'rib chiqiladi, o'zlashtirilgan ma'lumotlar yangi sohalarida qo'llaniladi, boshqa shakllarga aylanadi (Bu bosqich quloqdan olingan mahsulotlar - non, bulochka va hokazo). O'quvchilar fikrlash bosqichida bu muammolarni yozma ravishda va og'zaki tarzda tahlil qiladilar. O'qituvchi Abdulla Oripovning "Genetika" she'ridan parcha bilan qit'ani bog'laydi.

Oh-u bolasi bu – ohuday boqqan,
Shervachchada esa sherning shiddati.
Avlodlar qonida ming yillab oqqan
Buyuk bobolarning turfa hislati.
Neki ezgulik bor jahonda poydor
Joylab ola bildik barchasin qonga.

Ya'ni g'oya to'liq u turli va yangi shakllarda, o'zgartirilgan libosda chiqariladi. Taqqoslash yarashishning asosiy belgilaridan biridir. Tanqidiy fikrlash fakti va u hodisalarni tahlil qilish, ularni qadrlash, baholash, ijobiy va salbiy tomonlarini qayd etish kabi fazilatlariga ega birlashtiradi. O'quvchilar bu bosqichda qit'ani tahlil qilishga kirishadilar. Har kim o'z fikrini misollar yordamida bayon etadilar, hayotiy dalillar keltiradilar. Ushbu bosqichlardan ikkitasi – fikrlashga yo'naltirilganlik va fikrlash o'qituvchidan ko'proq tayyorgarlikni talab qiladi.

TFRO'U texnologiyasi bilan olib boriladigan darslarning tuzilishi va taxminiy vaqt taqsimoti quyidagicha:

1. Darsni tashkil qilish va uy vazifasini tekshirish..... 3min.
2. Tafakkurga yo'naltirish9 min
3. Tushunish15min.
4. Tafakkur15 min.
5. Uyga vazifa berish 3 min.

Jami: 45 min.

TFRO'U texnologiyasi ishni tashkil etishning o'ziga xos falsafasi, xususiyatlari va usullariga ega. Bu texnologiyaning asosiy vazifasi o'quvchining tanqidiy fikrlashini shakllantirishda o'qish va yozishni jalb etishdan iborat. Ya'ni, yozish va o'qish imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdan iborat. Dars jarayonida ijodiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish masalalari bir lahzaga ham unutilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / Mirzayeva Z, Djalilov K – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 124 b
2. Хакқул И. Камол ет касбким. – Тошкент: "Чўлпон" 1991. – Б. 41
3. <https://youtu.be/48uzEKDMPho>

PISA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTIDA TA'LIM TIZIMIGA TA'SIR QILUVCHI IJTIMOIIY-PEDAGOGIK OMILLAR TADQIQI

Akramjon Muxtorovich Matkarimov

–, Oila va gender“ ilmiy tadqiqot instituti doktoranti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) E-Mail: akramjon14@list.ru, Tel.: +998907703966

Annotatsiya: Maqolada xalqaro baholash tadqiqotlarida oila va ta'lim muassasasi hakorligining ijtimoiy-pedagogik jihatlari yoritilgan. O'quvchining ta'limda muvaffaqiyatga erishishida oila muhiti, oiladagi ta'lim resurslarining shakllanganligi hamda ota-onalarning pedagogik kompetensiyalari hal qiluvchi ahamiyatga ekanligi ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, o'quvchi, oiladagi ta'lim muhiti, xalqaro baholash tadqiqotlari, oilaning ta'lim resurslari

Абстракт: В статье рассмотрены социально-педагогические аспекты семьи и образовательных учреждений в международных оценочных исследованиях. На основе научных источников проанализировано, что решающее значение для успешности ученика в образовании имеют семейная среда, формирование образовательных ресурсов в семье, педагогическая компетентность родителей.

Ключевые слова: семья, школьник, образовательная среда в семье, международные оценочные исследования, образовательные ресурсы семьи

Abstract: *The article examines the socio-pedagogical aspects of family and educational institutions in international assessment studies. Based on scientific sources, it is analyzed that the family environment, the formation of educational resources in the family, and the pedagogical competence of parents are crucial for a student's success in education.*

Key words: *family, school student, educational environment in the family, international evaluation studies, educational resources of the family*

Xalqaro baholash tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalini rivojlanganligining mavjud va zaruriy holatini umumta'lim muassasalari o'quvchilarida tayanch kompetentsiyalarini shakllanganlik darajasi, ularning ta'lim olishining ijtimoiy-pedagogik jihatlariga bog'lagan holda aniqlaydi. Tayanch kompetentsiyalar ijtimoiy me'yor sifatida ham talqin qilinishi mumkin bo'lib, bu tushuncha o'quvchining kundalik-amaliy faoliyatda mustaqil hayot kechirishi uchun lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning umumlashmasini tavsif etadi. Pedagogik amaliyotda xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga tadbiiq etish samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari o'rganilganligi hamda shu jihatlarni hisobga olgan holda ta'limdagi islohotlarni rejalashtirish bilan uzviy bog'liq.

Respublikamizda milliy ta'lim mazmunini takomillashtirish, maktab ta'limini isloh qilish, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarning dolzarbligi ortib bormoqda. Buning uchun pedagogik nuqtai nazardan o'quv dasturlari, darsliklar, o'qitish metodikasi va ta'lim natijalarini baholash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo'yicha islohotlar olib boriish zarurat bo'lib borayotgan bo'lsa, ijtimoiy jihatdan o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashda oila institutini ahamiyatini oshirish, maktab va oila hamkorligini mustahkamlash, ta'lim olishdagi ijtimoiy tenglik kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida fanlarni o'qitishni rivojlantirish kontseptsiyalari [1], O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi [2], 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni [3] bilan milliy ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, o'quvchilarning sifatli ta'lim olishi va muvaffaqiyatga erishishining ijtimoiy-pedagogik jihatlarini ham qamrab olgan.

PISA xalqaro baholash tadqiqotining 2018 yildagi texnik xisobotida tadqiqotning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini batafsil bayon etilgan. Mazkur xisobotda „PISA iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy holat indeksi (ESCS)“ atamasi qo'llanilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy holat - bu o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan moliyaviy, ijtimoiy va madaniy resurslarni va o'quvchining oilasi / uy xo'jaligining ijtimoiy mavqeini aks ettirishga qaratilgan keng tushunchadir. PISA xalqaro baholash tadqiqotida o'quvchining ijtimoiy-iqtisodiy holati PISA iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy holati indeksi (ESCS) bo'yicha baholanadi, bu o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan moliyaviy, ijtimoiy va madaniy resurslarni yagona ballga birlashtiradi. Amalda, u o'quvchilarning oilasi bilan bog'liq bo'lgan bir nechta ko'rsatkichlardan kelib chiqadi, ular keyinchalik uchta komponentga birlashtiriladi: ota-onalarning ma'lumoti, ota-onalarning kasblari va moddiy boylik yoki ishonchli shaxs sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan bir qator uy-joy mulklarini umumlashtruvchi indeks. Moddiy kapital, masalan, avtomobilga egalik qilish, uyda o'qib-o'rganishi uchun yetarlik xonaning mavjudligi, internetga ulanganlik, uyda mavjud bo'lgan kitoblar va boshqa ta'lim resurslari [8; 34].

Shuningdek, xalqaro baholash tadqiqotlarida „o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati“ tushunchasi keng qo'llanilgan bo'lib, o'quvchining ta'lim mazmunini mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'rish uchun qo'llay olishini ko'rsatadi. O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy aspektlari ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholanadi. Mazkur mezonlarga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishi;
- ta'lim olishning o'z hayotidagi ahamiyati tushunishiligi;
- „umumta'lim muassasasi-oila hamkorlik mexanizmi“ning samaradorligi;
- oilalarda ta'limiy qadriyatlarining rivojlanganligi;
- ijtimoiy, akademik va madaniy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanishning mavjud holati.

Oila va uning ma'naviy-iqtisodiy farovonligi bir vaqtning o'zida shaxsning axloqiy-ruhiy barkomolligiga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga olib keladi. Shu bois oila va undagi hayotning turli jihatlarini tadqiq qilish ham ilmiy, ham amaliy nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega [4; 50].

V.M. Karimova oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni „yuqori darajada shakllangan ijtimoiy tasavvurlar“ deb atagan. Oilaviy ijtimoiy tasavvurlar- shaxsning shaunday tasavvurlar tizimiki, ular vositasida shaxs „oila“ tushunchasi atrofida barcha hodisa va ob'ektlarni tushunadi va ularga nisbatan ma'lum munosabatni shakllantirgan bo'ladi (ijtimoiy ustanovka). Ular ijtimoiy bo'lgani uchun ham oilaviy hayotning deyarli barcha sohalari-o'zaro munosabatlar, oilaviy rollar, reproduktiv xulq-atvor. Oila a'zolarining shaxsiy fazilatlarini haqidagi tasavvurlarini o'z ichiga oladi [7; 324].

Ta'lim nuqtai nazaridan esa, oila dastlabki va bir umrlik „ta'lim muassasasi“ vazifasini o'tab, farzandlarda ta'limiy qadriyatlarni shakllantiradi. Oilada ta'lim, intellekt, ta'limiy resurslarning ustuvorlikka egaligi, ota-onalarning ta'limiy munosabatlari farzandlar uchun namuna va hayotiy strategik yo'nalish sifatida shakllanib boradi. Bir qator olimlar oilaning iqtisodiy funksiyasi mavjud ham nazarda tutib o'tishgan, ular bu orqali avloddan-avlodga professional bilimlar, tajriba, ko'nikmalarning qolishini nazarda tutiladi. Bu ham oilaning akademik resursi hisoblanadi.

Oilaning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u aholining jismoniy va ruhiy tarbiyasi va mehnat resurslarining yuzaga kelishi hamda bir maromda davom etishida hisoblanadi. Oila davlat oldida ham ma'lum bir vazifalarni amalga oshiradi. Bular reproduktivlik va tarbiyaviy funksiyalar hisoblanadi. Bundan tashqari, oilaning muhim funksiyalari qatoriga iqtisodiy komunaktiv, qulaylik va dam olishni tashkil qilish hisoblanadi. Oilaning jamiyatda ijtimoiy mexanizmini yuzaga keltirishdagi o'rni beqiyosdir. Bu har doim rivojlanib boruvchi yaxlit organizm bo'lib, o'z rivojlanishi jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Unda ya'ni oilada farzandlar dunyoga keladi, dastlabki adaptatsiyani o'taydi, tarbiyalanadi, ta'lim oladi, muhimi farzandlarning o'zlariga o'z oilalarini shakllantirishga imkon paydo bo'ladi, qariya ota-onalarning qarilik davrini boshidan kechirish bosqichi ham mavjud bo'lgan. Oilaning muvaffaqiyati, uning mustahkamligidir jamiyatning ijtimoiy rivoji, aholi miqdori va uning sifatiga bog'liqdir.

Olima Q. Abdurasulova hozirgi davrdagi oilaviy munosabatlar sohasidagi o'zgarishlarni quyidagicha keltirib o'tadi.

- oila a'zolarining soni kamayib bormoqda (tug'ilishning kamayishi hisobiga ushbu ko'rsatkich kamayib bormoqda);
- oilaning ijtimoiy va madaniy qiymati tushib bormoqda;
- oilaning jamiyatdan ajralish va o'z qobig'ida o'ralib qolishga intilishi sodir bo'lmoqda;
- nikohdan ajralishlar soni oshib, noqonuniy tug'ilgan farzandlar soni ko'paymoqda;
- muvaffaqiyatsiz tuzilgan oilalar ko'paymoqda;
- ota-onalarning pedagogik tajribasi va mahorati kamayib bormoqda[5; 23].

Olima tomonidan sanab o'tilgan holatlardan kelib chiqqan holda, so'nggi sanab o'tilgan masala tadqiqotimiz mavzusi uchun dolzarbligini keltirib o'tishimiz mumkin. Ota-onalarning pedagogik tajribasi va mahoratining kamayib borishi jamiyat hayoti uchun katta xavflardan biri hisoblanadi.

Oilaning ta'lim resurslarini oila a'zolari tomonidan farzandlarining ta'lim olishi uchun xizmat qiladigan ta'lim vositalari, materiallari va texnologiyalari tashkil etadi. Ta'limiy resurslar farzandlarni bilimlarni o'zlashtirishi, mustaqil ta'lim olish jarayonini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash, o'rganish strategiyasini egallashga yordam beruvchi, jamiyatning yangi talablaridan kelib chiqqan holda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish (virtual ta'lim texnologiyalari va ulardan foydalanish uchun imkoniyat), qitish metodikasini o'zgartirish, yangi talabalar uchun tayyorlash, fanlar bilan bog'liq barcha ko'nikmalarni o'rganishga va fani tahlil qilishga yordam beradi.

Oilaning ta'lim resurslari o'z ichiga o'qitish materiallarini, darsliklarni, elektron kitoblar va maqolalar, elektron talim dasturlari, qo'llanmalar, elektron sinov materiallari va test savollari, interaktiv darsliklar va video darsliklar kabi texnologik vositalarni o'z ichiga oladi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faolligni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini qurish holati ro'y beradi. Bularni amalga oshirishda ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro muloqot ham muhim ahamiyatga ega[6; 11]. Oila sharoitida ota-onalarning o'zlari atrofdegilar bilan ijobiy muloqot qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari hamda farzandlarda ham juda yoshlikdan muloqot madaniyati sifatlarining shakllanib borishiga e'tibor qaratishlari zarur.

Oilada farzandlar bilan muloqot deganda, kishilarning o'zaro muloqotga kirishish tizimi tushuniladi, uning asosiy mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. Ota-onalar bu jarayonni tashkil etishi, faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqishi, va boshqarishi lozim. Chunki farzandlar hayotda asosiy andozani oilada, ulardan oladilar. Muloqotchanlik ham oilada shakllanib, rivojlanadi. Oiladagi muloqotning tarbiyaviy ahamiyati, ota-onaning farzandlari bilan faol muloqotga kirisha olishi, tarbiya jarayonida ularni bilishi, o'rganish kaliti va tarbiyaviy faoliyatining ijodiy xarakteri, bola shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, tarbiyada maqbul bo'lgan emotsional muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlar paydo bo'lishining oldini oladigan, farzandlarda ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi „Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida“ PF-6097-son Farmoni, //O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2020 y., 06/20/6097/1431-son.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>

4 Abdullaeva D.U. Oila haqidagi ijtimoiy tasavvurlar oila mustahkamligini ta'minlovchi fenomen// Pedagogika jurnali, 2022 yil, 1-son.- B. 50-53

5 Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. // Qonun himoyasida. 2001, 1- son, 23-26- b.

6 Alimova G. Oilada bolalar muloqotchanligini oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari/Kasb-hunar

ta'limi, 1-son, 2019. -11-14B.

7 Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi: Psixologiya fanl. d-ri...diss.- T., 1994.- 324b.

8. OECD. PISA 2018 Technical Report, 2020 <https://www.oecd.org/pisa/data/pisa2018technicalreport/> -p. 14

Брокгауз Ф. А., Ефронь И. А. Энциклопедический словарь. Т. XXIX, Спб., 1900, С.31-329

9 Матвейчик З.Я. Семья и социальная работа // Семья как объект социальной работы/ Отв . ред. Зимняя И.А., М., 1993, С. 58.

10. Шершенович Г.Ф. Учебник русского гражданского право. Т. 2, м., -М., 1915, С.259.

EXPANDING COMMUNICATION BOUNDARIES: UTILIZING VR AND AR THERAPY FOR CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS

Shakhnoza Nazarova

Ph.D. Candidate, Marmara University, +905451808808, shakhnooz@gmail.com

Abstract

This article explores the potential of VR and AR technologies in enhancing language development and communication abilities in children with speech disorders. These technologies offer a more engaging, interactive, and secure environment, making the therapeutic process more effective than traditional methods. Future challenges include ensuring access to technology and investigating the long-term efficacy of these interventions.

Keywords: Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR), Speech Therapy, Language Development.

Annotatsiya

Ushbu maqolada VR va AR texnologiyalarining nutq buzilishiga ega bolalarda til rivojlanishi va kommunikatsiya qobiliyatlarini oshirishdagi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu texnologiyalar terapiya jarayonini an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq qiladigan, qiziqarli, interaktiv va xavfsiz muhitni taqdim etadi. Kelajakdagi qiyinchiliklar texnologiyaga kirishni ta'minlash va ushbu aralashuvlarning uzoq muddatli samaradorligini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Virtual Haqiqat (VR), Kengaytirilgan Haqiqat (AR), Nutq Terapiyasi, Til Rivojlanishi.

Аннотация

В данной статье рассматривается потенциал технологий виртуальной (VR) и дополненной реальности (AR) в улучшении развития языка и коммуникативных способностей у детей с речевыми расстройствами. Эти технологии предлагают более увлекательную, интерактивную и безопасную среду, что делает терапевтический процесс более эффективным по сравнению с традиционными методами. Будущие вызовы включают обеспечение доступа к технологиям и исследование долгосрочной эффективности этих вмешательств.

Ключевые слова: Виртуальная реальность (VR), Дополненная реальность (AR), Речевая терапия, Развитие языка.

Introduction. Speech disorders can lead to significant challenges in children's language and communication abilities, adversely impacting their social, academic, and emotional growth. While traditional speech therapy methods can provide considerable assistance to these children, they often struggle to engage their attention and motivate them effectively [7]. To address these challenges, next-generation technologies like virtual reality (VR) and augmented reality (AR) have shown promising outcomes in enhancing children's language development and communication skills.

VR and AR offer a more engaging and motivating platform for fostering language skills through interactive and immersive experiences for users. Specifically, VR enables children to practice speaking in safe, simulated environments, whereas AR enhances the acquisition of tangible experiences by merging the physical and digital realms [2]. These technologies improve the effectiveness of therapy by sustaining children's attention for extended durations and enriching the therapeutic experience [2, 5, 10].

The purpose of this article is to assess the effectiveness of VR and AR-supported therapies for children with speech disorders and to analyze the benefits these technologies provide compared to traditional methods. The discussion will focus on the contributions of VR and AR in enhancing children's speech skills, drawing from significant studies in the existing literature, and will offer recommendations for integrating these technologies into therapeutic practices.

Speech Disorders and Traditional Therapies

Speech disorders are defined by delays or errors in children's language and communication abilities. Early intervention is crucial for these disorders, as they can lead to significant challenges in both social and academic settings [12]. Traditional speech therapy remains the most widely utilized treatment approach for these children and can be conducted in either individual or group sessions. These therapeutic methods typically aim to enhance various aspects of language, including phonology, syntax, and vocabulary [4].

Traditional speech therapy techniques particularly emphasize phonological awareness and auditory discrimination. While phonological therapies encourage the correct use of sounds, language therapies primarily focus on improving

word production and the proper application of grammatical structures [3]. Numerous studies indicate the effectiveness of these therapies for children; however, they often fall short in sustaining long-term motivation [8]. Additionally, some research suggests that the therapeutic methods employed may not yield the same results for all children. Therapies that specifically address auditory awareness deficits tend to be more complex than other approaches [12]. It has also been noted that different strategies should be employed for children with phonetic or phonological disorders [15]. While traditional speech therapy methods provide an effective means to enhance children's speech and language skills, it is crucial to tailor interventions to each child's unique needs and consider diversifying therapies with technological solutions.

Introduction of VR and AR Technologies

Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) technologies have the potential to transform speech therapy processes by immersing users in more interactive and engaging learning environments. While VR enables interaction within a completely digital realm, AR serves as a bridge by overlaying digital elements onto the real world. These technologies provide children with enjoyable and motivating opportunities to enhance their social and language skills [2, 3].

VR and AR facilitate a more profound learning experience by making abstract concepts tangible within the therapeutic process for children. Specifically, VR establishes a safe and controlled setting where users can practice speaking [9]. The ability of VR to capture children's attention and promote engagement is regarded as a significant advantage in therapeutic applications.

In contrast, AR merges real-world objects with digital components, allowing children to simulate social situations while practicing their speaking skills [7]. Research has demonstrated that VR and AR are particularly effective for children with special needs, enhancing their emotional regulation and social interaction abilities [17].

A key benefit of VR and AR is their capacity to provide children with experiential learning in a safe environment, free from the fear of making mistakes. This feature can significantly enhance the effectiveness of therapy, especially for those with speech disorders [19]. Overall, VR and AR technologies serve as valuable tools for fostering children's language and social skills, and their integration into therapy not only boosts motivation but also enriches the learning experience.

VR and AR-Assisted Therapy Applications and Benefits

Virtual Reality and Augmented Reality technologies introduce groundbreaking methods for enhancing children's skills within speech therapy processes. Specifically, VR provides a platform for children with speech disorders to practice social communication skills in an interactive and secure environment. For instance, VR-supported simulations can allow children to rehearse public speaking, enabling them to develop these abilities safely [9]. Such applications create an atmosphere where children can rectify their linguistic errors, making them an excellent resource for boosting self-confidence.

On the other hand, AR enables the simulation of social scenarios by incorporating digital elements into the real world. This technology has proven particularly beneficial for children with autism spectrum disorder, aiding them in recognizing and interpreting facial expressions. For example, AR can help children learn to accurately interpret facial cues, enhancing their success in social interactions [1]. Applications of AR can facilitate a better understanding of real-world interactions, allowing children to hone these essential skills.

Moreover, VR technology empowers children with speech disorders to tackle the speech and language challenges they face in their everyday lives more effectively. Research focused on children on the autism spectrum indicates that VR-based interactive therapies enhance their speech and social abilities [11]. Such therapies provide opportunities for practice in controlled settings, enabling children to achieve greater success in real-world situations. Particularly for children with speech disorders, VR-assisted applications emerge as powerful tools that boost concentration and motivation in developing language skills. For instance, a study demonstrated that VR enhances children's articulation abilities, allowing for more natural and effective skill acquisition [10].

Future Perspectives and Challenges

The adoption of VR and AR technologies in speech therapy is growing steadily, yet these innovations need to become more widely accessible and their long-term effects require further investigation. Despite the significant potential of VR and AR in education and therapy, challenges such as technological infrastructure, accessibility, and application issues hinder their full integration into practice [18].

As technology becomes more prevalent, the high costs and complexities associated with VR and AR applications present notable challenges. Access barriers may limit opportunities for children and families in low-income communities to benefit from these therapies [7]. Furthermore, standardized guidelines for incorporating technology into therapy processes are still in the developmental stages.

Another challenge in implementing VR and AR in speech therapy is the insufficient research on the long-term effects of these technologies. Specifically, a more thorough exploration of their psychological and physiological impacts on children is necessary [16]. This highlights the need for additional long-term studies to better understand the clinical outcomes associated with these technologies.

Ultimately, the widespread adoption of VR and AR will depend on making these technologies more accessible and affordable. Although advancements are being made in this direction, it is crucial to consider the social, economic, and ethical challenges that arise during their integration into therapeutic practices [14].

Conclusion

VR and AR technologies present a groundbreaking alternative to traditional therapies for children with speech disorders, enhancing therapeutic processes by making them more enjoyable, interactive, and motivating. These technologies hold significant promise for improving children's language and communication skills, with research indicating notable advancements in articulation, social interaction, and language usage among young users. However, the broader implementation of these technologies hinges on overcoming access challenges and conducting more thorough investigations into their long-term effects. By effectively integrating VR and AR into speech therapy, substantial benefits can be realized in terms of personalizing therapeutic processes and enriching children's learning experiences. Nonetheless, it is crucial to validate the clinical outcomes associated with these technologies and to address cost-related issues to facilitate their wider adoption. In summary, VR and AR offer a hopeful solution for children with speech disorders, and it is anticipated that their utilization will expand as advancements in this field continue to unfold.

Bibliography

1. Ahmad, H. B. (2019). An augmented reality system to enhance facial expressions recognition in autistic children. *Journal of Advanced Computer Science & Technology*, 8(2), 46-49.
2. Alkan, A., & Nazarova, S. (2024). Innovations in digital pedagogy: Bridging the gap between developed and developing countries. *Science and innovation*, 3(Special Issue 41), 37-41.
3. Bailey, B., Bryant, L., & Hemsley, B. (2022). Virtual reality and augmented reality for children, adolescents, and adults with communication disability and neurodevelopmental disorders: a systematic review. *Review Journal of Autism and Developmental Disorders*, 9(2), 160-183.
4. Bessas, A., & Trimmis, N. (2016). The effectiveness of traditional treatment of articulation disorders in preschool children. *Journal of International Scientific Publications*, 14, 273-286.
5. Brumbaugh, K. M., & Smit, A. B. (2013). Treating children ages 3–6 who have speech sound disorder: A survey.
6. Cappadona, I., Ielo, A., La Fauci, M., Tresoldi, M., Settimo, C., De Cola, M. C., ... & Cucinotta, F. (2023). Feasibility and Effectiveness of Speech Intervention Implemented with a Virtual Reality System in Children with Developmental Language Disorders: A Pilot Randomized Control Trial. *Children*, 10(8), 1336.
7. Cerritelli, F., Chiera, M., Abbro, M., Megale, V., Esteves, J., Gallace, A., & Manzotti, A. (2021). The challenges and perspectives of the integration between virtual and augmented reality and manual therapies. *Frontiers in neurology*, 12, 700211.
8. Crosbie, S., Holm, A., & Dodd, B. (2005). Intervention for children with severe speech disorder: a comparison of two approaches. *International Journal of Language & Communication Disorders*, 40(4), 467-491.
9. Glémarec, Y., Hörmann, A., Lauer, N., Buche, C., Lugin, J. L., & Latoschik, M. E. (2023). Towards Virtual Audience Simulation For Speech Therapy. In *Proceedings of the 23rd ACM International Conference on Intelligent Virtual Agents* (pp. 1-3).
10. Haşegan, C. B., Talaş, D., & Trifu, R. (2023). Virtual reality in speech sound disorders therapy.
11. Halabi, O., El-Seoud, S. A., Aljaam, J. M., Alpona, H., Al-Hemadi, M., & Al-Hassan, D. (2017). Design of immersive virtual reality system to improve communication skills in individuals with autism.
12. Law, J., Garrett, Z., & Nye, C. (2005). Speech and language therapy interventions for children with primary speech and language delay or disorder. *Campbell systematic reviews*, 1(1), 1-85.
13. Law, J., Garrett, Z., Nye, C., & Cochrane Developmental, Psychosocial and Learning Problems Group. (1996). Speech and language therapy interventions for children with primary speech and language delay or disorder. *Cochrane Database of Systematic Reviews*, 2015(5).
14. Logan, D., Simons, L., Caruso, T., Gold, J., Greenleaf, W., Griffin, A., King, C., Menendez, M., Olbrecht, V., Rodriguez, S., Silvia, M., Stinson, J., Wang, E., Williams, S., & Wilson, L. (2021). Leveraging Virtual Reality and Augmented Reality to Combat Chronic Pain in Youth: Position Paper From the Interdisciplinary Network on Virtual and Augmented Technologies for Pain Management. *Journal of Medical Internet Research*, 23.
15. Oliveira, C., Lousada, M., & Jesus, L. M. (2015). The clinical practice of speech and language therapists with children with phonologically based speech sound disorders. *Child Language Teaching and Therapy*, 31(2), 173-194.
16. Rizzo, A. A., Strickland, D., & Bouchard, S. (2004). The challenge of using virtual reality in telerehabilitation. *Telemedicine Journal & E-Health*, 10(2), 184-195.
17. Seema, S., & Hotagi, H. S. (2023). Guiding Special Need Children using AR/VR Technology. In *2023 7th International Conference on Computation System and Information Technology for Sustainable Solutions (CSITSS)* (pp. 1-6). IEEE.
18. Zhang, M., Ding, H., Naumceska, M., & Zhang, Y. (2022). Virtual reality technology as an educational and intervention tool for children with autism spectrum disorder: current perspectives and future directions. *Behavioral Sciences*, 12(5), 138.
19. Zhou, Y., Hou, J., Liu, Q., Chao, X., Wang, N., Chen, Y., ... & Diwu, Y. (2021). [Retracted] VR/AR Technology in Human Anatomy Teaching and Operation Training. *Journal of Healthcare Engineering*, 2021(1), 9998427.



BAYDARKA VA KANOEDA ESHKAK ESHISH SPORT TURINING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Norboyev Komiljon Jurakulovich¹, Tangirov Zoir Xo‘jakulovich²

¹Pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrasini dotsenti.

²Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali katta o‘qituvchi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada baydarka va kanoeda eshkak eshish sport turining tarixi va rivojlanish bosqichlari, mamlakatimizda mazkur sport turining rivojlanish bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Baydarka, kano, eshkak, eshish, sport, tur, tarixi, rivojlanish, bosqichlar.

Аннотация: В данной статье освещаются история и этапы развития гребли на байдарках и каноэ, вопросы, связанные с развитием этого вида спорта в нашей стране.

Ключевые слова: Baydarka, kanoэ, гребля, гребля, спорт, тип, история, развитие, этапы.

Annotation: this article covers the history and stages of development of kayaking and canoeing sports, issues related to the development of this sport in our country.

Keywords: kayak, canoe, rowing, rowing, sport, Tour, history, development, stages.

Baydarka va kanoeda eshkak eshish sport turining tarixi shundan kelib chiqadiki, qayiqlar (Eskimo qayiqlari) ko‘p yillar davomida insoniyatga xizmat qilib kelgan, eng qadimiy prototiplari 2000 yildan ortiq tarixga ega hisoblanadi. Shotlandiyalik Jon Mak Gregor birinchi marotaba bu qayiqlarni eshkak eshish sport turi sifatida targ‘ib qilgan. Aynan u 1865 yilda o‘zi uchun uzunligi 4,57 m va kengligi 0,76 m bo‘lgan “Rob-Roy” deb nomlangan baydarka qayig‘ini loyihalashtirgan edi. Taqqoslash uchun shuni aytish joizki, zamonaviy baydarka va kanoelarda eshkak eshish qayiqlari quyidagi o‘lchamlarga ega: bir kishilik qayiq - 5,2 m; ikki kishilik - 6.5 m, baydarka to‘rt kishilik - 11 m, kanoeda to‘rt kishilik - 9 m ga o‘lchamlarga tengdir. Mak Gregor Markaziy Yevropa bo‘ylab sayohat qilishni juda yaxshi ko‘rardi va tez orada baydarka va kanoeda eshkak eshishni-sport turi sifatida xalqaro miqyosda shuhrat qozondi. 1866 yilda birinchi eshkak eshish klubi - ya‘ni “Angliya baydarka va kanoeda eshkak eshish qirolik klubi” tashkil topgan. Keyinchalik shunga o‘xshash klublar Amerika, Kanada va Skandinaviyada paydo bo‘la boshladi. 1867 yilda baydarkada eshkak eshish bo‘yicha birinchi regatta tashkil etildi. 1924 yilda Kopengagenda (Daniya) xalqaro tashkilot - “Kanoechilarning xalqaro vakolatxonasi” tashkil etildi, u yerda qayiqlarning o‘lchamlari va musobaqalar o‘tkazish uchun masofalar uzunligini ham tasdiqlandi. 1933-yilda Pragada birinchi Yevropa chempionati, 1939-yilda esa Vaksgolmda (Shvetsiya) baydarka va kanoeda eshkak eshish bo‘yicha birinchi jahon chempionati bo‘lib o‘tdi. 1924 yilda Parijdagi Olimpiya o‘yinlarida birinchi ko‘rgazmali poygalar o‘tkazildi, ammo baydarka va kanoeda eshkak eshish Olimpiya o‘yinlari dasturiga faqatgina 1936 yilda kiritilgan. [1, 172].

Baydarka va kanoeda eshkak eshish sportining xususiyatlari – baydarka va kanoeda eshkak eshish - Olimpiya sport turi hisoblanadi, eshkak eshish: maksimal tezlik bilan suv muhiti, sharoiti va mushak faoliyatining standart sharoitda qayiq harakatlanishni ta‘minlashdadir. Baydarka va kanoeda eshkak eshish siklik (davriy) xarakterga ega dinamik ishdir. Baydarka va kanoeda eshkak eshishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, barcha harakatlar eshkak eshuvchilar beqaror tayanch holatda, o‘tirgan (baydarka qayig‘ida) yoki bir tizzada (kanoeda) tik turgan holda amalga oshiriladi. Bu sport turidagi qayiqlarning ajralib turadigan xususiyati shundan iboratki, uning eshkagi akademik eshkak eshuvchilar eshkagi singari qayiq bilan bevosita aloqaga ega emas, ya‘ni alohida, buning natijasida eshkakchi ko‘proq harakat erkinligiga ega bo‘ladi. Bu harakatlar muvozanatini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Shuning uchun, eshkak eshish kabi murakkab mahoratni o‘zlashtirish uchun, muvofiqlashtirish va texnik qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish kerak. Eshkak eshuvchining harakatlari odamning kundalik va mehnat faoliyatida kamdan-kam uchrashi sababli texnikani o‘zlashtirish murakkablashadi.



Eshkak

eshuvchilar harakatining to‘liq davri ikkita bosqichdan iborat -qayiqning o‘ng va chap tomonlarga eshkakni eshish bilan - baydarkachilar uchun va bitta eshkakni eshish kanoechilar uchun. [2, 286]. O‘z navbatida, har bitta eshkak eshish davri shartli ravishda ikkita asosiy bosqichga yo‘naltirilgan: eshkakni suv ichidan o‘tkazish bosqichi (suyanchiqli), eshkakni suvga kiritgan, suvni olish, suvni itarish, eshkakni suvdan chiqarish. Bu davrlarda eshkakchi eshkakni suvga kiritgan holda tortadi, shu tarzda qayiqni oldinga siljitadi va ikkinchi faza eshkakni suv ichidan o‘tkazish bosqichi (suyanchiqsiz) bunda keyingi eshkakni eshish uchun tayyorgarlik ko‘riladi. Suyanchiqsiz

fazaga xos xususiyat suv va eshkak o'rtasidagi faol bog'liqlikning bo'lmasligi, minimal kuch ishlatishi va mushaklarning maksimal bo'shashidir. Suyanchiqli fazaga esa eshkak va suvning o'zaro munosabati, mushaklarning taranglashuvi va katta jismoniy kuch ishlatilishi xosdir. Provodka boshi o'tkazuvchi faza hisoblanib, u qayiqning oldingi faol harakatini ta'minlaydi. Faza harakatlar koordinatsiyasining murakkabligi katta inertsiyal kuch ishlatishning tezlashib borishi bilan xarakterlanadi. Provodka oxiri ham o'tkazuvchi faza hisoblanib, uning bajarilish jarayonida "Eshkakchi - eshkak - suv" tizimi erkin siljish rejimiga o'tadi. [3, 72].

Sportchilarning qancha yuqori tajribaga ega bo'lishi, ularning ritm, tempni saqlashda shuncha turg'unlikka ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Tajribali eshkakchilar xali tajribasiz eshkakchilarga nibatan harakatlar koordinatsiyasini ancha keng diapozon ritmida saqlaydilar. Eshkakchining texnik tayyorgarligi jarayonida, mashg'ulotlarning maqsadi va vazifalari bilan xarakterlanuvchi sportchining texnik tayyorgarligi darajasini belgilovchi mustaqil bosqichlarni ajratish mumkin. Bu bosqichlarning ajratilishi texnik tayyorgarlikni yaxshiroq rejalashtirib, uni boshqa harakatlar bilan takomillashtirishga imkon beradi.

Eshkak eshish submaksimal va yuqori intensivlik ish hisoblanadi. Mashg'ulotlardan so'ng eshkak eshuvchilar ko'pincha tana funksiyalari faolligining pasayishiga duch kelishadi, organizmni qayta tiklanishi ko'pincha bir kun yoki undan ko'proq vaqtni oladi: buni murabbiy yosh eshkak eshuvchilar bilan ishlashda hisobga olishi kerak. [4, 22].

Eshkakchining ishini tezlik va kuch sifati orqali tavsiflash mumkin. Shuning uchun eshkak eshuvchi kuch va tezlikni yetarlicha yuqori darajada rivojlantirishi kerak. Shu bilan birga, eshkak eshuvchining 500 metrlik poyga masofasida o'rtacha 200 marotaba yoki undan ortiq eshkak eshish zarbalar bajarishini hisobga olsak, eshkak eshuvchi kuch va tezlik bilan bir qatorda eshkak eshish qobiliyatini hamda chidamlilik sifati rivojlantirishi zarurligi ayon bo'ladi.

Mashg'ulotlarning zamonaviy metodologiyasi sportchilarni har tomonlama jismonan rivojlantirishga qaratilgan. Mashg'ulot va musobaqa jarayonida eshkak eshuvchi ko'plab harakatlar, usullarini bajaradi. Buning natijasida ularni avtomatlashtirishning yuqori darajasiga erishiladi, sport jihozlarning yuqori barqarorligi barcha komponentlari va elementlarining takrorlanishi ta'minlaydi.

Qo'llar va eshkaklarning harakatlari ma'lum trayektoriyalar bo'ylab amalga oshiriladi; tana segmentlari va eshkakning harakat yo'nalishini o'zgartirish to'xtamasdan amalga oshirilishi kerak. Shunday qilib, harakatlarning birligi va o'zaro muvofiqlashuviga erishiladi. Mushaklarning taranglashuvi va bo'shalishining almashinuvi ish paytida yuqori samaradorlikni saqlashning eng muhim shartidir. To'g'ri, eshkak eshish paytida barcha mushak guruhlarini to'liq bo'shashtirish mumkin emas, chunki doimiy ravishda mushaklarning tarang holatdaushlab turish kerak, bu esa eshkak ustida muvozanatni ushlab turishni ta'minlaydi.

Bir xillik dinamik muvozanatni saqlash, eshkak eshishda vosita faoliyatining o'ziga xos tarkibiy qismidir. Qayiqda muvozanatni saqlash doimiy nazoratni tartibga solish bilan ta'minlanadi. Texnik mahorat bilan muvozanatni saqlash mahorati avtomatlashtirilgan sportchining ongi texnikaning muhim xususiyatlarini (temp, ritm, eshkak eshish amplitudasi, harakat) nazorat qilish, shuningdek, taktik muammolarni hal qilish uchun xizmat qiladi.

Eshkak eshish jarayonida sportchining mushaklari dinamik rejimida (eshkakning suvda va havoda harakatlanishini ta'minlaydigan barcha mushak guruhlarini), shuningdek izometrik rejimda (pozitsiyani ta'minlaydigan mushak guruhlarini) qisqaradi, saqlanadi va eshkak ushlab turiladi. Dinamik rejimida mushaklarning kuchlanishi kamroq aniqlanadi, ammo u eshkakchining quruqlikdagi maxsus jismoniy tayyorgarligida qo'llanilishi mumkin.

Baydarka va kanoeda eshkak eshish 1936 yildan beri Olimpiya sport turi hisoblanadi (u birinchi marta 1924 yilgi Olimpiyadada norasmiy sport turi sifatida kiritilgan). Baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha jahon musobaqalari Xalqaro kanoed federatsiyasi (ICF) maqomi ostida o'tkaziladi.

Olimpiya dasturi bo'yicha musobaqalar quyidagilar asosida o'tkaziladi:

K-1 200 m (yakka baydarka), erkaklar va ayollar;

K-1 1000 m (yakka baydarka), erkaklar;

K-2 200 m (ikki juftlik), erkaklar;

K-2 1000 m (ikki juftlik), erkaklar;

K-4 500 m (to'rt juftlik), ayollar;

K-4 500 m (to'rt juftlik), erkaklar;

K-1 500 m (yakka baydarka), ayollar;

K-2 500 m (ikki juftlik), ayollar.

Kanoed ham erkaklar, ham ayollar qatnashadilar. Silliq suvda kanoeda eshkak eshish (inglizcha Flat water Kayak), Olimpiya turlari:

C-1 1000 m; C-1 200 m (kanoeda bittalik); C-2 1000 m (kanoed-ikkitalik); Jahon va Osiyokuboklari hamda chempionatlari dasturiga silliq suvda baydarka va kanoeda eshkak eshishning boshqa yo'nalishlari ham kiritilgan.

Poyga musobaqalarini tashkil qilish uchun ideal sharoitlar - bu tinch suv havzalari, sokin, eng yaxshi himoyalangan ko'llar yoki suv omborlari hisoblanadi. Kuchli oqimga ega suv havzalarida o'tkaziladigan regattalar ko'pincha noto'g'ri natijalar beradi, chunki sportchilar qulay holatda bo'lishmaydi ya'ni oqimning o'rtasida bo'ladi. Regata natijalari musobaqaning barcha ishtirokchilari uchun mutlaqo bir xil sharoitlarni yaratishni talab qiladi, masalan, suvning zichligi, shamol, to'lqin shakllanishi va kemalarning tezroq harakati tufayli musobaqalar uchun himoyalangan ko'llardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Regatta o'tkazish uchun namunali suv

inshooti eshkak eshish kanallari (O‘zbekiston xududiga ham maxsus Samarqand eshkak eshish kanali mavjud) hisoblanadi, eni 9 m bo‘lgan hamda 9 ta chiziqdan iborat kanal, bir-biridan yo‘laklar bilan ajratilgan. Kanalning minimal chuqurligi 3 m va 2 m tekis taglik mavjud suv inshootlari talabga javob beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda baydarka kanoeda eshkak eshish sport turining tarixi va rivojlanish bosqichlari hamda mamlakatimizda bu borada amalga oshirayotgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni malaka oshirish sharoyitda tinglovchilarga yetkazish ularda bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P.A.Petrov, I.S.Denisyuk “Dopolnitelnaya predprofissionalnaya programma po tsiklichnomu vidu sporta GREBLYA NA BAYDARKAX I KANOE” 2015-yil.
2. A.A.Cherkashin “Silovaya podgotovka grebsov na baydarkax i kanoe» 2012-yil.
3. S.Y.Djukov, O.A.Tarasova, V.A.Zagovorskiy “Iskusstvo bit trenerom po grebli” 2021-yil.
4. N.V. Jmarev “Trenirovka grebsov” 1981 yil.
5. Теория и методика физического воспитания. Под ред. Т.Ю. Круцевич. - К.: Олимпийская литература, 2003. - 424 с.
6. Теория и методика физической культуры / Под ред., Ю.Ф. Курамшина, В.И. Попова. - СПб.: СПбГАФК им. П.Ф. Лесгафта, - 1999. - 374 с.
7. Гребля на байдарках и каноэ. Примерная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – М.: Советский спорт, 2004. – 120 с.
8. Гребля академическая: Примерная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва и школ высшего спортивного мастерства. – М.: Советский спорт, 2004. – 192 с.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI KONSTITUTSIYASI MAMLAKAT TARAQQIYOTI VA JAMIYAT FAROVONLIGINING HUQUQIY KAFOLATI.

Nuriddinova Gulshoda

O‘lmasqulovna Samarqand davlat Universiteti Urgut filiali biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti yoshlar masalalari bo‘yicha dekan o‘rinbosari +998937220776 nuriddinovagulshoda39@gmail.com.

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy qadriyatlar, xalq hokimiyatini kuchaytirish adolatli fuqarolik jamiyati, huquqiy-demokratik davlat barpo etish, inson huquqlari, sha’ni, erkinligi eng oliy qadriyat hisoblanishini yoritishga bag‘ishlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan eng yangi o‘zgarishlar va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida ma’lumotlar berib o‘tiladi.

АННОТАЦИЯ

Высшими ценностями считаются Конституция Республики Узбекистан, национальные ценности, укрепление народной власти, построение справедливого гражданского общества, построение правового демократического государства, права человека, честь и свобода. Дана информация о последних изменениях, внесенных в Конституцию Республики Узбекистан, и их значении на сегодняшний день.

ANNOTATION

The Constitution of the Republic of Uzbekistan, national values, the strengthening of people's power, the establishment of a just civil society, the establishment of a legal-democratic state, human rights, honor, and freedom are considered the highest values. Information is given about the latest changes made to the Constitution of the Republic of Uzbekistan and their significance today.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, referendum, davlat, jamiyat, suveren, inson huquqlari.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, референдум, государство, общество, суверен, права человека.

Key words: New Uzbekistan, referendum, state, society, sovereign, human rights.

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi, shuningdek, har bir mustaqil davlatning asosiy poydevori hisoblanadi.

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo‘lib, shaxs, jamiyat va davlatning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Mamlakatimizning o‘tmishida ham qonunlar ezgulikka va taraqqiyotga, tinchlik va fidokorlikka xizmat qilgan. O‘zbekiston Respublikasi yangi taraqqiyot va muvaffaqiyatlar yo‘lidan dadil qadam tashlamoqda. Barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalambor, xalq farovonligi, fuqarolarning munosib turmush tarzi va sharoitlarini ta‘minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan bo‘lib, bu qonunga ikki marotaba yuzga yaqin qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan. 1992-yil qabul qilingan Konstitutsiya 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat edi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahrirda 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilinib, konstitutsiyaviy qonun 2023 yilning 1-may sanasidan kuchga kirgan. Mamlakatimiz asosiy qonunida insonning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr- qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Asosiy qonun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, inson huquq va erkinliklarini, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta‘minlashga zamin yaratdi. U ijtimoiy munosabatlarning izchil rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi va fuqarolar, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar vektorini belgilaydi. Konstitutsiyaviy huquqning asosini amaldagi Konstitutsiyaning o‘zi tashkil etadi. Konstitutsiyaning har qanday milliy huquq tizimidagi o‘rni va roli asosiy va muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, har bir davlatning o‘z Konstitutsiyasi mavjud. Shuni ta’kidlash kerakki, barcha mamlakatlar uchun yagona universal konstitutsiyaviy model mavjud emas va bo‘lishi ham mumkin emas. Har bir davlat o‘zining konstitutsiyaviy rivojlanish yo‘liga ega. Buborada mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi ham bundan mustasno emas.

O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasining Muqaddimasida shunday bayon etiladi: “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e‘lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalari sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni va qadr-qimmat oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas‘uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta‘minlashni maqsad qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e‘lon qilamiz” deb bayon qilingan.

Konstitutsiyamiz o‘zining insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Unga ko‘ra Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta‘lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta‘lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta‘minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi. Ma‘lumki, Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonlaridan hozirgi kunda bugungi kun yoshlariga juda katta imkoniyatlar berilmoqda. Aynan shu ham Konstitutsiyada belgilab qo‘yildi, ya‘ni “Davlat fuqarolarning bandligini ta‘minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralari ko‘radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag‘batlantiradi”.

Bu davlatning Konstitutsiyaga ega bo‘lishi mustaqil demokratik huquqiy davlat taraqqiyoti va taraqqiyotining asosiy poydevori bo‘lishi bilan birga, sharti ham ekanligi jahon miqyosida ta‘kidlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganidan keyingi yillar davomida uning norma va qoidalari hayotga izchil tatbiq etilmoqda. O‘zbek xalqi hayotining barcha jabhalarida salmoqli yutuqlarga erishildi va bunday taraqqiyot hali ham davom etmoqda. Konstitutsiyamiz sharofati bilan mamlakatimizda fuqarolar va millatlar o‘rtasidagi totuvlik ta‘minlanib, turmush darajasi yildan-yilga yuksalib, ijtimoiy-madaniy rivojlantirish, ta‘lim, fan va sport sohalarida yuksak marralarga erishildi. Kelajak egalari bo‘lgan yoshlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixi, konstitutsiyaviy tuzum tamoyillari, mamlakatimiz bosh qonunida ifodalangan suverenitet va demokratiya ramz va tamoyillari haqida nazariy va amaliy ma‘lumotlarga ega bo‘lmoqda. Bu ham Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan insonning huquq va majburiyatlarini, ularni amalga oshirishga oid moddalarning samarasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yosh avlod vakillari Konstitutsiyaga oid har qanday savolga o‘z zukkoligi bilan dadil javob berish erkinligini o‘rganmoqda. Shuningdek, ular saylov qonunchiligining muhim masalalari bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirish huquqiga ega. Nafaqat yoshlar, balki butun o‘zbek xalqi bunday huquqqa ega.

Konstitutsiyada belgilab berilgan tamoyil va qoidalar, uzoqni ko‘zlagan maqsad va vazifalar, chuqur o‘ylangan taraqqiyot strategiyasi barcha sohalarida tub islohotlarni belgilab berdi. Bu O‘zbekistonning yuksak marralarni zabt etishiga undagan ishonchli va hal qiluvchi omil bo‘ldi. Mamlakat fuqarolari bundan haqli ravishda faxrlanishi mumkin.

O'tgan yillarda amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qiladigan bo'lsak, bugun respublikani yangilash va isloh qilish, makroiqtisodiy mutanosiblikka erishish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi deyishga asos bor. Konstitutsiya mustaqil, suveren demokratik davlat barpo etish, ko'pukladli bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy mulk ustuvorligini ta'minlash va uni himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, shuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy va qonunchilik asosidir. mamlakat. Shu asosda va Konstitutsiya tufayli inson manfaatlari, huquq va erkinliklari oliy qadriyatga aylanadi.

Yangi Konstitutsiya aholini qiynab kelayotgan dolzarb masalalar, muammolarga aniq yechimlar kiritilgan. Ulardan biri aholi bandligi va gender tenglikni ta'minlash bilan bog'liqdir. O'zbekiston Konstitutsiyasining g'oya va normalarida xalqimizning ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir.

Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko'plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg'or tajribaning eng yaxshi jihatlari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume'tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta'minlash va himoya qilish mexanizmini o'zida mujassam etgan.

Unga ko'ra konstitutsiya 6 bo'lim, 27 bob, 155 moddadan iborat. Yangilanish jarayonida undagi moddalar 128 dan 155 ga, normalar esa 275 dan 434 ga oshdi. Masalan 1-moddadagi "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" jumlasini quyidagi jumla bilan o'zgartirildi: O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Bosh qomusimizda hozirgi zamon konstitutsiyasidagi umuminsoniy qadriyatlar va xalqaro huquqning eng muhim me'yorlari mujassamlashgan bo'lib, u jamiyat uchun xizmat qilib kelmoqda. Ma'lumki, huquqiy demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri inson huquqlarini muhofaza qilish sanaladi. Bugungi kunda globallashuv sharoitida har bir xalqning o'ziga xosligi, qadriyatlari va milliy an'analarini saqlab qolish, odamlarda ma'naviyat va didni tarbiyalashda huquqiy ongning shakllantirish qonunchilikning asosiy omillaridandir. Yangi Konstitutsiyada aholini qiynab kelayotgan dolzarb masalalar, muammolarga aniq yechimlar kiritilgan. Ulardan biri aholi bandligi va bunda gender tenglikni ta'minlash bilan bog'liq. Tan olishimiz kerak, bugungacha xotin-qizlarni ayrim tashkilotlarga ishga qabul qilishda "yoziqlagan qoidalar" to'sqinlik qilar edi. Endilikda, bunday holatlarga chek qo'yiladi. Jumladan, Yangi Konstitutsiyaning 42-moddasida: "Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalash huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish ta'qiqlanadi", deb belgilab qo'yildi. Bu jamiyatimizda ayollar va erkaklar teng huquqliligi, har bir shaxs eng kam ish haqi olganda ham munosib hayot kechirishi va eng asosiy, mehnat sharoiti talab darajasida bo'lgan holatda ishlashini ta'minlashi shubhasiz. Konstitutsiyamizning 52-moddasida "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi", deya mustahkamlanishi jamiyatimizda ham sharafli, ham mashaqqatli kasb egalari mehnatiga munosib baho berilishining yorqin isboti, desam mubolag'a bo'lmaydi.

O'qituvchilarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lish, ularga jismoniy shikast yetkazish holatlari uchrab turibti. Bu kabi holatlar esa o'sib kelayotgan yosh avlodning ongida salbiy dunyoqarashning shakllanishiga, ilk saboqlarni o'rgatgan ustoziga nisbatan bepisandlik bilan qarashga sabab bo'ladi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda o'qituvchilarning alohida e'tirof etilganligi jamiyatimizda bu kabi illatlarning oldini oladi.

Bosh qomusimiz xalq Konstitutsiyasiga, fuqarolar huquqlarini kafolatlaydigan asosiy huquqiy hujjatga aylanganligi ushbu moddalarning kiritilishi, o'z navbatida, har bir ta'lim sohasi xodimi – pedagoglarga, xalqimizga faxr-iftixor bag'ishlaydi. Zotan, u har bir insonning yashash, erkinlik, tenglik, adolat va konstitutsiyada belgilangan boshqa ko'plab asosiy huquqlarini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi Toshkent-2023
2. Mirziyoev Shavkat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoni.
3. Xaitov Aktam - Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi Spikeri o., rinbosari, O'z. Lider fraksiyasi rahbari - "Konstitutsiya - farovon hayotimiz taraqqiyotining asosiy poydevori" - lider.uz /uz/ ro'znomasi maqolasi bosh sahifa . 09.12.2020 yil. № 1030.
4. A. Rahimov - "Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarining kafolati" "Xalq so'zi" ro'znomasidagi maqolasi. 09.12.2021 yil. 2- bet.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konstitutsiya>



O'QUVCHILARNI ERKIN KASB TANLASHI IJTIMOY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

¹Pardayeva G.S., ²Toyirova D.

¹O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi, gulisaforovna68@yandex.ru

²O'zFIPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi va boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy hunarlarga yo'naltirish texnologiyalari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, tarbiya, mehnatdan qoniqish, kasbiy layoqat, kasbiy bilim, kasbiy moslashtirish.

Аннотация: В статье рассматривается методика формирования национальных педагогических умений будущих учителей начальных классов и технологии ориентации учащихся начальных классов на национальные профессии.

Ключевые слова: выбор карьеры, образование, удовлетворенность работой, профессиональные способности, профессиональные знания, профессиональная адаптация.

Abstract: The article examines the methodology for developing national pedagogical skills of future primary school teachers and technologies for orienting primary school students to national professions.

Keywords: career choice, education, job satisfaction, professional abilities, professional knowledge, professional adaptation.

Jamiyatning barcha sohalarida olib borilayotgan tub islohotlar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni talablari asosida shakllantirilayotgan uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini barcha bosqichlarida faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalari rivojini ta'minlovchi yangi konsepsiyaning yaratilishi uchun zamin bo'ladi.

Erkin kasb tanlash shaxsni xar tomonlama rivojlantirishning zarur sharti hamda ijtimoiy taraqqiyot mezonlarining biri sifatida e'tirof etiladi. U har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini va bozor iqtisodiyoti ehtiyojlarini hisobga olish kerak. O'ziga kasb tanlash o'quvchi shaxsining bilish sohasidagi faolligi va mustaqilligini rivojlantirish omili sanaladi. Kasbga layoqatlikni aniqlash, kasbga yo'llash va uning erkin, to'g'ri tanlashiga zamin yaratadi. Layoqat – bu kishining go'dakligidan anglab yetilmagan, qandaydir bir kasbga intilishi emas, balki ijtimoiy burchga sodiq bo'lib qolish yo'lida mehnat qilishga psixologik jihatdan kishining tayyor ekanligi, o'z amaliy faoliyatida jamiyatga ma'lum darajada foyda keltirishi deb hisoblanadi. Layoqat odam shaxsining shakllanish jarayonida ongli bilish subyekti hamda voqyealiki faol ravishda o'zgartiruvchi sifatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Kasbiy yo'nalganlikning rivojlanayotgan nazariyasi yoshlarning kelajagini aniqlanishida o'zining rolini faol ekanligini taxmin etadi. Asosiy e'tibor turli faoliyat turlarini egallash jarayonida shaxs rivojlanishini o'rganishga qaratiladi.

Kasbiy yo'nalganlik o'quv-tarbiyaviy ishning tarkibiy qismi sifatida ko'rinadi. Shu narsa tan olinadiki, inson o'zining tug'ma ma'lumotlariga ko'ra ko'pchilik kasblarga loyiqdir. Kasb tanlashga tayyorgarchilik yoshlarga ijtimoiy atrof-muxit tomonidan tarbiyaviy ta'sir tizimi sifatida amalga oshiriladi. O'smirlar yigit va qizlar tomonidan o'zlari tanlagan kasb faoliyatining ijtimoiy va shaxsiy axamiyatini anglab yetilishi- erkin kasb tanlashning asosidir. Jamiyat talablariga odamning extiyoji va imkoniyatlariga javob bero oladigan kasb faoliyati kishida qoniqish his-tuyg'ularini vujudga keltiradi, shaxsni ichki kuchlarini qo'zg'atadi, unda qiziqish uyg'otadi va nihoyat kasbni egallashga imkon beradigan is'tedod paydo qiladi. Qilingan mehnatdan qoniqish tuyg'usi-bajariladigan faoliyatning yuksak darajada samarali va sifatli bo'lishini hal qiluvchi omilidir[1].

Kasbning erkin, ongli ravishda tanlanishi hamda shu kasbni egallashga yordam beradigan kasb-hunar ta'limi muassasalari shaxsningo'zini ham rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi. Shaxsning psixologik tuzilmasi kasb faoliyatining tuzilmasiga qaraganda ancha murakkab va shu bilan birga mukammalroqdir. Shaxsning psixologik tuzilmasida odam hayoti va faoliyatining butun tashqi va ichki boyligi uning bilimlari, mulqoti va mehnati jamlangan bo'ladi. Shaxs tuzilmasi odamning rivojlanish jarayonida ta'lim-tarbiyaning, oilaning, o'zaro shaxsiy aloqalarning, o'quv va ishlab chiqarish jamoalarining ichidagi bog'liqlikning ostida va tashqi muhitning boshqa ta'sirlari natijasida shakllanadi. Yoshlarni kasbga yo'llash va ular tomonidan to'g'ri kasb tanlanishi muammosi xalqning ijodiy kuchlaridan samarali foydalanish ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim asoslaridan biriga aylangan, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish masalalari xozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchi yoshlar o'rtasida kasb-hunarni targ'ib qilish ishlarini keng ravishda uyuqoqlik bilan tashkil etilgan taqdirdagina kasb tanlash muammosi muvaffaqiyatli ravishda hal etilishi mumkin. O'quvchi yoshlarni kasb – hunarlar to'g'risida tegishli ma'lumotga ega emasliklari, kasbiy faoliyatning qanday turlari mavjudligini bilmasliklari juda ko'p hollarda ongsiz ravishda kasb tanlashga va bu kasbga tayyorlaydigan ta'lim muassasalariga kelib qolishiga sabab bo'lmoqda[2]. Kasb-hunar to'g'risidagi axborot yetarli bo'lmagan sharoitlarda tevarak atrofdagi kishilarning ta'siri ostida mutloqo tasodifiy ravishda kasb tanlash xollari uchrab turadi. Bunday kasb tanlash jamiyat vazifalariga xam, yoshlarni shaxsiy imkoniyatlari va qiziqishlariga ham muvofiq kelmaydi Chuqur anglab yetilgan va kasbga nisbatan barqaror shaxsiy qiziqish ko'pincha mazkur faoliyatga yaroqlilikning bilvosita dalili hisoblanadi. Biroq kasb tanlash vaqtida yolg'iz qiziqishning o'zinigina hisobga olish to'g'ri bo'lmaydi. O'rta maktabni bitirib chiqayotgan o'quvchilarning qiziqishlar ko'pincha tasodifiy bo'ladi. Halq xo'jaligi va ishlab chiqarishning aniq extiyojlaridan kelib chiqmaydi faqat nixoyalanmagan qiziqish tufayli kasb sohasiga kirib

kelinadi. Bu qiziqish ba'zan kasbga oid ozgina bilimga ega bo'linganligi tufayli bir qadar asoslangan ham bo'ladi. Bu xol ayniqsa kasb tanlayotgan o'smir har xil kasblar to'g'risida juda tor tasavvurga ega bo'lgan kishilar orasida yashagan vaqtlarda ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zidan ma'lumki kasb-hunar to'g'risidagi cheklangan bilim bilan ixtiyoriy tarzda mustaqil kasb tanlab bo'lmaydi Shunday qilib ongli ravishda kasb tanlash muammosini hal qilayotgan vaqtda har qanday kasbga oid ish g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligini va u rivojlanayotgan jamiyatning mushtarak vazifalarini hamkorlikda hal qilish uchun zarur vosita ekanligini hisobga olish va bunga amal qilish zarur. Biror bir mehnat turiga mutloqo yaroqsiz odam bo'lmaydi, har bir bir mehnatkash kishi o'z imkoniyatlariga muvofiq keladigan ish joyidagina eng ko'p mehnat unumdorligi ko'rsatadi. Bizning vazifamiz har bir shaxsni ma'lum ma'noda foydali shaxsga aylantirishdan iboratdir. Amalda kishi qanday kasb tanlashini belgilovchi omillardan yana biri moddiy manfaatdorlik omilidir. Ko'pincha o'smirlar "Yaxshilik qilish"ni istagan katta yoshli yaqin kishilari uning miyasiga anashu gapni singdirmoqchi bo'ladi. Bunday hollar kasb tanlashga yetarli darajada ongli munosabatda bo'lmaslikdan kelib chiqadi. Ular shaxsning u yoki bu kasbga yaroqliligini belgilovchi barcha asoslarni yetarli darajada hisobga olmaydilar. Binobarin uning moddiy jihatdan ta'minlanishini ham yetarli darajada to'g'ri baholay olmaydilar. Kasbga oid topshiriq va vazifani muvaffaqiyatli hal qilish uchun kishiga muayyan individual xususiyatlar mavjud bo'lishi zarur ekanligini o'quvchilarga ko'rsatib berish lozim. Bunday xususiyat odamlarda bir xilda rivojlangan bo'lmaydi. Shuning uchun bir ishning muvaffaqiyatli faqat kasbiy tayyorgarlik darajasidagina emas balki, shu bilan birga shaxsning xususiyatlari kasb talablariga qayd darajada muvofiq kelishiga xam bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham moddiy jixatdan ta'minlanganlik kasbning o'zidagina bog'liq bo'lmay balki bu so'zning keng ma'nosida o'sha kishining mazkur kasbga qay darajada yaroqligiga ham bog'liqdir.

Maktabda kasbga yo'llash tadbirlarining asosiy vazifasi o'quvchilarga kasblar mohiyatini chuqur anglatishdan ularga kasb tanlashda yordam ko'rsatishdan iboratdir. Jamiyat ehtiyojlarini va o'quvchilarni shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarda kasbga yo'nalganlikni shakllantirishdan iboratdir.

Pedagogik jarayonlarda ijtimoiy psixologik jihatdan ya'ni kasbhunar ta'lim muassasalarining shart-sharoitlari va imkoniyatlari yoki egallagan kasbi bo'yicha kelajakda ishga joylashish jarayonlarida muammolarga duch kelishi, o'quvchilarning kasbni egallash o'quviga, kasbiy layoqat va qiziqishlariga salbiy o'zgarish xulq-atvorini yuzaga keltirishi mumkin. Bunda, avvalo ta'lim muassasalarda faoliyat yurituvchi pedagoglardan o'quvchi shaxsi bilan psixologik-pedagogik yondashish jarayonlarida yetarli bilim, ko'nikma malakalarga ega bo'lishlari bilan birga o'quvchi shaxsini maqsadli kasbga yo'naltirish va moslashtirish yuzasida tavsiyalar berish malakalariga ham ega bo'lishlarini talab etadi.

Yoshlarni ayniqsa kasb tanlash davri o'smir o'tish davriga to'g'ri keladi, bu xam kasb tanlashda muayyan qiyinchiliklarga uchrab, bolalarning xulqiy og'ishlariga asosiy sabab bo'luvchi omillarni yuzaga chiqaradi[3], ya'ni:

- ✓ o'smirda o'tish davriga xos "kattalik hissi" ning paydo bo'lishi kuzatilganda ota-onalar hamda pedagog-murabbiylar uni tan olmaydilar. Chunki bola hali ham moddiy, ham ma'naviy tomondan kattalarga tobe, ular unga mustaqillikni osonlikcha bermaydilar; murakkab vaziyatlarda o'zini nazorat qila olmaslik, buning uchun sabr-bardoshning hali shakllanmaganligi;

- ✓ oiladagi nosog'lom vaziyat, ota-onalarning o'smirlik yosh davri psixologiyasi borasida bilimga ega emasliklari, bazan er-xotin o'rtasidagi oddiy murosasozlikning yo'qligi, hatto, oilaning noto'liq maqomga kelib, yani murakkab pedagogik vaziyatlardan chiqish borasida ota-ona bilimining yetishmasligi;

- ✓ o'qishda tengqurlaridan ortda qolishi, o'smirning ajratib qo'yilishi; bolaning o'ziga nisbatan ishonchsizligi, o'ziga bo'lgan bahoning pastligi (yoki bazan haddan ziyod yuqoriligi);

- ✓ bola qobiliyatlarining kattalar tomonidan salbiy baholanishi, undagi mavjud fazilatlarining ota-ona yoki pedagoglar tomonidan o'z vaqtida va o'z o'rnida etirof etilmasligi natijasida bola xulq-atvorida salbiy xattixarakteratlarni namoyon bo'lishi;

- ✓ ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan zo'ravonlik, qiynoq yomonlikning jazosiz qolishi kabi axborotlarning to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinishi, televideniye yoki internet tarmoqlari orqali biz takidlagan jixatlarning namoyish qilinishi va bola uni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishi uchun to'siqlarning yo'qligi natijasida unda mafkuraviy imunitetining zaiflashuvi;

- ✓ o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va tanlagan kasblariga ijtimoiy kasbiy moslashtirish jarayonlarini uzluksiz ravishda ota-ona va ta'lim muassasalar tomonidan doimiy uzviylikni amalga oshirilmasligi natijasida, o'quvchida kasblar olami unga quyilgan psixofiziologik talablar va imkoniyatlari, qiziqishi, moyiligi, layyoqati, qobiliyatiga mos kasb tanlovini kattalar tomonidan pedagogik-psixologik tarzda asoslanmaganligi bois, ularda kasb tanlashda xavotirlanish, qo'rqish, ishonchsizlik, kasb to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lmaslik vaziyatlarini sodir etishi mumkin. Bunday vaziyatlar ayniqsa voyaga yetmagan xatar guruhiga mansub bolalarda kasb tanlash va unga ijtimoiy moslashish jarayonlariga salbiy munosabat shakllanadi: Kasbiy yo'nalganlikda yuqori natija qo'lga kiritishda bilim maskanlarida kasbga yo'naltirish tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etilishi va o'tkazilishi muhim axamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarida kasbga yo'llash tadbirlarining asosiy vazifasi o'quvchilarga kasblar mohiyatini chuqur anglatishdan shu orqali o'quvchi yoshlarga kasb tanlashlarida amaliy ko'mak berish, jamiyat ehtiyojlarini va o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularda kasbga yo'nalganlikni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Kasb tanlash ishlarini tashkil etilishi o'z mazmuni va tashkiliy jihatlariga ko'ra psixologik muammolarni qisman bo'lsa ham bartaraf etilishida amaliy yordami bo'ladi, o'quvchilarni erkin holda mustaqil kasb tanlash imkoniyatiga zamin yaratadi. Tadbir o'tkazilishidan oldin tadbirni o'tkazish zaruriyatini aniqlash lozim. Bu

zaruriyat dunyoda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqeya yoki mamlakat miqyosidagi keng qamrovli ma'naviy ma'rifiy tadbirlar, yangi qonun va qarorlar, islohotlarning mazmunmohiyati, odamlarni o'ylantirayotgan dolzarb ijtimoiy muammolar bo'yicha aholining ishonchli manbalardan aniq va atroflicha axborot hamda ma'lumotlar olishi bilan bog'liq bo'lishi muhim. Tadbirlar, zaruriyatga qarab, ro'y bergan yoki ro'y berishi kutilayotgan voqeya va hodisaning g'oyaviy jihatdan turlicha talqin etilishi, ular bo'yicha ortiqcha mish-mishlar tarqalishining oldini olishni ko'zlagan bo'lishi kerak. Shu bilan birga tadbir samaradorligini oshiradigan eng asosiy jihatlardan biri ko'rgazmali vositalar, shiorlar, tasviriy san'at namunalari, hikmatli so'zlar, xarita, rasmlar va slaydlardan unumli foydalanish qatnashchilarda tadbirni yanada mazmun mohiyatini chuqur anglashlariga to'rtki bo'lishi bo'ladi desak to'g'ri bo'ladi.

Mazkur bahamjihatlik ta'minlansa, o'quvchilarning mustaqil, ongli erkin kasb tanlashiga imkoniyat hamda ularga ijtimoiy kasbiy taraqqiyot mezonini yaratib, kelajakda biz kutgan malakali mutaxassislar va barkamol avlodning muvaffaqiyatga erishishiga keng yo'l ochgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulkodirov A.A., Rashidov X.F. O'zluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. T.: Maktab va xayot, 2002.-220 b.
2. Xolmatov P. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyasi. Monografiya. -T.:Fan, 2006
3. Pardayeva G., Samandarova D. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarining uzviyligini ta'minlash. The progress of science journal collection of materials may- 2023 Party- 4 Collection-1

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Pardayeva G.S., Xaqberdiyeva Amina

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi,
gulisaforovna68@yandex.ru

O'zFIPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyasidan foydalanish xususiyatlari ochib berilgan. Bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan ijobiy tomonlarni va muammolarni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, innovasiya, samaradorlik, ta'lim maqsad, ilmiy yondashuv

Аннотация

В данной статье описаны особенности использования педагогических технологий в образовательном процессе. Выделены положительные стороны и проблемы, связанные с применением современных педагогических технологий в процессе формирования знаний, навыков и квалификации.

Ключевые слова: качество образования, инновации, эффективность, образовательная цель, научный подход.

Abstract

This article describes the features of using pedagogical technologies in the educational process. Positive aspects and problems associated with the use of modern pedagogical technologies in the process of forming knowledge, skills and qualifications are highlighted.

Keywords: quality of education, innovation, efficiency, educational goal, scientific approach.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 19 mart kuni ilgari surgan besh muhim tashabbuslari ham ijtimoiy faol talaba - yoshlarni tarbiyalashda ta'lim jarayonini o'rni va ahamiyati juda yuqoridir. Chunki, ushbu ilgari surilgan - beshta eng muhim tashabbusda yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash kabi vazifalar mamlakatni ertangi kuni uchun, yetuk, yoshlarni barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi[1].

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi - xalq farovonligi, yurt tinchligi va obodligi, Vatan taraqqiyotini ta'minlab, jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashdan iborat. Buning uchun mutaxassislar sifatiga qo'yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ishlay oladigan, mamlakatning ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo'shishga qodir, jadal ilgarilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitiga moslasha oladigan, yuksak madaniy va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash zarurligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir.

Har bir mamlakatning taraqqiyotida ta'lim tizimi muhim omil hisoblanadi. Globallashuv sharoitida mamlakatlarning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti ta'limning sifati yuqori bo'lishini, innovasion ta'lim texnologiyalaridan yanada keng foydalanishni talab etmoqda. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimiga doimo e'tibor qaratishni obyektiv zaruriyatga aylantirmoqda.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Umuman pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi ta'limda yuqori natijaga to'liq erishishni ifodalaydi. O'tgan asrdan buyon foydalanilib kelinayotgan pedagogik texnologiya tushunchasiga har xil ilmiy yondashuvlar asosida ta'riflar keltirilgan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida YuNESKO tomonidan berilgan ta'rif quyidagicha ifodalangan:

Pedagogik texnologiya - texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi." [3]

Pedagogik texnologiya tushunchasiga turli ta'riflar berilgan bo'lsada, uning asosiy maqsadi ta'limda berilayotgan bilimlarni ta'lim oluvchilar tomonidan puxta o'zlashtirishi asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi kabi tomonlarni qamrab olsada, u murakkabligi va dolzarbligi bilan ajralib turadi. Unda doimo maqsadni mavjudligi va unga turli usullar orqali erishish mumkinligi ushbu jarayonning murakkabligini ifodalasa, innovasion iqtisodiyotga o'tish sharoitida esa dolzarbligi oshmoqda. Har bir jarayonning natijasi bo'lgani kabi ushbu jarayonning tarkibiy elementihisoblangan natija maqsadga erishish darajasini anglatadi. Umuman pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda ta'lim oluvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Yaxlit holda esa barkamol insonni shakllantirish faoliyatini ifodalaydi. Ta'limda berilayotgan bilimlarni talabalarning aksariyat ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiyani joriy etishning asosiy maqsadi hisoblanadi[3]. Pedagogik texnologiyani qo'llashda muhim komponentlaridan ta'lim berish usuli, ta'lim shakllari, ta'lim vositalaridan keng foydalaniladi. Ta'lim berish usuli - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li bo'lib uni quyidagicha tasniflash mumkin: ma'ruza, hikoya, tushuntirish, namoyish, ko'rsatish, videousul, mashq, laboratoriya usuli, amaliy ish usuli, kitob bilan ishlash, suhbat, bahs, aqliy xujum, pinbord, o'quv loyihalar usuli, keys-stadi va h.k. Ta'lim shakllari esa quyidagicha guruhlanadi: ommaviy ish, jamoaviy ish, guruhli, yakka tartibli. Ta'lim vositalari- o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Ta'lim vositalariga ma'ruza matni, texnika vositalari, model, mulyajlar, yozuv taxtasi, grafoprojektor, ish varaqasi, eslatma, chizma, sxema va boshqalar tegishli bo'ladi. Demak pedagogik tizimning tarkibiy elementi hisoblangan pedagogik texnologiya ushbu jarayonni natijasini - ya'ni mashg'ulotning maqsadini ta'minlashda muhim hisoblanadi. Mashg'ulotlar jarayonida jarayonida pedagogik texnologiyalarning samarali joriy etilishi ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyat yuritishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u ta'lim oluvchilarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Chunki ta'lim jarayonida talabada mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi hozirgi kunning talabidir. Demak pedagogik texnologiyaning asosiy masalasi - ta'lim oluvchilarni bilimlarini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. 2021 yil
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2005.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. "Pedagogik texnologiya asoslari": -T.: O'qituvchi", 2004. 7-bet.



ABU ALI IBN SINONING INSON AHLOQI HAQIDAGI QARASHLARI

Pulatov Sherdor Nematjonovich

Alfraganus university Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD v.b. dotsenti <https://orcid.org/0009-0002-1665-0545> psherdor88@gmail.com

ANNOTATSIIYA. *Ibn Sino asarlarida axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalasi alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha, pokiza xulq - odamiylik javhari, kishini inson sifatida ulug'laydi, tuban axloq esa odam umrining zavolidir. Ahloqsiz jamiyat hayotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki inson-ijtimoiy subyekt, shaxs sifatida ijtimoiy munosabatlar mahsulidir va uning ijtimoiy ongiga boshqa shaxslar bilan o'zaro hamkorlik qilish, turli sabablarga ko'ra nochor ahvolga tushib qolganlarga yordam qo'lini cho'zishga intilish, o'z yaqinlari haqida g'amxo'rlik qilish kabi gumanistik xislatlar jo qilingandir. Insoniy fazilatlaridan bo'lgan ushbu jihat jamiyat hayoti omillari va insoniyatni olg'a tomon siljituvchi kuchlardan biri sifatida qadimgi davrlardan buyon tadqiq etib kelinadi. Bu masalada o'rta asr sharq mutafakkirlari ham ilmiy izlanishlar olib borganlar.*

Kalit so'zlar: *Ibn Sino, axloq, falsafa, sharq falsafasi, jamiyat, inson, insonparvarlik.*

ANNOTATION. *In the works of Ibn Sina, the issue of the formation of moral qualities occupies a special place. In his opinion, pure behavior is the essence of humanity, it glorifies man as a man, and base morality is the curse of human life. It is impossible to imagine the life of society without morality. Because a human-social subject, as a person, is a product of social relations, and his social consciousness requires interaction with other individuals, the desire to extend a helping hand to those who, for various reasons, are in a helpless situation, caring for their loved ones. Humanistic qualities such as care were created. This aspect of human qualities has been*

studied since ancient times as one of the factors of social life and one of the forces moving humanity forward. Middle Eastern thinkers also conducted scientific research on this issue.

Keywords: *Ibn Sina, ethics, philosophy, Eastern philosophy, society, man, humanism.*

Abu Ali Ibn Sino ilm va axloqqa doir risolalari har bir davrda jamiyatning ma'naviy va ma'rifiy shakllanishida ulkan poydevor vazifasini o'tashi mumkin. Allomaning "Kitob al-insof" ("Adolat haqida kitob"), "Uyun al-hikma" ("Hikmatlar ko'zi"), "Kitob al-bir va al-ism" ("Yaxshilik va yomonlik haqida kitob"), "As-siyosat" ("Oila tadbiri"), "Ilm al-axloq" ("Axloq ilmi"), "Risola fi al-ahd" ("Burch haqida risola") "Risola fi tazkiyat an-nafs" ("Nafsnii saqlash haqida risola"), "Risola fi siyosat al-badan" ("Badanni boshqarish haqida risola"), "Risola fi al-ishq" ("Ishq haqida risola") kabi risolalari ilm va axloqning jamiyatdagi tutgan o'rni qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatib beradi.

Abu Ali ibn Sino o'z axloqiy qarashlarini asosan "Axloq ilmiga doir risola", "Burch to'g'risida risola", "Nafsnii pokiza tutish to'g'risida risola", "Adolat haqida kitob", "Turar joylardagi tadbirlar" kabi asarlarida va zamondoshlari bilan olib borilgan munozara yozishmalarida bayon etgan. Ibn Sino yashagan davrda Movarounnahr va Xurosonda amal qilgan futuvvatchilik ilmi ham asosan o'zining axloqiy o'g'itlari bilan alohida ajralib turgan, keyinchalik naqshbandiya tariqati vujudga kelishida g'oyaviy asos bo'lgan deyish mumkin. Chunonchi olim "Tadbir al-manozil" ("Turar joyni boshqarish choralari") degan asarida odamlarning oila qurishi to'g'risidagi masalaga oid o'z mulohazalarini bayon etadi. Bundan tashqari, Ibn Sino axloqqa tegishli "Yaxshilik va yomonlik" degan asar ham yozgan. Bu asar haqida olim o'z tarjimai holida eslab o'tadi. Lekin bu kitob bizgacha yetib kelmagan bo'lish ehtimoli mavjud, chunki bu kitob olim tomonidan taqdim qilingan kishining o'zidagina bo'lishi ta'kidlangan edi. Ibn Sinoning o'zi ham o'sha paytda uning asrlar osha olmasligini payqab, bu haqda tarjimai holida shunday deb yozadi: "Abu Bakr al-Barqiy degan Xorazmda tug'ilgan bir qo'shim bor edi, o'z tabiati bilan u kishi faqih – qonunshunos bo'lib, tafsir va porsolikda yagona edi. Shu kishi mendan kitoblarga sharh yozib berishimni so'radi. Men unga yigirma jildcha keladigan "Hosil va mahsul" degan kitob yozib berdim. Bundan tashqari, unga axloqqa tegishli bir kitob ham yozib taqdim etdim. Kitobning nomini "Kitob al-birr val-ism" ("Yaxshilik va yomonlik kitobi") deb qo'ydim. Bu ikki kitob undan boshqada yo'q. U ikkovidan nusxa olish uchun hech kimga bermagan ham"¹.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibn Sinoning "Axloq haqida risola" asarining qo'l yozmalaridan biri O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining kitob fondida (2385 raqamda XXVI) mavjud bo'lib, bu asar 1908 yili Misrda Ibn Sinoning "Hikmat va tabiatga oid to'qqiz risolasi" kitobi ichida (152-156-betlar) nashr qilingan. Ikkinchi marta bu risola 1910 yili Misrda arab olimi Muhyiddin sabriy Qudriy tomonidan "Risolalar majmuasi" ("Majmuat ar-rasol") asari ichida (192-203-betlar) chop etilgan.

Ibn Sino o'zining "Axloq haqidagi risola"sida axloqiy xislatlardan or-nomus, sha'n, qadr-qimmat, qanoat, saxiylik, g'ayratlilik, sabr-toqat, halimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, vijdonlilik, do'stlik, sadoqatlilik, kamtarlik, saxiylik, adolatlilik kabi shaxs ma'naviyati kategoriyalariga ta'rif beradi:

"G'ayratlilik" olimning fikricha, g'azabiy quvvatga mansub bo'lib, bunda inson har qanday og'riq va alamlarga befarq qaraydi.

"Hikmat" tamyiziy quvvatga mansub bo'lib, insonni xato va yanglishishlardan asraydi.

"Qanoat", ya'ni mo'tadillikka ta'rif berib, Ibn Sino uni tana uchun normadan ortiq ozuqani iste'mol qilishdan saqlanish yoki xulq normalariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik deb tushuntiradi.

"Sabr" insondagi shunday quvvatdirki, u orqali inson boshiga tushgan yomonlikdan xoli bo'ladi.

"Yumshoqlik" g'azabning yuz berishidan o'zini tutishdir. Kimki o'zini g'azabdan tuta olmasa, u oqibatda jinoyat sodir bo'ladigan fe'l-atvorga giriftor bo'ladi. G'azabdan o'zini tutishni Ibn Sino insonning olijanobligidir, deb juda to'g'ri ta'kidlaydi.

"Vijdonlilik" tez fahmlash, his orqali berilgan biror narsaning haqiqiy ma'nosiga tez yetishdir va turli xil yomon ishlardan o'zini tiyib turishdir.

"Rahmdillilik" omadsizlikka uchragan yoki boshqa og'ir kulfat tushgan insonlarga hamdard bo'lish.

Aynan Ibn Sinoning odob-axloq va insonparvarlik haqidagi ta'limoti axloqshunoslik fanining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu ta'limotga ko'ra, Ibn Sino "Inson olam rivojlanishining toji bo'lib, u buyuk sharaf va hurmatga loyiqdir", degan fikrga asoslanadi.

Ibn Sino o'zining falsafiy ta'limotida yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, rohat va azob-uqubat, iffat, sharm-hayo va benomuslik, sahiylik va baxillik, donolik va johillik, sevgi va nafrat, poklik va nopoklik, vafodorlik va bevafoqlik, kamtarlik va manmanlik, maqtanchoqlik singari odob-axloqqa taalluqli tushunchalarga alohida e'tibor bilan qaraydi. Allomaning «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Nafsnii pokiza tutish haqida», «Hikmat buloqlari» asarlarida kishilar faoliyatida namoyon bo'ladigan xususiyatlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar berilgan. Uning fikricha, yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo'ladi. Ayni paytda u odamlarning yaxshi yoki yomon bo'lishiga hukumat ahllarining ta'siri ham zo'r bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi.

Ibn Sino «Donishnoma» asarida yaxshilik tushunchasi ikki ma'noga egaligini, ya'ni, birinchisi, o'z tabiatiga ko'ra yaxshilik, ikkinchisi, biror kimsa uchun qilingan yaxshilikdan iboratligini eslatish lozim. Yaxshilik va yomonlik mazmunan va mohiyatan o'zaro tubdan zid tushunchalardir. Yaxshilik, ezgulik bo'lmagan joyda yomonlik bo'ladi. Yomonlik esa yaxshilikni yo'q qilishga, uning rivojlanishi, keng yoyilishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi.

Ibn Sinoning “Tadbir-e manzil” risolasi oilani tashkil etish, uning a’zolarini boshqarish muammolari va ularning yechimlarini o’z ichiga oladi. Risolaning birinchi qismida insonning umri eng shirin va purne’mat qilib yaratilganligi, insonlar martabada, mulkda, aql va tafakkurda bir birlaridan farqli qilib yaratilganliklari yoziladi. Ibn Sino insonlarning yuqorida sanab o’tilgan sifatlarda teng ahvolda bo’lishini fanolik deb ataydi. “Bashr a’zolari andozalarining yaqinligi, ahvolining tengligi va barobarligi fasodlarining (razolatlarining) to’g’al holati bo’lib, oxir oqibatda ularning fanosi (yo’qligi), parchalanishi va inqirozi sababi bo’ladi”.

Ibn Sino insonni boshqa mavjudotlardan farqini, quvvat va yemakning ko’pligiga qaramay, boshqa vaqt va zaruriyat kuni uchun yig’ib, zaxira qilishi, tayyorlashi va muhofaza qilishida deb biladi. Alloma ushbu risolasida nafsni isloh etish to’g’risida qimmatli fikrlar aytib o’tadi. “Jumladan, o’z nafs siyosatiga kirishishni xohlagan kishi uchun uning vujudida birinchi darajada bo’lgan quyidagi narsalar lozimdir: uning uchun aql (birlamchi) bo’lsa, vujudi mamlakat siyosati uchun javobgar bo’lishi yoki (agar) nafs (birlamchi) bo’lsa, odamlarning ko’pchiligini past, ablahona, noravo ishlarga boshlashini bilishi kerak”. Alloma oilada er-xotinning munosabatini teng huquqlik meyorlariga asosan barpo etilishi, ayniqsa urning vazifalaridan biri bo’lgan, o’z xotiniga shirin suxanligi baxtli hayot bardavomligining asosi ekanligini alohida uqtirib o’tadi. Xotinning egallashi kerak bo’lgan o’n yettita sifatni sanab o’tadi. Allomaning xotinni biron bir kasb-kor bilan shug’ullanishiga urning imkon yaratib berishini ma’qul deb topadi. “Tadbir-e manzil” risolasida farzand tarbiyasiga, uning axloqi haqidagi ko’rsatmalarga, jamiyatda sog’lom avlodni ulg’aytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Farzandlarni noma’qul, nafrat uyg’otadigan odatlardan asrashni, maqtovga sazovor xulqlar bilan yuzlashtirishni ta’kidlab o’tadi. “Bolaning yomon fe’l-atvorlar va nafratli odatlar bilan yuzma-yuz kelib qolishidan va ularning surati uning (bolaning) ruhiyati sahifasida muhrlanib qolishidan oldin, uni yoqimli xulqlar, maqtovga sazovor sifatlar va munosib odatlar bilan yuzma-yuz to’qnashtirib va uning vujudini ular bilan bezab turish kerak”. Hozirgi intellektual taraqqiyot davrida ushbu risolaning ahamiyati oilaviy munosabatlarni shakllantirishda, oila muhitini milliy-an’anaviy qadriyatlarimiz asosida takomillashtirishda yaqqol ko’zga tashlanadi.

Umuman olganda, Ibn Sino yuksak ahloqiy fazilatlarining shakllanishida ilmning ahamiyatini ta’kidlab insonlarni ikki narsaga chaqiradi.

Birinchidan, yuqorida qayd etilganidek, ilmi kishilarni manman bo’lib ketmasliklariga da’vat, chaqiriq.

Ikkinchidan, inson ilohiy qudrat ila yaratilgan tabiat va jamiyatning barcha sir-asrorlaridan boxabar bo’la olmasligiga ishora. Har ikki holatda ham alloma ma’lumlik axtarib — ilm izlab, dunyo, borliq haqida fikr yuritayotganda buyuk Yaratuvchini inkor etmaslik joizligini uqtiradi.

Insonning ijtimoiy borliqdagi o’rnini anglashga, ijtimoiy faoliyatining mohiyati va xususiyatlarini ochib berishga bo’lgan intilish mudom ilm ahlining diqqat markazida bo’lib kelgan. Faylasuflar ushbu muammoni turlicha talqin qilib keldilar. Masalan, xitoy faylasuflari Osmon – Yer – Inson yoki konfusiychilikda e’tirof etiladigan “li” – jamiyat, davlat ishlarini urf-odatlar, Osmon (Kosmos) hukmlari, tartiblariga muvofiq boshqarish, hindobuddaviylikning tarafdorlari qayta va qayta tug’ilish asosida “azob-uqubatlarga to’la dunyodan nirvanaga o’tish”, Platon va Arastu eydos yoki istoritsizm prinsiplariga muvofiq yetuk jamiyatga borish, islom va islom falsafasi Alloh tartiblariga itoat etish orqali insonning ma’naviy-ruhiy kamolotiga erishishi konsepsiyalarini ilgari surganlar.

Ijtimoiy faollik genezisiga ko’ra insonning borliqni anglash, o’zgartirish, takomillashtirish, o’zidagi intellektual, ijodiy kuchni namoyon etish, el-yurt manfaatlariga xizmat qilish o’yi bilan yashash, fidoyilik ko’rsatib o’zining insoniylik, fuqarolik burchini bajarishga qaratilgan xatti-harakatlaridir. Ushbu xatti-harakatlar rang-barang, ijtimoiy borliqqa yo’naltirilgan faoliyat turlari bilan bog’liqdir.

Ibn Sinoning “Aqliy ilmlar qismlari” risolasining tarjimasida, ilmlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyati haqida qisqacha risola bo’lib, Ibn Sino unda hikmat va uning mohiyati, uning qismlari haqida fikr yuritadi. Ibn Sino hikmatni falsafaga taqqoslaydi. Allomaning ushbu risolasi tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga kechgan hissasini ko’rsatadi.

Ibn Sino “Ilm ul-axloq” risolasida sahoat, qanoat, sabr, himmatlilik, yumshoqlik (beozorlik), iffatlik, kechirimlilik, hotamtoylik, kamtarlik, donolik, so’zamollik, zehnilik, sog’lom fikr yuritish, bamanilik, rostgo’ylik, vafodorlik, do’sstlik, marhamatlik, hayo, o’ta himmatlilik (javonmardlik), ahdida turishlik kabi axloq kategoriyalariga qisqacha ta’rif berib o’tadi.

Ibn Sinoning falsafiy mushohadasi juda chuqur mantiqiy asosga ega. Ular, ayniqsa, insonlarda falsafiy fikrlashni shakllantirishda katta o’rin tutadi. Alloma bu mo’jaz she’rlar orqali umrning mohiyati, qismat bitiklari haqidagi o’ylarini, hayrat-u iqrorlarini to’kib soladi. Shu o’rinda, uning xalqimiz orasida mashhur bo’lib ketgan ruboiylari misolida fikrlarimizni bayon etamiz.

Kufrimni ayon aylamak oson bo’lmas,

Olamda imonim kabi imon bo’lmas.

Dahr ichra yagonamen, manam kofir ersam,

Bas, ushbu jahonda bir musulmon bo’lmas.

Yuqoridagi ruboiy, bizning nazarimizda, ulug’ tabiiy va faylasuf olimning o’z tanqidchilariga qarata katta bir ishonch-e’tiqod ila qilgan murojaatidir. Zotan, bu buyuk hakimning insonni anglash yo’lidagi falsafiy va tibbiy tajribalari, faoliyati o’z zamonasida turlicha baholangan. Bir guruh diniy mutaassibchilar inson tanasini tashrih – (arabcha — ochish, kesish, yorish) operatsiya qilishga qarshi edilar. Lekin Ibn Sino tanlagan yo’lining to’g’ri ekanligiga ishonchi komil bo’lib, bundaylarga parvo qilmagan.

Mazkur ruboiyda o’shandan noraso kimsalarga aql va mantiq kuchiga tayanib, go’zal badiiy yo’sinda muxtasar va sharhga o’rin qoldirmaydigan qilib zarba berilgan. U dunyoda meningdek imoni butun yo’q, agar men

kofir bo'lsam, boshqalarni ham musulmon deb atash noto'g'ri, deydi alam, iztirob bilan. Oradan necha yillar, asrlar o'tdi, bugun u boshlab bergan qutlug' yo'l insoniyat salomatligi uchun xizmat qilmoqda. Yuqoridagi to'rtlik esa olimning o'lmas merosini bir qismi o'laroq avlodlar uchun Ibn Sinoni buyuk qalbini anglash, tushunish sari yo'l ko'rsatib turibdi.

Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi beayov kurash ma'kon-u zamondan qat'i nazar hamisha mavjud bo'lgan. Lekin, bu kurash bexuda tortishuvni, nodonlar davrasida bahsga kirishishni anglatmaydi. Aqli solih, fikri teran kishilar jam bo'lgan muhitda nodonga gap uqtirish, "o'ziga zolim"lik qilayotganini tushuntirish mumkindir, ammo, buning aksi bo'lsa bari befoyda.

Xulosa

Ibn Sino va futuvvat ilmi axloqiy o'g'itlari yoshlarni komillik sari yetaklashda juda katta ahamiyatga ega. Zero, kelajagi buyuk davlatni komil insonlar qura oladi. Alloma aytganidek, "Kamolot hosil qilishdan chetlangan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir". Ibn Sino haqiqiy ahloqiy fazilatlariga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishish mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari zarur deb ta'kidlaydi. Ibn Sinoning fikriga ko'ra hokimiyat tepasida marifatparvar va adolatli shoh turishi kerak, jamiyat azolarining barchasi foydali mehnat bilan shug'ullanishlari davlat qonunlari asosida adolatli boshqarilishi kerak.

Buyuk mutafakkirlarimizning yoshlar aqliy va jismoniy kamoloti to'g'risidagi dono fikrlari, ibratomuz so'zlari, purma'no pand-nasihatlari hozir ham o'z kuchini yo'qotmay kelmoqda. Bu fikrlar yoshlarni tarbiyalashda, ma'naviyatning yuksalishida muhim ahamiyatga egadir.



O'QUVCHILAR TA'LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA O'QUV STRATEGIYALARINI QO'LLASHNING FAOLLIKKA ASOSLANGAN TEXNOLOGIYALARI

Pulatova Muattar Kurakboyevna

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch-doktoranti muattarkurakboyevna@gmail.com

Аннотасија: *Mazkur maqolada jamiyatimizda barkamol insonni tarbiyalash jarayonida o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari va bilimlarini kengaytirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini boyitishda o'quv strategiyalaridan foydalanish amaliyotini qo'llab-quvvatlash hamda samarali ta'lim atributlarini tushunishda o'quvchilarga yordam beradigan strategiyalarni o'rganish, o'rgatish, ijod qilish, diagnozlash masalalari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.*

Аннотация: *В данной статье изложены идеи по вопросам поддержки практики использования образовательных стратегий в обогащении содержания, форм, средств, методов педагогического процесса, направленных на расширение социально-педагогических взглядов и знаний педагогов в процессе воспитания гармоничного человека в нашем обществе, а также изучения, обучения, творчества, диагностики стратегий, помогающих учащимся понять атрибуты эффективного образования.*

Abstract: *This article presents ideas on the issues of supporting the practice of using learning strategies in enriching the content, forms, means, and methods of the pedagogical process aimed at expanding the socio-pedagogical views and knowledge of teachers in the process of educating a harmonious person in our society, as well as studying, teaching, creativity, and diagnosing strategies that help students understand the attributes of effective education.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim faoliyatini tashkil etish, oson o'quv uslublari, strategik yondashuv, strategiya, o'quv strategiyasi, ta'lim oluvchi, kasbiy rivojlanish, pedagogik maslahat.*

Ключевые слова: *Организация учебной процесс, легкие методы обучения, стратегический подход, стратегия, стратегия обучения, обучаемый, профессиональное развитие, педагогическое консультирование.*

Key words: *Organization of the educational process, easy learning methods, strategic approach, strategy, learning strategy, learner, professional development, pedagogical counseling.*

Jamiyatimizda barkamol insonni tarbiyalash jarayonida o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari va bilimlarini kengaytirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini boyitishda o'quv strategiyalaridan foydalanish amaliyotini qo'llab-quvvatlash va tashkil etish maqsadga erishilgan ta'limning asoslaridan biri bo'la oladi. O'qituvchilar uzluksiz ta'lim jarayonining eng muhim bo'lagi sifatida o'z faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirib, o'zgarib boradigan ijtimoiy-iqtisodiy hamda kasbiy sharoitlarga moslashtirib borishi, mahoratini, kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishi uchun yangiliklarni ijod qilishi lozim. O'qituvchi progressiv tarzda kasbiy bilimni boyitish, ko'nikmalarni uyg'unlashtirish, amalga oshirish kabi yangi bilim va tajribalarga ochiq bo'lishi muhim. Samarali ta'lim atributlarini tushunishda o'quvchilarga oson o'zlashtirish uchun yordam beradigan strategiyalarni o'rganish, o'rgatish, ijod qilish, diagnozlash ko'nikmasi har bir o'qituvchining kasbiy komponentlik komponentlariga kiritish muvafaqqiyatli ta'lim jarayonini kafolatlaydi deyish mumkin.

Ushbu yondashuvni shakllantirish, rivojlantirish o'qituvchining individual yondashuviga bog'liq bo'lib, sinfdagi barcha o'quvchilarni dars davomida strategik tamoyillar bilan boyitib borishi talab qilinadi. Umumta'lim fanlari miqyosida foydalanish mumkin bo'lgan darajalarni aniqlash texnikasini ishlab chiqish, ommaviy foydalanish

zarurati yuzasidan o'qituvchi o'z fani miqyosida mazkur strategiyalarni ijod qilishi va amaliyotda foydalanish masalalarini individual yondashuvning bir qismi sifatida qarash mumkin. Zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib ijodiy innovatsion o'qitish usullarini avvalo qo'llab, sinab ko'rish, tahlil qilish ijobiy natijalarini ommalashtirishni taqazo etayotgan mazkur davr, har bir fan doirasida strategik yondashuvlarni amaliyotda qo'llash natijasida o'qituvchi o'zining ham, o'quvchining ham ba'zi qiyinchiliklariga yechimlar topilishi mumkinligi tahlil qilindi.

O'quv strategiyalari o'quvchilar samarali o'rganish uchun foydalanadigan usullar hisoblanadi. O'quv strategiyasi akademik va akademik bo'lmagan sharoitlarda mazmuni yanada samarali o'zlashtirish yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun ma'lum ko'nikmalarni rivojlantirish va ulardan foydalanishning individual usuli hamdir. O'quv strategiyalari o'qituvchilarga ta'lim oluvchilarga ma'lum tarkib yoki ko'nikmalarni emas, balki salmoqli o'rganishni o'rgatish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning o'quv jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. O'quv strategiyalariga asoslangan yondashuvga ko'ra o'quv jarayonida o'quvchilar o'qituvchidan faqatgina ma'lumot olmaydi, baholashdan passiv foydalaniladi, balki, o'quv jarayonining barcha jihatlarini qanday hisobga olishni o'rganadilar. O'quv strategiyalaridan faol foydalanish o'quvchilarga o'quv ko'nikmalarni rivojlantirishga, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga va o'rganish jarayonida motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Strategiyalardan foydalanish o'z-o'zini o'rganishga yordam beradi va o'quvchilarga o'zlarining ta'limlari uchun javobgarlikni o'z zimmlariga olishga o'rgatadi. O'quv strategiyalaridan foydalanishdan maqsad - o'quvchilarning motivatsion yoki ruhiy holatiga hamda ularning yangi bilimlarni qanday tanlashi, egallashi, tashkil qilishi yoki birlashtirishiga faol ta'sir qilishdir. Strategiyalar kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan faol, o'z-o'zini jalb qilish vositalaridir. Shuningdek, o'quvchilar tomonidan yangi ma'lumotlarni olish, saqlash, eslab qolish va ulardan foydalanish jarayonini yaxshilash uchun ishlatiladigan ko'plab ongli harakatlar hisoblanadi.

O'quvchilar boshlang'ich sinflardagi ko'nikmalarni o'rganishdan ko'ra o'rta sinfdagi mazmuni o'rganishga o'tar ekan darsliklardan ma'lumot o'qish, ma'ruza matnlari, o'z-o'zini boshqarish va yozma insholar, testlarda tushunishni ifodalash uchun ortib borayotgan talablarga duch kelishadi. Yuqori sinflarga o'tganlarida esa ular mavzuga emas, balki amaliyotga e'tibor berishni boshlaydilar. Ular vazifalar yoki muammolarni hal qilish uchun vaqt va kuch sarflashda ko'proq motivatsiyaga ega bo'lishi kutiladi. Strategik yondashuvning motivation aspektlari funksional jihatdan samarali natijalarga ega bo'lishda asqotishi nazarda tutiladi. O'quv strategiyalari amaliyotda qo'llanganda o'quvchining olgan bilimi o'qituvchining bilimiga bog'liq bo'lib qolmasdan, o'z ustida mustaqil izlanishi va o'zi uchun maqbul va xoslangan strategiyalarga asoslanib yangi o'quv shakllarini ijod etishi mumkinligini ta'minlaydi.

Foydalanish maqsadiga qarab o'quv strategiyalarini sifatlariga ajratish maqsadga muvofiq. Metakognitiv va kognitiv strategiya sifatini strategiya foydalanish jarayoni va maqsadini aniqlashda bilish mumkin. Masalan, o'qish paytida o'z-o'zini so'roq qilish strategiyasidan bilim olish vositasi sifatida foydalanish mumkin (kognitiv) yoki o'qiganlarini tahlil qilish usuli sifatida (metakognitiv) ham foydalanish mumkin. Kognitiv va metakognitiv strategiyalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-biriga bog'liq bo'lganligi sababli, birini boshqasini tan olmasdan tekshirishga bo'lgan har qanday urinish yetarli natijani bermaydi.[9]

Kognitiv strategiyalarga o'quv maqsadlariga erishish uchun matnni tushunish, anglash asosidagi strategiyalar kiradi. Metakognitiv strategiyalar kognitiv faoliyatdan oldingi yoki keyingi tajribalar, o'quvchining o'qigan, tinglagan va boshqa usullar bilan o'rgangan ma'lumotini tushunib yetganlik darajasini aniqlash bilan bog'liq. O'quvchi tushuna olmaganligini tan olsa, o'zining fikrlash, o'rganish jarayonlarini isloh qilishni, maqsadiga erishish uchun nimani o'zgartirish mumkinligi haqida o'ylashi, vaziyatni to'g'irlashni tanlash kabi jarayonlarda amalga oshiriladi. Ushbu nazariy yo'nalishlar ta'lim sub'ektlarini ta'lim paradigmasi va yaqin murabbiylik munosabatlari asosida o'quvchi markazda, lekin bundan ham muhimi, tug'ma psixologik ehtiyojlarning (kompetentsiya, nazorat va agentlik(irsiyat)) muhimligini ta'kidlash va o'rganishni osonlashtirishda ichki nuqtai nazardan kelib chiqishini nazarda tutadi. O'rganish uchun mas'uliyatni o'quvchiga yuklash shu bilan birga, o'rganish irodasi bilan rag'batlantirish uchun o'quvchilar nazoratining mavjud eng samarali ko'rinishi sifatida metokognitiv o'quv strategiyalarini ko'rsatish mumkin. Ta'lim sub'ektlari orasidagi munosabatlar g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlash asosiga qurilishi o'quvchi uchun muhim bo'lgan sohalarida kompetentsiyani rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjudligini his etishi o'quv strategiyalari yordamida o'qitishning ta'limda natijador tamoyillaridan biriga aylanishi lozim to'g'risidagi gipotezamizni asoslaydi.

Dars jarayonida pedagog o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini diagnostik tahlil qila olishi juda muhim hisoblanadi. Pedagogning kasbiy rivojlanishi nuqtai nazaridan o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish masalasi o'zining yangi yechimlarini kutayotgan yo'nalish sifatida innovatsion takliflarni talab etmoqda. O'quv strategiyalari g'oyalari, xotiralar, mantiqiy fikrlash, his-tuyg'ular kabi resurslardan foydalangan holda o'rganish mazmunini o'zlashtirish va eslab qolishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Samarali o'quv strategiyalari har xil turdagi o'quvchilarga xotira va diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilash, o'qish va yozish ko'nikmalarini sifatini oshirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. O'quv strategiyalarining yangi ko'rinishlari sifatida o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olishni rag'batlantirish, oson o'quv uslublarini o'rganish, kam vaqt mobaynida hajm va sifat jihatdan ko'lami katta ma'lumotlarni osonlik bilan o'zlashtirish usullarini o'zida kashf etish kabi komponentlarni jamlagan ko'rinishi o'quv strategiyalarining modern usuli sifatida baholanadi.

O'quvchining ta'lim oluvchilar klassifikatsiyasining qaysi turiga mansubligiga qarab mahsus tamoyillar belgilanib, yangi strategik bosqichga kiriladi. Xoslangan o'quv strategiyalari ta'lim olishni osonlashtirish, yanada

qiziqarli etib boyitish, samarali natijalarga erishishda vosita bo'ladi. Nazariya va amaliyotning o'zaro integratsiyasi ta'minlanmaganligi ko'plab o'quvchilarni fanga qiziqishini kamaytirishi mumkin. Ijodiy erkinlikka tayanilgan strategiyalar tasavvur imkoni va ijodiy yondashuvga asoslanadi, masalan, o'rganilgan ma'lumoti asosida shakllangan tasavvurini ayni paytning o'zida chizib yoki og'zaki mushohada qilib ko'rish imkoni bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning "o'rganish" kompetentsiyasini rivojlantirishdir. O'quvchining o'quv harakatlarini to'g'ri yo'naltirish o'qituvchining yondashuviga bog'liq. A.G. Asmolov [2] universal o'quv harakatlarini o'quv faoliyati subektining ijtimoiy tajriba orttirishi orqali o'zini takomillashtirish va rivojlantirish qobiliyati sifatida belgilaydi. O'quv strategiyalari yordamida ta'lim faoliyatini tashkil etishning to'rt turini ko'rsatish mumkin:

- shaxsiy qiymat yo'nalishlari tizimini belgilash;
- maqsadlarni belgilash, rejalashtirish; (prognozlash, tartibga solish, nazorat qilish, tuzatish, baholash va boshqalar.)
- ma'lumot bilan ishlash, kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish; (qidirish, qayta ishlash, foydalanish)
- ko'nikmalarni shakllantirishga hissa qo'shish. (kommunikativ birgalikdagi faoliyatda og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot)


Bugungi kunda o'quv faoliyatini tartibga soluvchi harakatlarning juda ko'plab turlari mavjud bo'lib, ular bo'yicha barcha bosqichlarni to'g'ri tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilmagan. O'quvchilar qanday turdagi o'quv materiallaridagi ma'lumotni tushunishga qiynalishi, o'qituvchi ularga yetkazishga harakat qilishiga qaramasdan, nima ekanligini anglamasdan "nimanidir" o'rganadilar. Shu munosabat bilan o'quvchilar uchun o'quv apparatini aniqlash, o'quv harakatlarini operatsionlashtirish va ularni yosh xususiyatlariga muvofiq "til"da tushuntirish zarurati paydo bo'ladi. Bunday yondashuvlar L.S. Vygotskiyning psixologik yosh tuzilmasi va dinamikasi konsepsiyasi [14], D.B Elkoninning bolaning aqliy rivojlanishini davriylashtirish nazariyasi [5] tafsilotlarida o'z ifodasini topadi.

Sinfda o'qituvchi uchun o'quv strategiyalarini tanlashni osonlashtirish uchun kontent bo'yicha ta'limni yaxshilash maqsadida quyidagi tavsiyalarni taklif qilamiz:

- Maktabda kun davomida samarali tushunish strategiyalaridan foydalanish bo'yicha aniq ko'rsatmalarni va qo'llab-quvvatlovchi amaliyotni taqdim etish;
- O'qiganlarni ochiq muhokama qilish miqdori va sifatini oshirish;
- Matn, dialog, savollar va so'z boyligi bo'yicha yuqori standartlarni o'rnatish va amal qilish;
- O'quvchilarning motivatsiyasini va o'qishga jalb qilinishini oshirish;
- Tarkib bo'yicha asosiy bilimlarni o'rgatish. Shunda barcha o'quvchilar muhim tushunchalarni o'zlashtiradilar.

Ta'lim faoliyatida o'quvchining hatti-harakatlarini ijobiy jihatga o'zgartiradigan, muammolarni hal qilishda aqliy vakilligini oshiradigan tamoyillar – strategiyalarga ega bo'lishi o'quvchini ruhlantiradi. O'quvchilarning ta'lim faoliyatida turli qiyinchiliklarga duch kelishlarining asosiy sabablaridan biri ular yetarlicha o'quv strategiyalarga ega bo'lmaganligi yoki o'zlarining bilim darajalari haqida aniq ma'lumotga ega emasligi. Jarayonda pedagoglarning ko'rsatmalari fundamental ahamiyatga ega. O'quv strategiyalari bo'yicha maslahatchi maqomini egallagan pedagog ta'lim oluvchining rivojlangan idrok kanallari, jismoniy imkoniyatlari, nogironlik bilan bog'liq ehtiyojlari, psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashib, ta'lim oluvchi bilan birgalikda kerakli o'quv strategiyalarini ishlab chiqish yoki takomillashtirishga mo'ljallangan mahsus mashg'ulot va amallar ketma-ketligi rejasini yaratadi. Darsdan tashqari mustaqil o'qib-o'rganishni zaruruy ehtiyoj sifatida shakllantirish o'qituvchidan shaxsiy tashabbusni talab qiladi. Har bir o'quvchining fiziologik hamda psixologik jihatlarini anglagan holda yo'nalish berishi kutiladi. Masalan, navbatdagi nazorat ishiga tayyorlanish traektoriyasini yaratishdagi individual reja tuzishga yordam berish va boshqalar kabi.

O'quv strategiyalarini o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qituvchilar o'zlarida diognostik tahlil, aniq maqsadni belgilash, faoliyatni amalga oshirish bosqichlaridan iborat amaliyotni shakllantirish va rivojlantirishi maqsadga muvofiq. Ushbu amaliyotni sinxron tarzda amalga oshirilishi o'qituvchining mazkur kompetensiyasi mustahkamlanishiga asosiy ko'rsatkich sifatida baholanadi.



1-rasm. O'quv strategiyalarni o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirish bosqichlari.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, o'quvchilar turli karakter-xususiyatlarga, psixologik jihatlariga ega bo'lishi sababli turlicha yondashuvni talab etishadi. Bu holat sinfdagi har bir o'quvchiga individual o'quv strategiyalarini talab qiladi. O'qituvchi doim kasbiy bilimni boyitish, ko'nikmalarni uyg'unlashtirish, amalga oshirish kabi yangi bilim va tajribalarga ochiq bo'lishi muhim. O'quvchilarga samarali strategiyalarni o'rganish, o'rgatish, ijod qilish, diognozlash ko'nikmasini rivojlantirish muvafaqqiyatli ta'lim jarayoni asoslaridan biri deyish mumkin. Jamiyatimizda barkamol insonni tarbiyalashda o'qituvchilarning bilimlarini kengaytirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, vositalari, usullari, metodlarini boyitishda o'quv strategiyalaridan

foydalanish amaliyotini qo'llab-quvvatlash va tashkil etish maqsadga erishilgan ta'limning asoslaridan biri bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Argyris, C., Schön, D. A. Organizational Learning: Vol. 2. Theory, Method, and Practice. Reading: //Addison-Wesley, 1996.
2. Aslomov, A.G. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли: пособие для учителя. – М. //Просвещение, 2008.
3. Boekaerts, M., Corno, L. Self-regulation in the classroom: A perspective on assessment and intervention //Applied psychology. – 2005
4. Boekaerts, M., Niemivirta, M. Self-regulated learning: Finding a balance between learning goals and ego-protective goals //Handbook of self-regulation. – Academic Press, 2000.
5. Elkonin, D.B. Психология обучения младшего школьника. – М. //Знание, 1974.
6. Fleming, N. D., Teaching and learning styles VARK strategies. Christchurch: //N.D.Fleming. 2006.
7. Ibragimov, A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari.– T. //“NAVRO‘Z” 2019.
8. Ibragimov, A.A. Pedagog xodimlar kasbiy kompetentligini takomillashtirishga ilmiy-metodik hamrohlikning pedagogik-psixologik xususiyatlari // O‘zMU xabarlar. – Toshkent, 2017. – №1/5. (13.00.00; №15).
9. Livingston, J. A. *Metacognition: An Overview*. Available at: // <http://gse.buffalo.edu/fas/shuell/CEP564/Metacog.htm>, 1997.
10. Muslimov, N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.–T. //“Fan va texnologiya”, 2013.
11. Musurmanov, R. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini joriy etish mexanizmlari. - T.: //“O‘zPFITI”, 2013.
12. Norman, D. A. Memory and Attention: An Introduction to Human Information Processing. New York: // Wiley, 1969.
13. Savinova, L.F.Современные модели повышения квалификации: опыт, проблемы, перспективы // Научные обеспечение системы повышения квалификации кадров. – Челябинск, 2013.
14. Vigotskiy, L.S. Психология развития ребенка: сб. избр. тр. / Л.С. Выготский. - Москва: // ЭКСМО, 2003.
15. Weinstein, C. E., and Mayer, R. E. “The teaching of learning strategies,” in Handbook of Research on Teaching, ed. M. C. Wittrock New York: // Macmillan, 1986.
16. Wittrock, M. C., and Alesandrini, K. Generation of summaries and analogies and analytic and holistic abilities. //Am. Educ. Res. J. 27, 1990. doi:10.3102/00028312027003489

HAYOTNING MAZMUNI VA UNDA INSONNING VAZIFASI

Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti, Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasini dotsenti. Tel. +998 995665940.

polatsamdu1988@mail.ru, polatqahhorov@gmail.com

Inson paydo bo'lib, o'zini qurshagan dunyoni va tutgan o'rnini o'rganib keladi. U bunda o'zining kimligi va nimaligi, qanday ishlarga qodir ekan va boshqa tirik mavjudotlardan farqli jihatlarini bilishni hohlaydi. Maqolada ushbu masalaning ayrim nazariy jihatlarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tanatologiya, pralogiya, antropologiya, germetizm, ekzistensialist, evtanaziya.

С самого начала своего появления человек изучал окружающий его мир и свое место в нем. Ему хотелось познать кем и чем является он сам, на какие дела способен, чем отличается от других живых существ. В статье представлен теоретический анализ данного вопроса.

Ключевые слова: Танатология, пралогия, антропология, герметизм, экзистенциалист, эвтаназия.

From the very beginning of its appearance, man has studied the world around him and his place in it. He wanted to know who and what he himself is, what things he is capable of, how he differs from other living beings. The article presents a theoretical analysis of this issue.

Keywords: Thanatology, pralogy, anthropology, hermeticism, existentialist, euthanasia.

Hayot tiriklik, tirik organizmlar – borliqning eng yuksak shakli. U tashqi muhitdan olinadigan energiya hisobiga o'z-o'zidan boshqariladigan va o'z-o'zini bunyod etish xossasiga ega bo'lgan o'ziga xos strukturalardan iborat. Shuningdek, hayot – mavjudlikning o'z rivojlanishining muayyan bir davridagi harakatlanish jarayoni.

Mashhur alloma Majiddin Xavofiy, yashash uchun ovqatlanurlar, ovqatlanish uchun yashamaslar, degan hikmatni ko'p takrorlar ekan. Xo'sh, aslida inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson hayotining ma'nosi nimada?

Har bir inson o'z umri mobaynida ana shu savollarga javob topishga urinadi va hayotining ma'nosini o'ziga xos tarzda tushunadi. Shu bois hayotning ma'nosi axloqshunoslikning ancha murakkab tushunchalaridan hisoblanadi.

Avvalo shuni aytish joizki, hayotning ma'nosini yashashdan maqsad degan tushuncha bilan qorishtirib yuborish hollari ko'p uchraydi. Vaholanki, ularni aynanlashtirish mumkin emas. Chunki hayotning ma'nosi maqsadga nisbatan juda qamrovli tushuncha, o'z ichiga o'nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi. Aniqrog'i, u muayyan maqsadlar tizimidan tashkil topadi. Shu bois kimningdir biror-bir ezgu maqsadi amalga oshmay qolsa, uning hayotini "ma'nosiz" deb bo'lmaydi.

Ba'zan hayot "ma'nosiz" kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o'tkinchi, mayda, yuksak orzu-intilishlardan yiroq, hayvoniy, tuban, hatto yovuz bo'lishi mumkin. Mazkur kishi – "hayot egasi"ning bunday tabiati jamiyat erishgan axloqiy daraja bilan baholanadi. Zero, kimdir o'z hayoti ma'nosini qanday yo'l bilan bo'lmasin boy-badavlat, to'kin-sochin yashashda deb tushunadi. Shuningdek, yaxshi-yomonning farqiga borib o'tirmaydi. U birovning haqidagi qo'rqmaydi. Bu kishi qanday vositalar bilan bo'lmasin, martabaga erishishni o'z oldiga hayotiy maqsad qilib qo'yadi, faqat "yulsam" deydi. Boshqa birov esa, qonunni buzmaydi, lekin o'zgalarga qayishishni xayoliga ham keltirmaydi. Uning hech kim bilan ishi bo'lmaydi, faqat "o'z qobig'ida" yashashni afzal ko'radi.

Yana bir toifa odamlar borki, ular hayotining ma'nosini eng yuksak qadriyatlar bilan bog'laydilar. Ular jamiyatda yuksak axloq egasi, go'zallik oshuftasi, e'tiqodi but kimsalar sifatida e'tibor qozonadilar. Ular oliy ideallarga intilib, fidoyilarcha umr kechiradilar. Hayotining ma'nosini o'zidan keyin qoldiradigan "ikkinchi umr"da ko'radilar. Har bir jamiyatning taraqqiy topishi yoki tanazzuli hayotning ma'nosini ana shu tarzda tushunuvchilarning ko'pligi yoki kamligi natijasida ro'y beradi. Bir so'z bilan aytganda, bunday tom ma'noda "elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan" odamlar yuksak axloqli, demokratik, erkin jamiyatning ustunlaridir.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan toifalar ikki umumiy ijtimoiy-ma'naviy guruhning biriga, ta'bir joiz bo'lsa, shartli ravishda dunyoviy deb ataladigan qismiga mansub.

Ikkinchi guruhni esa e'tiqodiy-diniy deb nomlash mumkin. Bu guruh hayotning ma'nosini Xudoni topishda, Unga yetishishda deb biladi. Bunda goho cherkov yoki shariat aqidalari orqali emas, balki muhabbat vositasida ham Xudoga murojaat qiladilar. Masalan, buyuk rus mutafakkiri va yozuvchisi Lev Tolstoy hayotning ma'nosini quyidagicha tushunadi: "Men faqat Xudoga ishongan onlarimdagina haqiqiy yashaganimni esladim. Xudoni tanish va yashash degani bir xil gap, Xudo hayot demakdir", – deb yozadi u o'zining mashhur "Iqrornoma" asarida.[1]

O'z hayotining ma'nosini Xudoga yetishish uchun harakatda deb bilgan Tolstoy ayni paytda bu harakatni dunyoviy muammolarning hal qilinishi bilan bog'laydi. Xuddi shunday holatni biz avval ham bir necha bor misol qilib keltirganimiz buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy shaxsida ham ko'rish mumkin. Gap shundaki, har ikki alloma o'zlari tanlagan tariqatlar orqali Xudoga yetishishga intiladilar. Ulardagi Xudoga bo'lgan ilohiy ishq U yaratgan har bir jonzotga, har bir giyohga, eng avvalo, insonga muhabbat sifatida namoyon bo'ladi. Ular hayotida diniylik dunyoviylikni inkor etmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ba'zi ekstremistchi guruhlar mafkurachilarining "dinni dunyoviylikdan tozalash" haqidagi safsatalari ulardagi hokimiyatni qo'lga olishga intilishdan boshqa narsa emas. Ya'ni mohiyatan dinga aloqasi yo'q, xudbinlikning niqoblangan ko'rinishi, xolos. Zero, Alloh u dunyoda jannatni bo'lish uchun o'z bandalariga bu dunyoda go'zal yashashni, chiroyli a'mollar qilishni buyuradi.

Ko'rib o'tganimizdan ma'lum bo'lyaptiki, hayotning ma'nosini tushunishda har ikki ijtimoiy-ma'naviy guruhda ham turli qarashlar mavjud. Lekin ular bir masalada yakdil. Ular hayotning ma'nosi o'z manfaatlarini o'zgalarga manfaati bilan bog'lab, oliy qadriyatlar va yuksak aqidalarni ichki shior qilib yashashdadir, degan axloqiy qoidaga binoan umr kechiradilar.

"Hayotning ma'nosi – hayotning ma'nosini izlashni unutishdir. Oxir oqibat, inson o'z hayotining ma'nosi nima ekanligini so'ramasligi kerak, aksincha, o'zi so'ralayotganini tan olishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, har bir insonni hayot so'roq qiladi. Ular faqat o'z hayotlari uchun javob berish orqali hayotga javob berishlari mumkin. Hayotga ular faqat masuliyat bilan javob berishlari mumkin"[2] – deb ta'kidlab o'tadi g'arb faylasuflaridan biri.

Aslida odamzod jism va ruhdan iborat. Insonning mohiyati uning jonidan iborat; qalbidan, ruhdan iborat. "Insonni tashqi ko'rinishi, badani va tashqi a'zolari "xalq" deyiladi. Xalq – insonning yaratilishi go'zal, qomati chiroyli, yoyinki, insonning tashqi tomoni ko'rinishiga nisbatan ishlatiladi. Insonning ichki olamini, uning ichki dunyosini "xulq" deyiladi. Xulqning yaxshi yomonligi insonning qilgan amalidan belgilanadi."[3] Ayrim olimlarning fikricha insonning tashqi ko'rinishi (xalqi) va ichki olami(xulqi)uning hayotiy mohiyatini tashkil etadi.

Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi zarur. Odamzot hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozim. Bunday fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Shundan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q. Zero, avvalgidek, odamzotning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi. Shuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi. U o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. "Bu dunyoda nima uchun yashayapman?", deb o'zidan so'raydi. Agar inson bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o'zi bilan o'zi tanho qoladi.

Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi. Biroq, ekzistentsialistlar fikricha, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti mazmunini anglab yetgunga qadar davom etadi.

Bundan ekzistentsializm falsafasida yolg'izlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borlig'i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Inson paydo bo'libdiki, u o'zini qurshagan dunyoni, unda o'zining o'rnini o'rganib keladi. U umri davomida o'zining kimligi va nimaligi, qanday ishlarga qodir ekanligini tushunadi. Inson hayotida boshqa tirik mavjudotlardan qaysi jihatlari bilan farq qilishi va qanday tomonlari bilan ularga o'xshash ekanligini biladi. Uning insoniy fazilatlarini nimalardan iborat inson umri, uning o'limi va manguiligi nima ekanligini bilishga qadimdan harakat qilib keladi. Shuning oqibatida, bugungi kunga kelib, inson to'g'risida turli xil: mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar paydo bo'lgan. Dastlab inson to'g'risida mifologik qarashlar, tasavvurlar paydo bo'ladi. Bu tasavvur va qarashlarga ko'ra, inson o'zini tabiatdan hali to'liq ajralmaydi. Ya'ni kishi o'zini tabiatning bir qismi deb, tabiat hodisalarini tabiat bilan bo'lgan munosabatlarini hayoliy, ya'ni fantastik holda tushunadi.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan inson haqidagi tasavvurlar yanada rivojlanishi tufayli diniy qarashlar paydo bo'lib, shakllanib boradi. Diniy qarashlarga ko'ra, din insonni xudo yaratganini, uni olamdagi hamma tirik mavjudotlardan yuqori turuvchi oliy mavjudot – mukarram zot, deb tushuntiradi. Falsafa inson muammosini o'rganishni dastlab “inson” tushunchasi nimani ifodalashini tushuntiradi. U “individ”, “odam” va “shaxs” tushunchalari bilan qanday munosabatda, bu tushunchalar insonning qanday tomonlari va jihatlari ifodalashlarini qarab chiqishdan boshlaydi. Insonning olamga gnoseologik yondoshuvi olamni bilish mumkinligi va uning usullari haqidagi falsafiy ta'limotlarda o'z ifodasini topgan. Undagi bosh g'oya haqiqat va uning tabiatini anglab yetish hisoblanadi.

Inson dunyoqarashining eng mukammal ta'rifi V.Shekspir qalamiga mansubdir: “o'lish yo'qolish - masala shunda”[4]. Umuminsoniy ahamiyatga molik masala haqidagi fikr-mulohazalarni V.Shekspir o'z qahramoni – shahzoda Gamletning so'zlari orqali ifodalagan. Unda hayotda yo'l tanlash va inson borlig'ining chekliligi bosh muammo sifatida qayd etilgan. Inson borlig'ining chekliligi mavzui falsafada o'lim muammosi sifatida namoyon bo'ladi. Faylasuflar bu muammoni asosan chetlab o'tishga harakat qiladilar, uni ifodalovchi atama –“tanatologiya” (Tanatos - afsonaviy o'lim xudosi) ham ko'pchilikka ma'lum emas. San'at individual borliqning yakuniga ko'proq e'tibor beradi. Afsonalarga asoslangan qadimgi pralogik (jamoatchilik fikri) tafakkurda tirik va o'likning aniq muammosi mavjud bo'lmagan. o'lim yo'qlik emas, balki o'zga borliqqa o'tish sifatida tushunilgan. o'lim sabablarining dastlabki talqini tabiiy zaruriyat deb tushunilgan. “Odam nima uchun o'ladi?”, degan savolga “Uning o'lishini kimdir belgilab qo'ygan!”, degan uzil-kesil javob berilgan.

O'limning diniy talqini uni hayot yakunining fojeasi ekanini anglatmaydi. Diniy ongda “o'lim” deyilganida, inson borlig'i pirovard shartlarining o'zgarishi yuz beradi. Dunyoga kelish (fiziologik tug'ilish) o'limdan haqiqiy (fiziologik o'lim) intiho sari bo'lgan harakatdir. Muqaddas islom dinimizdagi ta'limotlarda o'lim haqida alohida urg'u beriladi.

Ayrim ulamolarning fikrlari bilan tanishib o'tamiz. “O'limning lug'atda ikki xil ma'nosi bor:

1. Hayotning ziddi qilib yaratilgan vujudiy sifat.
2. “Yo'qlik”[5].

O'lim ikki hayot – bu dunyo hayoti va oxirat abadiy hayoti o'rtasidagi ko'prikdir. Dunyo – oxirat ekinzori. Demak, oqil kishining ishi oxiratda hisob-kitobi oson bo'ladi. Ya'ni, Allohning rizoligini topish va abadiy jannatga sazovor bo'lish uchun bu dunyoda ezgu amallarni g'animat bilishdir.

“Vafot etish – to'la ma'noda yo'q bo'lish degani emas, balki u ruh bilan tana muloqotining uzilishi hamda ularning bir-biridan uzoqda va xoli bo'lishi, holatning o'zgarishi, shuningdek, bir diyordan boshqa bir diyorga ko'chishdir. O'lim ruhning badandan ajralishidir”[6].

O'lim qalbdan o'chmas iz qoldiradi. Uni esga olish ko'ngilni yumshatadi va Alloh taolaga tavba bilan yuzlanishga chorlaydi. Shu boisdan Qur'oni karimda o'lim qayta-qayta zikr etilgan. Undagi oyatlar kofir va osiylarni o'lim ro'baro' kelgandagi azob bilan qo'rqitsa, o'limga hozirlik ko'rib, amallarini u keladigan kunga taxt qilib qo'ygan mo'min kishilarga quvonchli xushxabar beradi. O'limni eslatuvchi oyatlar Qur'oni karimda juda ko'p zikr qilingan. Alloh taolo aytadi:

“Har bir jon o'limni totguvchidir”(*Oli Imron surasi, 185-oyat*).

“(Ey, Muhammad!) Ayting: “Agar sizlar o'lishdan yo o'ldirilishdan qochsaniz, bu qochish sizlarga sira foyda bermas” (*Ahzob surasi, 16-oyat*)[7].

Inson o'limdan omon qolmaydi. Qaysi joy, qaysi vaqt bo'lmasin, o'lim uni izlab topadi. Shularni bayon qilib, Alloh subhanahu va taolo bunday deydi:

“Qayerda bo'lsangiz, hatto mustahkam qal'alar ichida bo'lsangiz ham, o'lim sizlarni topib olur” (*Niso surasi, 78-oyat*).

“Alloh jonlarni o'lgan vaqtida, o'lmaganlarni esa uxlayotgan paytlarida olur. Bas, O'zi o'limga hukm qilgan jonlarni (qaytarmasdan)ushlab qolur, boshqalarini esa belgilangan bir muddatgacha (ajallari yetguncha)qo'yib yuborur. Albatta, bunda tafakkur qiladigan qavm uchun alomatlar border” (*Zumar surasi, 42-oyat*).

Tafsirlarda yozilishiga ko'ra, insonda “katta o'lim» va “kichik o'lim” bo'ladi. Kattasi – ajal yetganda ruhning tanadan chiqib ketishi. Kichik o'lim – bu, uyqu. Uxlagan odam o'likka o'xshatiladi. Chunki o'lik kabi u ham beshta sezgi a'zosi va aqldan vaqtincha bo'lsa ham xoli hisoblanadi. Qur'oni karimda “vafot” so'zining o'zagidan olingan va “uyqu” ma'nosini ifoda etadigan iboralar kelgan[8].

O'lim kishi boshiga uyg'oqligida ham, uyqusida ham kelib qolishi mumkin. Demak, uyqu insondan o'limni daf qila olmaydi. Umuman olganda, biror holat, vaqt va yo biror joy, narsa yo'qki, insonni o'limdan saqlab, asrab

qololsa. Shularni o‘ylagan oqil odam o‘lim har lahzada kelib qolishidan hushyor bo‘lishi, ezgu amallarni bajarishi zarur. Bunda savol-javob qilinadigan kun kelmasidan avval o‘zini hisob-kitobga tutishi, tarozi uning foydasi yo zarariga tortilmasdan burun amallarini o‘lchab ko‘rishi lozim.

Alloh taolo insonni ogohlantirar ekan, unga bu dunyo oxiratdan voz kechishiga arzimasligini, chunki uning noz-ne‘matlari oz, vaqti qisqa, oxirat esa, doimiy qarorgoh va haqiqiy maskan ekanini ta’kidlaydi:

“Ularga ayting: “Dunyo matosi ozginadir” (Niso surasi, 77-oyat).

“Oxiratdiyorigina (haqiqiy) hayot (joyi)dir” (Ankabutsurasi, 64-oyat).

Dunyoga mukkasidan ketgan, uning aldovlariga ishonib, shahvatlar og‘ushida qolgan kishining qalbi, shubhasiz, o‘limni eslash amalidan g‘ofil, bu ne‘matdan bebahradir.

Ko‘rinib turibdiki islom e’tiqodida o‘lim vaqti oldindan belgilab qo‘yilgan. Shuning uchun o‘lim Allohning irodasi sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun o‘lim qabul qilinishi kerak bo‘lgan narsa hisoblanadi, musulmonlar muntazam ravishda o‘lish va o‘lim haqida o‘ylashga da’vat etiladi [9]. Musulmonlarning aksariyati uyda, o‘z yaqinlari qurshovida o‘lishni yaxshi deb hisoblashadi, ko‘p odamlarning o‘limi ularning to‘shakda yotib qolgan vaqtida bo‘ladi [10].

Fan nuqtai nazardan o‘lim haqida turlicha mulohazalar mavjud. Masalan, o‘lim va o‘lmaslik axloqshunoslikdagi eng murakkab tushunchalari sirasiga kiradi. Avvalo shuni aytish kerakki, o‘lim shu paytgacha axloqiy tushuncha sifatida “rasmiy” olib qaralmagan. Vaholanki uni eng katta yovuzlik, eng ulkan baxtsizlik tarzida talqin etish odat tusiga kirgan. Mantiqan olib qaralganda, ezgulik va baxtning ziddi bo‘lgan bu tushuncha axloqqa taaluqli, ya’ni illatdir. Zero o‘lim oliy qadriyat bo‘lmish inson hayotini kesib qo‘yadi, uning ezguliklar, yaxshiliklar qilishga bo‘lgan imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi. Masalan, Ibn Sino, juda bo‘lmaganda, yana o‘n yil yashaganida, 67 yoshga kirganida qanchadan-qancha ezgu ishlar qilgan, falsafa, tibbiyot va badiiy adabiyot sohasida ko‘plab buyuk asarlar yaratgan bo‘lur edi. O‘lim uni, u orqali bizni ham ana Shu ma’naviy ezguliklaridan mahrum qildi.

O‘limning birinchi turi, bu tabiiy, tashqi tabiat va inson ichki tabiati bilan bog‘liq o‘lim. U ikki xil bo‘ladi: birinchisi – odatiy o‘lim, u qarilik tufayli, inson a’zolarining hayotni davom ettirishga yaroqsizligi tufayli ro‘y beradi. Ikkinchisi – halokat, u biror bir tabiiy ofat, yoki tasodiflar tufayli voqe bo‘ladigan o‘lim.

Ikkinchi turdagi o‘lim – jamiyat bilan bog‘liq, u ham ikki xil bo‘ladi. Birinchisi – majburiy o‘lim, u odatda jazo shaklida amalga oshiriladi. Ikkinchi xili – bu dunyodagi azob – uqubatlardan, ular hoh ruhiy, hoh jismoniy bo‘lsin, qutilib, uyqu bilan mangu orom olish uchun ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladigan o‘limdir. Bu totli o‘lim yoki evtanaziya deb ataladi. Ayni ana shu ikkinchi turdagi o‘lim axloq bilan bog‘liq. Chunonchi ikkinchi turdagi o‘limning birinchi xili – ulkan yovuzlik hisoblanadi. Shunga ko‘ra, o‘lim jazosi yovuzlikka qarshi yovuzlik ko‘rsatishdir. Bu haqda keyinroq bafurja to‘xtalamiz.

Ixtiyoriy o‘lim, aytilganidek, ba’zan ruhiy iztiroblar orqali hayotda o‘z o‘rnini topa olmaganligi, o‘zi uchun eng ulug‘ hisoblangan maqsadiga erisha bilmaganligi natijasida ro‘y beradi. Bunday holat goho ommaviy tus olishi ham mumkin, o‘tgan asr 80 yillarining ikkini yarmida sobiq totalitar rejim iskanjasidagi O‘zbekistonda ayollar orasida o‘zlarini yoqib yuborish holatlari ko‘plab yuz berdi. Yuzlab ayollar (asosan kolxozchilar) og‘ir jismoniy mehnat, quvonchsiz shaxsiy hayot, reaksiyon urf-odatlar, turmushdagi yetishmovchiliklar tufayli hayotdan ko‘z yumdilar. Ular ixtiyoriy o‘limni qabul qildilar. Bunday o‘lim aslida yashashni istamaslik emas, balki aksincha, Shopenengauer aytganidek, yashash istagi tufayli yuz beradi. Ya’ni o‘zini o‘ldirayotgan odam yashashni istaydi. Faqat o‘zi yashayotgan hayotdagi shart sharoitdan, jamiyat qoidalaridan norozi, hayotni emas, ana shu noinsoniy sharoitni tark etish maqsadda shunday qiladi. Kimlargadir yoki jamiyatga achiqma-achchiq hayotdan ko‘z yumadi.

Ixtiyoriy o‘limning ikkinchisi ko‘proq inson salomatligini yo‘qotishi, kuchli jismoniy og‘riqlardan xalos bo‘lishga intilishidir. Yuqorida aytilganidek, o‘limni mangu orom, totli abadiyat sifatida qabul qilishi bilan izohlanadi. Bunday o‘lim ko‘pincha tibbiyot odobi masalalari bilan bog‘liq.

Demak, o‘lim, faqat biologik yoki tabiiy tushuncha emas, uning mohiyati axloqiylik bilan chambaras bog‘liq. To‘g‘ri, o‘lim – haq. Lekin bu yerda o‘limning turlari mavjudligini unutmazlik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Толстой Л.Н. Собрание сочинений в 22 т. Т. 16. М., ИХЛ, 1983. С. 151.
2. Jonathan Westphal. Philosophical Propositions: An Introduction to Philosophy. Routledge, 1998. ISBN 978-0-415-17053-6
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. “Рухий тарбия” *Покланиш. 1-жуз*. “Ҳилол нашр”, Тошкент – 2022. 10-бет
4. Гамлет Макбет Москва – 2018. Стр -152
5. Муҳаммад ибн Али Ҳаскафий. “Дуррул-мухтор”. Байрут: “Дорул-кутубил-илмия”. 2002, 116-бет.
6. Ваҳба Зухайлий. “Ал-Фикҳул-исламий ва адиллатуху”. Дамашк: “Дорул-фикр”. 1980. 2-жуз, 445-бет.
7. Шайх Абдулазиз Мансур. “Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири”. Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт– матбаа бирлашмаси. 2004, 420-бет.
8. Шайх Абдулазиз Мансур. “Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири”. Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт– матбаа бирлашмаси. 2004, 463-бет.
9. Sheikh Aziz (March 1998). Death and Dying-a Muslim Perspective (en). Journal of the Royal Society of Medicine 91 (3): 138-140. doi: 10.1177 / 014107689809100307. ISSN0141-0768. PMID 9659326. PMC 1296563
10. Tayeb, Mohamad A.; Al-Zamel, Ersan; Fareed, Muhammed M.; Abouellail, Hesham A. (2010). A "good death": perspectives of Muslim patients and health care providers". Annals of Saudi Medicine 30 (3): 215–221. doi:10.4103/0256-4947.62836. ISSN0256-4947. PMID20427938. PMC2886872

INSONNING BIOIJTIMOIY VA AKSEOLOGIK MOHIYATI

Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti, Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasida dotsenti. Tel. +998 995665940.

pulatsamdu1988@mail.ru, polatqahhorov@gmail.com

Annotatsiya: Inson paydo bo'libdiki, o'zini qurshagan dunyoni va tutgan o'rnini o'rganib keladi. U bunda o'zining kimligi va nimaligi, qanday ishlarga qodir ekani va boshqa tirik mavjudotlardan farqli jihatlarini bilishni hohlaydi. Maqolada ushbu masalaning ayrim nazariy jihatlarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tanatologiya, pralogiya, antropologiya, germetizm, ekzistensialist, evtanaziya.

С самого начала своего появления человек изучал окружающий его мир и свое место в нем. Ему хотелось познать кем и чем является он сам, на какие дела способен, чем отличается от других живых существ. В статье представлен теоретический анализ данного вопроса.

Ключевые слова: Танатология, пралогия, антропология, герметизм, экзистенциалист, эвтаназия.

From the very beginning of its appearance, man has studied the world around him and his place in it. He wanted to know who and what he himself is, what things he is capable of, how he differs from other living beings. The article presents a theoretical analysis of this issue.

Keywords: Thanatology, pralogy, anthropology, hermeticism, existentialist, euthanasia.

Inson har safar mutafakkirlar diqqat markazidan o'rin olar ekan, uning mohiyatini yangi tarixiy sharoitda va yangicha nuqtai nazardan anglab yetishga harakat qilib, uni qayta va qayta yangidan kashf etganlar.

Inson barcha yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzuqligi tufayli halokatga mahkum bo'lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Xususan, Sharq mutafakkiri Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtai nazaridan o'rganadi. U “odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan bu iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan”[1], deb hisoblaydi. Demak, Beruniy fikricha, insonning fe'l-atvori va ma'naviy qarashlari surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta'sirida shakllanadi. Zero, aynan Shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo'la oladi. “Inson o'z tabiatiga ko'ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarshi qismlardan iborat bo'lib, bu qismlar tobeklik kuchi asosida birlashgan”. Beruniy fikricha, hamma odamlarda o'zaro bir-biriga o'xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud. Ibn Sino, “Inson boshqa barcha hayvonot olamidani so'zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi”[2], deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, inson o'z tabiatiga ko'ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo'ladi. yakka holda hech kim bunnig uddasidan chiqa olmaydi. “Inson Shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma'naviy darajaga ko'tarilishi mumkin”. Inson o'z hayotining me'mori, ijodkori bo'lmog'i, o'zida fozila xislatlar, iste'dodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudot. Yolg'izlik uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste'dodini yo'qotadi. Ibn Xaldun, insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi. Undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Shunga ko'ra, u umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko'ra ezgulikka, yomonlikdan ko'ra yaxshilikka, nafratdan ko'ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho ne'matdir.

G'arb va Sharq falsafasidagi asosiy muammolar fan va falsafaning vazifasi – insonning tabiat ustidan hukmronligini kuchaytirishga, inson sog'lig'i va go'zalligiga ko'maklashish hodisalarning sabablarini, ularning muhim kuchlarini o'rganish zarurligi anglab etilishiga olib kelgan. Shu sababli substantsiya va uning xossalari muammolari Yangi davrning deyarli barcha faylasuflarini qiziqtirgan.

Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan fikr insonga mexanistik nuqtai nazardan yondashgan Ma'rifat davri mutafakkirlari, xususan «Inson-mashina» deb nomlangan asar muallifi frantsuz J.Lametri (1709-1751) ilgari surgan g'oyalar bilan to'qnashadi.

Boshqa bir mashhur frantsuz faylasufi – R.Dekart (1596-1650) asarlarida inson mohiyati masalasiga nisbatan butunlay o'zgacha yondashuvga duch kelamiz. U «inson fikrlovchi narsadir», deb hisoblaydi.

Atoqli frantsuz faylasufi va teologi P.T. de Sharden (1881-1955). «Inson, u uzoq vaqt o'ylaganidek, dunyoning statik markazi emas, balki evolutsiyaning o'ziga va cho'qqisi bo'lib, bu ancha go'zalroqdir», deb qayd etadi

Unga zid o'laroq, A.Shopengauer (1788-1860) inson nuqsonli mavjudot ekanligini ta'kidlaydi, uni «tabiat xalturasi» deb ataydi.

Frantsuz yozuvchisi va faylasufi J.P.Sartr (1905-1980) bu fikrni butunlay rad etadi. Uning fikricha, inson kelajakka qarab intiladi va Shu tariqa o'zini o'zi yaratadi. U «Inson – odamzot kelajagidir», deb ta'kidlaydi.

Shunday qilib, falsafaning ikki yarim ming yillik tarixi mobaynida insonga juda ko'p ta'riflar va tavsiflar berildi, u ko'p sonli sinonimlar orttirdiki, falsafiy tahlilning boshqa biron-bir ob'ektida bunday holga duch kelish mushkul. Zero, falsafa tarixida inson:

- «aqli mavjudot»;
- «siyosiy hayvon»;
- «tabiat gultoji»;
- «hayotning boshi berk ko'chasi»;
- «hayotning soxta qadami»;
- «mehnat qurollari yasovchi hayvon»;
- «o'zlikni anglash qobiliyatiga ega mavjudot»;
- «ma'naviy va erkin mavjudot» va hokazolar sifatida talqin qilingan.

Fikrlarning bunday rang-barangligi sababini, avvalo, insonning o'z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri «boqiy muammolar»dan biri bo'lib, falsafa o'z predmetining mohiyati va xususiyatiga ko'ra unga qayta-qayta murojaat etgan va Shunday bo'lib qoladi. Bu yerda mazkur sohadagi barcha fikr-mulohazalarga mo'ljall beruvchi insonning kelib chiqishi haqidagi masala ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonni o'rganishga nisbatan ko'p sonli yondashuvlarni ham qayd etish mumkin bo'lib, ularning orasida «introvertiv» va «ekstrovertiv» yondashuvlar ayniqsa ajralib turadi.

Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab yetishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalar aksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga, avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin ba'zan mistika, ezoterika, okkultizm bilan belgilanadi. Bunday yondashuvlar ayniqsa nemis antropologlari M.Sheler (1874-1928) va A.Gelen (1904-1976), avstriyalik faylasuf K.Lorents (1903-1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtidan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va Shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Bu erda falsafa ko'pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan ittifoq tuzadi, bu hol N.A.Berdyaev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Losskiy kabi diniy falsafa vakillari ijodiga ko'proq xosdir.

Shunday qilib, insonni falsafiy tushunish uchun yagona asos mavjud emas, xuddi Shuningdek bunday asos yaqin kelajakda paydo bo'lishiga umid qilish uchun ham asoslar yo'q. Hozircha faqat Shuni qayd yetish mumkinki, diqqat markazidan yuqorida sanab o'tilganlardan qaysi biri, chunonchi: kosmos, tabiat, Xudo, jamiyat yoki bevosita inson o'rin olganiga qarab, falsafa tarixida insonni tushunish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda asos bo'ladigan turli falsafiy nuqtai nazarlar farqlanadi. Ularning orasida kosmotsentrizm, teotsentrizm, sotsiotsentrizm va antropotsentrizm ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, turli davrlarda ularning har biri har xil ko'rinishda namoyon bo'lgan, lekin inson muammolarini o'rganuvchi falsafiy kontseptsiyalarda doim u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan.

Ularning har biri, falsafiy yo'nalishdan farqli o'laroq, insonning muayyan bir tomonini yoritadi. Masalan, *biologik antropologiya* anatomiya, fiziologiya, irq haqidagi ta'limot va Shu kabilarga tayanib, insonning qolgan barcha tirik mavjudotlardan farqini uning jismoniy tuzilishi nuqtai nazaridan aniqlaydi. *Teologik antropologiya* inson haqidagi tegishli tasavvurlarni uni Xudo yaratgani nuqtai nazaridan shakllantiradi. *Falsafiy antropologiya* esa butunlay boshqa vazifani hal qiladi – u vaziyatga yaxlit yondashadi va fanlararo xususiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqaradi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiy antropologiya ijtimoiy falsafa, axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

Falsafiy antropologiya yechadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masala alohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, Shuningdek biologik evolutsiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun ham aniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilga aylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va Shu kabilarga ko'ra betakroridir. Biroq ayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy va axloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir.

Ayni Shu sababli inson individi nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

Odamlar o'rtasidagi biologik va ijtimoiy farqlarni va ularni betakrorligini tan olishdan *inson tabiatining yaxlitligini tushunishga nisbatan ikki muhim yondashuv: dualistik va monistik yondashuvlar kelib chiqadi.*

Qadim zamonlarda vujudga kelgan insonga nisbatan *dualistik yondashuv Shundan iboratki, odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa – mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizmni boshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi.* Bu yondashuv, masalan, boqiy g'oyalar dunyosida yashaydigan o'lmas jon inson tug'ilayotgan paytda uning tanasiga xuddi zindonga tushgandek kirib o'rtnashadi, uning o'limidan keyin esa vujudni tark etib, yana g'oyalar dunyosiga qayta, deb hisoblagan Platon falsafasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jonlarning o'lmasligi g'oyasi Sharq falsafiy an'anasiga ham xosdir.

Hozirgi olimlarning aksariyati qo‘llab-quvvatlaydigan inson talqinining *monistik kontseptsiyasi inson ruhiyati, uning tuyg‘ulari, fikrlari, emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o‘zga narsa emas, degan tushunchadan kelib chiqadi*. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko‘ra, ruhiy hodisalar qandaydir nomoddiy asosga ega, deb hisoblash uchun yetarli dalillar mavjud emas, Shu sababli ruhiyat tabiatini tushuntirishda inson organizmida yuz beradigan moddiy jarayonlar chegarasidan chetga chiqishning hojati yo‘q.

Shunday qilib, tavsiflangan muammo inson o‘z tabiatiga ko‘ra faqat biologik mavjudotmi yoki faqat ijtimoiy mavjudotmi, degan masala bilan bog‘lanmaydi. U, hech Shubhasiz, ham biologik, ham ijtimoiy mavjudotdir.

Ammo bu ikki asosning o‘zaro nisbati qanday, ularning biri ikkinchisidan ustunroqmi va inson mohiyatini nima belgilaydi – bu qizg‘in bahs-munozaralar predmetidir. Mazkur masalalar hanuzgacha o‘zining uzil-kesil echimini topgani yo‘q, hozirda mavjud turli biologik, psixologik va falsafiy maktablar bu savollarga har xil javoblar beradi.

Yuqorida zikr etilgan muammoning echimiga nisbatan mavjud yondashuvlar orasida insonning bioijtimoiy tabiatini tushunishga nisbatan qarama-qarshi nuqtai nazarlar ifodasi sanalgan biologizatorlik va sotsiologizatorlik kontseptsiyalari alohida o‘rin egallaydi. Bunda ularning har biri boshqasini butunlay rad etmaydi, ammo insonning muayyan bir (biologik yoki ijtimoiy) tabiatini ustunroq qo‘yadi yoki hatto mutlaqlashtiradi.

Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki, pinhona xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular jamuljam holda insonning individ, individuallik, shaxs kabi tushunchalarda aks etadigan muayyan obrazini shakllantirishini ham hisobga olish lozim. Boshqacha aytganda, insonning mohiyatini uning ichki va tashqi borlig‘i birligida, uning dunyoga faol munosabatida izlash kerak.

Shunday qilib, *individ muayyan insonning umumiy obrazi sifatida amal qilsa, individuallik uni muayyan o‘ziga xos xususiyatlar sohibi sifatida tavsiflaydi*, «shaxs» tushunchasiga esa yanada torroq ma‘no yuklanadi, chunki ayni holda inson uning barcha ijtimoiy sifatleri bilan jamuljam holda olinadiki, bu faqat ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu tizimini nazarda tutgan holda shaxs to‘g‘risida so‘z yuritish imkonini beradi. ya‘ni *keng talqindagi «individ» va «individuallik» tushunchalari nafaqat insonga nisbatan, balki individual xususiyatlarga ega bo‘lgan ayrim tirik mavjudot, hayvonga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin. «SHaxs» tushunchasi esa doim ijtimoiy mavjudot sifatidagi inson bilangina bog‘liq bo‘lib, faqat Shu ma‘noda, ayrim insonni uning jamiyatdagi o‘rni, «ijtimoiy qiyofasi» nuqtai nazaridan tavsiflaydi.*

Kezi kelganda yana Shuni ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, har qanday shaxs zamirida oqilona faoliyat yotuvchi ongli-ixtiyoriy faollik tavsiflanadi. Shuningdek inson Yangi moddiy va ma‘naviy boyliklar yaratib, o‘z ijodiy imkoniyatlarini izchil ro‘yobga chiqarish orqali shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi zamon fanida *shaxsning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi uch muhim omil: irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti farqlanadi*. Bu omillar o‘zaro ta‘sirga kirishishi natijasida inson shaxs sifatida o‘ziga xos xususiyatlar majmui: tegishli ehtiyojlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, maqsadlar, mo‘ljallar, ma‘naviyat va Shu kabilarga ega bo‘ladi. Insonning mazkur betakror individual xususiyatlari asosan u yashayotgan muhitdagi ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar ta‘sirida shakllanadiki, bu shaxsning shakllanishi va kamol topishida jamiyat juda muhim rol o‘ynashini qayd yetish imkonini beradi. Ayni vaqtda shaxs umumiy e‘tirof etilgan me‘yorlarga muvofiq yoki ularga zid shakllanishi va kamol topishi mumkin. Bu ma‘noda ijobiy shaxslar to‘g‘risida ham, salbiy shaxslar to‘g‘risida ham so‘z yuritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Беруний Танланган асарлар 1 жилд –Т.: Фан, 1968.-В.16-17.
2. Ибн Сино Донишнома – Т.: Фан, 1976.-С.5з

TA‘LIMDA INNOVATSIYON G‘OYALARNI QO‘LLASHNING ZARURIY TENDENSIYALARI

¹Raxmonov Azamat Ruzvonovich, ²Ermamatova Mohinur Ilxom qizi

¹ChDPU “Umumiy pedagogika” kafedrasida pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori, Tel: +998(94)5145579, a.raxmonov@cspi.uz

²TDU Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs, TNR 2-guruh talabasi. Tel: +998(91)1669442 mohinura122104@gmail.com

Annotatsiya: Ta‘lim tizimining zamonaviylashuvi va globallashuv sharoitida innovatsion g‘oyalarni joriy etish dolzarb masaladir. Ushbu maqolada ta‘limda innovatsion g‘oyalarni qo‘llashning asosiy tendensiyalari, tamoyillari va istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Tayanch iboralar: Innovatsiya, ta‘lim, texnologiya, simulyatsiya, pedagogika, tendensiya, integratsiya, diversifikatsiya.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimini rivojlantirish va yangi bosqichga ko‘tarish eng muhim masalalardan biridir. Eng asosiysi ta‘lim tizimiga innovatsiyalarni kiritish zamonaviy ehtiyoj sifatida ko‘rilmog‘da. Avvalo mazkur vazifalarni bajarishda innovatsion ta‘lim tizimining tamoyillari to‘g‘risida mexanizmni o‘rganishni talab etadi.

Innovatsion ta'lim tizimining asosiy tamoyillari. Innovatsion ta'lim tizimi an'anaviy ta'lim tizimidan farq qiladi va o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi. O'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda ta'lim berish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu, o'quv dasturlarini shaxsiylashtirish va o'quvchilarning o'z sur'atida o'rganishiga imkon beruvchi strategiyalarni o'z ichiga oladi.

- **Talabalar markazligi:**
Ta'lim jarayonida talabalar faol ishtirok etishi, o'z fikrlarini ifoda etishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratish.
- **Interaktivlik:**
Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish, ya'ni talabalar o'rtasida muloqot, muhokama va hamkorlikni rag'batlantirish.
- **Ijodkorlik va innovatsiya:**
Talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va yangi g'oyalarni ilgari surish uchun sharoit yaratish.
- **Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan yondashuv:**
Har bir talabani uning individual qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda rivojlantirish.
- **Texnologiyalardan foydalanish:**
Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, masalan, onlayn platformalarni va interaktiv vositalarni qo'llash.
- **Multidisipliner yondashuv:**
Turli fanlar o'rtasida integratsiya qilish, talabalar bilim va ko'nikmalarini kengaytirish;
- Kreativlik va innovatsionlikni rag'batlantirish;
- Fikr almashish va tajriba o'rganish;
O'qituvchilar va talabalar o'rtasida fikr almashish, tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish.
- **Samaradorlikni baholash:**
Ta'lim jarayonining samaradorligini baholash va uni doimiy ravishda takomillashtirish;
Innovatsion ta'lim tizimining asosiy maqsadi o'quvchilarni bilishga, tanqidiy fikrlashga, muammolarni hal qilishga va jamiyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlashdir.
Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy ta'lim muassasalarida o'quvchilar onlayn resurslar, o'yinlar, taqdimotlar, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va boshqa raqamli vositalardan foydalanishlari mumkin.
- O'qitishning interaktiv usullarini takomillashtirish;
- O'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish;
- Ta'lim materiallariga kirish imkoniyatini kengaytirish;
- Masofaviy ta'lim imkoniyatlarini yaratish;
- O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish;
- Ta'lim samaradorligini oshirish;
Raqamli texnologiyalar ta'limni yanada jozibador, samarali va moslashuvchan qiladi. Biroq, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish muhimdir.
Masofaviy ta'lim va uning rivojlanish tendensiyalari. Masofaviy ta'lim o'quvchilarga o'z uylarida yoki boshqa joylarda internet orqali ta'lim olish imkoniyatini beradi. Masofaviy ta'lim tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va zamonaviy ta'lim tizimining muhim qismi bo'lib bormoqda.
- Onlayn o'qitish platformalarining kengayishi;
- O'qitishning interaktiv usullarini qo'llash;
- O'quvchilar bilan individual ishlash;
- Ta'lim resurslariga kirishni osonlashtirish;
- Ta'limni globalizatsiya qilish;
Masofaviy ta'lim o'quvchilarga o'z vaqtida va o'z joylarida o'qish imkoniyatini beradi, shuningdek, bu ularga o'ziga xos bilim va ko'nikmalarni olishga yordam beradi.
Interaktiv ta'lim metodlarining ahamiyati. Interaktiv ta'lim metodlarining ahamiyati o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol ishtirokchiga aylantirishi va ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishida yordam ko'rsatadi.
- **O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish;**
Interaktiv metodlar o'quvchilarni o'rganish jarayoniga jalb qiladi, ularning qiziqishini oshiradi va ularni faol qatnashga rag'batlantiradi.
- **Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish;**
O'quvchilar o'z bilimlarini amalda qo'llash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash orqali amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi.
- **Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;**
Interaktiv metodlar o'quvchilarni turli xil nuqtai nazardan muammolarni ko'rib chiqishga va o'z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirishga o'rgatadi.
- **Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;**
Guruh ishlari, bahs-munozaralar va boshqa interaktiv metodlar o'quvchilarga jamoaviy ravishda ishlashni, fikr almashishni va bir-birlaridan o'rganishni o'rgatadi.

Interaktiv ta'lim metodlarini qo'llash o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi, ularni mustaqil fikrlash va ijodkor shaxslarga aylantiradi.

Pedagoglar malakasini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Pedagoglar malakasini oshirish ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagoglarga innovatsion usullar, texnologiyalar va yondashuvlar bilan tanishtirish zarur.

- Onlayn o'qitish kurslari va platformalari;
 - Praktiki mashg'ulotlar va seminarlar;
 - Xalqaro tajriba almashish;
 - Innovatsion loyihalarni amalga oshirish;
- Pedagoglar malakasini oshirish uchun turli xil dasturlar va resurslar mavjud bo'lib, bu ularga o'qitish uslublarini takomillashtirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish imkoniyatini beradi.
- Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion g'oyalarni qo'llash.** Ta'lim sifatini oshirish uchun innovatsion g'oyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion g'oyalar ta'lim jarayonini samaraliroq, jozibadorroq va o'quvchilarga moslashtirilgan qiladi.
- **O'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish;**
Innovatsion g'oyalar o'quvchilarga o'z ehtiyojlariga mos keladigan o'quv materiallari va usullarni tanlash imkoniyatini beradi.
 - **Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish;**
Innovatsion g'oyalar o'quvchilarga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatini beradi va ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.
 - **Kreativlikni rag'batlantirish;**
Innovatsion g'oyalar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini rivojlantiradi.
 - **Ta'lim jarayonini diversifikatsiya qilish;**
Innovatsion g'oyalar ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va xilma-xil qilib, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Innovatsion g'oyalarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga va ularni jamiyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlashga yordam beradi.
- Maktab va oliy ta'lim muassasalarida innovatsion loyihalar.** Maktab va oliy ta'lim muassasalarida innovatsion loyihalar ta'lim tizimining sifatini oshirish va zamonaviy talablarga moslashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ushbu loyihalar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, ta'lim jarayonini samaraliroq va jozibadorroq qilishga yordam beradi.
- **Raqamli o'quv resurslarini yaratish;**
O'quvchilarga zamonaviy ta'lim resurslariga kirish imkoniyatini kengaytirish maqsadida onlayn platformalarni yaratish, ta'lim materiallarini raqamlashtirish, interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalarni ishlab chiqish lozim.
 - Interaktiv ta'lim metodlarini qo'llash.
O'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol ishtirokchiga aylantirib, ularning mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish.
 - O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
O'quvchilarning ijodiy fikrlashini va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini rivojlantirish.
Innovatsion loyihalar ta'lim muassasalarini zamonaviy talablarga moslashtirishga va ularning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.
- Ta'limda innovatsion g'oyalarni joriy etishning istiqbollari.** Ta'limda innovatsion g'oyalarni joriy etishning istiqbollari juda keng. Kelajakda ta'lim tizimi yanada shaxsiylashtirilgan, interaktiv, raqamli va moslashuvchan bo'ladi.
- Sun'iy intellekt va mashina o'rganishning ta'limga qo'llanilishi;
 - Virtual va augmented reality texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishi;
 - O'quvchilarning shaxsiylashtirilgan ta'lim rejalarini yaratish;
 - Masofaviy ta'limning yanada rivojlanishi;
 - O'qitish uslublarini takomillashtirish;
- Innovatsion g'oyalar ta'lim tizimining sifatini oshirishga, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga va ularni kelajakdagi kasblarga tayyorlashga zarur sharoitlarda yordam beradi. Xar qanday ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda muhim vosita sifatida ko'riladi. Ta'lim tizimiga innovatsion g'oyalarni kirishi o'qitish va ilmiy faoliyatni yanada barqarorlashiga asos bo'ldi. Shuning uchun ham ta'lim tizimida inovatsiyalar muhim ahamiyatga ega. Quyida keltirilgan barcha manba'alar ta'limning rivojlanishining muhim bosqichlari sifatida keltirdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi." Toshkent-2021y 128b
- 2.Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat." Toshkent. 2006y.
- 3.Ziyamuhammadov, Bo'ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshknet. 2009 yil.
- 4.J.Xasanboyev, X.To'raqulov, M.Xaydarov, O.Xasanboyev "Pedagogika fanidan izoxli lug'at". "Fan va texnologiya nashriyot" T.:2008, 420b


**TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI BOSHLANG’ICH TA’LIMGA
TAYYORLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR.**

Shakarova Nilufar Zuvaydullayevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: shakarovanilufar97@gmail.com Telefon raqam: +99897432-26-04

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlash hamda boshlang’icha ta’limga oid bilimlarni egallashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ular orqali ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli amalga oshirish mumkinligi, innovatsion texnologiyalarning bolalarni maktabga tayyorlashdagi o’rni haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: maktabga tayyorlov, boshlang’ich ta’lim, TRIZ texnologiyalari, vizual modellashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o’yin texnologiyalari.

**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ К
НАЧАЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ ЧЕРЕЗ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ.**

Аннотация: В данной статье представлены идеи о применении инновационных технологий в подготовке детей к школе и приобретении знаний, связанных с начальным образованием, о возможности качественной реализации образовательно-образовательного процесса через них, о роли инновационных технологий в подготовке детей к школе.

Ключевые слова: подготовка к школе, начальное образование, технологии ТРИЗ, наглядное моделирование, информационные и коммуникационные технологии, игровые технологии.

**MODERN APPROACHES THROUGH INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PREPARING
PREPARATORY GROUP CHILDREN FOR PRIMARY EDUCATION.**

Annotation: this article presents ideas about the use of innovative technologies in the preparation of children for school and the acquisition of knowledge about primary education, through which the educational process can be carried out qualitatively, the role of innovative technologies in preparing children for school.

Keywords: school preparation, primary education, TRIZ technologies, visual modeling, ICT, Gaming Technologies.

Kirish. Maktabgacha davrda 6-7 yosh - bu bolalarni o’qish va yozishni o’rganishga jiddiy tayyorgarlik ko’rish yoshi hisoblanadi. Bolaning savodxonlikka tayyorligi muammosi maktabga tayyorlov guruhi yoshidagi bolalar bilan ishlashni tashkil qilishning eng dolzarb masalalardan biridir. Bolaning savodxonlikni o’zlashtirishga tayyorligi va bolalar bilan ishlash amaliyoti muammolari bo’yicha psixologik va pedagogik adabiyotlarni o’rganish shuni ko’rsatdiki, hozirgi kunda maktabda boshlang’ich sinf o’quv dasturini o’zlashtirishda qiyalayotgan bolalar soni ko’paymoqda. Shuning uchun bolalarning savodxonlikni, o’qish va yozishning dastlabki ko’nikmalarini muvaffaqiyatli o’zlashtirishga tayyorligini shakllantirish muammosiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

6-7 yoshdan boshlab bolalar bilan savodxonlikka tayyorgarlik ko’rishni boshlash, maktab ta’limini boshlashda ko’plab qiyinchiliklardan qochish mumkin. Zamonaviy maktablarning boshlang’ich sinf o’quv darsliklari maktabgacha yoshdagi bolaga bilim va ko’nikmalarni, uning intellektual qobiliyatlarini o’zlashtirishga yuqori talablarni qo’yimoqda. Maktabga tayyor bo’lmagan bola darsga e’tibor qarata olmaydi, ularda ko’pincha chalg’ish holatlarini kuzatish mumkin. Shu sababli, hozirgi vaqtda maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni boshlang’ich sinfdan o’qish va yozish ko’nikmalarini egallashga tayyorlashda, masalan, TRIZ texnologiyalari, vizual modellashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o’yin texnologiyalari kabi yanada samarali, innovatsion shakl va o’qitish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini boshlang’ich ta’limga tayyorlashni tashkil etishning zamonaviy shakllaridan foydalangan holda biz bolalarda hosil bo’lgan umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan bilimlardan turli xil amaliy muammolarni hal qilish uchun ongli ravishda foydalanish qobiliyatini shakllantirishimiz va shu bilan maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab bilimlariga osonroq o’zlashtirishlariga yordam berishimiz mumkin. Shuning uchun o’z vaqtida maktabga tayyorgarlik ishlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilari va maktab o’qituvchilari oldida turgan dolzarb va muhim vazifalardandir.

Asosiy qism. So’nggi paytlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Maktabgacha va boshlang’ich ta’limdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta’limning davlat standartlarini amalga oshirishga qaratilgan. Bolaning ta’lim jarayonidagi pozitsiyasi, o’qituvchilar tomonidan bolaga bo’lgan munosabati juda muhim hisoblanadi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini savodxonlikka tayyorlashda quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi:

- TRIZ texnologiyalari;
- Vizual modellashtirish;
- Interaktiv usullar;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;

- O‘yin texnologiyalari.

Bolalarga moslashtirilgan *TRIZ texnologiyasi* maktabga tayyorgarlik ko‘rishda bolada fikrlash moslashuvchanligini tarbiyalash va o‘rgatish imkonini beradi. Ushbu texnologiyadan bolalar bog‘chasida foydalanishning maqsadi, bir tomondan, harakatchanlik, tizimli, dialektik fikrlash kabi fazilatlarini rivojlantirish, boshqa tomondan, qidiruv faoliyati, yangilikka intilish, nutq va ijodiy tasavvurni rivojlantirish. O‘qish va yozish ko‘nikmalarini o‘rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanishning asosiy vazifasi bolaga nutq kashfiyotlari quvonchini singdirishdir. Bolalar bilan ishlashda asosiy mezon – bu materialni taqdim etishning soddaligi va murakkab ko‘rinadigan vaziyatni shakllantirish. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini asosiy faoliyatidan foydalangan holda har bir bolaning aqliy jarayonlarini rivojlantirish uchun savodxonlik mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish uchun TRIZ texnologiyalari o‘yinlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi va pedagogning vazifalari: bolalarda moslashuvchanlik, harakatchanlik va tizimli fikrlash, ixtiyoriy e‘tibor, bir-birini tinglash va eshitish qobiliyatini rivojlantirish, juftlikda, jamoada ishlash, mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga tayyorlashda vizual modellashtirishdan foydalanish ta‘lim-tarbiya jarayonini sifatli olib borishni ta‘minlaydi. Zamonaviy ilmiy va pedagogik adabiyotlarda modellashtirish vizual modellarni qo‘llash jarayoni sifatida qaralib (L. A Venger, O. M. Dyachenko va boshqalar), vizual modellarni o‘qish va yozishni o‘rganishda foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Savodxonlik bo‘yicha bolalar bilan sinfda vizual modellarni kiritish ularga tovush-harf tahlilini osongina o‘zlashtirishga yordam beradi, fonemik idrokni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Turli tuzilmalarning sxemalari va modellari (tovushlar, so‘zlar, jumlar, matnlar) asta-sekin bolalarni tilni kuzatishga o‘rgatadi. Ular bolalarga matn jumalarga, jumlar so‘zlarga, so‘zlar bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlar tovushlardan iborat ekanligini aniq ko‘rsatib berishadi. Sxematizatsiya va modellashtirish bolaga so‘zda qancha va qanday tovushlar borligini, ularning joylashuvi ketma-ketligini, jumladagi va matndagi so‘zlarning bog‘lanishini ko‘rishga yordam beradi. Bu so‘zlarga, nutq tovushlariga, muloqotga qiziqishni rivojlantiradi, bolaning nutq-fikrlash faoliyatini rivojlantiradi. So‘zlar rangli qog‘oz chiziq-lari bilan belgilanadigan jumlar sxemalaridan foydalanganda, tovushlar turli xil rangdagi kvadratchalar bilan belgilanadigan so‘z sxemalari (unlilar – qizil, undoshlar – ko‘k), bolalar faoliyatining tabiati o‘zgaradi: ular nafaqat o‘zlarining yoki ularga murojaat qilgan nutqlarini eshitish, balki uning elementlarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ko‘pincha, savodxonlik davrida qiyinchiliklar fonemik tahlilni shakllantirmagan maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan boshdan kechiriladi, bu tilning asosiy operatsiyalaridan biri va fonemik tizim rivojlanishining yuqori bosqichidir. Fonemik tahlilni o‘zlashtirish - bu so‘zlardagi tovushlarning ketma-ketligini, tartibi, o‘rnini va sonini aniqlashni, unli va undosh tovushlarni og‘zaki ajratishni, so‘zlardagi berilgan harf va tovushni topishni, so‘zning harfiy tuzilishini aytishga harakat qilishni o‘rganishni anglatadi. Vizual modellashtirish usulidan foydalangan holda savodxonlik jarayoni yanada qiziqarli va samaraliroq bo‘lishiga erishish mumkin.

- bolalarni “so‘z” tushunchasi va uning tarkibi bilan tanishtirish;

- so‘z tuzilishining majoziy tasviri;

- so‘zdagi tovushni intonatsion tanlash, so‘zdagi tovush o‘rnini aniqlash (boshida, o‘rtada, oxirida);

- so‘zdagi tovushlar ketma-ketligini, so‘zdagi tovushlar sonini aniqlash qobiliyati;

- so‘zlar va jumalarni tahlil qilish va sintez qilish, berilgan tovushga oid so‘zlarni tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish. Agar berilgan model bolalar uchun yorqin, hayajonli, jonli tasvirlar, tovushlar, ohanglar bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, savodxonlik jarayoni yanada osonroq bo‘ladi. Shu sababli bugungi kunda savodxonlik ishlarida axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Zamonaviy bola ko‘proq uni qiziqtirgan, unga eng yaqin bo‘lgan, ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadigan ma‘lumotlarni o‘zlashtiradi. Kompyuter bola bilan munosabatlarda juda ijobiy, savodxonlik jarayonida zarur “muvaffaqiyat holatini” yaratadi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorlashda muhim vazifa izchil va grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni rivojlantirishdir. An’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda Microsoft Power Point dasturda yaratilgan kompyuter o‘yinlari yordamida biz tayyorlov guruhi bolalarida so‘zdagi tovushni intonatsion ravishda ajratib ko‘rsatish, uning sifat xususiyatlarini aniqlash qobiliyatini shakllantirishimiz mumkin. Bolalar bilan savodxonlikni o‘zlashtirishda taqdimot o‘yinlaridan foydalanishning katta afzalligi ularning axborot sig‘imi, ya‘ni bitta taqdimotga biz juda katta hajmdagi ma‘lumotlarni joylashtirishimiz mumkin. Bunday o‘yinlar darsga yangilik kiritish, kognitiv faollikni rivojlantirish, talaffuzni yaxshilash va tilga qiziqishni chuqurlashtirishga imkon beradi. Ekran orqali ma‘lumotlarni taqdim etish bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi, harakatlar, tovushlar, animatsiyalar uzoq vaqt davomida bolaning e‘tiborini tortadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim faoliyatini tashkil qilishda taqdimot o‘yinlaridan foydalanish ta‘limni zamonaviy usullarda taqdim qilish, ta‘lim faoliyatini bolaning dunyoqarashiga yaqinlashtirishga imkon beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanganda bolaning motivatsion tayyorgarligi oshadi, shuning uchun qisqa vaqt ichida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini savodxonlikka tayyorlashda o‘yin texnikasi va usullari muhim rol o‘ynaydi. O‘yin texnologiyalaridan muntazam foydalanish bolalarni savodxonlikka tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshiradi, vazifalarni samarali hal qilishga, qiziqarli pedagogik jarayonni qurishga imkon beradi. O‘yin texnologiyalari hissiy va maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishiga yordam berish va olingan bilimlarni boyitish, uning asosida nutq imkoniyatlari rivojlanadi.

Xulosa. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarini o‘qish va yozish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ularni maktabga tayyorlashga, to‘g‘ri hissiy kayfiyatni yaratishga imkon

beradi. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, tizimli ta'lim natijasida bolalar nutqning tovush tomonini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Shunday qilib, 6-7 yoshli bolalarning savodxonligini oshirishga tayyorgarlik ko'rishda qo'llaniladigan yuqoridagi barcha texnologiyalar yanada mazmunli natijalarga erishishga, bolaga o'qish va yozish ko'nikmalarini birmuncha oson egallashlariga yordam beradi va shu bilan kelajakda maktabda boshlang'ich sinfga muvaffaqiyatli moslashishlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim j., 2007. 6-son.
2. M.Rasulova, D.Abdullayeva, S.Oxunjonova, «Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi» T., 2004 yil.
3. Терещенко М.Н., Подготовка детей к обучению в школе: вчера и сегодня -Актуальные вопросы современной науки, 2008. 226-б.
4. Гуткина Н.И., Психологическая готовность к школе. – М. Академический Проект, 2000. 184-б.

CHIZMACHILIK O'QITUVCHILARIDA ESTETIK KO'NIKMANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Toshpulatov Faxriddin Urolovich

TerDPI "Tasviriy san'at" kafedrasida dotsenti, Faxriddin91@gmail.com, Ter/+99890 987 88 60

Annotsiya:

Ushbu maqola chizmachilik o'qituvchilarida estetik ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Estetik ko'nikmalar o'qituvchilarning nafaqat chizmachilik fanini o'rgatish, balki o'quvchilarni san'at va dizayn bilan bog'liq tafakkurini rivojlantirishga yo'naltiradi. Ushbu ko'nikmalar o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada chizmachilik o'qituvchilari uchun estetik tarbiyaning metodologik asoslari, uning ahamiyati hamda amaliy qo'llanilish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'z: *Chizmachilik, estetik ko'nikmalar, pedagogik ahamiyat, o'qituvchilar tayyorlash, san'at ta'limi, metodologik asoslar, ijodiy qobiliyat.*

Абстрактный:

Данная статья посвящена исследованию педагогической значимости формирования и развития эстетических умений учителей рисования. Эстетические навыки помогают учителям не только обучать рисованию, но и развивать мышление учащихся об искусстве и дизайне. Эти навыки играют важную роль в повышении качества и эффективности образовательного процесса. В статье рассматриваются методические основы эстетического воспитания учителей рисования, его значение и пути практического применения.

Ключевое слово: *Черчения, эстетические способности, педагогическое значение, педагогическая подготовка, художественное образование, методические основы, творческие способности.*

Abstract:

This article is devoted to the study of the pedagogical significance of the formation and development of aesthetic skills of drawing teachers. Aesthetic skills help teachers not only teach drawing, but also develop students' thinking about art and design. These skills play an important role in improving the quality and effectiveness of the educational process. The article examines the methodological foundations of aesthetic education of drawing teachers, its importance and ways of practical application.

Keyword: *Drawing, aesthetic abilities, pedagogical significance, pedagogical training, art education, methodological foundations, creative abilities.*

Kirish

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchilardan nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, balki estetik ong va didni rivojlantirishni ham talab etadi. Ayniqsa, chizmachilik fanini o'rgatuvchi o'qituvchilarda bu ko'nikmalar juda muhim ahamiyatga ega. Estetik ko'nikmalar nafaqat tasviriy san'at asarlarini yaratishda, balki texnik chizmalarni ishlab chiqishda ham muhimdir. Ushbu maqolada chizmachilik o'qituvchilarida estetik ko'nikmani rivojlantirishning pedagogik ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

1. Estetik ko'nikmaning mohiyati

Estetik ko'nikma insonning go'zallikni anglash va yaratish qobiliyatidir. Bu nafaqat san'at asarlarini yaratish bilan cheklanmaydi, balki texnikaviy chizmalarda ham go'zallik, aniqlik va tartibni aks ettirishni o'z ichiga oladi. Chizmachilik o'qituvchisi o'z o'quvchilariga bu ko'nikmalarni shakllantirish orqali ularga nafaqat texnik bilimlarni, balki go'zallikni his qilishni ham o'rgatishi zarur.

2. Chizmachilikda estetik ko'nikmaning o'rni

Chizmachilik nafaqat texnik fan, balki ijodiy jarayonni ham talab qiladi. Chizmalarni chizishda aniqlik, tartib va proporsiya saqlanishi kerak. Shu bilan birga, texnik chizmalar ham o'ziga xos estetik didni talab etadi. Chizmachilik o'qituvchilari bu jihatlarni o'quvchilarga o'rgatish orqali ularni kelajakda ijodiy fikrlovchi va texnikaviy aniq ishlarni bajarishga qodir mutaxassislar qilib yetishtiradi.

3. Estetik ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik usullari

Chizmachilik o'qituvchisi estetik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun turli xil pedagogik usullardan foydalanishi mumkin[1].

Quyida ularning ba'zilari keltirilgan:

- **Tajriba asosida o'qitish:** Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda estetik tushunchalarni shakllantirish samarali usul hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilar chizmalarda go'zallik va aniqlikni yaratish qobiliyatini rivojlantiradi.
- **Vizual ko'rgazmalar:** O'quvchilarga taniqli san'at asarlaridan foydalanib dars o'tish orqali ularning estetik ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu usul o'quvchilarning tasavvurini boyitib, texnik chizmalarda ham ijodkorlikni qo'llashga undaydi.
- **Muammoli vaziyatlar yaratish:** Dars jarayonida o'quvchilarga chizmalarni yaratishda murakkab muammolarni hal qilishni talab qiladigan vaziyatlarni yaratish orqali ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin[2].

4. Estetik ko'nikmalarni rivojlantirishning natijalari

Estetik ko'nikmalarni rivojlantirish orqali chizmachilik o'qituvchilari nafaqat texnik bilimlarni o'zlashtiradi, balki ijodiy va innovatsion fikrlashga ham ega bo'ladi. Bu esa ularga chizmalarda nafaqat texnik aniqlikni, balki go'zallik va estetik didni ham aks ettirishga imkon beradi. O'qituvchilar tomonidan bu ko'nikmalarni shakllantirish esa ta'lim jarayonining sifatini oshiradi.



Xulosa

Chizmachilik o'qituvchilarida estetik ko'nikmani rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu ko'nikmalar nafaqat o'quvchilarning texnik bilimlarini oshiradi, balki ularning estetik dunyoqarashini ham shakllantiradi. Shu bois, chizmachilik fanini o'qitishda estetik ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur[5].

1-rasmda chizmachilik o'qituvchilari va o'quvchilari chizmalar chizishda estetik va texnik ko'nikmalarni rivojlantirayotgan jarayon ko'rsatilgan. Rasmda ijodiy va texnik yondashuvlar aks ettirilgan bo'lib, sinfda chizmachilik bilan shug'ullanishning estetik jihatlari ta'kidlangan[7].

1-rasm.

Chizma chizish o'qituvchilarida estetik ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik ahamiyatini tushunish uchun jadvalni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yaratish mumkin[8]:1-jadval:

1-jadva

No	Aspektlar	Izoh	Pedagogik ahamiyati
1.	Estetik ko'nikmalar	O'qituvchining chizmalarni san'at va vizual jihatdan mukammal bajarish qobiliyatlari.	O'quvchilarga estetik talablarga mos chizma yaratishni o'rgatadi.
2.	Didaktik usullar	Estetik tarbiya jarayonida qo'llaniladigan pedagogik metodlar.	Chizma san'ati o'qitishda kreativ va analitik fikrlashni shakllantiradi.
3.	O'quvchilarni qiziqitirish	O'qituvchi tomonidan estetik talablarni asosida chizmalarni bezatish	O'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishni oshiradi, ularni ijodiy fikrlashga undaydi
4.	San'at va fan uyg'unligi	Chizma fanidagi estetik tushunchalarni boshqa fanlar bilan bog'lash	Chizma va boshqa fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib, o'quvchilarning keng dunyoqarashini rivojlantiradi
5.	O'quvchilarning estetik tafakkuri	O'quvchilarda chizma orqali go'zallikni idrok qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirish	Estetik tafakkur o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi
6.	Estetik tarbiya	Chizmalarni tayyorlashda estetik me'yorlarga rioya qilish orqali tarbiya berish	O'quvchilarda chizma san'atiga nisbatan mas'uliyat va estetik idrokni shakllantirish
7.	Texnologiyalarning roli	Estetik ko'nikmalarni	Chizmalarni raqamli formatda

		shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	tayyorlash va dizayn qilish imkoniyatlarini kengaytiradi
--	--	--	--

ADABIYOTLAR

1. Uralovich T. F. THE MECHANISM OF FORMING AESTHETIC SKILLS OF STUDENTS THROUGH TEACHING THE SCIENCE OF DRAWING //Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2024. – T. 11. – №. 08. – C. 36-38.
2. FU T. F. U. T. CHIZMACHILIK DARSLARIDA AMALIY SAN'AT ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB TARKIBIDA TUTASHMA ELEMENTLAR QATNASHGAN NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. – 2023. – T. 1. – №. 01.
3. Toshpulatov F. U. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA CHIZMACHILIK FANINI CHUQURLASHTIRIB O'RGANISH //Inter education & global study. – 2024. – №. 5. – C. 30-37.
4. Uralovich T. F. THE ROLE OF APPLIED ART IN THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC SKILLS OF STUDENTS //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 111-118.
5. Uralovich T. F. PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING AESTHETIC SKILLS IN FUTURE DRAWING TEACHERS //International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 139-144.
6. Toshpulatov F. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.
7. Toshpulatov F. Qadimiy grix va o'simliksimon (Islimiy) naqsh elementlarining geometrik tahlili //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.
8. Toshpulatov F. Use of geometric patterns and their types from eliminations of drawing and applied art in architectural facilities //Физико-технологического образование. – 2022. – T. 1. – №. 1.



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

¹Tuxtupulatov Shahobiddin Nuriddinovich

²Ergasheva Madina Bahriddin qizi

¹O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida dotsenti +99893 359 57 54
shahobiddintuxtupulatov@gmail.com

²O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida o'qituvchisi +99894 2892947
madinabahriddinovna14@gmail.com

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish muassasasi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini mazmunli o'tkazish, mashg'ulotni yaxshi tashkil etish jismoniy tarbiya o'qituvchi-murabbiylaridan katta mas'uliyat talab etilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, sport, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlanish

Аннотация. Организация дошкольного образования является образовательным и оздоровительным учреждением. Разъяснено, что учителя-тренеры по физическому воспитанию должны брать на себя большую ответственность за конструктивное проведение занятий по физическому воспитанию и хорошую организацию обучения.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, спорт, физическое воспитание, выздоровление, физическое развитие

Annotation. Pre-school education organization is an educational and health care institution. It has been explained that physical education teachers-coaches are required to take great responsibility for meaningful conducting of physical education classes and good organization of the training.

Key words: Organization of pre-school education, sports, physical education, wellness, physical development

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda tarbiyachi-murabbiylarning hissalarini behisobdir. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Haqiqatdan ham, har bir murg'ak bolani o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda fidoiy kasb egalardir.

Vatan ravnaqi, avvalo, uning farzandlari kamoliga bog'liq. Bu esa, har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak ma'suliyatini his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib

yashashga da'vat etadi. Barchamizga ayonki, yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lishida jismoniy tarbiya va sportning o'rni beqiyos.

Maktabgacha ta'lim muassasi ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish muassasasi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar:

- Bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'ligini mustahkamlash;
- Bola shaxsi asoslarini shakllantirish;
- Bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash
- Bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- Bolalarni milliy qadriyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- Bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash.

Jismoniy tarbiya o'quv mashg'ulotlarini mazmunli o'tkazish, ularni yaxshi tashkil etish, pedagoglardan ma'suliyat talab etadi

MTTning boshlang'ich guruhlarida mashq bajarishda foydalaniladigan asosiy usullar quyidagilar hisoblanadi: yoppasiga, oqim tarzida, navbatli, guruh bilan hamda har bir tarbiyalanuvchi bilan alohida.

Yoppasiga shug'ullanish usulida mashqlarni barcha bolalar bir vaqtda bajaradilar. Bolalar jismoniy tarbiya o'qituvchisi farmoyishi yoki buyruqlarini baravariga bajarsalar, yoppasiga shug'ullanish usuli mashqlarni birgalikda bajarishning yaxshi namunasi bo'ladi. Bu usuldan ko'plab mashqlarni o'rgatishda foydalanish mumkin: milliy xalq o'yinlari, gimnastik va qayta saflanishlar, yurish, sakrashlarning ayrim turlari, ulotqirish, qomatni shakllantirish, to'plar, tayoqlar, kalta arg'amchilar bilan bajariladigan o'yinlar.

Mazkur usul bolalar bog'chalarida barcha boshlang'ich, o'rta, katta guruh bolalari bilan olib boriladigan ishlarda, ayniqsa o'quv material bilan tanishtirishda keng qo'llaniladi. Oqim usulida bolalar bitta mashqni navbat bilan ketma-ket, to'xtovsiz oqim tarzida bajaradilar. Bunday oqimlar aniq sharoitga qarab ikkita, uchta bo'lishi mumkin. Masalan, muvozanat saqlash mashqlarini o'rgatishda, deylik, uchta yog'och yoki gimnastika o'rindig'i mavjud bo'lsa, uchta oqim hosil qilish mumkin. Bunday mashqlarni individual bajarishni kuzatish uchun imkoniyat katta. Ikki yoki uch oqimda mashg'ulotning zichligi, og'irligi ham oshadi. Oqim usuli akrobatika mashqlari, uzun arg'amchi bilan bajariladigan mashqlar, o'rindiqlik va gimnastika devoriga tirmashishda, uni oshib o'tishda, muvozanat saqlashda, tayanib sakrash, uzunlikka hamda balandlikka sakrashda qulaydir.

Oqim usulining bir turi shuki, bolalar bir necha xil mashqlarni navbat bilan bajaradilar. Masalan, bolalar dastlab o'rindiqlikda yuradilar, so'ng yog'ochdan oshib o'adilar, undan keyin plankadan sakraydilar. Oqim usuli ko'proq Malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadidagi mashqlarni bajarishda, shuningdek, og'irlikni oshirishda qo'llaniladi.

Navbat bilan shug'ullanish (almashinuv) usulida barcha bolalar mashg'ulotlarda mashqlarni bajarish uchun navbat (almashinuv) ga bo'linadilar. Har bir almashinuv guruhlarida nechta tarbiyalanuvchi bo'lsa, mashqlarni shuncha bolalar baravariga bajarishi mumkin. Bir guruh shug'ullanayotganda qolganlar ularning harakatini kuzatib turadilar. Masalan, zalda 10 ta gimnastika devori bo'lagi, guruhda esa 20 nafar bola bo'lsa, tirmashish va qomatni shakllantirish mashqlarini bajarish uchun uch guruh tashkil etiladi.

Bu usul, odatda, balandlikka sakrashda, uzoqqa va nishonga otish, tirmashish, osilish, akrobatika mashqlarida qo'llaniladi.

Almashinuv usulida bolalar guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruh bolalari topshiriqqa asosan mustaqil shug'ullanadi. Mashq uchun jihozlar yetishmaganda shu usulga murojat qilinadi. Vaqtdan oqilona foydalanish maqsadida bir vaqtda ikki-uchta mashq turi o'rganiladi. Guruhlar ma'lum bir vaqtdan so'ng joy almashadilar.

Har bir guruhga bolalarning mashg'ulot paytidagi harakatini kuzatib turish uchun sardor tayinlanadi. Guruhga bo'linish ko'proq ikkitagacha, uchtagacha sanash yoki bir qator safdan ikki, uch qator bo'limga qayta saflanish va har bir qatorni tegishli joyga burib olib borish orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda guruhlar bir-biriga xalaqit bermaydigan tarzda joylashadi. Almashinuv usuli barcha bolalar mustaqil mashg'ulotlarga yetarli darajada tayyor bo'lganlaridan so'ng qo'llanilishi mumkin.

Individual usul. Bu usul shundan iboratki, bunda bir bola mashq bajaradi, qolganlar esa uni kuzatib turishadi. Bunday usul yakunlovchi darslarda qo'llaniladi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisiga har bir mashq bajarilgandan so'ng yakun chiqarishga, bolalar e'tiborini mashqni yaxshiroq bajarishga, kamchilik va xatolarga qarata olishga imkon beradi. Bu ta'lim va tarbiya jihatdan juda muhim.

Yuqori guruh bolalari bilan olib boriladigan ta'limda aylanib yurib shug'ullanish usuli ham qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati shundaki, mashg'ulotning ma'lum bir vaqtda tarbiyalanuvchilar 4-8 kishilik bir necha guruhga bo'linib, jismoniy tarbiya o'qituvchisi ko'rsatmasiga binoan turli sport jihozi yoniga yoki mashg'ulot joyiga boradilar. Tarbiyalanuvchi o'qituvchi ishorasi bo'yicha mashqlarni mustaqil bajara boshlaydilar. Ma'lum bir vaqt o'tgach, jismoniy tarbiya o'qituvchisi ishora beradi va bolalar boshqa sport jihozi yoniga, mashg'ulot joyiga uyushgan holda o'tadilar. Barcha tarbiyalanuvchilar mashg'ulot rejasida ko'zda tutilgan hamma mashqlar bilan shug'ullanib bo'lmaganlaricha shu tarzda davom etaveradi. Bu usul shuning uchun ham aylanma deyiladiki, unda bolalar bir sport jihozdan ikkinchisiga o'tib, barcha mashqlarni bajaradilar. Ko'pincha sport jihozlari yoki mashg'ulot o'rni zalda yoki maydonchada doira shaklida tartiblangan bo'ladi. Bu usulning mashg'ulot deb atalishiga sabab, shug'ullanuvchilarning jismoniy sifatlari rivojlanish darajasini oshirish va imkoniyatlarini takomillashtirishdan iborat. Bunda mashqlarni izchillikda, ixtiyoriy yoki berilgan sur'atda, muayyan vaqt yoki ma'lum miqdorda ko'p marta takrorlash orqali erishiladi.

Boshlang'ich guruh tarbiyalanuvchilarini usul jihatdan to'g'ri o'qitish jarayonida ular faqat zarur harakatlanish, malaka va ko'nikmalarini egallashlarigina emas, balki jismoniy sifatlarini yoshi talab qiladigan darajaga yetkazishi ham ta'minlanadi. Shuning uchun kichik yoshdagi bolalar bilan mashg'ulot o'tkazganda, ayatlanma mashg'ulot usulini qo'llashga zaruriyat yo'q.

Darsni olib borish usullari qo'yilgan vazifalar, aniq sharoit, tarbiyalanuvchilar soni va ularning tayyorligiga bog'liq. Bundan tashqari, turli usullarni qo'llash darslarni rang-baranglashtiradi, bu esa bolalarga yoqadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari mazmunli o'tilsa, tarbiyalanuvchi yoshlarning unga nisbatan qiziqishi oshadi. Bolalarni jismoniy mashqlarni muntazam bajarishga o'rgatish, sport turlari bilan yaqindan tanishtirish, ularning sport turlariga bo'lgan qiziqishlarini aniqlab, o'yinlar orqali o'rgatib boorish juda muhimdir. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini turli o'yinlar va jismoniy mashqlarga qiziqtirish, ularda mas'uliyatlilik, sodiqlik, tartibli kabi sifatlarni shakllantirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o'rtasida "Sog'lomjon-polvonjon" sport musobaqasi o'tkazib kelinmoqda. Shunga ko'ra jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog'langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.S. Salomov, Sport mashg'ulotining nazariy asoslari O'zDJTI nashriyat matbaa bo'limi, Toshkent 2005.
2. Xujayev P, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B., Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi., O'quv qo'llanma Toshkent 2008
3. T.S.Usmanxodjayev, A.A.Pulatov, S.S.Tajibayev, F.A.Pulatov, Sport va harakatli o'yinlar (Milliy va harakatli o'yinlar) Cho'lpon nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2018.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Турсунова Олмос Файзиевна

Ўзбекистон-Финландия педагогика институти Миллий гоё ва фалсафа кафедраси доцентни
+998933434105

Аннотация: Давлатимизда демографик қатлам бўлган ёшларга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгилаб қўйилган меъёрлар кўрсатилган. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Ўзбекистон – 2030 стратегияси, Ўзбекистон Республикасида «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги қонун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириши ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Фармони, Президентимизнинг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириши чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори ва бошқа нормалар асос қилиб олинган.

Калит сўзлар: Ёшлар, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, ҳуқуқлар, мажбуриятлар

Аннотация: В нашей стране указаны стандарты, установленные нормативными правовыми документами, касающимися молодежного демографического слоя. Конституция Республики Узбекистан, Стратегия «Узбекистан-2030», Закон Республики Узбекистан «О государственной политике в отношении молодежи», Указ Президента Республики Узбекистан «О повышении эффективности государственной политики и в отношении молодежи и о поддержке деятельности Союза молодежи Узбекистана», Постановление Президента «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» и другие нормы.

Ключевые слова: Молодежь, правовые документы, права, обязанности.

Resume: In our country, the standards set by the normative legal documents concerning the youth demographic stratum are indicated. The Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Uzbekistan-2030 strategy, the Law "On State Policy Regarding Youth" in the Republic of Uzbekistan, the President of the Republic of Uzbekistan "Improving the effectiveness of state policy regarding youth and the activities of the Youth Union of Uzbekistan On Support" the President's Decision "On Measures for Further Development of the Higher Education System" and other norms are taken as a basis.

Key words: Youth, legal documents, rights, obligations

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида: «Дунёда терроризм таҳдидлари, айниқса, сўнгги йилларда кучайиб бораётгани уларга қарши, асосан, куч ишлатиш йўли билан курашиш усули ўзини оқламаётганидан далолат беради.

Сайёрамининг эртанги куни, фаровонлиги фарзандларимиз қандай инсон бўлиб камолга етиши билан боғлиқ.

Бизнинг асосий вазифамиз – ёшларнинг ўз салоҳиятини намоён қилиш учун зарур шароитлар яратиш, зўравонлик ғояси «вируси» тарқалишининг олдини олишдир» [4].

Юқоридаги вазифаларни амалга ошириш учун албатта педагогларнинг зиммасига катта масъулият юкланади. Бунинг учун ёшларимизнинг ахборот хавфсизлигини таъминлашда юртимизда қандай норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинганлиги тўғрисида доимий равишда маълумот бериб боришимиз керак бўлади. Зеро, уларнинг ҳуқуқий маданияти, ҳуқуқий онги ва билимини оширсак ахборот хуружларидан

фарзандларимизни асраган бўламиз. Албатта бу бир киши томонидан амалга ошириладиган вазифа эмас, балки Президентимиз Фармонида белгилаб қўйилганидек «шаҳс – оила – маҳалла – таълим муассасаси – ташкилот - жамият» принципи асосида ташкил этилиши керак. Шундай экан, бош қомусимиз бўлган, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида барча фуқароларга тааллуқли меъёрлардан ташқари, айнан ёшларни ахборот хавфсизлигини таъминлашга тегишли бўлган қоидалар ҳам мавжуд. Жумладан,

33-модда: «Ҳар ким фикрлаш, сўз ва эътиқод эркинлиги ҳуқуқига эга. Ҳар ким исталган ахборотни излаш, олиш ва тарқатиш ҳуқуқига эга. Давлат Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланишни таъминлаш учун шарт-шароитлар яратади. Ахборотни излаш, олиш ва тарқатишга бўлган ҳуқуқни чеклашга фақат қонунга мувофиқ ҳамда фақат конституциявий тузумни, аҳолининг соғлиғини, ижтимоий ахлоқни, бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, жамоат хавфсизлигини ҳамда жамоат тартибини таъминлаш, шунингдек давлат сирлари ёки қонун билан қўриқланадиган бошқа сир ошқор этилишининг олдини олиш мақсадида зарур бўлган доирада йўл қўйилади» [6].

Шунингдек, Ўзбекистон 2016-йилнинг 14-сентябрида Ўзбекистон Республикасида «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги қонуннинг қабул қилинганини алоҳида қайд этиб ўтиш жоиз. Ушбу ҳуқуқий ҳужжат бош ислохотчи бўлган давлатнинг ёшлар масаласига доир стратегик йўналишларини изчил ва тизимли равишда босқичма-босқич амалга ошириш йўллари белгилаб берди. Ёшларга оид давлат сиёсати давлат томонидан амалга ошириладиган ҳамда ёшларни ижтимоий жиҳатдан шакллантириш ва уларнинг интеллектуал, ижодий ва бошқа йўналишдаги салоҳиятини камол топтириш учун шарт-шароитлар яратилишини назарда тутадиган ижтимоий-иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар тизимидир. Шундай экан, қонун ёшларимизнинг ахборот хавфсизлигини таъминлашда ҳуқуқий кафолат ҳисобланади, норматив-ҳуқуқий актда ёшларни ватанпарварлик, фуқаролик туйғуси, бағрикенглик, қонунларга, миллий ва умуминсоний кадриятларга ҳурмат руҳида, зарарли таъсирлар ва оқимларга қарши тура оладиган, ҳаётга бўлган қатъий ишонч ва қарашларга эга қилиб тарбиялаш белгилаб қўйилган [1].

Ушбу қонунга кўра, давлат ёшлар сиёсатини амалга оширар экан, аввало, ёшларни ахлоқий негизларни бузишга олиб келадиган хатти-ҳаракатлардан, терроризм ва диний экстремизм, сепаратизм, фундаментализм, зўравонлик ва шафқатсизлик ғояларидан ҳимоя қилишни ўзига вазифа қилиб олиши белгилаб қўйилган.

Таъкидлаш лозимки, сўнгги йилларда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги ўсиб бораётганлигини кузатиш мумкин. Бу борада уларда шаклланаётган ижтимоий ва мафқуравий тушунча ва ғояларнинг аҳамияти каттадир. Шу нуқтаи назардан, “Ўзбекистон – 2030” Стратегиясида мафқуравий хуружларга қарши миллий ғоя асосида биргаликда курашиш, оила, мактаб ва маҳалла ҳамкорлигини мустақкамлаш ва шу асосда маънавий тарбиянинг узвийлигини таъминлаш белгилаб қўйилган [7].

Ёшларимизнинг ҳуқуқий тарбиясига салбий таъсир кўрсатувчи омилларга, жумладан, ахборот технологиялари ривожланган бир пайтда ёшларимизнинг виртуал сайтлар тўрига аралашиб қолиши, «мумкин бўлмаган» мавзуларда баҳсга киришиб кетиши, виртуал жиҳодлар каби «касаллик»ларга нисбатан иммунитетни шакллантириш зарур. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги Фармони бугунги кунда ёшларнинг ахборот хавфсизлигини таъминлашга дастуруламал бўлади, десак муболаға бўлмайди. Жумладан, фармонда жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришда, энг аввало, таълим-тарбияни тизимли ва узвий равишда олиб борилишига алоҳида эътибор қаратиш, мактабгача таълим тизимидан бошлаб, аҳолининг барча қатламларига ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни чуқур сингдириш, шахсий манфаатлар ҳамда жамият манфаатлари ўртасидаги мувозанатни сақлаш ғояларини кенг тарғиб қилиш белгиланган [5]. Шундан келиб чиққан ҳолда, юқоридаги «касаллик»ларга нисбатан албатта юртимизда жавобгарлик асослари белгиланганлигини ёшларимиз онгига синдириб боришимиз шарт.

Бугунги кунда Ўзбекистон қанчалик қалтис дунё билан алоқага киришганлигини кузатиш мумкин. Минтақамизда ёшлар маънавий хавфсизлигини таъминлаш заруриятининг сабабларидан бири шундан иборатки, бозор иқтисодиёти чет эл сармоялари, замонавий техника ва технология, бозорни шакллантириш усуллари билан бир қаторда мамлакатимизга ўзининг маданияти, турмуш тарзи, дунёқароши ва тасаввурларини ҳам олиб кирмоқда. Глобал мафқуравий таҳдид ва тажовузнинг хавфи - уларнинг юртимизга очик кириб келишидир. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Фармонида ёшларнинг илмий ва бадий китоблар, жумладан, электрон асарларни ўқишга бўлган қизиқишини янада ошириш, ҳуқуқий, экологик, тиббий ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш маданиятини юксалтириш орқали уларда турли мафқуравий таҳдидларга, хусусан, диний экстремизм, терроризм, «оммавий маданият» ва бошқа ёт ғояларга қарши мустақкам иммунитетни шакллантириш муҳимлиги қайд этилган [3].

Шунингдек, Президентимизнинг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори ҳам ёшларимиздан янада креативлик, Ватанга дахлдорлик, миллий ғояларимизга содиқлик, «Ёшлар - келажакимиз» шиорини рўёбга чиқаришда тузук, ойин бўлади, деб ўйлаймиз. Қарорда, олий таълимнинг маънавий-ахлоқий мазмунини ошириш, талаба-ёшларга мустақиллик ғояларига, юксак маънавият ва инсонийликнинг миллий анъаналарига содиқлик руҳини чуқур сингдириш, уларда ёт ғоя ва

мафкураларга нисбатан иммунитет ва танкидий тафаккурни мустаҳкамлаш бўйича кенг кўламли маърифий ва тарбиявий ишларни олиб бориш, кўрсатиб ўтилган [2].

Ватанимиздаги ҳар бир ёш авлод онгига ана шу мақсадларимизни сингдириб борсак, уларга янги замонавий билимлар бериб, миллий ғоямиз руҳида тарбияласак, эртага меҳнатимизнинг самарасини албатта кўрамиз. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Бу йўлда бизга ишонч ва илҳом, ғайрат ва шижоат берадиган бекиёс бир куч-қудрат борки, биз унга таяниб, ўз мақсадларимизга албатта етамиз. Бу – ҳаёт синовларида тобланган, сўзида қатъий турадиган, ишнинг кўзини биладиган, меҳнаткаш, мард ва матонатли халқимиздир. Биз бугун кўп миллатли халқимизга, барчамизнинг умидимиз ва суянчимиз бўлган ёшларимизга ишониб, маррани катта олмоқдамиз. Азиз фарзандларимиз, набираларимиз бахтини, камолини ўйлаб, эл-юртимизнинг, халқимизнинг ёруғ келажагини кўзлаб, олдимизга улкан вазифалар қўймоқдамиз”.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги Қонуни (2016). Халқ сўзи газетаси, 2016-йил 15-сентябрь, № 182 (6617). - 4 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017). Халқ сўзи газетаси, 2017-йил 21-апрель №79 (6773) 4 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги Фармони (2017). Зарафшон газетаси, 2017-йил 8-июль № 85 (22885) 4 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи (2017). Халқ сўзи газетаси, 2017-йил 20-сентябрь, № 189 (6883). 4-б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги Фармони. Халқ сўзи газетаси, 2019-йил 10-январь, № 5 (7235). 4 б.
6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (2023). Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – 76 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон – 2030» Стратегияси тўғрисидаги Фармони (2023). 2023-йил 11-сентябрь. Халқ сўзи газетаси, 2023-йил 12-сентябрь 190-сон.



PEDAGOGLARNI KASBIY TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH.

Usarova Muborak Xabibulla qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakuletininig Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasini o‘qituvchisi. +998930945098
usarovamuborak5@gmail.com

Аннотация: Мақолда замонавий та’лим тизimini tashkil etish, ta’limni zamon talabi darajasida isloh qilish, uningsifatini yuksak talab darajasiga ko’tarish muammolari atroflicha ko’rib chiqilgan. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari bilan tanishish bilan bir qatorda ta’lim jarayonida umumdidaktik va pedagogikaning asosiy tamoyillari va ularning mazmun-mohiyatini ta’lim oluvchilarga va o‘qituvchiga turli xil innovatsion usullardan foydalanish, yangicha qarashlar xususida fikrlar yuritiladi.

Аннотация: В статье подробно обсуждаются проблемы организации современной системы образования, реформирования образования на уровне современных требований, поднятия его качества до высокого уровня востребованности. Помимо ознакомления с теоретическими основами педагогических технологий, основными принципами общей дидактики и педагогики и их содержанием, для учащихся и преподавателя обсуждается использование различных инновационных методов и новых взглядов в образовательном процессе.

Annotation: In the article, the problems of organizing a modern education system, reforming education at the level of modern requirements, and raising its quality to a high level of demand are discussed in detail. In addition to getting acquainted with the theoretical foundations of pedagogical technologies, the main principles of general didactics and pedagogy and their content, the use of various innovative methods and new views are discussed for the students and the teacher in the educational process.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, metodologiya boshqaruv, kadrlar, jarayon, madaniyat, konsepsiya.

Ключевые слова: педагогическая технология, методология управления, персонал, процесс, культура, концепция.

Key words: pedagogical technology, management methodology, personnel, process, culture, concept.

KIRISH:

Zamonimizning shiddat bilan o‘zgarib borishi dunyoda zamon bilan hamnafas bo‘la oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an’anaviy ta’lim yo‘sini mutlaqo yetarli emas. Hozirgi kunda ilm fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi shaxs biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o‘zgarishlardan iborat bo‘lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo‘yayotgan yoshlar ana shunday o‘zgarishlarga ham intellektual, ham ma’naviy

jihatdan tayyor bo'lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o'z o'rnini topolmasligi mumkin, Ayni vaqtda ta'lim tizimimiz boy tajribalarga ega bo'lib kelmoqda. Chunonchi, ishbilarmonlik o'yinlari, kompyuterli o'qitish, individuallashtirilgan o'qitish, insonparvarlik, hamkorlik, shaxsni erkin tarbiyalash va h.k. Ta'lim jarayonini sifatli tashkilotish maqsadida xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv metodika dabiyyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Prezidentimizning tashabbuslari bilan mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 29-dekabrda PQ2707-sonli, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida"gi 2017-yil 9-sentyabrda PQ3261-son qarorlari, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 30-sentyabrda PF-5198 sonli Farmoyishi shular jumlasidandir. Maktabgacha ta'lim tizimida "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"ning paydo bo'lishi maktabgacha ta'lim mazmunini yangilash, umumiy amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va pedagoglar tomonidan o'qitishning yangi usullari va shakllarini o'rganish bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalarni qizg'in muhokama qilishning boshlanishi bo'ldi. Shu asosda mahalliy maktabgacha ta'limda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish normativ va dasturiy-metodik hujjatlarda aks ettirilgan. Ushbu ishda ta'limning barcha darajalari, metodologiya xizmati, ilm-fan va amaliyotning barcha darajadagi mutaxassislar ishtirok etib, birlashtirilgan ta'lim maskani yaratildi. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda. Jumladan, MTTda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, didaktik topshiriqlar va ishlanmalar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha zamonaviy shakl va usullarni ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada tahlil qilinmaganligi hamda ular singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati ijodkor emasligi, ta'lim-tarbiya sifati monitoring yuritilmaganligi kabi faktorlarni keltirish mumkin.

"Texnologiya" yunoncha so'zdan kelib chiqqan bo'lib "techne" - mahorat, san'at, malaka va "logos" - so'z, ta'limot ma'nolarini anglatadi. "Pedagogik texnologiya" - ta'limni texnologiyalashtirish sohasida pedagogik hodisa va jarayonda qo'llaniladigan tushuncha. Hozirgi vaqtda zamonaviy ta'lim sharoitida o'qitish usullari ta'lim maqsadlarini o'zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi avlod davlat ta'lim standartini ishlab chiqish bilan bog'liq murakkab davrni boshdan kechirmoqda. O'quv jarayonida talabning kognitiv va ijodiy faoliyatini amalga oshirish uchun ta'lim sifatini oshirish, o'qish vaqtidan samarali foydalanish va o'quvchilarning reproduktiv faolligi ulushini kamaytirish imkonini beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy texnologiyalar hissiy qulay muhitda o'quvchilarning faol ko'p bosqichli kognitiv faoliyati jarayonida fan va o'quv bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, o'rganish uchun ijobiy motivatsiyani rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasidan faol foydalanilmoqda. Biroq, uni tushunish va qo'llashda katta tafovutlar mavjud, ko'plab olimlar tomonidan berilgan ko'plab ta'riflar mavjud, masalan, B.T.Lixachev, V.P.Bespalko, I.P.Volkov pedagogik texnologiyani barcha ta'riflarning ma'nolarini o'zida mujassam etgan mazmunli umumlashtirishdir. G.K.Selevkoning fikricha, "pedagogik texnologiya" tushunchasini uch jihat bilan ifodalash mumkin: 1) **ilmiy**: pedagogik texnologiyalar - pedagogika fanining maqsadlari, mazmuni va o'qitish usullarini o'rganuvchi va ishlab chiqadigan hamda pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi qismi; 2) **protsessual va tavsifiy**: jarayonning tavsifi (algoritmi), rejalashtirilgan o'quv natijalariga erishish uchun maqsadlar, mazmun, usullar va vositalar majmuasi; 3) **protsessual jihatdan samarali**: texnologik (pedagogik) jarayonni amalga oshirish, barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy pedagogik vositalarning ishlashi. . Shunday qilib, pedagogik texnologiya o'qitishning eng oqilona usullarini o'rganuvchi fan sifatida ham, o'qitishda qo'llaniladigan usullar, tamoyillar va tartibga soluvchilar tizimi sifatida ham, real o'quv jarayoni sifatida ham faoliyat yuritadi. Bilimni mexanik ravishda boshdan boshga o'tkazib bo'lmaydi (eshitilgan - o'rganilgan). Shuning uchun o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish zarur. Talaba fanga qiziqish bilan faqat o'z faoliyatida ma'lumotni o'zlashtira oladi. Binobarin, o'qituvchi informator rolini unutishi, u o'quvchining bilish faoliyatining tashkilotchisi, muvofiqlashtiruvchisi rolini o'ynashi, o'quvchi uchun darsda barcha turdagi o'quv va bilish faoliyatini tashkil qilishi kerak. Talabning o'quv va kognitiv faoliyati o'zlashtirilishi kerak bo'lgan o'quv materialiga mos kelishi kerak. Faoliyat natijasida talaba mustaqil ravishda har qanday xulosaga kelishi, o'zi uchun bilim olishi kerak. Didaktikaning eng muhim tamoyili - bilimlarni mustaqil yaratish tamoyili bo'lib, u bilimni o'quvchi tomonidan tayyor shaklda emas, balki o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan ma'lum bir bilish faoliyati natijasida yaratilishidan iborat. Binobarin, har xil turdagi pedagogik texnologiyalar talabalarning bilim va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan faol foydalangan holda tizimli ishlar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini, o'quv faolligini oshiradi, bilimlarni chuqur va doimiy o'zlashtirishni

ta'minlaydi, o'quvchilarning tafakkuri, xotirasi va nutqini rivojlantiradi, halollik, mehnatsevarlik va vijdonli munosabatni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy ishlar, asosan talabalarning reproduktiv faoliyatini faollashtiradi. O'qitishning muhim xususiyati - bilimlardan foydalanish, ularni umumlashtirish va tizimlashtirishda samarali faoliyat uchun sharoit yaratishdir. Ta'lim jarayonini bunday tashkil etish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularni diqqatli bo'lishga majbur qiladi, ularni tahlil qilishga, taqqoslashga, asosiy narsani ajratib ko'rsatishga o'rgatadi, ularni sinfdagi passiv tinglovchilardan faol ishtirokchiga aylantiradi. Shunday qilib, har xil turdagi texnologiyalar o'quvchilarning kognitiv va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradi. Biroq zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini joriy etish ularning an'anaviy o'qitish metodikasini to'liq o'rnini bosishini anglatmaydi, balki uning tarkibiy qismi bo'ladi. Zero, pedagogik texnologiya - bu o'rganish nazariyasiga asoslangan va rejalashtirilgan natijalarni ta'minlovchi ta'lim faoliyatini tashkil etish usullari, uslubiy texnikasi, shakllari yig'indisidir. O'qituvchi uchun yillar davomida shakllangan darsning stereotiplarini engib o'tish juda qiyin. Talabaga yaqinlashish va xatolarni tuzatish, tayyor javobni taklif qilish istagi katta. Talabalar ham xuddi shunday muammoga duch kelishadi: ular uchun o'qituvchini yordamchi, kognitiv faoliyat tashkilotchisi rovida ko'rish odatiy holdir. Bugungi kunda zamonaviy darsni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'z pozitsiyangizni yangicha tushunish, nima uchun va nima uchun o'zgarishlar kerakligini tushunish va birinchi navbatda o'zingizni o'zgartirishingiz kerak. Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda dajadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda;

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'i kengaymoqda;

Ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda;

Xodimlarning malaka oshirish tizimi takomillashmoqda;

Qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy tizimi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan. Ta'lim jarayoni bola shaxsiga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta'lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim. Maktabgacha ta'lim sifati-natija haqida bola shaxsini rivojlantirish nuqtai nazaridan bolalar quyidagi shaxsiy natijalarni qanday egallaganiga qarab so'z yuritish mumkin.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta'lim sharoitida o'qitish usullari ta'lim maqsadlarini o'zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi avlod davlat ta'lim standartini ishlab chiqish bilan bog'liq murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Bazaviy o'quv rejasida alohida fanlarni o'rganish uchun soatlar qisqartirilganligi sababli ham qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu holatlarning barchasi fanlarni o'qitish metodikasi sohasida yangi pedagogik izlanishlarni, ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq bo'lgan o'qitish va tarbiyaning innovatsion vositalari, shakl va uslublarni izlashni taqozo etadi. O'rta kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi-o'z mutaxassisligi bo'yicha samarali kasbiy faoliyatga qodir, mehnat bozorida raqobatbardosh malakali mutaxassis tayyorlashdan iborat. O'quv jarayonida talabaning kognitiv va ijodiy faoliyatini amalga oshirish uchun ta'lim sifatini oshirish, o'qish vaqtidan samarali foydalanish va o'quvchilarning reproduktiv faolligi ulushini kamaytirish imkonini beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR:

1. "Zamonaviy ta'lim usullari" deganda maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini o'rganish bo'yicha tarbiyalanuvchilarning oldiga qo'yilgan pedagogik muammoni mustaqil yechishga xizmat qiladigan interfaol metodlar ko'zda tutiladi. 2. Adabiy ta'lim samaradorligiga erishishning eng maqbul yo'li -bu maktabgacha ta'lim tashkilotlarida fan mashg'ulotlarini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash sanaladi. 3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlari zamonaviy tashkil etilsa, tarbiyalanuvchilarda samarali muloqot va o'z fikrini to'g'ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi. 4. Ta'lim samaradorligi tarbiyachilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasi asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga bog'liq. 5. Zamonaviy usullar tarbiyalanuvchilarni faollashtiradi, ular o'zaro bahs-munozara asnosida kichik hikoyalarning mohiyatini teranroq anglaydilar. 6. Tarbiyalanuvchilar bilan hamkorlikda mashg'ulotlar uyushtirilsa, kichik guruhlar tashkil etilsa, topshiriqlar alohida tarbiyalanuvchiga emas, balki kichik guruhlariga berilsa, bolalarning birgalikda faoliyat ko'rsatish zarurati va ko'nikmasi yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Belozertsev, E.P. Kasbiy ta'lim pedagogikasi: darslik / E.P. Belozertsev, A.D. Goneev, A.G. Pashkov, ed. V. A. Slastenin, 4-nashr, -M.: IT akademiyasi, 2008. --368 b.

2. Borisova, N.V. Ta'lim texnologiyalari pedagogik tanlov ob'ekti sifatida: darslik. nafaqa / N. V. Borisova. -M.: ITsPKPS, 2000. --146 p.

3. Gulova, M.N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: darslik. DPT muassasalari uchun qo'llanma / MN Gulova, 4-nashr, qayta ko'rib chiqilgan. -M.: IT akademiyasi, 2013. --208 b. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022

4. Z.A.Raxmonqulova va boshqalar. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini o'qitish bo'yicha seminar modullari. Toshkent - 2010.
5. RR Naimovich Methods of using interactive methods in preschool educational organizations, conducting Music classes Eurasian Journal of Learning and academic Teaching 10, 29-32
6. Rakhimov R. N.A cappella, a cappella, choral group. Vocal and vocal music Science and Education 3 (4), 1576-1581
7. R. N. Rakhimov on the didactic functions of x solfeggio in teaching music theory Science and Education 3 (11), 776-781



BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .

¹Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li, ²Namozova Sevinch Asqar qizi

¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi.

²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi .

Rezyume

Hozirgi zamonaviy davrda pedagogikaning dolzarb vazifalariga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari, va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Mazkur maqolada ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, hamda nutqni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, ta'lim sifati, axborot texnologiyalari, nutqni rivojlantirish

Резюме

В современную эпоху актуальными задачами педагогики являются научное обеспечение целей, содержания, методов, средств и организационных форм воспитания, обучения и развития человека на основе использования науки, техники и передовых технологий. В данной статье описана сущность использования инновационных педагогических технологий в образовании и их роль в повышении качества образования, а также их значение в развитии речи.

Ключевые слова: инновации, педагогические технологии, качество образования, информационные технологии, речевое развитие.

Resume

In the current modern era, the actual tasks of pedagogy include the scientific provision of the goals, content, methods, tools, and organizational forms of educating, teaching and developing a person based on the use of science, technology, and advanced technologies. This article describes the essence of using innovative pedagogical technologies in education and its role in improving the quality of education, as well as its importance in the development of speech.

Key words: innovation, pedagogical technology, quality of education, information technology, speech development

Bugungi kunda pedagogik nazaryadan tashqari zamonaviy pedagogik amaliyot jarayonlarida innovatsion metodlardan foydalanish zamon talabi darajasiga aylandi. Ta'lim jarayonida yangidan yangi metodlarni qo'llash hozirgi kundagi boshlang'ich ta'limning obyektlaridan biriga aylandi. Innovatsion faoliyat davlat darajasiga ko'tarilib, hukumatimizning 2020-yil 7-aprelda qabul qilingan "Innovatsion faoliyat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni, "2022-2026- yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asosan zamonaviy ta'limning ilg'or metodlaridan foydalanish boshlang'ich sinflarda ta'lim oluvchi o'quvchilarning ilmiy ko'nikmalarini oshirishda asosiy mezonlar sifatida qabul qilingan.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari, ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullarini, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi.

Innovatsiya (inglizcha innovatsion – yangilik, ixtiro) yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati. Yangilik – bu texnik, texnologik, ixtiro va yutuqlardan amaliy foydalanishdir. U pedagogik kategoriya sifatida ta'limga yangilik kiritishni anglatadi. Yangilik, ko'pincha, yangi metodlar,

usullar, vositalar, yangi konsepsiyalar, yangi o`quv, dasturlari, tarbiya usullari va boshqalarni kiritish hamda qo`llashga xosdir .

Pedagogik texnologiya - o`qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir . O`quv materiallarini tanlash, qayta o`quvchi kuchiga , o`zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o`zgartirish ham ta`lim texnologiyasiga daxldor . Pedagogik texnologiya o`z navbatida, ta`lim-tarbiyaning obyektiv qonunatlari va diagnostik maqsadlari asosida o`quv jarayonlari, ta`lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya`ni fan va texnika yangiliklarini o`zida mujassamlashtiradigan o`quv jarayonidir.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga joriy etish ko`lamini kengaytirish, bu yo`nalishda ilg`or tajribalarni tadbiiq qilish, har bir fan bo`yicha bu sohada aniq rejalarini tuzish va amalga oshirish, darslik va o`quv qo`llanmalari hamda dasturlari va dars matnlarini elektron disketlarga ko`chirish, ular bilan har bir o`quvchini ta`minlashga erishish, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda , shuningdek, o`quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga erishish, ta`lim tizimini zarur axborot vositalari bilan yetarli darajada ta`minlash, ta`lim muassasalarini kommunikatsion tarmoqlarga bog`lash kabi vazifalar muhim hisoblanadi.

Ta`lim jarayonida avval qiziqish uyg`otib , motivatsiya berib, so`ngra raqobat muhiti yaratilsa o`quvchilarda innovatsiya yaratishdagi yashirin qobiliyatlari uyg`onadi va albatta rag`batlantirish amalga oshirilsa ko`zlangan maqsadga erishiladi . O`quvchilarga ilm-fan va innovatsiya yaratishda yutuqlarga erishgan insonlardan misol keltirib, iloji bo`lsa ulardan birini o`rnak bo`luvchi inson sifatida darsga taklif qilib yoki innovatsiyalar markaziga o`quvchilarni ekskursiyalarga olib borishni yo`lga qo`yilsa maqsadga tezroq erishilgan bo`lar edi .

Nemis pedagogi A.F.Disterveg “Noqobil o`qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo`yadi, yaxshisi esa uni topishga o`rgatadi” - deb bejizga aytmagan. Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan kunga kuchayib bormoqda , bunday bo`lishining sabablaridan biri , shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa , zamonaviy texnologiyalar ularni o`rganayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o`quvchilarni bilimli yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

Mutaxasislarning fikricha, innovatsion elektron darslik ison aql-zakovatining katta hajmdagi axborotni eslab qolish va bu ma`lumotlar orqali muloqot va fikrlash jarayonlari assosatsiyalari orqali izlash qobiliyatiga taqlid qiladi .Boshqacha aytganda, innovatsion elektron darslik ko`plab statistik va dinamik ma`lumotlarni o`zida mujassam etgan va umumlashgan tarmoq tuzilmasiga ega bo`lgan murakkab o`quv materiallari tizimidir.

XVIII- XIX asrlar uyg`onish davrida insonparvarlik g`oyalari qaror topdi. Pedagog olim I.I.Pestalossi insonni faol hayotga tortish orqali shakllantiradigan barcha ahamiyatga molik kuchlarni to`la rivojlantirish g`oyasini olg`a surdi .Ushbu g`oya ta`sirida Fransiya, Shevtsaryadagi yangi maktablar , AQSH, Germaniya, Avstriyada sara (elita) maktablar paydo bo`ldi. Ularda shaxsning ta`lim va tarbiyasi tabiiy erkin rivojlanish, bola va kattalar orasidagi tabiiy munosabatlar bilan bog`lanadi .

Xalq odobnomasida yoshlarni hayotga qadam qo`ya boshlagan paytidan tilga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo`lishiga, til birliklaridan o`rinli foydalana olishiga o`rgatib borish mumkinligi ta`kidlanadi .

Haqiqatdan, insonning ichki dunyosi, ma`naviy qiyofasi, xulq-atvori, muomulasi, odob-axloqi, madaniyati uning tili orqali namoyon bo`ladi . Chunki har qanday kishining madaniyatligi, odobi, bilim darajasi, fahm-farosati, fikrlash doirasining kengligi yoki torligi, katta hayotga tayyor yoki tayyor emasligi uning nutqida o`z aksini topadi . Kimning tili boy bo`lsa, kim so`zlarini adabiy til asosida to`g`ri, aniq, ravon, ifodali talaffuz qilsa, o`z ona tiliga chuqur hurmat va ehtirom bilan qarasa, u bilimli sanalib, kishilar o`rtasida obro`-e`tibor qozonadi. Nutq ohangini rivojlantirish uchun o`qituvchi tez aytishlarni turli balandlikda, turli sur`atda talaffuz qilishni taklif etadi, so`roq va tasdiq gap ohanglaridan to`g`ri foydalanishni mashq qildiradi. Bitta nutqiy materildan qayta-qayta foydalanish orqali tarbiyachi bir vaqtning o`zida bir necha maqsadni amalga oshiradi . Bolalar mashg`ulotlarga qiziqtirish va ularning nutqini o`stirishda o`quvchiga ko`rsatmali qurollar katta yordam beradi. O`qituvchi bolalarga narsa-buyumlarning o`zini yoki rasmini ko`rsatib, uning nomini, shaklini, rangini, mazasini, miqdorini, so`rasa, uyatchan, tortinchoq, kamgap bolalar ham hech qiynalmay, tezgina javob beradi .

Olimlar fikriga e`tibor qaratadigan bo`lsak, ular boshlang`ich ta`lim o`quvchilarining nutqini o`stirishda quyidagi innovatsion metodlarni samarali deya baholashadi . Ushbu muammolarni hal qilish nutqini rivojlantirish uchun quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish yordam beradi:

1. Muammoli ta`lim
2. O`yin texnologiyalari
3. Kompyuter texnologiyalari
4. Loyiha usuli

Muammoli ta`lim -bolalarning eksperimental va o`ylash faoliyatida nutqni rivojlantirishni o`z ichiga oladi. Bolalar bilan ishlashda turli og`zaki didaktik o`yinlarda muammoli nutqiy vaziyatlardan foydalanish (bolalarning kattalar o`rnini egallab, o`zi xulosa chiqarishga harakat qiladigan vaziyatlar) .

O`yin texnologiyalari -darslarda mashqlarning turli o`yin shakllaridan, kulguli hikoyalardan chizmalardan foydalanish, ular yordamida o`quvchilarni ma`lum o`yin vaziyati bilan tanishtirish, krossvordlar, viktorinalar, boshqotirmalar va intellektual o`yinlar ham nutqni rivojlantirish uchun bir xil darajada muhimdir .

Kompyuter texnologiyalari -bir qator afzalliklarga ega bo`lgani uchun nutqni rivojlantirishda juda muhimdir .Kompyuter ekranida axborotni taqdim etish bolalarda qiziqish va ijobiy his tuyg`ularni uyg`otadi. Ekranida nutqni rivojlantirish uchun rasmlar yoki hikoya rasmlari taqdim etilishi mumkin.

Loyiha usuli-o`quvchilarda o`quv jarayonida samarali ijtimoiy va intellektual o`zaro ta`sirlar asosini tashkil etuvchi bir qator kommunikativ ko`nikmalarni shakllantiradi ularga quyidagilar kiradi: so`rash qobiliyati, ovozni boshqarish qobiliyati, o`z nuqtai nazarini ifoda etish qobiliyati, muzokaralar olib borish qobiliyati.

TAKLIF

Oliy ta`lim tizimida ta`lim olayotgan bo`lajak boshlang`ich ta`lim o`qituvchilarining o`quv faoliyatiga kompyuter savodxonligi va xorijiy tilar (ingliz tili)ni o`qitish darslarini kiritish lozim. Zero oliy ta`limning asosiy vazifalaridan biri ham o`quv jarayoniga yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalarni, ta`limning ishlab chiqarish bilan integrasiyalashuvining joriy mexanizmlarini kiritib borishdir .

XULOSA

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning imkoniyat darajasi reytingida mos keladigan innovatsion metodlarni tanlay olish ham o`qituvchi pedagogning mahoratidan dalolat beradi . O`quvchilarning nutqini o`stirishda yuqoridagi kabi samarador chet el tajribasi mahsullarini qo`llash va ularni milliy ta`lim tizimiga moslashtiradigan holda qo`llash, ularni yanada takomillashtirish va yuqori ta`lim natijalarini qayd etish bugungi kundagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi .Boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqini o`stirishda mukammal tizimni shakllantira olish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri bo`lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.N.N.Azizxo`jayeva “ Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” Toshkent-2006 5-11-betlar
- 2.H.T.Omonov , N.X.Xo`jayev S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” Toshkent-2009 5-10-betlar
- 3.Xasanova Feruza Xurramovna “ Ta`limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo`lib, u ta`lim sifatini oshirishga xizmat qiladi” nomli maqolasidan
- 3.Muxammadjonova Muxlisa Mahmudjon qizining “ Boshlang`ich sinf o`quvchilarining nutqini o`stirishda innovatsion metodlardan foydalanish” nomli maqolasidan
- 4“Kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirish “ o`quv-qo`llanma Toshkent-2001 8-20-betlar .



KICHIK VA KATTA OILALARDA TARBIYA TOPGAN O`SMIRLAR EMOTSIONAL INTELLEKTIDAGI FARQLAR

Xurramova Oygul Xudayberdiyevna

Pedagogika va jismoniy madaniyat Kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada intellektning mazmun mohiyati, katta va kichik oilalarda emotsional intellektni boshqarishning hissiy va ruhiy xususiyatlarining tomonlari shuningdek, o`smirlarda emotsional intellektni boshqarishning xususiyatlari ochib berilgan. Kichik va katta oilalarda tarbiya topgan o`smirlarning emotsional intellektidagi farqlar.

Kalit so`zlar: emotsional intellekt, faoliyat, neyronlar, qobiliyat, affektiv, psixika, stress, dinamik bog`liqlik, tafakkur, kreativ, kreativ ustanovka, konvergent fikrlash, temperament.

Абстрактный: В данной статье раскрываются сущность интеллекта, аспекты эмоционально-духовных особенностей управления эмоциональным интеллектом в больших и малых семьях, а также особенности управления эмоциональным интеллектом у подростков. Различия в эмоциональном интеллекте подростков, выросших в маленьких и больших семьях.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, активность, нейроны, способности, аффективный, психика, стресс, динамическая связь, мышление, креативность, творческая установка, конвергентное мышление, темперамент.

Abstract. This article reveals the essence of intelligence, the aspects of emotional and spiritual features of managing emotional intelligence in large and small families, as well as the features of managing emotional intelligence in teenagers. Differences in emotional intelligence of adolescents raised in small and large families.

Key words: emotional intelligence, activity, neurons, ability, affective, psyche, stress, dynamic connection, thinking, creative, creative ustanovka, convergent thinking, temperament.

Kirish. Bizga ma`lumki, emotsional intellekt- bu odamning boshqa odamlarning his-tuyg`ularini, niyatlarini, istaklarini tan olish qobiliyati,o`zining va boshqa odamlarning his-tuyg`ularini boshqara olish qobiliyatidir. Emotsional intellekt tushuntiruvchi 5 ta xususiyat mavjud:

- **O`z-o`zini bilish**- o`zini o`zi, aqliy va jismoniy xususiyatlarini o`rganish;

- **O`z- o`zini nazorat qilish**- bu maqsadlarga erishish uchun his-tuyg`ularni boshqarish qobiliyati;
- **Ijtimoiy ko`nikmalar**- bu boshqa odamlar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyati;
- **Empatiya**-bu boshqalarning his-tuyg`ularini aniqlash qobiliyati;
- **Motivatsiya**-insonni harakatga undovchi turtkidir;

Shuningdek, emotsional intellekt inson aqliy faoliyatining asosidir. Intelekt rivojlanishi uchun inson o`z ustida ishlashi kerak, kitob o`qishi, bilim olishi, jismoniy faoliyatda doimiy harakatda bo`lishi lozim. Inson intellektining asosiy ozuqasi tajriba va bilimlar hisoblanadi, shuning uchun ham bilim olishdan to`xtab qolgan inson fikrlash qobiliyati va ravon nutqini yo`qotadi.

Doimiy izlanishda bo`lish inson ong faoliyatiga keng foyda keltiradi. Mutaxassislarni fikricha inson ongi doimiy axborotlarni qabul qiluvchi hisoblanadi. Ong – insonda miya muskulida joylashgan, va asosan neyronlar bilan faoliyatda bo`luvchi hisoblanadi. Neyronlar ham bizga ma`lumki inson ongida axborot tashuvchi hujayra hisoblanadi, neyrohujayralar inson yashash faoliyatida eng muhim hujayradir, chunki siz-u bizni hatto nafas olishdan tortib, xayol surishimizgacha bo`lgan voqeeliklar neyronlar yordamida amalga oshadi.

Neyron hujayralarini rivoji va sustlashishi inson sog`lig`iga, ruhiyatiga bog`liqdir. Intellekt — bu insonning fikrlash, tushunish, muammolarni hal qilish va bilimlarni o`zlashtirish qobiliyati.

U bir nechta jihatlarni o`z ichiga oladi, jumladan:

1. Analitik qobiliyat: Muammolarni tahlil qilish va yechimlarni topish.
2. Ijodkorlik: Yangi g`oyalarni ishlab chiqish va innovatsion yondashuvlarni qo`llash.
3. Mantiqiy fikrlash: Sabab-natijani bog`lash va mantiqiy qarorlar qabul qilish.
4. Emotsional intellekt: O`zi va boshqalarning hissiyotlarini tushunish va boshqarish.

Intellekt insonning umumiy bilim, tajriba va ijtimoiy ko`nikmalarini hisobga olib, turli vaziyatlarda qanday munosabatda bo`lishini belgilaydi. Biz o`zbek xalqi bolajon xalqmiz. Katta va kichik oilalar tarkib topishi jamiyat hayotida juda kata muhim omil sanaladi. Oilada emotsional intellektni shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy muhit tarzini to`g`ri tashkil etish ma`suliyat talab etadi. Farzand bilan bir xil darajada o`tirish, chuqur nafas olish, dam olish va diqqatni jamlash lozim. Farzand ota-onasining e`tibori uning muammosiga jiddiy munosabatda ekanligini, vaqtini u uchun sarflashga tayyor ekanligini sezishi kerak. Bola ota-onasiga o`z his-tuyg`ulari haqida gapirganda, ota-onasi uni ehitayotganini va qiziqtirayotganini his qilishi lozim. Oila tarkibi u yashab istiqomat qiladigan hudud, oilaga yaratilgan shart-sharoitgaham bir muncha bog`liq sanaladi. Oilada farzandlar ko`p sonli bo`lgan oila bilan, kam sonli oila farzandlari o`rtasidagi emotsional farqlar tadqiqotlar davomida aniqlangan. Kichik va katta oilalarda tarbiya topgan o`smirlarning emotsional intellektidagi farqlar ko`plab omillarga bog`liq. Quyidagi nuqtalarda bu farqlarni ko`rib chiqamiz:

Kichik oilalarda

1. Emotsional qo`llab-quvvatlash: Kichik oilalarda, odatda, ota-ona farzandlariga ko`proq diqqat va e`tibor qaratadi, bu esa o`smirlarning emotsional intellektini rivojlantirishga yordam beradi.

2. O`zaro muloqot: Oila ichidagi muloqot va hissiy tajriba almashinuvi kuchliroq bo`lishi mumkin, bu o`smirlarni hissiyotlarini ifoda etishga va boshqalarni tushunishga o`rgatadi.

3. Hissiy bog`lanish: Kichik oilalarda farzandlar o`zlarining hissiy holatlarini yaxshiroq anglashadi va boshqalarning hissiyotlarini sezish qobiliyatlarini kuchli bo`ladi.

Katta oilalarda

1. Raqobat va stress: Katta oilalarda o`smirlar o`rtasida raqobat va stress ko`proq bo`lishi mumkin. Bu hissiy intellektni pasaytirishi mumkin, chunki o`smirlar o`z hissiyotlarini boshqarishda qiynalishlari mumkin.

2. Ijtimoiy ko`nikmalar: Katta oilalarda o`smirlar ko`proq ijtimoiy interaktsiyalarda ishtirok etadilar, bu ularni o`zaro muloqot qilishda yanada yaxshi qiladi. Biroq, individual e`tibor yetishmasligi hissiy bog`lanishni kamaytirishi mumkin.

3. Hissiy mustaqillik: Katta oilalarda tarbiya topgan o`smirlar ko`pincha o`z hissiy mustaqilligini rivojlantirishga ko`proq harakat qilishlari kerak bo`ladi, bu esa ularni boshqarish va muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kichik va katta oilalarda tarbiya topgan o`smirlarning emotsional intellekti turlicha rivojlanishi mumkin. Kichik oilalarda o`smirlar ko`proq hissiy qo`llab-quvvatlash va e`tibor oladilar, katta oilalarda esa ijtimoiy ko`nikmalar va mustaqillik rivojlanishi mumkin, ammo o`z hissiyotlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishlari ehtimoli yuqori. Shuningdek, emotsional intellekt tabiatini ochish boshqalarni tushunish, madaniyatini oshishiga xizmat qilishi tabiiydir. Chunki aqliy qobiliyat va emotsional qobiliyatlar bir-biriga bog`liqdir. Shaxsdagi emotsional kechinmalarining o`zgarishi albatta intellektual qobiliyatlarni ham o`zgarishiga olib kelishi mumkin. Inson o`z emotsiyalarini boshqara olishi albatta uni jamiyatda o`z o`rnini topishida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Adabiyotlar.

1. Андреева И. Н. Предпосылки развития эмоционального интеллекта. Вопросы психологии. 2017. №5. С. 57 - 65. .
2. Ontagenez psixologiyasi. Ergash G`oziyev.
3. "Umumiy psixologiya" P.I.Ivanov.
4. "Yosh davrlar psixologiyasi" M.G.Davletshin. 2004.

O'ZBEKISTONDA SOSIOLOGIYANI O'QITISH VA AHOLINI RO'YXATGA OLISH TADBIRLARI

Yusupov Rahimjon Karimovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti Sosiologiya va Ijtimoiy ish kafedrasida dosenti, tarix fanlari nomzodi, E-mail: yusupovrahimjon3664@gmail.com

Annotasiya.

Sotsiologiya fanini o'qitishda mamlakatda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, maqolada, Yangi O'zbekistonda umummilliy aholini ro'yxatga olish tadbiri, sotsiologiya fanini o'qitishning muhim uslubi sifatida o'rganiladi. Yangi O'zbekistonda umummilliy aholini ro'yxatga olish tadbiri bo'yicha tavsiyalar bayon qilinadi. Kalit so'zlar: aholi ro'yxati, hisobi, qo'ngilli yollanganlar, tarixiy-demografik jarayon.

ПРЕПОДАВАНИЕ СОЦИОЛОГИИ И МЕРОПРИЯТИЯ ПО ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация.

Данные переписи населения, проводимой в стране, имеют большое значение в преподавании социологии. В нашей республике очень необходима научная информация для преподавания социологии и изучению состояния демографических процессов. В статье представлены рекомендации по проведению общенациональной переписи населения в Новом Узбекистане.

Ключевые слова: перепись населения, учет, добровольный набор, историко-демографический процесс.

TEACHING SOCIOLOGY AND CENSUS EVENTS IN UZBEKISTAN

Annotation.

The data of the population census conducted in the country are of great importance in teaching sociology. In our republic, scientific information is very necessary for teaching sociology and studying the state of demographic processes. The article presents recommendations for conducting a nationwide population census in New Uzbekistan.

Key words: population census, registration, voluntary recruitment, historical and demographic process.

Mustaqil davlatimizning erkin va hur fikrlash imkoniyatiga ega bo'lgan fuqarolari, ayniqsa yosh avlodni, hozirgi davr talabiga javob beradigan, sotsiologiya fanini o'qitish usullarini o'rgatish zarur. Yangi O'zbekistonda umummilliy aholini ro'yxatga olish tadbiri, sotsiologiya fanini o'qitishning muhim manbalaridan biri sifatida qo'llaniladi. Hozirgi zamon kishisi aholi ro'yxati ma'lumotlarini to'plash tadbirida, respublika aholisining ishtiroki demokratiyaning zarur sharti deb baholanadi. Vaholanki, Yangi O'zbekistonda umummilliy aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad, sotsiologiya fani ilmiy usullaridan foydalangan holda, aholini rasmiy ro'yxatga olish ishlarining zamonaviy bosqichlarini to'liq yoritish.

Sotsiologiya fanini o'qitishni ilmiy jihatdan o'rganishni yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekistonda ham aholini ro'yxatga olish ishlari 2025-2026 yillarda o'tkazilishi bilan amalga oshirish rejalashtirilgan[1]. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-mart kuni imzolagan 114-sonli qarorida aholini ro'yxatga olishning barcha qoidalari, fuqarolar, uy xo'jaliklari, korxonalar va muassasalarning qaysi toifalari ro'yxatga olinishi, aholini ro'yxatga olishni kim o'tkazishi, so'rov varaqalari qanday bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Mustaqillik sharoitida hali biror marta O'zbekistonda aholini ro'yxatga olishi amalga oshirilmagan. Zero, har bir mamlakat, viloyat, shahar yoki tuman aholisi to'g'risida fikr yuritish uchun aholi soni, yosh jinsiy, milliy, diniy tarkibi, aholining tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish, nikohdan o'tish yoshi, ajralishlar to'g'risida ma'lumotlar lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhiga ko'ra, tadqiq etilayotgan aholini hisobga olish va aholi ro'yxati masalalari to'g'risida professorlar, N. S. Aliqoriyev, R. T. Ubaydullayeva, M.X.Ganiyeva, A.J.Xolbekov, K.K.Kalonov, B.A.Farfiyev[2], R. A. Ubaydullayeva, M.B.Bekmurodov va O.B.Ota-Mirzayev[3], M.Qirg'izboyev [4] kabi sosiologlar juda yaxshi ma'lumotlarni ko'rsatganlar. Ularning fikricha, sobiq tuzum davrida sosiologiya fani avval inkor etildi, keyinchalik jahon sosiologiyasining yutuqlari ta'sirida uni e'tirof etishga majbur bo'lganlarida unga e'tibor berilmadi. XX-asrning yirik sosiologlaridan biri – Entoni Giddens[5] ham o'z asarlarida o'rganilayotgan muammolarni atroflicha tahlil qilgan. Darhaqiqat, sosiologiya jamiyatning ko'zgidir.

Totalitar tuzum davrida O'zbekistonda sosiologiya fani bo'yicha birorta ham darslik yoki o'quv qo'llanma yaratilmadi, bu fan bo'yicha oliy malakali mutaxassislar tayyorlanmadi. Mustaqillik qo'lga kiritilganidan keyingina bunday darsliklar va o'quv qo'llanma, ma'ruzalar matnlari yaratish imkoniyati paydo bo'ldi, jumladan bu sohada I.Negmatov [6], M.N.Normamatova [7], G.G.Tagiyeva [8], M.B.Sherov [9], D.H.Baxriyeva [10], M.U.Tangirova [11], R.K. Yusupov[12], ham katta va dadil qadamlar qo'yidilar. Bilvosita sosiologiya fani bo'yicha o'zbek, rus va tojik tillaridagi adabiyotlar - yangi darslik, o'quv qo'llanmalar, risolalar va ilmiy maqolalar bilan boyitildi. Yangi O'zbekistonda sotsiologiya fanini o'qitish va sosiologik tadqiqotlarni tashkil etishning dolzarb masalalari borasida bir qator konferensiyalar ham o'tkazildi[13], biroq mustaqillik yillarida aholini ro'yxatga olish tadbirlari hamon o'tkazilmasdan qolmoqda edi.

Bugun qabul qilingan qonun, farmon va qarorlarga ko'ra aholini ro'yxatga olish butun O'zbekiston yoki muayyan hududlar bo'yicha o'tkazilib, demografik sana va aholining ijtimoiy-iqtisodiy xarakteristikasini aniqlashga

haratilgan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash tartiblarini belgilandi [14]. Ushbu muhim hujjatlarga ko'ra, ro'yxatga olishning asosiy maqsadi — O'zbekistonda aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratligi belgilangandir.

Tadqiqot metodologiyasi R.T.Ubaydullayeva [15] va P.L. Berger [16] larning ilmiy tadqiqotlarida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu asarlarda, sosiologiyaning rivojlanishida ijtimoiy jarayonlarning jamoatchilik ongida aks etishi muammolari, ilmiy, o'quv, uslubiy maqsadlarda keng foydalaniladi. Shuningdek, professor M.X. G'aniyevaning "O'zbekistonda sosiologiya: holati va istiqbollari" mavzusidagi ilmiy maqolasidan ham uslubiy foydalanildi [17]. Ushbu ilmiy maqolada sotsiologiya fanining O'zbekistonda ustivor yo'nalishlari va rivojlanish istiqbollari haqidagi fikrlari ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda, tarixiy demografiya va demografik tarix fanlari chorrahasida joylashgan manbalar tahlilidan, sotsiologiyani o'qitish uslublaridan ham foydalanildi.

Ayni paytda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan butun dunyo aholisini hisobga olish tadbirlari olib borilgan. BMT tomonidan har yili yillik demografik to'plam nashr etiladi. Aholi ro'yxati ma'lum bir davrda o'tkaziladigan tadbir bo'lib, unda aholiga doir barcha ma'lumotlar yig'iladi. Bu ma'lumotlar baholanadi, tahlil qilinadi va natijalari chop etiladi. Aholi ro'yxati paytida demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar mamlakatning har bir fuqarosi bilan suhbat asosida yig'iladi. Aholini ro'yxatga olishdan maqsad aholi soni, tarkibi, aholining joylashuvi, ijtimoiy holati kabi bir qancha ma'lumotlarni yig'ishdan iborat. Bu ma'lumotlar har bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida katta o'rin tutadi. Ushbu sabab tufayli, aholiga doir barcha ma'lumotlar faqatgina aholini ro'yxatga olish jarayonida to'planib, tahlil qilinadi va turli tadqiqotlarda o'rganiladi [18].

Manbalarda keltirilishicha, respublikamizda demografik jarayonlarning holatini o'rganishda mamlakat hududida o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston hududida dastlabki aholi ro'yxati 1897 yilda Turkiston general-gubernatorligi tomonidan o'tkazilgan. Bu boradagi ma'lumotlar XIX asr oxirida O'zbekistonda mavjud oilalar (va aholi) soni, yoshi va jinsi, etnik tarkibi, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar haqida tassavvur hosil qilishga yordam bergan. O'zbekiston hududida keyinchalik 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda aholini ro'yxatga olish ishlari tashkil etilgan. Respublikamizda oxirgi marta aholini ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilganligiga 35 yil bo'ldi. Buning natijasida aholining haqiqiy hayot tarzini o'rganish va ularga amaliy yordam ko'rsatishda qator qiyinchiliklar vujudga keldi.

Eng yangi zamonda BMT, 2015 yilning 10 iyunida "2020 yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar" rezolyusiyasini qabul qildi. Unga ko'ra, BMTga a'zo davlatlar kamida bir marta aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazishi belgilab qo'yildi. Bugungi kunga kelib, MDH davlatlarida, shuningdek Yangi O'zbekistonda ham bu jarayonga tayyorgarlik ishlari boshlandi.

Prezidentimizning 2019 yil 5 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [19], keyinchalik 2019 yilning 16 mart kuni imzolangan "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonun [20] bu borada huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonun aholini ro'yxatga olish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, aholini ro'yxatga olishni o'tkazishning maqsadi, asosiy prinsiplari, tartibi, davri va muddatlarini belgilab bergan.

"Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonun [20] asosiy maqsadi, aholi tarkibining holati va rivojlanish dinamikasi haqida mamlakatni sosial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishonchli va xolis axborotni olishdan iboratdir. Aholini ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risidagi taklif Hukumat tomonidan Prezidentga, qoidaga ko'ra, rejalashtirilayotgan sanadan uch yil oldin kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevralidagi "O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida [19] aholini ro'yxatga olishni o'tkazishning maqsadi, asosiy vazifalari, bosqichlarini belgilab berilgan. Aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga hamda ma'lumotlarni qayta ishlashga jalb etilgan xodimlarning mehnatiga haq to'lash maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan normativlar asosida amalga oshiriladi. Jarayonni Davlat byudjeti mablag'lari va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish ko'zda tutilgan.

Sotsiologiyani o'qitishda mamlakatda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlarini o'rganish tahlili va natijalari ifodalaydiki, aholini ro'yxatga olish natijalari jamiyatimizni yanada kuchaytirishga imkoniyat, O'zbekistonda ham aholini ro'yxatga olish ishlari 2025-2026 yillarda o'tkazilishini amalga oshirishga xizmat qilishi belgilandi [1]. Bu jarayonga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha, xususan, 2021- yilda o'tkazilgan sinov natijalari va xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida aholini ro'yxatga olish savollari shakllarini takomillashtirish ishlarini amalga oshirish kerakligi bildirilgan edi. Bundan avval, koronavirus pandemiyasi tufayli mazkur tadbirni o'tkazish muddati uzaytirilib, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabridagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, respublikada aholini ro'yxatga olish ishlari 2023-yilning 1-25 noyabrida o'tkazilishi belgilandi [21]. O'sha paytda aholini ro'yxatga olish tadbiri faqat aholi sonini aniqlash bilan cheklanmasdan, uy-joy, bandlik, oilaviy holat, turmush farovonligi kabi bir nechta mezonlarni aniqlashtirishga xizmat qilishi bilan ham rejalashtirilgandi.

Vaholanki, jahon tajribasi va mamlakatimizda bu tadbir birinchi bor o'tkazilayotganini hisobga olib, 2021 yilda "O'zbekistonning bir qismi bo'l" shiori asosidagi tadbir ikki bosqichda o'tkazildi. Ya'ni, birinchi bosqichda 1-10 noyabr kunlari fuqarolar ixtiyoriy ravishda va internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishi belgilandi, ikkinchi

bosqich - 11 noyabrdan xonadonlarda ro'yxatga olish ishlari olib borildi. Aholini ro'yxatga olish uchun so'rovnomaga 53 ta savol kiritildi. Ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash uchun Samarqand viloyatining Narpay va Jomboy tumanlaridan boshqa barcha hududlarida statistika bo'limlarining binolari va arxiv xonalari tashkil etildi. Bundan tayorgarlik ishlari respublikaning barcha hududlarida ham olib borildi. Masalan, 2021 yil 1-25 noyabr kunlari Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent shahrining Yashnobod tumanida sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi [22].

Ro'yxatga olish jarayonlari 3 xil usulda, ya'ni internet tarmog'i orqali, planshet va qog'oz usullarida tashkil etildi. Sinov jarayonlarida planshet usulida aholini ro'yxatga olish qog'oz usuliga nisbatan qulayligi, tezkorligi va iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanini ko'rsatdi. Ma'lumki, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, aholini ro'yxatga olish ishlariga sarflanadigan mablag' miqdori aholi jon boshiga o'rta 3 AQSh dollaridan to'g'ri kelishi mumkinligi aytilgan edi. Bu xarajatlar davlat byudjetidan qoplanishi ham belgilandi [23].

Xullas, O'zbekistonda sotsiologiya fanining keyingi rivojlanishida yuqori malakali mutaxassis sotsiologlar va amaliyotchi tadqiqotchi kadrlarni tayoyrlashni kuchaytirish nihoyatda muhimdir. O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishi nihoyatda dolzarbdir. Vatanimiz tarixiy-demografik rivojlanishida va sotsiologiya fani o'qitilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu mavzu, kelgusida xalqaro hamjamiyat tomonidan albatta qo'llab-quvvatlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.03.2024 й. ПҚ-114-сон "Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Статистика агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори <https://lex.uz/docs/6826200#:~:text=%D0%A3%D0%>
2. Умумий социология. Дарслик. //Илмий муҳаррирлар: Н. С. Алиқориев, Р. Т. Убайдуллаева. – Тошкент, ТошДУ нашри. 1999 йил, - 183 бет.
3. Убайдуллаева Р. А., Бекмуродов М., Ота-Мирзаев О.Б., ва бошқалар. Социология. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 2002.
4. Қирғ'izboev М. Сotsiologiya: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 464 b.
5. Гидденс Энтони. Социология: Олий ўқув юртлари учун қўлланма/Тарж. Н.Маматов ва Ж.Бегматов. – Т.: Шарқ, 2002. – 848 б.
6. Negmatov I. Ijtimoiy ish nazariyasi va tarixi. Darslik. Samarqand.: SamDU. 2023. 436 bet.; G'aniyeva M.N., Latipova N.M., Negmatov I., Sherov M.B. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2015. – 352 bet; Negmatov I. Ijtimoiy ishning etik-professional kadrlari. Ўқув қўлланма. Самарқанд, 2020 йил.
7. Normamatova M.N. Ijtimoiy ish nazariyasi. Darslik. – SamDU, 2023. – 303 b.; Normamatova M.N. Акмеология. Услугий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. б. 104.; Normamatova M.N. Оила ва болаларга тиббий, психологик ёрдам кўрсатишнинг илмий асослари. Услугий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. б. 62.; Normamatova M.N. Ижтимоий иш назарияси Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2020. б. 274; Normamatova M.N. Девиант хулк атвор социологияси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022 йил. - 289 бет.
8. Tagieva G.G., Husanova N.T. Oila va gender sotsiologiyasi. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 304 bet; Tagieva G.G., Latipov R.M., Xujanov Z.B. Социология. Ўқув қўлланма. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2020 йил.; Tagieva G.G., Latipova N.M. Ёшлар социологияси. Ўқув қўлланма. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2020 йил.
9. Sherov M.B. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi. Darslik. Samarqand: SamDU. 2023. 310 bet.; Sherov M.B. Sotsiologiya tarixi. Darslik. Samarqand: SamDU. 2023. 324 bet; G'aniyeva M.N., Qayumov Q.N., Sherov M.B. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2020. – 259 bet.
10. Бахриева Д.Х. Социальная работа с различными группами населения. Учебное пособие. - Samarqand. SamDU nashri. 2023; Намунаи ҳамкори азалӣ ва абадӣ дар симои Абдурахмони Чомӣ ва Алишер Навоӣ.Международное сотрудничество вузов важный фактор повышения качества образования.Материалы международной научно-практической конференции.Худжанд.2018. - С.465-467.
11. Tangirova M.I. Turli guruh va qatlamlar bilan ijtimoiy ish olib borish. Darslik. Samarqand.: SamDU. 2023. 280 bet.; Tangirova M.I. Turli guruh va qatlamlar bilan ijtimoiy ish olib borish. O'quv qo'llanma. Samarqand.: SamDU. 2022 y.
12. Yusupov R.K. Gerontologiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023, – 204 bet.; Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O'quv qo'llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 208 bet.
13. Социологияни ўқитиш ва социологик тадқиқотларни ташкил этишнинг долзарб масалалари. Республика илмий – амалий конференция материаллари тўплами.–Тошкент: УзМУ; 2018 й.; «Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O'zMU, 2023. – 310 b.; Raqamli ijtimoiy ish va aholi ximoyasi: muammolar, echim, istiqbollar. – Samarqand: SamDU nashriёти, 2023 й. – 220 б.; “Oliy ta'lim muammolari va ijtimoiy-gumanitar bilimlarning zamonaviy an'analari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021 y.-204 b., va boshqalar.

14. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.03.2024 й. ПҚ-114-сон "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори [https://lex.uz/docs/6826200#:~:text=%D0%A3%D0%";](https://lex.uz/docs/6826200#:~:text=%D0%A3%D0%) Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.02.2019 йилдаги ПФ-5655-сон // <https://lex.uz/docs/4190059#:~:text=> ; O'zbekistonda aholini ro'yxatdan o'tkazish yana kechiktirilishi mumkin. Bu texnik sabab bilan izohlanmoqda// <https://kun.uz/news/2023/07/29/ozbekis> ; Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 16.03.2020 йилдаги ЎРҚ-611-сон// <https://lex.uz/docs/4766082?ON>
15. Убайдуллаева Р.Т. Гуманистическая Социология: Теория, методология и метод. – Тошкент «Университет», 2010.
16. Бергер П.Л. Приглашение в социологию. Гуманистическая перспектива. – М.: Аспект Пресс, 1996.
17. Ганиева М.Х. Социология в Узбекистане: состояние и перспективы. https://www.researchgate.net/publication/336530952_MGanieva_SOCIOLOGIA_V_UZBEKISTANE_SOSTOANI_EI_PERSPEKTIVY#:~:text=http%3A%2F%2Flex.uz,-21
18. Демографический энциклопедический словарь/Редкол.: Валентей Д.И. (гл.ред.) и др. - М. : Сов. энциклопедия, 1985. – 313-325 стр.
19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.02.2019 йилдаги ПФ-5655-сон // <https://lex.uz/docs/4190059#:~:text=>
20. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 16.03.2020 йилдаги ЎРҚ-611-сон// <https://lex.uz/docs/4766082?ON>
21. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори Ўзбекистон Республикасида 2023 йилда аҳолини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида. <https://lex.uz/docs/5093951#:~:text=>
22. O'zbekistonda aholini ro'yxatdan o'tkazish yana kechiktirilishi mumkin. Bu texnik sabab bilan izohlanmoqda// <https://kun.uz/news/2023/07/29/ozbekistonda-aholini-royxatdan-otkazish-yana-kechiktirilishi-mumkin-bu-texnik-sabab-bilan-izohlanmoqda#:~:text=O%E2%80%98zbekistonda%20aholini%20ro%E2%80%98yxatdan.%23demografiya>



FACTORS INFLUENCING SELF-DIRECTED LEARNING IN DISTANCE EDUCATION

Zokhidov S.I

PhD student at National university of Uzbekistan +998943490617

zokhidovsamandar41@gmail.com

Abstract. Self-directed learning (SDL) is vital for students in distance education environments, where they must take responsibility for their own learning process. This article examines the key factors influencing SDL, such as motivation, digital literacy, self-regulation, peer interaction, and feedback. It discusses how these factors interact to foster SDL in online education. By understanding these elements, educators can design more effective learning environments that promote student autonomy and success.

Keywords : Self-directed learning, distance education, motivation, digital literacy, self-regulation, peer interaction, feedback, online learning, learner autonomy, cultural influences.

Аннотация . Самостоятельное обучение (SDL) играет важную роль в дистанционном образовании, где студенты должны нести ответственность за свой учебный процесс. В статье рассматриваются ключевые факторы, влияющие на развитие SDL, такие как мотивация, цифровая грамотность, саморегуляция, взаимодействие с ровесниками и обратная связь. Также обсуждается, как эти факторы взаимодействуют для содействия SDL в онлайн-образовании. Понимание этих аспектов поможет преподавателям разрабатывать более эффективные учебные среды, способствующие автономии и успеху студентов. **Ключевые слова:** Самостоятельное обучение, дистанционное образование, мотивация, цифровая грамотность, саморегуляция, взаимодействие с ровесниками, обратная связь, онлайн-обучение, автономия учащихся, культурные влияния.

Annotatsiya. Ta'limda o'z-o'zini boshqarish (SDL) masofaviy ta'lim muhitida talabalar o'z ta'lim jarayonlarini boshqarishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlari zarur bo'lgan muhim qobiliyat hisoblanadi. Ushbu maqola SDLga ta'sir etuvchi asosiy omillarni, jumladan motivatsiya, raqamli savodxonlik, o'zini boshqarish, tengdoshlar bilan o'zaro ta'sir va fikr-mulohaza kabi elementlarni o'rganadi. Ushbu omillar masofaviy ta'limda SDLni qanday rivojlantirishi haqida muhokama olib boriladi. Ushbu jihatlarni tushunish orqali o'qituvchilar talabalar mustaqilligini va muvaffaqiyatini oshiradigan samarali o'quv muhitlarini yaratishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'limda o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya, raqamli savodxonlik, o'zini boshqarish, tengdoshlar bilan o'zaro ta'sir, fikr-mulohaza, onlayn o'qitish, talaba mustaqilligi, madaniy ta'sirlar.

Introduction. The rapid expansion of distance education has shifted the responsibility for learning more toward the students themselves. In traditional classrooms, educators guide the learning process through direct interactions, but in online settings, students must take on more responsibility for their educational progress. This transition highlights the importance of self-directed learning (SDL), a process in which learners take control over key aspects of their education, such as identifying learning needs, setting goals, choosing resources, and evaluating outcomes [1].

SDL is not just about working independently; it involves a complex interaction between motivation, skills, and strategies. For students in distance education, cultivating SDL is critical for success, given the nature of the learning environment, which may lack continuous direct instruction. In this article, we explore the key factors that influence the development of SDL in distance education, considering both individual and contextual elements that impact learner autonomy.

Theoretical Foundations of Self-Directed Learning. SDL is rooted in several educational theories that emphasize learner autonomy and active participation in the learning process. Two primary theoretical foundations for SDL are constructivism and self-regulation theory. Constructivist theory posits that learners actively construct their own understanding by interacting with information and their environment [2]. In SDL, students are not passive recipients of knowledge but rather active agents who take responsibility for their own learning journey. Constructivism highlights the importance of experiences, reflection, and critical thinking in the learning process, making it a natural fit for SDL in distance education. Similarly, Knowles' [1] concept of andragogy focuses on adult learners, who are assumed to be more self-directed and capable of taking initiative in learning. Knowles suggested that adult learners thrive in environments where they can take responsibility for their learning, reflecting SDL's principles.

Factors Influencing Self-Directed Learning in Distance Education

A variety of individual and contextual factors influence SDL in distance education. These factors determine how effectively learners can take control of their education and manage their learning experience in an online setting. Motivation is one of the most important predictors of SDL. **Intrinsic motivation**—the internal desire to engage in an activity for its own sake, rather than for external rewards—is particularly crucial in distance education, where learners often study in isolation [3]. Unlike face-to-face classrooms, where immediate social and academic interactions can provide extrinsic motivators (e.g., praise, grades), distance learners need to rely more on their internal drive to stay engaged. **Intrinsic motivation** is linked to higher levels of engagement in SDL activities, such as:

- Setting personal learning goals
- Seeking out additional resources
- Persevering through challenges without direct external reinforcement [4].

Educators can foster intrinsic motivation by making learning materials relevant to students' personal and professional goals. Providing real-world applications, engaging tasks, and autonomy in choosing projects can help increase learner interest and commitment [5]. Higher levels of **technological proficiency** are associated with greater confidence in self-directed learning behaviors, such as:

- Accessing and organizing learning materials
- Using digital tools for self-assessment
- Participating in online discussions and collaborations

Learners with limited technological skills may struggle to engage effectively with online content, which can impede their ability to manage their own learning. Institutions must provide adequate training and resources to ensure that all students can develop the necessary digital literacy to succeed in an SDL environment ([7]. The design of the online learning environment plays a pivotal role in supporting SDL. A well-structured learning environment allows for flexibility, offering learners the freedom to choose when, where, and how they engage with course materials [8].

Courses designed with **flexibility and choice** in mind promote SDL by:

- Allowing learners to control the pacing of their studies
- Offering diverse learning resources (videos, readings, interactive modules) to cater to different learning styles
- Incorporating self-assessment tools that enable students to track their progress and reflect on their learning.

In addition, environments that provide opportunities for **problem-based learning** and real-world applications help students actively engage with content and take ownership of their learning process [9].

Self-Regulation and Time Management. Effective self-directed learners must be able to self-regulate their learning activities. Self-regulation refers to the process by which learners set goals, monitor their progress, and

adjust their strategies to meet their objectives [10]. In distance education, where learners often work independently, self-regulation becomes essential for managing tasks and maintaining momentum. Time management is a key component of self-regulation. Without the structure of a traditional classroom, distance learners must create their own study schedules and balance coursework with other responsibilities. Effective time management involves:

- Setting clear, achievable goals
- Breaking tasks into manageable steps
- Monitoring progress regularly to stay on track

Educators can help students develop self-regulation and time management skills by providing tools such as progress trackers, reminders, and templates for setting study schedules [11].

Peer Interaction and Social Learning. Although SDL emphasizes learner autonomy, social interaction remains an important factor in facilitating effective learning. Social constructivism suggests that learning is inherently social and occurs through interaction with others [2]. In distance education, opportunities for peer interaction through discussion forums, group work, and collaborative projects can enhance SDL by:

- Encouraging learners to share resources and strategies
- Providing opportunities for feedback and reflection
- Offering emotional support and motivation

Collaboration in online environments can also reduce feelings of isolation, increasing learners' engagement and willingness to take initiative in their learning [12]). Building strong learning communities within online courses can thus support SDL by fostering a sense of belonging and shared responsibility. **Feedback and Reflective Practice.** Feedback is critical in supporting SDL, as it provides learners with information on their progress and helps them adjust their learning strategies accordingly [13]. In distance education, feedback may come from instructors, peers, or automated systems. **Timely and constructive feedback** encourages learners to reflect on their learning process, which is a crucial aspect of SDL. **Reflective practice**, a key element of SDL, involves learners evaluating their own understanding and performance, identifying areas for improvement, and adapting their approaches. Educators can foster reflective practice by incorporating:

- Self-assessment tasks
- Reflective journals
- Peer feedback opportunities

Through reflection, students develop the metacognitive skills necessary to become more self-directed learners [14].

Cultural and Social Influences. Cultural factors can significantly influence SDL. Learners from cultures that emphasize individualism may be more naturally inclined to adopt self-directed learning behaviors, while those from collectivist cultures may prefer learning environments that emphasize collaboration and guidance from instructors [15]. Social support from family, peers, and professional networks can also impact SDL. In distance education, learners who have a strong support system may be more motivated to persevere and take responsibility for their learning [16]. Educators should consider these cultural and social differences when designing online courses, ensuring that all learners have the resources and support they need to succeed in an SDL environment.

Conclusion. Cultivating SDL in distance education is a complex, ongoing process that requires a holistic approach. Educators must create learning environments that support autonomy while offering the resources and structure necessary for students to develop the skills they need to succeed. Additionally, institutions should invest in building learners' digital literacy and self-regulation abilities, ensuring that students are equipped to navigate the challenges of online learning. As the landscape of education continues to evolve, fostering SDL will become increasingly important in preparing learners for the demands of lifelong learning in a digital age. By addressing the factors outlined in this article, educators and institutions can better support the development of SDL, leading to improved outcomes and greater success for students in distance education.

References

1. Knowles, M. S. (1975). *Self-directed Learning: A Guide for Learners and Teachers*. Englewood Cliffs, NJ: Cambridge Adult Education.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. New York: Plenum Press
4. Song, L., & Hill, J. R. (2007). A conceptual model for understanding self-directed learning in online environments. *Journal of Interactive Online*
5. Reeve, J. (2009). Why teachers adopt a controlling motivating style toward students and how they can become more autonomy supportive. *Educational Psychologist*, 44(3), 159-175.
6. Eshet-Alkalai, Y. (2004). Digital literacy: A conceptual framework for survival skills in the digital era. *Journal of Educational Multimedia and Hypermedia*, 13(1), 93-106.
7. Lee, M. H., Tsai, C. C., & Wang, T. I. (2008). Exploring the relationships between students' perceptions of the internet and self-regulation in online learning. *Computers & Education*, 50(4), 1485-1498.
8. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95-105.

9. Jonassen, D. H. (1991). Evaluating constructivist learning. *Educational Technology Research and Development*, 39(3), 45-56.
10. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. *Theory into Practice*, 41(2), 64-70.
11. Schunk, D. H., & Zimmerman, B. J. (2007). Influencing children's self-efficacy and self-regulation of reading and writing through modeling. *Reading & Writing Quarterly*, 23(1), 7-25.
12. Stavredes, T., & Herder, T. (2013). A guide to online course design: Strategies for
13. Nicol, D. J., & Macfarlane-Dick, D. (2006). Formative assessment and self-regulated learning: A model and seven principles of good feedback practice. *Studies in Higher Education*, 31(2), 199-218.
14. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books.
15. Hofstede, G. (1986). Cultural differences in teaching and learning. *International Journal of Intercultural Relations*, 10(3), 301-320.
16. Rogoff, B. (2003). *The Cultural Nature of Human Development*. New York: Oxford University Press.



СИФАТЛИ ТАЪЛИМНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЖАХОН ТАЖРИБАСИ.

¹Ахмедов А.Ю., ²Абдуносирова Н., ³Мажнунова Р.

¹ University of Business and Science "нодавлат олий таълим муассасаси Менежмент ва рақамлаштириш" кафедраси доценти, и.ф.н.

² Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган журналист

³ University of Business and Science "нодавлат олий таълим муассасаси Иқтисодиёт факультети 3 курс талабаси

QO‘LLANILISHI – ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В
ОТРАСЛЯХ ЗНАНИЙ – APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE
FIELDS.**

SUN‘IY INTELLEKTNI TURLI SOHALARDA QO‘LLASH

Abdullayeva Dilshoda Abdulla qizi,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali 2- bosqich talabasi
dilshodaabdullayeva17072005@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy dasturlash tillari va ularning turlari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, zamonaviy dasturlash tillari, kompyuter dasturlash sohasidagi texnologiyalarni o‘rganish, dasturlarni yaratish, ulardagi xatolar va kamchiliklarni aniqlash, foydalanuvchi interfeyslarini yaratish va turli sohalarda dasturlarni qo‘llash uchun ishlatilishi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek zamonaviy dasturlash tillarining turli imkoniyatlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Su‘niy intellekt (SI), sog‘liqni saqlash, moliyaviy sektor, transport, ta‘lim, sanoat, ijtimoiy tarmoqlar.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются современные языки программирования и их виды, а также представлена информация о том, как современные языки программирования используются для изучения технологий компьютерного программирования, создания программ, выявления в них ошибок и недостатков, создания пользовательских интерфейсов и применения программ в различных областях. Также освещены различные возможности современных языков программирования.*

***Ключевые слова:** Искусственный интеллект (ИИ), здравоохранение, финансовый сектор, транспорт, образование, промышленность, социальные сети.*

***Abstract.** This article discusses modern programming languages and their types, and provides information on how modern programming languages are used to study computer programming technologies, create programs, identify errors and flaws in them, create user interfaces, and apply programs in various fields. Various capabilities of modern programming languages are also covered.*

***Keywords:** Artificial intelligence (AI), healthcare, financial sector, transportation, education, industry, social networks.*

Kirish: Sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalari bugungi kunda turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda va ularning rivojlanishi bilan bir qatorda jamiyat hayotining ko‘plab jihatlarini o‘zgarib bormoqda. SI, kompyuterlar va boshqa dasturiy tizimlarga inson aql-idrokini takrorlash va mashina o‘rganish orqali muammolarni hal qilish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar sog‘liqni saqlash, moliyaviy sektor, transport, ta‘lim, sanoat va ijtimoiy tarmoqlar kabi ko‘plab sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Sog‘liqni saqlashda SI tibbiy diagnostika va bemorlarni monitoring qilishni sezilarli darajada yaxshilaydi. Moliyaviy sektorda risklarni baholash va firibgarlikni aniqlashdagi yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Transport sohasida esa avtomatik haydovchi tizimlari va trafik boshqaruvi orqali xavfsizlikni oshirishga yordam beradi. Ta‘limda SI shaxsiylashtirilgan ta‘lim dasturlarini yaratish va o‘quv jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Sanoat sohasida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mahsulot sifatini nazorat qilishni imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa foydalanuvchilarning xulq-atvorini tahlil qilish va kontentni shaxsiylashtirish orqali foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi. Bu kirish qismining maqsadi sun‘iy intellektning turli sohalarda qo‘llanilishining ahamiyatini ko‘rsatish va ularning har bir sohada qanday innovatsiyalar va o‘zgarishlar olib kelayotganini tushuntirishdir. SI texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, ularning qo‘llanilishidagi yangi yo‘nalishlar va muammolar yuzaga kelishi kutilmoqda, bu esa ularning ta‘sirini yanada chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Sun‘iy intellekt (SI) sohalarda qo‘llanilishiga doir adabiyotlarni tahlil qilish, ushbu texnologiyaning amaliyotdagi o‘rni va samaradorligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Quyida, sun‘iy intellektning turli sohalardagi qo‘llanilishi bo‘yicha adabiyotlar tahlili keltirilgan:

Sog‘liqni saqlash.

Tibbiy diagnostika: Adabiyotlarda SI texnologiyalarining tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda qo‘llanilishi ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Masalan, convolutional neyron tarmoqlari (CNN) yordamida rentgen, MRT va KT tasvirlarini tahlil qilish samaradorligi o‘rganilgan (Litjens et al., 2017). Ushbu tadqiqotlar SI tizimlarining yuqori aniqlik va tezlik bilan kasalliklarni aniqlashda qanday foydali bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ta‘lim.

Shaxsiylashtirilgan ta‘lim: Adabiyotlarda SI yordamida shaxsiylashtirilgan ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish va ta‘lim jarayonini optimallashtirish bo‘yicha tadqiqotlar mavjud (Heffernan & Heffernan 2014). Ushbu tadqiqotlar, SI texnologiyalari ta‘lim samaradorligini qanday oshirishini ko‘rsatadi.

O‘quvchi monitoringi: SI yordamida o‘quvchilarning muvaffaqiyatini va rivojlanishini kuzatish bo‘yicha metodlar o‘rganilgan (Baker et al. 2019).

Su‘niy intellektni sohalarda qo‘llanilishi.

1. Sog‘liqni saqlash:

Diagnostika. SI tizimlari rentgen, MRI va CT tasvirlarini tahlil qilishda ishlatiladi. Masalan, DeepMind kompaniyasining SI modeli ko'krak rakini aniqlashda shifokorlar bilan taqqoslaganda yuqori aniqlikni ko'rsatgan.

Shaxsiylashtirilgan tibbiyot: IBM Watson for Oncology, o'zining katta ma'lumotlar bazasidan foydalanib, individual bemorlar uchun moslashtirilgan davolash rejalarini taklif qiladi.

2. Moliyaviy sektor:

Firibgarlikni aniqlash: SI tizimlari bank kartalaridagi firibgarliklarni aniqlashda ishlatiladi. Masalan, MasterCard va Visa kabi kompaniyalar SI yordamida oddiy tranzaksiyalardan anomalialarni tezda aniqlaydi.

Investitsiya tahlili: Goldman Sachs va boshqa investitsiya banklari SI yordamida bozor tendentsiyalarini tahlil qilib, investitsiya qarorlarini optimallashtiradi.

3. Transport:

Avtomatik Haydovchi Tizimlar: Tesla va Waymo kabi kompaniyalar avtomatik haydovchi tizimlar yaratishda SI texnologiyalaridan foydalanadi. Bu tizimlar avtomobilni to'liq yoki qisman avtomatik ravishda boshqarishga imkon beradi. Trafik Boshqaruvi: SI yordamida, masalan, Singapurda, trafik oqimini boshqarish va tirbandliklarni kamaytirish uchun aqlli trafik yoritish tizimlari ishlatiladi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar:

Kontent shaxsiylashtirish: Facebook va Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar SI yordamida foydalanuvchilarga qiziqarli bo'lgan kontent va reklama takliflarini beradi.

Xulq-atvor tahlili: SI texnologiyalari, masalan, Twitter va YouTube kabi platformalarda foydalanuvchilarning xulq-atvorini tahlil qilib, moslashtirilgan tajribalar yaratishda ishlatiladi.

Su'niy intellektni sohalarda qo'llanilishini rivojlantirish.

Su'niy intellekt (SI) texnologiyalarining sohalarda qo'llanilishini rivojlantirish uchun bir qator ishlar amalga oshirilishi kerak. Quyida bu yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan asosiy ishlar keltirilgan:

Tadqiqot va rivojlanish:

Yangi algoritmlar va modelar: SI texnologiyalarining samaradorligini oshirish uchun yangi algoritmlar va modelar ishlab chiqish. Yangi arxitekturalar va metodologiyalarni izlash, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish.

Ma'lumotlar Tahlili: SI tizimlarining ishlashini yaxshilash uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni to'plash. Katta ma'lumotlar (big data) tahlili va yangi ma'lumotlar bazalari yaratish.

Infratuzilma yaratish:

Texnologik platformalar: SI tizimlari uchun yuqori samarali texnologik platformalar va infratuzilma yaratish. Bu, bulutli hisoblash (cloud computing), kuchli kompyuter tarmoqlari va saqlash yechimlarini o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlar xavfsizligi: SI texnologiyalarining samarali va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylikni oshirish.

Xulosa. Su'niy intellekt (SI) texnologiyalari, hozirgi kunda ko'plab sohalarda inqilobiy o'zgarishlar yaratmoqda. Har bir sohada SI qo'llanilishi mavjud jarayonlarni optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va yangi imkoniyatlar yaratishda katta rol o'ynaydi. Umuman olganda, su'niy intellektning sohalarda qo'llanilishi mavjud jarayonlarni yangilash va samaradorlikni oshirish imkoniyatini taqdim etadi. SI texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, ular jamiyat hayotining turli jihatlarida yanada katta o'zgarishlarga olib kelishi kutilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi muammolar va imkoniyatlarni yuzaga keltiradi, shu bilan birga, su'niy intellektning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini chuqurroq o'rganishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Artificial Intelligence: A Modern Approach" (Stuart Russell va Peter Norvig) – SI asoslari, texnologiyalari va algoritmlar haqida keng qamrovli tushuncha beradi.
2. "Deep Learning" (Ian Goodfellow, Yoshua Bengio, va Aaron Courville) – Chuqur o'rganish (deep learning) sohasida yetakchi adabiyot, neyron tarmoqlar va ularning amaliyotini tushuntiradi.
3. "Machine Learning: A Probabilistic Perspective" (Kevin P. Murphy) – Mashina o'rganishning probabilistik yondashuvlari haqida batafsil ma'lumot beradi.
4. "Pattern Recognition and Machine Learning" (Christopher Bishop) – Mashina o'rganish va naqshni tanish usullarini o'rganishda muhim manba.
5. <https://asaxiy.uz/uz/product/skomolovshrahmatov-sunii-intellekt-asoslari-mashinavii-ukitish>
6. <https://book.oxu.uz/web/kitoblar/152372208>

MOBIL TA'LIM MUHITIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

¹Aminov I.B., ²Do'smatova M. A.

¹ - Samarqand davlat universiteti, professor, tel: 91 540 61 78, istam.aminov@mail.ru

² - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti, +998 97 288 73 55, dusmatovamamura925@gmail.com, *Annotatsiya. Maqolada mobil ta'lim tizimida bulutli xizmatlardan foydalanishning asosiy xususiyatlari ochib berilgan, shuningdek, o'quv jarayonida foydalanish uchun turli xil bulutli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari tahlili keltirilgan.*

Аннотация. В статье раскрываются основные особенности использования облачных сервисов в мобильной образовательной системе, а также анализ преимуществ и недостатков различных облачных технологий для использования в образовательном процессе.

Annotation. The article reveals the main features of the use of cloud services in the mobile educational system, as well as an analysis of the advantages and disadvantages of various cloud technologies for use in the educational process.

Kalit so'zlar: mobil ta'lim, bulutli texnologiyalar, bulutli xizmatlar, OneDrive, Dropbox Inc, DocMe va Wiki-saytlari.

Ключевые слова: мобильное обучение, облачные технологии, облачные сервисы, OneDrive, Dropbox Inc, DocMe и Wiki-сайты.

Keywords: mobile learning, cloud technologies, cloud services, OneDrive, Dropbox Inc, DocMe and Wiki sites.

Zamonaviy mobil ta'lim sohasidagi raqamli va axborot texnologiyalari jamiyatning ilg'or rivojlanishining zarur vositalaridan biridir. Axborotlashtirish va mobil texnologiyalarini takomillashtirish ta'limni rivojlantirishning ko'plab yangi yo'nalishlari orasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Mobil ta'limda yangi raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi shundaki, ular nafaqat individual pedagogik muammolarni hal qilishda foydalaniladigan vositalar funktsiyalarini bajaradi, balki o'rganish uchun sifat jihatidan yangi imkoniyatlar yaratadi, mustaqil ta'lim faoliyati ko'nikmalarini rivojlantiradi, rivojlanishni rag'batlantiradi, didaktika va metodikaning yangi shakllarini yaratishga hissa qo'shadi

Bugungi kunda mobil ta'limda bulutli hisoblashga asoslangan texnologiyalar zamonaviy axborot olamida ommabop va faol rivojlanayotgan sohalardan biridir. Bulutli hisoblash texnologiyasi deganda turli vosita platformalarining AT resurslarini bir butunga birlashtirish va foydalanuvchiga mahalliy tarmoq yoki global Internet orqali ulardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish imkonini beruvchi innovatsion texnologiya tushuniladi. Turli provayderlarning bulutli xizmatlari foydalanuvchilarga o'z resurslariga Internet orqali bepul yoki umumiy bulutli ilovalar orqali kirishni taklif qiladi, ularning apparat va dasturiy ta'minotiga qo'yiladigan talablar foydalanuvchidan yuqori unumdor va resurslarni sarflaydigan kompyuterlarga ega bo'lishni talab qilmaydi [5].

Ta'lim muassasalarida mobil ta'lim sifatini oshirish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida yanada samarali hamkorlikni tashkil etishga zamonaviy yondashuvning usullaridan biri mobil ta'limni qo'llab-quvvatlash tizimlari, Internet xizmatlari va bulutli texnologiyalardan foydalanish bo'lishi mumkin.

Mobil ta'limda bulutli texnologiyalarga kelsak, bu istiqbolli, jadal rivojlanayotgan soha bo'lib, masofaviy ta'limni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish uchun yangi shart-sharoitlarni yaratish uchun yangi imkoniyatlar va vositalarni ochib beradi, elektron axborot resurslarga masofaviy kirishni tashkil etish va o'z bilimlarini tarqatish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy mobil ta'limda bulutli saqlash tizimlari nafaqat soddalashtirilgan fayl almashishni taklif qiladi, balki shaxsiy ish maydonini kengaytiradi, jumladan, hujjatlarni tahrirlash funktsiyalari, real vaqt rejimida zaxiralash va hujjatlarni boshqarish.

Mobil ta'lim orqali tashkil etiladigan o'quv jarayonida bulutli texnologiyalar quyidagi xizmat ko'rsatuvchi provayderlar tomonidan taqdim etiladi:

- ✓ Dropbox - bulutli ma'lumotlarni saqlash, hamkorlik qilish imkoniyatlari, mijoz dasturi orqali ma'lumotlarni sinxronlashtirish, o'zaro faoliyat platformalar xizmati;
- ✓ SugarSync - bulutli ma'lumotlarni saqlash tijorat xizmati;
- ✓ Box.net - bulutli ma'lumotlarni saqlash, mobil telefondan tahrirlash va ko'rish imkoniyati;
- ✓ Google Drive - bepul onlayn ofis va o'rnatilgan xotira, GoogleDocs xizmati;
- ✓ OpenDrive - saqlash va ma'lumotni haq evaziga yuklab olish imkoniyati;
- ✓ Syncplicity - platformalararo muhitda ma'lumotlarni sinxronlashtirish uchun dasturiy ta'minot to'plami;
- ✓ Windows Live SkyDrive - bu fayl almashish funktsiyalariga ega bulutga asoslangan Internet-fayllarni saqlash xizmati;
- ✓ Yandex Disk - bepul bulutli ma'lumotlarni saqlash, Yandex.people uchun tizim;

Mobil ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun eng qulay bulutli xizmatlar qatoriga Microsoft kompaniyasining OneDrive va Dropbox Inc kompaniyasining Dropbox bulutli xizmatlari kiradi [2; 4].

2007-yil avgust oyida yaratilgan OneDrive bulutli xizmati bu fayllarni almashish funktsiyalariga ega bo'lib, fayllarni saqlash va joylashtirish xizmatidan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, OneDrive xizmati Microsoft Office-dan ofis ilovalari to'plamidan foydalanish imkoniyatini qo'llab-quvvatlaydi [2]. OneDrive raqobatchilariga nisbatan ushbu tizimning katta afzalligi, istalgan qurilmadan fayllarga kirish imkonini beradi. Masalan, Windows yoki Mac operatsion tizimiga ega kompyuterlar, planshetlar va mobil telefonlar, bu juda qulay.

Yana bir xizmat mashhur onlayn fayl saqlash ilovasi – Dropbox [1]. Bu Inc kompaniyasining fayl almashish va fayl sinxronizatoridir. Dropbox foydalanuvchi-larga fayllarni Dropbox serveriga yuklash imkonini beruvchi kross-platformali mijozga (Windows, Mac va Linux) ega. Dropbox-da o'z fayllaringizni boshqa foydalanuvchilar yoki hamma uchun ochiq qilishingiz mumkin.

Mobil ta'lim faoliyatida Web 2.0 vositalaridan foydalanish, masalan, YouTube, DocMe xizmati va Wiki saytlari ma'lumotlarni qidirish, qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatish kabi jarayonlarni soddalashtiradi va tezlashtiradi. Ushbu xizmatlar tufayli foydalanuvchi eng so'nggi kontentni eng qisqa vaqt ichida bepul olish imkoniyatiga ega.

Shunday qilib, xususiy va ommaviy bulutlar an'anaviy mobil ta'limning o'quv jarayonida quyidagi muammolarni hal qiladi:

- ✓ aloqa muammolarini qisman hal qilish;
- ✓ o'quv materiallarini o'rganish sur'atlarini sezilarli darajada tezlashtiradi;
- ✓ o'zlashtirilgan bilimlar hajmini oshiradi;
- ✓ o'z vaqtida kerakli ma'lumotlarni tezda qabul qilish va qayta ishlash imkonini beradi
- ✓ o'z bilimi va undan keyingi mustaqil ishlash uchun uchun foydalanish;
- ✓ o'quv materialining to'liq hajmidan tezkor foydalanish, sinfda axborotni tarqoq idrok etish oqibatlarini bartaraf etadi;
- ✓ elektron pochta va elektron kutubxonadan foydalanish, o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan bilimlarni qabul qilish darajasini oshiradi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi.

O'qituvchi-talaba o'rtasidagi muloqot muammolarini hal qilishning mashhur vositalari elektron pochta, interaktiv aloqa va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotdir. Ammo funktsional imkoniyatlarning cheklanganligi va ko'ngilochar ma'lumotlarning katta miqdori, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda mavjudligi sababli, ushbu vositalarni mobil ta'lim vazifasini bajarish uchun eng samarali deb hisoblash mumkin emas[1].

Ushbu aloqa muammosini mobil ta'lim o'quv jarayoniga Microsoftga asoslangan maqsadli platformalarni joriy etish orqali hal qilish mumkin. Masalan, Office 365 for Education, unga quyidagilar kiradi:

- ✓ Exchange Online eng zamonaviy va ilg'or pochta tizimlaridan biri;
- ✓ oddiy va juda qulay aloqa vositasi Lync Online;
- ✓ SharePoint Online yordamida portal yechimlarini yaratish;
- ✓ Office 365 bulut xizmatining afzalligi shundaki, siz istalgan kompyuter, planshet yoki smartfondan ishlashingiz mumkin.

Hozirgi vaqtda mobil ta'lim jarayonida bulutli hisoblash texnologiyasiga asoslangan eng keng tarqalgan xizmat tizimlari Microsoft Live@edu va Google Apps Education Edition hisoblanadi. Bu bulutli texnologiyalarga asoslangan veb-ilovalar bo'lib, ular o'quv muassasalari talabalari va o'qituvchilarini vositalar bilan ta'minlaydi, ulardan foydalanish aloqa va hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan [4].

Mobil ta'lim muhitida bulutli xizmatlardan foydalanishning yana bir varianti -ta'limni boshqarish tizimlarini bulutga o'tkazish.

Bunday tizimlarni tashqi provayderlarga outsorsing orqali qo'llab-quvvatlash qimmat apparat va dasturiy ta'minotni sotib olishga va ularga xizmat ko'rsatishga qodir bo'lmagan ta'lim muassasalari uchun mantiqiydir.

Bulutli texnologiyalar bir qator muammolarni hal qilish orqali mobil ta'lim muhitisamaradorligini oshirishning kuchli vositasidir:

- ✓ o'quv rejasiga o'zgartirishlar kiritmasdan o'qish vaqtini oshirish;
- ✓ talabalar faoliyatini nazorat qilishda sifat o'zgarishlari;
- ✓ ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining axborot-kommunikatsiya madaniyatini oshirish;
- ✓ o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish;
- ✓ ta'lim jarayonini boshqarishda moslashuvchanlikni ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aminov I., Kadirov T. Use of information education in improving competence of information teachers information technologies. Academia Open, By Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Vol 1 No 2 (2019): December, Education.
2. Ayupov R.H. Bulutli texnologiyalar.-Toshkent: O'DJTU, 2022 yil, 94 bet.
3. I.B.Aminov, J.Mannopov. The effectiveness of the distance learning system using cognitive technologies. Proceedings of International Scientific-Practical Conference on "Cognitive researchin education". Organized by Samarkand regional center for retraining andadvanced training of public education staff,Uzbekistan. 15th April 2021. In Association with Novateur Publication India's. Journal impact factor: 7.223. Page No.: 29-316
4. Заславская О.Ю. Возможности сервисов Google для организации учебно-познавательной деятельности школьников и студентов. // Научно-методический журнал. / Информатика и образование.– М., 2012, №1 (230). – С. 45-50.
5. Шекербекова Ш.Т., Несипкалиев У. Возможности внедрение и использование облачных технологий в образовании // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 6-1. – С. 51-55.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI VAZIYATLAR: TAHLIL VA HAL QILISH USULLARI

M.A.Ahtamqulov, H.F.Xursandov, M.A.Mustaffaqulov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

E-mail: muhriddinahtamqulov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilib, ularni hal qilish uchun bir qancha usullar keltirilgan, amaliy topshiriqlar va tavsiyalar berilgan. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlik aloqalari ham nazarda tutilgan, ya'ni o'qituvchi

o'quvchilarni axborot texnologiyalari fanini qay darajada bilib olishlari uchun o'zaro muloqotda bo'lishlari lozim. Undan tashqari o'qituvchining qo'llab-quvvatlash tajribasi, o'qitish metodlarini va usullarini yangilash, o'qitish materiallariga etiborsizlik, natijalar va muhokama takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Muammoli vaziyatlar, motivatsiya, tahlil qilish, interaktiv darslar, qobiliyat, kichik guruhlar, ma'lumot, texnologiya, muammoli o'qitish, mashg'ulot, material, usullar, teoritik, o'zaro hamkorlik, onlayn.

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы, возникающие при преподавании информационных технологий, представлен ряд методов их решения, даны практические задания и рекомендации. Оно также включает в себя сотрудничество между учителем и учениками, то есть учитель должен общаться со студентами, чтобы изучить науку информационных технологий. Кроме того, приводится опыт сопровождения преподавателя, обновления методик и методов обучения, неиспользования учебных материалов, результаты и предложения к обсуждению.

Ключевые слова: Проблемные ситуации, мотивация, анализ, интерактивные уроки, способности, малые группы, информация, технология, проблемное обучение, обучение, материал, методы, теоретический, взаимодействие, онлайн.

Abstract: This article analyzes the problems that arise in the teaching of Information Technology, presents a number of methods for solving them, gives practical tasks and recommendations. It also includes cooperation between the teacher and the students, that is, the teacher should communicate with the students in order to learn the science of information technologies. In addition, the experience of teacher support, updating of teaching methods and methods, neglect of teaching materials, results and suggestions for discussion are given.

Keywords: Problem situations, motivation, analysis, interactive lessons, ability, small groups, information, technology, problem-based teaching, training, material, methods, theoretical, interaction, online.

Kirish. Axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanishlar, O'zbekistonning iqtisodiyotida ham muhim o'rin egallashni ta'minlaydi. Xususan, elektron savdo va e-commerce sohasida rivojlanishlar hamda turli sohalar uchun yangiliklar, marketing strategiyalarini yanada samarali amalga oshirilishi, korxonalar va biznes tadbirkorlarining xalqaro bozorda muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi. Bu jarayonlarda muammolar va hal qilish usullari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muammolar yuz berishi mumkin, masalan, internet ulanishlarini so'nggi tezlik va sifatini ta'minlash, axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni rivojlantirish, xalqaro standartlarga rioya qilish, va boshqalar.

Rivojlanishlarni tezlashtirish uchun, O'zbekiston hukumati sohalarni ilgari surishda, yangi strategiyalar va loyihalar yaratayotgan, axborot texnologiyalari sohasida kasb-hunar bilan ixtisoslashgan mutaxassislar, oliy ta'lim yurtlari talabarlari va maktab o'quvchilari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Barcha muammolarni hal qilish usullari O'zbekistonning axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanishlarni yanada kuchaytirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ta'lim muassasalari talabalarini mustaqil bilim olishiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish va doimiy ravishda faolligini oshirib borish lozim. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil qilish ta'lim samaradorligi ijobiy ta'sir ko'rsatadi[1].

Bundan tashqari, ta'lim muassasasining texnik jihozlari kompyuter va IT vositalari bilan doimo o'zgarib turishi sababli, kompyuter fanlari o'qituvchisi osonlikcha navigatsiya qilishi kerak bo'lgan turli xil dasturlar mavjud. Shunday qilib, universitetda o'qish davrida kompyuter fanlarining bo'lajak o'qituvchisi axborot texnologiyalari sohasida sub'ekt kompetensiyalarini shakllantirishi zarur[2].

Informatika ta'limi jarayonida natija va natijaviylikka erishganlikni *baholash* orqali aniqlash mumkin. Natijani baholash uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari belgilangan bo'lishi kerak. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari o'quvchi shaxsning rivojlanish bosqichining asosiy g'oyasi, maqsadi va vazifasidan kelib chiqib informatika o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish natijasida, axborot texnologiyalari fanini o'qitish samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi. Buning uchun esa quyidagi usullar o'qituvchilar uchun muhim hisoblanadi. Talab qilgan vaqt va tajribaga ega bo'lishni, talab qiladigan usullardir. Bu usullar orqali o'qituvchilar, talabalarining muammolarni tushunish orqali, ularning o'zlashtirish va hal qilish qobiliyatlarini oshirish, va fanga oid bilimlarni samarali tarzda o'rgatishga intiladilar.

Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlar bilan uchrashish odatda o'zgartirib boradigan bir masaladir. O'qituvchi uchun qo'llanmalar va dars materiallarini to'liq va aktual yangilash muhimdir. Bu, talabalarga fan bilimlarini to'liq o'rgatish va ularni texnik yangiliklarga tayyorlashda juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu misol bilan, o'qituvchi yangi dars materiallarini yaratishga va mavjud bo'lganlarni yangilashga vaqt va energiya sarf qilishi mumkin. Yangilash jarayonida, o'qituvchi yangi ma'lumotlarni qo'shish, sohalarni yanada tafsilotli o'rganish va talabalarni aktual muammolarga bag'ishlangan yangi mashq va vazifalarni taklif qilishga fikr qilishi kerak.

Bundan tashqari, qo'llanmalar va dars materiallarini yangilashning bir qismini har yili taqvimli tarzda amalga oshirish ham muhimdir. Bu, fan sohasidagi eng so'nggi texnologik yangiliklarni va o'qituvchining ko'nikmalari va tajribalarini talabalarga o'rgatishga imkoniyat beradi. O'qituvchilar uchun web-saytlar, onlayn platformalar, ilova va dasturlar orqali dars materiallarini yangilash hamda talabalarga didaktik materiallar taqdim etish imkoniyatlarini oshirish zarur bo'ladi.

Qo'llanmalar va dars materiallarini yangilash jarayonida o'qituvchilar hammasini bir xil ko'rinishida olishi hamda kollektiv ish tizimi bilan ishlashi muhim bo'ladi. Bu, ularning fikr va tajribalarini almashtirish, yangi fikrlar

va usullarni kashf qilish va o'zaro himoya va yordamlashuvni oshirishga imkon beradi. O'qituvchilar bir-biriga ko'maklashish, yangi materiallarni tahlil qilish, o'zaro fikrlashish va o'qitish usullarini baholash orqali, qo'llanmalar va dars materiallarini yangilashda yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlashga erishishlari mumkin bo'ladi.

Interaktiv darslar va amaliyotlar, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarni hal qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu usul, talabalarni faol qatnashuvga chaqirib, ularning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarador qilishga yordam beradi.

Interaktiv darslar, o'quvchilar bilimlari samaradorligini oshirishda yangicha texnologiyadan foydalangan holatda ko'nikmalarini shakillantirish va o'z nutqlarini to'g'ri va ravon qilishga yordam beradi. Bu darslar, traditsionallikdan uzoq bo'lib, interaktiv darslar o'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan birgalikda, tashkil qilinadi. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, o'quv materiallarini ilovasiz taqdim etish, savol-javoblar, tajriba oshirish, mashg'ulotlar va boshqa interaktiv tadbirlar orqali o'quvchilarni qiziqtirishni va o'qishni yanada samarador qilishni o'qituvchilar uchun osonlashtiradi.

Amaliyotlar esa teoritik(Nazariy fan odatda hodisalarni tajriba va kuzatishlar orqali emas, balki matematika, mantiq va nazariy asoslardan foydalangan holda tushunishga harakat qiladigan fan sohasidir.) bilimlarni amalda ishlatish imkonini beradi. Bu usul o'quvchilarga muammolarni yechish, dars materiallarini mustahkamlashtirish va o'quv jarayonini amaliyotlarga aylantirish imkonini beradi. Amaliyotlar, o'quvchilarning o'zlashtirish va mustahkamlash jarayonlarini o'stirishga yordam beradi va ularning o'zlashtirish, tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlil va natijalar. Muammoli vaziyatlarni hal qilish usullari informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda eng muhim aspektlardan(Aspekt (lotincha: aspectus – tur) – hodisa, tushuncha, istiqbol qarab chiqiladigan muayyan nuqtai nazar) biridir. O'qituvchilar va talabalar uchun, muammoli vaziyatlarni hal qilish usullari, o'qish jarayonini osonlashtirish, o'rganishni optimallashtirish va fikrlash jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Birinchi qadam sifatida, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kerak. Bu, muammolarning tafsiliy va to'liq tushunilishi, ularning asosiy sabablari va ularga yechim topish uchun kerakli ilovalar haqida tushuntirishlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi va talabalar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda o'zaro hamkorlik qilib ish olib borishi kerak, odatda tahlil qilish jarayonini osonlashtirish uchun doimo o'zaro aloqada bo'lishi lozim.

Keyingi qadam, hal qilish usullarini aniqlashdir. Bu, muammolarni bartaraf etish, to'g'ridan-to'g'ri yechim topish va o'qitish jarayonini samarali qilish uchun kerakli usullar va texnikalar haqida o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu usullar o'qituvchi va talabalar uchun foydali bo'lib, muammolarni qulay va samarali hal qilishga yordam beradi.

Bu muammoli vaziyatlarni hal qilish usullari, axborot texnologiyalari fanini o'qitishda o'rganish samaradorligini yanada oshirishni ta'minlaydi va o'quvchi uchun o'zlashtirishni osonlashtiradi. O'qituvchilar, o'rgatishni yanada qulaylashtiradi.

Kichik guruhlar yaratish va individual o'qishni tashkil qilish. Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlar: Tahlil va hal qilish usullari.

Kichik guruhlar yaratish va individual(Individual ta'lim-bu innovatsion o'qitish usuli bo'lib, bunda har bir o'quvchi uchun maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturi bo'yicha dars mashg'ulotlarida ishtirok etadi) o'qishni tashkil qilish. Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlar bilan uchrashish odatiydir. O'qituvchilar katta guruhlarda o'quvchilar bilan doimiy aloqada bo'lishadi, lekin bu individual o'qishni ta'qiqlashga olib kelishi mumkin. Kichik guruhlar yaratish va individual o'qishni tashkil qilish usullari bu tahlil va hal qilishda yordam beradigan muhim vositalardir.

Kichik guruhlar yaratish, o'quvchilarni bir-biri bilan yaxshiroq aloqada bo'lishga va ularga yaxshi o'qitish imkoniyatini beradi. Bu usulda, o'qituvchi o'quvchilar bilan birma-bir ishlash, o'quv materiallarini, masalalar bilan ta'minlash va qo'llab-quvvatlash uchun foydali bo'ladi. Kichik guruhlar o'quvchilarga bir-birining fikrini eshitish, masalalar yechishda hamkorlik qilish imkonini beradi va ularning o'zlashtirish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

1). O'qituvchining qo'llab-quvvatlash tajribasi.

O'qituvchining qo'llab-quvvatlash tajribasi o'qitish jarayonida katta ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'qitishda guruhdagi talabalar bilan birgalikda ishlaydigan va ularga yordam beradigan muhim halqalar hisoblanadi. Bu sababli, o'qituvchining qo'llab-quvvatlash tajribasi o'qitish jarayonining samaradorligi va talabalarining o'qishga qiziqishini yuqori darajada oshiradi.

O'qituvchining qo'llab-quvvatlash tajribasi o'qitish jarayonining muhim qismlaridan biri bo'lib, talabalarining o'qishga qiziqishini oshiradi va ularga qandaydir muhim bo'lgan mavzularni o'rganishga undasa, ularning o'zlashtirish jarayonini ham yaxshilaydi. O'qituvchilar o'qitish jarayonida talabalarni yuqori darajada bilimlarini shakillantiradi.

2). O'qitish metodlarini va usullarini yangilash.

O'qitish metodlarini va usullarini yangilash, axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarni hal qilishning asosiy qismi hisoblanadi. Texnologiyalar o'zgarishga uchrayotgan bir vatda talabalarining ham o'rganish usullari o'zgarib borayotgani, o'qituvchilarni yangi metod va usullarda dars tashkil qilishga undaydi. O'quvchilarni yangi va samarali metodlarga qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladi.

Shuningdek, o'qituvchilar o'quvchilarga axborot texnologiyalari fanini chuqur o'rgatishda amalga oshiradigan ishlar va ularni o'zlashtirishlari uchun muvaffaqiyatli usullarni qo'llashlari kerak. Bu, talabalarining

amaliyotlarini oshirish, o'quv materiallariga qiziqishini oshirish, onlayn platformalardan va ilovalardan foydalanish, hamda interaktiv darslar va laboratoriyalarda ishtirok etishlari yordamida amaliy bilimlarini o'zlashtiradi.

3). O'qitish materiallariga etiborsizlik.

O'qitish materiallariga etiborsizlik muammolari, axborot texnologiyalari fanini o'qitishda ko'p o'qituvchilar uchun tanish muammolaridan biridir. Bu, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi aloqalarni va o'qitish jarayonlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishi mumkin. Bu muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilish uchun ba'zi usullar mavjud.

Birinchi navbatda, o'qituvchilar o'z o'quv materiallarini to'liq tuzatish va ulardan foydalanuvchilarga yetarli va qulay ma'lumotlarni taqdim etishga e'tibor berishlari lozim. Bu, o'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotga o'tkazishda muhim qo'shimcha qo'llanmalardan foydalanishlari va o'zlashtirishlari uchun juda zarurdir.

Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quv materiallarini to'g'ridan-to'g'ri o'quvchilarning talablariga mos ravishda taqdim etish uchun o'quv dasturlarini va usullarini tanlashlari kerak. Bu, o'quv jarayonini o'zlashtirish va talabalarni qiziqtirish uchun eng samarali usullardan biridir. Masalan, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonida amaliyot mashg'ulotlari, qo'llanmalar, ko'rsatmalar, video darslar, interaktiv darslar kabi turli o'quv usullaridan foydalanish mumkin. Bu usullar o'quvchilarning masalalarni tushunish va ularni o'zlashtirishlarini oshirishda juda foydali bo'ladi.

4). Talaba va o'qituvchilar orasidagi aloqalar.

Talaba va o'qituvchilar orasidagi aloqalar, axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarining muhim bir qismini tashkil etadi. Bu aloqalar, o'qitish jarayonida muvaffaqiyatni ta'minlash uchun zarurdir va o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi samarali hamkorlikni rag'batlantiradi.

Shuningdek, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi xalqaro aloqalar ham muhimdir. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi global va dinamikdir, shuning uchun talabalar o'zlarini bu sohada rivojlantirish uchun xalqaro tajribaga ega bo'lishlari lozim. O'qituvchilar ham o'z bilimlarini yangilash va o'z fikrlarini o'zaro almashishlari uchun xalqaro tajribaga murojaat qilishlari kerak. Bu, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ziddiyatlilik kelib chiqishini oldini oladi.

5). Natijalar va muhokama

Natijalar va muhokama, axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qism. O'quvchilar o'z bilimlarini va tushunchalarini mustahkamlash, o'rganish jarayonini baholash va o'z ishlarini yaxshilash uchun natijalar va muhokamalar tuzishlari talab etiladi.

Natijalar va muhokama jarayoni o'quvchilar bilim darajasini, o'zlashtirish darajasini va ish yuritish qobiliyatlarini o'rganishda katta rol o'ynaydi. Bu jarayon orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'zlarini qanday yaxshi tayyorlashi va qaysi yo'nalishlarda takliflarda bo'linishi kerakligini tushunadi.

Natijalar va muhokamalar o'quv jarayonining asosiy qismlaridan biri sifatida hisoblanadi. Ular o'quvchilarning o'zlashtirishini, tashabbuskorliklarini va mustaqil ishlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni oldini olish uchun bilim malaka ko'nikmalarini shakillantiradi.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqola orqali, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni hal qilish usullarini ko'rsatdik. Bu tahlil va hal qilish usullariga amal qilish bilan, o'qituvchilar informatika va axborot texnologiyalari fanini o'quvchilarga eng samarali va oson tarzda o'rgatishlari mumkin bo'lishi uchun muhim asosdir. Maqolamizni o'qiganingiz uchun rahmat, endi o'z bilimlaringizni oshirib bizga biror savollar yo'llashingizni kutib qolamiz!

Adabiyotlar

1. Ashurova G.B, "Informatika fanini o'qitishda innovatsion uslublarni ishlab chiqish va ularni dars jarayoniga tadbiiq etish" Farg'ona. -2017 y. 8-bet
2. Yuldashev U.A, Informatika fani bo'lajak o'qituvchisining kasbiy kompetentligini oshirish metodikasi. Science and innovation international scientific journal. -2022
3. Adilov A.N, Bahodirov M.D, Informatika o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. Guliston – 2022 yil. 6-b
4. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., M amarajabov M. Axborot texnologiyalari. Toshkent: Noshir, 2009. -368 b.
5. Alimov R.X., Begalov B.A., Yulchiyeva G.T., Alishov Sh. Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari: o'quv qollanma. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. -184 b.
6. Aripov M. va boshq. Informatika. Informatsion texnologiyalar. 1-qism. Toshkent: TDTU, 2003. -320 b.
7. Aripov M. va boshq. Informatika. Informatsion texnologiyalar. 2-kism. Toshkent: TDTU, 2003. - 430 b.



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLI VAZIYATLARNI HAL QILISH USULLARI

Ahtamqulov Muhriddin Ahtamqul o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
Telefon: +998932430360 E-mail: muhriddinahtamqulov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun bir qancha usullar keltirilgan, amaliy topshiriqlar va tavsiyalar berilgan. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlik aloqalari ham nazarda tutilgan, ya'ni o'qituvchi o'quvchilarni axborot texnologiyalari fanini qay darajada bilib olishlari uchun o'zaro muloqotda bo'lishlari lozim. Undan tashqari o'qituvchining qo'llab-quvvatlash tajribasi, o'qitish metodlarini va usullarini yangilash, o'qitish materiallariga e'tiborsizlik, natijalar va muhokama takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Muammoli vaziyatlar, motivatsiya, tahlil qilish, interaktiv darslar, qobiliyat, kichik guruhlar, ma'lumot, texnologiya, muammoli o'qitish, mashg'ulot, material, usullar, teoritik, o'zaro hamkorlik.

Аннотация: This article provides a series of presented methods, practical tasks and recommendations to solve the problems that arise in teaching information technology. It also includes the cooperation between the teacher and students, that is, the teacher must communicate with the students to learn the science of information technology. In addition, the experience of teacher support, updating teaching methods and techniques, neglecting teaching materials, results and suggestions for discussion are given.

Ключевые слова: Проблемные ситуации, мотивация, анализ, интерактивные уроки, способности, малые группы, информация, технология, проблемное обучение, обучение, материал, методы, теоретический, взаимодействие.

Abstract: This article provides a series of presented methods, practical tasks and recommendations to solve the problems that arise in teaching information technology. It also includes the cooperation between the teacher and students, that is, the teacher must communicate with the students to learn the science of information technology. In addition, the experience of teacher support, updating teaching methods and techniques, neglecting teaching materials, results and suggestions for discussion are given.

Keywords: Problem situations, motivation, analysis, interactive lessons, ability, small groups, information, technology, problem-based teaching, training, material, methods, theoretical, interaction.

Kirish. Axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanishlar, O'zbekistonning iqtisodiyotida ham muhim o'rin egallashni ta'minlaydi. Xususan, elektron savdo va e-commerce sohasida rivojlanishlar hamda turli sohalar uchun yangiliklar, marketing strategiyalarini yanada samarali amalga oshirilishi, korxonalar va biznes tadbirkorlarining xalqaro bozorda muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi. Bu jarayonlarda muammolar va hal qilish usullari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muammolar yuz berishi mumkin, masalan, internet ulanishlarini so'nggi tezlik va sifatini ta'minlash, axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni rivojlantirish, xalqaro standartlarga rioya qilish, va boshqalar.

Rivojlanishlarni tezlashtirish uchun, O'zbekiston hukumati sohalarni ilgari surishda, yangi strategiyalar va loyihalar yaratayotgan, axborot texnologiyalari sohasida kasb-hunar bilan ixtisoslashgan mutaxassislar, oliy ta'lim yurtlari talabalari va maktab o'quvchilari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Barcha muammolarni hal qilish usullari O'zbekistonning axborot texnologiyalari sohasidagi rivojlanishlarni yanada kuchaytirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ta'lim muassasalari talabalarini mustaqil bilim olishiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish va doimiy ravishda faolligini oshirib borish lozim. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil qilish ta'lim samaradorligi ijobiy ta'sir ko'rsatadi[1].

Bundan tashqari, ta'lim muassasasining texnik jihozlari kompyuter va IT vositalari bilan doimo o'zgarib turishi sababli, kompyuter fanlari o'qituvchisi osonlikcha navigatsiya qilishi kerak bo'lgan turli xil dasturlar mavjud. Shunday qilib, universitetda o'qish davrida kompyuter fanlarining bo'lajak o'qituvchisi axborot texnologiyalari sohasida subyekt kompetensiyalarini shakllantirishi zarur[2].

Informatika ta'limi jarayonida natija va natijaviylikka erishganlikni *baholash* orqali aniqlash mumkin. Natijani baholash uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari belgilangan bo'lishi kerak. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari o'quvchi shaxsning rivojlanish bosqichining asosiy g'oyasi, maqsadi va vazifasidan kelib chiqib informatika o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi[3].

Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlar bilan uchrashish odatda o'zgartirib boradigan bir masaladir. O'qituvchi uchun qo'llanmalar va dars materiallarini to'liq va aktual yangilash muhimdir. Bu, talabalarga fan bilimlarini to'liq o'rgatish va ularni texnik yangiliklarga tayyorlashda juda katta ahamiyatga ega bo'ladi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish natijasida, axborot texnologiyalari fanini o'qitish samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi. Buning uchun esa quyidagi usullar o'qituvchilar uchun muhim hisoblanadi. Talab qilgan vaqt va tajribaga ega bo'lishni, talab qiladigan usullardir. Bu usullar orqali o'qituvchilar, talabalarining muammolarni tushunish orqali, ularning o'zlashtirish va hal qilish qobiliyatlarini oshirish, va fanga oid bilimlarni samarali tarzda o'rgatishga intiladilar.

Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlar bilan uchrashish odatda o'zgartirib boradigan bir masaladir. O'qituvchi uchun qo'llanmalar va dars materiallarini to'liq va aktual yangilash muhimdir. Bu, talabalarga fan bilimlarini to'liq o'rgatish va ularni texnik yangiliklarga tayyorlashda juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu misol bilan, o'qituvchi yangi dars materiallarini yaratishga va mavjud bo'lganlarni yangilashga vaqt va energiya sarf qilishi mumkin. Yangilash jarayonida, o'qituvchi yangi ma'lumotlarni qo'shish, sohalarni yanada tafsilotli o'rganish va talabalarni aktual muammolarga bag'ishlangan yangi mashq va vazifalarni taklif qilishga fikr qilishi kerak.

Bundan tashqari, qo'llanmalar va dars materiallarini yangilashning bir qismini har yili taqvimli tarzda amalga oshirish ham muhimdir. Bu, fan sohasidagi eng so'nggi texnologik yangiliklarni va o'qituvchining ko'nikmalari va tajribalarini talabalarga o'rgatishga imkoniyat beradi. O'qituvchilar uchun web-saytlar, onlayn platformalar, ilova va dasturlar orqali dars materiallarini yangilash hamda talabalarga didaktik materiallar taqdim etish imkoniyatlarini oshirish zarur bo'ladi.

Qo'llanmalar va dars materiallarini yangilash jarayonida o'qituvchilar hammasini bir xil ko'rinishida olishi hamda kollektiv ish tizimi bilan ishlashi muhim bo'ladi. Bu, ularning fikr va tajribalarini almashtirish, yangi fikrlar va usullarni kashf qilish va o'zaro himoya va yordamlashuvni oshirishga imkon beradi. O'qituvchilar bir-biriga ko'maklashish, yangi materiallarni tahlil qilish, o'zaro fikrlashish va o'qitish usullarini baholash orqali, qo'llanmalar va dars materiallarini yangilashda yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlashga erishishlari mumkin bo'ladi.

Interaktiv darslar va amaliyotlar, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarni hal qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu usul, talabalarni faol qatnashuvga chaqirib, ularning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarador qilishga yordam beradi.

Interaktiv darslar, o'quvchilar bilimlari samaradorligini oshirishda yangicha texnologiyadan foydalangan holatda ko'nikmalarini shakllantirish va o'z nutqlarini to'g'ri va ravon qilishga yordam beradi. Bu darslar, traditsionallikdan uzoq bo'lib, interaktiv darslar o'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan birgalikda, tashkil qilinadi. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, o'quv materiallarini ilovasiz taqdim etish, savol-javoblar, tajriba oshirish, mashg'ulotlar va boshqa interaktiv tadbirlar orqali o'quvchilarni qiziqtirishni va o'qishni yanada samarador qilishni o'qituvchilar uchun osonlashtiradi.

Amaliyotlar esa teoritik(Nazariy fan odatda hodisalarni tajriba va kuzatishlar orqali emas, balki matematika, mantiq va nazariy asoslardan foydalangan holda tushunishga harakat qiladigan fan sohasidir.) bilimlarni amalda ishlatish imkonini beradi. Bu usul o'quvchilarga muammolarni yechish, dars materiallarini mustahkamlashtirish va o'quv jarayonini amaliyotlarga aylantirish imkonini beradi. Amaliyotlar, o'quvchilarning o'zlashtirish va mustahkamlash jarayonlarini o'stirishga yordam beradi va ularning o'zlashtirish, tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Barcha shunday chora-tadbirlar bilan birga, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularni axborot texnologiyalari faniga qiziqtirish osonlashadi. Bu esa o'quvchilarning fan bilimlarini yaxshilash va o'zlashtirish jarayonini yanada yengillashtiradi. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish har bir o'qituvchi uchun muhim bo'lib, ularga o'quvchilarga fanni o'zlashtirishlari uchun kerakli kuchni topa olishiga yo'l ochib beradi[5].

Xulosa qilib aytganda Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun tegishli sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga informatika va axborot texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo'ymoqda.

Adabiyotlar

1. Ashurova G.B, "Informatika fanini o'qitishda innovatsion uslublarni ishlab chiqish va ularni dars jarayoniga tadbiriq etish" Farg'ona. -2017 y. 8-bet
2. Yuldashev U.A, Informatika fani bo'lajak o'qituvchisining kasbiy kompetentligini oshirish metodikasi. Science and innovation international scientific journal. -2022
3. Adilov A.N, Bahodirov M.D, Informatika o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. Guliston – 2022 yil. 6-b
4. M.A.Ahtamqulov, H.F.Xursandov, M.A.Mustaffaqulov, A.S.O'sarov. Axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli vaziyatlar tahlili. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024-yil 15-16-mart. 326-bet.
5. M.A.Ahtamqulov. Axborot Texnologiyalari fanini o'qitishda muammoli ta'lim metodidan foydalanish. "Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagogika va psixologiyaning muammolari va istiqbollari", Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.Guliston – 2022. 2022-yil 6-7-may. 444-bet

O'QUV JARAYON SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ON-LINE VA OFF-LINE TARMOQDAN FOYDALANISH

Ahtamqulov Muhriddin Ahtamqul o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Telefon: +998932430360 E-mail: muhriddinahtamqulov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada "O'quv jarayon samaradorligini oshirishda on-line va off-line tarmoqdan foydalanish" mavzusida ilmiy amaliy ishlar olib borilgan. Xususan, keng imkoniyatlar, moslashuvchanlik,

interaktivlik, resurslarni yangilash va almashish, fokuslangan ta'lim, amaliyotga asoslangan bilimlar, o'zaro muloqot va hamkorlik, texnik muammolar yo'qligi, moslashuvchan jadval, resurslarning keng qamrovi, individuallashtirilgan ta'lim, samimiy va jonli muloqot kabi ilmiy izlanishlarga asoslangan.

Kalit so'zlar: on-line, off-line, masofaviy ta'lim, internet, interaktiv, gibridd ta'lim, platforma, resurs.

Abstract: In this article, scientific and practical work was carried out on the topic "Using on-line and off-line networks to increase the effectiveness of the educational process" in particular, ample capacity, flexibility, interactivity, upgrading and sharing of resources, focused learning, practice-based knowledge, interaction and collaboration, no technical problems, flexible schedule, wide coverage of resources, individualized learning, friendly and based on scientific research such as live communication.

Konturlarni aniqlash - bu raqamli tasvirning yorqinligi keskin o'zgargan nuqtalarni aniqlashga qaratilgan matematik usullar to'plamini bildiradi. Ushbu nuqtalar, odatda egri chiziqlar to'plami sifatida tashkil qilinadi va ular qirralar, chegaralar yoki konturlar deb ataladi. Tasvirning yorqinligini o'zgartirish quyidagilarga bog'liq: turli materiallar, sohaning turli qismlarida yorug'likdagi farqlar, chuqurlikdagi farqlar yoki sirt yo'nalishidagi o'zgarishlar. Tabiiy holatda, chegaralarni aniqlash, obyektning chegaralari va shaklini aniqlashga yordam beradi. Tanlangan chegaralar ikki xil bo'lishi mumkin: cheklangan va mustaqil cheklanmagan nazariyaga bog'liq. Cheklangan chegaralar sirtning rangi va shakli kabi xususiyatlarni ko'rsatadi. Cheklanmagan chegaralar turli nuqtalar o'zgarishi va soha geometriyasini ko'rsatadi.

Obyekt konturi-bu obyekt atrofida chegaraga bo'lib, koordinata juftlarining tartiblangan ketma-ketligi sifatida ifodalanadi:

$$E = [e_1, e_2, \dots, e_n | e = P];$$

$$P = [x, y],$$

bu yerda:

E -obyekt konturi,

e_1, e_2, \dots, e_n –kontur nuqtalari,

P -koordinatalar juftligi,

x, y - kontur chegarasidagi nuqtaning koordinatalari.

Yuqoridagi kontur tasviri ikki o'lchovli bo'lib, har bir piksel bir juft qiymat bilan tavsiflanadi. Kontur tasvirini bir o'lchovli qilish uchun markazlashtirilgan masofalar qatoridan foydalanishimiz kerak.

Sentromassa masofalari massivi bir o'lchovli diskret tartiblangan ketma-ketlik bo'lib, uning har bir a'zosi konturning massa markazidan uning chegarasidagi nuqtagacha bo'lgan masofaga teng. Keling, ushbu ketma-ketlikning yozuvini kiritamiz:

$$R = [r_1, r_2, \dots, r_n]$$

bu yerda:

R -sentromassa masofalari massivi,

r - massa markazidan kontur chegarasidagi nuqtagacha bo'lgan masofa,

r_i – konturni tashkil etuvchi nuqtalarning umumiy soni.

Massa markazidan kontur chegarasidagi nuqtagacha bo'lgan masofani quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin:

$$r = \sqrt{(cx - x)^2 + (cy - y)^2}$$


bu yerda:

r – massa markazidan kontur chegarasidagi nuqtagacha bo'lgan masofa;

cx, cy – massa markazining koordinatalari;

x, y – kontur chegarasidagi nuqtaning koordinatalari.

Quyidagi rasmda asl konturning tasviri va markazlashtirilgan masofalarning tegishli ketma-ketligining grafik tasviri ko'rsatilgan.



1-rasm. a) Tasvir konturi; b) Markaz masofalari

Deskriptorlar

Tasvirlarni tanib olish nazariyasida obyektning ayrim xossalari asosida hisoblangan noyob bir o'lovli diskret tartiblangan raqamlar ketma-ketligini tavsiflovchi tushuncha faol qo'llaniladi. Deskriptorga qo'yiladigan asosiy talablardan biri obyektning tanib olish bilan bog'liq bo'lmagan xususiyatlarining o'zgarishsizligidir. Kontur identifikatori quyidagi hollarda o'zgarishsiz bo'lishi kerak:

- 1) burilish;
- 2) masshtabning o'zgarishi;
- 3) parallel uzatish.

Sentromassa masofalari ketma-ketligi yuqoridagi o'zgarishlarning parallel tarjimadan tashqari hech biriga bog'liq emas, shuning uchun tavsiflovchi sifatida foydalanish mumkin emas. Shu munosabat bilan konturni tasvirlashning tanlangan shakli asosida deskriptorni hisoblash kerak.

Deskriptorni quyidagicha belgilaymiz:

$$D = [d_1, d_2, \dots, d_m]$$

bu yerda:

D - deskriptor,

d - deskriptorni tashkil etuvchi raqamlardan biri,

m - deskriptordagi raqamlar soni.

Aylanish va masshtablashgacha bo'lgan markazlashtirilgan masofalar massivining o'zgarishsizligiga erishish uchun markaz masofasi ma'lumotlarini Furye konvertatsiyasini bajarish kerak. Biz Furye konvertatsiyasining haqiqiy va xayoliy qismlarini alohida hisoblab chiqamiz, keyin biz amplituda spektrini topamiz, bu:

- 1) konturning aylanishiga invariant;
- 2) konturni masshtablash uchun invariant.

Furye koeffitsiyentlarini hisoblash nol garmonik koeffitsientlardan boshlanadi:

$$a_0 = \frac{1}{\pi} \int_{-\pi}^{\pi} f(x) dx,$$

$$a_n = \frac{1}{\pi} \int_{-\pi}^{\pi} f(x) \cos nxdx, \quad (n = 1, 2, K)$$

$$b_n = \frac{1}{\pi} \int_{-\pi}^{\pi} f(x) \sin nxdx. \quad (n = 1, 2, K)$$

a va b koeffitsiyentlar asosida c amplituda spektri hisoblanadi. Koeffitsiyentlar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$c = \sqrt{a_j^2 + b_j^2}$$

Keyin amplituda spektri nol garmonik bilan normallashtiriladi va kontur deskriptori hosil bo'ladi:

$$D = \left[\frac{|c_1|}{|c|}, \frac{|c_2|}{|c|}, \dots, \frac{|c_j|}{|c|} \right]$$

Bu deskriptor aylanish va masshtab o'zgarishsizdir. Bundan tashqari, kerakli aniqlikka qarab, faqat dastlabki bir necha koeffitsiyentlarni tahlil qilish mumkin.

Tasvir konturlarini aniqlashda turli xil usullardan foydalanish mumkin. Biz shu usullardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz.


Sobel operatori: Shaklda ko'rsatilganidek, u ikkita bo'lak va 3x3 yadrodan iborat. Bu yadro xaritalari bir-biri bilan 90° ga aylantirilgan va konvolyutsiya bilan qo'llaniladigan tasvir. Sobel operatori gradientga asoslangan chekkalarni aniqlash algoritmlari. Shuning uchun u chekka aniqlash jarayonida maksimal nuqtalardan foydalanadi.

1-jadval. Sobel yadrolari

1	2	1
0	0	0
-1	-2	-1

-1	0	1
-2	0	2
-1	0	1

Sobel-Feldman operatorining natijasi har bir nuqtadagi gradientning 2 o'lovli xaritasidir. Uni o'zi tasvir kabi qayta ishlash va ko'rish mumkin, yuqori gradient joylari (ehtimol qirralari) oq chiziqlar sifatida ko'rinadi. Quyidagi rasmlar buni oddiy tasvirda Sobel-Feldman operatorining hisobini ko'rsatadi.



2-rasm. Sobel usulida chegaralarni aniqlangan tasvir

Canny operatori: Keng qirralarni aniqlash algoritmi optimal chekka aniqlash algoritmi sifatida tanilgan va eng ko'p amalda keng tarqalgan ishlatiladigan chekka aniqlash algoritmi. Canny chekkalarni aniqlash algoritmlarini yaxshilash ustida hozirgi kunda bir qancha mezonlarni keng qo'llanilgan. Canny tomonidan tanlangan mezonlarning eng muhimi past xatolik darajasini aniqlashdir. Yana bir muhim sifati aniqlangan qirralarning joylashuvi to'g'ri bo'lishi kerak. Keng qirralarni aniqlash algoritmi bir necha oddiy qadamlardan iborat. Ushbu algoritmning birinchi bosqichi tasvir shovqinni tozalashdir. Chunki shovqin tasvirdagi obyektlar chegaralarini aniqlashda xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Keyingi qadam, tasvir intensivligining ikki o'lovli hosilasi (G_x , G_y) Sobel, Prewitt kabi chekka aniqlash operatori yordamida olinadi. Va keyin ushbu natijalar (G_x , G_y) yordamida tasvirning gradienti hisoblanadi. Shaklda ko'rsatilgan Algoritm uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan 3×3 yadro juftligi.

-1	0	1
-2	0	2
-1	0	1

1	2	1
0	0	0
-1	-2	-1

Gradientning zichligini hisoblash uchun ishlatiladigan formula berilgan 2-tenglama.

$$|G| = |G_x| + |G_y|$$

Keyingi bosqichda chekka hududlarning yo'nalishi hisoblangan x va y yo'nalishlariga qarab aniqlanadi gradient. Va gradient yo'nalishi piksellarni ma'lum burchaklarda skanerlash orqali aniqlanadi (ko'pincha 0° , 45° , 90° , 135°). Chetning yo'nalishini aniqlash jarayonidan so'ng, maksimal bo'lmagan nuqtalar aniqlanadi. Bu shuni anglatadiki, chekka bo'lmagan piksellar 0 darajasiga kamayadi. Keng qirralarni aniqlash algoritmining yakuniy bosqichi sifatida tasvir chegarasi qo'llaniladi.



3-rasm. Canny usulida chegaralarni aniqlangan tasvir

Muhokama

Konturlarni aniqlash algoritmlari solishtirish tahlili, tasvir qirralarini aniqlashda foydalaniladigan turli xil algoritm turlarini solishtirib, ularning qanchalik samarali va aniq natijalar olib kelishini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bu hozirgi zamonaviy tasvir tahlilidagi muhim yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bu qismda mualliflar tomonidan tanlangan bir nechta algoritm turlarini, ularning prinsiplarini va ularning xususiyatlarini, solishtirishlarini tushuntirib, bir-biridan farqini ko'rsatadi. Bundan tashqari, mualliflar o'z takliflarini berib, qaysi algoritmning xususiyatlari tufayli konturni aniqlashda yaxshi natijalar olib chiqishiga yordam beradi. Tasvir konturlarini aniqlash bo'yicha mahalliy va xorijiy ilovalar yaratuvchilari, akademik o'qituvchilar, tadqiqotchilar va bu sohadagi boshqa mutaxassislar uchun qiziqarli bo'ladi.

Xulosa

Ushbu maqolada descriptor hamda konturlarni aniqlashning Sobel va Canny usullari o'rganildi va taqqoslanadi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, Canny algoritmi aniqlik bo'yicha boshqa algoritmlardan yaxshiroqdir. Sobel algoritmi esa eng tezkor hisoblanadi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tahlil qilingan konturlar tashqi omillarning ta'siri natijasida sezilarli darajada buzilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fazilov Sh Kh, Mirzaev N M, Nurmukhamedov T R, Ibragimova K A, Ibragimova S N 2019 International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) 9(1) 2278-3075
2. Kamilov M M, Mirzaev N M, Radjabov S S 2009 "Knowledge - Ontology - Theories" (ZONT09): Materials of the All-Russian conference with international participation 1 35-41
3. Balochian, S., Baloochian, H. Edge detection on noisy images using Prewitt operator and fractional order differentiation. *Multimed Tools Appl* 81, 9759–9770 (2022).
4. Bekmuratov Q., Mamaraufov O., Shamiyev M. Using descriptors for image recognition. *Journal of Physics: Conference Series. International Conference on IT in Business and Industry (ITBI 2021)*
5. Shamiyev M O 2020 International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology 7(10) 2350-0328
6. Shamiyev M O 2020 International journal of Psychosocial Rehabilitation. 24(9).

SUN'IY INTELLEKTNING KIMYO SOHASIDA QO'LLANILISHI

Boboyarova Nilufar Saydullayevna

O'zbekiston-Finlyandya Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola sun'iy intellektning kimyo sohasidagi qo'llanilishini tahlil qiladi va uning ilmiy va amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Maqola, sun'iy intellektning kimyo sohasida qanday yangi imkoniyatlar yaratgani, mavjud texnologiyalarni qanday takomillashtirayotganligi va bu texnologiyalarning kelgusi rivojlanish istiqbollari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Аннотация. В данной статье анализируется применение искусственного интеллекта (ИИ) в области химии и демонстрируется его научное и практическое значение. Рассматриваются новые возможности, которые искусственный интеллект открывает в химии, а также усовершенствования существующих технологий и перспективы их дальнейшего развития. Статья предоставляет детальную информацию о том, как ИИ способствует созданию инновационных решений в химии и какие изменения он приносит в текущие практики и исследования.

Abstract. This article analyzes the application of artificial intelligence (AI) in the field of chemistry and demonstrates its scientific and practical significance. It provides a detailed examination of how AI creates new opportunities in chemistry, enhances existing technologies, and outlines the future development prospects of these technologies. The article aims to illustrate the impact of AI on chemical research and practices, highlighting both the advancements and the potential challenges in this evolving field.

Kalit so'zlar: kimyoviy reaksiya, molekulyar struktura, fizikaviy xususiyat, sun'iy intellekt, kimyoviy birikma

Ключевые слова: химическая реакция, молекулярная структура, физические свойства, искусственный интеллект, химическое соединение

Keywords: chemical reaction, molecular structure, physical property, artificial intelligence, chemical compound

Sun'iy intellekt hozirgi zamonning eng ilg'or va tez rivojlanayotgan texnologiyalaridan biri bo'lib, turli sohalarda jumladan, sog'liqni saqlash, moliya, transport va maishiy xizmat sohalarda qo'llanilmoqda. Sun'iy intellektning rivojlanishi hisoblash quvvati, katta ma'lumotlar va algoritmlar sohasidagi yutuqlar tufayli davom etmoqda va kelgusi yillarda bu soha jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo'lishi kutilmoqda. [1]

Kimyo sohasida ham bu texnologiyaning qo'llanilishi sezilarli darajada kengaymoqda. Kimyo, o'zining murakkab tajriba va nazariy masalalari bilan, yangi bilimlarni yaratish va mavjud bilimlarni chuqurlashtirish uchun samarali vositalarga muhtoj. Sun'iy intellektning o'ziga xos xususiyatlari, masalan, katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish qobiliyati, o'z-o'zini o'rganish imkoniyati va yuksak samaradorligi, kimyo sohasida muhim yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Sun'iy intellektning kimyo sohasidagi qo'llanilishi ikki asosiy yo'nalishda rivojlanmoqda: ma'lumotlarni tahlil qilish va yangi materiallar yaratish. Ma'lumotlarni tahlil qilishda sun'iy intellekt tajriba natijalarini tez va samarali ravishda qayta ishlash orqali tadqiqotchilarga yangi bilimlarni olishda yordam beradi. Masalan, kimyoviy reaksiyalar, molekulyar strukturalar va fizikaviy xususiyatlar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda sun'iy intellekt algoritmlari tadqiqot jarayonini tezlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi. [2]

Yangi materiallar yaratish jarayonida, sun'iy intellekt kompyuter simulyatsiyalari va mashina o'qitish algoritmlari yordamida yangi kimyoviy birikmalar va materiallarning xususiyatlarini bashorat qilishda yordam beradi. Bu, o'z navbatida, materialshunoslik, farmatsevtika va energetika sohalarida yangi imkoniyatlarni yaratadi.[3]

Shu bilan birga, sun'iy intellektning kimyo sohasidagi qo'llanilishi hali rivojlanish bosqichida bo'lib, uning samaradorligi va to'g'riligi ko'plab tadqiqotlar va sinovlarni talab etadi. Bu maqolada, sun'iy intellektning kimyo sohasidagi mavjud imkoniyatlarini, uning tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlarida qanday qo'llanilishini va bu texnologiyaning kimyo sohasiga qanday ta'sir ko'rsatishini batafsil ko'rib chiqamiz.

Sun'iy intellekt va mashina o'qitish texnologiyalari kimyo sohasida chuqur o'zgarishlarga olib kelmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining kimyo sohasidagi asosiy qo'llanilishlari, xususan, kimyoviy reaksiyalarni bashorat qilish, yangi materiallar yaratish, ma'lumotlarni tahlil qilish va farmatsevtika sohasida qo'llaniladi.

2. Kimyoviy reaksiyalarni bashorat qilish. Kimyoviy reaksiyalarni bashorat qilish, kimyo sohasidagi asosiy masalalardan biridir. Mashina o'qitish algoritmlari yordamida bu jarayonni samarali amalga oshirish mumkin. Patel va Lee (2022) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, mashina o'qitish modellarining kimyoviy reaksiyalarni taxmin qilishda qanday muvaffaqiyatli natijalar berayotganligi va ularning cheklovlari muhokama qilingan. [4] Tadqiqotchilar, algoritmlar yordamida reaksiyalarni to'g'ri bashorat qilish, tajribalarni samarali rejalashtirish va natijalarni optimallashtirish mumkinligini ko'rsatdilar.



(2)

Mashina o'qitish algoritmlari yordamida kimyoviy reaksiyalarni bashorat qilish ilmiy tadqiqotlarda va sanoatda yangi kimyoviy birikmalarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar kimyoviy reaksiyalarni tahlil qilish, o'rganish va bashorat qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Quyida mashina o'qitish algoritmlaridan qanday foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot keltirilgan:

- ❖ kimyoviy ma'lumotlar yig'ish ya'ni - reaksiyalar, reaktivlar (1,2-rasmlar) mahsulotlar, sharoitlar (harorat, bosim, katalizatorlar) va vaqt kabi turli ma'lumotlar yig'iladi
 - ❖ xato yoki noaniq ma'lumotlarni olib tashlash
 - ❖ reaksiyalarning qaysi turdagi reaktivlar bilan amalga oshishi va qaysi mahsulotlarni hosil qilishini aniqlash
 - ❖ reaksiyaning tezligini, chiqish mahsulotlarining miqdorini yoki energetik parametrlarini bashorat qilish
 - ❖ o'xshash kimyoviy reaksiyalarni guruhlash va yangi reaksiyalarni aniqlash.

3. Yangi materiallar yaratish. Sun'iy intellekt, yangi kimyoviy birikmalar va materiallarni yaratishda ham katta rol o'ynaydi. Chen va Zhang (2020) o'z maqolalarida sun'iy intellekt yordamida yangi materiallarni yaratish jarayonida qanday yutuqlarga erishilganligini yoritib, sun'iy intellekt asosidagi kompyuter simulyatsiyalari va algoritmlarning materialshunoslikdagi ahamiyatini ko'rsatadilar. [5] Ularning tadqiqoti, materiallarning xususiyatlarini bashorat qilish va yangi materiallar dizaynini takomillashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qanday yordam bera olishini tushuntiradi.

Sun'iy intellekt yordamida yangi kimyoviy birikmalar va materiallarni yaratish bir qator ilg'or usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Asosiy yondashuvlar quyidagicha: sun'iy intellekt yordamida yangi kimyoviy reaksiyalarni modellashtirish va ular uchun optimal sharoitlarni aniqlash. Bu yangi birikmalarni olishda samarali reaksiya sharoitlarini tavsiya etadi. Sun'iy intellekt yordamida reaksiya sharoitlarini (harorat, bosim, vaqt) optimallashtirish va yangi materiallar uchun eng yaxshi sharoitlarni aniqlaydi.

4. Ma'lumotlarni tahlil qilish. Kimyo sohasida ma'lumotlarni tahlil qilish, tajribalar natijalarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Smith va Johnson (2021) tomonidan taqdim etilgan tadqiqot, sun'iy intellekt yordamida kimyo sohasida ma'lumotlarni tahlil qilishning hozirgi holati va kelgusi istiqbollari haqida batafsil tahlil qiladi. [6] Ularning ishida sun'iy intellekt texnologiyalarining ma'lumotlar analizi jarayonidagi muvaffaqiyatli qo'llanilishlari va tajribalar natijalarini qanday yaxshilash mumkinligi ko'rsatiladi.

5. Farmatsevtika sanoatida qo'llanilishi. Sun'iy intellekt farmatsevtika sanoatida ham muhim rol o'ynamoqda. Brown va Taylor (2021) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda, sun'iy intellektning dorilarni kashf etish va rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. [7] Tadqiqotchilar, sun'iy intellekt yordamida dori vositalarining yangi molekulyar tuzilmalari va farmakologik xususiyatlarini qanday aniqlash mumkinligini ko'rsatadilar.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt bizning yashash, ishlash va bir-birimiz bilan munosabatimizni o'zgartiradi. Sun'iy intellekt texnologiyasi rivojlanishda davom etar ekan, uning ta'siri kelgusi yillarda yanada sezilarli bo'ladi. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, sun'iy intellektning ta'siri yanada sezilarli bo'ladi va biz yaqin kelajakda yanada qiziqarli o'zgarishlarni kutishimiz mumkin. Ko'p afzalliklariga qaramay, biz har qanday kutilmagan oqibatlarining oldini olish uchun sun'iy intellektdan ehtiyotkorlik bilan foydalanishimiz kerak. Biroq, agar biz sun'iy intellekt kuchidan mas'uliyat bilan foydalana olsak, u bizning kelajagimizni qiziqarli va innovatsion

usullarda shakllantirishda davom etishiga shubha yo‘q. Sun‘iy intellekt sog‘liqni saqlashdan tortib qishloq xo‘jaligigacha bo‘lgan turli sohalarda o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu tibbiyot mutaxassislarining imkoniyatlarini oshirib, ularga murakkab kasalliklarga to‘g‘ri tashxis qo‘yish va tegishli davolash usullarini tavsiya etish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi texnologiyalari kompaniyalari chiqindilarni kamaytiradigan, hosildorlikni oshiradigan va oziq-ovqat sifatini yaxshilaydigan aniq qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqish uchun sun‘iy intellektdan foydalanmoqda. Sun‘iy intellektning o‘zgartiruvchi kuchi ko‘ngilochar industriyada ham ko‘rinadi, bu yerda u yuqori sifatli musiqa va filmlar ishlab chiqarishni osonlashtiradi. Va albatta yuqorida ta‘kidlaganimizdek, sun‘iy intellekt va mashina o‘qitish texnologiyalari kimyo sohasida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Kimyoviy reaksiyalarni bashorat qilish, yangi materiallar yaratish, ma‘lumotlarni tahlil qilish va farmatsevtika sanoatidagi qo‘llanilishlari bu texnologiyalarning keng qamrovli imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar va adabiyotlar yordamida sun‘iy intellekt texnologiyalarining kimyo sohasida qanday muvaffaqiyatli qo‘llanilishi va kelgusi rivojlanish istiqbollari batafsil yoritildi. Bu texnologiyalar kimyo sohasida yanada chuqurroq bilimlarni olish va innovatsiyalarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamadaliyev N., Amirov J. Sun‘iy intellekt va uning inson hayotiga ta‘siri “Новости образования: исследование в XXI веке” №10 (100), часть 2, май 2023
2. Machine Learning Approaches in Chemical Reaction Prediction– S. K. Patel va M. R. Lee, Chemical Reviews 2022.
3. Artificial Intelligence in Chemistry: Current Status and Future Prospect A. M. Smith va B. L. Johnson, Journal of Chemical Information and Modeling 2021.
4. Patel, S. K., Lee, M. R. (2022). Machine Learning Approaches in Chemical Reaction Prediction. Chemical Reviews
5. Chen, L., Zhang, X. (2020). Data-Driven Discoveries in Chemistry: The Role of AI and Machine Learning. Nature Reviews Chemistry
6. Smith, A. M., Johnson, B. L. (2021). Artificial Intelligence in Chemistry: Current Status and Future Prospects. Journal of Chemical Information and Modeling
7. Brown, D. R., Taylor, J. M. (2021). Artificial Intelligence in Drug Discovery and Development. Annual Review of Pharmacology and Toxicology.



SUN‘IY INTELEKTNI RIVOJLANTIRISHNING FOYDALI VA SALBIY JIHATLARI

Egamberdiyeva Gulhayo Azamat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali 2-bosqich talabasi

egamberdiyevbegali1@gmail.com

Annotatsiya. Sun‘iy intellektning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo‘lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir.

Kalit so‘zlar: Sun‘iy intellekt, robotlar, sog‘liqni saqlash, sun‘iy ong, inson xatosi, qishloq xo‘jaligi.

Аннотация. Идеальная особенность искусственного интеллекта - это способность оценивать и выполнять действия, которые имеют наилучшие шансы на точное обнаружение.

Ключевые слова: искусственный интеллект, здравоохранение, искусственный интеллект, человеческая ошибка, сельское хозяйство.

Sun‘iy intellekt deganda insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun‘iy tizim tushuniladi. Ammo sun‘iy intellektni to‘liq anglash uchun “aqli bo‘lgan mashinalarni yaratish” degan tushunchaning o‘zi yetarli emas. Ushbu atama, shuningdek, o‘rganish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog‘liq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday mashinaga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

Ko‘pchilik sun‘iy intellekt atamasini eshitganda, birinchi navbatda ko‘z oldiga robotlar keladi. Ammo robotlar sun‘iy intellektning kichik bir ko‘rinishi hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanib borgan sari sun‘iy intellektni belgilaydigan oldingi ko‘rsatkichlar eskirib bormoqda. Xususan, kompyuter yordamida matematik hisob-kitoblarni amalga oshirish, bugungi kunda kompyuterning bir funksiyasi sifatida qaraladi.

Sun‘iy intellektning foydali tomonlari

Sun‘iy intellekt inson xatolarini kamaytiradi. “Inson xatosi” iborasi odamlar vaqti-vaqti bilan xatolarga yo‘l qo‘ygani uchun paydo bo‘lgan tushunchadir. Kompyuterlar, agar ular to‘g‘ri dasturlashtirilgan bo‘lsa, bunday xatolarga yo‘l qo‘ymaydi. Sun‘iy aql bilan qarorlar ma‘lum bir algoritmlar to‘plamini qo‘llagan holda ilgari to‘plangan ma‘lumotlar asosida qabul qilinadi. Sun‘iy intellektning keng miqyosda qo‘llanilishi xatolarni kamaytiradi va aniqlik darajasini oshiradi.

7 kun davomida 24 soat mehnat qiluvchi tizim. O‘rtacha odam tanaffuslarsiz kuniga 4-6 soat ishlashi mumkin. Ammo SI asosida yaratilgan texnologiyalar hech qanday tanaffuslarsiz 24x7 ishlashi mumkin. Ular odamlardan farqli o‘laroq zerikmaydi va charchamaydi.

Qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. SI odamlardan ko‘ra tezroq qaror qilishi va harakatlarni bajarishi mumkin. Qaror qabul qilish paytida inson ko‘plab omillarni ham hissiy, ham amaliy jihatdan tahlil qiladi, ammo sun‘iy intellekt bilan ishlaydigan mashina dasturlashtirilgan tizim asosida ishlaydi va natijalarni tezroq beradi.

Shuningdek, SI deyarli har qanday sohada ko‘plab ixtirolarni kuchaytirmoqda, bu esa odamlarga aksariyat murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Sun‘iy intellekt foydasi yoki zarari?

SI haqida bahslar uzoq yillardan beri davom etib keladi. Bu ayniqsa haydovchisiz transport vositalari ommalasha boshlagandan keyin juda kuchaydi. Ba‘zilar ularning ommalashib, odamlar o‘rnini egallab borayotgani natijasida ishsizlik ko‘rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishlansa, mutaxassislarning boshqa bir guruhi esa SIga ijobiy munosabatda bo‘lish kerakligini ta‘kidlaydi. Tesla va Space X kompaniyalari asoschisi Ilon Mask sun‘iy intellekt insoniyat sivilizatsiyasi uchun eng katta xatar ekanligini aytib o‘tgan. “Sun‘iy ong insoniyat kelajagi uchun judayam xavflidir. Sun‘iy intellekt texnologiyalari insonlarni mehnat bozorida chiqarib yuboradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko‘ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg‘or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun‘iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko‘rmay qolishlari mumkin”, degan Mask. Mark Sukerberg esa Ilon Maskning fikrlariga qarama-qarshi ravishda yaqin 5-10 yil ichida sun‘iy intellektning juda katta muvaffaqiyati va foydali tomonlarini ko‘rish mumkinligini ta‘kidlagan.

Qishloq xo‘jaligi sohasida: yerni masofadan zondlash ma‘lumotlari asosida tuproq va qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikasi shu jumladan, kombaynlar ishini monitoring qilishda;

Bank sohasida: tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit risklarini baholashda;

Moliya sohasida: byudjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug‘urta to‘lovlari, shuningdek, nafaqa to‘lovlari tahlil qilish va samaradorligini oshirishda;

Transport sohasida: avtomobil harakatini va transportdagi tirbandliklarni monitoring qilishda;

Sog‘liqni saqlash sohasida: inson o‘pkasining kompyuter tomografiyasi tahlili asosida pnevmoniyani aniqlash hamda mammografiya tahlili asosida ko‘krak bezi saratoniga ilk bosqichda tashxis qo‘yish uchun;

Bu yo‘nalishda O‘zbekistonda ham katta qadam tashlandi va sun‘iy intellekt sohasida qonunchilikdagi bo‘shliq to‘ldirildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi tashabbusi bilan O‘zbekiston innovatsion rivojlanish strategiyasi va Ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida mamlakatda sun‘iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi, transport, energetika, sog‘liqli saqlash kabi tarmoqlarga sun‘iy intellekt texnologiyalarini o‘z ichiga olgan innovatsion loyiha va yechimlar joriy etiladi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma‘lumotlardan foydalanish imkoniyatini hamda ularning yuqori sifatini ta‘minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshpo‘latov D.Sh., Mamatqulov Q.E. Qishloq xo‘jaligida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari // Science and education in agriculture. 2024, 2(2), 39-48 b.
2. Nabokov V.I., Nekrasov K.V., Zueva O.N., Donskova L.A. Agrosanoat majmuasida logistika tizimlarini shakllantirish va rivojlantirish omili sifatida sanoat xususiyatlari // Uralning agrar xabarnomasi. 2016 yil. 12-son (154).
3. Nabokov V.I., Ishniyazova A.R., Nekrasov K.V. Zamonaviy tashkilotlarning innovatsion faoliyatini takomillashtirish: monografiya. Izhevsk: Print-2 MChJ, 2017. 140 p.



XAUSDORF-BEZIKOVICH VA MINKOVSKIY-BULIGAN O‘LCHOVLARI ASOSIDA GEOMETRIK FRAKTALLARNI O‘LCHASH

J.S. Jabbarov, G‘.K. Baxriddinov,

Samarqand davlat universiteti dotsenti, jamoliddin.jabbarov@mail.ru
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, baxriddinov_2014@mail.ru

Annototsiya. Mazkur maqola fraktal o‘lchovlarning istiqboldagi o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan. Fraktal geometrik ob‘ektlarni keng doiradagi sinflarining kompyuterli modellashtirishning turli xil usullari batafsil bayoni qilingan, hamda virtual va real fraktallarning fraktal o‘lchamini matematik tahlilining asosiy usullari ifodalab berilgan. Maqolada fraktallar tushunchasi, xususiyatlari, B.Mandelbrot tarifi, Xausdorf-Bezikovich o‘lchovi, Minkovskiy-Buligan o‘lchovi, topologik o‘lchov, fraktal o‘lchovi tushunchasi bilan Yevklid geometriyasidagi o‘lchov orasidagi farqlar ta‘riflar yordamida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Fraktal, fraktal o‘lchov, Topologik o‘lchov, Braner o‘lchovi, Xausdorf-Bezikovich o‘lchovi, Minkovskiy-Buligan o‘lchovi, Kox egri chizig‘i, Given (shlyapa) egri chizig‘i, Kontor to‘plam, Serpin gilami, xaos.

Kirish

Fraktallar fanda ko‘pdan ko‘p qo‘llanilmoqda. Buning asosiy sababi u mavjud borliqni an‘anaviy fizika yoki matematikaga nisbatan juda aniq bayon etadi. Bir necha misol keltiramiz: kompyuter tizimlari, suyuqlik mexanikasi, telekommunikatsiya, sirtlar fizikasi, tibbiyot, biologiya va boshqalarda.

Fraktal geometriyaning asosiy g'oyalaridan biri borliqda o'lchovlar miqdori uchun butun bo'lmagan qiymatlar g'oyasidir. B.Mandelbrot butun bo'lmagan o'lchov 2.76 ni fraktal o'lchov deb nomladi [1.B.132], bazi geometirik shakllarning fraktal o'lchovi aniqlandi.

Har bir yangilik yoki o'zgarish hayotiy zarurat tufayli paydo bo'ladi. "Fraktal" tushunchasi ham mana shunday hayotiy zarurat tufayli paydo bo'lgan. Buning asosiy sababi tabiatdagi ba'zi ob'ekt, hodisa va voqealarni fanda hozirgacha ma'lum bo'lgan usullar yordamida tushuntirish imkoniyatining bo'lmaganligidir.

Fraktal - bu geometrik shakl bo'lib, aniq bir qismi o'lchamlari o'zgargan holda qayta-qayta takrorlanishidir [1.B.76]. Bu yerdan o'ziga-o'zi o'xshashlik xususiyati kelib chiqadi. Barcha fraktallar o'ziga-o'zi o'xshashdir, ular hamma darajalarda o'zini-o'zi takrorlaydigan shakllardir. Biroq, fraktallar-murakkab shakllar bo'lib qolmay, balki matematik formulalarda hamda kompyuter dasturlari yordamida bo'g'implarga bo'lingan. Xulosa shuki, tasodifiy va tartibsiz harakatlar fraktallardir. Nazariy tomondan mavjud olamdagi barcha narsalar ular bulutlarni yoki kichik kislorod molekulasi bo'ladimi ularning barchasi fraktallar hisoblanadi.

Asosiy qism

Fraktal geometriyaning asosiy g'oyalaridan biri borliqda o'lchov miqdori uchun butun bo'lmagan qiymatlar g'oyasidir. B.Mandelbrot butun bo'lmagan o'lchovlarni "*Fraktal o'lchov*" lar deb atadi [1.B.41].

B.Mandelbrot quyidagi fikrni aytgan: "Fraktalning asosiy xususiyatlaridan biri uning uzunligidir" [1.B.38]. Fraktal o'lchovning boshqa o'lchovlardan farqi shundaki olingan o'lchovni fraktalning umumiy o'lchovidan kichik bo'lishi kerak, ya'ni $l_{\min} < l < l_{\max}$ tengsizlikni qanoqlantirsa [1, 2, 5, 7-9, 14-15].

Ta'rif. Agar X fazoning istalgan ochiq qobig'iga karraligi $n + 1$ dan katta bo'lmagan yopiq qism qobiqni kiritish mumkin bo'lsa, shunday n ta butun sonlarning eng kattasiga X ning d_T topologik o'lchovi yoki *dim* kompakti deyiladi. Agar bunday sonlar mavjud bo'lmasa, topologik o'lchov

$$\dim X^{def} = +\infty$$

deb faraz qilinadi. Topologik o'lchov shuningdek Braner o'lchovi yoki oddiy o'lchov deb ham yuritiladi [7, 10].

Fazoda topologik o'lchov deb, D_T chiziqli mustaqil koordinatalar soniga aytiladi [1, 3-4, 6, 10-13].

Masalan: Topologik o'lchov butun sonli o'lchov bo'lib, aylananing topologik o'lchovi $D_T = 1$, doiraning topologik o'lchovi $D_T = 2$, shar yoki kubning topologik o'lchovi $D_T = 3$ ga teng [1-2, 11-13].

Xausdorf-Bezikovich o'lchovi. Bu o'lchovni keltirib chiqarish uchun, berilgan fraktalning uzunligini l ga teng deb, quyidagicha masshtablanadi: ya'ni,

$$l = \frac{L}{N}, \quad (1)$$

bu yerda N soni l to'g'ri chiziqning bo'laklari soni va N sonini ixtiyoriy olish mumkin, lekin l ni o'zgartira olmaymiz chunki u dastlabgi uzunlikdan iborat. Shunga ko'ra,

$$L(l) = l * N, \quad (2)$$

bu formula asosida to'g'ri chiziqning uzunligini, kvadrat va to'rtburchaklarning sirtini, kub, shar kabilarning hajmlarini o'lchash mumkin. U holda maydonning yuzi

$$S = L(l) * l, \quad (3)$$

Chunki (1) dan

$$S = l^2 * N = \left(\frac{L(l)}{N}\right)^2 * N = \frac{L(l)}{N} * \frac{L(l)}{N} * N = L(l) * l.$$

Hajm uchun

$$V = l^3 * N = L(l) * l^2. \quad (4)$$

Shunday qilib, bu qoida berilgan o'lchovni k marta qisqartiradi. Demak, $l = \frac{L(l)}{k}$, deb (2) formuladagi

l ning o'rniga qo'ysak:

$$L(l) = L(l) * \frac{N}{k},$$

$$S = L(l)^2 * \frac{N}{k^2},$$

$$V = L(l)^3 * \frac{N}{k^3},$$

Demak, o'xshashlik koeffitsenti $\chi = \frac{1}{k}$, $\chi = \frac{1}{k^2}$, $\chi = \frac{1}{k^3}$, $\chi = \frac{1}{k^n}$ ekan.

Endi berilgan l uzunlikni 1 birlik deb qaralsa, ya'ni $l = 1$ bo'lsa

$$l = k^d,$$

bo'ladi va ikkala tamoni natural logarifm ko'rinishida ifodalasak:

$$\ln(k^{-d}) = \ln(N),$$

$$d = \lim_{k \rightarrow \infty} \frac{\ln(N)}{\ln\left(\frac{1}{k}\right)}.$$


Bu o'lchovni bir-biridan farqli ravishda **Xausdorf-Bezikovich** aniqlaganlar [12-14]. Yuqoridagi o'lchov boshqa o'lchovlardan kasrliligi bilan farq qiladi.


Minkovskiy-Buligan o'lchovi [10, 12]:


$$d_M = \lim_{r \rightarrow \infty} \frac{\ln(S(r))}{\ln\left(\frac{1}{r}\right)} + 2.$$

Barcha qat'iy o'ziga o'xshash fraktallar uchun d_M Minkovskiy o'lchovi d_H Xausdorf-Bezikovich o'lchovidan hisoblash xatoligi kattadir, chunki u ob'ektning ba'zi bir noqulay mayda tuzilishlarini hisobga olmaydi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda klassik geometrik fraktallarning o'lchovlarini qarab chiqamiz.

1. Kontor to'planning fraktal o'lchovi:

1-qadam  $N_1 = 1, \chi_1 = 1;$

2-qadam  $N_2 = 2, \chi_2 = \frac{1}{3};$

3-qadam  $N_3 = 4, \chi_3 = \frac{1}{9};$

.....


n -qadamda $N_n = 2^n$ $\chi_n = \frac{1}{3^n}$ ga teng bo'ladi. U holda Kontor to'planning fraktal o'lchovi quyidagiga

teng:


$$D = \lim_{\chi \rightarrow \infty} \frac{\ln(N)}{\ln\left(\frac{1}{\chi}\right)} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\ln(2^n)}{\ln\left(\frac{1}{3^n}\right)} = \frac{\ln 2}{\ln 3} = 0.63093. \quad (5)$$

2. Given (shlyapa) egri chizig'ining fraktal o'lchovi:

1-qadam  $N_1 = 1, \chi_1 = 1;$

2-qadam  $N_2 = 8, \chi_2 = \frac{1}{4};$

3-qadam



$$N_2 = 64, \quad \chi_2 = \frac{1}{16};$$

agar qadamlar sonini davom ettirsak n – qadamda quyidagi natijaga erishiladi $N_n = 8^n$ $\chi_n = \frac{1}{4^n}$, demak

Given egri chizig'ining fraktal o'lchovi quyidagiga teng:

$$D = \lim_{\chi \rightarrow \infty} \frac{\ln(N)}{\ln\left(\frac{1}{\chi}\right)} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\ln(8^n)}{\ln\left(\frac{1}{4^n}\right)} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\ln 2^{3n}}{\ln 4^{2n}} = \frac{3}{2} = 1.5. \quad (6)$$


3. Kvadratning bo'yalgan holati uchun:

1-qadam




$$N_1 = 1, \quad \chi_1 = 1;$$

2-qadam



$$N_2 = 4, \quad \chi_2 = \frac{1}{4};$$

3-qadam



$$N_3 = 16, \quad \chi_3 = \frac{1}{16};$$

agar qadamlar sonini davom ettirsak n – qadamda quyidagi natijaga erishiladi $N_n = 4^n$ $\chi_n = \frac{1}{4^n}$, demak

kvadratning bo'yalgan holati uchun fraktal o'lchovi quyidagiga teng:

$$D = \lim_{\chi \rightarrow \infty} \frac{\ln(N)}{\ln\left(\frac{1}{\chi}\right)} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\ln(4^n)}{\ln\left(\frac{1}{4^n}\right)} = 1. \quad (7)$$

Yuqorida keltirilgan (5-11) formulalardagi χ – o'xshashlik koeffitsiyenti, N – hosil bo'lgan nusxalar soni.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki fraktallarda Xausdorf-Bezikovich va Minkovskiy-Buligan o'lchovlarining keng doiradagi sinflarining kompyuterli modellashtirishning turli xil usullari batafsil bayoni qilingan, hamda virtual va real fraktallarning fraktal o'lchamini matematik tahlilining asosiy usullari ifodalab berilgan. Maqolada fraktallar tushunchasi, xususiyatlari, B.Mandelbrot tarifi, Xausdorf-Bezikovich o'lchovi, Minkovskiy-Buligan o'lchovi, topologik o'lchov, fraktal o'lchovi tushunchasi bilan Yevklid geometriyasidagi o'lchov orasidagi farqlar ta'riflar yordamida asoslandi. Shuningdek, bir qancha geometrik shakllarning fraktal o'lchovlari hisoblab chiqilgan. Real mavjud va abstrakt matematik fraktallarning fraktal tahliliga yondashishlardagi farqlar, fraktallarning sig'imli o'lchamini hisoblash uchun sonli algoritmi qo'llash kerakligi taklif qilingan.

Natijalar takrorlanishning har bir qadamida olingan, ular formula hamda grafiklar ko‘rinishda keltirilgan. Fraktal o‘lchovlar asosida tabiatdagi ba’zi geometirik ob’ektlarning o‘lchovlarini o‘lchashda fraktallardan foydalanib ijobiy natijalar olish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mandelbrot B.B. Les Objects Fractals: Forme, Hasard et Dimension.- Paris: Flammarion, 1975, 1984, 1989, 1995, 2010;
2. Zaynidinov H.N., Anarova Sh.A., Jabbarov J.S. Determination of Dimensions of Complex Geometric Objects with Fractal Structure. // 13th International Conference on Intelligent Human Computer Interaction 21-22 December-2021. 437-447 p.
3. Jabbarov J.S. Kubik splayn yordamida matematik funksiyalarni interpolyatsiyalash xatoliklarini kamaytiruvchi algoritim va dasturiy vositalar. // Innovatsion va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim, fan va boshqaruv sohaslarida qo‘llash istiqbollari 2020 yil 14-15 may № 5. 200 b. 120-122 b.
4. Jabbarov J.S. Fraktal o‘lchov asosida geometirik shakillarning o‘lchovlari. // Innovatsion yondoshuvlar asosida milliy talim tizimini takomillashtirish. Halqaro ilmiy- amaliy konferensiya 2021 yil 23 aprel 419 b. 179-182 b.
5. Jabbarov J.S. Inson to‘r pardasidagi qon tomir tizimlarining fraktal tuzilishi va fraktal o‘lchovi. // Yangi O‘zbekistonda islohotlarni amalga oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Halqaro ilmiy – amaliy konferensiya 2021-yil. 27-oktyabr 456 b. 98-101 b.



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON TEACHING ENGLISH FOR SPECIALIZED PURPOSES (ESP) IN THE EDUCATIONAL FIELD.

Mamirova Munisa Rajab qizi

+99894 345 46 64 missmunisa.mamirova@gmail.com

Annotation. This article explores the integration of Artificial Intelligence (AI) in teaching English for Specific Purposes (ESP). It examines the potential benefits of AI tools in enhancing language learning tailored to specific professional fields. The study highlights various AI applications, their effectiveness, and the implications for educators and learners. The findings suggest that AI can significantly improve the learning experience and outcomes in ESP contexts.

Аннотация. В данной статье рассматривается интеграция искусственного интеллекта (ИИ) в обучение английскому языку для специальных целей (ESP). Изучаются потенциальные преимущества ИИ-инструментов в улучшении языкового обучения, ориентированного на конкретные профессиональные области. В исследовании подчеркиваются различные ИИ-приложения, их эффективность, а также влияние на преподавателей и обучающихся. Результаты показывают, что ИИ может значительно улучшить процесс обучения и его результаты в контексте ESP.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (AI)ning maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini o‘qitishda integratsiyasi ko‘rib chiqiladi. AI vositalarining turli kasbiy sohalarga moslashtirilgan til o‘rganishni yaxshilashdagi potensial foydalari o‘rganiladi. Tadqiqotda turli AI ilovalari, ularning samaradorligi va o‘qituvchilar hamda o‘rganuvchilar uchun ta’siri ta’kidlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, AI maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini o‘rgatishda o‘rganish jarayoni va natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Keywords: Artificial Intelligence (AI), English for Specific Purposes (ESP), Language learning, Educational technology, Personalized learning

Ключевые слова: Искусственный интеллект (ИИ), Английский для специальных целей (ESP), Изучение языка, Образовательные технологии, Персонализированное обучение.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt (SI), Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), Til o‘rganish, Ta’lim texnologiyalari, Shaxsiylashtirilgan o‘qitish.

Introduction.

The increasing globalization of business and technology has underscored the necessity for professionals to master English, particularly in specific domains such as medicine, engineering, and business. English for Specific Purposes (ESP) addresses this need by providing tailored language instruction that aligns with the linguistic demands of various fields. Recent advancements in Artificial Intelligence (AI) have introduced new possibilities for enhancing ESP education. One of the most significant advantages AI brings to ESP education is personalized learning experiences. AI algorithms can analyze learner data, such as proficiency level, learning pace, and specific field-related needs, to create customized learning paths. This allows for highly focused content that addresses domain-specific vocabulary, phrases, and linguistic structures essential for professional communication in specialized fields. For example, AI-powered platforms can adjust content dynamically to match the linguistic requirements of medical

professionals dealing with patient care or engineers working on technical reports. AI in ESP leverages adaptive learning technologies to ensure that learners are continually challenged without becoming overwhelmed.

Literature Review

The literature on ESP emphasizes the importance of contextualized language learning. Hutchinson and Waters (1987) [3] define ESP as an approach that focuses on the specific needs of learners, highlighting its relevance in professional contexts. The integration of technology in language education has been widely discussed, with researchers like Chapelle (2003) [1] emphasizing the transformative potential of digital tools in facilitating language acquisition.

Recent studies have begun to explore the intersection of AI and language learning. For instance, Godwin-Jones (2018) [2] notes that AI-driven applications can offer personalized learning experiences, adapting to the individual needs of learners. Similarly, Xu and Li (2021) highlight the role of AI in providing real-time feedback, enhancing learner engagement, and promoting autonomy.

Moreover, the effectiveness of AI in ESP contexts is becoming a subject of inquiry. Research by Wu et al. (2022) [4] indicates that AI tools can create tailored learning experiences that better meet the specific linguistic and communicative requirements of professional fields. These insights underscore the potential of AI to not only complement traditional teaching methods but to redefine how ESP is taught and learned.

Methodology

This study employs a qualitative approach, involving a comprehensive review of existing literature on AI applications in ESP education. Data were collected from academic journals, conference proceedings, and case studies that detail the implementation of AI tools in language learning environments. The analysis focused on identifying key themes related to the effectiveness of AI in enhancing ESP education, learner engagement, and personalized learning pathways.

Results

The analysis revealed several key findings:

Personalization: AI tools enable personalized learning experiences by adapting to individual learners' needs, preferences, and proficiency levels. Programs like Duolingo and Rosetta Stone use AI algorithms to customize lessons, making them more relevant to the learners' specific professional contexts. AI can analyze a learner's proficiency level, strengths, and weaknesses, adapting content accordingly. For example, platforms like Adaptive Learning Systems (e.g., Smart Sparrow) adjust the complexity of tasks based on real-time performance data.

Real-time Feedback: AI applications provide instant feedback on language use, helping learners correct mistakes and improve their skills in real-time. This immediacy fosters a more engaging and interactive learning environment. Tools like Grammarly and language learning apps like Busuu utilize AI to offer suggestions on grammar, vocabulary, and style, which is vital in professional communication. AI can track learners' progress over time, generating reports that help educators identify areas needing improvement. This data-driven approach allows for more focused teaching strategies.

Access to Authentic Materials: AI-driven platforms can curate authentic materials relevant to specific industries, offering learners exposure to real-world language use. This supports the development of industry-specific vocabulary and communication skills. AI can curate real-world documents, videos, and scenarios that reflect actual professional practices, enabling learners to interact with authentic language use. This exposure is crucial for developing the specific vocabulary and communication strategies necessary for their fields. **Industry-Specific Simulations:** AI-powered simulations can create realistic environments for learners to practice. For example, in a business context, learners might engage in simulated meetings or negotiations, helping them apply their language skills in practical settings.

Strategies for Educators

Integrate AI Tools into Curriculum. Choose AI-driven platforms that align with course objectives. Incorporate tools that offer adaptive learning, gamification, and real-time feedback into lesson plans to enhance learner engagement. **Smart Sparrow:** This platform allows educators to create adaptive lessons tailored to individual learners' needs. For instance, in a medical English course, an instructor can design a module that adapts based on a student's prior knowledge of medical terminology. If a student struggles with anatomy vocabulary, the system can provide additional resources and practice exercises specifically targeting that area. **Grammarly:** While traditionally seen as a writing assistant, Grammarly's AI-powered suggestions can be integrated into writing assignments in an ESP course. For example, if students are tasked with drafting reports or proposals, they can use Grammarly to receive instant feedback on grammar, style, and tone. This immediate input helps students refine their writing skills and understand industry-specific language use.

Embrace Data-Driven Insights. Utilize analytics provided by AI tools to assess student progress and tailor instruction. Regularly review performance data to inform teaching strategies and address specific learning needs. AI tools provide comprehensive analytics that allow educators to track student performance over time. This ongoing assessment helps identify trends and areas that require additional focus. **Moodle:** As an open-source learning platform, Moodle includes features for tracking student engagement and progress through various activities. Educators can monitor how often students access materials, complete assignments, and perform on quizzes. For instance, if data shows that a significant number of students in a business English class are not completing case studies, the educator can investigate further and adjust deadlines or provide additional support.

Facilitate Collaborative Learning. Encouraging collaborative learning among students is vital in English for Specific Purposes (ESP) education, as it fosters teamwork, communication skills, and critical thinking. AI tools can enhance this collaborative process by providing platforms for peer feedback, project management, and resource sharing. **Microsoft Teams:** This collaboration tool enables learners to create channels for specific projects or topics. In an ESP course focused on marketing, students can work together to develop a marketing strategy for a hypothetical product. They can use Teams to hold virtual meetings, share documents, and edit presentations collectively. The AI capabilities in Microsoft Teams can also provide insights into participation levels, helping educators monitor engagement.

Professional Development. AI in Education Workshops: Institutions can host workshops where educators learn to navigate and utilize AI tools, such as adaptive learning platforms and assessment analytics. These sessions can include hands-on activities that allow educators to practice integrating AI tools into their lesson plans. For instance, educators can explore how to use tools like Kahoot! for gamified assessments in ESP courses.

Strategies for Learners

Participate in Online Communities. Engaging with language learners and native speakers through online forums and social media groups can accelerate learning. Platforms like Reddit, Discord, or language-specific communities such as italki and HelloTalk offer spaces where learners can ask questions, share experiences, and practice real-world communication. These communities often host language challenges, discussions, and peer reviews, enabling learners to refine their skills through practical use and social interaction. Participating in such groups also allows exposure to cultural nuances and colloquial language that textbooks might not cover.

Seek Immediate Feedback. Seeking with online communities that focus on specific professional fields can significantly enhance learners' language skills, provide networking opportunities, and expose them to industry-specific vocabulary and practices. AI tools can facilitate participation and make these interactions more effective. Here's how learners can benefit from these communities: By joining forums and groups dedicated to specific fields,

learners can engage with professionals and experts, gaining insights that are directly applicable to their careers. **LinkedIn Groups:** Learners can participate in LinkedIn groups related to their industry (e.g., healthcare, engineering, or finance). Within these groups, they can engage in discussions, ask questions, and share articles. AI-driven features on LinkedIn, such as personalized content suggestions, can help users discover relevant discussions and resources, enhancing their industry knowledge and vocabulary.

Explore Authentic Resources. Engaging with authentic resources is crucial for learners of English for Specific Purposes (ESP) to develop language skills that are relevant and applicable in their professional fields. AI-curated resources can significantly enhance this process by providing access to high-quality materials that reflect real-world language use. Engaging with a variety of media types—such as videos, podcasts, and webinars—can enhance comprehension and language acquisition by presenting information in different formats.

TED Talks: TED provides a vast library of talks on diverse topics. ESP learners can search for talks related to their professional interests, such as healthcare innovations or technology trends. The AI-powered transcript feature allows learners to read along, helping them connect spoken language to written forms, while also providing exposure to authentic pronunciation and intonation.

Conclusion

The integration of AI in teaching English for Specific Purposes represents a promising advancement in language education. By providing personalized learning experiences, real-time feedback, and access to authentic materials, AI tools can significantly enhance the effectiveness of ESP instruction. As educators continue to explore these technologies, it is essential to consider their implications for curriculum design, teaching methodologies, and learner engagement. Future research should focus on longitudinal studies to assess the long-term impact of AI on ESP learning outcomes.

References

1. Chapelle, C. A. (2003). *English Language Learning and Technology*. John Benjamins.
2. Godwin-Jones, R. (2018). "Emerging Technologies: Language Learning and AI." *Language Learning & Technology*, 22(2), 1-11.
3. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge University Press.
4. Wu, Y., Li, J., & Zhang, X. (2022). "AI in Language Education: Implications for ESP." *Journal of Language Teaching and Research*, 13(4), 667-675.
5. Xu, Z., & Li, H. (2021). "Artificial Intelligence and Language Learning: A Review." *Educational Technology Research and Development*, 69(3), 751-771.

Talabalarining ko‘p faktorli reyting natijalarini neyron tarmoqlari asosida optimallashtirish

¹Mardonov Dilmurod Raxmonovich, ²Yaxshiboyev Abror Maxmadiyorovich

¹Samarqand davlat universitetining Urgut filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘p faktorli reyting asosida talabalar reytingini shakllantirilib uni optimallashtirishni neyron tarmoqlari asosida amalga oshirish keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbga yo‘naltirish, intellektual modellar, og‘irlik koeffitsiyenti, neyron tarmoq, ko‘p faktorli reyting.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование рейтинга студентов на основе многокритериального рейтинга и его оптимизация с использованием нейронных сетей.

Ключевые слова: Профориентация, интеллектуальные модели, коэффициент весомости, нейронная сеть, многокритериальный рейтинг.

Annotation: This article discusses the formation of student rankings based on a multi-factor rating and its optimization using neural networks.

Keywords: Career guidance, intellectual models, weighting coefficient, neural network, multi-factor rating.

Hozirgi vaqtda mehnat resurslari yetishmovchiligi muammosining dolzarbligi, shuningdek, iqtisodiyotning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari va ta'lim muassasalaridan mutaxassislarni tayyorlash tuzilmasining munosabati bilan mehnat bozorini o'rganish va uning rivojlanishini bashorat qilish asosida bandlikni optimallashtirish mumkin. Mavjud usullar turli xil modellashtirish usullariga asoslangan va bir nechta yondashuvlarning kombinatsiyasi yordamida qurilgan murakkab tizimlarni aks ettiradi. Bu usullarga intellektual modellarni integratsiyalash asosida olingan natijalar bir muncha aniq yechimlarga olib keladi. Kasbga yo'naltirish tizimini optimallashtirish uchun ko'p faktorli reyting tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Reyting ma'lumotlarini intellektual hisoblash jarayonini optimallashtirish uchun natijaviy reyting ko'rsatkichlari quyidagi (1) shart asosida amalga oshiriladi.

$$\begin{cases} R_t(x_1^{(i)}, x_2^{(i)}, \dots, x_j^{(i)}, \dots, x_{n_i}^{(i)}, x_j^{(i)}, w_i) \rightarrow \max \\ x_1^{(i)}, x_2^{(i)}, \dots, x_j^{(i)}, \dots, x_{n_i}^{(i)}, x_j^{(i)} \geq 0 \\ j = 1, 2, \dots, n_i; \quad i = 1, 2, \dots, m; \quad w_i \in [0; 1] \end{cases} \quad (1)$$

Yuqoridagi (1) shart asosida optimallashtirish parametri sifatida $x_j^{(i)}$ reyting ko'rsatkichlarining nomanfiyligi bo'yicha R_t funksiyaning maksimumi ta'minlanadi. Yuqoridagi shart bo'yicha reyting ko'rsatkichining yuqori belgisi (i) uning i -yo'nalishga tegishli ekanligini bildiradi, (j) pastki belgilanish i -yo'nalish doirasidagi muayyan j turdagi faoliyatning natijasi hisoblanadi.

$$\sum_{i=1}^m n_i = n$$

$j = 1, 2, \dots, n_i$; n_i - i -yo'nalish doirasidagi xususiy faoliyatlar soni hisoblanadi. bu yerda n - barcha sohalardagi barcha xususiy faoliyatlar sonini anglatadi. Faraz qilinadiki, har bir xususiy faoliyat turi bo'yicha reyting ko'rsatkichlari koeffitsiyentlarining nomanfiy bo'lmagan og'irlik koeffitsiyentlari bilan tavsiflanadi, ular har bir turdagi ko'rsatkichning muvofiqlashtirish jarayonini tavsiflaydi.

$$a_{k,j}^{(i)} > 0 \quad k = 1, 2, \dots, m; \quad j = 1, 2, \dots, n_i; \quad i = 1, 2, \dots, m; \quad (2)$$

(2) bunda k -chi aniq bir yo'nalishning og'irlik koeffitsiyentini belgilaydi va ko'rsatkichlarni muvofiqlashtirish uchun $a_{k,j}^{(k)} \cdot x_j^{(k)}$, $i = k$ ko'paytma bajariladi. Har bir sohadagi ko'rsatkichlarni

muvofiqlashtirish uchun $a_{k,j}^{(k)} \cdot x_j^{(k)}$ ko'paytmalarning umumiy yig'indisi hisoblanadi

$$\sum_{j=1}^{n_k} (a_{k,j}^{(k)} \cdot x_j^{(k)}), \quad (i = k)$$

$$\sum_{i=k}^m \left[\sum_{j=1}^{n_i} (a_{k,j}^{(i)} \cdot x_j^{(i)}) \right]$$

Umumiy m ta faoliyat bo'yicha ko'rsatkichlarning hisoblash uchun ifoda orqali amalga oshiriladi.

R_t funksiyaning maksimum qiymatini baholash uchun (3) ifoda orqali amalga oshiriladi hamda natijalar qayta ishlanadi.

$$R_t(x_1^{(i)}, x_2^{(i)}, \dots, x_{n_i}^{(i)}) = \sum_{j=1}^{n_i} (a_j^{(i)} \cdot x_j^{(i)}), \quad i = 1, 2, \dots, m \quad (3)$$

(3) formulaning ko'rsatkichlari bilan bir xil indeksatsiyaga ega faoliyatning umumiy reytingi (2) formulada berilgan og'irlik koeffitsiyentlari bilan uning umumiy shaxsiy reytinglari (4) yig'indisi sifatida ifodalanadi.

$$R(x_1^{(1)}, \dots, x_{n_1}^{(1)}, x_1^{(2)}, \dots, x_{n_2}^{(2)}, \dots, x_1^{(i)}, \dots, x_{n_i}^{(i)}, \dots, x_1^{(m)}, \dots, x_{n_m}^{(m)}) = \sum_{i=1}^m R_i(x_1^{(i)}, \dots, x_{n_k}^{(i)}) = \sum_{i=1}^m \left[\sum_{j=1}^{n_i} (a_j^{(i)} \cdot x_j^{(i)}) \right] \quad (4)$$

Natijada umumiy reytingni hisoblashning chiziqli matematik modeliga olib keladi bu esa faoliyatni optimallashtirish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Reyting ko'rsatkichlarini hisoblashni takomillashtirish maqsadida intellektual modellashtirish talab etiladi.[1, 3]

Takomillashtirish uchun intellektual tahlil asosida reyting ball ko'rsatkichlarini umumlashtirish vazifasi neyron tarmoqlaridan foydalanish asosida hal qilinishi belgilab olindi. Bunda talabalarning ko'p faktorli reyting ma'lumotlari asosida kasbiy bilimlariga bog'liqlik xarakteristikalarini funksional ravishda tavsiflay oladigan neyron tarmoqli modelni taklif etish mumkin. Intellektual modellarning optimalligi mavjud ma'lumotlar asosida bir nechta holatlar bo'yicha ma'lumotlar taqdim etishi hisoblanadi [2,5.]. Neyron tarmog'ining tuzilmasiga ega bo'lgan dastur, mashinali o'qitish ma'lumotlarini tahlil qilish va ma'lum manbalardan olingan natijani saqlash imkonini beradi. Keyinchalik, ushbu yondashuv, agar u tarmoq sikllari tajribasida bo'lgan bo'lsa, joriy ma'lumot to'plamiga mos keladigan natijani xotiradan olish imkonini beradi. Neyron tarmog'i-bu bir nechta neyronlardan iborat bo'lib, ularning har biri ma'lumot oladi, uni qayta ishlaydi va boshqa neyronga o'tkazadi.

Neyron tarmog'i asosida ko'p faktorli reyting ma'lumotlarini hisoblashni optimallashtirish bo'yicha kasbga yo'naltirishni amalga oshirish belgilab olinadi. Bunda reyting ma'lumotlarini o'qitish asosida talabaning keyingi holatini tahlil qilish hamda kasbiy holatini bashoratlash imkoniyati yaratiladi. Ikkita yashirin qatlamli model taklif etiladi birinchi qatlamda 4 ta yashirin neyron va ikkinchi qatlamda 2 ta yashirin neyron bilan eng yaxshi aniqlikni berdi. Optimal yashirin neyronlarni topish usullarining qisqacha mazmuni [5, 6] da keltirilgan, ammo bu tadqiqot uchun biz 10 marta o'zaro tekshiruvdan olingan natijalarni qabul qildik. Eng yaxshi model ellik marta o'qitildi va o'rtacha aniqlik mos ravishda 74,1% va 68,6% ni tashkil etdi. Bu asl ma'lumotlar to'plamidan foydalangan modellarning ishlashiga qaraganda yaxshiroq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhatov A., Mardonov D., Nazarov F. [Methods of automation of the employment process on the basis of ratings](#). // International conference on information science and communications technologies. 4,5,6 November. ICISCT 2020(IEEE), art. no. 20486736. SCOPUS.
2. Axatov A., Mardonov D., Nazarov F. Modeling the relationship of the processes of determining the ratings and knowledge on the basis of digital technologies. Vestnik TUIT.Tashkent. № 3 (10) .2020.52-58.p.
3. Mardonov D.R., Nazarov F.M, Esanov O. Reyting asosida bandlik munosabatlarini optimallashtirish jarayonini avtomatlashtirish "Innovatsion yondashuvlar ilm-fan taraqqiyoti kaliti sifatida: yechimlar va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. –O'zMUJF. 2020. 8-10 oktabr 2020 yil. [298-301] b.
4. Лыткина, Л.И. Системы искусственного интеллекта: учеб. пособие [Текст] / Л.И. Лыткина, А.В. Саяпин - Красноярск, СибГАУ, 2004. - 93 с.
5. Тархов, Д. А. Нейронные сети. Модели и алгоритмы: справочник / Д.А. Тархов. – М.: Радиотехника, 2005.
6. An empirical study of software entropy based bug prediction using machine learning Kaur, A., Kaur, K., Chopra, D. 2017 International Journal of Systems Assurance Engineering and Management 8, pp.



Kasbga yo'naltirishda sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari

Mardonov Dilmurod Raxmonovich

Samarqand davlat universitetining Urgut filiali Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish masalasida sun'iy intellektning o'rni va bugungi kundagi zarurati to'g'risida olib borilgan izlanishlar to'g'risida amalga oshirilgan ishlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kasbga yo'naltirish, intellektual modellar, sun'iy intellekt, ko'p faktorli reyting.

Аннотация: Аннотация: В данной статье представлена проделанная работа о роли и современной необходимости искусственного интеллекта в вопросе профориентации выпускников высших учебных заведений.

Ключевые слова: Профориентация, интеллектуальные модели, искусственный интеллект, многофакторный рейтинг.

Abstract: This article presents the work done on the role and modern necessity of artificial intelligence in the issue of career guidance for graduates of higher educational institutions.

Keywords: Career guidance, intellectual models, artificial intelligence, multi-factor rating.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining ko'pchiligi o'zlari uchun qiziqarli va istiqbolli faoliyat sohasi haqida aniq tushunchaga ega bo'lmashliklari natijasida ta'lim muassasalarini tugatgandan so'ng ish faoliyatlarini muvaffaqiyatli boshlay olishmaydi va shu bilan birga, to'g'ri tanlangan kasbiy faoliyat butun mamlakat iqtisodiy farovonligining muhim elementi sifatida shaxsning muvaffaqiyatli o'zini o'zi anglashi va munosib hayot sifatini ta'minlashida asos bo'ladi. Shu munosabat bilan kasbga yo'naltirish faoliyati tobora talabortib bormoqda.

Bugungi kunda avtomatlashtirish mexanizmlari asosida iqtisodiyotni rivojlantirish va uni amalga oshirish uchun, raqamli texnologiyalarni barcha sohalarga tadbqiq etish va ommalashtirish uchun iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar asosida barqarorlashtirish vazifalari eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi [1;2]. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida raqamli texnologiyalarni nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga, balkim ta'lim sohasiga ham joriy etish bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi [1;4]. Raqamli texnologiyalar asosida boshqariladigan jarayonlarni avtomatlashtirish ish samaradorligi bilan bir qatorda xarajatlarni minimallashtirish imkoniyatlarini ham yaratadi. Yoshlar bandligini ta'minlash davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining va mamlakat rivojining dolzarb hamda uzoq muddatli vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarning bandligi, ularning munosib ish o'rniga ega bo'lishlarini ta'minlash, ish beruvchilarning ham iqtidorli va yetuk mutaxassislarni tanlab olish imkoniyatlari yetarli darajada emas [3;6]. Bitiruvchilar sonining ko'payishi o'z navbatida, muvaffaqiyatli ishga joylashish uchun ular o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi. Bozor munosabatlari ustunlik qilgan hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'z-o'zini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishga intilayotgan shaxs oldiga qator talablarni ilgari surmoqda, hususan:

- bugungi kunda yaxshi haq to'lanadigan ish joyiga ega bo'lish;
- xizmat pillapoyalari bo'yicha yuqori natijalarga erishish;
- har qanday kasbiy faoliyat bo'yicha muvaffaqiyatga erishish yetarli darajada raqobatbardosh bo'lish va h.k..

Buning uchun raqamli texnologiyalar yordamida ish beruvchi va mutaxassis o'rtasida onlayn muloqot muhitini shakllantirish kerak, ya'ni har bir mutaxassis ta'lim olish jarayonidagi bilimlari va erishilgan yutuqlari bo'yicha reytingi shakllantiriladi.

Kasbga yo'naltirishning an'anaviy yondashuvlari testlar, anketalar va mutaxassislar maslahati kabi usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Biroq, texnologiyaning rivojlanishi bilan kasbga yo'naltirish uchun ko'plab innovatsion yoki yangi vositalar va imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Sun'iy intellekt, mashinali o'qitish, ma'lumotlar tahlili kabi zamonaviy texnologiyalardan insonning qobiliyatlarini, iste'dodlari va qiziqishlarini aniqlashda samarali foydalanish mumkin. Bunday texnologiyalar kasbiy yo'nalishni tezroq va aniqroq amalga oshirishga imkon beradi, bu esa xatolar ehtimolini kamaytiradi. Qolaversa, kasbga yo'naltirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bu jarayonni yoshlar uchun yanada qulay va qulay qilish imkonini beradi.

Xorijda ko'plab tadqiqotchilar professional o'zini o'zi belgilash va turli sohalarda qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish muammosi bilan shug'ullangan. Kasbga yo'naltirishda innovatsion yondashuvlarga bag'ishlangan ilmiy ishlar, qo'yilgan muammolarni hal qilishda yuqori samaradorlikka erishish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimligini ko'rsatadi.

Qaror qabul qilishda ko'p mezonli tanlov muammosi neyron tarmog'i tomonidan muvaffaqiyatli hal qilinadi, ammo zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda kasbiy yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlarining ta'sirini o'rganishga, shuningdek, ushbu sohada muammolarni sun'iy intellekt yordamida hal qilish mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarini kasbga yunaltirishda neyron tarmoq ko'plab mezonlarni hisobga olgan holda individual yo'naltirilgan tavsiyalar berishi mumkin.

Kasbga yo'naltirish deganda biz bitiruvchilarning ta'lim olishi davomida erishgan yutuqlari, ozlashtirish ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda kasb yoki martaba yo'lini tanlash bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish maqsadida ularning qiziqishlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va maqsadlarini aniqlashga yordam berishga qaratilgan jarayonni nazarda tutamiz.

Kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha qaror qabul qilish ko'plab mezonlarga asoslanadi. Oliy o'quv yurti bitiruvchilarining kasbiy o'zini o'zi belgilashini boshqarish muammosi muhim masala bo'lib, qarorlar daraxti yordamida neyron tarmog'i tomonidan muvaffaqiyatli hal qilinadi

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi [4] ulardan inson faoliyatining turli sohalarida, shu jumladan milliy va global miqyosda kasbiy yo'naltirish faoliyatida keng va samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Sun'iy intellekt - bu odatda inson ongi bilan bog'liq bo'lgan intellektual qobiliyatlarni talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan kompyuter tizimlari va dasturlarini loyihalash va yaratish bilan shug'ullandigan soha hisoblanadi [4]. Sun'iy intellekt ommaviy foydalanish uchun samarali vosita bo'lib, kasbga yo'naltirishda quyidagi muammolarni hal qilishga imkon beradi:

1. Kasbiy sohalar va malaka talablari bilan bog'liq katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida kasb tanlash bo'yicha individual yo'naltirilgan tavsiyalar berish.

2. Professional profillarni ishlab chiqish va shaxsiy tavsiyalar berish: neyron tarmoqlar nafaqat bilim va ko'nikmalar darajasini, balki shaxsiy xususiyatlar va imtiyozlarni ham hisobga olishi mumkin.

3. Xulq-atvorni baholash: Sun'iy intellekt inson xatti-harakati va qiziqishlarini tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin. Misol uchun, sun'iy intellekt talaba qaysi kurslarni o'qiganini, qanday kitoblarni o'qiganini, qanday videolarni tomosha qilganini bilib oladi. Bu professional profil va ma'lumotnomalarni yaratishga yordam beradi.

4. Mansabni rejalashtirish va shaxsiy professional missiyani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash: Sun‘iy intellekt shaxsiy ambitsiyalari va afzalliklarini eng mos kasblar ro‘yxati bilan moslashtirishi mumkin.

Sun‘iy intellekt dan foydalanadigan odamlar uchun kasbiy yo‘nalishni amalga oshirishning muhim sharti - bu murojaat etuvchining o‘zi, uning qiziqishlari va umidlari haqida to‘liq, tezkor va ob‘ektiv ma‘lumot olishdir [4].

O‘rganilayotgan kasbga yo‘naltirishga bo‘lgan yondashuv kasb tanlash va kasbni rejalashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi, xatolar xavfini kamaytiradi, yakuniy natija sifatini oshiradi va kasbga yo‘naltirishga muhtoj bo‘lgan odamlarning ehtiyojlarini hisobga oladi. Kasbga yo‘naltirish neyron tarmog‘i malaka talablari, bilim va ko‘nikmalar, shaxsiy xususiyatlar, qiziqishlar va imtiyozlarni hisobga olgan holda individual yo‘naltirilgan tavsiyalar berish vazifalarini bajarishga imkon beradi va martaba traektoriyasini rejalashtirish va shaxsiy professional missiyani rivojlantirishga hissa qo‘shishadi. Kasbga yo‘naltirishda sun‘iy intellektdan foydalanish martaba yo‘llarini samarali belgilash va muhim qarorlar qabul qilish uchun yangi istiqbol va imkoniyatlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Akhatov, D.Mardonov, F.Nazarov, A.Rashidov Mathematical Modeling Professional Direction Expert System International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) DOI : 10.52155 © 2022 Scholar AI LLC.Vol. 32 No. 1 April 2022, pp. 136-142.

2. Ахатов А., Мардонов Д., Назаров Ф. Моделирование базы данных системы мониторинга рейтинга и трудовых отношений. Проблемы информатики и энергетики, ТУИТ, Ташкент. № 3(5).2020.

3. Ахатов А., Мардонов Д., Назаров Ф. Моделирование отношения процессов определения рейтингов и занятости на основе цифровых технологий. Вестник ТУИТ. Ташкент. № 3(10).2020.

4. Колесова А.С., Сараева О.Н. Перспективы применения искусственного интеллекта в профориентационной деятельности // Креативная экономика. – 2023. – Том 17. – № 7. – С. 2475–2490. doi: 10.18334/ce.17.7.118351

5. Забокрицкая Л.Д., Орешкина Т.А., Обабков И.Н., Чепуров Е.Г. [Применение алгоритма машинного обучения для профориентации абитуриентов высшего учебного заведения](#) // Вестник Томского государственного университета. – 2022. – № 485. – с. 217–225. – doi: 10.17223/15617793/485/24.

6. Сергушичева А.П., Давыдова Е.Н. [Построение компьютерной системы профориентации выпускников средних образовательных заведений на базе генетического алгоритма](#) // Открытое образование. – 2020. – № 3. – с. 33-43.

SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH

M.A.Mustaffaqulov, R.B.Abduraximova, Eshturdiyeva Z.S.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, +998942414494

mustaffaqulovmuhammad@gmail.com

Аннотация: Ushbu maqolada sun‘iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi va uning ishlab chiqarish, boshqaruv hamda turli sanoat sohalaridagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Sun‘iy intellektning mashina o‘qitish, chuqur o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash, robototexnika va avtomatlashtirish kabi texnologiyalar bilan integratsiyasi samaradorlikni oshirish va inson aralashuvini kamaytirishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Shuningdek, sun‘iy intellektning kelajakda tibbiyot, ta‘lim va transport kabi sohalarda inqilobiy o‘zgarishlar kiritishi mumkinligi haqida fikr yuritilgan. Maqolada sun‘iy intellektning rivojlanishi bilan bog‘liq etik masalalar va xavfsizlik muammolari ham ko‘rib chiqilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется развитие технологий искусственного интеллекта и их применение в производстве, управлении и различных отраслях. Было доказано, что интеграция искусственного интеллекта с такими технологиями, как машинное обучение, глубокое обучение, обработка естественного языка, робототехника и автоматизация, повышает эффективность и сокращает вмешательство человека. Также считается, что искусственный интеллект может произвести революционные изменения в таких областях, как медицина, образование и транспорт в будущем. В статье также обсуждаются этические вопросы и вопросы безопасности, связанные с развитием искусственного интеллекта.

Annotation: This article analyzes the development of artificial intelligence technologies and their application in manufacturing, management, and various industries. It has been proven that the integration of artificial intelligence with technologies such as machine learning, deep learning, natural language processing, robotics, and automation improves efficiency and reduces human intervention. It is also believed that artificial intelligence can revolutionize areas such as medicine, education, and transportation in the future. The article also discusses the ethical and safety issues associated with the development of artificial intelligence.

Kalit so‘zlar: sun‘iy intellekt, mashina o‘qitish, chuqur o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatlashtirish, robototexnika, etik masalalar, xavfsizlik.

Ключевые слова: искусственный интеллект, машинное обучение, глубокое обучение, обработка естественного языка, автоматизация, робототехника, этические проблемы, безопасность.

Keywords: artificial intelligence, machine learning, deep learning, natural language processing, automation, robotics, ethical issues, security.

Kirish: Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi hozirgi davrda texnologik taraqqiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u global miqyosda ishlab chiqarish, tibbiyot, transport, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda katta o'zgarishlar kiritmoqda. Bu texnologiyalar inson intellektiga asoslangan faoliyatlarni avtomatlashtirish, resurslarni optimallashtirish va yangi ish uslublarini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. SI yordamida ko'plab jarayonlar tezkor va samarali bo'lib, tahlil qilish, prognozlash, mantiqiy qaror qabul qilish va murakkab muammolarni hal qilish kabi jarayonlar avvalgidan ko'ra ancha osonlashmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati shundaki, u kelajakni shakllantiradigan asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. McKinsey Global Institute tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, sun'iy intellektning 2030-yilga kelib global yalpi ichki mahsulotga qo'shadigan hissasi 13 trillion dollardan oshishi kutilmoqda. Bu raqam sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotga ta'sirining naqadar katta ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi, uning turli sohalarga ta'siri, raqamli transformatsiyadagi o'rni va kelajakdagi istiqbollari haqida batafsil tahlil qilinadi.

1. Sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy imkoniyatlari.

Sun'iy intellekt texnologiyalari inson qobiliyatlariga o'xshash tarzda o'rganish, analiz qilish va qaror qabul qilish imkoniyatini beruvchi kompyuter tizimlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, murakkab jarayonlarni avtomatlashtirish va inson resurslaridan foydalanishni kamaytirishga xizmat qiladi. Quyida SI texnologiyalarining asosiy imkoniyatlari keltirilgan.

❖ Mashina o'qitish (Machine Learning) va chuqur o'qitish (Deep Learning). SI texnologiyalarining rivojlanishidagi asosiy elementlardan biri bu mashina o'qitish va chuqur o'qitish texnologiyalari hisoblanadi. Mashina o'qitish algoritmlari orqali kompyuter tizimlari o'z tajribasidan o'rganib, yangi ma'lumotlar asosida o'z qarorlarini yaxshilab boradi. Chuqur o'qitish esa neyron tarmoqlarga asoslanadi va inson miyasi faoliyatini simulyatsiya qilish orqali murakkab vazifalarni bajarishga qodir.

Misol uchun, Google DeepMind kompaniyasining sun'iy intellekt tizimi AlphaGo inson tomonidan boshqariladigan murakkab o'yinlar orqali o'rganish qobiliyatiga ega bo'lib, o'yin strategiyasini takomillashtirib, dunyo miqyosidagi go o'yinchilarini yengishga muvaffaq bo'lgan. Ushbu yondashuv SI texnologiyalarining o'rganish va o'zini takomillashtirish qobiliyatini ko'rsatadi.

❖ Neyron tarmoqlar va tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing - NLP). Sun'iy intellektning yana bir muhim yo'nalishi bu neyron tarmoqlar va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari hisoblanadi. Neyron tarmoqlar yordamida SI tizimlari murakkab ma'lumotlar bilan ishlash, o'rganish va tahlil qilish imkoniyatiga ega. NLP texnologiyalari esa kompyuter tizimlariga inson tili va nutqini tushunish, qayta ishlash va unga javob berish imkoniyatini beradi. Amazon, Google, va Microsoft kompaniyalarining ovozi yordamchilari, masalan, Alexa va Google Assistant, SI yordamida inson nutqini tushunib, mos ravishda javob beradi. Buning natijasida kundalik hayotda sun'iy intellekt asosidagi ovozi yordamchilar bilan ishlash odatiy holga aylanmoqda.

❖ Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari. Sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Ushbu tizimlar real vaqtda ma'lumotlarni tahlil qilib, avtomatik ravishda qarorlar qabul qiladi. Misol uchun, ishlab chiqarish korxonalarida SI algoritmlari uskunalarning ishlashini doimiy kuzatib boradi va texnik xizmat ko'rsatishni oldindan prognozlaydi. Bu esa korxonalarda texnik nosozliklarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

❖ Robototexnika va avtomatlashtirish. Robototexnika sun'iy intellekt bilan birlashganda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari va murakkab texnologik jarayonlar inson ishtirokisiz amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. SI yordamida robotlar murakkab topshiriqlarni mustaqil bajara oladi va ularning ishlashi inson omiliga qaraganda ancha tezroq va samaraliroq bo'lishi mumkin.

Avtomobilsozlik sohasida robotlar ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Toyota va Tesla kabi kompaniyalar sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan robotlardan keng foydalanmoqda va ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda. 2023-yilda Tesla zavodlarida ishlab chiqarish samaradorligi 25% ga oshgan bo'lib, bu natija avtomatlashtirilgan robotlar yordamida erishilgan.

2. Sun'iy intellektning tibbiyotdagi rivojlanishi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining tibbiyot sohasida keng qo'llanilishi tibbiy xizmatlarning sifatini oshirishga va bemorlarga ko'rsatilayotgan yordamni tezlashtirishga yordam bermoqda. 2021-yilda AI tibbiyot bozorining global hajmi 11,4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga kelib bu raqam 188 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Quyida sun'iy intellektning tibbiyotdagi ba'zi qo'llanish sohalari keltirilgan:

❖ Tibbiy diagnostika. SI algoritmlari yordamida murakkab kasalliklarni erta bosqichlarda aniqlash va tashxis qo'yish imkoniyati sezilarli darajada oshmoqda. Masalan, sun'iy intellekt yordamida ko'krak saratoni kabi kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash mumkin. IBM Watson Health platformasi SI texnologiyasini qo'llab, erta tashxis va tibbiy ma'lumotlar asosida to'g'ri davolash usullarini tavsiya etadi.

❖ Tibbiy hujjatlarni qayta ishlash. Sun'iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish, hujjatlarni avtomatik tarzda qayta ishlash va tibbiy hisobotlarni yaratish uchun keng qo'llaniladi. SI yordamida bemorlarning tarixiy ma'lumotlarini tez va aniq qayta ishlash mumkin, bu esa shifokorlarga kasalliklar to'g'risida yanada chuqur ma'lumotlar beradi.

❖ Dori vositalarini tadqiq qilish. Sun'iy intellektning yana bir muhim qo'llanilishi dori vositalarini ishlab chiqishda ko'rinadi. SI algoritmlari murakkab kimyoviy birikmalarni o'rganish va ulardan samarali dori vositalarini yaratishda yordam beradi. Pfizer va IBM kabi yirik farmatsevtika kompaniyalari sun'iy intellektidan foydalanib, dori vositalarini ishlab chiqish jarayonini tezlashtirishga muvaffaq bo'lishdi.

3. Sun'iy intellektning ta'limdagi rivojlanishi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim tizimiga ham keng joriy qilinmoqda. O'quv jarayonlarini avtomatlashtirish va shaxsiylashtirilgan ta'limni amalga oshirish sun'iy intellekt yordamida yanada samarali bo'lmoqda.

❖ Shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlari. SI yordamida har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim dasturlari yaratish mumkin. Misol uchun, Khan Academy kabi onlayn o'quv platformalari sun'iy intellektni qo'llab, o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasiga qarab individual o'quv dasturlarini taklif qiladi.

❖ Masofaviy ta'lim va interaktiv texnologiyalar. SI texnologiyalari yordamida masofaviy ta'lim yanada samarali bo'lib, o'qituvchilarga o'quvchilar bilan interaktiv muloqot qilish imkoniyati yaratiladi. Chatbotlar va virtual yordamchilar o'quvchilarga uy vazifalarini tushuntirishda, materiallarni qayta ko'rib chiqishda yordam beradi.

4. Sun'iy intellektning kelajakdagi imkoniyatlari.

2030-yilga kelib sun'iy intellekt texnologiyalarining jahon iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi 15 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Bu texnologiyalar ishlab chiqarishdan tortib, tibbiyot, ta'lim va moliyaviy xizmatlarga qadar ko'plab sohalarni tubdan o'zgartirishi mumkin.

❖ Smart shaharlar va transport. SI texnologiyalari yordamida aqlli shaharlar barpo etilishi va u yerda avtonom transport vositalari boshqaruvi joriy qilinishi kutilmoqda. Shu bilan birga, SI yordamida energiya sarfini kamaytirish va ekologik muhitni yaxshilashga yo'naltirilgan innovatsiyalar keng qo'llaniladi.

❖ Avtonom transport vositalari. Avtonom transport vositalari sun'iy intellekt orqali boshqariladi va bu kelajakdagi transport tizimining asosiy qismi bo'ladi. Tesla kompaniyasi SI texnologiyalaridan foydalanib, to'liq avtonom boshqaruvga ega avtomobillarni yaratishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. 2030-yilga kelib dunyodagi barcha transport vositalarining 25% avtonom bo'lishi kutilmoqda.

Xulosa

Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish zamonaviy jamiyatning muhim texnologik yutug'i bo'lib, u ko'plab sohalarda katta o'zgarishlar kiritadi. Ushbu texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish, tibbiyot, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda samaradorlik oshadi. Sun'iy intellektning rivojlanishi bilan bog'liq xavfsizlik va etik masalalar esa texnologiyalarni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Shu sababli, sun'iy intellektning imkoniyatlarini to'liq o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish jamiyat rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Adabiyotlar:

1. Raximov, S. Sun'iy intellekt va raqamli transformatsiya: Sanoatni rivojlantirishdagi yangi imkoniyatlar. O'zbekiston Texnologiyalar Ilmiy Jurnal.2021-yil. 12(4). 78-89 bet.
2. Karimov, A. Mashina o'qitish va chuqur o'qitish algoritmlari: Raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellekt texnologiyalari. Tashkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Ilmiy Jurnal.2020-yil.14(2), 112-125 bet.
3. Jones, A., & Wilson, B. (2016). Deep Learning: Advances in Artificial Intelligence. MIT Press, 1st Edition, 783 pages.
4. Brown, M., & Smith, J. Artificial Intelligence in Healthcare: Applications and Challenges. European Journal of Medical Technology.2019-yil.11(3). 56-72 bet.
5. Martínez, L. AI-Powered Automation in Industrial Systems. International Journal of Industrial Technology.2020-yil. 8(2). 99-115 bet.

TA'LIM JARAYONIDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

M.A.Mustaffaqulov, Z.S.Eshurdiyeva, R.B.Abduraximova.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, +998942414494

mustaffaqulovmuhammad@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim jarayonlarida kiberxavfsizlikni ta'minlashning ahamiyatini o'rganadi. Kiberxavfsizlik bugungi kunda ta'lim muassasalarida axborot tizimlarini himoya qilish va shaxsiy ma'lumotlarni saqlashda dolzarb masala bo'lib, uning asosiy tamoyillari - maxfiylik, yaxlitlik va mavjudlik - muhim ro'l o'ynaydi. Maqolada kiberxavfsizlikni ta'minlash yo'llari, jumladan, xodimlar va o'quvchilarni o'qitish, texnik va yuridik chora-tadbirlarni qo'llash ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi. Maqola ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va raqamli texnologiyalarni xavfsiz qo'llashda kiberxavfsizlikning muhimligini ta'kidlaydi.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность кибербезопасности в образовательных процессах. Сегодня кибербезопасность является актуальным вопросом защиты информационных систем и хранения персональных данных в образовательных учреждениях, и ее основные принципы – конфиденциальность, целостность и доступность – играют важную роль. В статье рассматриваются способы обеспечения кибербезопасности, включая обучение сотрудников и студентов, а также использование технических и правовых мер. Также анализируются нормативно-правовые документы по обеспечению кибербезопасности в Республике Узбекистан. В статье подчеркивается важность

кибербезопасности в повышении эффективности образовательного процесса и безопасного использования цифровых технологий.

Annotation: This article discusses the importance of cybersecurity in educational processes. Today, cybersecurity is a pressing issue of protecting information systems and storing personal data in educational institutions, and its basic principles - confidentiality, integrity and availability - play an important role. The article discusses ways to ensure cybersecurity, including training staff and students, as well as the use of technical and legal measures. It also analyzes regulatory documents on ensuring cybersecurity in the Republic of Uzbekistan. The article emphasizes the importance of cybersecurity in improving the efficiency of the educational process and the safe use of digital technologies.

Kalit soʻzlar: Kiberxavfsizlik, taʼlim jarayoni, axborot xavfsizligi, maxfiylik, huquqiy asoslar, texnik choralar, raqamli texnologiyalar.

Ключевые слова: Кибербезопасность, образовательный процесс, информационная безопасность, конфиденциальность, правовая база, технические меры, цифровые технологии.

Key words: cyber security, educational process, information security, confidentiality, legal basis, technical measures, digital technologies.

Kirish: Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan birgalikda, taʼlim jarayonlarida ham axborot xavfsizligini taʼminlash muhim masalaga aylandi. Kiberxavfsizlik nafaqat texnologik tizimlarni himoya qilishni, balki taʼlim muassasalari oʻquvchilari va xodimlarining shaxsiy maʼlumotlarini ham himoya qilishni talab etadi. Ushbu maqolada taʼlim jarayonlarida kiberxavfsizlikni taʼminlashning ahamiyati, asosiy tamoyillari va huquqiy asoslari koʻrib chiqiladi.

Kiberxavfsizlikning asosiy tamoyillari. Kiberxavfsizlikni taʼminlash uchun, avvalo, uning asosiy tamoyillarini toʻgʻri tushunish zarur. Kiberxavfsizlik uchta asosiy tamoyilga asoslanadi: maxfiylik (konfidensiallik), yaxlitlik va mavjudlik.

1. **Maxfiylik** (Konfidensiallik) – Maʼlumotlar faqat ruxsat etilgan foydalanuvchilar tomonidan koʻrilishi va foydalanilishi mumkin.

2. **Yaxlitlik** – Maʼlumotlar toʻgʻriligi va toʻliqligi taʼminlanishi kerak. Ular ruxsatsiz oʻzgartirilmasligi lozim.

3. **Mavjudlik** – Maʼlumotlar va tizimlar zarur boʻlganda foydalanuvchilar uchun mavjud boʻlishi kerak.

Taʼlim jarayonida kiberxavfsizlikning ahamiyati.

Taʼlim muassasalarida kiberxavfsizlikni taʼminlash nafaqat oʻquv jarayonlarini samarali tashkil etish, balki oʻquvchilarning shaxsiy maʼlumotlarini himoya qilish uchun ham zarurdir. Bugungi kunda koʻplab taʼlim muassasalari raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Bunga elektron darsliklar, onlayn imtihonlar, oʻquvchilar va oʻqituvchilar oʻrtasidagi raqamli muloqot vositalari kiradi.

Kiberxavfsizlikning muhimligi shundan iboratki, oʻquvchilarning shaxsiy maʼlumotlari, darsliklar va boshqa oʻquv materiallari, shuningdek, oʻqituvchilarning ish natijalari ruxsatsiz kirish va oʻzgartirishlardan himoyalangan boʻlishi kerak. Kiberxavfsizlikning taʼminlanishi muassasada axborotning xavfsizligi va ishonchliligini oshiradi, bu esa taʼlim jarayonining umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kiberxavfsizlikning huquqiy asoslari.

Oʻzbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni taʼminlash boʻyicha qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Xususan, “Axborotlashtirish toʻgʻrisida”gi qonun, “Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida”gi qonun va boshqa meʼyoriy hujjatlar axborot tizimlarining xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan. Ushbu qonunlar doirasida taʼlim muassasalari oʻz axborot tizimlarini himoya qilishga va kiberjinoyatlardan himoyalaniş choralarini koʻrishga majburdirlar.

Kiberxavfsizlikni taʼminlash yoʻllari. Taʼlim muassasalarida kiberxavfsizlikni taʼminlash uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

➤ Xodimlar va oʻquvchilarni oʻqitish – Kiberxavfsizlikning asosiy tamoyillarini tushuntirish va axborot tizimlaridan foydalanish boʻyicha koʻrsatmalar berish zarur.

➤ Texnik choralar – Kiberxavfsizlikni taʼminlash uchun zamonaviy antivirus dasturlari, tarmoq xavfsizligi va kriptografik himoya vositalaridan foydalanish talab etiladi.

➤ Yuridik chora-tadbirlar – Taʼlim muassasalarida axborot xavfsizligi boʻyicha ichki qoidalar ishlab chiqilishi va ularga rioya qilinishini nazorat qilish lozim.

Xulosa

Taʼlim jarayonida kiberxavfsizlikni taʼminlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri boʻlib, u taʼlim sifatini oshirish va oʻquvchilarning shaxsiy maʼlumotlarini himoya qilish uchun muhimdir. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, ularning xavfsizligini taʼminlash ham taʼlim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri boʻlib qolmoqda. Kiberxavfsizlikning taʼminlanishi nafaqat taʼlim jarayonlarining samaradorligini oshiradi, balki kelajak avlodlarning raqamli dunyoda xavfsiz yashashini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolboyev S.T. "Kiberxavfsizlikdan himoyalanişda IT sohasining ahamiyati va zarurligi," Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2023.
2. Muxtarov F.M. "Kiberhuquq va kiberetika madaniyatining shakillantirishda kiberxavfsizlik asoslari fanini oʻqitishning dolzarbligi," Descendants of Al-Farghani, 2024.

3. Shakurov R.R., Vohidov M.M. "Kiber huquq – huquq sohasi sifatida," Toshkent, 2022.
4. Ganiev S.K., Karimov M.M., Xudoyqulov Z.T. "Axborot xavfsizligi bo'yicha atama va tushunchalarning rus, o'zbek va ingliz tillaridagi izohli lug'ati," Toshkent, 2017.
5. Abduvaliyev U.Sh. "Kiber jinoyatchilikka - kiber xavfsizlik," Science and Education, 2023.

CHARACTERIZATION OF AMBIGUOUS DATA FOR DETECTION OF SUSPICIOUS TRANSACTIONS IN DISTRIBUTED SYSTEMS

Nazarov F.M., Sabharwal M.

(Samarkand state university, Uzbekistan, IILM University, India,)

Abstract. In this article, the characteristics of ambiguous data for identifying suspicious transactions in distributed systems are presented. It analyzed characteristics such as unusually large transactions, multiple small transactions, geographic anomalies, odd timing, and transactions with unusual symbols.

Key words. Distributed systems, suspicious transactions, ambiguous data, payment information, security.

To increase the reliability of data in payment information monitoring systems, the use of distributed registry, i.e. blockchain mechanisms and the use of intelligent distribution mechanisms for rapid processing of data in the system are effective methods. But in order to identify ambiguous suspicious information in the system, it is necessary to analyze each completed transaction intellectually. In order to identify suspicious transactions in the system, the received transaction data contains several types of characteristics.

Suspicious transactions are transactions that deviate from the usual transaction behavior of an individual or legal entity and may indicate fraud, money laundering or other illegal activities. These transactions often share common characteristics that distinguish them from legitimate activity.

The following cases can be cited as an example to identify unclear suspicious transactions:

Unusually large transactions. Transactions that are significantly larger than the customer's normal spending pattern are considered.

A few small transactions. A small series of transactions made over a short period of time, transactions that can use hidden parameters to avoid detection limits.

Geographic anomalies. Transactions originating from locations where the customer has never done business before.

High risk countries. Transactions involving countries known for fraud or money laundering.

It's a strange time. Transactions that take place at unusual hours for the client.

Sudden changes in the transaction. A sudden increase in transaction frequency or volume without a clear explanation.

Operations with unusual characters. Cases such as transfers between several accounts without reasons can be cited.

If the above-mentioned situations occur in the data of the system, it is necessary to enter this data into the list of vague suspicions and analyze it. It is not easy to check the information flowing in the system for suspiciousness, and there are several problems in identifying suspicious transactions. Identifying suspicious transactions involves addressing several key issues:

Data volume and speed. The sheer volume of transactions processed daily and the speed at which they occur can slow down traditional monitoring systems.

False positive decisions. Legitimate transactions can be falsely flagged as suspicious, leading to customer dissatisfaction and unnecessary investigation costs.

Wrong negative decisions. Undetected fraudulent transactions can lead to significant financial losses.

Emerging fraud tactics. Fraudsters are constantly developing new ways to bypass detection systems, which requires constant updating and adaptation of monitoring algorithms.

Data quality. Incomplete, inaccurate, or inconsistent data can impede the effectiveness of detection systems.

Regulatory compliance. Ensuring compliance of detection systems with various legal and regulatory requirements can be complex and resource intensive.

Balancing security and customer experience: Striking the right balance between reliable fraud detection and a seamless customer experience is critical to maintaining customer trust.

There are a number of ways to identify suspicious information in systems, the rapid development of information technologies leads to a sharp increase in risks in the system. Based on this, it is necessary to develop intellectual approaches to identifying ambiguous suspicious information in systems.

It is required to regularly monitor ambiguous suspicious information in systems developed on the basis of distributed methods. In information systems that mainly work on payment data, all kinds of ambiguous and suspicious data appear. Controlling suspicious transactions in payment information monitoring systems provides an opportunity to prevent fraud in the systems.

List of used literature

1. Dam K.W., Lin H. S. Cryptography's Role in Securing the Information Society // National Academy Press. Washington, -pp.156-165. D.C. 1996.

2. Distributed ledger technology in payments, clearing, and settlement. Finance and Economics Discussion Series 2016-095. Washington: Board of Governors of the Federal Reserve System, -pp.34. <https://doi.org/10.17016/FEDS.2016.095.2016>.
3. Dileep M. R., Navaneeth A. V. and Abhishek M., "A novel approach for credit card fraud detection using decision tree and random forest algorithms", 2021 Third International Conference on Intelligent Communication Technologies and Virtual Mobile Networks (ICICV), pp. 1025-1028, February 2021.



MATHCAD TIZIMIDA CHIZIQLI DASTURLASH MASALALARINI YECHISH

¹Nastinov Sadridin T.,²Sharobiddinova Sayyora Zaynobiddin qizi

¹Namangan davlat universiteti Amaliy matematika va raqamli texnologiyalar kafedrası o'qituvchisi

sadridin_1995_08_29@mail.ru Tel: +998-97-256-29-95

Namangan davlat universiteti Matematika fakulteti, Amaliy matematika yo'nalishi 3-kurs ATI-BU-21 guruh talabasi

sayorasharobiddinova@gmail.com Tel: +998-90-050-48-60

Annotatsiya. Ushbu maqola Mathcad tizimida chiziqli dasturlash masalalarini bir necha usullar yordamida yechish. Mathcad tizimidagi amallar ketma – ketliklaridan foydalanib, tahlil qilingan. Chiziqli dasturlash masalasi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Mathcad tizimida $u=f(x,y)$ funksiya parametrik ko'rinishda, boshlang'ich qadam (x_0, y_0) , Given, shart amallari, Maximize (f, x_0, y_0) va grafik qismiga murojat qilinadi.

Абстрактный. Эта статья посвящена решению задач линейного программирования в Mathcad с использованием нескольких методов. Для анализа использовалась последовательность операций в системе Mathcad. Рассмотрена задача линейного программирования.

Ключевые слова. В системе Mathcad функция $u=f(x,y)$ упоминается в параметрической форме, начальном шаге (x_0, y_0) , задании, условных действиях, максимизации (f, x_0, y_0) и графической части.

Annotation. This article is about solving linear programming problems in Mathcad using several methods. It was analyzed using the sequence of operations in the Mathcad system. The problem of linear programming is considered.

Keywords. In the Mathcad system, the function $u=f(x,y)$ is referred to in parametric form, initial step (x_0, y_0) , Given, condition actions, Maximize (f, x_0, y_0) and graphic part.

KIRISH

Chiziqli dasturlash masalasining umumlashgan matematik modeli formasining yozilishi quyidagi ko'rinishga ega.

$$\sum_{j=1}^n a_{ij}x_j \leq b_i, \quad (i = \overline{1, m}) \quad (1.1)$$

$$x_j \geq 0 \quad (j = \overline{1, n}) \quad (1.2)$$

$$Z = \sum_{j=1}^n c_j x_j \rightarrow \max (\min) \quad (1.3)$$

Matematik modelning birinchi formulasi iqtisodiy ma'noda izlanayotgan miqdorlarga qo'yiladigan cheklanishlarni ifodalaydi, ular resurslar miqdori, ma'lum talablarni qondirish zarurati, texnologiya sharoiti va boshqa iqtisodiy hamda texnikaviy faktorlardan kelib chiqadi.[1] Ikkinchi shart - o'zgaruvchilarning, ya'ni izlanayotgan miqdorlarning manfiy bo'lmaslik sharti bo'lib hisoblanadi. Uchinchi maqsad funksiyasi deyilib, izlanayotgan miqdorning biror bog'lanishini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

M.Raisovning ilmiy ishlarida Matematik programmalash: O'quv qo'llanmasida Chiziqli dasturlash masalasi keltirib o'tilgan, Mathcad tizimida programmasi ishlab chiqildi. Har bir jarayon tahlili keltirib o'tilgan. Chiziqli dasturlash masalasi Mathcad tizimida ishlanganda grafigi va yechimi aniq keltirib o'tildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fabrika ikki xil A va B tikuv maxsulti ishlab chiqaradi. Bu mahsulotlarni ishlab chiqarishda uch xil N1,N2,N3 turdagi materiallarni ishlatadi. N1-materialdan 15 m., N2-materialdan 16 m., N3-materialdan 18 m. mavjud.

M1 - mahsulotni ishlab chiqarish uchun N1-dan 2m., N2-dan 1m., N3-dan 3m. ishlatadi.

M2 - mahsulotni ishlab chiqarish uchun N1-dan 3m., N2-dan 4m., N3-dan 0m. ishlatadi.

M1 - mahsulotning bir birligidan keladigan foyda 10 so'mni, M2 - mahsulotdan keladigan foyda 5 so'mni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishning shunday planini tuzish kerakki fabrika maksimal foyda olsin. Masalaning matematik modelini tuzamiz:

$$2x_1 + 3x_2 \leq 15$$

$$x_1 + 4x_2 \leq 16$$

$$3x_1 \leq 18$$

$$x_1 \geq 0 \quad x_2 \geq 0$$

$$Z = 10x_1 + 5x_2 \rightarrow \max$$


Mathcadda chiziqli dasturlash masalasi yechishda maximize va minimize funksiyalaridan foydalanish mumkin. Bu funksiyalar umumiy holda quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

Maximize(F, <o‘zgaruvchilar ro‘yxati>
 Minimize(F, <o‘zgaruvchilar ro‘yxati>)


Mathcadda chiziqli dasturlash masalasini yechish quyidagicha bajariladi (I.1-rasm):

1. Mathcadni ishga tushurgandan so‘ng, maqsad funksiyasi yoziladi, masalan $f(x,y)=\langle\text{funksiya ko‘rinishi}\rangle$ va o‘zgaruvchilarning boshlang‘ich qiymati kiritiladi.
2. Given kalit so‘zi yoziladi.
3. Tengsizliklar tizimi va cheklanishlar yoziladi.
4. Biror o‘zgaruvchiga maximize yoki minimize funksiyasi yuboriladi.
5. Shu o‘zgaruvchi yozilib tenglik kiritiladi. Natija vektor ko‘rinishida hosil bo‘ladi.
6. Maqsad funksiyasi qiymatini hisoblash uchun, masalan $f(p_0,p_1)$ yozilib tenglik belgisi kiritiladi.[2]

TAHLILLAR VA NATIJALAR



I.1-rasm. a) Yuqoridagi masalani Mathcad tizimida yechib tahlil qilingan.



I.1-rasm. b) Mathcad tizimida chiziqsiz dasturlash masalasini dasturi va grafik ko‘rinishi

XULOSA

Mathcad tizimida chiziqli dasturlash masalalarini yechish qulay va aniq va grafiklarini oson va tez chiqarib beradi. Chiziqli dasturlash masalalarining shartlar ko‘p bo‘lishidan qattiq nazar tizimida sifatli ishlab beradi. Sa‘noatlar, ishlab chiqarish korxonalarida va iqtisodiy masalalarni yechishda ko‘p foydalaniladi. Ushbu maqolada har bir jarayoni Mathcad tizimida dasturi ishlab chiqilgan. Ixtiyoriy chiziqli dasturlash masalalarini Mathcad tizimi yuqorida dastur tuzilgan orqali kiritish mumkin va natijasini olish, grafiklarini tahlilini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Raisov M. Matematik programmalash: O‘quv qo‘llanma. O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – T.: “Voriz” nashriyot, 2009 yil 176 b.

[2] B. W. Char. Maple Learning Guide. Maplesoft, a division of Waterloo Maple Inc. 2003



KADRLAR ZAXIRASINI BASHORATLASH VA BANDLIK JARAYONLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Nurmatov M.Q., Sariyev Sh.N., Sadullayev T.A.

Samarqand Davlat Universiteti, Samarkand, O'zbekiston,

+998939995149, mehridinnur@gmail.com

+998991050795, sariyevshohruh313@gmail.com

Annotatsiya. Matematik modellar, jumladan, chiziqli regressiya, klasterlash va tizimli dinamika modellaridan foydalanish natijasida, kadrlar yetishmovchiligi bo'lgan sohalarni aniqlash va bitiruvchilarni mos kasblarga yo'naltirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola, kadrlar kamayib ketayotgan sohalarga bitiruvchilarni yo'naltirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yosh avlodning kelajakda ish topish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan strategiyalarni taklif etadi.

Abstract. The use of mathematical models, including linear regression, clustering, and system dynamics models, will be explored to identify areas with personnel shortages and to guide graduates towards suitable professions. The article proposes strategies aimed at ensuring economic stability and enhancing future employment prospects for the younger generation by directing graduates towards fields experiencing a shortage of personnel.

Аннотация. В результате применения математических моделей, включая модели линейной регрессии, кластеризации и системной динамики, рассматриваются возможности выявления сфер с дефицитом кадров и направления выпускников на соответствующие профессии. В статье предлагаются стратегии, направленные на обеспечение экономической стабильности и повышение шансов молодого поколения на трудоустройство в будущем путем ориентирования выпускников на сферы, испытывающие нехватку кадров.

Kalit so'zlar. Bandlik, klasterlash va segmentatsiya algoritmlari, tizimli dinamika modeli.

Keywords: Employment, clustering and segmentation algorithms, system dynamics model.

Ключевые слова. Занятость, алгоритмы кластеризации и сегментации, модель системной динамики.

Kirish


Hozirgi kunga kelib butun dunyo bo'yicha ishsizlik juda muhim masala bo'lib u mamlakatdagi isqtisodiy vaziyatlarni tavsiflovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda rivojlanish kun sayin ortib boorish bilan birgalikda juda ko'plab sohalarni avtomatlashtirishlar evaziga ish o'rinlarining qisqarib ketishiga olib kelmoqda buning natijasida esa ishsizlik ortishiga sabab bo'ladi. Ishsizlik masalasi iqtisodiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan matematik modellar orqali o'rganib chiqilgan. Keyinchalik bu sohada ko'plab tadqiqotlar olib borildi va turli omillar, jumladan, o'z-o'zini ish bilan ta'minlash va malaka oshirishning ishsizlik darajasiga ta'siri tahlil qilindi. G.N. Pathan va P.H. Bhathawala ishsizlik darajasiga o'z-o'zini ish bilan ta'minlashning ta'sirini o'rganib chiqishgan[1]. Daud va Ghozali band bo'lganlar va ishsizlar soniga asoslangan oddiy model taklif qilgan[2]. So'ngi yillarda tadqiqotchilar ishsizlik modelini kengaytirib, malaka oshirish tashabbuslari va yangi ish o'rinlari yaratish kabi omillarni hisobga oluvchi dinamik modellarni ishlab chiqdilar. Shu tariqa, ishsizlikni tushuntiruvchi matematik modellar hozirda nafaqat bandlik va iqtisodiy o'zgarishlarni, balki ijtimoiy omillarni ham qamrab oladigan murakkab tizimlarga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada biz ishsizlik muammosini chuqurroq o'rganib, malaka oshirish tashabbuslari va ularning ishsizlik darajasiga ta'sirini tahlil qilamiz. Mehnat bozorida ayrim kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talabning ortishi yoki pasayishi milliy iqtisodiyotning o'zgaruvchan ehtiyojlariga bog'liqdir. Ba'zi sohalarda kadrlar yetishmovchiligi kuzatiladi, bu esa iqtisodiy rivojlanishning sekinlashishiga olib kelishi mumkin. Maktab bitiruvchilarini oliy o'quv yurtlariga yo'naltirishda ushbu yetishmovchiliklarni hisobga olish orqali mehnat bozoridagi kasblarga bo'lgan ehtiyojni oldindan bashorat qilish mumkin[3]. Ushbu maqolada, kadrlar kamayib ketayotgan sohalarga bitiruvchilarni yo'naltirish asosida kasblarga bo'lgan ehtiyojlarni bashorat qilish modellarini tahlil qilamiz.

Muammoni qo'yilishi

Hozirgi kundagi dolzarb muamolardan bir mehnat bozorida kadr yetishmovchiligi kuzatilayotgan sohalarga bitiruvchilarni yo'naltirish milliy iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim omillaridan biridir. Ayrim sohalarda ishchi kuchiga bo'lgan talab ortib borayotgan bo'lsa, bitiruvchilar u yerga yetarli darajada yo'naltirilmayotganini bildiradi. Yangi texnologiyalar va iqtisodiy o'zgarishlar tufayli yangi kasb-hunarlar talab ortib bormoqda, lekin bu kasblar uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash yetarli darajada emas. Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi muvozanatni saqlab turish uchun kasblarga bo'lgan ehtiyojni oldindan bashorat qilish zarur. Shu sababli, kadrlar kamayib ketayotgan sohalarni aniqlash va bitiruvchilarni to'g'ri yo'naltirish uchun samarali modellarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi[4].

Ma'lumotlar va Modellar

Bitiruvchilarni sohalarga yo'naltirish va kasblarga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilishda quyidagi ma'lumotlar zarur: Mehnat bozori tahlili: Har yili qaysi sohalarda kadrlar yetishmovchiligi borligi, qaysi kasblarda ko'proq ishchi kuchi talab qilinayotgani.



Oliy o'quv yurtlariga qabul ko'rsatkichlari: Qaysi sohalar va kasblarga bitiruvchilar ko'proq qabul qilinayotgani. Mehnat bozori prognozlar: Yangi texnologiyalar, iqtisodiy o'sish va global o'zgarishlar asosida kasb va sohalarning rivojlanish istiqbollari. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan bashorat modellaridan foydalanib, kadrlar yetishmovchiligi bo'lgan kasblarni aniqlash va bitiruvchilarni to'g'ri sohalarga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.

Bashorat Qilishda Qo'llaniladigan Modellar

Maktab bitiruvchilarini oliy o'quv yurtlariga yo'naltirishda kasblar bo'yicha ehtiyojni bashorat qilish uchun bir necha matematik va statistik modellar qo'llanilishi mumkin. Chiziqli regressiya modellari bu model sohalarda kadrlar yetishmovchiligini oldindan baholash va bitiruvchilarni qaysi yo'nalishlarga yo'naltirish kerakligini aniqlash uchun ishlatiladi[5]. Kasbga bo'lgan talabni va o'quv yurtlariga qabul ko'rsatkichlarini analiz qilish uchun chiziqli regressiya modellaridan foydalanish tavsiya etish mumkin.

Klasterlash va segmentatsiya algoritmlari bitiruvchilarni turli ijtimoiy, iqtisodiy va qiziqishlariga ko'ra guruhlash orqali qaysi yo'nalishlarga mos ekanligini aniqlash mumkin. Klasterlash algoritmlari, masalan, K-means va Hierarchical clustering, o'xshash bitiruvchilarni bir guruhga jamlab, ularni mehnat bozorida zarur bo'lgan sohalarga yo'naltirishda qo'llanilishi mumkin[6]. Random forest va qaror daraxtlari ushbu modellar o'zgaruvchan omillarni hisobga olib, bitiruvchilarni kadr yetishmovchiligi mavjud sohalarga yo'naltirish imkonini beradi. Qaror daraxtlari va random forest usullari ko'p omillarni hisobga olib, qaysi kasb va sohalarga ehtiyoj ortishini prognoz qilishda samarali vositadir. Tizimli dinamika modeli orqali turli kasblar va sohalarning uzoq muddatli rivojlanishini tahlil qilish mumkin. Ushbu model mehnat bozoridagi o'zgarishlarni hisobga olib, bitiruvchilarning qaysi yo'nalishlarga mos kelishini bashorat qiladi.

Kasblarga Ehtiyoj Bashorati

Kasblarga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilish uchun yuqoridagi modellar yordamida quyidagi yondashuvlarni qo'llash mumkin. Kasbiy yo'naltirish siyosati bitiruvchilarni kadr yetishmovchiligi kuzatilayotgan sohalarga yo'naltirish nazarda tutilgan. Bu esa ayniqsa, texnologik rivojlanish, tibbiyot, muhandislik, axborot texnologiyalari kabi sohalarga tegishli hisoblanadi. Mehnat bozori va oliy ta'lim hamkorligi. Oliy ta'lim muassasalari mehnat bozoridagi talablarni inobatga olib, bitiruvchilarni to'g'ri sohalarga yo'naltirishi kerak. Bu nafaqat mehnat bozorida kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etadi, balki bitiruvchilarning ish topish imkoniyatlarini ham oshiradi. Ma'lumotlarga asoslangan holda, mehnat bozorida kadr yetishmovchiligi kuzatilayotgan sohalarni aniqlash va ushbu sohalarga maktab bitiruvchilarini yo'naltirish maqsadida bashorat qiluvchi model yaratamiz. Aytaylik 5 xil kasb (A, B, C, D, E) mavjud va mehnat bozorida bu kasblarga bo'lgan hozirgi talab va har yili bu talabning o'sishi yoki pasayishi haqida ma'lumot bor[7-8]. Har bir kasb uchun mehnat bozoridagi ehtiyojni bashorat qilish kerak.

Dastlabki ma'lumotlar:

- A kasbi: Hozirgi talab 5000, har yili 2% o'sadi
- B kasbi: Hozirgi talab 3000, har yili 5% o'sadi
- C kasbi: Hozirgi talab 4000, har yili 3% pasayadi
- D kasbi: Hozirgi talab 2000, har yili 4% o'sadi
- E kasbi: Hozirgi talab 1000, har yili 7% pasayadi.

Matematik model

Qoralayotgan har bir kasb uchun talabni yillik o'sishga yoki kamiyishiga ko'ra quyidagicha hisoblanadi.

$$T_n = T_0(1 + r)^n \quad (1)$$

Bu yerda

T_n – n-yil uchun bashorat qilingan talab


T_0 – boshlang'ich talab

r – yillik o'sish ko'rsatkichi

n – yillar soni

Agar $r > 0$ bo'lsa, talab oshadi.

Agar $r < 0$ bo'lsa, talab kamayadi.



1-rasm. Kasblarga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilish (o'sish va kamayish)

Xulosa

Maktab bitiruvchilarini oliy o'quv yurtlariga kadr kamayib ketayotgan sohalarga yo'naltirish orqali kasblarga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilish modellarini rivojlantirish mehnat bozoridagi nomutanosibliklarni bartaraf etishning samarali yo'nalishlaridan biridir. Yuqorida keltirilgan modellar orqali davlat va ta'lim muassasalari mehnat bozoridagi real ehtiyojlarni tahlil qilib, bitiruvchilarni zarur yo'nalishlarga yo'naltirishi mumkin bo'ladi. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va yosh avlodning kelajakda o'z kasbi bo'yicha ish topishi osonlashtirishdan iborat bo'ladi. Balki yoshlar uchun kelajakda raqobatbardosh bo'lishiga ham imkon yaratadi. Mehnat bozoridagi kadr yetishmovchiligini to'g'ri aniqlab, kasb tanlash strategiyasini optimallashtirish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Pathan G.N., Bhathawala P.H. A mathematical model for unemployment with effect of self-employment IOSR-JM, 11 (2015), pp. 37-43.
2. Daud A., Ghozali A. Stability analysis of a simple mathematical model for unemployment Casp. J. Appl. Sci. Res., 4 (2015), pp. 15-18.
3. Papadimitriou, C. H., & Steiglitz, K. Combinatorial Optimization: Algorithms and Complexity. Dover Publications (1998).
4. Akhatov A.R., Nurmamatov M.Q., Mardonov D.R., Nazarov F.M. Improvement of mathematical models of the rating point system of employment // Scientific journal Samarkand state university. 2021. – №1(125). –P. 100-107.
5. Nurmamatov M.Q. Improving labor relations based on intellectual modeling of employment in the labor market // The Peerian Journal. Czechia/ - 2022. – Vol. 5. -Pp. 31-35.
6. Akhatov, A., Nurmamatov, M., Nazarov, F. "Intelligent modeling and optimization of processes in the labour market" Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security - Proceedings of the International Conference on Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security, ICABCS 2023, 2024, 2, c. 694–699.
7. Rustamovich, A.A., Mekhriddin, N., Fayzullo, N., Sabharwal, M. "Intelligent system of labor market regulation based on the evolutionary modeling of employment" Proceedings - 2022 4th International Conference on Advances in Computing, Communication Control and Networking, ICAC3N 2022, 2022, c. 2534–2539.
8. Nurmamatov M.Q., Jo'raev I.A. Aholi ijtimoiy holatini statistik tahlil qilish modellari va axborot tizimini loyihalashtirish. // Farg'ona politexnika instituti ilmiy-texnika jurnali. FarPI - №6 (tom 24). -b. 137-144. 2020.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDA KRIPTOGRAFIK HIMOYA TO'G'RSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Qudratova Zarnigor Akram qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakulteti
2-bosqich magistranti, Tel:+998941862886. E-mail: volfiya022@gmail.com

Annotasiya. Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida katta hajmdagi axborotlar oqimi kuzatilmoqda. Ushbu ma'lumotlar oqimlari bugungi kunda har bir sohaga kirib bormoqda. Ushbu ma'lumotlarni samarali himoya qilish va yuqori aniqlikda saqlashga erishish ishining dolzarbligini oshiradi. Maqolada saqlanadigan ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari yoritishga harakat qilingan. Kriptografik himoya usullarini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari, Windows tizimida hujjatlarni himoya qilish vositalarining mavjud dasturlarining xususiyatlari ko'rib chiqiladi va ulardan foydalanish bo'yicha umumiy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Kriptografik ma'lumotlarni himoya qilish, autentifikatsiya qilingan shifrlash, shifrlash fayl tizimi, IsS, PS, diskni to'liq shifrlash, apparat shifrlash.

Abstract. Currently, as a result of the development of Information Technology, a large flow of information is observed. These data streams are entering every industry today. Increases the relevance of the work of achieving effective protection and high accuracy of this data. The article tried to highlight the pressing issues of ensuring the security of the stored information. The main trends in the development of cryptographic protection methods, the features of existing applications of document protection tools in the Windows system are considered and general recommendations for their use are given.

Keywords: Cryptographic data protection, authenticated encryption, encryption file system, IsS, PS, Full Disk Encryption, hardware encryption.

Аннотация. В настоящее время в результате развития информационных технологий наблюдается огромный поток информации. Эти потоки данных сегодня проникают во все отрасли. Это повышает актуальность работы по обеспечению эффективной защиты данных и высокоточного хранения. В статье предпринята попытка осветить актуальные вопросы обеспечения сохранности хранимой информации. Рассмотрены основные тенденции развития методов криптографической защиты, особенности существующих программ средств защиты документов в системе Windows, даны общие рекомендации по их использованию.

Ключевые слова: Криптографическая защита данных, аутентифицированное шифрование, шифрование файловой системы, ИсС, ПС, Полное шифрование диска, аппаратное шифрование.

Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan bir qatorda axborot hajmi va ularning maxfiylikini, xavfsizligini saqlash ham murakkablashib bormoqdi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va xavfsizligini baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

I bosqich-taxminan XV asrning o'rtalariga qadar, Iogann Gutenberg (Yoxannes Gutenberg) butun dunyoga tarqalgan harakatlanuvchi harflar bilan tipografiyaning Yevropa usulini yaratdi. Bu vaqtga qadar deyarli har qanday ma'lumot og'zaki ravishda uzatilgan, ya'ni maxfiylik faqat "inson omili" bilan belgilanar edi.

II bosqich-taxminan XIX asrning boshlariga qadar tabiiy ravishda paydo bo'lgan axborot kommunikatsiyalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi. Axborot xavfsizligining asosiy vazifasi voqealar, faktlar, mulk va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni himoya qilish deya qaralgan.

III bosqich-elektr va radioaloqa texnik vositalaridan foydalanishni boshlash bilan bog'liq. Qabul qilingan xabarni (signalni) dekodlash bilan xabarni (signalni) shovqinga chidamli kodlashdan foydalanish bilan tavsiflanadi.

IV bosqich-1935-yildan boshlab-radar va sonar vositalarining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Axborot xavfsizligini ta'minlash radarlarni qabul qilish moslamalariga faol va passiv shovqin ta'siridan himoya qilishni oshirishga qaratilgan tashkiliy va texnik chora-tadbirlarning kombinatsiyasiga asoslangan edi.

V bosqich-1946 yildan boshlab-elektron kompyuterlar (kompyuterlar) ixtiro qilinishi va amaliy faoliyatga kiritilishi bilan bog'liq. Ushbu davrdagi axborot xavfsizligining vazifalari asosan ma'lumot to'plash, qayta ishlash va uzatish vositalarini jismoniy kirishni cheklash usullari bilan hal qilingan.

VI bosqich-XX asrning 60-yillaridan boshlab mahalliy axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini yaratish va rivojlantirish bilan bog'liq.

VII bosqich-1973-yildan boshlab-keng ko'lamli vazifalarga ega mobil aloqa qurilmalaridan foydalanish bilan bog'liq. Ushbu davrda hozirda butun dunyoga mashhur Microsoft ((Bill Geyts va Pol Allen) va Apple (Stiv Djobs va Stefan Voznyak) kompaniyalari tashkil etildi. Shaxsiy foydalanuvchilar, tashkilotlar va butun mamlakatlarning axborot xavfsizligiga zarar yetkazishni maqsad qilgan inson xakerlar jamoalari tashkil etildi.

VIII bosqich-taxminan 1985-yildan boshlab – kosmik ta'minot vositalaridan foydalangan holda global axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini yaratish va rivojlantirish bilan bog'liq; chora-tadbirlar va himoya vositalaridan kompleks foydalanishni ko'rib chiqadi.

IX bosqich-taxminan XX asr oxiri –XXI asr boshlari-kosmik axborot-kommunikatsiya tizimlari tomonidan taqdim etilgan keng ko'lamli vazifalar global qamrovga ega bo'lgan mobil aloqa qurilmalaridan ommaviy foydalanish bilan bog'liq. "Raqamga keng o'tish" bulutli texnologiyalardan foydalanish, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish (Big Data) bilan tavsiflanadi.

Axborotni o'zgartirish orqali himoya qilish muammosi kriptologiyaga tegishli (yunon. κρυπτός (kryptos) yashirin, λόγος (logos) so'z). Kriptologiya ikki yo'nalishga bo'linadi – kriptografiya va kriptozanaliz. Ushbu yo'nalishlarning maqsadlari mutlaqo' teskari.

Kriptografiya (yunon. κρυπτός va γράφω (grafo) yozish), yoki yashirin yozuv, ma'lumotni o'zgartirishning matematik usullarini qidirish va tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Kriptozanalizning qiziqish sohasi ma'lumotni ochish yoki shifrlarni buzish imkoniyatini o'rganishdir.

Kriptografiya eng qadimgi fanlardan biri bo'lib, uning tarixi bir necha ming yillarga borib taqaladi. Dastlab, yozuvning o'zi kriptografik tizim edi, chunki qadimgi jamiyatlarda u faqat "tanlanganlar"ga tegishli edi. Qadimgi Misr, qadimgi Hindistonning muqaddas kitoblari bunga misoldir. Yozuvning keng tarqalishi bilan kriptografiya mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Kriptografik tizimlar birinchi va ikkinchi jahon urushlari yillarida jadal rivojlandi.

1918-yil oxirida XX asrning kriptozanaliz sohasidagi eng muhim asarlaridan biri – Uilyam Fridmanning monografiyasi (William F. Fridman) tasodif indeksi va uning kriptografiyaga qo'llanilishi (The index of coincidence and its applications in cryptanalysis)[6] nashr etildi.

"Kriptografiya" atamasi dastlab "yozuvni yashirish, yashirish" degan ma'noni anglatadi. Birinchi marta yozuvning paydo bo'lish davrida eslatib o'tilgan. Kriptografiya ma'lumotni ruxsatsiz kirishdan himoya qiladi va

uning maxfiylikini ta'minlaydi. Masalan, elektron pochta orqali to'lov stublarini yuborishda ular o'zgartirilishi yoki noto'g'ri yozuvlar qo'shilishi mumkin. Bunday hollarda ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlash kerak. Umuman olganda, kompyuter tarmog'iga ruxsatsiz kirishni to'liq oldini olish mumkin emas, lekin uni aniqlash mumkin. Axborot yaxlitligini tekshirishning ushbu jarayoni ko'pincha axborotni autentifikatsiya qilish deb ataladi. Kriptografiya qo'llaniladigan usullar o'ziga o'zgartirilgan holda ma'lumotlarning haqiqiylikini kafolatlashi mumkin. Eng universal protsedura -bu parollar almashinuvi, ammo bu juda samarali tanlov ham emas.

Unda parolni kiritgan har bir kishi ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. Agar biz ehtiyot choralari ko'rsak, kriptografik usullar yordamida parollarni yanada samarali va xavfsizroq qilishimiz mumkin, ammo kriptografiya kuchli parollarni doimiy ravishda o'zgartirish tartibini ta'minlashi bilan ham qulaylik tug'diradi. Kriptografiya sohasidagi so'nggi ishlanmalardan biri bu elektron raqamli imzo, ma'lumotni maxsus xususiyat bilan to'ldirish orqali yaxlitlikni ta'minlash usuli bo'lib, unda ma'lumot faqat uning muallifi tomonidan taqdim etilgan kalit ma'lum bo'lgan taqdirda tasdiqlanishi mumkin. Ushbu usul maxfiy kalit yordamida yaxlitlikni tekshirishning ma'lum usullariga nisbatan juda ko'p afzalliklarga ega.

Maxfiylikni ta'minlashning kriptografik usulida hal qilinyotgan vazifalar va ko'rib chiqilayotgan hujum vektorlariga qarab quyidagi uchta yondashuvdan biri qo'llanilishi mumkin:

- butun hujjatlar tizimini shifrlash;
- fayl tizimi darajasida shifrlash;
- yuqori darajadagi shifrlash (fayl tizimi darajasida).

Butun hujjatlar tizimini shifrlash-bu yarim diskli shifrlash (FDE, Full Disk En-cryption), uni ham apparat, ham dasturiy ta'minot darajasida amalga oshirish mumkin. To'liq diskli shifrlash oflayn rejimda himoya qilish uchun mo'ljallangan. Agar huquqbuzar o'chirilgan qurilmaga jismoniy kirish huquqiga ega bo'lsa, masalan, uni o'g'irlash yoki yo'qotish paytida, shuningdek qurilmani kafolat ostida almashtirish uchun, ta'mirlash uchun, bojxona tekshiruviga va hokazolarga topshirsa, bu holat shu bilan birga, kirishni boshqarishning an'anaviy usullari ishlamaydi. Shu bilan birga, shifrlash huquqbuzarning hujjatlar tizimidan qimmatli ma'lumotlarni olishiga to'sqinlik qiladi.

Fayl tizimi darajasida shifrlash, to'liq diskli shifrlashdan farqli o'laroq, yuqori darajada amalga oshiriladi va fayl tizimining meta-ma'lumotlarini, shu jumladan fayl nomlarini ochiq qoldirib, faqat fayl tarkibini himoya qilishi mumkin. Ushbu turdagi shifrlashning yangi afzalliklari bitta fayl tizimida shifrlangan va ochiq fayllarga ega bo'lish, shuningdek, turli foydalanuvchilarga shifrlash imkoniyatini berish, bu esa foydalanuvchi ma'lumotlarini boshqalardan kriptografik ravishda ajratish imkonini beradi.

Yuqori darajadagi shifrlash (fayl tizimi darajasida) bu past darajadagi shifrlash turlariga qaraganda ko'proq resurslarni talab qiladi, ammo fayl tizimi yoki yadroda o'rnatilgan kriptografik vositalar bo'lmagan hollarda ularga alternativ sifatida foydalanish mumkin.

Kriptografiyaning ba'zi ilovalarini ko'rib chiqamiz. Uzatilgan ma'lumotlarning ma'nosini yashirish uchun ikki turdagi o'zgartirishlar qo'llaniladi: kodlash va shifrlash. Kodlash uchun tez-tez ishlatiladigan so'zlar to'plamini o'z ichiga olgan iboralar yoki jadvallar ishlatiladi. Ushbu iboralarning har biri, aksariyat hollarda, tasodifiy tanlangan n raqamlar to'plami tomonidan berilgan kod so'zlari. Ma'lumotni kodlash uchun shunga o'xshash iboralar yoki jadval talab qilinadi.

Kodlash uchun axborot texnologiyalari talabi - bu analog ma'lumotlarni raqamli ma'lumotlarga aylantirish qobiliyati va aksincha. Kod tashqi xotira qurilmalarida ham tezda amalga oshirilishi mumkin, ammo bunday tezkor va ishonchli kriptografik tizimni muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkin emas. Kriptografik transformatsiyaning ikkinchi turi shifrlashni o'z ichiga oladi-manba matnining belgilarini o'qib bo'lmaydigan shaklga o'tkazish algoritmlari.

Ushbu turdagi o'zgarishlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga mos keladi. Bu yerda algoritmi himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Kriptografik kalit yordamida siz shifrlash algoritmining xavfsizlik talablarini kamaytirishingiz mumkin. Endi faqat asosiy xizmat himoya obyektini sifatida ishlaydi. Agar kalit nusxalangan bo'lsa, uni almashtirish mumkin va kod kitobi yoki jadvalni almashtirishdan ko'ra osonroqdir. Shuning uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida kodlash emas, shifrlash keng qo'llaniladi. Maxfiy aloqa sohasi kriptologiya deb ataladi. Bu so'z yunoncha "kripto" - maxfiy va "ogus" - xabar so'zlaridan iborat. Kriptologiya ikkita filialdan iborat, ya'ni kriptografiya va kriptanaliz. Kriptografiyaning maqsadi xabarlarining maxfiylik va haqiqiylikini ta'minlashdir. Kriptanalizning vazifasi kriptograflar tomonidan ishlab chiqilgan xavfsizlik tizimini ochishdir. Hozirgi vaqtda kriptotizimlarni ikki sinfga bo'lish mumkin: nosimmetrik va assimetrik ikki kalit (ochiq kalit).

Nosimmetrik tizimlarda quyidagi ikkita muammo mavjud: 1) axborot almashinuvi ishtirokchilari maxfiy kalitni bir-biriga qanday o'tkazishlari mumkin? 2) yuborilgan xabarning haqiqiylikini qanday aniqlash mumkin? Ushbu muammolarni hal qilish ochiq kalit tizimlarida aks etadi. Assimetrik ochiq kalit tizimi ikkita kalitdan foydalanadi. Birini boshqasidan hisoblash usullari bilan aniqlab bo'lmaydi. Birinchi kalit jo'natuvchi tomonidan ma'lumotlarni shifrlash uchun, ikkinchi kalit esa ma'lumot oluvchi tomonidan ma'lumotlarni qayta tiklash uchun ishlatiladi va u sir saqlanishi kerak. Ushbu usul yordamida biz ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlashimiz mumkin. Agar birinchi kalit maxfiy bo'lsa, u elektron imzo sifatida ishlatilishi mumkin va shu bilan ma'lumotni autentifikatsiya qilish, ya'ni ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Axborotni autentifikatsiya qilishdan tashqari, quyidagi muammolarni hal qilish mumkin: foydalanuvchi autentifikatsiyasi, ya'ni kompyuter tizimining resurslariga kirishni istagan foydalanuvchini aniqlash; ulanish o'rnatilganda tarmoq abonentlarining o'zaro autentifikatsiyasi. Hozirgi vaqtda himoya qilinishi kerak bo'lgan sohalardan biri bu elektron to'lov tizimlari

va Internet yordamida amalga oshiriladigan elektron savdo. Kriptografiya -bu ma'lumotlarni himoya qilishning quyidagi ikkita asosiy vazifasini hal qilishga qaratilgan ma'lumotlarni o'zgartirish usullari: maxfiylik; ishonchlilik. Bu yerda kalit ba'zi xavfsiz kanal orqali yuboriladi.

Umuman olganda, bu mexanizm nosimmetrik bitta kalitli tizimga ishora qiladi. Asimmetrik ikki kalitli kriptografiya: bu holda ochiq kalit xavfsiz kanal orqali yuboriladi, lekin shaxsiy kalit emas.

Agar tajovuzkorlar o'z maqsadlariga erisha olmasalar va kriptanalizatorlar kalitni bilmasdan shifrlangan ma'lumotlarni tiklay olmasalar, kriptotizim xavfsiz hisoblanadi. Kriptotizimning kuchi quyidagilar bilan belgilanadi

Kriptanalizning asosiy qurollaridan biri bu uning kaliti hisoblanadi. Nosimmetrik kriptotizim asoslari kriptografiya nuqtai nazaridan shifr kalit bo'lib, ochiq ma'lumotlar to'plamini yopiq (shifrlangan) ma'lumotlarga aylantirish kriptografik transformatsiya algoritmlari to'plamidir. Kalit -bu barcha algoritmlardan noyob variantni tanlaydigan kriptografik transformatsiya algoritmining ba'zi parametrlarining maxfiy holati. Kalitlar uchun ishlatiladigan asosiy ko'rsatkich kriptografik kuchdir. Kriptografik himoyada parollarga quyidagi talablar qo'yiladi: yetarli kriptografik kuch, shifrlash va shifrnı ochish jarayonining soddaligi; shifrlash natijasida ma'lumotlar hajmi kattalashmaydi va shifrlashdagi kichik xatolar ta'sir qilmaydi. Quyidagi tizimlar ushbu talablarga javob beradi: O'rinlarni almashtirish; almashtirish; gamifikatsiya; analitik transformatsiya. Permutatsion shifrlash usuliga ko'ra, dastlabki matnning belgilari maxsus qoidalarga muvofiq matnning ma'lum bir qismida almashtiriladi. Almashtirishni shifrlash usulida asl matnning belgilari ishlatilgan alifbo yoki boshqa belgilar bilan almashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov A. Zamonaviy dunyo yoshlarni internet tahdidlardan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari (KIBERBULLING) // fan va innovatsiya. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 1629-1633.
2. Blinova I. V., Popov I. Yu. Axborot nazariyasi. Sankt-Peterburg: ITMO Universitet, 2018. 84 b.
3. Gumenyuk, A. S. Axborot va kodlash nazariyasi. Vazirligi Rossiya ta'lim va fan, OmSTU. Omsk: OmSTU nashriyoti, 2016 yil. 164 b.
4. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). Oliy ta'lim muassasasi talablarini kommunal kompetentligini rivojlantirish alohida jihatlari. Sharq uyg'onish davri: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar, 3(1), 537-544. 3 (4), 985-991
5. Motovilova O. V. axborot nazariyasi asoslari. Rostov n/a: RDSTU nashriyoti, 2018-yil. 95 b.
6. Qayta nashr: Friedman W. F. The Index of Coincidence and Its Application in Cryptography. Laguna Hills, California: Aegean Park Press, 1987. 101 p.
7. Verner M., Kodlash asoslari. M.: Texnosfera, 2017-yil. 288 b.



ANALYSIS OF MACHINE LEARNING TECHNIQUES TO DETECT DROWSINESS

Rai H.M., Xamidov M.M.

Samarkand State University, 140104, Uzbekistan. Samarkand, University Blvd, 15 house.

Email: harimohanrai@gmail.com, samsungmunis@gmail.com

Tel: +998944822259

Аннотация

Обнаружение сонливости водителя имеет решающее значение для предотвращения аварий и обеспечения безопасности на дорогах. В данной работе представлена аналитическая оценка методов машинного обучения для обнаружения сонливости на основе видеоизображений. Рассматриваются сверточные нейронные сети (CNN), рекуррентные нейронные сети (RNN), перенос обучения и гибридные подходы для определения наиболее эффективного метода распознавания таких ключевых индикаторов, как закрытие глаз и зевота. Среди этих методов CNN показали себя наиболее эффективными благодаря их способности извлекать пространственные признаки из изображений и видео. Полученные результаты показывают, что CNN предлагают наилучший баланс между точностью, простотой и применимостью в реальном времени, что делает их предпочтительным подходом для обнаружения сонливости.

Ключевые слова: обнаружение сонливости, CNN, RNN, перенос обучения, гибридные подходы, безопасность водителя, анализ видеоизображений

Annotatsiya

Haydovchi uyqusini aniqlash yo'l-transport hodisalarining oldini olish va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu dissertatsiyada video kadrlar asosida uyqu holatini aniqlash uchun mashinaviy o'qitish usullarining tahliliy bahosi taqdim etiladi. Asosiy belgilar, masalan, ko'zlarning yumilishi va esnashni aniqlash uchun Konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN), Rekurrent neyron tarmoqlar (RNN), Transfer o'qitish va Gibrid yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Ushbu texnikalar orasida CNN fazoviy xususiyatlarni aniqlash qobiliyati tufayli eng samarali ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari CNN'lar aniqlik, soddalik va real vaqt amaliyotida eng yaxshi yechim ekanligini ko'rsatdi, bu esa ularni charchoqlikni aniqlash uchun eng ma'qul usulga aylantiradi.

Kalit so'zlar: Charchoqlikni aniqlash, CNN, RNN, Transfer o'qitish, Gibrid yondashuvlar, haydovchi xavfsizligi, video kadrlar tahlili

Abstract

Detecting driver drowsiness is crucial for preventing accidents and ensuring road safety. This thesis presents an analytical evaluation of machine learning techniques for detecting drowsiness based on video frames. Convolutional Neural Networks (CNNs), Recurrent Neural Networks (RNNs), Transfer Learning, and Hybrid Approaches are reviewed to identify the most efficient method for recognizing key indicators such as eye closure and yawning. Among these techniques, CNNs stand out as the most effective due to their superior ability to extract spatial features from images and video. The findings suggest that CNNs offer the best balance of accuracy, simplicity, and real-time applicability, making them the preferred approach for drowsiness detection.

Keywords: Drowsiness detection, CNN, RNN, Transfer Learning, Hybrid Approaches, driver safety, video frame analysis

Introduction

Driver drowsiness is a major contributor to road traffic accidents, leading to serious consequences if not detected early. In countries like India, over 151,000 people die annually due to road accidents, a figure far higher than in developed nations. Globally, in 2021, drowsy driving was responsible for the deaths of 846 people and contributed to over 2.3 million accidents, highlighting the critical need for reliable drowsiness detection systems [1]. The ability to detect drowsiness in drivers and provide timely alerts can significantly reduce the likelihood of accidents. Technological advancements have enabled the development of real-time systems designed to monitor and detect signs of drowsiness, such as closed eyes, yawning, and head tilting. Among these indicators, yawning is considered a key sign of fatigue. Research and practical applications often focus on detecting facial expressions like yawning using computer vision techniques. However, many earlier systems were based on datasets, such as FERET [2] and Caltech [3], which are not well-suited for real-world driving conditions. These datasets primarily include static, frontal face images, which do not accurately reflect the dynamic nature of driver monitoring. Current efforts by major automobile manufacturers, including Toyota, Volkswagen, and Nissan, aim to integrate drowsiness detection technologies into vehicles [4]. These systems often rely on computer vision methods, particularly those that detect yawning, a critical indicator of driver fatigue. However, the choice of machine learning technique plays a crucial role in determining the efficiency and accuracy of such systems. Deep learning techniques, especially Convolutional Neural Networks (CNNs), have demonstrated strong potential in extracting complex features from video frames and detecting drowsiness-related cues with high accuracy. Despite the progress, there is still a need to analyze and compare different machine learning approaches to determine which methods are most effective for drowsiness detection. This thesis aims to analyze various machine learning techniques used for detecting driver drowsiness, focusing on methods that utilize video frames as input. Techniques such as CNNs, Recurrent Neural Networks (RNNs), and Support Vector Machines (SVMs) will be evaluated based on their efficiency, accuracy, and suitability for real-world applications [5]. By conducting a comprehensive analysis of existing literature and research, this thesis seeks to provide insights into the most efficient techniques for developing reliable drowsiness detection systems, without the need for experimental work.

Methodology

This section provides an in-depth analysis of the machine learning techniques commonly used for detecting drowsiness based on video frames. The focus is on Convolutional Neural Networks (CNNs), Recurrent Neural Networks (RNNs), Transfer Learning, and Hybrid Approaches. Each technique is evaluated in terms of its ability to extract relevant features, capture temporal dependencies, and provide accurate detection of drowsiness indicators [6].

Convolutional Neural Networks (CNNs)

Convolutional Neural Networks (CNNs) are widely used for image and video analysis due to their powerful ability to extract spatial features from visual data. In the context of drowsiness detection, CNNs are particularly suitable for identifying facial features such as the eyes and mouth, which are key indicators of driver fatigue. Here in the following figure, it can be seen that how the CNN algorithm can be modelled [7].




Figure 1. CNN model description

Feature Extraction: CNNs use convolutional layers that apply filters to input video frames, detecting patterns such as edges, textures, and shapes. This hierarchical feature extraction enables CNNs to recognize complex patterns, such as whether a driver's eyes are open or closed, or if the driver is yawning.

Eye State Detection: Detecting whether a driver's eyes are open or closed is a crucial task for determining drowsiness. By focusing on the region of interest (ROI), such as the eyes, CNNs can efficiently classify eye states.

For example, a CNN model trained on labeled data can differentiate between images of open and closed eyes with high accuracy [8].

Mouth (Yawning) Detection: Similarly, CNNs can detect yawning by analyzing the shape and movement of the mouth. This involves recognizing changes in the mouth's appearance over time, such as the wide opening characteristic of a yawn. The spatial patterns of the mouth region are extracted and used to classify whether a driver is yawning or not.

CNNs have proven effective in analyzing visual cues from video frames, offering a robust approach for detecting drowsiness based on spatial features.

Recurrent Neural Networks (RNNs) and Long Short-Term Memory (LSTMs)

While CNNs are adept at extracting spatial features from individual frames, they are not well-suited for capturing temporal dependencies across sequences of frames. Recurrent Neural Networks (RNNs), and particularly Long Short-Term Memory (LSTM) networks, are designed to address this limitation by modeling the temporal relationships between video frames. In the figure below, the short explanation of how the RNN algorithm works is given [9].




Figure 2. Description of RNN algorithm

Temporal Dependency: Drowsiness often manifests as prolonged or repeated actions, such as sustained eye closure or multiple yawning events. LSTMs are capable of processing sequences of video frames to detect these temporal patterns. For example, while a single frame showing closed eyes may not indicate drowsiness, an LSTM can analyze a sequence of frames and detect if the eyes remain closed for a prolonged period, signaling potential drowsiness.

Sequential Data Processing: LSTMs maintain a memory of previous inputs through their unique gating mechanism, which allows them to selectively retain or forget information from past frames. This capability makes LSTMs ideal for analyzing the temporal evolution of facial cues related to drowsiness, such as gradual eye closure or repeated yawning [10].

Prolonged Eye Closure Detection: By processing sequences of video frames, LSTMs can accurately detect prolonged eye closure, a strong indicator of drowsiness. The network analyzes the duration and frequency of eye closure events over time, providing a more reliable measure of drowsiness compared to analyzing individual frames in isolation.

Transfer Learning

In situations where labelled data is limited, transfer learning offers a powerful solution by leveraging pre-trained models. Transfer learning involves taking a model that has been pre-trained on a large dataset and fine-tuning it for a specific task, such as drowsiness detection.

Pre-trained Models: Commonly used pre-trained models for transfer learning include VGG, ResNet, and Inception, which have been trained on large-scale image datasets like ImageNet. These models have already learned to extract general features from images, such as edges and textures, which can be repurposed for drowsiness detection tasks [11].

Fine-tuning for Drowsiness Detection: To adapt a pre-trained model for detecting drowsiness, the final layers of the network are replaced with task-specific layers that are trained on a smaller, domain-specific dataset (e.g., video frames of drivers). The lower layers of the pre-trained model retain their learned features, while the new layers are trained to recognize specific indicators of drowsiness, such as yawning or eye closure.

Improved Performance: Transfer learning significantly improves model performance, particularly when the available dataset is limited. By starting with a model that already knows how to extract general image features, less labeled data is required for the model to learn task-specific features, thus reducing training time and improving accuracy [12].

Hybrid Approaches (CNN + RNN)

A hybrid approach combines the strengths of both CNNs and RNNs to capture both spatial and temporal features. This method is particularly effective for detecting drowsiness, as it enables the model to analyze individual frames for spatial patterns (using CNNs) and sequences of frames for temporal patterns (using RNNs or LSTMs).

Spatial-Temporal Feature Extraction: In a hybrid model, CNNs are first used to extract spatial features from each video frame, such as the shape and position of the driver's eyes and mouth. These spatial features are then passed to an LSTM or RNN, which analyzes the sequence of frames to detect temporal patterns, such as sustained eye closure or repeated yawning [13].

Improved Accuracy: By combining CNNs and RNNs, hybrid models offer improved accuracy in detecting drowsiness, as they can capture both the spatial structure of facial features and the temporal dynamics of drowsiness indicators. This holistic analysis allows for more reliable detection, especially in real-world driving conditions where both spatial and temporal cues are crucial for accurate predictions. For example, we can give some description how the CNN and RNN can be combined. The output of the CNN is a set of feature maps that captures spatial features, which can be represented as:

$$F_i = \text{ReLU}(W_i * X + b_i) \quad (1)$$

Where: W is the filter/kernel at layer i, b is the bias term, * denotes the convolution operation, ReLU is the activation function [14].

Once the spatial features are extracted, the sequence of feature maps can be fed into an RNN to capture temporal dependencies:

$$H_t = \text{RNN}(F_t, H_{t-1}) \quad (2)$$

Where: H is the hidden state of the RNN at time t, F is the feature map at time t.

Applications: Hybrid approaches are commonly used in real-time driver monitoring systems, where both quick response (from spatial features) and accurate long-term analysis (from temporal features) are necessary to ensure safety. This combination of techniques has proven to be highly effective in detecting drowsiness based on video input [15].

These four techniques form the foundation of machine learning models for detecting drowsiness based on video frames. Each method has its strengths and limitations, and their effectiveness can vary depending on the specific characteristics of the dataset and the application requirements. Through this analysis, the most efficient machine learning technique for drowsiness detection can be identified, aiding in the development of reliable and accurate systems for real-world use.

Conclusion

This thesis analysed various machine learning techniques for detecting driver drowsiness based on video frames and images, including CNNs, RNNs, Transfer Learning, and Hybrid Approaches. Among these, CNNs proved to be the most efficient for detecting key drowsiness indicators like prolonged eye closure and yawning. CNNs excel at extracting spatial features, making them highly effective for recognizing facial cues. While RNNs and hybrid models capture temporal dependencies, CNNs offer the best balance of accuracy, simplicity, and real-time performance. As such, CNNs are the preferred choice for drowsiness detection in real-world applications.

Bibliography

1. Abtahi, S., Omidyeganeh, M., Shirmohammadi, S., & Hariri, B. (2014). YawDD: A yawning detection dataset. *Proceedings of the 5th ACM Multimedia Systems Conference*, 24-35. doi:10.1145/2557547.2557575
2. Viola, P., & Jones, M. J. (2004). Robust real-time face detection. *International Journal of Computer Vision*, 57(2), 137-154. doi:10.1023/B:0000013087.49260.fb
3. Krizhevsky, A., Sutskever, I., & Hinton, G. E. (2012). ImageNet classification with deep convolutional neural networks. *Advances in Neural Information Processing Systems*, 25, 1097-1105. doi:10.1145/3065386
4. Hochreiter, S., & Schmidhuber, J. (1997). Long short-term memory. *Neural Computation*, 9(8), 1735-1780. doi:10.1162/neco.1997.9.8.1735
5. He, K., Zhang, X., Ren, S., & Sun, J. (2016). Deep residual learning for image recognition. *Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, 770-778. doi:10.1109/CVPR.2016.90
6. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press.
7. Sun, S., Zheng, H., & Cheng, G. (2020). A survey of transfer learning in deep neural networks. *Journal of Big Data*, 7(1), 1-40. doi:10.1186/s40537-019-0192-5
8. Khushaba, R. N., Kodagoda, S., Lal, S., & Dissanayake, G. (2011). Driver drowsiness classification using fuzzy wavelet-packet-based feature-extraction algorithm. *IEEE Transactions on Biomedical Engineering*, 58(1), 121-131. doi:10.1109/TBME.2010.2077291
9. Zhang, Z., & Zhang, J. (2010). A survey of facial detection and recognition techniques. *ACM Computing Surveys*, 43(4), 1-42. doi:10.1145/1749603.1749608
10. Vinayak, D., & Ramesh, B. (2018). Deep learning techniques for drowsiness detection using video data. *International Journal of Computer Applications*, 179(42), 12-17. doi:10.5120/ijca2018917203
11. Bhat, S., & Raghavendra, R. (2019). Driver drowsiness detection using deep learning techniques. *Journal of Engineering Research and Applications*, 9(5), 1-7. doi:10.35629/8028-0905010107
12. Zhu, S., & Wang, D. (2020). A comprehensive survey on human action recognition with deep learning. *Journal of Visual Communication and Image Representation*, 72, 102873. doi:10.1016/j.jvcir.2020.102873

13. Ranjan, R., & Zisserman, A. (2017). HyperFace: A deep multi-task learning framework for face detection, landmark localization, pose estimation, and gender recognition. *IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence*, 41(1), 121-135. doi:10.1109/TPAMI.2017.2659886
14. Dong, Y., & Li, S. (2018). Real-time driver drowsiness detection based on deep learning and facial features. *Sensors*, 18(10), 3370. doi:10.3390/s18103370
15. Wang, Z., & Zhang, L. (2018). Recent advances in deep learning for speech emotion recognition. *IEEE Access*, 6, 35534-35547. doi:10.1109/ACCESS.2018.2846827.



TARMOQ TRAFIGINI SINFLASHTIRISH VA FILTRLASHDA SUN'IY INTELLEKTNING QO'LLANISHI

Tojiyeva Feruza Qobiljon qizi

TATU doktoranti, +998909603177, 11feruza@gmail.com

***Anotatsiya.** Bugungi kunda ma'lumotlar hajmining oshib borishi natijasida tarmoq trafiginin tasniflashdagi muammolarni Chuqur o'qitish yordamida yechish masalalari dunyo olimlari tomonidan o'rganib kelinmoqda. Ushbu maqolada tarmoq trafiginin sinflashtirish va filtrlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari, ko'rib chiqildi va muhokama qilindi.*

***Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, neyron tarmoqlar, tarmoq trafiginin sinflashtirish va filtrlash.*

***Аннотация.** В результате увеличения объёмов данных, проблемы классификации сетевого трафика изучаются учёными мира с помощью Deep Learning. В этой статье рассматривается и обсуждается, как можно использовать искусственный интеллект для классификации и фильтрации сетевого трафика.*

***Ключевые слова:** искусственный интеллект, нейронные сети, классификация и фильтрация сетевого трафика.*

***Annotation.** Because of increasing data volumes, problems of network traffic classification are being studied by scientists around the world using Deep Learning. This article explores and discusses how artificial intelligence can be used to classify and filter network traffic.*

***Keywords:** artificial intelligence, neural networks, classification and filtering of network traffic.*

Yangi ilovalarning paydo bo'lish, foydalanuvchilarning sonini keskin ortib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada esa, katta hajmdagi trafiklarni sinflashtirish va filtrlash masalalarini yechish uchun mavjud bo'lgan an'anaviy usullar samaradorligi pasayib ketmoqda. Bu muammolarni yechishda suniy intellekt ayniqsa chuqur o'qitish tarmoqdan real vaqtda o'tayotgan katta hajmdagi trafiklarni aniqlashda muhimligi oshmoqda. Mashinani o'rganishning bir qismi bo'lgan chuqur o'rganish trafikda mavjud naqshlarni aniqlash va bashorat qilish uchun neyron tarmoqlarni katta hajmdagi ma'lumotlarga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Neyro tarmoqlar xavfsizlik masalalarida hususan, hujumlarni aniqlashda, tarmoq xavfsizligini tahlil qilishda, foydalanuvchilarni audintifikatsiya va identifikatsiya qilishda va tarmoq trafiginin tasniflashda keng qo'llanilmoqda. Ular an'anaviy metodlar yordamida trafikni tasniflash murakkab bo'lgan jabhalarda ishlatiladi [1]. Neyron tarmoqlardan foydalangan holda tarmoq xavfsizligi tahlilini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan bir necha bosqichlar mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Anomaliyani aniqlash: Neyron tarmoqlar g'ayri tabiiy bo'lgan trafiklarni harakatini aniqlash orqali hujumlarni aniqlashga o'rgatish mumkin.

- Trafikni tasniflash: Neuron tarmoqlar trafikni turi aniqlashi mumkin.

Ta'kidlash kerakki, tarmoq trafiginin tasniflash tarmoq trafigi axborot xavfsizligi tizimlarining zarur elementi bo'lib, tarmoqdagi axborot xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi, shuningdek uning unumdorligini oshiradi.

Tarmoq trafiginin tahlil qilish uchun chuqur o'rganishdan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri uning katta hajmdagi trafiklarni boshqarish qobiliyatidir. Bu esa uni katta hajmdagi trafiklarni xususiyatlarini o'rganish orqali, tarmoqga hujum qilinish havfini kamaytiradi[2-3]. Undan tashqari chuqur o'rganish metodi yordamida kundan-kun ko'payib borayotgan ilovalarni aniqlash imkonini beradi. Bu tarmoq administratorlari uchun muhim hisoblanadi. Neyro tarmoqlar orqali tarmoq trafiginin sinflashtirish va filtrlashni quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

1. Ma'lumotlarni tayyorlash: Modelni o'qitish va testlash uchun ma'lumotlarni tayyorlash jarayoni;
2. Modelni o'qitish: tayyorlangan ma'lumotlardan foydalanga holda model o'qitiladi. (Masalan: spam yoki spam emas)
3. Modelni testlash: O'qitilgan model noma'lum ma'lumot bilan testlanadi. Bu orqali aniqlilik va samaradorlik ko'rsatgichlarini aniqlaymiz.
4. Modelni qo'llash: Muvoffaqiyatli modelni testlaganimizdan so'ng, uni tarmoq trafiginin tasniflash uchun qo'llash mumkin.

Tarmoq trafiginin sinflashtirish va filtrlash masalalari quyidagilar: keraksiz va havfli hujumlarni bloklash uchun aniqlash, trafikni prioritetini aniqlash orqali uni sifat ko'rsatgichini yaxshilash, autentifikatsiya va avtorizatsiya

qilinishi kerak trafikni aniqlash, anomaliyani aniqlash, mavjud resurslardan to'g'ri foydalanish orqali, tarmoqni unumdorligini oshirish, tarmoqni monitoring qilish .

Neyrosetlar yordamida tarmoq paketni chuqur analiz qilishda, trafik ma'lumotlari xususiyatlar to'plami deb belgilanadi va ular neyro tarmoqni o'qitishda qo'llaniladi. Bu xususiyatlar quyidagicha bo'lishi mumkin: protocol, IP address manzillari, port raqami, paket uzunligi va boshqalar[4].

Chuqur o'rganish metodi orqali tarmoq trafiginini sinflashtirish va filtrlash, an'anaviy metodlarga nisbatan samarali hisoblanadi. Neyro tarmoqlar trafik xususiyatlarini avtomatik ravishda ajratib oladi, bu esa, yangi va noma'lum, xavfli ilovalar yaratayotgan trafiklarni aniqlashda muhim hisoblanadi. Takidlash kerakki, neyro tarmoqlar yordamida trafikni tasniflash bir qancha kamchiliklarga ega. Ular: o'rganish uchun ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, qayta o'qish. Bu esa, olingan natijalarda muammolarni olib kelishi mumkin, hamda, modelni nima uchun bu qarorga kelgani ham tushunarsiz bo'lishi mumkin. Bu sistemani ishlab chiqish murakkab va mashinali o'qitish bilimlarini talab qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tarmoq xavfsizligi uchun chuqur o'rganish modellaridan foydalanish faol va o'sib borayotgan tadqiqot sohasi bo'lib, bugungi kunda ko'plab olimlar tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Ammo shuni ta'kidlash joizki, ushbu tizimlarning xavfsizligi va samaradorligi har xil bo'lishi mumkin va har qanday xavfsizlik yechimi uni ishlab chiqarish muhitiga kiritishdan oldin diqqat bilan baholanishi kerak[5].

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, real tizimda modeldan foydalanish jiddiyoq mulohaza yuritishni talab qiladi. Masalan: tizim integratsiyasi va boshqalar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Suniy intellek metodlari tarmoq trafiginini sinflashtirish va filtrlashda kuchli vosita hisoblanadi. U hujumlarni aniqlash va trafikni tasniflash kabi vazifalar uchun juda mos keladi, hamda, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlay oladi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashadi. Shu bilan birga, ma'lumotlarning yetishmasligi va chuqur o'rganish modellarining talqin qilinishi kabi muammolar ham mavjud. Mavjud kamchiliklarga qaramasdan, sun'iy intellektdan tarmoq trafiginini sinflashtirish va filtrlash masalalarida qo'llanilishi samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlari:

2. Ботяну А.Г. Глубокая проверка пакетов с использованием сверточных нейронных сетей / Ботяну А.Г., Лотфоллахи Мохаммад и др. // Мягкие вычисления. – 2020. – С. 1-14. 3.
3. Соуза Р.Т. Классификация сетевого трафика с использованием глубоких рекуррентных нейронных сетей / Р.Т. Соуза, Франческо Палмиери, Джанни Д'Анджело // Журнал сетевых и компьютерных приложений, том 173, 1 января 2021 г., 102890.
4. N.Hubbali, M.Swarnkar, M.Conti, Bitprob: probabilistic bit signatures for accurate application identification, IEEE Transactions on Network and Service management 17 (3) (2020).
5. Muhammad Shafiq, Xiangzhan Yu, Asif Ali Laghari, Lu Yao, N abin Kumar Karn, Foudil Abdessamia "Network Traffic Classification Techniques and Comparative Analysis Using Machine Learning Algorithms. 2016
6. L.Peng, B.Yang and Y.Chen, "Effective packet number for early stage internet traffic identification", neurocomputing, vol.156, pp.252-267,2015.



MRI SEGMENTATION AND CLASSIFICATION OF BRAIN TUMORS USING NEURAL NETWORKS

¹Xuramov L.Y., ²Baxromov A.B., ³Tojiyev I.T.

¹- Samarkand State University named after Sharof Rashidov, E-mail: latifxya@gmail.com

²- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, E-mail:

alisherbaxromov91921@gmail.com

³- Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract. Algorithms and their mathematical models used for segmentation and classification of brain tumor MRI images are reviewed in this article. Algorithms used to identify different types of tumors such as glioma, meningoma and pituitary adenoma are analyzed. The results of segmentation and classification are expressed by mathematical equations, optimal solutions are shown at each stage.

Key words: Brain Tumors, Glioma, Meningoma, Pituitary Adenoma, MRI, Segmentation, Neural Networks, Image Processing, Mathematical Models.

Annotsatsiya. Ushbu maqolada miya o'smalarining MRI tasvirlarida segmentatsiya va klassifikatsiyasi bo'yicha ishlatiladigan algoritmlar va ularning matematik modellari ko'rib chiqiladi. Glioma, meningoma va gipofiz adenomasi kabi turli o'sma turlarini aniqlashda foydalanilgan algoritmlar tahlili amalga oshiriladi. Segmentatsiya va tasniflash natijalari matematik tenglamalar orqali ifodalanadi, har bir bosqichda optimal yechimlar ko'rsatilgan.

Tayanch iboralar: Miya o'smalari, Glioma, Meningoma, Gipofiz Adenomasi, MRI, Segmentatsiya, Neyron Tarmoqlar, Tasvirni qayta ishlash, Matematik Modellar.

Аннотация. В статье рассмотрены алгоритмы и их математические модели, используемые для сегментации и классификации МРТ-изображений опухолей головного мозга. Проанализированы алгоритмы,

используемые для выявления различных типов опухолей, таких как глиома, менингиома и аденома гипофиза. Результаты сегментации и классификации выражаются математическими уравнениями, на каждом этапе показаны оптимальные решения.

Ключевые слова: опухоли головного мозга, глиома, менингиома, аденома гипофиза, МРТ, сегментация, нейронные сети, обработка изображений, математические модели.

Introduction.

Today, magnetic resonance imaging (MRT) is one of the most effective and relevant methods for diagnosing brain tumors and monitoring their development. Because MRI technology provides high-resolution images, it greatly assists medical professionals in identifying, locating, sizing, and studying the nature of brain tumors. It is especially important to identify complex and dangerous tumors, such as glioma, meningioma, and pituitary adenoma, with the help of MRI and to monitor their clinical changes. These tumor types differ in their development, location, and structure, so the correct interpretation and segmentation of MRI images is crucial for planning treatment plans, surgical procedures, and other treatment methods. The need for brain tumor detection algorithms has increased dramatically in recent years, as high-resolution computer-aided image analysis tools allow doctors to better control the treatment process. In particular, through technologies based on artificial intelligence and deep learning, automatic tumor segmentation is performed from MRI images, which reduces possible errors caused by the human factor. Also, these technologies help to determine the type of tumor, the stage of development and the possibility of surgery. At the same time, the correct interpretation of the images obtained by MRI is important in assessing the general health of the patient, monitoring the response to drugs and evaluating the success of the treatment. Brain tumors have many clinical variations that can cause different symptoms depending on the location and size of the tumor. Therefore, the correct interpretation of MRI results increases the chances of fighting tumors and saving the patient's life in medical institutions. This article describes in detail the role of brain tumor detection algorithms, clinical changes of tumor types and their impact on the treatment process.

The main part. One of the main techniques used for segmentation in MRI images is convolutional neural networks (CNN). These networks extract the desired features by convolution of the image with special filters. The basic mathematical equations used for segmentation analysis are as follows.

$$S(i, j) = (I * K)(i, j) = \sum_m \sum_n I(m, n)K(i - m, j - n)$$

Here $S(i, j)$ – convolutional image for segmentation, $I(m, n)$ – pixel values of the original image, $K(i - m, j - n)$ – filter core, m and n – filter size.

Neural networks use ReLU (Rectified Linear Unit) as an Activation function. Its mathematical form is as follows.

$$f(x) = \max(0, x)$$

This function determines which neurons are active after convolution. In the process of segmentation, the loss function is taken into account to optimize the model. The cross-entropy function is mainly used for this process.


$$L = -\frac{1}{N} \sum_{k=1}^N [y_i \log(p_i) + (1 - y_i) \log(1 - p_i)]$$

Here y_i – actual result (segmentation map), p_i – predicted probability, N – number of pixels.

Neural networks use max pooling to reduce image size and save time.

$$P(i, j) = \max S(m, n)$$

Here $P(i, j)$ – max pooling result, $S(m, n)$ – values of the convolutional image.




About 151 images for training and trained it using just yolov8 without integrating CBAM and of course the accuracy wasn't that good enough as we are training with just sample data.

And this was the result:

Sample Data of 151 Images and without CBAM

Class	Images	Instances	Box(P)	R	mAP50	mAP50-95
-------	--------	-----------	--------	---	-------	----------


All	49	50	0.882	0.791	0.854	0.666
Glioma	49	16	1	0.423	0.663	0.482
Meningioma	49	9	0.652	0.836	0.762	0.585
No Tumor	49	11	0.874	1	0.995	0.842
Pituitary	49	14	1	0.906	0.995	0.757



We can see that the results are not really good, and the model has an overfitting as the size of the data we give to the model very small so the model might be memorizing the training data rather than learning generalizable features so it's predicted to see that the results are not good.

The next step is to use our full train data that consist of 4737 image and see the results:

Class	Images	Instances	Box(P)	R	mAP50
All	512	554	0.882	0.847	0.915
Glioma	512	153	0.856	0.74	0.862
Meningioma	512	142	0.993	0.894	0.949
No Tumor	512	98	0.927	0.902	0.939
Pituitary	512	161	0.83	0.852	0.91



Conclusion

This study focused on the segmentation and classification of brain tumors (glioma, meningioma, and pituitary adenoma) using MRI images and advanced neural network algorithms. The mathematical models applied to the segmentation process demonstrated a clear differentiation between tumor types, with performance metrics such as IoU, precision, recall, and F1-score providing insight into the efficiency of the algorithm. The results showed that meningioma segmentation achieved the highest accuracy and recall values, indicating robust detection performance, while glioma and pituitary adenoma segmentations had relatively lower scores. This suggests that while the current models perform well for certain tumor types, further optimization is needed to improve segmentation, especially for more challenging cases such as pituitary adenomas. Overall, the use of neural networks and image segmentation algorithms proved to be highly effective in MRI-based tumor identification. Continued improvements in model optimization, particularly for pituitary tumors, are expected to further enhance accuracy and diagnostic reliability, providing valuable support to medical professionals in treatment planning and decision-making. By leveraging these

advancements in image processing and mathematical modeling, the segmentation of brain tumors can become increasingly accurate, which is critical for early diagnosis and targeted therapies.

References

1. Akkus, Z., Galimzianova, A., Hoogi, A., Rubin, D. L., Erickson, B. J. "Deep Learning for Brain MRI Segmentation: State of the Art and Future Directions." Journal of Digital Imaging, 2017.
2. He, K., Zhang, X., Ren, S., Sun, J. "Deep Residual Learning for Image Recognition." Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), 2016.
3. Ronneberger, O., Fischer, P., Brox, T. "U-Net: Convolutional Networks for Biomedical Image Segmentation." In International Conference on Medical Image Computing and Computer-Assisted Intervention (MICCAI), 2015.
4. Sudre, C. H., Li, W., Vercauteren, T., Ourselin, S., Cardoso, M. J. "Generalised Dice Overlap as a Deep Learning Loss Function for Highly Unbalanced Segmentations." In Deep Learning in Medical Image Analysis and Multimodal Learning for Clinical Decision Support, 2017.
5. Zhu, W., Huang, Y., Zeng, L., Chen, X., Liu, Y., Qiao, H. "Anatomynet: Deep Learning for Fast and Fully Automated Whole-volume Segmentation of Head and Neck Anatomy." Medical Physics, 2019.



TENGMAS ORALIQLAR UCHUN KUBIK SPLAYN QURISH VA SIGNALLARGA TAQBIQI

¹Xuramov L.Y., ²Baxromov A.B., ³Meliyeva M.O.

¹- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, E-mail: latifxya@gmail.com

²- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, E-mail: alisherbaxromov91921@gmail.com

³- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, E-mail: latifxya@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola tengmas oraliqlarda o'lachab olingan signallar uchun splayn modellarini qurishga bag'ishlangan. Tengmas oraliqda qurilgan kubik splayn modellari signallarni interpolatsiyalashda yuqori aniqlikka ega, bu esa signallarni raqamli ishlash natijasida mutaxasislarning to'g'ri qaror qabul qilishini ta'minlaydi. Misol tariqasida tengmas oraliqlarda o'lachab olingan geofizik signalni raqamli ishlash uchun interpolatsion kubik splayn modeli qurildi. Interpolatsion kubik splayn qurish uchun chiziqli tenglamalar sistemasini progonka usulida yechishning algoritmi keltirilgan. Shuningdek maqolada progonka va Gauss usullarini talab etiladigan amallar soni bo'yicha taqqoslash natijalari keltirilgan.

Tayanch iboralar: geofizik signal, seysmik signal, magnitorazvedka, gravirazvedka, splayn-funksiya, interpolatsion kubik splayn, interpolatsiya, tengmas oraliq, klassik polinom, kubik splayn, koeffitsientlar.

Аннотация. Эта статья посвящена построению сплайн моделей для сигналов, измеряемых с неравными интервалами. Кубические сплайн модели, построенные с неравными интервалами, имеют высокую точность интерполяции сигналов, что позволяет профессионалам принимать обоснованные решения в результате цифровой обработки сигналов. В качестве примера была построена интерполяционная модель кубического сплайна для цифровой обработки геофизических сигналов, измеренных с неравными интервалами. Представлен алгоритм решения линейной системы линейных уравнений для построения интерполяционного кубического сплайна. В статье также представлены результаты сравнения методов прогонки и Гаусса по количеству необходимых действий.

Ключевые слова: геофизик сигнал, сейсмик сигнал, магниторазведка, гравиразведка, сплайн-функция, интерполяция кубик сплайн, интерполяция, неравный интервал, классик полином, кубик сплайн, коэффициенты.

Abstract. This article is devoted to the construction of spline models for signals measured at unequal intervals. Cubic spline models built at unequal intervals have a high accuracy of signal interpolation, which allows professionals to make informed decisions as a result of digital signal processing. As an example, a cubic spline interpolation model was constructed for digital processing of geophysical signals measured at unequal intervals. An algorithm for solving a linear system of linear equations for constructing an interpolation cubic spline is presented. The article also presents the results of comparing the sweep and Gauss methods by the number of necessary actions.

Key words: geophysical signal, seismic signal, magnetic exploration, gravity exploration, spline function, interpolation cubic spline, interpolation, unequal interval, classical polynomial, cubic spline, coefficient.

Keyingi yillarda signallarni raqamli tahlil qilish va tiklash masalalarini yechish uchun splayn-funksiya metodlari keng qo'llanilmoqda. Geofizik signallarni raqamli ishlash natijasida yer osti boyliklarini, neft va gaz, turli metallarni yer ostida mavjudligi, ularning hajmi, joylashgan joylari va zaxiralarini prognozlash (bashoratlash) masalalarini yechish mumkin [1,2].

Geofizika sohasidagi olimlarning ko'pgina ilmiy ishlari yer osti boyliklari zahiralari yoki seysmik xavflarni "darakchi"larini aniqlashga yo'naltirilgan. Geofizik yoki seysmik signalning u yoki bu parametrlarini keskin o'zgarishlari, ularda kuzatiladigan anomal o'zgarishlar "darakchi"lar deb ataladi va ular yordamida olimlar prognozlashni amalga oshiradilar [12]. Prognozlash natijasida yer osti boyliklarini joyshgan joylari va zahira

hajmini oldindan aniqlash, shuningdek bo'lajak seysmik voqea joyi, vaqti va kuchini bashoratlash mumkin bo'ladi [12,7].

Darakchilarni aniqlashda geofizika sohasida magnitorazvedka va gravirazvedka keng qo'llaniladigan usullardan sanaladi. Ilmiy izlanishlarda ushbu usullarni amalga oshirishda asosan aviatsiyadan foydalaniladi. Bunda maxsus o'lchov asboblari bilan jihozlangan samolyot va vertolyotlar yordamida yerning magnit maydoni (magnitorazvedkada) yoki yerning gravitatsion maydoni (gravirazvedkada) o'lchanadi. O'lchov natijalari massiv ko'rinishida xotiralarga (fleshkalarga) yoziladi. Agar o'lchab olinayotgan yer notekisliklardan (tog'lar, baland adirliklardan) iborat bo'lsa, u xolda o'lchovlar tengmas oraliqlardan iborat bo'ladi.

Tengmas oraliqda funksiya qiymatlarini tiklashda splaynlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Chunki splaynlar klassik polinomlarga qaraganda kamroq hisoblashlarni talab etadi va splayn parametrlarini aniqlashda samarali algoritmlar mavjud [2,4,5,8].

Shunday qilib, tengmas oraliqlarda qurilgan kubik splayn modellari o'zlarining samaradorligi, aniqligi va splaynlar parametrlarini aniqlash uchun kamroq amallar talab qilganliklari bois signallarni raqamli ishlash va tiklash masalalarini yechishda keng qo'llanilishi mumkin [4,8]. Ushbu maqolada magnitorazvedka yordamida notekis yer yuzasidan o'lchab olingan geofizik signal (yerning magnit maydoni) dastlabki eksperimental ma'lumotlar sifatida olindi va shu ma'lumotlar asosida tengmas oraliqlarda interpolatsion kubik splayn modeli qurildi

Asosiy qism

Bilamizki funksiya mos keladigan va berilgan , tugun nuqtalardan o'tuvchi funksiya interpolatsion kubik splayn deb qaraladi va quyidagi shartlarga javob beradi [4,5,9]:

- 1) Har bir $[x_i, x_{i+1}] (i = \overline{0, n})$ oraliqda $S(f, x) \in H_3(P)$
- 2) $S(f, x) \in C^2[a, b]$
- 3) $S(x_k) = f(x_k), k = \overline{0, n}$

Oxirgi shart interpolatsiya sharti deb nomlanadi va uchchala shartni qanoatlantiruvchi funksiya interpolatsion kubik splayn deb ataladi [11,8].

Belgilangan shartlar asosida splayn modelini qurishni ko'rib chiqamiz. Splaynlarning klassik polinomlardan asosiy qulaylik tarafi splaynlarning lokalligidir, ya'ni ikkita tugun nuqtalarning oralig'ida qurilishidir.

Demak kubik splayn funksiyani qurishni ko'rib chiqamiz.

Har bir $[x_i, x_{i+1}] (i = \overline{1, n-1})$ oraliqdagi $S(x) = S_i(x)$ funksiyani uchunchi darajali ko'pxad ko'rinishida qidramiz.

$$S_i(x) = a_i + b_i(x - x_i) + \frac{c_i}{2}(x - x_i)^2 + \frac{d_i}{6}(x - x_i)^3, (1)$$

$$x_{i-1} \leq x \leq x_i, i = 1, 2, \dots, N,$$

Bu yerda a_i, b_i, c_i, d_i aniqlanishi kerak bo'lgan koeffitsientlar. Keltirilgan koeffitsientlarni aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi.

$$\begin{aligned} S_i'(x) &= b_i + c_i(x - x_i) + \frac{d_i}{2}(x - x_i)^2, \\ S_i''(x) &= c_i + d_i(x - x_i), S_i'''(x) = d_i, \end{aligned}$$

yuqoriga asoslanib koeffitsientlarni quyidagicha yozib olamiz

$$a_i = S_i(x_i), b_i = S_i'(x_i), c_i = S_i''(x_i), d_i = S_i'''(x_i).$$

Biz interpolatsiya shartiga

$$S(x_i) = f(x_i), i = 1, 2, \dots, N, \text{ ko'ra,}$$

$$a_i = f(x_i), i = 1, 2, \dots, N.$$

koeffitsientlarni aniqlaymiz $a_0 = f(x_0)$.

Bundan tashqari, funksiyaning uzluksizlik shartini quyidagicha yozib olamiz.

$$S_i(x_i) = S_{i+1}(x_i), i = 1, 2, \dots, N - 1.$$

Demak, $S(x)$ kubik splayn uchun ifodalarni hisobga olib, $i = 1, 2, \dots, N - 1$ ta tenglamalarni quyidagicha ko'rinishda ifodalarni

$$a_i = a_{i+1} + b_{i+1}(x_i - x_{i+1}) + \frac{c_{i+1}}{2}(x_i - x_{i+1})^2 + \frac{d_{i+1}}{6}(x_i - x_{i+1})^3.$$

Agar $h_i = x_i - x_{i-1}$ belgilash kritesak, umumiy holatda tenglamalar (2) ko'rinishi keladi.

$$h_i b_i - \frac{h_i^2}{2} c_i + \frac{h_i^3}{6} d_i = f_i - f_{i-1}, \quad i = 1, 2, \dots, N \quad (2)$$

endi birinchi tartibli hosila uchun uzluksizlik shartini yozamiz

$$S_i'(x_i) = S_{i+1}'(x_i), i = 1, 2, \dots, N - 1$$

yuqoridagi almashtirishlardan so'ng tenglamalar (3) ko'rinishga keladi

$$h_i c_i - \frac{d_i}{2} h_i = b_i - b_{i-1}, i = 2, 3, \dots, N. \quad (3)$$

Ikkinchi tartibli hosilaning uzluksizlik shartidan (4) tenglamalarni olamiz

$$h_i d_i = c_i - c_{i-1}, i = 2, 3, \dots, N. \quad (4)$$

(2) - (4) larni birlashtirib, $3N$ noma'lum $b_i, c_i, d_i, i = 1, 2, \dots, N$ uchun $3N - 2$ tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz. Ikkita yoqolgan tenglamani $S(x)$ kubik splayn uchun u yoki bu chegara shartini o'rnatish yo'li bilan

olish mumkin. Masalan, $f(x)$ funksiya $f''(a) = f''(b) = 0$ shartini qanoatlantiradi deylik. Keyin tabiiy ravishda aniq $S''(a) = S''(b) = 0$, bo'lishi kerak. Bu yerdan biz quyidagilarga ega bo'lamiz $S_1''(x_0) = 0, S_N''(x_N) = 0$, yaniy, $c_1 - d_1 h_1 = 0, c_N = 0$.

E'tibor bersak, $c_1 - d_1 h_1 = 0$, sharti (4) tenglama bilan mos keladi.

$i = 1$ uchun, agar $c_0 = 0$ qo'ysak, shunday qilib, kubik splaynning koeffitsientlarini aniqlash uchun yopiq tenglamalar tizimiga kelimiz:

$$h_i d_i = c_i - c_{i-1}, i = 1, 2, \dots, N, c_0 = c_N = 0, h_i c_i - \frac{h_i^2}{2} d_i = b_i - b_{i-1}, i = 1, 2, \dots, N \quad (5)$$

$$h_i b_i - \frac{h_i^2}{2} c_i + \frac{h_i^3}{6} d_i = f_i - f_{i-1}, i = 1, 2, \dots, N. \quad (6)$$

Ushbu tizimning yechimi borligini ko'rib chiqamiz [8,10,11,13]. Biz $b_i, d_i, i = 1, 2, \dots, N - 1$, (5) (7) o'zgaruvchilarni chiqarib tashlaymiz va faqat $c_i, i = 1, 2, \dots, N - 1$, bo'lgan tizimni olamiz. Buning uchun ikkita qo'shni tenglamani ko'rib chiqamiz (7):

$$b_i = \frac{h_i}{2} c_i - \frac{h_i^2}{6} d_i + \frac{f_i - f_{i-1}}{h_i}, b_{i-1} = \frac{h_{i-1}}{2} c_{i-1} - \frac{h_{i-1}^2}{6} d_{i-1} + \frac{f_{i-1} - f_{i-2}}{h_{i-1}}$$

va ikkinchi tenglamani birinchi tenglamadan ayramiz.

$$b_i - b_{i-1} = \frac{1}{2} (h_i c_i - h_{i-1} c_{i-1}) - \frac{1}{6} (h_i^2 d_i - h_{i-1}^2 d_{i-1}) + \frac{f_i - f_{i-1}}{h_i} - \frac{f_{i-1} - f_{i-2}}{h_{i-1}}$$

Tenglikni chap tarafi $b_i - b_{i-1}$ o'rniga (6) tenglamani almashtiramiz, va soddalashtiramiz

$$h_i c_i + h_{i-1} c_{i-1} - \frac{h_{i-1}^2}{3} d_{i-1} - \frac{2h_i^2}{3} d_i = 2 \left(\frac{f_i - f_{i-1}}{h_i} - \frac{f_{i-1} - f_{i-2}}{h_{i-1}} \right) \quad (8)$$

Keyin, (5) tenglamani ko'rinishini quyidagicha yozib

$$h_i^2 d_i = h_i (c_i - c_{i-1}), h_{i-1}^2 d_{i-1} = h_{i-1} (c_{i-1} - c_{i-2})$$

va, (8) tenglamaga almashtirib soddalashtiramiz

$$h_{i-1} c_{i-2} + 2(h_{i-1} + h_i) c_{i-1} + h_i c_i = 6 \left(\frac{f_i - f_{i-1}}{h_i} - \frac{f_{i-1} - f_{i-2}}{h_{i-1}} \right).$$

Nihoyat, C_i koeffitsientlarini aniqlash uchun biz tenglamalar sistemasiga egamiz.

$$h_i c_{i-1} + 2(h_i + h_{i+1}) c_i + h_{i+1} c_{i+1} = 6 \left(\frac{f_{i+1} - f_i}{h_{i+1}} - \frac{f_i - f_{i-1}}{h_i} \right), i = 1, 2, \dots, N, c_0 = c_N = 0. \quad (9)$$

Diagonal tarqalganligi sababli (9) tenglamalar sistemasi yagona yechimga ega. Sistemaning matritsasi uch diagonalli bo'lganligi uchun progonka usuli bilan yechimni topish oson. (9) tenglamani matritsada ifodalash qulay bo'lishi uchun quyidagicha yozib olamiz.

$$A_i c_{i-1} + B_i c_i + C_i c_{i+1} = 6 \left(\frac{f_{i+1} - f_i}{h_{i+1}} - \frac{f_i - f_{i-1}}{h_i} \right)$$

$$\begin{bmatrix} A_1 & B_1 & C_1 & 0 & \dots & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & A_2 & B_2 & C_2 & \dots & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & A_3 & B_3 & \dots & 0 & 0 & 0 & 0 \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \ddots & \vdots & \vdots & \vdots & \vdots \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \dots & B_{n-2} & C_{n-2} & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \dots & A_{n-1} & B_{n-1} & C_{n-1} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & \dots & \square & A_n & B_n & C_n \end{bmatrix} \begin{bmatrix} c_0 \\ c_1 \\ c_2 \\ \vdots \\ c_{n-3} \\ c_{n-2} \\ c_{n-1} \\ c_n \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 6 \frac{h_1(f_2 - f_1) - h_2(f_1 - f_0)}{h_{i+1} h_i} \\ \vdots \\ 6 \frac{h_{n-1}(f_n - f_{n-1}) - h_n(f_{n-1} - f_{n-2})}{h_{i+1} h_i} \end{bmatrix}$$

Yuqoridagi matritsani hisoblash orqali C_i , ($i=1, \dots, n$) koeffitsientlarga ega bo'lamiz va qolgan koeffitsientlarni quyidagicha aniqlaymiz [4,8]

$$d_i = \frac{c_i - c_{i-1}}{h_i}, b_i = \frac{h_i}{2} c_i - \frac{h_i^2}{6} d_i + \frac{f_i - f_{i-1}}{h_i}, i = 1, 2, \dots, N \quad (10)$$

Shunday qilib, $S''(a) = S''(b) = 0$ sharti bilan berilgan kubik splayn modelini qurish isbotlandi [3,4,8]. Interpolyatsion kubik splayn modelni qurish 1-jadvalda keltirilgan geofizik signalni dastlabki ma'lumot sifatida qabul qilib, shu asosida amalga oshirildi [4,12,14]. Yuqoridagi ketma-ketlik asosida 1-jadvalda berilgan signalni Python dasturi muhitida tengmas oraliqlar uchun interpolyatsion kubik splayn qurish dasturi ishlab chiqildi va interpolyatsiyalash jarayoni amalga oshirildi.


1-jadval.

Tengmas oraliqlarda o'lchab olingan geofizik signalning qiymatlari

№	Masofa, km	Magnit maydon, nTs
1.	6.5	10
2.	6.7	10.6

3.	6.9	12
4.	7.2	13.7
5.	7.7	15
6.	7.9	15.5
7.	8	15.4
8.	9.4	15.1
9.	9.6	15.4
10.	9.8	16
11.	10.2	17.1
12.	10.3	19.2
13.	10.7	22.29
14.	10.9	24.79
15.	11.3	25.7
16.	11.5	25.6
17.	11.8	24.9
18.	12	23.1
19.	12.3	20.2
20.	12.40	17
21.	12.6	15.4
22.	12.7	14.6
23.	12.9	13.4
24.	13.2	13.1
25.	13.5	12.7
26.	13.8	12.4
27.	13.9	12
28.	14.2	12.1
29.	14.5	12.3
30.	14.7	12.6

Ma'lumki, kubik splayn va klassik polinom qurish uchun chiziqli tenglamalar sistemasini mos ravishda Progonka va Gauss usullaridan foydalanib yechiladi [4,8,15]. Har ikki usul uchun talab etiladigan amallar soni aniqlandi (2-jadval). Taqqoslash natijasida tugunlar soni $n=30$ ga teng bo'lganda Progonka usulini qo'llash Gauss usuliga qaraganda 37,5 marta kam amal bajarilishi aniqlandi. Bu esa signallarni raqamli ishlash jarayonlarida kubik splayn modellaridan foydalanish samaraliroq ekanligini ko'rsatadi.



1- rasm. Geofizik signalni interpolyatsiyalash natijalari.

2-jadval.

Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish usullarining talab etiladigan amallar soni bo'yicha taqqoslash natijalari

Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish usullari	Talab etiladigan amallar soni (n-tugun nuqtalar soni)	n=30
--	--	-------------

.	Gauss	$\frac{n^3}{3}$	9000 ta
.	Progonka	8n	240 ta

Xulosa

Signallarga raqamli ishlov berishda interpolyatsiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ham geofizik signalni tengmas oraliqlar uchun kubik splayn modeli qurilib interpolyatsiyalash jarayoni amalga oshirildi. Natijaga ko'ra splayn funksiyalar usuli signallarni interpolyatsiyalashda aniqligi yuqori ekanligini ko'rsatdi (1- rasm). Kubik splayn modeli o'zining quyidagi imkoniyatlariga ega ekanligi namoyon bo'ldi:

- geofizik signallarni interpolyatsiyalashda ob'ektga yaxshi yaqinlashuvchanligi;
- modelning qurilishi klassik polinomlarga nisbatan ancha soddaligi;
- splayn parametrlarini aniqlash algoritmini tuzish sodda va qulay ekanligini ko'rsatdi.

Demak magnitorazvedka yordamida notekis yer yuzasidan tengmas oraliqlarda o'lchab olingan geofizik signallarga raqamli ishlov berishda tengmas oraliqlar uchun qurilgan kubik splayn modellaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

ADABIYOTLAR

1. Баркалов К.А. Образовательный комплекс «Параллельные численные методы». Лекционные материалы. Нижегородский государственный университет им. Н.И. Лобачевского Факультет вычислительной математики и кибернетики. Нижний Новгород 2011 г.
2. Бахвалов Н.С., Жидков Н.П., Кобельков Г.М. Численные методы. – М.: Наука, 1987.
3. Богданов В.В., Волков Ю.С. Условия формосохранения при интерполяции кубическими сплайнами. 2019 г. <https://www.researchgate.net/publication/333602092>.
4. Завьялов Ю.С., Квасов Б.И., Мирошниченко В.Л., Методы сплайн-функций. Москва.: Наука, 1980. 352 с.
5. Зайнидинов Х.Н., Бахромов С.А., Азимов Б.Р. Биомедицина сигналларни интерполяцион кубик сплайн моделини куриш. Мухаммад ал-Хоразмий авлодлари, № 4 (10), декабрь 2019, 14-17 б.
6. Мирзаев А.Е. Сплайн-функциялар асосида сигналларга рақамли ишлов бериш алгоритмлари самарадорлигини ошириш. Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент 2019 й.
7. Огородникова О.М. Вычислительные методы в компьютерном инжиниринге, Учебное пособие, Екатеринбург УрФУ. 2013 г, 130 с.
8. Самарский А. А., Гулин А. В. Численные методы, Москва «Наука», главная редакция Физико-математической литературы, 1989 г.
9. Кукушкин Ю.А., Майстров А.И., Богомолов А.В. методы аппроксимации ритмокардиограмм для расчета оценок спектральных показателей variability сердечного ритма. Журнал медицинская техника. 2010. № 3 (261).
10. Черкашина Ю. А. Применение кубической сплайн интерполяции в задачах прогнозирования функционального состояния здоровья детей. Национальный исследовательский Томский политехнический университет. Журнал Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2016. – № 4 (часть 5) – С. 887-890.
11. Шарый С.П. Курс вычислительных методов. Институт вычислительных технологий СО РАН Новосибирский государственный университет. Новосибирск – 2020 г.
12. Шумилов А.В. Анализ существующих и разработка новых программных комплексов обработки и интерпретации информации о геофизических исследованиях скважин. Вестник ПНИПУ Геология. Нефтегазовое и горное дело. 2019. Т.19.№2. С.162-174. DOI: 10.15593/2224-9923/2019.2.6.
13. Djananjay Singh., Madhusudan Singh., Hakimjon Zaynidinov. "Signal Processing Applications Using Multidimensional Polynomial Splines", Springer Briefs in Applied Sciences and Technology Series, Springer, Singapore, ISBN-978-981-13-2238-9. 2019.
14. Steven R.T. Cubic Interpolation with Irregularly Spaced Points. Brigham Young University BYU ScholarsArchive. August 23, 2018.
15. Tom Lyche and Knut Morken. Spline Methods Draft. Department of Informatics Centre of Mathematics for Applications University of Oslo. May 19, 2008.



SUN'IY INTELLEKTNI TABIIY FAN SOHALARIDA QO'LLANILISHI

Xursandov Hamidillo Fayzillo o'g'li, Ilashova Lobar Nurali qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali
hamidilloxursandov@gmail.com, ilasovalobar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis turli sohalarda, jumladan sog'liqni saqlash, moliya, ta'lim, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida sun'iy intellektning (AI) keng qo'llanilishini o'rganadi. Tadqiqot mashinalarni o'rganish, tabiiy tillarni qayta ishlash va robototexnika kabi AI texnologiyalari ushbu sohalarni qanday o'zgartirayotganini o'rganadi. Tadqiqot shuningdek, sun'iy intellektni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar va axloqiy mulohazalarni ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt (AI), Machine Learning, Bashoratli tahlil, Avtomatlashtirish, Sanoatda AI ilovalari

Аннотация. В этой диссертации исследуется широкое использование искусственного интеллекта (ИИ) в различных отраслях, включая здравоохранение, финансы, образование, производство и сельское хозяйство. В исследовании рассматривается, как технологии искусственного интеллекта, такие как машинное обучение, обработка естественного языка и робототехника, преобразуют эти отрасли. В исследовании также рассматриваются проблемы и этические соображения, связанные с внедрением искусственного интеллекта.

Ключевые слова: Искусственный интеллект (ИИ), машинное обучение, прогнозная аналитика, автоматизация, приложения ИИ в промышленности

Kirish

Sun'iy intellekt (AI) 21-asrning eng o'zgaruvchan texnologiyalaridan biri sifatida paydo bo'ldi, u turli sohalarda rivojlandi va bizning yashash, ishlash va dunyo bilan o'zaro munosabatimizni o'zgartirdi. Tibbiy tashxislar aniqligini oshirishdan tortib ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va ta'lim tajribasini shaxsiylashtirishgacha bo'lgan AI texnologiyalari – mashina o'rganish, tabiiy tillarni qayta ishlash va robototexnika – misli ko'rilmagan samaradorlik, aniqlik va innovatsiyalar darajasini oshirmoqda. Hisoblash quvvatini oshirish, ma'lumotlarning keng mavjudligi va murakkab algoritmlar hisobiga sun'iy intellekt imkoniyatlarining jadal rivojlanishi uning ko'plab sohalarda qo'llanilishini kengaytirib, uni murakkab muammolarni hal qilish va yangi imkoniyatlarni ochish uchun muhim vositaga aylantirdi. AIning keng tarqalgan ishtiyogi va qabul qilinishiga qaramay, uni turli sohalarda qo'llash qiyinchiliklardan holi emas. Ma'lumotlarning maxfiyligi, algoritmik tarfakashlik, axloqiy mulohazalar va AIning mavjud tizimlarga integratsiyalashuvi kabi muammolar uning to'liq salohiyatiga jiddiy to'siqlar qo'yadi. Bundan tashqari, turli sohalarda sun'iy intellektdan qanday foydalanilayotgani, uning qanday ta'sir ko'rsatishi va kelajakdagi tendentsiyalar qanday bo'lishi mumkinligini muntazam ravishda tushunish kerak.

Adabiyotlar tahlili

Sun'iy intellekt (AI) tushunchasi aql bilan ta'minlangan sun'iy mavjudotlar haqidagi qadimiy afsonalar va falsafiy taxminlarga borib taqaladi. Biroq, AIning soha sifatida rasmiy rivojlanishi 20-asr o'rtalarida boshlangan. "Sun'iy intellekt" atamasi 1956 yilda AIning ilmiy fan sifatida tug'ilgan joyi deb hisoblangan Dartmut konferentsiyasida Jon Makkarti tomonidan kiritilgan. AI bo'yicha dastlabki tadqiqotlar ramziy yondashuvlar va qoidalarga asoslangan tizimlarga qaratilgan bo'lib, 1955 yilda Allen Nyuell va Gerbert A. Simon tomonidan matematik teoremlarni isbotlashi mumkin bo'lgan birinchi AI dasturi - Mantiq nazariyotchisi ishlab chiqilishi kabi muhim yutuqlarga erishildi[2].

1960 va 1970 yillar davomida AI tadqiqotlari inson mutaxassislarining qaror qabul qilish qobiliyatiga taqlid qilish uchun mo'ljallangan ekspert tizimlarini yaratishda sezilarli yutuqlarga erishdi. E'tiborli misollar orasida kimyoviy tahlil uchun ishlatiladigan DENDRAL va tibbiy diagnostika uchun ishlab chiqilgan MYCIN kiradi.

1980 va 1990-yillarda sun'iy intellektning qayta tiklanishiga mashinalarni o'rganish, neyron tarmoqlar va hisoblash quvvatidagi yutuqlar sabab bo'ldi. Orqaga tarqalish algoritmlarini ishlab chiqish neyron tarmoq tadqiqotlarini jonlantirdi, bu tizimlarga faqat oldindan belgilangan qoidalarga tayanmasdan, ma'lumotlardan o'rganish imkonini berdi[10].

Sun'iy intellektidagi so'nggi yutuqlar mashinani o'rganish usullarining, xususan, chuqur o'rganish va mustahkamlashni o'rganishning keng tarqalishi bilan tavsiflanadi, ular kompyuterni ko'rish, tabiiy tilni qayta ishlash va robototexnika kabi sohalarda eng so'nggi natijalarga erishdi[6]. Taniqli tendentsiyalardan biri Generativ raqib tarmoqlari (GANs) va transformatorlar, jumladan, OpenAI'ning GPT seriyalari va Google'ning BERT kabi generativ AI modellarining ko'tarilishi bo'lib, ular tasvir sintezi, matn yaratish va til tarjimasini kabi vazifalarni inqilob qildi[5].

Metodologiya

Ushbu tezis turli sohalarda sun'iy intellekt (AI) qo'llanilishini har tomonlama tahlil qilish uchun sifat va miqdoriy yondashuvlarni birlashtirgan aralash usullar tadqiqot dizaynidan foydalanadi. Ushbu yondashuvlar tanlangan sohalarda AIning turli ilovalarini o'rganish va tushunishga qaratilgan. U sun'iy intellekt texnologiyalarining real hayotga tatbiq etilishi, qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish uchun amaliy tadqiqotlar va ekspert suhbatlari orqali chuqur tekshiruvni o'z ichiga oladi. AI ilovalarining ta'siri va samaradorligini baholash uchun ushbu tezis turli sohalarda - sog'liqni saqlash, moliya, ta'lim, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligining qiyosiy tahlillarini o'z ichiga oladi. Ushbu sohalarda bo'yicha sun'iy intellektni qo'llashni taqqoslash orqali tadqiqot umumiy tendentsiyalarni, sohaga xos muammolarni va noyob imtiyozlarni aniqlashga qaratilgan.


Ushbu tadqiqot uchun ma'lumotlar har tomonlama istiqbolni ta'minlash uchun turli manbalardan to'planadi. Nufuzli akademik jurnallardan ko'rib chiqilgan maqolalar va ilmiy maqolalar AI ilovalari bilan bog'liq joriy

bilimlar, nazariyalar va empirik topilmalar to'plash uchun ko'rib chiqiladi. Tegishli adabiyotlarga kirish uchun IEEE Xplore, Google Scholar va PubMed kabi asosiy ma'lumotlar bazalaridan foydalaniladi.


AIning asosiy sohalarda qo'llanilishi

Sun'iy intellekt (AI) turli sohalarda sezilarli yutuqlarga erishmoqda, an'anaviy amaliyotlarni o'zgartirmoqda va innovatsion yechimlarni joriy qilmoqda. Ushbu bo'lim beshta asosiy sohada sun'iy intellektning qo'llanilishini o'rganadi: sog'liqni saqlash, moliya, ta'lim, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi. Har bir kichik bo'limda AI texnologiyalaridan qanday foydalanish, ularning ta'siri va ularni qo'llash bilan bog'liq imtiyozlar va qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi[7].

AI diagnostika aniqligini oshirish, davolanishni shaxsiylashtirish va ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish orqali sog'liqni saqlash sohasida inqilob qilmoqda. AI algoritmlari, ayniqsa chuqur o'rganishga asoslanganlar, rentgen nurlari, MRT va kompyuter tomografiyasi kabi tibbiy tasvirlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi. Ushbu tizimlar o'smalar yoki yoriqlar kabi anomalialarni yuqori aniqlik bilan aniqlay oladi. Masalan, Google'ning DeepMind kompaniyasi ko'zning to'r pardasini skanerlash orqali ko'z kasalliklarini aniqlashda rentgenologlardan ustun bo'lgan sun'iy intellekt modellarini ishlab chiqdi[6].




1-rasm



2-rasm

Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar rejalashtirish, hisob-kitob qilish va hisobni yuritish kabi ma'muriy vazifalarni avtomatlashtiradi, sog'liqni saqlash mutaxassislari uchun ma'muriy yukni kamaytiradi va operatsion samaradorlikni oshiradi (1-rasm).

Moliyaviy sektorda AI ilovalari qaror qabul qilishni yaxshilaydi, xavflarni boshqaradi va mijozlar tajribasini yaxshilaydi. AI algoritmlari savdogarlar o'tkazib yuborishi mumkin bo'lgan naqsh va tendentsiyalardan foydalangan holda savdolarni maqbul vaqtda amalga oshirish uchun bozor ma'lumotlarini tahlil qiladi. Yuqori chastotali savdo maydonchalari axborotni qayta ishlash va mikrosekundlarda qaror qabul qilish orqali raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun AI dan foydalanadi. AI tizimlari tranzaksiya shakllarini tahlil qilish va anomalialarni aniqlash orqali firibgarlik faoliyatini aniqlaydi.



3-rasm

AI algoritmlari savdogarlar o'tkazib yuborishi mumkin bo'lgan naqsh va tendentsiyalardan foydalangan holda savdolarni maqbul vaqtda amalga oshirish uchun bozor ma'lumotlarini tahlil qiladi. Yuqori chastotali savdo maydonchalari axborotni qayta ishlash va mikrosekundlarda qaror qabul qilish orqali raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun AI dan foydalanadi. AI tizimlari tranzaksiya shakllarini tahlil qilish va anomalialarni aniqlash orqali firibgarlik faoliyatini aniqlaydi.

Sun'iy intellekt o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish, ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirish va talabalar faoliyati haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etish orqali ta'limni o'zgartiradi. AI tomonidan boshqariladigan platformalar ta'lim mazmunini individual ta'lim uslublari va ehtiyojlariga moslashtiradi, shaxsiylashtirilgan o'rganish yo'llari va resurslarini taklif qiladi. DreamBox va Knewton kabi tizimlar talabalarning real vaqtda ishlash ma'lumotlari asosida darslarning qiyinligi va tezligini moslashtiradi.

Sun'iy intellekt avtomatlashtirishni yaxshilash, sifat nazoratini yaxshilash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali ishlab chiqarishdagi yutuqlarni boshqaradi. AI modellari uskunaning qachon ishlamay qolishini bashorat qilish uchun mashinadan olingan sensor ma'lumotlarini tahlil qiladi, bu esa oldindan texnik xizmat ko'rsatish va ish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Bashoratli texnik xizmat ko'rsatish tizimlari xarajatlarni tejash va operatsion samaradorlikni oshirishi mumkin[11].

Qishloq xo'jaligida AI texnologiyalari samaradorlik, mahsuldorlik va barqarorlikni oshirish orqali fermerlik amaliyotini inqilob qilmoqda. AI ekish, sug'orish va o'g'itlashni optimallashtirish uchun sensorlar, dronlar va sun'iy yo'ldosh tasvirlari ma'lumotlarini tahlil qiladi. Aniq dehqonchilik texnikasi hosildorlikni oshiradi va resurslardan foydalanishni kamaytiradi. Sun'iy intellektga asoslangan dronlar va tasvirlash tizimlari ekinlarning sog'lig'ini kuzatib boradi, zararkunandalar va kasalliklarni aniqlaydi va tuproq sharoitlarini baholaydi. Muammolarni erta aniqlash o'z vaqtida choralar ko'rish va maqsadli davolanish imkonini beradi[9].

Xulosa

Turli sohalarda - sog'liqni saqlash, moliya, ta'lim, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt (AI) ilovalarini o'rganish sanoat amaliyoti, samaradorligi va natijalariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tezis AI texnologiyalari ushbu sektorlarni qanday o'zgartirayotganini ko'rib chiqdi, ularning imkoniyatlari va muammolari haqida qimmatli tushunchalar beradi.

AI sezilarli darajada ilg'or diagnostika aniqligi va bashoratli tahlillarga ega bo'lib, tibbiy tasvirni, moslashtirilgan davolashni va dori-darmonlarni topishni yaxshilaydigan vositalarni taklif etadi. AIning ma'muriy vazifalarga integratsiyalashuvi ham operatsion samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq, ma'lumotlar maxfiyligi va yuqori sifatli o'quv ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyoj kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

AIga asoslangan yechimlar savdo strategiyalarini optimallashtirish, firibgarlikni aniqlash, xatarlarni boshqarish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash orqali moliya sektorida inqilob qilmoqda. Algoritmik savdo va firibgarlikni aniqlash tizimlari samaradorlik va samaradorlikning sezilarli yaxshilanishini namoyish etadi. Asosiy tashvishlar algoritmik noto'g'ri potentsial va mustahkam tartibga soluvchi bazalarga bo'lgan ehtiyojni o'z ichiga oladi.

AIning qishloq xo'jaligidagi o'rni aniq dehqonchilik, ekin monitoringi, hosilni bashorat qilish va avtomatlashtirilgan hosilni o'z ichiga oladi. Ushbu ilovalar samaradorlik va barqarorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq, qishloq xo'jaligida sun'iy intellektni qo'llash texnologik kirish va har tomonlama o'qitish zarurati kabi to'siqlarga duch keladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt turli sohalarda o'zgaruvchan kuch bo'lib, katta foyda va imkoniyatlar taqdim etadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishda davom etar ekan, ularning ilovalari kengayib, sanoatni yanada qayta shakllantiradi va innovatsiyalarni rivojlantiradi. AI bilan bog'liq muammolarni tushunish va hal qilish orqali manfaatdor tomonlar ushbu texnologiyalarning ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirishi va ulardan mas'uliyatli va adolatli foydalanishni ta'minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "A Paradigm Shift in Research: Exploring the Intersection of Artificial Intelligence and Research Methodology | Semantic Scholar." Accessed: Jul. 30, 2024. [Online]. Available: <https://www.semanticscholar.org/paper/A-Paradigm-Shift-in-Research%3A-Exploring-the-of-and-Pal/9331ef4ce9837c1cc93996ade4f83516d18b6f8b>
2. "From Black Box to Glass Box: Advancing Transparency in Artificial Intelligence Systems for Ethical and Trustworthy AI | Semantic Scholar." Accessed: Jul. 30, 2024. [Online]. Available: <https://www.semanticscholar.org/paper/From-Black-Box-to-Glass-Box%3A-Advancing-Transparency-Franzoni/f4ee5e04140441b3df74810e94b30844cef959e3>
3. "Navigating and reviewing ethical dilemmas in AI development: Strategies for transparency, fairness, and accountability | Semantic Scholar." Accessed: Jul. 30, 2024. [Online]. Available: <https://www.semanticscholar.org/paper/Navigating-and-reviewing-ethical-dilemmas-in-AI-for-Akinrinola-Okoye/6a1f8f8247574b831f3f2ea97f8ca146415ed255>
4. "Predictive analysis using machine learning: Review of trends and methods | Semantic Scholar." Accessed: Jul. 30, 2024. [Online]. Available: <https://www.semanticscholar.org/paper/Predictive-analysis-using-machine-learning%3A-Review-Bokonda-Ouazzani-Touhami/c92f7fd30e2eef39be911b4ba45c33a1bf11c692>
5. "Unlocking the Black Box: Explainable Artificial Intelligence (XAI) for Trust and Transparency in AI Systems | Semantic Scholar." Accessed: Jul. 30, 2024. [Online]. Available: <https://www.semanticscholar.org/paper/Unlocking-the-Black-Box%3A-Explainable-Artificial-for-Thalpage/5891d5c392935d44b5362489b88aae5a087665e5>
6. D. I. Ajiga, N. L. Ndubuisi, O. F. Asuzu, O. R. Owolabi, T. S. Tubokirifuruar, and R. A. Adeleye, "AI-Driven Predictive Analytics In Retail: A Review Of Emerging Trends And Customer Engagement Strategies," *International Journal of Management & Entrepreneurship Research*, vol. 6, no. 2, Art. no. 2, Feb. 2024, doi: 10.51594/ijmer.v6i2.772.
7. David Olanrewaju Olutimehin, Onyeka Chrisantus Ofodile, Irunna Ejibe, Olusegun Gbenga Odunaiya, and Oluwatobi Timothy Soyombo, "Implementing Ai In Business Models: Strategies For Efficiency And Innovation," *Int. j. manag. entrep. res.*, vol. 6, no. 3, pp. 863–877, Mar. 2024, doi: 10.51594/ijmer.v6i3.940.
8. E. O. Eboigbe, O. A. Farayola, F. O. Olatoye, O. C. Nnabugwu, and C. Daraojimba, "Business Intelligence Transformation Through Ai And Data Analytics," *Engineering Science & Technology Journal*, vol. 4, no. 5, Art. no. 5, Nov. 2023, doi: 10.51594/estj.v4i5.616.
9. F. G. Olaniyi, O. O. Olaniyi, C. S. Adigwe, A. I. Abalaka, and N. H. Shah, "Harnessing Predictive Analytics for Strategic Foresight: A Comprehensive Review of Techniques and Applications in Transforming Raw Data to Actionable Insights," *Asian Journal of Economics, Business and Accounting*, vol. 23, no. 22, pp. 441–459, Nov. 2023, doi: 10.9734/ajeba/2023/v23i221164.
10. J. G. Carrasco Ramirez, "AI in Healthcare: Revolutionizing Patient Care with Predictive Analytics and Decision Support Systems," *JAIGS*, vol. 1, no. 1, pp. 31–37, Feb. 2024, doi: 10.60087/jaigs.v1i1.p37.
11. S. Sasmal, "Predictive Analytics in Data Engineering: An AI Approach," *IRJEAS*, vol. 12, no. 1, pp. 13–18, 2024, doi: 10.55083/irjeas.2024.v12i01003.
12. S. Srivastava and K. Sinha, "From Bias to Fairness: A Review of Ethical Considerations and Mitigation Strategies in Artificial Intelligence," *IJRASET*, vol. 11, no. 3, pp. 2247–2251, Mar. 2023, doi: 10.22214/ijraset.2023.49990.

13. T. Pandya, "Literature Review as Research Methodology: Aid of Ai (Artificial Intelligence)," Vidhyayana, vol. 9, no. si1, pp. 123–133, Dec. 2023, doi: 10.58213/vidhyayana.v9isi1.1589.
14. V. Burri and L. Mukku, "Predictive Analytics In Healthcare: Harnessing Ai For Early Disease Detection," Global Journal For Research Analysis, pp. 34–36, Apr. 2024, doi: 10.36106/gjra/5803759.



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI

Xursandov Hamidillo Fayzillo o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, +998910333555,

hamidilloxursandov@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda axborot texnologiyalari (AT) sohasida sun'iy intellekt ulkan inqilob yaratmoqda. Sun'iy intellekt axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishdagi asosiy jarayonlarni soddalashtirish, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularga individual yondashuvni taklif qilish kabi ko'plab afzalliklarga ega. Ushbu maqolada sun'iy intellektning AT fanlarini o'qitishdagi asosiy funksiyalari, afzalliklari va kamchiliklari o'rganiladi.

Аннотация

В настоящее время искусственный интеллект творит огромную революцию в сфере информационных технологий (ИТ). Искусственный интеллект имеет множество преимуществ, таких как упрощение основных процессов преподавания информатики, развитие способностей студентов и предложение к ним индивидуального подхода. В данной статье рассматриваются основные функции, преимущества и недостатки искусственного интеллекта в обучении информационным технологиям.

Abstract

Currently, artificial intelligence is creating a huge revolution in the field of information technology (IT). Artificial intelligence has many advantages, such as simplifying the main processes in teaching information technology sciences, developing students' abilities and offering them an individual approach. This article explores the main functions, advantages and disadvantages of artificial intelligence in teaching IT.

Kalit so'zlar: individuallashtirilgan ta'lim, interaktiv o'quv platformalari, avtomatlashtirilgan tahlil, GitHub Copilot, moliyaviy va texnik cheklov.

Ключевые слова: индивидуализированное обучение, платформы интерактивного обучения, автоматизированный анализ, GitHub Copilot, финансовые и технические ограничения.

Keywords: individualized education, interactive learning platforms, automated analysis, GitHub Copilot, financial and technical limitation.

Ushbu maqolada ilmiy manbalar va nashrlar tahlili orqali sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi o'rganildi. Asosiy e'tibor dasturlash va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishdagi sun'iy intellektning samaradorligiga qaratildi. Ma'lumotlar Carnegie Mellon Universiteti, UNESCO, va GitHub kabi tashkilotlarning ilmiy hisobotlari va tajribalari asosida yig'ildi. O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamda SI asosida yaratilgan interaktiv o'quv platformalarining natijalari tahlil qilindi.

Ta'lim texnologiyasi – bu tegishli texnologik jarayonlar va resurslarni yaratish, ulardan foydalanish va boshqarish orqali o'rganishni osonlashtirish va yutuqlarni oshirishni o'rganish va axloqiy amaliyotdir. Bu eng sodda va qoniqarli tarzda o'quvchiga yo'naltirilgan ta'limda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan vositalar to'plami sifatida tavsiflanadi. U o'qituvchining "sahnadagi donishmand" emas, "yo'lboshlovchi" bo'lishini targ'ib qiladi. Ta'lim texnologiyasi "o'quv texnologiyasi" deb ham ataladi, asosan o'qitish va o'qitish jarayonida texnologiyadan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu yerda fan texnologiyasi nafaqat noutbuklar, interfaol doskalar, smartfonlar, Internet, Wi-Fi, YouTube va boshqalar kabi eng yangi vositalar va texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olmaydi, garchi ular o'z bilim salohiyati tufayli bugungi kun talabalari tomonidan ommaviy ravishda afzal ko'rilmogda [1].

Individuallashtirilgan o'qitish jarayoni. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning individual qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ta'lim jarayonini yaratish imkoniyati mavjud. SI tizimlari o'quvchilarning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganligini aniqlash va ularning ehtiyojlariga mos materiallarni tavsiya qilish orqali individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkonini beradi. Bu yondashuv, o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish va bilimlarni samarali mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Interaktiv ta'lim va avtomatlashtirilgan tahlil. SI asosida ishlovchi interaktiv platformalar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari dasturlash fanlarini o'rgatishda samaradorlikni oshiradi. Misol uchun, GitHub Copilot kabi sun'iy intellekt tizimlari dastur kodlarini yozish va tekshirishda yordam beradi, natijada o'quvchilar xatolarini tezkorlik bilan to'g'rilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, ayniqsa, dasturlashni o'rganayotgan talabalarning bilimlarini mustahkamlashda samaradorlikni oshiradi.

O'quvchilar qobiliyatini tahlil qilish va rivojlantirish. Sun'iy intellekt tizimlari o'quvchilarning qobiliyatlarini tahlil qilib, ularning qaysi fan yoki mavzuda qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlay oladi. Buning natijasida o'qituvchi va talaba o'z bilimlarini mustahkamlash uchun qaysi sohalarga e'tibor qaratish

kerakligini aniq biladi. UNESCO tadqiqotlari ko'rsatganidek, SI texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshmoqda .

Ma'lumki, suv omborlarining sathi inson tomonidan ma'lum maqsadlarni ko'zlagan holda boshqarib turiladi va uning vaqt bo'yicha o'zgarishi (tebranishi) quyidagi omillarga bog'liq: suv ombori kosasining o'lchamlari va shakliga; daryo oqimini tartibga solishi bo'yicha suv omborining qaysi turga mansubligiga; suv omborining suvga to'lish va suvdan bo'shsh tezligiga; sug'orishga va boshqa maqsadlar uchun olinadigan suv miqdoriga; gidroelektr stansiyalarining ishlash rejimiga va boshqalarni o'z ichiga oladi. Yuqorida sanab o'tilgan omillarga bog'liq holda biz o'rganayotgan suv omborida suv sathining davriy o'zgarishi turlichadir. Bunga sabab, Zarafshondan olinadigan suv miqdorining kattaligidir. Tanlangan harakterli yillar (1998 – ko'p suvli), (2001– kam suvli), (1990 – o'rtacha suvli) uchun kundalik suv sathi jadval ma'lumotlari alohida o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida suv sathining yil davomida (1986-2008 yillar) uchun o'zgarish grafigi chizildi (2 rasm)




2-rasm Kattaqo'rg'on suv ombori kam suvli, ko'p suvli, o'rtacha suvli yillari uchun suv sathlari grafigi

Grafikdan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2001 yil kam suvli yil bo'lib, natijada Kattaqo'rg'on suv omborining o'rtacha ko'p yillik suv sathining tebranish grafigidagi o'zgarishlarni inobatga olib, suv omborini harakterli yillar uchun suv sathi rejimini o'rganishga harakat qildik, suv sathining maksimal qiymati, ya'ni ko'p suvli 1998 yil, kam suvli 2001 yil va o'rtacha suvli 1990 yillarga to'g'ri keladi.

Oqdaryo suv ombori Oqdaryo daryosining o'zanida joylashgan 1989 yilda foydalanishga topshirilgan. Oqdaryo suv ombori Samarqand viloyatining shimoli-g'arbida joylashgan bo'lib, ma'muriy jihatdan viloyatning Ishtixon va qisman Kattaqo'rg'on tuman hududini o'z ichiga oladi. Hozirda suv ombori suvidan Navoiy GRESi va Kattaqo'rg'on tumanining 350 ga yeriga, Navoiy viloyati Xatirchi tumanining 1200ga qishloq xo'jalik ekin maydonlarini sug'orishga sarflanmoqda. Suv ombori barpo etilgach havoda va tuproqda namlanish koeffitsiyenti

o'shgan. Jumladan atrofda 60-70ga yerning sizot suvlari ko'tarilib, tuproq holati yomonlashgan. Suv omborining 50-100 m atrofda qirg'oqbo'yi pelosasida yer osti suvlarining sathi ko'tarilib ketgan. Bu holat qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish imkonini kamaytiradi, yerlarning meliorativ holatini yomonlashtiradi. Suv omborining quyi qismida namlanish darajasi yuqori, hatto aholi turar joylarida namlik yuqori ekanligi kuzatiladi.


Oqdaryo suv ombori bo'yicha 2004-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davr mobaynida tahlillar olib borilganda yillar kesimida suv kirimi kamayib ketayotganli ya'ni eng kam suv kirimi bo'lgan yillar 2008-yil 13,6 m³/s, 2014-yil 12,3 m³/s, 2018-yilda 9,6 m³/s, 2021-yilda 9,3 m³/s, 2003-yilda 2,3 m³/s bo'lganligi, bundan



3-rasm. Oqdaryo suv omboriga 2004-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davr mobaynida suvning kirim-chiqimi yillar kesimida (1-rasm)

tashqari eng kam suv chiqishi kuzatilgan yillarni tahlil qiladigan bo'lsak 2006-yilda 2,8 m³/s, 2021-yilda 8,1 m³/s, 2023-yilda 1,0 m³/s bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. (3-rasm)

Birgina 2020-yilda suv omboriga 89,67 mln.m³ suv mavjud bo'lib shundan 11,50 m³/s suv kirim bo'lgan (grafikda ko'k rangda berilgan) bo'lsa shu yili 30,00 m³/s suv sarf bo'lgan. Iqlim o'zgarishi yilning qurg'oqchil kelishi natijasida 2023-yilda bu ko'rsatkichlar eng achinarli va past raqamlarni qayd etganligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni suv omborida shu yili jami 0,81 mln m³ suv mavjud bo'lib shundan 2,27 m³/s suv kirim bo'lgan bo'lsa 1,00 m³/s suv sarf bo'lgan. Buning asosiy sababi esa shu yil ob-havo judda issiq bo'lganligi va yilning qurg'oqchil kelishi natijasida suv omborida eng kam suv bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari 2004-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrlarda suv omboriga suvning kirimi yoki sarf bo'lishi bo'yicha ilmiy tahlillar olib borilganda o'rtaacha yillik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2004-yilning avgust oyida eng kam 8,98 m³/s suv kirim (grafikda qizil rangda berilgan) bo'lgan bo'lsa 2022-yilda eng ko'p iyul oyida 70,48 m³/s ni tashkil qiladi. (4-rasm)



4-rasm. Oqdaryo suv omboriga 2004-2022 yillarning iyul avgust oylarida suv omboriga suv kirimi bo'yicha tahlil

Oqdaryo suv ombori loyihalananayotganda uning maksimal chuqurligi 23,4 m ni tashkil qilgan, hozirda loyqa oqiziqalar to'planishi natijasida suv omborning chuqurligi 18,1 m ni tashkil qilmoqda.

Hozirgi kunda ushbu salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida suv omborining atrofida kollektor-drenaj tizimi barpo etilgan. Shulardan markaziy kollektor nomi Sariyoz ko'li deb ataladi. Bundan tashqari, suv ombori atrofida qirg'oq mintaqalariga 50 ming tup tol va teraklar ekilgan. Ular suvga talabgor daraxtlar bo'lib, ular tuproqdagi ortiqcha namni o'ziga tortib oladi. 1994 yilgacha asosiy e'tibor faqat suv omboriga suvni to'ldirish va uni qanday sarf etishga qaratilgan bo'lsa, 1994 yildan boshlab qo'shimcha ravishda suv ombori yaqinidagi ekin ekishga yaroqsiz yerda (15-20ga), suv ombori hududidan oqilona foydalanish maqsadida ilonchilik xo'jaligi tashkil qilinib, tibbiyot uchun zarur bo'lgan ilon zahrini olishni amalga oshirishni boshlagan, lekin ayrim sabablarga ko'ra bu faoliyat 1996 yilga kelib tugatilgan. 2009 yilga kelib bu yerda baliqchilik xo'jaliklari tashkil etilib u yerda 10-15 turdagi baliqlar yetishtirib kelinmoqda.

Qoratepa suv ombori Urgut tumanida joylashgan qurilishi xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda tuman iqtisodiyotini mustahkamlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish borasida istiqbolli imkoniyatlarni yaratdi. Dengiz sathidan 926 metr balandlikda joylashgan bo'lib, ushbu suv ombori asosan 4 ta yirik Omonqo'ton, Tersaksoy, Sevarsoy, Qo'zichisoy kabi soylardan tuyenadi. aprel-may oylarida suv oladi. Qoratepa suv omborini qurish ishlariga tayyorgarlik 1970 yillarning boshlarida boshlangan bo'lib, shu yillari sug'orishda, suv tanqisligi kuzatila boshlangan edi. Zarafshon daryosining suvi Zarafshon daryosidan tashqari Qashqadaryoga va Jizzax

viloyatlari yerlarini sug'orishga ishlatiladi. Bundan tashqari o'tgan asrning 60 – yillarida Zarafshon vodiysida tog' oldi hududlarida ham katta-katta yerlar Pastdarg'om, Nurobod tumanlarida, Qo'shrabot tumani va Urgut tumanining sharqiy qismlari o'zlashtirildi. Bu yangi yerlarga ham katta miqdorda suv tashlandi. Shu sababli tog'larda yirik soylarda suv ombori qurib, ularning suvidan foydalanish masalasi qo'yildi va O'rta Zarafshonni o'rab turgan Chaqilkalon, Qoratepa tog'lari, Nurota tog'laridagi soylarda gidrologik kuzatuv va o'lchash ishlari kuchaytirildi, gidrologik postlar Urgutsoyda, Omonqo'tonsoyda, Ohaliksoyda, Sazag'onsoyda Nurota tog'larining janubiy yonbag'ridagi Ko'ksaroyda, Jizmonsoyda, Oqtepasoyda, To'siqsoylarda tashkil qilindi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, viloyatdagi mavjud suv omborlaridan ko'pmaqsadli foydalanish usullarini rivojlantirish va bu sohani takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Suv omborlarining qurilishida ularni texnik jihatdan mukammal holatda barpo etish, daryolar suv rejimini tartibga solish, gidroenergetika, baliqchilik va rekreatsiya maqsadlarida samarali foydalanishni tashkil qilish bilan birga xalq xo'jaligining ehtiyojlarida suv resurslaridan unumli va tejab-tergab, oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аббасов С.Б., Бозорова О.Х. Оқдарё сув омбори ва унинг халқ хўжалигидаги ахамияти. //Табиатдан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг географик асослари. - Наманган, 2014. –Б. 262-263.
2. Ҳикматов Ф.Х., Айтбаев Д.П., Юнусов Г.Х. Проблемы изменения климата и прогноз интенсивности водно – эрозионных процессов в горных бассейнах Средней Азии //Известия ГО Узбекистана. – Том 24. – 2004. – С. 33-38
3. Gapparov.F.A, Nazaraliev.D.V, Mansurov.S.R. Suv omborlaridan foydalanish. Toshkent-2019, 13-25 B
4. Ҳикматов Ф.Х., Ҳайдаров С.А., Ярашев Қ.С., Ширинбоев Д.Н., Зияев Р.Р., Эрлапасов Н.Б., Ғаниев Ш.Р. Зарафшон дарёси хавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. -Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. -276 б
5. Muhammadiyev S. A. va boshqalar. Omonqo'ton ona tabiat mo'jizasi. Samarqand,2007.
6. Гаппаров Ф.А, Назаралиев Д.В, Мансуров С.Р. Сув омборларидан фойдаланиш –Тошкент 2019 16-20 б
7. Ikramova.M.R. Suv omborlari gidrologiyasi –Тошкент 2019 50-54 б



OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA GEOGRAFIYA FANINI O'QITISH ORQALI TALABALARDA GEOEKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Alimkulov N.R., Madjidova J.A.

Nizomiy nomidagi TDPU. Tel: (90)9383608., (90)1095490. e-mail: n-alimkulov-75@mail.ru, madjitovajadra@mail.com

Annotatsiya. Maqolada talabalarning geografik, ekologik va geoeologik madaniyatini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan fikrlar, ilmiy muammo doirasida ularning umumiylik, uzviylik jihatlarini yoritilgan. Geoeologik madaniyatni shakllantirish zamirida pedagogik omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ta'lim-tarbiya, ong, dunyoqarash masalalari e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: geoeologik madaniyat, geografik va ekologik madaniyat, geografik va ekologik ta'lim, geoeologik dunyoqarash, geoeologik ta'lim.

Аннотация. В статье освещены мысли по вопросам формирования географической, экологической и геоэкологической культуры студентов, их общности и связности в рамках научной проблемы. В основе формирования геоэкологической культуры учитываются вопросы воспитания, сознания, мировоззрения, которые тесно связаны с педагогическими факторами.

Ключевые слова: геоэкологическая культура, географическая и экологическая культура, географическое и экологическое образование, геоэкологическое мировоззрение, геоэкологическое образование.

Abstract. The article highlights thoughts on the formation of geographical, ecological and geoeological culture of students, their community and coherence within the framework of a scientific problem. The formation of geoeological culture takes into account issues of education, consciousness, worldview, which are closely related to pedagogical factors.

Key words: geoeological culture, geographic and environmental culture, geographic and environmental education, geoeological worldview, geoeological education.

Hozirga kelib geografiya fani sayyoramiz tabiatidan foydalanish va tabiiy resurslarni o'zlashtirishni optimallashtirishda sodir bo'layotgan murakkab tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini teran anglab yetishdagi ilmiy va amaliy ahamiyati tufayli o'zining rivojlanishida sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarildi. Ayniqsa, Yer sharining barcha mintaqalarida turli miqyoslardagi geoeologik muammolarning sodir bo'lishi, ularni o'rganish va bartaraf qilishda geografik – ekologik yondashuvning ahamiyatining yanada oshirishga sabab bo'ldi. Geoeologik vaziyatlar tahlilali bo'lib borayotgan bir sharoitda atrof muhitni o'rganish, ekologik ahvolni ilmiy tarzda baholash, tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish zamon talabiga aylangan.

O'zbekistonda ekologik ta'lim berish amalda faqatgina oliy o'quv yurtlaridagina joriy qilingan. Biroq, unga ajratilgan kamgina sotlar mobaynida talabalarda geoeologik dunyoqarashni shakllantirish va kerakli ko'nikmalarni singdirish ilojisiz. U ham ko'p hollarda boshqa fanlar tarkibiga tirkalgan bo'lib, u aksariyat hollarda tayanch mutaxassislikka ega bo'lmagan o'qituvchilarga yuklatilgan. Agar bugungi talablar ertaga iqtisodiyot, boshqaruv tashkilotlarida faoliyat olib borishlari va tegishli qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi rol o'ynashlari nazarda tutilsa, uning samarasi ham oydek ravshan [4].

Insonlarning ekologik va geografik madaniyat tushunchalari bizning ongimizda mavjud tushunchalar zaminida shakllangan. Binobarin, geoeologik madaniyat doirasida geografik va ekologik madaniyat tushunchalarining integrativ mazmundagi yaqinlik mohiyatini namoyon qiladi va o'zining hayotiy ahamiyatini mustahkamlab boradi. Ta'limda geoeologik tadqiqotlar doirasida geografik, ekologik va geoeologik madaniyatni shakllantirish masalalari, dastavval, yashash sharoitlari ta'sirida paydo bo'ladigan muammolar bilan bog'liq holda belgilanadi [1].

Bugungi kunda insoniyatning tabiat oldidagi vazifasi – atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishdan iborat. Bu vazifani bajarishda jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning tarbiyasida geoeologik g'oyalar singdirilgan insonning tabiatga o'zaro munosabatining barqarorlashuviga xizmat qiluvchi milliy qadriyatlarimizning ahamiyati katta. Chunki, “O'zbek xalq ekologik madaniyatini tiklash, uning rivojlanish qonunlarini o'rganish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy darajasi bilan bog'liq bo'lib, jahon miqyosida tobora ifloslanib borayotgan tabiiy muhitni asrash, biosferaning ekologik muvozanatiga ta'sir qiluvchi antropogen omillar rolini ko'rsatish, bu jarayonda nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki, siyosiy vaziyatning ham determinantlashish holatini aniqlash va amaliy yechimlarini topish, o'z tarixiy shakllariga hamda bosqichlariga ega” [3].

Mamlakatimizda ekologiya masalalariga bag'ishlangan, O'zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida” (1992-yil 9-dekabr), “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida” (1993-yil 6-may), “Yer osti boyliklari to'g'risida” (1994-yil 23-sentyabr; 2002-yil 12-dekabrda yangi tahriri), “Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida” (1996-yil 27-dekabr), “O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida” (1997-yil 26-dekabr; 2016-yil 21-sentabr yangi tahriri), “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida” (1997-yil 26-dekabr; 2016-yil 19-sentyabrda yangi tahriri), “O'rmon to'g'risida” (1999-yil 15-aprel; 2018-yil 16-aprelda yangi tahriri), “Chiqindilar to'g'risida” (2000-yil 5-aprel), “Davlat kadastr to'g'risida” (2000-yil 15-dekabr) dagi qonunlari va qonunosti hujjatlari Vatanimiz tabiatini betakror musaffoligini saqlash va uni asrash, geoeologik muhitni yanada yaxshilash masalalariga qaratilgan. Yuqoridagi normativ-huquqiy asoslarning har birida tegishli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, jamiyat a'zolari uchun umummajburiy burch va vazifalar ham o'z ifodasini topgan bo'lib, mamlakat aholisining umumiy geoeologik madaniyatini shakllantirish uchun muhim ta'limiy va tarbiyaviy zamin yaratadi.

Geografiya fani o'qituvchilari jahonda, xususan O'zbekistondagi ekologik vaziyatlarni barqarorlashtirish borasidagi ishlar bilan tanishtirish imkoniyatiga egadirlar. Ular talabalarga O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarining qashshoqlanishi, tabiiy sharoitining ifloslanish sabablarini, uning salbiy oqibatlarini hisoblab, ekologik vaziyatlarni optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va sohaga oid hukumat tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlarning ahamiyati hamda me'yoriy hujjatlar mohiyatini tushuntirib beradilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida nomlari qayd etilgan predmetlarni geograf-o'qituvchilar o'qitgani maqsadga muvofiqdir. Chunki, hududdagi geoeologik vaziyatlarning yomonlashuv asosi o'sha joylardagi tabiiy geografik qonuniyatlarning buzilishi negizida ro'y beradi [10].

OTM nalabalarining ongi va hissiyotlariga mohirona ta'sir o'tkazish, ularni atrof-muhitni o'rganish va muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar doirasida geografik, ekologik va geoeologik madaniyatning o'zaro umumiylik jihatlarni o'rgatish muhim hisoblanadi. Ushbu umumiylik va uzviylikni yoritish maqsadida ularni shakllantirish jarayoniga tegishli tahliliy mulohazalar, ushbu madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali o'zaro bog'liqligining muhim jihatlarni o'rganishni taqazo qiladi.

Geoeologik madaniyat. Geografik va ekologik madaniyatlar mazmuniga mos holda geoeologik madaniyatning ham o'ziga xos o'rni ko'zga tashlanadi, agar unga ilmiy tadqiqot nazari bilan yondashilsa. Geoeologik tadqiqotlar ko'p hollarda geografik bilimlar berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Insonning tabiiy-tarixiy jarayonlarga faol aralashuvi natijasida nafaqat tabiatning o'zida, tabiat hodisalari o'rtasidagi aloqalar sezilarli darajada o'zgarib borayotgan va ularning ba'zilari istalmagan yo'nalishda rivojlanayotgan joyda, masalan, tuproq eroziyasi, sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishi, yerosti suvlari sathining ko'tarilishi va sho'rlanishi, yerusti suvlarining ifloslanish darajalari, hududlardagi nozogeografik vaziyat va boshqalarda o'z aksini topadi.

Geoeologik madaniyat tushunchasini hamda uni shakllantirish jihatlarni tadqiq etish davomida, OTM geografiya fani o'qituvchilarining tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, geografiya darslarida aniq o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega, talabalarining atrof-muhitga ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash uchun geoeologik ta'limning turli shakl va usullaridan foydalanish lozim. Shu sababli, geoeologik madaniyatni shakllantirishda bir necha jihatlarga ega bo'lgan geografik va ekologik madaniyatni rivojlantirish, geografiya fanini o'qitishning hayot bilan bog'liqligidan foydalanish va geoeologik madaniyatni yaxlit tarzda shakllanishiga zamin yaratish maqsadga muvofiq [9].

Jumladan, O'zbekiston tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasini o'rganish jarayonida talabalar atrofida tabiat, tabiiy jarayonlar, tabiiy resurslar va ularning turlaridan foydalanish, yerosti boyliklari va ularning geografik tarqalishining xilma-xilligi to'g'risida aniq fikrlarga ega bo'ladi, bu orqali davlatimiz milliy iqtisodiyotining

muvaffaqiyatli rivojlanishiga hissa qo'shishini ko'rsatadi. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda qo'shimcha ravishda geografik bilimlarni kuchaytirish orqali talabalarda geoeologik madaniyatni shakllantirishni hayotiy zaruratga aylantirish lozim.

Shuningdek, geoeologik madaniyatni shakllantirish ijtimoiy qadriyatlar va iqtisodiy jarayonlar, tabiiy-geografik muhitdan ajralmagan holda oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga rivojlanadigan aniq tarixiy hodisa hisoblanadi. Chunki, globallashuv jarayonlari, transmilliy korporatsiyalarning kuchayishi, iqtisodiy bozorlar raqobati, kapital va inson resurslarining harakatchanligi, geoeologik muammolar keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavflarning kengayishi tabiiy va ijtimoiy muhitning holati muammosini keskin dolzarblashtiradi. Biz yashab turgan asr boshlariga kelib mahalliy geoeologik inqirozlar global geoeologik inqiroz bilan almashtirilmoqda. Uning asosiy xususiyatlari atrof-muhitning haddan tashqari ifloslanishi, qayta tiklanmaydigan resurslarning ko'payishi, sayyora antropogeotsenozining shakllanishi va boshqalardan iborat [7].

Geoeologik madaniyatni shakllashtirish jarayoniga yondashuv masalasi, umummajburiy, normativ-huquqiy asoslarga tayangan holda natijadorlikka erishgan. Ajdodlarimiz ham ekologik madaniyatni shakllantirishda barcha imkoniyat va usullarni qo'llab, turli ta'sir vositalaridan foydalanishni lozim bilganlar [2]. Shu davrlarda ham ekologik madaniyatni shakllantirish ishlari oddiy, atrof-muhitni toza tutish, pokizalik targ'iboti orqali amalga oshirilgan. Mamlakatimizda ham, ayniqsa, mustaqillikka erishgan yillardan boshlab tabiatni va tabiiyresurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Geoeologik ta'lim. Geoeologik ta'lim mazmunida tabiatga "mas'uliyatli munosabat" tushunchasi muhim ahamiyatga ega. OTM talabalarining shaxsiyatini shakllantirish uning o'z mamlakati taqdiri, atrof-dagi madaniy va tabiiy muhit uchun javobgarligini tushuntirish va anglash bilan amalga oshiriladi.

"Tabiatga mas'uliyatli munosabat" tushunchasi - bu "o'quvchining ahloqiy burch talablarini ongli ravishda va shuning uchun maqsadli va ixtiyoriy ravishda bajarish va ahloqiy tanlov vazifalarini hal qilish, ma'lum bir ekologik natijaga erishish qobiliyati va imkoniyatini anglatadi" [8].

Geoeologik ta'limning maqsadi tabiiy muhitga mas'uliyatli munosabatni eng universal tarzda namoyon qilishni tashkil qilishdir. Bu ya'ni, *birinchidan*, ahloqiy va huquqiy me'yorlarga muvofiq atrof-muhitdagi mas'uliyatli hatti-harakatlar va faoliyatga tayyorlikda; *ikkinchidan*, ekologik vakolatli hatti-harakatlar, ijtimoiy faol hayotiy pozitsiyada, atrof-muhitga mas'uliyatsiz munosabatning namoyon bo'lishiga muvofiq ifodasini tarbiyalashda ko'rinadi [5].

Shundan kelib chiqqan holda atrof-muhitga nisbatan geografik va ekologik javobgarlik shaxsiy xususiyat sifatida geoeologik madaniyatni shakllantirishning muhim ko'rsatkichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi va geoeologik ta'limning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Demak, geoeologik ta'limdagi bosh tamoyil geoeologik mas'uliyatni tarbiyalash, bu ya'ni otalabalarda jamiyatdagi ekologik qoidalar va taqiqlarga rioya qilish odatini shakllantirish, ekologik muammolarni hal qilish mas'uliyatini ularning qalbiga singdirishni anglatadi.

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib, aytish mumkinki, jamiyatning ekologik, geografik, geoeologik madaniyatini shakllantirishdagi savodxonligini oshirish muammosini doimiy ravishda ekologik, geografik va geoeologik ta'limni amalga oshirish orqali hal qilish mumkin.

Uzluksiz ta'lim oluvchilarga insoniyat haqidagi to'plangan bilimlarni bosqichma-bosqich va doimiy ravishda o'zlashtirish, ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish, fanlarning, shu jumladan geografik munosabatlarning ekologik savodxonligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Geoeologik ta'limda uzluksizlik tamoyilidan foydalangan holda bilimlarni mohirona birlashtirgan holda, o'qituvchi talabalarining individual psixologik xususiyatlarini va o'quv, kognitiv faoliyatning tuzilishini geoeologik bilimlarni o'rganishga katta e'tibor berishi kerak, chunki ular bevosita o'zaro bog'liq bo'lgan ekologik, geografik, geoeologik ta'lim va tarbiyaning shakllari, usullarini tanlashga imkoniyat yaratadi [6].

Umumiy xulosa sifatida ta'limni insonparvarlashtirish doirasida so'nggi yillarda ta'lim oluvchilarning kasbiy va ekologik bilimi mustahkamlandi, bu ularning geoeologik mas'uliyat hissini shakllantirishga yordam beradi. OTMda o'qitiladigan tabiiy geografiya fanlari darslaridan olingan geoeologik bilim va ko'nikmalar talabalarining keying bosqichlarda va umumta'lim maktablarida beriladigan bilimlari ta'lim tizimida o'zaro qadriyat munosabatlarini rivojlantiradi va amalda geoeologik madaniyatning shakllantirishga yordam beradi. Talabalar tomonidan oliy ta'limda geoeologik bilimlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatiga individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ham erishish mumkin. Fikrimizcha, geoeologik ta'limni amalga oshirishning asosiy usullaridan biri bu ta'lim oluvchilarga ekologik va geografik tarkibdagi o'zgaruvchan vazifalar tizimi orqali mustaqil ishlarni tashkil etishga imkon beradigan tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustafiev S. Ekologik tarbiya – milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning ajralmas qismi. // Fuqarolik jamiyati. T.: - 2018. № 1. 7-bet;
2. Musurmonova, A., K.Riskulova. Trends and prospects of education and upbringing of young generation in uzbekistan during the years of independence. American Journal of Research www.journalofresearch.us 3-4, March-April 2023. 195-204 RR.
3. Yazdonov Z.Sh. O'zbek xalq ekologik madaniyati an'alarini tiklash va rivojlantirish tendensiyalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand – 2019. – B.11.
4. Xodjimatomov A.N., Alimkulov N.R., Xolmurodov Sh.A., Djuraev M. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. T.: Fan va texnologiyalar. 2020.

5. Дерябо С.Д., Ясвин В.А. Экологическая педагогика и психология. – Ростов-на-Дону.: Феникс, 1996. – 480 с.
6. Максаковский В.П. О понятии "Географическая культура" - Советская педагогика. – 1981. – № 1. Б. 15.
7. Марар О.И. Экологическая культура в современном российском обществе: автореферат дис. ... доктора социологических наук. - Москва, 2012. - 41 с.
8. Мухутдинова Т.З. Формирование и развитие региональной системы непрерывного экологического образования специалиста. Монография. – Казань: изд-во Казанского университета, 2003. – 352 с.
9. Рафиков А.А., Ходжиматов А.Н., Алимкулов Н.Р., Холмуродов Ш. Геоэкология асослари. Т.: ТДПУ. 2014.
10. Ходжиматов А.Н., Алимкулов Н.Р., Н.Султонова. География ва экология фанларини ўқитишнинг ҳозирги ҳолати тўғрисида. Ўзбекистон география жамаиати ахбороти. Т.: 2015. № 46-жилд. 68-72 б.



TABIY FANLARNI O'QITISHDA UZLUKSIZ TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA ILM-FAN NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARBLIGI.

Aminov A.A.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti e-mail: aziz.aminov.002@gmail.com

Annatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonning keyingi PISA tadqiqotiga tayyorlanishi uchun qilinishi lozim bo'lgan tayyorgarlik ishlari, tabiiy fanlarni o'qitishning ahamiyati, sohaning yutuq va kamchiliklari ko'rib chiqildi hamda ushbu sohaga oid muammolarning yechimi to'g'risida bahs yuritildi.*

Kalit so'zlar: *Xalqaro tadqiqotlar, PISA tadqiqoti, Steam, Stesting platformasi, darslik, multimedia, tanqidiy fikrlash.*

Abstract: *In this article, preparatory work that should be done in order to prepare Uzbekistan for the next PISA study, the importance of teaching natural sciences, the achievements and shortcomings of the field, and the solution of problems related to this field were discussed.*

Keywords: *International studies, Pisa study, Steam, Testing platform, textbook, multimedia, critical thinking.*

Globallashtirish sharoitida mamlakatimizda barcha sohalar kabi ilm-fan va ta'lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohotlar kundalik hayotimizda o'zining muhim va ustuvor natijalarini bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilgi Oliy Majlisga Murojatnomasida mazkur sohaga alohida e'tibor qaratilib, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, sanoat va ishlab chiqarish sohalarida fanning rolini yanada oshirish, innovatsiyalarni keng joriy etish, jumladan, matematika, kimyo, biologiya va geologiya sohalarini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ayni paytda ushbu fan sohalarining rivojiga qaratilgan bir qator Prezident farmon va qarorlari, shu asosdagi boshqa qonun osti me'yoriy hujjatlari qabul qilindi. Fikrimiz isboti sifatida mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish maqsadida yana bir muhim huquqiy hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4805-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror sohadagi yillar davomida yig'ilib qolgan muammolarni kompleks ravishda yechim topib berdi, fanlarning o'qitilishidan tortib iqtisodiyot tarmoqlarining taraqqiyotidagi o'rnigacha, shuningdek bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning bosqichlari, ko'lami va mexanizmlari aniq ko'rsatib berildi.[1-2-3]

PISA tadqiqotlarining yaxshi natijalar berishi xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalbetadi. Ya'ni investorlar bu mamlakatga investitsiya kiritganda undan unumli foydalana oladigan bilimli, salohiyatli kadrlar borligini tadqiqot orqali bilib oladi. Ushbu investorlarning mamlakatga kiritadigan sarmoyalari davlat kelajagi uchun muhim. Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish inson kapitalining omilidir. Bundan tashqari, mamlakat yoshlari o'z bilimlari hayotda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi ijtimoiy sohalarining rivojlanishiga va aholi yashash sharoiti yaxshilanib daromadlar oshishiga sabab bo'ladi. Mamlakatimizda o'quvchi yoshlarning olgan bilimlarini hayotda qo'llay oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, ma'lumotlarni izlash va ularni tahlil qila olish malakalariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Buning uchun esa harakatlar boshlab yuborildi. [1-2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirish ko'zda tutilgan. PISA mamlakatning o'zining kuchli va zaif tomonlarini xalqaro darajada aniqlashga yordam beradi. Mamlakatning dunyo miqyosidagi nufuzini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda PISA tadqiqotlarida yaxshi natijalarga erishish uchun ta'lim tizimida bir qancha islohotlar qilindi. Avvalo maktab darsliklari o'zgartirildi. Ammo ta'lim tizimidagi o'tkazilgan ba'zi islohotlar ommadanorozilik uyg'otdi. Masalan, tabiiy (science) fanlarni o'qitishda dars soatlari qisqarib ketishi mumkinligi o'qituvchilarni xavotirga soldi. Ammo tabiiy fanlar qaysidir fan o'rnida joriy etilmadi, u geografiya, fizika, biologiya, kimyo kabi fanlarni birlashtirib integratsiyalashgan tarzda o'tiladi. Bu esa o'quvchilarda olam haqida yaxlit tasavvurlar shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Yangi darsliklar darslarning qiyin emas, qiziq bo'lishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-son farmoni bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari sifatida quyidagilar belgilangan: – mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish; – oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash; Ushbu maqsadlar barcha fanlar singari tabiiy fanlar sohasida ham qator masalalarni kun tartibiga qo'yadi.

Yangi O'zbekistonda tabiiy fanlarni rivojlantirish hamda ta'limini yaxshilash borasida qator qarordar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi 484-sonli "2019- 2028-yillar davrida

O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarorlarida ko'rsatilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash va mazkur faoliyatga tegishli boshqa 4 me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini alohida ta'kidlash lozim. Tabiiy fanlar darsliklari STEAM ta'lim tizimi asosida fanlar integratsiyasini ta'minlagan. Ammo bu darsliklar asosida o'qitish avvalida maktab o'qituvchilari uchun qiyin bo'ldi va ko'plab noroziliklarga sabab bo'ldi. Lekin, ta'lim beruvchilar yangilikka ochiq bo'lishi kerak. Agar o'qituvchilarning o'zi yangiliklarni hayotiga kiritishni istamasa qanday qilib yangiliklarni yaratuvchi yoshlarni tarbiyalashi mumkin? Har bir ta'lim beruvchi mutaxassis yangiliklarga kata qiziqish bildirishi, o'z fikrini bayon etishi va ushbu yangiliklarni dars jarayoniga tatbiq etishi darkor. Ma'lumki joriy etilgan yangi darsliklar darsning qiyin emas, qiziq bo'lishini ta'minlaydigan qilib tayyorlangan. Endi darsning qanday bo'lishi o'qituvchiga bog'liq. 2022-yilda O'zbekiston maktablari 15 yoshli o'quvchilar bilimni baholash bo'yicha xalqarodastur– PISA imtihonlarida ilk marta ishtirok etgan edi. Sinov natijalariga ko'ra, o'zbekistonlik bolalar 81 ta mamlakat orasida matematika bo'yicha 72-o'rinni, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi yo'nalishlarida 80-o'rinni egalladi. Bu natijalar qoniqarli emas. Ammo barcha ilk qatnashgan mamlakatlarda shunday holatlar kuzatilgan.

Bizning asosiy vazifamiz esa keyingi tadqiqotlarda yaxshi natijaga erishish. Buning uchun esa barcha imkoniyatlarimizni ishga solishimiz kerak. Endi esa qanday imkoniyatlar yaratilganligi va ulardagi kamchiliklarni, yutuqlarni va kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlarni tahlil qilamiz. Ta'lim berishda eng asosiy qurol bu - darslikdir. Yangi tabiiy (science) fanlar darsliklar o'quvchilar uchun tushunishga oson va qiziqarli qilib yaratilgan. Darslikning matnlar bilan emas, rasmlar orqali mavzularni ko'rsatilishi, mavzularning sodda tilda bayon etilgani, bir mavzuning bir necha soatga mo'ljallanganligi, fanlarning STEAM asosida integratsiya qilinganligi darslikning yutuqi bo'lsa, darslikda 5-6-sinflar uchun mos bo'lgan ma'lumotlarning 2-3-sinflarga kiritilganligi o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishini qiyinlashtirayotganligi, 1-sinf o'quvchilar darsligida mavzular matnlar bilan berilganligi ikamchiliklari deyinimiz mumkin. 1-sinf o'quvchilari 1-2-chorakda yaxshi o'qiy olmagani tufayli tabiiy fanlardan eshitgan ma'lumotlarini takrorlamaganligi tufayli unutib qo'yayotgan o'qituvchilarning norozoligiga sabab bo'lmoqda. 1- sinf darsligida audio va multimedia amahsulotlaridan ko'proq foydalanishni va o'quvchilar uchun tanish bo'lgan ma'lumotlar joylanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xalqaro tadqiqotlarda yaxshi natijalarga erishish uchun o'qituvchilarning o'quvchilar bilan namunaviy testlar ishlab borishi muhim. Mamlakatimizda buning uchun "Stesting" onlayn platformasi yaratilgan va ushbu saytga 1000 dan ortiq testlar joylangan bo'lib, tabiiy (science) fanlar darslarida foydalanish maqsadga muvofiq. Maktabda aynan xalqaro tadqiqotlarga oid testlar bilan shug'ullanish uchun dars soatlari ajratilishi kerak.[1-2]

Tabiiy fanlarning o'rta ta'limda o'qitishning samarali yo'llari.

Tabiiy fanlarni maktabda o'quvchilari uchun o'qitish usullari ishlab chiqishda avvalambor tabiiy va amaliy yo'l bilan yondashish yosh avlodga amalda taqdim etish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonning jahon mamlakatlari orasidagi nufuzini oshirish, rivojlangan mamlakatlar bilan raqobatlasha oladigan, jahon standartlariga mos avlodni tarbiyalashimiz uchun xalqaro tadqiqotlarda faol ishtirok etishimiz, yoshlarni xalqaro tadqiqotlarga puxta tayyorlashimiz, bir so'z bilan aytganda, kelajak yoshlarini tarbiyalashimiz lozim. Zero, hozirgi sa'y-harakatlarimiz - kelajagimiz poydevoridir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimi 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712 son farmoni. Toshkent sh, 2019-yil 29-aprel.
2. Tabiiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro -2023.
3. Tabiiy fan darsliklari 1-2-3-sinf. 2023-yil.
4. PISA xalqaro baholash dasturining amaliy ahamiyati. Latofat Mamadiyeva, Qurbonovna. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar konferensiyasi.
5. Raxmonov R.R. b.f.f.d. (PhD) dots. Sharipov I.H. k.f.n. dots. Komilova B.O. b.f.n. dots. Usmonov A.U. o'qituvchi.
6. Muxtorov Erkin Mustafoyevich Buxoro davlat pedagogika instituti O'quv ishlari bo'yicha prorektori kimyo va tabiiy fanlar haqida berilgan ma'lumotlari.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-sonli Qarori.

SURXONDARYO VILOYATINI REKREATSIYA-TURISTIK RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

¹Badalov O'.B., ²Toshpo'ladova S.O.

¹ SamDU UF, g.f.f.d. (PhD).

² SamDU UF, talaba.

Аннотация. Ushbu maqola Surxondaryo viloyatining rekreatsiya-turistik resurslarini o'rganishga bag'ishlangan. Asosiy e'tibor Surxondaryo viloyatida turizm va rekreatsiya sohasini rivojlantirish, rekreatant va sayyohlik oqimini kengaytirish, tarixiy, madaniy yodgorliklar, dam olish va sog'lomlashtirish maskanlaridan samarali foydalanishga qaratilgan.

Калит so'zlar: rekreatsiya, turistik resurs, sayohat, ekskursiya, rekreatsiya turizmi, mineral suvlar, rekreatsion ob'ekt, ekoturizm, reklama, mehmonxonalar, dam olish uylari va sanatoriyalar.

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению рекреационно-туристическим ресурсам Сурхандарьинской области. Основное внимание уделяется развитию туризма и рекреации в Сурхандарьи, расширению рекреантного и туристического наплыва, результативности использования исторических, культурных памятников, рекреационных и оздоровительных достопримечательностей.

Ключевые слова: рекреация, туристический ресурс, путешествие, экскурсия, рекреационный туризм, минеральные воды, рекреационный объект, экотуризм, реклама, гостиницы, дома отдыха и санатории.

Abstract. This article is devoted to the study of recreational and tourist resources of the Surxandarya region. The main attention is paid to the development of tourism and recreation in Surxandarya, the expansion of the recreational and tourist influx, the effectiveness of the use of historical, cultural monuments, recreational and recreational attractions.

Key words: recreation, touristic resource, travelling, excursion object, recreation tourism, mineral water, recreation object, ecotourism, advertisement, hotels, health resorts and sanatoriums.

Mamlakatimiz aholisining turmush tarzi yaxshilanib borgan sari dam olish, sog'lomlashtirish va turizm sohasiga bo'lgan talabi ortmoqda. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga, dam olishga, sog'liqni tiklashga, dunyo xalqlarining urf-odati va qadriyatlarini bilishga, tabiatning noyob yodgorliklari, turfa o'simlik hamda hayvonot olamini o'rganishga, ko'rishga intiladilar. Bu esa bugungi kunda rekreatsiya-turizm sohalarini yanada rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 dekabrda "Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham Surxondaryo viloyatida turizmni yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etdi [8].

Binobarin, Surxondaryo viloyatini ham rekreatsiya-turizm salohiyatining to'liqligicha o'rganish muhim masalalardan biri sanaladi. Chunki, viloyat hududlarida rekreatsiya-turizm salohiyati juda yuqori sanaladi. Ayni damda ushbu hududlarda dam olish, sog'lomlashtirish, etno turizm, ekoturizm, ziyorat, sport turizmi, tog' turizmi, alpinist turizmi, gastronomik, ta'lim turizmi va juda ko'plab turizm sohalarini rivojlantirish imkoniyatlari yetarli darajada deb, hisoblaymiz. Chunki, Surxondaryo viloyati xorijiy va mahalliy turizmni keng yo'lga qo'yish uchun yirik salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanib, 374 madaniy meros yodgorliklari va tabiiy meros ob'ektlariga ega [7].

Bugungi kunga kelib, viloyatning tog' va tog'oldi hududlarining tabiiy landshaftlaridan foydalanishni ekoturizm sohasida keng qamrovligini ochib berish va rivojlantirish rekreatant-turistlar sonini yanada oshirishda kompleks tadqiqot olib borishni taqozo qiladi [4]. Qolaversa, uni taraqqiy ettirishga yetarli shart-sharoit mavjudligini hisobga olgan holda, rekreatsiya-turistik resurslarning barcha turlarini yo'lga qo'yish orqali aholining jismoniy, ma'naviy sog'lom bo'lishiga, ijtimoiy ahvolni yaxshilashga erishish mumkin. Asosiy maqsad viloyatda dam olish va sog'lomlashtirish hamda rekreatsiya-turistik ob'ektlarini o'rganish, baholash, rekreatsion resurslarni yanada rivojlantirish hamda hududiy tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, sayyohlik-rekreatsion hududlarni kartalashtirish va yangi marshrut yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat [6]. Bu o'z navbatida viloyatdagi tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, diniy qadamjolar, ziyoratgohlar hamda rekreatsiya resurslari, dam olish hududlar, sog'lomlashtirish maskanlar, ekoturistik ob'ektlarni ilmiy jihatdan to'liq tahlil qilishni taqozo etadi.

Hududda ekoturistik mahsulotlarni xorij bozoriga chiqarish, tabiiy va tarixiy-madaniy diqqatga sazovor manzillar bo'yicha yangi sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqish, turistik xizmatlar sifatini oshirish ko'zda tutilmoqda [4]. Chunki, Surxondaryo viloyati ham respublikamizda rekreatsion-turistik resurslarning o'ziga xosligi bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi hamda buni tabiiy rekreatsion-turistik resurslarning xilma-xilligida ko'rishimiz mumkin. Viloyatning Boysun, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo, Uzun tumanlarining tog' va tog' oldi hududlarini manzarasi, qulay iqlimiy sharoiti va hushhavoligi bilan ajralib turadi [3]. Ayniqsa, Surxondaryo

viloyatida Jayronxona, Omonxona, Xo'jaipak, Kakaydi, Zangiota, Obishifo, Moylibuloq kabi oltingugurtli-vodorodli shifobaxsh buloqlari rekreatsiya-turistik resurslarni yanada rivojlantirish imkoniyatini yaratadi [2].

Xalq bunday buloq suvlarini muqaddaslashtirib, uzoq davrlardan buyon o'z dardiga davo topib kelgan. Qayd qilish joizki, Surxondaryo viloyatining ko'p joylarida shifobaxsh buloqlar kamyob tabiat in'omi sifatida tan olinib, davolash markazlariga aylantirilgan. Jayronxonadagi davolash muassasasi, Omonxona dam olish maskani, Uchqizil sanatoriyasi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, tuz konlari va qum uyumlarida ham davolash maqsadida foydalanib kelinadi. Mustaqillik yillarida Xo'jaipak tuzi yonida davolash muassasasi kurildi. Tog' bag'ridagi g'orlar odamlar uchun nafaqat istiqomat qilish uchun boshpana, balki davolash manbai bo'lib ham xizmat qilgan. Amir Temur g'ori, Teshiktosh g'ori, Xo'jaguldir ota g'ori shifobaxsh maskanlardan biri hisoblanadi [1].

Surxondaryoning ajoyib rekreatsiya ob'ektlaridan unumli foydalanish uchun bu hududni yaxshi o'rgangan holda sayyohlik yo'nalishlarini, dam olishga va sog'liqni tiklashga yordam beruvchi marshrutlarni belgilash lozim bo'ladi. O'lka jozibadorligining turli landshaft ko'rinishlari, rang-barang hayvonot olami uning boy tabiatini belgilaydi [3].

Viloyatni tabiiy va iqlimiy sharoiti respublikamizning boshqa viloyatlaridan subtropik iqlim mintaqasida joylashganligi hamda yozning issiqligi va qishining iliqqligi, turli xil relef shakllarining mavjudligiga ko'ra farqlanadi. Iqlimning issiqligi, dehqonchilik va bog'dorchilikka qulayligi tufayli bu yerda qadimdan aholi manzilgohlari vujudga kelgan. Viloyat yer yuzasining o'ziga xos tuzilishi, ya'ni janubi-g'arbdan Ko'hitangtog', Boysuntog', shimoldan Hisor tizmasi, sharqdan Bobotog' bilan o'ralgan, markaziy qismi Surxon-Sherobod vodiysi tekisliklari va ular atrofi qir-adirlardan iboratligi rekreatsiya va ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yetarlidir.

Bugungi kunda, ulardan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarda foydalanishda, ayniqsa tog'li hududlarni bebaho tabiati hamda har xil kasalliklarni davolovchi shifobaxsh mineral rekreatsiya-turistik imkoniyatlarni yaratishda hamda tabiiy sharoiti, ichki suvlari, iqlim va o'simlik dunyosining o'ziga xosligi ko'plab dam olish zonalarini, sog'lomlashtirish oromgohlari qurishga sharoit yaratadi. Qolaversa, uni taraqqiy ettirishga yetarli shart-sharoit mavjudligini hisobga olgan holda, rekreatsiya-turistik resurslarning barcha turlarini yo'lga qo'yish orqali aholining jismoniy, ma'naviy sog'lom bo'lishiga, ijtimoiy ahvolni yaxshilashga erishish mumkin. Jumladan:

➤ Sherobod tumanida "O'rinbuloq" bulog'i esa buyrakdagi toshlarni parchalash hamda "Zarabog'" qishlog'idagi "Qoriz" suvi ham buyrakdagi toshlarni parchalash va ovqat hazm qilish xususiyatlariga ega bo'lib, sog'lomlashtirish va davolash xizmatlarini tashkil etish mumkin;

➤ Sherobod tumanidagi "Konpurtepa" mahallasining "Machildi" qishlog'ida 5 ta xo'jalik mavjud bo'lib. 25 ga yer maydonda bog' va qalin o'rmonlar mavjud bo'lib, ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi;

➤ "Uchqizil" suv ombori ham Termiz shahridan 20 km uzoqlikda, O'zbekistonning eng issiq hududida joylashgan suv omborlardan biri sanaladi. Shu sababli ushbu suv ombori va uning atroflarida ko'ngilochar va zamonaviy dam olish maskani barpo etish mumkin;

➤ Qiziriq tumanida "Yetim qum" massivida qum sahrosi mavjud bo'lib, revmatizmni davolash uchun sog'lomlashtirish maskani qilishga imkoniyat mavjud;

➤ Sariosiyo tumanidagi "Sangardak" ziyoratgohida ziyorat va ekoturizmni rivojlantirish uchun mehmonxona va dam olish maskanlari qurish imkonini yuqori.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Surxondaryo viloyatida rekreatsiya resurslaridan oqilona foydalanish va ularni baholash natijasida tabiiy rekreatsiya resurslarini istiqbolli tizimlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu tizim asosida viloyatda yangi dam olish maskanlari va davolanish muassasalarini barpo etish hamda istiqbolli sayyohlik marshrutlarning ishlab chiqish imkoniyatini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аббасов С.Б., Бадалов Ў.Б. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришда рекреация ресурсларидан фойдаланиш. География жамияти ахбороти, 51-жилд. -Т., 2017. -Б. 29-32.

2. Бадалов Ў.Б. Ўзбекистон санаториялари географияси. География жамияти ахбороти, 38 жилд. -Т., 2011. -Б. 112-115.

3. Yarashev Q., Yusupov B. Tabiiy muhofaza etiladigan hududlarda ekoturizmni rivojlantirish masalalari (Hisor davlat qo'riqxonasi misolida). O'zMU xabarlari (3/2/1-tabiiy fanlar). -Toshkent, 2022. -B.323-327.

4. Yarashev Q., Yusupov B. Tog' va tog'oldi landshaftlarida ekoturizm salohiyatini oshirish (Kitob geologik qo'riqxonasi misolida). O'zbekiston zamini (4/2023 soni). -Toshkent, 2023. -B.52-60.

5. Yarashev Q.S., Yusupov B.B., Ochilov S. Tog' va tog'oldi landshaftlarida ekoturizm rivojlantirishning ayrim masalalari (Hisor davlat qo'riqxonasi misolida). O'zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari. Respublika ilmiy - amaliy konferensiyasi materiallari. Qarshi, 2021. -B. 137-139.

6. Yarashev Q.S., Xasanov J.Yu., Qurbonova I.Z., Sadulloyeva L.K. World and uzbek experience in development of ecologic tourism //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 6,2021. <https://cibg.org.au>.

7. <https://surxondaryo.uz/>.

8. <https://uza.uz/>

KIMYONI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Davronova B.Sh., Samiyev R.A.

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

samiyevrajabboy@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'qitish metodlari orqali kimyo fanini ta'lim berish jarayonining samaradorligini oshirish ko'rib chiqiladi. Kimyo o'qitishda interaktiv usullar, multimediya vositalari va loyihaga asoslangan o'qitish yondashuvlari kabi zamonaviy metodlar tahlil qilinadi. O'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi metodlarning ahamiyati, ularning bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga ta'siri batafsil muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Zamonaviy o'qitish metodlari, interaktiv o'qitish, multimediya vositalari, loyihaga asoslangan o'qitish, faol o'quvchi, ta'lim sifatini oshirish, amaliy tajribalar, o'qitish jarayoni, innovatsion yondashuvlar.

Kimyo fani zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning ta'siri o'quvchilarni bilim va yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega. So'nggi yillarda ta'lim jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish, o'quvchilarni faollashtirish va ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyati yanada oshdi. Ta'lim sohasidagi global tendentsiyalar, shuningdek, texnologik rivojlanishlar ta'lim berish usullarini qayta ko'rib chiqishga olib kelmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llagan o'qituvchilar o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasi 20% ga oshadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning 75% i interaktiv va amaliy o'qitish metodlari orqali o'zlarining bilimlarini yanada samarali qabul qilayotganini ta'kidlagan.

Zamonaviy ta'limda ko'plab interaktiv usullar, masalan, guruhli muhokamalar, tajriba asosida o'qitish va loyihalar orqali o'qitish amaliyoti joriy etilmoqda. Bunday metodlar o'quvchilarni nafaqat kimyo bilimlari bilan ta'minlash, balki ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, zamonaviy texnologiyalar, masalan, simulyatorlar va onlayn platformalar orqali o'qitish ko'plab o'quvchilarni kimyo fani bilan yanada yaqinlashtirib, ularni fan bilan qiziqtirishga yordam bermoqda.

Kimyo ta'limida zamonaviy metodlardan foydalanishga oid adabiyotlar keng ko'lamli tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. O'rganilgan manbalar asosan ta'lim metodologiyasi, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish bilan bog'liq.

Shuningdek, boshqa bir tadqiqotda, Kimyo o'qitishda loyihaga asoslangan o'qitish usuli o'quvchilarning tajriba va nazariy bilimlarini birlashtirishga yordam berishi ko'rsatilgan. Bu yondashuv o'quvchilarning fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini 40% ga oshiradi. Bunday natijalar, zamonaviy metodlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishning muhimligini ta'kidlaydi.

Ushbu maqolada kimyo ta'limida zamonaviy metodlardan foydalanishni o'rganish uchun aralash tadqiqot metodologiyasi qo'llanildi. Tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Adabiyotlarni o'rganish: Ta'lim metodlari, o'quvchilar motivatsiyasi va zamonaviy texnologiyalar haqida mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganildi. O'rganish jarayonida jurnallar, maqolalar va tadqiqotlar tahlil qilindi.

2. Statistik ma'lumotlar to'plash: Zamonaviy o'qitish metodlarining ta'sirini o'rganish uchun turli statistik ma'lumotlar va anketalar orqali o'quvchilar va o'qituvchilar orasida so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 80% i interaktiv metodlar orqali o'qitishni afzal ko'rishni aniqlangan.

3. Tahlil qilish: Olingan natijalar tahlil qilindi va zamonaviy metodlardan foydalanishning o'quvchilar rivojiga qo'shgan hissiy batafsil o'rganildi. Bu jarayon statistik usullar, masalan, o'rtacha va dispersiya orqali amalga oshirildi.

Ushbu metodologiya orqali olingan natijalar, kimyo ta'limida zamonaviy metodlarni qo'llashning muhimligini va ularning o'quv jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatmoqda. Maqola davomida ushbu usullarni joriy etishning amaliy tajribalaridan va natijalardan misollar keltiriladi.

Zamonaviy o'qitish metodlari kimyo ta'limida o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. O'quv jarayonida interaktiv metodlar va texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Bunday metodlar nafaqat o'quvchilarni bilim olishga jalb qiladi, balki ularning ijodiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Ushbu metodning afzalliklaridan biri shundaki, u o'quvchilarga ko'proq tajriba orttirishga va kimyo fani haqidagi nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga imkon beradi. Shuningdek, o'quvchilarning turli darajadagi motivatsiyasi va qobiliyatlari ham zamonaviy metodlardan foydalanishning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, o'qitish jarayonida har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish juda muhimdir.

Natijada, zamonaviy o'qitish metodlarining kimyo ta'limidagi ahamiyati to'g'risidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ularning samarali qo'llanilishi uchun o'qituvchilar, ta'lim muassasalari va texnologik infratuzilma o'rtasida yaxlit va muvofiqlashtirilgan yondashuv zarur. Bu orqali nafaqat o'quvchilar bilim olish jarayonini yaxshilash, balki ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Zamonaviy metodlarni joriy etishda kuchli hamkorlik va innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutadi.

Ushbu tadqiqot natijalari zamonaviy o'qitish metodlarining kimyo ta'limidagi samaradorligini yanada aniqroq tasdiqladi. O'tkazilgan tadqiqotlar va o'quvchilardan olingan so'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatadiki,

interaktiv va amaliy yondashuvlar o'quvchilarning o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Anketalar orqali to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, o'quvchilarning 82% i interaktiv metodlarni qo'llagan holda darslarni yanada qiziqarli va samarali deb baholagan (National Center for Education Statistics, 2023).

Loyihaga asoslangan o'qitish usulining qo'llanilishi esa o'quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatini 35% ga oshirdi. Bunday metod orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, loyihalar orqali o'qitilgan o'quvchilarning 78% i kimyo faniga qiziqishini oshirgan.

Biroq, zamonaviy metodlardan foydalanishda ba'zi muammolar ham aniqlangan. O'qituvchilarning 65% i texnologik resurslar yetarli emasligi va innovatsion yondashuvlarga tayyorgarlik ko'rmaslikni ta'kidlagan. Bu esa, o'z navbatida, o'qitish jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'qitish metodlari kimyo ta'limining sifatini oshirishda muhim omil bo'lib, ularning samarali joriy etilishi o'qituvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilarning o'rganish jarayonida yanada faol ishtirok etishlari va ularning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashlari ta'minlanadi. Natijada, o'quvchilar bilim darajasi oshadi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hattie, J. (2017). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. Routledge.
2. Thomas, J. W. (2020). *A Review of Research on Project-Based Learning*. Buck Institute for Education.
3. Gordon, K. (2021). "Interactive Teaching Methods and Student Motivation: A Study of Their Impact." *Educational Research Review*, 16(3), 45-67.
4. Schunk, D. H. (2019). *Learning Theories: An Educational Perspective*. Pearson.
5. U.S. Department of Education. (2022). "Technology in Education: Teacher Preparation and Effectiveness." Retrieved from www.ed.gov.



EKZOSAYYORALAR KASHFIYOTI, UNING TRANZIT VA RADIAL PARAMETIRLARINI ANIQLASH

¹Ergashev S.Sh., ²Boymurodova R.A., ³Toshpulatova D.Z.

¹Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti trayanch doktoranti

²Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi,

³Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Kirish. Ekzosayyoralar bu boshqa yulduzlar atrofida aylanuvchi sayyoralardir, "ekzo" lotincha "tashqari" degan ma'noni beradi Birinchi ekzosayyora 1995 yilda ochildi. Kashfiyot Dopler chizig'ining siljishini 13 m/sek aniqlikda o'lchay oluvchi spektrometr yordamida amalga oshirildi. 1988-yilda qator astronomlar ekzosayyoralarini kashf qilinganligini e'lon qilishgan[1]. Lekin ular kuzatish aniqligi yetarli bo'lmaganligini ham e'trof etishgan. Bundan 15 yil o'tkandan keyin kashf qilingan sayyoralar soni bir necha 10 tadan oshgandan keyin kashfiyot o'z tasdig'ini topdi. 1989-yildagi kashfiyotlar karliklarni yoki ekzosayyoralarni degan savolga to'liq va aniq javob bera olmagan. [1,2].

Ekzosayyora kashfiyoti va missiyalari tarixi. Ekzosayyoralarini yoki Quyosh sistemamizdan tashqaridagi sayyoralarni izlash asrlar davomida astronomlarni qiziqtirgan mavzu bo'lib kelgan. Biroq, faqat 20-asrning oxiriga qadar texnologik taraqqiyot olimlarga ekzosayyoralarning mavjudligini aniqlash va tasdiqlash imkonini berdi [3].

Ekzosayyora kashfiyoti va missiyalarining qisqacha tarixi:

- 1992-yilda Aleksander Wolszczan va Dale Frail birinchi tasdiqlagan ekzosayyorani radio to'lqinlari va pulsar pulsatsiyasidagi nomuvofiqliklardan foydalangan holda kashf qilishdi[4].
- 1995-yilda Michel Mayor and Didier Queloz (51 Pegasi b) radial tezlik usuli yordamida birinchi ekzosayyorani kashf qilishdi, u Quyoshga o'xshash yulduz atrofida aylanadi [2].
- 2000-yilda Birinchi ekzosayyora tranziti Keele universiteti astronomlari tomonidan SuperWASP rasadxonasi yordamida aniqlagan [5].
- 2006-yilda Tranzit usuli yordamida aniqlangan va radial tezlik o'lchovlari yordamida tasdiqlangan birinchi ekzosayyora CORALIE jamoasi tomonidan e'lon qilindi. [6].
- 2009-yilda NASAning Kepler missiyasi ishga tushirildi, u tranzit usuli yordamida minglab ekzosayyoralarini kashf etdi.
- 2013-yilda Yaqin atrofdagi ko'plab ekzosayyoralarning massalari va masofalarini aniq o'lchash imkonini beruvchi Yevropa kosmik agentligining (The European Space Agency's) (ESA) Gaia kosmik kemasi uchirildi.
- 2018-yilda NASAning (Transiting Exoplanet Survey Satellite) (TESS) sun'iy yo'ldoshi tranzit usuli yordamida ekzosayyoralarini kashf etishni boshladi.
- 2019-yilda Yevropa kosmik agentligining (ESA) boshqa missiyalar tomonidan avval kashf etilgan ekzosayyoralarni tavsiflashga qaratilgan ekzosayyoralarni tavsiflovchi sun'iy yo'ldoshi (Characterizing Exoplanet Satellite) (Cheops) uchirildi.

• 2022-yilda NASA, ESA va Kanada kosmik agentligi hamkorligidagi James Webb kosmik teleskopi ekzosayyoralar atmosferasini o'rganish maqsadida ishga tushirildi.

Ushbu sun'iy yo'ldosh missiyalariga qo'shimcha ravishda, yuqori aniqlikdagi radial tezlik usulida sayyoralarini izlovchi (HARPS) kabi yerga asoslangan observatoriyalar ham radial tezlik usulidan foydalangan holda ekzosayyoralarini kashf etishda muvaffaqiyatli bo'ldi. (Allyson Bieryla tomonidan boshqariladi)

Ushbu havola: (<https://exoplanets.nasa.gov/resources/2147/exoplanet-missions/>) mavjud va rejalashtirilgan barcha ekzosayyora teleskoplari va sun'iy yo'ldoshlari haqida to'liq ma'lumot beradi [7].

Tranzit va radial tezlik usullari yordamida ekzosayyoralarini fizik parametrlarini aniqlash. Quyida tranzit sayyora hajmini aniqlashning oddiy usullaridan biri keltirilgan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, sayyoraning o'lchami ya'ni sferik sayyora asosiy-yulduzning qanchalik sirt maydonini to'sishini anglatadi va o'z navbatida uning hajmini bildiradi. Bu ko'p jihatdan asosiy-yulduzning o'lchami oldindan ma'lum bo'lishi bilan bog'liq, bu ko'pincha aniq spektral sinflar orqali topiladi. Yulduz va ekzosayyora o'rtasidagi masofa yulduz va Yer orasidagi masofaga nisbatan mutlaqo ahamiyatsiz bo'lgani uchun (*kontseptual jihatdan 1,0 AU (astonomik masofada) dagi sayyora o'z yulduzini bir xil o'lchamdagi 2,0 AU sayyorasi bilan bir xil miqdorda xiralashtiradi, chunki Yer o'nlab hatto yuzlab yorug'lik yili uzoqlikda*) yorug'lik oqimining o'zgarish chuqurligi " d " dan foydalanib, biz sayyora radiusini topishimiz mumkin

$$d = \frac{A_{sayyora}}{A_*} \quad (1)$$

$$A_{sayyora} = A_* d \quad (2)$$

$$\pi R_{sayyora}^2 = \pi R_*^2 d \quad (3)$$

$$R_{sayyora} = \sqrt{R_*^2 d} = R_* \sqrt{d} \quad (4)$$

($A_{sayyora}$ - ekzosayyora ko'ndalang kesim yuzi, A_* - asosiy-yulduz ko'ndalang kesim yuzi, $R_{sayyora}$ - ekzosayyora radiusi, R_* - asosiy-yulduz radiusi) Asosiy yulduzdan orbital masofa " r " ni topish uchun biz har ikkala usuldan topilgan davrdan foydalanishimiz va uni Keplerning uchinchi qonuniga qo'llashimiz mumkin (yana biz spektral sinfga ko'ra asosiy yulduz massasi nimaga teng ekanligini bilamiz):

$$r^3 = \frac{GM_*}{4\pi^2} T^2 \quad (5)$$

$$r = \sqrt[3]{\frac{GM_*}{4\pi^2} T^2} \quad (6)$$

(r - ekzosayyoraning asosiy-yulduzdan o'rtacha orbital masofasi, T - ekzosayyoraning orbital davri, M_* - asosiy-yulduz massasi) Nyutonning tortishish qonunlari va orbita tenglamalaridan foydalanib, biz sayyoraning tangensial tezligini topish uchun " r " dan, keyin esa massani topish uchun impulsning saqlanishidan foydalanishimiz mumkin:

$$v_{sayyora} = \sqrt{\frac{GM_*}{r}} \quad (7)$$

$$M_{sayyora} = \frac{M_* v_*}{v_{sayyora}} \quad (8)$$

($v_{sayyora}$ - ekzosayyoraning kuzatilgan tezligi, v_* - yulduzning kuzatilgan tezligi, $M_{sayyora}$ - ekzosayyora massasi) Biroq, biz faqat radial tezlik ma'lumotlariga ega bo'lsak, bu massa faqat "ko'rinadigan" massa bo'lib, asosiy yulduz aylanadi, ammo biz to'liq aylanishni kuzatmoqdamiz deb o'ylamaymiz. Agar sayyoralar tizimi olisdan qaralganda Yerga yoy soniyalaridan ko'ra ko'proq egilgan bo'lsa, biz to'liq tezlik o'rniga tezlikning faqat chekka komponenti o'zgarishini ko'ramiz. Shunday qilib, biz faqat ushbu "ko'rinadigan" massa massa bo'lishi mumkin bo'lgan minimal deb taxmin qilishimiz mumkin:

$$v_* = v_{naqiyaiy} \sin(i) \quad (9)$$

$$v_* \leq v_{naqiyaiy} \quad i \leq 90^\circ \text{ uchun} \quad (10)$$

$$M_{sayyora} \geq \frac{M_* v_*}{v_{sayyora}} \quad (11)$$

(i - ekzosayyora orbitasining ko'rish chizig'iga perpendikulyar qiyaligi) Agar bizda tranzit usuli bo'yicha qo'shimcha kuzatishlar bo'lsa, biz ishonch bilan barcha amaliy maqsadlar uchun $i = 90^\circ$, shunda $v_* = v_{naqiyaiy}$ deb da'vo qilishimiz mumkin, bu esa o'z navbatida minimal chegara bilan cheklanish o'rniga sayyoraning massasini tasdiqlaydi. Radial tezlik va tranzit usullari bilan birgalikda nomzod sayyoramizning barcha fizik xususiyatlarini topishimiz mumkin[8].

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki: ekzosayyoralarini kashf qilish, uning ekzosayyora bo'lish shartlarini bajarishi bilan bog'liq, shuning uchun ham ekzosayyoralarining kashf qilinish tarixi turli tuman juda ham ko'p noaniqliklar bilan boshlangan. Ekzosayyora bizning Quyosh tizimimizdan tashqaridagi yulduz atrofida aylanadigan sayyora ekan. Bu sayyoralarini to'g'ridan-to'g'ri kuzatish juda qiyin, chunki ular orbitadagi yulduzlariga nisbatan juda uzoq va juda xira. Buning o'rniga astronomlar ekzosayyoralarini aniqlash uchun bilvosita usullardan foydalanadilar, masalan, orbitadagi sayyoraning tortishish kuchidan kelib chiqqan yulduzning tebranishini o'lchash yoki uning oldidan ekzosayyora o'tganda yulduz yorqinligining pasayishini kuzatish orqali o'rganadilar.

Adabiyotlar

1. <https://exoplanets.nasa.gov/what-is-an-exoplanet/overview/>

2. Mayor, M., Quéloz, D., 'A Jupiter-mass companion to a solar-type star', Nature, 378,355 (1995).
3. <https://www.schoolobservatory.org/learn/astro/exoplanets/history>
4. A. Wolszczan & D. Frail "A planetary system around the millisecond pulsar PSR1257 + 12" Nature, Volume 355, Issue 6356, pp. 145-147 (1992).
5. <https://spacenews.com/superwasp-finds-a-strongly-irradiated-transiting-gas-giant-exoplanet>.
6. G.Ottoni at all "CORALIE radial-velocity search for companions around evolved stars (CASCADES)" A&A Volume 657, January 2022, A87 20.
7. <https://gold-erigeron-796.notion.site/History-of-Exoplanet-Discovery-and-Missions-2274eb2c47fd4bd2ae2fff052bf04cf5>
8. Joshua Thompson "Exoplanet Transit Detection with Terrestrial Amateur Equipment" December, 2010



MATEMATIKA DARSLARIDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Ernazarov A.J.

Sh.Rashidov nomidagi SamDU ixtisoslashtirilgan maktabi oliy toifali matematika fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi (97-922-90-68).

Annatsiya. Ushbu maqola maktablar va ta'lim muassasalarida matematika fanini sinfda yoki sinfdan tashqari o'qitishda mobil ilovalardan foydalanishning ahamiyatini ko'rsatishga bag'ishlangan. Mobil ilovalar qo'llanilishiga doir ayrim masalalar va ularni yechishda ishtirok etadigan grafiklar va diagrammalar keltirilgan. Shu bilan birgalikda na'munaviy videodarslar joylashtirilgan "Mahorat akademiyasi" platformasidagi ba'zi mavzular yuzasidan tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar: texnik vositalar, mobil texnologiyalar, mobil ilovalar ta'lim jarayoni, "Mahorat akademiyasi" platformasi, grafik va diagrammalar.

Kirish. Matematika darslarini o'qitishda turli mobil texnologiyalar va ilovalarning ta'lim sohasiga kirib kelishi sifat va samaradorlikni oshishiga sabab bo'ldi. IT texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini takomillashtirish hozirgi kunda butun dunyoda ommalashib boryapti. Shuningdek, mobil texnologiyalarning istalgan joyda va istalgan vaqtda foydalanish mumkinligi ularni ta'lim jarayonida kengroq tadbiq etilishini ta'minlamoqda. IT texnologiyalaridan foydalangan holda matematikani o'rgatilishi pedagoglarni va o'rganuvchilarni qiziqtiradi. Turli grafik va diagrammalarni animatsion taqdim qilinishi fanlararo integratsiyani tushuntirishni osonlashtiradi. Lekin bu ishlar samarali va yoshlar salomatligiga salbiy ta'sir qilmasligi uchun turli mobil qurilmalar va gadgetlardan foydalanish me'yorlariga amal qilib, qat'iy nazoratga olish kerak.

Asosiy qism. Dunyo ilm-fani yutuqlaridan biri bo'lgan mobil texnologiyalar- telefonlar, planshetlar va boshqa turli gadgetlar ixtiro qilinishi bilan ulardan samarali foydalanish maqsadida turli mobil ilovalar(dasturlar) ham yaratilmoqda. Hozirgi paytda mobil ilovalar nafaqat fan va kasbiy faoliyat uchun zarur vositaga aylandi, balki ta'lim yoki mahoratni oshirish uchun tobora ko'proq foydalanilmoqda.

Maktablar va ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonida, o'quvchilarni o'qitish va bilimlarini tekshirish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish bo'yicha turli platformalar - Android, Windows Phone, Symbian va iOS va mobil ilovalar(dasturlar)dan foydalaniladi:

- e.maktab (Kundalik.com) raqamli ta'lim platformasi(O'quvchilarni davomatini olish, ota-onalar bilan mulohaza qilish, butun jarayonni hisobotlarini qurish,joriy, choraklik , yillik va tabellarini baholash kabi juda katta hajmdagi ishlarni osonlashtiradi);

- APro – online test platformasi(To'g'ri va xato ishlagan testlaringizni tahrir qilish, o'tgan yilgi DTM ga kirish ballariga nisbatan o'zingizni ballingizni solishtirish, qaysi fan va mavzudan kamchiligingiz borligini bilish va bartaraf qilish)

- O'nlayn testlar;

- o'quv o'yinlari;

- Mahorat akademiyasi platformasi;

- Yana turli Google Диск, Survey Maker, Plickers, Mindly, QR Code Reader va Облачное хранилище данных kabi ta'lim ilovalari imkoniyatlaridan dars yoki darsdan tashqari vaqtlardagi mustaqil ishlarda samarali foydalanish mumkin.

Bu kabi ta'lim ilovalari nafaqat o'quvchilar balki, o'qituvchilar uchun ham juda qulay qo'llanma bo'lib hisoblanadi. Mutaxassislarini ta'limiy va kasbiy tayyorlashda mobil ta'lim (m-learning) muhim o'rin tutadi. Mobil texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim sifatini oshirish maqsadida ularning o'quv jarayoniga yanada integratsiyalashuvini ta'minlaydi . Endi mobil ilovalardan samarali foydalanishga yana bir misol qaraylik. Yuqori sinf o'quvchilari algebra fanidan masalan, "trigonometriya" bo'limini boshlaganda bu so'zni ma'nosi nima ekanligi va bizga hayotda nima uchun kerak degan savol berishlari tabiiy.

Umumiy o'rtta ta'lim matematika kursini o'qitish metodikasi bo'yicha S.Alixonov quyidagi munosabatlarni o'rganishni ta'kidlaydi:

1. Trigonometrik funksiyalarning birini ikkinchisi orqali ifodalaydigan ayniy almashtirishlar.
2. Trigonometrik ifodalarni soddalashtirishdagi ayniy almashtirishlar.
3. Trigonometrik ayniyatlarni isbotlashdagi ayniy almashtirishlar
4. Trigonometrik tenglamalarni yechishdagi ayniy almashtirishlar.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki trigonometriya kursida ayniy almashtirishlar muhim o'rin egallaydi.


O'quvchilar trigonometriyadan ayniy shakl almashtirishlarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun birinchidan trigonometrik funksiyalar ta'riflarini va biridan ikkinchisini keltirib chiqarishni, asosiy ayniyatlar, ularning kelib chiqishi va tadbiiq qilinishi hamda ba'zi holatlarni og'zaki bajarishga o'rgatish o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini shakllantiradi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar texnik vositalar va mobil ilovalardan foydalanish matematik materialni muvaffaqiyatli idrok qilishga va eslab qolishga xissa qo'shadi. Bunda aniq fanlarni o'zlashtirishda ishlaydigan miyaning chap yarim shari emas, ikkala yarim shar bir hil ishlaydi.

Ma'lumki, interfaol ta'lim ilovalari grafikasi funksiyalari vizual va kognitiv funksiyalarga bo'lingan. Vizual funksiya elektron ta'lim resurslarida chizmalar, diagrammalar, grafiklar va jadvallar ko'rinishida taqdim etiladi. Kognitiv funksiya esa o'quvchilar o'rganayotgan obyektlarning matematik modellarini o'rganish orqali bilim oladigan vaziyatlarda bo'ladi.

B.S.Rotenberg ta'kidlashicha ta'lim materialining obrazli tomoniga suyanmaslik nafaqat o'rganishni qiyinlashtiradi, balki ba'zi o'quvchilarni umuman tushunmasliklariga olib keladi.

Ma'lumotni tasavvur etishning ikki usuli (belgilar ketma-ketligi va rasm-obrazlar ko'rinishida) kombinatsiyasi, ular bilan ishlash va bir-birini ifoda etishning har ikkala usulini o'zaro bog'lash qobiliyati inson tafakkurining aniq fenomenini ta'minlaydi. Vizuallashtirish tamoyilining asosi kognitiv grafika bo'lib, uning maqsadi timsoliy va geometrik tafakkur usullarini birlashtiradigan va bilish faollashuviga hissa qo'shadigan bilimlarni namoyish etish modellarini yaratishdir. Faqat rasm-obrazilardan foydalanish boshqa bir salbiy holat "faqat o'ng yarim sharning ishlashi"ga olib kelmasligi uchun maqbul kombinatsiya - bu o'quv jarayonida matematik ma'lumotlarni taqdim etishning ham vizual(ko'rish), ham og'zaki(eshitish) usulidan oqilona foydalanishdir. Zamonaviy texnologiyalarning eng keng tarkalgan misollaridan biri bu animatsiya. Matematika darslarida o'qituvchilar funksiya grafigini chizish yoki geometrik figurani yasash uchun turli hil vositalarni va animatsiyaning eng aniq nomoyish etadigan dasturlardan foydalanishadi. Bunday dasturlar qatoriga "Desmos", "GeoGebra", "Живая математика" va "Maple" kabilar kiradi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda iqtidorli o'quvchilarning mustaqil ishlarini raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etish uchun "Mahorat akademiyasi" platformasidagi va boshqa trigonometriyaga oid vedeoresurslarimizni tavsiya qilamiz.



1-rasm.

Chunki, matematikani vizuallashtirish va uni yanada ko'rgazmalroq qilishga urinishlar uzoq vaqt davomida amalga oshirilgan. Hatto qadimgi matematiklar eng oddiy algebraik masalalarni geometrik shaklda aks ettirishga harakat qilishgan. Keyinchalik David Hilbert, Leonard Eyler va Bernhard Rimann kabi taniqli olimlar matematikani oqilona tasavvur qilishni targ'ib qildilar.

Algebraik bilimlarni geometrik jihatlarini o'rganish jarayonlari va ularning real voqelik bilan bog'liqligi trigonometriya bo'limini o'qitishda o'quv jarayonining vizual-figurativ tarkibiy qismini, matematikaga bog'liq boshqa fanlarni kuchaytirishga yordam beradi va matematik ma'lumotlarni qayta ishlashning figurativ-assotsiativ usulidan maksimal darajada foydalanishga asoslangan metodik tizimlarni ishlab chiqish masalasini xal qiladi.

Tabiiyki, tasvirlarning ravshanligi matematikani o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi va o'quvchilarga mavzuni tasavvur qilib o'rganishga imkon beradi.

Dunyo davlatlaridagi bir qancha ta'lim muassasalari allaqachon mobil texnologiyalardan foydalanib, multimediali o'quv veb-resurslarini (audio va video fayllar, xaritalar, tasvirlar) yaratib, o'quv saytlari, resurslari va lug'atlariga tezkor kirishni ta'minlamoqda.

Chunki mustaqil fikrlash(ishlash)ga o'rgatishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim jihatlardan biri: Turli ta'lim ilovalari bilan ishlashga o'rgatish(iloji boricha dasturiy qismigacha kirib borish);

Ko'rinib turibdiki, mustaqil ishlashga o'rgatib borishda ham ta'lim ilovalari va platformalar bilan ishlashni o'rni nihoyatda katta. Masalan, Google Диск, Survey Maker, Plickers, Mindly, QR Code Reader , Облачное хранилище данных va desmos(grafik) kabi ilovalar imkoniyatlaridan dars yoki darsdan tashqari vaqtlardagi mustaqil ishlarda samarali foydalanish mumkin. Raqamli texnologiyalar istalgan joyda va istalgan vaqtda kerakli ma'lumotlarni qisqa vaqtda topish hamda foydalanish imkoniyatini beradi. Maktabdagi dars vaqti cheklanganligini inobatga olsak, bu kabi ilovalarning(masalan "Mahorat akademiyasi" platformasidagi videodarslarim) mustaqil ishlovchilarga juda kerakligini tushunish mumkin.

Ilova va resurslar yaratish jarayonida dasturchi kerakli dasturlash tilini uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlaydi. Bugungi kunda Python reytingda birinchi o'rnlarda turishiga sabab, u bir nechta operatsion tizimlar va qurilmalarda ishlatilishi mumkin bo'lgan o'zaro platforma ilovalarini yaratish uchun ishlatiladi. Python, shuningdek, bir vaqtning o'zida bir nechta so'rovlarni boshqarishni osonlashtiradigan ko'p tarmoqlini qo'llab-quvvatlaydi. Python sintaksisi sodda va tushunarli, bu yangi boshlovchilar uchun tilni o'rganishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, u juda ko'p jamoatchilik yordamiga ega, shuning uchun siz ilovani ishlab chiqish jarayonida paydo bo'ladigan ko'plab savollarga javob topishingiz mumkin.

Mobil texnologiya o'quv natijalarini baholash jarayonini tezlashtiradi, o'quvchilar va o'qituvchilarga taraqqiyotni tez kuzatish imkoniyatini beradi. Ilgari talabalar o'z bilimlariga asoslangan tavsiyalarni bir necha kun, hatto haftalar kutishlari kerak edi. Endi mobil qurilmalarning interaktiv funksiyalari tufayli javobni deyarli bir zumda olish mumkin. Bu o'quvchilar va o'qituvchilarga o'quv jarayonidagi muammolarni tezda aniqlash va asosiy tushunchalarni takrorlash imkonini beradi.

Mobil texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilarning ish samaradorligini oshiradi -baholash ma'lumotlarini taqsimlash, to'plash, tahlil qilish va hujjatlashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish. Shunday mobil ilovalar mavjud bo'lib, ular o'qituvchilarga o'quvchilarning bilimlarini tezkor baholash bo'yicha bajarilgan topshiriqlarini tekshirish imkonini beradi(APro – online test).

Odatda, bu ilovalar turli xil operatsion tizimlar bilan ishlaydi, shunda o'quvchi nazorat savollariga ta'lim muassasasi taqdim etgan qurilmadan emas, balki o'zining mobil qurilmasidan javob bera oladi. Nazorat ishlarini baholash bir zumda amalga oshiriladi va agar kerak bo'lsa, jurnalda, kundalikda yoki daftarda aks ettiriladi. Shunday qilib, qog'oz kundaliklari yoki ma'lumotni qo'lda kiritish asta-sekin o'tmishga aylanadi. YuNESKO loyihasida mobil telefonlardan foydalanilgunga qadar, savodxonlik olgan qizlarning atigi 28 % i imtihonda a'lo baho olgan. Mobil aloqadan foydalanish eng yuqori ball olgan talabalar sonini 60% dan ko'proqqa oshirdi . M-learning dunyoning istalgan nuqtasidan talaba uchun ma'lumot yetkazib berishi mumkin.

Natijalar. Multimedia vositalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligi 20-30% ga oshadi. (Qo'qon davlat pedagogika instituti Fizika-matematika fakulteti "Informatika o'qitish metodikasi" yo'nalishi guruhlarida tajriba-sinov tashkil qilgan)

Hozirda maktablar, kitoblar va kompyuterlar yetishmaydigan yoki istalgan joylarda ham mobil texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Mobil telefonlar narxi doimiy ravishda pasayib bormoqda, shuning uchun ko'p odamlar, hatto eng qashshoq davlatlarda ham bunday qurilmalarni sotib olish va ulardan qanday foydalanishni bilish imkoniyatiga ega. Ko'payib borayotgan loyihalar mobil texnologiyalar sifatli ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lgan talabalar uchun ajoyib o'quv vositasi ekanligini ko'rsatmoqda. Shunday qilib, Mobil texnologiya o'quv natijalarini baholash jarayonini tezlashtiradi va o'quvchilar va o'qituvchilarga taraqqiyotni tez kuzatish imkoniyatini beradi. O'tkazilgan statistikalar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, mobil ilovalarni ta'lim jarayonida qo'llash ta'limda sifat va samaradorlikni oshishiga olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta'lim jarayoni uchun mobil ilovalar yaratishda foydalaniladigan mobil ta'lim texnologiyalari. QDPI "Informatika" kafedrasida o'qituvchisi Rasulova.F.X(<http://cuberleninka.ru>)
2. Axmedov, B. A. (2021). Zadachi obespecheniya nadejnosti klasternix sistem v neprerivnoy obrazovatelnoy srede. Eurasian Education Science and Innovation Journal, 1(22), 15-19.
3. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Ekonomika i sotsium, 12(79), 588-591.
4. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Ekonomika i sotsium, 12(79), 802-804.
5. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M., Narimbetova, Z. A., Kuralov, Yu. A. (2020). Active interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Ekonomika i sotsium, 12(79), 805-808.
6. Akhmedov, B. A., Eshnazarova, M. Yu., Rustamov, U. R., Xudoyberdiyev, R. F. (2020). Cluster method of using mobile applications in the education process. Ekonomika i sotsium, 12(79), 809-811.
7. Akhmedov, B. A., Kuchkarov, Sh. F., (2020). Cluster methods of learning english using information technology. Scientific Progress, 1(2), 40-43.
8. Akhmedov, B. A. (2021). Development of network shell for organization of processes of safe communication of data in pedagogical institutions. Scientific progress, 1(3), 113-117.
9. Axmedov, B. A., SHayxislamov, N., Madalimov, T., Maxmudov, K. (2021). Smart texnologiyasi va undan ta'limda tizimida klasterli foydalanish imkoniyatlari. Scientific progress, 1(3), 102-112.

10. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M. (2021). Practical ways to learn and use the educational cluster. *Ekonomika i* 11. <https://www.tiobe.com/tiobe-index/>
12. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/view/3171>
13. UNESCO Policy Guidelines for Mobile Learning, <http://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214738.pdf>, last accessed 2018/08/25.



REKREATSIYA VA DAM OLISHNI RIVOJLANTIRISHDA REKREATSION RESURLARNING AHAMIYATI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Janizoqova Gulshoda Murodovna

SamDU doktoranti, +998936137041, janizoqovag@gmail.com

Annatsiya: O'zbekiston hududi aholisining dam olishi, davolanishi, turizm maskanlari xizmatiga talabi juda katta bo'lishiga qaramasdan, rekreatsiya maqsadlarida kam o'rganilgan. Ushbu maqolada rekreatsion resurslarning dam olishdagi ahamiyati haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: rekreatsiya, geoinformatsiya, Chortangri, Miq qal'asi, dendropark, buloqlar, gidro-mineral, Archamozor, Shumtol, bioklimat, termal suvlar

Аннотация: Несмотря на то, что население Узбекистана имеет очень высокий спрос на отдых, лечение, услуги туристических объектов, в целях рекреации он мало изучен. В данной статье кратко рассматривается значение рекреационных ресурсов в рекреации.

Ключевые слова: рекреация, геоинформация, Чортангри, замок Мик, дендропарк, источники, гидроминералы, Архамозор, Шумтол, биоклимат, термальные воды.


Abstract: Despite the fact that the population of Uzbekistan has a very high demand for recreation, treatment, and services of tourism facilities, it has been little studied for the purposes of recreation. This article briefly discusses the importance of recreational resources in recreation.

Key words: recreation, geoinformation, Chortangri, Miq castle, dendropark, springs, hydro-mineral, Archamozor, Shumtol, bioclimate, thermal waters


Aholining tabiiy muhitda dam olishi-insonning mehnat qobiliyatini tiklash va uning mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashning eng samarali vositasidir. Biroq hozirgi vaqtda deyarli barcha sohada dam olish va umuman hordiq chiqarish faoliyatini tartibga solish masalalariga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Shu nuqtai nazardan zamonaviy geografiya jumladan rekreatsiya va turizm sohasi oldiga yangidan yangi muammolarni qo'yimoqda. Binobarin, rekreatsiya insonning kuch, mehnat faoliyatni tiklash maqsadidagi faoliyatidan bo'sh davrdagi muddat birligida sog'lig'ini tiklash hamda dam olish sifatida tavsiflanadi. Bu davr inson salomatligini tiklashining, maroqli dam olishi hamda yangidan mehnat faoliyatiga kirishi uchun foydalanishni tadqiq qilishda, tabiiy va madaniy obyektlarning inson salomatligini tiklashda, eng samarali yo'li bo'lib sanaladi. Rekreatsiya (dam olish faoliyati) dam olishni tashkil etish faoliyati sifatida aholining restavratsiya, konservatsiya va rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan xizmatlarni shakllantirish, amalga oshirish va ko'rsatishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat turidir.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri fuqarolarning mehnat va yashash sharoitlarini doimo yaxshilab borishdan iboratdir. Lekin, rekreatsiya nuqtai nazaridan katta imkoniyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston hududi aholisining dam olishi, davolanishi, turizm maskanlari xizmatiga talabi juda katta bo'lishiga qaramasdan, rekreatsiya maqsadlarida kam o'rganilgan. Uning rekreatsiya resurslaridan foydalanish darajasi ancha pastligicha qolmoqda. O'zbekistonning yirik shaharlari va ular atrofida rekreatsion salohiyat yuqori bo'lishiga qaramasdan aholi uchun dam olish, davolanish joylari yetarlicha tashkil etilmagan. Tabiatning so'lim go'shalari, tog'lar, to'qaylar va boshqa turdagi landshaftlarda turizmni tashkil qilish va rivojlantirish maqsadga muvofiq. Rekreatsiya resurslarini baholash har bir tarkibiy qismni omilkorlik bilan baholashga asoslanadi: relyef, suv havzalari va tuproq va o'simlik qoplami, bioklimat, gidro-mineral va noyob tabiiy shifobaxsh resurslar, tarixiy va madaniy salohiyat va hokazolar turizmning muayyan turidan foydalanish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Rekreatsiya resurslari keng qamrovli bo'lib, u insonning hayotiy faoliyatida keng qo'llaniladigan barcha tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa resurslarni o'z ichiga oladi.

Barcha tabiiy resurslarga rekreatsiya yoki turistik salohiyat nuqtai nazardan qarash lozim. Tabiiy turistik-rekreatsiya resurslarning tasnifi mavjud bo'lib, u ikki yoqlama xususiyatga ega, birinchi xususiyatiga ko'ra tabiiy kelib chiqishi bilan, ikkinchi xususiyati esa turizm uchun iqtisodiy ahamiyati bilan bog'liq. Tabiiy resurslar kelib chiqishiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi:



bu resurslar madaniy, ziyorat kabi turizm turlarini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga ko'ra:



Rekreatsiyani rivojlantirishda suv ob'ektlarini o'rni beqiyosdir. Shu o'rinda Yettikechuv daryosi yuqori oqimidan quyi oqimi ya'ni O'rikli soy daryolarining boshlanish joyigacha bo'lgan qismlaridagi rekreatsion obyektlar bilan tanishib chiqamiz. Rekreatsiyaning tabiiy xususiyatlarga dam olish zonasining maydoni va sig'imi, iqlim sharoiti, suv havzalarining mavjudligi, landshaftning estetik xususiyatlari va boshqalar jihatlari bilan ajralib turadi.

Yettikechuv havzasi maydoni kattaligi va tabiatining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Yettikechuv daryosining irmoqlari bo'lgan Qashqasuv, Qizilmozor va Ko'lsay hamda vaqtincha oquvchi Shariloqsuv soylari bilan qo'shib hisoblaydigan bo'lsak, havzasi ancha katta hisoblanadi. Bu to'rtala soylikni Chortangi darasida qo'shilishidan Yettikechuv daryosi hosil bo'ladi. Daryo Chortangi darasidan to Duoba qishlog'iga qadar Yettikechuv deb nomlanadi. Yettikechuv daryosi Duoba qishlog'ida O'rikli soy bilan qo'shilib Zominsuv daryosini hosil qiladi. Yettikechuv havzasi tabiiy yodgorliklarga boyligi va ekoturistik obyektlarning ko'pligi tufayli sayohatchi va dam oluvchilarni doimiy ravishda o'ziga jalb qilib kelgan. Yettikechuvning yuqori oqimidan quyiga qarab ekomarshrut yo'nalishini belgilaydigan bo'lsak, Chortangi darasi, Miq qal'asi, bir necha g'orlar, Archamozor ziyoratgohi, buloqlar, 300 yoshli Shumtol va boshqa bir qancha tabiiy yodgorliklarni tomosha qilish imkoniyatini beradi. Yettikechuv daryosining yuqori oqimida Chortangi darasi joylashgan. Chortangi darasi tubida Yettikechuvning irmog'i Ko'lsay hayqirib oqib, tabiatini yanada ko'rkamlashtiradi. Daraning quyi qismida esa tik qoya devorlari 300-400 metrgacha yetadi. Tepadan qarsangiz dara tubidagi Ko'lsay bazo'r ko'zga tashlanadi. Bu yerda kishini maftun etadigan darajada xushmanzara daralar, shovqini chuqurlik tubidan arang yetib keladigan ko'plab sharsharali go'shalarni kuzatish mumkin. Chortangi darasidan to'rt tomonga yanada chuqurroq daralar bilan tarmoqlanib ketgan. Ularda ko'plab kichik sharsharalar uchraydi. Jumladan, Yettikechuv daryosining irmog'i bo'lgan Qizilsoy soyligida mahalliy aholi tomondan "Esmeralda" deb ataladigan maftunkor sharshara joylashgan. Sharshara 5 m balandlikdan toshlarga urilib, o'ziga xos go'zal manzara hosil qilib oqib tushadi. Zomin – Baxmal tumanlarini bog'laydigan avtoyo'ldan bor-yo'g'i 500 m lik uzoqlikda joylashgan "Esmeralda" sharsharasi haqida ko'pchilik ma'lumotga ega emas. Buning o'ziga xos ikkita asosiy sababi bor:

birinchidan, sharshara Chortangi darasining yurish qiyin bo'lgan va faqat so'qmoq yo'llar orqali boriladigan joyda joylashganligi;

ikkinchidan, sharshara O'zbekiston-Tojikiston davlat chegaralarini muhofaza qiladigan harbiy qismga yaqin joylashganligi tufayli ham doimiy kelib-ketuvchilari kam bo'lganligidir.

Kelgusida mahalliy va xorijlik sayyohlarni ko'plab jalb qilish maqsadida Qizilsoy, Chortangi darasi va Esmeralda sharsharalarini o'z ichiga olgan bir kunlik ekoturistik tashkil qilish yaxshi samara beradi. Yettikechuv daryosining yuqori oqimida, ya'ni Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'rida 20 ga yaqin katta-kichik g'orlar bo'lib, ularning birortasi ham turistik ekskursiya uyushtirish uchun qayta jihozlanmagan. Yettikechuv qishlog'iga yaqin ayrim g'orlardan mahalliy aholi tomonidan muzlatkichlar o'rni yaqin kunlarga foydalanib kelingan. Bu yerdagi mahalliy aholi bahar va yoz faslida yig'ilgan saryog' va qatiqlarini mesh (echki terisidan tayyorlanadi) larga solib, qish oylariga qadar g'orlarda saqlab kelgan. G'orlarda saqlangan mesh mahsulotlari boshqa mesh mahsulotlarga nisbatan xushta'mligi bilan ajralib turadi. Sayohatimiz davomida ushbu an'analarni ham yo'qolib

borayotganligi achinarli hol albatta. Chortangi darasidan chiqib, Yettikechuv daryosi oqimi bo'ylab 2 km masofa yurilsa, soyniing o'ng tomonida toshdan qurilgan qal'aning xarobalari ko'zga tashlanadi. Bu qadimgi afsonaviy "Miq" qal'asidir. "Miq" qal'asi Yettikechuv qishlog'idan 20 km janubda, Yo'lsoy va Yettikechuv daryosining yuqori qismida, ya'ni tik qoyali dara tepasida joylashgan. "Miq" qal'asi haqidagi dastlabki ilmiy xabarlar o'tgan asrning 40-50 yillariga oiddir. 1980 yillarning o'rtalarida arxeologlar tomonidan "Miq" qal'asida maqsadli ravishda ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazilgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Miq qal'asi qadimgi VII asrda qurilgan bo'lib, undagi hayot XII asrga qadar davom etgan. "Miq" qal'asi 2 qismga, Yuqori va Pastki "Miq" qal'alariga bo'linadi. "Miq" qal'alarida qadimda temir eritish ishlari amalga oshirilgan. Temir rudasi Yettikechuv daryosining chap sohilidagi Qizilmozor darasidan shaxta usulida qazib olingan. Shaxta g'orlardan 2 tasi bugungi kunga qadar saqlanib qolingan. Hozirgi kunda g'or og'izlari xavfsizlikni hisobga olgan holda berkitib qo'yilgan. Og'a Burgutli (1992) ma'lumotlariga ko'ra, "Miq" qal'asi atrofidagi shaxta g'orlarida "olov uslub"ida temir qazib olingan. Qazilayotgan joyda gulxan yoqilib qizdirilgan, tog' jinsiga esa suv sepilgan. Bir necha bor shunday usul takrorlangach jinslar yorilib qazib olish osonlashavergan. Yumshoqroq jinslar esa cho'kichlar, misranglar va yog'och ponalar yordamida qazib olingan. Miq konida qazuvchilar faqat zarur temirli qatlamigina ajratib olib, kengligi yura oladigan va qazilma ishlari davom ettirishga imkon beradigan darajada belgilab olganlar. Bu yerda qazib olingan temir rudalarini "Buyuk Ipak yo'li"ning bir tarmog'i bo'lgan G'oralash va Shahriston dovonlari orqali Xitoy davlatiga qadar olib borilgan.

VIII asrdagi arablar istilosida, XI asrning 30-yillarida qoraxoniylarning o'zaro urushlari davrida, XII asrning o'rtalarida qoraxitoylar tomonidan Movaraunnahr bosib olinganda ham Miq qal'asi bo'lgan. Ajrab qolgan olis tog' qishlog'ining umumtarixiy voqealarga naqadar aloqadorligi hayratlanarli, biroq bir paytlar bu yerda qora metallurgiya sanoati gurkirab rivojlanishi hisobiga shunday bo'lganligini taxmin qilish mumkin.

Yettikechuv havzasining Chortangi darasiga qadar bo'lgan joylari eng archasi siyrak bo'lgan hudud hisoblanadi. Buning o'ziga xos 2 ta asosiy sabablari bor: – birinchidan "Miq" qal'asida temir eritish jarayonida juda ko'plab archalarni qirqib yuborib, o'tin sifatida foydalangan; – ikkinchidan XIX asrda O'zbekistonga temiryo'lining kirib kelish va uni Dashtobod shahridan o'tishi bilan bog'liqdir. Dashtobod shahridan o'tgan paravozlar yog'ilg'i o'rnida archa o'tinlaridan foydalangan. Yettikechuv daryosi Zominsoy daryosining eng katta irmog'i bo'lganligi sababli, Yettikechuvning yuqori oqimidan Zominsoy daryosining quyi oqimi (Xulkar qishlog'i) ga qadar yog'och oqizish ishlari amalga oshirilgan. Natijada, Yettikechuv havzasida archalar juda ko'plab qirqilib hamda maydoni qisqarib ketgan. Yettikechuv daryosining o'rta oqimida archazor bag'rida Archamozor ziyoratgohi joylashgan, mazkur qadamjo shifobaxsh buloqlari bilan e'tibor topgan. Bu yerdagi qabristonga ming yilning yuzi bo'lganligi aytiladi. «Archamozor ota»da XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida «Mulla Nazar Vali» degan kishi yashaganligi va shu erga qo'yilganligi qayd etiladi. Zominsuv daryosining 3 ta asosiy irmog'i (O'rikli, Usmonlisoy va Yettikechuv) da ham Archamozor ziyoratgohlari va ularning yonida ramziy qabrlarni bo'lishi, mahalliy aholining tog' archalariga bo'lgan hurmatining yuqoriligini bildiradi. Sababi, qadimdan Archamozordan boshlab archalarga zarar yetkazish gunoh hisoblangan.

Rekreatsion obyektlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki ushbu manzillarda rekreatsion obyektlarni ko'proq tashkil qilish kerakligini, sayyohlarni jalb qilish maqsadida targ'ibot ishlarini olib borish (reklama xizmatlaridan foydalanish), Yettikechuv havzasi bo'ylab turizmning sxematik marshrut kartalari tayyorlash va unda harakatlanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish, havza atrofida ko'plab mehmon uylari tashkil qilish va mehmonlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, dendropark hududlarini yaratish va ularni kengaytirib borish, qolaversa tog' chang'i hududlarini tashkil qilish va uni rivojlantirish kabilardir.

ON THE INVERTIBILITY OF ONE OPERATOR IN GENERALIZED HÖLDER SPACES

Sh.Q.Mamatov

Associate Professor of Urgut Branch of Samarkand State University named after Sharof Rashidov

E-mail : mamatov_shamsiddin@samduuf.uz +99893 232 42 75

Annotatsiya: Maqolada singular integral operatorlarning Nyoter operatori bo'lishlik shartlarida qo'llaniladigan bir funksional operator o'rganiladi. Ma'lumki, Banax fazolarida chiziqli operatorning obrazi yopiq bo'lib, uning yadrosi va koyadrosi o'lchovlari chekli bo'lsa, bunday operator Nyoter operatori deyiladi. Integrallash konturining siljish funksiyasi teskarilanmovchi bo'lgan holda, siljishli singular integral operatorning Nyoter operatori bo'lishligi uchun qaralayotgan fazoda mos funksional operatorning teskarilanuvchi bo'lishligi muhimdir. Maqolada superpozitsiyasi teskarilanmovchi bo'lgan siljish operatorini o'zida saqlovchi funksional operatorning umumlashgan Holder fazolarida teskarilanuvchi operator bo'lishlik shartlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Banax fazosi, siljish funksiyasi, yadro, koyadro, spektral radius, teskarilanuvchi

Аннотация: В статье рассматривается обратимость одного оператора в обобщенных пространствах Гёльдера. Результаты направлены на приложения к теории сингулярных интегральных операторов с необратимым сдвигом. Как известно, линейный ограниченный оператор называется нётеровым, если размерность его ядра и коядра конечномерны. Оказывается, нётеровость таких операторов равносильно обратимости соответствующих, так называемых, функциональных операторов.

В статье получены условия обратимости одного функционального оператора с необратимым сдвигом в обобщенных пространствах Гёльдера.

Ключевые слова: банахово пространство, функция смещения, ядро, коядро, спектральный радиус, обратимый.

Abstract: The article examines the invertibility of one operator in generalized Hölder spaces. The results are aimed at applications to the theory of singular integral operators with irreversible shift. As is known, a linear bounded operator is called Noetherian if the dimensions of its kernel and cokernel are finite-dimensional. It turns out that the Noetherian property of such operators is equivalent to the invertibility of the corresponding so-called functional operators. In the article, conditions for the invertibility of one functional operator with an irreversible shift in generalized Hölder spaces are obtained.

Key words: Banach space, displacement function, kernel, cokernel, spectral radius, invertible.

Intensive systematic study of equations in which the limit values of the sought functions are calculated at various points of the supporting contour are associated with singular integro-functional equations and their corresponding operators, in which the lines of singularities of the kernels are specified by mappings (shifts) of the integration curve onto itself.

The research method and the nature of the results obtained for singular integral operators with a shift depend significantly on the spaces, the properties of the coefficients a, d of the functional operator, the shift function and the integration contour.

G.S.Litvinchuk for this issue [1] devoted to the construction of Noether's theory of singular integral operators, the case of periodic diffeomorphism was studied under the assumption of continuity of coefficients.

Recall that a linear bounded operator is called Noetherian if the image of the operator is closed and the dimensions of the kernel and cokernel are finite.

A significant contribution to the development of the theory of singular integral operators with such a shift was made by N.K.Karapetyants and S.G. Samko [2 – 4], N.Ya.Krupnik and V.I.Nyaga [5] and others. We emphasize that in all works devoted to singular integral operators with a shift, it was assumed that the mapping (shift) acts on the contour of the carriers homeomorphically. The theory with an irreversible shift is just beginning to be created. In this direction, the first step was taken in the works of Yu.D.Latushkin [6] in the space $L_p, 1 < p < \infty$. As for the theory of the Noetherian property of singular integral operators with an irreversible shift in ordinary and generalized Hölder spaces, it has not been studied until recently. Thus, in this article, the results on functional operators and on operators of the so-called weighted irreversible shift are aimed at applications to the theory of singular integral operators with irreversible shift. At the same time, the study of such operators is of significant independent interest.

Let Γ be a simple closed smooth contour, let d – the diameter Γ , α be a differentiable mapping (shift) Γ onto itself, $\alpha(t) \neq 0, t \in \Gamma$. According [1] to Φ we denote the class of non-negative functions $\omega(\delta) \equiv 0$ given in the interval $(0, d]$ and satisfying the following conditions:

a) $\omega(\delta)$ is the modulus of continuity,

b) $\sup_{\delta \in (0, d]} \frac{\delta}{\omega(\delta)} \int_0^d \frac{\omega(t)}{t^2 + t\delta} dt < +\infty$.

As a characteristic of functions continuous on Γ , we choose the modulus of continuity

$$\omega(f, \delta) = \sup_{|t-\tau| < \delta} |f(t) - f(\tau)|, \delta \in (0, d].$$

Definition 1. A complex function $f(t)$ belongs to class $H_\omega(\Gamma)$ if it is defined on the curve Γ and satisfies the condition

$$\omega(f, \delta) \leq c_f \omega(\delta), \delta \in (0, d], \text{ где } \omega(\delta) \in \Phi, c_f - \text{constant depending on the function } f(t).$$

It is known that $H_\omega(\Gamma)$ becomes a Banach space if we introduce the norm as follows

$$\|f\|_{H_\omega(\Gamma)} = \|f\|_{C(\Gamma)} + \sup_{\delta \in (0, d]} \frac{\omega(f, \delta)}{\omega(\delta)}.$$

Space $H_\omega(\Gamma)$ will be called the generalized Hölder space. In particular, if $\omega(\delta) = \delta^\mu (0 < \mu < 1)$, то $H_\omega(\Gamma)$ turns into ordinary Hölder space $H_\mu(\Gamma)$.

Let \mathcal{E} be sets of fixed points Γ .

Definition 2. A function $\omega(\delta)$ belongs to the set Φ_0 if $\omega(\delta) \in \Phi$ and for any constant $k > 0$ there is a limit $\lim_{\delta \rightarrow 0} \frac{\omega(k\delta)}{\omega(\delta)}$. Note that $\bigcup_{\omega \in \Phi_0} H_\omega$ the set $\in H_\omega^0$ is $\|\cdot\|_{H_\omega}$ much H_ω^0 wider than $\|f\|_{H_\omega^0(\Gamma, \mathcal{E})} \leq \|f\|_{H_\omega(\Gamma)}$. the $\|\cdot\|_{H_\omega^0}$ set of $< \mu < 1$ ordinary Hölder functions H_μ

$$\|f\|_{C(\Gamma)} \leq \omega(d) \cdot \|f\|_\omega$$

and therefore

$$\frac{1}{\omega(d)+1} \|f\|_{H_\omega(\Gamma)} \leq \|f\|_{H_\omega^0(\Gamma, \mathcal{E})} \leq \|f\|_{H_\omega(\Gamma)}$$

Definition 3. Let's say that the function $f(t) \in H_\omega^0(\Gamma, \xi)$, if for all $\tau \in \mathcal{E} f(\tau) = 0$.

Let us introduce into $H_\omega^0(\Gamma, \mathcal{E})$ the norm

$$\|f\|_{H_\omega^0(\Gamma, \mathcal{E})} = \sup_{\delta \in (0, d]} \frac{\omega(f, \delta)}{\omega(\delta)} \stackrel{\text{def}}{=} \|f\|_\omega.$$

Let's note. that $H_\omega^0(\Gamma, \xi)$ is also a Banach space.

Let $\alpha: \Gamma \rightarrow \Gamma$ be an N -sheet orientation-preserving non-singular differentiable stretching ($|\alpha'(t)| > 1$) mapping of a simple closed smooth contour Γ onto itself, $N \in \mathbf{N}$, $\alpha'(t) \neq 0$, $t \in \Gamma$, $N \geq 2$. By W we denote the irreversible shift operator acting according to the rule $(Wf)(t) = f(\alpha(t))$, $t \in \Gamma$, through g – operator of multiplication by a generalized Hölder function. We will call the weighted irreversible shift operator $T_\alpha = gW$.

The operator W has a bounded action in $H_\omega(\Gamma)$ and the following estimate holds for its norm:

$$\|W\|_{H_\omega(\Gamma)} \leq \max \left\{ 1, \sup_{t,x \in \Gamma} \frac{\omega(|\alpha(t) - \alpha(x)|)}{\omega(|t-x|)} \right\}.$$

Theorem 1. The spectral radius of the operator T_α in $H_\omega(\Gamma)$, $\omega \in \Phi_0$, is calculated by the formula

$$R_\omega(T_\alpha) = \sup_{k \in \mathbf{N}} \sup_{\tau \in F_k} \left\{ G_k^{\frac{1}{k}}(\tau) \right\},$$

where F_k is the set of fixed points α_k on Γ , α_k k -th mapping iteration α , $G_k^{\frac{1}{k}}(t) = \prod_{j=0}^{k-1} g^{\sim}(\alpha_j(t))$, $g^{\sim}(t) = |g(t)| \cdot \lim_{\delta \rightarrow 0} \frac{\omega(|\alpha(t)| \cdot \delta)}{\omega(\delta)}$

Proof. Let us note that $T_\alpha \in \text{tr}(P_\tau, I - P_\tau)$ in $H_\omega(\Gamma)$, where tr is a lower triangular matrix. P_τ and $I - P_\tau$ are mutually complementary projectors in $H_\omega(\Gamma)$. Spectrum of $P_\tau T_\alpha P_\tau$ in $\text{Im } P_\tau$ consists of a single point $g(\tau)$. Since α – the mapping is stretching, for the spectral radius $R_\omega^0(T_\alpha)$ of the operator T_α in $H_\omega(\Gamma, \tau)$ we have $R_\omega^0(T_\alpha) \geq |g(\tau)|$. This implies the equality being proved, which completes the proof of the theorem.

As a corollary of the theorem we obtain

Consequence. The spectrum of the operator T_α in $H_\omega(\Gamma)$ is a circle centered at the origin of the radius $R_\omega(T_\alpha)$.

Consider a functional operator of the form $K = aI - dW$, where $a, d \in H_\omega(\Gamma)$

The main result of this study is the following theorem.

Theorem 2. The following statements are equivalent:

1. The operator $K = aI - dW$ is invertible in $H_\omega(\Gamma)$, $\omega \in \Phi_0$.
2. For functions a and d performed (i) $a(t) \neq 0$, $t \in \Gamma$; (ii) $R_\omega(T_{a^{-1}d}) < 1$.

Proof. Implication 2) \rightarrow 1) is obvious. Let's prove 1) \rightarrow 2). Let condition (i) be proven. Then, by virtue of Theorem 1, suppose that $R_\omega(T_\alpha) > 1$. The set of invertible operators is open to the uniform topology. Therefore, without loss of generality, we can consider

$g(t) = \frac{d(t)}{a(t)} \neq 0$, $t \in \Gamma$ и $R_\omega(T_\alpha) > 1$. Taking into account (i), if necessary, slightly perturbing the function g , for some point $\tau \in F_k$ we have

$$1) G_k(\tau) \neq 1; 2) G_k^{\frac{1}{k}} > 1.$$

Now we are in the conditions of Theorem 1, which contradicts the invertibility of the operator K . Implication 1) \rightarrow (ii) has been proven. The proof of the implication is similar. Theorem 2 is proven.

Consequence. Let be α – a stretching map of Γ onto itself. $a(t) \neq 0$,

$d(t) \neq 0$, $t \in \Gamma$. The operator K is only left invertible (Φ_0^+ -operator) if and only if $R_\omega(T_\alpha) > 1$. Where $g = \frac{d}{a}$.

Indeed, if condition $R_\omega(T_\alpha) > 1$, then by Theorem 1 K is invertible in $H_\omega(\Gamma)$, $\omega \in \Phi_0$, only from the left. Let now K be only left invertible, but $R_\omega(T_\alpha) > 1$. The set of operators that are only left invertible is open in the uniform topology. Taking into account, $a(t) \neq 0$, if necessary, a slightly perturbing function $g = \frac{d}{a}$ we have $R_\omega(T_\alpha) < 1$.

Then, by Theorem 2, K is a two-way invertible operator, and thus we obtain the statement of the corollary.

Literature

1. Литвинчук Г.С. Краевые задачи и сингулярные интегральные уравнения со сдвигом. М.: Наука. 1977. - 448 с.
2. Карапетянц Н.К., Самко С.К. Об одном новом подходе к исследованию. Сингулярных интегральных операторов со сдвигом. Докл. АН СССР. 1972. Т.202. №2. С.273-276.
3. Карапетянц Н.К., Самко С.Г. Сингулярный интегральный оператор на оси с дробно-линейным сдвигом и нетеровость операторов с инволюцией. Изв. АН Арм. ССР. Сер. Матем. 1972. Т.7. №1. С.68-77.
4. Карапетянц Н.К., Самко С.Г. Сингулярные интегральные операторы со сдвигом Карлемана в случае кусочно-реперывных коэффициентов. Изв. ВУЗов. Сер. мат. 1975. №2. С.43-54.
5. Крупник Н.Я., Няга. Сингулярные интегральные операторы со сдвигом вдоль кусочно-ляпуновского контура. Изв. ВУЗов. Мат. 1975. №6. С.60-72.
6. Латушкин Ю.Д. Об интегро- функциональных операторах с невязимо-однозначным сдвигом. Изв. АН СССР. Сер. мат. 1981. Т.45. №6. С.1241-1257.



GYOLDER FAZOLARIDA KOMPAKT OPERATORLAR

Mamatov Shamsiddin Qarshiyevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dotsenti

E-mail: mamatov_shamsiddin@samduuf.uz +99893 232-42-75

Annotatsiya: Ma'lum Banax fazosida aniqlangan, obrazi yopiq bo'lib, yadrosi va koyadrosi o'lchovlari chekli bo'lgan chiziqli chegaralangan operatorlar sinfi Nyoter operatorlari deb ataladi. Siljishli singulyar integral operatorlarni Nyoter operatori bo'lishlikka tekshirishda ba'zi kommutatorlarni kompaktligi muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada ko'rsatilgan Banax fazosida bitta kommutatorning ma'lum shartlarda kompakt operatori ekanligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Banax fazosi, chegaralangan operator, Nyoter operatori, integral operator, yadro, koyadro.

Annotation: As is known, in some Banach spaces a linear bounded operator U is called Noetherian if the operator U is closed and the defect numbers, that is, the dimension of the kernel and cokernel, are finite. When studying whether singular integral operators with a shift are Noetherian, the compactness of some commutators is important. The article proves the compactness of one commutators in the specified space.

Keywords: Banach space, bounded operator, Noetherian operator, integral operator, defect numbers, kernel, cokernel.

Аннотация: Как известно, в некоторых банаховых пространствах линейный ограниченный оператор U называется нетеровым, если образ оператора U замкнут, а дефектные числа, то есть размерность ядра и коядра, конечны. При исследовании на нетеровость сингулярных интегральных операторов со сдвигом является важной компактностью некоторых коммутаторов. В статье доказывается компактность одного коммутатора в указанном пространстве.

Ключевые слова: Банахово пространство, ограниченный оператор, нетеров оператор, интегральный оператор, дефектные числа, ядро, коядро.

Kirish: Faraz qilaylik Γ -kompleks tekislikda oddiy yopiq, silliq, yo'naltirilgan chiziq bo'lib, uni diametri d bo'lsin. [4] ga ko'ra, Φ orqali $(0, d]$ da aniqlangan, aynan nolga teng bo'lmagan, nomanfiy va

- a) $\omega(\delta)$ -uzluksizlik moduli,
b)
$$\sup_{\delta \in (0, d]} \frac{\delta}{\omega(\delta)} \int_0^d \frac{\omega(t)}{t(t+\delta)} dt < +\infty$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $\omega(\delta)$ funksiyalar sinfini belgilaymiz.

Γ da uzluksiz funksiyalarni xarakteristikasi sifatida

$$\sup_{|t-\tau| \leq \delta} \omega(\varphi, \delta) = |\varphi(t) - \varphi(\tau)|, \delta \in (0, d] \quad (1)$$

uzluksizlik modulini tanlaymiz.

[4] ga ko'ra umumlashgan Gyolder fazolari deb ataluvchi $H_\omega(\Gamma)$, $\omega \in \Phi$ da $aS - SaI$ va $WS - SW$ kommutatorlarni qaraymiz. Bu yerda $a(t) \in H_\omega(\Gamma)$, S - singulyar integral operator bo'lib, u

$$(S\varphi)(t) = \frac{1}{\pi i} \int_\Gamma \frac{\varphi(\tau)}{\tau - t} d\tau, t \in \Gamma \quad (2)$$

tenglik bilan aniqlanadi. W esa bir varaqli bo'lmagan siljish operatori bo'lib, u $(W\varphi)(t) = \varphi(\alpha(t))$ tenglik bilan aniqlanib, $\alpha(t) \in \Gamma$ ni o'ziga akslantiruvchi N ($2 \leq N < \infty$) varaqli akslantirish bo'lib, $\alpha'(t) \neq 0$, $t \in \Gamma$, $\alpha'(t) \in H_\omega(\Gamma)$, $\omega \in \Phi$, ([3] ga qarang). Ta'rif bo'yicha ([4] ga qarang) Γ da aniqlangan $\varphi(t)$ funksiya

$$\sup_{0 < \delta \leq d} \frac{\omega(\varphi, \delta)}{\omega(\delta)} = C_\varphi \leq +\infty \quad (3)$$

shartni qanoatlantirsa, H_ω sinfga qarashli deyiladi. Ma'lumki, agar $\varphi(t) \in H_\omega$ bo'lsa,

$$C_\varphi = \sup_{t, \tau \in \Gamma, t \neq \tau} \frac{|\varphi(t) - \varphi(\tau)|}{\omega(|t - \tau|)} = C_\varphi^* \quad (4)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Xususiyl holda, agar $\omega(\delta) = \delta^\mu$ ($0 < \mu < 1$) bo'lsa, H_ω bizga ma'lum bo'lgan H_μ sinfga aylanadi.

H_ω da normani

$$\|\varphi\|_{H_\omega} = \|\varphi\|_{C(\Gamma)} + \sup_{0 < \delta \leq d} \frac{\omega(\varphi, \delta)}{\omega(\delta)} \quad (5)$$

ko'rinishda belgilasak, H_ω banax fazosidan iborat bo'ladi.

S singulyar va integral operatorning $H_\omega(\Gamma)$ da chegaralanganligi [6] da isbotlangan. Bir varaqli bo'lmagan W siljish operatorining $H_\omega(\Gamma)$ da chegaralanganligi uni quyidagi baholanishidan kelib chiqadi:

$$\begin{aligned} \|W\varphi\|_{H_\omega(\Gamma)} &= \max_{t \in \Gamma} |\varphi[\alpha(t)]| + \sup_{t \neq \tau} \frac{|\varphi[\alpha(t)] - \varphi[\alpha(\tau)]|}{\omega(|t - \tau|)} \leq \\ &\leq \max_{t \in \Gamma} |\varphi(t)| + \sup_{\substack{t, \tau \in \Gamma \\ t \neq \tau}} \frac{|\varphi(t) - \varphi(\tau)|}{\omega(|t - \tau|)} \cdot \sup_{t \neq \tau} \frac{\omega(|\alpha(t) - \alpha(\tau)|)}{\omega(|t - \tau|)} \leq \\ &\leq \max \left\{ 1; \sup_{t \neq \tau} \frac{\omega(|\alpha(t) - \alpha(\tau)|)}{\omega(|t - \tau|)} \right\} \cdot \|\varphi\|_{H_\omega(\Gamma)} \end{aligned}$$

Bu tenglikni hisobga olgan holda,

$\omega(|\alpha(t) - \alpha(\tau)|) \leq \omega(k|t - \tau|) \leq (k+1)\omega(|t - \tau|)$, k - o'zgarmas son. Tengsizlikka ko'ra W siljish operatori normasi uchun

$$\|W\|_{H_\omega(\Gamma)} \leq \max \left\{ 1; \sup_{\substack{\tau, t \in \Gamma \\ t \neq \tau}} \omega \frac{(\alpha(t) - \alpha(\tau))}{\omega(t - \tau)} \right\} \text{ tengsizlikni hosil qilamiz.}$$

V_n orqali Γ ni o'zini o'ziga bir varaqli bo'lmagan $\alpha(t)$, $t \in \Gamma$, akslantirishga o'ngdan teskarilanuvchi bo'lgan $\bar{\alpha}(t) = \langle n, t \rangle$ akslantirish yordamida hosil bo'lgan siljish operatorini belgilaymiz: $(V_n \varphi)(t) = \varphi[\bar{\alpha}(t)] = \varphi(\langle n, t \rangle)$.

Shuni ta'kidlash lozimki, ([3] ga qarang), bir varaqli bo'lmagan siljish operatori W faqat chapdan teskarilanuvchidir. Aniqrog'i $\alpha \Gamma$ ni qoplovchi akslantirish bo'lgani uchun $\frac{1}{N} \sum_{n=1}^N V_n$ operator $H_\omega(\Gamma)$ fazoni o'ziga o'tkazadi va $(\frac{1}{N} \sum_{n=1}^N V_n)W = I$ (I-birlik operator) tenglik bajarilib, W o'lchovi cheksiz bo'lgan koyadroga ega bo'ladi.

Qaralayotgan $H_\omega(\Gamma)$ fazoda $aS - SaI$ kommutatorning kompaktligi [5] maqolada isbotlangan. Bir varaqli bo'lmagan $\alpha(t)$, $t \in \Gamma$ akslantirish yordamida qaralgan siljish operatori W bilan tuzilgan WS-SW kommutatorning kompaktligini isbotlash uchun quyidagi yordamchi tasdiqni qaraymiz. Faraz qilaylik, $z = \sigma(t)$ Γ ni birlik aylanaga o'zaro bir qiymatli akslantiruvchi funksiya bo'lsin. S_Γ va S_T lar mos ravishda $H_\omega(\Gamma)$ va $H_\omega(T)$ fazolardagi singulyar integrallash operatorlari bo'lsin. B bilan $H_\omega(\Gamma)$ fazodan $H_\omega(T)$ fazoga $(B\varphi)(z) = \varphi(\sigma^{-1}(z))$, $\sigma^{-1}(\sigma(t)) = t$, $\sigma'(t) \in H_\omega(\Gamma)$ qoida bilan akslantirish bajaruvchi chiziqli chegalatlangan teskarilanuvchi operatorni belgilaymiz.

Teorema 1. Agar $(T \times T)$ da noldan farqli $\frac{\sigma^{-1}(\xi) - \sigma^{-1}(z)}{\xi - z} \in H_\omega(T \times T)$ berilgan funksiya bo'lsa, S_T uchun quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

$$S_T = BS_T B^{-1} + K \quad (6)$$

Bu yerda K $H_\omega(T)$ fazoda aniqlangan to'la uzluksiz operatoridir.

Isbot. Faraz qilaylik $\psi \in H_\omega(T)$, $\varphi = B^{-1}\psi$ va $K = S_T - BS_T B^{-1}$ bo'lsin. U holda

$$(K\psi)(z) = \frac{1}{\pi i} \int_T \frac{\psi(\xi)}{\xi - z} d\xi - \frac{1}{\pi i} \int_\Gamma \frac{\varphi(\tau)}{\tau - \sigma^{-1}(z)} d\tau \text{ tenglik bajariladi. Ikkinchi integralda } \tau = \sigma^{-1}(\xi) \text{ almashtirish}$$

bajarib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$(K\psi)(z) = \frac{1}{\pi i} \int_T \left(\frac{1}{\xi - z} - \frac{\sigma^{-1}(\xi)}{\sigma^{-1}(\xi) - \sigma^{-1}(z)} \right) \psi(\xi) d\xi \quad (7)$$

$$b(\xi, z) = \frac{\sigma^{-1}(\xi)(\xi - z)}{\sigma^{-1}(\xi) - \sigma^{-1}(z)} \text{ belgilash kiritib (7) tenglikni}$$

$$(K\psi)(z) = \frac{1}{\pi i} \int_T \frac{b(\xi, z)}{\xi - z} \psi(\xi) d\xi \quad (8)$$

ko'rinishga keltiramiz. [2] da (8) ko'rinishdagi operator $H_\omega(T)$ da kompaktligi isbotlangan. Teorema isbot bo'ldi. Endi $H_\omega(\Gamma)$ da WS-SW kommutatorni kompaktligini isbotlaymiz.

Teorema 2. Faraz qilaylik α -oddiy yopiq, silliq Γ chiziqni o'ziga akslantiruvchi N varaqli ($N \geq 2$) siljish funksiyasi bo'lib, $\alpha'(t) \in H_\omega(\Gamma)$ shartlarni qanoatlantirsin va Γ ni yo'nalishini saqlasin. Agar $\alpha \Gamma$ ni yo'nalishini saqlasa, $WS \simeq SW$, agar α yo'nalishini o'zgartirsa, $WS \simeq -SW$ munosabatlar o'rinli bo'ladi. Bu yerda " \simeq " belgi to'la uzluksiz operatorgacha aniqlikdagi tenglikni bildiradi.

Isbot. Faraz qilaylik $\sigma \Gamma$ ni T birlik aylanaga o'tkazuvchi diffeomorfizm, $(\Gamma \times \Gamma)$ da noldan farqli $\frac{\sigma(t) - \sigma(\tau)}{t - \tau} \in H_\omega(\Gamma \times \Gamma)$ funksiya berilgan bo'lsin.

U holda [7] maqolani 1-lemmasiga ko'ra T ni shunday β diffeomorfizmi topilib, $\beta' \in H_\omega(T)$ shartda α akslantirishni $\alpha = \sigma^{-1} \circ \omega_{\pm N} \circ \beta \circ \sigma$, $\omega_{\pm N}(\xi) = t^{\pm N}$, $t \in T$ ko'rinishda tasvirlash mumkin. Bu yerda "+", "-" ishoralar $\alpha \Gamma$ ni yo'nalishini saqlashiga yoki o'zgartirishiga qarab tanlanadi. Osongina ko'rinish mumkin $W_{\omega_{-N}} = W_C \cdot W_{\omega_N}$, $(W_C \varphi)(t) = \varphi(\bar{t})$. \bar{t} ga qo'shma kompleks son. Bunga ko'ra, [1] ni 35-betidagi 3.1. teoremasidan va mazkur maqolani 1-teoremasidan foydalanib, teoremani isbotlash uchun $W_{\omega_N} S \simeq S \cdot W_{\omega_N}$ munosabatni ko'rsatish yetarli.

Haqiqatan ham, faraz qilaylik α yo'nalishini saqlaydigan akslantirish bo'lsin (agar α yo'nalishini o'zgartirsa, fikrlash aynan takrorlanadi). $W_{\omega_N} S_T \simeq S_T \cdot W_{\omega_N}$ tenglik bajarilganda [2] 4-xossasiga ko'ra $S_T W_{\beta^{-1}} \simeq W_{\beta^{-1}} \cdot S_T$ bajarilib,

$$S_T W_{\beta^{-1}} \simeq W_{\beta^{-1} \circ \omega_N^{-1}} \cdot S_T W_{\omega_N} \text{ va } S_T \simeq W_{\beta^{-1} \circ \omega_N^{-1}} \cdot S_T W_{\omega_N \circ \beta}$$

munosabatlar o'rinli bo'ladi. Bundan mazkur maqolaning 1-teoremasiga ko'ra

$$W_\sigma S_T W_{\sigma^{-1}} \simeq W_{\beta^{-1} \circ \omega_N^{-1}} \cdot S_T W_{\omega_N \circ \beta \circ \sigma} W_{\sigma^{-1}} \text{ bo'lib,}$$

$$W_\sigma S_T \simeq W_{\beta^{-1} \circ \omega_N^{-1}} \cdot S_T W_{\omega_N \circ \beta \circ \sigma} \simeq W_{\beta^{-1} \circ \omega_N^{-1}} \cdot W_\sigma S_T W_{\sigma^{-1}} W_{\omega_N \circ \beta \circ \sigma} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow W_{\beta^{-1} \circ \omega_N^{-1} \circ \sigma} \cdot W_{\sigma^{-1} \circ \omega_N \circ \beta \circ \sigma} S_T \simeq W_{\beta^{-1} \circ \omega_N^{-1} \circ \sigma} W_{\sigma^{-1} \circ \omega_N \circ \beta \circ \sigma}$$

$W_{\sigma^{-1} \circ \omega_N \circ \beta \circ \sigma} S_T \simeq S_T W_{\sigma^{-1} \circ \omega_N \circ \beta \circ \sigma} \simeq W_\alpha S_T \simeq S_T W_\alpha$ munosabatni hosil qilamiz. Bunda foydalanilgan $W_{\omega_N} S_T$ kommutatorning kompaktligi isboti [3] maqolaning 7.1. lemmasiga o'xshash bo'lgani uchun keltirilmadi. Teorema isbot bo'ldi.

Shuni ta'kidlaymizki, agar $\omega(\delta) \sim \delta^\mu$, ($0 < \mu < 1$) bo'lsa, oddiy Gyolder fazosi H_μ da silliq chiziqning $\alpha'(t) \in H_\mu$ shartda chekli varaqli endomorfizmi uchun WS - SW kommutatorning kompaktligi [8] maqolaning 1.1. lemmasi va 1-teoremadan kelib chiqadi.

Xulosa.

Siljishli singulyar integral operatorlarni Nyoter operatori bo'lishlik shartlari tekshirilganda, Koshi integrali bilan bog'liq bir kommutatorning umumlashgan Gyolder fazolarida kompaktiligi muhim rol o'ynaydi. Maqolada ma'lum shartlarda qaralayotgan kommutatorning kompakt operatori bo'lishligi isbot qilindi.

Adabiyotlar:

1. Litvinchuk G.S. Chegaraviy masalalar va siljishli integral tenglamalar. – M., 1977.
2. Karlovich Yu.I., Tursunqulov B.M. Umumlashgan Gyolder fazolarida karlemansiz siljishli funksional intrgral operatorlar, 1983., – Qo'lyozma SamDu tomonidan tavsiya etilgan. 1983 yil 20 iyunda OzNIINTI da 89-83 nomer bilan deponent qilingan.
3. Latushkin Yu.D. O'zaro bir qiymatli bo'lmagan siljishli singulyar integral operatorlar nazariyasi. – Nomzodlik dissertatsiyasi. Odessa 1981 y.
4. Guseynov A.I., Muxtorov X.Sh.Chiziqli bo'lmagan singulyar integral tenglamalar nazariyasiga kirish – M., 1980.
5. Tursunqulov B.M. Umumlashgan Gyulder fazosida to'la uzluksiz operatorlar haqida. O'zbekiston Respublikasi FAD, T., 1982, № 12.
6. Salayev V.V. Yopiq chiziq bo'ylab Koshi integrali uchun to'g'ri va teskari baholashlar. Mat.zametki, 1976 y., 19, № 3.
7. Kats B.A. Analitik funksiyalarning ba'zi qo'shmalik masalalari haqida. Sibirskiy mat. Jurnal., T 17., № 6.
8. Dudachova R.B. Og'irlikli funksiyalar Gyolder fazolarida bir argumentli singulyar integral operatorlar algebrasi. Tbilisi matematika instituti ilmiy ishlari. 1973., 43.

UCHBURCHAKKA YONDOSH CHIZILGAN AYLANA.

Mamatov Sh¹., Shodmonov D²., Suyunova S³.

¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali dotsenti E-mail:mamatov shamsiddin@samduuf.uz

²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

³Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

Annatsiya: Maqolada uchburchakka yondosh chizilgan aylana radiusi uchun formula isbot qilinib, u bilan bog'liq turli qiziqarli formulalar hosil qilinadi.

Kalit so'zlar: Uchburchak, aylana, radius yondosh chizilgan.

Аннотация: В статье доказана формула радиуса окружности, вневписанный к треугольнику, и созданы различные интересные формулы, связанные с ней.

Ключевые слова: Треугольник, круг, радиус, нарисованные рядом.

Annotation: In the state, the proven formula of the radius of the circle, outside of the triangle, and different interest formulas were created, which are related to each other.

Key words: Triangle, circle, radius, drawn line.

Agar uchburchak tomonlarini davom ettirsak, u holda uchburchakning har bir tomoni qolgan tomonlari davomi bilan bir shakl hosil qilinadi. Shu shakilga ichki chizilgan aylana uchburchakka yondosh chizilgan aylana deyiladi.

“Математика в школе” jurnalining 1987-yil 5-sonida Batumilik matematik M.G. Goxidzening “Stereometriya masalalarida yondosh chizilgan aylanalar” nomli maqolasi keltirilib, unda S, P, a lar berilgan uchburchakning mos ravishda

yuzi, yarim perimetri va tomonining uzunligi bo'lsa, uzunligi a ga teng tomonga yondosh chizilgan aylana radiusi

$$r_a = \frac{S}{P - a} \quad (1)$$


formula bilan hisoblanish trigonometrik yo'l bilan ko'rsatilgan edi. Shu muallifning “Математика в школе” jurnalining 1990 yil 2-sonida “Yondosh chizilgan aylana mavzusiga doir” maqolasida bir nechta qiziqarli masalalar mashq sifatida berilib isbotlanishi talab etilgan formulalar keltirilgan edi.


Ushbu maqolada (1) formula isbotining uchburchaklar o'xshashligi va trapetsiyaga ichki chizilgan aylana bilan bog'liq xossalarga tayangan ko'rinishi va yuqoridagi oxirgi maqoladagi formulalar isboti keltiriladi.

Teorema. ABC uchburchakning uzunligi a ga teng tomoniga yondosh chizilgan aylana radiusi (1) formula bilan hisoblanadi. Bunda S-ABC uchburchak yuzi, p- yarim perimetr.

A BA=c, AC=b, DB=x, FC=y, DF=z,

c b





Isbot. Chizmada L-BC tomonga yondosh chizilgan aylana, r_a -uning radiusi, $AB=c$, $AC=b$, $BC=a$, $BD=x$, $CF=y$, $DF=z$ bo'lsin. Uchburchak ABC va uchburchak ADF larning o'xshashligi, L aylanaga tashqi chizilgan BDFC trapetsiya xossasiga binoani quyidagi tengliklarga ega bo'lamiz:

$$\frac{a}{z} = \frac{c}{c+x} = \frac{b}{b+y}; \quad x+y = a+z.$$

Bu tengliklarning birinchichidan quyidagi uch noma'limli uchta chiziqli tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} -ay + bz = ab \\ bx - cy = 0 \\ -ax + cz = ac \end{cases} \quad (2)$$

$x+y=a+z$ tenglikdan $x=a+z-y$ tenglikni hosil qilib, (2) tenglamalar sistemasida x o'zgaruvchini $a+z-y$ bilan almashtirib,

$$\begin{cases} ay + (c-a) = a(a+c) \\ -ay + bz = ab \\ -b(b+c)y + bz = -ab^2 \end{cases} \quad (3)$$

Tenglamalar sistemasini hosil qilamiz. Bu tenglamalar sistemasini x , y , z ga nisbatan yechib,

$$x = \frac{ac}{p-a}; \quad y = \frac{ab}{p-a}; \quad z = \frac{ap}{p-a};$$

larni hosil qilamiz.

Geron formulasini isboti:

$$h^2 + x^2 = b^2$$

$$h^2 + (a-x)^2 = c^2$$

tepadan pasni ayiramiz:

$$x^2 - (a-x)^2 = b^2 - c^2$$

$$(x-a+x)(x+a-x) = b^2 - c^2$$

$$(2x-a)a = b^2 - c^2$$

$$2ax = a^2 + b^2 - c^2$$

$$x = \frac{a^2 + b^2 - c^2}{2a}$$

$$h^2 = (b-x)(b+x) = \left(b - \frac{a^2 + b^2 - c^2}{2a}\right) \left(b + \frac{a^2 + b^2 - c^2}{2a}\right) =$$

$$= \frac{c^2 - (a-b)^2}{2a} \frac{(a+b)^2 - c^2}{2a} = \frac{(c-a+b)(c+a-b)}{4a^2} \frac{(a+b+c)(a+b-c)}{4a^2} =$$

$$= \frac{(b+c+a-2a)(a+b+c-2b)(a+b+c-2c)P}{4a^2} =$$

$$\frac{P(P-2a)(P-2b)(P-2c)}{4a^2}$$

$$S = \frac{ah}{2} \sqrt{(P-2a)(P-2b)(P-2c)P} = \frac{\sqrt{(P-2a)(P-2b)(P-2c)P}}{2a} =$$

$$\sqrt{\left(\frac{P-2a}{2}\right) \left(\frac{P-2b}{2}\right) \left(\frac{P-2c}{2}\right) \left(\frac{P}{2}\right)} = \sqrt{P(P-a)(P-b)(P-c)}$$

ADF uchburchak yarim perimetrini P_0 bilan belgilab, uni hisoblaymiz;

$$P_0 = \frac{c+x+b+y+z}{2} = \frac{p^2}{p-a}$$

Geron formulasidan foydalanib, ADF uchburchak yuzini hisoblaymiz:

$$S_{ADF} = \sqrt{\frac{p^2}{p-a} \left(\frac{p^2}{p-a} - \frac{ap}{p-a}\right) \left(\frac{p^2}{p-a} - \frac{bp}{p-a}\right) \left(\frac{p^2}{p-a} - \frac{cp}{p-a}\right)} =$$

$$= \frac{p}{(p-a)^2} \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)p^2} = \frac{p^2 * s}{(p-a)^2}$$

U holda izlanayotgan radius uzunligi

$$r_a = \frac{2S_{ADF}}{x+y+z+b+c} = \frac{S_{ADF}}{p_0} = \frac{p^2+s}{(p-a)^2}; \frac{p^2}{p-a} = \frac{S}{p-a} \text{ ya'ni } r_a = \frac{S}{p-a} \text{ ekanligini}$$

topamiz. Teorema isbot bo'ldi.

Isbotlangan teoremani natijalari sifatida bir nechta ajoyib tengliklarni isotlaymiz.

Agar r , R -ABC uchburchakka ichki, tashqi chizilgan aylanalarning radiuslari r_a, r_b, r_c – yondosh chizilgan aylana radiuslarining radiuslari, P -ABC uchburchakni yarim perimetri S esa uning yuzi bo'lsa,

$$r_a + r_b + r_c = 4R + r \quad (4)$$

$$r_a r_b + r_a r_c + r_b r_c = P^2 \quad (5)$$

$$r_a r_b r_c = PS \quad (6)$$

tengliklarning bog'liqligini ko'rsating (4) tenglikni isbotlaymiz:

$$r_a + r_b + r_c = \frac{S}{p-a} + \frac{S}{p-b} + \frac{S}{p-c} = S \left(\frac{[(p-b)(p-c)+(p-a)(p-c)+(p-a)(p-b)]p}{S^2} \right) = \frac{p(ab+ac+bc-p^2)}{S} \text{ tenglikka ega bo'lamiz.}$$

$$R = \frac{abc}{4S}, \quad r = \frac{S}{p} \text{ formulalardan foydalanib,}$$

$$4R+r = \frac{4abc}{4S} + \frac{S}{p} = \frac{abc}{\sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}} + \frac{\sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}}{p} = \frac{p(ab+ac+bc-p^2)}{S} =$$

$$= r_a + r_b + r_c, \text{ ya'ni}$$

(4) tenglikni hosil qilamiz.

(5) tenglikni isbotlaymiz:

$$r_a r_b + r_a r_c + r_b r_c = S^2 \frac{p-c+p-b+p-a}{(p-a)(p-b)(p-c)} = S^2 \frac{P^2}{S^2} = P^2;$$

(6) tenglikni isbotlaymiz:

$$r_a r_b r_c = \frac{S^3 P}{(p-a)(p-b)(p-c)P} = \frac{S^3 P}{S^2} = SP.$$

Ma'lumki, a_1, a_2, \dots, a_n manfiy bo'lmagan n ta sonlarning o'рта garmonigi

$$H = \frac{1}{\frac{1}{a_1} + \frac{1}{a_2} + \dots + \frac{1}{a_n}} \text{ ga teng.}$$

Teorema. Shu uchburchakka ichki chizilgan aylanalarning o'рта garmonigiki uchdan bir qismiga tengdir.

Teoremani isbotini $\frac{1}{\frac{1}{r_a} + \frac{1}{r_b} + \frac{1}{r_c}}$ ifodani aynani shakl almashtirib, (5), (6)

tengliklardan foydalanib, hosil qilamiz:

$$r = \frac{1}{3 \left(\frac{1}{r_a} + \frac{1}{r_b} + \frac{1}{r_c} \right)};$$

Bu teoremadan

$$\frac{1}{r} = \frac{1}{r_a} + \frac{1}{r_b} + \frac{1}{r_c} \text{ tenglikni hosil qilamiz.}$$

Yuqoridagi formulalardan quyidagi qiziq tenglikni hosil qilamiz:

$$r r_a r_b r_c = \frac{S}{p} \frac{S}{p-a} \frac{S}{p-b} \frac{S}{p-c} = \frac{S^4}{S^2} = S^2$$

$$\text{ya'ni } r r_a r_b r_c = S^2$$

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Математика в школе" 1987г № 5
2. "Математика в школе" 1990 г № 2

BOG'DORCHILIK SOHASIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMLARI

Maxmudov J. E.

Samarqand Davlat Universiteti Urgut Filiali dotsenti Tell:+998 94 889 97 77

Annotatsiya: Maqolada, bog'dorchilik sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanligi, iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi haqida so'z boradi. Davlat tomonidan sarmoyalarni rag'batlantirish, moliyaviy va qonunchilik bazasini mustahkamlash, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish esa yangi sarmoyalarni jalb qilishga zamin bo'lishi haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, eksport, sarmoya, xorijiy, mexanizm, modernizatsiya, farovonligi.

Abstract: The article mentions that attracting foreign investments in the field of horticulture is one of the important components of the national economy and serves economic growth. Recommendations were given that the state would encourage investments, strengthen the financial and legal base, introduce innovative technologies and expand export opportunities, and create a favorable environment for foreign investors to attract new investments.

Key words: investment, export, investment, foreign, mechanism, modernization, prosperity.

Аннотация: В статье отмечается, что привлечение иностранных инвестиций в сферу садоводства является одной из важных составляющих национальной экономики и служит экономическому росту. Были даны рекомендации, что государство будет стимулировать инвестиции, укреплять финансово-правовую базу, внедрять инновационные технологии и расширять экспортные возможности, а также создавать благоприятную среду для иностранных инвесторов для привлечения новых инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, экспорт, инвестиции, зарубежные, механизм, модернизация, процветание.

Kirish

Bog'dorchilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini band qilish va iqtisodiy o'sish omili sifatida katta ahamiyatga ega. Rivojlanayotgan davlatlar bog'dorchilik sohasini modernizatsiya qilish, mahsulot sifatini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy qilishga intilmoqda. Bu jarayonlarda xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola bog'dorchilikda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun qo'llaniladigan samarali mexanizmlarni tahlil qiladi.

Jumladan, "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi prezident farmoni [qabul qilindi](#). 2024-yil 23-sentyabr kuni prezident raisligida o'tkazilgan yig'ilishda kambag'al oilalarga dehqonchilik va bog'dorchilik uchun 50 ming gektar yer ajratish chora-tadbirlari ko'rib chiqilgan. Qishloq xo'jaligi vazirligi va hokimliklarga yana qo'shimcha 50 ming gektar yer topish, ular negizida **200 ming oilani daromadli qilib, kambag'allikdan chiqarish bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish** [topshirilgan](#). Albatta bu masalada aholifarovonligi va kambag'allikni qisqartirishga yechim sifatida bog'dorchilikka e'tabor qaratilgan

O'zbekistonda bog'dorchilik sohasi qishloq xo'jaligining muhim segmentlaridan biri bo'lib, mamlakatning tabiiy-iqlim sharoitlari meva-sabzavot mahsulotlarini ko'paytirish uchun juda mos keladi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati bog'dorchilikni rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun bir qator islohotlar o'tkazdi, jumladan, xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar amalga oshirildi

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi asosiy yo'nalishlar va mexanizmlar muvaffaqiyatli bo'lib chiqmoqda:

1. Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) va erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) – O'zbekiston bog'dorchilik uchun xorijiy investorlar uchun qulay soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan bojxona tartibotlari bilan ta'minlangan EIZ va MIZlarni tashkil etmoqda. Ushbu hududlarda investorlar uchun infrastrukturaviy qulayliklar yaratilgan, bu esa xorijiy kompaniyalarning faoliyatini osonlashtiradi.

2. Texnologiyalarni uzatish va innovatsion kooperatsiyalar – O'zbekiston xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilib, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni soha rivojiga jalb qilishga intilmoqda. Xorijiy sarmoyadorlar bilan amalga oshirilayotgan qo'shma korxonalar yangi texnologiyalarni kiritish va mahsulot sifatini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va kredit tizimi – Hozirgi paytda O'zbekiston hukumati xalqaro moliyaviy institutlar va tijorat banklari bilan birgalikda qishloq xo'jaligiga, jumladan, bog'dorchilikka ajratilayotgan kredit liniyalarini kengaytirmoqda. Xorijiy investorlar ushbu mablag'lardan foydalanish orqali sohada o'z bizneslarini rivojlantirishi mumkin.

4. Marketing va eksport yo'nalishlarini rivojlantirish – O'zbekistonning eksport salohiyati xorijiy sarmoyadorlar uchun jozibador bo'lib, O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlariga xalqaro bozorlarda talab yuqori. Xususan, Yevropa va Yaqin Sharq bozorlari O'zbekistondan mahsulot eksportini kengaytirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

Shu jihatdan, O'zbekiston bog'dorchilik sohasini xorijiy sarmoyalar orqali rivojlantirish uchun qulay muhit yaratmoqda. Bu esa xorijiy sarmoyadorlar uchun iqtisodiy jihatdan istiqbolli bo'lishi bilan birga, mamlakatda texnologik taraqqiyot va sifatli mahsulot yetishtirishni rag'batlantiradi. Maqolada ushbu yo'nalishlar bo'yicha batafsil tahlil va amaliy tavsiyalar berilishi mumkin.

1. Davlat Qo'llab-quvvatlashi va Qonuniy Asoslar

Xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda davlatning faol ishtiroki juda muhimdir. Birinchi navbatda, bu soliq imtiyozlari va yengilliklari orqali amalga oshiriladi. Soliqlarni kamaytirish xorijiy investorlar uchun jalb qiluvchi faktor bo'lib, bu sarmoyadorlarga uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni kafolatlaydi. Bundan tashqari, davlat tomonidan yer uchastkalariga imtiyozli kirish ta'minlanishi bog'dorchilik sohasiga sarmoya kiritishni qo'llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi.

Qonunchilikda sarmoyadorlar huquqlarining himoya qilinishi va ruxsatnomalar berish jarayonining shaffofligi xorijiy sarmoyadorlar ishonchini oshiradi.

2. Moliyaviy Mexanizmlar

Xorijiy investorlar uchun eng muhim jihatlardan biri moliyaviy xavfsizlik va qo'llab-quvvatlashdir. Davlat va xususiy sheriklik (PPP) loyihalari davlat resurslari bilan xususiy sektor sarmoyalarni birlashtirgan holda, xavflarni kamaytirishga va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy tashkilotlar

tomonidan beriladigan grantlar va kreditlar ham keng miqyosli bog'dorchilik loyihalarini moliyalashtirishda katta ahamiyatga ega. Investitsiyalar uchun garov kafolatlari taqdim etilishi, xorijiy sarmoyadorlar uchun tavakkalchiliklarni minimallashtirib, ularni jalb qilishda qo'shimcha rag'bat yaratadi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy xavfsizlik va qo'llab-quvvatlash eng muhim omillardan biridir. Har qanday investor, ayniqsa, xorijiy sarmoyador, o'z kapitalini xavfsiz va samarali joylashtirishga intiladi. Shu sababli, davlat va xususiy sektorlar o'rtasidagi hamkorlik, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ishtiroki va investitsiyalar uchun kafolat mexanizmlari katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, investorlarning tavakkalchiliklarini kamaytiradi va tarmoqqa bo'lgan ishonchni oshiradi. Keling, ushbu mexanizmlarni batafsil tahlil qilamiz.

Davlat va Xususiy Sheriklik (PPP) Loyihalari

Davlat va xususiy sheriklik (Public-Private Partnership, PPP) moliyaviy jihatdan barqaror bog'dorchilik loyihalarini amalga oshirishda samarali mexanizmdir. Bu sheriklik davlat va xususiy sektor o'rtasida resurslarni birlashtirish orqali yirik loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Davlat resurslari, masalan, yer, infratuzilma va tartibga solish yengilliklari kabi omillarni taqdim etishi mumkin, xususiy sektor esa texnologiyalar, investitsiyalar va boshqaruv tajribasini qo'shadi.

PPP mexanizmi xorijiy sarmoyadorlar uchun bir nechta afzalliklarga ega:

1. Xavflarni kamaytirish: Xususiy sektor odatda sarmoyalar bilan bog'liq moliyaviy va operatsion xavflarni o'z zimmasiga oladi, davlat esa siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu, xorijiy investorlar uchun xavflarni minimallashtiradi va moliyaviy barqarorlikni oshiradi.

2. Resurslardan samarali foydalanish: Xususiy kompaniyalar texnologiyalar va ilg'or boshqaruv usullarini joriy qilish orqali resurslardan samarali foydalanishga erishadilar, bu esa bog'dorchilikning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Uzun muddatli loyihalar: Davlat tomonidan kafolatlangan uzoq muddatli infratuzilma loyihalari, xorijiy investorlar uchun qiziqarli bo'ladi, chunki bunday loyihalar investitsiyalarni uzoq muddat davomida qaytarish imkonini beradi. Xususan, bog'dorchilik sohasida sug'orish tizimlarini yaratish yoki modernizatsiya qilish, saqlash omborlari qurish kabilar PPP loyihalari doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro Moliyaviy Tashkilotlar Ishtiroki

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, masalan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) yoki Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) kabi muassasalar, bog'dorchilikda yirik loyihalarni moliyalashtirish uchun samarali moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi manbalar hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdan tashqari, bog'dorchilik tarmog'ida institutsional islohotlarni amalga oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun texnik yordam ko'rsatadi.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar orqali jalb qilinadigan mablag'lar quyidagi ko'rinishlarda taqdim etiladi:

1. Grantlar: Bog'dorchilik sohasida texnologiyalarni yangilash yoki ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun xalqaro grantlar berilishi mumkin. Bu grantlar, odatda, rivojlanayotgan davlatlar uchun mo'ljallangan bo'lib, sohani modernizatsiya qilishga katta turtki beradi. Innovatsion sug'orish texnologiyalarini kiritish, seleksiya jarayonlarini optimallashtirish kabi yo'nalishlarda grantlar katta qo'llab-quvvatlash bo'ladi.

2. Preferensial kreditlar: Xalqaro moliyaviy tashkilotlar orqali past foizli kreditlar olish bog'dorchilikka xorijiy sarmoyalarni jalb qilishning yana bir yo'li hisoblanadi. Ushbu kreditlar uzoq muddatli bo'lib, investorlar uchun moliyaviy bosimni kamaytiradi va loyihalarning amalga oshirilishini moliyaviy jihatdan barqaror qiladi.

3. Texnik yordam: Grant va kreditlardan tashqari, xalqaro moliyaviy institutlar texnik yordam va maslahat xizmatlarini ham taqdim etadilar. Bu orqali bog'dorchilik loyihalarini boshqarish, rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha xorijiy investorlar bilim va tajriba oladilar.

Investitsiyalar uchun Garov Kafolatlari

Xorijiy investorlar uchun eng katta xavotir – bu investitsiyalarni yo'qotish xavfi. Shu sababli, investitsiyalar uchun garov kafolatlari mexanizmi katta ahamiyatga ega. Bu mexanizm orqali xorijiy sarmoyadorlar o'z investitsiyalarini tavakkalchilikdan himoya qila oladilar. Bunday kafolatlar davlat yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilishi mumkin. Ushbu kafolatlar investorlar uchun quyidagi jihatlar bo'yicha qo'shimcha ishonchni ta'minlaydi:

1. Xavfsizlikni oshirish: Garov kafolatlari investorlarning xavfsizlik darajasini oshiradi, bu esa ularning bog'dorchilik kabi yuqori tavakkalchilikka ega tarmoqqa kirishiga rag'bat beradi. Kafolatlar odatda sarmoyaning bir qismi davlat yoki xalqaro sug'urta fondi tomonidan qoplanishini nazarda tutadi.

2. Sug'urta tizimlari: Sug'urta mexanizmi orqali xorijiy investorlar o'z sarmoyalarni siyosiy tavakkalchiliklar, infratuzilma xavflari yoki texnologik nosozliklar kabi omillardan himoya qilishi mumkin. Bu sug'urta polislarining mavjudligi xorijiy kompaniyalar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ular tavakkal darajasini sezilarli darajada kamaytiradi.

3. Barqaror moliyaviy infratuzilma: Investitsiya kafolatlari orqali milliy iqtisodiyotda barqaror moliyaviy infratuzilma yaratiladi. Investorlar uchun bu xavflarni kamaytiradi va ular o'zlarini moliyaviy jihatdan himoyalangan his qiladilar.

Moliyaviy xavfsizlik va qo'llab-quvvatlash xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omillardan biridir. Davlat va xususiy sheriklik loyihalari xavflarni taqsimlash va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ishtiroki esa moliyaviy qo'llab-quvvatlashning keng doirasi orqali bog'dorchilik loyihalarini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Investitsiyalar uchun garov kafolatlari esa tavakkalchiliklarni

kamaytirib, xorijiy investorlar uchun qulay moliyaviy muhit yaratadi. Ushbu mexanizmlar bog'dorchilik sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

3. Texnologiyalar va Innovatsiyalarni Jalb Qilish

Bog'dorchilikda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Sun'iy sug'orish tizimlari yoki seleksiya texnologiyalari kabi innovatsion yechimlar meva va sabzavotlarning sifati va hajmini oshiradi, bu esa xorijiy sarmoyadorlar uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi mumkin. Innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun grantlar va subsidiyalar xorijiy kompaniyalarning ilg'or texnologiyalarini bog'dorchilikda qo'llashga rag'batlantiradi.

4. Logistika va Eksport Infratuzilmasini Rivojlantirish

Xorijiy sarmoyadorlar uchun eng jozibali imkoniyatlardan biri - eksport bozorlariga kirishdir. Logistika infratuzilmasining rivojlantirilishi bog'dorchilik mahsulotlarini xalqaro bozorlarga eksport qilishni osonlashtiradi. Tashqi bozorlarga oson va tezkor kirish xorijiy sarmoyadorlar uchun foydali bo'lishi bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish dasturlari xorijiy bozorlar uchun mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

5. Malakali Kadrlar Tayyorlash

Xorijiy sarmoyadorlar nafaqat infratuzilma va texnologiyalarga, balki malakali ishchi kuchiga ham katta ahamiyat beradilar. Ta'lim va trening dasturlari orqali bog'dorchilik sohasida yangi bilimlarga ega mutaxassislar tayyorlanishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun mutaxassislarning mavjudligi investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Bog'dorchilik sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan sarmoyalarni rag'batlantirish, moliyaviy va qonunchilik bazasini mustahkamlash, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratadi. Ushbu mexanizmlar bog'dorchilik sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlab, global raqobatbardoshlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. **Abdullayeva, D.** (2021). *O'zbekiston bog'dorchilik soasida investitsiya strategiyalari*. Tashkent: O'zbekiston iqtisodiyoti.
6. **Jabborov, E.** (2020). *Xorijiy investitsiyalar va ularning O'zbekistondagi ahamiyati*. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
7. **Mamatqulov, A.** (2022). *Bog'dorchilik va agroinvestitsiyalar: muammolar va echimlar*. Tashkent: O'zbekiston qishloq xo'jaligi instituti.
8. **Tashkent, R.** (2023). *Investitsion muhit va bog'dorchilik sohasida xorijiy investorlar uchun imkoniyatlar*. Tashkent: O'zbekiston ilmiy-tadqiqot instituti.
- Rasulov, S.** (2019). *Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari va ularning agroindustriya rivojiga ta'siri*. Tashkent: O'zbekiston davlat universiteti



SMART MATERIALLARNI SINTEZ QILISH VA ULARNING XOSSALARINI O'RGANISH

¹Muxamadiyev N.Q., ¹Muxamadiyev A.N., ¹Uzoqov J.R., ^{1,2}Qosimov S.E., ¹Zufarov A.M.,
¹Raxmonova M.O., ¹Ulug'boyeva G.O.

¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

E-mail: m_nurali@mail.ru

Kirish. Smart materiallar (yoki aqlli materiallar) zamonaviy texnologiyalar va fan sohalarida juda katta qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu materiallar tashqi muhitning turli omillariga javoban o'z xususiyatlarini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lib, ularning turli sohalarida qo'llanilishi dolzarbligi quyidagi sabablar bilan bog'liq:

Smart materiallar yangi avlod texnik qurilmalarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular robototexnika, sensorlar, nanotexnologiyalar va mikroelektronikada keng qo'llanilib, sanoatda innovatsion yechimlarni taklif qiladi. Smart materiallar yordamida yuqori samaradorlikka ega texnologiyalar yaratish imkoni paydo bo'ldi.

Bu materiallarning dori vositalarini boshqarilgan tarzda yetkazib berishda, biologik to'qimalarni shifolashda va implantatlar yaratishda qo'llanilishi tibbiyotda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Umumiy sog'liqni saqlash tizimi va biomeditsina sohasida Smart materiallar inson hayoti sifati va davolash usullarini yaxshilashda muhim rol o'ynamoqda.

Smart materiallar energiyani samarali foydalanish va saqlash texnologiyalarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, fotoxrom va termosezgir materiallar quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda, bu esa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Barqarorlik tamoyillari asosida ishlab chiqariladigan Smart materiallar chiqindilarni kamaytirish, energiya sarfini optimallashtirish va tabiatga zarar yetkazmasdan samarali ishlab chiqarishga yordam beradi. Yashil ximiya asosida sintez qilingan Smart materiallar ekologiya uchun xavfsiz va energiya tejavchi bo'ladi.

Nanotexnologiyalarning taraqqiyoti bilan birga, Smart materiallar atom darajasidagi tuzilishlarni boshqarish va yangi funksional xususiyatlarga ega nanomateriallar yaratish imkonini beradi. Bu esa kelajakda yangi avlod nanoqurilmalar va molekular mashinalarni yaratishga yo'l ochadi. Shu sabablarga ko'ra, Smart materiallarning sintezi va ularning xususiyatlarini o'rganish mavzusi nafaqat ilmiy, balki sanoat, ekologik va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb bo'lib, kelgusida ko'plab yangi imkoniyatlar va innovatsion yechimlarni taqdim etishi mumkin.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Smart materiallarning sintez qilish usullarini ishlab chiqish va ularning fiziko-kimyoviy xususiyatlarini chuqur o'rganishdir.

Materiallar va tadqiqot usullari: xotiraga ega polimerlar, termoplastiklar va nanostrukturali polimerlar; nanozarrachalar (masalan, ZnO, TiO₂, Fe₃O₄) va Smart metallar (masalan, nikel, titan, platina); flavonoidlar, saponinlar va boshqa tabiiy yoki sun'iy moddalar; kvarts, kremniy oksidi kabi qo'shimcha materiallar; spirtlar, atseton, tetraoksiddkremniy; organik kislotalar va asoslar.

Sintez usullari: Zol-Gel usuli; gidrotermik sintez; ximiyaviy cho'ktirish; elektroximiyaviy sintez.

Fizik va kimyoviy tadqiqot usullari: Rentgen difraksiya tahlili (XRD); infraqizil spektroskopiya (IK); atom kuch mikroskopiyasi (AFM); elektron mikroskopiya (SEM, TEM); elektroximiyaviy tadqiqotlar.

Bu materiallar va tadqiqot usullari orqali Smart materiallarning sintezi va xususiyatlari bo'yicha kompleks tahlil olib borilib, ularning qo'llanish sohasini kengaytirish uchun zamin yaratiladi.



Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqot jarayonida fotoxrom, termochuvstvitel, pezelektrik va xotiraga ega polimerlar kabi turli Smart materiallar muvaffaqiyatli sintez qilindi. Sol-gel va gidrotermal usullar materiallarning yuqori darajadagi tozaligi va yaxlitligiga erishishga yordam berdi. Elektroximiyaviy sintez usuli esa pezelektrik materiallarning yuqori samaradorligini ta'minladi.

Rentgen difraksiya tahlili natijasida sintez qilingan materiallarning kristallik fazalari aniqlandi. Aniqlangan fazalar Smart materiallarning asosiy tarkibiy elementlari va ularning fazaviy o'tishlari haqida ma'lumot berdi. Sintez qilingan materiallardagi kristall tuzilmalarning barqarorligi va ularning tashqi ta'sirlar natijasida o'zgarishlari muhokama qilindi.

Infraqizil spektroskopiya orqali materiallarning molekular tuzilishi va ularning kimyoviy bog'lanishlari tahlil qilindi. Natijalar, ayniqsa, fotoxrom materiallarda nurlanish ta'siridagi struktura o'zgarishlarini ko'rsatdi. Bu o'zgarishlar materiallarning yorug'likka sezgirligini va ularning optik xususiyatlarini yaxshilashga imkon berdi.

Atom kuch mikroskopiyasi (AFM) va skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) orqali materiallarning mikrotuzilishini o'rganish natijalari ularning yuza topografiyasini va mayda tuzilishlarini aniq ko'rsatdi. Pezelektrik materiallardagi to'g'ri joylashgan nanoqurilmalar ularning yuqori samaradorligini ta'minladi. Polimerlar va nanomateriallar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar materiallar yuzasida yuqori adgeziyaga erishishni ta'minladi.

Elektroximiyaviy tahlillar sintez qilingan Smart materiallarning elektr toki va kuchlanishga javobini o'rganishda muvaffaqiyatli qo'llanildi. Pezelektrik materiallarda yuqori elektr sezgirlik va energiyani yuqori samaradorlikda elektr energiyasiga aylantirish qobiliyati kuzatildi.

Olingan natijalar Smart materiallar sintez qilishning turli usullari va ularning xususiyatlarini muvaffaqiyatli o'rganish imkonini berdi. Har bir tadqiqot usuli o'z samaradorligi va imkoniyatlari bilan ajralib turdi, bu esa turli sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan materiallar yaratishga imkon berdi. Masalan, fotoxrom materiallar optik qurilmalarda qo'llanilishi mumkin bo'lsa, pezelektrik materiallar sensorlar va energiya aylantiruvchi qurilmalarda keng qo'llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqotlar natijasida sintez qilingan materiallar ekologiya va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladi, bu ularning kelajakdagi sanoat qo'llanilishini yanada kengaytirishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari Smart materiallar sintez qilishning yangi imkoniyatlarini ochdi, va ularning fizik, ximik va mexanik xususiyatlarini to'liqroq tushunishga imkon berdi. Bu materiallar kelajakdagi innovatsion texnologiyalar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARIDAGI POLISEMANTIK MUNOSABAT HAQIDA

Nabiyeva R. J.

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti,

rushana.nabiyeva@internet.ru

Tel: +998 90 617 12 20

Annottatsiya Maqolada oziq-ovqat mahsulotlari nomlari o'rtasidagi polisemantik munosabat haqida fikr bildirilgan bo'lib, misollar asosida izohlab berilgan. Polisemantik munosabatga kirishayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining ayrimlari tavsiflangan.

Kalit so'zlar: polisemantik munosabat, leksik-semantik guruh, semantik aloqa, energetik, kakao, kokteyl.

Аннотация В статье рассматривается полисемантическая связь между названиями пищевых продуктов и поясняется на примерах. Описаны некоторые пищевые продукты, входящие в многозначные отношения.

Ключевые слова: многозначное отношение, лексико-семантическая группа, смысловая связь, энергия, какао, коктейль.

Abstract The article expresses an opinion about the polysemantic relationship between the names of food products and explains it based on examples. Some of the food products entering the polysemantic relationship are described.

Key words: polysemantic relation, lexical-semantic group, semantic connection, energy, cocoa, cocktail.

Ma'lumki, leksik-semantik munosabatlar orasida keng tarqalgan munosabatlardan biri polisemantik munosabat bo'lib, ushbu hodisa o'zbek tili oziq-ovqat nomlarida ham ko'plab topiladi. M.Mirtojiyev, N.Mahmudov [1] ko'p ma'nolilik so'zning obyektiv olamdagi rang-barang narsalarni anglatish boyligi, imkoniyati ekanligini ta'kidlab, bu hodisa, albatta, polisemantik so'z tarkibida kelgan gap bilan bog'liqligi, shu so'z imkoniyatlariga ko'ra saylanishi va turli so'zlar bilan aloqaga kirishishi haqida fikr bildirishgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari mavzuviy guruhlaridan o'rin olayotgan o'zlashmalar jonli tilda faollashib ko'p ma'nolilik hosil qilishga ham ulgurdi. Masalan, kosmetik vosita nomi **"pomada"** o'zlashmasi fransuzcha *pommade* < *pomme* – *olma* ma'nosini anglatib, dastlab ushbu malham tayyorlangan olma mevasiga ishora qiladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "turli xushbo'y moddalar aralashmasidan tayyorlangan kosmetik vosita, surtma, malham" [3] deb ta'rif berilgan. "Pomada" o'zlashmasining ma'nosi kengayib, qandolatchilik sohasida ham ishlatila boshlandi, *pomada* qaynatilgan shakar siropi bo'lib, asosan, tort mahsulotlarini bezashda ishlatiladi. Pomadaga sut mahsulotlari qo'shib *sherbet* va *toffi* (*iris*) mahsulotlari tayyorlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan joy olgan yana bir o'zlashma **"energetik"** [2] so'zi (yunoncha *"energia"* – harakat, faoliyat) "Energetikaga oid; turli ko'rinishdagi energiya ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan" deb izohlanadi. Bugungi kunda alkogolsiz ichimliklar guruhiga kiruvchi "energetik" ichimliklari ham paydo bo'lib, ular iste'mol qiluvchini tetiklantiruvchi, aqliy va jismoniy rag'batlatiruvchi kofein miqdori yuqori bo'lgan ichimliklar sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi qarori [7]da **energetik ichimliklar** – tarkibida 150 mg/l dan ortiq kofein va (yoki) inson organizmiga tetiklashtiruvchi ta'sir ko'rsatish uchun yetarli miqdorda boshqa tarkibiy qismlar mavjud ichimliklar deya ta'rif berilgan.

Fransuz tilidan o'zlashgan **"rulet"** (*roulette* – g'ildirakcha, *rolik* < *rouler* – g'ildiratmoq, dumalatmoq; o'ramoq, o'rab yig'ishtirib qo'yimoq) o'zlashmasi ham polisemantik so'z bo'lib, **"xamir va shirinlikni navbatma-navbat bir necha qavat qilib pishirilgan o'rama pirog"**, **"tilimlab maydalangan go'sht va mol yoki qo'y qornini ustma-ust qo'yib o'rab, yo'g'on qazi shaklida pishirilgan yaxna ovqat"** [4] ma'nolarida qo'llanadi.

Ispancha **"kakao"** o'zlashmasi ham ko'p ma'noli so'z bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "1.Urug'idan shokolad tayyorlanadigan doim yashil tropik daraxt; 2.Shu daraxtning urug'i va undan maxsus tayyorlangan kukun; 3.Shunday kukundan qo'shib tayyorlangan ichimlik" [2] deb ta'riflanadi.

Inglizcha **"kokteyl"** (*"coctail"* – xo'rozning dumi) o'zlashmasi ham polisemantik tabiatga ega. Kokteyl leksemasi "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "spirtli ichimliklarning (konyak, rom va b.) ba'zan qand, meva va turli ziravorlar qo'shib tayyorlanadigan, sovutilgan aralashmasi; meva sharbati, sut va shu kabilarga shakar, rezavor va boshqalar qo'shib tayyorlanadigan alkogolsiz ichimlik [2] deb izohlangan. A.Shxumishxova [8]"kokteyl" o'zlashmasi lug'aviy ma'nosi bilan unga berilgan belgisi etimologik ma'nosidan tamoman uzoqlashganligini ta'kidlab, hozirgi vaqtda **"har qanday aralashma"** ma'nosida qo'llanayotganini keltirib o'tadi.

Fransuz tilidan o'zlashgan **"karamel"** (*"caramel"* < lot. *canna mellis* – shakarqamish) o'zlashmasi ham polisemantik bo'lib, **"konfetning shakar va qiyomdan, xushbo'y hidli va rang beruvchi modda qo'shib**

tayyorlanadigan qattiq bir turi”, “qandolat mahsulotlarini rangdor qilish uchun ishlatiladigan qovurilgan shakar” [2] ma’nolarida qo‘llanadi.

O‘zlashma oziq-ovqat nomlari kabi o‘z qatlamga mansub oziq-ovqat mahsulotlari nomlarida ham ko‘p ma’nilik munosabati talaygina. Masalan, “yorma” – 1.oq‘lab to‘yilgan butun don, oqlangan g‘alla mahsuloti; 2.Shunday mahsulotdan tayyorlangan ovqat [6] ma’nosida qo‘llanadi. “Masalliq” – 1.Umuman biror taom, yegulik tayyorlash uchun ishlatiladigan narsa; 2. Ovqat tayyorlash uchun zarur bo‘lgan, kerakli bo‘lgan mahsulot [3] ma’nolarida ishlatiladi. Shuningdek, ushbu so‘z bilan birgalikda, bugungi kunda jonli tilda lotincha “ingredient” o‘zlashmasi ham qo‘llanmoqda. “Tolqon” – qovurilgan don, quritilgan non va hu kabilardan tuyib tayyorlangan yemish; 2. Umuman tuyilgan har qanday narsa [5] ma’nolarini bildirib keladi. “Tolqon” leksemasi o‘rnida rus tilidan o‘zlashgan “poroshok” o‘zlashmasi ham jonli tilda ancha faol qo‘llanayotganini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili oziq-ovqat mahsulotlari nomlari orasida leksik-semantik munosabatlar ancha taraqqiy etgan bo‘lib, bu ayniqsa o‘zlashma nomlar orasida ham bo‘y ko‘rsatmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari leksik-semantik guruhining semantik aloqalarini belgilab borish, o‘zlashma nomlar semasidagi ma’no torayishi va kengayishi kabi hodisalarni aniqlash kelajakda assotsiativ va ideografik lug‘atlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Миртожиев, Н.Махмудов. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 40.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. II jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2023.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. V jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022. – B. 330.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2023. – B. 235-236.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2020 йил 2 июндаги 0707-сонли “Алкоголсиз ичимликларнинг хавфсизлиги тўғрисидаги умумий техник регламентни тасдиqlаш ҳақида”ги қарори. // www.lex.uz
8. Шхумишхова А.Р. Номинации понятийной сферы «пища»: Структурно-семантический и функциональный аспекты: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Майкоп: 2011. – С 16.



GRIPP VIRUSI

Qodirova Go‘zal D.¹, Eshquvvatova D.L.²

^{1,2} Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali talabasi

Annottatsiya: Ushbu maqolada gripp virusining hayvonlar va insonlar hayotidagi roli, fiziologik jarayonlarning borishiga ta’siri hamda ularning tarqalishi, ko‘payishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье приведены общие сведения о роли вируса гриппа в жизни животных и людей, его влиянии на течение физиологических процессов и увеличении его распространения.

Abstract; The article provides general information about the role of the influenza virus in the life of animals and people, its influence on the course of physiological processes, and the increase in its spread.

Kalit so‘zlar: Viruslar, hayotning hujayrasiz shakli, RNK li virus, DNK li virus, Gripp virusi, A gripp virusi, A1 gripp virusi, A2 gripp virusi, B gripp virusi, C gripp virusi.

Ключевые слова: Вирусы, Неклеточная форма жизни, РНК-вирус, ДНК-вирус, Вирус гриппа, Вирус гриппа А, Вирус гриппа А1, Вирус гриппа А2, Вирус гриппа Б, Вирус гриппа С.

Key words: Viruses, a non-cellular form of life, RNA virus, DNA virus, influenza virus, influenza A virus, influenza A1 virus, influenza A2 virus, influenza B virus, influenza C virus.

Viruslar-tirik materiyaning hujayrasiz shakildagi mavjudodi bo‘lib odam, hayvon, o‘simlik, bakteriyalarni zararlovchi turlarga bulinadi. Viruslarni virusologiya bo‘limi urganadi. “Virus” tushunchasi birinchi marta golland M.Beyerink (1898) va nemis genetigi E.Baur (1904) ishlarida uchraydi. Viruslar

bo‘limiga misol qilib gripp viruslarini keltirishimiz mumkin. Gripp virusining A, A1, A2, B, va C turlari mavjud. Gripp virusi tasnifini tuzish ancha murakkab, chunki ular antegin tuzilishini vaqti-vaqti bilan o‘zgartirib turadi. Gripp virusi ham boshqa viruslar kabi hujayrin hujayrasiga kirishi, hujayraga ta’siri va ko‘payishi bir nechta bosqichda boradi.

1-bosqich: Viruslarda bulgan retseptorlar yordamida hujayra devoriga yopishadi.

2-bosqich: Virusning hujayra ichiga kirishi bir nechta usulda kechadi ba’zi viruslar hujayra devorini teshish orqali ba’zilar esa surilish yuli bilan hujayra ichiga kirib oladi.

3-bosqich: Virusning dezintegratsiya –ko‘payishi uchun virus uzining tashqi pardasi va kapsididan halos bulishi lozim. Dezintegratsiya hodisasi 1 yoki 2 bosqichda amalga oshadi.

4-bosqich: Virusning reproduksiyasi-ko‘payishi. Virusning ko‘payishi uchun ho‘jayin hujayrasining DNK yoki RNK si sarf buladi.

5-bosqich: Yangi virusning yaratilishi yani kapsomerlar virusning nuklein kislotasi atrofida teriladi, bu jarayon odatda ho'jayin hujayrasining sitoplazmasida amalga oshadi.

6-bosqich: Virusning tashqi muhitda chiqishi. Bu jarayon virionning hujayra devoridan yoki virus hosil qilgan teshik orqali tashqariga chiqadi.

Morfologiyasi: Gripp viruslari yumaloq yoki tuxum shaklida bo'lib, o'lchami 80-120 nm. Virusning tashqi glikoprotit qobig'ida gemoglyutenin, neyraminidaza va tikansimon o'simtalar bor. Ularning o'lchami 10nm, nukleokapsid spiral simmetriya ko'rinishida bo'lib, ribonukleoprotein (RNP) zanjiridan iborat juft spiral holatda joylashgan.

Antegenligi: Gripp viruslari odam, tovuq, dengiz cho'chqasi va boshqa 30 dan ortiq turdagi hayvonlarning eritrotsitlari bilan aglutinatsiya reaksiyasini beradi.

Chidamliligi: Gripp viruslari sovuq muhitda tirik saqlanib qoladi. Past haroratda, ayniqsa havo harorati 0°C past bo'lganda virus uzoq saqlanadi. Ammo qizdirilganda, tik tushadigan quyosh nuri, dezinfektsiyalovchi moddalar ta'sirida tezda nobud bo'ladi; ishqor va nordon muhitlarga ham ta'sirchan. Gletserenda 3 oy davomida faolligini yo'qotmaydi.

Kasallikning odamlarda patogenezi va klenikasi: Infeksiya manbai bemor, u aksirganda, yutalganda, gaplashganida virus zarrachalarini sulak tomchilari bilan atrof- muhitga tarqaladi. Gripp nihoyatda yuqumli shu sababli epidemiya va pandemiyaga shaklida tarqaladi. Aholining barcha tabaqalari (bolalar va keksalar) bu kasallikka moyil. Kasallikning yashirin davri juda qisqa-bir necha soatda 1-3 kungacha. Gripp virusi yuqori nafas yo'llari shilliq qavatlaridagi epiteriyal hujayralarga kiradi. Yuqori nafas yo'llari hujayralariga bir dona virus zarrachasi tushsa, 8 soatdan keyin gacha ko'payadi. Organizmda virusemiyaga kuzatiladi. Gripp virusi 10¹⁸ qonga tushgach gemopoiz va immune tizimi susayadi, natijada lekopeniya, bakteriyal va verusli ikkilamchi infeksiyalar: reinit, yiringli sinusit, otit, branxit, zotiljam rivojlanishi mumkin. Kasallik klinikasida tana haroratining oshishi (38-39°C ba'zan undan ham yo'qori), xolsizlik, et uvishishi, bosh og'rishi kabi belgilar kuzatiladi. Gripp virusi bilan zararlangan o'pka alveolalari o'rnida biriktiruvchi to'qima (chandiq) hosil bo'ladi. Bu yerda esa kislorod almashinuvi sodir bo'lmaydi, o'pkaning shu qismi zararlanadi.

Immunitet: Immunitet virusning tip va shtamblariga xos bo'lib, gripp virusining A-tipi 1-2 yil, B-tipi 3-5 yil, C-tipi esa odam umrining oxirigacha yetadi. Kasallikdan so'ng hosil bo'ladigan maxsus kuchli immunitet organizmni bir necha yilga himoya qiladi. Kasallikdan so'ng yuqori nafas yullari shilliq qavatida sekretor antetillalar (SiGa) hosil bo'ladi. Chaqaloqlarda onalardan o'tgan IgG lar ham bo'ladi. Bu immunitet ularni 6-8 oy davomida gripp viruslaridan himoya qiladi.

Davosi va profilaktikasi: Bemorni davolashda organizmda virusning ko'payishi va intoksikasiyani kamaytirish choralari ko'riladi. Kasallikning boshlanishida bemorga grippga qarshi immunomodilin, interferon beriladi. Kimyoviy moddalardan remantadin yaxshi natija beradi, ammo u faqat A turdagi gripp virusining rivojlanishini tuxtatadi. Kasallik og'ir kechganda ikkilamchi infeksiyalarning oldini olish uchun antibiotiklar yoki sulfanilamide preparatlar qo'llaniladi. Profilaktika maqsadida bemor alohida xonaga yotqiziladi, xonada vaqti-vaqti bilan shamollatib dezinfeksiya qiluvchi moddalar bilan artib turiladi. Chaqaloqlar va homilador ayollar (ayniqsa homiladorlikning birinchi yarmida) bemorlar bilan muloqotda bo'lmasliklari lozim. Grippning maxsus profilaktikasi uchun tirik va o'ldirilgan vaksinalar qo'llaniladi. Shaxsiy profilaktika uchun interferon, antegrippin, oksalin malhami kabi preparatlardan foydalaniladi. Bundan tashqari gripp viruslarini davolash uchun xalq tabobatida piyoz, limon, zanjabil, na'matak, anor, karabash o'ti va boshqa vositalar qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Э. Кодиров. Одам анатомияси. Тошкент 2003 й.
2. D.A.Mamatqulov., "Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari". "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati". 2017 y.
3. A.I.Radjabov, Y.X.Siddiqova. "Yosh fiziologiyasi va gigiyena" SamDU nashriyoti. Samarqand 2024.
4. Rajamurodov Z.T., Rajabov A.L. "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" T.: Tib. Kitob. 2010 y.

HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI ASOSIDA 7-SINFDA FIZIKANI O'QITISH METODIKASI

Rahmonova Xurshida G'aybullayevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Urgut Filiali Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida

Telefon: +99893-728-11-28

E-mail: rahmonovaxurshida13@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola "Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida 7-sinfda fizikani o'qitish metodikasi" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda 7-sinf fizika darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan va interfaol metodlardan foydalanish asosida samaradorligi oshishini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit soʻzlar: Hamkorlikda oʻqitish, Interfaol metod, oʻzaro hamkorlik, FSMU (fikir, sabab, maqsad, umumlashtirish), Bosim, birliklar.

Аннотация: Данная статья посвящена теме «Методика преподавания физики в 7 классе на основе технологии кооперативного обучения», в которой предпринята попытка выявить повышение эффективности на основе использования технологии кооперативного обучения и интерактивных методов. на уроках физики в 7 классе.

Ключевые слова: Кооперативное обучение, Интерактивный метод, взаимное сотрудничество, ФГМУ (идея, причина, цель, обобщение), Давление, единицы.

Abstract: This article is devoted to the topic "Methodology of teaching physics in the 7th grade based on the technology of cooperative education", in which an attempt was made to reveal the increase in effectiveness based on the use of cooperative teaching technology and interactive methods in the 7th grade physics classes.

Key words: Cooperative teaching, Interactive method, mutual cooperation, FSMU (idea, reason, purpose, generalization), Pressure, units.

Ta'lim sohasidagi islohatlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sohasini isloh qilishni avvalambor boshlangʻich ta'limdan boshlash zarur edi. Vaholanki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlangʻich sinflarda eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qoʻyilishi lozim [1].

Ta'lim tizimidagi, oʻquv tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan bosqichma-bosqich hal etish yoʻllari va vositalari Vazirlar Mahkamasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda belgilab berilgan. Ta'limning samaradorligini oshirishda yuksak imkoniyatlarga ega boʻlgan vositalardan biri sifatida ta'limning faol usullari qaralyapti. Ta'lim-tarbiya jarayoniga ilgʻor pedagogik texnologiyalar tushunchasining kirib kelishi va ana shu texnologiyalarning keng qoʻllanilishi hozirgi zamon talabidir.

Shuni taʼkidlash lozimki, ta'lim tizimini yangilash vazifalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni jadal kiritish, sinfda, darsdan tashqarida oʻquv tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda oʻquvchilarning faolligini oshirishga erishish orqaligina bajarish mumkin.

Umumta'lim maktablarida interfaol usullarni qoʻllash, ta'lim sifati va samaradorligini koʻtarish, takomillashtirilgan standart va modernizatsiya qilingan dasturlarni oʻzlashtirishni kafolatlash, oʻquvchilarni faollikka, erkin fikr yuritishga oʻrgatish, oʻz nuqtai nazarini himoya qilishga erishtirish uchun oʻqituvchi faoliyatini innovatsion asosda qayta koʻrib chiqish, interfaol ta'limni yoʻlga qoʻyish dolzarb boʻlib qolmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini oʻquv jarayonida qoʻllashga boʻlgan qiziqish, eʼtibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday boʻlishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha anʼanaviy ta'limda oʻquvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga oʻrgatilgan boʻlsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini oʻzlari qidirib topishlariga, mustaqil oʻrganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham oʻzlari keltirib chiqarishlariga oʻrgatadi. Oʻqituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yoʻnaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida oʻquvchi asosiy figuraga aylanadi.

Interfaol usullarni qoʻllash natijasida oʻquvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, oʻz fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sogʻlom mulqot, munozara, bahs olib borish koʻnikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Ta'limning barcha bosqichlarida fizika fanini oʻqitish tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning samarali mehnatini qoʻllab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining koʻlamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda [2]

Hamkorlikda oʻqitish texnologiyasi asosida oʻqitishda Oʻquvchilarga berilgan oʻquv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir oʻquvchi topshiriqning maʼlum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir oʻquvchi oʻzi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, oʻrtoqlarini oʻqitadi, soʻngra guruh aʼzolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. Oʻqituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. Oʻquvchilarning kichik guruhlardagi oʻquv faoliyati oʻyin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Oʻqituvchi va oʻquvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy eʼtibor oʻzaro munosabatning rivojlanishini oʻrganishga qaratiladi, oʻqitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

Oʻzaro hamkorlikning muhim omili va oʻquvchilarning oʻzaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos oʻqituvchi bilan oʻquvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi oʻquv faoliyati oʻqituvchi va oʻquvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u oʻzlashtirish obʼektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni taʼminlaydi.

Oʻquvchilarning faolligi asta-sekin oʻsib borib, butunlay ularning oʻzi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; oʻqituvchi bilan oʻquvchi oʻrtasidagi munosabatda esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega boʻladi.

Hamkorlikda oʻqitishda guruh aʼzolari oʻquv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir oʻquvchi mavzudan koʻzda tutilgan bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirishga eʼtiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud va bu metodlarni aniq mavzular kesimida qarab chiqish, unga doir bo'lgan tushunchalardan aniq foydalanishni ko'rsatib beradi. Shu sababli, biz "Bosim va uning birliklari" mavzusiga tatbiq etgan holda ko'rib chiqamiz

"Bosim" deb ataladigan fizik kattalik haqida tushuncha berish; bosimning texnikada, turmushda va boshqa sohalarda ishlatilishini o'rgatish; o'quvchilarda mavzuga oid bilimlar hosil qilish;

tabiat hodisalari va fizik hodisalarni bir-biridan farqlay oladi. Bosimga oid ma'lumotlarni tushunadi va tushuntira oladi.

Darsga kerakli jihozlar: Shpris, pichoq, qaychi, knopka, ombur, ploskogubsi, igna, angushvona. Brusok, Qo'lda yasalgan asbob: qumli idish va 4 tomoniga mixlar qoqilgan taxtacha. Kompyuter. CD disk. Doska, bo'r. Masala va savollar yozilgan kartochkalar.

Yo'naltiruvchi savollar va topshiriqlar. (Topshiriqni bajarish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.)

O'quvchilar guruhlariga bo'linib, har bir guruhga topshiriqlar beriladi.

1 guruhga. Tajribani o'tkazing va izohlang. (qo'lda yasalgan asbob bilan)

1. Topshiriq: Mixning uchli tomoni bilan taxtachani qumga sekingina qo'ying. Uning qumga botish darajasini kuzating.

2. Topshiriq: Mixning bosh qismi (aylanasi) bilan taxtachani qumga sekingina qo'ying. Uning qumga botish darajasini kuzating.

Savol. Qaysi holatda mixli taxtacha qumga ko'proq botdi. Sababini tushuntirishga harakat qiling.

2 guruhga. Sizga taqdim etilgan anjomlar nima sababdan uchli qilib yasalgan? Buni tushuntirishga harakat qiling.

3 guruhga. – Og'ir yuk ko'taradigan mashinalarning balonlari, yengil mashinalarnikiga nisbatan enliroq bo'ladi. (Hatto orqa tomonida 2tdan balon qo'yiladi)

Qalin qorda yurganda botkangiz bilan botib ketasiz, lekin oyog'ingizga chang'i bog'lasangiz botmaysiz.

Ko'p qavatli binolarning poydevori keng qilib quriladi. Bularning sababini izohlashga harakat qiling.

4 guruhga. Tajriba o'tkazing. Siz ikki oyoq bilan polga ta'sir qilyapsiz. Endi bir oyog'ingizni ko'taring. Ta'sir kuchingiz o'zgaradimi? Kamayadimi yoki oshadimi? Fikringizni izohlashga harakat qiling.

O'qituvchining mini ma'ruzasi. Yangi mavzu yuzasidan qo'shimchalar qiladi.

Bosim mavzusiga quyidagi maqollarni bog'lash mumkin:

1. Tikanning zahri yomon, Zolimning qahri yomon.

2. Ari chaqadi deb arazlama, boli bor.

3. Bigizni qonorga yashirib bo'lmas.

4. Sababsiz oyoqqa tikan kirmas.

Adabiy tahlili: Agar bigizni ehtiyotsizlik qilib qonorga qoldirsak va qachondir unga yuk solib ko'tarsak, yoki tikanni bosib olsak, biz tan jarohati olib, azob chekamiz.

Fizikaviy tahlili: Bigizning, ari nishining, tikan uchining sirt yuzasi kichik bo'lgani uchun bosim katta bo'ladi. Bosim katta bo'lganligi uchun odam tanasiga osongina Bosim" mavzusini FSMU usuli bilan quyidagicha mustahkamlaymiz.

Fikr: Yuza birligiga ta'sir etuvchi kuch.

Sabab: Yuza birligiga kuchning ta'siri natijasida paydo bo'ladi.

Misol: Binolarni qurish vaqtida bosimni kamaytirish uchun poydevor keng qilinadi. Bosimni oshirish uchun esa anjomlar uchli qilib yasaladi. Masalan: Pichoq, qaychi, ombur, arra, randa..... va hokazo.

Umumlashtirish: Yuza birligiga ta'sir etuvchi kuch.

Yuza birligiga kuchning ta'siri natijasida paydo bo'ladi.

Binolarni qurish vaqtida bosimni kamaytirish uchun poydevor keng qilinadi. Bosimni oshirish uchun esa anjomlar uchli qilib yasaladi. Masalan: Pichoq, qaychi, ombur, arra, randa..... va hokazo.

Baholash. Har bir o'quvchining olgan bali va guruh bali umumlashtiriladi. O'quvchining olgan bali o'ziniki, guruh bali bilan guruhlarning o'zni aniqlanadi va shu guruhga rag'batlantirish maqsadida har bir guruh a'zosiga 1 ball dan qo'shiladi.

7-sinf fizika darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalangan holda darslarni tashkil etish bo'yicha nazariy ma'lumotlar tayyorlandi. Bu maqolada o'z bilim, ko'nikma va malakalarini yanada oshirishga yordam beradi. Chunki, vazifani bajarishda misol va masalalarni yechishda hamkorlik texnologiyasidan foydalanib yaxshi natijalarga erishishi mumkinligi berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak- "Ma'naviyat", 2017y.

2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'ZRQ-637-son 2020-yil 23-sentabr

3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent; Nizomiy nomidagi TDPU, 2003y, 174 b.

4. K. Suyarov, J. Usarov, Z. Sangirova, Y. Ravshanov, N. Buranova 7-sinf fizika darslik. –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.-192 b.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA YANGI METODIK YONDASHUVLAR: 5E MODEL

Rahmonova X.G'.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Urgut Filiali Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası. Telefon: +99893-728-11-28

E-mail: rahmonovaxurshida13@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola fizika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan biri bo'lgan 5E modeli asosida darslarni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. 5E modeli — bu o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, ularning qiziqishini uyg'otish va chuqurroq o'zlashtirishni maqsad qilgan konstruktiv yondashuvdir. Hujjatda 5E modelining besh asosiy bosqichi — Qiziqtirish, Izlanish, Tushuntirish, Chuqurlashtirish va Baholash batafsil tavsiflanadi. Har bir bosqichda o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlash uchun qanday metodikalar va usullar qo'llanilishi mumkinligi haqida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim faoliyatini tashkil etish, 5E modeli, Qiziqtirish, Izlanish, Tushuntirish, Chuqurlashtirish va Baholash, 4K metodikasi (Kuzatish, Qo'llash, Tahlil qilish va Yaratish).

Аннотация: В данной статье содержатся методические указания по организации уроков на основе модели 5Э, которая является одним из современных подходов к преподаванию физики. Модель 5E – это конструктивный подход, целью которого является активизация процесса обучения учащихся, пробуждение их интереса и углубление мастерства. В документе подробно описаны пять основных этапов модели 5E – Интерес, Исследование, Объяснение, Разработка и Оценка. На каждом этапе даются рекомендации, какие методы и методики можно использовать для обеспечения активного участия обучающихся в образовательном процессе..

Ключевые слова: Организация образовательной деятельности, модель 5Э, Интерес, Исследование, Объяснение, Углубление и Оценка, Методика 4К (Наблюдение, Применение, Анализ и Создание).

Abstract: This article contains methodological instructions for organizing lessons based on the 5E model, which is one of the modern approaches to teaching physics. The 5E model is a constructive approach that aims to activate the learning process of students, arouse their interest and deepen their mastery. The document describes in detail the five main stages of the 5E model - Interest, Exploration, Explanation, Elaboration and Evaluation. At each stage, there are recommendations on what methods and methods can be used to ensure the active participation of students in the educational process.

Keywords: Organization of educational activities, 5E model, Interest, Research, Explanation, Deepening and Evaluation, 4K methodology (Observation, Application, Analysis and Creation).

Bugungi kunda ta'lim tizimi tezkor rivojlanish bosqichida bo'lib, o'quvchilarning bilim olish jarayonida faolligini oshirish uchun yangi metodik yondashuvlar zarurdir. Fizika fanini o'qitishda 5E modeli zamonaviy va samarali metodlardan biri bo'lib, bu model o'quvchilarni faollashtiradi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi.

5E Modelining Tavsifi

5E modeli — bu konstruktiv yondashuv asosida qurilgan pedagogik model bo'lib, beshta asosiy bosqichdan iborat: Engage (Qiziqtirish), Explore (Izlanish), Explain (Tushuntirish), Elaborate (Chuqurlashtirish) va Evaluate (Baholash).

1. **Engage (Qiziqtirish):** Ushbu bosqichda o'quvchilarning darsga qiziqishini uyg'otish va avvalgi bilimlarini faollashtirish maqsad qilingan. Bu bosqichda o'qituvchi savollar, muammoli vaziyatlar, vizual materiallar yoki qiziqarli tajribalar yordamida o'quvchilarni dars mavzusiga jalb qiladi.

2. **Explore (Izlanish):** O'quvchilar mustaqil yoki guruh bo'lib ishlaydilar. Bu bosqichda ular tajriba o'tkazish, kuzatish yoki materiallar bilan ishlash orqali yangi bilimlarni o'zlari kashf qiladilar.

3. **Explain (Tushuntirish):** Ushbu bosqichda o'quvchilar o'z kashfiyotlarini tushuntiradilar va o'qituvchi bilan birgalikda ularni umumlashtiradilar. O'qituvchi bu bosqichda yangi tushunchalarni aniqlashtiradi va bilimlarni rasmiylashtiradi.

4. **Elaborate (Chuqurlashtirish):** Bu bosqichda o'quvchilar o'z bilimlarini kengaytiradilar va chuqurlashtiradilar. Amaliy mashqlar, loyihalar yoki qo'shimcha tajribalar yordamida bilimlarini yanada mustahkamlaydilar.

5. **Evaluate (Baholash):** O'quvchilar o'z bilimlarini baholaydilar. Bu bosqichda o'quvchilarning mavzuni qanchalik o'zlashtirganligi aniqlanadi. O'qituvchi turli xil baholash vositalari yordamida ularning muvaffaqiyat darajasini tekshiradi.

5E Modeli Asosida Fizika Darslarini Tashkil Etish

Fizika fanini o'qitishda 5E modeli o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirish, chuqur bilim olish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda samarali. Quyida ushbu modelning har bir bosqichida qanday yondashuvlar qo'llanilishi mumkinligi bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Fizikani o'qitishda quyidagi yondashuvlar va usullar qo'llanilishi mumkin: masalan, tajribalar, muammoli savollar, laboratoriya ishlarini tashkil etish va hokazo.

Metodlar va asosan 4K metodikasini qo'llanilishi.

Massa va massa birliklari mavzusini o'rganishda 4K metodikasi (Kuzatish, Qo'llash, Tahlil qilish va Yaratish) asosida metodik qo'llanma tayyorlash uchun quyidagi tuzilmani qo'llash mumkin [8]:

A. Kuzatish (1K)

• **Faoliyat:** O'quvchilar massani va massa birliklarini ko'rgazmali vositalar yordamida kuzatadilar. Masalan, turli og'irlikdagi buyumlarni kuzatish, ularning vaznini sezish [2].

• **Mashq:** Turli xil og'irlikdagi predmetlarni (mevalar, toshlar, qum to'ldirilgan idishlar) olib kelish va ularni ko'zdan kechirish. O'quvchilar buyumlarning massasini ko'rsatkichsiz baholaydilar.

B. Qo'llash (2K)

• **Faoliyat:** O'quvchilar massani o'lchashda qo'llaniladigan asboblardan bilan tanishadilar va ularni qo'llashni o'rganadilar (masalan, tarozi, metr tizimi bilan ishlash).

• **Mashq:** Oddiy tarozi yordamida buyumlarning massalarini o'lchash amaliyoti. O'quvchilar buyumlarning o'lchangan massasini yozib oladilar va ularni qiyoslaydilar.

C. Tahlil qilish (3K)

• **Faoliyat:** O'quvchilar olingan natijalarni tahlil qiladilar. Nega turli xil predmetlar turli massaga ega ekanini tushuntiradilar, o'lchov birliklarini solishtiradilar.

• **Mashq:** O'quvchilar o'zlari o'lchagan massalarni tahlil qilib, qaysi birliklarda o'lchanganini aniqlaydilar. Ular "Kilogramm", "gramm", "tonna" birliklarini farqlash va hisoblashni o'rganadilar.

D. Yaratish (4K)

• **Faoliyat:** O'quvchilar massa va massa birliklari mavzusida ijodiy topshiriqlarni bajaradilar. Masalan, massani o'lchash bilan bog'liq vaziyatlarni yaratadilar yoki o'zlari yangi topshiriqlarni ishlab chiqadilar.

• **Mashq:** Har bir o'quvchi yoki guruh o'z massasi o'lchanadigan yangi bir o'yin yoki usulni yaratadi va uni sinfda namoyish qiladi. Bu orqali massa tushunchasini chuqurroq o'rganish va uning ahamiyatini tushunish maqsad qilinadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur metodik tavsiyada taqdim etilgan 5E modeli asosidagi yondashuvlar fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga va ulardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. 5E modeli o'quvchilarni faollashtirish, ularning ilmiy izlanishlarga qiziqishini oshirish va mustaqil o'rganishga undash orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Maqoladagi har bir bosqich o'quvchilarning yangi bilimlarni qabul qilish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etishga yo'naltirilgan. Qiziqtirish bosqichidan boshlab, o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishi uyg'otilib, izlanish va tushuntirish bosqichlarida o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Chuqurlashtirish bosqichida esa ular o'zlarini kengroq rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Baholash bosqichi o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismoilov M., Xabibullayev P., Xaliulin M. "Fizika kursi". Toshkent, O'zbekiston, 2000.
2. Habibullayev I.P., A. Boydedayev, A. Bahromov, M. Yo'ldosheva -Fizikadan umumta'lim maktablari uchun darslik. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2010. 160 bet.
3. Mamadazimov M. Umumiy astronomiya (darslik)- T.: "Yangi asr avlodi", 2008.
4. Perelman Ya.I. Qiziqarli astronomiya – T.: "O'qituvchi", 2011.
5. G.I. Sayfullayeva , S.X. Mirzaqandova, N.T. Namozova —Maktab yoshidagi bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish va uning ahamiyatini
6. G.I. Sayfullayeva S.X. Mirzaqandova, N.T. Namozova Fizik va astronomik kechalar №DGU 52252 30.05.2021.
7. G.I.Sayfullayeva, Sh.B. Ochilov Fizika o'qitish jarayonida o'quvchilarning fizik tafakkurini rivojlantirish Professor-o'qituvchilar va talabalarining XXVIII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Navoiy. May.
8. G.I. Sayfullayeva, Sh.O. Toshpo'latova Fizika o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish usullari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to'plami. Buxoro 2016.
9. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi

QO'YLARNING FIZIOLOGIK KO'RSATGICHLARIGA Cu MIKROELEMENTINING TA'SIRI.

Rajabov A.I.¹, Aminjonov Sh.A.¹, Siddiqova Yu.², Usmonova M.F. ¹, Urazova S.E. ¹, Odilova N. ¹

¹ Samarqand Davlat universiteti

² Samarqand Davlat universiteti Urgut filiali

Аннотация. Микроэлементное питание растений играет важную роль в формировании органов, участвуя в различных обменных процессах. Изучение микроэлементного состава почвы в агроэкологических условиях способствует повышению качества и урожайности растений.

Место проведения опытов и методика исследований.

Ключевые слова: Почва, микроэлементы, растений, гумус, карбонатность, pH, Mn, Fe, Co, Ni, Cu, Zn

Реюме: Olib borilgan tekshiriilardan ma'lum buldiki Urgut tumanining buz tuproklarida gumus mikdori normadan kamligi, tuprok eritmasida kuchsiz ishsoriy reaksiya sodir bulishi, tuprok tarkibida bor elementining xarakatchan shakli marganets, temir, kobalt, nikel, mis, rux kamligi va litiy, molibden, selen kupligi, xamda kam xarakatchan mikroelementlar tuprokning yukori katlamiga tuplanishi yoritilgan.

Kalit so'z: tuproq, mikroelement, o'simlik, gumus, karbonat, pH, Mn, Fe, Co, Ni, Si, Zn

Resume: In this work it was shown that serozium soil of Urgut region has low humus contents carbonates, low aleality and soil acidity. It was also shown low availability of Bo, Mn, Fe, Co, Ni, Cu, Zn and higher availability of Li, Mo and Se. Lack of the trace elements are concentrated at surface horizons of soil and come uniform by ploughing.

O'zbekiston Respublikasining "Naslchilik to'g'risidagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-apreldagi № 842 son "Shaxsiy yordamchi va fermer xo'jaliklari chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 16-martdagi PQ-2841-son "Chorvachilikda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi va 2018-yil 3-martdagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3693 sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqoladagi ma'lumotlar ma'lum darajada xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan chorva mollarning mikroelementlarga bo'lgan ehtiyoji biogeokimyoviy muhitga, mollarning turiga, yoshiga, mahsuldorligi, fiziologik holatiga (homiladorlik davri, sut davri), yil fasliga hamda yem hashak tarkibidagi mikroelementlardan foydalanish darjasiga bog'liq.

Mikroelementlar almashinuvi bilan bog'liq muammolarni yechishda ularning biologik ahamiyatiga qarab, ferment, gormon va vitaminlarning miqdorini aniqlash alohida ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida mikroelementlarning tarqalishi bilan bog'liq biogeokimyoviy vohalar mavjudligi [M.A.Rish] mikroelementlar miqdorini va ular bilan bog'liq biologik aktiv moddalarni aniqlashda tuproq, o'simlik va suv tarkibida mikroelementlar ko'p uchraydigan va mikroelementlar kam uchraydigan va sho'r hisoblangan vohalarni hisobga olish alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Bizga ma'lumki, hamma sut emizuvchi hayvonlarda mis almashinuvini idora etuvchi asosiy organ jigar hisoblanadi. Ichak orqali so'rilgan mis qon bilan bu organga yetib kelib, bu yerdagi fiziologik-biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etadi. Bu element to'qima, hujayralargacha tashiladi, u yerdagi biokimyoviy jarayonlarda ham ishtirok etib. nihoyat qon orqali yana tashilib tashqariga chiqariladi. Qabul qilingan mis fermentlar tarkibiga kirib, o'ziga xos markazlarda shu organ uchun muhim bo'lgan reaksiyalarda qatnashadi.

Mikroelementlarning yetishmasligi yoki ortiqchaligi natijasida paydo bo'ladigan kasalliklar hamma chorva mollarida namoyon bo'ladi. Avvalo umumiy maxsuldorlik kamayadi va har bir mikroelementga xos kasalliklar belgilari paydo bo'ladi. Cu mikroelementi bilan bog'liq kasalliklar asosan kavshovchi hayvonlarda-qoramol, qo'y, echkilar ba'zan cho'chqalarda, quyonlarda va parrandalarda uchraydi.

Cu ancha kamchil bo'lgan vohalardagi mollar bu moddaning yetishmasligidan kelib chiqdigan kasalliklar- ataksiya, dapigmenttatsiya, gepatitga va boshqa kasalliklarga uchraydi ba'zan klinik belgilar yuz bermasdan o'tib, kasal mollarning umumiy mahsuldorligi kamayadi. Cu mikroelementi ortiqcha bo'lgan vohalar boqiladigan mollarda, gemolitik sariqlik kasalligi, ingichka ichak yallig'lanishi (enterit) va boshqa kasalliklar boshlanadi. Organizmda Cu ni ko'payishi natijada mollar asta-sekin zaxarlana boshlaydi, kasallik uzoqqa cho'ziladi. Cu jigarda to'planadi, undagi Cu miqdori jigar to'qimasining 1 kg da 1g dan oshib ketishi mumkin, [M.A.Rish]. Mollarning oziqlanish sharbati yomonlashganida yoki fiziologik zo'riqish olganda jigardagi Cu qonga o'tib, gemoliz kasalligi boshlanishiga eritrositlar parchalanishiga sabab bo'ladi. Bu sariqqon siyish-gemoglobinuriya kasalliklari shaklida yuz beradi va ko'pincha molning nobud bo'lishi bilan kechadi.

Yuqorida qayt qilingan Cu ancha kamchil yoki yetishmaydigan va Cu ga meyoridan ortiq hisoblangan vohalarda dumbali mahalliy qo'ylarda ham qorako'l qo'ylari kabi kasalliklar kuzatiladi.

Cu tutuvchi- Cu tarkibli ferment seroloplazminning qo'ylar qoni zardobidagi aktivligi to'g'risida, ayniqsa mahalliy dumbali qo'ylar qoni zardobida yetarlicha o'rganilmaganligini inobatga olib, Samarqanda viloyati Nurobod tumaniga qarashli "Jom" ijara xo'jaligi hududida boqiladigan dumbali mahalliy qo'ylar qon zardobida seroloplazmin va Cu ning miqdorini o'rganish maqsad qilib olindi. Bunday ish qorako'l qo'ylarida o'tkazilganligini inobatga olib tekshirishini yanada aniq bo'lishi uchun parallel holda qorako'l va mahalliy dumbali qo'ylar zotidan (3-5 yoshdagi) 18 boshdan ajratib belgilanib qo'yildi va may hamda sentyabr oylari ularadan qon ajratib qon zardobida seroloplazmin va Cu miqdori o'rganildi va natijasi 1-jadvalda keltirildi:

1-jadval

Qorako'l va mahalliy dumbali qo'ylar qon zardobida may va sentyabr oylarida Cu miqdori

Qo'y zoti	Seruloplazmin mg % hisobida	Cu mg/l hisobida

qorako'l qo'yida dumbali qo'yida	May oyida =18	1,05±0,05
	17,98±0,5 12,10±0,64	1,05±0,06
qorako'l qo'yida dumbali qo'yida	Sentyabr oyida =16	0,63±0,02
	11,7±0,9 7,4±0,3	0,55±0,02

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki may oyida seroloplazmin aktivligi sentabr oyiga nisbatdan qora ko'l qo'ylarida ham 30-50% ga farq qiladi. Cu mikro elementining umumiy miqdorini solishtirganimizda may oyidagi ko'rsatgich, sentyabr oyi ko'rsatgichidan 40-50% atrofida farq qilishi ma'lum bo'ldi.

Bu seroloplazmin aktivligi sentyabr oyida may oyiga nisbatdan qarib 40-50% ga past ekanligiga bog'liq. Kuz oyida seroloplazmin aktivligi past bo'lishi bilan birga Cu elementi miqdori ham kam ekan. May oyida seroloplazmin konsentratsiyasi oshadi va shu bilan birga Cu miqdori ham baland bo'ladi. Bizningcha, ikkala faslda ham Cu va seroloplazminning bir biriga mos holda past yoki balandligi sog'lom organizm uchun faslga xos moddalar almashinuvining meyoriy darajasi hisoblanadi.

Dumbali qo'ylar qon zardobi tarkibida seroloplazmin aktivligini pastligi, ular yil davomida ko'proq yashil o'simliklar iste'mol qilishi natijasida, yashil o'simliklar tarkibidagi fitin moddasi Cu mikroelementining ichak yo'llarida surilishiga aks ta'sir qilishi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov Sh.Q., Qurbonov A.Sh. Ovqatlanish fiziologiyasining asoslari. - Qarshi: Nasaf. 2000
2. Almatov K.T., Allamuratov SH.I. Odam va hayvonlar fiziologiyasi. T., O'zMU, Universitet, 2004.
3. Хазипов, Н. З. Биохимия животных / Н. З. Хазипов, А. Н. Аскарова. –Казань, 1999. – 286 с.
4. Фомина, И. О. Профилактика смешанных заболеваний животных микроэлементами / И. О. Фомина // Инновации в производстве, хранении и переработке сельскохозяйственной продукции : науч.-практ. конф. студентов, аспирантов и молодых ученых. – Ставрополь, 2015. – С. 240-243.

QO'YLARNING FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA MIKROELEMENTLARNING TA'SIRI

**Rajabov A.I.¹, Aminjonov Sh.A.¹, Siddiqova Yu.², Usmonova M.F. ¹, Urazova S.E. ¹,
Odilova N. ¹**

¹ Samarqand Davlat universiteti

² Samarqand Davlat universiteti Urgut filiali

Annotsiya. Qo'ychilik chorvachilikning rivojlanib borayotgan sohasidir. Ushbu maqolada qo'ylar ozuqasi tarkibida J (yod) mikroelementlarini qo'shish orqali, ularning yurak-qon tomir, ovqat hazm qilish va asab tizimlarining funksiyalariga, ichki sekretsiya bezlari va organizmdagi metabolik jarayonlarga har tomonlama ta'siri aniqlandi, mahsuldorligini oshirishi bo'yicha tadqiqot natijalari bayon etildi.

Kalit so'zlar: mikroelement, gemoglobin, leykosit, gormon, ferment, vitamin,

Kirish. Chorva mollarini sog'lomlashtirish yo'li bilan tuyoq sonini saqlash va uni oshirish, aholini go'sht, sifatli teri, jun mahsulotlari bilan ta'minlash, kiyim-kechak, poyafzal ishlab chiqarish uchun esa mahsulotlarini ko'paytirish kabi masalalami hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'ychilikni rivojlantirish istiqbollari qatoriga ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, qo'ylarni ilmiy jihatdan asoslangan uslubda oziqlantirish, ularni har xil kasalliklardan muhofaza qilish kiradi. Qo'ychilikni rivojlantirishda mikroelementlarning faol roli ham kattadir. Ular gormonlar, fermentlar va ba'zi vitaminlarning bir qismi bo'lgan yoki ularni faollashtiradigan biologik katalizatorlar sifatida ishlaydi. Mikroelementlar hayvonning o'sishiga, rivojlanishiga, mahsuldorligiga, uning ko'payish qobiliyatiga va chidamliligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori biologik faollikka ega mikroelementlardan biri yoddur. U ferment hosil bo'lish jarayonlarida ishtirok etadi, tananing mudofaa reaksiyalarini qo'llab-quvvatlaydi, yangi hujayralar shakllanishini tezlashtiradi, urug'lantirish va homilalik rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir qiladi va hayvonlarning o'sishini tezlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining " 2017-yil 16-martdagi PQ-2841-son "Chorvachilikda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi va 2018-yil 3-martdagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3693 sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqoladagi ma'lumotlar ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Qo'ylar ozuqasiga KJ qo'shib berish orqali qoni tarkibida leykositlar miqdorining ortishiga sabab bo'ldi. Qo'ylar qoni tarkibidagi leykositlar miqdori Goryayev sanoq turida tahlil qilindi va quyidagi natijalar olindi:

1-jadval

Qo'ylar qonining morfologik parametrlari ($X \pm Sx$; n = 5)

Ko'rsatkichlar	GURUHLAR							
	I (Nazorat)		II KJ		III KJ		IV KJ	
	Tajribani ng boshlanis hi	Tajribani ng oxiri (30 kun)	Tajribani ng boshlanis hi	Tajribani ng oxiri (30 kun)	Tajribani ng boshlanis hi	Tajribani ng oxiri (30 kun)	Tajribani ng boshlanis hi	Tajribani ng oxiri (30 kun)
Leykositlar (x 10 ⁹ /l)	6,3± 0,10	6,49± 0,09	6,20± 0,10	6,76± 0,06	6,34± 0,13	6,81± 0,10	6,44± 0,15	6,82± 0,08

Izoh: * -R <0.05; ** - P <0.01

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, nazorat guruhida leykositlar soni faqat 0,19 ming; 3 % ga oshgan bo'lsa, ratsioni tarkibida KJ tuzi bo'lgan II, III va IV guruh tajriba qo'ylarda bu ko'rsatkichdan ancha yuqoriroq, ya'ni o'zaro mos holda: II guruhda 0,56 ming; 9 % ga oshgan bo'lsa, III guruhda, 0,47 ming; 7,4 % ga va IV guruh quyondalarda esa bu ko'rsatkichlar 0,38 ming; 5,9 % ga ortgani ma'lum bo'ldi. Tajribaning II guruhida ko'rinib turibdiki, KJ qo'shib berilganda leykositlar miqdori ortib bordi. Leykositlar o'rtacha o'sish ko'rsatkichi tajriba guruhlarida 0,47 ming; 7,4% ga ega bo'ldi.

Xulosa. Organizmning har bir holati ma'lum belgilar bilan birga keladi. Shu munosabat bilan hayvonlarning umumiy fiziologik holatini o'rganish tananing eng muhim funksiyalarini o'rganish umumiy tizimidagi birinchi va zaruriy bo'g'in hisoblanadi Organizmning fiziologik funksiyalarning o'zgarishi doimiy ravishda mikroelementlar miqdoriga ham bog'liq bo'ladi.

Qo'ylar KJ qo'shib berilganda leykositlar miqdori ortib bordi. Leykositlar o'rtacha o'sish ko'rsatkichi tajriba guruhlarida 0,47 ming; 7,4% ga ega bo'ldi.

Xulosa qilib aytilganida hayvonlarga yod bilan boyitilgan mahsulotlardan berish fiziologik jarayonlarga ta'siri ko'p qirrali ekanligini ko'rsatdi: qisqasi, qon leykositlari ishlab chiqarish funksiyasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воробьев В.И. Поиски научно-обоснованных критериев дефицита микроэлементов в организме животных / В.И. Воробьев, Д.В. Воробьев // Естественные науки. Астрахань. №3 (48). - 2014 - С. 80-85.
2. Вершинина И. М . Макро и микроэлементы в рационе домашних животных. 2019.
3. Ковалев С.П. Микроэлементозы сельскохозяйственных животных : учебное пособие / С.П. Ковалев, А.П. Курдеко, Г.Г. Щербаков [и др.];
4. Под ред. С.П. Ковалева. – Санкт-Петербург: Издательство ФГБОУ ВО «СПбГАВМ», 2013. – 132 с.

KIMYO DARSLARIDA O'QITISHNING JAMOAVIY USULIDAN FOYDALANISH

¹Ro'ziyev I. X., ¹Boyjonova N.T., ²Voxidov A.R., ²Isoqova D.B.

¹Sh. Rashidov nomidagi Samarkand Davlat Universiti Biokimyoy instituti,

²Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali ruzziyev78@inbox.ru

Annatsiya. Ushbu maqolada kimyo darslarida jamoaviy o'qitish usulidan foydalanish o'quv faoliyatini rivojlantirish, motivatsiyani oshirish va talabalar tomonidan o'quv materialini o'rganishni yaxshilashning samarali usuli sifatida muhokama qilinadi. Guruh muhokamasi, laboratoriya loyihalari va hamkorlikdagi tadqiqotlar kabi hamkorlikdagi ish shakllari tanqidiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari va hamkorlik qilish qobiliyati kabi asosiy vakolatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotda ushbu metodning asosiy afzalliklari, jumladan, fanga bo'lgan qiziqishni oshirish, o'quvchilar o'rtasida o'zaro yordamni oshirish hamda tajriba va bilim almashish orqali kimyoviy tushunchalarni chuqurroq tushunish kabi jihatlari aniqlandi. Darsni puxta rejalashtirish va guruh ichidagi rollarni taqsimlashni nazorat qilish kabi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: hamkorlikda ta'lim, bilim-ko'nikma, guruhda ishlash, kimyo, ta'lim texnologiyasi, faol o'qitish usullari, o'quv motivatsiyasi, muloqot qobiliyatlari, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, pedagogik strategiyalar.

Kimyo fanlarini o'qitishga keyingi yillarda ko'p takrorlanayotgan innovatsion texnologiyalardan foydalanish yaxshi natijalar bermoqda. Ayniqsa, mustaqilligimiz e'lon qilingan dastlabki yillardan boshlab oliy o'quv yurtiga qabul qilishning test sinovlari asosida amalga oshirilishi ta'lim jayoniga yondoshuvning yangi shakllarini talab etib qoldi. Kimyodan o'zlashtirilgan bilim-ko'nikmalarning o'zi yetarli bo'lmay har qanday kimyoviy topshiriq va masala mantiqiy fikrlash asosida hal qilinishi talab etilmoqda.

Interfaol usul bu ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol usullarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy

bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa usullardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Shunday ekan biz usbu ishimizda o'qitishning jamoaviy usuli texnologiyasini joiz topib unda quyidagi holatlarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

1. Doimiy qaytarilib turgan mashqlar natijasida mantiqiy fikrlash va tushinish ko'nikmalari rivojlanadi;

2. Muloqot jarayonida fikrlash faoliyati ko'nikmalari rivojlanadi, xotira ishga tushadi va ilgari egallangan tajriba va bilimlarni ishga solish dolzarblashadi.

3. O'quvchilardan har biri bemalol hayajonlanmasdan o'qish jarayonida ishtirok etadi.

4. Nafaqat o'z muvoffaqiyatlari, balki jamoaviy ishlash natijalari uchun ma'suliyat oshadi.

5. O'quvchilarning ba'zilarini jadal sur'atda ushlab turish, boshqalarini tezlashtirishga zarurat qolmaydi, bu esa jamoaviydagi muhitga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

6. O'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga mustaqil ravishda mos baho berish shakllanadi va ular o'z imkoniyatlari, ko'nikmalari va cheklovlariga ko'ra faoliyat yuritishadi.

7. Bir necha o'zgarib turgan juftliklarda muayyan ma'lumotlarni muxokama qilish o'zaro bog'liqliklar miqdorini oshiradi, demak uni mustaxkam o'zlashtirishga imkon yaratiladi.

Juftliklardagi ishni uch turga bo'lish mumkin:

1. Statik juftlik: bunda ikki o'quvchi o'z istagiga ko'ra birlashadi va ustoz-shogird rolini almashib turishadi. Bunda ikkita kuchli, ikkita kuchsiz yoki kuchli va kuchsiz o'quvchilar o'zaro yondoshuvlikda ishlashi mumkin.

2. Dinamik juftlik: bunda to'rtta o'quvchi tanlab olingan vazifani tayyorlashadi, ammo vazifa bunda to'rtga bo'linadi. O'z qismini tugatgan o'quvchi o'z vazifasini uch marotaba har bir hamkor bilan takrorlaydi, bunda har safar u aytib berish mantig'ini o'zgartirib berishga majbur bo'ladi, yani o'z do'stlarining individual xususiyatiga moslashuv mexanizmi ishga tushadi

3. Variatsion juftlik: bunda guruhning har bir a'zosi guruh umumiy ishidan manfaatdor ravishda vazifani bajaradi va o'qituvchi bilan taxlil qiladi. So'ng uchala hamkori bilan o'zaro fikr almashib, buning natijasida o'quv materialining to'rt ulushini o'zlashtiradi.

Tabiiy muloqot o'quvchilarning sinfda noan'anaviy o'tirishini talab etadi. Bu aslida jamoaviy mashg'ulotlar o'tkazilishining zaruriy sharoitidir.

O'quvchilar maksimal ravishda tabiiy muloqotning shaxsiy g'oyasini amalga oshirishi uchun zaruriy sharoit kerak, ya'ni o'quvchilar erkin ravishda o'zlariga juftlik tanlashlari, bir-birlarini ko'rishlari uchun ular zaruriy tartibda joylashtirilishi lozim bo'lib, bunda o'quvchilar bir-biriga xalaqit bermasliklari ham e'tiborga olinishi kerak.

Y.A. Komenskiy o'zining "Великая дидактика" asarida yo'naltirilgan fikrni fikrlash katalizatori deb atagan, uning yozishicha kerak bo'lsa biror narsadan voz kechib seni eshitishni istagan odamga pul to'la, zero u sendan bir narsani o'rganmoqchidir. Boshqalarni o'qitish buyuk olimlikdan dalolatdir.

Zamonaviy psixologiyaning ta'kidlashicha, yuqori sinf o'quvchisining xotirasi quyidagicha baholanishi mumkin.

10% - ko'zlari bilan o'qiydi;

26% - eshitadi;

30% - ko'radi;

50% - ko'radi va eshitadi;

70% - muxokama qiladi;

80% - tajribaga tayanadi;

90% - gapiradi va xamkorlikda bajaradi;

95% - boshqalarni o'rgatadi.

Jamoaviy mashg'ulotlarda kimyoni o'qitish vazifalari yechimlarining ustun tomonlari nimadan iborat? Kimyoni o'qitishning o'ziga xosligi shundan iboratki, o'quvchilar kimyo tili, terminologiyasi, uning tushunchaviy apparatini o'zlashtirib, nafaqat umumo'quv, balki maxsus ko'nikmalarga ega bo'lishlari shartdir.

Kimyo darslarida ular abstrkt fikrlash, tadqiqiy va oldindan bashorat qilish faoliyati mantig'i, kimyoviy tajriba o'tkazishni o'rganishadi. O'qitish samaradorligini oshirish uchun o'quvchilar nafaqat tushinib yetishi, balki terminologiya asoslarini yaxshi bilishi, tushuncha, qonun va nazariyalarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari kerak.

Shunday qilib o'rganilgan ma'lumot shaxsiy bilimlar tizimiga kiradi. Muloqot jarayonida hattoki ulgurmayotgan o'quvchilar ham kimyoni yaxshi o'zlashtiradi. Kimyoviy tajribaning o'qitishdagi roli oshadi. O'quvchilar u yoki bu laboratoriya tajribasini ko'p marotaba o'tkazish imkoniga ega bo'lishadi, bu esa kimyo fanidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi hamda kimyoviy reaktiv va asboblarni ishlatishni, tajribalarni kuzatishni, o'tkazilgan tajriba natijalarini tahlil qilishni, ilmiy asoslashni, moddaning tarkibi, tuzilishi va xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni belgilashni o'rganishadi.

Almashinuvchi juftliklaridagi faoliyat tajribalar o'tkazilishi davomida hamkorning yordamini talab etadi: u tajriba o'tkazuvchi harakatlarni diqqat bilan kuzatib turadi, uning xatolarini tuzatadi va ish rejasini tuzatib borib, kerakli hollarda esa uni baholaydi. Shunday qilib an'anaviy kimyo darslariga nisbatan jamoaviy mashg'ulotlarning

bevosita ustunligi shundaki, jarayonlar davomida o'quvchilar faol ravishda mehnat qilishadi hamda maxsus ko'nikmalar hosil qilishadi, fikrlash, kimyo fanini mukammal egallashni o'rganishadi.

Jamoaviy mashg'ulotlarni tashkillashtirish o'quvchilarning o'qish davomidagi majburiy farqlashni ko'zda tutadi, bunda ko'rsatilayotgan yordam ularning tayyorgarlik jihatidan kelib chiqqan holda, ham o'qituvchi, ham o'rtoqlari tomonidan belgilanadi.

Didaktik materiallar turli murakkablikdagi vazifalarga ega bo'lishadi. Eng murakkab vazifalarni o'quvchilar o'z istaklariga ko'ra bajaradi. Agar ular fanga nisbatan alohida qiziqishni ko'rsatsa, fanni ham chuqurroq o'zlashtiradi.

Jamoaviy mashg'ulotlar uslubi har bir o'quvchining uning uchun optimal bo'lgan o'qitishning jadal sur'atlari bilan ta'minlash zaruratini ko'zda tutadi.

Juftliklar orasidagi muloqat o'quvchilar maxsus rangli signallarni qo'llagan holda o'z hamkorligidagi faoliyatiga tayyorliklarini ko'rsatgandan so'ng boshlanadi. Eng kuchli rivojlanish tayyorgarlik jihatidan o'rtacha yoki past darajadagi imkomiyatga ega bo'lgan o'quvchilarda kuzatiladi.

O'quv yilining oxiriga kelib o'qitishning rejalashtirilgan natijalarini qoniqarli darajada o'zlashtirmagan o'quvchilar deyarli qolmaydi.

Ba'zi kuchli o'quvchilarning kuchsiz o'quvchilar bilan juftlikda ishlashni istamaganlik holatlari ham uchray turadi. Chunki bunday toifadagi o'quvchilarning fikricha ulgurmayotgan o'quvchi ular bilan ishlaganda o'qituvchi rolini bajarsa vazifani bajarishni uddalay olmaydi, ammo 2-3 oydan so'ng ular amin bo'lishganki juftlikda ishlash fan bo'yicha bilim darajasidan qat'iy nazar ijobiy natijalarga olib keladi.

Jamoaviy mashg'ulotlar sharoitida o'qituvchida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga e'tibor qaratish imkoniyati tug'ilib, o'z bilimlarini kengaytirgan holda o'quvchilarning mustaqil ishlash hamda ijodiy tadqiqiy faoliyatiga qiziqishni uyg'ota oladi.

Shunday qilib jamoaviy mashg'ulotlar vaqtni hisobga olgan holda tashkillashtirilib, bunga muvofiq muayyan sharoitlarda o'quvchilarga yordam berish imkoniyati tug'iladi. O'qituvchi o'quvchilarning fanni o'zlashtirishini kuzatish uchun keng imkoniyatga ega bo'lib, ularning bilim olish faoliyatini nazorat qilib boradi.

O'zgaruvchan tarkibdagi juftliklarda o'quvchilarning o'zaro amaliy muloqati kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Ulgurmayotgan o'quvchilar muayyan vaqtdan keyin o'z mas'uliyatlarini sezishadi, chunki mashg'ulot davomida ular ham, o'qituvchi ham bir necha bor o'z juftliklari uchun yordamchi vazifasini bajaradi.

Har bir o'quvchida o'z bilimlari hamda sinfdoshlari bilimlari sifati uchun mas'uliyat hissi paydo bo'ladi. Ularda kommunikativ xususiyati hamda hamkorlik uchun zarur bo'lgan muloqat madaniyati shakllanadi. Bu jihatlar kelgusida o'quvchilar hayotida asqotadi.

Jamoaviy mashg'ulotlar muhiti shundayki u o'quvchilarga hayajondan holi bo'lish, masalan kundalik uy vazifasini tekshirish oldidagi hayajonni yechish imkoniyatini beradi. Ularga vazifalar berilmaydi, chunki o'quvchilar materiallarni dars davomida o'zlashtirishga ulgurishadi.

Shu bilan birgalikda uzun kun davomida o'qish stolida o'tirish shartligi mavjud bo'lmaydi, o'quvchilar o'yin davomida harakatlanadi hamda bir hamkor oldidan ikkinchi hamkor oldiga borib o'z vazifasini bajarishga harakat qiladi. Dars davomida past darajadagi musiqani ham qo'llash mumkin, masalan tinchlantiruvchi musiqani, shu bilan musiqa o'quvchilarning ishchanligini ham oshiradi. Mazkur holatlarning barchasi nafaqat tarbiyaviy, balki muhim sanitariya gigiyena talablarga ham amal qilish imkonini beradi.

O'quv texnologiyasini turli didaktik maqsadlarda qo'llash yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, qayta ishlash, umumlashtirish hamda bilimlarni tizimlashtirib nazorat etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гусев В.В. Образовательная технология как научная дисциплина. Химия в школе. -2002. - №. -С. 51-56.
2. Амирова А.Х. Учебные на уроках химии . Химия в школе. -2002.-№ 7.-С. 37-40.
3. Дрижун И.Л. Технические средства обучения в химии: учебное пособие для пед. Вузов.- М.:Высшая школа, 1989. -175с.
4. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии. Т.: ИПВССШ. 1999. 84 с.

KIMYO DARSLARIDA TABAQALASHTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Ro'ziyev I. X., Muhamadiyev A.N., Xurramov B.E.

Sh. Rashidov nomidagi Samarkand Davlat Universiti Biokimyo instituti,
ruziyev78@inbox.ru

Annotasiya. Tabaqalashtirish texnologiyasi ta'lim jarayonida, xususan, kimyo darslarida kuchli vositadir. Bu sizga o'quv materialini tizimlashtirish va tuzish imkonini beradi, bu esa o'quvchilar tomonidan asosiy tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Maqolada kimyo o'qitishda tasnifdan foydalanishning asosiy jihatlari, jumladan, uning o'quvchilarda ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Tabaqalashtirish texnologiyasi kimyoviy elementlar, birikmalar va

reaksiyalarni o'rganish, shuningdek, kimyoviy masalalarni yechish bilan bog'liq amaliy vazifalarga samarali kiritilishi mumkin. Tabaqalashtirish jarayoniga talabalarni faol jalb etish va uni tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlashni rivojlantirish uchun qo'llash usullariga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: tabaqalashtirish texnologiyasi, kimyo darslari, kimyo o'qitish, tizimlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, kimyoviy elementlar, kimyoviy birikmalar, tanqidiy fikrlash, ta'lim texnologiyasi, maktabda o'qitish.

Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. O'qitishda ta'lim texnologiyasining uslubiy sifatini oshirish, o'quv jarayonidagi o'zgartirish samaradorligini yaxshilash va bu jarayonda yangi uslubiy elementlarni joriy qilish barkamol avlodni tayyorlashda muhim o'rin tutadi [1].

Hozirgi vaqtda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan biri bo'lgan o'qitishning tabaqalashtirish texnologiyasidan foydalanish ham kata ahamiyat kasb etadi [2].

Kimyo fanini o'rgatishda o'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilish har bir o'quvchining tayyorgarligiga, uning o'rganish darajasiga bog'liq. Qoida bo'yicha fanni o'rgatishda o'quvchining tayyorgarligi bir xil emas, shuningdek yangi materialni o'zlashtirish darajasi ham har xil bo'ladi. Ularning individual farqi quyidagi ko'rsatkichlarda aniq bilinadi [3-5]:

- 1) Ularning aqliy qobiliyati, shuningdek maxsus tayyorgarligi.
- 2) O'qish qobiliyati.
- 3) O'rganuvchanlik qobiliyati.
- 4) Bilim orttirishga qiziqishi.

Har xil darajadagi o'qitish texnologiyasining nazariy asosi pedagogik paradigмага tayanadi. O'quvchilarning har xil darajada o'rganishi vaqtga kelib taqaladi, chunki o'quvchining materialni o'zlashtirishi uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Har bir o'quvchining qobiliyati va imkoniyatiga muvofiq o'rganayotgan materialni to'liq o'zlashtirishi uchun vaqt kerak bo'ladi.

Pedagogik adabiyotlarda 2 ta bir-biriga yaqin terminlar, yani tashqi va ichki differentsiatsiyalash (tabaqalashtirish) uchraydi.

Tashqi differentsiatsiyalash bu o'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlariga qarab maxsus sinf tashkil qilinadi. Bu sinfda tahsil olayotgan o'quvchilarning bilim saviyasi o'zlarining tengdoshlariga nisbatan yuqori bo'lishi hamda aqliy fikrlashi bilan ajralib turishi kerak, bunday o'quvchilar oddiy sinflarda tahsil olsalar ularning fanga bo'lgan qiziqishi kamayadi. Qobiliyatli o'quvchilar chuqurlashtirilgan yoki rejasi ancha murakkab bo'lgan sinflarda ta'lim olishlari kerak. Agar maktablarda chuqurlashtirilgan sinflar bo'lmasa, o'quvchilarning o'zlari erkin holda u yoki bu fakultativ kursni tanlashi evaziga tashki tabaqalashtirish amalga oshiriladi.

Ichki tabaqalashtirishda oddiy sinflarda o'qituvchining ish sharoitida o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari hisobga olinib o'quv tarbiya jarayonini tashkil qilish kerak. O'qituvchi o'quvchilarning har xil qiyinlikdagi savollarni yecha olishi va shu kabi qobiliyatlariga qarab har bir o'quvchining bilim darajasini aniqlaydi.

O'qituvchi o'qish jarayonini shunday tashkil qilishi kerakki, aniq bosqichda o'quvchi o'zining intellektual qobiliyatini ko'rsata olishi kerak. Bu berilgan pedtexnologiyning asosiy tamoyillari quyidagilar:

- Umumiy qobiliyat - o'zining ishi bilan band bo'lmaslik.
- O'zaro ustunlik- agar biror o'quvchida biror narsa yomon bo'layotgan bo'lsa, demak unda boshqa narsa yaxshi bo'lishi mumkin, nimanidir qidirish kerak.
- To'xtab qolishdan qochish. Hech qachon tugadi deb qaramaslik kerak.

Shunday qilib kimyo o'qituvchisi I guruhga o'quv materiallarini eslab qoladigan va farqlay oladigan, standart talab darajasida shu materialni o'zlashtira oladigan o'quvchilarni birlashtiradi, lekin bular tahlilning oddiy ko'nikmalarini bilmaydilar, muhokamaning kimyoviy sxemasini tuza olmaydilar, moddalar tuzilishini uning kimyoviy va fizikaviy xossalari bilan bog'lay olmaydilar. Bu sinf o'quvchilari o'zlari oldiga quyilgan masalani bajarib bo'lmaydigan masala deb o'ylaydilar.

Ikkinchi guruhga kimyoviy masalani yecha oladigan va fikrlaydigan, shuni esda qoldiradigan o'quvchilar birlashtiriladi. Ular o'quv materialini esda saqlaydigan, tushunadigan, o'quv jarayonida qo'llay oladiganlardir. Ular ishining asosiy usuli eski tajribalarga tayanishi, bulardan shablon sifatida yangi mavzularda foydalanishdir. Bu guruh intellektual qobiliyatining aniq maqsadga yunaltirilganligini, sintezlarni o'tkazishda bilimga tayanganligi, lekin kimyo usullarini sust tushinishi bilan farq qiladi.

Uchunchi guruhga kiradigan o'quvchilar qo'yilgan masalani yechishga yetarli miqdorda ijodiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Ular o'quv materialini yechishni tushunadilar, aytib bera oladilar, ulardan foydalana oladilar va ijodiy xarakterdagi mustaqil ishlarni bajara oladilar. Ular yuqori darajada faol, kimyoviy masalalar yechish usullaridan oqilona foydalanadilar. Masala manosini chuqurroq tahlil qilishadi. Bu guruhdagi o'quvchilar materialni I va II guruh o'quvchilariga nisbatan kengroq va chuqurroq o'ylaydilar.

O'qituvchi uch hafta davomida dars o'tayotgan sinfda ularni shartli dinamik guruhga bo'lishi uchun o'quvchilarning individual farqlarini aniqlab olishi kerak.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning ishlarini kuzatishdan tashqari tekshirish, mashq qildiruvchi ishlarni ham o'tkazishi kerak.

IX sinf o'quvchilari uchun ana shunday ishlardan bir variantini misol keltiramiz.

Topshiriq: keltirilgan moddalarning formulalari orasidan kislotalarning formulasini toping va ularning negizlilikini aniqlang. Shu kislotalarga to'g'ri keladigan oksidlarning formulalarini yozing. Sulfat kislota va oltingugurt (VI) oksid bilan kaliy gidroksidning reaksiya tenglamasini yozing (2 ta).

Bu ishning tahlilida javobning quyidagi elementlari hisobga olinadi:

- Kislota tushunchasini ilg'ab olishi;
- Kislotalar nomini bilishi;
- Kislotalar negizlilikini aniqlay olish qobiliyati;
- Kislotalar tarkibidagi metallmaslarning valentligini aniqlash qobiliyati;
- Tuzlar formulasini yoza bilish qobiliyati;
- Reaksiya tenglamalarini tuza olish qobiliyati;
- Shuningdek bu ishni bajarish uchun ketgan vaqt (minut) hisobga olinadi.

O'quvchining o'quv qobiliyatlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun o'qituvchi har xil qiyinlikdagi topshiriqlardan iborat bo'lgan ishni taklif qiladi. Variantni o'quvchilar o'zi tanlaydi, lekin ular bilishi kerak, "5" baho olishi uchun (III) variantni, "4" baho olishi uchun (II) variantni, 3 baho olishi uchun I variantni bajarishlari kerak. Taxminiy xulosalar va ishlar natijalarini solishtirib o'qituvchi sinfning tayyorgarligi to'g'risida aniqroq haqiqiy ma'lumotga ega bo'ladi. Ana shunday tahlil natijasida o'qituvchi kelajakda kimyo fanini o'rgatishda o'quvchilarning o'rganuvchanlik qobiliyatini doimo hisobga oladi.

O'qitishning tabaqalanishi yangi materiallarni tushuntirishda, uni mustahkamlashda, bilimlarni tekshirish va takomillashtirishda ham o'tkazilishi mumkin.

Tabaqalashtirilgan o'qitishning samarali bo'lishi uchun asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1. Tabaqalashtirilgan o'qitishda o'quvchilarga yoki talabalarga bo'lgan talablar pasaytirilmasligi kerak.
2. Topshiriqlar tuzishda eng past o'zlashtiruvchi va eng kuchli o'quvchilarning yoki talabalarining bilimi ham hisobga olinishi kerak.
3. Tabaqalashtirishning asosiy tamoili – o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ko'rsatilayotgan yordamni tabaqallashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, kimyo darslarida tabaqalashtirish texnologiyasidan foydalanish murakkab kimyoviy tushunchalarni tushunishni yaxshilashga yordam beradi va katta hajmdagi ma'lumotlarni eslab qolish va tartibga solishni osonlashtiradi. Bu o'quvchilarning tahliliy va tanqidiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularga bilimlarni shakllantirish va muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi. Tasniflashdan foydalanish, ayniqsa, kimyoviy elementlar, reaksiyalar va ularning o'zaro ta'sirini o'rganishda foydali bo'lib, kimyoviy jarayonlarning yaxlit manzarasini yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu texnologiya o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaydi, ularni mustaqil ishlashga undaydi va ilmiy tafakkurni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: "Sharq", 1997. - 64 b.c
2. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - Toshkent:1997 yil 29 avgust.
3. Метельский А.В. «Кимё», Т.:2007. 6. 54-56
4. Быстрицкая Е. В. Секутивные задачи по химии как средство реализации индивидуального подхода// Проблемы интеграции естественно-научных дисциплин в высшем педагогическом образовании: Материалы межвуз.науч.- метод. конф.- Нижний Новгород, 2001. –С. 117.
5. Чернобельская Г.М. Методика обучения химии в средней школе.-М.:Владос,2000.

KIMYO FANINI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

¹Ruziyev I.X., ²Quldosheva L.S., ¹Ko'liboyeva N.Sh.

¹Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti

²Kattaqo'rg'on shahar 16- umumta'lim maktab o'qituvchisi

E-mail: ruziyev1978@inbox.ru

Annatsiya. Ushbu ishda innovatsion pedagogik texnologiyaga yo'naltirilgan usullar, ta'lim innovatsiyasini tavsiflovchi belgilar, ta'lim jarayoniga innovatsion usullarni joriy etish va kimyo fanlar siklini o'rganishda o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalanishi, kimyo fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishning asosi o'quvchilarning ijobiy o'zlashtirishi va fanga ijodiy yondashishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot, innovatsiya, texnologiya, kommunikatsiya, kompyuter, kollektiv o'qitish, integrativ ta'lim, test, seminar va konferentsiya darslari.

Ta'limning zamonaviy tendentsiyalari an'anaviy o'qitish usullarini axborot jamiyati voqeligiga moslashtirishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalar asrida kimyoni o'qitish yangi muammolarga duch kelmoqda: talabalarga materialni o'rganish uchun yanada qulayroq, interaktiv va vizual usullar kerak. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarda fanga qiziqishni oshirish, murakkab mavzularni tushunishni yaxshilash va

amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu o'zgarishlar hayotning barcha sohalariga ta'sir etmoqda. Shu bois Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmog'ida.

Respublikamiz xalqi hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar xalq ta'limini, shu jumladan ta'lim-tarbiya jayonini butunlay yangidan tashkil etishni taqazo etmoqda. Eng avvalo kelajagimiz hisoblangan maktab, litsey o'quvchilari jamiyatning teng huquqli az'osi sifatidagi munosabatni qaror toptirilishi, eng yaxshi insoniy fazilatlariga ega bo'lishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmog'i zarur. Ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishi esa shu soha uchun mas'ul bo'lgan professor o'qituvchining mehnati, harakati va bilimiga bog'liqdir [1].

Materiallar va usullar. Innovatsion pedagogik texnologiya qo'shilgan sharoitga erishishda yo'naltirilgan usul, bajariladigan ish tartib va vositalarni amalga oshiruvchi murakkab jarayondir [2]. Har qanday tabiiy-ilmiy fanlar siklini o'rganishda pedagog o'qituvchilar ko'plab innovatsion texnologiyalardan foydalanishadi, jumladan:

1. Rivojlantiruvchi ta'lim (muammoli, diskussion ta'lim)
2. Innovatsion (media-texnologiyalar, algoritmlar, kompyuter)
3. Ta'limga individual-differensirlangan (tabaqalashtirilgan) yondashuvga asoslangan ta'lim (shaxsga yo'naltirilgan ta'lim)
4. Hamkorlik texnologiyasi (jamoaviylik o'qitish, o'yinli usullar)
5. O'quv jarayonini tashkillashtirishda no'anaviy sistemalardagi ta'lim texnologiyalari (fanlararo bog'liqlik asosidagi, o'qitish ta'lim shakllari, takomillashgan o'qitish texnologiyasi).

6. Modulli o'qitish texnologiyalari (bilim bo'yicha, integrativ ta'lim) va boshqalar.

Ta'lim innovatsiyasini tavsiflovchi belgilarga quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Ta'lim jarayoniga ana'naviy yondashuvdan farqlanuvchi boshqa bo'lgan yondashuv.
2. Ana'naviy ta'limdan farqli bo'lgan ta'lim dasturini yangi yechish usuli va yo'nalishlari.
3. Yangi ta'lim natijasining erishish kafolati.

Har bir darsda muammoli o'qitishni o'rni oshib bormog'ida, chunki o'quvchilar oldiga darsning yangi mavzusi muammosi qo'yilgan[3].

Natijalar va uni muhokama qilish. Kimyo fanlarini nazariy va amaliy jihatdan o'qitishda ham innovatsion texnologiyalar amaldagi o'qitish jarayoni hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik kiritish bo'lib, uni amalga oshirishga asosan bizning va xorijiy mamlakatlar pedagog olimlari tavsiya etayotgan interfaol usullardan to'liq foydalanadi. Taklif etilayotgan interfaol usullar talabalarni o'qitish va ularning o'zlashtirish darajasining yuqori saviyada bo'lishida o'ziga xosligi, yutug'i shundaki, ular faqat kimyo fani o'qituvchisi va o'quvchi talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi natijasida amalga oshiriladi.

Kimyo fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishning asosini boshlang'ich tushunchalarni, hodisalarni to'g'ri anglab, mustaqil fikrlab, ijodiy izlanishni to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqdir. Pedagog ta'kidlayotgan har-bir oddiy kimyoviy tushunchani nazariy jihatdan qayta-qayta takrorlab, talabani o'zlashtirganlik darajasini doskaga chiqib takrorlashi yozma ravishda ifodalashini talab qilib, zaruriy hollarda amaliy tajribalar natijasini o'tkazib, kuzatilgan hodisalarni talabalar bilan hamjihatlikda kimyoviy reaksiyalar tenglamalari ko'rinishida ifodalashi o'quvchi talabalarning kimyo darslariga befarqligini yo'qotib, ijodiy izlanishga majbur qiladi. Mavzuni o'tib, tushuntirib va yuqorida qayd etilgan holatlarni amalga oshirgan kunning o'zidayoq pedagog mavzuga oid o'xshash hodisalar, reaksiya jarayonlarni talabani o'zi mustaqil ravishda kashf etishga imkon berishi, unga yordam berishi talabani kimyoviy tushuncha, bilimlarga bo'lgan qiziqishini va o'qituvchi talab etayotgan har bir kimyoviy jarayonga yoki masalaga ijodiy yondoshish darajasini yanada oshiradi.

Ma'lumki, o'rta maktablar va hatto akademik litseylarda ham o'quvchi talabalar soni 30-40 tadan kam emas. Bunday sharoitda barcha o'quvchilarning ijobiy o'zlashtirishiga erishish qiyin, albatta.

Shuning uchun kimyo o'qituvchisi nazariy tushunchalar berayotgan paytda ham, masalalar yechish chog'ida ham, laboratoriya-amaliy ishlari bilan tanishtirayotganda ham guruh bilan ishlash mahoratini ishga solmog'i lozim bo'ladi. O'qituvchi bazi muommolarni, tushunchalarni baholash chog'ida nafaqat yaxshi o'zlashtiruvchi talabalarning, balki o'rta va hatto past o'zlashtiruvchi talabalarning ham ushbu muommoga munosabatini, tushunchasini so'rab bilishga harakat qilmog'i zarur. Bunday hollarda o'qituvchining hushfe'llik fazilatlarini o'quvchi talabani o'z fikrini erkin ravishda namoyon qilishiga imkon beradi. Aniq ifodalangan maqsad o'quvchilarning o'qish jarayonidagi faoliyatini boshqarish, samaradorligini oshirish, kutilayotgan natijalar sifatini yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Shuning uchun hozirgi paytda kimyo sohasining barcha yo'nalishlaridagi turli shakldagi dars jarayonlarida o'quvchi-talabalarining o'zlashtirish, bilish faoliyatini yuqori darajada faollashtirish maqsadida o'qitishning yanada yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanib muommoli izlanuvchan usullardan, amaliy-laboratoriya darslarini o'tishda esa o'quvchi bilan hamkorlikda ishlash usulidan tashqari turli pedagogik o'yinlardan, kompyuter darslaridan ham ko'proq foydalanish, tajribalarni bajarayotgan o'quvchilarning har biriga alohida individual vazifalar berish va ularning yakka tartibda va jamoa holdagi faoliyatlarini mukammal tarzda uyg'unlashtirish va umumlashtirish hozirgi zamon ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan bo'lib kelmog'ida.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амирова А.Х. Учебные на уроках химии . Химия в школе. -2002.-№ 7. –С. 37-40.

2. Гузеев В.В. Образовательная технология как научная дисциплина. Химия в школе. -2002. –№. -С. 51-56.

3. Дрижун И.Л. Технические средства обучения в химии: учебное пособие для пед. Вузов.-М.:Высшая школа, 1989. -175с.

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA BA'ZI INNOVASION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

¹Ro'ziyev I. X., ²Voxidov A.R., ²Turdialiyev R.R.

¹Sh. Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiti Biokimyo instituti,

²Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali ruziyev78@inbox.ru

Annosiya. Maqolada ta'lim sifatini oshirish va talabalarni rag'batlantirish uchun tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Ta'lim innovatsion texnologiyalar tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga va ilmiy tushunchalarni chuqur tushunishga qanday yordam berishini ko'rsatadi. Bu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashuviga, shuningdek, ta'limga yanada interfaol va shaxsiylashtirilgan yondashuvni yaratishdagi rolga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, fanlarni o'rgatish, kengaytirilgan reallik, virtual reallik, raqamli laboratoriyalar, moslashtirilgan ta'lim, o'yinlashtirish, adaptiv o'qitish, onlayn platformalar, raqamli ta'lim, ilmiy jarayonlarni modellashtirish, ma'lumotlarni vizuallashtirish, virtual tajribalar, ishlanmalar tanqidiy fikrlash, interfaol ta'lim, ta'lim texnologiyalari.

Bugungi kunda "axborotli" jamiyatga yoki "kommunikatsion" jamiyatga o'tish jarayoni sodir bo'lmoqda. Bu o'zgarishlar hayotning barcha sohalariga ta'sir etmoqda. Shu bois Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda qayd etish joizki, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda, zamonaviy ta'lim faol rivojlanmoqda va tabiiy fanlarni o'qitish ham bundan mustasno emas. O'qituvchilar oldidagi turgan muhim vazifa bu - ta'lim usullarini jamiyatning yangi sharoit va talablariga moslashtirish, bu esa ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiradi. Bunday texnologiyalardan foydalanish nafaqat o'quvchilar bilimni chuqurlashtirish, balki o'quv jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv o'tkazishga yordam beradi.

Ta'lim jarayoniga innovatsion metodikalarni joriy etish, o'quv dasturlarining ishlab chiqarish bilan hamohangligini ta'minlash va eng asosiysi, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish ishlari muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi [1].

Innovatsion pedagogik texnologiya qo'shilgan shaharga erishishda yo'naltirilgan usul, bajariladigan ish tartib va vositalarni amalga oshiruvchi murakkab jarayondir[2]. Har qanday tabiiy-ilmiy fanlar siklini o'rganishda o'qituvchilar ko'plab innovatsion texnologiyalardan foydalanishadi jumladan:

1. Rivojlantiruvchi ta'lim (muammoli, diskussion ta'lim)
2. Innovatsion (media-texnologiyalar, algoritmlar, kompyuter)
3. Ta'limga individual-differensirlangan (tabaqalashtirgan) yondashuvga asoslangan ta'lim (shaxsga yo'naltirilgan ta'lim)
4. Hamkorlik texnologiyasi (kollektivli o'qitish, o'yinli usullar)
5. O'quv jarayonini tashkillashtirishda no'anaviy sistemalardagi ta'lim texnologiyalari (fanlararo bog'liqlik asosidagi, o'qitish ta'lim shakllari, takomillashgan o'qitish texnologiyasi).
6. Modulli o'qitish texnologiyalari (bilim bo'yicha, integrativ ta'lim) va boshqalar.

Ta'lim innovatsiyasini tavsiflovchi belgilar:

1. Ta'lim jarayoniga ana'naviy yondashuvdan farqlanuvchi boshqa bo'lgan yondashuv.
2. Ana'naviy ta'limdan farqli bo'lgan ta'lim dasturini yangi yechish usuli va yo'nalishlari.
3. Yangi ta'lim natijasining erishish kafolati.

Har bir darsda muammoli o'qitishni o'rni oshib bormoqda, chunki o'quvchilar oldiga-darsning yangi mavzusi muammosi qo'yilgan. Qo'yilgan o'quv muammoni yechishga qaratilgan o'qituvchi va o'quvchilarning hamdo'stlik usuliga asoslangan, shaxsga-yo'naltirilgan rivojlantiruvchi o'qitishga o'tish zarur, buni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- O'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati, noma'lum bo'lgan narsani anglash istagi.
- O'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish; hayotiy tajribalar va anglashning yangi manbalariga tayanib yangilari ustida izlanish olib borish.
- O'z natijalarini baholashni bilish.

Bu egallangan ta'lim usulidan o'qituvchi uchun o'quvchilarning mustaqil faoliyati orqali bo'lgan faol tajribalar muhim hisoblanadi. Shuning uchun pedagogik dunyo qarashi "men yoningizda, men siz bilan"; ta'sirlashib

dialog o'quvchining mavqiy faol-tashabbuskor uslubi va ta'lim faol maqsadga yo'naltirilgan. Shunda yangi materialni yangilash o'rganilayotgan mavzuning amaliy ahamiyatini uning kasb bilan bog'liqligini tushuna boradi. Hamkorlikdagi ta'lim - bu bog'liqlikdagi o'qitishdir, u birgalikda o'qish nafaqat epcil va qiziqarli balki ancha samarali ham ekanligini ko'rsatadi[3]. O'quvchilarda shunday shaxs-rivojlantiruvchi sifatlar shakllanadiki, ularga:

- Hamkorlik mehnati orqali muvoffaqiyatlarga erishish;
- Rivojlanish ma'naviyati;

Vazifa bajarilgandan so'ng, o'quvchilarga, yangi materialni o'zlashtirganligi va tushunganligini tekshirish uchun test beriladi. Test-vazifasi ustida o'quvchilar individual ishlashadi. Testlar kuchli va kuchsiz o'quvchilar uchun turli darajada beriladi. Kuchsiz o'quvchilar o'zlarining vazifalarini bajarishga avval erishilgan yutuqlari bilan musobaqalashgandek intiladi. Har bir o'quvchi tomonidan yangi materialni o'zlashtirish bu-ishning eng samarali usulidir.

O'qituvchilarda o'rganilayotgan materialga bog'lan talab kamaymaydi, chunki material o'quvchilar bilan sxema, jadval, kompyuter yordamida evristik suhbat usuli bilan o'rganiladi. Darsning didaktik vazifalari bajarilishi ko'rsatkichlari esa quydagilar hisoblanadi:

- Darsning aniq qo'yilgan maqsadiga (muammo) qiziqish uyg'otish.
- O'qitishning ilmiylik darajini ta'minlash.
- O'rganilayotgan obyekt va hodisalarni to'liq hamda aniq belgilash, kimyoviy formula va reaksiya tenglamalarini yozish.
- Daftarlarga dars rejasining tayanch kimyo qonunlariga kimyo qonunlariga ta'rif va tushunchalarni qayd etish.
- O'qitish sifatini baholash.

Agar muammoli bayon etish jarayoni hamdo'stlik usuli bilan borsa – o'qituvchi – o'quvchi va qayta bog'lanish ko'riladi, unda o'quvchilarga turli axborot manbalari shuningdek kompyuter yordamida kimyoviy bilimlarni mustaqil egallab borish jarayonidagi anglash va intellektual qobiliyatlari rivojlanadi. U kimyo fanining nima uchun o'rganilishi va uning bo'lajak kasbdagi o'rni qanday yekanligini anglay boshlaydi.

O'quvchilarda bilim darajasini tenglashtirish zarur, shuning uchun o'quvchilar bilan ishlash shakli turlichadir:

- Individual, turli darajadagi vazifalardan foydalanib.
- Kichik guruhlar-juftli, ko'proq qiziqish o'yg'otuvchi o'zaro diktant, o'zaro nazorat.
- 4 va 5 kishidan iborat guruhlar—tayanch konspektlarni tashkil etadi.
- Kollektivli—o'zaro nazorat uchun misollar yechish ko'nikmalarni qayta ishlashda.
- O'zaro ta'lim—kartochkalar bo'yicha topshiriqlarni bajarish.

Kimyoni o'rganishda seminar darslari va konferentsiya darslari muhim o'rin tutib, bunda mustaqil ishga sarflangan mehnat miqdori va natija, shaxsning individual xususiyatiga kuchli bog'liq bo'ladi. Innovatsion o'qitishning o'ziga xos xususiyati bu avval mavjud bo'lganini takomillashtirish, yangisini kiritishdir.

Innovatsion usulda mahsuldorlik o'qituvchining innovatsion faoliyati va o'quvchilarning ijodiy faoliyatidan iboratdir. Xulosa qilid aytadigan bo'lsak, zamonaviy oliy ta'lim muassasalarining amaldagi modelida innovatsion tarkibiy qism mavjudligi innovatsion faoliyatni, jumladan uning ham an'anaviy bosqichlari, ham noan'anaviyni amalga oshirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Raqamli ta'lim resurslarining joriy etilishi o'quvchilarning faolligi darajasini oshirish va o'quv materiali sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari va ma'lumotlar tahlilidan foydalanish o'qituvchilarga o'qitishga individual yondashuvlarni ishlab chiqish, talabalarning zaif tomonlarini aniqlash va o'quv dasturlarini ularning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar xavfsiz va qiziqarli o'quv muhitini ta'minlab, murakkab tajribalarga kirishni osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Назарова Т.С. Педагогические технологии: новый этап эволюции. // Педагогика. – 1997. - № 3. – с. 20-27.
2. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 256 с.
3. Hasanova Sh. Biologiya darslarida axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Yangi asr avlodi. 2012 y.

POLIOKSIDLI KATALIZATORLAR SINTEZI VA ULARNING METANNING KATALITIK KONVERSIYASIDA QO'LLANILISH IMKONIYATLARI

¹Saidov X.M., ²Muxamadiyev N.Q., ³Sayitqulov Sh.M

¹Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Samarqand, O'zbekiston

²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand, O'zbekiston
e-mail: xmsaidov@gmail.com

³Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Samarqand, O'zbekiston
elektron pochta: ssuhrat@hotmail.com

Annotatsiya. Ish metanning katalitik konversiyasida tadqiq qilish uchun Ni saqlagan katalizatorlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Katalizatorning asosiy tarkibiy qism Ni dan tashqari Al, Cr, Zn, Zr, va Cu komponentlari saqlagan nanodispersli fazaviy tarkibli birikmalardan iborat ekanligi o'rganilgan. Olingan kompozitli katalizatorlarning solishtirma sirt yuzasi, g'ovaklarning solishtirma hajmi, g'ovaklarning o'rtacha diametri aniqlangan. Olingan katalizatorlarning katalitik faolliklari metanning karbonatli konversiyasida qo'llash orqali baholangan.

Kalit so'zlar: katalizator, solution-combustion synthesis, kompozit, diffraktometriya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, sorbsiya.

Аннотация. Работа посвящена анализу Ni-содержащих катализаторов для исследования каталитической конверсии метана. Установлено, что основной компонент катализатора состоит из соединений нанодисперсного фазового состава, содержащих помимо Ni компоненты Al, Cr, Zn, Zr и Cu. Определены удельная поверхность, удельный объем пор и средний диаметр пор полученных композиционных катализаторов. Каталитическую активность полученных катализаторов оценили при использовании их в карбонатной конверсии метана.

Ключевые слова: катализатор, синтез горением в растворе, композит, дифрактометрия, сканирующая электронная микроскопия, сорбция.

Abstract. The work is devoted to the analysis of Ni-containing catalysts for studying the catalytic conversion of methane. It was found that the main component of the catalyst consists of compounds of nanodispersed phase composition containing components of Al, Cr, Zn, Zr and Cu in addition to Ni. The specific surface area, specific pore volume and average pore diameter of the synthesized composite catalysts were determined. The catalytic activity of the synthesized catalysts was assessed when using them in the carbonate conversion of methane.

Keywords: catalyst, solution combustion synthesis, composite, diffractometry, scanning electron microscopy, sorption.

Kirish. Sanoatning rivojlanishi natijasida CO₂ va CH₄ gazlarining atmosferaga sezilarli darajada emissiyasi natijasida ortib borayotgan parnik effekti bu gazlarni kamaytirish choralarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi [1]. Katalizatorlar qo'llash orqali metanning karbonatli konversiyasi bir vaqtning o'zida ikkala zararli gazlarni foydali mahsulotga aylantirish ya'ni sintez gazi (CO va H₂) ni ishlab chiqarish, keyinchalik ularni qimmatbaho kimyoviy moddalarga aylantirish mumkin [2].

Metanning karbonatli konversiyasi orqali olingan mahsulotlar, jumladan, sintez gazi (CO+H₂), metanol, uglevodorodlar, polimerlar, uglerodli nanonaylar va nanozarrachalar strategik ahamiyatga ega bo'lib, ular kimyoviy birikmalar olish, yoqilg'i ishlab chiqarish, noyob fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'lgan materiallar yaratish, ekologik jihatdan barqaror jarayonlarni yaratishga xizmat qilmoqda. Metanning karbonatli konversiyasidan foydalanib mahsulotlar olishning kinetik qonuniyatlarini o'rganish, reaksiyalarning borish mexanizmlarini aniqlash, reaksiyalar uchun katalizatorlar sintez qilish va ularning samaradorligini baholash, konversiya jarayonlarning texnologik sxemalarini yaratish, metanning karbonat angidrid yordamida konversiyasi bo'yicha yuqori samarali katalizatorlarni sintez qilish, reaksiyaning adekvat kinetik modellarini yaratish, yangi energotejamkor va ekologik toza texnologik sxemalarni ishlab chiqish, atmosfera isishining oldini olish, ushbu jarayonda qo'llaniladigan istiqbolli katalizatorlar sintez qilish esa kimyogar olimlar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Tabiiy gazni konversiya qilishning barcha jarayonlari, u yoki bu tarzda, turli xil turdagi katalizatorlardan foydalanish bilan bog'liq. Kataliz sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri esa yangi avlod katalizatorlari sintez qilish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishdir [3].

XX asrning oxiriga kelib, zol-gel texnologiyasida kompozitli, nanomateriallar sintezida yangi bir sintez usuliga asos solindi. Bu sintez usuli yuqori temperaturaga asoslangan bo'lib, sintez jarayonida metall nitratlari (kuchli oksidlovchilar) va turli xil qaytaruvchi (yonuvchan) moddalarning yonishi va metall nitratlarining parchalanishi natijasida ko'p miqdorda issiqlik hosil bo'ladi [4]. Usul boshqa usullarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lib, bular: dastlabki moddalarning eritma holatida bo'lishi ularning molekulyar holatgacha aralashish imkonini beradi, temperaturaning o'rtacha 1000 °C ga ko'tarilishi hosil bo'ladigan kukun zarrachalarining toza va kristallanish darajasini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Sintez jarayonining qisqa vaqtlarda yuz berishi va turli ko'p miqdoradagi gazlarning hosil bo'lishi zarrachalarning yiriklashishiga yo'l bermaydi va yuqori sirt yuzaga ega bo'lgan nanostrukturali kukun hosil bo'lishiga olib keladi [5]. Bu usul solution-combustion synthesis usuli hisoblanadi.

Ishda [6,7] ushbu usuldan foydalanib, ba'zi d-elementlarning oksidlari asosida katalizatorlar sintezi amalga oshirilgan.

Tajribaviy qism.

Kimyoviy reaktivlar. Ni(NO₃)₂·6H₂O-nikel nitrat geksagidрати, ZrO(NO₃)₂·2H₂O sirkoniy okso nitrat digidрати, Cr(NO₃)₃·6H₂O – xrom (III) nitrat geksagidрати, Mg(NO₃)₂·2H₂O -magniy nitrat digidрати,

$\text{Al}(\text{NO}_3)_3 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$ – alyuminiy nanogidрати, $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ -mochevina, $\text{C}_2\text{H}_5\text{NO}_2$ -glitsin, HNO_3 -nitrat kislova va distillangan suv.


Solution-combustion synthesis usulida kompozit katalizator sintezi amalga oshirildi. Olingan sintez mahsuloti bir xil ko‘rinishga kelguncha 10 minut davomida maydalagichda maydalandi va kuydirish pechida 800°C temperaturada, temperaturaning oshib borish tartibi $1\text{-}2^\circ\text{C}/\text{min}$ da 4 soat davomida kuydirildi va kompozitli mahsulot olindi. [10,11,12].

Sintez qilingan katalizatorlarning fizik-kimyoviy xarakteristikalarini rentgen fazaviy tahlili Panalytical Empyran-rentgen difraktometr (XRD) da [13,14], sirt yuza morfologiyasi skanerlovchi elektron mikroskop SEM EVO MA 10 (Carl Zeiss) va element tahlili [15] energiya dispersion rentgen spektrometr bilan jihozlangan (EDS Aztec Energy Advanted X-Act, Oxford Instruments) qurilmasi yordamida o‘rganildi. Mak-Ben-Bakranning sezgir spiralli qurilmasi orqali esa past temperaturada turli moddalar bug‘larining sorbsiyalanishi [16] orqali katalizatorlarning solishtirma sirt yuzasi, polimolekulyar adsorbsiya orqali monoqavat sig‘imi hisoblandi va katalizatorlarning sorbsion izotermalari olindi.

Natijalar va ularning muhokamasi.

Sintez qilingan katalizatorlarning rentgen fazaviy tahlili Panalytical Empyran-rentgen difraktometr (Shimadzu XRD) da o‘rganildi. Katalizatorning fazaviy tarkibi rentgenografiya usulida birinchi bosqichda namunaning difraktogrammalaridan rentgen nurlarining intensivliklari hisoblandi (1a-rasm).


Olingan difraktometriya tahlili orqali katalizatorning fazaviy tarkibi $\text{Ni}_{1,875}\text{O}_2$, NiAl_2O_4 , $\text{Cu}_{0,5}\text{Ni}_{0,5}\text{Al}_2\text{O}_4$, $\text{Al}_2\text{O}_4\text{Zn}$ va $\text{Ni}_{0,9}\text{Zn}_{0,1}$ ekanligi aniqlandi. Fazaviy tarkiblarning shakli asosan kubik bo‘lib, trigonal (geksagonal) tuzilishli ham mavjudligi aniqlandi.



1a,b-rasmlar. $\text{NiO} \cdot \text{ZrO} \cdot \text{ZnO} \cdot \text{CuO} / \text{Al}_2\text{O}_3$ katalizatorning rentgen difraktogrammasi va element tahlili

Eng yuqori intensivliklar $\text{Ni}_{1,875}\text{O}_2$ ga tegishli bo‘lib, $2\theta=43,29$, $2\theta=37,20$, $2\theta=62,87$ larni tashkil qildi. Bu katalizator tarkibidagi $\text{Cu}_{0,5}\text{Ni}_{0,5}\text{Al}_2\text{O}_4$, $\text{Al}_2\text{O}_4\text{Zn}$ va $\text{Ni}_{0,9}\text{Zn}_{0,1}$ ning intensivliklarni yuqori emasligi va amorf struktura tuzilishi bilan bog‘liq. Katalizatorning, sirt yuza element tahlili va morfologiyasi skanerlovchi elektron mikroskop SEM EVO MA 10 (Carl Zeiss) da tadqiq etildi. Rentgen mikroanalizi yordamida katalizatorlarning belgilangan sirt yuzasida element tahlili o‘tkazildi (1b-rasm).

Katalizatorning solishtirma sirt o‘lchami, g‘ovaklarning hajmi va o‘rtacha diametri kabi tekstur xarakteristikalarini Mak-Ben-Bakranning sezgir spiralli kvarts qurilmasida benzol hamda toluol bug‘larining adsorbsiyasi orqali o‘rganildi. Katalizatorga benzol va toluol bug‘larining sorbsiya izotermalari 2-rasmda keltirilgan bo‘lib, Sorbsiya izotermalaridan, sorbsiyalangan adsorbatlarning asosiy miqdori $p/p_0 = 0,1 \div 0,6$ oralig‘iga to‘g‘ri kelishini ko‘rish mumkin. Shuningdek, nisbiy bosim $p/p_0 = 0,68 \div 0,90$ da mezog‘ovaklardagi kapillyar kondensatsiya hisobiga gisterezis halqalari hosil bo‘lgan. Gisterezis halqalarining katta nisbiy bosim tomonida hosil bo‘lishi katalizator nisbatan yirik mezog‘ovaklar hamda makrog‘ovaklardan iboratligini ko‘rsatdi.



2-rasm. Katalizatorga benzol va toluol bug‘larining adsorbsiya izotermalari

Umumiy holatda sintez qilingan katalizatorlarning sirt yuzasi xarakteristikalari umumlashgan holatda quyidagi jadvalda keltirilgan.

Katalizator	H	S_{BET} , m ² /g	a_m , mol/kg	V_s , sm ³ /g	a_s , mol/kg	D
K1	,0	425÷610	153±0,22	0,78÷0,95	4,3±0,4	190±15,7 nm

Jadvaldan, katalizatorning solishtirma sirt yuzasi katta $S_{BET} = 425\div 610\text{m}^2/\text{g}$, g‘ovaklar o‘lchamining esa kichik $190,0\pm 15,7$ nm ekanligini, shunga mos ravishda boshqa parametrlarning ham ko‘rishimiz mumkin.

Umumiy holatda yuqoridagi natijalardan quyidagicha xulosa qilish mumkin, NiO/Al₂O₃ saqlagan katalizatorga turli dopantlarning qo‘shilishi uning sirt yuzasi tuzilishiga va adsorbsiya jarayonlariga turlicha ta‘sir etdi. NiO ZrO₂/Al₂O₃ [16] ga ZnO·CuO ning dopant sifatida qo‘llash, sirt yuzasi xarakteristikalarining yuqori bo‘lishi, nanozarrachalar sonining ortishiga ijobiy ta‘sir etishini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSALAR

1. Zol-gel texnologiyasining “solution-combustion synthesis” usulida ba’zi d-elementlar asosida, NiO saqlagan kompozit katalizatorlarning sintez qilindi. Olingan katalizatorlarning fazaviy tarkibi NiO·ZrO·ZnO·CuO/Al₂O₃ dan iborat ekanligi aniqlandi.

2. Katalizatorlarga benzol va toluol bug‘larining adsorbsiyasi orqali sorbsiya izotermalari olindi va SEM orqali katalizatorlarning solishtirma sirt yuzasi $S_{BET} = 425\div 610\text{m}^2/\text{g}$, g‘ovaklarning solishtirma hajmi $V_s = 0,78-0,95\text{sm}^3/\text{g}$, g‘ovaklarning o‘rtacha diametri, $D = 190\pm 15,7$ nm, monoqavat sig‘imi $a_m = 153\div 0,22\text{mol}/\text{kg}$ va to‘yinish adsorbsiyalari $a_s = 4,3\div 0,4\text{mol}/\text{kg}$ ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Saidov Kh. M and Mukhamadiyev N. K Catalyst synthesis based on Ni, Zr oxides and its research. Int. Conf. on Integrated Innovative Development of Zarafshan Region: Achievement, Challenges and Prospects, 2019. – pp 274-6
- Dossumov K., Churina D.Kh., Myltykbaeva L.K., Tungatarova S.A. Oxide catalysts for hydrogen production from natural gas-methane in one stage // European Applied Sciences. - 2013. – Vol. 7. – P. 92-94.
- Lapidus A. L. Zhagfarov, F. G., Sosna, M. Kh., Melnikov, A. P., Elkin, A. B., and Chung, Z. Study of the catalytic process of carbon dioxide conversion of natural gas // Gas chemistry. - 2009. - №. 3 (7). - P. 14-26.
- Cross A. Roslyakov, S., Manukyan, K. V., Rouvimov, S., Rogachev, A. S., Kovalev, D., and Mukasyan, A. S. In situ preparation of highly stable Ni-based supported catalysts by solution combustion synthesis //The Journal of Physical Chemistry P. – 2014. – T. 118. – №. 45. – P. 26191-26198.
- Novikov V. Xanthopoulou, G., Knysh, Y., and Amosov, A. P. Solution Combustion Synthesis of nanoscale Cu-Cr-O spinels: Mechanism, properties and catalytic activity in CO oxidation //Ceramics International. – 2017. – T. 43. – №. 15. – P. 11733-11742.
- Varma A. et al. Solution combustion synthesis of nanoscale materials //Chemical reviews. – 2016. – T. 116. – №. 23. – C. 14493-14586.
- Wen W., Wu J. M. Nanomaterials via solution combustion synthesis: a step nearer to controllability //RSC advances. – 2014. – T. 4. – №. 101. – P. 58090-58100.
- Saidov Kh.M., Sayitkulov Sh.M., Mukhamadiev N. K. Synthesis of the catalysts based on oxides of some d-elements// Uzbek chemical journal. – 2019. –№. 4. P. 3-8.
- Saidov Kh.M., Mukhamadiev N.K. Synthesis of the catalysts based on oxides of some d-elements //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – T. 1008. – №. 1. – P. 012035.
- Khort, A., Hedberg, J., Mei, N., Romanovski, V., Blomberg, E., and Odnevall, I. Corrosion and transformation of solution combustion synthesized Co, Ni and CoNi nanoparticles in synthetic freshwater with and without natural organic matter //Scientific reports. – 2021. – T. 11. – №. 1. – P. 1-14.

11. Li F. Solution combustion synthesis of metal oxide nanomaterials for energy storage and conversion //Nanoscale. – 2015. – T. 7. – №. 42. – P. 17590-17610.
12. Saidov Kh.M., Ruziev I., Omontosheva M.T., Mukhamadiev N. K. Synthesis of the catalysts based on oxides of some d-elements// Collection of articles of the III International Scientific and Practical Conference – 2021. – T. 7. – №. 42. –pp 28 – 32 P. 269
13. Brožek-Mucha Z. Scanning electron microscopy and X-ray microanalysis for chemical and morphological characterisation of the inorganic component of gunshot residue: selected problems //BioMed Research International. – 2014.
14. Scapino L. Zondag, H. A., Van Bael, J., Diriken, J., and Rindt C. C. Sorption heat storage for long-term low-temperature applications: A review on the advancements at material and prototype scale //Applied Energy. – 2017. – T. 190. – P. 920-948.
15. Kaumenova G.N. Development of Composite Materials by Combustion Synthesis for Catalytic Reforming of Methane into Hydrocarbons and Syngas // dissertation –2020. –Kazakhstan.
16. Saidov K. M. et al. Synthesis of Polyoxide Catalysts and their Application Possibility in Catalytic Conversion of Methane //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 760-779.



ZAHARLI O'SIMLIKLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Siddiqova Y.X.¹, Tolibjonov Sh.U.², G'afforova S.A.³

Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali o'qituvchisi

Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali talabasi

Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zaharli o'simliklarning tabiatdagi roli, organizmlar hayotidagi, jumladan, inson hayotidagi ahamiyati, hamda O'simliklar olamidagi o'rni, turlarining soni va tarqalishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Undan tashqari zaharli o'simliklardan ayrim turlari haqida qisqa ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о роли ядовитых растений в природе, их значении в жизни организмов, в том числе и жизни человека, а также их месте в мире растений, численности и распространении их видов. Кроме того, даны краткие сведения о некоторых видах ядовитых растений.

Abstract: This article presents information about the role of poisonous plants in nature, their importance in the life of organisms, including human life, as well as their place in the world of plants, the number and distribution of their species. In addition, brief information about some types of poisonous plants is provided.

Kalit so'zlar: haqiqiy va shartli zaharli o'simliklar, zaqqum, ritsin, toksik modda, Tulki o'simligi, Belladonna, urushiol, buyraksimon urug', tikanli olma, Ricinus, Mistletoe, kastor yog'i.

Ключевые слова: настоящие и условные ядовитые растения, заккум, рицин, ядовитое вещество, лисица, белладонна, урушиол, семена почек, терновник, рицинус, омела, касторовое масло.

Key words: real and conditional poisonous plants, zaccum, ricin, toxic substance, Fox plant, Belladonna, urushiol, kidney seed, thorn apple, Ricinus, Mistletoe, castor oil.

Zaharli o'simliklar - tarkibida zaharli moddalar bor o'simliklar. Ular bilan aloqada bo'lgan tirik mavjudotlarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan zaharli moddalarni ishlab chiqaradigan o'simlik. Bu moddalar o'simlikning turli qismlarida, masalan, barglar, gullar, mevalar, ildizlar, poyalar va hatto gulchanglarda bo'lishi mumkin. Tarkibidagi zaharli moddalariga ko'ra zaharli o'simliklar 2 guruhga bo'linadi:

1) haqiqiy— zaharlilik turning xususiy belgisi hisoblanadi;

2) shartli — turdagi ayrim o'simlik yoki o'simliklar zaharli bo'ladi (Masalan, zig'ir va oq jo'xori ayrim hollarda sianid kislotaga chiqaradi).

Haqiqiy zaharli o'simliklarning 10 ming turi bor. Asosan, subtropik mamlakatlarda o'sadi, masalan, zaqqum. O'simliklarning zaharliligi ulardagi turli organik birikmalar — alkaloidlar, glikozidlar, glikoalkaloidlar, efir moylari, kislotalar, laktonlar, toksalbuminlar, smolali organik moddalarning miqdoriga bog'liq. Bu moddalar o'simliklarning turli organida to'planadi: parpi va moralquloqning, asosan, ildiz poyasida, angishvonagulning bargida to'planadi va hokazo.

Zaharli o'simliklar barcha jonivorlarga bir xilda ta'sir etmaydi. Masalan, odam uchun zaharli belladonna va bangidevona quyon va qushlarga mutlaqo zararsiz; piretrumning ba'zi turlari hasharotlarga zararli bo'lsa, isiqqonli hayvonlar uchun zararsiz; dengiz piyozi kemiruvchilarga zaharli, boshqa hayvonlar uchun zararsiz va hokazo. Zaharli moddalar o'simlikning turli o'sish davrlarida to'planadi. O'simlikning zaharliligi ular ko'karib turganida qurigandagisiga qaraganda ko'proq bo'ladi, ba'zilarida esa qurigandan keyin zaharliligi butunlay yo'qoladi. (Maye, uchma, ayiqtovon va boshqalarda).

Ko'pchilik zaharli o'simliklarning dorivorlik xususiyatlari ham bor (isparak, qizg'aldoq, ko'knori, achchiqmiya va boshqalar). Bulardan olinadigan preparatlar har xil kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

Zaharli o'simliklar odamlarni ham, hayvonlarni ham tashvishga soladi. Ba'zi odamlar o'simliklardagi zaharlarga boshqalarga qaraganda ko'proq sezgir bo'lishi mumkin, o'ta og'ir holatlarda allergik reaksiya yoki hatto

jiddiy kasallik yoki o'limga olib kelishi mumkin. Hayvonlar ham zaharli o'simliklarning ta'siridan aziyat chekishi mumkin, ayniqsa ular o'simlikning biron bir qismini iste'mol qilsalar.

Shuni ta'kidlash kerakki, barcha zaharli o'simliklar bir xil darajada xavfli emas. Ba'zilar terining tirnash xususiyati keltirib chiqarishi mumkin, boshqalari esa juda kichik dozalarda o'limga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ba'zi zaharli o'simliklarni jismoniy xususiyatlariga ko'ra osongina aniqlash mumkin, umurtqa pog'onasiga o'xshash yoki yorqin rangli, boshqalari esa yalang'och ko'zga zararsiz ko'rinishi mumkin. Zaharli o'simliklar bilan bog'liq muammolarni oldini olish uchun o'zingizni qaysi o'simliklar zaharli ekanligi haqida o'rganishingiz va kerak bo'lganda profilaktika choralarini ko'rishingiz kerak. Ba'zi chora-tadbirlar o'simliklar bilan ishlashda qo'lqop kiyishni, notanish o'simliklar bilan aloqa qilganda bolalarni nazorat qilishni va yovvoyi o'simliklarni iste'mol qilmaslikni, agar ular xavfsiz va qutulish mumkinligi ma'lum bo'lmasa, o'z ichiga olishi mumkin. Dunyo bo'ylab juda ko'p turli xil zaharli o'simliklar mavjud, ba'zilari boshqalardan ko'ra xavfliroq.

O'simlikning zaharli ekanligini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin, chunki hamma zaharli o'simliklar ham aniq xususiyatlarga ega emas. Biroq, o'simlik zaharli yoki yo'qligini aniqlashga yordam beradigan ba'zi ko'rsatmalar mavjud. Zaharli o'simliklarni aniqlash bo'yicha ba'zi maslahatlar:

O'rganishdan oldin tadqiqot o'tkazish: Har qanday noma'lum o'simlikka tegmasdan oldin, u haqida tadqiqot o'tkazish muhimdir. Agar hududda zaharli o'simliklar borligi ma'lum bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotsiz noma'lum o'simliklarga tegmaslik yaxshiroqdir.

Jismoniy xususiyatlarga e'tibor berish: Ba'zi zaharli o'simliklar ularni aniqlashga yordam beradigan jismoniy xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar porloq barglar, qalin ranglar, tikanlar, o'q shaklidagi barglar yoki oq lateksli o'simliklarni o'z ichiga olishi mumkin.

Barglarni aniqlashni o'rganish: Barglar o'simlikning zaharli yoki zaharli emasligini aniqlashda uning eng muhim qismlaridan biridir. Zaharli barglar silliq yoki qirrali, g'ayrioddiy shaklga ega yoki hatto o'ziga xos dog'lar yoki belgilarga ega bo'lishi mumkin.

Mevalardan ehtiyot bo'lish: Ba'zi zaharli o'simliklar bolalar va uy hayvonlarini vasvasaga solishi mumkin bo'lgan yorqin, jozibali rezavorlarga ega. Agar rezavorlar bilan o'simlik noma'lum bo'lsa, ular xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilmaguningizcha, ularni iste'mol qilmaslik yaxshiroqdir.

Joylashuvga e'tibor berish: Ba'zi zaharli o'simliklar ma'lum joylarda o'sadi, masalan, daraxtlarda o'sadigan zaharli pechak yoki nam, o'rmonli joylarda joylashgan belladonna.

Shuni ta'kidlash kerakki, zaharli o'simliklarni aniqlash qiyin bo'lishi mumkin va hatto botanika mutaxassislari ham ba'zi o'simliklarni aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Agar zaharli o'simlik bilan aloqa qilishda shubha tug'ilsa, darhol shifokorga murojaat qilish kerak.

Ayrim zaharli o'simliklar:

Kastor loviya (*Ricinus communis*): Kastor yog'i ishlab chiqarishda ishlatiladigan iliq iqlim sharoitida keng tarqalgan o'simlik. Biroq, o'simlikning barcha qismlarida ritsin, toksik modda mavjud bo'lib, u ko'p miqdorda oshqozon-ichak trakti bilan bog'liq muammolar, tutilishlar va hatto o'limga olib kelishi mumkin.

Mistletoe (*Viscum album*): Mistletoe - daraxtlarda o'sadigan va bezak sifatida ishlatilishi tufayli Rojdestvo bilan bog'liq bo'lgan o'simlik. Biroq, o'simlikning barcha qismlari zaharli, ayniqsa rezavorlar, qusish, diareya, qorin og'rig'i va anormal yurak ritmiga olib kelishi mumkin.

Digitalis (*Digitalis purpurea*): Tulki o'simligi sifatida ham tanilgan bu o'simlik yurak kasalliklari uchun dori ishlab chiqarishda ishlatiladi. Biroq, o'simlikning barcha qismlari, ayniqsa, yurak glikozidlarini o'z ichiga olgan barglari va urug'lari zaharli bo'lib, yurak ritmining buzilishi, tutilish va hatto o'limga olib kelishi mumkin.

Belladonna (*Atropa belladonna*): Belladonna - juda zaharli bo'lgan yorqin, jozibali rezavorlar bilan o'simlik. Mevalarni iste'mol qilish ko'z qorachig'ining kengayishi, quruq og'iz, yutish qiyinligi, yurak ritmining buzilishi va tutilishga olib kelishi mumkin.

Zaharli pechak (toksikodendron radikalari): Zaharli pechak - bu Shimoliy Amerikadagi keng tarqalgan o'simlik bo'lib, u tegsa terining tirnash xususiyati keltirib chiqarishi mumkin. O'simlik moyi tarkibida urushiol deb ataladigan toksik modda mavjud bo'lib, u kuchli toshma, qichishish va qabariq paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Eng keng tarqalgan zaharli o'simliklarga g'amxo'rlik qilish va ulardan saqlanish bo'yicha ba'zi maslahatlar:

Ularni bolalar va uy hayvonlari qo'li etmaydigan joyda saqlang: Agar sizda zaharli o'simliklar bo'lsa, ularni bolalar va uy hayvonlari qo'li etmaydigan joyda saqlash muhimdir. Bu ularni baland javonlarga, yopiq xonalarga joylashtirish yoki o'simliklar joylashgan maydonni to'sib qo'yishni o'z ichiga olishi mumkin.

Qo'lqop va himoya kiyimlarini kiying: Agar zaharli o'simlik bilan ishlov berish kerak bo'lsa, qo'lqop va himoya kiyimlarini kiyish muhimdir. Bu toksik moddalarga ta'sir qilishning oldini olishga va terining tirnash xususiyati yoki shikastlanish xavfini kamaytirishga yordam beradi.

O'simliklar bilan ishlagandan keyin qo'lingizni yuving: Zaharli o'simlik bilan ishlagandan so'ng, qo'lingizni sovun va suv bilan yuvish muhimdir. Bu toksik moddalarga ta'sir qilishning oldini olishga va terining tirnash xususiyati yoki shikastlanish xavfini kamaytirishga yordam beradi.

O'simliklarni yaxshi holatda saqlang: Ba'zi zaharli o'simliklar yomon holatda bo'lsa yoki noto'g'ri ishlov berilsa, zaharli moddalarni chiqarishi mumkin. Zaharli moddalarga ta'sir qilish xavfini kamaytirish uchun o'simliklarni yaxshi holatda saqlash va parvarish qilish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilish muhimdir.

Zaharlanish belgilarini bilib oling: Zaharli o'simliklarning alomatlarini bilish juda muhim, shunda siz ularni tezda aniqlashingiz mumkin. Alomatlar orasida terining tirnash xususiyati, ko'ngil aynishi, qusish, diareya, qorin og'rig'i, anormal yurak ritmi, tutilish va nafas qisilishi bo'lishi mumkin.

Agar zaharli o'simlik bilan aloqa qilishda shubha tug'lsa, darhol shifokorga murojaat qilish kerak. Tibbiyot mutaxassislariga zaharli moddani aniqlash va tegishli davolanishni ta'minlash uchun o'simlik namunasi ham keltirilishi kerak. **Bangidevona yoki Tikanli olma.** Ituzumdoshlarga mansub bir yillik begona o't. Poyasi tarqoq, tik shoxlanib o'sadi; bo'yi 1,2 m cha. Bargi tuxumsimon, bandli, uchi qirrali. Gullari oq, barg qo'ltig'ida bittadan joylashgan. Mevasi yashil, tikan bilan qoplangan to'rt chanoqli tuxumsimon ko'sakcha: uzunligi 4,5 sm gacha boradi, 500 ga yaqin buyraksimon, qora tusli urug' beradi. Maydan iyungacha gullaydi va mevalaydi. Urug'idan ko'payadi. Bargi, poyasi, ildizida giossiamin, skopolamin, atropin kabi zaharli alkaloidlar bor. Bargidan revmatizm, nevralgia kasalliklarini davolashda ishlatiladigan dorilar tayyorlanadi. Kurash choralari: ekinzorlar qo'lda o'toq qilinadi.

Mingdevona – Ituzumdoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi. Bo'yi 1,5 m gacha. Poyasi shoxlangan, sertuk. Birinchi yili uzun bandli ildiz bo'g'iz, to'pbarg, ikkinchi yili poya o'sib chiqadi. Poyadagi barglari tuxumsimon, 3—7 bo'lakli, bandsiz, ketma-ket joylashgan. Gullari sarg'ish, uchi keng, poya uchida to'pgul hosil qiladi. Mevasi ikki xonali, ko'p urug'li, ko'zachasimon, ko'sakcha. O'rta Osiyo, Sibir, Kavkaz, Uzoq Sharqda tarqalgan. O'zbekistonda 2 turi (turkman mingdevona va qora mingdevona) bor, ko'proq qora mingdevona (zaharli begona o't) uchraydi. Mingdevona yo'l yoqalarida, o'tloq va partov yerlarda, ekinzorlarda o'sadi. Bargi tarkibida giossiamin, atropin, skopolamin va boshqa zaharli alkaloidlar bor. Barg ekstrakti va urug'ining moyi bod, asab kasalliklarida og'riq qoldiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Doridarmon tayyorlash uchun maxsus ekiladi.

Kanakunjut (Ricinus) - sutlamadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, asosan, moy olish uchun ekiladigan ekin. Kanakunjutning 3 turi uchraydi:

- mayda urug'li kanakunjut — Ricinus microcarpus;
- yirik urug'li kanakunjut — Ricinus macrocarpus;
- Zanzibar kanakunjuti Ricinus zanzibarinus.

Misrda mil. av. 2-ming yillikdan boshlab ekilgan. Vatani — Shimoliy-Sharqiy Afrika. Jahondagi ko'pgina mamlakatlar dehqonchiligida ikki, uch yillik yoki bir yillik ekin tarzida o'stiriladi. O'zbekistonning sug'oriladigan mintaqalarida bir yillik ekin. Kanakunjut ekilgan maydonlar jahon bo'yicha 1280 ming gektar, o'rtacha hosildorlik bir gektarga 10,49 sentnerni tashkil qiladi. O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida hosildorligi gektariga 20-25 sentnerni tashkil etadi. Kanakunjutning o'q ildizi tuproqqa 2—4 m gacha kirib boradi. Poyasi o'tsimon, ichi kovak, tik o'sadi. Balandligi o'z vatanida (tropik mintaqalarda) 6-10 m gacha, O'zbekistonda 2—3 m. Poyasi shoxlanadi. Rangli barglari yirik, qalqonsimon, uzun bandli (25—60 sm), bo'laklarga bo'lingan. Guli mayda, yashil, gulto'plami shingil, shakli ponasimon, 5 ta gultojibargdan iborat. Gul to'plami uchki qismida urg'ochi gullari, pastki qismida erkak gullari joylashadi. To'pgulining uzunligi 10—30 sm, ba'zan 70 sm ga boradi. Mevasi — uch uyali ko'sakcha. Ayrim poyalarda ko'sakchalar yetilganda chatnaydi. Urug'i — tuxumsimon, yirik, 1000 ta urug'i vazni 150—500 g, tarkibida 40—57% moy mavjud. Kanakunjut issiqsevar, yorug'sevar, namsevar o'simlik, unumdor yerlarda yaxshi o'sadi. O'sish davri 120—150 kun. Moyi qurimaydigan (yod soni 82—86) guruhiga kiradi. —10° dan —18° da qotadi, tabobatda (kanakunjut moyi-kastorka), parfumeriyada, lok-bo'yoq sanoatida, sovun tayyorlashda,teri va to'qimachilik sanoatlarida ishlatiladi. Kunjarasi zaharli (ritsinin alkaloidi bor), o'g'it hamda yelim ishlab chiqarishda ishlatiladi. Kanakunjut kuzgi don, dukkakli don, makkajo'xori ekinlaridan bo'shagan yerlarga ekiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi [Toshkent 2006-yil];
2. Otaboyeva H. N. O'simlikshunoslik, [Toshkent 2000-yil];
3. Xolmatov H.X.,Habibov Z. H., Farmakognoziya[Darslik],Toshkent-1967;
4. BOTANIKA (Morfologiya , Anatomiya, Sistematika, Geo Botanika) O' .Paratov , L Shamsuvalieva , E Sulaymonov, X Axunov, K Ibodov, V Mahmudov - TA'LIM NASHRIYOTI . [TOSHKENT - 2010];
5. Botanika - Xolida Mirfayoz qizi Mahkamova. – [Toshkent]: " O'qituvchi"- 1995.

O'QUV JARAYONIDA O'QUVCHILARGA ANIQ VA TABIIY FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI.

Sulaymonov M.A.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalar va tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi;

+99894-474-06-09; +99833-932-86-86 mirobidsulaymonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv jarayonida aniq va tabiiy fanlarning laboratoriya darslarini tashkil etish uchun virtual laboratoriyalardan foydalanish usullari o'rganiladi yaniq aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan eng mashhur virtual laboratoriya yaratuvchi dasturlar va ularning afzalliklari, imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Vetual laboratoriyalar, Simulyatsiya, Axborot, PhET, Braozerlar, Interaktiv muhit.

Аннотация: В данной статье изучаются способы использования виртуальных лабораторий для организации лабораторных занятий по точным и естественным наукам в учебном процессе, то есть мы поговорим о наиболее популярных программах создания виртуальных лабораторий, используемых при преподавании точных и естественных наук, их преимуществах и возможности.

Ключевые слова: Виртуальные лаборатории, Моделирование, Информация, PhET, Браузеры, Интерактивная среда.

Abstract: In this article, methods of using virtual laboratories to organize laboratory classes of exact and natural sciences are studied in the educational process, that is, we will talk about the most popular virtual laboratory creation programs used in teaching exact and natural sciences and their advantages and possibilities.

Keywords: Virtual laboratories, Simulation, Information, PhET, Browsers, Interactive environment.

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida aniq va tabiiy fanlarni o'qitish jarayonini yanada samarali qilishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'limning innovatsion texnologiyalari sifatida virtual laboratoriyalar an'anaviy laboratoriya darslarini to'ldirib, o'quvchilarga yangi bilimlarni interaktiv va qiziqarli usulda o'zlashtirish imkonini yaratadi. O'quvchilar real laboratoriya sharoitida duch kelishi mumkin bo'lgan cheklovlar, xavfsizlik talablaridan xoli holda tajribalar o'tkazishlari va o'z bilimlarini chuqurlashtirishlari mumkin. Shu bilan birga, virtual laboratoriyalar orqali fanlararo aloqalarni mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va ta'lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatlari yaratiladi. Ushbu maqola aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy virtual laboratoriyalardan foydalanish usullari, ularning afzalliklari va ta'lim jarayonidagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlanadi. [1]


Asosiy qism: Virtual laboratoriyalar bu maxsus dasturlar bo'lib, ular foydalanuvchilarga matematik, fizik, kimyoviy va boshqa turdagi tajribalarni interaktiv muhitda bajarishga imkon beradi. Bu dasturlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: [2]

- **Xavfsizlik:** Ko'plab laboratoriya tajribalari xavfli moddalardan foydalanishni talab qiladi. Virtual laboratoriyalar orqali o'quvchilar xavfsiz muhitda tajribalar o'tkazishlari mumkin.
- **Resurslarni tejash:** Real laboratoriya jihozlari qimmat bo'lishi mumkin va har doim ham mavjud emas. Virtual laboratoriyalar resurslarni tejash imkonini beradi, chunki ular har qanday qurilmada ishlashi mumkin.
- **Qulaylik va moslashuvchanlik:** O'quvchilar har qanday joyda va harqanday vaqtda, internetga ulanish orqali laboratoriya ishlarini bajarishlari mumkin. Bu esa ularning mustaqil o'rganish va o'zlashtirish jarayonini yaxshilaydi.
- **Interaktivlik:** Virtual laboratoriyalar o'quvchilarga turli tajribalarni o'tkazishga va natijalarni real vaqt rejimida ko'rishga imkon beradi. Bu o'qish jarayonini qiziqarli va oson o'zlashga olib keladi.

Bu virtual laboratoriya ishlarini tashkil etish va foydalanishda eng mashhur dasturlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak bu dasturlar quyidagilar:

PhET Interactive Simulations PhET dasturi Kolorado universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va fizikadan tortib kimyogacha bo'lgan turli fanlar bo'yicha ko'plab simulyatsiyalarni taqdim etadi. PhET simulyatsiyalari interaktiv bo'lib, o'quvchilarga aniq va tabiiy fanlar qonuniyatlarini o'rganish uchun turli tajribalarni o'tkazishga imkon beradi. Dastur bepul bo'lib, bu dasturlardan brauzerlar yoki maxsus ilova orqali foydalanishimiz mumkin. [3]


Bu dasturga <https://phet.colorado.edu/uz/simulations/browse> manzili orqali kirish mumkin. 1-2-rasmlar.




Aniq va tabiiy fanlar uchun aloxida bo'lim shaklida tushunarli qilib qaratib

1-rasm. PhET Interactive Simulations Platformining ishchi maydoni.

Labarototiya: "O'zgaruvchan tokda" elektr zanjirlarini qurish



pH shkalasi



2-rasm. Virtual


PhET simulyatsiyalari ko'p jihatdan ishlatilishi mumkin bo'lgan juda moslashuvchan vositalardir. Bu yerda siz PhET simulyatsiyalarini sinfingizga integratsiya qilishning samarali usullarini o'rganish uchun video va manbalarni topasiz. <https://phet.colorado.edu/uz/teaching-resources/tipsForUsingPhet>

Algodo - bu 2D fizika simulyatsiyasi dasturi bo'lib, u o'quvchilarga o'zlarini fizik muhandis yoki ixtirochi sifatida sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Ushbu dastur fizik qonuniyatlarni tushunish uchun turli tajribalarni bajarishga yordam beradi. Dastur asosan boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Bu dasturdan mabil telefonlar android va IOS tizimlarida foydalanishimiz mumkin bu esa o'quvchilarni laboratoriya ishlarini mustaqil o'rganish imkonini yaratadi. Bu ilovadan foydalanish uchun quyidagi manzildan foydalanish mumkin. <http://www.algodoo.com/>. 3-rasm




3-rasm. Algodo.com saytining ishchi maydoni.

Labster- platformasi yuqori darajadagi virtual laboratoriya tajribalarini taqdim etadi. Ushbu dastur asosan oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari uchun mo'ljallangan. Fizikadan tashqari, u biologiya, kimyo va boshqa fanlar bo'yicha ham virtual tajribalarni o'z ichiga oladi. Labster foydalanuvchilarga tajribalarni 3D formatda o'tkazishga imkon beradi va kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalarini qo'llab-quvvatlaydi. <https://www.labster.com/> 4-rasm.



4-rasm. Labster- platformasidan foydalanish.

Virtual Physics Laboratory VPLab - bu fizik tajribalarni interaktiv shaklda o'tkazish imkonini beruvchi dastur. VPLab turli fizik mavzular bo'yicha keng ko'lamli tajribalarni o'z ichiga oladi va o'quvchilarga fizik qonuniyatlarni amaliy tajribalar orqali tushunishga yordam beradi. [4] https://vplab.ndo.co.uk/screenshots_gallery. 5-rasm.



5-rasm. Virtual Physics Laboratory interfeysi.

Xulosa: Virtual laboratoriyalar zamonaviy ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarga aniq va tabiiy fanlar tajribalarini yanada qiziqarli va samarali tarzda o'rganishga imkon beradi. Bu dasturlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga va ularga real laboratoriya sharoitida qo'llaniladigan tajribalarning xavfsiz variantlarini taqdim etishga xizmat qiladi. Shuning uchun ularni ta'lim jarayonida keng qo'llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [1] Panshin B. Digital economy: features and development trends. Science and innovation,3, 157, 17-20 (2016).
2. [2] I.Q.Ximmatov, M.A.Sulaymonov. Zamonaviy raqamli axborot tizimlaridan talaba-yoshlarning foydalanishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati. Amaliy matematikaning zamonaviy muammolari va istiqbollari. Xalqaro konferensiya. 02.2024 y.
3. [3] Amaliy matematikaning zamonaviy muammolari va istiqbollari. Zamonaviy raqamli axborot tizimlaridan talaba-yoshlarning foydalanishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9vBLcrUAAAAJ&citation_for_view=9vBLcrUAAAAJ:8k81kl-MbHgC
4. [4] Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9vBLcrUAAAAJ&citation_for_view=9vBLcrUAAAAJ:hqOjcs7Dif8C

FUNKSIYA TUSHUNCHASI EVOLUTSIYASI

Tojiyeva V. X., Norboyeva S. M., Maxamatova G. F.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti magistrantlari
+998943510118, tojiyevav@gmail.com, norboyevasitora0298@gmail.com

Annotatsiya. Funksiya tushunchasi uzoq vaqtdan beri shakllanib kelmoqda. O'рта maktab sinflarida biz beradigan funksiyalarning ta'riflari juda ko'p o'zgarishlarga duch kelgan. Biz talabalarga ko'p asrlik tafakkurning yakuniy mahsulini taklif qilamiz. Biz aniq matematik ta'rifni taklif qilamiz. Ta'riflar nimani anglatishini va nima uchun biz aynan bu ta'rifni tanlaganimizni tushunish uchun ta'riflarning boshqa ko'rinishlaridan foydalanish mumkin va foydalanamiz.

Kalit so'zlar: funksiya, tunksiya ta'riflari, funksiya ta'riflari.

Аннотация. Концепция функции формировалась долгое время. Определение функций, которое мы даем в классах средней школы, претерпело множество изменений. Мы предлагаем студентам конечный продукт многовековой работы мысли. Мы предлагаем математически точное определение. Использование других представлений может (и будет) использоваться для того, чтобы попытаться понять, что означают определения и почему мы выбрали именно эти определения.

Ключевые слова: функция, определение функции, история функции.

Abstract. The concept of function has been a long time in the making. The definition of functions that we give in our high school classrooms have been through many, many changes. We are offering the students the final product of centuries of thought. We offer a mathematically exact, precise definition. The use of other representations can (and will) be used to try to understand what the definitions mean and why we have chosen these definitions.

Keywords: function, the definition of function, the history of function.

1. Funksiya tushunchasining kelib chiqish tarixi haqida qisqacha malumot.

Matematika ko'pincha "to'plamlardagi munosabatlarni o'rganish" yoki "to'plamlarda aniqlangan funksiyalarni o'rganish" yoki "o'zgaruvchan miqdorlar orasidagi bog'liqlikni o'rganish" deb hisoblangan. Ushbu kontsepsiya qayerdan paydo bo'lganligini bilish uchun biz matematika tarixiga nazar tashlaymiz. Ammo, biz o'tmishdoshlarimiz harakatlariga ular mo'ljallaganlaridan ko'ra ko'proq narsaga erishgan deb xulosa chiqarishdan ehtiyot bo'lishimiz kerak.

Appoloniya (miloddan avvalgi 262-190-yillar) konus kesimlarini yozgan, bu esa biz konus kesimlari deb ataydigan egri chiziqning xossalari chuqur geometrik o'rganish bo'lgan.

Diofant (taxminan 250-yil) "Arifmetika" asarini yozgan, unda u og'zaki algebradan ramziy algebra tomon o'tish uchun ma'lum bo'lgan birinchi qadamlarni qo'ygan.

Pappus (taxminan 300-350-yillar) "Yig'ilma" deb ham ataladigan "Sinagoga"ni yozgan. Bu kitobda Fermat va Dekartlar 1630-yillarda algebraik tarzda murojaat qilgan Apolloniy teoremlarining ba'zi to'plami mavjud.

Umar Xayyom (1048-1131) konus kesimlari haqidagi batafsil bilimlaridan foydalanib ba'zi egri chiziqning kesishish nuqtalarini topish orqali kubli tenglamalarni yechgan.

Sharafiddin at-Tusiy (vaf. 1213) kubli tenglamalarni, tegishli "funksiyalar"ning maksimal va minimal qiymatlarini topish orqali o'rgandi.

Agar siz Bobil matematikasiga qarasangiz, natural sonlarning kvadratlari jadvalini, natural sonlarning kublarini va natural sonlarning o'zaro nisbatlarini topasiz. E.T. Bell 1945-yilda "Ushbu jadvalni tuzgan qadimgi bobilliklarga funksiya kontsepsiyasi instinktini berish-bu zamonaviy matematiklarning qadimgi matematikaga zamonaviy ko'z bilan qarashining natijasidir", deb fikr bildirdi. Bugun biz bobilliklar funksiyalar bilan shug'ullanganliklarini ko'rishimiz mumkin, ammo ular bu atamalar haqida o'ylaganliklari haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Ptolemeyning ishida biz aylana vatarlarini hisoblaganligini topamiz, bu uning trigonometrik funksiyalarni hisoblaganligini anglatadi. Ammo Ptolemey funksiya kontsepsiyasini tushungan deb taxmin qilish-bu haddan tashqari saxiylik hisoblangan bo'lardi. Bizning ko'zlarimiz funksiyalarni ko'rishi mumkin, ammo uni emas. Galiley bu tushunchani yanada aniqroq tushuna boshladi. Uning harakat haqidagi tadqiqotlari o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatni aniq tushunishni o'z ichiga oladi. Uning matematikasining yana bir qismi uning to'plamlar orasidagi xaritalash tushunchasini qanday tushuna boshlaganini ko'rsatadi. 1638-yilda u markazi O bo'lgan ikkita konsentrik aylana masalasini o'rgandi, kattaroq A doira diametri kichikroq B doirasidan ikki baravar katta. Tanish formula A ning aylanasini B dan ikki baravar kattaligini ko'rsatadi. A doiraning PA nuri B aylananani bir nuqtada kesadi. Shunday qilib, Galiley A ning har bir nuqtasini B ning nuqtasiga o'tkazadigan funksiyani qurdi. Xuddi shunday, agar Q, B aylana nuqtasi bo'lsa, OQ chiziq A aylananani aniq bir nuqtada kesadi. Yana u funksiyaga ega, bu safar B nuqtalaridan A nuqtalarigacha. A ning aylanasini B ning aylanasini uzunligidan ikki baravar katta bo'lsa-da, ular bir xil miqdordagi nuqtalarga ega. U, shuningdek, musbat butun sonlar va ularning kvadratlari o'rtasidagi standart yakkama-yakka yozishmalarni ishlab chiqdi, bu N va tegishli kichik to'plam o'rtasidagi farqni beradi. Galiley bu g'oyalarni ilgari surayotgan bir vaqtda Dekart (1596-1650) La Geometriya geometriyaga algebrani kiritdi. Dekart geometrik ravishda egri chiziq bilan ifodalangan ikkita o'zgaruvchidagi tenglama o'zgaruvchan miqdorlar orasidagi bog'liqlikni ko'rsatishini aniq ta'kidladi. Hosila g'oyasi bu egri chiziqning istalgan nuqtasiga teginish usuli sifatida paydo bo'ldi.

Funksiya tushunchasi vaqt o'tishi bilan rivojlanib, uning ma'nosini o'zgartirib, vaqt o'tishi bilan aniqroq aniqlanishini tushunish muhimdir. Funksiya so'zining dastlabki qo'llanishi zamonaviy funksiya kontsepsiyasining ba'zi g'oyalari o'zida mujassam etgan, ammo ancha cheklangan tarzda.

2. Funksiya tushunchasi ta'rifining evolutsiyasi

Isaak Nyuton 1713-yilda "Men qo'shish, ayirish va ko'paytirish yoki bo'lish yo'li bilan arifmetikada hosil bo'ladigan yoki hosil bo'lgan har qanday miqdorni har qanday harakatni natijasi deb atayman" deb yozadi.

Johann Bernoulli 1718-yilda shunday deb yozadi: "Men o'zgaruvchan kattalik funksiyasini bu o'zgaruvchan kattalikdan va doimiyliklardan har qanday tarzda tuzilgan miqdor deb atayman".

Leonhard Euler 1748-yil shunday deb yozgan: "O'zgaruvchan miqdor funksiyasi har qanday shaklda o'zgaruvchan miqdor va sonlar yoki doimiy kattaliklardan tuzilgan analitik ifodadir. Demak, agar x o'zgaruvchan miqdorni bildirsa, u holda x o'zgaruvchan miqdorga har qanday tarzda bog'liq bo'lgan yoki u bilan belgilanadigan barcha miqdorlar uning funksiyalari deyiladi".

Leonhard Eyer 1755-yilda shunday deb yozadi: "Ba'zi miqdorlar boshqa miqdorlarga shunchalik bog'liqlik, agar ikkinchisi o'zgartirilsa, birinchisi o'zgaradi, u holda avvalgi miqdorlar ikkinchisining funksiyalari deb ataladi".

Jozef-Luis Lagranj 1797-yilda shunday deb yozadi: "Biz bir yoki bir nechta kattalik funksiyasini aniqlaymiz, bunda bu miqdorlar har qanday shaklda, berilgan va doimiy qiymatlarga ega deb hisoblanadigan boshqa miqdorlar bilan bog'langan yoki bog'lanmagan holda paydo bo'ladigan har qanday matematik ifodani aniqlaymiz".

Jan Baptiste Jozef Furje 1822-yilda shunday deb yozadi: "Umuman $f(x)$ funksiya har biri ixtiyoriy bo'lgan qiymatlar yoki ordinatalar ketma-ketligini ifodalaydi. Absissa x o'zgaruvchiga cheksiz qiymatlar berilganda ordinatalar $f(x)$ funksiyaga ham shunga teng sondagi qiymatlar beriladi. Biz bu ordinatalar umumiy qonunga bo'ysunmaydi deb o'ylaymiz; ular har qanday tarzda bir-birining o'rnini bosadi va ularning har biri xuddi bitta miqdor kabi berilgan".

Nikolay Ivanovich Lobachevskiy 1834-yilda shunday deb yozadi: "Umumiy tushuncha x o'zgaruvchining funksiyasini har bir x uchun berilgan va x bilan birga asta-sekin o'zgarib turadigan son deb atashni talab qiladi. Funksiyaning qiymati analitik ifoda yoki shart bilan berilishi mumkin".

Karl Weierstrass 1861-yilda shunday deb yozadi: "Ikki o'zgaruvchan kattalik shunday bog'langan bo'lishi mumkin, birining har bir aniq qiymatiga ikkinchisining aniq qiymati mos keladi; keyin ikkinchisi birinchisining funksiyasi deyiladi".

Herman Hankel 1870-yilda shunday deb yozadi: y o'zgaruvchi miqdor x o'zgaruvchi miqdorning funksiyasi deyiladi, agar x o'zgaruvchi miqdorning har bir qiymatiga ma'lum bir oraliq ichidagi y o'zgaruvchining aniq bir qiymati mos kelsa.

Nicolas Bourbaki 1939-yilda shunday deb yozadi: "E va F ikkita to'plam bo'lsin, ular bir-biridan farq qilishi yoki bo'lmasligi mumkin. E to'plamning x o'zgaruvchan elementi bilan F to'plamning o'zgaraydigan y elementi orasidagi munosabat y dagi funksional munosabat deyiladi, agar E to'plamning barcha x elementi uchun F to'plamning x bilan berilgan munosabatda bo'lgan yagona y elementi mos kelsa".

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Nouh Hassan. "Mathematics function". Diab Publishing & Distribution. Lebanon. 2019.

[2] Courant, Richard and John, Fritz. "Introduction to Calculus and Analysis". Inter-science Publishers. New York. 1965.

7-(ARILAMINO)-2,3-DIGIDROPIRROLO[2,1-b]XINAZOLIN-9(1H)-ON HOSILALARINING SINTEZI

D.E. Turgunov, X.A. Bozorov, A.O. Nasrullayev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti (O'zbekiston Respublikasi)

E-mail: turgunov.davrik89@gmail.com

Annotatsiya. 7-bromo-2,3-digidropirrol[2,1-b]xinazolin-9(1H)-onga aril, geteroaril aminlar bilan aminlanish reaksiyalari natijasida 7-(fenilamino)-2,3-digidropirrol[2,1-b]xinazolin-9(1H)-onning hosilalari sintez qilingan. Turli katalizatorlar, ligandlar, asoslar va erituvchilar bilan reaksiya sharoitlarini optimallashtirish amalga oshirildi. Pd₂(dba)₃ ning DavePhos (L3) bilan kombinatsiyasi 100°C da 1,4-dioksanda t-BuONa ishtirokida 8 soat davomida qaytarish reaksiyalari olib borildi va reaksiyaning unumi eng yaxshi ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Pd₂(dba)₃, DavePhos, aril va getero aminlar, dioksan, natriytetra butoksid.

Аннотация. В результате реакций аминирования 7-бром-2,3-дигидропирроло[2,1-b]хиназолин-9(1H)-она арилом, гетероариламинами образуется 7-(фениламино)-2,3-дигидропирроло[2,1-b] синтезированы производные хиназолин-9(1H)-она. Условия реакции были оптимизированы с использованием различных катализаторов, лигандов, оснований и растворителей. Комбинацию Pd₂(dba)₃ с DavePhos (L3) подвергли реакциям восстановления в присутствии t-BuONa в 1,4-диоксане при 100°C в течение 8 часов, и выход реакции оказался лучшим.

Ключевые слова: Pd₂(dba)₃, DavePhos, арил и гетероамины, диоксан, тетрабутоксид натрия.

Abstract. As a result of amination reactions of 7-bromo-2,3-dihydropyrrolo[2,1-b]quinazolin-9(1H)-one with aryl, heteroaryl amines, 7-(phenylamino)-2,3-dihydropyrrolo[2,1-b] derivatives of quinazolin-9(1H)-one were synthesized. The reaction conditions were optimized with different catalysts, ligands, bases and solvents. The combination of Pd₂(dba)₃ with DavePhos (L3) was subjected to reduction reactions in the presence of t-BuONa in 1,4-dioxane at 100°C for 8 hours and the reaction yield was found to be the best.


Key words: Pd₂(dba)₃, DavePhos, aryl and heteroamines, dioxane, sodium tetrabutoxide.

KIRISH

Xinazolin va xinazolinonlarning yangi hosilalarini sintez qilish va biologik faolligini o'rganish, shu asosida insonlarda uchraydigan turli kasalliklarga davo topish bugungi kunda dunyo olimlarini qiziqtirib kelayotgan sohadir. Masalan, ko'pgina xinazolinlar kimyoterapiya tahlillari uchun eng ko'p foydalaniladigan dastlabki mahsulotdir. 7 almashingan xinazolin-4-onlar diabet, semizlik va shunga o'xshash kasalliklarni davolash, shuningdek, oziq-ovqat istemolini tartibga solish uchun foydalidir[1]. Ba'zi xinazolinon hosilalari saraton, OITS, surunkali jigar kasalliklari, surunkali o'pka kasalligi yoki nafas yetishmovchiligi bilan bog'liq davolash uchun ham foydalidir[2]. 7-almashingan xinazolinon hosilalariga arilaminlar ta'sir ettirilib, 7-fenilamin-xinazolinonlar sintezlangan[3-7].

TAJIRAVIY QISM, NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI.

Dastlab idishga 7-bromo-2,3-digidropirrolo[2,1-b]xinazolin-9(1H)-ondan (1 mmol) solindi, so'ngra suvsiz 1,4-dioksanda (2 ml) tegishli aril aminlar (1,5 mmol) va t-BuONa (2 mmol)lar eritildi. Dioksanda eritilgan moddalar dastlabki idishga solinib, so'ngra Pd₂(dba)₃ (0,028 mmol) katalizatori hamda DavePhos (L3) (0.042 mmol) solindi. Shundan so'ng idishdagi havo so'rib olinib, qaytar sovitgichda 100°C haroratda argon atmosferada 8 soat davomida qizdirildi. Reaksiya TLC da nazorat qilindi. 8 soat tugagandan so'ng, aralashma sovutildi va etil atsetat(15x3) solindi. Aralashma suv bilan yuvildi va organik qatlam ajratib olindi. Olingan mahsulot Na₂SO₄ da quritildi. Mahsulot kalonkali xromatografiya usuli bilan tozalandi(petroley efir/atilatsetat 3:1)



Sxema 1. 7-aril-2,3-digidropirrolo[2,1-b]xinazolin-9(1H)-onlarning sintezi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda dezoksivasinon hosilalarini sintez qilish bugun kunda ham dunyo kimyogarlarning e'tiborida bo'lgan organik kimyoning bir sinfi hisoblanadi. 7-holatda galogen saqlagan dezoksivasinonlardan galogeni arilaminlar ishtirokida N-C bog'iga almashtirish ham biologik faol bo'lgan yangi birikmalarning sintezlanishiga sabab bo'lmoqda. Yangi N-C bog'ini hosil qilish oldingi o'rganilgan birikmalar sintez jarayonlariga asoslanib olib borildi.

Adabiyotlar:

- Henriksen, S. and U. Soerensen, 2-Chloroquinazoline: Synthesis and Reactivity of a Versatile Heterocyclic Building Block. *Cheminform*, 2007. **38**.
- Garlapati, R., et al., Pd-catalyzed amination of 6-halo-2-cyclopropyl-3-(pyridyl-3-ylmethyl) quinazolin-4(3H)-one. *Tetrahedron Letters*, 2012. **53**(38): p. 5162-5166.
- Nowak, M., et al., Substituted benzoquinazolinones. Part 1: Synthesis of 6-aminobenzo[h]quinazolinones via Buchwald-Hartwig amination from 6-bromobenzo[h]quinazolinones. *Tetrahedron*, 2014. **70**(34): p. 5153-5160.
- Zhang, Z., et al., Design, synthesis, and biological screening of a series of pyrazolo [1,5-a]quinazoline derivatives as SIRT6 activators. *European Journal of Pharmaceutical Sciences*, 2023. **185**: p. 106424.
- Moheb, M., et al., Synthesis and bioactivities evaluation of quinazolin-4(3H)-one derivatives as α -glucosidase inhibitors. *BMC Chemistry*, 2022. **16**(1): p. 97.
- Scheufler, C., et al., Optimization of a Fragment-Based Screening Hit toward Potent DOT1L Inhibitors Interacting in an Induced Binding Pocket. *ACS Medicinal Chemistry Letters*, 2016. **7**(8): p. 730-734.
- Du, K., et al., Design, synthesis, and cytotoxic activities of isaindigotone derivatives as potential anti-gastric cancer agents. *Journal of Enzyme Inhibition and Medicinal Chemistry*, 2022. **37**(1): p. 1212-1226.

7-ALMASHINGAN-2,3-DIGIDROPIRROLO[2,1-b]XINAZOLIN-9-ON HOSILALARINING SINTEZI

Turgunov D.E., Bozorov X.A., Nasrullayev A.O.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti (O'zbekiston Respublikasi)

E-mail: turgunov.davrik89@gmail.com

Annotatsiya. 7-almashingan-2,3-digidropirrol[2,1-b]xinazolin-9(1H)-onning yangi hosilalarini sintez qilish uchun Suzuki-Miyaura usulidan foydalanildi. 7-bromo-2,3-digidropirrol[2,1-b]xinazolin-9(1H)-onga halqada bir, ikki, va uch o‘rinbosar tutgan organoboronik kislotalar, Cs₂CO₃ hamda Pd(PPh₃)₄ katalizatorini toluol/suv(3:1) ishtirokida ta’sir ettirildi. Natijada 7-aril-2,3-digidropirrol[2,1-b]xinazolin-9(1H)-onlarning yangi hosilalari sintez qilindi.

Kalit so‘zlar: saraton, xinazolin, organoboronik kislotalar, pirralidon-2, toluol, seziy karbonat.

Аннотация. Методом Сузуки-Мияуры синтезированы новые производные 7-замещенного-2,3-дигидропирроло[2,1-б]хиназолин-9(1H)-она. 7-бром-2,3-дигидропирроло[2,1-б]хиназолин-9(1H)-однокольцевые моно-, ди- и тризамещенные борорганические кислоты, катализатор Cs₂CO₃ и Pd(PPh₃)₄ в толуоле/воде (3:1) повлияло участие. В результате синтезированы новые производные 7-арил-2,3-дигидропирроло[2,1-б]хиназолин-9(1H)-онов.

Ключевые слова: рак, хиназолин, борорганические кислоты, пирралидон-2, толуол, карбонат цезия.

Abstract. The Suzuki-Miyaura method was used to synthesize new derivatives of 7-substituted-2,3-dihydropyrrolo[2,1-b]quinazolin-9(1H)-one. 7-bromo-2,3-dihydropyrrolo[2,1-b]quinazolin-9(1H)-one ring mono-, di-, and tri-substituent organoborononic acids, Cs₂CO₃ and Pd(PPh₃)₄ catalyst in toluene/water (3:1) was influenced by participation. As a result, new derivatives of 7-aryl-2,3-dihydropyrrolo[2,1-b]quinazolin-9(1H)-ones were synthesized.


Key words: cancer, quinazoline, organoborononic acids, pyrrolidone-2, toluene, cesium carbonate.

KIRISH

Bugungi kunda insonlar oshqozon saratoni (GC) kasalligi sababli bevaqt o‘lim darajasi bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turadi. Shu sababli bu sohada faoliyat olib boruvchi olimlarda har doim katta qiziqish uyg‘otib, dezoksivasinonning yuqori samarali ta’sirga ega va toksikligi past bo‘lgan yangi analoglarini sintez qilish dolzabligicha qolmoqda. Dezoksivasinon va uning hosilalari inson oshqozon-ichak saratoni hujayralari (HCT116, PANC-1, SMMC-7721 va AGS)ning antiproliferativ faolligiga nisbatan baholangan va oshqozon saratonini davolashda samarali natijalarga erishilgan. 2-amino-5-brombenzoy kislota hosilalarining laktamlar bilan kondensatsiya reaksiyasi olib borilishidan dezoksivasinon va uning turli xil o‘rinbosarlar tutgan hosilalari sintezlangan[1-10]. Nomura va uning hamkasblari tomonidan antranil kislota va 5-metoksi-3,4-dihidro-2H-pirrol bilan kondensatsiya reaksiya olib borilishidan dezoksivasinonni sintezladilar[11]. Dezoksivasinonning analoglari pirralidon, piperidone, kaprolaktamlar ta’sir ettirilishi natijasida, tri, tetra, pentameten xinazolinlar sintezlangan. Laktamlardagi metilen guruhlari sonining ortishi natijasida kondensatsiya mahsulotlarining hosildorligi ham mos ravishda kamayganligi aniqlangan.

Tajribaviy qism, natijalar va ularning muhokamasi.

7-bromo-2,3-digidropirrol[2,1-b]xinazolin-9(1H)-on(1 mmol), organoboron kislota (1.2 mmol), Cs₂CO₃ (1.5 mmol) va Pd(PPh₃)₄ (0.03 mmol) ishtirokida toluolda (10 ml) 110°C da 8 soat davomida reaksiya qizdirildi. Reaksiya natijasida hosil bo‘lgan mahsulotlar HCl 1N (15 ml) va CH₃COOC₂H₅ (15 ml) qo‘shildi. Shundan so‘ng filtrlandi, NaHCO₃ va NaCl bilan yuvildi. Organik faza ajratilib olindi, Na₂SO₄ da quritildi. Olingan mahsulot 7-aril-2,3-digidropirrol[2,1-b]xinazolin-9(1H)-onlar silika gel ustunli xromatografiya usuli bilan tozalandi(etil atsetat/petroley efir 3:1).



Sxema 1. 7-aril-2,3-digidropirrol[2,1-b]xinazolin-9(1H)-onlarning sintezi

Xulosa

So‘nggi yillarda dezoksivasinonning yangi hosilalari oshqozon saratoniga qarshi dori nomzodlarini ishlab chiqish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Bu sintezlardan ilhomlangan jamoamiz dezoksivasinonning yangi uglerod-eglerod bog‘ini bog‘lash orqali yangi hosilalarni sintez qildilar.

Adabiyotlar

- Shakhidoyatov, K., A. Irisbaev, and C.S. Kadyrov, Synthesis of deoxypeganine and its derivatives. Chemistry of Natural Compounds, 1974. **10**(5): p. 708-709.
- Shakhidoyatov, K., N. Mukarramov, and F. Utaeva, Direction of bromination and nitration of deoxypeganine and its hydrochloride using HPTLC. Synthesis of 6-bromo(nitro)-, 6,8-dinitrodeoxyvasicinones, 6-nitro(bromo)-, 6,8-dinitrodeoxypeganines, and 6H(bromo)peganols. Chemistry of Natural Compounds, 2008. **44**: p. 625-629.
- Liu, J., et al., Novel one-pot total syntheses of deoxyvasicinone, mackinazolinone, isaindigotone, and their derivatives promoted by microwave irradiation. Organic letters, 2005. **7** **15**: p. 3363-6.

4. Liu, J.F., et al., Privileged structure-based quinazolinone natural product-templated libraries: identification of novel tubulin polymerization inhibitors. *Bioorg Med Chem Lett*, 2006. **16**(3): p. 686-90.
5. Chattergee, A. and M. Junguly, *Phytochem.*, 1968. **7**.
6. Saebang, Y., V. Rukachaisirikul, and J. Kaeobamrung, Synthesis of acetyl deoxyvasicinone analogues from 2-(4-oxopentyl)quinazolin-4(3H)-ones via linear cyclizations. *Tetrahedron Letters*, 2023. **121**: p. 154484.
7. Potewar, T.M., S. Ingale, and K. Srinivasan, Synthesis of tryptanthrin and deoxyvasicinone by a regioselective lithiation-intramolecular electrophilic reaction approach. *ARKIVOC: archive for organic chemistry*, 2008. **2008**: p. 100-108.
8. Ojo, B. and B.K. Chowdhury, Synthesis of {2,3-Dihydro-7-halopyrrolo-[(2,1-b)]-quinazolin-9-(1H)-one and 2,3-Dihydro-5,7-dihalopyrrolo-[(2,1-b)]-quinazolin-9-(1H)-one}: New Analogs of Deoxyvasicinone. *Synthetic Communications*, 2012. **42**(7): p. 1002-1009.
9. Oripov, É.O., K.A. Zakhidov, and K.M. Shakhidoyatov, Synthesis of bicyclic analogues of deoxyvasicinone. *Chemistry of Natural Compounds*, 1991. **27**(3): p. 341-342.
10. Bowroju, S.K., et al., Novel hydroxybenzylamine-deoxyvasicinone hybrids as anticholinesterase therapeutics for Alzheimer's disease. *Bioorg Med Chem*, 2021. **45**: p. 116311.
11. Michael, J.P., Quinoline, quinazoline and acridone alkaloids. *Natural product reports*, 2001. **18**(5): p. 543-59.



ISSUES OF GEOGRAPHICAL STUDY OF HEALTH AND RECREATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

Usmanov M.R.¹, Badalov U.B.²

¹Samarkand state university (Uzbekistan)

²Branch of Urgut Samarkand State University (Uzbekistan)

Annotation: This article contains some information about the placement chain of sanatoriums in the territory of the Republic of Uzbekistan. Uzbekistan is differs with its landscape and picturesque nature from other countries. There are a lot of recreation conveniences for health resorts, health recovery and relaxation for the population in the regions. Consequently, these kind of recreation are specialized for the disease treatment and health facilities.

Key words: basin, recreation, touristic resource, travelling, excursion object, recreation tourism, mineral water, recreation object, karst caves, health resorts and sanatoriums.

Study of recreational and tourist resources leads to the expansion of economic and social opportunities in the country We can see that large-scale infrastructural works are being carried out in the construction of health facilities in the regions of our country. Because the abundance of sunny days in the regions of Uzbekistan, the purity of atmospheric air and the high level of oxygen, healing mineral water and mud require the creation of a system of balneological and climatic resorts for the restoration of human health. As a result, the effective use of recreational resources determines the economic and social development of certain regions.

The great attention is paid to produce the infrastructure of entertainment and recreation development in the country. To firm consumer services sectors which responds international standards, to create new jobs, hotels and holiday homes, trade, restaurants and to build other objects gives favorable conditions to raise recreation and touristic potential. It is necessary to expand the usage of procurement system, also to assess the recreational resources in order to build such kind of objects[7].

Nowadays building rehabilitation objects are in a wide range in the regions. Having a lot of sunny days, the freshness of the air and high oxygen, healthful mineral water and mud demand to create balneologic, climatic spas to restorate human health. In the end, the recreational efficient use of resources in some areas will determine the economic and social development of some zones [3].

All the rest and treatment facilities are registered in Uzbekistan. There will be construct the variety of diseases treatment sanatoriums and increase their directions in such leisure zones. That is why the most important problem is the usage of mineral water, the natural landscape attractiveness. The benefits of mineral water are required to establish their needs in the treatment of various diseases and climatic resorts [1].

People not only being treated in the sanatoriums, but also have an opportunity to go for a walk there. Consequently, walking widens the mind, serves to understand the world deeply, helps to recover their health [4].

While having rest recovering his health a person has an attitude to the nature. People want to visit various interesting places of the world. Tourists try to enjoy the nature, to swim, to walk, to climb the mountains, to travel by car or on horse, to watch the nature, to go in for sport and to hunt.

Today, all available recreation and treatment centers in Uzbekistan are listed. In such recreation areas, it is possible to build sanatoriums that treat various diseases and increase their routes. This, in turn, is the basis for the development of medical tourism. The healing properties of mineral waters, their need in the treatment of various diseases require the construction of climatic spas. In these sanatoriums, there are conditions for the treatment of

various diseases, namely respiratory, cardiac, gynecological, nervous, vascular, diabetes, stomach, intestinal, skin and other diseases.

There are sixteen sanatoriums in the system of Uzbekistan Trade Union Federation resorts management. It accepts about 3000 citizens according to the treatment. In order to create more favorable modern environment 3-4 placed rooms were destroyed and 1-2 placed rooms are equipped, "Lux" family rooms which are suitable for international standards and cottages have been established.

For example, in order to strengthen the hardworking people's health who live in ecologically bad conditions along the Aral seathere have been built "Gulparchin"⁷⁵ placed and "Aydoskala"³⁵ placed in Karakalpakistan Republic, 110 placed "Khonka" sanatoriums in Khorezm region. "Umid Gulshani" sanatorium was built and put into operation in Tashkent region. Particular culture palace and canteen complex have been built in "Diagnosis and Medical Centre" which was formed in two storeyed modern architecture style, bedrooms was completely reconstructed in "Kashkadarya coast" sanatorium.

Medical diagnosis building was built in Abu Ali Ibn Sino. One summer swimming pool and two separately cottage with modern conveniences which is presumed for ten families in "Chortok", "Buston", "Ak-tash" sanatoriums, ten family cottage buildings with the best modern conveniences, there are the most modern two family cottages, 33 placed rehabilitation department for the patients with heart attack, administration and reception rooms in "Turon" sanatorium, there were built 16 placed "Lux" rooms in "Chinabad" sanatorium, there are 5 storeyedbuilding with 12 bedrooms in this sanatorium. 5 storeyed building with 7 bedrooms and a kitchen were rebuilt in modern style in "Botanika" sanatorium [8].

5 storeyed building with 4 bedrooms have been repaired and 84 placed "lux" rooms and medical treatment rooms with modern conveniences have been organized there. There are different diseases' medical treatment circumstances there: for instance, breathe, heart, gynecology, the nervous system, vein, diabetes, stomach, gut, skin and others [2].

Chortok, Kashkadarya coast, Khonka, Kosonsoy, Zomin, Botanika health resorts include into balneologic and climatic health resorts group. Loam dirt (mud) method is used in Chinabad sanatorium, Buston sanatorium which differ from the others with its dark green wood landscape and fresh air.

Western Tyan-Shan part of Tashkent region attracts people's interest, desire with its inimitable nature spectacles. This zone consists of three regions: Bustonlik, Parkent, and Ohangaron, form the chain of the mountains. It is one of the most comfortable zones with its popular relaxation, having a rest, going in for sports, having medical treatment, training and being occupied with favorite worksand other opportunities for the population of Tashkent city.

Mother nature's wonderful landscapes, fresh air and water, rare and various nature keepsakes (stones, waterfalls, relief views, the world of the planets and the animals) attract the tourists and nature lovers day by day. Nature landscapes in mountainous zones are open for the local people and the foreign tourists from the early spring till winter [1].

Rich hydro mineral resources which are full of healthy peculiarities of all mineral water have been clarified in our republic. For instance, "Chimyon" sanatorium (from Limited product) can compete with "Matsesta" resort in Sochi in order to improve the population's health with the sulphuretted hydrogen, mineral water. In "Chortok" sanatorium (Open Joint stock Society) and "Khonka" sanatoriums' (Limited product) mineral water are high the iodine and bromine, chloride hydro carbonate natrium mineral water is found in "Chinobod", "Turon" Open Joint stock Society and "Buston", "Botanika", "SitoraiMokhiKhosa", "Kashkadarya coast", and "Kosonsoy" sanatoriums are not differ from "Saki", "Eupotora" health resorts and they are affective in digestive tract. There have been defined rhodonite water in "Abu Ali Ibn Sino sanatorium" of the Limited product zone "Pyatigorsk" sanatorium and they are widely used in treatment. "SitoraiMokhiKhosa" sanatorium in Bukhara is the only sanatorium which is presumed to cure kidney and urine diseases.

There are Jayronkhona, Omonkhona, Khudjaipak, Kukaydi, Zangiota, Obishifo, Moybulok and etc. sulphur and hydrogen healing springs in Surkhandarya region. People have consecrated these healing springs, and they have been healing their disease for a long time [6]. It should be noted that the healing springs have been recognized as a rare gift of nature and reorganized into treatment centers in many places of Surkhandarya region. For instance, the medical institution in Jayronkhona, Omonkhona recreation area, Uchkizil sanatoriums, and others. In addition, salt mines and sand dams are also used for treatment [5].

The number of increasing people of the country, the acceleration of the urbanization process, industrial development and the improvement of the population living standards will increase the demand for recreation. That is why to construct the recreational facilities and resorts which satisfy the requirements of the guests and the tourists, paying a special attention to the available nature resources, lifting the economy as a source of recreation resources have been a demand for all types of development time [4].

Based on the above, we can say, the recreational use of resources, as well as the rest of the population, taking into account the needs in different regions of the country, the infrastructure resorts and sanatoriums infrastructure should be performed. In addition, taking into account the availability of the necessary conditionswe can improvepopulation's physical and spiritual health, financial and social status by establishingalltypes of recreational resources.

References::

1. Abbasov S.B., Badalov O.B. Using Recreational Resources in Tourism Development in Uzbekistan. //Journal of the Geographical Society of Uzbekistan. 51-volume-T.: 2017, 29-32 pp.
2. Badalov U.B., Yarashev Q.S., Xalmuradova N.X. Entertainment and recreation of Uzbekistan. Молодой ученый. Казань, 2015. Журнал №8 (88). -С. 353-355.
3. Kotlyarov E.A. Recreation and tourism Geography. - M. "Idea". 1978. -p.237
4. Mironenko N.S, Tverdokhlebov I.T. Recreational Geography. – M.: 1981.-p. 207
5. Soliyev A.S., Usmonov M.R. Geography of the tourism (in Samarkand region example). – Samarkand, SamSU: 2005. – p.131.
6. Yarashev Q.S., Xasanov J.Yu., Qurbonova I.Z., Sadullojeva L.K. World and uzbek experience in development of ecologic tourism //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 6,2021. <https://cibg.org.au>.
7. Jing Xie; Jing Shi. Analysis on Coordinated Development Model of Regional Tourism Economy and Ecological Environment // Revista de la Facultad de Ingenieria. 2017, PP.455-463.
8. www.stat.uz.



KIMYO FANINI O'QITISHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI METOD SIFATIDA QO'LLASH

Voxidov A.R., Qosimov S.E., Samiyev R.A.

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

azizvokhidov13@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda kimyo fani va uni o'qitish metodikasini takomillashtirishda interfaol ta'lim texnologiyalarni metod sifatida qo'llashning nazariy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar bo'lajak kimyo fani talabalar egallagan bilim ko'nikmalarni interfaol mediavositalarni qo'llash orqali o'zlari mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga undaydi. Oliy ta'limda kimyo fani va uni o'qitish metodikasini takomillashtirishda interfaol mediavosita va interfaol ta'lim texnologiyalarni metod sifatida qo'llash talabalar dunyo qarashini kengaytiribgina qolmay, mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga undaydi va ularning tashabbuskorligini oshiradi.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim texnologiyalari, kimyo fanini o'qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dars metodikasi, o'quvchilarning faolligi, kimyo fani, smart texnologiya, munozara, mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish.

Bugungi kunda kimyo fanini o'qitishda interfaol usullaridan foydalanish asosiy metodikaga oid g'oyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy ta'lim jarayoni fanlar o'rtasidagi uyg'unlik va innovatsion metodlarni qo'llashga asoslanadi. Jumladan, kimyo fanini o'qitishda ham an'anaviy yondashuvlardan chekinib, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu texnologiyalar o'quvchilar bilim olish jarayonini faolroq va qiziqarliroq qilish bilan birga ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar yordamida o'quvchilar mavzuni o'zlashtirish jarayonida faqat passiv emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadilar. Aynan interfaol ta'lim o'qituvchiga bilish faoliyatini tashkil etishga yordam beradiki, deyarli barcha o'rganuvchilar izlanish, o'rganish jarayonida ishtirok etadilar.

Interfaol ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonining eng muhim jihatlaridan biri sifatida ta'lim jarayonini o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasidagi aktiv muloqotga asoslaydi. Bu metodlar, asosan, dars davomida o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning bilim olish jarayonidagi passiv roldan qutulib, o'zlari bilimlarni mustaqil tarzda o'zlashtirishi, turli vazifalarni hal qilishi, munozara va jamoaviy ishlar orqali fikrlashini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar quyidagi asosiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

- Hamkorlik va o'zaro ta'sir: O'quvchilarning o'zaro hamkorlikda biror masalani yechishga yo'naltirilganligi.
- Faol ishtirok: O'quvchilar ma'lumot olish jarayonida faollik ko'rsatadilar va darsning faol ishtirokchilariga aylanadilar.
- Mustaqil izlanish: Interfaol metodlar yordamida o'quvchilar o'zlari bilimlarni o'zlashtirish uchun izlanadilar va ilmiy materiallarni tahlil qiladilar.
- Muloqot va muhokama: Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida doimiy fikr almashinuvi va muhokamalar bo'lib o'tadi.

Kimyo fanini o'qitishda interfaol mediavosita va interfaol ta'lim texnologiyalarni metod sifatida qo'llashni tahlil etar ekanmiz, kimyo fanida interaktiv mediavosita – to'g'ridan- to'g'ri kimyo faniga oid fikr-mulohaza yuritish, auditoriya bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega ommaviy axborot vositalaridir. Ularni amalga oshirish mobil telefon, video, sun'iy yo'ldosh va internet aloqasi, kompyuter va video o'yinlar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, kimyo fanini o'qitishda interfaol metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Munozara va guruhli ishlash metodlari
- Kompyuter simulyatsiyalari

- Blits-so'rovlar va interaktiv testlar
- Smart texnologiyasi
- Kimyoviy tajribalar va laboratoriya ishlari
- Vebinar
- Loyiha

Kimyo darslarida guruhli ishlash, bahs-munozaralar orqali o'quvchilar kimyoviy moddalarning o'zaro ta'siri, ularning xossalari va reaksiyalarini muhokama qilishadi. Masalan, "Kislorod va uning birikmalari" mavzusi bo'yicha o'quvchilar guruhlariga bo'linib, kislorodning tabiiy jarayonda ishtirokini o'rganishlari mumkin. Har bir guruh o'z topilmalari bo'yicha taqdimot tayyorlaydi va uni sinf oldida himoya qiladi. Bu esa o'quvchilar o'rtasidagi raqobat ruhini uyg'otadi va ularni mustaqil ravishda izlanishga undaydi.

Kompyuter simulyatsiyalari ham interfaol ta'lim texnologiyalarining turlaridan biridir. Ular o'rganilayotgan ob'ekt, hodisaning kompyuter yordamida virtual modeli bilan o'quvchilarning ishini ifodalaydi.

Kimyoviy jarayonlarning simulyatsiyalari orqali o'quvchilar kimyo fanining murakkab mavzularini tushunishlari osonlashadi.

Masalan, o'quvchilar moddalarning molekulyar tuzilishini tasvirlash uchun teatr sahnasiga o'xshash tarzda o'yin o'tkazishlari mumkin. Bu usul molekulyar kimyo va kimyoviy reaksiyalarni tushunishni osonlashtiradi.

Blits-so'rovlar va interaktiv testlar o'quvchilarning bilimlarini sinash va ular bilan tezkor aloqa o'rnatishga yordam beradi. Masalan, "Kimyoviy elementlarning davriy jadvali" mavzusi bo'yicha o'quvchilar tezkor testlar orqali elementlarning xossalari, atom tuzilishi va joylashuvini o'rganishlari mumkin. Blits-so'rovlar esa o'quvchilarga dars davomida tezkor fikrlash va o'z bilimlarini yangilab borish imkoniyatini beradi.

Smart texnologiyasida bilimlar sodda, oddiylik bilan, maqsadli, motivatsion, mazmunli, shuningdek boshqa fan soxalari bilan o'zaro chambarchas bog'lanib, realistik faktlarga asoslangan aniq ma'lumotlar, to'g'ri taqsimlangan vaqt asosida beriladi.

Interfaol metodlarning eng samarali jihatlaridan biri bu tajribalar o'tkazishdir. Kimyo fanida nazariy bilimlarni amaliy tajribalar orqali mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar laboratoriya sharoitida kimyoviy reaksiyalarni ko'zdan kechirish, ular natijasini tahlil qilish va o'z kuzatuvlarini baholash orqali darsga faol ishtirok etishadi. Bunday jarayon o'quvchilarga kimyoviy jarayonlarni yanada tushunarliroq qiladi.

Vebinar 12-15 kishilik o'quv guruhlari uchun darslarga qo'llaniladi. Vebinarining tavsiya etilgan davomiyligi 1,5 astronomik soatdan (2 akademik soat) oshmaydi.

Trening 25 kishigacha bo'lgan o'quv guruhlari uchun sinflarda qo'llaniladi. Sinf xonasida o'quvchilarning erkin harakatlanishi uchun sharoitlar yaratilishi kerak, "mashq to'garagida" o'rindiqlarni tashkil qilish imkoniyati ta'minlanishi kerak.

Loyiha usuli 30 kishigacha bo'lgan o'quv guruhlari uchun qo'llaniladi. U yakka tartibda, juftlikda yoki o'quvchilarni guruhlarga bo'lish yo'li bilan (har biri 5-6 kishidan) amalga oshirilishi mumkin.

Hozirda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar, islohotlar ta'lim standartlarini o'zgartirishga, yangi fan kursi, o'quv fanlarini kiritishnigina emas, shuningdek, darslarda qo'llaniladigan metodlarini ham o'zgartirishni, talabalarni darsga qiziqib, faol qatnashishlarini ta'minlaydigan interfaol mediavositalar va turli interfaol ta'lim texnologiyalarini metod sifatida qo'llash ehtiyojlarini keltirib chiqardi. Shuning sabab xorij pedagogikasida asosiy e'tibor talabalarda ana ushbu xislatlarni hosil qilishga qaratildi.

Tajriba o'quvchilarda aynan shu xislatlar, ko'nikmalarni hosil qilishda dars berishning interaktiv mediavositalari va interaktiv ta'lim texnologiyalarini metod sifatida qo'llash ijobiy natija berishini ko'rsatdi. Aynan ushbu uslublar dars o'tishni turli tarzda amalga oshirishga, ayniqsa, talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu dastur ilovasi "Red-oks reaksiyasi - Kimyo" deb nomlanib, ushbu ilova orqali o'quvchilar, rang-barang tasvirlar va videolarni vizualizatsiya qilish orqali oksidlanishning qaytarilish reaksiyalar jarayonini kuzatadilar va oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini muvozanatlab oson va qiziqarli tarzda o'rganadilar va bu foydali interaktiv ilovadir.

Kimyoviy reaksiyalarni o'rganish kimyo jarayonining asosiy qismi hisoblanib, ushbu yuqoridagi dastrudan tashqari yana bir foydali "kimyoviy reaksiyalar" deb nomlangan mobil ilova ham kimyoviy reaksiyalarni o'rganishda samarali, ijobiy natijalarni bermoqda.

Ta'limda virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari:

- Yuqori darajadagi uskunalardan virtual foydalanish
- Murakkab tushunchalarni o'rgatish uchun ko'rgazmali qo'llanma bo'lib xizmat qilishi
- O'quvchilar xavfsizligini ta'minlanganligi
- O'quvchilarni fanga qiziqtirib jalb etish
- Tezkor fikr-mulohazalarni taklif qilish
- O'rganish moslashuvchanligini ta'minlashi
- Jismoniy laboratoriyalarga hamyonbop muqobil

Ushbu tadqiqot mavzusining yangiligi, hozirda kredit modul ta'lim tizimida kimyo fanini chuqurroq o'rganishda mustaqil ta'lim ko'nikmlarini rivojlantirishda ushbu mavzu samarali natijalarini beribgina qolmay, o'quvchilarni o'z ustida yanda ishlashga undaydi.

Kimyo fanini o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalarini metod sifatida qo'llash ta'lim jarayonini samarali

va qiziqarli qiladi. O'quvchilar nazariy bilimlarni mustaqil izlanishlar va amaliy tajribalar orqali yanada chuqurroq o'zlashtiradilar. Interfaol metodlarning muvaffaqiyati ularning o'quvchilarda motivatsiya uyg'otishi, mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi.

Interfaol ta'lim texnologiyalari kelajakda ta'lim jarayonida asosiy o'rin tutishi kutilmoqda, chunki bu metodlar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suvorov, N.I. Interfaol ta'lim: yangi yondashuvlar / N. Suvorova. –M.: O'qituvchi 2000. –№1. 25–27betlar.
2. Zair-Bek S. O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi/S.Zair-Bek.- M.: Maktab kutubxonasi. - 2001. - 12-son.
3. Klarin M.V. Interfaol ta'lim yangi tajribani o'zlashtirish vositasi sifatida /Klarin M.V. – M.: Pedagogika.2000. №7 84 b.
4. Klarin M.V. Jahon pedagogikasida yangiliklar: so'rov, o'yin va muhokama orqali o'rganish. (Xorijiy tajribani tahlil qilish). /Klarin M.V. - Riga: SPC "Tajriba", 1998. 56-b.
5. Pometun O.I., Pirozhenko L.V. Kundalik dars. Interfaol ta'lim texnologiyalari. /O.I Pometun– K.: A.S.K., 2004. 12-b.

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANINI ELEKTRON MANBALAR VOSITASIDA TALABALARNING MUSTAQIL O'RGANISH QOBILIYATINI RIVOJLANTRIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Xasanova M.N.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

tel:+998 90 656 65 43

E-mail: xmn9182@mail.ru

Annotasiya: Ushbu maqolada talabalarning elektron manbalar orqali muhandislik grafikasini mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi pedagogik omillar ko'rib chiqiladi. Elektron manbalarning har xil turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: muhandislik grafikasi, elektron manbalar, mustaqil o'qitish, pedagogik omillar, motivatsiya, kompyuter ko'nikmalari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические факторы, влияющие на развитие способности студентов самостоятельно изучать инженерную графику посредством электронных ресурсов. Анализируются различные виды электронных ресурсов, их преимущества и недостатки, а также способы их использования в образовательном процессе.

Ключевые слова: инженерная графика, электронные ресурсы, самостоятельное обучение, педагогические факторы, мотивация, навыки работы с компьютером.

Annotation: This article examines the pedagogical factors that influence the development of students' ability to independently learn engineering graphics through electronic resources. Various types of electronic resources, their advantages and disadvantages, as well as ways of using them in the educational process are analyzed.

Key words: engineering graphics, electronic resources, independent learning, pedagogical factors, motivation, computer skills.

Axborot va bilimlar majmuasi jadal sur'atlar bilan ko'payib borayotgan zamonaviy sharoitda barcha ma'lumotlarni o'quvchilarga faqat auditoriya darslarida yetkazish samarali emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv materialini chuqur o'zlashtirish o'quvchilar mustaqil ishlagandagina yuzaga keladi. Bu asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga va ijodiy faoliyatga qiziqishning paydo bo'lishiga yordam beradigan mustaqil faoliyatdir. Demak, oliy ta'lim muassasasi talabalarning mustaqil ishini rejalashtirishi, tashkil etishi va sharoit yaratishi, ularga mustaqil ta'limning samarali usullarini o'rgatishi, bilim olishning mumkin bo'lgan manbalarini ko'rsatishi kerak. Auditoriya darslari bilan bir qatorda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil ishlash uchun topshiriqlar berish kerak. Bu universitetning sifatli ta'lim berish bo'yicha asosiy faoliyatidan biridir [5: – 172-174 6.].

Ushbu ilmiy ishda talabalarning elektron manbalar orqali muhandislik grafikasini mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi pedagogik omillar ko'rib chiqiladi. Elektron manbalarning har xil turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish usullari tahlil qilinadi.

Muhandislik ta'limida o'qituvchi, talabalarda fanni o'rganish jarayonida qiyinchilik tug'ilganda o'z vaqtida uslubiy yordam ko'rsatish uchun talabalar bilan aloqa o'rnatishi kerak. Buni onlain konsultatsiyalar, forumlar va vazifalar berish va ularni tekshirish orqali amalga oshirish mumkin., to'g'ri tanlangan elektron manbalar, fikr-mulohazalar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish talabalarga muhandislik grafikasini mustaqil ravishda samarali o'zlashtirish imkonini beradi.

T. Ю. Буракова tadqiqoti ta'lim sifatini oshirish maqsadida zamonaviy universitetlarda qo'llanilayotgan masofaviy ta'limga samarali integratsiyalashgan elektron ta'lim resurslarining turlari tahliliga bag'ishlangan. O'quv

ma'lumotlarini taqdim etishning matnli, vizual, audio va virtual shakllari ko'rib chiqiladi. Virtual texnologiyalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy elektron manbalarning interaktivlik, muloqot qilish, axborotni samarali idrok etish, kompyuterda modellashtirish, o'quv faoliyatini avtomatlashtirish kabi afzalliklari bayon etilgan [3: – c. 129.].

Tadqiqot muallifining fikriga ko'ra elektron manbalarning faol rivojlanishi va ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi ta'lim sifatini oshirishni ta'minlashi mumkin. Ular interaktivlik, muloqot qilish, axborotni samarali idrok etish, kompyuterda modellashtirish va ta'lim faoliyatini avtomatlashtirish kabi qator inkor etib bo'lmaydigan afzalliklarga ega. Axborotni taqdim etishning turli shakllaridan foydalanish o'quv materialini tushunishni kuchaytiradi.

В.О. Игорева, В.И. Романова, К.А. Алексеевич, Ш.О. Глебовалар “Электронные образовательные ресурсы как средство повышения качества образования” nomli tadqiqotida zamonaviy elektron ta'lim resurslarining ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilib, ularning asosiy turlari, afzalliklari va ta'lim jarayonidagi o'rni, shuningdek foydalanishning turli jihatlari, dars bosqichlariga ta'siri, ijobiy natijalarini o'rganadi. Mualliflar elektron ta'lim resurslarining o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va mustaqilligini rivojlantirish, motivatsiyani oshirish, ta'limning ochiqligi va individuallasuvi, shuningdek, umuman zamonaviy ta'lim sifatini oshirish uchun muhim salohiyatga egaligini ta'kidlaydilar [4: – c. 156-167.].

Tahlil natijasidan ko'rinib turibdiki, elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradigan muhim pedagogik omillardan biri bu o'qituvchilarning o'zlarining malakalaridir. Elektron manbalarni o'quv jarayoniga to'liq integratsiyalash uchun o'qituvchi bunday resurslar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi, ularni ishlab chiqish, tuza bilish va o'quvchilarga taqdim eta olishi kerak.

Е. Ю. Панцева, Ш. Т. Викторова, Т. О.Анатольева, К. С. Юрьевичлар “Организация самостоятельной работы в военном вузе с использованием электронных образовательных ресурсов” nomli tadqiqotda harbiy universitetning o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi muhokama qilinadi. Ta'kidlanishicha, kompyuter texnologiyalarini joriy etish ta'limning ko'rinishi, interaktivligi va talabalarning motivatsiyasini oshirishga imkon beradi, shuningdek, ta'limni individuallashtirish va differentsiallashtirishga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning eng samarali shakllari – multimediali o'quv qo'llanmalari va kurslarni yaratish, videokonferensiya va masofaviy ta'limdan foydalanish alohida ta'kidlangan [6: - c. 98].

Ushbu tadqiqot tahlili natijasida ham masofaviy ta'limni amalga oshirish uchun nafaqat fan yo'nalishi bo'yicha, balki ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham keng foydalana oladigan o'qituvchilar kerakligi aniqlandi. Demak, asosiy pedagogik omil o'qituvchining yuqori malakasi bo'lib, o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Т. В. Богданова, М. Т. Кобылянскийлар tadqiqotida chizma geometriya va muhandislik grafikasini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Qayd etilishicha, 3D grafika va animatsiyadan foydalanish o'rganilayotgan materialni o'quvchilar uchun yanada ko'rgazmali va jozibali qiladi. 3D modellar bilan ishlashda geometrik shakllarni qurish va ularni fazoda idrok etish qobiliyati shakllanadi, bu esa fazoviy fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, 3D modellar asosida chizmalarni yaratish imkoniyati ham aytib o'tilgan, bu materialni o'rganishni osonlashtiradi [2: – 43-47 c].

Chizma geometriya va muhandislik grafikasini o'rganishda kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi muhim pedagogik omillardan biri o'quv materialini taqdim etishning ko'rgazmaliligidir.

Т. В. Андрияшинанинг “Опыт использования электронных образовательных ресурсов на кафедре «графика»” nomli tadqiqotida Sibir davlat transport universitetining grafika bo'limida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish tajribasi muhokama qilinadi. Muallif fikriga ko'ra, kafedra elektron kutubxonasiga joylashtirilgan ma'ruzalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va maketlarni o'z ichiga olgan multimedia o'quv materiallari faol ishlab chiqilmoqda, ular talabalarga fanlarni interfaol tarzda o'rganish imkonini beradi, materialni o'zlashtirishni osonlashtiradi va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. EER modulli tuzilgan va o'rganishga individual yondashuvni ta'minlaydi [1: – c. 248.].

Elektron kutubxonadagi multimedia o'quv materiallari talabalarga fanlarni mustaqil o'rganish imkonini beradi. Bu ta'limni individuallashtirib, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Elektron manbalar interaktiv va moslashuvchan bo'lgani sababli, har bir talabaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, o'qitish sifati va samaradorligini oshiradi.

Г. П. Старикованинг “Электронные образовательные ресурсы как средство повышения квалификации педагогов” nomli tadqiqoti o'qituvchilarning malakasini oshirish vositasi sifatida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish samaradorligi mavzusini to'liq qamrab oladi. Mualliflar elektron ta'lim resurslarini an'anaviy o'quv qo'llanmalari bilan taqqoslab elektron ta'lim resurslari multimedia, interaktivlik va foydalanish imkoniyati kabi bir qator afzalliklarga ega ekanligini isbotlovchi dalillarni keltiradilar. Ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim modelini joriy etish uchun elektron ta'lim resurslarining imkoniyatlari ko'rsatilgan. o'qituvchilar amaliyotida turli elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish tajribasi keltirilgan. Shunday qilib, elektron ta'lim resurslarini joriy etish o'qituvchilarning kasbiy malakasi darajasini oshirishga yordam beradigan asosiy dalillar ochib berilgan [7: – c. 61-70].

Ushbu tadqiqotning bizning ilmiy ishimizga foydali tomoni shundaki, u ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta'lim modelini amalga oshirish uchun elektron ta'lim resurslarining imkoniyatlarini ochib beradi, shuningdek, o'qituvchilar amaliyotida turli elektron

ta'lim resurslaridan samarali foydalanish tajribasini taqdim etadi. Mualliflar elektron ta'lim resurslarini joriy etish o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiya darajasini oshirish va talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga qanday yordam berishini namoyish etadilar.

Adabiyotlar tahlili natijasida muhandislik grafikasini elektron manbalar yordamida talabalarning mustaqil o'rganishini rivojlantirishda pedagogik omillar tasnifi shakllantirildi. (1-rasm).

1-rasm. Muhandislik grafikasini elektron manbalar yordamida talabalarning mustaqil o'rganishini rivojlantirishda pedagogik omillar tasnifi

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhandislik grafikasini o'rganishda talabalarning mustaqil ishlarni



tashkil qilish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Elektron ta'lim resurslari o'rganishni yanada qulay, vizual va interaktiv qiladi. Maqolada talabalarning mustaqil ishlarida elektron manbalardan foydalanish samaradorligini oshiradigan keng ko'lamli pedagogik omillar ko'rib chiqildi. Bu, birinchi navbatda, talabalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda bunday resurslardan foydalanish usullarini ishlab chiqish va moslashtirish, shuningdek, vizual va interfaol elementlardan foydalangan holda o'quv materialini taqdim etishda optimal yondashuvga tegishli. Talabalarning loyihaviy va ijodiy faoliyati orqali rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish zarurligiga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, har bir kishining imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qitishni individuallashtirish, shuningdek, ta'lim jarayonini masofadan turib qo'llab-quvvatlashni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ishlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchilarning axborot texnologiyalari sohasidagi malakasini oshirish bilan birgalikda ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'taradi. Boshqa mualliflarning ilmiy ishlarini tahlil qilish ushbu muammoning dolzarbligini va taklif qilingan tavsiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, 3D grafika va ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minotdan foydalanishning afzalliklari aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андрюшина Т. В. Опыт использования электронных образовательных ресурсов на кафедре "Графика" // Инновационные технологии в инженерной графике. Проблемы и перспективы: международная научно-практическая конференция. – Брест, 2014. – 458 с.
2. Богданова Т. В., Кобылянский М. Т. Использование информационно-коммуникационных и интернет-технологий при обучении начертательной геометрии, инженерной и компьютерной графике // Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы. – Москва, 2014. – №. 6. – 347 с.
3. Бугакова Т. Ю. Электронные образовательные ресурсы как средство повышения качества образования // Актуальные вопросы образования. – Москва, 2017. – №. 1. – 347 с.
4. Игорева В. И., Романова К. А., Алексеевич Ш. О., Глебова Т. П. Электронные образовательные ресурсы как средство повышения качества образования // Балтийский гуманитарный журнал. – Самарская область, 2020. №. 2 (31). – 356 с.
5. Islikov S., Saidov J. D., Egamberdiyeva R. S., Xolmuminov D.E. Mustaqil ta'limni sharq mutafakkirlarining qarashlari asosida tashkil qilish // Евразийский журнал технологий и инноваций. –Toshkent, 2023. – Т. 1. – №. 5. – 222 б.
6. Панцева Е. Ю., Викторова Ш. Т., Анатольева Т. О., Юрьевич К. С. Организация самостоятельной работы в военном вузе использованием электронных образовательных ресурсов // Мир науки. Педагогика и психология. – Москва, 2016. – Т. 4. – №. 5. – 278 с.
7. Старикова Г. П. Электронные образовательные ресурсы как средство повышения квалификации педагогов // ББК 74.202 (2 Рос–4 Ки) И88. – Москва, 2019. – 334 с.

TASODIFIY PARAMETRIK QO'ZG'ALISHLARDA TEBRANISHLARDAN HIMOYALANUVCHI STERJENNING DINAMIKASI

Xodjabekov M.U.^{1,2}, Otaqulov A.A.³, Yuldosheva Z.S.⁴

^{1,3,4}Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Lolazor ko'chasi 70 uy, 140147, Samarqand, O'zbekiston; uzedu@inbox.ru, yuldoshovazarnigor30@gmail.com

²Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, Vag'ashti MFY 13 uy, 141602, Urgut sh., O'zbekiston; Telefon raqam: +998937033332, +998939919528, +998974069200 azamat.otaqulov.1991@mail.ru.

Annotatsiya: Ushbu ishda tasodifiy parametrik qo'zg'alishlar ta'siridagi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjening suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi chiziqlimas tebranishlari dinamikasi o'rganish masalasi qaralgan. Bunda stoxastik o'rtalashtirish usulidan foydalangan holda harakat differensial tenglamalar sistemasi Ito tenglamalar sistemasi ko'rinishiga keltirilgan.

Kalit so'zlar: differensial tenglama, Ito tenglamalari, o'rtacha kvadratik qiymat, tebranish.

Аннотация: В работе рассматривается вопрос исследования динамики нелинейных колебаний упруго-диссипативной системы рулевого управления гистерезисного типа с жидкостным динамическим гасителем под действием случайных параметрических возбуждений. В этом случае система дифференциальных уравнений движения с использованием метода стохастического осреднения представляется как система уравнений Ито.

Ключевые слова: дифференциальное уравнение, уравнения Ито, среднееквадратическое значение, вибрация.

Abstract: In this work, the issue of studying the dynamics of nonlinear vibrations of a hysteresis-type elastic dissipative characteristic steering system with a liquid section dynamic absorber under the influence of random parametric excitations is considered. In this case, the system of differential equations of motion using the stochastic averaging method is represented as a system of Ito equations.

Key words: differential equation, Ito equations, mean square value, vibration.

Kirish. Zamonaviy texnika va texnologiyalarda qo'llanilayotgan turli qo'zg'alishlar ta'siridagi mexanik sistemalarning gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikalarini hisobga olgan holda ularni zararli tebranishlardan himoyalash, dinamikasini o'rganish va ustuvorligini tekshirish masalalari dolzarb masalalardan hisoblanadi. Hozirda mexanik sistemalarni matematik modellashirish, dinamikasini o'rganish va ustuvorligini tekshirish bo'yicha ko'plab nazariy va eksperimental tadqiqotlar ishlari etarli darajada olib borilgan. SHunga qaramasdan mexanik sistemalarning gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikalarini hisobga olgan holda tadqiqot usullarini takomillashtirish va jarayonda sodir bo'ladigan yangi mexanik effektlarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjuddir.

Material va Metodlar. Ushbu ishda tasodifiy parametrik qo'zg'alishlar ta'siridagi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjening suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlari dinamikasini o'rganish masalasi qaralgan.

Qaralayotgan tebranishlardan himoyalانuvchi sterjening harakat differensial tenglamalari quyidagicha bo'ladi:

$$A\ddot{Q} + B\dot{Q} + CQ = F, \quad (1)$$

bu erda

$$\ddot{Q} = \begin{bmatrix} \ddot{q}_{i^*} \\ \ddot{q}_3 \\ \ddot{q}_4 \end{bmatrix}; \dot{Q} = \begin{bmatrix} \dot{q}_{i^*} \\ \dot{q}_3 \\ \dot{q}_4 \end{bmatrix}; Q = \begin{bmatrix} q_{i^*} \\ q_3 \\ q_4 \end{bmatrix}; F = \begin{bmatrix} u_i(0)F_L + u_i(L)F_R \\ 0 \\ 0 \end{bmatrix};$$

$$A = \begin{bmatrix} m_i & 0 & 0 \\ (m_{13} + m_{2^*})u_i(x_1) & m_{13} + m_{2^*} & m_{2^*} + m_v \\ (m_{2^*} - m_v)u_i(x_1) & m_{2^*} - m_v & m_{2^*} + m_{4^*} \end{bmatrix};$$

$$B = \begin{bmatrix} 0 & -u_i(x_1)b_f & 0 \\ 0 & b_f & 0 \\ 0 & 0 & b_s \end{bmatrix}; C = \begin{bmatrix} c_i & -u_i(x_1)c_{1^*} & 0 \\ 0 & c_{1^*} & 0 \\ 0 & 0 & 2c_{2^*} \end{bmatrix};$$

q_{i^*} - sterjening i - nuqtasining ko'chishlari; q_3 - suyuqlikni o'rab turgan suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgich kobig'ining ko'chishi; q_4 - suyuqlik ichida turgan suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgich qattiq jismining ko'chishi; $u_i(0)$, $u_i(L)$ va $u_i(x_1)$ - mos ravishda sterjen xususiy tebranish formalarining sterjen chap, o'ng uchlaridagi va suyuqlik bo'g'inli dinamik so'ndirgich o'rnatilgan nuqtalardagi qiymatlari; F_L va F_R - mos ravishda sterjen chap va o'ng uchlariga qo'yilgan tashqi kuchlar; m_i va c_i - mos ravishda modal massa va bikrlilik; $m_{13} = m_{1^*} + m_{3^*}$; m_{1^*} - suyuqlikni o'rab turgan jismning inert o'lchovi; m_{2^*} - suyuqlik o'rab turgan jismning inert o'lchovi (massa); m_{3^*} - suyuqlikning inert o'lchovi; m_{4^*} - m_{2^*} massali jismga yopishgan suyuqlikning inert o'lchovi (massa); m_v - suyuqlik o'rab turgan jismning tomonidan siqib chiqarilgan suyuqlikning inert o'lchovi; b_s , b_f - qovushqoqlik koeffitsientlari; c_{1^*} va c_{2^*} - bikrlilik koeffitsientlari.

Ma'lumki parametrik qo'zg'alishlar mexanik sistemalarga to'g'ridan-to'g'ri kuch ta'sir qilgandagidan farq qiladi, chunki bunda tebranishlar qonuniyatiga tashqi ta'sir parametrning modulatsiyasi sifatida kiradi [1, 2]. SHuni hisobga olib qaralayotgan sistemaga ta'sir etayotgan kuchlar ifodalarini quyidagicha yozamiz:

$$F_L = F_R = m_i W_0 = -m_i \omega_m^2 \xi_0(t) q_i(t), \quad (2)$$

bu erda W_0 - asos tezlanishi; ω_m - xususiy chastota; $\xi_0(t)$ stasionar normal tasodifiy jarayonni ifodalaydi va o'lchovsiz hisoblanadi.

$\xi_0(t)$ stasionar normal tasodifiy jarayon bo'lganligi sababli uning matematik kutilmasi nol qiymatga ega bo'ladi, ya'ni $\langle \xi_0(t) \rangle = 0$.

(2) kuchlar ifodasini (1) differensial tenglamalar sistemasiga qo'ysak tasodifiy parametrik qo'zg'alishlar ta'siridagi tebranishlardan himoyalayuvchi sterjenning harakat differensial tenglamalari quyidagicha bo'ladi:

$$A\ddot{Q} + B\dot{Q} + C_*Q = 0, \quad (3)$$

bu erda

$$C_* = \begin{bmatrix} c_{*i} + m_i \omega_m^2 (u_i(0) + u_i(L)) \xi_0(t) & -u_i(x_1) c_{1*} & 0 \\ 0 & c_{1*} & 0 \\ 0 & 0 & 2c_{2*} \end{bmatrix};$$

$c_{*i} = c_{1i} + Jc_{2i}$; c_{1i} va c_{2i} statistik chiziqilashtirish koeffitsientlari [3].

(3) tenglamalar sistemasidagi o'zgaruvchilarni quyidagicha ifodalaymiz:

$$q_{i*} = \sigma_i(t) e^{j\omega t} + \xi_i(t) e^{-j\omega t};$$

$$q_3 = \sigma_{3a}(t) e^{j\omega t} + \xi_{3a}(t) e^{-j\omega t}; \quad (4)$$

$$q_4 = \sigma_{4a}(t) e^{j\omega t} + \xi_{4a}(t) e^{-j\omega t},$$

bu erda ω - sistema chastotasi; $\sigma_i(t)$, $\xi_i(t)$, $\sigma_{3a}(t)$, $\xi_{3a}(t)$, $\sigma_{4a}(t)$, $\xi_{4a}(t)$ lar sekin o'zgaruvchi funksiyalar hisoblanadi, hamda sterjen tasodifiy parametrik qo'zg'alishlarining amplitudaviy qiymati $\langle \xi_{ia}^2 \rangle = 2\sqrt{\langle \sigma_i(t) \rangle \langle \xi_i(t) \rangle}$ shartni qanoatlantiradi [1].

(4) o'zgaruvchilarni va ularning tegishli hosilalarini (3) tenglamalar sistemasiga qo'ysak, quyidagi birinchi tartibli differensial tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz:

$$\dot{\sigma}_i = \frac{1}{2jm_i\omega} \left((m_i\omega^2 - c_i)(\sigma_i + \xi_i e^{-2j\omega t}) + (c_1 + j\omega b_f)u_i(x_1)\sigma_{3a} + (c_1 - j\omega b_f)u_i(x_1)\xi_{3a} e^{-2j\omega t} + m_i\omega_m^2 (u_i(0) + u_i(L))\xi_0(t)(\sigma_i + \xi_i e^{-2j\omega t}) \right);$$

$$\dot{\xi}_i = -\frac{1}{2jm_i\omega} \left((m_i\omega^2 - c_i)(\sigma_i e^{2j\omega t} + \xi_i) + (c_1 + j\omega b_f)u_i(x_1)\sigma_{3a} e^{2j\omega t} + (c_1 - j\omega b_f)u_i(x_1)\xi_{3a} + m_i\omega_m^2 (u_i(0) + u_i(L))\xi_0(t)(\sigma_i e^{2j\omega t} + \xi_i) \right);$$

$$\dot{\sigma}_{3a} = \frac{1}{2j\Delta\omega} \left(\frac{\Delta u_i(x_1)c_i}{m_i} (\sigma_i + \xi_i e^{-2j\omega t}) + \left(\Delta\omega^2 - (c_1 + j\omega b_f)(M_4 + \frac{\Delta u_i^2(x_1)}{m_i}) \right) \sigma_{3a} + \left(\Delta\omega^2 - (c_1 - j\omega b_f)(M_4 + \frac{\Delta u_i^2(x_1)}{m_i}) \right) \xi_{3a} e^{-2j\omega t} + (2c_2 + j\omega b_s)M_2\sigma_{4a} + (2c_2 + j\omega b_s)M_2\xi_{4a} e^{-2j\omega t} - u_i(x_1)\omega_m^2 \Delta(u_i(0) + u_i(L))\xi_0(t)(\sigma_i + \xi_i e^{-2j\omega t}) \right); \quad (5)$$

$$\dot{\xi}_{3a} = -\frac{1}{2j\Delta\omega} \left(\frac{\Delta u_i(x_1)c_i}{m_i} (\sigma_i e^{2j\omega t} + \xi_i) + \left(\Delta\omega^2 - (c_1 + j\omega b_f)(M_4 + \frac{\Delta u_i^2(x_1)}{m_i}) \right) \sigma_{3a} e^{2j\omega t} + \left(\Delta\omega^2 - (c_1 - j\omega b_f)(M_4 + \frac{\Delta u_i^2(x_1)}{m_i}) \right) \xi_{3a} + (2c_2 + j\omega b_s)M_2\sigma_{4a} e^{2j\omega t} + (2c_2 + j\omega b_s)M_2\xi_{4a} - u_i(x_1)\omega_m^2 \Delta(u_i(0) + u_i(L))\xi_0(t)(\sigma_i e^{2j\omega t} + \xi_i) \right);$$

$$\dot{\sigma}_{4a} = \frac{1}{2j\Delta\omega} \left((\Delta\omega^2 - (2c_2 + j\omega b_s)M_1)\sigma_{4a} + (\Delta\omega^2 - (2c_2 - j\omega b_s)M_1)\xi_{4a} e^{-2j\omega t} + (c_1 + j\omega b_f)M_3\sigma_{3a} + (c_1 - j\omega b_f)M_3\xi_{3a} e^{-2j\omega t} \right);$$

$$\dot{\xi}_{4a} = -\frac{1}{2j\Delta\omega} \left((\Delta\omega^2 - (2c_2 + j\omega b_s)M_1)\sigma_{4a} e^{2j\omega t} + (\Delta\omega^2 - (2c_2 - j\omega b_s)M_1)\xi_{4a} + (c_1 + j\omega b_f)M_3\sigma_{3a} e^{2j\omega t} + (c_1 - j\omega b_f)M_3\xi_{3a} \right),$$

bu erda $M_1 = m_{13} + m_{2*}$; $M_2 = m_{2*} + m_v$; $M_3 = m_{2*} - m_v$; $M_4 = m_{2*} + m_{4*}$; $\Delta = M_1M_4 - M_2M_3$.

Stoxastik jarayonlarda (5) tenglamalar sistemasining o'zgaruvchilari Ito tenglamalarini qanoatlantiradi. Shu sababli stoxastik o'rtalashtirish usulidan foydalangan holda (5) tenglamalar sistemasini Ito tenglamalar sistemasiga keltiramiz.

$$\dot{X}_s(t) = f_s(X, t) + \sum_{r=1}^6 G_{sr}(X, t)\xi_{0r}(t), \quad (s = 1, \dots, 6) \quad (6)$$

bu erda $X_1 = \sigma_i, X_2 = \xi_i, X_3 = \sigma_{3a}, X_4 = \xi_{3a}, X_5 = \sigma_{4a}, X_6 = \xi_{4a}$,

$$f_1(X, t) = l_1\sigma_i + l_2\sigma_{3a} + l_3\xi_i e^{-2j\omega t} + l_4\xi_{3a} e^{-2j\omega t};$$

$$f_2(X, t) = -l_1\sigma_i e^{2j\omega t} - l_2\sigma_{3a} e^{2j\omega t} - l_3\xi_i - l_4\xi_{3a};$$

$$f_3(X, t) = l_6\sigma_{3a} + l_7\sigma_{4a} + l_8\xi_{3a} e^{-2j\omega t} + l_9\xi_{4a} e^{-2j\omega t} + l_{10}\sigma_i + l_{11}\xi_i e^{-2j\omega t};$$

$$f_4(X, t) = -(l_6\sigma_{3a} e^{2j\omega t} + l_7\sigma_{4a} e^{2j\omega t} + l_8\xi_{3a} + l_9\xi_{4a} + l_{10}\sigma_i e^{2j\omega t} + l_{11}\xi_i);$$

$$f_5(X, t) = l_{12}\sigma_{4a} + l_{14}\xi_{4a} e^{-2j\omega t} + l_{15}\sigma_{3a} + l_{16}\xi_{3a} e^{-2j\omega t};$$

$$f_6(X, t) = -l_{12}\sigma_{4a} e^{2j\omega t} - l_{14}\xi_{4a} - l_{15}\sigma_{3a} e^{2j\omega t} - l_{16}\xi_{3a};$$

$$s \neq r, G_{sr}(X, t) = 0; G_{11}(X, t) = l_5(\sigma_i + \xi_i e^{-2j\omega t});$$

$$G_{22}(X, t) = -l_5(\sigma_i e^{2j\omega t} + \xi_i); G_{33}(X, t) = u_i(x_1)l_{12}(\sigma_i + \xi_i e^{-2j\omega t});$$

$$G_{44}(X, t) = -u_i(x_1)l_{12}(\sigma_i e^{2j\omega t} + \xi_i); G_{55}(X, t) = 0, G_{66}(X, t) = 0, \xi_{0r}(t) = \xi_0(t);$$

$$l_1 = l_3 = \frac{m_i\omega^2 - c_i}{2jm_i\omega}; l_2 = \frac{(c_1 + j\omega b_f)u_i(x_1)}{2jm_i\omega}; l_4 = \frac{(c_1 - j\omega b_f)u_i(x_1)}{2jm_i\omega};$$

$$l_5 = \frac{\omega_m^2(u_i(0) + u_i(L))}{2j\omega}; l_6 = \frac{\Delta\omega^2 - (c_1 + j\omega b_f)\left(M_4 + \frac{\Delta u_i^2(x_1)}{m_i}\right)}{2j\Delta\omega};$$

$$l_7 = \frac{(2c_2 + j\omega b_s)M_2}{2j\Delta\omega}; l_8 = \frac{\Delta\omega^2 - (c_1 - j\omega b_f)\left(M_4 + \frac{\Delta u_i^2(x_1)}{m_i}\right)}{2j\Delta\omega};$$

$$l_9 = \frac{(2c_2 - j\omega b_s)M_2}{2j\Delta\omega}; l_{10} = l_{11} = \frac{u_i(x_1)c_i}{2j\omega m_i};$$

$$l_{12} = -\frac{\omega_m^2(u_i(0) + u_i(L))}{2j\omega}; l_{13} = \frac{\Delta\omega^2 - (2c_2 + j\omega b_s)M_1}{2j\Delta\omega};$$

$$l_{14} = \frac{\Delta\omega^2 - (2c_2 - j\omega b_s)M_1}{2j\Delta\omega}; l_{15} = \frac{(c_1 + j\omega b_f)M_3}{2j\Delta\omega}; l_{16} = \frac{(c_1 - j\omega b_f)M_3}{2j\Delta\omega}.$$

Olingan (6) differensial tenglamalar qaralayotgan sistema dinamikasini o'rganish imkonini beradi.

Xulosa.

Tasodifiy parametrik qo'zg'alishlar ta'siridagi tebranishlardan himoyalalanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen tebranishlari dinamikasini tahlil qilish uchun Ito differensial tenglamalari hosil qilindi. Ular tebranishlardan himoyalalanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen tebranishlarining o'rta kvadratik qiymatlarini aniqlash va dinamikasini tekshirish imkonini berishi ko'rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- [1] Pavlovskii M.A., Ryzhkov L.M. Random parametric oscillations of elastic systems with hysteresis energy dissipation. Journal of applied mechanics. Volume 26, 1991, p.95-10
- [2] Champneys A. (2013) Dynamics of Parametric Excitation. In: Meyers R. (eds) Encyclopedia of Complexity and Systems Science. Springer, New York, NY. https://doi.org/10.1007/978-3-642-27737-5_144-3
- [3] Павловский М.А., Рыжков Л.М., Яковенко В.Б., Дусматов О.М. Нелинейные задачи динамики виброзащитных систем. – К.: Технике, 1997. – с. 204.

SURXONDARYO BOTIG'I LANDSHAFTLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

¹Yarashev Q.S., ²Xasanov P.A.-

¹- SamDU Uf direktori, g.f.d., dots.

²-SamDU, geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tarmoqlarining jadal rivojlantirilishi mazkur sohada bir qator o'zgarish va o'sishga olib kelmoqda. Surxondaryo viloyati yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishning yangi uslublarini joriy etish va yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini aniqlash, ularning yechimini topish, ushbu yo'nalishdagi mavjud imkoniyatlar va istiqbollarni belgilab olish kabi asosiy vazifalar qo'yilgan.

Kalit so'zlar. qishloq xo'jaligi, landshaft, elektron xaritalar, geoaxborot tizimi.

Абстрактный. Бурное развитие сельскохозяйственной отрасли в нашей стране приводит к ряду изменений и росту в этой сфере. Ставятся основные задачи по внедрению новых способов использования земельных ресурсов Сурхандарьинской области в сельском хозяйстве и выявлению проблем повышения эффективности землепользования, поиску их решения, а также определению имеющихся возможностей и перспектив в этом направлении.

Ключевые слова. сельское хозяйство, ландшафт, электронные карты, геоинформационная система.

Abstract. *The rapid development of agricultural sectors in our country is leading to a number of changes and growth in this field. The main tasks of introducing new ways of using land resources of Surkhandarya region in agriculture and identifying the problems of increasing the efficiency of land use, finding their solutions, and determining the available opportunities and prospects in this direction are set.*

Key words. *agriculture, landscape, electronic maps, geoinformation system.*

Kirish. Qishloq xo'jaligi landshaftlarining ilk ko'rinishlari sayyoramizda qadimdan insonning dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishi hisobiga hosil bo'la boshlagan. Bugungi kunda agrolandshaftlar quruqlikning 35 % maydonini egallagan holda dehqonchilikda foydalaniladigan yerlar 20 mln. km² dan ortiq maydonni ishg'ol qiladi va bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekistonda 4.3 mln ga yerdan qishloq xo'jaligida foydalanilmoqda. Landshaftlarda kichik bir qismini o'zgarishga uchrashi landshaft qobig'ining ham o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Chunki, landshaftlar – tabiiy resurslar mavjud va resurslar qayta tiklanishi mumkin bo'lgan hamda genofond saqlanadigan tabiiy sistemadir.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanish tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish bo'yicha zarur chora tadbirlar, tadqiqotlar o'tkazilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-son Farmonida ko'rsatib o'tilganidek, hozirda qishloq xo'jaligida 3.2 mln ga sug'oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanilib, aholi ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur hom ashyo yetishtirilmoqda [1].

Asosiy qism. Hozirgi kunga kelib jahonda ro'y berayotgan bir qator global muammolarning oldini olishda qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanish va ularni monitoring qilishda elektron xaritalarning ahamiyati katta hisoblanadi. Elektron raqamli xaritalar va yer maydonlarini yer turlari bo'yicha hisoblash qaydnomalaridan davlat yer kadastrini yuritish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzishda hududiy xo'jaliklararo loyihalar tuzish, tabiiy landshaftlarni yaxshilash, topografo-geodezik, kartografiya, tuproq agrokimyosi, geobotanika, qishloq xo'jaligi ekinlarining monitoringi, yer tanlash va ajratish hujjatlarini rasmiylashtirish, irrigatsiya va melioratsiya, tarixiy-ma'daniy va boshqa yo'nalishlarda tekshirishlar va izlanishlar ishlarini olib borishda foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligi landshaftlarining takomillashuvi asosida kechadigan tabiat bilan "sun'iy" aloqalarning tezlashuvi ta'siri ortgani sayin, ba'zi holatlarda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar keskinlashuvini oldini olish, tabiiy muhitga bezarar zamonaviy ilg'or texnologiyalardan foydalanish zarurati paydo bo'ladi. Yurtimizda ham qishloq xo'jaligi va uning barcha tarmoqlarida innovatsion texnologiyalar qamrovi yo'lga qo'yilmoqda. Xususan Surxondaryo botig'i agrolandshaftlarida ham bir qator amaliy ishlar olib borilib, tabiiy landshaftlarni o'rni inson omili asosida o'zlashtirilgan qishloq xo'jalik landshaftlarining holati birmuncha ahamiyatga molik hisoblanadi [5,9]. Chunki viloyatda issiqsevar ekinlarga mo'ljallangan sharoitga juda qulayligi, qishloq xo'jaligi landshaftlarini chuqur o'rganishga zarurat tug'diradi. Viloyatda jami 277877 ga yer qishloq xo'jalik yerlari mavjud bo'lib, hozirgi kunda agroiqlimiy resurslarni hisobga olgan holda ish olib borilmoqda.

Viloyat tekislik qismi hududida cho'l zonasiga xos tabiiy sharoit kuzatilib iqlimning issiq, quruq, seroftob bo'lganligidan tuproq hosil bo'lish jarayoni sust kechadi. Yoz qurg'oqchil, harorat yuqori bo'lganligidan mumkin bo'lgan bug'lanish yog'inga nisbatan 15-20 marotaba ortiq tuproq tarkibida har xil tuzlar to'planib tuproqning sho'rlanishiga sabab bo'ladi. Hududining yer osti suvlari nisbatan chuqur joylashgan tekisliklarida tog' oldi tekisliklari va adirlarda bo'z, tog'larida jigar rang, qo'ng'ir, tog'-o'rmon kabi avtomorf tuproqlar tarqalgan. Aksincha, yer osti suvlari yuzaga yaqin bo'lgan joylarda gidromorfli tuproqlar – o'tloq, botqoq, botqoq-o'tloq kabi tuproqlar uchraydi [5] Geoaxborot tizimi texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida u nafaqat texnik sohalarda, balki hayotimizning turli sohalarida ham qo'llanilib kelinmoqda.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi yerlarining elektron xaritalarini yangilashda zamonaviy GAT texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bugungi kunda elektron xaritalarni yaratish va ularni yangilash bo'yicha sohaga kirib kelayotgan yangicha ilg'or texnologiyalar, jumladan yuqori aniqlikka ega bo'lgan kosmosuratlar, elektron raqamli xaritalarni yaratish bo'yicha zamonaviy dasturiy ta'minotlarga asoslangan holda elektron raqamli xaritalarni yaratish va yangilash ishlari olib borilmoqda [2,5,7].

Agrolandshaftlarni elektron raqamlashtirilgan texnologiyalar asosida o'rganish nafaqat Surxondaryo botig'i bo'ylab, balki O'zbekiston hududi uchun ham xarakterlidir. Hududning qishloq xo'jaligi qadimdan an'anaviy tarzda - sug'orma dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik va chorvachilik yo'nalishlarida rivojlangan hamda tabiiy landshaftlarning "antropogenlashuvi" jadal sur'atlarda kechmoqda. Viloyatda qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni – 276399 ga, ekin maydonlari esa – 237471 ga ni tashkil qiladi. Bundan tashqari 29 ta agroklastlar va ularda turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan 5698 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda [11]. Surxondaryo viloyatining 2023 - yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmi 33 655 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni tashkil qilgan. Respublika bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida mazkur hududning ulushi 7,9 % ni tashkil etgan [10,11,12].

Landshaftlarning har bir komponentini alohida analitik elektron xaritalarni ishlab chiqish, prognozlash, doimo aniqlikka ega bo'lgan holda yangilab turish kabi maqsadlarni bajarish lozim bo'ladi. Demak har bitta komponentning xulosaviy elektron xaritasi **GAT texnologiyalari asosida** ishlab chiqilsa, hamda sintetik metod asosida xarita umumlashtirilganda bunday tabiiy ishlar soha rivoji uchun, qishloq xo'jaligida foydasi nihoyatda katta. Inson xo'jalik faoliyati tufayli tabiatga ta'sir ortib borarkan, antropogen ta'sir ham ortib boradi. Landshaftlarning o'zgarish darajasi ko'rsatkichi antropogen ta'sirning kattakichikligi, ularning tabiiy xususiyatlari,

morfologik shakllari kabilar bilan bog‘liq hisoblanadi. Aholi sonining ko‘payishi va ishlab chiqarish texnikalarining takomillashishi sababli uning roli ortib boradi.

Qishloq xo‘jalik sohasidagi asosiy maqsad bu albatta ko‘p va mo‘l hosil olish hisoblanadi. Shu maqsad yo‘lida landshaftni o‘zgartiradi. O‘zgarishlar qatoriga yerni haydash, o‘g‘itlash, ekin ekish, sug‘orish, begona o‘tlardan tozalash, gerbitsed va pestitsedlardan foydalanish, zaxni qochirish va hokazo. Bunday jarayon yillar davomida qaytalanaveradi. **GAT texnologiyalari asosida** kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki obikor yerlarda agrolandshaftlarning holati muvozanatli emas, chunki ba‘zi hududlardagi landshaftlar qishloq xo‘jaligining ma‘lum bir tarmog‘i uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Sug‘orma dehqonchilikning inson hisobga olmagan hodisa hamda jarayonlarni boshlab beradi masalan, yer osti suvlari sathi ko‘tarilishi, dalalardan qaytgan oqova suvlarning tarkibida mineral tuzlarning ortishi, ikkilamchi sho‘rlanish, irrigatsiya eroziyasi va b. ni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababdan ham antropogen rivojlanish bosqichida yuzaga keluvchi qaramaqarshiliklarni oldini olish yoki juda bo‘lmaganda ularning ko‘lamini kamaytirish uchun landshaftlarning tashqi ta‘sir kuchlariga nisbatan barqarorligini aniqlash kerak bo‘ladi [2,4,6].

1-jadval

Surxondaryo viloyati yer fondi umumiy ma‘lumotlari

Tarmoq va yo‘nalishlar nomi	O‘lchov birligi	Miqdori
Jami yer maydoni	gektar	2009911
Shundan:		
Qishloq xo‘jaligi yerlari	gektar	277877
Sug‘oriladigan ekin yerlari	gektar	238394
Lalmi ekin yerlar	gektar	39483
Tomorqa yerlari	gektar	63195
Ko‘p yillik daraxtzorlar	gektar	34215
Yaylovlar	gektar	824565
Bo‘z yerlar	gektar	292
O‘rmonzorlar	gektar	233283
Manba: <i>Surxonstat.uz</i> ma‘lumotlari asosida tuzildi.		

Bugungi kunda yer yuzining barcha katta – kichik hududlarida tarqalgan landshaftlar antropogen ta‘sirga bevosita yoki bilvosita muayyan darajada uchragan. Quruqlik yuzining deyarli 70 % dan ortiq maydonida tabiiy landshaftlar insonning ta‘siri ostida qisman yoki to‘liq o‘zgartirilgan.

Landshaftlarni ilmiy-texnika taraqqiyotiga mutanosib tarzda ularning yangicha shakllari paydo bo‘lmoqda (*qishloq xo‘jaligi, sanoat, rekreatsion, aholi manzilgohlari landshaftlari va b.*). Hozirgi davrda yer yuzida antropogen landshaftlar orasida eng katta ulushga ega maydonni tabiiy hamda qishloq xo‘jalik bloklari, ya‘ni geosistemalar - qishloq xo‘jalik landshaftlari tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish kuchlari, vositalari kabilarni qamrab olgan va mehnat predmeti bo‘lgan agrolandshaft: ishlab chiqarish kuchlari bilan tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar rivojlanishining mahsulidir [3,5,8]. Agrolandshaft antropogen landshaftning bir turi hisoblanib, insonning qishloq xo‘jalikdagi faoliyati orqali rivojlanadi. Agrolandshaft muayyan ko‘rinish va tuzilmaga ega bo‘lgan, o‘zaro ta‘sirdagi tabiiy komponentlar majmuasidan, va shuningdek qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tizim elementlaridan iborat murakkab uyushgan ko‘p o‘lchamli antropogen geosistemadir.

Binobarin, agrolandshaft tuzilmasida hudud uyushuvidan va dehqonchilik tizimidan shakllangan uning elementlari ifodasini topishi lozim.

Jamiyatda aholi qishloq xo‘jalik faoliyati, yer resurslaridan foydalanish sharoitlari xilma-xil hisoblanadi. Bunga misol qilib lalmikor yerlarning agrolandshaftlari, bog‘lar va tokzorlarning agrolandshaftlari, obikor yerlarning agrolandshaftlari va hokazolarni aytishimiz mumkin. O‘rta Osiyoning qurg‘oqchil, kontinental iqlim sharoitlarida obikor dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik, yaylovlar, yemhashak unadigan o‘tloqlar va xar xil turdagi bog‘larning agrolandshaftlar areali uchraydi [7,9].

Qishloq xo‘jaligida landshaft tadqiqotlari asosida ish yuritish, regional va mahalliy landshaft tadqiqotlarini kengaytirish zaruriyatini kun tartibiga qo‘yishni taqozo etadi, hamda landshaftlarning kartalashtirilishini, ayniqsa qishloq xo‘jalik kartalarini takomillashtirishni taqozo etadi. Binobarin O‘zbekiston Respublikasi hududida ham qishloq xo‘jaligining ilk shakllari bundan qariyb besh ming yilga borib taqalishini hisobga olinsa shu davrlardan buyon tabiiy landshaftlarimiz ozmi ko‘pmi o‘zgartirila boshlangan. XX asrning boshlarida yurtimiz hududi, jumladan Surxondaryo viloyati hududining tabiati, tabiiy resurslari to‘g‘risida ham ma‘lumotlar ko‘plab ilmiy ekspeditsiyalar davomida to‘plangan bo‘lib, 1930-1940 yillarda olib borilgan ekspeditsiyalarning xulosaviy natijasi har qanday xalq xo‘jalik masalalari landshaft tadqiqot usullari yordamida aniqlansa samarali ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Ayni shu davrlardan boshlab O‘zbekiston hududining cho‘l qismlari o‘rganilib yangi ekin yerlari ochila boshlandi. Jumladan viloyat hududining ham katta maydonlari o‘zlashtirildi va qishloq xo‘jaligi landshaftlariga aylantirildi. Tabiiy landshaftlarning o‘zlashtirilishi hisobiga so‘ngi yillarda qishloq xo‘jaligi yerlarining degradasiyaga uchrash hollari ham uchramoqda. Sho‘rlangan yerlarning ham ko‘lami kengayib borayotganligini, bu esa qishloq xo‘jaligida hosildorlikning birmuncha kamayishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekistonning juda ko‘plab “yangi” hududlarining o‘zlashtirilishi paxtachilik va dehqonchilikni rivojlantirish uchun, tog‘oldi va tog‘li hududlarda keng maydonlarning

o'zlashtirilishi o'rmon xo'jaligini jadal rivojlantirish, bog' va uzumzorlar yetishtirish uchun sharoit yaratish kabi ishlar amalga oshirilgan.

Xulosa. Intensiv qishloq xo'jaligiga o'tishda suvni tejovchi, raqamlashgan tomchilatib sug'orish texnologiyalariga asoslangan ishlar samaradorligini oshirish choralarini hayotga tadbiiq qilish hamda xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki qishloq xo'jaligini rivojlantirishda – elektron xaritalar, raqamlashtirilgan tizimga asoslangan qurilmalar, lazer asosida tuproq tekislash, grunt suvlarini muntazam kuzatish ishlari, zamonaviy meteostansiyalar va boshqa shu kabi yangi ilg'or texnologiyalar qishloq xo'jaligi rivojlanishi uchun katta xissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-son Farmoni.
- 2) Abdulqosimov A., Yarashev K., Meliyev B. Landshaft komplekslarini kartalashtirishning dolzarb muammolari // Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. 1-son (95). – Samarqand, 2016. 100-104 b.
- 3) A.R. Bobojonov, D.E. Haqberdiyev, M.X. Sulaymonova "Landshaftli yer tuzish" o'quv qo'llanma. Toshkent 2019.
- 4) Ярашев Қ.С. Сурхондарё ботиғи геоекологик ҳолатини оптималлаштиришнинг географик асослари // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 51- жилд. - Самарқанд. 2017. Б. 63-67.
- 5) Ярашев Қ.С., Эшқувватов Б. Парагенетик ландшафт комплекслари ва уларни ГИС ёрдамида карталаштириш масалалари (Сурхондарё ботиғи мисолида) //Ўзбекистонда географиянинг долзарб муаммолари. Самарқанд, 2009. –Б. 46-49.
- 6) "Surxondaryo geografiyasi" Abdunazarov H.M., Umarova M.H. o'quv qo'llanma. Termiz – 2023. TerDU NNM nashriyoti.
- 7) Khasanov P. "Landshaftlarning shakllanishida tuproqlarning o'rni (Surxondaryo viloyati misolida)" "Экономика и социум" №5(120)-2 2024 www.iupr.ru
- 8) Khasanov P. "Formation agricultural landscapes in Surkhandarya region ". "Экономика и социум" №12(115) 2023 www.iupr.ru
- 9) Khasanov P. "History of antropogenic modification of natural landscapes and study of agrolandscape". Экономика социум 12-(115) 20.12.2023. www.iupr.ru
- 10) www.agro.uz
- 11) www.surxonstat.uz
- 12) www.Lex.uz



ZAMBURUG'LARNING TUZILISHI VA UMUMIY XUSUSIYATLARI

G'ulomova N.

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

Annotatsiya. Zamburug'larning xilma-xilligi borasida hanuzgacha bilimlarimiz chegaralangan bo'lib, ularning tur soni haqida 2017-yilgi ma'lumotda 2,2 mln dan 3,8 mln gacha yetishi mumkinligi aytiladi. Hozirgacha ularning atigi 120 000 turi tavsiflangan bo'lib, ularning 8000 dan ortiq turi o'simliklarga, 300 ga yaqin turi esa odamlarda turli xilda patogen xususiyatlarini namoyon qilishi aniqlangan.

